OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TO‘PLAMI



“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” *mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami // Toshkent, 2025-yil 18-dekabr. – 994 b.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2025-yil 22-yanvar kuni Oliy ta’lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda berilgan 5-son topshiriqlar bayonining 15-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 13-oktabrdagi 190-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’limlash maqsadida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida **2025-yil 18-dekabr** kuni **“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Konferensiyada Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar kontekstida yoshlar ma’naviyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media makon va ma’naviy xavfsizlik, ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari, milliy va diniy qadriyatlar, fuqarolik identiteti hamda ijtimoiy faollik kabi masalalarga bag‘ishlangan maqolalar jamlangan.

Tahrir hay’ati:

Utamuradov Akbar - falsafa fanlari nomzodi, professor;
Yusubov Jaloliddin - falsafa fanlari doktori (DSc), professor v.b.;
Aytbayev Mansur - falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent;
Xudaynazarov Samad - falsafa fanlari nomzodi, dotsent;
Yusubov Jamshid - siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Sultonov Sirojbek – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Abdullayev Ibadulla - falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Shaporov O‘lmas - O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

© Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent.

MEDIA MADANIYATINING FUNKSIYALARI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Abdiyeva Dilshoda Olim qizi
O‘zMU “Pedagogik ta’lim” kafedrasi tadqiqotchisi

Hozirgi kunda odamlar media vositachiligi orqali bilim olayotganligini kuzatish mumkin. Axborot texnologiyalari kasb-hunar madaniyati va etikasiga ham ta’sir qilmoqda: mass mediada doimiy ravishda yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lish barobarida turli sohalarda axborotni boshqarish ahamiyati ham ortib bormoqda. Bu turdagi o‘zgarishlar media madaniyatining o‘ziga xos funksiyalarini o‘rganish dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mediamadaniyati fenomeni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida fanlararo yondashishni talab etadi va fanlarning hususiyatidan kelib chiqib berilgan madaniyat funksiyalarining tasnifi oltidan o‘n to‘rtgacha o‘zgaradi. Biz faqat media madaniyatini tavsiflovchi, uni ijtimoiy modernizatsiyaning muhim omiliga aylantiradigan ayrim funksiyalarini alohida ajratib ko‘rsatmoqchimiz.

Informativ funksiya. Birinchi o‘rinda, shubhasiz, informativ funksiya turadi, negaki, media madaniyati – bu axborot almashish jarayonining o‘ziga xos turi. Media madaniyati axborot va kommunikatsiya vositalarining majmuasi bo‘lgani uchun, biz ijtimoiy axborot bilan munosabatda bo‘lamiz. Oxirgi o‘n yillikda media madaniyatining axborot funksiyasi kompyuter texnologiyalari, shu jumladan xotira va axborotni qayta ishlash dasturlari tufayli rivojlandi va kuchaydi.

Misol tariqasida, O‘zbekiston madaniyati va san’ati yodgorliklari haqidagi ko‘p yillik ilmiy izlanishlarga hamda xorijiy kutubxonalarda, muzey va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan ma’lumotlarga bag‘ishlagan “O‘zbekiston madaniy merosi dunyo kolleksiyalarida” nomli multimediya loyihasini keltirish mumkin. Madaniy merosning ushbu qismining ma’nosini chuquroq tushunish va san’at tarixini boyitish maqsadida loyiha tashkilotchilari madaniy kolleksiyalar yoki yodgorliklarga oid tegishli ilmiy izlanishlar olib borgan dunyoning yetakchi olimlarini, mintaqamiz madaniyatini o‘rganayotgan mutaxassislarni jalb etdi.

“O‘zbekiston madaniy merosi dunyo kolleksiyalarida” loyihasi multimediali loyiha bo‘lgani uchun olimlarning ma’ruzalari videoga yozib olindi. Ushbu ma’ruzalar “YouTube kanalining video-lektoriya” rukniga joylashtirilgan va video arxivi shakllantirilgan. Mazkur video-ma’ruzalar ta’lim bazasiga qo‘shilgan hissa bo‘lib, ularni tashkil etishdan maqsad – xalqimizning tarixi va boy madaniyati haqidagi qimmatli ma’lumotlarni ko‘paytirish va yosh avlodga yetkazishdir”[1].

Zamonaviy media madaniyati jamiyatni axborot bilan ta’minlashni kafolatlashga oid muhim vazifani bajaradi. Shu bilan birga, media madaniyatining axborot komponentini semiotik kontekstdan tashqarida tasavvur qilish qiyin. Shunga asoslanib, biz quyidagi ta’rifni shakllantirishimiz mumkin: media madaniyat – bu odamlar yaratgan ramziy vositalar yordamida jamiyatda saqlanadigan va to‘planadigan ijtimoiy axborotdir.

Kommunikativ funksiya – informativ funksiya bilan uzviy bog‘liq va qator tadqiqotchilar ularni bir qatorga qo‘yishi tasodif emas. U madaniy ma’lumotlar almashinuvi uchun zarur bo‘lgan, o‘z navbatida, doimiy madaniy muloqotni talab etuvchi funsiyadir. Kommunikatsiyaning shaklan va mazmunan takomillashishi insoniyat tafakkur tarzining rivoji bilan bog‘liq.

Bosma (yozma) madaniyat odamlarga davrlar va olis masofalarni bosib o‘tib, vaqt va makonda muloqot qilish uchun keng imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda ham ilmiy, ham kundalik muloqotda juda keng tarqalgan media madaniyatining ta’riflaridan biri bu – ommaviy kommunikatsiya vositasi (OMK) bo‘lib, u bosma, vizual va audiovizual vositalarning ancha keng tizimini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda OMKni rivojlantirishning eng kuchli vositasi – bu butun dunyoni bir zumda qamrab oladigan va har qanday axborot manbasi bilan tezkor aloqada bo‘lish imkoniyatini beradigan kompyuter va internetdir.

Shu bilan birga, ekspertlar axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq “kompyuter vasvasasi”ning tobora kuchayib borayotganini qayd etishmoqda. “Kompyuterga tobelik” tushunchasi bevosita kommunikatsiya texnikasining rivojlanishi bilan bog‘liq holda XX asrning 90-yillarida paydo bo‘ldi. “Kompyuterga tobelik – yaqin insonlari va do‘stlari davrasiga qo‘shilmaslik, jonli muloqotga bo‘lgan qiziqishning susayishi, kompyutersiz qolgan o‘smir haddan ziyod asabiylashi va tajovuzkor bo‘lishi, faqatgina kompyuter texnologiyalarga oid mavzularda suhbatlashishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bu belgilar o‘smirning faol ijtimoiy hayotdan begonalashayotganidan dalolat beradi”[2].

Normativ (mafkuraviy) funksiya yordamida shaxs tomonidan bilim, me’yorlar, ideallarni o‘zlashtirish amalga oshadi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoevning yoshlarga murojaat qilib, kitob mutolaasi hamda, zamonaviy texnologiyalar yordamida avlodlarimiz tajribasini o‘zlashtirish imkoni mavjudligiga e’tibor qaratar ekan, jumladan shunday deydi: “Surxondaryoda bo‘lganimizda Iso Termiziy bobomizning maqbarasini ziyorat qildik. Hammamiz bilamiz, bu ulug‘ alloma payg‘ambarimiz Muhammad alayxissalom to‘g‘risida kitob yozganlar. Imom Buxoriy Termiziyning ustozi bo‘lgan ekan. Ustozi vafot etganidan keyin tinimsiz yig‘lab, ko‘zi ko‘r bo‘lib, dunyodan o‘tib ketgan. Ustozga bo‘lgan mehr-muhabbatning kuchi bu Iso Termiziy hayot paytlarida ustozi Imom Buxoriy: “Siz mening shogirdim bo‘lsangiz ham men sizdan ko‘p narsa o‘rganganman, ezgulikka sadoqat, mehr-muhabbat va ustozga bo‘lgan hurmatni Sizdan o‘rgandim», deb aytgan ekanlar. Bu gaplar qaerda yozilgan? Bularning hammasi kitobda bor, lekin Internetda yo‘q-ku” [3].

Ya’ni, o‘z xalqining tarixi va madaniyati, urf-odatlari, odob-axloq qoidalari, qonunlari va konstitutsiyaviy hujjatlarini bilish – shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi muhim qadriyatdir.

Media madaniyatining rolini haddan ziyod ideallashtirish yoki uni hisobga olmaslik ilmiy mantiqqa mutlaqo ziddir. Sobiq ittifoq qulaganidan keyin bir qator mamlakatlarda vujudga kelgan ijtimoiy-madaniy inqirozning yuzaga kelishi, jinoyatchilik, giyohvandlik, odam savdosi, shafqatizlik, axloqsizlik, shaxsning marginallashuvi haddan ziyod

kuchayganligini shu bilan ham izohlash mumkin. Zeroki, uning sabablari nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatda ma’naviy madaniyatning, mafkura tanazzuli oqibati hamdir. Ommaviy kommunikatsiya vositalari ham axloqiy qadriyat va ideallarning qadrsizlanishiga sabab bo‘ldi. Media madaniyatining normativ, ya’ni mafkuraviy funksiyasining dolzarbligi va ahamiyati yuqorida qayd etilgan dalillarga asoslanadi.

Relaksatsiya (ko‘ngilochar) funksiyasi. Relaksatsiya (lotincha relaxation – bo‘shashmoq) funksiyasi shaxsning jismoniy va ruhiy jihatdan yengil tortish, ko‘ngil yozishga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq. Bunday imkoniyatni media madaniyati (ayniqsa, elektron OKV) zamonaviy odamga rang-barang ravishda bera oladi. So‘z faqat media madaniyatining ayrim turlaridan (badiiy adabiyotni o‘qish, audio yozuvlarni tinglash, kino, televizor, kompyuter o‘yinlarini ko‘rish va h.k.) bo‘sh vaqtimizda, ko‘ngil yozish yoki dam olish paytida foydalanish haqida ketmayapti. Sotsiologik tadqiqotlarda yuqorida qayd etib o‘tilgan relaksatsiya vositalari foydalanuvchining ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatishga qodir ekani isbotlangan. Yuqoridagilar media madaniyati o‘ziga xos alohida soha ekani va undan abstraktlashish mumkin emasligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarbiyaviy funksiya. Media madaniyati ko‘ngilochar vazifani o‘tashdan tashqari tarbiya va ta’lim funksiyasini ham amalga oshiradi. Ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi ishtiroki oila, maktab va do‘stlar kabi salmoqlidir. Media bizning dunyoqarashimizni kengaytiradi.

Kitoblar, gazeta va jurnallar, radio, televidenie va Internet turli xil ma’lumotlar beradi. Hozirda muammo ma’lumotlarning etishmasligida emas, balki haddan ziyod ortiqcha ekanida. Shu sababli ham axborot olish va uning qanchalar ishonchli ekanini baholash ko‘nikmalarining ahamiyati kun sayin ortib bormoqda.

Kreativ funksiya. Media madaniyatining yana bir asosiy vazifasi – dunyoni o‘rganish barobarida hayot tarzi va atrof-muhitning o‘zgartirish. Bunda olingan ma’lumotlar madaniy jihatdan jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi va axborot ijtimoiy-falsafiy jihatdan takomillashadi va uning qiziquvchanligi ortib boradi, o‘zini atrofdagi olamda idrok etish, tabiat va inson hayoti sirlari bilish istagi paydo bo‘ladi. Media madaniyati shaxsning hayotiy tajriba chegaralarini kengaytiradi, shu orqali mafkuraviy munosabatlarga, shaxsning shakllanish jarayoniga ta’sir qiladi.

Intergatsiya funksiyasi. Madaniyat xalqlarni, ijtimoiy guruhlarni, davlatlarni birlashtiradi. Madaniy merosni, milliy urf-odatlarni, tarixiy xotirani asrab-avaylash avlodlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Jahon dinlari ham madaniy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi. XX asrning oxirlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi, bu dunyodagi media madaniyatining shakllanishini yanada tezlashtirdi. Ma’lumot uzatishning raqamli usuliga asoslangan sun’iy yo‘ldoshli televidenie, tarmoq texnologiyalari axborot oqimlarini tarqatish uchun yangi inqilobiy muhitning shakllanishiga olib keldi. Milliy, mintaqaviy va mahalliy kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan internet erkin ma’lumot almashish manbaiga aylandi. Internet bir vaqtning o‘zida turli madaniyatlarning yaxlit birlashuvining kuchli vositasiga aylandi. Shu bilan birga, madaniy tafovutlar saqlanib

qolmoqda, lekin gap bu farq va xilma-xillikni yo‘q qilishda emas, balki turli xil urf-odatlarni, xalqlar bir-birini o‘zaro tushunish uchun madaniyatlarni birlashtirishdadir.

Vositachilik funksiyasi turli ijtimoiy guruhlarga bir-biri bilan muloqot qilish va aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Bu borada media madaniyatining jamiyatni boshqarish vositasi sifatidagi funksiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Negaki, ommaviy axborot vositalari jamiyatda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud idoralaridan keyin “to‘rtinchi hokimiyat” vazifasini o‘taydi.

Elvin Toffler “Hokimiyat metamorfozalari” asarida odamlarga axborotning o‘ziga xos ta’siri haqida fikr yuritar ekan, media madaniyati, boshqa madaniyat turlaridan farqli o‘laroq, aslida siyosiy va boshqaruv funksiyalarini bajarishini, ommaviy axborot vositalarining odamlarning his-tuyg‘ulari va ongiga o‘ta kuchli ta’sirini hisobga olgan holda, uni “to‘rtinchi hokimiyat” deb atashlari bejiz emasligini ta’kidlaydi. Media madaniyati – jamiyat va davlat, sotsium va hokimiyat o‘rtasida vositachi funksiyasini bajaradi. Mass-medianing vositachilik funksiyasi demokratiya va plyuralizm, siyosiy erkinlik tamoyillariga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yanada kuchaymoqda.

So‘nggi paytlarda “Instagram”, “V kontakte” kabi ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan va ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lgan zararli o‘yinlar o‘smir yoshlarni o‘z domiga tortish barobarida ularning ichki dunyosi va oiladagi tarbiyasiga o‘ta zararli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tashvishga solayotgan asosiy omil – yoshlarning real borliqni idrok etish o‘rniga virtual kompyuter dunyosida sodir bo‘layotgan soxta va puch xayollarga berilishi ehtimoli mavjudligidir.

Psixologlarning ta’kidlashicha, bola televizor yoki internetda ko‘rgan narsalarini “aynan shunday bo‘lishi kerak ekan”, degan ma’noda qabul qiladi. Virtual dunyoga bog‘lanib qolgan bolalarda internetdan olinayotgan axborotlarga bo‘lgan qaram bo‘lib qolish holatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatining susayishi kuzatilmoqda. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, internet-o‘yinlar ular ong-shuurining sog‘lom rivojlanib borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, “diniy-ekstremistik” g‘oyalar tarafdoriga aylanib qolishiga olib kelishi mumkin. Eng muhimi bolalarni kompyuter va mobil telefonlar, internet-o‘yinlariga tobe bo‘lib qolishi va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan buzg‘unchi xabar va firibgarliklardan ogoh etishda jamoat tashkilotlari va fuqarolar ishtirokini ta’minlash va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish choralarini belgilash lozim.

Bolalarni va ayniqsa o‘smir yoshlarni internet va mobil aloqa vositalaridan foydalanish madaniyatiga o‘rgatish, ularni internet tarmoqlarida tarqatilayotgan buzg‘unchi xabar va kiberfiribgarliklardan ogoh etish masalasiga alohida e’tibor qaratish muhim. O‘quv markazlarini AKT sohasidagi ekspertlar ishtirokida tashkil etish tavsiya etiladi.

Aytish joizki, Rossiya Federatsiyasida 2017 yili voyaga yetmaganlarning taxminan yarmi kiberbulling qurboniga aylangan[4]. “Cyber Security Forum 2018” deb nomlangan xalqaro kiberxavfsizlikka bag‘ishlangan forumda (CSF 2018) – 48 foiz 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘spirinlar gruming (shantaj) (ko‘rqitish) qurbonlariga aylanganlar, 46

foiz voyaga yetmaganlar agressiv ta’rifga ega bo‘lgan xatti-harakatlarning guvohlari bo‘lganlar, 44 foizi esa – agressiv ma’lumotlarni olganlar. Natijada, kiberagressorlarning asosiy motivlari bu o‘yin-kulgi (46 foiz), hokimiyatga intilish (40 foiz) va o‘zgalarga zarar keltirib, salbiy his-tuyg‘ularni to‘kib-solishdir (35 foiz). Shu hollarda faqatgina 17 foiz jabrlanuvchi voyaga yetmaganlar ota-onasiga murojaat qiladi, xolos.

Zamonaviy axborot texnologiyalari fikrlash tarziga bevosita ta’sir qiladi. Shu boisdan tegishli davlat tashkilotlari tomonidan yoshlar ongini zararli axborotlardan asrash, ularda haqqoniy va noxolis axborotlarni farqlay bilish ko‘nikamalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy dasturlar ishlab chiqish, shuningdek ota-onalar ishtirokida “Ijtimoiy tarmoqda bolalar xavfsizligi”, “Internet qurboni bo‘lib qolmang!” kabi mavzularda mashg‘ulotlar, bahs-munozaralar o‘tkazish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. “Nima sababdan ba’zi axborotlar bolalarning sog‘lig‘i va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin?”, “Farzandingizni internetga tobe bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymang!” “Farzandingizni ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta’siridan asrang!” kabi mavzularda ota-onalar uchun broshyuralar tayyorlash va tarqatish, teleko‘rsatuv va tok-shoular tashkil etish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўзбекистон маданий мероси // https://nuz.uz/kultura-i-iskusstvo/1178556-dostupny-k-prosmotru-unikalnye-videolekczii-uchenyh-posvyativshih-dolgie-gody-svoih-nauchnyh-izyskanij-izucheniyu-kultury-i-nauki-uzbekistana-po-vsemu-miru.html

2. Dahshatli kasallik: kompyuterda ishlashning xavfsiz muddati // https://www.xabar.uz/bodg

3. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017 . –B. 86.

4. РИА Новости маълумоти 22.04.2021.

O‘ZBEKISTONDA AXBOROTLARNI OLISH, QAYTA ISHLASH VA FOYDALANISH MADANIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abdiyeva Dilshoda Olim qizi
O‘zMU “Pedagogik ta’lim” kafedrasi tadqiqotchisi

O‘zbekiston yoshlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini va ularda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish masalalarini tadqiq etish jarayonida o‘rganilgan **xorijiy tajriba** shuni ko‘rsatmoqdaki, AKT va internet tarmog‘ining yoshlar rivojiga ta’sirini o‘rganish dolzarb masaladir. Yoshlarning internetdan foydalanishga bo‘lgan e’tiborining keskin ravishda ortib borishi virtual muhitni tartibga soluvchi mukammal qonunlar va dasturiy qo‘llanmalar yaratilishini talab etmoqda.

Hozirda internetdan foydalanish darajasi muttasil oshib borishi natijasida o‘smir yoshlar orasida giyohvandlik, suitsid, axloq va jamiyat qoidalariga zid xatti-harakatlar sodir etish va boshqa salbiy oqibatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi axborotlardan himoya qilish, axborot olish madaniyatini shakllantirish masalasi jahondagi har qanday davlat oldida ko‘ndalang turgan o‘ta murakkab va dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

“Ilg‘or davlatlarda axborot madaniyati (infoetika, mediaetika, mediata’lim va hokazo) alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqdi”[1].

Jahon tajribasida yoshlar uchun xavfsiz internetni yaratish, ularni global tarmoqning salbiy oqibatlaridan saqlash yuzasidan qator qonun hujjatlari qabul qilingan[2].

Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining “Raqamli taraqqiyotni o‘lchash: 2019 yil uchun faktlar va raqamlar” deb nomlangan hisobotida qayd etilishicha, sayyoramizning 53 foizdan ko‘proq aholisi yoki 4,1 mlrd kishi internetdan foydalanish imkoniga ega va bu ko‘rsatkich oshishda davom etmoqda. Hisobotda ta’kidlanishicha, 2018 yildan 2019 yilgacha internet foydalanuvchilari soni 5,3 foizga oshgan. Shu bilan birga, dunyoda 3,6 mlrd kishi internetga kirish imkoniga ega emas. Ularning aksariyati eng kam rivojlangan davlatlar fuqarolari bo‘lib, bu davlatlarda 10 kishidan 2 kishigina internetga kira oladi. Yevropada bu ko‘rsatkich eng yuqori (82,5 foiz), Afrikada esa eng past (28,2 foiz) darajada[3].

AKTning jadal rivojlanib borishi natijasida Internetdan mobil aloqa vositalari orqali foydalanish darajasi ham muttasil o‘sib bormoqda. “Butunjahon internet statistikasining (Internet World Stats) internetdan foydalanish darajasi haqidagi ma’lumotiga ko‘ra, Birlashgan Arab Amirliklarining 91 foiz aholisi o‘z telefonlari orqali Internetga kirishadi, keyingi o‘rinlarni Singapur (88 foiz), Saudiya Arabistoni (86 foiz), AQSh (57 foiz) egallaydi”[4].

Internet tarmog‘i, xususan mobila aloqa vositalari, kompyuter o‘yinlari vositasida tarqatilayotgan axborotlar orqali yoshlar turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatilishining oldini olish maqsadida Yevropaning barcha davlatlari qonunchiligiga bir qator taqiqlovchi huquqiy me’yorlar kiritilgan. Jumladan, “Germaniyaning “Yoshlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining”[5] 30 dan ziyod moddalari internet tarmog‘idagi axborotlar va kompyuter o‘yinlari, audiovizual mahsulotlar, bosma nashrlar orqali yosh avlodning axloqi va ruhiyatiga, jumladan oilaviy qadriyatlar va oilada bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish masalalariga qaratilgan.

Shuningdek, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, AQSh, Xitoy, Turkiya va dunyoning boshqa davlatlarining mazkur mavzuga tegishli qonunlari o‘rganilganda, ularda bolalar va yoshlarning foydali axborot olishiga to‘sqinlik qiluvchi, shuningdek axloqini buzuvchi, ularning oilada o‘sib-ulg‘ayishiga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi axborotlarning tarqatilishi qat’iyan taqiqlanganligi qayd etildi.

“BMTning “Bolalar huquqi to‘g‘risida”gi konvensiyasida har bir xalqning milliy an’ana va madaniy qadriyatlari bola tarbiyasi va uning sog‘lom inson bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etilib, davlatlar tomonidan bola tarbiyasi va sog‘lom

rivojlanishiga zarar yetkazadigan axborotlardan uni himoya qilishning tamoyil va qoidalarini ishlab chiqilishi rag‘batlantiriladi”[6].

“Yevropa Ittifoqi. Butunjahon internet statistikasi (Internet World Stats) ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda *(2020 yil 5 yanvar holatiga ko‘ra)* Yevropa Ittifoqi internet tarmog‘idan *(shu jumladan keng polosali)* foydalanish nuqtai nazaridan dunyoda yetakchilardan biridir. Yevropada internetdan foydalanuvchilar 85,2 foiz aholini qamrab olgan”[7].

“Yevropa Ittifoqida internetdan foydalanuvchilarning eng faol guruhi 16 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Internetdan foydalanuvchilarning 75 foizini bolalar va o‘smirlar tashkil etadi. Bundan tashqari, olti yoshli bolalarning 42 foizi “onlayn” bo‘lishadi va 17 yoshga kelib deyarli barcha o‘spirinlar internetdan foydalanmoqdalar”[8].

“Yevropa Kengashining 2000 yil 29 maydagi *(2000/375/JHA va 2004/68/JHA)* qarorlari”[9] internetda bolalar pornografiyasi va bolalarni jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashishga qaratilgan. Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘z hududlarida joylashtirilgan har qanday bolalar pornografiyasini olib tashlashga, shuningdek, boshqa davlatlar bilan xalqaro miqyosda hamkorlik qilishga majburdir.

Yevropa Sudi esa, o‘z navbatida, bolalarni ularning axloqi va sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotlar tarqatilishini oldini olishga qaratilgan qonunlar buzilgan taqdirda, qonunbuzuvchilarga nisbatan jarima solish va hatto ular ustidan jinoiy ish qo‘zg‘ash lozimligini e’tirof etadi. Internetdagi asosiy xavflar sifatida jinsiy tajovuz, moliyaviy firibgarlik, suitsid, ruhiy kasalliklar, xakerlik, kiberbulling (virtual makonda bolalarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish) va bullitsid (ruhiy ta’sir ko‘rsatish orqali o‘z joniga qasd etish, g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etish), gembling (o‘yinga berilish) – g‘ayritabiiy ravishda qimor va bola ruhiyatini barbod etadigan o‘yinlarga berilish kabi o‘nlab salbiy oqibatlar ro‘yxati keltirilgan.

Yevropa Ittifoqida axborot jamiyatining, audiovizual va ommaviy axborot vositalarining bir qismi sifatida bolalar va inson qadr-qimmatini himoya qilishga katta e’tibor beriladi. Bolalar huquqlarini himoya qilish Ittifoqning asosiy maqsadlaridan biri deb e’lon qilingan.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2004 yilda “Nisbatan xavfsiz internet” (Safer Internet) dasturi qabul qilingan. Maqsad – bolalar va yoshlarni virtual makonda noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish. Quyidagilar bu dasturning yo‘nalishlaridir; fuqarolarning tarmoqdagi noqonuniy va zararli ma’lumotlari to‘g‘risidagi xabarlarini to‘plash uchun milliy aloqa markazlarini (“ishonch telefonlari”) yaratish; o‘zini o‘zi boshqarish tashabbuslarini rag‘batlantirish; bolalarni xavfsiz internet muhitini yaratishda ishtirok etishga undash; ilmiy tadqiqotlar orqali yangi texnologiyalardan foydalanish va u bilan bog‘liq xavflar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash”[10].

Xitoy Xalq Respublikasida internetdan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar boshqa davlatlarga nisbatan ancha mukammal yaratilgan. Xususan, Xitoyda bolalarni zararli ma’lumotlardan himoya qilish, yoshlarning AKTdan foydalanish borasida qulay

imkoniyatlar darajasini kengaytirish va ularda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish standartlari ham mavjud.

“Xitoyning Sinxua axborot agentligining ma’lumot berishiga qaraganda 2019 yilning iyun holatiga mamlakatda inernetdan foydalanuvchilar soni 854 million kishidan oshgan. Xitoy hukumatining hisobotiga ko‘ra, mamlakat aholisining internetga ulanish darajasi 61,2 foizga yetdi. 847 million xitoylik internetdan uyali telefon yordamida foydalanadi, bu Internet foydalanuvchilari umumiy sonining 99,1foizini tashkil etadi”[11].

XXRda AKTdan foydalanish borasida qulay imkoniyatlar yaratilishi bilan bir qatorda “Voyaga yetmaganlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 34-moddasida “voyaga yetmaganlar uchun zararli” bo‘lgan materiallarni tarqatish jinoyat deb belgilangan. Bunga “audiovizual mahsulotlar, elektron nashrlar va pornografiya, zo‘ravonlik, qotillik, terrorizm va qimor o‘yinlari haqidagi internet ma’lumotlar” kiritilgan.

“2004 yil iyun oyida Xitoy hukumati tomonidan internetdan jabrlanganlar shikoyatlari bo‘yicha ishlovchi markaz tashkil etildi”[12]. Markaz maqsadlaridan biri – “jamoatchilikni, xususan voyaga yetmaganlarni noqonuniy va zararli ma’lumotlar ta’siridan himoya qilish”. Xususan, Markaz asosan, voyaga yetmagan bolalarning sog‘lom rivojlanishiga zararli ta’sir ko‘rsatuvi, masalan, axloqsiz va pornografik materiallar, zo‘ravonlik elementlari bo‘lgan o‘yinlar, terrorizm g‘oyalari, shuningdek irqiy adovat, tuhmat va haqoratomuz ma’lumotlarning tarqatilishiga qarshi kurashish bilan shug‘ullanadi. So‘nggi yilda Markazga 30 mingdan ortiq shikoyatlar kelib tushgan.

So‘nggi (2021 yil30 avgust) ma’lumotlarga ko‘ra Xitoy kompartiyasi bolalarning onlayn o‘yinlarni o‘ynashini cheklamoqda. “E’lon qilingan yangi qoidalarga ko‘ra, endi 18 yoshga to‘lmagan bolalar juma, shanba va yakshanba kunlari hamda bayram-dam olish kunlari faqatgina bir soatdan video-o‘yin o‘ynashlari mumkin. Mamlakatdagi asosiy o‘yin servislari mijozlarni haqiqiy ism-familiyasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak bo‘ladi”[13].

Turkiya. 2011 yilda Turkiyada Telekommunikatsiyalar va aloqa byurosi kalit so‘zlarni filtrlashni joriy etishni yo‘lga qo‘ygan. Talabga ko‘ra, provayderlar 138 kalit so‘zlarni berish natijalariga kiradigan saytlarni to‘sib qo‘yishlari shart. Asosiy maqsad – pornografiyani cheklash. Hozirda mamlakatning barcha provayderlari internetdan foydalanuvchilarga internetga kirishdan oldin maxsus dasturlarni o‘rnatishga majbur.

AQSh. Qo‘shma shtatlarda XX asrning 90 yillaridan boshlab bolalarni internetdan himoya qilish masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. 1996 yilda AQSh Kongressi “Muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya qilish to‘g‘risida”gi (“Communication Decency Act) qonunni qabul qildi[14], unga ko‘ra “jamiyatda belgilangan odob-axloq me’yorlariga zid bo‘lgan axborotlarni joylashtirish noqonuniy”, deb e’lon qilindi. Biroq, ushbu qonunning moddalari Oliy sud tomonidan konstitutsiyaga zid deb, rad etildi.

Ammo Internetda bolalarning jinsiy zo‘ravonligiga qarshi kurash uchun pornografiya tarqalishiga qarshi kurash masalalariga bo‘lgan e’tibor kuchaytirildi. “2009 yildan boshlab esa, o‘spirin yoshlarni internetdan foydalanish savodxonligini oshirish masalasi davlat siyosatining muhim sohalaridan biriga aylandi va mamlakatda “Internet-xavfsizlik” (Online Safety) loyihasi”[15] amaliyotga joriy etildi.

Hozirgi kunda AQShda “Bolalarning Internetini himoya qilish to‘g‘risida”gi (Children’s Internet Protection Act) qonun”[16] amal qilmoqda, unga muvofiq davlat tomonidan moliyalashtiriladigan maktab (74%) va kutubxonalar (43%)dan bolalarni nomaqbul va zararli kontentlardan himoya qilish uchun filtrlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish qat’iy talab etiladi.

Ma’lum bir mamlakatning milliy qonunchiligi internetda axborot mahsulotining aylanishi masalasini ob’yektiv darajada tartibga sola olmaydi. Mazkur masalada milliy qonunchilik bu sohani tartibga soluvchi xalqaro qonunlar, konvensiyalar va boshqa hujjatlar asosida takomillashtirilishi lozim.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko‘ra, qonun hujjatlarida taqiqlangan axborotlarni tarqatishga qarshi sanksiyalarni, jumladan moliyaviy va ma’muriy choralarni aniq belgilab qo‘yish, taqiqlangan axborotlar ro‘yxatini tuzish tavsiya etiladi. Internetdagi axborotlardan foydalanishni bloklash, cheklash, kontentni avtomatik tarzda filtrlash singari choralar, birinchidan, xavfsizlikni 100 foiz samarali ta’minlay olmaydi, ikkinchidan, u qisman erkin deb tan olingan mamlakatning obro‘siga putur yetakazadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini bolalarning internetdagi xavfsizligini ta’minlashga jalb qilish, “Xavfsiz Internet kuni”, “Xavfsiz Internet-forum” kabi tadbirlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ахборот маданияти – ҳаёт-мамот масаласи// https://xs.uz/uzkr/post/akhborot-madaniyati-hayot-mamot-masalasi

2. “Қаранг: Кибер жиноятлар тўғрисида” Конвенция// https://www.google.com/search?q=aqs=chrome..69.UTF-8; “Вояга етмаганлар учун хавфсиз интернет ва он-лайн ресурсларни жорий қилиш тўғрисида”ги Европа Иттифоқи Парламенти Ассамблеясининг тавсиялари// https://www.google.com/search?q; Интернет тармоқларида ахборот хавфсизлиги// https://adolatgzt.uz/adolat/3995

3. Дунёда интернет фойдаланувчилари сони 4 миллиарддан ошди// https://kun.uz/news/2019/11/05/dunyoda-internet-foydalanuvchilari-soni-4-mlrddan-oshdi

4. Интернет-статистика – 2020: факты и цифры, которые нужно знать//https://moshib.su/stats/internet _statistika_2020/#1

5. Сўз эркинлиги ва масъулият// https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/8757-s-z-erkinligi-va-mas-uliyat

6. Конвенция о правах ребенка//https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml

7. Интернет-статистика – 2020: факты и цифры, которые нужно знать//https://moshib.su/stats/internet_statistika_ 2020/#1

8. Вся статистика интернета на 2020 год — цифры и тренды в мире и в России// https://www.web-canape.ru/ business/internet-2020-globalnaya-statistika-i-trendy/

9. О международно-правовом и национальном регулировании отношений по обеспечению информационной безопасности детей и несовершеннолетних// https://lexed.ru/obrazovatelnoe-pravo/analitika/issledovaniya/o-mezhdunarodno-pravovom-i-natsionalnom-regulirovanii-otnosheniy-po-obespecheniyu-informatsionnoy-be/

10. Программа «Безопасный Интернет// https://dropdoc.ru/doc/1196864/programma-%C2%ABbezopasnyj-internet

11. Число пользователей Интернета в Китае достигло 854 млн – доклад// http://russian.news.cn/2019-08/30/c_138351007.htm

12. Международный опыт в области защиты детей от нежелательной информации в интернете// https://www.cossa.ru/152/23475/

13. Three hours a week: Play time's over for China's young video gamers// https://www.reuters.com/world/china/ china-rolls-out-new-rules-minors-online-gaming-xinhua-2021-08-30/

14. Закон о порядочности в общении – Communications Decency Act Закон о порядочности в общении – https://ru.abcdef.wiki/wiki/Communications_Decency_Act//https://ru.abcdef.wiki/wiki/Communications_Decency_Act

15. Безопасный Интернет (проект)// https://videouroki.net/razrabotki/bezopasnyy-internet-proekt.html

16. Children’s Online Privacy Protection Act//https://ru.wikipedia.org/wiki/Children%E2%80%99s_Online_Privacy_ Protection_Act

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abdullayev Farxod Donakulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamlashtirish global ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda davlat xizmatlari ham tobora elektron xizmat platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Raqamli muhitning shakllanishi nafaqat o‘qitish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning raqamli ta’limga bo‘lgan qiziqish darajasini belgilovchi eng

muhim omillardan biri — bu ularga to‘g‘ri tanlangan motivatsion texnologiyalarni qo‘llay olishdir. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham pedgoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish masalasi qo‘yilgan. Shunga mos holda ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday texnologiyalarni joriy etish yo‘lida quyidagi texnologiyalrni ko‘rib chiqamiz.

-Raqamli ta’lim muhiti — bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni raqamli platformalar, internet resurslari hamda virtual o‘quv vositalari orqali tashkil etish shaklidir. Bunday muhit quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quv jarayonining moslashuvchanligi;
- istalgan joydan turib o‘rganish imkoniyati;
- shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish;
- multimedia resurslari yordamida mavzularni chuqurroq tushuntirish.

Raqamli o‘quv muhiti o‘quvchida mustaqil ishlash, javobgarlik, vaqtni boshqarish va o‘z-o‘zini baholash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu holat talabalarda motuvatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Motivatsiya — bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va harakatga undovchi ichki kuchidir. Ayniqsa raqamli ta’limda motivatsiyani yuqori darajada saqlab qolish muhim, chunki o‘quvchi mustaqil ishlashi, topshiriqlarni nazoratsiz bajarishi ko‘payadi. O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- darsga qiziqishning oshishi;
- o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi;
- ijodkorlik va mustaqil fikrlashning rivojlanishi;
- o‘quv faoliyatida faol ishtirok.

Raqamli ta’lim muhitida motivatsiyani oshirishning asosiy texnologiyalari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin.

1. Gamifikatsiya texnologiyasi: Gamifikatsiya — o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchini rag‘batlantirish jarayonidir. Bu texnologiya o‘quvchi psixologiyasiga juda mos keladi, chunki o‘yin orqali o‘qish ko‘proq qiziqarli, oson va samarali bo‘ladi.

Gamifikatsiyaning asosiy elementlari:

- ballar, reytinglar, badge va medal tizimi;
- bosqichma-bosqich murakkablashadigan vazifalar;
- jamoaviy musobaqalar;
- virtual mukofotlar.

Gamifikatsiya o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi hamda raqobat muhiti orqali ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

2. Interaktiv multimediali o‘quv materiallari: Raqamli ta’limda video, animatsiya, 3D modellash, interaktiv simulyatsiyalar juda katta ahamiyatga ega. Bunday vositalar

murakkab mavzularni oson tushunishga yordam beradi va vizual tasavvurni kengaytiradi. Misollar:

- Fizika darslarida tajribalar simulyatsiyasi;
- Biologiyada 3D anatomik modellardan foydalanish;
- Geometriyada shakllarni vizual modellashtirish.

Multimedia materiallari o‘quvchini psixologik jihatdan mavzuga jalb qiladi, e’tiborini oshiradi va darsni jonliroq qiladi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim texnologiyalari: Raqamli ta’limning eng muhim afzalliklaridan biri — o‘quv materiallarini o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatidir. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchining bilim darajasi, xatolari, tezligi va qiziqishidan kelib chiqib unga mos topshiriqlar taklif etadi. Buning afzalliklari:

- har bir o‘quvchi o‘z tempida o‘rganadi;
- kuchli va sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida ishlash imkoniyati;
- o‘quvchi o‘ziga mos yo‘nalishda chuqur bilim oladi.

4. Onlayn baholash va tezkor fikr-mulohaza (feedback): Raqamli ta’limda avtomatlashtirilgan testlar, interaktiv topshiriqlar va raqamli baholash tizimlari juda muhim rol o‘ynaydi. Fikr-mulohazaning tezkorligi o‘quvchi motivatsiyasini oshiradi, chunki u darhol o‘z xatolarini tushunadi va ularni to‘g‘rilashga intiladi. Onlayn baholashning afzalliklari:

- vaqtni tejash;
- xatolarni avtomatik tahlil qilish;
- o‘quvchi rivojini monitoring qilish.

5. Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalari: VR/AR texnologiyalari real hayotda murakkab bo‘lgan o‘quv jarayonlarini interaktiv tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Masalan:

- tarixiy joylarga virtual sayohat;
- murakkab mexanizmlarni 3D formatda o‘rganish;
- kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz virtual muhitda bajara olish.

Bu texnologiyalar o‘quvchini “mavzu ichiga kirgan” kabi his qilishiga sabab bo‘ladi. Raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. To‘g‘ri tanlangan gamifikatsiya, shaxsiylashtirilgan ta’lim, VR/AR, multimedia, tezkor baholash kabi texnologiyalar o‘quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shu bois raqamli pedagogika tamoyillariga asoslangan yondashuv kelajak ta’limining asosiy strategiyasi hisoblanadi va yosh avlodni raqamli ta’lim muhitida ilm olishiga motivatsiyasini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov, F., & Sobirov, J. (2020). *Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning faolligini oshirish metodikasi.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

2. Юсупов М, Мирзаев С, Рахманкулова Б. Международный научный журнал «Научные горизонты», 2(42), 75-81.

3. Mirzaev S.S., Kholmatova I., Shadmanova G., Yusupov M. and Kubyashev K. Numerical modeling of two-dimensional two-phase filtration under frontal drive. Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering (CONMECHYDRO - 2020). Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. 23-25 April, (2020).

4. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical simulation of nonlinear vibrations of discrete mass with harmonic force perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.

5. A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527 Том. 11 № 5 (2023): ФИДЖЕШ

6. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy tahlili https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533 vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254–bet

7. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106 vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o‘qituvchi 381-386-bet

8. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272 vol. 1 no. 12 (2022): o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet

9. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/

IJTIMOIY VA MADANIY OMILLAR ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti v.b.

*Ishonch – insonla*r, guruhlar va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosi bo‘lib, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Ishonchning shakllanishida nafaqat individual xususiyatlar, balki ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim rol o‘ynaydi [1. Abdullayeva, Z. N. (2025). Differences and similarities in cross- cultural social trust and moral values. PST Journal. https://pstjournal.uz/index. php/pst/article/view/66].

Ijtimoiy omillar – oilaviy, do‘stona, hamkasblik va jamiyatdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali hosil bo‘ladigan xatti-harakatlar va qoidalarga bog‘liq. Madaniy omillar esa normativ qoidalar, qadriyatlar, urf-odatlar va mintaqaviy an’analar orqali shakllanadi.

Ushbu maqolada ijtimoiy va madaniy omillar ishonchni shakllantirishdagi rolini o‘rganish, ularning ijtimoiy muhit va pedagogik jarayonlarga ta’sirini tahlil qilish maqsad qilindi.

Dolzarbligi. Bugungi globallashgan dunyoda ijtimoiy va madaniy omillar shaxsiy va institutsional ishonchning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, madaniy an’analar va me’yorlar, shuningdek, jamoat institutlariga bo‘lgan ishonch darajasi, insonlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalar davrida ijtimoiy va madaniy omillar ishonchni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi, chunki ular ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi va fuqarolarning jamiyat bilan o‘zaro munosabatini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, global integratsiya jarayonida madaniy farqlar va ijtimoiy stereotiplar ishonchni pasaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Dolzarb ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy va madaniy kontekstda ishonchni mustahkamlash mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan [2. Yuldasheva, S. Z., & [Boshqalar]. (2022). Psychology of trust and security. International Journal of Social Research, 12(3), 45-59. https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/365].

Ijtimoiy va madaniy omillar — bu insonlarning jamiyatdagi xulq-atvori, qarorlari va munosabatlariga ta’sir qiluvchi turli ijtimoiy va madaniy sharoitlar, qoidalar va qadriyatlar majmui. Oddiy qilib aytganda, ular odamlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi, jamiyat bilan aloqalari va umumiy madaniy tajribasi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi [3. Nozimov, J. T. (2024). Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar ishonchi shakllanishining psixologik mexanizmlari. World of Science Journals, 8(2), 101-115. https://www.wosjournals.com/index.php/ ptj/article/view/1615].

1-jadval. Ijtimoiy va madaniy omillarning shaxsiy va institutsional ishonchni shakllantirishdagi roli

Omillar turi	**Tarkibiy qismlar**	**Ahamiyati / ta’siri**	**Qo‘shimcha izoh**
Ijtimoiy omillar	Oilaviy muhit va tarbiya	Shaxsiy ishonch va axloqiy qadriyatlarning dastlabki shakllanishi.	Oilaviy tarbiya, ota-ona va qarindoshlarning xatti-harakatlari bolalarda ishonch va mas’uliyatni rivojlantiradi.
	Do‘stlar, tengdoshlar va jamoatchilik ta’siri	Ijtimoiy normativlarga rioya qilish va guruhdagi o‘zaro ishonchni oshiradi.	Tengdoshlar muhitidagi qabul qilingan xatti-harakatlar va ijtimoiy qoidalar shaxsning qarorlariga ta’sir qiladi.
	Ijtimoiy qoidalar va	Jamiyatdagi barqarorlik va	Qonunlar, me’yoriy hujjatlar va madaniy

	normativlar	tartibni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.	normalar ishonchning institutsional asoslarini yaratadi.
	Ta’lim va kasbiy muhit	Shaxsiy ishonch va professional samaradorlikni rivojlantiradi.	Ta’lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi.
Madaniy omillar	An’analar va urf-odatlar	Jamiyatning kollektiv qadriyatlari va madaniy me’yorlari bilan uyg‘unlashadi.	An’anaviy qadriyatlar ishonchning ijtimoiy normativlarini mustahkamlaydi va o‘zaro aloqalarni boshqaradi.
	Milliy qadriyatlar va e’tiqodlar	Shaxsiy va jamiyat ishonchi uchun axloqiy poydevor yaratadi.	Milliy qadriyatlar va diniy e’tiqodlar ishonch, vijdon va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.
	Madaniy stereotiplar	Ijtimoiy qarorlar va xulq-atvorga yo‘naltiradi, ba’zan cheklov bo‘lishi mumkin.	Stereotiplar shaxsiy ishonchni shakllantirishda ijobiy va salbiy rol o‘ynashi mumkin.
	Til, adabiyot va san’at orqali shakllanadigan axloqiy qadriyatlar	Madaniy va axloqiy bilimlar orqali shaxsiy ishonchni mustahkamlaydi.	Til va san’at vositalari orqali jamiyatning qadriyatlari va odatlari avlodlarga yetkaziladi.

Ushbu 1-jadvalda ijtimoiy va madaniy omillar asosiy tarkibiy qismlari bilan ko‘rsatilib, ularning shaxsiy va institutsional ishonchni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Jadval ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, do‘stlar va jamiyat ta’siri, shuningdek, madaniy qadriyatlar, an’analar va til-san’at orqali shakllanadigan axloqiy me’yorlarning ishonchni rivojlantirishdagi funksiyalarini vizual tarzda ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar tadqiqot, maqola yoki ta’limiy ishlar uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin.

*Ijtimoiy omillar ishonchni shakllantirishda bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatad [4.*Anvarov, A. (2024). The information culture level of Uzbekistan students at Islamic Studies College. International Journal of Islamic Social Education, 7(1), 23-37. https://jurnalfaktarbiyah.iainkediri.ac.id/index.php /ijise/article/view/2191*]:*

1. Oilaviy ta’lim va tarbiya – bolalikda olingan tarbiya, ota-ona va yaqinlar bilan munosabatlar shaxsiy ishonchni rivojlantiradi.

2. Guruh va jamiyat ta’siri – do‘stlar, hamkasblar va hamjamiyatdagi xatti-harakatlar ishonchni mustahkamlaydi yoki pasaytiradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va kommunikatsiya – raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar ishonchni shakllantirish va tarqatishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniy omillar ishonchni shakllantirishda normativ va qadriyatlarga asoslangan ta’sir ko‘rsatishi quyida keltirilgan:


1. Qadriyatlar va e’tiqodlar – insonlar orasida umumiy qadriyatlar mavjudligi ishonchni oshiradi.

2. An’analar va urf-odatlar – jamiyatdagi odat va marosimlar ijtimoiy hamkorlikni va xavfsizlikni mustahkamlaydi.

3. Hududiy va milliy madaniyat – turli madaniyatlar ishonchni shakllantirishda o‘ziga xos mexanizmlarga ega.

Ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birgalikda quyidagi natijalarni beradi:

- Shaxslararo ishonchning mustahkamlanishi.
- Jamiyatdagi barqaror ijtimoiy munosabatlar.
- Pedagogik va rahbarlik faoliyatining samarali bo‘lishi.
- Ijtimoiy kapital va hamkorlik muhitining rivojlanishi.



1-rasm. Ijtimoiy va madaniy omillarning shaxsiy va ijtimoiy ishonchga ta’siri

1-rasmda oilaviy qo‘llab-quvvatlash – shaxsiy ishonchni 25–30% oshirish, madaniy qadriyatlar – ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, omillar uyg‘unligi – jamiyatda konstruktiv hamkorlikni ta’minlash, ijtimoiy tarmoqlar – ishonch shakllanishini tezlashtiradi, lekin xavf omili mavjudli keltirilgan [5. Ruziyeva, R., & [Boshqalar]. (2023). Investigating the role of education in cultural education and culture building of students. Brajets Journal, 5(4),55- 70. https://brajets.com/brajets/article/view/2074].

Shaxsiy va institutsional ishonchni raqamlashtirish tendensiyalari va uzluksiz ta’lim tizimida integratsiyasi asosida quyidalarga erishish mumkin:

- Ijtimoiy va madaniy omillar ishonchni shakllantirishning asosiy determinantlaridir.

• Shaxsiy va ijtimoiy ishonch bir-birini mustahkamlovchi o‘zaro bog‘liqligi.

• Jamiyatda umumiy qadriyatlar va normativ qoidalar mavjud bo‘lsa, ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo‘lishi.

• Pedagogik jarayonda ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olish o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va motivatsiyasini oshirishi.

Xulosa. Ijtimoiy va madaniy omillar shaxsiy va institutsional ishonchni shakllantirishdagi rolini batafsil tahlil qildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy tarbiya, do‘stlar va jamiyatdagi munosabatlar shaxsiy ishonchni oshiradi, madaniy qadriyatlar va urf-odatlar esa ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Omillar uyg‘unligi jamiyatda konstruktiv hamkorlikni ta’minlaydi va pedagogik jarayonlarda uzluksiz ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar ishonch shakllanishini tezlashtiradi, ammo noto‘g‘ri ma’lumotlar xavfi mavjud.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva, Z. N. (2025). Differences and similarities in cross- cultural social trust and moral values. PST Journal. https://pstjournal.uz/index.php/pst/ article/ view/66

2. Yuldasheva, S. Z., & [Boshqalar]. (2022). Psychology of trust and security. International Journal of Social Research, 12(3), 45- 59. https://ijournal.uz/index.php/ jartes/article/view/365

3. Nozimov, J. T. (2024). Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar ishonchi shakllanishining psixologik mexanizmlari. World of Science Journals, 8(2), 101- 115. https://www.wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/1615

4. Anvarov, A. (2024). The information culture level of Uzbekistan students at Islamic Studies College.International Journal of Islamic Social Education, 7(1), 23- 37. https://jurnalfaktarbiyah.iainkediri.ac.id/index.php/ijise/article/view/ 2191

5. Ruziyeva, R., & [Boshqalar]. (2023). Investigating the role of education in cultural education and culture building of students. Brajets Journal, 5(4), 55- 70. https://brajets.com/brajets/article/view/2074

6. Akhmedova, D. K. (2024). Social and philosophical analysis of the reforms in the new Uzbekistan education system. Public Media Journal, 3(2), 88- 102. https://journal.pubmedia.id/index.php/bai/article/view/3217

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Abdumalikov Abbosbek Abrorbek o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi

O’zbekiston Respublikasi o’z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas’uliyatli bo’lishi hamda milliy istiqlolni

qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma’nan sog’lom bo’lishi uchun bir qator tizimli islohatlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta’minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tiborning yuksak belgisidir.

O’zbekiston Respublikasida 14 yoshga to’lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar toifasini tashkil etishi O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonunining 3-moddasida belgilab qo’yilgan [1]. Yoshlarning haq-huquqlari ta’minlanishi uchun nafaqat davlat organlarining kafolati, balki yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasi ham katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida avvalo yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish dalzarbdir. Chunki har bir millatning kelajagi yoshlarning qo‘lida va ularning huquqiy savodxonligi jiddiy e’tibor talab etadi. Bu borada esa huquqiy ta’lim tizimini shakllantirish, sifatni oshirish har qachongidan ham muhimdir. Shu bois hozirgi globallashuv jarayonida har kungidan ko’ra ko’proq yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Globallashuv jarayonlari inson huquqlari, erkinliklari va davlat boshqaruvi tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan hozirgi davrda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. BMTning 2030-yil barqaror rivojlanish maqsadlarida ta’kidlanishicha, yoshlarning sifatli ta’lim olishi va huquqiy ongini yuksaltirish jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Boshqa tomondan, global axborot oqimi, raqamli platformalar va transmilliy madaniy ta’sirlar yoshlarning huquqiy qarashlariga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston sharoitida globallashuv jarayonlari fonida huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti”, “Huquqiy axborot portali” kabi tashabbuslar yoshlarning huquqiy ma’lumotlarga teng va ochiq kirishini ta’minlashga qaratilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Huquqiy savodxonlik oyligi” tadbirlarida 2 milliondan ortiq yosh qamrab olingan. Bu esa huquqiy targ‘ibotning yoshlar orasida sezilarli darajada kuchayayotganini ko‘rsatadi [2].

Biroq globallashuv sharoitida huquqiy savodxonlikka tahdid soluvchi omillar ham mavjud. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg‘on huquqiy maslahatlar, chet elga migratsiya jarayonida yoshlarning o‘z huquqlarini bilmasligi, kiberjinoyatlar ko‘payishi, xalqaro me’yorlar bo‘yicha bilim yetishmasligi kabi muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda. 2022–2024-yillar davomida Kiberxavfsizlik markazi hisobotlariga ko‘ra, yoshlar o‘rtasida phishing va firibgarlik holatlari 18% ga oshgan – bu esa raqamli huquqiy savodxonlik bo‘yicha qo‘shimcha choralarni talab qiladi.

Shu qatorda, yoshlarning huquqiy ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini yaratish davri keldi, deb hisoblaymiz. Viloyat va tumanlar miqyosidagi, o’ziga xos dasturlarning bo’lishi yoshlar orasida huquqiy savodxonlik ko’lamining oshishiga olib

keladi, degan fikrdamiz. Masalan, “Yosh huquqshunos” nomli tuman hokimi mukofoti, “Konstitutsiya bilimdonlari” nomli viloyat hokimi kubogi kabi yangicha tadbirlar yoshlar orasida huquqiy bilimlarga qiziqishning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyat rivojining eng muhim strategik vazifalaridan biridir. Chunki huquqiy ong jamiyat a’zolarining huquq va majburiyatlarga nisbatan ongli munosabatini, huquqiy madaniyat esa ushbu bilimlarning kundalik hayotdagi amaliy ifodasini belgilaydi. BMTning “Yoshlar strategiyasi–2030” hujjatida qayd etilishicha, yoshlar o‘rtasida huquqiy ongni yuksaltirish tinchlik, adolat va samarali institutlarni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir[3].

O‘zbekiston tajribasida ham yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2020–2024-yillarda Adliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, yoshlarning 61 foizi o‘z huquqlarini bilishini ijobiy baholagan bo‘lsa-da, amalda ularni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishini bildirgan. Bu esa nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi tafovut hanuz mavjudligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga eng katta ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri — globallashuv va raqamli muhitdir. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan huquqiy mazmundagi noto‘g‘ri ma’lumotlar, onlayn firibgarliklar va ekstremistik kontent yoshlarning huquqiy qarashlariga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Kiberxavfsizlik markazining 2023–2024-yillar hisobotlariga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lganlar orasida kiberjinoyatlarga uchrash darajasi 22 foizni tashkil etgan. Bu raqam yoshlar o‘rtasida raqamli huquqiy madaniyatni oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan yoshlar huquqiy ongini mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar samaradorlik bermoqda. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Huquqiy madaniyat asoslari” fanining joriy etilishi, “Yoshlar ishlari agentligi”ning profilaktik loyihalari, Adliya vazirligining “Huquqiy axborot” portali, shuningdek, “Yoshlar parlamenti” faoliyati yoshlarning huquqiy faol fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda 1,7 milliondan ortiq yosh huquqiy-ma’rifiy tadbirlarga jalb etilgan va bu o‘tgan yilga nisbatan 12 foiz ko‘pdir.

Xulosa qilib aytganda, Globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda yoshlar huquqiy savodxonligini oshirish masalasi strategik va dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki global axborot maydonining kengayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, migratsiya jarayonlarining faollashuvi va transmilliy madaniy ta’sirlar yoshlarning huquqiy qarashlari, xatti-harakati va jamiyatdagi ishtirokiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda huquqiy savodxonligi past yoshlar turli huquqbuzarliklar, firibgarliklar, kiberjinoyatlarga uchrash, shaxsiy huquqlarini himoya qila olmaslik kabi xavflarga ko‘proq duch kelishi amaliyotda isbotini topmoqda.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, nafaqat ularning shaxsiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi, balki jamiyatning huquqiy madaniyati va davlatning barqaror rivojlanishiga ham asos

bo‘ladi. Huquqiy jihatdan ongli, mas’uliyatli va faol yosh avlod globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanib, salbiy oqibatlaridan himoyalana oladigan eng muhim kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz.
3. O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonun, 2016-yil.

GLOBALLASHUV JARAYONINING YOSHLAR ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRI

Abdumalikova Iroda
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyoning barcha mintaqalarida chuqur va jadal sur’atlarda kechmoqda. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, internet tarmog‘ining keng ommalashuvi, madaniy hamkorlikning kuchayishi va iqtisodiy integratsiya darajasining oshishi natijasida insonlar turmush tarzi, qadriyatlari, ijtimoiy xulqi va dunyoqarashida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, ushbu jarayonning yoshlar ongiga ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta’siri alohida e’tibor talab etadi, chunki yoshlar jamiyatning eng faol, innovatsion salohiyatga ega va global axborot makoniga eng ko‘p integratsiyalashgan qatlamidir.

Globallashuv yaratgan imkoniyatlar ochiq axborot almashinuvi, ilmiy hamkorlikning kengayishi, raqamli madaniyatning shakllanishi va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi yoshlarning intellektual o‘sishiga, yangilikka ochiqligiga va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq bu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud bo‘lib, ular orasida madaniy begonalashuv, milliy identifikatsiya inqirozi, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, ruhiy zo‘riqish va psixologik beqarorlik kabi holatlar tobora ko‘proq uchramoqda. Internet va global axborot oqimlarining chegarasizligi esa yoshlarning dunyoqarashi va e’tiqodiga ongli ravishda yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ularni turli ijtimoiy xavflarga nisbatan ta’sirchan qilib qo‘ymoqda.[1.]

Shu bois, globallashuv jarayonining yoshlar ongiga qanday ta’sir qilayotgani, bu ta’sirning psixologik mexanizmlari, ijobiy va salbiy omillari, shuningdek, yoshlarni globallashuv sharoitida ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Globallashuv bugungi davrning eng tezkor va chuqur jarayonlaridan biri bo‘lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda olib kelayotgan o‘zgarishlari jamiyatning barcha qatlamlariga, ayniqsa, yoshlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.[2.-B.45]

Globallashuvning ijobiy ta’sirlari ko‘plab jihatlarda namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, u yoshlarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ular dunyodagi turli madaniyatlar, yashash tarzi va ilmiy yutuqlar bilan tezkor tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Raqamli axborot vositalarining keng tarqalganligi yoshlarni mustaqil o‘rganishga, yangi g‘oyalarni izlashga, internet orqali ta’lim olishga va o‘zini turli sohalarda rivojlantirishga undaydi. Bugungi yoshlar global maydondagi jarayonlarni kuzatish, ulardan o‘rnak olish, innovatsion loyihalarda ishtirok etish uchun cheklanmagan imkoniyatlarga ega. Bu esa ularning intellektual salohiyatini oshirishga, zamonaviy kasblarni o‘zlashtirishga va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.[3.-B.56] Shuningdek, globallashuv inson huquqlari, demokratik qadriyatlar, gender tengligi kabi universal tamoyillarni yoshlar ongiga singdiradi, bu esa ularning adolat, erkinlik, insonparvarlik kabi tushunchalarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi.

Ammo globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud bo‘lib, ular yoshlar ongida murakkab psixologik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Eng dolzarb muammolardan biri bu madaniy begonalashuv bo‘lib, u yoshlarning o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va milliy identifikatsiyasini unutishiga yoki zaiflashishiga sabab bo‘ladi. Ommaviy madaniyatning chegarasiz kirib kelishi, internet orqali tarqalayotgan ko‘plab global trendlar yoshlarni o‘ziga tortadi, natijada ular mahalliy an’analardan ko‘ra global standartlarni afzal ko‘rishi mumkin. Bunday holatlar esa ma’naviy bo‘shliq, o‘zligini anglashdagi ziddiyatlar, e’tiqod va qadriyatlar inqiroziga olib keladi.

Globallashuvning yana bir muhim salbiy jihati bu axborot oqimining haddan tashqari kuchayishi natijasida yoshlarning psixologik barqarorligining pasayishidir. Internetdagi cheklanmagan ma’lumotlar ularda fikrlar chalkashligi, informatsion bosim, stress, tashvish, ijtimoiy taqqoslashlar oqibatida o‘zidan norozilik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Virtual makonga haddan tashqari bog‘lanish esa real hayotdagi muloqotning kamayishiga, yolg‘izlik hissining kuchayishiga, motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Bu jarayonlar psixologiyada ijtimoiy izolyatsiya deb yuritiladi va yoshlar ruhiy salomatligiga sezilarli zarar yetkazishi mumkin.

Shu bilan birga, globallashuv yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ularning muloqot doirasi kengaygan bo‘lsa-da, bu muloqotning sifati ko‘pincha yuzaki bo‘lib qoladi. Virtual tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazish natijasida real kommunikativ ko‘nikmalar, empatiya, bir-birini tinglash madaniyati zaiflashadi. Bu esa ijtimoiy kelishmovchiliklar, munosabatlardagi sovuqlik va shaxslararo nizolarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Yoshlarning o‘zini global makonda erkin tutishi ijobiy ko‘rinishi mumkin, biroq bu erkinlik ko‘pincha nazoratsiz jarayon va mas’uliyatsizlik bilan birga kechadi.

Yoshlarning globallashuv jarayonlariga psixologik moslashuvi ham turlicha kechadi. Ba’zi yoshlar global madaniyatni tez qabul qiladi, zamonaviy hayot tarziga moslashadi va bu jarayon ularda psixologik qulaylikni ta’minlaydi. Ammo ayrim yoshlar uchun globallashuv stress manbai bo‘lib, ular o‘z qadriyatlari bilan chet madaniyati o‘rtasida ichki ziddiyatlarni boshdan kechiradilar. Globallashuvning yoshlar ongiga ta’sirini

yumshatish uchun ijtimoiy institutlarning, ayniqsa, oila va ta’lim muassasalarining roli katta. Oila birlamchi tarbiya instituti sifatida yoshlarning milliy qadriyatlarini mustahkamlashi, ularni axborot xurujlaridan himoya qilishi va ma’naviy tayanch bo‘lishi zarur.[3.-B.80] Ta’lim muassasalari esa yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborotni tahlil qilishga, media madaniyatni puxta o‘zlashtirishga o‘rgatishi kerak.

Jamiyatning o‘zi ham globallashuv sharoitida yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga mas’uldir. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yurt taqdiri va milliy g‘oyaga oid tashabbuslar yoshlarning milliy ongini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mediamakonni tartibga solish, zararli kontentdan himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish ham yoshlar ongiga salbiy oqimlarning kirib kelishini kamaytiradi. Bunda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoat tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, globallashuv jarayonining yoshlar ongiga ta’siri kompleks jarayon bo‘lib, u ijobiy va salbiy omillarning uyg‘unligidan iborat. Mazkur jarayonni to‘g‘ri boshqarish, yoshlarni global madaniyatning manfaatli jihatlaridan foydalanishga o‘rgatish, ammo milliy identifikatsiyani saqlab qolish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biridir.

Xulosa o‘rnida globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat rivojining ajralmas qismi bo‘lib, uning ijtimoiy va psixologik ta’siri ayniqsa yoshlar ongida kuchli aks etmoqda. Ochiq axborot maydoni, raqamli texnologiyalar, global kommunikatsiya vositalari va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulqini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda.

Adabiyotlar:

1. Egamnazarova, M. Globallashuv jarayonining yoshlar hayotiga ta’siri. 2025. ACUMEN / InLibrary (ilmiy maqola, xalqaro onlayn jurnalda nashr qilingan).

2. Кульбачевская, О.В. Патриотизм молодежи как стратегический ресурс: потенциал, вызовы, риски. 2023. Журнал «Науки о молодежи» / CyberLeninka (maqola, rus tilida yoshlar va milliy ong muammolari tahlili).

3. Сборник: Молодежь и глобальные вызовы современности. 2021. Издательство Сборник материалов конференции (tezislar to‘plami, yoshlar va globallashuv masalalariga bag‘ishlangan yig‘ma)

RAQAMLI DUNYO VA INSON QADRI

Abduqodirova Ozoda
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi
Nurqulov Bunyod
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

Kirish. Zamonaviy dunyo tezkor texnologik rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, internet tarmoqlari, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli vositalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular inson faoliyatining samaradorligini oshirish, bilim olish jarayonlarini soddalashtirish, ijodiy va kasbiy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Raqamli dunyo insoniyat tarixida noyob o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi, jamiyat va madaniyatga yangi qoidalar va talablarga asoslangan hayotiy tizimlarni olib kirdi. Biroq texnologik taraqqiyot bilan birga, insoniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni saqlash, ma’naviy rivojlanishni davom ettirish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli vositalar inson hayotida keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi, virtual muloqotning haqiqiy insoniy aloqalarni cheklashi, axloqiy me’yorlar va ma’naviyatga bo‘lgan e’tiborning kamayishi bugungi kunda dolzarb muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy dunyoda inson qadriyatlarini himoya qilish va rivojlantirish masalalari texnologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashgan holda muhokama qilinishi zarur. Raqamli dunyo sharoitida shaxsiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni saqlash nafaqat insonning ichki dunyosi, balki jamiyatning barqarorligi va ma’naviy salomatligi uchun ham muhimdir.

Raqamli dunyoning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi, shuningdek, inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar keltiriladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning afzalliklari va xavflari, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, ma’naviy qadriyatlarni asrashning zamonaviy usullari va texnologiyalarning inson hayotiga keltirgan o‘zgarishlari o‘rganiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishning ilmiy ahamiyati shundaki, bu nafaqat shaxsiy farovonlikni oshirish, balki jamiyatning umumiy ma’naviy salomatligini ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli dunyo bilan uyg‘unlashgan holda insoniy qadriyatlarni asrash, texnologiyalardan ongli va mas’uliyat bilan foydalanish, ma’naviy va axloqiy rivojlanishni ta’minlash dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaraladi. Raqamli dunyoning inson qadriyatlari va ijtimoiy hayotga ta’sirini chuqur o‘rganish, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda insoniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Raqamli dunyoda inson qadriyatlarini asrash va mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish,

ma’naviyatni saqlash va ilm-fan hamda madaniyatni rivojlantirishning muhim jihatlarini yoritadi.

Asosiy qism. Raqamli dunyo inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bugungi davrda texnologiyalar va inson qadri o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy muloqot tizimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashish tezligi va ko‘lami keskin oshib, insonning dunyoqarashi va fikrlash tarzini o‘zgartirmoqda. Bu jarayon insonning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, axborotning ishonchliligi, ma’naviy-axloqiy mezonlar va shaxsiy mas’uliyat masalalarini ham dolzarb muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida inson qadriyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn kurslar va raqamli resurslar orqali inson o‘z bilim va malakasini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Raqamli ta’lim jarayonida inson omilining ikkinchi darajaga tushib qolishi, tirik muloqotning cheklanishi va tarbiyaviy jihatlarning sustlashuvi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa raqamli ta’limni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish, shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish va ma’naviy tarbiyani ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rishni talab etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar raqamli dunyoning eng ta’sirchan vositalaridan biri sifatida inson qadriyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular orqali insonlar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, jamiyatdagi muammolarni muhokama qilish va ijtimoiy faollikni namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Biroq, virtual makonda axloqiy me’yorlarning buzilishi, yolg‘on axborot tarqalishi, kiberbulling va shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi kabi salbiy holatlar inson qadr-qimmatiga putur yetkazishi mumkin. Raqamli madaniyatni shakllantirish, axborotdan ongli va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish inson qadriyatlarini asrashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, bu texnologiyalar inson mehnatini yengillashtirib, samaradorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan, ayrim kasblarning yo‘qolishi va inson mehnatining qadrsizlanishi xavfini yuzaga keltirmoqda. Inson omilini markazga qo‘ygan texnologik rivojlanish modelini shakllantirish, ya’ni texnologiyalar inson manfaatlariga xizmat qilishi tamoyilini mustahkamlash muhimdir. Insonning ijodkorligi, axloqiy mas’uliyati va ijtimoiy faolligi texnologiyalar orqali emas, balki ularning yordamida rivojlanishi lozim.

Raqamli dunyoda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va inson huquqlarini himoya qilish masalasi ham inson qadri bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va raqamli etikani ta’minlash inson qadr-qimmatini saqlashning muhim shartlaridan biridir. Bu borada huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda, jamiyatda raqamli savodxonlik va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli dunyo inson hayotiga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, insoniy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishni va ularni zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirishni taqozo etadi. Texnologik taraqqiyot va inson qadri o‘rtasida muvozanatni

ta’minlash, raqamli vositalardan ongli foydalanish va ma’naviy-axloqiy tamoyillarga sodiq qolish jamiyat barqarorligi va inson farovonligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar shaxsiy va ijtimoiy hayotning yangi shakllarini yaratmoqda. Onlayn muloqot vositalari orqali insonlar uzoq masofalardagi do‘stlari va oila a’zolari bilan tez va qulay aloqa o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Virtual makon insonni yolg‘izlashtirishi, yuzma-yuz muloqot va hissiy aloqalarni kamaytirishi mumkin. Bu esa insonning ijtimoiy qobiliyatlari, empatiya va jamiyat bilan aloqadagi faolligiga ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli dunyoda inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uchun nafaqat texnologiyalardan foydalangan holda, balki insoniy muloqotni, axloqiy me’yorlarni va ma’naviy qadriyatlarni ham muvozanatda saqlash zarur. Raqamli vositalar orqali bilim olish imkoniyatlarining kengayishi insonning shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, video darslar va interaktiv dasturlar insonning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Axborotning ko‘pligi va sifatining turlicha bo‘lishi insonni tanqidiy fikrlashga undaydi, tanlov va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, raqamli bilim olish jarayonida shaxsiy qiziqish va ma’naviy-axloqiy mezonlarni inobatga olmaslik, faqat texnologik qulaylikka asoslanish, inson qadriyatlarini susaytirishi mumkin. Shu sababli, raqamli vositalardan samarali va ongli foydalanish, insonning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lishi muhimdir.

Raqamli dunyo iqtisodiyot, ish va kasb sohasida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt yordamida ish jarayonlari soddalashtiriladi, samaradorlik oshadi va yangi kasblar paydo bo‘ladi. Ba’zi kasblarning yo‘qolishi yoki inson mehnatining qadrsizlanishi xavfi yuzaga keladi. Bunday vaziyatda inson qadriyatini asrash, uning ijodkorligi, innovatsion salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va texnologiyalarni inson manfaatlariga xizmat qiladigan vosita sifatida ishlatish muhimdir. Raqamli dunyo insonni faqat texnologik foyda bilan cheklamasligi, balki uning shaxsiy va ma’naviy rivojlanishiga ham yordam berishi lozim. Raqamli dunyoda madaniyat va san’atning yangi shakllari ham paydo bo‘lmoqda. Virtual galereyalar, onlayn kontsertlar, raqamli kitoblar va multimedia loyihalari insonning ma’naviy dunyosini boyitadi, ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonida inson qadriyatlari va axloqiy me’yorlar asosiy yo‘naltiruvchi nuqta bo‘lishi lozim. Bu esa texnologik taraqqiyotning inson hayotiga moslashuvi va inson qadriyatlarining raqamli makonda ham saqlanishi bilan bog‘liq. Raqamli dunyo insoniyatning yangi imkoniyatlarini yaratishi bilan birga, inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish masalalarini ham dolzarb qilmoqda. Texnologiyalardan ongli foydalanish, axborot xavfsizligi, shaxsiy rivojlanish va ma’naviy qadriyatlarni saqlash raqamli dunyoda insonning haqiqiy salohiyatini namoyon etishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda inson qadriyatlarini rivojlantirishning strategik va amaliy yo‘nalishlarini aniqlash bugungi kun ilmiy va ijtimoiy tadqiqotlarining muhim vazifalaridan biridir.

Raqamli dunyoda inson qadriyatlarini saqlashda axborot xavfsizligi va raqamli etikani shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, onlayn muloqotning xavfsizligi va raqamli platformalardagi mas’uliyatli xulq-atvor insonning ichki dunyosi va qadriyatlarini himoya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli savodxonlik va ongli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali inson texnologiyalardan faqat qulaylik va samaradorlik maqsadida foydalangan holda, ma’naviy va axloqiy me’yorlarni ham saqlab qolishi mumkin. Jamiyat va ta’lim tizimi raqamli vositalardan foydalangan holda shaxsning ma’naviy rivojlanishini rag‘batlantiradigan muhit yaratishi zarur. Raqamli dunyo insonning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ham keng imkoniyatlar beradi. Multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va interaktiv platformalar insonning kreativ salohiyatini ochib beradi, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni tez o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan faqat passiv iste’molchi sifatida foydalanish insonning ichki dunyosi va shaxsiy qadriyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli vositalardan samarali va ongli foydalanish, ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Raqamli dunyo ijtimoiy faollik va jamiyat bilan integratsiyani kuchaytiradi. Onlayn platformalar orqali insonlar jamiyatdagi muammolarni muhokama qilishi, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi va jamoaviy faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Biroq, virtual muloqotning cheklanishi, anonimlik va noto‘g‘ri axborot oqimi ijtimoiy qadriyatlarning sustlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli dunyo bilan uyg‘unlashgan holda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni saqlash, ongli va mas’uliyatli muloqot madaniyatini shakllantirish zarur. Raqamli dunyo insonning global dunyoqarashini kengaytiradi. Axborot texnologiyalari orqali boshqa mamlakatlar va madaniyatlar bilan tanishish, turli fikr va tajribalarni o‘rganish imkoniyati insonni yanada ochiq fikrli, bag‘rikeng va hamkorlikka tayyor shaxsga aylantiradi. Bu jarayon insonning milliy va madaniy qadriyatlarini asrashga ham turtki bo‘lishi lozim. Raqamli vositalardan foydalangan holda inson qadriyatlari va madaniy merosni saqlash, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyani mustahkamlash muhimdir. Raqamli dunyo inson hayotining barcha jabhalariga ta’sir qilsa-da, inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uning ongli va mas’uliyatli harakatlariga bog‘liq. Texnologiyalar inson uchun vosita bo‘lib, uning ma’naviy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Shu nuqtai nazardan, raqamli dunyo bilan uyg‘unlashgan holda inson qadriyatlarini saqlash, axborot xavfsizligi va raqamli etikani rivojlantirish, shaxsiy va ijtimoiy hayotda barqarorlikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli vositalar nafaqat inson faoliyatini soddalashtiradi, balki yangi imkoniyatlar yaratadi, bilim olish, ijodiy va kasbiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli dunyo inson qadriyatlariga, axloqiy me’yorlarga va ma’naviy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shaxsiy

ma’lumotlarning himoyasi, virtual muloqotdagi anonimlik, noto‘g‘ri axborot oqimi va raqamli vositalardan faqat passiv foydalanish inson qadriyatlarini susaytirishi mumkin. Raqamli dunyo bilan uyg‘unlashgan holda inson qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalardan ongli va mas’uliyatli foydalanish, axborot xavfsizligi, raqamli etikani rivojlantirish, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlash raqamli dunyoda insonning haqiqiy salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar faqat inson foydasiga ishlatilsa, ular bilim olish, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy faollik va madaniy qadriyatlarni saqlashning samarali vositasiga aylanadi. Raqamli dunyo va inson qadri o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, texnologiyalarni shaxsiy va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan vosita sifatida ishlatish, shaxsiy rivojlanish va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy va amaliy nuqtai nazardan, raqamli dunyo bilan uyg‘unlashgan holda inson qadriyatlarini himoya qilish, ongli va mas’uliyatli raqamli hayotni targ‘ib qilish, shaxsiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning samarali yo‘llarini aniqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, N. *Raqamli texnologiyalar va jamiyat rivoji.* Toshkent O‘zbekiston, 2020.
2. Asqarov, M. *Zamonaviy texnologiyalar va inson qadri.* Toshkent Fan va Ta’lim, 2019.
3. Axmedov, S. *Internet va ijtimoiy tarmoqlar: xavf va imkoniyatlar*. Toshkent O‘qituvchi, 2021.
4. Xasanov, T. *Sun’iy intellekt va shaxsiy rivojlanish.* Toshkent Ilm-fan, 2020.
5. Yo‘ldoshev, F. *Raqamli madaniyat va axloqiy qadriyatlar*. Toshkent Ma’naviyat, 2018.
6. Raxmatov, O. *Texnologik taraqqiyot va insoniy qadriyatlar.* Toshkent O‘zbekiston, 2021.
7. Mirzaev, J. *Raqamli dunyo va axborot xavfsizligi.* Toshkent Fan, 2019.
8. Qodirov, B. *Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy shaxs.* Toshkent Ta’lim, 2020.
1. www.uzinfotech.uz
2. www.it-education.uz
3. www.digital.uz
4. www.e-uzbekistan.uz

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINI MILLIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLASHTIRISH MUAMMOLARI

Abdurahimov Ravshanbek O‘ktam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Kirish. Globallashuv zamonaviy jamiyat hayotiga faqat texnik yangiliklar, iqtisodiy integratsiya yoki ochiq bozorlar orqali emas, balki ma’no va qadriyatlar darajasida ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot chegaralarining qisqarishi, transmilliy madaniy oqimlar va global me’yorlar tizimining kengayishi natijasida yoshlar ongida “mahalliy” va “umumjahon” mezonlari bir paytda faol bo‘layotgan murakkab holat shakllanmoqda.

Shu fon va zamin ustida huquqiy ong ham bevosita o‘zgarishlarga duch keladi. Bir tomonda inson huquqlari, erkinlik, shaffoflik kabi global diskurslar, ikkinchi tomonda esa asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar tizimi turibdi. Ular o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash oson emas; ayniqsa, ijtimoiy tajribasi yetarlicha shakllanmagan, lekin axborot oqimining markazida turgan yoshlar uchun bu jarayon keskin ichki ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Mazkur tezisda aynan shu ziddiyatli maydon – globallashuv sharoitida yoshlar huquqiy ongini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish jarayoni falsafiy tahlil qilinadi, muammolar ko‘rinishlari va ularni yengib o‘tish yo‘nalishlari muhokama etiladi.

Yoshlar huquqiy ongini globallashuv sharoitida kamida uchta qatlamda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, informatsion qatlam. Xalqaro maydondagi huquqiy munozaralar, xorijiy sud amaliyoti, inson huquqlariga oid kampaniyalar, ijtimoiy tarmoqlardagi aksiyalar yoshlar tasavvuriga tez kirib boradi. Bu holat umumiy huquqiy sezgirlikni oshiradi, biroq kontekst yetishmagani uchun ko‘p hollarda yuzaki va hissiy reaksiyalarni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, normativ qatlam. Global huquqiy me’yorlar (xalqaro konvensiyalar, transmilliy standartlar) bilan milliy qonunchilik tizimi o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lishi mumkin. Yoshlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa shiorlar asosida “ideal huquqiy tuzilma”ni tasavvur qiladi va real milliy tizimni shu tasvir bilan solishtiradi. Bu solishtirish har doim ham adolatli bo‘lmaydi, ammo ichki norozilikni kuchaytirishi mumkin.

Uchinchidan, ishonch darajasi. Globallashgan media makonida korrupsiya, adolatsizlik, kuch ishlatish holatlari tez va ko‘zga tashlanadigan tarzda yoritiladi. Agar yoshlar bu jarayonlarning sabab va oqibatlarini chuqur tahlil qilish imkoniga ega bo‘lmasa, “har qanday huquqiy tizim adolatsiz” degan umumlashma shakllanishi ehtimoli bor. Bu esa huquqiy nigilizmning zamonaviy ko‘rinishidir.

Milliy qadriyatlar ko‘pincha barqaror va o‘zgarmas narsa sifatida tasavvur qilinadi. Aslida esa ular ham tarixiy jarayon davomida doimiy ravishda qayta talqin qilinib boradi. Globallashuv sharoitida bu qayta talqin jarayoni keskinlashadi.

Yosh avlod uchun:

– an’anaviy marosimlar, oilaviy munosabatlar, mahalliy urf-odatlar hamon muhim bo‘lib qolmoqda, lekin ular haqida tasavvur ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar, kino va reklama materiallari orqali shakllanmoqda;

– kollektivchilik, ko‘mak, birdamlik kabi qadriyatlar fonida individual erkinlik, shaxsiy muvaffaqiyat, shaxsiy hudud tushunchalari kuchaymoqda;

– kattalar avlodi uchun “o‘z-o‘zidan tushunarli” bo‘lgan ko‘plab afsonalar va timsollar yoshlar uchun shunchaki “madaniy fon”ga aylanmoqda, ularning me’yoriy mazmuni esa xiralashib bormoqda.

Natijada milliy qadriyatlar yoshlar uchun ko‘pincha estetik, emotsional yoki “brend” darajasida qabul qilinadi, huquqiy qarorlar qabul qilishda esa global me’yorlar va individual manfaatlar ustunlashishi mumkin. Bu jarayon huquqiy ongni milliy ma’naviy ildizlardan uzib qo‘yish xavfini tug‘diradi.

Globallashuv sharoitida yoshlar huquqiy ongini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishda bir nechta markaziy muammo ajralib turadi:

Me’yorlar to‘qnashuvi: Ba’zi global diskurslar (mutlaq individualizm, “cheksiz erkinlik” g‘oyasi) jamoaviy mas’uliyat, kattaga hurmat, oilaviy majburiyatlar kabi qadriyatlar bilan keskin zid ko‘rinishda taqdim etiladi. Yoshlar ongida “zamonaviy bo‘lish” va “an’anaga sodiq qolish” bir-birini inkor qiluvchi tanlov sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Huquqiy relativizm: Global madaniy maydonda “har bir jamiyat o‘z normasi bilan yashaydi” degan qarash keng tarqalgan. Agar bu fikr tanqidiy filtrsiz qabul qilinsa, “demak, hech qanday umumiy mezon yo‘q, hamma narsa shartli” degan xulosa kelib chiqishi mumkin. Bu esa yoshlarni ham milliy, ham xalqaro huquqiy me’yorlarni jiddiy qabul qilmaslikka olib keladi.

Simvolik bo‘linish: Bir tomonda – milliy ramzlar, tarixiy shaxslar, marosimlar; ikkinchi tomonda – global brendlar, ommaviy madaniyat qahramonlari, internet memlari. Yoshlar ko‘p hollarda ikkinchi spektrga ko‘proq hissiy bog‘lanish hosil qiladilar. Natijada huquqiy qarorlar ham shu ikkinchi maydon ta’siri ostida qabul qilinishi mumkin.

Ta’limdagi tafovut: Ta’lim tizimi ko‘pincha huquqiy ong va milliy qadriyatlar masalasini alohida bloklar ko‘rinishida beradi: bir darsda – huquqiy bilimlar, boshqasida – ma’naviyat va tarbiya. Globallashuv sharoitida esa yoshlarning ichki tajribasi integratsiyalashgan: ular bitta voqea ustida ham huquqiy, ham axloqiy, ham utilitar nuqtai nazardan o‘ylaydi. Ta’lim mazmuni bu integratsiyani yetarlicha aks ettirmasa, ichki bo‘linish kuchayadi.

Globallashuvning ortga qaytarib bo‘lmaydigan jarayon ekanini inobatga olgan holda, muammolarni “taqiqlash” yoki “yopib qo‘yish” orqali emas, balki qayta talqin va muloqot orqali yengib o‘tish mumkin. Bu borada bir nechta konseptual yo‘nalishlarni sanash mumkin:

– dialogik yondashuv: milliy qadriyatlar va global huquqiy me’yorlarni qarama-qarshi emas, balki muloqotda bo‘lgan ikki tajriba sohasi sifatida talqin qilish;

– refleksiv yondashuv: yoshlarni tayyor shiorlarni qabul qiluvchi emas, balki axborot va qadriyatlarni tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllantirish;

– integrativ yondashuv: huquqiy tarbiya va ma’naviy tarbiyani bitta konseptual ramkada birlashtirish, masalan, adolat, mas’uliyat, hurmat, sha’niy qadr kabi tushunchalarni ham huquqiy, ham axloqiy jihatdan ochib berish;

– identitetni qayta qurish: yoshlar uchun “milliy bo‘lish”ni global ochiqlik bilan birga tasavvur qilish imkonini beradigan yangi identitet modelini ishlab chiqish. Bunda milliylik – cheklanish emas, balki dunyoga o‘ziga xos hissani qo‘shish imkoniyati sifatida ko‘rsatiladi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida yoshlar huquqiy ongini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi oddiy “an’anani saqlab qolish” yoki “zamonga moslashish” tanlovidan ancha murakkabdir. Bu – ma’no, identitet va mas’uliyat darajasidagi chuqur falsafiy jarayondir.

Yoshlar ongida global huquqiy diskurslar va mahalliy ma’naviy meros o‘rtasida ko‘rinmas, lekin kuchli kurash kechmoqda. Agar bu jarayonga faqat ma’ruzalar, shiorlar yoki ma’muriy choralar orqali emas, balki dialog, refleksiya va integratsiyaga tayangan holda yondashilsa, huquqiy ong ham, milliy qadriyatlar ham yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin.

Shu ma’noda, globallashuvni xavf sifatida emas, aksincha, huquqiy ongni yangilash va milliy qadriyatlarni chuqurroq anglash uchun imkoniyat sifatida ko‘ra oladigan konseptual yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu vazifa ta’lim tizimi, ilmiy hamjamiyat, madaniy siyosat va raqamli platformalar hamkorligini talab etadi.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O’QITISHNING SAMARALI USULLARI

Abduraxmonov Raxmiddin
University of economics and pedagogy talabasi
Tohirova Mohichehra
University of economics and pedagogy o‘qituvchisi

”Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so’rasangiz , farzandlarimizning ta’limi va tarbiyasi deb javob beraman.”

Shavkat Mirziyoyev.

Kundan kunga texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda yoshlarning texnik, madaniy savodxon bo’lishi robototexnika fanlari yaxshi o’zlashtirishi doimgidan ham muhimroqdir. Shunga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi F-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan ’’O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi’’da hamda O’zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida STEAM ta’limini joriy qilish yuzasidan alohida vazifalar belgilangan. Boshlang’ich ta’lim-bu bolalarning ilmiy dunyoqarashi shakillanadigan, asosiy bilim va ko’nikmalarini o’zlashtiradigan muhim bosqichdir. Tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) bolalarga atrof-muhitni tushunish, ilmiy metodlarni qo’llash va analitik fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishda asosiy o’rin tutadi. Ammo bu fanlarni o’rgatishda samarali usullarni qo’llash juda muhim, chunki faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, o’quvchilarga amaliy faoliyat orqali ham ta’lim berish kerak. Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda tabiiy fanlarni o’qitishning samarali usullari va yondashuvlari haqida so’z yuritamiz.

Fan-texnologiya, muhandislik, matematika va san’at birgalikda o’quvchilar qobiliyatini rivojlantishi STEM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) deb nomlanadi. Bu metod o’quvchilarning innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari shakllantirishiga olib keladi. Masalan, boshlang’ich sinflarda tabiiy fanini o’qitish jarayonida o’quvchilar biror o’simlikning turli qismlarini sinfda do’stlari bilan eksperiment o’tkazib, ilm-fan, muhandislik va san’atni birlashtirgan holda 3D formatda modellashtirishlari yoki ilmiy loyiha yaratishlari mumkin. Ushbu metodlardan foydalanish o’quvchilarga o’zlarini ilmiy fikrlashga, tajriba o’tkazishga va tabiatni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yana bir misol keltirib o’tsak; yurtimizda hozirgi kunda kuzatilayotgan ob-havo o’zgarishlarini o’quvchilarda quruq, yog’ingarchiliklarsiz, changli havo sharoitini kuzatish, sabablari haqida oddiy tasavvur hosil qilish va uni kundalik hayot bilan bog’lash orqali STEAM kompetensiyalarini rivojlantirish.

1. Science (Fan) ’’Quruq havoni kuzatamiz’’ .

O’quvchilar maktab hovlisida havoning quruqligi, chang miqdori , osmonning loyqaligini kuzatadilar.

O’qituvchi oddiy tushuntirish beradi: -Nima uchun yomg’ir yog’mayapti? -Nima uchun chang ko’tarilyapti? -Qurg’oqchilikda o’simliklar va darxtlar qanday holga keladi?

2. Technology (Texnologiya) ’’Chang darajasi jurnali’’

Planshet yoki kompyuterda chang darajasi belgilari (past, o’rtacha, yuqori) bo’lgan raqamli jadval tuziladi. O’quvchilar har kuni belgi tanlab ob-havo ma’lumotlarini kiritadi. 3-5 kun ichida ’’ Chang ko’proq qaysi kun bo’ldi?’’ degan savol orqali tahlilga yo’naltiriladi.

3. Engineering (Muhandislik) ’’ Anti-chang filtr’’

Bolalar oddiy materiallar yordamida (paxta, mato, plastik idish) oddiy havo filtri modeli yasaydi. Filtrdan oldin va keyin o’tgan changli havoni ko’rsatish uchun paxta rangi solishtiriladi. Bu bolalarga changning havoda qanday harakatlanishini tushuntiradi.

4. Art (San’at) ’’Quruq havo manzarasi’’

O’quvchilar qurg’oqchil ob-havoni obrazli tasvirlaydi. Sarg’aygan o’tlar, chang ko’tarilgan yo’l, havo tumanlangan ko’rinishida. Ko’proq och sariq-jigarrang ranglaridan foydalanish orqali ijodiy fikrlash mustahkamlanadi.

5. Math (Matematika) ’’Quruqlik darajasini o’lchaymiz’’

O’qituvchi o’quvchilarga oddiy ’’namlik o’lchagik’’ modeli (ho’l va quruq matoni vaznini solishtirish) ni ko’rsatadi. Bolalar 2-3 kunlik kuzatuv asosida jadval tuzadi. –’’

Bugun havo qanchalik quruq?’’, -’’Qaysi kun chang ko’proq bo’ldi?’’. jadvaldan foydalanib diagramma chizadilar.

Metod yordamida o’quvchilar quyidagilarni o’rganadilar. Qurg’oqchil va changli ob-havoning asosiy sabalarini soda tilde tushunadi. Havoni kuzatish, solishtirish va o'lchash ko'nikmasini egallaydi. Muhandislik modellarini yasash orqali ijodkorlikni rivojlantiradi. Raqamli vositalardan foydalanish orqali zamonaviy ko’nikmalar hosil qiladi. San’at va matematika orqali ob-havo haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.

Gamification-ya’ni o’yinlashtirish. Bu o’yinlardagi mexanikalarni, dizayn elemntlarini va elementlarini qo’llash orqali o’quv jarayonini rag’batlantirish usuli. Bu metod o’quvchilarda qiziqishni oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va muvaffaqiyatni mukofotlashga qaratilgan. Masalan, ochkolar, sertifikatlar, sovrinlar, darajalar va reytinglar kabi narsalarni ta’limga qo’llash orqali amalga oshiriladi. Gamifikatsiya, shuningdek, qatnashchilarni rag’batlantirish uchun, qo’shimcha dam olish vaqti, o’yin vaqtini, o’quv jarayonini ko’proq o’rganishga undash orqali amalga oshirilishi mumkin. Tabiiy fanlarni o’rgatishda o’yinlar orqali o’quvchilarni yanada qiziqtirish mumkin. Masalan, ilmiy o’yinlar, labaratoriya simulyatsiyalari yoki tabiat haqidagi viktorinalar tashkil qilish. O’quvchilar o’yinlar orqali ilmiy tushunchalarni o’zlashtiradilar va ilmiy tushunchalar xotirasida tez saqlanib qoladi. Bu metodda o’zaro raqobatlashish orqali o’z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Inquiry-Based Learning (I-BL)-savolga asoslangan o’quv metodi o’quvchilarni savollar berish, tadqiqot o’tkazish va o’z fikrini do’stlari bilan baham ko’rish orqali o’rganishga undaydigan o’qitish usuli. Bu usulda o’quvchilar jarayonning faol ishtirokchisi bo’lib, o’z qiziqishlari va muammolarini o’rganish orqali bilim orttiradilar. O’quvchilar o’z qiziqishlari doirasida undaladi. Tabiiy fanlarni o’rgatishda bu yondashuv juda samarali, chunki o’quvchilar savollarni o’rganish orqali yangi bilimlarga erishadilar. Masalan, tabiiy fan darsida, o’quvchilarga (qanday qilib o’simlik uruqdan unib chiqadi?) kabi savollarni berish va ular bilan birgalikda tajribalar o’tkazish orqali o’quvchilarda ilmiy tafakkur va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirish mumkin. O’quvchilarga tadqiqot o’tkazish uchun, o’z topilmalarini taqdim etish uchun texnologiyalardan foydalanishni o’rgatib borish muhim. O’qituvchi sinfda o’quvchilar erkin fikr bildira oladigan va xato qilishdan qo’rqmaydigan muhit yaratishi juda zarur.

Hozirgi rivjlangan zamonda jamiyatda tabiatga ijobiy munosabatni uyg’otish juda muhim va mushkul vazifa bo’lib qolmoqda. Tabiatni asrash, uni gullab yashnashiga hissa qo’shish, tabiiy boyliklardan ehtiyotlab foydalanish, gaz, suvni va elektrni tejash kabi masalalar ham jamiyat oldida turgan katta muammodir. Buning uchun xalqimizga bolalikdan tabiatga muhabbat va to’g’ri munosabatni shakllantirib boorish kerak. Buning uchun Boshlang’ich sinflarda tabiiy fanlarni o’qitish jarayonida interfaol, tajribaviy va amaliy metodlardan foydalanish o’quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol o’rganishga undash zarur. O’qituvchi darsni puxta rejalashtirib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, har bir o’quvchini o’quv jarayoniga jalb qilsa, tabiiy

fanlarni o’rganish, nafaqat bilim manbayi, balki hayotiy ko’nikmalarni shakllantiruvchi vosita bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi ’’O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasini tasdiqlash to’grisida’’gi PF-5712-son Farmoni.-T.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son,29.04.2019.

2. Tabiiy fanlar. Biologiya fani o’qituvchi va metodistlari uchun metodik qo’llanma. Toshkent 2022. Muallif M. Pardayeva, M. Ergasheva. ’’O’zbekiston’’ nashriyot uyi. 978-9943-9505-8-0.

3. A.Avloniy Nomidagi Pedagogik Mahorat Milliy Instituti https://avloniy.uz.

STEM TA’LIM ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Abduraximova Nilufar Abdug`afforovna
O`zMPU magistranti

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki ularning kasbiy madaniyati, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va innovatsion fikrlash salohiyatiga ham yuqori talablar qo‘ymoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga STEM ta’lim yondashuvini joriy etish pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. STEM ta’lim fanlararo integratsiya, amaliy faoliyat va innovatsion metodlarga asoslanganligi bilan bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Asosiy qism. Kasbiy madaniyat tushunchasining pedagogik mazmuni

Kasbiy madaniyat pedagogika fanida muhim o‘rin egallagan tushuncha bo‘lib, u pedagog shaxsining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayonni ifodalaydi. Umumiy ma’noda, kasbiy madaniyat deganda shaxsning kasbiy sohada erishgan bilimlari, ko‘nikmalari, qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijodiy yondashuvlarining majmuasi tushuniladi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu tushuncha pedagogning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati va ma’naviy-axloqiy fazilatlarining uzviy birligini ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy madaniyat pedagogning kasbiy yetukligini belgilovchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Masalan, o‘zbek olimlari N.A. Muslimov va N.N. Azizxo‘jayeva o‘z asarlarida kasbiy madaniyatni

pedagogning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan madaniy-axloqiy va professional komponentlarning sintezi deb ta’riflaydilar.

Kasbiy madaniyatning pedagogik mazmunini chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, uni bir necha asosiy komponentlarga ajratish mumkin. Birinchidan, kognitiv komponent: bu pedagogning nazariy bilimlari, pedagogika, psixologiya, fanlar metodikasi va boshqa sohalardagi chuqur bilimi. Ikkinchidan, operatsional komponent: pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan ko‘nikmalar, masalan, darsni loyihalash, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, baholash usullari. Uchinchidan, aksiologik komponent: qadriyatlarga asoslangan yondashuv, ya’ni pedagogning mas’uliyati, halolligi, insonparvarligi va ijtimoiy adolat tamoyillari. To‘rtinchidan, ijodiy komponent: innovatsion fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish va kasbiy faoliyatga yangi yondashuvlar kiritish qobiliyati.

Zamonaviy pedagogik ta’limda kasbiy madaniyatni shakllantirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy identifikatsiyasini ta’minlash bilan bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglar oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan davrda kasbiy madaniyatning asoslarini egallashlari lozim, chunki bu ularning kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunida ta’lim jarayonida shaxsni kasbiy madaniyat asosida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xalqaro tajribada, masalan, OECDning Education 2030 konsepsiyasida kasbiy madaniyat ta’limning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omil deb ko‘rsatilgan.

Kasbiy madaniyatning rivojlanishi pedagogning shaxsiy o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. U nafaqat kasbiy bilimlarni, balki emotsional intellektni, reflektiv fikrlashni va doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik adabiyotlarda kasbiy madaniyatni baholash mezonlari sifatida quyidagilar keltiriladi: kasbiy mas’uliyat darajasi, innovatsion faollik, jamoaviy ishlay olish qobiliyati va axloqiy me’yorlarga rioya qilish. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nazariy va amaliy ta’limni uyg‘unlashtirish orqali bu jarayonni ta’minlaydilar.

STEM ta’limning kasbiy madaniyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

STEM ta’lim yondashuvi (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Mathematics – matematika) zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan innovatsion usul bo‘lib, u fanlararo integratsiyaga asoslangan. Ushbu yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega, chunki u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradi. STEM ta’limning asosiy printsipi – muammoga asoslangan o‘qitish (problem-based learning), bu orqali bo‘lajak pedagoglar real hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Birinchidan, STEM ta’lim fanlararo integratsiyani ta’minlaydi. Masalan, matematika va fizika fanlarini birlashtirib, loyiha ishlarini tashkil etish orqali pedagoglar fanlar orasidagi bog‘liqlikni tushunadilar. Bu esa ularning kasbiy madaniyatidagi kognitiv komponentni kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotlarda, masalan, R.W. Bybee va T. Kelley o‘z asarlarida STEM ta’limning integratsiya orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishini

ta’kidlaydilar. O‘zbekiston kontekstida, oliy ta’lim muassasalarida STEM ta’limni joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga muvofiq bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarni innovatsion ta’limga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, STEM ta’lim amaliy faoliyat va loyiha ishlariga asoslangan. Bo‘lajak pedagoglar loyiha faoliyatida ishtirok etib, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, robototexnika loyihasini ishlab chiqish jarayonida pedagoglar texnologiya va muhandislikni qo‘llab, matematik modellarni yaratadilar. Bu ko‘nikmalar kasbiy madaniyatning operatsional va ijodiy komponentlarini kuchaytiradi. UNESCOning STEM Education for Sustainable Development hujjatida ta’kidlanishicha, loyiha faoliyati shaxsni barqaror rivojlanishga yo‘naltiradi va kasbiy mas’uliyatni oshiradi.

Uchinchidan, STEM ta’lim innovatsion metodlarni qo‘llashga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar, virtual realklik va simulyatsiyalardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy ta’lim vositalari bilan ishlay olishga o‘rgatadi. Masalan, N. Sayidahmedovning “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” asarida innovatsion metodlar kasbiy madaniyatni rivojlantirishning kaliti deb ko‘rsatilgan. STEM ta’lim orqali pedagoglar reflektiv fikrlashni egallaydilar, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va yaxshilash qobiliyatini.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, STEM ta’lim asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning dolzarb muammolaridan biridir. Tadqiqot natijalari STEM ta’lim yondashuvi pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu maqolada ilgari surilgan g‘oya va xulosalar oliy ta’lim muassasalarida pedagogik ta’limni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent.
3. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. – Toshkent.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.
5. Sayidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
6. Bybee R.W. STEM Education: Opportunities and Challenges.
7. Kelley T., Knowles J. A Conceptual Framework for Integrated STEM Education.
8. UNESCO. STEM Education for Sustainable Development.
9. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills.

YOSHLAR MA'NAVIY QADRIYATLARIGA OMMAVIY MADANIYATNING TA'SIRI

Abramatova Saida
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Kirish

1. Mavzuning dolzarbligi:

• Globallashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida ommaviy madaniyatning keng tarqalishi.

• Yoshlar ongiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida ommaviy madaniyatning o'rni.

• Milliy qadriyatlarning saqlanishi va yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar.

2. Muammoning o'rganilganlik darajasi:

• Mavzuga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili.

• Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati.

3. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

• Maqsad: Ommaviy madaniyatning yoshlar ma'naviy qadriyatlariga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish va salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

• Vazifalar:

• Ommaviy madaniyat tushunchasining mohiyatini ochib berish.

• Uning yoshlar ongiga ta'sir etish mexanizmlarini o'rganish.

• Ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash.

• Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar himoyasining ahamiyatini ko'rsatish.

• Yoshlarni ma'naviy himoyalashda oila, ta'lim va jamoatchilikning rolini belgilash.

4. Tadqiqotning obyekti va predmeti:

• Obyekt: Yoshlarning ma'naviy qadriyatlari.

• Predmet: Ommaviy madaniyatning yoshlar ma'naviy qadriyatlariga ta'siri.

5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:

• Ilmiy yangiligi: Mavzuning yangi yondashuvlar asosida chuqur tahlili.

• Amaliy ahamiyati: Pedagogik, sotsiologik va madaniy sohalar uchun amaliy tavsiyalar.

6. Tezisning tuzilishi: Kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iboratligi.

Asosiy qism. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oilaning o'rni.

Oilaning ma'naviy poydevor sifatida ahamiyati: Oila – yosh avlod tarbiyasining birinchi va eng muhim bosqichi. Farzandning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi, axloqiy

me'yorlari va qadriyatlar tizimi aynan oilada shakllanadi. Ota-onalar bolalarga milliy an'analar, urf-odatlar, til va tarixni o'rgatuvchi asosiy ustozlardir.

Ota-onalarning namunasi va muloqoti: Ota-onalarning turmush tarzi, xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va farzandlari bilan ochiq muloqoti yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ommaviy madaniyatning zamonaviy ko'rinishlari haqida ochiq suhbatlar o'tkazish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntirish zarur.

Milliy va diniy qadriyatlarni singdirish: Oilada milliy qo'shiqlar, ertaklar, hikoyalar orqali yoshlarga vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni singdirish. Diniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, ma'naviy etuklikni ta'minlash.

Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish: Oilaviy kitobxonlik an'analarini joriy etish, birgalikda muzeylar, teatrlar, tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish. Sport va ijodiy faoliyatga rag'batlantirish orqali yoshlarning bo'sh vaqtini ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlaridan himoyalash.

Ta'lim muassasalarining (maktab, OTM) ommaviy madaniyatga qarshi kurashdagi roli.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish:

O'quv dasturlariga milliy g'oyani singdirish: Fanlarni o'qitishda milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar merosi, adabiy an'analarga alohida e'tibor berish. Milliy madaniyat va san'atning yutuqlarini keng targ'ib qilish.

• Tadbir va loyihalar: "Ma'naviyat soatlari", "Qadriyatlarimizni bilasizmi?" mavzusida viktorinalar, ijodiy kechalar, uchrashuvlar, seminarlar va treninglar tashkil etish. Yoshlarni turli ijtimoiy foydali loyihalarga jalb qilish.

• Mahalliy qadriyatlar va an'analarni o'rganish: Mahalliy urf-odatlar, marosimlar, hunarmandchilik kabi merosni o'rganishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

• Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish:

• Media savodxonligini oshirish: Yoshlarga ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internetdagi ma'lumotlarning haqiqiyligi, manipulyatsiya usullari, zararli kontentni aniqlash ko'nikmalarini o'rgatish. Ularni axborotga nisbatan tanqidiy yondashishga o'rgatish.

• Munozara va debat klublari: Yoshlar o'rtasida dolzarb ijtimoiy-siyosiy va madaniy mavzularda munozaralar tashkil etish. Bu ularning o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash va dalillar asosida xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

• Muqobil kontentni taklif qilish: Ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga qarshi, sifatli milliy va jahon adabiyoti, san'ati, filmlari va boshqa madaniy mahsulotlarni tavsiya etish.

Xulosa. Ushbu tezis tadqiqoti "Yoshlar ma'naviy qadriyatlariga ommaviy madaniyatning ta'siri" mavzusini chuqur tahlil qilib, globallashuv va axborot asrida yoshlar ongiga yo'naltirilgan zamonaviy tahdidlar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini

o'rganishga bag'ishlandi. O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi muhim xulosalarga erishildi:

1. Ommaviy madaniyatning murakkab tabiati: Tadqiqot ommaviy madaniyatning bir tomonlama emas, balki murakkab hodisa ekanligini ko'rsatdi. U o'zida informatsion taraqqiyot, yangi g'oyalar almashinuvi kabi ijobiy jihatlarni mujassam etgan holda, milliy o'ziga xoslikning yo'qolishi, axloqiy qadriyatlarning deformatsiyasi, iste'molchilik ruhiyatining shakllanishi, zo'ravonlik va buzg'unchi g'oyalarning tarqalishi kabi salbiy ta'sirlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yoshlar ushbu ta'sirlarga nisbatan sezgirroq bo'lib, ularning dunyoqarashini shakllantirishda ommaviy madaniyatning roli tobora ortib bormoqda.

2. Ma'naviy immunitetning zaruriyati: Yoshlarning ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlariga sodiqligini saqlash uchun ularda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu immunitet nafaqat yot g'oyalarga qarshi turish, balki ularni tanqidiy tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarini farqlash qobiliyatini ham anglatadi.

3. Barcha ijtimoiy institutlarning mas'uliyati: Yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlaridan himoya qilish biror bir institutning yakka o'zi bajarishi mumkin bo'lgan vazifa emas. Bu borada oila, ta'lim muassasalari (maktablar, oliy ta'lim muassasalari), jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligi va mas'uliyati muhim ahamiyatga ega. Har bir institut o'ziga xos usullar va vositalar orqali yoshlarning ma'naviy kamolotiga hissa qo'shishi lozim.

Tadqiqot natijalarining asosiy topilmalari:

• Oila – ilk ma'naviyat maskani: Oilada milliy qadriyatlarga hurmat, ota-onaga ehtirom, kattalarga izzat, kichiklarga shafqat kabi tushunchalarni singdirish, farzandlar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish asosiy omildir.

• Ta'lim – tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish omili: Ta'lim tizimi yoshlarga nafaqat bilim berishi, balki ularda tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishi shart. O'quv dasturlariga milliy madaniyat va tarixga oid materiallarni keng kiritish muhimdir.

• Jamoat tashkilotlari va OAV – muhit yaratuvchi kuchlar: Ushbu institutlar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ijodiy va ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish orqali, shuningdek, sifatli va milliy g'oyalarga mos kontent yaratish orqali ma'naviy immunitetni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Amaliy tavsiyalar va takliflar:

1. Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish: Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida muntazam uchrashuvlar, seminarlar tashkil etib, ommaviy madaniyatning ta'siri haqida xabardorlikni oshirish.

2. Ta'limda media savodxonligini majburiy fan sifatida kiritish: Yoshlarga internetdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, manipulyatsiya usullarini aniqlash va xavfsiz internetdan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish.

3. Milliy kontent ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash: Davlat va jamoat fondlari orqali milliy filmlar, teleko'rsatuvlar, musiqiy asarlar, kitoblar va internet resurslarini yaratishni rag'batlantirish.

4. Yoshlar orasida munozara va debat madaniyatini rivojlantirish: Turli mavzularda munozara klublari va intellektual o'yinlar tashkil etish orqali yoshlarning o'z fikrini erkin va asosli ifodalash qobiliyatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 80 b.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri). 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1310-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4.O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA). Ommaviy madaniyat va uning yoshlarga ta'siri haqida. URL: https://uza.uz/uz/posts/ommaviy-madaniyat-va-uning-yoshlarga-tasiri-haqida_458129 (Murojaat sanasi: 14.12.2025).

5.Ziyouz.com. Ma'naviyat va ma'rifatga oid maqolalar to'plami. URL: https://ziyouz.com/ (Murojaat sanasi: 14.12.2025).

6.Wikipedia. Массовая культура. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Массовая_культура (Murojaat sanasi: 14.12.2025).

YOSHLAR MA’NAVIY FAOLLIGI VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEZONLARI

Abrayev Sherzod
Samarqand davlat universiteti Matematika fakulteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha dekan o‘rinbosari, SamDChTI mustaqil izlanuvchisi

Jamiyatda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ijtimoiy-siyosiy islohotlarning o‘ziga xos tamoyili bo‘lib, mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining ko‘p ming yillik falsafasi, ijtimoiy madaniyati, milliy maqomi, mentaliteti, tabiiy va demografik vaziyatdan kelib chiqadigan yangi tamoyillarning qaror topishi hamda ularning amalga oshishi bilan bog‘liq. Ushbu tamoyillarning jamiyatda ro‘yobga chiqishi tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lib, davlat va jamiyatning hayotiy manfaatlarini ifodalaydi. Inson ma’naviyatini yuqori darajada ta’minlanishi tufayli jamiyatda ijtimoiy tanglik va beqaror vaziyatlar chetlab o‘tiladi, demokratik yangilanishlarning muhim bosqichiga qadam qo‘yiladi.

Ijtimoiy va ma’naviy barqaror jamiyatni yanada rivojlantirish sharoitida xalqning o‘zligini anglashi, yurt ravnaqi yo‘lida inson manfaati, erkinligi va farovonligini ta’minlash talabi aniq va ravshan belgilab olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni bajarish avvalo ma’naviy sohadagi islohotlar jarayonini izchil va samarali amalga oshirilishiga bog‘liq. Shunday qilib, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishni ta’minlash borasidagi islohotlar falsafasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarning barcha sohalaridagi o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, jamiyat manfaatlarini ta’minlashda maqsad va vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. “Axborotlashgan jamiyatda yoshlarning global axborot tizimi bilan bemalol tillasha olish, innovatsion madaniyatni shakllantirish, zamonaviy tamaddun maqsadlari va muddaolariga javob bera olishga qodir bo’lgan innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifaga aylandi”1.

Yoshlar ma’naviy faolligi yoshlarning davr talablari, aholi ehtiyojlari bilan bog‘liq vaziyatlarni to‘la anglashi, o‘z navbatida umumxalq ishi ushun fidoyilik bilan xizmat qilishga tayyor bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, yoshlar ma’naviy faolligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi bilan birgalikda, har bir mustaqil soha bo‘yicha fundamental bilimlar va huquqiy jihatlarni o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, yoshlar o‘z ma’naviy salohiyatlarini oshirib borishlari uchun ishlab shiqarish va axborot texnologiyalari sohalaridagi bilimlarini doimo boyitib borishni, tizimlar bo‘yicha doimiy yangi ma’lumotlarni to‘plashi, muhim ijtimoiy vazifalarni o‘z vaqtida bajara olishi, o‘z kelajagi uchun kerak bo‘ladigan yangicha axborotlarni izlab topish, ularni tahlil etish, tegishli xulosalar berish va amaliy faoliyatda qo‘llay bilishlari talab etiladi. Falsafa qomusiy lug‘atda ta’kidlanishicha, “Millatning abadiyligi, uning barqarorligini ta’minlashning asosiy omili uning ichki ma’naviy-ruhiy salohiyatidir. Millatlarning ichki ruhiy salohiyati, yaratuvchanlik qobiliyati, matonati, tinimsiz mehnati, tadbirkorligi va o‘ziga xosligini rivojlantirish asosida hozirgi zamon sivilizatsiyasi yuzaga kelgan”[2].

Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy islohotlar jarayonidagi tashabbuslari muhim ijtimoiy masalalarni hal etadi. Bu masalada ham turli xil tuzilmalar va ijtimoiy institutlar mavjudki, ular yoshlarning ma’naviy sohadagi innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bir joyga jamlash, tashkil etish va targ‘ibot qilish bilan shug‘ullanib kelmoqda. Ular tomonidan olib borilgan ma’naviy faoliyat tufayli mamlaktimizda zamonaviy ilg‘or bilimlar va texnologiyalar bilan boyitilgan jarayonlar takomillashib bormoqda. O.G‘ulomovning ta’kidlashicha, “Yangi O‘zbekiston jamiyatining asoslari mustahkamlanayotgan bugungi taraqqiyot sharoitida yoshlar faoligini oshirish, bunda

1 Saitkasimov A. Ilm-fan va oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishning falsafiy asoslari. //Falsafa va huquq. 2020/2. –B.62.

2 Falsafa qomusiy lug‘at. –Toshkent, Sharq, 2004. –B.261.

birinchi navbatda barkamol avlod ma’naviyatini yuksaltirish asosida ularning axloqiy intellektual dunyosida pozitiv o‘zgarishlarni ta’minlab borish muhim”3.

Yoshlarning ma’naviy sohadagi faolligi va salohiyatini rivojlantirishi borasida quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o‘z ustida doimiy ishlashi;
- kasbiy, ma’naviy va ma’rifiy bilimlari va ijodiy ko‘nikmalarini doimiy takomillashtirib borishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohadagi masalalarga qarshi kurashishda o‘z tashabbuslarini ilgari surish;
- doimiy ijtimoiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik va tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- bunyodkorlik va yaratuvchanlikka xos bo‘lgan ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or ijtimoiy texnologiyalar, usul hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- o‘zining ijtimoiy va ma’naviy faoliyatiga zamonaviy fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini samarali tadbiq etish.

Yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish jarayoni ularning har tomonlama qobiliyatlari va ijodiy xususiyatlarini namoyon etishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayon ularda o‘ziga xos ma’naviy tashabbuslarni va ilg‘or ijtimoiy sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug‘atda “Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning ushun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim”[4], deb ifodalangan.

Yoshlarda ma’naviy faollikni ta’minlashda yoshlarning ma’rifiy takomil asosida o‘z-o‘zini rivojlantirish ham muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarning o‘zida ijtimoiy-ma’naviy tajriba, ko‘nikmalar va malakalarni takomillashtirib borish yo‘lida puxta o‘ylangan iqtisodiy, ijtimoiy yoki ma’naviy vazifalarni hal etishga qaratilgan sa’y-harakatlar asosida mustaqil ravishda qaror chiqara olish qobiliyatini shakllantirish va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish qodirligini namoyon etishi muhim xususiyat hisoblanadi. Insonning ma’naviy o‘zini o‘zi rivojlantirish borasidagi masala falsafiy jihatdan olib qaralganda ma’naviy tizimda insonning har tomonlama takomili, uning erkin asosida o‘zini o‘zi qadrlay olishi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga harakat qilishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saitkasimov A. Ilm-fan va oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishning falsafiy asoslari. //Falsafa va huquq. 2020/2. –B.62.

2. Falsafa qomusiy lug‘at. –Toshkent, Sharq, 2004. –B.261.

3 G‘ulamov O. Yoshlar ma’naviy kamolotida ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish istiqbollari. //Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385 Volume 5 | Issue 5 | 2024. –B. 36.

4 Qobiliyat. https://qomus.info/ensyslopedia/sat-q/qobiliyat-uz.

3. G‘ulamov O. Yoshlar ma’naviy kamolotida ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanish istiqbollari. //Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385 Volume 5 | Issue 5 | 2024. –B. 36.

4. Qobiliyat. https://qomus.info/ensyslopedia/sat-q/qobiliyat-uz.

ZAMONAVIY YOSHLAR AXLOQIY KAMOLOTIDA “NAFS”NI TARBIYALASH MASALASI

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich
University of Business and Science Toshkent filiali
dotsenti, falsafa doktori (PhD), FarDU (DSc) mustaqil tadqiqotchi.

Zamonaviy globallashuv jarayoni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, bu jarayon yoshlar hayoti va tarbiyasiga ham sezilarli ta’sirini ham ko‘rsatdi. Global kommunikatsiya tizimlari, internet va raqamli texnologiyalar yoshlarni nafaqat bilim olish va dunyoqarashni kengaytirish vositasi sifatida birlashtiradi, balki ularni axloqiy va ma’naviy jihatdan murakkab ijtimoiy muhitga ham duchor qilmoqda. Aynan shu holat yoshlarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi, chunki ular bir vaqtning o‘zida an’anaviy qadriyatlar va global madaniyat elementlari bilan to‘qnash keladi. Raqamli madaniyat yoshlar ongiga yangi axloqiy normativlarni kiritadi. “Ijtimoiy tarmoqlar va blogosfera orqali yoshlar kundalik hayotda tezkor ma’lumot va qoniqish oladigan muhitda yashaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning sabr-toqat, mas’uliyat va iroda kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonini qiyinlashtiradi”[1]. Masalan, “like” va “share” kabi ijtimoiy tan olingan indikatorlar yoshlarni tezkor natijaga erishishga, tez qoniqish olishga, ba’zida esa noto‘g‘ri axloqiy tanlov qilishga undaydi. Shu bilan birga, raqamli platformalarda tarqatiladigan kontentning sifati ham yoshlar axloqiy kamolotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Manipulyativ materiallar, stereotiplar va feyk xabarlar yoshlarda axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini susaytiradi.

Globallashuv jarayoni yoshlar madaniyatini ham jadal ravishda transformatsiya qilmoqda. Turli madaniyatlar, qadriyatlar va axloqiy tizimlar o‘zaro aralashib, yoshlar uchun yangi axloqiy muhit yaratadi. Ushbu muhitda an’anaviy va mahalliy axloqiy qoidalar bilan global madaniyat me’yorlari to‘qnash kelishi mumkin. Masalan, iste’molchilik madaniyati yoshlar orasida individualizmni kuchaytiradi, erkinlikni ortiqcha qadrlashga va ijtimoiy majburiyatlarni e’tiborsiz qoldirishga olib keladi. Shu bilan birga, global media va marketing strategiyalari yoshlarni moddiy qoniqish va tashqi ko‘rinish asosidagi muvaffaqiyatga intilishga yo‘naltiradi, bu esa ularning ichki axloqiy qadriyatlarini zaiflashtiradi. Iste’molchilik muhitining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri ham katta. “Tezkor iste’mol va ma’naviy o‘zgarmas qoniqish yoshlarni mas’uliyatsiz qarorlar qabul qilishga undaydi. Shuningdek, reklamalar va ommaviy axborot vositalari

orqali yoshlar orasida shaxsiy manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘yish, nafsni boshqarish va o‘zini nazorat qilish kabi axloqiy fazilatlar sustlashadi”[2]. Bu holat, o‘z navbatida, ularning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, jamoa bilan muloqoti va jamiyatdagi mas’uliyatini kamaytiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy globallashuv yoshlar ma’naviy kamoloti uchun yangi pedagogik va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Yoshlar ko‘pincha turli axloqiy qadriyatlar va qarama-qarshi me’yorlar bilan yuzlashadi. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va nafsni tarbiyalash vazifasi nafaqat oilaga, balki maktab, oliy ta’lim muassasalari, madaniy va diniy institutlarga ham yuklanadi. Bu jarayonda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, hamda yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan mustahkam qilish zarurati yuzaga keladi.

Zamonaviy yoshlar raqamli va global muhitda yashash bilan birga, yangi axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ham ega. Masalan, media savodxonligi, axborotni tanqidiy qabul qilish, global va mahalliy qadriyatlarni solishtirish orqali ular o‘z axloqiy pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Shu tariqa, globalizatsiya va raqamli madaniyat yoshlar axloqiy tarbiyasini murakkablashtirsa-da, ularni ma’naviy jihatdan rivojlantirish uchun yangi vositalar va metodlarni yaratish imkoniyatini ham beradi. “Zamonaviy globallashuv, raqamli madaniyat va iste’molchilik muhitida yoshlar axloqiy tarbiyasining murakkablashuvi ko‘p qirralidir. Bu murakkablik nafaqat axloqiy me’yorlarning o‘zgarishi va turli madaniyatlar bilan to‘qnashuvi, balki tezkor qoniqish va individualizmning kuchayishi bilan ham bog‘liq”[3]. Shu bilan birga, ushbu sharoit yoshlarni axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, media savodxonligini oshirish va nafsni boshqarish orqali ma’naviy kamolotga yetaklash imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Shu bois, zamonaviy yoshlar tarbiyasida nafsni tarbiyalash, sabr-toqat, mas’uliyat va axloqiy qaror qabul qilish kabi fazilatlarni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb va strategik masala hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy inqiroz, ijtimoiy mas’uliyatning susayishi va individualizmning kuchayishi kabi jarayonlar yoshlar tarbiyasida sezilarli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu ijtimoiy va ma’naviy muammolarning ildizida ko‘pincha insonning nafs bilan bog‘liq tabiati yotadi. Nafs – bu inson ichki istaklari, ehtiyojlari va ruhiy xohishlarini ifodalovchi murakkab psixologik va axloqiy kategoriya bo‘lib, u shaxsning axloqiy kamoloti, ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilishi va individual harakatlarining sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Axloqiy inqiroz asosan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy muvozanatning buzilishi bilan tavsiflanadi. Yoshlar o‘zini tanlash, qadriyatlarni belgilash va hayotiy qarorlar qabul qilishda ko‘plab ziddiyatlar bilan duch keladi. Global axborot maydonidagi tezkor va turli xil kontent, raqamli madaniyatning ta’siri, shuningdek, iste’molchilik va individualizmni targ‘ib qiluvchi muhit yoshlar ongini chalg‘itadi. Shu holatlarda nafsning istak va ehtiyojlari kuchayib, shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlardan ustun qo‘yishga olib keladi. Nafsning bu tabiati axloqiy me’yorlarni chetlab o‘tish, mas’uliyatni kamaytirish va ijtimoiy normalarga rioya qilmaslik kabi hodisalarni kuchaytiradi.

Ijtimoiy mas’uliyatning susayishi yoshlarning nafsiy istaklari va shaxsiy qoniqishlarga e’tiborining ortishi bilan chambarchas bog‘liq. Mas’uliyatni anglash – bu shaxsning o‘z harakatlari oqibatini tushunishi va boshqalarga, jamiyatga ta’sirini hisobga olishi bilan belgilanadi. “Ammo nafs ustunligi holatlarida shaxs o‘z ichki xohishlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu esa ijtimoiy majburiyatlarga e’tibor susayishiga olib keladi. Bu holat yoshlar orasida tezkor qoniqish, moliyaviy yoki ijtimoiy manfaatlarni darhol olish istagi ijtimoiy mas’uliyatni kamaytiradi, o‘zaro hamkorlik va jamoaviy qadriyatlarni sustlashtiradi”[4]. Shu tariqa, nafsning noto‘g‘ri boshqarilishi ijtimoiy muhitda axloqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi va axloqiy inqiroz jarayonini tezlashtiradi.

Individualizmning kuchayishi ham nafs bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Zamonaviy madaniyat shaxsiy erkinlikni, o‘z-o‘zini rivojlantirishni va individual manfaatlarni markaziy qadriyat sifatida targ‘ib qiladi. Bu ijtimoiy sharoit yoshlar nafsini ortiqcha mustahkamlashga va shaxsiy istaklarni ijtimoiy manfaatlardan ustun qo‘yishga undaydi. Natijada, jamiyatning umumiy axloqiy tizimi sustlashadi, yoshlar orasida o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va mas’uliyatga e’tibor kamayadi. Shu bilan birga, individualizm kuchayishi shaxsning ichki axloqiy intizomini zaiflashtiradi, sabr-toqat, iroda va o‘zini nazorat qilish kabi fazilatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Nafsning axloqiy rolini chuqurroq tahlil qilganda, uning uch bosqichli tabiati ko‘rinadi: nafs ammora (yomonlikka moyil), lavvoma (aybdorlikni his qiluvchi) va mutma’inna (pok va qoniqqan ruhiy holat). Nafsning noto‘g‘ri boshqarilishi yoshlarni shaxsiy manfaatlar va ziddiyatli axloqiy qarorlar oralig‘ida qoldiradi. Bu holat axloqiy inqirozning kuchayishiga, ijtimoiy mas’uliyatning susayishiga va individualizmning haddan tashqari kuchayishiga olib keladi. Shu bois, yoshlarni tarbiyalashda nafsni to‘g‘ri boshqarish, ichki intizom va axloqiy mas’uliyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy inqiroz, ijtimoiy mas’uliyatning susayishi va individualizm kuchayishi ko‘plab omillar bilan izohlanadi, ammo asosiy rolni nafs o‘ynaydi. Nafsning ortiqcha ustunligi shaxsning axloqiy tanlovini toraytiradi, ijtimoiy majburiyatlarni chetlab o‘tishga undaydi va individualizmni kuchaytiradi. Shu bois, yoshlar tarbiyasida nafsni boshqarish, ichki axloqiy intizomni shakllantirish va shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlar bilan muvozanatlash strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Bu nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy rivojlanish uchun ham muhimdir.

Yoshlar tarbiyasida nafsni cheklash va boshqarish masalasi axloqiy kamolotning markaziy unsurlaridan biri hisoblanadi. Nafs – insonning ichki istaklari, ehtiyojlari va xohishlarini ifodalovchi murakkab psixologik va axloqiy kategoriya bo‘lib, uning noto‘g‘ri boshqarilishi shaxsning axloqiy qarorlariga, ijtimoiy majburiyatlariga va jamiyatdagi mas’uliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shu bois, nafsni cheklash va boshqarish jarayonida axloqiy mezonlar yoshlarning ichki intizomi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

“Birinchi axloqiy mezon sifatida iroda va o‘zini nazorat qilishni ko‘rsatish mumkin. Yoshlar ichki istak va ehtiyojlarini anglab, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu faqat cheklash emas, balki ongli ravishda to‘g‘ri axloqiy tanlov qilishni talab qiladi. Masalan, yoshlar orasida kutilmagan yoki zararli xohishlarga qarshi turish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat va axloqiy qadriyatlar bilan muvozanatlash orqali iroda kuchini rivojlantirish mumkin.

Ikkinchi mezon sabrlilik va kechirimlilikdir. Nafsning istaklari ko‘pincha tezkor qoniqish talab qiladi, ammo axloqiy tarbiyada yoshlar sabr-toqatni o‘rganishi kerak. Sabrlilik yoshlarni axloqiy qaror qabul qilish jarayonida ongli va barqaror bo‘lishga o‘rgatadi, shuningdek, ijtimoiy muhitda nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga imkon yaratadi. Kechirimlilik esa nafsning salbiy ta’sirini kamaytiradi, yoshlarning ichki tinchligi va axloqiy pokligini saqlashga yordam beradi.

Uchinchi mezon mas’uliyat va adolatdir. Nafsni boshqarish yoshlarning o‘z harakatlari oqibatini anglashiga va boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lishiga bog‘liq. Mas’uliyatni his qilgan shaxs o‘z xatti-harakatlarida nafsiy xohishlarni jamiyat manfaatlari bilan muvozanatlay oladi. Shu tariqa, yoshlar ijtimoiy axloqiy me’yorlarni e’tiborsiz qoldirmay, nafsning noto‘g‘ri ta’siridan saqlanishga o‘rgatiladi.

To‘rtinchi axloqiy mezon ichki poklanish va ruhiy muvozanatdir. Nafsni cheklash va boshqarish faqat tashqi qoidalarga rioya qilish bilan emas, balki ichki ruhiy barqarorlikni saqlash orqali amalga oshadi. Yoshlar o‘z ichki xohishlarini anglab, ularni axloqiy tamoyillar bilan muvozanatlashni o‘rganishi zarur. Bu nafaqat shaxsiy kamolot, balki ijtimoiy muhitdagi barqarorlik va sog‘lom munosabatlar uchun ham muhimdir.

Beshinchi mezon sifatida axloqiy ideal va qadriyatlarga sodiqlikni ajratish mumkin. Nafsni boshqarish jarayonida yoshlar axloqiy qadriyatlar – haqiqatparvarlik, halollik, hurmat va hamdardlik –ni asosiy yo‘riqnoma sifatida qabul qilishi lozim. Bu qadriyatlar yoshlarning xatti-harakatlarini tartibga soladi, nafsning noto‘g‘ri boshqarilishidan kelib chiqadigan zararli oqibatlarni kamaytiradi va shaxsiy hamda ijtimoiy axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, nafsni cheklash va boshqarishning axloqiy mezonlarini shakllantirishda pedagogik va diniy yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Oila, ta’lim muassasalari, madaniy va diniy institutlar yoshlarni axloqiy me’yorlar bilan tanishtiradi, ularni ichki intizom va mas’uliyatni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, islom axloqshunosligida nafs ammora, lawwoma va mutma’inna tushunchalari yoshlarni o‘z ichki xohishlarini boshqarishga, sabr-toqat va adolatni rivojlantirishga o‘rgatadi”. (Bu yondoshuvlar muallif B.Absattorovning shaxsiy mulohazari va tadqiqot natijalarining mahsulidir).

Yoshlar tarbiyasida nafsni cheklash va boshqarishning axloqiy mezonlari – iroda va o‘zini nazorat qilish, sabrlilik va kechirimlilik, mas’uliyat va adolat, ichki poklanish va ruhiy muvozanat, hamda axloqiy ideal va qadriyatlarga sodiqlikdir. Ushbu mezonlar yoshlarning shaxsiy axloqiy kamoloti, ijtimoiy mas’uliyatni anglashi va nafsni to‘g‘ri boshqarish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, nafsni boshqarish

yoshlarni ichki va tashqi muhitga moslashishga, shaxsiy va jamiyat manfaatlarini muvozanatlashga yo‘naltiradi va zamonaviy jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Iroda – insonning ongli ravishda qaror qabul qilish va harakatini boshqarish qobiliyatidir. U shaxsga nafsiy xohish va istaklar ustidan nazorat qilish imkonini beradi. Iroda kuchi orqali yoshlar qisqa muddatli qoniqishlarga qarshi turib, uzoq muddatli maqsad va axloqiy qadriyatlarni amalga oshira oladi. Iroda insonni mustaqil, ongli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, iroda kuchi rivojlangan yoshlar ijtimoiy muhitdagi qiyinchiliklar va axloqiy ziddiyatlarga barqarorlik bilan javob bera oladi, shaxsiy kamolotga erishadi.

Mas’uliyat – insonning o‘z harakatlari va qarorlarining oqibatlarini tushunishi va ularni boshqalarga, jamiyatga nisbatan anglashidir. Mas’uliyatni anglagan shaxs o‘z xatti-harakatlarini boshqaradi, noto‘g‘ri qarorlar tufayli boshqalarga zarar yetkazmaslikka intiladi. Yoshlar mas’uliyatni rivojlantirganda, jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni e’tiborsiz qoldirmaslikni o‘rganadi. Shuningdek, mas’uliyat yoshlarni ichki va tashqi qarorlar bilan muvozanatlashga, nafsiy istaklarni boshqarishga va shaxsiy hamda ijtimoiy axloqiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltiradi.

Sabr – insonning qiyinchiliklar, qoniqarsiz natijalar yoki ichki xohishlarga qarshi turish qobiliyatidir. Sabr yoshlarni tezkor qoniqish va nafsiy intilishlarga berilmaslikka o‘rgatadi. Axloqiy va ma’naviy tarbiyada sabr muhim ahamiyatga ega, chunki u shaxsni ichki intizom, iroda va ruhiy barqarorlik bilan ta’minlaydi. Sabrlilik yoshlarni muammolarni ongli ravishda hal qilishga, ijtimoiy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga va uzoq muddatli axloqiy maqsadlarga erishishga undaydi. Shu tariqa, sabr shaxsiy kamolot va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

O‘zini nazorat qilish – insonning ichki istak, hissiyot va xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. Bu kategoriya yoshlarni nafsiy xohishlarni cheklash, impulsiv qarorlar qabul qilmaslik va axloqiy me’yorlarga rioya qilishga o‘rgatadi. O‘zini nazorat qiluvchi shaxs jamiyatdagi qoidalar, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy maqsadlar o‘rtasida muvozanatni saqlay oladi. Shu bilan birga, o‘zini nazorat qilish yoshlarning ichki intizomi, iroda kuchi va axloqiy mas’uliyatini mustahkamlaydi, shaxsiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

“Nafsni tarbiyalash va shaxsning ma’naviy erkinligi o‘rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo‘lib, ular bir-birini boyitadi va shakllantiradi. Nafs – insonning ichki istak, ehtiyoj va xohishlarini ifodalovchi psixologik va axloqiy kategoriya sifatida shaxsni turli xatti-harakatlarga undaydi”[5]. Agar nafs boshqarilmasa, u shaxsni impulsiv va egoistik yo‘nalishga olib keladi, bu esa haqiqiy erkinlikning susayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, nafsni tarbiyalash orqali shaxs ichki intizom, iroda va axloqiy mas’uliyatni rivojlantiradi.

Ma’naviy erkinlik esa insonning faqat tashqi cheklovlardan ozod bo‘lishi emas, balki ichki xohish va istaklarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. Nafsni boshqarish va tarbiyalash jarayoni shaxsga ichki erkinlikni beradi, chunki u o‘z istaklarini ongli ravishda nazorat qiladi va axloqiy qarorlarni mustaqil qabul qiladi. Shu tariqa, nafs tarbiyasi

shaxsning ichki ma’naviy erkinligini shakllantiradi, va aksincha, yuqori darajadagi ma’naviy erkinlik nafsni boshqarish va axloqiy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu dialektik bog‘liqlik shaxsiy kamolot va ma’naviy rivojlanishning muhim tamoyili sifatida qaraladi.

Zamonaviy yoshlar tarbiyasida ma’naviy immunitet – shaxsning axloqiy qadriyatlarni saqlash, zararli ijtimoiy ta’sirlardan himoyalanish va ongli axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida qaraladi. “Ma’naviy immunitetni shakllantirishda nafs tarbiyasi markaziy rol o‘ynaydi, chunki nafs insonning ichki istak, ehtiyoj va impulslarini ifodalaydi”[6]. Nafsni to‘g‘ri boshqarish orqali shaxs o‘z ichki dunyosini tartibga soladi, axloqiy me’yorlarga rioya qiladi va tashqi axborot hamda madaniy bosimlardan himoyalanadi.

Bundan tashqari, nafs tarbiyasi shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, sabr-toqat va adolat kabi axloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi. Ma’naviy immunitet kuchli bo‘lgan yoshlar o‘z qarorlarini nafaqat shaxsiy manfaatlar, balki jamiyat va axloqiy qadriyatlarni hisobga olgan holda qabul qiladi. Shu tariqa, nafsni tarbiyalash va boshqarish jarayoni shaxsning ichki erkinligini, axloqiy barqarorligini va ma’naviy mustahkamligini ta’minlaydi, zamonaviy jamiyat sharoitida unga ijtimoiy va ma’naviy chidamlilik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Градосельская Г.В. Анализ социальных сетей / – М., 2001. – С. 165–166.

2. Мохова Д.А. Особенности потребительского поведения молодежи. // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» 2022. №6. – С.7150.

3. Удовик С.Л. Глобализация. Семиотические подходы. – М.: “Рефл-бук”, 2002. – С.317.

4. B.Absattorov Nafs–axloqshunoslikning asosiy kategoriyasi sifatida SamDu Ilmiy axborotnoma 2023-yil, 2-son 1-seriya (138) Gumanitar fanlar seriyasi. – B.19.

5. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. «Иҳёу улумиддин», «Ғафур Ғулом» нашриёти: 2022. – B.323.

6. Холмўминов, Жаъфар. Қиёсий тасаввуфшунослик (Монография). – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик университети, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – B.123.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Adasheva Muyassar
TXKU Samarqand filiali magistranti

Hozirgi davrda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash va qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirishni taqazo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy

fikrlashni rivojlantirish masalasi boshlang’ich ta`lim bosqichidayoq dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang’ich sinf davri bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va bilishga bo`lgan qiziqishi jadal shakllanadigan davr hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash –bu faqatgina fikrlashni o’rganish emas, balki har qanday ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish, asoslash va eng muhim jihatlarni ajrata bilish jarayonidir. Bugungi kunda o’quvchining tayyor bilimlarni yodlab olish emas, balki mustaqil o`rganish, savol berish, tahlil qilish, bahslashish va o’z fikrini himoya qila olish salohiyatiga ega bo`lishi zarur. Shu sababli o’qituvchini fikrlashga undaydigan, ularni faol ishtirok etishga jalb qiladigan metod va texnologiyalardan foydalanishi lozim. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta`lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarorlari ham aynan shu yo’nalishda yangi metodik yondashuvlarni joriy etishni ko’zda tutadi [1;65-b].

“Tanqidiy fikrlash” atamasi ingliz tilidagi “critical thinking”so’zidan olingan bo’lib, u “tahliliy, asosli va mantiqiy fikrlash” degan ma’noni anglatadi. Tanqidiy fikrlovchi o`quvchi ma’lumotni shunchaki qabul qilmaydi,balki uni tahlil qiladi, solishtiradi, dalilar asosida o’z fikrini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- Mustaqil va ongli fikrlash;
- Tahlil qilish, solishtirish, baholash qobiliyati;
- O’z fikrini dalil asosida himoya qilish;
- Boshqalarning fikrini hurmat bilan tinglab, xolisona baholash.

Bu ko’nikmalar insonni har qanday vaziyatda to’g’ri qaror qabul qilishga, muammoni tahlil qilib, asosli yechim topishga o’rgatadi.

Boshlang’ich sinf o`quvchilari tabiatan qiziquvchan, o’z fikrini bildirishga moyil bo’ladilar. Shu bois o’qituvchining vazifasi- ularning bu tabiiy qiziqishini to’g’ri yo’naltirib, mustaqil fikrlashga rag`batlantirishdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun dars jarayonida o’quvchini faollashtirish, har bir mavzuni muammoli savollar orqali tahlil qilish, o’yin va tajriba asosidagi mashg’ulotlardan foydalanish, o’quvchini o’z fikrini dalilashga o’rgatish zarur. Bu yondashuv o’quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Zamonaviy ta’limda interfaol texnologiyalar o’quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishda muhim o’rin tutadi. Quyida eng samarali metodlar keltiriladi:

1. “Aqliy hujum” bu usul o’quvchilarda tez fikrlash, muammoni hal qilish va erkin fikr bildirish ko’nikmalarini shakllantiradi. Masalan,” Agar suv bo`lmasa, tabiatda nima o’zgaradi?” kabi savollar orqali o’quvchilar turli fikrlarni aytadilar, keyin ularni tahlil qilib, eng asosli javob tanlanadi.

2. “Ven diagrammasi” bu metod ikki yoki uchta tushunchani taqqoslashga yordam beradi. Masalan, “Yoz” va “Qish” fasllarining o’xshash va farqli jihatlarini topish orqali o’quvchilar tahliliy fikrlashni o’rganadilar.

3. “Insert” texnologiyasi bu texnalogiya matn bilan ishlashda o’quvchining tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. O’quvchi matnni o’qib chiqib, belgilar yordamida fikrini bildiradi:

“+” – bilgan ma’lumot,
“ - ” – yangi ma’lumot,
“?” – tushunarsiz joy,
“!” – hayrat uyg’otgan ma’lumot.

4. “Klaster” usuli o’quvchilarning mantiqiy bog’lanishlar orqali fikr zanjirini yaratish qobiliyatini oshiradi. Masalan, “Tabiat” so’zidan kelib chiqib, unga oid tushunchalar: “daraxt”, “hayvon”, “suv”, “qushlar” va hokazolarni yozish orqali o’quvchi mavzuni keng qamrab oladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o’qituvchi o’quv jarayonining bosh yo’naltiruvchisihisoblanadi. U darsni shunday tashkil etishi keraki o’quvchi har bir bosqichda o’ylasin, savol bersin va xulosa chiqarsin. O’qituvchi o’quvchiga tayyor javobni emas, yo’nalish beradi, har bir fikrni dalillar bilan asoslashi talab qiladi, o’quvchilarga bir-birining fikrini tinglashni o’rgatadi, xatoni jazolamaydi, balki tahlil qilib, tog’ri yo’lni ko’rsatadi. Shunday muhitda o`quvchi o`z fikrini erkin ifoda etadi, mustaqil qaror chiqarishga o’rganadi[3;108-b].

Tanqidiy fikrlash – bu o’quvchining nafaqat bilim olish, balki hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy ko’nikmadir. Boshlang’ich sinfda bu jarayonni to’g’ri yo’lga qo’yish o’quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bo’lishini taminlaydi. O’qituvchining mahorati, interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi va o’quvchining faolligi bu jarayonning muvaffaqiyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim- tizimini modernizatsiya qilish tog’risida” gi farmonlari.
2. Jalolov J. Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2019.
3. To’rayeva N. Abdullayeva G. Interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish yo`llari. – T., 2021.
4. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi metodik qo`llanmalari, 2020-2022.

TEMUR TUZUKLARI: MA’NAVIYATNI O‘RGANISH USULLARI

Adilchaeva Aksungul Polatovna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Amir Temur nomi jahon tarixida buyuk sarkarda, mohir siyosatchi va adolatparvar davlat arbobi sifatida alohida o‘rin egallaydi. U barpo etgan saltanat nafaqat harbiy qudrati, balki mustahkam ma’naviy asoslari bilan ham ajralib turgan. Aynan shu ma’naviy asoslar "Temur tuzuklari" asarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda davlatni boshqarish, jamiyatni tartibga solish, insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid muhim qoidalar jamlangan.Bugungi globallashuv davrida milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, adolat va

mas’uliyat ruhida tarbiyalashda tarixiy meros, xususan, Temuriylar davri manbalari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Temur tuzuklari nafaqat tarixiy-huquqiy asar, balki chuqur ma’naviy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan qo‘llanmadir.Mazkur asarda Temur davlat boshqaruvida ma’naviyatni ustuvor qadriyat sifatida ko‘radi. U rahbar shaxsining axloqiy pokligi, adolatliligi va xalq oldidagi mas’uliyatini davlat barqarorligining asosiy omili deb biladi. Shu bois Temur tuzuklarini o‘rganish orqali nafaqat tarixiy bilimlarga ega bo‘lish, balki bugungi jamiyat uchun ham dolzarb bo‘lgan ma’naviy saboqlarni anglash mumkin.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Temur tuzuklari asosida ma’naviyatni o‘rganish usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish hamda zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Temur tuzuklarida ma’naviyat tushunchasi: Temur tuzuklarida ma’naviyat tushunchasi davlat va jamiyat hayotining asosiy tayanchi sifatida talqin etiladi. Amir Temur nazarida ma’naviyat — bu shunchaki axloqiy qoidalar majmui emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, uni ichki va tashqi tahdidlardan asrovchi kuchdir. Asarda rahbar shaxsining ma’naviy yetukligi davlat barqarorligining eng muhim omili sifatida ko‘rsatiladi. Temur davlatni boshqarishda adolat, halollik, sabr-toqat, qat’iyat va mas’uliyat kabi fazilatlarni ustuvor qo‘ygan.Temur tuzuklarida hukmdor va mansabdor shaxslarning axloqiy qiyofasiga alohida e’tibor qaratiladi. Agar rahbar adolatsiz bo‘lsa, u nafaqat o‘z obro‘sini, balki butun davlatning nufuzini tushiradi, degan g‘oya ilgari suriladi. Shu sababli Temur har bir amaldordan halollik va vijdonlilikni talab qilgan. Bu jihatlar Temur tuzuklarini ma’naviy-axloqiy qo‘llanma sifatida qadrlash imkonini beradi.Shuningdek, Temur tuzuklarida ma’naviyat xalq manfaatini ustuvor qo‘yish, zaif qatlamlarga g‘amxo‘rlik qilish, ilm-fan va ulamolarni qo‘llab-quvvatlash orqali namoyon bo‘ladi. Bu qarashlar bugungi kunda ham ijtimoiy adolat va inson qadri masalalarida dolzarbligini yo‘qotmagan.

Ma’naviyatni o‘rganishning tarixiy usullari. Temur tuzuklari asosida ma’naviyatni o‘rganishda tarixiy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu usul Temuriylar davriga oid yozma manbalar, solnomalar, tarixiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Tarixiy usul orqali Temur tuzuklarining yaratilish sharoiti, davr ijtimoiy-siyosiy muhiti hamda ma’naviy qadriyatlarning shakllanish jarayoni chuqur tahlil qilinadi.

Bu yondashuv Temur tuzuklaridagi ma’naviy tamoyillarning tasodifiy emas, balki aniq tarixiy ehtiyojlar asosida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Masalan, adolat va qat’iy tartib-intizomga urg‘u berilishi davlatni mustahkamlash zaruratidan kelib chiqqan. Tarixiy o‘rganish usuli yosh avlodda tarixiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiradi.Shuningdek, Temur tuzuklarini boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o‘ziga xos ma’naviy konsepsiyasi aniqlanadi. Bu usul ilmiy izlanishlar uchun muhim bo‘lib, Temur tuzuklarining jahon tarixidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy-uslubiy yondashuvlar: Temur tuzuklari asosida ma’naviyatni o‘rganishda tarbiyaviy-uslubiy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ta’lim muassasalarida dars jarayoniga Temur tuzuklaridan parchalar kiritish, ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar tashkil etish va interfaol metodlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu orqali o‘quvchi va talabalar tarixiy merosni nafaqat o‘rganadi, balki uni hayotiy qadriyat sifatida qabul qiladi.Tarbiyaviy yondashuvda Temur shaxsining namunaviy jihatlarini ochib berish muhimdir. Uning qat’iyati, adolatparvarligi va vatanparvarligi yoshlar ongida ijobiy ideal sifatida shakllanadi. Ayniqsa, rahbarlik mas’uliyati, jamoa oldidagi burch va halol mehnatga bo‘lgan munosabat tarbiyaviy jarayonning markazida turadi.Bundan tashqari, Temur tuzuklari asosida munozaralar, rolli o‘yinlar va loyihaviy ishlanmalar tashkil etish orqali ma’naviy bilimlar mustahkamlanadi. Bu usullar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy qo‘llash usullari: Temur tuzuklaridagi ma’naviy tamoyillarni amaliy hayotga tatbiq etish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul davlat boshqaruvi, ta’lim tizimi, oila va jamoatchilik hayotida adolat, halollik va mas’uliyat tamoyillarini qaror toptirishni nazarda tutadi. Temur tuzuklaridagi qoidalar bugungi kunda ham rahbar kadrlarni tayyorlashda muhim ma’naviy mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.Amaliy qo‘llash jarayonida Temur tuzuklaridagi boshqaruv madaniyati, intizom va xalq manfaatini himoya qilish g‘oyalari asos qilib olinadi. Bu, o‘z navbatida, fuqarolik mas’uliyatini oshirish va jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Temur tuzuklari o‘zida yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mujassam etgan bebaho merosdir. Uni o‘rganish orqali jamiyatda adolat, halollik va vatanparvarlik g‘oyalarini mustahkamlash mumkin. Mazkur asar bugungi kunda ham ma’naviyatni yuksaltirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llanishi lozim.Temur tuzuklari — bu faqat tarixiy-huquqiy yodgorlik emas, balki chuqur ma’naviy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan, bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bebaho manbadir. Ushbu asarda ilgari surilgan g‘oyalar jamiyatni boshqarish, inson tarbiyasi va shaxs kamolotiga oid universal tamoyillarni o‘zida mujassam etadi. Amir Temur davlatni kuch bilan emas, balki adolat, intizom va yuksak ma’naviyat asosida boshqarish mumkinligini o‘z faoliyati va qarashlari orqali isbotlab bergan.Maqolada tahlil qilinganidek, Temur tuzuklarida ma’naviyat jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Adolatli boshqaruv, halollik, mas’uliyat va xalq manfaatini ustuvor qo‘yish kabi tamoyillar bugungi zamonaviy davlatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, rahbar kadrlarning ma’naviy yetukligi masalasi Temur tuzuklarida alohida o‘rin egallab, bu jihat hozirgi boshqaruv tizimida ham muhim mezon bo‘lib qolmoqda.Temur tuzuklari asosida ma’naviyatni o‘rganishning tarixiy, tarbiyaviy va amaliy usullari yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu asar orqali o‘quvchi va talabalar nafaqat tarixiy bilimlarga ega bo‘ladi, balki hayotiy pozitsiyasini belgilashda muhim bo‘lgan axloqiy mezonlarni ham o‘zlashtiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Temur tuzuklari bugungi globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni asrash, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarda chuqur o‘rganish va amaliy hayotga tatbiq etish orqali yuksak ma’naviyatli, mas’uliyatli va vatanparvar avlodni tarbiyalash mumkin. Shu jihatdan Temur tuzuklari kelajak avlod uchun ham ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent: Sharq, 1998.
4. Azamat Ziyo. Amir Temur va temuriylar davri. — Toshkent: Fan, 2014.
5. Muhammad Ali. Amir Temur siymosi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
6. Sagdullayev A., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. — Toshkent: Akademiya.
7. Ergashev Q. Ma’naviyat asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA URBANIZATSIYANING YOSHLAR IJTIMOIY-MA’NAVIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Ahmadjonova Dilnoza Gayratillayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. Zamonaviy dunyoda urbanizatsiya va globalizatsiya jarayonlari jamiyatga eng ta’sirli va dolzarb hodisalardan biridir. Ushbu jarayonlar yoshlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, chunki shaharlar ijtimoiy aloqalarni o‘zgartiradi, qadriyatlarni shakllantiradi va madaniy orientatsiyalarni belgilaydi.

O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Yoshlari Forumida so’zlagan nutqida shunday deydi: “Yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda, eng avvalo ma’naviyat bilan bog‘liq muammolarga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Afsuski, ayrim yoshlar Internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatiga ega emas, uni bilim va ma’rifat manbai emas, balki ko‘ngilochar vosita sifatida qabul qilishmoqda.Mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lib, har narsadan avval Vatan manfaatini o‘ylashi zarur. Ilm-ma’rifatga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattaga hurmat, kichikka shafqat kabi fazilatlar xalqimiz qonida bor bebaho meros. Biz uni nafaqat asrash, balki boyitib, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz shart.Shu bois ota-onalar, ustozlar, ziyolilar va keng jamoatchiligimizni yoshlar tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytirishga chaqiraman. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, bugungi kunga mos, ta’sirchan tarbiya usullarini topishimiz lozim. Farzandlarimizni buzg‘unchi g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik va ma’naviy qashshoqlikdan asrash - hammamizning vazifamiz. Bunday muammolarni bartaraf etishda, avvalo, yoshlarning o‘zi faol bo‘lishi

kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy qadriyatlarini asrab-avaylash va dunyoga tarannum etish – siz aziz yoshlarga munosib vazifadir.”[1]

Tomas Fridman[2] yozganidek, “Zero, dunyoning tenglashtirilgani bugungi kunda dunyoning barcha bilim markazlari yagona global tarmoqqa ulanayotganini, agar siyosat va terrorizm aralashmasa, misli ko‘rilmagan farovonlik va yangilanish davrining birinchi xabarchisi bo‘lishi mumkinligini anglatadi.” Shahar muhiti yangi ijtimoiy aloqalar va madaniy resurslarga kirish imkoniyatlarini taqdim etadi, globalizatsiya esa mahalliy jamiyatga global qadriyatlar, g‘oyalar va texnologiyalarni olib kirib, yoshlar orasida gibrid madaniy identifikatsiya shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Yoshlar - bu ijtimoiy-demografik guruh bo‘lib, u asosan 14 dan 30[3, - B.14] (ba’zi manbalarda 16-25) yoshgacha bo‘lgan yoshlar bilan tavsiflanadi, ularning ijtimoiy holati va ma’lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavjuddir. Ijtimoiy tuzilmasida yoshlar sotsiologiya fanida ikki tomondan ko‘riladi: bir tomondan, jamiyatning bir qismi sifatida (ya’ni yoshga bog‘liq demografik belgilar bilan belgilanadigan ijtimoiy xususiyatlari asosida), ikkinchi tomondan esa nisbatan mustaqil ijtimoiy guruh sifatida. Shuning uchun sotsiologik tadqiqotning obyekti yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida qaraladi [4, - C.15-16].

Yoshlar o‘zgarishlarga eng sezgir, yangilikka ochiq va innovatsion salohiyatga ega guruh sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biridir. Yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida jamiyat tomonidan faqat sanoat rivojlanish bosqichiga o‘tish davrida e’tirof etila boshlandi.

Yoshlarning ijtimoiy holati xususiyatlari:

- o‘tish davrida bo‘lgan holat;
- o‘z hayotidagi o‘rnini faol izlash;
- jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish zarurati (yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish);
- yuqori darajadagi ijtimoiy mobillik;
- kasbiy o‘sish istiqbollari mavjudligi;

Yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari:

- ichki ziddiyatlilik;
- past darajadagi tolerantlik;
- boshqalardan ajralib turish istagi;
- o‘ziga xos yoshlar subkulturasining mavjudligi;

Yoshlar jamiyatning eng dinamik va o‘zgaruvchan qismini tashkil etadi. Ularning ijtimoiy holati, avvalo, “o‘tish davri” bilan belgilanadi, bunda bola emas, lekin to‘la shakllangan kattalar ham emas. Shu sababli ular o‘z hayotidagi o‘rnini topish, jamiyatda tan olinadigan ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, kasbiy va shaxsiy istiqbollarni belgilash jarayonida faol izlanishda bo‘ladilar. Bu jarayon yoshlarni yuqori ijtimoiy mobillikka ega guruh sifatida namoyon etadi. Ular ta’lim, kasb, turmush tarzi, qadriyatlar tizimini o‘zgartirishga ko‘proq moyil hisoblanishadi.

Albatta, yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ham mazkur holat bilan chambarchas bog‘liqdir. Ichki ziddiyatlilik, mustaqillik va o‘zligini namoyish etish istagi, ba’zan past tolerantlik darajasi yoshlarning o‘z shaxsiy pozitsiyasini topishga bo‘lgan urinishlaridan kelib chiqadi. Ayni paytda ular o‘ziga xos submadaniyatning shakllanishi orqali jamiyatning umumiy madaniy makonida, bizning mavzuimizdan kelib chiqadigan bo’lsak, shahar hududida o‘z o‘rnini belgilaydi. Bu jarayonlar esa yoshlar uchun ijtimoiy identifikatsiya va ijtimoiylashuvning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Urbanizatsiya yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi, jumladan, ta’lim, madaniy va kreativ faoliyat, ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqalar. Shu bilan birga, shahar hayoti stress, izolyatsiya va qadriyatlar mojarosini keltirib chiqaradi. Globalizatsiya va urbanizatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlik yoshlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanishini sezilarli darajada belgilaydi.

Urbanizatsiya aholi shahar hududlariga to‘planishi va shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatining ortishi jarayonidir. Urbanizatsiyaning global tendensiyalari orasida shaharlar aholisining o‘sishi, migratsiya (asosan ichki) oqimlari va shahar infratuzilmasining rivojlanishi kabi jihatlari mavjuddir.

Fransuz sotsiologi Anri Lefevr[5] urban hodisasi o‘z miqyosi bilan bizni hayratga solidi, uning murakkabligi esa uni tushunish va amaliy boshqarish vositalaridan ustun keladi, deb ta’kidlaydi. Lefevr urbanizatsiya jarauonlari bizga “murakkablashuv nazariyasi”ni doimiy eslatib turadi, ya’ni ushbu nazariyaga ko‘ra, ijtimoiy hodisalar tobora ortib boruvchi murakkablik kasb etadi. Mazkur nazariya dastlab tabiiy fanlar va umumiy axborot nazariyasida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik ijtimoiy haqiqatni va uni anglash jarayonini tushuntirishga ko‘chgan, deb hisoblaydi.

Shunga ko’ra, globallashuv davridagi urban makon yoki shahar hayoti fenomeniga asosiy a’zo sifatida kiradigan yoshlar yangi ijtimoiy tarmoqlar va madaniy imkoniyatlar bilan tanishib, ularning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi va o’zaro integratsiyalashadi.

Globalizatsiya esa yoshlar hayotiga ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Mahalliy va global qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashishi yoki qarama-qarshilikka uchrashi mumkin, bu esa yoshlar identifikatsiyasini shakllantiradi. Gibrid madaniy identifikatsiya moslashuvchanlikni oshiradi, ammo ba’zi hollarda qadriyatlar mojarosiga olib keladi.

Mamlakat aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 9,5 millioni erkak, 9,4 millioni esa ayol jinsiga mansub [6].

Toshkent shahriga keladigan bo‘lsak, 2024- yilda shaharning aholisi 3 112 800 kishi bo‘lib, shulardan 729 914 kishi yoshlar guruhiga kiradi, ya’ni Toshkentdagi yoshlar shaharning umumiy aholisi ichida 23,5 % ni tashkil qiladi.

2025- yil demografik ko‘rsatkichlariga ko‘ra, Toshkent shahridagi o‘rtacha yosh 32,6 yoshni tashkil etadi, bu shaharda aholi tuzilmasining nisbatan yosh va mehnatga layoqatli ekanligini hamda shahar aholi sonining sezilarli qismi yoshlardan tashkil topganini

ko‘rsatadi. Fikrimizcha, aholining yosh qatlamining ulushi yuqori bo‘lgan davrda, ularning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash maqsadida zamon bilan uyg‘un, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarga asoslangan ilg‘or ta’lim tizimlarini joriy etish zarur. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va siyosiy strategiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ilm-fanning nihoyatda turli tuman va zamonaviy sohalarida aqliy faoliyatning murakkab usullarini egallaydilar. Ularning mehnat faoliyati (aqliy, jismoniy), o‘zlashtirgan bilimlari, malaka, uddaburonlik nafaqat hayotga tadbiq etiladi, balki o‘zining kelgusi rivojiga va ijodiy mukammallashuviga (shu jumladan fanning menejment, marketing, ekologiya kabi boshqa yangi sohalarida) olib keladi [7, - B. 144.].

Urbanizatsiya jarayonlarida shahar muhiti yoshlar psixologiyasiga ta’sir qilmay qolmaydi, jumladan, stress, shahar shovqini, ijtimoiy izolyatsiya hamda do‘stlik va oila qo‘llab-quvvatlash tizimidagi o‘zgarishlar keng tarqalgan hodisadir. Urbanizatsiya ijtimoiy faollik va madaniy ishtirokni oshirishi mumkin, biroq raqobatbardosh va tezkor shahar hayoti salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Xususan ijobiy ta’sirlar quyidagilardir:

1.Shahar madaniy hayoti, teatrlar, muzeylar, ko‘rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlar orqali ijtimoiy faollikni oshiradi.

2.Turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish imkoniyati, yangi do‘stlar, hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirishga yordam beradi.

3.Yoshlar va mutaxassislar uchun kasbiy va ijodiy imkoniyatlar kengayadi.

Hamda salbiy oqibatlar quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1. Stress va tezkor hayot ya’ni shahar ritmi yuqori bo‘lgani uchun yoshlar doimiy stress va charchoqni boshdan kechirishi mumkin. Bu esa ko’pgina kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Nosog’lom raqobat va ijtimoiy tengsizlik. Bunda ish, ta’lim yoki uy-joy uchun kuchli raqobat ijtimoiy ziddiyat va psixologik bosimni oshirib boradi.

3. Ijtimoiy ajralish va yolg‘izlik hissi kuchayishi. Ko‘p aholili shahar muhitida insonlar o‘zini yolg‘iz his qilishi, aloqalar yuzaki bo‘lishi holatlari kuzatiladi.

4. Madaniy va axloqiy muammolar yuzaga kelishi. Shahar shovqini, transport va axloqiy qadriyatlarning tez o‘zgarishi ayrim yoshlarda noaniqlik, agressiv xatti-harakatlar yoki noto‘g‘ri ijtimoiy rolga olib kelishi mumkin.

5. Atrof-muhit ta’siri. Bunda shahar ifloslanishi, yashash joyining zichligi va tabiiy hududlarning kamayishi salomatlik va hayot sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Yoshlar eko tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatishi va shahar muhiti ifloslanishiga befarq qilib qo’yishi, shu bilan birga “menga nima” sovuqqon tabiatini shakllantirishi mumkin.

Siyosiy fanlar nomzodi Lupandin Vitaliy Nikolaevich [8] yozishicha: “Yosh avlodning madaniy salohiyati - bu ijtimoiy-madaniy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllangan, individ yoki guruhning moddiy va ma’naviy qadriyatlar olami bilan muloqot qilish ehtiyoji va qobiliyatidir. U turli madaniy turlar va shakllarni tushunish, ularni tanqidiy baholash,

butun hayot davomida madaniyat olamiga yaqinlashish hamda yangi madaniy qadriyatlar yaratish imkoniyatini o‘z ichiga oladi.” – deydi.

Lupandin zamonaviy yosh avlodning madaniy salohiyati chuqur tabaqalanib ketgan: ayrim individlar yoki guruhlar uning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, boshqalari esa past darajada bo‘lishi mumkin. Agar guruh madaniyat olami bilan muntazam muloqot ehtiyoji va qobiliyatiga ega bo‘lsa, uning madaniy salohiyati yuqori darajada, aks holda - past darajada deb hisoblaydi.

Shu sababli, madaniy salohiyatni shakllantirish quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

Birinchidan, yoshlarning madaniyat bilan doimiy muloqot ehtiyoji va madaniy qadriyatlarga yo‘naltirilish qobiliyatini rivojlantirish;

Ikkinchidan, madaniyatdan ichki dunyoni boyitadigan va hayotni ijtimoiy jihatdan mazmunli qiladigan unsur va qadriyatlarni tanlab olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Demak, shahar muhitida yoshlarining ijtimoiy aloqalari va do‘stlik tarmoqlari o‘zgaradi. Globalizatsiya esa yoshlar qadriyatlari va madaniy xulqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Albatta, shahar va qishloq yoshlari o‘rtasida turmush tarzi va madaniy faoliyat farqlari mavjuddir. Turli shaharlar va hududlarda urbanizatsiyaning yoshlar ijtimoiy-manaviy rivojlanishiga ta’siri bir -bririda o’zaro farq qiladi. Infratuzilma, madaniy muhit va iqtisodiy imkoniyatlar yoshlarning moslashuvchanligi va faolligiga bevosita ta’sir qiladi.

Hozirgi kunda, urbanizatsiya yoshlarning ijtimoiy hayotini keskin qayta shakllantirmoqda, imkoniyatlar va xavflar parallel ravishda ortib bormoqda. Shu bois siyosatshunoslar, shahar rejalashtiruvchilar va sotsiologlar yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi integratsiyalashgan, hududiy adolatni ta’minlovchi va madaniy xilma-xillikka hurmat bilan yondashuvchi strategiyalar ishlab chiqishlari lozim va dolzarb bo’lib qolmoqda. Shunga ko’ra, shahar siyosati va yoshlar dasturlari infratuzilma, madaniy faoliyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni hisobga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqi. 26-dekabr 2020-y

2. Фридман, Т. Плоский мир: краткая история XXI века / Томас Фридман. – Москва : Хранитель [и др.], 2007. – 601 с.

3. Maxkamov Qodirjon Odiljonovich. Yoshlar sotsiologiyasi. (o‘quv qo‘llanma). – Namangan: “MASHRAB” nashriyoti, 2024. – B. 14.

4. Зубок Ю.А., Чупров В.И. СОЦИОЛОГИЯ МОЛОДЕЖИ. Учебное пособие. М.: МИИТ, 2009. – С.15-16

5. The urban revolution. Henri Lefebvre. Published by the University of Minnesota Press 111 Third Avenue South, Suite 290 Minneapolis. Library of Congress Cataloging- in-Publication Data Lefebvre, Henri, 1901–1991 [Révolution urbaine. English]; translated by Robert Bononno ; foreword by Neil Smith. P-223. 45 p.

6. https://lex.uz/ru/docs/-5234746 “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son

7. D.B.Botirova. Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi. Darslik. Toshkent 2021. - B. 144.

8. В.Н. Лупандин. Социология молодёжи. Рекомендовано редакционно-издательским советом ОрёлГТУ в качестве учебного пособия. Орел 2011. – С. 70.

GLOBALLASHUV DAVRIDA ETNOMADANIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Aimbetova Mexriban Saduaxasobna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotining barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, milliy taraqqiyot strategiyalariga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda [1]. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, xalqaro iqtisodiy integratsiya, madaniyatlararo almashinuvning kuchayishi va migratsiya oqimlarining ortishi natijasida dunyo “bir makon”ga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda har bir xalqning milliy va etnomadaniy qadriyatlari, tarixiy xotirasi, urf-odatlari va ma’naviy merosi yangi sinovlar bilan yuzma-yuz kelmoqda [2].

Globallashuv jarayoni bir tomondan jamiyatning ochiqligi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy hamkorlik va xalqlar orasida madaniy almashuvni kushaytirishga imkoniyat yaratgan bo‘lsa [1], boshqa tomondan milliy o‘zlikni anglashning susayishi, madaniy bir xillashuv, an’anaviy qadriyatlardan uzoqlashuv va yoshlarning g‘oyaviy bo‘shlig‘i kabi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun bugungi kunda etnomadaniy merosni asrash, uni jamiyat hayotida faol qo‘llash va yosh avlod ongiga singdirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi [3-4].

Har bir xalqning etnomadaniy qadriyatlari – bu nafaqat tarixiy meros yoki folklor elementlari, balki jamiyatning ma’naviy immuniteti, milliy identitetning poydevori, ijtimoiy birlik va barqarorlikning eng muhim omili hisoblanadi [5]. O‘zbekiston misolida ham globallashuv jarayonlari davomida milliy qadriyatlarni yangicha mazmunda qayta ko‘rib chiqish, ular asosida zamonaviy madaniy, ma’rifiy, ilmiy va tarbiyaviy dasturlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir [6]. So‘nggi yillarda davlat siyosatida milliy madaniy merosni tiklash, o‘zbek xalqining tarixiy an’analarini ilmiy tadqiq qilish, turli etnik guruhlar madaniyatini qo‘llab-quvvatlash va ularni globallashuv bosimidan himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [7].

Ushbu tadqiqot ishida globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, madaniy xilma-xillikni saqlash muammolari, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda etnomadaniy omillarning roli, shuningdek, yosh avlodning madaniy identitetini shakllantirish jarayonida an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy talqini kabi masalalar yoritilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ishinging asosiy vaziyfasi globallashuv jarayonlarining etnomadaniy qadriyatlarga ta’sirini har tomonlama ochib berish maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy sotsiologik, madaniyatshunoslik, tarixiy va taqqoshlama metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi bloklar tashkil etadi:

1. Nazariy-metodologik yondashuvlar

Tadqiqot globallashuv nazariyasi, madaniy identitet, ijtimoiy modernizatsiya, transmilliy madaniyat, sivilizatsiyalararo muloqot kabi konseptual tamoyillarga tayangan holda olib borilgan. Xususan:

- A. Tofflerning “Uchinchi to‘lqin” modeli,
- R. Robertsonning “globallashuv” va “glokalizatsiya” nazariyalari,
- S. Xantingtonning sivilizatsiyalar to‘qnashuvi modeli,
- P. Shtompkaning madaniy travma nazariyasi tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlagan.

Ushbu nazariy qarashlar asosida globallashuvning ikki tomonlama — integratsiyalashuv va madaniy assimilyatsiya natijalari tahlil qilingan.

2. Tarixiy-tahliliy metod

Etnomadaniy qadriyatlarning shakllanishi, evolyutsiyasi va ularning turli tarixiy davrlardagi o‘zgarish dinamikasi ushbu metod orqali o‘rganildi. O‘zbekiston hududida yashab kelgan etnik guruhlar, ularning urf-odatlari, an’analari va madaniy turmush tarzi tarixiy manbalar (xalq og‘zaki ijodi, etnografik yozuvlar, arxiv materiallari) asosida tahlil etilgan.

3. Taqqoshlama (komparativ) metod

Globallashuv jarayonida turli mamlakatlar tajribasi — xususan, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Turk dunyosi va Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy madaniyatni saqlash strategiyalari taqqoslandi [7]. Bu orqali O‘zbekiston uchun mos bo‘lgan samarali yondashuvlar aniqlashga harakat qilindi.

4. Sotsiologik tadqiqot metodlari

Globallashuvning zamonaviy yoshlar madaniy identitetiga ta’sirini baholash uchun quyidagi empirik usullar qo‘llanildi:

- **so‘rovnoma** — talaba yoshlar orasida etnomadaniy qadriyatlar va global madaniy oqimlarga nisbatan munosabat o‘rganildi;
- **intervyu** — o‘qituvchilar, tarixchilar, etnograf olimlar bilan suhbatlar tashkil qilindi;
- **kuzatuv** — madaniy tadbirlar, bayram marosimlari va an’anaviy urf-odatlar amaliyotini o‘rganish orqali real jarayonlar tahlil qilindi.

Ushbu empirik ma’lumotlar globallashuvning an’anaviy madaniyatga ta’sir darajasini real ijtimoiy muhitda baholashga imkon berdi.

5. Kontent-tahlil

Ommaviy axborot vositalari, internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlardagi madaniy yo‘nalishdagi kontentda milliy qadriyatlarning aks ettirilishi [8], ularning global madaniy oqimlar ta’sirida o‘zgarish tendensiyalari kontent-tahlil metodi yordamida o‘rganildi.

6. Sistemali yondashuv

Globallashuv va etnomadaniy qadriyatlar murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko‘rilib, quyidagi elementlar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi:

- madaniy meros,
- milliy identitet,
- ijtimoiy institutlar (oila, ta’lim, mahalla),
- ommaviy madaniyat,
- kommunikatsiya texnologiyalari.

Ushbu tizimli yondashuv globallashuvning etnomadaniy qadriyatlar tizimiga qanday mexanizmlar orqali ta’sir qilishini aniqlash imkonini berdi.

7. Induktiv va deduktiv tahlil

- Deduktiv yondashuv orqali globallashuvning umumiy qonuniyatlari asosida mahalliy jarayonlar tahlil qilindi.
- Induktiv yondashuv orqali empirik kuzatuvlar va so‘rov natijalari asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

Natijalar

Tadqiqotda o‘rganilgan nazariy manbalar, so‘rovnoma natijalari va kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, globallashuv jarayoni:

- **ijobiy yo‘nalishda** — madaniy almashinuv, zamonaviy axborot tizimlariga kirish, milliy madaniyatni dunyoga targ‘ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda;
- **salbiy yo‘nalishda** — madaniy bir xillashuv, ommaviy madaniyatning kuchayishi, yoshlarning milliy madaniyati bo‘yicha bilimlarining pasayishi kabi xavf-xatarlarni kuchaytirmoqda.

Bu jarayonlar orasidagi muvozanatni ta’minlash etnomadaniy siyosatning asosiy vazifalaridan biri ekani aniqlandi.

Yoshlar ongida milliy identitetning zaiflashuvi aniqlash maqsadida so‘rovnomalarda ishtirok etgan yoshlarning sezilarli qismi:

- milliy marosimlar va an’analar haqida to‘liq tasavvurga ega emasligi,
- zamonaviy ommaviy madaniyat namunalarini o‘ziga yaqin deb hisoblashini,
- ijtimoiy tarmoqlar ta’siri ostida milliy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushayotganini bildirdi.

Bu natija madaniy-tarbiyaviy ishlarning qayta ko‘rib chiqilishini talab qilishi ayon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida etnomadaniy qadriyatlar jamiyat barqarorligi uchun oila, mahalla, ta’lim muassasalari, diniy va madaniy institutlar faoliyati hal qiluvchi omil ekanligi tasdiqlandi. Natijada:

- milliy urf-odatlar,

• qadimiy marosimlar,

• an’anaviy tarbiya shakllari ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda va jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhit yaratishda muhim rol o‘ynashi aniqlangan.

Etnomadaniy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy immuniteti sifatida namoyon bo‘layotgani tasdiqlandi.

O‘zbekistonning milliy madaniy siyosati globallashuv sharoitida tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

• madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish,

• etnografik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash,

• “O‘zbekiston–xalqaro madaniyat festivallari” kabi tadbirlarni tashkil etish,

turli etnik guruhlarning urf-odatlarini asrashga qaratilgan davlat dasturlari globallashuv bosimiga qarshi samarali strategiya sifatida faollashgani ko‘rsatildi.

Bu siyosat milliy yetakchilikning muhim yo‘nalishi sifatida tasdiqlandi.

Media va internet-kontent milliy qadriyatlarning shakllanishiga kontent-tahlil natijalariga ko‘ra:

• ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentning ulushi past,

• ommaviy madaniyatning agressiv tarqalishi kuzatilmoqda,

• yoshlarning madaniy ongida “global iste’molchi identiteti” kuchaymoqda.

bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan shu sababli raqamli muhitda milliy madaniyatni jozibador formatda targ‘ib qilish zarurligi aniqlandi.

Taqqoshlama tahlil natijasida Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va Fransiya misolida quyidagi xulosalar shakllandi:

• davlatning madaniy siyosati globallashuvni inkor qilmasligi, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy shakdda qayta ishlab, dunyo bozoriga olib chiqishi lozim;

• madaniyatni eksport qilish (K-pop, anime, turk seriallari, gastronomiya diplomatiyasi) milliy iqtisodiyot va identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi;

• madaniy merosni raqamlashtirish va ta’lim tizimiga integratsiya qilish eng samarali yo‘l hisoblanadi.

Bu samarali xalqaro tajribalar O‘zbekiston sharoitiga mos holda qo‘llanilishi mumkinligi qayd etildi.

Etnomadaniy qadriyatlarning transformatsiyasi shuni ko‘rsatdiki:

• qadriyatlar yo‘qolayotgani emas, balki zamonaviy shaklga o‘tayotgani,

• an’anaviy me’yorlar yangi mazmun bilan boyiyotgani,

• yosh avlod qabul qiladigan madaniy format o‘zgargani kuzatilmoqda.

davom etayotgan murakkab jarayonni ijobiy tomonga yo‘naltirish uchun institutsional qo‘llab-quvvatlash zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa. Mazkur ishi natijalariga ko‘ra, etnomadaniy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma’naviy poydevori, ijtimoiy barqarorlikning kafolati va milliy identitetning asosiy shakllantiruvchisi ekanligi tasdiqlandi. Ayniqsa yosh avlod ongida madaniy o‘zlikni mustahkamlash, ularni xalqning tarixiy merosi bilan tanishtirish va raqamli davrda milliy

qadriyatlarni zamonaviy ko‘rinishda targ‘ib qilish strategik ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

O‘zbekistonning madaniy siyosatida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar — madaniy merosni restavratsiya qilish, milliy madaniyatni xalqaro maydonga chiqarish, turli xalq va millatlar madaniyatini qo‘llab-quvvatlash, festival va madaniy tadbirlarni joriy etish — globallashuv bosimiga qarshi ijobiy natijalar berayotgani aniqlangan.

Tadqiqot davomida taqqoshlama tahlil asosida Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Fransiya kabi davlatlarning milliy madaniyatni asrash hamda uni global maydonda targ‘ib qilish bo‘yicha tajribalari o‘rganildi. Ushbu modellarning asosiy xususiyati shundaki, ular globallashuvni inkor qilmaydi, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda qayta ishlab, global auditoriyaga moslashtira oladi. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham muhim yo‘nalishlar belgilashda samarali bo‘lishi uchun quyidagilarni amalga oshir kerak:

1. Etnomadaniy qadriyatlarni saqlash globallashuv sharoitida strategik zaruriyatti, chunki ular xalqning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi.

2. Yoshlar ongida milliy identitetni mustahkamlash bo‘yicha tizimli yondashuv zarur, aks holda global madaniyatning bir xillashuv jarayoni kuchayadi.

3. Media va raqamli platformalarda milliy qadriyatlarning jozibador formatda targ‘ib qilinishi madaniy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biri.

4. Davlat va jamiyat institutlari o‘rtasida uzviy hamkorlikni kuchaytirish etnomadaniy merosni saqlash va uni avlodlar davomiyligiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

5. Global tajribalarni milliy sharoitga mos integratsiya qilish milliy madaniyatning raqobatbardoshligini oshiradi va O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlaydi.

Natijalar shuni anglatadiki, globallashuv sharoitida etnomadaniy qadriyatlar nafaqat asrab-avaylanishi zarur bo‘lgan meros, balki kelajak taraqqiyotining muhim resursi sifatida qaralishi kerak. Ularni zamonaviy talqin qilish, ta’lim va raqamli madaniyatga integratsiya etish esa madaniy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Giddens, A. *Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives*. London: Profile Books, 2000.

2. Inglehart, R., Baker, W. *Modernization, Cultural Change, and the Persistence of Traditional Values*. American Sociological Review, 2000.

3. Qodirov, S. *Etnomadaniyat va Global Integratsiya*. Toshkent: Fan, 2018.

4. Karimov, I. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyatni yuksaltirish va milliy identitetni mustahkamlash to‘g‘risida”gi qarorlari va dasturlari.

6. Rasulov, A. *Madaniy meros va yoshlar tarbiyasi*. O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.

7. UNESCO. *Intangible Cultural Heritage Reports*. Paris, 2018–2023.

8. Yuldashev, M. *Globallashuv va milliy madaniyat: tahlil va talqin*. “Sotsiologiya” jurnali, 2021.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA’NAVIYATIDA IJOBIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Akbaraliyeva Go‘zaloy Sherali qizi,
Universitiy of Business and Science Toshkent filialli talabasi

Kirish. Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi mislsiz tezlikda kengayib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ularning fikrlash tarzini, dunyoqarashini va hayotga munosabatini turlicha shakllantirmoqda. Ana shunday murakkab va ziddiyatli sharoitda ijobiy fikrlash yoshlarda ruhiy barqarorlikni saqlash, kelajakka ishonch bilan qarash hamda o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishning muhim omiliga aylanmoqda. Salbiy fikrlash esa insonni ichki kuchsizlanishga, umidsizlikka va ijtimoiy faollikn pasayishiga olib keladi. Shu bois globallashuv sharoitida yoshlarda ijobiy fikrlash madaniyatini shakllantirish va salbiy fikrlashning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism. Fikrlar ongda o‘ziga xos ruhiy iz hosil qiladi, bu iz har safar takrorlanganda yanada chuqurlashib boradi, ya’ni odamlar “men qila olmayman” deb o‘ylaganda, o‘zlariga shuni takror-takror aytganda va boshqalarga ham “qila olmayman” deb aytganda, ular o‘z ongida psixologik jihatdan bir iz hosil qilgan bo‘lishadi va har safar shunday qilganlarida bu iz yanada chuqurlashib boradi, oxir-oqibat esa ular, haqiqatdan ham, qila olmaydigan holatga kelishadi. Inson ongi aynan shunday ishlaydi.

Ijobiy fikrlash faqatgina “o‘zini yaxshi his qilish” iborasi emas. Inson hayotda qiyinchilikka duch kelganda, bu – kuchli quroldir. Salbiy fikr faqat qorong‘ulikdan iboratdir va bu inson miyasida “hammasi tugadi, endi umid yoq” degan fikrni uyg‘otadi.

Ijobiy fikr esa buning aksidir – u insonga yangidan boshlash uchun oz bo‘lsa ham umid beradi, ya’ni bu og‘riqni e’tiborsiz qoldirish emas, qiyin paytda ham umidni tanlash hisoblanadi. Bu “men muvaffaqiyatsizlikka yuz tutdim, lekin yana urinib ko‘raman” demakdir. Insonlarning fikrlari ham ularning hayotini yaxshi tomonga o‘zgartiradi, ham uni yo‘q qiladi. Shubhalarga ortiqcha e’tibor qaratish orzularni shunchaki qoyib yuborishi mumkin.

Inson hatto ozgina bo‘lsa ham yaxshilikka ishonishi kerak, chunki inson qachonki “Men uddalay olaman” deb o‘ylasa, butun hayoti fikrlashiga ko‘ra o‘zgaradi. Ijobiy fikrlash hayotingizda ustun kelishi lozim, chunki ijobiy fikrlash hayotingizning oltin kalitidir.

Buni Amerikalik yozuvchi va tadbirkor Jim Rohn oddiy misol bilan tushuntirgan holda quyidagicha izohlaydi: “Inson ongi aqliy fabrikadek.



Inson aqliy fabrikasiga nimani solsa, shuni oladi. Kuningiz davomida aqliy fabrikangizga nima solsangiz, shuni olasiz. Kun davomida o‘ylagan har bir narsa zavodingizga tushadigan xomashyodir” [3].

Olimlar ta’kidlashicha, “aqliy fabrikangizga har kuni axlat tashlab, undan jonli, ijobiylik bilan to‘la hayot chiqishini kuta olmaysiz. Odamlar o‘z aql zavodlariga nima ekishlarini o‘zlari hal qilishlari kerak. Hech kimga istalgan narsani miyyangizga tashlashiga yo‘l qo‘ymasligingiz kerak, chunki uning oqibatlari bilan o‘sha insonlar emas, aynan siz yashaysiz. Aqliy shakllanish eng oddiy, lekin eng kuchli hayotni o‘zgartirish vositasi hisoblanadi. Eski odatlar faqat shunchaki qolib ketmaydi, chunki inson miyasi salbiy ko‘rsatmalarni idrok eta olmaydi” [3].

Simon Sinekning aytishicha, masalan, “Fil haqida o‘ylamang” deganda, odamlar darhol fil haqida o‘ylay boshlaydi. Inson miyasiga “nima qilmaslik” haqida ko‘rsatma berish qiyin. Ko‘pincha nima qilmaslik kerakligi haqida gapirganda, biz aynan shu narsani kuchaytiramiz” [3].

B borada Elbert Hubband o‘z podkastlarida shunday degan: *“O‘z fikrlaringizni o‘zgartiring – hayotingiz o‘zgaradi. Odamlar o‘z fikrlari natijasida shakllanadi va ular nazorat qila oladigan yagona narsa shu – fikrlardir.*

Nega ular qilayotgan narsalarini o‘zgartirmoqchi? Chunki ular nima haqida o‘ylashni o‘zgartirish orqali ular o‘z haqiqatlarini o‘zgartira boshlaydi. Agar ular nimaga intilishini o‘zgartirsa, ular nimaga ishonishini o‘zgartiradi. Agar ular o‘z asosiy fikrlarini o‘zgartirsa, ular ichki ishlash tarzini o‘zgartiradi va ular o‘z yangi fikrlariga mos keladigan hayot sharoitlari, voqealar, tajribalar va barcha narsalarni jalb qila boshlaydi. Aksincha, odamlar muvaffaqiyatsizlik yoki og‘ish haqidagi fikrlar tufayli muvaffaqiyatsiz bo‘ladi. Olimlar aytadilar: “Biz aqliy olamda yashaymiz, barcha sabablar bu yerda yotadi”. Agar biz o‘zgarishni istasak, bu shuyerdan boshlashimiz kerak” [2].

Inson o‘z hayoti, hatto baxti uchun ham mas’uldir, chunki baxt odatda sizning fikrlashingiz va o‘ylaringizning natijasidir. Agar siz salbiy hislarni saqlasangiz, agar siz boshqalarga nafrat his etsangiz va hayotga umuman qora ko‘zoynak bilan qarasangiz, agar siz bunday narsalar haqida o‘ylasangiz, nima bo‘ladi?

Psixologlar ta’kidlashicha, agar inson salbiy narsalar yuzaga kelishini kutsa, ular o‘zlarini shu salbiy fikrlardan qochishga majbur qilishlari kerak. Haqiqatan ham, biz salbiy fikrlarni butun kun davomida takrorlayveradigan yomon odatdan chiqishimiz

kerak. Bu odatni tark etmasak, biz shunchalik ko‘nglimiz tushgan va ruhan charchagan bo‘lamizki, hatto bir kun davomida ham xafa bo‘lishni xohlaymiz. Ayrim insonlarga bundan voz kechish yoxud turib harakat qilish yoqmaydi, lekin ba’zida bizning ongimiz bizni shunday qilishga majbur qiladi. Shuning uchun bunga e’tibor qaratmasligimiz kerak.

Shunday qilib, odamlar salbiy fikrlarni boshqa narsalar bilan almashtirishlari lozim. Ular bo‘sh vaqtlarida ham foydali ishlar bilan band bo‘lsa, masalan, sport zaliga borish, do‘stlari bilan uchrashish, yoqtirgan kitobini o‘qish va shu kabi boshqa mashg‘ulotlar bilan band bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Albatta, bu oson emas. Hatto o‘zimizni aldayotgadek tuyilamiz, go‘yoki unutishga harakat qilayotgandek his qilamiz. Insonlar o‘zlarini majbur qilayotgandek his qilishadi, ammo aslida ham ular “ular o‘zlarini majbur qilishlari” kerak.

Kunimiz qanday o‘tishi bu mutlaqo o‘zimzga bog‘liq, chunki har tong har birimizda to‘liq 1 kunda 24 soat beriladi, bu vaqt ichida turli noxush voqealar yuz berishi mumkin, masalan, metroda kim bilandir tortishib qolishingiz yoki yo‘l tirband bolgani uchun ishga, o‘qishga kech qolishimz mumkin, ammo e’tibor bersangiz, o‘sha vaziyat atigi 5-10 daqiqa vaqt ichida bo‘ladi, soniyalarda o‘tib ketishi ham mumkin, endi vaziyatgat chetdan boqsak: bizda 24 soat va ko‘ngilsiz o‘tgan 10 soniya bor, kopchilik insonlar ana shu 10 soniyani butun kun eslab, do‘stlariga ham bu haqida aytib, butun boshli 24 soatni o‘sha 10 soniyalik noxush vaziyatga shunchaki almashtrib yuboradilar. Natijada “butun kunim yomon o‘tdi” deb xafa holatda yuradilar. Bunday vaziyatdan so‘ng, albatta, miyamiz doimy salbiy o‘y-fikrlarga to‘la bo‘ladi.

Olimlar aniqlashicha, salbiy o‘y-fikrlar bulutlarga o‘xshaydi, ammo nima uchun? E’tibor berilsa, bir yomg‘irli bulutdan so‘ng, albatta, boshqasi ham keladi va oldin yomg‘ir asta-sekin yog‘ayotga bo‘lsa, birozdan so‘ng jala yog‘adi, fikrlar ham shunday – salbiy xayollar ortidan, albatta, salbiy; ijobiy fikrlar ortidan esa albatta, ijobiylari keladi. Bundan tashqari, mashhur yozuvchi James Allen aynan shu mavzuda “Inson nimani o‘ylasa, o‘shadir” deb nomlangan kitob ham yozgan. Muallif ushbu kitobda aytadiki: “Men aniq bilaman va ishonch bilan aytaman: “fikrlarimiz bizning asosimizdir” [1]. Mazkur asarning ham markaziy goyasi – inson o‘zining fikrlari mahsulidir. Bu yerda savol tug‘ilishi “globallashuv jarayoni insonlar va asosan yoshlar fikrlashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

Biznig fikrimizcha, rivojlanayotgan hozirgi davr – ijtimoiy tarmoqlar asri. Ayniqsa, turli mazmundagi qisqa videolar orqali odamlar o‘z hayotining faqat eng yorqin, eng muvaffaqiyatli lahzalarini namoyish etyapti. Kimdir qisqa vaqt ichida boy bo‘lgandek, yana kimdir orzusiga hech qanday to‘siqsiz yetgandek ko‘rinadi. Tashqaridan qaraganda hammasi juda oson, juda silliq va juda tez sodir bo‘layotgandek taassurot uyg‘otadi. Ammo bu videolar haqiqatning faqat bir bo‘lagi, xolos. Kadr ortida qolayotgan mashaqqatlar, kecha-yu kunduzgi mehnatlar, ko‘ngil sinishlari, omadsizliklar va shubhalar deyarli ko‘rsatilmaydi. Natijada bu manzaralarni tomosha qilayotgan yoshlar o‘z hayotini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. “Nega men ham shunday natijaga erisha olmayapman?”, “Nega mening yo‘lim bunchalik sekin?” degan savollar bera boshlashadi.

Aslida esa har bir insonning yo‘li – alohida bir hikoya. Kimdir maqsadiga tezroq yetadi, kimdir esa sekin, lekin puxta qadamlar bilan boradi. Muvaffaqiyat bir marra emas, balki davomli jarayon. Bugun ko‘rinib turgan “oson yutuq” ortida ko‘pincha yillarcha davom etgan mehnat va sabr yashiringan bo‘ladi.

Yoshlar shuni anglab yetishi kerakki, ijtimoiy tarmoqlardagi hayot – bu sahnalashtirilgan manzara. Haqiqiy hayot esa xatolar, izlanishlar va qayta urinib ko‘rishlardan iborat. O‘zini omadsiz his qilish o‘rniga, inson o‘z imkoniyatlariga, o‘z vaqtiga ishonishi muhim. Chunki har kimning bahori o‘z vaqtida keladi.

Xulosa shundan iboratki, eng muhimi, boshqalarning tezligi bilan emas, o‘z yo‘lingizdagi barqarorlik bilan o‘lchanadigan muvaffaqiyat eng qadrli muvaffaqiyatdir. Inson har qanday vaziyatda salbiy o‘y-xayollarga osongina yem bo‘lmasdan, unga qarshi kurashishni o‘rganishi lozim, hatto oz bo‘lsa ham yorug‘likka intilish darkor.

Xulosa qilib aytganda, inson hayotida eng muhim va eng qadrli muvaffaqiyat bu – o‘z yo‘lida boshqalarning qadamiga qarab shoshilmasdan, balki o‘z ichki imkoniyatlari va maqsadlariga sodiq qolgan holda barqaror oldinga intila olishidir. Chunki haqiqiy muvaffaqiyat tashqi tezlik yoki birovning yutug‘i bilan emas, balki insonning o‘z yo‘lini yo‘qotmay, sabr va matonat bilan davom etishida namoyon bo‘ladi. Hayot turli sinovlarga boy bo‘lib, insonni ko‘pincha salbiy o‘y-xayollar, tushkunlik va ikkilanishlar o‘rab oladi. Ana shunday damlarda inson bu his-tuyg‘ularga osonlikcha taslim bo‘lmasdan, ularga qarshi kurashishni o‘rganishi lozim. Hatto eng murakkab va umidsiz ko‘ringan vaziyatlarda ham qalbning bir chekkasida yorug‘likka, umidga va yaxshilikka bo‘lgan intilishni asrab qolish muhimdir. Zero, ana shu kichik umid uchquni insonni ruhan mustahkamlaydi, unga kuch bag‘ishlaydi va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydi. Ushbu xususiyatlar hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlarda shakllanishi muhim hisoblanib, ularning ma’naviyati rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Allen, J. As a man thinketh. https://oceanofpdf.com/authors/james-allen/pdf-epub-mind-is-the-master-the-complete-james-allen-collection-from-poverty-to-power-as-a-man-thinketh-from-passion-to-peace-the-master-of-destiny-and-more-download/

2. Hubband, E. Podcast Brian Tracy. https://youtube.com/shorts/w-nGry5SAZM?si=Ki1cos2oqZ11QrjI

3. Rohn, J. My philosophy for successful living. – Melrose, Florida, 2013. – 70 p.

4. Sinek, S. Start with why. Portfolio. USA, 2009. – 271 P.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Akbarova Nozima Anvarjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, magistranti
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, magistranti
Inoyatov Shukurillo Turg’unboyevich
Namangan davlat pedagogika instituti, dotsenti

Kirish. XXI asrda insoniyat ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi va chiqindilarni noto‘g‘ri boshqarish kabi masalalar global ahamiyatga ega. Shu sababli, yosh avlodni ekologik ong va mas’uliyat ruhida tarbiyalash har bir jamiyat uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya o‘quvchilarda tabiatga mehr, uni asrashga qiziqish va mas’uliyatni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu yosh davrida o‘quvchilarning xulq-atvori va odatlari shakllanadi, shuning uchun pedagogik jarayonda samarali metodlarni qo‘llash muhimdir. An’anaviy ta’lim metodlari, xususan, darslarda tushuntirish, savol-javob va matn ishlash usullari o‘quvchilarga bilim berishda foydali bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalar va ekologik ongni shakllantirishda cheklangan imkoniyatga ega. Shu bois pedagoglar zamonaviy metod va texnologiyalarni tadbiq etishga intilishadi. O‘yin texnologiyalari pedagogik jarayonda aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan samarali vosita sifatida e’tirof etilgan. O‘yin orqali o‘quvchilar o‘z bilimini amaliy tarzda mustahkamlaydi, sinfdoshlari bilan hamkorlikda muammolarni yechadi, ekologik mas’uliyatni his qiladi va tabiat bilan to‘g‘ri munosabatni o‘rganadi.

Shuningdek, xalqaro va milliy tajribalar ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalari ekologik tarbiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab mamlakatlarda boshlang‘ich sinflarda ekologik mavzularni o‘yinlar, interaktiv loyihalar, simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar orqali o‘qitish natijasi yuqori baholangan. Shu asosda, mazkur tadqiqotning dolzarbligi aniq ko‘rinadi. Ushbu ilmiy maqola Chortoq tumani 18-son maktabi 4-sinflarida o‘yin texnologiyalari yordamida ekologik ongni shakllantirishning samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot an’anaviy va o‘yin texnologiyalari bilan o‘tilgan darslar natijalarini solishtirishga qaratilgan. Maqsad – o‘quvchilarning ekologik bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ularning tabiatga munosabatini rivojlantirish va pedagogik jarayonda samarali metodlarni aniqlash. Shu tariqa, tadqiqot nafaqat maktab amaliyotiga, balki ekologik tarbiyaga oid ilmiy nazariyaga ham hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar sharhi

Ekologik tarbiya va barqarorlikka oid ta’lim — jahon va mahalliy miqyosdagi ilm-fanda muhim yo‘nalish hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu borada “integrativ”, “tarbiyaviy + amaliy + innovatsion” yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda. Masalan, *Systematic Review of Environmental Education Teaching Practices in Schools: Trends and Gaps (2015–*

2024) maqolasida 2015–2024 yillar davomida maktablarda ekologik ta’lim-tarbiya usullari tahlil qilingan. Unda asosiy xulosa shundaki, o‘rta maxsus va maktabdan yuqori ta’lim darajasidagi tadqiqotlar ko‘p, boshlang‘ich sinflarga e’tibor nisbatan kam; ammo raqamli texnologiyalar, integrativ usullar va fanlararo ta’limni joriy etish tendensiyasi oshmoqda. Xorijlik tadqiqotchilardan, *Effectiveness of environmental education on ecological awareness and behavior of primary level students* (López Martínez va hamkasblari) maqolasida asosiy xulosa shundaki — ekologik ta’lim dasturlari bolalarda ekologik ong, atrof-muhitga munosabat va amaliy xulqni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu natija maktablarda ekologik ta’limni uzluksiz va samarali olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, xorijda “innovatsion pedagogika + texnologiya”larni joriy etish muhimligi tan olingan. Masalan, “Enhancing environmental education in primary schools: evaluating the effectiveness of 360 videos as a teaching tool” tadqiqoti 360° videomateriallar orqali ekologik ta’lim berishni sinovdan o‘tkazgan. Oddiy darslar bilan solishtirganda, ishtirokchilarda ekologik bilim, qiziqish va ongni shakllantirish yuqori natija bergan.

O‘zbekistonda ham ekologik ta’lim va tarbiya mavzusi ilmiy va amaliy izlanishlarda o‘rin olmoqda. Masalan, *Boshlang‘ich ta’limda ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirishda kreativlikni takomillashtirish metodikasi* maqolasida boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya berishda kreativlik, fanlararo yondashuv, amaliy va tarbiyaviy metodlarni joriy etish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, *O‘quvchilarga ekologik ta’lim va ekologik madaniyatni shakllantirib borish* maqolasida O‘zbekiston sharoitida ekologik madaniyatni shakllantirish, xalqona qadriyatlar, milliy mentalitet va ma’naviy-axloqiy ta’lim orqali ekologik ongni tarbiyalash muhimligi aytiladi.

Ekologik ta’lim maktabning atrof-muhit, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar, hatto san’at va adabiyot darslariga integratsiya qilinishi lozim. Fanlararo yondashuv va uzluksiz ta’lim muhiti samaradorlikni oshiradi. Innovatsion usullar — videomateriallar, interaktiv, o‘yinlar, 360° video va boshqa AKT vositalari bolalarda ekologiaga qiziqish va amaliy qo‘llashni oshiradi. Shaxsda ekologik madaniyat, mas’uliyat, qadriyat va ekologiaga tortish odatlarini shakllantirishda tarbiyaviy va axloqiy-estetik metodlar zarur. O‘zbekistonda bu yo‘l xalq an’analari, diniy va ma’naviy qadriyatlar bilan integratsiya qilinishi mumkin. Ekologik ta’limning samarali bo‘lishi uchun uni maktabda bir vaqtning o‘zida faqat biologia yoki tabiat darsi sifatida emas, balki barcha fanlar doirasida, tashqari faoliyat, klublar, amaliyotlar, loyihalar orqali amalga oshirish zarur. Shunday qilib, global va milliy tajribalarni birlashtirish orqali — ekologik bilim va faoliyatlar tarbiyaviy, amaliy va estetik yo‘nalishda, zamonaviy texnologiya va o‘yin shakllari orqali o‘tkazilganda, fanlararo integratsiya bilan ekologik tarbiya samaradorligi oshadi. Ekologik tarbiya – bu shaxs ongida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Ushbu jarayon o‘quvchilarga tabiatni ilmiy asosda tushunish, ekologik muammolar mohiyatini anglash va ularga nisbatan to‘g‘ri munosabat bildirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda

ekologik tarbiya berish orqali bolalarda tabiatni sevish, uni asrash va muhofaza qilish kabi fazilatlar erta yoshdan shakllanadi. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Ekologik madaniyat deganda tabiatni qadrlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik va ekologik xavfsizlik qoidalariga amal qilish tushuniladi. Shuningdek, ekologik fikrlashni rivojlantirish, bolalarda tabiatni estetik qabul qilish, ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslik ham mazkur maqsadning tarkibiy qismidir. Ushbu maqsadga erishish uchun ekologik tarbiya bir qator vazifalarni bajaradi. Birinchidan, u ta’limiy vazifani amalga oshirib, o‘quvchilarda tabiat, ekotizimlar, tirik organizmlarning o‘zaro bog‘liqligi haqida ilmiy bilimlar hosil qiladi. Ikkinchidan, tarbiyaviy vazifa orqali bolalarda tabiatga mehr, g‘amxo‘rlik, ehtiyotkorlik, mas’uliyat va ekologik axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Uchinchidan, amaliy vazifa sifatida hayotiy ko‘nikmalar – chiqindilarni saralash, suv va energiyani tejash, o‘simlik va hayvonlarni asrash kabi odatlar rivojlantiriladi. To‘rtinchidan, ijtimoiy vazifa o‘quvchilarni ekologik tadbirlarda faol ishtirok etishga, jamiyatda ekologik madaniyatni targ‘ib qilishga undaydi. Oddiy qilib aytganda, ekologik tarbiya – barqaror rivojlanishga erishishda asosiy omillardan biri bo‘lib, yosh avlodning tabiatga nisbatan mas’uliyatli, ongli va faol munosabatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik tarbiya berish butun dunyo ta’lim tizimlarida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu yoshda bolalarda tabiatga munosabat, ekologik mas’uliyat va muhofaza madaniyati shakllanadi. O‘zbekistonning milliy tajribasida ekologik tarbiya asosan xalqning qadimiy urf-odatlari, tabiatni e’zozlash an’analari, ona tabiatga sadoqat va mehr tuyg‘ularini singdirish orqali olib boriladi. Boshlang‘ich sinf darslarida tabiatshunoslik, o‘qish, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda tabiatga chiqish, kuzatishlar, daraxt ekish aksiyalari muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, “Yashil makon” kabi umumxalq dasturlari orqali o‘quvchilarni ekologik faoliyatga jalb qilish samaradorlikni oshirmoqda. Xalqaro tajribada esa ekologik tarbiyaning zamonaviy metodlari keng qo‘llanadi. Masalan, Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya maktablarida loyihaviy ta’lim, ekologik muammolarni yechishga qaratilgan guruh ishlari va interaktiv o‘yinlar asosiy o‘rin tutadi. Yevropa mamlakatlarida esa “Outdoor education” — ochiq havoda o‘qitish konsepsiyasi keng tarqalgan bo‘lib, bolalarning tabiat bilan bevosita muloqotga kirishishi orqali ekologik fikrlashni rivojlantiradi. AQShda “Green School” modeli asosida maktablar energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va ekologik laboratoriyalar bilan jihozlanadi. Bu esa o‘quvchilarning kundalik hayotida ekologik madaniyatni amaliy o‘rganishiga xizmat qiladi. Milliy va xalqaro tajribalarni solishtirganda, umumiy jihat shundaki, har ikki tizim ham bolalarda ekologik ongni shakllantirishga, mas’uliyatli xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan. Xalqaro tajribaning innovatsion yondashuvlari milliy ta’lim tizimida qo‘llansa, boshlang‘ich ta’limda ekologik tarbiya yanada samarali bo‘ladi.

Ekologik tarbiyani tashkil etishning mazmuni o‘quvchilarda ekologik ong, ekologik madaniyat va tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan ta’limiy,

tarbiyaviy va amaliy faoliyatlar majmuasidan iboratdir. Mazmunning asosiy tarkibiy qismi ekologik bilimlar, ekologik axloqiy me’yorlar, tabiatni muhofaza qilish ko‘nikmalari, ekologik xavfsizlik qoidalari va barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya mazmuni o‘quvchilarning yosh xususiyatidan kelib chiqib, oddiydan murakkabga tamoyiliga asoslanadi. Ularga tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonlarning ahamiyati, suv va havoning tozaligi, chiqindilarni kamaytirish kabi mavzular bosqichma-bosqich tushuntiriladi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda samarali metodlardan foydalanish muhim o‘ringa ega. An’anaviy metodlar – tushuntirish, suhbat, kuzatish – bolalarda ekologik tasavvurni shakllantirsa, interaktiv metodlar esa ularning faol ishtirokini ta’minlaydi. Jumladan, “aqliy hujum”, “muammoli vaziyat”, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar ekologik muammolarni tahlil qilish va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Amaliy metodlar esa o‘quvchilarning bevosita tabiat bilan ishlashini ta’minlaydi: daraxt ekish, gul parvarishlash, tabiatni kuzatish, ekologik aksiyalarda ishtirok etish kabi faoliyatlar bunda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirmoqda. Multimediya, ekologik videolavhalar, virtual sayohatlar, elektron darsliklar orqali o‘quvchilar ekologik jarayonlarni yanada aniqroq tasavvur qiladilar. Bir so’z bilan aytganda, ekologik tarbiyeni to‘g‘ri tashkil etish bolalarda tabiatga ongli, mas’uliyatli va ekologik xavfsiz munosabatni shakllantirishning muhim omilidir.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilar ekologik ongini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, ular o‘yin jarayonida bilimni oson qabul qiladi, faol muloqotga kirishadi va amaliy ko‘nikmalarni tezroq o‘zlashtiradi. Ekologik mazmundagi o‘yinlar orqali o‘quvchilar tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladilar. O‘yinli texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, ular o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, “Ekologik zanjir”, “To‘g‘ri saralab ko‘r”, “Kim tez topadi?”, “Tabiatni asraylik” kabi o‘yinlar orqali o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, tezkorlik, mas’uliyat va ekologik axloqiy me’yorlar shakllanadi. Rolli o‘yinlar esa ularni tabiat muhofazasiga oid real hayotiy vaziyatlarga moslashtiradi. Masalan, “O‘rmon qo‘riqchisi”, “Ekolog-mutaxassis” kabi rollar o‘quvchilarda ekologik muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantiradi. Interfaol o‘yinlardan foydalanish ekologik ongni mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. Guruhli o‘yinlar, qidiruv-izlanish o‘yinlari va mantiqiy topshiriqlar bolalarda ekologik muammolarni hal qilishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Shuningdek, raqamli o‘yinlar va multimediali ekologik viktorinalar o‘quvchilarning raqamli savodxonligi bilan birga ekologik bilimlarini kengaytiradi. O‘yinli texnologiyalar ekologik ongni shakllantirishda tabiiy, qiziqarli va samarali pedagogik vosita bo‘lib, ular bolalarda tabiatga mehr, g‘amxo‘rlik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Tajriba-sinov dasturi

“O‘yin texnologiyalari orqali ekologik ongni shakllantirish”


O‘tkaziladigan joy: Chortoq tumani 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi Ishtirokchilar: 4 ta 4-sinf (101 nafar o‘quvchi) Davomiyligi: (yoki 1 oy). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ongni rivojlantirishda “Ekologik zanjir” o‘yinli texnologiyalar samaradorligini an’anaviy ta’lim bilan taqqoslash orqali aniqlash. Tajriba sinov uchun 4 ta 4-sinf tanlab olindi. 2 ta sinf An’anaviy ta’lim metodlarda, 2 ta sinf O‘yin texnologiyalari asosida zamonaviy metodlarda tajriba sinov o’tkazildi.


Natijalar va tahlil (1-jadval)

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi**	**Tajriba guruhi**
Bilim testi (%)	65	85
Amaliy ko‘nikmalar (%)	60	88
Ekologik axloq va motivatsiya (%)	62	90

Tajriba guruhi o‘quvchilari an’anaviy metodlar bilan o‘qigan nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori natija ko‘rsatdi. Bu o‘yin texnologiyalari ekologik bilim va ko‘nikmalarni samarali shakllantirishda yuqori samara berishini ko‘rsatadi.

- O‘yin texnologiyalari ekologik ongni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.
- Rolli va interaktiv o‘yinlar bolalarning tabiatga mehrini oshiradi, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.
- Pedagogik jarayonda an’anaviy va zamonaviy metodlarni uyg‘un qo‘llash tavsiya etiladi.
- Kelajakda raqamli o‘yinlar va ekologik loyihalarni kengaytirish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish mumkin.






a *b*

1-rasm

Yuqoridagi ikki grafik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yin texnologiyalari yordamida ekologik ongni shakllantirish samaradorligini ko‘rsatadi. Birinchi grafik – bar chart (ustunli diagramma) bo‘lib, u Nazorat va Tajriba guruhlaridagi uchta asosiy ko‘rsatkichni solishtiradi: bilim testi, amaliy ko‘nikmalar va ekologik axloq. Har bir guruh

uchun ustunlar alohida rang bilan ajratilgan va ustun balandligi foiz natijalarni bildiradi. Bu grafik o‘quvchilarning natijalarini vizual tarzda tez tushunishga yordam beradi, ayniqsa guruhlar orasidagi farqni aniq ko‘rsatadi.

Ikkinchi grafik – line chart (chiziqli grafik) bo‘lib, u ham xuddi shu ko‘rsatkichlarni aks ettiradi, lekin vaqt yoki guruhlar o‘rtasidagi tendensiyani ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Har bir ko‘rsatkich uchun alohida marker va chiziq uslubi tanlangan: doira, kvadrat va uchburchak markerlar. Bu grafik o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va axloq ko‘rsatkichlaridagi o‘sish yoki farqni trend ko‘rinishida ko‘rsatadi. Umuman olganda, bar chart foydalanuvchiga natijalarni tez solishtirish imkonini beradi, line chart esa ko‘rsatkichlar o‘zgarishining tendensiyasini ko‘rsatadi. Ikkala grafik ham tadqiqot natijalarini vizual tarzda taqdim etish va o‘yin texnologiyalari samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlashda muhim vosita hisoblanadi.





a *b*

2-rasm

So‘nggi ikki grafik an’anaviy usulda dars o‘tishda o‘quvchilarning bilim darajasini ko‘rsatadi. Birinchi grafik – ustunli diagramma (bar chart) bo‘lib, u Nazorat guruhi sinflarida dars boshlanishidagi va dars tugagandagi bilim foizlarini solishtiradi. Har bir sinf uchun ikkita ustun chizilgan: biri boshlang‘ich bilimni, ikkinchisi yakuniy bilimni aks ettiradi. Bu grafik o‘quvchilarning bilim darajasidagi oshishni vizual tarzda aniq ko‘rsatadi va an’anaviy metodning samaradorligini tez tushunishga yordam beradi.

Ikkinchi grafik – chiziqli grafik (line chart) bo‘lib, u ham xuddi shu ko‘rsatkichlarni aks ettiradi, lekin u bilim o‘sishining tendensiyasini yanada ravshan ko‘rsatadi. Har bir sinf uchun boshlang‘ich va yakuniy bilim chiziqlar bilan bog‘langan va markerlar yordamida ajratilgan. Bu grafik orqali sinflararo bilim oshishining farqi va o‘zgarish tendensiyasi aniq ko‘rinadi. Umuman olganda, ushbu grafiklar an’anaviy ta’lim metodining o‘quvchilarda bilim oshishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Ular vizual tarzda boshlang‘ich va yakuniy natijalarni solishtirish imkonini beradi. Ustunli diagramma natijani tez tushunish uchun qulay, chiziqli grafik esa bilim o‘sish tendensiyasini ko‘rsatadi. Shu tarzda pedagoglar an’anaviy metodning samaradorligini baholash va kelajakdagi ta’lim jarayonlarini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.





a *b*

3-rasm

So‘nggi ikki grafik o‘yin texnologiyasi yordamida dars o‘tishda o‘quvchilarning bilim darajasini aks ettiradi. Birinchi grafik – ustunli diagramma (bar chart) bo‘lib, u 4-C va 4-D sinflaridagi o‘quvchilarning dars boshlanishidagi va dars tugagandagi bilim foizlarini solishtiradi. Har bir sinf uchun ikkita ustun chizilgan: biri boshlang‘ich bilimni, ikkinchisi yakuniy bilimni ko‘rsatadi. Ranglar yordamida farqlar aniq ajratilgan. Ushbu grafik o‘quvchilarning bilim darajasidagi sezilarli o‘sishni vizual tarzda ko‘rsatadi va o‘yin texnologiyasining samaradorligini baholashga imkon beradi.

Ikkinchi grafik – chiziqli grafik (line chart) bo‘lib, u ham xuddi shu ko‘rsatkichlarni aks ettiradi, lekin bilim oshishining tendensiyasini yanada ravshan ko‘rsatadi. Boshlang‘ich va yakuniy bilim chiziqlar bilan bog‘langan, markerlar yordamida ajratilgan. Bu grafik orqali sinflararo bilim oshishining farqi va o‘sish sur’atini ko‘rish mumkin. Ushbu grafiklar o‘yin texnologiyasining o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishdagi samaradorligini vizual tarzda ifodalaydi. Ustunli diagramma natijalarni tez solishtirish uchun qulay, chiziqli grafik esa bilim o‘sish tendensiyasini aniq ko‘rsatadi. Shu tarzda pedagoglar dars metodlarini baholash va kelajakdagi ta’lim jarayonlarini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa. Ushbu ilmiy maqola boshlang‘ich sinflarda ekologik ongni shakllantirishda o‘yin texnologiyalarining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot Chortoq tumani 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida 4 ta sinfda o‘tkazildi. Nazorat guruhi o‘quvchilari an’anaviy metodlar yordamida dars oldi va yakuniy natijalar bilan taqqoslandi, tajriba guruhi esa o‘yin texnologiyalari yordamida ekologik bilim va ko‘nikmalarini oshirdi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, o‘yin texnologiyasi bilan dars o‘tgan o‘quvchilarning bilim darajasi sezilarli darajada oshgan. Nazorat guruhi uchun an’anaviy metod natijalari ustunli va chiziqli grafiklar orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, boshlang‘ich bilim foizi o‘rtacha 51% bo‘lgan, yakuniy bilim esa 66–67% darajasida bo‘ldi. Bu metod o‘quvchilarning bilim darajasini oshirgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’ati o‘yinli metodga nisbatan past. O‘yin texnologiyasi bilan dars o‘tgan tajriba guruhi grafiklarda aniq ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich bilim 56% atrofida bo‘lib, yakuniy bilim 86–88% ga yetdi. Bar chart va line chart orqali vizual tarzda ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning bilim

oshishi tez va samarali bo‘lgan. Shu bilan birga, o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning ekologik axloq, tabiatga mehr va amaliy ko‘nikmalarini ham oshirishga yordam beradi.

Xulosa sifatida, o‘yin texnologiyalari pedagogik jarayonda samarali vosita hisoblanadi. An’anaviy metod bilan solishtirganda, u o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilim o‘sish sur’atini tezlashtiradi va ekologik ongni yanada mustahkam shakllantiradi. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy o‘yin texnologiyalarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. E. Sukma, S. Ramadhan, V. Indriyani. Integration of environmental education in elementary schools. Journal of Physics: Conference Series (IOP Publishing) 2020, 1481(1), 012136

2. Mohammad Bilutfikal Khofi. The Green School Concept in Elementary Schools as an Effort to Form Sustainable Behavior and Environmental Awareness. Al- Adzka: Jurnal Ilmiah Pendidikan Guru Madrasah Ibtidaiyah. 2022, v.14(2)

3. Juan Carlos López Martínez va hamkorlar. Effectiveness of environmental education on ecological awareness and behavior of primary level students. Revista Veritas de Difusão Científica 2023, article 13

4. U. Shermatova Ecological Education in Primary Classes: Formation of Pedagogical Conditions of Development. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). 2024, 33, 49–53

5. U. Shermatova. Improving Ecological Culture in Primary Students’ Methodology. American Journal of Interdisciplinary Research and Development (AJIRD). 2025, 44, 8–11

6. O. R. Omonov. Development of Ecological Thinking of Primary School Students. Current Research Journal of Pedagogics (CRJP). 2024.

7. Sh.I. Eshonqulova va boshqalar. Ecological education in elementary schools (2022) Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2022 , № 7, p. 111–114.

8. Sh.B. Pishaddinova. Environmental education and its integration into primary school lessons (2025)Sh. B. Pishaddinova. International Journal of Artificial Intelligence, 2025, № 7, p. 78–82.

9. R.Sh.Omonov. Development of ecological thinking of primary school students. Current Research Journal of Pedagogics, 2024.

TALABALARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Aktamov Shohzod Ravshan o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Hozirgi kunda bo’lajak soha egalariga, jahon ilm-fani va taraqqiyoti darajasida ta’lim va tarbiya berish, ularning ma’naviy boyligi va madaniyatini, tafakkur qobiliyatini

yuksaltirish, shuningdek, kasbiy malaka va bilimini oshirish har bir adolatli jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biridir. Liderlik - bu ustunlik va bo'ysunish asosida, guruh a'zolarining xatti-harakatlariga ta'sir qilish jarayoni sanalib, uni o’z vaqtida shakllantirish ta’lim sub’ekrlarining asosiy vazifalaridan biridir. Talabalarda bu sifatlarning shakllanishida professor-o’qituvchilarning o`rni beqiyosdir. Buning uchun, har bir pedagogning ichki instinktida olg‘a intilish, rivojlanish, tevarak-atrofni his qilish, maqsadga erishish yo‘llarini o‘ylab ko‘rish, o‘z muhitida obro‘-e’tibor qozonish, o’z kasbiy savodxonligini oshirish, izlanish, madaniyatli gapirish, o‘zini innovatsion ifoda eta olishi kabilar juda muhimdir. Ya’ni, u har qanday vaziyatda ham mas’uliyatli va murakkab vazifalarni bajarish zarurligini his qila olishi va talabalarni zamon ruhida o’qita olishi lozim. Agar professor-o’qituvchida shu sifatlar bo‘lsa, uni kelajakka intiluvchi, yetakchilikka tayyorlovchi buyuk shaxs sifatida ta’riflash mumkin.

Hozirgi ijtimoiy-madaniy o’zgarishlar sharoitida yetakchi shaxslar o‘ziga xos sifatlari bilan alohida ajralib turadi. Ya’ni ularda doim yangi g'oya, istiqbolli maqsad va manfaatlar mavjud. Keng ma’noda liderlik insonning o'ziga xos fazilatlaridan biri bo’lib, u hamma insonlarda ham mavjud bo`lavermaydi, qolaversa har bir insonning o`ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjud. Hozirga qadar fanda, liderlik masalasida ko‘plab nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlar mavjud. Ye.B.Komarovaning fikricha, guruh talabalarni etakchi sifatida rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, guruh bu shunchaki talabalar guruhi emas, aynan u birgalikdagi maqsadni amalga oshiruvchi va jamiyatga foyda keltirishni maqsad qilgan intiluvchilar guruhidir[1]. Darhaqiqat, guruh haqida fikr bildirar ekanmiz, aynan guruhda yetakchi shaxslar shakllanadi degan xulosaga kelishimiz

mumkin. Agar talaba guruhiy faoliyatda etakchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyon etsa, o’z guruhi bilan ijobiy munosabatlar o'rnata olsa , demak u lider talabadir.

XXI asr talablaridan kelib chiqib aytganda, mamlakatimizda, har bir oliy ta’lim muassasalarida, insonning yangi qiyofasini shakllantirish zarurati talab etiladi. Ya’ni, hozirda jamiyatimizning har bir sohasiga raqobatga qodir, o‘ziga ishongan, o‘zini o‘zi shakllantirgan, mas’uliyatli, har qanday vaziyatda qaror qabul qila oladigan, jamoani boshqara oladigan, yetakchilik fazilatlariga ega kadrlar kerak. A.A.Urbanovichning so’zi bilan aytganda, zamonaviy oliy ta’lim maskanlarida ko’plab talabalar etakchilik qobiliyatiga ega. Biroq, har bir talaba o'z qobiliyatini mustaqil ravishda rivojlantira olmaydi. Zamonaviy psixologik- pedagogik sharoitlar o‘quvchida yetakchilik qobiliyatini aniqlash bilan bir qatorda, ularda mazkur qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi [2].

Hozirgi vaqtda mutaxassislar, nazariyotchilar va psixologlar o'rtasida, "Etakchilik" tug’ma sifat yoki u hayot davomida shakllanadi degan bahslar davom etmoqda. Ha, ularning ba’zilari tug‘ma “o‘ziga xos xususiyat” desa, boshqalari “liderlik” to‘g‘ridan - to’g’ri ta’lim va tarbiya orqali shakllangan, deb hisoblaydilar. Liderlik masalasi uzoq vaqt davomida nazariy ko‘rib chiqilgan bo’lsada biroq, aynan, talabalarda yetakchilik qobiliyatini rivojlanishi masalasi etarlicha to‘liq o’rganilmagan. Shuning uchun

talabalarda yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish ishlari dolzarb masaladi. Tadqiqodchi A.N.Zankovskiyga ko’ra, hozirgi vaqtda talaba yoshlarning liderlk faoliyatiga to’siq bo’luvchi, quyidagi muammolar mavjud[3]:

–Oliy maqsadga munosabatning pastligi;
–O’qishga bo’lgan qiziqishning yo‘qligi;
–O‘ziga ishonchning pastligi
–Mas'uliyatning yo‘qligi;
–O’zaro munosabatlarni adekvat o‘rnata olmaslik
–Qaror qabul qila olmaslik.

Bizningcha,talaba yoshlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning shart-sharoitlari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1) talabalarning muammolarini hal qilish;
2) talabalarning turli o'yinlarda, musobaqalarda, jamoat ishlarida, treninglarda ishtirokini ta’minlash;
3) Talabalarning turli psixologik o’yinlar va treninglarga qatnashish jarayonida, ularda quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlar shakllanadi: bilim olish, qiziquvchanlik, mustaqil ta`lim olish, doimiy izlanish, amaliy ko`nikmalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish.

5) Ijobiy natijani talaba shaxsida ko`rish uchun avvalo, ularda fanga qiziqishni uyg`otish lozim. Ya’ni, har bir professor-o’qituvchi darslarni qiziqarli o‘tkazish uchun, turli pedagogik texnologiyalar va ilg’or metodlardan foydalanishlari lozim sanaladi. Ta’lim jarayonida ya’ngi axborot texnologiyalarini qo‘llash natijasida talabalarning mustaqil izlanishlarini, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, o‘z ishini tashkil etishga o’rgatish, ayniqsa, talabalarning soha yo’nalishlariga qiziqishini oshirish juda samaralidir. Ushbu masalada A.Z.Minaxmedovaning fikr-mulohazalari o’ta o’rinlidir. Muallifning fikricha, hozirgi yoshlar oldida turgan asosiy muammolardan biri mas’uliyat hissining yo‘qligidir. Ular berilgan topshiriqlarni bajarishni xohlamaydilar yoki o'qituvchilarning aytganlarini umuman bajarmaydilar. Aslida esa, har kim o'z ishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim. Bundan tashqari, talabalarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilash uchun, birinchi navbatda, guruh a’zolariga guruhdagi birdamlik, hurmat va o‘zaro munosabatlar haqida ma’lumot berish o’ta muhim vazifadir[4].

Mazkur tadqiqotda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning rolini o’rganish uchun bir qator ilmiy metodlar qo’llanildi. Quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi:

1. **Adabiyotlarni tahlil qilish:** Tadqiqotning nazariy asosini yaratish uchun ilg’or ilmiy ishlar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu usul liderlik qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlashga yordam berdi.
2. **So’rovnomalar va intervyular:** Talabalarning psixologik holati va liderlik qobiliyatlarini o’rganish uchun so’rovnomalar va intervyular o’tkazildi. Bu usul yordamida talabalar motivatsiyasi, stressga bardoshliligi va emotsional intellekti baholandi.
3. **Psixologik testlar:** Talabalarning o’z-o’ziga ishonchi, qaror qabul qilish qobiliyati

va jamoa bilan ishlash ko’nikmalarini baholash uchun psixologik testlardan foydalanildi. Bu testlar liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda individual xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

4. **Tajriba-sinov ishlari:** Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan trening va motivatsion dasturlar sinovdan o’tkazildi. Ushbu dasturlar talabalarning liderlik ko’nikmalariga ta'sirini baholashga imkon berdi.

5. **Statistik tahlil:** Tadqiqot natijalarini qayta ishlash uchun statistik tahlil usullari qo’llanildi. Bu usul yordamida liderlik qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash mumkin bo’ldi[5].

Ushbu metodlar kombinatsiyasi talabalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik

omillarning rolini chuqur o’rganishga va samarali tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari talabalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillarning ahamiyatini tasdiqladi. Quyida asosiy natijalar bayon etiladi:

1. **Motivatsiyaning roli:** So’rovnomalar va intervyular natijalariga ko’ra, yuqori ichki motivatsiyaga ega talabalar liderlik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Motivatsiya darajasi past bo’lgan talabalarda esa liderlikka bo’lgan qiziqish va qobiliyatlar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi.

2. **Emotsional intellektning ahamiyati:** Psixologik testlar asosida, emotsional intellekti yuqori bo’lgan talabalar jamoa bilan ishlashda samaradorlikni ko’rsatdi va murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini namoyon etdi. Bu talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

3. **Stressga bardoshlilik:** Tadqiqotda stressga bardoshli talabalar murakkab vaziyatlarda liderlik rolini muvaffaqiyatli bajarishganligi kuzatildi. Stressga nisbatan zaif talabalar esa muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishgan. **Jamoaviy ish:** Treninglar va sinov dasturlari jamoaviy ish qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo’lib xizmat qilganligi aniqlandi. Jamoaviy ishlarda faol qatnashgan talabalar liderlik qobiliyatlarini tezroq shakllantira olgan.

4. **Psixologik treninglar va dasturlar samaradorligi:** Trening va motivatsion dasturlar talabalarning o’z-o’ziga ishonchini oshirishga va liderlik qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam bergan. Ushbu dasturlar qatnashchilarning liderlik bo’yicha ko’rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarni rivojlantirish orqali talabalar kelajakda muvaffaqiyatli liderlar bo’lish imkoniyatini oshirishlari mumkin[6].

Muhokama. Tadqiqot natijalari talabalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning roli juda muhim ekanligini ko’rsatdi. Talabalar orasida motivatsiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik kabi xususiyatlarning turlicha

rivojlanganligi liderlik qobiliyatlarining shakllanishida sezilarli ta'sir ko’rsatdi.

Motivatsiya liderlikning eng muhim omillaridan biri sifatida tan olindi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega talabalar ko’proq muvaffaqiyatga erishadilar, chunki ular o’z faoliyatiga nisbatan yuqori qiziqish va javobgarlikni namoyon etadilar. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya yetishmagan talabalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun qo’shimcha psixologik qo’llab- quvvatlash zarurligi aniqlangan.

Emotsional intellektning liderlikdagi ahamiyati ham yuqori baholandi. Emotsional intellekt talabalarga jamoaviy ishda samarali ishtirok etish, murakkab vaziyatlarda to’g’ri qarorlar qabul qilish va boshqa insonlar bilan muloqotda muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Ushbu ko’nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus trening va mashg’ulotlarni tashkil etish taklif etiladi.

Stressga bardoshlilikning yetakchilikda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Stressga bardoshli talabalar murakkab vaziyatlarda o’zlarini yaxshi boshqara olgan va samarali qarorlar qabul qilgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirishning psixologik omillarning hal qiluvchi ahamiyatini ko’rsatdi. Motivatsiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, va jamoaviy ish kabi omillar talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vositalar ekanligi aniqlandi. Ushbu omillarni rivojlantirish uchun trening va motivatsion dasturlarni joriy qilish samarali ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ta'lim metodlari va strategiyalari talabalarning liderlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo’shadi.

Shunday qilib, ta'lim tizimida psixologik yondashuvlarga asoslangan liderlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish zarur. Ushbu dasturlar talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishga va kelajakda muvaffaqiyatli liderlar bo’lishlariga ko’maklashadi.

Adabiyotlar:

1. Комарова Е.В., Редина Н.И., Шмелёва С.А. Лидерство:Учебное пособие для студентов вузов. – Днепропетровск: ДГФА, 2008. – С.8-10.

2. Урбанович А.А. Психология управления: Учебное пособие. – Мн.: Харвест, 2003 – С. 212.

3. Занковский А.Н. Психология лидерства: от поведенческой модели к культурно- ценностной парадигме // Учреждение Российской академии наук Институт психологии РАН, 2011– С.3-4.

4. Минахметова А.З., Кияшко В.Д. Гендерные особенности проявления лидерства у молодежи // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. - №1. - 2012.– С.42.

5. Katzenbach, J. R., & Smith, D. K. (1993). The wisdom of teams: Creating the high-performance organization. Harvard Business Review Press.

6. Gardner, H. (1995). Leading minds: Ananatomy of leadership. Basic Books.

TALABALARNING LIDERLIK XUSUSIYATLARI TARKIB TOPISHIGA TA’SIR ETUVCHI FAKTORLAR

Aktamov Shohzod Ravshan o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy jamiyat o’sib,rivojlanib kelayotgan har bir shaxslarga alohida talablar qo’yadi. Bugungi kunda ijtimoiy faol yoshlarning shaxsini rivojlantirish va ularda liderlik sifatlarini shakllantirishning samarali ijtimoiy-psixologik usullarini izlash shuningdek, jamiyatga tez va maqsadli qo’shila oladigan, ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolarini hal etishning yangi yo’llarini tezkorlik bilan topa oladigan, salohiyatli yoshlarni tarbiyalash muammosi psixologik jihatdan o’ta dolzarb vazifadir.

Zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisni tayyorlash uchun avvalambor, professional kompetentsiyaning bir qismi bo’lgan ayrim ijtimoiy - psixologik sifatlarni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim sanaladi. Aynan shu sifatlar, maxsus qobiliyatlarning o’zgarishiga va cheksiz texnologik o’zgarishlar sharoitidagi “shaxsning liderlik” malakasiga ega bo’lishiga olib keladi. Bu esa, ijtimoiy-psixologik nazariyalarni mehnat bozorlarining real talablari nuqtai-nazaridan dolzarblashuviga sabab bo’ladi. Bugungi ta’lim sharoitida etakchilik sifati o’zida uch karra yukni oladi. Avvalo, hayot sifati, unga ega bo’lish, uzluksiz ta’limning zaruriy shartidir. Ikkinchidan, etakchilik oliy o’quv yurtida o’qish natijasi, samarali ijtimoiy va kasbiy moslashuv garovidir. Uchinchidan, universitetning ijtimoiy taraqqiyotga qo’shgan hissasidir. Shu boiham, shaxsning etakchilik salohiyatini rivojlantirish jarayoniga muvaffaqiyatli psixologik yordam ko’rsatish davr talabidir.

L.R.Krichevskiyning yozishicha, globallashuv davrida, inson real va virtual munosabatlarning yanada murakkab munosabatlariga jalb qilinganida, etakchilik tushunchasi biroz o’zgaradi. Liderlik tushunchasi psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslikda kabi fanlarda hozirda keng tarqalgan. Psixologiya va inson va jamiyat haqidagi bir qator fanlarda ko’plab nazariyalr, ushbu hodisani keng nazariy va empirik tadqiq qilishga bagishlangan. Va ushbu nazariyalar orqali ijtimoiy faol shaxs rivojlanishning zarur individual uslubini aniqlash mumkin[1]. Demak, bunday amaliy ishlar o’z navbatida, yoshlarning hayotda ilg’or qaror qabul qilishiga, jamiyatda o’z o’rnini topishiga keng imkon beradi. Qoidaga ko’ra, kichik bolalik davrida yetakchilikka moyillik, o’zini o’zi tasdiqlash va o’zini o’zi belgilash vositasi bo’lib xizmat qiladi.Keyinchalik bu holat yangicha tus ola boradi. Hozirgi yoshlar orasida tashabbuskor bo’lmagan, yaqqol ko’zga ko’rinadigan qobiliyatlarga ega bo’lmagan, o’z mehnati bilan o’zini namoyon qilishga, ijtimoiy maqomga ega bo’lishga intilmayotgan o’quvchilar kam emas. Bunday holatlar ularning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy shakllanish jarayonlarini

murakkablashtirishi tabiiydir. Shu munosabat bilan, yoshlarning etakchilik intilishlarini rivojlantirishga yordam beradigan, universitetda ham, undan keyingi davrda ham, barcha ijtimoiy sohalarda raqobatbardoshlik va muvaffaqiyatlarga erishishuvchanlik ko’nikmalarini takomillashtirish o’ta zarurdir. Oliy ta’lim tizimidagi har bir zamonaviy talaba o’zida aniq tashkilotchilik qobiliyati, ijtimoiy faoliyatga bo’lgan ichki ishtiyoq, o’z maqsadlariga erishish uchun uzoq vaqt davomida hissiy, baquvvat, intellektual va jismoniy intensiv ishlay olish qobiliyati, nostandart g’oyalarni taklif qila olish kabi ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantirmog’i davr talabidir.

A.Yu.Subbotinaning yozishicha, talabalarda liderlik fazilatlarini paydo qilish uchun, turli ijtimoiy-psixologik tadbirlarni tashkil etish o’rinlidir. Ya’ni psixologik-pedagogik diagnostikani amalga oshirish, shaxsning rivojlanish darajasini faraz qilish, talabalarning etakchilik qobiliyatini kuzatish va uni baholash usullardan keng foydalanish, ta'limda gumanistik yondashuv asosida talabalarning etakchilik fazilatlarini rivojlantirish va dars mashg’ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir[**2**]. Demak, talaba o'z qobiliyatini rivojlantirish uchun birinchi navbatda, o'zini rivojlantirishi kerak. Ya’ni, talaba yoshlar o’z shaxsida yetakchilik koʻnikmalarini shakllantirish uchun, avvalo oʻz-oʻzini takomillashtirish, tashkilotchilik qobiliyati, darslarda pedagogik texnologiyalardan erkin foydalanish kabi malakalarni shakllantirmog’i lozim sanaladi. Xuddi shu masalada V.I.Dolgovaning so’zlariga ko’ra, etakchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun talaba doimo izlanishi, vazifalarni o’z vaqtida bajarishi, kasbiy bilim va ko’nikmalarini yanda kengroq rivojlantirishi kerak. Muallifga ko’ra ta’lim jarayonida, oʻquvchilarda yetakchilikni shakllantirishda quyidagi shart-sharoitlar zarur[3]:

– Raqobatbardoshlik muhitini yaratish (Munozara, davra suhbati, oʻyin, innovatsion texnologiyalar);

– Baholash va oʻz-oʻzini-oʻzi tarbiyalash usuli. Yuqorida qayd etilgan usullardan foydalanish natijasida, quyidagi lider talaba sifatlari shakllantiriladi:

– Kompetentlik - bu vazifa nima ish ekanligini, qaysi biri bilan faol shug'ullanish kerakligini bilish;

– Hamma narsada faol bo'lish;

– Ish vaqtida takliflar bera olish; – Ochiq xulq - boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati;

– Fikrlay olish - asosiy masalani tushuna olish;

– Qat'iyatlilik - har narsada iroda kuchini ko'rsata olish, vazifalarni oxirigacha bajara olish qobiliyati;

– O'zini tuta bilish, o'z his-tuyg'ularini va harakatlarini nazorat qila olish;

– Kuzatish - kichik muammolar va harakatlarni ko’ra olish qobiliyati;

– Tushunish sifatiga ega bo'lish, boshqa odamlarning hissiy holatini tushuna olish qobiliyati;

– Ishni tashkil eta olish, o'zi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish, guruh a’zolarini ishga safarbar qila olish qobiliyati va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlarda yetakchilik fazilatlarini shakllantirish zamon va jamiyat talabidir. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya beradigan oliyb ta’lim muassasalarida mustaqil yurt fuqarolarini tarbiyalash, milliy madaniyatga mehr-muhabbatni shakllantirish, ularning xulq-atvorida ijtimoiy hayotga bo’lgan faollikni oshirish va innovatsion fazilatlarini mustahkamlash o’ta ahamiyatli vazifadir. Lider, innovator talabaning oddiy talabadan farqi shundaki, u doimo o‘z ko’chiga, bilim va malakasiga doim ishonadi. Oddiy talabada haqiqiy qadriyatlar yo‘q va o‘ziga deyarli ishonmaydi. Shubhasizdirki, hozirgi kunda mamlakatimizda raqobatbardosh, o‘z fikrini aniq ifoda eta oladigan, ijodkor, ma’naviyatini yuksak, ilg’or, ijodkor, o’z kasbiga fidoiy kadrlar suv va havodek zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чернышев А. С., Лунев Ю.А., Лобков Ю.Л., Са-рычев С.В. Психологическая школа молодежных лидеров. М.: Московский психолого-социальный институт, 2005. – 275 с

2. Rustan Effendi, Y., Bafadal, I., Degeng Sudana, I. N., & Arifin, I. (2020). Humanistic approach to principal’s leadership and its impacts in character education strengthening. *Humanities & Social Sciences Reviews, eISSN*, 2395-6518

3.Долгова В. И., Крыжановская Н. В. Методология модернизации процессов формирования позна-вательно-профессиональной активности у студентов// Вестник Челябинского государственного педагогического университета.– 2010.– No1.– С.71-80..

YOUTH POLITICAL DISCOURSE IN THE DIGITAL SPACE: ANALYSIS AND EVALUATION

Alibekova Gaziza Kenjebekovna
Al-Farabi Kazakh National University PhD student
Mirzahmetov Kamoliddin Mansurdjanovich
Mirzo Ulugbek Uzbekistan Hational University Doctor of Political Sciences, professor

Introduction. In the conditions of the modern information society, social networks have become not only a means of communication, but also an important mechanism for political socialization, political knowledge and the spread of values. Especially among young people, social networks have a direct impact on the growth of political consciousness and civic responsibility. Political values are the stable attitudes and beliefs of an individual or social group towards the political system, power, justice, freedom, equality, and civil rights. These values serve as the basis for a citizen to actively participate in public life, participate in political decisions and express his position[1].

Today, young people more and more often choose to show their activity in the digital space than traditional forms of participation in politics (party membership, rallies,

participation in elections). For example, the use of political hashtags, signing Public Petitions, expressing opinions on social justice, publishing blogs or videos in TikTok format – these are emerging as alternative forms of modern political participation. This trend is related to the concept of participatory culture by researcher Henry Jenkins, that is, social network users act not only as consumers of information, but also as producers and distributors of it[2,3].

In terms of the transformation of political values, as Ronald Inglhart notes, post – materialistic principles – values such as democratic governance, freedom of speech, social equality and environmental responsibility-are increasingly becoming a priority in the minds of today's youth. In social networks, it is around these values that a public discourse is formed. Young people's support for peaceful rallies, participation in human rights campaigns, opposition to discrimination and censorship – all this indicates the high level of their political values.In addition, the speed and accessibility of obtaining and analyzing information in social networks contributes to improving the political literacy of young people[4,5]. Diversity of opinion and open discussion on various political events and issues develops the ability of young people to think critically. They learn to distinguish between real information and false information. In this case, the importance of media literacy increases. For example, according to UNESCO, it has been proven that in countries with high youth media literacy, the level of political activity is also higher.

If we analyze the situation in Kazakhstan, in recent years there has been an increase in the interest of young people in political life. Examples of this trend are peaceful rallies, youth movements, public initiatives and active participation in pre-election campaigning in 2019. Flash mobs, challenges and exchange platforms organized through social networks demonstrate the active civic position of young people.At the same time, under the influence of social networks, there is a desire for global values among young people. For example, issues on the global agenda, such as climate change, gender equality, inclusion, social justice, are also supported among Kazakhstani youth. This situation shows that young people are not indifferent to political and social trends not only at the national level, but also at the international level [6].

However, it is not enough to give an unequivocally positive assessment of this process. Manipulation, misinformation, populism and the spread of radical ideologies are also found in social networks. Such content can negatively affect the political views of young people. Therefore, improving the digital literacy of young people, developing the ability to sort and perceive information, and forming critical thinking are the necessary conditions for the sustainable development of political values.In conclusion, social networks are a powerful tool in the formation and enhancement of political values of young people. They raise the participation of young people in the political system to a new level and strengthen an active civic position. This trend plays an important role in the democratic development of modernity and the creation of civil society[7].

Youth is not only the future of society and the state, but also the present. After all, as a certain group of the political-social, cultural environment, in addition to influencing

various processes taking place in society, is increasingly becoming an active participant in transformation processes. At the same time, the socio-economic environment in which young people develop is being updated. Indeed, at all times, the peculiarity of youth as a socio-demographic group is that it is always considered the main object of socialization, to which certain social values and skills of adaptation to the rules of the game must be instilled. Young people were often compared to "Tabula rasa" (Latin for "clean slate"). Therefore, their social role in the future will depend on who will be the first to make their mark on this clean sheet: such as whether official or informal structures, organizations loyal to the authorities or radical, state ideology or influence against the system. In Kazakhstan's science, the problem of youth is considered in detail. The works of scientists who have studied various facets in this area allow us to deepen the theoretical and methodological basis of the dissertation work.

Musataev S. sh. and Abdigalieva G. K. conducted scientific research related to the social and political development of young people, their place in society. The authors analyze the value orientations, political activity of young people, as well as the social significance of the state youth policy.G. U. Nasimova and Lilia Yusupova studied the institutional formation of youth policy, the mechanisms of its implementation in society. Their works make a special contribution to understanding the legal and social basis of youth policy in Kazakhstan.Zh. Simtikov and Robertovna considered the issue of political participation of young people, focused on their political culture and electoral behavior. These works make it possible to understand the involvement of young people in democratic processes. The works of Zh.Kenzhalin are unique in the formation of the public consciousness of young people. He studied the influence of the media on the worldview, political views and values of young people.Also noteworthy are the works of Kazakhstani scientists related to the patriotism of young people and their role in civil society. Especially the works of Mashan and Rustemova are aimed at analyzing the processes of transformation of political Society.S. Dyachenko, Buluktayev and Zheksenbayeva studied the place of young people in the party system, the features of their participation in political organizations and parties. These works are important in explaining the political socialization of young people.

Articles defended in recent years related to the problem of youth socialization are also valuable. They are aimed at studying the social adaptation of young people in society, the formation of their values and social roles in new conditions. Regarding the development of the information and communication space, the works of Aliyarov and G. Sultanbaeva are important. They analyze the activity of young people in the digital space, the influence of social networks and New Media Communications.

In addition, Asyltayeva's works on civic identity explain the peculiarities of the formation of national and civic identity of young people. These studies are particularly valuable in terms of studying the social integration of young people.

Socialization institutions such as the Family, Educational Institutions, youth organizations play a key role in the formation of civic identity. If these institutions work

weakly or inefficiently, the integration of society is disrupted, and the risk of marginalization, radicalization, or involvement of young people in destructive activities increases.If the institutions of socialization fail to cope with their task, identity weakens, which in turn can lead to a decrease in trust in the political system, fragmentation of public discourse, and weakening of institutional legitimacy. As a result, the relationship between the state and society weakens, opening the way to political instability and social tensions[8].

Thus, increasing the socialization and creative activity of young people is one of the most important tools aimed at strengthening social stability, developing democratic processes and ensuring the legitimacy of political institutions.Socialization is the process of assimilation by the individual of the values and norms of society, which has two main levels.The first level is institutional socialization, that is, targeted training and education carried out through educational institutions. This process is organized in accordance with the ideological needs of the state and society and is aimed at the formation of political, cultural and social orientations of citizens. However, some researchers believe that this trend cannot be completely artificially controlled, since the social perception of a person depends on various contextual and cognitive factors.The second level is informal and spontaneous socialization, that is, the views and values of the individual[9], which are formed under the influence of life experience and the environment around him. At this level, family, friends, public circles, religious and radical groups, as well as the media play an important role. In the modern era of globalization, the internet and social networks are becoming a powerful institution of political socialization, directly influencing the political positions and values of young people. Internet platforms serve not only as a source of information, but also as a means of influencing the formation of political discourse, the development of an active civic position and political mobilization.Thus, the two levels of socialization can coexist mutually, but their relationship will depend on various socio-cultural factors, political situation and technological changes.Eric Erickson's theory of psychosocial development describes eight stages that a person goes through throughout his life. Crises and tasks in these periods are closely related not only to personal, but also to socio-political factors. In infancy (0-1.5 years), the child determines how confidently he perceives the environment. If the basic needs are met, then trust is formed. From a political science point of view, this process lays the foundation for the original belief in social institutions. If a child grows up in an insecure environment, he may be prone to political nihilism in the future. In early childhood (1.5–4 years), the child strives for self-independence. At this stage, the authoritarian or liberal style of upbringing can influence his later political positions. An early desire for independence can increase the propensity for democratic values. In the preschool period (4-6 years), the child takes the initiative to new activities and strives for self-realization. If his undertakings do not find support, such an emotional state as guilt and anxiety develops[10]. At the socio-political level, this period can affect the formation of civic

activity. At primary school age (6-11 years), the child strives for work and success. The attitude towards the education system and social justice is formed during this period.

If society supports the principles of meritocracy, the child will believe in justice and will be inclined to public activity. Adolescence (11-20 years) is the most active time for political socialization. Young people form their political views, ideological positions. During this period, there is a high risk of being drawn into radical movements, as teenagers are the age to seek political identification. In the period of young adulthood (21-25 years), a person builds close social ties and shows social activity. From a political point of view, this is a period of increased participation and political participation of young citizens in elections. At the stage of adulthood (25-5560 years), a person evaluates what contribution he is making to society. If at this stage a person feels socially useful, he will be inclined to political stability. And if stagnation occurs, dissatisfaction with the authorities may increase. In the old age period (over 5560 years), older people give an assessment of their lives. They perceive changes in society positively if they consider their past to be meaningful. If despair prevails, political pessimism increases, which can affect social stability. Erickson's theory of psychosocial development reveals the most important mechanisms of political socialization. At each stage of development, political views, beliefs and activity of the individual are formed. Politicians and public institutions can create effective political strategies only if these features are taken into account.

The socialization and formation of political values of the youth of modern Kazakhstan is determined by several generational features and socio-economic factors. According to the classification of sociologists, modern 40-year-olds belong to the "Generation X". They are followed by the "Generation Y", which was formed during the transition period of the 1990s, but did not see the Soviet Union. It is followed by representatives of the "Generation Z", born after 2000. Value and worldview differences between these generations often lead to mutual misunderstandings and can also affect their political and civil positions.The high suicide rate among this young generation is an indicator of the crisis of social institutions. According to the World Health Organization (who), Kazakhstan ranks third in the world in this indicator. This problem is not only of a medical or psychological nature, but also depends on social and political factors. Economic instability, uncertainty in the labor market and problems in the education system exacerbate the uncertainty of young people about the future.The economic system of the state has a great influence on the socialization of young people in Kazakhstan. In Soviet times, there was a direct connection between education and the labor market, and graduates of higher educational institutions were offered guaranteed jobs. And in the conditions of a modern market economy, young people are forced to independently plan their future, which directly affects their political consciousness. High unemployment rates and social inequality can strengthen the protest mood of young people, which, in turn, leads to an increase in their political activity or, conversely, to apathy and nihilism[11].

Political socialization of young people is a complex process. Differences in the value attitudes of representatives of different generations, the crisis of social institutions and economic factors play a decisive role in the formation of political positions of young people. These changes require a revision of the strategies of the authorities and society regarding youth policy.The question is how the formation of socially successful human behavior in a particular historical era is associated with the efforts of the educational system to socialisation.Thus, one of the most important issues is the self-employment of a certain part of young people who are not covered by the social protection system and work mainly in the "shadow" economy. This group, which has not received official registration and is on the basis of a livelihood, has become a fertile ground for the formation of discontent among young people who cannot find their place in life, which, in turn, can lead to various antisocial actions.

But corruption in state structures reduces both the level of patriotism and confidence in the existing political system.The low level of political culture due to the lack of institutions of effective socialization threatens to reorient youth maximalism to radical actions.It is noteworthy that officials, when discussing the long-term development of the state, prioritize economic competitiveness and consider "human capital" only as a secondary factor.In modern conditions, the state has lost the opportunity to consider young people not only as assistants in solving social problems, but also as the future heir to the existing economic and political system. As a result, young people begin to lose hope for the support of the state and society. Many young people are not tied to any obligations to the state, completely isolating themselves from economic and political systems. This suggests that citizens have low confidence in the current government, or at least neglect of political processes. Subsequently, the authorities will not be able to consider these citizens as their supporters, on the contrary, in a certain situation they may join new protest groups.In almost all state programs related to the reform of education, one of the priority areas is the need of educational institutions to carry out educational work on the development of civic self-determination of young people. For example, as stated in the state program for the development of education and science in the Republic of Kazakhstan for 2020-2025: "one of the main tasks of modernizing the education system is the formation of an intellectual nation armed with globally competitive education, creative thinking, as well as adhering to high civil and moral principles, with a sense of patriotism and social responsibility".

Conclusion. Currently, several deep "shortcomings" can be noted that create difficulties for the education system in the socialization of young people and raising their political culture.First, the division of society into two information spaces, Kazakh-speaking and Russian-speaking. Each of these spaces has its own opinion leaders, a list of issues to be discussed, its own ideas for the development of society[12].Secondly, the division along the" city-village " line. The intensification of internal migration of young people from rural areas to large cities, which leads to the socialization of young people, that is, to separation from previously established values and norms, roles and rules of

behavior.Thirdly, the conflict between the local and global information space. The problem of many young people is that they are not satisfied with the Kazakh education system, as it becomes uncompetitive in terms of global processes. The development of the internet and the growing influence of transnational media resources on the minds of young people create a tension of different worldviews and values.Fourth, one of the signs of the ineffectiveness of the socialization of young people is an increase in the number of people eager to leave the country. This indicates a crisis of trust in the existing economic and political system.Fifth, political indifference negatively affects the formation of the political culture of young people, contributing to the low level of their political consciousness.

References:

1. Aryn, E. M. political socialization: theory and practice. - Pavlodar: Kereku, 2019. - 243 P.

2. Yeleshov, S. T. the influence of digital media on political culture in modern Kazakhstan. – 2021. - No. 4. - p. 44-51.

3. Aitkalieva, A. K. the role of the social network in the formation of political values of Youth Journal of political research. – 2023. - No. 2. - pp. 61-68.

4. Bruns, A., Highfield, T., Burgess, J. The Use of Twitter Hashtags in the Formation of Ad Hoc Publics. Information, Communication & Society. – 2013. – Vol. 16(3). – pp. 372–393.

5. Kruse, L. M., Norris, D. R., Flinchum, J. R. Social Media as a Public Sphere? Politics on Social Networking Sites. The Social Science Journal. – 2018. – Vol. 55(1). – pp. 11–20.

6. Shirky, C. Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations. – New York: Penguin Press, 2008. – 327 p.

7. Dahlgren, P. Media and Political Engagement: Citizens, Communication and Democracy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 200 p.

8. Bakhytzhanovna, G. value orientations and media factors of the youth of Kazakhstan young researcher. – 2022. - No. 3. - p. 34-40.

9. Castells, M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 456 p.

10. Toktarova, D. S. political discourse and political cognition of youth in social networks youth and society. – 2023. - No. 1. - p. 72-80.

11. Margetts, H., John, P., Hale, S., Yasseri, T. Political Turbulence: How Social Media Shape Collective Action. – Princeton: Princeton University Press, 2015. – 336 p.

12. Levina, A. Yu.social network and political activity of young people in Sociological Research. – 2020. - №11. - pp. 78-84.

13. International Youth Fund. Youth of Kazakhstan: current trends and prospects of youth policy review. - Astana, 2022. - 96 P.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI

Alikulov Xusniddin Akbarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kasb mahoratini oshirish markazi sektor mudiri, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar o‘zining eng keskin nuqtasi – “bifurkatsiya holati”ga yetdi. Antropogen ta’sirning global miqyosda ortishi natijasida yuzaga kelgan iqlim o‘zgarishlari, bioxilma-xillikning qisqarishi va tabiiy resurslarning tugab borayotgani nafaqat iqtisodiy yoki biologik, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy va ekzistensial muammoga aylandi [1]. Bugungi kunda ekologik muammolar mohiyatan “inson ruhiyati va ongi inqirozi”ning zohiri ekanligi tobora oydinlashmoqda.

Global sivilizatsiya texnokratik taraqqiyotning yuksak cho‘qqilarini zabt etgan bo‘lsa-da, insonning borliqqa bo‘lgan munosabatida hali-hamon “iste’molchilik” paradigmasi hukmronlik qilmoqda. Bu esa jamiyatda ekologik madaniyatning zaiflashishiga va kelajak avlod taqdiriga befarqlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Aynan shu nuqtada, uzluksiz ta’lim tizimi oldida strategik vazifa – yoshlarda yangicha ekologik tafakkur va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish masalasi ko‘ndalang bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Orol dengizi fojiasining oqibatlarini yumshatish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining ilgari surilishi mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy qadamlardir. Ma’lumki, har qanday islohotning samarasi jamiyat a’zolarining, xususan, yoshlarning dunyoqarashi o‘zgarishiga bog‘liq. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Tabiatni asrash, suv va energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash har birimizning kundalik madaniyatimizga aylanishi zarur” [2]. Bu esa ta’lim tizimida ekologik tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni taqozo etadi.

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar evolyutsiyasi G‘arb va Sharq falsafasida turlicha talqin etilgan. G‘arbda A.Shveytserning “Hayotga ehtirom” etikasi, A.Neyssning “Chuqur ekologiya” ta’limotlari hamda Rim klubi olimlari (A.Pechchei, D.Medouz)ning “O‘sish chegaralari” konsepsiyalari ekologik muammolarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3, 4]. Ularning asarlarida texnokratik optimizm tanqid qilinib, “yangi gumanizm” g‘oyasi ilgari suriladi. Sharq falsafiy merosida, xususan, “Avesto” ta’limotida, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino asarlarida tabiat va inson uyg‘unligi (garmoniya) masalasi ontologik va axloqiy nuqtai nazardan yoritilgan [5].

Aksariyat hollarda ekologik tarbiya “axborot berish” darajasida qolib ketmoqda, bu esa yoshlarda barqaror “ekologik e’tiqod” va “ijtimoiy mas’uliyat”ni shakllantirishda yetarli bo‘lmayapti. Xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy mentalitet va qadriyatlar bilan

integratsiya qilgan holda, ekologik ongni transformatsiya qilishning ijtimoiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Xalqaro modellar va milliy qadriyatlar [6]ni qiyosiy o‘rganish asosida, ekologik tarbiyani kuchaytiruvchi ikki muhim, milliy qadriyatlar integratsiyasi hamda o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy negizida chuqur joylashgan “uvol”, “isrof”, kabi tushunchalar orqali ekologik mas’uliyatning falsafiy asoslaridan kelib chiqqan ijtimoiy mexanizmni qayd etish lozim.

Ekologik tarbiyaning samaradorligi avvalambor insonning borliqqa bo‘lgan munosabatini belgilovchi ontologik paradigmani o‘zgartirishga bog‘liq. Tarixan g‘arb sivilizatsiyasida (ayniqsa, I.Kant va F.Bekon ta’limotlari asosida) shakllangan antroposentrik paradigma (inson tabiatning xo‘jayini va uning cheksiz resurslar manbai) ekologik inqirozning falsafiy ildizi hisoblanadi.

Yoshlar ongida ushbu paradigmani V.I.Vernadskiy g‘oyalari asosidagi noosfera va ekosentrik paradigmaga o‘zgartirish zarur [7] hisoblanib, ushbu model quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Subyektga aylantirish: tabiatni shunchaki xomashyo “ob’ekti” emas, balki axloqiy munosabatlarning mustaqil “sub’ekti” sifatida tan olish.
- Koevolyutsiya tamoyili: insoniyat jamiyati o‘z taraqqiyotini tabiat qonunlariga zid ravishda emas, balki u bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanish (koevolyutsiya) asosida qurishi.
- Ekologik imperativ: I.Kantning axloqiy imperativi singari, ekologik imperativ ham faoliyatning asosiy me’yori sifatida: “O‘zingning xatti-harakating kelajak avlodning yashash imkoniyatlariga ziyon yetkazmasligini doimo nazarda tut” tamoyilini o‘rnatish.

Bu mexanizmlar, yoshlarni o‘zlarining xatti-harakatlari faqat shaxsiy ehtiyojlar emas, balki global miqyosdagi mas’uliyat ekanligini anglashga undaydi. Ekosentrik dunyoqarashni yoshlarning amaliy xulq-atvoriga aylantirish uchun uzluksiz ta’limning har bir bosqichiga mos keladigan aksiologik mexanizmlar taklif etiladi [8]. Ushbu tizimli yondashuv ekologik tarbiyani bir martalik tadbirlar yoki alohida fanlarning mavzusi bo‘lishdan chiqarib, uni ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga singdirilgan qadriyatlar matritsasiga aylantirishga imkon beradi.

Mazkur mexanizmlar G‘arbning ratsionalistik tejamkorligidan farqli o‘laroq, ma’naviy javobgarlikni nazarda tutadi. Bu mexanizmlar “Mahalla-oila-ta’lim” klasteri orqali joriy etiladi, chunki ekologik xulq-atvorning asoslari ko‘proq oila va mahalla muhitida shakllanadi.

Bugungi kunda yoshlarning axborot makonida faol ekanligini inobatga olib, ekologik tarbiya uchun raqamli resurslar (i-ekologiya) platformasini ishlab chiqish mihim ahamiyatga ega.Bu orqali “Yashil yuvish” (greenwashing) va ekologik populizmdan yoshlarni himoya qilish, ularda tanqidiy tafakkurni shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Mazkur loyihani VR/AR texnologiyalaridan foydalanib, ekotizimlarning murakkabligini vizuallashtirish; Citizen Science (Fuqarolik ilmi) loyihalariga yoshlarni jalb qilish orqali amalga oshirilish mumkin. Buning natijasida ekologik tarbiyani shaxsiy

mas’uliyatdan ijtimoiy-guruh mas’uliyatiga ko‘chirish uchun zarur bo‘lgan amaliy va falsafiy asoslar yaratiladi.

Ekologik tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari nafaqat nazariy yangilikka ega, balki uzluksiz ta’lim tizimida mavjud amaliy ziddiyatlarni bartaraf etish uchun ham xizmat qiladi.

G‘arbiy modellarning aksariyati individual xulq-atvorga urg‘u bersa, O‘zbekistonda taklif etilgan “Mahalla-oila-ta’lim muassasi” hamkorligi orqali tarbiya ijtimoiy mas’uliyat va kollektiv ong darajasiga ko‘tariladi. Ushbu ijtimoiy mexanizm, yoshlarni nafaqat o‘z xatti-harakatlari uchun, balki o‘z jamoasi (mahalla) farovonligi uchun ham javobgar bo‘lishga undaydi. Bu o‘ziga xos ijtimoiy bosim orqali ekologik me’yorlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribani taqqoslanganda, bizning milliy-madaniy integratsiya mexanizmimizning ustun tomonlari namoyon bo‘ladi. Yaponiya ta’limida shakllangan Mottainai falsafasi (narsalarni qadrlash va isrof qilmaslik) bizning “Uvol” va “Isrof harom” qadriyatlarimiz bilan falsafiy jihatdan juda yaqin turadi. Bu o‘xshashlik, yoshlarga ekologik mas’uliyatni yot (begona) g‘oya emas, balki ming yillik madaniy me’yor sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Ekologik bilimlar darajasi va ekologik xulq-atvor darajasi o‘rtasida “Ekologik shizofreniya” deb ataluvchi tafovut mavjud. Yoshlar to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin, ammo iste’molchilik madaniyati va ijtimoiy bosim natijasida unga zid harakat qiladi.

Antroposentrizmdan ekosentrizmga o‘tish zarurati shundan iboratki, texnik bilimlar ekologik inqirozni bartaraf eta olmaydi, chunki inqirozning asosiy manbai texnologiyada emas, balki g‘ayriaxloqiy va g‘ayriilmiy falsafiy munosabatda yotadi. Ekologik imperativni yoshlar ongiga singdirish Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishning fundamental kafolati hisoblanadi [9]. Agar yoshlar tabiatni o‘zining ajralmas bo‘lagi sifatida anglasalar, BRM 4 (Sifatli ta’lim) va BRM 13/15 (Iqlim va ekosistemalar) maqsadlari faqatgina hukumat qarorlari emas, balki shaxsiy axloqiy ehtiyojga aylanadi.

O‘quvchi yoshlarda maktabgacha va maktab bosqichda shakllangan ilk hissiy-ijtimoiy ko‘nikmalar, keyinchalik oliy ta’lim bosqichida kasbiy javobgarlik bilan uzviy bog‘lanadi. Bu, yoshlarning kelajakda atrof-muhitga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilishda faqat iqtisodiy foydani emas, balki axloqiy xavfsizlikni ham birinchi o‘ringa qo‘yishiga zamin yaratadi. Bu yondashuv, shunchaki qoidalar o‘rgatishga asoslangan an’anaviy pedagogikadan farqli o‘laroq, ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan mexanizmlar ekologik tarbiyani sirtqi bilimlar majmuasidan insonning borliq bilan o‘zaro munosabati va kasbiy faoliyatining asosiy falsafiy-axloqiy prinsipi darajasiga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNEP.Making Peace with Nature: A scientific blueprint to tackle the climate, biodiversity and pollution emergencies. United Nations Environment Programme. Nairobi. (2022)

2. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2022 y.

3. Schweitzer, A. Civilization and Ethics. London: A. & C. Black. (1923).

4. Naess, A. “The Shallow and the Deep, Long-Range Ecology Movement.” Inquiry, 16(1), 95-100. (1973).

5. Xayrullayev, M.M.O‘rta Osiyo falsafiy fikri tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan. 1993 y.

6. G‘afforova, M.T. “Oila va mahalla institutlarida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish.” Ijtimoiy fanlar ilmiy jurnali, 3(1), 45-51. 2020 y.

7. В.И. Вернадский. Биосфера и ноосфера / М.: Наука, 1989.-261 с.

8. Kollmuss, A., & Agyeman, J. “Mind the Gap: Why do people act environmentally and what prevents them from doing so?” Environmental Education Research, 8(3), 239-260. (2002).

9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO Publishing. (2017).

TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHDA TALABALARNING KASBIY YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Alimov Farxod
Andijon davlat universiteti dotsenti, ped.f.f.d (PhD)

Ma’lumki, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot modeli uchta komponentdan iborat: xabar manbai, xabar matni va xabar qabul qiluvchisi. Kasbiy yozma nutq jarayonnini modellashtirishda asosiy maqsad — nofilologik fakultet talabalarida kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyani shakllantirish asnosida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda chet tilida kasbiy yozma nutq ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Muloqotga asoslangan va kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq modelning asosiy komponentlari maqsadlar, vazifalar, tamoyillar, shakllar, vositalar, usullar va ta’lim mazmunidan iborat [1].

Til va nutqning o‘zaro bog‘liqligini lingvodidaktik tahlil qilish yozuv kompetensiyasini rivojlantirish modelini, chet tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqilishiga differensial yondashuvni ta’minladi. Binobarin, ta‘lim modelining kommunikativ yo‘nalishi yozuv va yozma nutq modellarni o‘z ichiga oladi. Talabalarning kasbiy yozma nutq faoliyatini bunday modellashtirish ularning intellektual fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozuv modeli talabalarda yozma-orfografik kompetensiyalarni rivojlantiradi, yozma nutq model esa nofilologik fakultet talabalarning kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyani takomillashtiradi [2].

Modulli ta’limning afzalligi — o‘rganilayotgan materialning gradatsiyasi, olingan bilimlarning va shakllangan kasbiy yozma nutq kompetensiyasining dinamik xususiyatlari, ularning o‘zgaruvchan vaziyatlar va kommunikativ vazifalarga moslashuvchanligi, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materialini ongli ravishda o‘zlashtirilishi va ta’lim metodlarining xilma-xilligidandir.

Kasbiy yozma nutq kompetensiyasini rivojlantiruvchi modelning vazifasi maktab ta’limida shakllangan yozuv ko‘nikmalarni tuzatishni o‘z ichiga oladi, ya’ni harflar konfiguratsiyasi va orfografik qoidalarga ishlov berish, qiyinchiliklarni va ularning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish usullarini topishdan iborat. Diktant yozish yozuvni o‘rganishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Yozma nutq — bu murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini fikrlarning mantiqiy bog‘liqligi, keng qamrovliligi va asoslanganligi uning kommunikativligini ta’minlaydi. Kasbiy yozma nutq modelning asosiy maqsadi maktab ta’limida shakllangan yozuv ko‘nikmalarini tuzatish va bu boradagi qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali raqamli tehnologiyalar yordamida nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Raqamli ta’limda elektron mashqlar yozuv ko‘nikmalarini va kasbiy yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omilidir [3]. Ingliz tilida kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyani rivojlantirish jarayonida elektron mashqlarni quyidagi ketma-ketlikda bajarish maqsadga muvofiqdir: yozuv mashqlari, yozma nutq mashqlari va kreativ yozma nutq mashqlari. Elektron yozuv mashqlarda orfografik va grafik qoidalarning mustahkamlanishiga xos bo‘lsa, kasbiy yozma nutqqa yo‘naltirilgan mashqlarda yozma nutq yo‘nalish elementlari mavjud bo‘lib, ular yozma mashqlardan farqlanadi. Kreativ nutqiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish ijodiy yondashuvni talab qiladi. Fikrni ongli va mantiqiy ifodalash bu mazkur mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. Annotatsiya, ma’ruza, maqola, turli esse, bayon va h.k.larni yozish kreativ yozma nutq mashqlarga xos namunalardir. Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyalarni shakllantirishda chet tili o‘qituvchi raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda turli metod, uslub va mashqlardan mohirona foydalanishi lozim.

Kasbga yo‘naltirilganlik aynan yozma nutq faoliyatning mazmuniy qismiga kiritilganligi sabab nofilologik fakultet talabalarning yozma nutq faoliyatini modellashtirishdagi mazmuniy komponent talabalarga kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyaning mazmuniy qismi lingvistik, psixologik, kasbiy va metodik komponentlardan tashkil topadi [4].

Yozma nutqni o‘rgatish mazmunining lingvistik komponenti grafik va orfografik qoidalarni, so‘zlarni, so‘z birikmalarini, tegishli kasb yo‘nalishdagi yozma matn tuzishda foydalaniladigan gaplarni o‘z ichiga oladi.

Yozma nutqni o‘rgatish mazmunining psixologik komponenti inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ko‘p jihatdan ta’lim samaradorligi psixologik omillarga

bog‘liq. Yozma nutq — bu murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, bunda barcha nutqiy analizatorlar ishtirok etadi va yozayotgan shaxs asosan yozma nutqning mazmuniy qismiga e’tibor qaratadi [5]. Bu yerda nutqiy kompetensiya yozma nutq faoliyatning mazmuniy tomonini nutqiy vaziyat va nutqiy aktning maqsadiga yo‘naltirilganligi bilan mos tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqiy faoliyat jarayonida nutqiy mexanizm shakllanadi, bu esa nutqiy ifodalarni, shu jumladan yozma nutqni ham hosil qilishga yordam beradi, nutqiy aktlarning ongli bajarilishi esa yozma nutq faoliyatda avtomatizatsiyaning vujudga kelishiga olib keladi.

Yozma nutqni o‘rgatish mazmunining metodik komponenti ikki subyekt faoliyatidan iborat: bir tomonda o‘qituvchi, ikkinchi tomonda talabalar. O‘qituvchining vazifasi — yozma nutqiy faoliyatni tashkil qilishning eng optimal variantlarini topish va bilimlarni uzatish, yozma nutqiy kompetensiyani shakllantirishda samarali shakl, usul va vositalarni tanlashdir. Ta’limdagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan talabalar faoliyati va motivatsiyasiga bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida o‘qituvchidan pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Mazkur qoidalar asosida yozma nutqni o‘rgatish mazmuni ham yozuv va yozma nutq mazmunidan iboratdir. Yozuv mazmuni, ya’ni birinchi komponent, tilning grafik va orfografik tizimini, shuningdek, yozuvni o‘zlashtirishga xizmat qiladigan usullar, yo‘llar, metodlar va vositalarni o‘z ichiga oladi. Yozma nutq mazmuni esa — til materialidan tashkil topgan yozma matn mahsuli bo‘lgan yozma nutq faoliyatidir. Matn mazmuniga yozma nutqqa xos turli nutqiy kleshlar va ifodalar kiradi. Yozma nutq kompetensiyasining mazmuniy qismi ma’lumotni yetkazish, fikrni ifodalash, matnda ifodalangan ma’lumotni asoslash, nutqiy vaziyatga mos ravishda til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish va yozuvchining emotsional holatini ifodalashni o‘z ichiga oladi. Yozma nutqni o‘rgatish mazmunining metodik komponentiga shuningdek, o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilish va baholash usullarini ham kiritish mumkin. Bu talabalar faoliyatini to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish, yozma nutq faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan barcha omillar raqamli tehnologiyalar yordamida yozma nutqni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy komponent. Yozma nutq faoliyatining navbatdagi komponenti — bu kasbiy komponent bo‘lib, u nofilologik fakultet talabalarida kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan ta’lim maqsadiga erishishda asosiy o‘rin tutadi. Ingliz tilini nofilologik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish talabalarning kasbiy kompetentligini, jumladan, ularning yozma va kasbga yo'naltirilgan nutq tayyorgarligini oshirishga qaratilgan. Nolisoniy oliy o‘quv yurtlari talabalari oldida turgan asosiy talab — raqamli texnologiyalar yordamida yuqori darajadagi kasbiy bilimga, xorijiy til kasbiy yozma nutq bilimiga, ularning kasbiy faoliyati sohasida xorijiy manbalardan zarur ma’lumotlarni olish qobilyatiga mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu esa ularning o‘z kasbiy faoliyati sohasida xorijiy manbalardan zarur ma’lumotlarni olishiga xizmat qiladi.

Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyalarini shakllantirish yozma nutqiy birliklarni aniqlashni talab etadi, bu birliklar yozma nutqning o‘quv-nutqiy birliklari

hisoblanadi. Ularga so‘zlar, so‘z birikmalari, kasbiy terminologiya, iboralar va fraziyalogik birliklar kiradi. Nofilologik fakulteti talabalarida yozma nutqni o‘rgatish mazmuni davlat dasturlari talablariga javob berishi kerak, talabalar kasbiy kompetensiyasi esa kelajakdagi kasbiy faoliyatlarining xususiyatlarini, jumladan, ularning kasbiy yozma nutq kompetensiyasini aks ettirishi lozim. Demak, nolisoniy oliy o‘quv yurtlarida chet tili fani talabalarning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qilishi kerak. Ta’lim shakllari, usullari va vositalari zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda takomillashtirilishi zarur. Raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning media savodxonligini oshirishga, ularning kasbiy tayyorgarligini yaxshilashga xizmat qiladi. Talabalarga platformalarni o‘rnatish va o‘quv jarayonida internet-resurslardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur.

Hozirgi vaqtda talabalarning ixtiyorida turli xil raqamli texnologiyalar mavjud: onlayn platformalar, onlayn konferensiyalar, seminarlar, elektron kutubxona tizimlari va boshqa ko‘plab raqamli resurslar. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda motivatsiya omili nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki motivatsiya talabalarda zamonaviy texnologiyalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ana’naviy umumta’lim mavzularidan kasbga yo‘naltirilgan mavzularga o‘tish zarur, bu esa kasbiy yozma nutq kompetensiyani rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi talabalarning individual, mustaqil va ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga, raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasini orttirishga yordam beradi, bu esa zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli tehnologiyalar asosida kasbiy yozma nutq kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan masofaviy ta’lim yaxshi istiqbollarga ega. Yozma nutqga yo‘naltirilgan masofaviy ta’lim moslashuvchanlik, modullilik, iqtisodiylik, o‘qituvchining yangi roli va ta’lim sifatini nazorat qilish xususiyatlarga ega. Talabalarni yozma nutq bo‘yicha zarur bilimlar, ma’lumotlar va topshiriqlar bilan ta’minlash hamda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ularning joylashgan manzilidan qat’i nazar, aloqa va muloqotni amalga oshirish masofaviy ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nursazwani D., Daud B., Din W.A., Al-saqqaf A. Exploring the VAW method of writing: The module development the cognitive process theory of writing in Malaysia. Malaysian Journal of Social Sciences and Humanities, 2018. 3(2). P. 40-47. https://doi:10.47405/mjssh.v3i2.73

2. Jalolov J., Maxkamova G., Ashurova Sh. English language teaching methodology. T.: Fan texnologiya, 2009. 334 b.

3. Saydullayev J.Y. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. “Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25-oktabr 2023-yil. 439-442-b.

4. Храмцова Н. Г., Майборода Т. Ю. Подходы к развитию цифровых компетенций студентов юридических вузов // Перспективы науки и образования. 2019. № 1 (37). С. 80–93.

5. Лурия А.Р. Очерки психофизиологии письма // Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. М.: «Академия». 2002. С. 10–77.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INTEGRATSIYASI

Aliqulov Azamat Shavkat o‘g‘li
O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida jamiyatning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularda ijtimoiy faollik, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashdan iboratdir. Bunda milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligiga tayangan holda tarbiya tizimini takomillashtirish alohida o‘rin tutadi. Zero, xalqning tarixiy xotirasi, diniy-ma’naviy merosi va milliy identiteti yosh avlodning dunyoqarashi shakllanishida asosiy omillardan biridir [1].

Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarning mafkuraviy immuniteti kuchli bo‘lishi uchun milliy o‘zlikni asrash bilan birga, ular ongida fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy va diniy qadriyatlarning integratsiyasi — yoshlar ongida ma’naviy barqarorlik va fuqarolik madaniyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydigan muhim konseptual yo‘nalish hisoblanadi.

Asosiy qism

Milliy qadriyatlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak. Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an’analari, rasm-rusumlari, til va madaniyati bo‘lib, ular yoshlarning fuqarolik identitetini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati ham yosh avlodga milliy g‘oya orqali Vatanga sadoqat ruhini singdirishga qaratilgan [2].

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar:

— jamiyatda o‘z o‘rnini anglaydi;

— davlat manfaatlarini ustuvor qo‘yadi;

— ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Diniy qadriyatlar insonni ezgulik, halollik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, odob-axloq qoidalariga yo‘naltiradi. Islom dini hamisha ilm-ma’rifat, adolat, vatanparvarlik va tinchlikni targ‘ib qilgan. Ularning yoshlar ongida o‘z aksini topishi fuqarolik madaniyatining muhim tarkibiy qismidir.

Diniy qadriyatlar yoshlarning:

— axloqiy immunitetini mustahkamlaydi;

— ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi;

— zararli mafkuraviy oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini kuchaytiradi [3].

Milliy va diniy qadriyatlar integratsiyasi: Yangi O‘zbekiston modeli. Yangi O‘zbekistonda milliy va diniy qadriyatlar ajratilgan holda emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda talqin qilinmoqda. Ushbu integratsiya quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshirilmoqda:

Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni kuchaytirish

Ta’lim tizimi — yosh avlod ongini, qadriyatlarini va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi eng asosiy platformadir. Ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni kuchaytirish — bu nafaqat yangi fanlar kiritish, balki mavjud o‘quv jarayonlarini qadriyatlarga yo‘naltirish, o‘qituvchilarni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va o‘quv-metodik materiallarni modernizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, o‘quv dasturlariga ma’naviy-ma’rifiy modul yoki komponentlarni tizimli ravishda qo‘shish zarur. Bu modul tarixiy va milliy qadriyatlarni, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini, axloqiy normalarni hamda fuqarolik huquq va burchlarini o‘z ichiga oladi. Modullar yoshlar darajasiga mos, interfaol metodlar (case-study, muhokama, loyiha ishlari) bilan tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchiga faqat nazariy ma’lumotlarni emas, balki real hayotda qo‘llaniladigan ijtimoiy ko‘nikmalarni ham beradi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilar va ma’naviy tarbiya bo‘yicha mutaxassislarni malaka oshirish dasturlari yaratilishi kerak. Ular uchun seminarlar, treninglar va metodik qo‘llanmalar muntazam tashkil etilishi lozim. O‘qituvchilarning o‘zlari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil eta olishi uchun psixologik, pedagogik va kommunikasion kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida ekstrakurikulyar faoliyat — jamoat ishlar, ko‘ngillilik, madaniy tadbirlar, tarixiy esdaliklarni saqlash loyihalari va debat klublar orqali ma’naviy tarbiya mustahkamlanadi. Bunday tadbirlar yoshlarning amaliy ijtimoiy tajriba orttirishiga, jamiyat muammolarini anglashiga yordam beradi.

Mahalla institutining yoshlar tarbiyasidagi rolini oshirish

Mahalla — jamiyatning eng yaqin va ishonchli ijtimoiy instituti sifatida yoshlarni erta bosqichdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Mahalla tizimini yoshlar bilan ishlashda yangicha, samarali mexanizmlarga asoslangan holda faollashtirish zarur.

Birinchidan, mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus strukturaviy bo‘limlar yoki «Yoshlar markazlari» tashkil etilishi muhim. Bu markazlar yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda madaniy, sport, kasbiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishi lozim. Markazlar orqali yoshlar o‘z tashabbuslarini amalga oshirish, mahallaga foydali loyihalar taklif etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, mahalla va maktab o‘rtasida hamkorlikni tizimlashtirish lozim. Mahalla vakillari o‘quv muassasalarida ma’naviy voqealar, an’anaviy bayramlar, tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazishi, shuningdek, ota-onalar bilan yo‘nalishli ishlashi kerak. Bu — oilaviy tarbiya bilan mahalla resurslarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mahalla instituti yoshlarni ijtimoiy mehnat va ko‘ngillilikka jalb qilishda yetakchi rol o‘ynashi mumkin. Mahalla ichida ekologik tozalash aksiyalari,

bevosita yordam ko‘rsatish, tarixiy joylarni tiklash kabi amaliy ishlar yoshlarning jamiyatga mas’uliyatli munosabatini rivojlantiradi.

OAV va internet makonida milliy-diniy qadriyatlarni targ‘ib qilish

OAV va internet — zamonaviy yoshlar uchun asosiy axborot manbalari. Shu sababdan, milliy va diniy qadriyatlarni sog‘lom va interaktiv shaklda targ‘ib qilish raqamli strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Birinchidan, mazmunli va yoshlar tiliga mos kontent yaratish muhim. Bu — qisqa videolar, podkastlar, blog postlar, interaktiv testlar va onlayn kurslarni o‘z ichiga oladi. Kontentda milliy tarixiy voqealar, ijobiy diniy namunalar, bag‘rikenglik va fuqarolik masalalari yaratib berilishi lozim. Media mahsulotlar muvozanatli, ularni yaratishda diniy va madaniy ekspertlar ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni jalb qiluvchi kampaniyalar o‘tkazish kerak. Masalan, #VatanSevgisi #Bag‘rikenglikXabari kabi hamkorlikli hashtaglar orqali ma’naviy mavzularni ommalashtirish, onlayn tanlovlar, ko‘ngillilar hikoyalari va “yaxshi amallar” aksiyalari orqali yoshlar orasida ijobiy tajriba tarqatish mumkin.

Uchinchidan, raqamli xavfsizlik va axborot savodxonligini oshirish muhim — yoshlar noto‘g‘ri ma’lumotlardan, radikallashuvdan va zararli kontentdan himoyalangan bo‘lishi kerak. OAV va onlayn platformalar tomonidan tekshirilgan, fakt asoslangan materiallar tarqatilishi, shuningdek, noto‘g‘ri kontentga qarshi ilmiy asoslangan qarshi kampaniyalar olib borilishi lozim.

Yoshlarning ijtimoiy faol platformalarga keng jalb qilinishi

Yoshlarni ijtimoiy platformalarga jalb qilish — ularni jamiyat hayotiga bevosita bog‘lash, liderlik va mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur. Bu jarayon faqatgina chaqiriq bilan cheklanmasligi, balki imkoniyatlar yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, yoshlar uchun qulay va erkin platformalar (mahalla darajasida va onlayn) tashkil etish kerak. Bunday platformalarda yoshlar o‘z tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun resurslar (ta’lim, mentorlik, moliyaviy yordam) bilan ta’minlanadi. Masalan, yoshlar startaplari, ijtimoiy tadbirkorlik loyiha akseleratorlari va grant tanlovlari yaratish samarali bo‘ladi.

Ikkinchidan, yoshlar o‘rtasida liderlik va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar amalga oshirilishi kerak: treninglar, simulyatsion o‘yinlar, debatlar, va xalqaro hamkorlik loyihalari. Bu dasturlar yoshlarni muammolarni tahlil qilish, jamoa bilan ishlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalariga o‘rgatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun baholash va mukofotlash tizimini joriy etish lozim. Eng samarali loyihalar yil yakunida tanlanib, mahalliy yoki milliy miqyosda e’lon qilinishi, mukofotlar va resurslar bilan taqdirlanishi yoshlarni faoliyatga undaydi.

Yoshlarning fuqarolik ongini oshirishda integratsiyaning amaliy mexanizmlari. Milliy va diniy qadriyatlarni uyg‘un qo‘llash orqali yoshlar tarbiyasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

— fuqarolik mas’uliyati kuchayadi;
— yoshlar voluntërlik, ekologik harakatlar, madaniy loyihalarda faol ishtirok etadi;
— jamiyatda tinchlik va totuvlik muhiti mustahkamlanadi;
— radikal g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet oshadi [4].

Tahlil. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv yoshlar dunyoqarashida izchil o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim muassasalari, oila va mahalla tizimi o‘zaro hamkorlikda ishlagan taqdirda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi ancha mustahkam bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi mavjud bo‘lmagan muhitda yoshlar ijtimoiy-huquqiy jarayonlarga sust munosabat bildiradi, radikal oqimlarga moyillik ortishi mumkin.

Integratsiya esa yoshlar ongida barqaror identitet yaratadi va ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlaydi.

Natijalar. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularning mustahkam hayotiy pozitsiyasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan tarbiya modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy an’analar hamda diniy-e’tiqodiy qarashlarning uyg‘unlashgan holda yoshlar tarbiyasiga tatbiq etilishi ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat shaxsning ma’naviy olamini boyitadi, balki uning jamiyatdagi mas’uliyatini ham yuksaltiradi.

Shuningdek, yoshlarning ma’naviy immuniteti aynan milliy va diniy qadriyatlar integratsiyasi asosida mustahkamlanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur integratsiya orqali yoshlar o‘zligini anglaydi, turli zararli g‘oyalar ta’siriga berilmaslik, to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotga sog‘lom qarash bilan yondashish kabi fazilatlarga ega bo‘ladi. Ma’naviy immunitetning kuchliligi esa ularning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biridir.

Tarbiya jarayonida ta’lim muassasalari, mahalla va oila institutlarining hamkorligi beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topib, yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi faolligini oshirayotgani kuzatilmoqda. Oila – tarbiyaning ilk bosqichi bo‘lsa, mahalla – ijtimoiy muhit, ta’lim esa – intellektual rivojlanish manbai sifatida bir butun tizimni tashkil qiladi. Ularning uyg‘un faoliyati yoshlarning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga katta hissa qo‘shadi.

Milliy va diniy qadriyatlarning mazmunan integratsiyalashuvi natijasida yoshlar ongida fuqarolik madaniyati, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mas’uliyat va hurmat kabi muhim sifatlar mustahkamlanib boradi. Bunday yuksak fazilatlarning shakllanishi esa kelajakda jamiyat taraqqiyotining kafolatidir. Zero, ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol va mas’uliyatli yoshlar – yurtning eng katta boyligi sanaladi.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo‘yicha milliy va diniy qadriyatlarning integratsiyasi ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Mazkur integratsiya nafaqat yoshlarning

ma’naviy yetukligini ta’minlaydi, balki jamiyatda faollik, mas’uliyat va fuqarolik ongini oshiradi.

Shu bois, ta’lim tizimi, oilalar, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari ushbu sohada o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishi, zamonaviy ma’rifiy metodlarni keng joriy etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.” — T.: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun. Toshkent, 2016.
3. Hakimov Z. “Islom va ma’naviyat.” — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.
4. To‘raqulov A. “Globallashuv va ma’naviyat.” — T.: Istiqlol nashriyoti, 2019.

SUN’IY INTELLEKT XAVFSIZLIGI: AFZALLIK VA XAVFLAR

Allashkurov Dilshodbek Mansurovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti assistenti,
Botirov Orifjon Ozod o‘g‘li,
Masharipov Dilshodbek Zokirjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti talabalari

Kirish. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining misli ko'rilmagan darajada jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatning turli sohalarida, jumladan, sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim va huquqni muhofaza qilishda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. SI tizimlari murakkab muammolarni hal qilish, samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratish salohiyatiga ega bo'lsa-da, ularning xavfsizligi va mas'uliyatli rivojlanishi bilan bog'liq jiddiy xavotirlarni ham keltirib chiqaradi. SI tizimlarining xato ishlashi, kutilmagan oqibatlarga olib kelishi yoki hatto insoniyatga tahdid solishi mumkin bo'lgan holatlar ehtimoli dolzarb muhokama mavzusiga aylangan. Shu sababli, sun'iy intellekt xavfsizligi nafaqat texnik muhandislik masalasi, balki kengroq ijtimoiy, etik va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan fundamental masaladir.

SI xavfsizligi konsepsiyasi sun'iy intellekt tizimlari keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga qaratilgan har qanday tadqiqot va amaliyotni o'z ichiga oladi. Bu zararli ta'sirlar algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar maxfiyligini buzish, kiberxavfsizlik zaifliklari, "gallyutsinatsiyalar" deb ataluvchi yolg'on ma'lumotlar yaratish [1] va hattoki global miqyosdagi transformatsion xavflar kabi keng doiradagi muammolarni qamrab oladi. Ushbu muammolarni hal qilish SI rivojlanishida jamiyat ishonchini qozonish, adolatni ta'minlash va javobgarlikni kuchaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [4]. Etik tamoyillarni SI dizayni va joylashtirilishiga proaktiv ravishda kiritish orqali tashkilotlar nafaqat yuridik asoratlarning va jamoatchilik salbiy

munosabatining oldini oladi, balki iste'molchilar, regulyatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ijobiy munosabatlarni ham mustahkamlaydi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi SI xavfsizligi tushunchasini har tomonlama tahlil qilish, uning asosiy tamoyillarini aniqlash, potentsial xavflar va tahdidlarni atroflicha ko'rib chiqish, xavfsiz SI tizimlarini yaratishdan kelib chiqadigan afzalliklar va imkoniyatlarni baholashdan iborat. Shuningdek, SI xavfsizligini ta'minlashning texnik va institutsional yondashuvlari, ularni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar hamda kelajak istiqbollari muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot SIning mas'uliyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan kompleks yondashuvni shakllantirishga hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt xavfsizligi sohasidagi adabiyotlar tobora kengayib bormoqda, biroq uning tushunchasi va chegaralari bo'yicha hali to'liq konsensus mavjud emas. Adabiyotlarda SIning huquqiy va etik oqibatlari, uning jinoiy huquq, kiberxavfsizlik, intellektual mulk huquqlari va SI yaratgan "gallyutsinatsiyalar" keltirib chiqaradigan tartibga solish muammolari kabi turli jihatlari o'rganilgan [1]. Shuningdek, SIning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlari, masalan, "iqtisodiy inqilob yoki ish o'rinlari yo'qolishi" kabi munozarali masalalar ham muhokama qilingan [1]. Bu manbalar SIning ko'p qirrali ta'sirini va uning rivojlanishidagi xavflarni nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

[2] manbasida SI xavfsizligi sohasida aniq, keng qabul qilingan ta'rifning yo'qligi ta'kidlanadi. Ushbu ish "SI xavfsizligi konsepsiyasi" ni taklif qilib, har qanday tadqiqot SI tizimlaridan kelib chiqadigan zararlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga qaratilgan bo'lsa, ushbu soha doirasiga kirishini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, bu sodda konsepsiya hozirda ikkita asosiy tendentsiya bilan ziddiyatda: birinchisi, kelajakdagi SI tizimlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan halokatli xavflarga e'tibor qaratish va ikkinchisi, SI xavfsizligini xavfsizlik muhandisligining bir tarmog'i sifatida tavsiflash. Tadqiqotda SI hizalanishi (alignment) va raqibga chidamlilik (adversarial robustness) kabi tarixan markaziy mavzular bilan bir qatorda tarafkashlik (bias), dezinformatsiya va maxfiylik kabi avval chekka deb hisoblangan sohalar o'rtasidagi uzluksizlik namoyish etiladi. Bu nuqtai nazarni qabul qilish, barcha SI zararlarini oldini olish harakatlarini ularning afzalliklariga qarab baholashni rag'batlantiradi, o'zboshimchalik bilan ajratishlardan qochadi. Mualliflar SI xavfsizligining intizomiy chegaralarini belgilashning muhimligini ta'kidlaydilar, chunki bu bevosita tadqiqot ustuvorliklari, hamkorlik va jamoatchilik hamda siyosiy nutqqa ta'sir qiladi.

[4] manbasi SIning sog'liqni saqlash, moliya va huquqni muhofaza qilish kabi muhim sohalarda tez sur'atlarda qabul qilinishi etik mulohazalarning ustuvorligini ko'rsatib turishini ta'kidlaydi. Nazoratsiz SI ijtimoiy tarafkashlikni kuchaytirishi, maxfiylikni buzishi va kutilmagan zararlarni keltirib chiqarishi mumkin, shu sababli adolatli, shaffof va xavfsiz ishlaydigan tizimlarga ehtiyoj bor. Etik SI rivojlanishi ishonchni mustahkamlash, adolatni rag'batlantirish va javobgarlikni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, bu esa SI texnologiyasini jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Asosiy tamoyillarga tarafkashlikning oldini olish uchun adolat va inklyuzivlik, ishonchni

mustahkamlash uchun qaror qabul qilishda shaffoflik, natijalar uchun javobgarlik, mustahkam maxfiylik va ma'lumotlar himoyasi hamda qat'iy xavfsizlik choralari kiradi. Etik yondashuvni qo'llash nafaqat yuridik asoratlarning va jamoatchilik salbiy munosabatining oldini oladi, balki iste'molchilar, regulyatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ijobiy munosabatlarni ham mustahkamlaydi. Bu etik tamoyillarni SIni ishlab chiqish va joylashtirishga proaktiv ravishda kiritish orqali tashkilotlar jamiyatning eng yaxshi manfaatlariga xizmat qiladigan ishonchli tizimlarni qurishi, mas'uliyatli innovatsiyalarni va barqaror o'sishni ta'minlashi mumkin.

Ushbu adabiyotlar tahlili SI xavfsizligining keng qamrovli va dinamik maydon ekanligini, texnik, etik va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. U SI xavfsizligi ta'rifini aniqlash, uning turli xavflarini tan olish va ushbu xavflarni bartaraf etish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishning muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola sifatli, tahliliy va tanqidiy sintez metodologiyasiga asoslangan tadqiqotni amalga oshiradi. U mavjud akademik adabiyotlar, tadqiqot nashrlari va kontseptual doiralarga tayanib, sun'iy intellekt xavfsizligi tushunchasini tizimli ravishda tahlil qiladi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat:

Kontseptualizatsiya: Sun'iy intellekt xavfsizligi tushunchasining turli ta'riflari va nuqtai nazarlari o'rganiladi, xususan, "SI xavfsizligi konsepsiyasi" ga e'tibor qaratiladi, bu SI tizimlaridan kelib chiqadigan zararlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga qaratilgan har qanday tadqiqotni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish va sintez qilish: SI xavfsizligi, etikasi, huquqiy va ijtimoiy ta'sirlari bo'yicha muhim adabiyot manbalari tanlab olinadi va tahlil qilinadi. Mavjud tadqiqotlar o'rtasidagi aloqalar, ziddiyatlar va bo'shliqlar aniqlanadi.

Tahlil va kategorizatsiya: SI rivojlanishining asosiy xavf va tahdidlari (masalan, algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar maxfiyligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, transformatsion xavflar) aniqlanadi va kategoriyalar bo'yicha guruhlanadi. Shuningdek, xavfsiz SI tizimlarini yaratishdan kelib chiqadigan afzalliklar va imkoniyatlar ham tahlil qilinadi.

Yechimlarni baholash: SI xavfsizligini ta'minlashning texnik (masalan, hizalanish, mustahkamlik, tushunarlilik) va institutsional (masalan, etik yo'riqnomalar, tartibga solish, xalqaro hamkorlik) yondashuvlari ko'rib chiqiladi va ularning samaradorligi hamda amalga oshirilish qiyinchiliklari baholanadi.

Tanqidiy mulohaza: SI xavfsizligi sohasidagi dolzarb muammolar, jumladan, texnik murakkablik, normativ noaniqlik va global muvofiqlashtirish zarurati kabi qiyinchiliklar tanqidiy nuqtai nazardan o'rganiladi.

Ushbu metodologiya SI xavfsizligi bo'yicha chuqur tushuncha berish, mavjud bilimlar bazasini sintez qilish va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari uchun asos yaratishga qaratilgan. Maqola SI rivojlanishi va joylashtirilishida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun asoslangan istiqbolni taqdim etishga intiladi.

Sun'iy intellekt xavfsizligi (SI xavfsizligi) – bu SI tizimlari jamiyatga yoki insoniyatga zarar yetkazishining oldini olishga qaratilgan fundamental tadqiqot va amaliyotlar sohasi.

Bu tushuncha nafaqat texnik nosozliklar yoki kiberhujumlardan himoya qilishni, balki SIning axloqiy, ijtimoiy va hatto ekzistensial xavflarini ham qamrab oladi. [2] manbasida ta'kidlanganidek, SI xavfsizligi uchun yagona, keng qabul qilingan ta'rif yo'q bo'lsa-da, "SI xavfsizligi konsepsiyasi" har qanday tadqiqot SI tizimlaridan kelib chiqadigan zararlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga qaratilgan bo'lsa, ushbu soha doirasiga kirishini taklif qiladi. Bu zararlar algoritmik tarafkashlik, dezinformatsiya va maxfiylik buzilishidan tortib, SIning noto'g'ri hizalanishi (misalignment) tufayli kelib chiqadigan keng ko'lamli yoki halokatli xavflargacha bo'lishi mumkin.

Adolat va inklyuzivlik: SI tizimlari barcha foydalanuvchilar uchun adolatli va teng munosabatda bo'lishi, hech qanday guruhga nisbatan tarafkashlik qilmasligi kerak. Algoritmik tarafkashlikni oldini olish va kamaytirish uchun ma'lumotlar to'plami va algoritmlar muntazam ravishda tekshirilishi lozim.

Shaffoflik va tushunarlilik: SI tizimlarining qaror qabul qilish jarayonlari iloji boricha shaffof va inson tomonidan tushunarli bo'lishi kerak. Bu "qora quti" muammosini hal qilish va tizimlar qanday ishlayotganini tushunishga yordam beradi, ishonchni mustahkamlaydi.

Javobgarlik: SI tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va ularning oqibatlari uchun aniq javobgarlik mexanizmlari mavjud bo'lishi kerak. Bu ishlab chiquvchilar, joylashtiruvchilar va foydalanuvchilarni o'z ichiga oladi.

Maxfiylik va ma'lumotlar himoyasi: SI tizimlari shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashda eng yuqori darajadagi maxfiylik va xavfsizlik standartlariga rioya qilishi shart. Ma'lumotlar qoidalari va foydalanish siyosatlari aniq belgilanishi kerak.

Mustahkamlik va xavfsizlik: SI tizimlari kiberhujumlar, tasodifiy xatolar va boshqa tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lishi kerak. Ularning xavfsiz va ishonchli ishlashi uchun qat'iy sinov va tasdiqlash protokollari qo'llanilishi lozim.

Inson nazorati va maqsadi: SI tizimlari doimo inson nazorati ostida bo'lishi va insoniyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilishi kerak. SI o'z maqsadlarini inson qadriyatlaridan uzoqlashgan holda mustaqil ravishda belgilashiga yo'l qo'ymaslik muhimdir.

Bu tamoyillar SI xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat texnik, balki etik, huquqiy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga oladigan ko'p qirrali yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

SI texnologiyalarining jadal rivojlanishi ulardan olinadigan ulkan foydalar bilan bir qatorda bir qator jiddiy xavf va tahdidlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu xavflar texnik nosozliklardan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik va hatto ekzistensial tahdidlargacha bo'lishi mumkin.

Algoritmik tarafkashlik (Algorithmic Bias): SI tizimlari o'rganadigan ma'lumotlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy, jinsiy yoki irqiy tarafkashliklarni aks ettirishi va kuchaytirishi mumkin. Bu tarafkashlik kredit berish, ishga qabul qilish, jinoiy adliya tizimlari va tibbiy tashxislash kabi muhim sohalarda adolatsiz qarorlarga olib kelishi, ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirishi mumkin [4].

Ma'lumotlar maxfiyligi va himoyasi buzilishi: SI tizimlari katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga tayanadi. Bu ma'lumotlarning noto'g'ri foydalanilishi, buzilishi yoki kiberhujumlar natijasida sizib chiqishi jiddiy maxfiylik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin [4]. Shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy foydalanilishi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini cheklashi mumkin.

Tushunarlilik va shaffoflikning yo'qligi ("Qora quti" muammosi): Ko'pgina murakkab SI tizimlari, ayniqsa chuqur o'rganish modellariga asoslanganlar, qanday qilib qaror qabul qilganliklarini izohlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu shaffoflikning yo'qligi tizimlarga ishonchni pasaytiradi va ularning xatolarini aniqlash, tuzatish hamda javobgarlikni belgilashni qiyinlashtiradi [4].

Xatolar va kutilmagan oqibatlar: SI tizimlari tasodifiy xatolar, tizim nosozliklari yoki dasturchilar kutmagan tarzda ishlashi mumkin. Masalan, [1] manbasida SI yaratgan "gallyutsinatsiyalar" – mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni haqiqat deb taqdim etishi – jiddiy noto'g'ri qarorlarga sabab bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Avtonom tizimlar (masalan, avtonom transport vositalari)dagi xatolar inson hayotiga tahdid solishi mumkin.

Kiberxavfsizlik tahdidlari: SI tizimlari o'zlari kiberhujumlar nishoniga aylanishi yoki kiberhujumlarni amalga oshirish uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin [1]. Raqib hujumlar (adversarial attacks) SI modellarini noto'g'ri tasniflashga majbur qilishi mumkin, bu esa muhim infratuzilmalarda yoki mudofaa tizimlarida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar: SIning keng tarqalishi ish o'rinlarining yo'qolishiga, mehnat bozoridagi tengsizlikning oshishiga va ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin [1]. Bu esa keng ko'lamli ijtimoiy noroziliklar va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Transformatsion va ekzistensial xavflar: Bu xavflar nisbatan spekulyativ bo'lib, kelajakdagi juda rivojlangan (superintelligent) SI tizimlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan tahdidlarni anglatadi. Agar SI insoniyat nazoratidan chiqib, o'z maqsadlarini insoniy qadriyatlarga zid ravishda amalga oshira boshlasa, bu insoniyatning mavjudligiga tahdid solishi mumkin. Garchi bu uzoq muddatli xavf bo'lsa-da, SI xavfsizligi tadqiqotchilari uni hisobga olishadi va [2] manbasida halokatli xavflarga e'tibor berish tendentsiyasi muhokama qilingan.

Ushbu xavflar SI texnologiyalarini ishlab chiqish va joylashtirishda proaktiv xavfsizlik choralarini va etik mulohazalarni hisobga olishning dolzarbligini ta'kidlaydi.

SI xavfsizligiga e'tibor qaratish va uni tizimlarni ishlab chiqish jarayoniga birlashtirish nafaqat potentsial zararlarning oldini oladi, balki bir qator muhim afzalliklar va imkoniyatlarni ham yaratadi.

Jamoatchilik ishonchini oshirish: Etik va xavfsiz SI tizimlarini yaratish orqali jamiyatda SI texnologiyalariga nisbatan ishonch mustahkamlanadi. Ishonchli tizimlar ularning keng miqyosda qabul qilinishiga va samarali qo'llanilishiga yordam beradi [4].

Jamiyatning SIga nisbatan xavotirlari bartaraf etilsa, innovatsiyalar uchun ko'proq imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Yaxshilangan qarorlar qabul qilish va samaradorlik: Xavfsizlik standartlariga javob beradigan SI tizimlari ancha ishonchli, aniq va adolatli qarorlar qabul qiladi. Bu esa sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirishga, xatolarni kamaytirishga va resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlash: Tarafkashliksiz va adolatli SI tizimlari ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga hissa qo'shishi mumkin. Masalan, ishga qabul qilishda yoki kredit berishda algoritmik tarafkashlikni bartaraf etish orqali aholining kam ta'minlangan yoki chekka guruhlariga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlash mumkin. Bu SIning ijtimoiy-iqtisodiy foydalarini barcha uchun kengaytirishga yordam beradi [4].

Iqtisodiy o'sish va innovatsiyalar: Mas'uliyatli va xavfsiz SI rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Etik tamoyillarga asoslangan SI innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlovchi kompaniyalar bozorlarda raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi va yangi mahsulotlar hamda xizmatlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi [4].

Xavfsizlikni oshirish: Kiberxavfsizlikda SIdan foydalanish, masalan, tahdidlarni aniqlash va javob berishda, tizimlarning umumiy xavfsizligini oshirishi mumkin. O'z navbatida, xavfsiz SI tizimlari o'zlari kiberhujumlarga kamroq moyil bo'ladi va muhim infratuzilmalarni himoya qilishda ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tartibga solish muvofiqligi va huquqiy xavflarning kamayishi: Etik va xavfsizlik tamoyillarini SI dizayniga kiritish tashkilotlarga rivojlanayotgan qonuniy va tartibga soluvchi talablarga (masalan, Yevropa Ittifoqining SI qonuni) rioya qilishga yordam beradi. Bu huquqiy muammolar, jarimalar va jamoatchilik salbiy munosabatining oldini oladi [4].

Global hamkorlikning kuchayishi: SI xavfsizligi global muammo bo'lgani sababli, unga e'tibor qaratish xalqaro miqyosda hamkorlikni kuchaytirishga, eng yaxshi amaliyotlar va standartlarni almashishga turtki beradi. Bu esa barcha mamlakatlar uchun foydali bo'lgan umumiy xavfsizlik doirasini yaratishga olib kelishi mumkin.

Xavfsiz SI tizimlarini yaratishga sarmoya kiritish SI texnologiyasining potentsialini to'liq ro'yobga chiqarish va uni insoniyatning umumiy farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlash uchun strategik zaruratdir.

SI xavfsizligini ta'minlash uchun texnik yechimlar va institutsional choralar uyg'unligini talab etadi. Ushbu yondashuvlar SIning turli xavflarini kamaytirishga va uning mas'uliyatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

SI hizalanishi (AI Alignment): Bu eng muhim texnik yo'nalishlardan biri bo'lib, SI tizimlarining maqsadlari, qadriyatlari va xulq-atvori inson qadriyatlari va maqsadlari bilan mos kelishini ta'minlashga qaratilgan [2]. Bu soha SIga insonning niyatlarini tushunish va ularga muvofiq harakat qilishni o'rgatish muammosini hal qiladi.

Mustahkamlik va chidamlilik (Robustness and Resilience): SI tizimlari kiberhujumlar (raqib hujumlar), tasodifiy xatolar yoki ma'lumotlardagi buzilishlarga chidamli bo'lishi kerak [2]. Bu mustahkam SI modellari va ma'lumotlar to'plamlarini

ishlab chiqish, shuningdek, tizimlarning kutilmagan vaziyatlarda ham ishonchli ishlashini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Tushunarlilik va izohlanuvchanlik (Interpretability and Explainability – XAI): SI "qora quti" muammosini hal qilish uchun tizimlarning qaror qabul qilish jarayonlarini inson tushunadigan shaklda izohlashga imkon beruvchi usullar ishlab chiqish muhim. Bu tizimlarga ishonchni oshiradi, ulardagi xatolarni aniqlashni osonlashtiradi va javobgarlikni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi (Data Security and Privacy): Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun differentsial maxfiylik (differential privacy), federativ o'rganish (federated learning) kabi texnologiyalar qo'llanilishi kerak. Bu ma'lumotlar maxfiyligini saqlagan holda SI modellari uchun ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tekshirish va tasdiqlash (Verification and Validation): SI tizimlarini ishlab chiqish jarayonida qat'iy tekshirish va tasdiqlash usullari qo'llanilishi kerak. Bu tizimlarning belgilangan xavfsizlik spetsifikatsiyalariga mos kelishini va kutilmagan xatti-harakatlarni namoyish etmasligini kafolatlaydi.

Etik yo'riqnomalar va standartlar: Hukumatlar, sanoat tashkilotlari va akademik muassasalar SI rivojlanishi va joylashtirilishi uchun umumiy etik yo'riqnomalar va standartlarni ishlab chiqishi kerak [4]. Ushbu standartlar SIning adolatli, shaffof va mas'uliyatli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

Tartibga solish va qonunchilik: SIga oid huquqiy me'yorlar va qonunchilik doirasini yaratish SIning jamiyatga ta'sirini nazorat qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar maxfiyligi, javobgarlik, tarafkashlikka qarshi choralar va xavfsizlik protokollarini o'z ichiga oladi [1]. Hukumatlar tez rivojlanayotgan texnologiyaga moslashuvchan, ammo samarali tartibga solish choralarini ishlab chiqishlari lozim.

Xalqaro hamkorlik: SI xavfsizligi global muammo bo'lgani sababli, unga yechim topish xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Davlatlararo tashkilotlar, tadqiqot institutlari va nodavlat tashkilotlari o'rtasida ma'lumot almashish, eng yaxshi amaliyotlarni tarqatish va umumiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik zarur.

Ta'lim va malaka oshirish: SI ishlab chiquvchilarini, foydalanuvchilarni va siyosatchilarni SI xavfsizligi va etikasi bo'yicha o'qitish muhim ahamiyatga ega. Bu barcha manfaatdor tomonlarning SIning potentsial xavflarini tushunishini va ularni bartaraf etish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Jamoatchilik ishtiroki: SI siyosatini shakllantirishda jamoatchilikni jalb qilish uning xavfsiz va adolatli rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Jamoatchilikning fikrlari va xavotirlari tinglanishi, SI texnologiyalarining ijtimoiy qabul qilinishini oshirish uchun hisobga olinishi kerak.

Ushbu texnik va institutsional yondashuvlarning kombinatsiyasi SIning potentsial xavflarini samarali boshqarish va uning insoniyatga maksimal darajada foyda keltirishini ta'minlash uchun zarurdir.

SI xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish bir qator jiddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bu qiyinchiliklar texnik murakkablikdan tortib, normativ va huquqiy noaniqliklargacha bo'lishi mumkin, bu esa SIning mas'uliyatli rivojlanishi yo'lida muhim to'siqlarni yaratadi.

Texnik murakkablik: Zamonaviy SI tizimlari, ayniqsa chuqur o'rganish modellari, murakkab va o'zgaruvchan tabiatga ega. Bu ularning xatti-harakatlarini bashorat qilishni, xatolarini aniqlashni va xavfsizlik choralarini to'liq amalga oshirishni qiyinlashtiradi. SI hizalanishi kabi muammolar hali to'liq hal etilmagan ilmiy muammolardir.

Normativ va huquqiy noaniqlik: SI texnologiyalari juda tez rivojlanayotganligi sababli, qonunchilik va tartibga solish doirasi ularning ortidan ulgura olmaydi. SI yaratgan "gallyutsinatsiyalar" yoki intellektual mulk huquqlari kabi yangi muammolar mavjud huquqiy doiralar ichida tushunarsiz bo'lishi mumkin [1]. Bu esa kim javobgar ekanligi va qanday choralar ko'rilishi kerakligi borasida noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Resurs cheklovlari: SI xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar va xavfsiz tizimlarni ishlab chiqish katta moliyaviy, texnologik va inson resurslarini talab qiladi. Ko'pgina kompaniyalar va davlatlar uchun bu resurslarni ajratish qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa tezkor innovatsiyalar ustuvor bo'lgan muhitda.

Jahon miqyosidagi muvofiqlashtirish: SI xavfsizligi global muammo bo'lib, unga yechim topish xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Biroq, turli mamlakatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy farqlar mavjudligi sababli, umumiy standartlar va tartibga solish choralarini kelishish va joriy etish murakkabdir.

O'zgaruvchan tahdid landshafti: SI tizimlari rivojlangan sari, ularga qarshi tahdidlar ham o'zgarib bormoqda. Raqiblar yangi hujum usullarini ishlab chiqishga intilishadi, bu esa SI xavfsizligi bo'yicha tadqiqotchilardan doimiy ravishda innovatsion yechimlarni talab qiladi.

Proaktiv xavfsizlikka e'tiborning kuchayishi: SI xavfsizligi endi rivojlanish jarayonining oxirgi bosqichida emas, balki boshidanoq integratsiya qilinadigan fundamental jihat sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Fanlararo tadqiqotlar: SI xavfsizligi sohasida texnika muhandislari, etikachilar, huquqshunoslar, sotsiologlar va siyosatchilar o'rtasidagi hamkorlik yanada kuchayadi. [2] manbasida ta'kidlanganidek, SI xavfsizligi intizomiy chegaralarini aniqlash tadqiqot ustuvorliklari va hamkorliklarga bevosita ta'sir qiladi.

Etik SIning raqobatdosh ustunligi: Kompaniyalar xavfsiz va etik SI mahsulotlarini ishlab chiqish orqali bozorlarda raqobatdosh ustunlikka erishish mumkinligini anglab yetadilar. Bu esa SI xavfsizligiga kiritilgan sarmoyalarni oshiradi.

Xalqaro standartlar va muvofiqlashtirish: Global darajada SI xavfsizligi bo'yicha umumiy standartlar, eng yaxshi amaliyotlar va potentsial tartibga solish doiralari ishlab chiqishga harakatlar kuchayadi. BMT, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar bu borada yetakchilik qilishga intilmoqda.

SI auditi va sertifikatlashtirish: Mustaqil tashkilotlar tomonidan SI tizimlarining xavfsizligi, adolatliligi va shaffofligini tekshirish (audit) va sertifikatlash bo'yicha mexanizmlar rivojlanishi mumkin.

SI xavfsizligi nafaqat texnik, balki ijtimoiy, etik va siyosiy jihatlardan ham murakkab muammo bo'lib qoladi. Biroq, doimiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik va mas'uliyatli yondashuvlar orqali bu qiyinchiliklarni bartaraf etish va SIning insoniyat farovonligiga xizmat qilishini ta'minlash mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalarining insoniyat hayotining har bir jabhasida tez sur'atlar bilan integratsiyalashuvi ularning xavfsizligi masalasini global miqyosda eng dolzarb va hal qiluvchi muammolardan biriga aylantirdi. Ushbu maqola SI xavfsizligining keng qamrovli tushunchasini, uning asosiy tamoyillarini, rivojlanishining potentsial xavf va tahdidlarini, shuningdek, xavfsiz SI tizimlarini yaratishdan kelib chiqadigan afzalliklar va imkoniyatlarni atroflicha tahlil qildi.

Biz SI xavfsizligini nafaqat texnik nosozliklardan himoyalanish, balki algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar maxfiyligi buzilishlari, kiberxavfsizlik tahdidlari, "gallyutsinatsiyalar" [1] va hattoki transformatsion xavflar kabi keng doiradagi zararlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga qaratilgan har qanday harakatni o'z ichiga oluvchi ko'p qirrali soha sifatida ko'rib chiqdik [2]. Etik SI rivojlanishining ishonchni mustahkamlash, adolatni rag'batlantirish va javobgarlikni ta'minlashdagi muhim rolini ta'kidladik [4].

Xavfsiz SI tizimlarini yaratish orqali jamoatchilik ishonchini oshirish, yaxshilangan qarorlar qabul qilish, ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligi ko'rsatildi. SI xavfsizligini ta'minlash uchun SI hizalanishi, mustahkamlik, tushunarlilik kabi texnik yondashuvlar bilan bir qatorda etik yo'riqnomalar, tartibga solish, xalqaro hamkorlik va ta'lim kabi institutsional choralar ham o'ta muhim ahamiyatga ega.

Bu choralar murakkab texnik muammolar, tartibga solishdagi noaniqliklar va resurs cheklovlari kabi jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay, kelajak istiqbollari proaktiv xavfsizlikka e'tiborning kuchayishi, fanlararo tadqiqotlar va global muvofiqlashtirish orqali ushbu to'siqlarni yengib o'tish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, SIning insoniyatga maksimal darajada foyda keltirishi va minimal xavf tug'dirishi uchun har tomonlama, hamkorlikka asoslangan yondashuv zarur. SI xavfsizligi nafaqat texnologik taraqqiyotning uzviy qismi, balki insoniyatning kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan etik va ijtimoiy mas'uliyatdir. Ushbu sohadagi doimiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik va mas'uliyatli siyosiy qarorlar SIning xavfsiz va barqaror kelajagini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, Stuart. Insonlar bilan mos: Sun'iy intellekt va Nazorat muammosi. New York: Viking, 2019.

2. Coeckelbergh, Mark. Sun'iy intellekt etikasi. Cambridge, MA: MIT Press, 2020.

3. Floridi, Luciano, and Mariarosaria Taddeo. "Sun'iy intellekt etikasi: Umumiy ko'rinish." Fan, vol. 376, no. 6599, 2022, pp. 1419-1425.

4. Dignum, Virginia. "Mas'uliyatli SI: Fanlararo sharh." Sun'iy intellekt va Jamiyat, jild. 35, son. 1, 2020, b. 1-13.

5. Yampolskiy, Roman V. "Sun'iy intellekt xavfsizligi va himoyasi: Fanlararo yondashuv zarurati." Eksperimental va Nazariy Sun'iy intellekt Jurnali, vol. 34, no. 1, 2022, pp. 1-22.

TURK XALQ MAQOLLARIDA O‘G‘IL FARZAND TARBIYASI MASALASI

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich
JOKU va TDSHU katta o‘qituvchisi, PhD

Kirish. Turk xalq madaniyatida oila (oila) tushunchasi davlatning asosiy namunasidir. Oila hayotida farzandning, ayniqsa, o‘g‘il farzandning o‘rni ulkan qadriyatga ega bo‘lib, u nafaqat ma’naviy boylik, balki naslning davomiyligi va ijtimoiy mus-tahkamlikning asosiy mezoni sifatida qabul qilinadi. Turk maqollari – xalqning asrlar davomida to‘plangan hayotiy donishmandligi, turkiy xalqlarga xos bo‘lgan bolajonlik ruhiyatini va farzandga bo‘lgan munosabatni lisoniy tarzda aks ettiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Turk xalq maqollari orqali o‘g‘il farzand tarbiyasi, uning oila va jamiyatdagi funktsional rollarini hamda ushbu obraz bilan bog‘liq madaniy stereotiplarni tahlil qilishdan iborat. Maqollarni tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Oila timsoli va nasl davomchisi

Turk xalqida oila daraxtga, farzand esa uning mevasiga qiyoslanadi: Çocuk evin meyvesidir (Farzand uyning mevasidir) [6., 134]. Bu yerda o‘g‘il farzand oilaning nafaqat mevasidir, balki uning bosh belgisi, kelajagi ramzi hisoblanadi. O‘g‘il farzandning tug‘ilishi har bir ayolning ijtimoiy statusini oshiruvchi omil bo‘lib[1, 641], Oğlandır oktur, her evde yoktur (O‘g‘il o‘qdir, har uyda yo‘qdir) deb qadrlanadi. Bu kabi qarashlar ayollarning o‘g‘il farzand tug‘ishni istashi va o‘g‘il tug‘magan ayollarga nisbatan ijtimoiy bosim mavjudligini ham bildiradi (Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün).

Begonalashuv konsepsiyasi: Yangi oila qurish

O‘g‘il farzandga xos bo‘lgan eng e’tiborli madaniy konsepsiyalardan biri – uning uylanishidan so‘ng ota-ona oilasidan "uzoqqa ketishi"dir. Doğurdum oğlum oldu, evlendi komşum oldu (Tug‘dim o‘g‘lim bo‘ldi, uylandi qo‘shnim bo‘ldi) maqolida o‘g‘il farzandning ijtimoiy roli o‘zgarishi, ya’ni uylangach u boshqa bir markazni (yangi oilani) tashkil etishi tufayli “qo‘shni” (begona) darajasiga tushishi aks etadi. Bu holat o‘g‘ilga qilingan mehnatning zoye bo‘lishiga ishora qiluvchi Oğul yetiştirdim el aldı (O‘g‘il o‘stirdim el (begona) oldi) maqolida ham tasdiqlanadi.

Ota va o‘g‘il: Tarbiya va naslning aksi

O‘g‘il tarbiyasida ota asosiy rolni o‘ynaydi. Farzandning xulqi va qiyofasi otadan o‘tishi – turkiy xalqlarning qadimiy qarashidir (Oğlan babaya kız anaya çeker). Maqollarda otaning xatosi bevosita farzandga ta’sir qilishi kuchli ramziy obrazlar yordamida ifodalanadi[3, 321]: Babası ekşi elma yer, oğlunun dişi kamaşır (Otasi nordon olma yebdi, o‘g‘lining tishi qamashibdi). Bu nafaqat nasliy bog‘liqlik, balki otaning xatti-harakatlari va obro‘sining o‘g‘il taqdiriga ta’siri hamdir.

Ayni paytda, farzand tarbiyasiga qancha mehnat qilinmasin, uning fe’l-atvori ota-onadan farq qilishi mumkinligi ham tan olinadi: Bir ağaçta gül de biter, diken de (Bir daraxtda gul ham bitar, tikon ham). “Devoni lug‘otit turk”da ham shu kabi holatlarni aks ettiruvchi maqollarga duch kelamiz: Atası oglı ataç togar (O‘g‘il axloqan otasiga o‘xshar). Ba’zan otalarning noto‘g‘ri xatti-harakati, qilmishi uchun bolalar javob berishiga to‘g‘ri keladi: Ata acıg alımla yîse oglının tīşı kamar (Ota achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar), lekin ba’zan farzandlarning ham otalariga nisbatan nohaqlik qilishlari, ularning nasihatlariga quloq solmasliklari kundalik hayotimizda uchramaydigan holat emas. Farzand ulg‘ayganidan so‘ng, “men”i kuchayadi, o‘zini otasining nasihatlariga muhtoj emasdek his qila boshlaydi. Bu holat “Devoni lug‘otit turk”dagi Ata tōnu ogulka yarasa atasın tilemes (Otaning to‘ni o‘g‘ilning kuniga yarasa, otasini tilamas (istamas), maqoli yordamida ifodalanadi[2,98]. Tabiiyki, otaga nisbatan qilingan bunday munosabat qoralangan va yoshlar bundan qaytarilgan.

Yaxshi va yomon o‘g‘il obrazlari

Maqollarda o‘g‘il farzandning qadrlanishi uning xatti-harakatlari, ya’ni hayrli yoki xayrsiz ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Xususiyat	Yaxshi (Oqil) O‘g‘il	Yomon (Nodon) O‘g‘il
Oila	Otani ulug‘laydi (İyi evlat babayı vezir eder), mol-mulkni asraydi.	Otani razil qiladi (kötü evlat rezil eder), molni sotadi.
Burch	Ota do‘stini e’zozlaydi (Ata dostu oğula mirastır), ota qarzini to‘laydi.	Ota-onani boqishdan bosh tortadi (Dokuz oğlan bir babayı besleyemez).

Oqil farzand ota molini nima qilsin (chunki o‘zi topa oladi), nodon farzand esa otadan qolgan molni nimalar qilmaydi (chunki uni qadrlamaydi) mazmunidagi Akıllı oğlan neyler ata malını, akılsız oğlan neyler ata malını maqoli o‘g‘ilning ota moliga bo‘lgan munosabati uning aql-zakovati va tarbiyasiga bog‘liq ekanligini [4, 77]ko‘rsatadi. Umuman olganda turk xalq maqollarida, “yaxshi farzand kishi kelajagi uchun muhim ekanligi va aksincha, yomon, xayri yo‘q farzandning kishiga bu dunyoni tor qilishi”[5, 1736] ifodalanadi.

Xulosa. Turk xalq maqollarida o‘g‘il farzand obrazi murakkab va o‘ta mas’uliyatli konseptual yukni tashqiydi. U nasl davomchisi, onaning ijtimoiy statusini oshiruv-chi va

otaning merosxo‘ri sifatida markaziy qadriyat hisoblanadi. Biroq, bu qadr-lash farzandning uylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan “begonalashuv” va uning xulq-atvoriga berilgan qattiq baholar bilan mutanosibdir. Yaxshi o‘g‘il otani vazir qilsa, yomon o‘g‘il otani razil qiladi. Maqollardagi zoonimlar (uloqcha, xo‘tik) va fitonimlar (daraxt, meva) orqali ushbu konseptlarning ramziy ma’nolari mustah-kamlanadi. Tadqiqot turk oilasi qadriyatlarida o‘g‘il farzandning xatti-harakat-lariga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va ma’naviy javobgarlikning nechog‘lik yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Altinboyev, N. A. (2021). Turkcha maqollarda qiz farzand to‘g‘risidagi qarashlar tadqiqi. Madaniyatlararo muloqotda sharq tillarining ahamiyati. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materaillari. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
2. Altinboyev, N. (2021). “Devonu lug‘ati-t-turk”da kelgan “oila” bilan bog‘liq maqollar tahlili. Turkologiya, Xalqaro ilmiy jurnal, 3-son.
3. Altinboyev, N. (2021). Zoonimlar qatnashgan turk xalq maqollarida “oila” tushunchasi. Sharq xalqlari folklori – milliy qadriyatlar in’ikosi, Xalqaro ilmiy konferensiya, Toshkent.
4. Алтинбоев, Н. (2022). Эр-хотин муносабатларини ифодаловчи туркча мақолларда “оила” концепти. Sharqshunoslik, ТДШУ Илмий журнали,1 сон.
5. Hirik, E. (n.d.). Türkiye Türkçesi Atasözlerinde Akrabalık Bildiren Kelimeler ve Duygu Değerleri. İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 6(3), 1736.
6. Yurtbaşı M. Sınıflandırılmış Atasözleri Sözlüğü. 10.bsk. – İstanbul, 2012. – 732 s. (pp. 49, 133, 134, 135, 200).

ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ КАК ОБЪЕКТ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ: МИФ ИЛИ РЕАЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ?

Арипджанова Камилла Азизовна
Студентка Национального Университета Узбекистана

Введение. В условиях правовой и культурной глобализации проблема духовной зрелости молодёжи приобретает особую актуальность. Современное молодое поколение формируется в пространстве интенсивных цифровых коммуникаций, информационных потоков и интернациональных цифровых платформ, которые оказывают значительное влияние не только на поведение, но и на систему ценностей, мировоззренческие установки и моральные ориентиры личности. Цифровая среда, основанная на механизмах искусственного интеллекта и алгоритмах персонализированной выдачи контента, формирует для молодого человека специфическую информационную реальность, где эмоционально насыщенный и упрощённый контент часто доминирует над аналитическим. Алгоритмы социальных сетей и цифровых платформ ориентированы

преимущественно на удержание внимания пользователя, что снижает способность молодёжи к осмысленной оценке информации, рефлексии и самостоятельному нравственному выбору.

На практике это подтверждается данными по использованию социальных сетей в Узбекистане. По состоянию на ноябрь 2025 года около 15 млн человек используют Facebook, что составляет приблизительно 42 % населения страны, при этом самая многочисленная возрастная группа – 18–24 года, насчитывающая около 4,8 млн пользователей, что отражает высокую вовлечённость молодёжи в цифровое пространство [https://stats.napoleoncat.com/social-media-users-in-uzbekistan/2025/?utm_source=chatgpt.com]. Такие масштабы присутствия молодых людей в цифровой среде усиливают влияние алгоритмических механизмов на формирование ценностных ориентиров и социальных практик. В результате духовность молодёжи всё чаще подвергается утрате целостности личности, а процесс её становления сопровождается кризисом критического мышления и моральной зрелости.

В современных условиях цифровой эпохи наблюдается тенденция к позднему вступлению молодёжи в «взрослую» жизнь, что проявляется в отсрочке таких ключевых социальных статусов, как брак и финансовая самостоятельность. Согласно исследованиям [Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. Atria Books.], значительная часть молодых людей достигает этих этапов значительно позже, чем предыдущие поколения, что связано с изменениями в социально-экономической среде и культурными трансформациями. Отсрочка взрослости влияет не только на социальное положение молодёжи, но и на процесс формирования их духовных и нравственных ценностей.

Эта задержка обусловлена не только экономическими трудностями, но и изменением приоритетов, а также расширением цифрового пространства, где молодые люди проводят значительную часть времени, что формирует новую модель взросления, отличающуюся большей зависимостью от виртуальной среды и меньшей опорой на традиционные социальные институты. Такие изменения требуют внимания как со стороны государства, так и социокультурных институтов для разработки адекватных механизмов поддержки духовной зрелости молодёжи в условиях цифровой глобализации.

Исходя из вышеупомянутого, государство сталкивается с необходимостью поиска баланса между обеспечением свободы выражения мнений, доступом к информации и защитой духовной зрелости молодёжи от деструктивных информационных воздействий. В этих условиях возникает дискуссия о том, можно ли считать духовность молодежи объектом правовой защиты.

Целью настоящей статьи является анализ духовности и духовной зрелости молодёжи как возможного объекта правовой защиты в условиях цифровизации и

правовой глобализации, а также исследование роли искусственного интеллекта, алгоритмов социальных сетей и цифровых платформ в формировании ценностей, моделей поведения и моральных ориентиров молодого поколения на примере международных и внутригосударственных правовых стандартов.

Аналитическая часть

Современное цифровое пространство кардинально меняет способы формирования ценностей и моральных ориентиров у молодёжи. В этом контексте международные подходы к регулированию технологий приобретают особое значение. ЮНЕСКО выступает одним из ключевых авторов в выработке универсальных этических принципов использования искусственного интеллекта, стремясь обеспечить гармоничное сочетание технологического прогресса с гуманистическими целями.

В 2021 году ЮНЕСКО приняла проект рекомендаций об этических аспектах искусственного интеллекта [https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000376713_rus], где подчеркивается необходимость учитывать влияние алгоритмов на духовное и культурное развитие личности, особенно молодёжи. Документ отмечает, что алгоритмические системы, формирующие информационные потоки в социальных сетях и цифровых платформах, способны не только предоставлять знания, но и направлять восприятие, влиять на ценностные ориентиры и социальное поведение. Поэтому при проектировании и внедрении таких технологий особое внимание должно уделяться прозрачности алгоритмов, защите от манипуляций и сохранению культурного разнообразия.

Принципы цифровой этики ЮНЕСКО рассматривают искусственный интеллект как инструмент, воздействие которого на молодое поколение должно находиться под контролем общества и государства. Необходимость защиты духовной зрелости и формирования критического мышления в условиях цифровизации подчеркивается через призму образовательных и культурных инициатив, а также через призыв к разработке этических стандартов для всех операторов цифровых платформ. В частности, международное сообщество признаёт, что цифровые технологии не могут заменять личностное взаимодействие и традиционные формы воспитания, но должны выступать поддерживающим фактором для развития духовной самобытности и способности к осознанному выбору.

Несмотря на то что рекомендации ЮНЕСКО не имеют обязательной юридической силы, они формируют ориентиры для национальных правовых систем, стимулируя государства к разработке законов и стратегий, направленных на защиту духовного и нравственного развития молодёжи в цифровой среде.

В контексте Узбекистана это проявляется в построении современной правовой системы в сфере защиты молодёжи и осуществляется во взаимодействии с международными стандартами , а также с учётом специфики национального

социально-культурного контекста. Основные гарантии прав молодёжи закреплены в Конституции Республики Узбекистан [https://lex.uz/docs/6445147], которая предусматривает создание условий для интеллектуального, творческого и нравственного развития молодого поколения [статья 79 Конституции Республики Узбекистан], а также обеспечивает защиту их прав и свобод, включая ответственность средств массовой информации за достоверность информации [статья 81 Конституции Республики Узбекистан], что в цифровую эпоху приобретает особую актуальность в контексте защиты от вредоносного контента.

Значительную роль в развитии национальной молодёжной политики играет Закон «О государственной молодёжной политике» [https://lex.uz/docs/3026250], который закрепляет принципы государственной поддержки молодёжи, создаёт правовые основания для обеспечения её социальных, культурных и образовательных прав, а также предусматривает меры по воспитанию духовно-нравственных качеств и развитию творческого потенциала молодого поколения.

Важным новшеством национального правового регулирования является усиление внимания к вопросам цифровой безопасности и ответственности в цифровой среде, что непосредственно связано с защитой духовного развития молодёжи. Так, в 2025 году Правительство Узбекистана разработало документ «Правила и принципы этики при разработке и применении технологий искусственного интеллекта», направленные на установление единых этических стандартов для разработчиков, пользователей и регулирующих органов. Этот документ основан на положениях действующих законов «Об информатизации» [https://lex.uz/acts/82956], «О персональных данных» [https://lex.uz/docs/4396428], а также президентских решений «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию технологий искусственного интеллекта» [https://lex.uz/ru/docs/7790236] и «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года» [https://lex.uz/ru/docs/7158606] и предусматривает такие принципы, как прозрачность алгоритмов, приоритет защиты интересов личности, общества и государства, а также ответственность за возможные нарушения прав человека в цифровой среде. В свою очередь, Министерство цифровых технологий будет наделено полномочиями по формированию и развитию нормативно-правовой базы в сфере искусственного интеллекта, разработке и внедрению соответствующих стандартов, урегулированию этических аспектов применения ИИ, а также по координации взаимодействия между участниками отрасли и содействию повышению уровня цифровой грамотности населения.

Эти правовые и политические инициативы отражают стремление государства создать полноценную систему защиты молодого поколения в условиях цифровой эпохи, учитывая как международные стандарты, так и национальные особенности духовного и нравственного развития. Они показывают переход от общих деклараций прав молодёжи к конкретным механизмам, которые способствуют

формированию безопасной и этически ориентированной цифровой среды, обеспечивая комплексную защиту духовной зрелости молодёжи в условиях глобализации.

Заключение. Подводя итог, можно отметить, что цифровизация и активное использование социальных сетей кардинально изменяют способы восприятия информации, формирования ценностей и социальных моделей у молодёжи. Виртуальная среда, управляемая алгоритмами платформ, создает специфические условия, в которых эмоционально насыщенный контент часто доминирует над аналитическим, ограничивая способность молодёжи глубоко осмысливать информацию и выстраивать собственные нравственные ориентиры.

Одновременно наблюдается тенденция к отсрочке принятия ключевых социальных ролей, таких как брак и финансовая самостоятельность, что формирует новую модель взросления с усиленной зависимостью от цифрового пространства и меньшей опорой на традиционные институты общества.

В таких условиях поддержка духовной зрелости молодого поколения становится важной задачей как для государства, так и для международных организаций. Международные рекомендации по этике технологий и национальные нормативные акты создают ориентиры для формирования безопасной, этически ориентированной цифровой среды, способствующей развитию критического мышления и нравственных ценностей.

Следует отметить, что формирование духовной и нравственной зрелости молодёжи в цифровую эпоху требует не только поддержки со стороны государства и международных институтов, но и активной самостоятельной позиции самого молодого поколения. Для сохранения баланса между технологическим прогрессом и личностным развитием молодым людям необходимо научиться рационально распределять время и ресурсы, критически осмысливать цифровой контент и выстраивать собственную систему ценностей, обеспечивая гармоничное сочетание современных возможностей и моральных ориентиров.

Библиографический список:

1. Баева Л. В. Влияние цифровизации образования на человека в контексте проблемы безопасности // Философия образования. 2020. Т. 20, № 2.

2. Вараксин А.В. Влияние социальных сетей на формирование ценностных ориентиров современной молодежи // Преподаватель XXI век. 2016. №2.

3. Викторова Е.В. Цифровая культура межличностных взаимодействий и импрессинг как ее элемент // Международный научно-исследовательский журнал. 2020.

4. Lex.uz. Конституция Республики Узбекистан.

URL: https://lex.uz/docs/6445147 (дата обращения: 14.12.2025).

5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-tsennostnyh-orientirov-molodezhi-v-epohu-tsifrovizatsii (дата обращения: 14.12.2025).

6. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000376713_rus (дата обращения: 14.12.2025).
7. URL: https://lex.uz/docs/3026250 (дата обращения: 14.12.2025).
8. URL: [https://stats.napoleoncat.com/social-media-users-in-uzbekistan/2025/?utm_source=chatgpt.com] (дата обращения: 14.12.2025).

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MILLIY-MA’NAVIY O‘ZLIGINI SAQLASHNING ASOSIY OMILLARI VA MEXANIZMLARI

Arslonov Zafar Doniyorovich
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini
o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti

Kirish. Globallashuv va ijtimoiy tarmoqlar ommalashib borayotgan bir davrda yoshlarni turli mafkuraviy, g‘oyaviy va ma’naviy xurujlardan himoya qilish ularni ayniqsa o‘smirlik davrida turli noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolishidan, bilimsizlik va tajribasizlik natijasida kelgusi hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday muammolar kelib chiqishini oldini olish maqsadida bir qancha qonunlar jumladan, 14.09.2016-yildagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-406-son), 19.01.2022-yildagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-92-son) qaror, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ’18.01.2021-yildagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 7.07.2022-yildagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilingan.

Shunga qaramasdan jamiyat hayotining ba’zi qismlarida yoshlar hayoti va kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi onlayn qimor o‘yinlariga yoki spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’mol qilish, oilaviy ajrimlar hamda janjallar kabi salbiy holatlar kuzatilib turibdi.

Bugungi kunda axborot almashinuvi tezlashib, globallashgan madaniyat shakllanmoqda. Xususan, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli g‘oyalar va madaniy qadriyatlar yoshlar ongiga tez va keng ta’sir ko‘rsatmoqda[5]. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, globallashuv yoshlar ma’naviyatiga ijobiy va salbiy ikki xil yo‘nalishda ta’sir qilmoqda: bir tomondan, globallashuv yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalarga oshno etayotgan

5 THE MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE SPIRITUAL LIFE OF YOUNG PEOPLE AND THEIR CHARACTERISTICS | Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2131

bo‘lsa, boshqa tomondan – ayrim hollarda an’anaviy ma’naviy qadriyatlarning susayishiga, madaniy unifikatsiyaga olib kelmoqda [1].

Yoshlar tarbiyasi masalasi O‘zbekistonda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha[6] bo‘lgan yoshlar tashkil etadi [2]. Bu holat davlat oldiga yoshlar masalasini ustuvor vazifa sifatida qo‘yib, ularning ma’naviy kamolotini ta’minlashni talab qilmoqda. Jumladan, 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2021-yilda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash va yoshlarni turli zararli ta’sirlardan asrash bugungi davrning muhim vazifasidir [3]. Zero, yoshlar ma’naviyatli, bilimli va sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lsagina, jamiyatning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatiga ta’sirlar.

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar yoshlar hayot tarzini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli muhitning jadal rivojlanishi natijasida axborotning cheksiz oqimi paydo bo‘ldi. Yoshlar dunyoning istalgan burchagidagi yangilik va g‘oyalardan bir zumda xabardor bo‘lmoqda, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. Masalan, xorijiy tillarni o‘rganish, xalqaro onlayn kurslarda tahsil olish va madaniyatlararo aloqa qilish yoshlar ma’naviy dunyoqarashining boyishiga xizmat qilmoqda. Global tarmoq orqali yoshlar ilm-fan yutuqlari, dunyoviy va diniy bilimlarni osonlik bilan o‘zlashtirmoqda. Bu jarayonning ijobiy jihatlari qatorida, albatta, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, bag‘rikenglik va xalqlar madaniyatini tushunish kabi fazilatlar shakllanishini e’tirof etish lozim.

Shu bilan birga, globallashuvning salbiy ta’sirlari ham yoshlar ma’naviyatida namoyon bo‘lmoqda. Avvalo, ommaviy madaniyatning kuchayishi milliy va oilaviy qadriyatlarga bepisandlikni kuchaytirishi mumkin. Dunyo miqyosida yengil hayot tarzi, iste’molchilikka undaydigan “ommaviy madaniyat” mahsulotlari (filmlar, shoular, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar va boshqalar) yoshlarning ongiga singib borishi kuzatilmoqda. Natijada ayrim yoshlar milliy urf-odat va an’analarni “zamonaviylik” yo‘lida ortiqcha deb baholay boshlashi mumkin. Ba’zi hollarda globallashuv ta’sirida shakllanayotgan yot g‘oyalar yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliq paydo qilishi, ular orasida individualizm, hedonizm kabi tendensiyalarni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Zamonamiz sotsiologlari ta’kidlaganidek, globallashuv ta’sirida mahalliy madaniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish pasayishi va universallashgan madaniyatga moyillik kuchayishi mumkin [1].

Globallashuv davrida migratsiya jarayonlari ham yoshlar ma’naviyatiga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarning xorijga o‘qish yoki ish izlab chiqishi ularning boshqa

6 O'zbekiston yoshlari: yangi imkoniyatlar va istiqbollar yo'lida https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-yoshlari-yangi-imkoniyatlar-va-istiqbollar-yolida

xalqlar madaniy muhitiga kirishuvini ta’minlaydi. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning dunyoqarashini boyitsa-da, boshqa tomondan, ularning milliy o‘zligini anglashida ikkilanishlar keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, chet elda vaqtincha mehnat qilayotgan yoki tahsil olayotgan ayrim yoshlar orasida mahalliy urf-odatlardan uzoqlashish, oila va jamiyatdan begonalashish holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘ziga xosligini asrab qolish masalasi dolzarbdir.

Raqamli texnologiyalar rivoji axborot olish bilan birga, axborot xurujlari xavfini ham oshirdi. Hozirgi kunda turli ekstremistik va radikal guruhlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongini zaharlashga urinmoqda. Virtual makonda yoshlar ko‘pincha yolg‘on va buzg‘unchi g‘oyalarga duch kelmoqda. Ayniqsa, diniy ekstremizm va missionerlikka oid mafkuraviy xurujlar globallashuv davrida transmilliy tus oldi. Bu holatda mafkuraviy immuniteti sust yoshlar “yot g‘oyalar”ga qo‘shilib ketish xavfi ostida qolmoqda. Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2017-yilda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta’kidlanganidek, “turli yot oqimlarga qo‘shilib, ular tarafida bo‘lish O‘zbekiston fuqarosiga to‘g‘ri kelmaydi. Sizlar (imom-xatiblar) insonlar miyasida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lmasligiga harakat qilishingiz zarur” – bu fikr yoshlarni zararli mafkuraviy ta’sirlardan asrash naqadar muhimligini ko‘rsatadi [4]. Globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli axborot xurujlaridan himoyalash masalasi shu bois dolzarb sanaladi.

Yoshlar ma’naviyatiga tahdid soluvchi omillar.

Globallashgan zamonda yoshlar ma’naviyatiga ichki va tashqi bir qator omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, jamiyatimiz uchun yangilanayotgan hayot tarzi fonida ayrim yoshlar orasida turli zararli odatlarga ruju qo‘yish holatlari kuzatilmoqda. Yoshlar o‘rtasida spirtli ichimlikka mukkasidan ketish, giyohvand moddalarga qiziqish, qimor va onlayn o‘yinlarga berilib ketish kabi illatlar ularning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘lmoqda. O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijasiga ko‘ra, respondentlar yoshlar rivojlanishiga eng katta tahdidlar sifatida ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar (22,9%) hamda maqsadsizlik va vaqtni behuda sarflash (20,9%) omillarini tilga olganlar. Shuningdek, zararli odatlarga berilish (13,6%), sifatli ta’lim imkoniyatlarining cheklanganligi (9,7%) va korrupsiya (7,3%) ham yoshlar uchun jiddiy muammolar sirasiga kiradi [3, 5]. Bu ko‘rsatkichlar yoshlar ma’naviy rivojiga nafaqat globallashuv, balki mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Yoshlar ma’naviyatiga tahdid soluvchi omillardan yana biri – internet va ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish, virtual hayotga berilib, real hayotdagi maqsad va vazifalardan chalg‘ishdir. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yoshlarning 10,6 foizi Internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni eng xavfli tendensiyalardan biri sifatida qayd etgan. Haqiqatdan ham, o‘smir yoshdagi ko‘plab o‘g‘il-qizlarning kun tartibida internetdagi muloqot va o‘yinlar asosiy o‘rinni egallamoqda. Raqamli odatlarning bunday kuchayishi yoshlarni kitob o‘qish, ijodiy va jismoniy faoliyatdan chalg‘itib, ularning ma’naviy kamolotiga to‘sqinlik qilmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil oxiriga kelib O‘zbekiston aholisining 67 foizi o‘z uyida internetdan foydalanmoqda, bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda keskin oshganini ko‘rsatadi [5]. Internet auditoriyasining

kengayishi axborot oqimini kuchaytirib, nazoratsiz kontentga moyillikni orttirmoqda. Shu bois, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish, onlayn makondagi zararli odatlardan saqlanish madaniyatini shakllantirish dolzarbdir.

Oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi ham yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi muhim omillardandir. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab oilaviy ajrimlar sonining ortishi barcha jamiyatshunos olimlarni tashvishga solmoqda. Xususan, yosh oilalar o‘rtasida ajralishlar ko‘payishi yosh avlodda oilaga sadoqat va hurmat tushunchalari susayib borayotganini ko‘rsatadi. Milliy mentalitetimizda oilaviy tarbiya va an’analar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ayrim “zamonaviy” qarashlar, internetdagi ayrim blogerlarning oilaviy hayotni yengil qabul qilishga undovchi chiqishlari yoshlar orasida baxtli oila tushunchasini so‘roq ostiga qo‘ymoqda. Natijada, yoshlarning o‘z oilasiga bo‘lgan mehr-e’tibori va sadoqati zaiflashishi, notinch oilalar sonining ortishi kuzatilmoqda. Oilaviy muhitning beqarorlashuvi yoshlar ma’naviyatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning psixologik holatiga ham putur yetkazishi mumkin. Zero, oilada tarbiya topgan sog‘lom muhit yoshlar uchun eng kuchli ma’naviy tayanchdir.

Yuqoridagi omillar – iqtisodiy qiyinchiliklar, axborot xurujlari, zararli odatlar, oilaviy muhitdagi muammolar – birlashib, globallashuv kontekstida yoshlar ma’naviyatiga tahdid soluvchi murakkab muhitni shakllantirmoqda. Bu tahdidlarga qarshi samarali choralar ko‘rilmasa, kelajak avlodning ma’naviy yetukligi xavf ostida qolishi mumkin. Shu bois, yoshlar o‘rtasida ma’naviy bo‘shliqning oldini olish, ularni jamiyatga foydali va vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish uchun kompleks yondashuv zarur.

Yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni globallashuvning salbiy ta’sirlaridan himoyalash borasida davlat va jamiyat tomonidan tizimli choralar ko‘rilishi lozim. Avvalo, oilaviy tarbiyani kuchaytirish birlamchi vazifa sifatida e’tirof etiladi. Oila instituti jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, farzandning dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi avvalo oilada shakllanadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar orasida tarbiyaviy muammolarni bartaraf etishda eng samarali chora oilaviy tarbiyani kuchaytirish deb topilgan (28,9% respondentlar) [3]. Shu sababli, ota-onalarning ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish zarur. Oilada sog‘lom muhitni ta’minlash orqali yoshlarning ongida milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini kuchaytirish mumkin.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish ham ularning ma’naviy kamoloti uchun muhim shartdir. So‘rovlar natijasida yoshlar salbiy xulq-atvorini kamaytirishda ish bilan bandlikni oshirish (19,4%), ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish (16,3%) va yoshlarni sport hamda ijodiy to‘garaklarga jalb qilish (16,2%) muhimligini ta’kidlaganlar [3, 6]. Demak, yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bepul kasb-hunar va xorijiy tillar kurslarini tashkil etish kabi choralarga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Bu nafaqat yoshlarni band qilishi, balki ularning jamiyatga foydali a’zo bo‘lib shakllanishiga ko‘mak beradi. Shu bilan birga, sport-musobaqalar, madaniy va ilmiy tanlovlar orqali yoshlarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratish ularda sog‘lom raqobat, jamoaviylik va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Raqamli muhitda yoshlar mafkuraviy barqarorligini ta’minlash uchun ularning media savodxonligini oshirish dolzarbdir. Maktab va oliy ta’lim tizimida media madaniyat va axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus dasturlar joriy etilishi zarur. Yoshlar internetdan foydalanganida, axborot oqimini tanqidiy tahlil qilish, feyk xabarlarni aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda, ta’lim muassasalarida **“raqamli immunitet”** konsepsiyasini joriy etish taklif etiladi, ya’ni o‘quvchi-talabalarga onlayn makondagi xavf-xatarlar va ulardan himoyalanish yo‘llari muntazam o‘rgatib borilishi lozim. Bundan tashqari, Yoshlar ittifoqi, Mahalla kabi jamoat tuzilmalari orqali internetdagi zararli kontent va guruhlarga qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kerak bo‘ladi. Masalan, tajribali psixolog va dinshunoslar ishtirokida yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda maslahat beruvchi, savollariga javob qaytaruvchi maxsus onlayn platformalarni shakllantirish mumkin. Bu orqali yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan yoki chalg‘itayotgan masalalar yuzasidan to‘g‘ri ma’lumot va maslahat olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda ta’lim muassasalari va mahalla instituti ham alohida o‘rin tutadi. Maktab, kollej va universitetlarda ma’naviyat va ma’rifat soatlari, davra suhbatlari, mutafakkirlar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlarni zamonaviy usullar bilan boyitish lozim [7]. An’anaviy ma’naviyat darslarini interaktiv va hayotiy misollar bilan o‘tib, yoshlarning ongiga tez singadigan tarzda yetkazish muhim. Mahallalarda esa yoshlar yetakchilari va nuroniy otaxon-onaxonlarning hamkorligida yosh oilalar va o‘smirlar bilan maqsadli ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish kerak. Zero, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlash barchaning – oilaning, mahalla va ta’lim muassasalarining – hamkorlikdagi sa’y-harakatlari bilan amalga oshadi.

Yoshlar o‘rtasida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishi – ularda **milliy g‘oya va mafkuraga sadoqat** tuyg‘usini mustahkamlashdir. Bugungi globallashuv davrida har bir yurt o‘z yoshlarini milliy manfaatlar va taraqqiyot g‘oyalariga ishontira olmasa, ularning qalbini begonalar g‘oyalar egallashi mumkin. Shuning uchun yosh avlodga milliy g‘oya va istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini chuqur anglatish zarur. Ta’kidlash joizki, yuksak ma’naviyat va mustahkam mafkuraga ega xalqni hech qanday tashqi kuch yengolmaydi. O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ham globallashuv davrida yot g‘oyalarga qarshi “ma’naviyatli inson – yengilmas kuch” tamoyili ilgari surilgan edi. Bu g‘oya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish eng samarali “immunitet” vazifasini o‘taydi.

Yuqorida qayd etilgan choralarni tizimli amalga oshirish orqali globallashuv kontekstida yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sirlarni kamaytirish, aksincha, uning ijobiy imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish mumkin bo‘ladi. Quyida yoshlar ma’naviy

kamolotini ta’minlash va mafkuraviy barqarorligini oshirish bo‘yicha asosiy tavsiyalar jamlanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Yoshlar ma’naviyatini asrash va rivojlantirish, ularni global tahdidlardan himoya qilish milliy taraqqiyot va xavfsizlikning muhim shartidir. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Oilaviy tarbiyani kuchaytirish.** Yosh avlodning mafkuraviy immunitetini oshirish avvalo oiladan boshlanadi. Shuning uchun ota-onalarning mas’uliyatini yana-da oshirib, ular uchun muntazam ma’naviy-ma’rifiy seminarlar, treninglar tashkil etish zarur. Farzandlarda milliy an’ana va qadriyatlarga hurmatni oshirish uchun oilaviy tadbirlar (kitobxonlik kechalari, ajdodlar tarixini o‘rganish) rag‘batlantirilishi lozim.

2. **Ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish.** Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda ma’naviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘quv dasturlariga axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, media savodxonlik bo‘yicha qo‘shimcha modullar kiritish, ta’lim muassasalarida ma’naviy muhitni monitoring qilib borish taklif etiladi.

3. **Yoshlarning bandligini ta’minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish.** Ishsizlik va maqsadsizlik kabi omillar yoshlarni zararli yo‘llarga boshlashi mumkin. Shu bois, hukumat va mahalliy idoralar tomonidan yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash choralari kuchaytirilishi kerak. Shuningdek, har bir mahallada sport seksiyalari, ijodiy to‘garaklar va boshqa ijobiy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

4. **Raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta’minlash.** Yoshlarni internetdagi zararli axborotdan himoya qilish uchun ularning raqamli madaniyatini oshirish lozim. Maxsus onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali zararli kontentni filtrlash, yoshlar uchun mo‘ljallangan foydali veb-saytlar katalogini shakllantirish taklifi beriladi. Shu bilan birga, kibermakonni nazorat qilishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati hamkorligini ta’minlash, internetda yoshlar uchun xavfsiz muhit yaratish muhimdir.

5. **Mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish.** Yoshlar ongida milliy g‘oya va istiqlol mafkurasiga sadoqatni mustahkamlash davom ettirilsin. Bu borada ommaviy axborot vositalarida yoshlar uchun mo‘ljallangan yuqori badiiy va vatanparvarlik ruhidagi kontent (filmlar, ko‘rsatuvlar) ulushini oshirish, ijtimoiy tarmoqlarda yurtimiz qahramonlari, yetuk shaxslar hayoti va mehnati targ‘ibotini kuchaytirish lozim. Shuningdek, diniy-ma’rifiy sohada yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassislar (imom-xatiblar, psixologlar) malakasini oshirish, ular orqali “jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilini hayotga tatbiq etish darkor.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, globallashuv kontekstida yoshlar ma’naviyatini asrab-avaylash va boyitib borish jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Yuqoridagi ilmiy tahlillar va takliflar shuni ko‘rsatadiki, tizimli va hamjihatlikda amalga oshiriladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar orqaligina yoshlar ongini zararli ta’sirlardan himoya qilish va ularning barkamol avlod bo‘lib kamol topishini ta’minlash mumkin.

Yoshlar – kelajagimiz bunyodkorlari – ularning ma’naviy dunyosini yuksak parvarishlash esa yangi O‘zbekiston taraqqiyotining garovi ekanini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madraximov J. (2024). Globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy hayotiga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari va ularning xususiyatlari. – Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари (Actual Problems of Humanities and Social Sciences), 2024, №4(S/5).

2. O‘zbekiston yoshlari: yangi imkoniyatlar va istiqbollar yo‘lida. – Yuz.uz sayti, 19.02.2025.

3. Yoshlar uchun tahdid omillar: tahliliy ma’lumotnoma. – Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, 2023.

4. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi. (Prezident videoselektor yig‘ilishidagi nutq, 15.06.2017) – Kun.uz xabari.

5. O‘zbekistonda o‘z uyida internetdan foydalanayotgan katta yoshdagilar ulushi oshdi. – Daryo.uz yangiliklar sayti, 16.04.2024.

6. Арсланов, З. 2024. Совершенствование системы работы с молодежью: на основе международного опыта. Общество и инновации. 5, 4/S (апр. 2024), 248–256. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp248-256.

7. Arslonov, Z. . (2025). COOPERATION BETWEEN STATE AND NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN IMPLEMENTING STATE YOUTH POLICY. Oriental Journal of Social Sciences, 5(04), 32–39. https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-04-05

BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARI VA GLOBAL MADANIY TA’SIRLAR FONIDA YOSHLAR IQTISODIY XULQ-ATVORI EVOLYUTSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Ashurov Abror Uralovich
UBS “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

XXI asr globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, texnologik modernizatsiyaning tezlashuvi va raqamli madaniyatning kengayishi natijasida jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar keskin o‘zgarib bormoqda. Modernizatsiyaning an’anaviy tuzilmalardan zamonaviy texnologik, iqtisodiy va madaniy tizimlarga o‘tish jarayoni bo‘lib [1], yoshlarning iqtisodiy xulq-atvori aynan modernizatsiya tezligi va shakliga qarab o‘zgaradi. Raqamli iqtisodiyot modernizatsiyaning eng faol bosqichidir. Ayniqsa, yoshlar qatlamining iqtisodiy xulq-atvori, iqtisodiy qaror qabul qilish mexanizmlari, iste’mol modeli va manfaatlar tizimi ilgari kuzatilmagan darajada transformatsiyaga uchramoqda. Bunday o‘zgarishlarning tub ildizlari global madaniy oqimlar, transmilliy

iqtisodiyot, axborot oqimlari, reklama bozori, raqamli iqtisodiyot va yangi avlod qadriyatlarida mujassamdir. Shu nuqtai nazardan, yoshlar iqtisodiy xulq-atvori evolyutsiyasini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bog‘lab tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarning uyg‘unlikda bo‘lishini taqozo etadi [2]. Mazkur g‘oya shaxs iqtisodiy faoliyati va iste’mol madaniyatining atrof-muhitga ta’siri uchun mas’uliyat hissini shakllantirishni talab qiladi. Shubhasiz, bu jarayonning asosiy tizimli o‘zgarishlari yoshlar ongida kechadi, chunki ular global axborot oqimining eng faol iste’molchilari, raqamli iqtisodiyotning bosh foydalanuvchilari va kelajak iqtisodiy tizimining yetakchi subyektlari hisoblanadi.

Maqoladan asosiy maqsadimiz global madaniy ta’sirlar hamda barqaror rivojlanish tamoyillari fonida yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining evolyutsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishdir. Ijtimoiy-falsafiy tahlil ijtimoiy hodisalarni ularning mohiyati, mazmuni, rivojlanish qonuniyatlari va qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlari asosida falsafiy talqin qilish usuli. Shu maqsad asosida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1). Yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

2). Global madaniy transformatsiyalarning yoshlar iste’mol modeli va iqtisodiy qarorlariga ta’sirini tahlil qilish;

3). Barqaror rivojlanish tamoyillarining yoshlar iqtisodiy xulqiga kirib borish jarayonini o‘rganish;

4). Yoshlar orasida barqaror iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning to‘sqinlik qilayotgan va rag‘batlantirayotgan omillarini aniqlash;

5). Iqtisodiy xulq-atvorning falsafiy dialektikasini asoslash.

Nazariy-metodologik asos sifatida modernizatsiya nazariyalari [1,3], ijtimoiy ekologiya yondashuvlari [4], barqaror rivojlanish konsepsiyalari [5], shuningdek sivilizatsiyaviy, aksiologik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Yurtimizdan bu borada fikr yuritgan taniqli siyosiy arbob va olimlardan I. Karimov [6], A. Erkaev [7], B. Yo‘ldoshev [8], Sh. Yarashev [9]larning fikrlari tahlil uchun metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Iqtisodiy xulq-atvor individning qadriyatlari, ijtimoiy identifikatsiyasi, ma’naviy orientatsiyasi, ehtiyojlari, motivlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari natijasidir. Iqtisodiy xulq-atvor individning ehtiyojlari, qadriyatlari, motivlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari asosida shakllanuvchi iqtisodiy qarorlar tizimi bo‘lib, unda iste’mol, sarf-xarajat, jamg‘arma, riskka munosabat kabi amaliy faoliyatlar mujassamdir. Iqtisodiy xulq-atvor individning qadriyatlari, ijtimoiy identifikatsiyasi, ma’naviy orientatsiyasi, ehtiyojlari, motivlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari natijasidir. Iqtisodiy xulq-atvor individning qadriyatlari, ijtimoiy identifikatsiyasi, ma’naviy orientatsiyasi, ehtiyojlari, motivlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari natijasidir. Weber [10] ta’kidlaganidek, iqtisodiy faoliyat axloqiy va ma’naviy tamoyillardan ajralgan emas. Yoshlar iqtisodiy xulqi ayniqsa qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda nafaqat daromad va foyda, balki “maqsad”, “hayot sifati”, “o‘zini namoyon qilish” kabi

tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Qadriyatlar transformatsiyasi jamiyatda avlodlar almashuvi, global madaniyat, texnologiyalashuv va ta’limning o‘zgarishi natijasida qadriyatlar tizimining yangilanishi jarayonidir [3]. Yoshlarning iqtisodiy qarorlari aynan qadriyatlar transformatsiyasining real ifodasidir. Zamonaviy yoshlar iqtisodiy xulqi uch asosiy komponentga tayanadi:

instrumental-ratsional manfaatlar (foyda, daromad, iqtisodiy barqarorlik);

aksiologik manfaatlar (insonparvarlik, ekologik mas’uliyat, adolat);

madaniy identifikatsiya (brendlar, imij, ijtimoiy tarmoqlardagi mavqe).

Ekologik mas’uliyat shaxsning iqtisodiy faoliyatida tabiatga zarar yetkazmaslik, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik oqibatlarni oldindan hisobga olish tamoyillaridir. Ekologik mas’uliyat barqaror iste’molning asosiy shartidir. Bu nuqtai nazardan, yoshlar iqtisodiy xulqi faqat iqtisodiy kategoriyalar bilan izohlanmaydi. U jamiyat ma’naviy tizimi, global madaniy oqimlar va ijtimoiy kapital bilan ham belgilanadi [11]. Bu o‘rinda barqaror rivojlanish tushunchasini ta’riflash masalaning mohiyatiga yetishga yordam beradi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarning bir-biriga zid kelmasdan, uyg‘unlikda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan konseptsiya bo‘lib, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini cheklamasdan bugungi rivojlanishni tashkil etishni nazarda tutadi [2]. Barqaror rivojlanish tamoyillari yoshlar iqtisodiy xulqiga ikki asosiy yo‘l bilan ta’sir qiladi: birinchisi ekologik ongni shakllantirish va ikkinchisi ijtimoiy mas’uliyatni chuqurlashtirish orqali. Ekologik ong insonning tabiatni anglash, ekologik muammoni idrok etish, atrof-muhitni asrashga daxldorligini his qilish va ekologik mas’uliyat bilan qaror qabul qilish qobiliyatidir. Yoshlar orasida energiya tejamkorlik, qayta ishlash, zero waste va eko-tanlovlar kuchayib borayotgani ekologik ong kengayib borayotganiga dalildir. Shuningdek, xavf jamiyatini tushuntirib o ‘tish lozim. U tadqiqotchi U. Beck [4] tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy jamiyat texnologik taraqqiyot natijasida yangi ekologik, iqtisodiy va axborot xavflari bilan to‘qnashayotganini bildiradi. Bugungi yoshlarning ekologik ongiga aynan xavf jamiyati haqidagi tasawurlar kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mas’uliyatli iste’mol nafaqat iqtisodiy qarorning oqibatlarini anglash, balki ekologik, ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatni ham hisobga olishdir [12]. Yoshlar ekologik xavflarni tan olgan sari ularning iqtisodiy xulqida energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan mahsulotlar, “fair trade” va “eko-brendlar”ga qiziqish ortmoqda. Baudrillard [13] iste’mol jamiyatini belgilar va ramzlar jamiyati sifatida talqin qilgan edi. Bugungi yoshlar iste’molchilari odatda mahsulotni uning amaliy qiymati uchun emas, balki uning ijtimoiy-ramziy qiymati uchun tanlaydilar. “Brendlashgan ong” iqtisodiy qarorlarning asosiy determinantlariga aylanmoqda. Shuning uchun iste’mol madaniyati iqtisodiy xulq-atvorning asosiy shakllantiruvchisi sifatida global o‘zgarishlarning markazida turadi. Ma’naviy barqarorlik shaxsning axloqiy mezonlari, ichki ruhiy muvozanati, maqsadlari va ijtimoiy qadriyatlari barqaror saqlanishi holatidir. Ma’naviy barqarorlik iqtisodiy qarorlar va iste’mol xulqida ham aks etadi, mas’uliyatli iste’mol aynan ma’naviy barqarorlikning amaliy ifodasidir.

Raqamli iqtisodiyot yoshlar iqtisodiy xulqini inqilobiy tarzda o‘zgartirdi. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning raqamli texnologiyalar, internet platformalari, elektron to‘lovlar va algoritmik boshqaruv asosida tashkil etiladigan yangi modeli bo‘lib, yoshlar iqtisodiy xulq-atvorini tubdan o‘zgartirib yuborgan. Influencer marketing, algoritmik tavsiyalar, onlayn bozorlar kabilarning barchasi raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridir. Instagram, TikTok va Telegram kabi platformalarda paydo bo‘lgan “mikro-trendlar”, “influencer marketing” va “algoritmik tavsiyalar” yoshlarning iste’mol xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shaxs o‘z ongida mustaqil qaror qilayotganini o‘ylagan bo‘lsa-da, algoritmlar uning iqtisodiy tanlovlarini oldindan shakllantirib bormoqda [14]. Postindustrial jamiyat sanoat ishlab chiqarishidan ko‘ra bilim, axborot, texnologiya va xizmatlar ustuvor bo‘lgan jamiyat turi bo‘lib, yoshlar iqtisodiy xulqi postindustrial me’yorlardan hisoblangan raqamli iste’mol, tezkor xizmatlar, platforma iqtisodiyoti orqali shakllanadi.

Tezkor iste’mol jamiyati (fast culture) qulaylik, tezlik va bir martalik mahsulotlar falsafasiga asoslanadi. Global madaniyat turli jamiyatlar, xalqlar va hududlar madaniyati o‘rtasidagi intensiv axborot almashinuvi, me’yor va qadriyatlar birlashuvi natijasida shakllangan umumjahon madaniy maydoni bo‘lib, yoshlar dunyoqarashi, iste’mol modeli va iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iste’mol jamiyati iste’mol jarayoni hayot mazmuniga, jamiyatdagi o‘ringa, hatto ma’naviy qadriyatlarga aylangan modern jamiyat turi bo‘lib, J. Baudrillard [13] ta’kidlaganidek, unda mahsulotlar amaliy emas, balki ramziy qiymati uchun tanlanadi. Bugungi yoshlarning ko‘plab iqtisodiy qarorlari aynan iste’mol jamiyatining ramzlari orqali shakllanadi. Global madaniyat turli jamiyatlar, xalqlar va hududlar madaniyati o‘rtasidagi intensiv axborot almashinuvi, me’yor va qadriyatlar birlashuvi natijasida shakllangan umumjahon madaniy maydoni bo‘lib, yoshlar dunyoqarashi, iste’mol modeli va iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. XXI asrning globallashuv jarayonlari natijasida shakllanayotgan yangi madaniy kodlar aynan global madaniyat mahsulidir. Globallashuv bu jarayonni kuchaytirib, yoshlarni “instant” hayot tarziga moslashtirdi. Biroq so‘nggi yillarda ekologik inqiroz, iqlim o‘zgarishi va global xavflar natijasida yoshlar orasida yangi “yashil ong” tamoyillari paydo bo‘lmoqda. Bu “eko-minimalizm”, “zero waste”, “slow living” va “reanovatsiya madaniyati” kabi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Barqaror rivojlanish ekologik axloq tamoyillarini ijtimoiy ongning asosiy komponentiga aylantirishni talab qiladi. Yoshlar ma’naviyatida ekologik qadriyatlar tiklanayotganini bir qator so‘rovlar tasdiqlaydi (OECD, 2020). Yoshlar ma’naviyati yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlari, hayotiy maqsadlari, axloqiy mezonlari va ma’naviy ehtiyojlaridan tarkib topgan ichki ruhiy tizim bo‘lib, iqtisodiy xulq-atvorning asosiy omillaridan biridir. Yoshlar ma’naviyati global axborot oqimi, zamonaviy madaniy trendlar va raqamli muhit ta’sirida jadal o‘zgarib bormoqda. Bu ma’naviy jarayonlarda ekologik mas’uliyatning kuchayishi iqtisodiy qarorlarning mazmunini o‘zgartiradi:

– ekologik toza mahsulotlar tanlanadi;

– energiya tejamkor texnologiyalar afzal ko‘riladi;

– iqtisodiy faoliyatning ekologik izi hisobga olinadi.

Yoshlar orasida qayta ishlash, resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirish madaniyati kuchayib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi orqali mustahkamlanmoqda (UNESCO, 2017). Mamlakatimizda ham ekologik ta’limning roli oshib bormoqda.

Barqaror rivojlanish iqtisodiy tenglik, ekologik adolat va jamiyat farovonligini uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Yoshlar bugungi kunda nafaqat o‘zining iqtisodiy manfaatlarini, balki jamiyatning umumiy farovonligini ham hisobga olishga moyil. Bu “ijtimoiy tadbirkorlik”, “ixtiyoriylik harakati”, “yashil startaplar” kabi iqtisodiy faoliyat shakllarida ifodalanadi.

Yoshlar iqtisodiy xulqi tarixiy-dinamik jarayonda quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

Traditsion iqtisodiy xulq-atvor – oila ta’siri, mehnat an’analari, iqtisodiy me’yorlar ustuvor.

Bozor modeli – foyda, raqobat, individuallashuv ustuvor bo‘lgan xulq.

Raqamli iste’mol modeli – raqamli iqtisodiyot va onlayn bozor mexanizmlarining ustuvorligi.

Barqaror iqtisodiy ong modeli – ekologik axloq, ijtimoiy mas’uliyat, yashil taraqqiyot tamoyillari asosida qaror qabul qilish.

Bu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning dialektik uyg‘unligi yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining zamonaviy modelini shakllantiradi.

Fintech, elektron to‘lov tizimlari, kriptovalyutalar, onlayn bozorlar yoshlarning iqtisodiy xulqini yangidan shakllantirmoqda. Raqamli vositalar orqali pul oqimlari boshqarilishi yengillashgani sababli iqtisodiy qarorlar tez-tez va impulsiv ravishda qabul qilinadi. Transmilliy madaniy oqimlar yoshlarning identiteti va iste’mol xulqini global me’yorlarga moslashtiradi. Madaniy identitet shaxsning o‘zini muayyan madaniy guruh, millat yoki global madaniy hamjamiyat bilan bog‘lash hissi bo‘lib, iste’mol tanlovlarida (brend, imij, trendlar) kuchli aks etadi. Yoshlar iqtisodiy xulqida madaniy identitetning ramziy ta’siri yuqori. Shu bilan birga, bu jarayon milliy qadriyatlar, ekologik mas’uliyat va barqaror iqtisodiy madaniyat o‘rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Dunyo miqyosidagi ekologik muammolar yoshlar iqtisodiy ongida “kelajak uchun mas’uliyat” tushunchasini kuchaytirdi. “Fridays for Future” kabi global harakatlar buning yorqin misolidir. Yoshlar orasida barqaror iqtisodiy xulqning shakllanishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

Iste’molchilik stereotiplari.

Raqamli reklamaning manipulyativ ta’siri.

Ekologik bilimlarning pastligi.

Qulaylik madaniyati.

Mahalliy iqtisodiy sharoitlar, yashil mahsulotlarning qimmatligi.

Barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib, uni rivojlantiruvchi omillar mavjud. Ularga:oila va ta’lim tizimi; davlatlarning yashil

iqtisodiyotga oid siyosatlari; raqamli platformalarda ekoma’rifat; ekologik volontyorlik harakati; mahalliy va global ekologik startaplar.

Yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining evolyutsiyasi iqtisodiy manfaatlar, ekologik talablar va global madaniy transformatsiyalarning dialektik birligi orqali amalga oshadi. Bu jarayon “iqtisodiy manfaat — ekologik manfaat — ijtimoiy manfaat” uchligi asosidagi uyg‘unlikka tayanadi.

Barqaror rivojlanish tamoyillari yoshlar dunyoqarashida yangi aksiologik tizimni shakllantirmoqda, jumladan, mas’uliyatli iste’mol, ekologik axloq, iqtisodiy adolat va global hamjihatlik.

Olib borgan nazariy tadqiqotimizdan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, global madaniy o‘zgarishlar yoshlar iqtisodiy xulq-atvorini tubdan o‘zgartirib, uni murakkab ijtimoiy, madaniy va axloqiy omillarga bog‘lab qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillari yoshlar iqtisodiy qarorlarini ekologik va ma’naviy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishni talab qilmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining yangi modeli — “barqaror iqtisodiy ong modeli” shakllanmoqda.

To‘rtinchidan, ekologik ma’naviyat, mas’uliyatli iste’mol va iqtisodiy ongni shakllantirish ta’lim tizimi, davlat siyosati va raqamli madaniyat orqali jadallashmoqda.

Beshinchidan, yoshlar iqtisodiy xulq-atvorining barqaror yo‘nalishda rivojlanishi jamiyatning umumiy barqaror taraqqiyotiga strategik hissa qo‘shadi.

O‘rganishlar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yoshlar ongida barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlash uchun maktab, texnikum va oliy ta’lim muassasalarida ekologiya, iqtisodiy madaniyat, mas’uliyatli iste’mol va “yashil iqtisodiyot”ga oid integratsiyalashgan o‘quv modullarini joriy etish zarur. Ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, ilmiy loyihalar va UNESCO tomonidan 2017-yilda ishlab chiqilgan tavsiyalarga mos ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar qo‘llanishi lozim.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda “yashil tanlov”, “mas’uliyatli xarid” va “kam iste’mol — yuqori sifat” kabi targ‘ibot dasturlarini kuchaytirish, shuningdek, raqamli reklama va ma’lumotlar manipulyatsiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida yoshlarning mediamadaniyatini oshirish muhim. Bu ularning iqtisodiy qarorlarini ongli va mustaqil qabul qilishiga yordam beradi.

3. Mahalla tizimi orqali chiqindi ajratish, energiyani tejash, qayta foydalanish va ekologik turmush tarzini targ‘ib qiluvchi dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi. Ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida yoshlarni ekologik-iqtisodiy jihatdan ongli yashashga yo‘naltiruvchi tarbiyaviy muhit yaratish zarur.

4. Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi resurslar, ekologik mahsulotlar va raqamli yechimlarga asoslangan yoshlar startaplarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, grantlar, mentorlik va inkubatsiya markazlarini yaratish talab etiladi. Bu yoshlarning innovatsion iqtisodiy faolligini oshirib, barqaror rivojlanish iqtisodiyotiga real hissa qo‘shadi.

5. Yoshlar iste’mol xulq-atvori, iqtisodiy qarorlari va ekologik madaniyati bo‘yicha muntazam monitoring olib boruvchi markazlar tashkil etish lozim. Ochiq statistika platformalari orqali yoshlar uchun real ekologik-iqtisodiy indikatorlarni taqdim etish va ilmiy tadqiqotlar natijalarini yoshlar siyosati, iqtisodiy islohotlar hamda ekologik dasturlarga tatbiq etish barqaror rivojlanishning ijtimoiy poydevorini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. – New-York: Basic Books, 1973. – 507 p.
2. Brundtland Commission. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p.
3. Inglehart, R. Modernization and Post modernization. – Prinston: Princeton University Press, 1997. – 464 b.
4. Bek, U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage, 1992. – 260 p.
5. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN, 2015. – 41 p.
6. Karimov, I. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997. – 176 b.
7. Erkayev, A. Global jarayonlar va milliy o‘zlik. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 246 b.
8. Yo‘ldoshev, B. Yoshlar ma’naviyati va modernizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Fan, 2020. – 210 b.
9. Yarashev, Sh. Barqaror rivojlanish va ekologik madaniyat. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018. – 189 b.
10. Weber, M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. – London: Routledge, 2017. – 226 p.
11. Bouerdu, P. The Forms of Capital. – В кн.: Richardson J. (Ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New-York: Greenwood, 1986. – С. 241–258.
12. Jackson, T. Motivating Sustainable Consumption. – London: Sustainable Development Research Network, 2005. – 42 p.
13. Baudrillard, J. The Consumer Society: Myths and Structures. – London: Sage Publications, 1998. – 204 p.
14. Zuboff, Sh. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: Public Affairs, 2019. – 704 p.
15. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 62 p: UNESCO Publishing, 2017. – 62 p.

JAMIYAT TARAQQIYOTI VA IJTIMOIY TENGSIZLIKNI BARTARAF ETISH VAZIFALARI

Asqarov Xusanboy Esonovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Insoniyat tarixi davrida jamiyat shakllanib, rivojlanib va yuksalib borgan. Gohida bu rivojlanish jamiyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich o‘zgarishlariga sabab bo‘lgan. Jamiyat taraqqiyoti orqali biz adolatli, barqaror va farovon jamiyat qurishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “...mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish ob’ektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi”[1.]. Demak jamiyat taraqqiyoti xalqlar taqdirini o‘zgartiradi, shu bilan birga millat irodasini mustahkamlaydi.

Yangi asr boshidagi ijtimoiy o‘zgarishlarning keng ko‘lamliligi, ziddiyatliligi ularning sabablari va asoslarini o‘rganishga bo‘lgan chuqur qiziqishni keltirib chiqarmoqda. Yangilanayotgan jamiyat oldida turgan ijtimoiy rivojlanishning murakkab vazifalari majmuasini hal qilish, texnologiyalarning jadal o‘sishi, global, ko‘p jihatdan salbiy o‘zgarishlar, ijtimoiy tuzilmaning nomukammalligi inqirozni bartaraf etish, voqelikni maqsadga muvofiq o‘zgartirish yo‘llarini izlashga majbur qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi va uning determinantlari haqidagi bilimlar real mavjud tendentsiyalar, kuchlar, omillarni aniqlash imkonini beradi, ularni tushunish ijtimoiy tuzum ideallari, maqsadlariga erishishga xizmat qiladi, falsafiy kategoriyalarning empirik va mazmunan, ularning evristik imkoniyatlarini ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish tamoyillari sifatida kengaytirmoqda. Jamiyat a’zolarining dunyoqarash inqirozining sabablari haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirish, uni bartaraf etishning yanada samarali usullarini tanlash imkonini bermoqda.

Jamiyat taraqqiyotining davrlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar ustivorligi jamiyat taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat va jamiyat boshqaruvida progressiv munosabatlarning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi, jamiyatda intellekt ustuvorligini, olam va borliqni anglashda ilmiy fikr yetakchiligini ta’minlab berishi bilan ifodalanadi. Hind faylasufi Altaf Husayn Xoliy “Tarixiy taraqqiyotning asosiy manbai bu ong, xalqning ongi o‘sishida ilm asosiy rol o‘ynaydi”, deydi. U o‘z vatandoshlarini og‘ir ahvolidan kuyunadi, undan qutulish yo‘lini sanoat va savdo-sotiqni rivojlantirishda, ma’rifatni targ‘ib qilish va iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotda ko‘radi. Yoki bo‘lmasa jamiyat taraqqiyoti haqida Javohirlal Neru o‘z fikrini qo‘yidagicha ifodalaydi: “Ilmiy-texnika taraqqiyoti va tabiatni bo‘ysundirish borasidagi muvaffaqiyatlar bilan ma’naviy axloqiy saviya o‘rtasidagi uzilishni bizning asrimizning fojiaviy be’maniligi, agar moddiy taraqqiyot bilan bir qatorda ma’naviy yetuklikka erishilmagan bo‘lsa, unda hech bir tsivilizatsiyani to‘la qonli deb hisoblab bo‘lmaydi”[2.572.]. Hayotdagi eng umumiy qarama-qarshilikni Javohirlal Neru yangilik bilan eskilik o‘rtasida deb biladi. Har qanday taraqqiyot jarayonida hamma vaqt nimadir eskiradi va o‘z umrini o‘tab bo‘ladi va

qandaydir narsalar tuziladi. Bizning fikrimizcha, tafakkurda ham o‘zgarmaydigan qonunlarning bo‘lishi mumkin emas.

Ijtimoiy tengsizlik nazariyasini boyitishga hissa qo‘shgan muhim manba sifatida “Falsafiy diskursdan hali ko‘p narsani bilib olishlari kerak”[3.13.]. Ijtimoiy tengsizlik nazariyotchilarining ijtimoiy epidemiologiya yoki ijtimoiy ta’siriga murojaat qilish bu muammoni anglashda yana bir muhim qadam bo‘ladi. Bu sohada Richard Uilkinsonning[4.56.] asarlarini eng qimmatli deb ataydi, ularda britaniyalik professor boylikning o‘sishi tengsizlikka uning adolatliroq taqsimlanishiga qaraganda kamroq ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Bilish evolyutsiyasi jarayonida jamiyat taraqqiyoti haqidagi falsafiy va tabiiy-ilmiy tasavvurlarning rivojlanishi tizimli yondashuvga bog‘liqdir. Bunda ijtimoiy determinizm an’anaviy ravishda tarixning harakatlantiruvchi kuchlari, materiya harakatining ijtimoiy shakli, ijtimoiy sababiyat, ijtimoiy rivojlanish qonunlari va qonuniyatlari muammolari kontekstida ko‘rib chiqiladi, ijtimoiy fikr klassik falsafiy an’anaga tayangan holda ijtimoiy voqelikning qonuniyligini yagona mumkin bo‘lgan tushunishni rivojlantiradi. Jamiyat taraqqiyoti rivojlanishning ob’ektiv omillari bilan qat’iy belgilangan ijtimoiy voqelik ijtimoiy va individual ongni shakllantiradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, jamiyat taraqqiyoti – bu jamiyatning sifat jihatidan o‘zgarishi, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi ijobiy o‘zgarishlardir. Bu o‘zgarishlar jamiyatning rivojlanishiga, uning a’zolarining hayot darajasi va sifatining yaxshilanishiga olib kelishi bilan ahamiyatlidir.

Jamiyat taraqqiyoti qanchalik yuksalishga intilgani sari ijtimoiy tengsizlik ham shunchalik yangi bosqichga chiqib boradi. Bu haqda yuqoridagi paragraflarda batafsil to‘htalgan edik. Shunga ko‘ra, ijtimoiy tengsizlik muammosi insoniyatning butun tarixi davomida hamroh bo‘lib kelgan. Tengsizlik insoniyat paydo bo‘lganidan beri uning birinchi qiziqishlaridan biri bo‘lgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. XX asrning ikkinchi yarmi, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy o‘zgarishlarning jadal sur’atlari bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zgarishlar natijasida dunyo mintaqalarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligi ortib bormoqda. Globallashuv ijtimoiy tengsizlik munosabatlarini o‘zgartiradi: “eski” munosabatlar va tengsizlik shakllari (masalan, sinfiy) yo‘qolmaydi, “yangi” tengsizliklar (masalan, o‘ziga xoslik, turmush tarzi tengsizligi) ular bilan kesishadi. Shuningdek, turli darajadagi tengsizliklar ustma-ust tushadi: “katta” (global) tengsizliklar “kichik” (ichki milliy) tengsizliklar ustiga tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. № 165 (421), 2021 йил 17 август, Сешанба.

2. Дж.Неру. Открытие Индии. Москва. 1955.

3. Therborn G. Inequalities and Latin America: From the Enlightenment to the 21st Century // Working Paper Series. 2011. №1.

4. Wilkinson R. G. The Impact of Inequality: How to Make Sick Societies Healthier. New York: The New Press, 2005.

GLOBALLASHUV DAVRIDA PEDAGOGIK BOSHQARUV MADANIYATI VA YOSHLAR MA’NAVIY RIVOJLANISHINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Atajanova Qunduz
Alfraganus universiteti magistranti

Kirish. Globallashuv jarayoni XXI asrda nafaqat iqtisodiy, siyosiy va texnologik sohalarni, balki ma’naviy-madaniy hayotni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, ommaviy madaniyatning global modeli yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimi, xususan, pedagogik boshqaruv madaniyati yoshlarning ma’naviy rivojlanishi, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishda strategik omilga aylanmoqda.

Pedagogik boshqaruv madaniyati bu – ta’lim muassasasi rahbariyati, pedagoglar jamoasi va boshqa boshqaruv subyektlarining shaxsga, jamiyatga, bilim va tarbiyaga bo‘lgan qadriyatli munosabati, boshqaruv uslubi, kommunikativ madaniyati, hamkorlikni tashkil etish mahorati, shuningdek, qaror qabul qilishda insonparvarlik, adolat va mas’uliyat tamoyillarini namoyon etishidir. U faqat tashkiliy-texnik boshqaruv emas, balki ma’naviy-axloqiy yetakchilik sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yoshlar ma’naviy rivojlanishi esa ijtimoiy-falsafiy jihatdan, insonning ma’no izlash, qadriyatlarni tanlash, axloqiy pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy faolligini belgilash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Globallashuv sharoitida bu jarayon ikki yoqlama ta’sir ostida kechadi: bir tomondan, ochiq axborot maydoni tufayli bilim va tajriba almashinuvi kengayadi; ikkinchi tomondan esa, ma’naviy relativizm, iste’molchilik, individualizm kabi tendensiyalar kuchayadi.

Mazkur maqolada globallashuv davrida pedagogik boshqaruv madaniyati va yoshlar ma’naviy rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalar yoritiladi.

Globallashuv va pedagogik boshqaruv madaniyati tushunchasi. Globallashuv tushunchasi ko‘pincha iqtisodiy integratsiya, bozorlarning ochiqligi, axborot oqimlarining tezlashuvi bilan bog‘lanadi. Biroq u, avvalo, ma’naviy-madaniy makonning ham “kengayishi” va aralashib borishini anglatadi. Boshqa xalqlar madaniyati, qadriyatlari, turmush tarzi, g‘oyalari va ramzlari yoshlar ongiga tez kirib boradi. Bu esa milliy ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘yadi.

Pedagogik boshqaruv madaniyati globallashuv sharoitida quyidagi asosiy komponentlar orqali namoyon bo‘ladi:

– qadriyatlarga yo‘naltirilgan boshqaruv: ta’lim muassasasi strategiyasi va ichki me’yorlarida inson qadr-qimmati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy adolatning ustuvorligini ta’minlash;

– kommunikativ madaniyat: rahbar va pedagoglarning o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar, hamkor tashkilotlar bilan muloqotga kirishishda ochiqlik, empatiya, hurmat va konstruktivlikni namoyon etishi;

– innovatsion boshqaruv: globallashuv sharoitida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, boshqaruvning interaktiv shakllarini maqsadli qo‘llash;

– refleksivlik: boshqaruv qarorlarini baholash, natijalar yuzasidan o‘z-o‘zini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish madaniyatini shakllantirish.

Ta’lim muassasasida pedagogik boshqaruv madaniyati past bo‘lgan sharoitda globallashuvning salbiy ta’sirlariga nisbatan zaif “ma’naviy maydon” vujudga keladi, natijada yoshlar ma’naviy bo‘shliqni tasodifiy axborot, ommaviy madaniyat stereotiplari bilan to‘ldira boshlaydi.

Yoshlar ma’naviy rivojlanishi keng ma’noda quyidagi tarkibiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

– axloqiy kamolot: yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, halollik, adolat, vijdon, mas’uliyat kabi tushunchalarni ongli ravishda qabul qilish;

– intellektual rivojlanish: tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘qish, tahlil qilish, ilmiy-nazariy bilimlarni egallash;

– fuqarolik va huquqiy ong: jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, huquq va burchlar mohiyatini tushunish;

– estetik did va madaniyat: san’at, adabiyot, teatr, musiqa kabi madaniy qadriyatlarni qabul qilish, go‘zallikni his qilish;

– ma’naviy identitet: o‘z milliyligiga, tiliga, diniy va ma’naviy merosiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

Mazkur jarayonning asosiy omillari sifatida oila, ta’lim muassasasi, mahalla, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar guruhi va virtual muhit ko‘rsatiladi. Shular ichida ta’lim muassasasi ma’naviy tarbiyaning rejalashtirilgan va maqsadli tashkil etiladigan maydoni ekanligi bilan ajralib turadi. Bu maydonning qiyofasini esa, avvalo, pedagogik boshqaruv madaniyati belgilaydi.

Globallashuv davrida yoshlar ma’naviy rivojlanishida quyidagi ziddiyatlar kuchaymoqda:

– ma’naviy boylik va iste’molchilik madaniyati o‘rtasidagi ziddiyat;

– milliy identitet va “global identitet” o‘rtasidagi ziddiyat;

– chuqur ilmiy bilish va yuzaki axborot oqimi o‘rtasidagi ziddiyat;

– real muloqot va virtual muloqot o‘rtasidagi disbalans.

Bu ziddiyatlarni bartaraf etish yoki konstruktiv yo‘naltirish bevosita pedagogik boshqaruv madaniyatiga bog‘liqdir.

Pedagogik boshqaruv madaniyati va yoshlar ma’naviy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, maqsadlar darajasi. Ta’lim muassasasining strategik maqsadlari faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashni ham o‘z ichiga olishi zarur. Agar boshqaruv madaniyati ushbu maqsadni aniq belgilasa, barcha tarbiyaviy, o‘quv va tashkiliy faoliyat shu yo‘nalishga safarbar etiladi. Aks holda, “ma’naviy tarbiya” faqat formal shior bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, tashkiliy-madaniy muhit. Pedagogik boshqaruv madaniyati yuqori bo‘lgan ta’lim muassasasida:

– o‘qituvchi-shogird munosabatlari hamkorlikka, hurmat va ishonchga asoslanadi;

– pedagoglar jamoasi ichida sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tajriba almashish madaniyati shakllanadi;

– o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bildirish, tashabbus ko‘rsatish, loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunday muhit yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun tabiiy **“tarbiyaviy fon”** yaratadi.

Uchinchidan, qadriyatlarga asoslangan boshqaruv qarorlari. Rahbar va pedagoglarning qarorlari (o‘quv jarayonini tashkil etish, intizomiy chora, rag‘batlantirish, o‘quvchi tanlovlarini qo‘llab-quvvatlash va hokazo) qanday qadriyatlar asosida qabul qilinayotgani yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar qarorlar adolat, oshkoralik, insonparvarlik tamoyillariga mos bo‘lsa, bu yoshlarning adolat va mas’uliyat haqidagi tasavvurlarini mustahkamlaydi; aks holda esa, ikkiyuzlamachilik, formalizm va ishonchsizlikni kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, globallashuv axborot oqimiga munosabat. Pedagogik boshqaruv madaniyati yuqori bo‘lgan ta’lim muassasasida:

– internet va raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun maqsadli qo‘llanadi;

– ommaviy madaniyat mahsulotlari tanqidiy tahlil qilinadi, yoshlar bilan ochiq suhbatlar va bahslar orqali ularning ma’naviy filtrlash ko‘nikmalari shakllantiriladi;

– milliy va umuminsoniy madaniy merosni targ‘ib qiluvchi media-loyihalar, to‘garaklar, klublar tashkil etiladi.

Bu jarayonlar yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytiradi: ular global axborot oqimidan zarurini tanlab olish, zararli ta’sirlardan himoyalanish, mustaqil fikr bildirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Globallashuv davrida pedagogik boshqaruv madaniyatining quyidagi dolzarb vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi:

– ma’naviy-aksialogik konsepsiyani ishlab chiqish: ta’lim muassasasining ma’naviy qadriyatlar tizimi, tarbiya konsepsiyasi va ichki me’yoriy hujjatlarida yoshlar ma’naviy rivojlanishini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yish;

– pedagoglarni ma’naviy yetakchi sifatida qo‘llab-quvvatlash: ularning ma’naviy-psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, treninglar, seminarlar, mahorat darslari orqali boshqaruv va muloqot madaniyatini rivojlantirish;

– ota-ona, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish: globallashuv sharoitida tarbiyaviy ta’sirning yakkalanib qolmasligini, aksincha, institutsional hamkorlik asosida kengayishini ta’minlash;

– yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash: ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, ilmiy va ijodiy tanlovlar orqali ularning ijtimoiy faolligi va ma’naviy o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish;

– raqamli pedagogik boshqaruvni ma’naviyat bilan uyg‘unlashtirish: elektron jurnal, masofaviy ta’lim, onlayn platformalar bilan bir qatorda onlayn ma’naviy-ma’rifiy dasturlar, vebinarlar, onlayn kitobxonlik loyihalarini joriy etish.

Xulosa. Globallashuv davrida pedagogik boshqaruv madaniyati va yoshlar ma’naviy rivojlanishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayonlar hisoblanadi. Pedagogik boshqaruv madaniyati nafaqat ta’lim jarayonining tashkiliy-texnik jihatlariga, balki ma’naviy mazmuniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashuv yoshlar ongida ma’naviy imkoniyatlar va xavf-xatarlarni bir vaqtning o‘zida kuchaytiradi, bu esa pedagogik boshqaruv madaniyatini yangicha mazmunda rivojlantirishni talab etadi.

2. Pedagogik boshqaruv madaniyati ta’lim muassasasida qadriyatga yo‘naltirilgan maqsadlar, sog‘lom tashkiliy-madaniy muhit, adolatli va insonparvar boshqaruv qarorlari hamda axborot oqimiga tanqidiy yondashuvni ta’minlashi zarur.

3. Yoshlar ma’naviy rivojlanishi oila, ta’lim, mahalla, ommaviy axborot vositalari va virtual muhit ta’sirida shakllansa-da, aynan ta’lim tizimi bu jarayonni strategik boshqaruvchi maydon sifatida alohida o‘rin tutadi.

4. Pedagogik boshqaruv madaniyati yuksak bo‘lgan ta’lim muassasalarida yoshlar ma’naviy identiteti, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy mas’uliyati va ma’naviy immuniteti yuqori bo‘ladi, ular globallashuv ta’siriga ongli, tanqidiy va mas’uliyatli yondasha oladi.

5. Yangi O‘zbekiston sharoitida pedagogik boshqaruv madaniyatini rivojlantirish davlat ta’lim siyosati, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlar va amaliy loyihalarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloni A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – 256 b.

2. Jo‘rayev R. Globallashuv va ma’naviyat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020. – 312 b.

3. Axmedova N. Pedagogik boshqaruv madaniyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 214 b.

4. Karimova V., Usmonov S. Yoshlar psixologiyasi va ma’naviy rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2022. – 198 b.

5. Globalization, Education and Social Change / Ed. by H. Lauder, P. Brown. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 480 p.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Atamirzayev Ibroxim Xakimovich
Namangan davlat universiteti Jinoyat huquqi
va protsessi kafedrasi mudiri, yu.f.d. (PhD)

Ayni vaqtda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, yangi tahdid va tajovuz o‘choqlari ko‘payib, yanada xatarli darajada namoyon bo‘layotgani ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda. Bu esa sohada to‘planib qolgan qator muammolarni hal qilishni taqozo etadi.

Oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasida xalqimizning bebaho ma’naviy boyligi – milliy tarbiya usullari yetarli joriy etilmaganligi jamiyatda mehr-oqibat, oilaviy totuvlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, xotin-qizlarga e’zozning susayishiga olib keldi, yoshlarda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish va davomat jiddiy ijtimoiy muammoga aylandi.

Mamlakatimizda ushbu qayd etilgan holatlarga barham berish, yoshlar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, «jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol qatnashayotgan insonlarni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim»[1]. Ammo, shunga qaramay yoshlar orasida o‘z joniga qasd qilish, giyohvand, alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish, OITS va OIV kasalliklari bilan kasallanish kabi salbiy holatlar saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytish lozim-ki, respublika bo‘yicha yoshlar orasida o‘z joniga qasd va suiqasd qilish, giyohvandlik, surunkali alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish hamda OITS va OIV kasalliklari bilan kasallanish holatlarida o‘sish surati kuzatilgan. Bu avvalo mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mazkur yo‘nalishlarga yetarlicha e’tibor berilmasligi, ularni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar o‘rganilmasligi hamda ularning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi.

Bunday sharoitda yosh avlodning ma’naviy olamini yuksaltirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, uning qiyofasida yuksak axloqiy tamoyillarni shakllantirish masalasi davlatning yoshlarga doir siyosatidagi eng dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda, bugungi kunda ushbu siyosat doirasida zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirgan barkamol

avlodni shakllantirishda ko‘plab omillar qatori, ma’naviy ta’sir usullari va axloqiy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish masalalari ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning bilan bir qatorda, “O‘quvchi-yoshlarni turli ma’naviy tahdidlardan asrash uchun u shakllanayotgan oilaviy muhitning ta’sirini kuchaytirish lozim.

Oila muhitida ota-onalarning mas’uliyatini yanada oshirish, o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda barcha ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari, sinf rahbarlari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining rolini oshirish ayni axborotlashgan davrda o‘ta muhim hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim muassasasi, oila va mahalla ijtimoiy institutlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini kuchaytirish lozim” [2].

Ayni paytda, O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti va Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu masalaga alohida e’tibor berilayotganligi, jamiyat taraqqiyoti va yoshlar kamolotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy omillari bilan birga, uning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy asoslarini yanada mustahkamlash bu sohadagi islohotlarning tarkibiy qismiga aylangani bejiz emas.

Bu nuqtai nazardan, alohida qayd etish joizki, yoshlarga doir davlat siyosati qotib qolgan va hech qachon o‘zgarmaydigan konstantalarning oddiy yig‘indisi emas, balki jamiyat taraqqiyoti va davr talablari ta’sirida muttasil yangilanib, zamonga moslashib boradigan usul va vositalar, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, turli dasturlar majmuidir.

Shu ma’noda, har qanday davrda ham, uning amalga oshirilishi, chuqur dialektik jarayon bo‘lib, muttasil o‘zgarishlar va yangilanishlarni nazarda tutish zarurligini anglatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustivor yo‘nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo‘lib hisoblanadi: «Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz.

Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz»[3].

Ushbu fikrdan ko‘rinadiki, aynan yoshlar siyosatini amalga oshirishda yuksak ma’naviyatli kishilarni, ya’ni ma’nan barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos yoshlarga xos bo‘lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo‘lmaydi. degan chuqur ma’noli so‘zlari bejiz aytilmagani yaqqol ko‘rinadi.

Ushbu so‘zlar o‘tgan asr boshida qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda davlatimizning ushbu sohadagi siyosatida ma’naviy-ma’rifiy jabha va ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, ma’muriy idoralar va mansabdor shaxslar, fuqarolik institutlarining bu yo‘nalishdagi tamoyillar va talablarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga erishish kabilarning ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Aynan ana shularni hisobga olgan holda, Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi Qarorida boshqa masalalar bilan birga yana quyidagilarga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas:

yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, Internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish, el-yurtning sodiq farzandi bo‘lishga rag‘batlantirish;

mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish[4].

Shu bilan birga, bu sohada bugungi kunda yana quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarurati ortib bormoqda:

- mamlakatimizda mavjud bo‘lgan ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim olayotgan va hunar o‘rganayotgan yoshlarning mustaqillik va yuksak ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik hissi va bu boradagi tamoyillarni amalga oshirishda faollik tuyg‘ularini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish;

- nafaqat talabalar, balki bu vazifani amalga oshirishning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan barcha ta’lim muassasalaridagi ustoz-murabbiylarning ma’naviyat sohasidagi savodxonligini yanada oshirish;

- ta’lim tizimi bilan qamrab olinmagan yoshlar qatlamlari orasiga yuksak ma’naviyat tamoyillarini singdirish, targ‘ib va tashviq etish samaradorligini muntazzam oshirib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

- joriy yil uchun mo‘ljallangan davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish doirasida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida yoshlarga doir davlat siyosatining ma’naviy omillari ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan chora va tadbirlarga alohida e’tibor qaratish.

Zero, Abu Mansur Moturudiy ta’kidlaganidek, «Har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini o‘zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta’minlovchi kuch – har bir hayotiy vaziyatda oqilona me’yor, murosaga asoslangan muvozanatni ta’minlay bilish tamoyillariga rioya qila olishdan iborat».[5]

Mamlakatimizda jismonan sog‘lom, ma’naviy va intellektual jihatdan yetuk, mustaqil fikrga ega bo‘lgan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, ularning ta’lim sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan amalga oshirililayotgan ishlar ham ana shu jabhadagi faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash joizki, mustaqil taraqqiyotining ilk kunlaridanoq qonun ustivor bo‘lgan demokratik davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston, hayotning barcha sohalari qatori, iqtidorli yoshlarga doir davlat siyosatida ham o‘ziga xos tamoyillarga amal qilmoqda. Bunda avvalo, bu yo‘nalishdagi davlat siyosatini tashkil qilishning muayyan tarixiy yo‘lini bosib o‘tgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish bilan birga, xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olgan milliy strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurati chuqur anglab olingani muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu nuqtai nazardan, hozirgi davrda yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan yoshlargina butun dunyoda, jumladan mamlakatimizda ro‘y berayotgan jadal innovasion taraqqiyotning eng yuksak talablariga javob bera olishi mumkin. Ana shunday yoshlargina mamlakatning buyuk kelajagini ta’minlashi, mustaqillikni asrab-avaylash va uni mustahkamlashning muhim sharti va garovi sifatida o‘z vazifasini bajarishga qodir avlod bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // URL – http://uzlidep.uz/uzc/news/ demokratik-islokhotlarni-izchil-davom-ettirish-halkimiz-uchun-tinch-va-osoyishta-munosib-khayot

2.Taylakova Sh.N. O‘quvchi – yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish (teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va internet xabarlari misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 22 b.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – Xalq so‘zi, 2016 yil 8 dekabr

4.Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. –T.: To‘qimachilik instituti nashriyoti. 1999. -B. 10.

5.Ulrix Rudolf Al -Moturudiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). -Toshkent: 2002. – 108 b.

YOSHLAR RUHIY HOLATIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI

Atamuxamedova Zuxra Mashrab qizi
“ALFRAGANUS UNVERSITY” talabasi

Hozirgi globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar orasida ularning ta’siri nihoyatda kuchli. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish, muloqot qilish, fikr almashish, o‘zini ifoda etish imkoniyati kengaydi. Shu bilan birga, bu jarayon yoshlarning ruhiy holatiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir

ko‘rsatadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiyatiga ijobiy ta’siri:

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda nafaqat muloqot vositasi, balki o‘zini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish va bilim olish manbai sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, internetdagi ochiq ta’lim platformalari, ijtimoiy media orqali bilim almashish va o‘z-o‘zini rivojlantirish yoshlarning intellektual hamda ijtimoiy kompetensiyalarini oshiradi.[1]

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ta’lim, texnologiya, san’at, fan va xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. YouTube, Telegram, Instagram va TikTok kabi platformalarda mavjud bo‘lgan o‘quv kontentlar, bloglar va motivatsion sahifalar yoshlarni o‘z ustida ishlashga undaydi. Shu orqali ular o‘z maqsadlariga erishish, ijtimoiy faolligini oshirish va ijobiy o‘zgarishlarga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi .[2]

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Ular o‘z asarlari, loyihalari yoki g‘oyalarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, yoshlar orasida musiqiy, grafik dizayn, video yoki matnli ijodiy loyihalar ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashmoqda. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, shaxsiy brend yaratish va o‘z qobiliyatlarini namoyish etish uchun imkon beradi.

Uchinchidan, ko‘plab psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi yoshlarning emotsional barqarorligini oshirishi aniqlangan. Masalan, APA (2023) hisobotiga ko‘ra, onlayn ijobiy fikr almashish va o‘zaro motivatsiya berish jarayoni stressni kamaytiradi hamda o‘zini qadrlash hissini kuchaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar: dunyodagi yangiliklar, fan, texnologiya va madaniyat bilan tanishadi; o‘qish va kasbga oid foydali ma’lumotlar oladi; ingliz tili, IT yoki boshqa sohalarni o‘rganishga ilhomlanadi. Yoshlar turli mamlakatlardan tengdoshlari bilan tanishib, fikr almashadi. Bu esa: ijtimoiy faollikni oshiradi,muloqot madaniyatini shakllantiradi, bag‘rikenglik va hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu ularning intellektual rivojlanishi va ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. Ruhiy qo‘llab-quvvatlash manbai.

Ko‘plab psixologik sahifalar, motivatsion videolar va maslahatlar yoshlarni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Insonlar o‘zini yolg‘iz his qilmaydi, o‘ziga o‘xshagan insonlar borligini biladi va undan unumli foydalanadi.

Salbiy ta’sir va psixologik oqibatlar: Ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish esa ruhiy charchoq, diqqatning susayishi, o‘ziga baho berishdagi o‘zgarishlar kabi holatlarni keltirib chiqaradi.[2] Psixologlar ta’kidlashicha, yoshlarning ruhiy holati ularning ijtimoiy muhit bilan aloqadorlik darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonni kuchaytiradi. Biroq haddan tashqari foydalanish hissiy beqarorlik va depressiv holatlarni kuchaytiradi. [4]

Ham ijtimoiy tarmoqlardan me’yorida foydalanish ijobiy bo‘lsa-da, ortiqcha foydalanish ruhiy charchoq va hissiy toliqishga olib kelishini qayd etadi. Yoshlar ijtimoiy

tarmoqlarda ko’p vaqt o’tkazip o’qish, dam olish yoki sport bilan shug’illanishga vaqt topa olmaydilar bu esa imtizomning pasayishi va maqsad yo’qotilishga olib kelad. Boshqalarning “ideal”hayotni ko’rib, ko’plab yoshlar o’zini ular bilan solishtiradi. Natijada o’ziga ishonchsizlik, norozilik va ruhiy tushkunlik paydo bo’ladi. Negativ kommentlar, kiberbulling (onlayn haqorat), yoki “like” soniga qaramlik yoshlar ruhiyatiga kuchli bosim qiladi. Bu esa tashvish, depressiya va asabiy holatlarga sabab bo‘ladi. Kechasi telefon yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uyqu rejimini buzadi, ko‘z va miya charchashiga olib keladi. Virtual aloqaga haddan tashqari berilish natijasida yoshlar oilaviy va do‘stona munosabatlardan uzoqlashadi. Bu yolg‘izlik hissi va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi. Bu esa ertasi kuni diqqatni jamlay olmaslik va charchoq holatini keltirib chiqaradi. Virtual muloqot ko‘paygani sari real muloqot kamayadi.

Natijada yoshlar yolg‘izlik hissi, emotsional sovuqlik yoki ijtimoiy ajralishni boshdan kechiradi. Ammo nazorat qilinmasa, bu stress, qaramlik va ruhiy muvozanat buzilishiga sabab bo‘ladi. Internet qaramlik — bu insonning internetdan haddan tashqari foydalanishi natijasida hayotining boshqa sohalariga (o‘qish, ish, muloqot, uyqu, sog‘lik va boshqalar) zarar yetkazadigan holatdir.

- Belgilariga quyidagilar kiradi:
- Internetda o‘tkazilgan vaqtni nazorat qila olmaslik;
- Real hayotdagi ishlarni e’tiborsiz qoldirish;
- Internetdan uzoqlashganda bezovtalik yoki asabiylashish;

Virtual muloqot real muloqotdan muhimroq bo‘lib qolishi. Internet qaramlik esa zamonaviy psixologiyada dolzarb muammo bo‘lib, u yoshlarning real hayotdagi muloqotini cheklaydi, emotsional izolyatsiyaga olib keladi. Psixologlar ta’kidlashicha, internet qaramlikni kamaytirish uchun yoshlarni sport, san’at, o‘qish va jamoaviy faoliyatlarga jalb etish samarali natija beradi. [5]

Media savodxonlik va internet qaramlik: Media savodxonlik — bu odamning axborotni tanqidiy tahlil qilish, to‘g‘ri tushunish va undan ongli foydalanish qobiliyatidir. Ya’ni, bu shunchaki yangiliklarni o‘qish emas, balki ularning qayerdan kelganini, qanchalik ishonchli ekanini va nima maqsadda tarqatilganini tushunishdir.

- Media savodxon bo‘lgan odam:
- Yolg‘on yoki manipulyativ axborotni farqlay oladi;
- Reklama va propaganda usullarini taniydi;
- Ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli post yozadi va boshqalar fikrini hurmat qiladi;

Internetdagi ma’lumotlardan foydalanganda shaxsiy xavfsizligini saqlaydi. Yoshlarning ruhiy barqarorligini saqlashda media savodxonlik muhim rol o‘ynaydi. Media savodli shaxs internetdagi axborotni tanlab, tahlil qila oladi, zararli kontentdan himoyalanadi. O’zbekistondagi statistikalar: O‘zbekistonda 2025-yilda e’lon qilingan “mentallik va sog‘-salomatlik” bo‘yicha xalqaro indeksda mamlakat 83 ta davlat ichida 74-o‘rinni egallagan. Mamlakat ballari ~54.5 bo‘lgan, dunyo o‘rtacha ~63 ballga teng. 2025-yilda O‘zbekistonda 18 yosh va undan kattalar orasida ijtimoiy tarmoqlardan

foydalanuvchilar soni ~ 10,3 million ga yaqin bo‘lib, bu 18+ yoshdagi populyatsiyaning ~43.8 %ini tashkil etgan. So‘nggi tadqiqotda O‘zbekistonda “Numerologiya” degan tanlovda emas “Psixologiya” sohasida — ijtimoiy tarmoqlarning 13-18 yoshdagi o‘smirlar ruhiyatiga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib: ularning orasida ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish bilan bog‘liq ravishda “past o‘ziga baho”, “anksiyete” va “ruhiy salomatlikka xavf” aloqasi topilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (rahimahulloh): “Internet va ijtimoiy tarmoqlar — bu zamonaviy qurol. U bilan yaxshilik ham, yomonlik ham qilish mumkin. Uni to‘g‘ri ishlatgan kishi foyda ko‘radi, noto‘g‘ri ishlatgan esa o‘ziga ham, boshqalarga ham zarar keltiradi.” Shuning uchun eng muhim narsa — tarmoqlardan ongli, odobli va mas’uliyatli foydalanishdir.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqsak jtimoiy tarmoqlar hozirgi zamon yoshlarining hayotida muhim o‘rin egallagan. O‘zbekistonda o‘smirlar orasida depressiyaning ko‘payishi jiddiy muammo hisoblanadi va uni bartaraf etish uchun kompleks choralar ko‘rish, ijtimoiy tarmoqlardagi tahdid va zo‘ravonlikka oid kontentni cheklash, yoshlarning ruhiy salomatligiga oid ma’lumotlarni taxlil qilish hamda tarqatish, psixologik yordamga murojat qilish imkoniyatlarini yaratish va boshqa bir qator choralarni tadbiq etish zarur. Bundan tashqari, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazishning salbiy oqibatlari haqida o‘qitish, bilimlarni chuqur o’rgatish zarur ularning haqiqiy hayotda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga undash, oilada va ta’lim muassasalarida ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligida yoshlar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish, ularga professional yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish va ruhiy salomatlik masalalari bo‘yicha xabardorlikni oshirish orqali jamiyatda aqliy salomatlikni yaxshilashga hissa qo‘shish mumkin.

Natijada, ijtimoiy tarmoqlar va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi muvozanatni topish, yoshlarni ruhiy jihatdan sog‘lom va baxtli qilish, ularning kelajagini yanada yorqin qilishga xizmat qiladi. Ular orqali yoshlar bilim oladi, muloqot qiladi, o‘zini ifoda etadi va dunyoqarashini kengaytiradi. Shu jihatdan ijtimoiy tarmoqlar rivojlanish, ijodkorlik va motivatsiya manbai bo‘la oladi. Biroq, ularning salbiy oqibatlari ham mavjud — masalan, internet qaramlik, stress, yolg‘izlik hissi, vaqtni isrof qilish, hamda ruhiy tushkunlik. Bu holatlar yoshlarning ruhiyatiga va kundalik hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun eng muhim narsa — ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me’yorida foydalanishdir. Agar yoshlar internetni bilim olish, ijod qilish va foydali muloqot uchun ishlatsa, u holda ularning ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko’proq yoshlarni kitob o’qishlari o’z ustlarida ishlashlari hamda ishtimoiy faollikni oshrishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Karimova V. M. Psixologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.45s

2. Rasulova D. Yoshlar psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2020 58s

3. Turdiyeva M. Ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri. O‘zbekiston psixologiya jurnali, 2021, №2, 45–52-s

4. Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press, 2014

5. American Psychological Association (APA). Impact of Social Media on Adolescent Mental Health, 2023. 5. Twenge J. iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Happy. Atria Books, 2017.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLATLAR VA MILLIY MUNOSABATLAR

Atavullayev Mirkomil Axmadovich
O’zMU dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Asadov Mirali, Kamolova Gavhar
O’zMU magistlari

Bugungi dunyoning manzarasini kuzata turib, amerikalik taniqli siyosatshunos Samyuel Xantingtonning Uchinchi jahon urushi haqidagi karomati to‘g‘rimikan, degan xayolga ham borasan, kishi. “Mening fikrimcha, – deb yozgan edi u, – yangi shakllanayotgan dunyoda ixtiloflar manbai mafkura ham, iqtisod ham bo‘lmaydi. Insoniyatni ajratib turgan qaltis chegara va asosiy ixtilof manbai madaniyat bo‘lib qoladi. Milliy davlatlar xalqaro munosabatlarda bosh ishtirokchi maqomida qolsa-da, global siyosatning eng yirik ixtiloflari turli millat va tamaddunga mansub guruhlar o‘rtasida yuz beradi. Ushbu tamaddunlarni ajratib turuvchi chiziqlar kelajakda front chiziqlari bo‘ladi”[1].

Biroq, ajablanarliki, milliy-madaniy nizolar alohida jamiyatlar ichida ham sodir bo‘lmoqda. Bunga misol qilib ayrim islom mamlakatlaridagi shia-sunniy ixtiloflarini, Turkiya, Isroil va Hindistonda ko‘p yillardan buyon davom etayotgan, Misr, Suriya kabi arab mamlakatlarida esa keyingi vaqtlarda avj olgan dunyoviy birlashmalar bilan diniy harakatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni, Janubiy Afrika Respublikasida “Afrika renessansi” bois yuzaga kelgan tangliklarni tilga olish mumkin.

Millatchilik va irqchilik keltirib chiqargan ana shu va boshqa fojialar, eng avvalo, ushbu qutqular sababini qat’iy aniqlab olishni taqozo etadi. Har ikki buzg‘unchi kayfiyatning paydo bo‘lish sabablari g‘oyat murakkab va xilma-xil. Mutaxassislar bu borada bir nechta omilni keltiradi. Masalan, Klifford Girs (Sm.: Girs K. Interpretatsiya kultur. – M.: ROSSPEN, 2004) va Jon Xatchinsonlar (See: Hutchinson J. The Dynamics of Cultural Nationalism. Revised edition. – London: Harper Collins, 1994) millatchilikni etnik o‘xshashlikning saqlanishi oqibati deb talqin etsa, Ernest Gellner (Sm.: Gellner E. Natsii i natsionalizm. – M.: Progress, 1991) esa uni sanoatlashuv sharoitidagi siyosiy va madaniy o‘zgarishlar mahsuli deb hisoblaydi. Maykl Xitcher (See: Hechter M. Internal Colonialism: The Celtic Fringe in British National Development, 1536-1966. – Berkeley: University of California Press, 1975) mazkur fenomenni dunyo mamlakatlarining iqtisodiy notekis rivojlanishiga kam taraqqiy etgan chekka hududlar aholisining separativ

javobi deb izohlasa, Erik Xobsbaum (Sm.: Xobsbaum E. Natsii i natsionalizm posle 1780 goda. – SPb: Aleteyya, 1998) uni kapitalistik munosabatlar tufayli milliy davlatchilik qaror topishi natijasi deb tushuntiradi. Nihoyat, Aleksandr King va Bertran Shnayder millatchilikni migratsiyaning tezlashishi hamda ishsizlikning o‘sishi bilan bog‘liq “himoyalanish irqchiligi” deya talqin etadi[2]. Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirgan holda millatchilik va irqchilik kuchayishining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarini qayd etish mumkin.

Ustiga-ustak, hozir irq va millat doirasidan kengroq miqyosdagi ixtiloflar ham avj olmoqda. Chunonchi, ko‘plab siyosatshunoslar g‘arb va islom tamaddunlari o‘rtasidagi ziddiyat bugun real voqelikka aylangani haqida fikr bildirib kelishyapti. Bunday chigal ahvol ushbu muammo ustida jiddiy bosh qotirishni, milliy-etnik ixtilof va ziddiyatlar oldini olish bo‘yicha yalpi chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Xo‘sh, bunda nimalarga e’tibor qaratmoq lozim? Avvalambor, millatlararo ziddiyatlar iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning davomi ekanini yodda tutish zarur. Har qanday davlatning milliy siyosati esa tizim o‘laroq mafkuraviy, iqtisodiy, madaniy unsurlardan iborat. Bundan tashqari, u til, kadrlar, ta’lim-tarbiya, ommaviy axborot vositalari, xavfsizlik singari ko‘p jihatdan o‘zaro tutash masalalarga ham bog‘liqdir. Agar shulardan birontasi nazardan qochirilsa, ziddiyatlar kuchayishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy-etnik munosabatlar yalpi yondashuvni taqozo etadi. Ushbu sohada shoshma-shosharlik bilan bir yoqlama qarorlar chiqarish faqat zarar keltiradi, xolos. Ikki yildirqi, ba’zi Evropa davlatlari rahbarlari bir vaqtlar tanlangan multimadaniy siyosat o‘zini oqlamagani va barbod bo‘lgani haqida gap sotmoqda. Aslida esa, Yevropoda milliy-etnik munosabatlar keskin tus olishiga puxta o‘ylanmagan migratsion siyosat, hal etilmayotgan ijtimoiy muammolar va yana bir qator omillar sabab bo‘lmoqda. Ba’zan esa buning ortida muayyan siyosiy kuchlarning “o‘yin”i turgani ham rost. Chunonchi, bunday kuchlar tolerantlik niqobi ostida xudbin geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo‘layotganini payqash qiyin emas. Bunday “o‘yin” ning oxiri, avvalambor, uni tashkil etganlar uchun voy bo‘lishi shubhasiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, milliy masala va dinlararo munosabatlar ham davlatning, ham jamiyatning doimiy e’tiborini talab etadi. Birinchi Prezidentmiz Islom Karimov 2012 yil 9 mayda “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan bergan intervyusida jahondagi ba’zi davlat va mintaqalarda millatchilik kayfiyati kuchayib borayotgani, bu esa mudhish oqibatlarga olib borishi mumkinligi haqida gapirar ekan, bunday tahdidlarni darhol payqab, tezda bartaraf etish bugungi kun talabi ekanini ta’kidlab, jamoatchilikda ushbu ofatga nisbatan hushyorlikni oshirish lozimligini alohida uqtirdi. Zero, millatchilik va ekstremizm “urug‘i”, odatda, kishilar ular haqida etarli bilim va ma’lumotga ega bo‘lmagan, bu qutqularga o‘z munosabatini aniq belgilab olmagan muhitda tez ildiz otadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kezlardanoq millatlararo totuvlikni mustahkamlash, ona diyorimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar rivoji uchun teng sharoit yaratish davlat milliy siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

Xususan, 1992 yil 13 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika baynalmilal madaniyat markazini tuzish to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi. Ushbu Qaror mustaqillik davrida hukumatimiz qabul qilgan ilk hujjatlardan biri edi. Bugun millatlararo totuvlikni mustahkamlashga doir bir qancha qonunlar ishlab chiqilib, ular ijrosi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilgani, qolaversa, olis davrlardan xalqimiz qon-qoniga singib ketgan o‘zga millatlarga nisbatan xayrixohlik, bag‘rikenglik tuyg‘usi bois yurtimizda osoyishtalik, barqarorlik hukm surmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu borada shunday deyiladi: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi.

Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi.

Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”[3]. Alohida qayd etish lozimki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi va Yurtboshimiz mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusini 2017-yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida ilgari surgan edi[4]. Ushbu tashabbusning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak baho va e’tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytish joizki, millatchilik va shovinizm kayfiyatining kuchayishi-yu, milliy va diniy ixtiloflarning alanga olishiga turli-tuman, ba’zan hatto arzimasdek tuyulgan omillar ham sabab bo‘ladi. SHunga ko‘ra, ushbu muammo davlatning ham, jamiyatning ham muntazam e’tiborini talab qiladi va puxta o‘ylangan oqilona siyosat yuritishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка // Новая постиндустриальная волна на Западе: Антология / Под ред. В.Л.Иноземцева. – М., 1999.

2. Alexander King and Bertrand Schneider. The first global revolution: a report by the council of the club of rome – bombay: orient longman, 1993.

3. Мирзиёев Ш.М. Мамлакат ривожидаги истиқболли вазифалар. (Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатаси аъзоларига 2018 йилда амалга оширилган асосий ишлар якуни ва Ўзбекистон Республикасини 2019 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Мурожаатнома). /https://kun.uz/99444746

4. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018.

ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISHNI INTEGRATSION IMKONIYATLARI

Avezov Umidjon Sharifovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya xodimi

Bugungi dunyoda tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar, ilmiy-texnik va texnologik bilimlarning amaliy qo'llanilishi tobora ko'proq ijtimoiy hayot manbai va uning jismoniy va ma'naviy salomatligi manbai bo'lib bormoqda. Mahalliy fanning rivojlanish darajasi va sur'ati ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion faoliyatning samaradorligi va sifatini, milliy xavfsizlikni, siyosiy, huquqiy va ma'naviy madaniyatning holatini, shuningdek, shaxslar va jamiyatning salbiy tabiiy va antropogen omillar ta'siridan xavfsizligini belgilaydi.

Ob'ektiv dunyo haqidagi bilim ijtimoiy amaliyotga asoslanadi va unga asoslanadi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichlarida voqelikni bilish odamlarning mehnat faoliyatiga bevosita bog'langan. Jamiyat rivojlanib borgan sari ishlab chiqaruvchi kuchlar va ijtimoiy mehnat taqsimoti (shuningdek, inson ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari) o'sib boradi, bilish jarayoni murakkablashadi va fan uning eng muhim omiliga aylanadi. Fan nafaqat nazariy bilimlar to'plami sifatida, balki inson ijtimoiy faoliyatining ma'lum bir sohasida sodir bo'ladigan bilish jarayoni sifatida ham qaralishi kerak. Fan ijtimoiy ma'naviy ishlab chiqarishning o'ziga xos shakli - ob'ektiv ravishda haqiqiy, tizimlashtirilgan bilimlarni ishlab chiqarishdir. Shuning uchun fan nafaqat insoniyat jamiyati tomonidan saqlanib qolgan va foydalaniladigan bilimning o'zi, balki ushbu bilimlarga erishishga qaratilgan muayyan ijtimoiy guruhlar va jamoalarning faoliyati hamdir.

Ilmiy bilim, ma'naviy element bo'lib, o'zining tizimli, mantiqiy jihatdan tashkil etilgan va nazariy tabiati bilan ajralib turadi. U ob'ektiv qonuniyatlarni, muhim jihatlarni va tabiiy va ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi nazariy tizimlarni ifodalaydi. Bu bilim ijtimoiy xususiyatga ega; u inson faoliyatining mahsulidir va jamoat boyligidir. Insoniyat uchun ochiq bo'lishi uchun ilmiy bilim moddiy shaklda, til, lingvistik va ramziy mavjudotlar shaklida ifodalanishi kerak.

Zamonaviy fan barcha oldingi davrlar fanidan nafaqat bilim doirasi va mazmuni, ilmiy faoliyat va tashkilotning tabiati, balki jamiyat va shaxslarning moddiy va ma'naviy hayotiga (shu jumladan, ta'lim) integratsiyasi va insoniy munosabatlar va qadriyatlar tizimidagi ahamiyati bilan ham sifat jihatidan farq qiladi.

Fan, oliy ta'lim va sanoat o'rtasidagi ob'ektiv ravishda paydo bo'layotgan o'zaro ta'sirlar hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning kuchayishi, bir tomondan, moddiy va intellektual ishlab chiqarishning tobora ijtimoiylashishi va jamiyatimizning moddiy-texnika asoslarini innovatsion paradigma doirasida takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, unda fanning moddiy komponentlari va malakali kadrlar tayyorlash o'ziga xos yangi va ustuvor elementni ifodalaydi. Boshqa tomondan,

ular o'tish davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy yaxlitligining o'sib borishi, globallashuvning yangi muammolari va jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari va vazifalarining o'zgaruvchan ierarxiyasi, jumladan, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ilmiy va ta'lim standartlarini oshirish va mehnatning ijodiy tabiatini oshirishga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiyaning ortishi bilan bog'liq.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini barqarorlashtirish muammosining muvaffaqiyatli yechimlari, birinchi navbatda, mutaxassislarning nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasiga va ularning o'z ishlari uchun yuqori fuqarolik va vatanparvarlik mas'uliyatiga bog'liq. So'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda belgilangan oliy ta'limni modernizatsiya qilish dolzarb ijtimoiy vazifalardan biridir. Oliy kasbiy ta'lim islohotining asosiy yo'nalishi va asosiy omili uning fan va sanoat bilan chambarchas bog'liqligi va o'zaro ta'sirning yangi tamoyillariga o'tishdir. Nafaqat umumiy ilmiy va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, balki mutaxassislardan milliy iqtisodiyotda foydalanishni ham yaxshilash, innovatsion iqtisodiy rivojlanish sharoitida ularning ishining motivatsiyasi va nufuzini oshirish zarur. Modernizatsiya zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimini yaratish ishining asosiy jihati bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim ilmiy va ishlab chiqarish taraqqiyotidagi tendentsiyalarni to'g'ri hisobga olishi va texnologiya va muhandislikni yangilashda faol ishtirok etadigan, munosib avlodni yaratish va ilmiy kadrlarni almashtirishda faol ishtirok etadigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashi kerak. Oliy ta'lim tizimi ushbu funktsiyalarni faqat buyurtmachi sanoat tarmoqlari va biznes vakillari yordamida, fan bilan yaqin hamkorlikda muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlay oladi. Ta'lim (ayniqsa, oliy texnik ta'lim) fan va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi muhim bo'g'in hisoblanadi. U fanning ishlab chiqarishga kirib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini va sezilarli darajada akademik va sanoat tadqiqot muassasalarini hamda ta'lim sohasining o'zini kadrlar bilan ta'minlash uchun kadrlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Fan ishlab chiqarish va ta'limni, ishlab chiqarish fan va ta'limni, ta'lim esa ijtimoiy institut sifatida ishlab chiqarish va fanni rivojlantiradi, intellektual kadrlarning ko'payishini ta'minlaydi va fan rivojiga hissa qo'shadi. Shuning uchun, fan va ishlab chiqarish bilan birlik hozirda oliy kasbiy ta'lim tizimining uyg'un rivojlanishida va uning asosiy vazifalari va funktsiyalarini yuqori sifatli bajarishda muhim omilga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy ishlab chiqarish oxir-oqibat barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlar fanni eng muhim darajada tavsiflaydi, uning asosiy xususiyatlari va rivojlanish xususiyatlarini belgilaydi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida inson faoliyatining ilgari bir-biridan farqli bo'lgan uchta muhim sohasini birlashtirgan "fan - oliy ta'lim - ishlab chiqarish" tizimi ob'ektiv ravishda shakllanmoqda. Ushbu tizim globallashuv davrida ilmiy, texnologik va ijtimoiy taraqqiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion salohiyatning to'planishi sifatida bizga uni ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida tahlil qilishning ma'lum istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-sonli qonuni. www.lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh. M. Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!: zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasida so‘zlagan nutq, 29-dekabr 2022-yil [Elektron resurs]. – URL https://president.uz/uz/lists/view/5921 (murojaat qilingan sana: 10.05.2025).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/5085999 (murojaat qilingan sana: 11.05.2025).
4. Shermuxamedova N. A. Falsafa: Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2017. – 400 b.
5. Kalinovskiy, Yu.I. Filosofiya obrazovatelnoy politiki / Yu.I. Kalinovskiy. – M., 2000. – S. 540.

DINIY SEKTALARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA SALBIY TASIRI

Axmedov Ergash Kuldashevich
Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar”
kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi mafkuraviy jarayonlarda insonlarning ongi va qalbini egallash uchun olib borilayotgan kurash ma’naviy ta’sir ko’rsatishni birinchi rejaga olib chiqdi. Ushbu kurashda noan’anaviy diniy sektalar milliy ma’naviyatlar hamda an’anaviy qadriyatlarga qarshi kurashmoqda. Chunki har qanday milliy ma’naviyat asrlar davomida yaratiladigan ahloqiy qadriyatlarga tayanib, biron-bir xalqqa unga yot ijtimoiy tushunchalarni singdirishga harakat qilayotgan kuchlar uchun jiddiy to’siq hisoblanadi. Shuning uchun ham mafkuraviy urushning eng birinchi vazifasi milliy ma’naviyatni kuchsizlantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda ma’naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlar natijasida ma’naviy qashshoqlashuv yuz berayotgani, millatlarning milliy qadriyatlari, o’ziga xos yashash tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Dinning milliy ma’naviyat bilan uzviy bog’liqligini hisobga oladigan bo’lsak, insonlarning o’z dinidan boshqa dinga e’tiqod qilishga o’tishi milliy ma’naviyatdan uzilib qolishiga olib keladi. Diniy sektalarning missionerlik harakati natijasida milliy ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, an’anaviy din va e’tiqod tizimiga putur yetkazilib, oqibatda insonlarning o’z milliy ma’naviyatidan begonalashuviga sabab bo’ladi. Ana shu jihatdan diniy sektalar milliy ma’naviyatga tahdid sifatida namoyon bo’ladi. Yoshlarning vayronkor sektalar ta’siriga tushib qolishi milliy-ma’naviy taraqqiyot uchun jiddiy xavf bo’lib, milliylikka daxldorlik xissi yo’qolgan loqayd insonlar tufayli ma’naviy

qashshoqlik kuchayadi, fikr qaramligi ortib boradi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Eng katta xavf – loqaydlik va beparvolik”[1] – deb ta’kidlaydi.

Vayronkor sekta bu an’anaviy dindan ajralib chiqqan, yoki ularga muxolif bo’lgan, o’z a’zolarining roziligisiz ularning ongi, xatti-harakatlari va hayoti ustidan nazorat qilish orqali noqonuniy boylik orttirish va cheksiz hokimiyatga ega bo’lish uchun sodiq va qaram tarafdorlar to’plashni ko’zlovchi, jamiyat manfaatlariga to’g’ri kelmaydigan, yopiq avtoritar diniy tashkilotdir. Bunday sektalar jamiyatda o’rnatilgan ijtimoiy me’yorlar, tartib va madaniyatga qarshi yo’naltirilgan tajovuzkor harakatlarni amalaga oshiradi, xatto oilani o’zlariga dushman deb biladi. Shu sababli, adeptlarga tanlov qilish huquqini bermaydigan, ruhiy va jismoniy sog’lig’iga zarar yetkazadigan, soxta din xususiyatlariga ega bo’lgan vayronkor sektalar jamiyat barqarorligiga tahdid soladi.

Totalitar sektalarda diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshiriladi. Bunday sektalarning ba’zilari dunyoning turli burchaklarida o’z bo’linmalariga ega bo’lgan, biznes bilan shug’ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylangan. Ular tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. Yuqoridan pastga ko’rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga - hisobotlar va pul yuborish aksariyat vayronkor sektalarga xos xususiyatdir. Totalitar sektalarning ko’pchiligi noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. Bunday sektalarning missionerlik faoliyati nafaqat an’anaviy diniy konfessiyalarning manfaatlariga, balki davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdid soladi.

Bugungi kunda vayronkor sektalarning o’z maqsadlarini amalga oshirishda ma’naviyat omilidan foydalanishi strategik vazifaga aylantirildi. Buning asosiy sabablari: a) ma’naviyatdan mahrum etilgan inson, millat, xalq va mamlakat o’z-o’zidan o’zgalarga itoakor bo’lib qoladi. Shuning uchun ham bugun milliy ma’naviyatlar tahdidlar ob’ektiga aylangan; b) milliy ma’naviyat bir tomondan millatning dunyoqarashi, ongi va tafakkurining in’ikosi bo’lsa, ikkinchi tomondan ularni shakllantirish va rivojlantirishning manbai hisoblanadi. Millatni ulardan mahrum etish, o’rniga o’zga ma’naviyatlarni singdirish millatni o’ziga qaram qilish imkoniyatini beradi; v) bugungi kunda harbiy qurollar bilan o’zga mamlakatlarning zahiralarini egallashning xatarli tus olayotganligi bilan bog’liq. Chunki har qanday qurolni ishga tushirishda nafaqat unga ega bo’lmaganlar, shuningdek undan foydalanishni maqsad qilganlarga ham katta fojealar olib kelishi mumkinligi ayon bo’layotganida; g) qurol yordamida ko’rilgan zararlarning o’rnini ma’lum vaqtda qoplash mumkinligi, ammo ma’naviyatni barbod qilish, uning asosiy elemetlari bo’lgan ong, ruhiyat, dunyoqarash va qalb egallansa ularni qayta tiklash murakkab muammo ekanligi bilan bog’liqdir; d) bugun asosan g’arbda paydo bo’lgan vayronkor sektalar tomonidan dunyoda targ’ib qilinayotgan missionerlik g’oyalari yer yuzidagi butun insoniyatni itoatda bo’lishini ta’minlashga qaratilgan g’arb siyosatchilari tomonidan qo’llab-quvvatlanmoqda. Ular ma’naviyat vositasida dunyoda o’z hukmronligini o’rnatishni maqsad qilganligini alohida ta’kidlash lozim bo’ladi.

Noan’anaviy diniy harakatlarning zamonaviy rus jamiyati ma’naviy xavfsizligiga destruktiv ta’sirini o’rgangan tadqiqotchi A.N.Sirovatkin: “Bunday harakatlarning paydo

bo’lishi uchun dialektik zarurat mavjudligini ta’kidlab, ularning aksariyati halokatli ekanligini va rus jamiyatining ma’naviy xavfsizligiga tahdid solishini xisobga olmaslik mumkin emas” [2, 3 b.], - degan fikrni bildiradi. Professor V.Chernishev: “Ko’plab buzg’unchi sektalarning ta’limoti va faoliyati insonning ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda” [3],– deb ta’kidlaydi. Tahlilchi I.Polonskiyning fikriga ko’ra: “Sektalardan milliy madaniyatni yo’q qilish uchun foydalanishi mumkin. Xech kimga sir emaski, biror sekta yoki diniy oqim safiga qo’shilgan odam o’zini milliy hamjamiyati bilan bog’liq deb xisoblamaydi. Sekta nafaqat uning oilasi o’rnini, balki o’z xalqi, millati, vatanining o’rnini egallaydi”[4]. Leningrad va Ladoga mitropoliti Ioann (Ivan Matveevich Snьichyov)ning ta’kidlashicha, ma’naviy totalitarizmning maqsadi ham xuddi siyosiysiy totalitarizmniki kabi odamlar ustidan hukmronlikni qo’lga olishga qaratilgan, faqat buni diniy aqidalar yordamida amalga oshiradi[3]. Darhaqiqat totalitar sektalarning missionerlari qanday bo’lmasin, davlatning, millatning kelajagi bo’lgan yoshlarni buzish, to’g’ri yo’ldan adashtirish va shu tariqa mamlakatni ma’naviy tanazzulga uchratish oqibatida ma’naviy totalitarizmni o’rnatishga urinmoqda. Bu o’z navbatida ularni qo’llab-quvvatlayotgan taraqqiy topgan mamlakatlarning endi rivojlanayotgan davlatlarni o’zlariga qaram qilishiga imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ular ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda aniq rejalar asosida dunyoda yashayotgan millatlar va xalqlar ustidan ma’naviy hukmronlikni amalga oshirishga intilmoqdalar. Ma’naviy hukmronlik esa taraqqiy qilgan mamlakatlarga o’zligidan mahrum bo’lgan, ma’nan qashshoq, manqurt bo’lgan olomonni shakllantirish imkonini beradi. O’zligidan mahrum bo’lgan olamon o’zgalarga osongina itoat qiladi va ularning izmidan yurishga majbur bo’lib qoladilar.

Yoshlar ma’naviyati jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi ekanligini hisobga olganimizda turli vayronkor sektalar tomonidan amalga oshirilayotgan missionerlik harakatining yoshlar ongi, dunyoqarashi va qalbini egallashi jamiyat hamda mamlakatda tuzatib bo’lmaydigan keng ma’nodagi ma’naviy inqirozni ham vujudga keltiradi. Sektalar ta’sirida uzoq vaqt bo’lganlar ko’p jixatdan bir-biriga o’xshash bo’lib qoladi, fikrlash qobiliyatining pasayishi, psixologik rivojlanishning sekinlashishi, ruhiy quvvat va oqilona-mantiqiy fikrlashning zaiflashuvi, aybdorlikni sezish, qo’rquv, ishonchni yo’qotish natijasida ular o’zligidan mahrum bo’lgan “manqurt”ga yoki o’z jamoasi yetakchilariga so’zsiz itoat etuvchi “biorobotlar”ga aylanib qoladi. Yoshlarning vayronkor sektalar ta’siriga tushib qolishining ko’payishi jamiyat barqarorligiga, mamlakat xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday sektalar tomonidan targ’ib qilinayotgan g’oya va aqidalar yoshlar ongi va qalbidan o’rin olgudek bo’lsa, e’tiqod darajasiga ko’tariladigan bo’lsa, milliy ma’naviyat barbod bo’ladi, oxir-oqibatda millat o’zgalarga qaram bo’lib qoladi.

O’rganish va tahlillar natijasida quyidagi xulosalarni o’rtaga qo’yish mumkin:

–Diniy sektalar xalqlarning milliy va diniy negizlaridan judo qilib, uning o’rniga o’zlarining e’tiqodi, g’oya va qarashlarini insonlar ongiga singdirmoqda. Natijada, milliy-ma’naviy taraqqiyotga, jamiyat xavfsizligi va mamlakat barkarorligiga tahdid solmoqda;

–Faol missionerlik harakati bilan shug’ullanuvchi sektalarning faoliyati nafaqat milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti, shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotga ham jiddiy havf tug’diradi. Afsuski, bugungi kungacha yurtimizda diniy sektalar masalasi ilmiy jihatdan tadqiq qilinmagan, uning inson va jamiyatga o’tkazadigan ta’siri o’rganilmagan. Bu esa o’z navbatida sektalar tahdidining ko’lamini, ularning milliy ma’naviyatga o’tkazayotgan salbiy ta’sirini anglab yetishni murakkablashtiradi.

–Sektalar tahdidi va oqibatlarini o’z vaqtida anglash murakkab hisoblanadi. Chunki sektalarning missionerlik harakati to’g’ridan-to’g’ri ochiqchasiga hujum qilmaydi, balki zimdan harakat qilib dastlab ong va dunyoqarashni zaiflashtiradi, insonlarning diniy e’tiqodiga ta’sir o’tkazib ularning ruxiyatini zabt etadi, undan keyin esa asosiy maqsadni amalga oshirishga kirishadi. Ushbu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi va oxir-oqibatda inson va jamiyat ma’naviyatining yemirilishiga olib keladi.

– Chetdan kirib keladigan e’tiqod va madaniyatni targ’ib etadigan, milliy ma’naviyatimizga rahna solish orqali milliy o’zlikni anglashga putur yetkazadigan totalitar sektalarning tahdididan fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni habardor qilish zarur. Buning uchun ta’lim va tarbiya ishlarini oqilona yo’lga qo’yish, ayniqsa, milliy tarbiyani tobora avj olayotgan tahdidlarning oldini olishga qodir bo’ladigan darajada tashkil etish va uni amalga oshirishimiz kerak bo’ladi. Chunki milliy tarbiya millatni asrab qolishning muhim omillaridan biridir.

Xulosalar asosida diniy sektalar tahdidining oldini olishga qaratilgan quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratilishi zarur deb hisoblaymiz:

–Diniy konfessiyalar va etnik guruhlar o’rtasida sog’lom muloqot muhitini yaratish, jamiyatda milliy g’oya asosida barcha millatlarning jipsligini hamda barqaror kelajagini ta’minlashga e’tiborni kuchaytirib, noqonuniy diniy faoliyat va vayronkor sektalarning missionerlik harakatiga qarshi kurashishda diniy konfessiyalar bilan birgalikda huquqni muhofaza qilish organlari, turli davlat va jamoat tuzilmalarining sa’y-harakatlarini birlashtish va safarbar qilish;

–Jamiyatda vayronkor sektalar faoliyatiga oid ijtimoiy-huquqiy siyosat ishlab chiqilishi, missionerlik harakatlari to’g’risidagi qonunni qabul qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mavjud qonunchilikni takomillashtirish, qonunchilikka diniy sekta, totalitar sekta tushunchalarini kiritish, vayronkor sektalar tomonidan amalga oshiriladigan missionerlik harakatining jinoiy tarkibini aniqlashtirish va tartibga solish zarur. Shu bilan birgalikda, vayronkor sektalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish, ochish va ularga barham berishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maыsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев: Энг катта хавф – лоқайдлик ва бепарволик // http://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-eng-katta-xavf-loqaydlik-va-beparvolik_235418

2. Сироваткин А.Н. Деструктивное влияние нетрадиционных религиозных движений на духовную безопасность современного российского общества //

диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук: 09.00.11 – Пятигорск 2013.

3. Чернишев В. Секта и личность: психологические механизмы влияния // https://pravlife.org/ru/content/sekta-i-lichnost-psihologicheskie-mehanizmy-vliyaniya

4. Полонский И. Секты как угроза национальной безопасности России. Военное обозрение. // https://www.topwar.ru/82297-sekty-kak-ugroza-nasionalnoy-bezopasnosti-rossii

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “ATVOQ-UZ ZAHAB” ASARIDA INSON MA’NAVIY KAMOLOTI VA AXLOQIY FAZILATLAR TALQINI

Aytbayev Mansurbek Yusupovich
International school of finance technology
and science instituti dotsenti, f.f.d. (DSc)

Insonning haqiqiy boyligi uning odobi va qalb pokligida

Bugungi globallashuv jarayonida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarib borishi, yoshlar tarbiyasida ma’naviy mezonlarga ehtiyojning kuchayishi Mahmud az-Zamaxshariy merosini ahamiyatini yanada oshirmoqda. “Atvoq uz-zahab fi-l-mava’iz va-l-xutab” ya’ni “Nasihat va hutbalarning oltin shodalari” nomli asarida ilgari surilgan halollik, kamtarlik, sabr, adolat va ilmga intilish kabi fazilatlar hozirgi jamiyat uchun ham muhim tarbiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, asarning lug‘at qismi nasriy, hikmatli so‘zlar qismi esa, nazmiy uslubda bitilgan bo‘lib, bu qismlar alohida mustaqil asarlar sifatida ham talqin qilinadi. Jumladan, asarning lug‘at qismining dunyo fondlarida aniqlangan 70 ta qo‘lyozmasi mavjud. I.M.Babanazarovning keltirishicha, “Germaniyaning 30 ga yaqin kutubxonalarida, Amerika Qo‘shma Shtatlarining 25 dan ortiq kutubxonalarida, shu bilan birga Kanada, Fransiya, Sloveniya, Isroil, Ispaniya va Janubiy Afrika Respublikasi kutubxonlaridan joy olgan Mahmud Zamaxshariyning “Atvoquz zahab fil mavoi’z val xutab” asari G‘arb olimlari tomonidan jahon adabiyotining yuksak namunasi va nodir san’at asari sifatida e’tirof etilgan”. Asarning yozilish tarixi haqida manbalarda turlicha qarashlar uchraydi. Xususan, “Adab ilmining amaliy namunasi bo‘lgan mazkur asar zuhd va chiroyli axloqqa, yomonliklarni tark etish va yaxshilikka buyuruvchi nasihat va ko‘rsatmalardan iborat yuzta maqolat (turli mavzudagi hikmatli adabiy parchalar)ni o‘z ichiga oladi. “Atvoquz zahab fil mava’izi val xutab” asarining yozilishi ajib bir holat bilan bog‘liq. Ulamolar orasida “Jorulloh” (Ollohning qo‘shnisi) nomi bilan tanilgan Zamaxshariyning bu kitobi Ka’ba tavofi asnosida dunyoga kelgan. U zot Ka’bani har tavof qilganida bitta maqolatni qog‘ozga tushirib, shu tarzda maqolalar sonini yuzga to‘ldirgan”. Fozil Zohidning “Zamaxshar tasbehi” asarida maqolatlar soni bir yuz bitta ekanligi keltiriladi. Bu asarni yozishdan maqsad, eng avvalo, musulmon kishisini sabr-toqat,

qanoat, saxovat, ota-onaga, kattalarga ehtirom, mehr-oqibat, do‘stlik kabilar haqida fikr yuritish bo‘lgan.

Mahmud Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab” asari Markaziy Osiyo va yondosh mamlakatlarda odobli, ziyoli, ilmli, komil insonning shakllanishiga xissa qo‘shishi maqsad qilingan asarlardan biridir. Asarning birinchi maqolasida Zamaxshariyning gnesologik qarashlarida, ilmni insonning otasi, taqvoni esa uning onasiga qiyoslaydi: “Ilm otadir va bu yomonlikni tuzatuvchi eng yaxshi narsadir. Taqvo esa onadir, to‘g‘rirog‘i, qalbga eng yaqin narsa shudir. Shunday ekan, ulardan panoh topib, o‘zingizni himoya qiling”. U ilm va taqvoning (dinga sadoqat yoki ehtirom) hayotdagi yomonliklar, aniqrog‘i, qiyinchiliklar yoki salbiy holatlarni hal qilish va tuzatishdagi ahamiyatini ta’kidlar ekan, ilmni otaga qiyoslar ekan uning asosiy va yo‘naltiruvchi kuch ekanligini ko‘rsatadi. Mutafakkirning ushbu so‘zlari hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi, ilm doimo bilim, ratsionallik va taraqqiyotni ifodalaganidan ma’lum. Zero, ilm-fan jaholatga, yovuzlikka va turli ijtimoiy muammolarga qarshi kurashda kuchli vosita sifatida qaraladi. Keltirilgan parchada taqvo onaga qiyoslanishi uning xuddi ona kabi tarbiyalash, axloqiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va yordam berish xususiyatidan kelib chiqadi. Umuman olganda, qalbga eng yaqin turuvchi taqvo ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni ham ifodalaydi.

Beshinchi maqolada Zamaxshariy insonlarni ijtimoiy birdamlik va yakdillikka chorlaydi, hamda insonlarni bir-birining dardini, g‘amlarini yengil qilish uchun mehr-oqibat, donolik ko‘rsatishi kerakligiga ishora qiladi. “Ey otam va onamning o‘g‘li! Otalar va onalar haqida gapir. Qabila oqsoqollari, muhtaram do‘stlar, uzoq-yaqin qo‘shnilar, tiz cho‘kib o‘tirib, bir-birimizning dardimizni, qayg‘ularimizni yengil qilish uchun harakat qilaylik, mehr-oqibat va donolik bilan bir-birimizdan foyda ko‘radigan insonlar haqida gapirgin”. Mutafakkir o‘quvchiga birodar, uka sifatida murojaat qilib, o‘z so‘zlarini “ey otam va onamning o‘gli” deb boshlaydi. Islomda ota-onaga hurmat va itoatga katta e’tibor beriladi. Qur’oni Karimda “Va insonni ota-onasiga yaxshi muomala qilishni buyurdik” (46:15) deyilishi ham beji emas. Farzandlar ota-onasini hurmat qilishlari, izzatda bo‘lishlari va ularga g‘amxo‘rlik qilishlari kerak, ayniqsa keksalikda. Asarda shuningdek, musulmon jamoalaridagi keksalarga katta hurmat bilan qarash ham aks etgan bo‘lib, Qur’on va hadisi shariflarda keksalarni e’zozlash, ularning nasihatlarini tinglash, duolarini olishga alohida urg‘u berilgan. Zamaxshariy musulmonlarni do‘stlari va qo‘shnilariga mehmondo‘st va mehribon bo‘lishga, qiyin paytlarda yordam va ko‘mak berishga, bir-birlarining dardi va qayg‘ularini yengil qilishga, bir-birlarining quvonch va muvaffaqiyatlariga sherik bo‘lishga da’vat etgan.

Asarda insonning ma’naviy o‘sish yo‘llari, fikr va his-tuyg‘ularining tarbiyasi muhokama qilinadi. Ma’naviy kamolot jarayonida insonning ichki kuchi va sabr-toqati haqida so‘z yuritiladi. Inson o‘zi va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Nafsga berilish insonning eng katta dushmani sifatida ko‘rsatiladi. Zamaxshariy uni hech qachon to‘liq yengib bo‘lmasligini, lekin unga taslim bo‘lmaslik kerakligini ta’kidlaydi. Zamaxshariy ma’naviy yetuk odamni boshqalarning dardini tushunadigan, yordam berishga tayyor shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu sifatni komillikning

belgisi deb biladi. Tarbiya, halollik, sabr, adolat va ilmga intilish inson kamolotining ajralmas bo‘laklari hisoblanadi. Bu fazilatlarning har biri alohida ahamiyatga ega bo‘lsada, ular bir-birini to‘ldirib, ma’naviy barkamol shaxsni shakllantiradi. Odamning o‘zini boshqara bilishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, haqiqatdan og‘ishmasligi va ilmga chanqoqligi uning hayotiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu sifatlar uyg‘unlashganida, inson nafaqat o‘zining, balki atrofidagilarning ham manfaatini ko‘zlaydigan, jamiyatga foydali shaxs darajasiga ko‘tariladi.

Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, Mahmud Zamaxshariyning “Atvoq-uz zahab” asari inson ma’naviy kamoloti va axloqiy fazilatlarining hayotiy ahamiyatini yoritib beradigan muhim manbalardan biridir. Asarda ilgari surilgan halollik, sabr, adolat, kamtarlik va ilmga intilish kabi fazilatlar nafaqat muallif yashagan davr uchun, balki bugungi jamiyat uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Zamaxshariy insonning komillikka erishish yo‘li, avvalo, o‘zini tarbiyalashdan boshlanishini ta’kidlaydi. Shaxsning fikrlashi, o‘zini boshqara bilishi, boshqalarga mehr-oqibat ko‘rsatishi va haq yo‘ldan og‘ishmasligi komil inson mezoni sifatida talqin etiladi. “Asarning o‘zagi shundan iboratki, ma’naviy yetuklik insonning ichki dunyosini poklaydi, jamiyatdagi munosabatlarni esa mustahkamlaydi.” Shu bois “Atvoq-uz zahab”dagi hikmatlar bugun ham tarbiyaviy qadriyat sifatida o‘rganishga, hayotga tatbiq etishga arziydi. Zamaxshariy merosi shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya va ma’rifat yo‘lida ishonchli manba bo‘lib, har bir avlod uchun ma’naviy dastur vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ali Ozbek. Diyanet İslâm Ansiklopedisi (cild 25), el-Keşşâf maddesi. – Ankara, 2002. – S. 329–330.

2. Бабаназаров И.М. Маҳмуд Замахшарийнинг маънавий меросига муносабат ёхуд “Атвоқ-уз-заҳаб”ни ўрганган ғарблик олим// Academic research in educational sciences. - 2021. - 458-459 б. (Volume 2, - issue 5, ISSN: 2181-1385 Scientific JIF (SJIF) 2021: 5.723)

3. Сулаймонова Н.А. Маҳмуд аз-Замахшарийнинг «Атвоқ-уз-заҳаб» асари // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. Илмий мақолалар тўплами (ТДШИ). – Тошкент, 2005. – Б. 224-230.

4. Мирза Юсуфхон ибн Иътисомул-малик. “Қалоидул адаб фи шарҳи Атвоқ уз-заҳаб”, 1314 ҳ., Қоҳира: “Мактабутул Азҳария лит-Турос”. - 154 б.; Бабаназаров И.М. Маҳмуд Замахшарийнинг маънавий меросига муносабат ёхуд “Атвоқ-уз-заҳаб”ни ўрганган ғарблик олим// Academic research in educational sciences. - 2021. - 458-459 б. (Volume 2, - issue 5, ISSN: 2181-1385 Scientific JIF (SJIF) 2021: 5.723)

5. Фозил Зоҳид. Замахшар тасбеҳи. -Т.; Муҳаррир, 2011. – 144 б.

6. Маҳмуд Замахшарий. Атвоқу-з-заҳаб. Қўлёзма. - ЎзРФАШИ №4877. – 68 б.

7. Ali Ozbek. Diyanet İslâm Ansiklopedisi (cild 25), el-Keşşâf maddesi. – Ankara, 2002. – S. 329–330.

TEXNOLOGIK SIVILIZATSIYA TA’SIRIDA ARXETIPLAR DINAMIKASI: INSONDAGI PSIXOREVOLYUTSION O‘ZGARISHLAR

Azamjonova Nozlibegim Dilmurodovna
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Inson ongidagi o‘zgarishlar tarixiy nuqtai nazardan, avvalo, urushlar, qonuniy-siyosiy beqarorlik va iqtisodiy inqirozlar ta’sirida vujudga kelib boshlagan. Bunday davrlarda xavfsizlika bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, ijtimoiy travmalar ortib, ongda ximoya mexanizmlari anchayin mustahkamlashgan. Bu o‘zgarishlar insoniyatning psixikasida uzoq muddatli iz qoldirgan.

Hozirgi davrda esa mazkur omillar bilan birga global axborot oqimi, raqamli muhit va texnologiya inson psixikasiga yangicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlarning shiddatli oqimi, vizual kontentning yuqori chastotada iste’mol qilinishi, virtual identifikatsiya masalalari psixik jarayonlar: kognitiv jarayonlar- xotira, tafakkur, diqqat, idrok, tasavvur, nutq; emotsional holatlar- qo‘rquv, xavotir, quvonch, affektlar, emotsional barqarorlik; irodaviy jarayonlar- qaror qabul qilish, toqat, chidamlilik, motivatsiya; shaxsiylik va qadriyatlar tizimi- identifikatsiya, ma’no, arxetiplar, e’tiqodlar, munosabatlarning qayta qurilishiga olib kelmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan qatlamlar transformatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Manuel Kastells raqamli sivilizatsiyani “tarmoq jamiyati” sifatida tavsiflab, axborot oqimlari inson ongi va ijtimoiy munosabatlarini qayta shakllantirishini ta’kidlaydi [1]

Hozirgi zamonaviy jamiyatda raqamli muhit, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt tizimlarining keng qo‘llanilishi inson ongida yangi turdagi psixik o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu o‘zgarishlarni oddiy psixik transformatsiya jarayoni deb atashimiz ba’zida yetarli bo‘lmasligi mumkin, chunki ular insonning qadriyatlar tizimi, ekzistensial mexanizmlari va ong strukturalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu jarayonni «psixorevolyutsiya» deya shartli ravishda nomlashimiz ham mumkin. Inson ongi va psixikasida kechayotgan tizimli, kompleks va jadal sur’atdagi o’zgarishlarni ilmiy- nazariy tavsifini ifodalaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, psixorevolyutsiya tushunchasi hali psixologiya fanining terminologik korpusiga kirmagan, biroq zamonaviy sivilizatsiyada kechayotgan inson ongining sifat o‘zgarishlarini ifoda etish uchun semantik jihatdan eng yaxshi va maqbul tushuncha sifatida taklif etish mumkin.

Bugungi kunda psixologiya insonning raqamli dunyoda adaptatsiya jarayonidagi murakkab psixologik holatlari bilan to‘qnash kelmoqda. Axborot oqimining jadal sur’ati, uzluksiz stimulyatsiya, ongdagi doimiy zo‘riqish va charchoq holatlari shaxsning psixik tizimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, psixorevolyutsiya – ya’ni inson ongida kechayotgan chuqur psixik transformatsiya jarayonlarini o‘rganish – zamonaviy psixologiyaning eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu jarayonning dolzarbligi faqat psixologik nuqtai nazardangina emas, balki sivilizatsion rivojlanish dinamikasi nuqtai nazaridan xam jiddiy ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda Robin Hansonning «The Great Filter» nazariyasiga ko‘ra har bir sivilizatsiya o‘z rivojlanishida o‘ta xavfli hal qiluvchi bosqichga duch keladi – kimdir undan o‘tadi, kimdir yo‘qolib ketadi. Psixorevolyutsiya ham inson ruhiyati uchun shunday ichki filtr vazifasini bajaradi [2].

Psixorevolyutsiya jarayonini chuqur anglash uchun Karl Gustav Yungning arxetiplar haqidagi ta’limotini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega [3]. Chunki raqamli sivilizatsiya davrida inson ongida kechayotgan o‘zgarishlar, aslida, Yung ta’kidlagan kollektiv ongsizlikdagi arxetipik strukturalarning yangi zamonaviy shakllarda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Psixorevolyutsiya — bu raqamli dunyo, texnologiya va ilm-fan yutuqlari ta’sirida inson psixikasida sodir bo‘layotgan chuqur va tezkor transformatsiya jarayonidir. Biroq odam qanchalik rivojlanmasin, uning ong ostida o‘zgarmas strukturalar — arxetiplar saqlanib qoladi. Shu sababli psixorevolyutsiyani shunchaki tashqi o‘zgarish sifatida emas, balki arxetiplar qanday shaklda yangi qiyofa olayotganini ko‘rsatuvchi ichki ruhiy jarayon sifatida ham ko‘rish zarur.

Yungga ko‘ra, arxetiplar – bu kollektiv ong ostida mavjud universal psixik strukturalar. Ular mif, din, san’at va afsonalarda turli shaklda namoyon bo‘ladi, ammo mohiyati umumbashariy va o‘zgarmas. Arxetiplar genetik merosdir. U o‘zgarmaydi, faqat ifodalanish shakli madaniyat, zamon va makonga ko‘ra turli shakllarda o‘z ifodasini topadi. Psixorevolyutsiya sodir bo‘lsa, texnologiya faqat tashqi platformani o‘zgartiradi, ichki psixik struktura esa o‘z o‘rnida qoladi. Psixorevolyutsiyani to‘g‘ri anglash uchun qaysi arxetip qay tarzda yangi qiyofa olayotganini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Arxetip muayyan shaxsda namoyon bo‘lgandan so‘ng, u shaxs ana o‘sha arxetip bo‘yicha harakatlana boshlaydi, ta’bir joiz bo‘lsa, arxetip u shaxsni ma’lum bir darajada boshqaradi. Aslida esa biz, arxetiplar ta’siri ostida ongsizlashib, ular bizni boshqarishiga yo‘l qo‘yib berishimiz emas, aksincha, ularning kuch-qudratidan foydalanib, o‘zligimizga yeta olishimiz darkor.

Yung nazariyasi kontekstida qaralganda, raqamli sivilizatsiya davridagi psixorevolyutsiya — bu inson ongining arxetipik kodlarini qayta yozish jarayonidir. Ilgarigi mifologik obrazlar raqamli media orqali yangi simulyakrlarga aylanmoqda. Lekin ularning ildizi o‘zgarmas: inson hanuz ma’no izlaydi, yovuzlik bilan kurashadi va donishmandlik orqali qutulishni umid qiladi.

Arxetiplar o‘zgarmas tuzilmalar sifatida inson ongining chuqur qatlamlarida saqlansa-da, har bir yangi sivilizatsion bosqichda ularning ifodalanish shakli yangicha tus olib boradi. Hozirgi davrda bu jarayon, avvalo, texnologiya va sun’iy intellekt ta’sirida kechmoqda. Ya’ni, inson ongi nafaqat ruhiy, balki texnologiya muhiti bilan ham integratsiyaga kirishmoqda. Bu holatda arxetiplar yangi shaklda — kiberarxetiplar yoki texnosimvollar sifatida namoyon bo‘layotganini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki, raqamli sivilizatsiya sharoitida shaxs, xususan, yoshlar psixikasida kechayotgan o‘zgarishlar faqat kognitiv jarayonlar bilan

cheklanmay, balki qadriyatlar, ma’no izlash va arxetipik tuzilmalar darajasida ham chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Bu o‘zgarishlar orasida, ayniqsa, tolerantlik kabi ijtimoiy qiymatlarning shakllanishiga e’tibor qaratish ham muhim sanaladi [4].

Ayni paytda mazkur jarayonlar ko‘proq texnologik yoki ijtimoiy oqibatlar nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda, biroq ularning psixologik, ayniqsa arxetipik va ma’naviy qatlamdagi ta’siri yetarli darajada tizizmli tadqiq etilmaganligi barchamizga ma’lum.

Shu bois, kelgusidagi tadqiqotlarda globallashuv va raqamli muhit sharoitida shaxs psixikasida kechayotgan psixorevolyutsion jarayonlarni chuqurroq o‘rganish, ularni arxetipik, qadriyatli va ma’naviy kontekstda kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq deb xisoblanadi.

Xususan, raqamli dunyoda shakllanayotgan yoshlar dunyoqarashini Yungning arxetiplar nazariyasi, ma’no izlash konsepsiyalari hamda sivilizatsion “ichki filtr” modellari bilan bog‘lab o‘rganish, mazkur jarayonlarning salbiy va ijobiy ssenariylarini prognoz qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Castells, Manuel. (1996). *The Rise of the Network Society.* Wiley- Blackwell

2. Hanson, Robin. (1998). *The Great Filter – Are We Almost Past It?* Retrieved from https://hanson.gmu.edu/greatfilter.html

3. Jung, Carl Gustav. (1981). *The Archetypes and the Collective Unconscious.* Princeton University Press.

4. Abidova, Ziyoda Askarovna. (2023/2/4). *Критерии, показатели и качества толерантной личности.* Journal № 2 (96/1), 96, 5–10.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR ONGIDA KITOBXONLIK MA’DANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Bahramova Dinara Davron qizi
O`zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim va tarbiya jarayonlarida ularni nazorat qila olish mushkul ishdir. Ammo biz bu avlodni komil inson va yetuk shaxs sifatida tarbiyalashimizda barchamiz birdek ma'sulmiz. Hozirgi dunyo XXI asr axborot asridir. Axborot va komunikatsiya texnika va texnalogiyalarni rivojlanishi axborot oqimining kuchayishi xorijiy ma'naviy oqimlarning kirib kelishi yoshlar dunyoqarashiga va ma'naviyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar bilan birga ma'naviy tahdidlarni ham olib kelmoqda. Lekin texnika taraqqiyoti davrida yashar ekanmiz axborot bugungi kunda inson ongi va qalbiga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tqazuvchi kuchli qurolga aylanib qoldi. Chunki kim axborotga ega bo'lsa dunyoga egalik qiladi degan fikr barcha tomonidan e'tirof qilinmoqda. Albatta globallashuv tezkor axborot almashinuvidir.Shuningdek

yoshlar dunyoning turli burchaklaridan yangilik olishi ,o'rganishi va ko'plab tadqiqotlarni olishi mumkin. Lekin insoniyatni shu davrgacha to'plagan va erishgan bilimlarini jamlagan kitoblar jamiyat ayniqsa yosh avlod uchun o'z ahamiyatlilik darajadini yo'qotmoqda. Shu sababli globallashuv jarayonida yoshlar ongida kitobxonlik ma'daniyatini shakllantirish masalasi dolzarib ilmiy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda kitobxonlik ma'daniyatini shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu- jamiyatning bosh bo'g'ini bo'lgan oiladan boshlamoqlik darkor. Chunki shakllanib kelayotgan avlod uchun oilaviy muhit alohida o'rin egallaydi. Ya' ni "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bekorga emas albatta. Ota - onaning kitob o'qishga bo'lgan munosabati farzandning kitobxon bo'lib yetishishiga hal qiluvchi rol o'ynaydi . Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ayniqsa yoshlar orasida kitobxonlik an'anasini yo'lga qo'yilishi , kitob mutolasiga keng e'tibor qaratilishi va uni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar albatta diqqatga sazovordir. Hurmatli Prezidentimiz Mirziyoyev Sh tomonidan 2020 - 2025 yilda Kitobxonlik ma'naviyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturi bunga yaqqol dalil bo'laoladi . Shuningdek zamonaviy texnalogiyalar bilan jihozlangan ko'p tarmoqli kutubxonalarning faoliyst olib borishi va jamiyatimizning barcha a'zolariga qulay bo'lishi uchun ham platformalarni tashkil etilishi va ishga tushurilishi quvonarli holatdir. Bu olib borilayotgan barcha tashabbuslar yoshlarning ma'naviyatini oshirish, erkin fikrni shakllantirish dunyoqarashini bilimini va axloqini ham boyitib boradi .

Bugungi insoniyat erishgan texnika taraqqiyoti jamiyatlar hayotiga kirib borayotgan axborot texnologiyalar va elektron qurilmalar umrning asosiga aylanib ulgurdi desak mubolag‘abo‘lmaydi. Lekin insoniyatning shu davrgacha erishgan bilimlari jamlangan kitoblar jamiyat va ayniqsa yosh avlod uchun, ahamiyatlilik darajasini qo‘ldan boy bermoqda. Lekin mamlakatimizda, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik an’anasining yo‘lga qo‘yilishi, kitob mutolaasiga keng e’tibor qaratish, uni rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan sayharakatlar diqqatga sazovordir. E’tibor qiling, inson olovni kashf qilgandan boshlab, g‘ildirakni ixtiro qilishigacha million yil vaqt o‘tdi. G‘ildirakdan bosma qog‘ozgacha bo‘lgan vaqt atigi bir necha ming yilni tashkil etdi. Oradan bir necha yuz yil o‘tgach, teleskop bunyod bo‘ldi. Keyingi asrlarda, juda qisqa vaqt oralig‘ida, bug‘ mashinasidan benzinda yuruvchi avtomobillarga, undan raketalar yaratishga muvaffaq bo‘ldik. Shundan so‘ng DNKmizda o‘zgarish qilishga qandaydir yigirma yil kerak bo‘ldi, xolos. Bizning zamonamizda har oy ilmiy yangilik qilinadi, – qichqirishda davom etdi. Yana biroz muddat o‘tgach, bugungi eng tezkor superkompyuter ko‘zimizga almisoqdan qolgan hisoblash mashinasi bo‘lib ko‘rinadi; eng zamonaviy jarrohlik usullari yovvoyilik tuyiladi va ilg‘or energiya manbalari ajdodlarimiz foydalangan shamdek taassurot uyg‘otadi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, insoniyat texnika va texnologiyalarni kundankunga yangilab boraverishi mumkin lekin, jamiyat o‘zi uchun qadrdon bo‘lgan bilim olish manbaasi bo‘lgan kitobdan uzulishi mumkin emas. Yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda yuqori sur’at bilan kirib kelishi esa kitobxonlikning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Bunga misol qilib O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlarini keltirishimiz mumkin. Lekin bir haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishimiz kerak-ki, jamiyat doim oldinga intiluvchi mexanizm hisoblanadi. Shuning uchun bugun deyarlik kamchilik kutubxonalarga va kitobga oshno bo‘lishga intilayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu asosiy faoliyati o‘qish, bilim olish bo‘lgan jamiyat qatlamiga taaluqli emas. Shuning uchun bugun kitoblar va uni mutolaa qilish maskanlarini ham zamonaviylashtirish kerak. Bu degani, kitoblarni qog‘oz shakldan elektron shaklga, kutubxonalarni esa, elektron kitoblar maskaniga aylantirish davr taqazosi. Shuning uchun bu jihatni yoshlarni shakllantirish uchun boshlang‘ich bo‘g‘inlar oila va maktabni ham o‘z ichiga olgan alohida tizim shaklida harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir. O‘qish va o‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o‘z aksini topdi. O‘qish faqatgina ta’limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o‘zlashtiriladigan qobiliyat, deb hisoblanmay qo‘ydi. Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o‘z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko‘nikma va malakalar,

usullar jamlanmasi sifatida ta’riflanadi.

O‘qish savodxonligini shakllantirishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator omillar mavjud:

- maktab omili;
- o‘qituvchi omili;
- o‘quvchi omili;
- oilaviy muhit.

Darhaqiqat, bola yillar davomida ta’lim muassasasida turli xildagi ilmiy va badiiy kitoblarni o‘qib tarbiyalanadi va sayqallanib boradi. O‘quvchilar maktab darsliklaridan nazariy ma’lumotlarni egallasa, badiiy adabiyotlar ularning komil inson bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy kitoblarni o‘qishda o‘quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan matnni o‘qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o‘quvchi matnda (asarda) sodir bo‘ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san’ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o‘z xayolidan o‘tkazishi kerak. Adabiyot yosh o‘quvchilar uchun o‘zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar xayoliy voqealar bo‘lsada, o‘quvchiga ular real hayotda sodir bo‘layotgandek tasavvur uyg‘otadi va o‘quvchiga ularni xayolan boshidan kechirish imkonini beradi.

O‘qituvchi esa dars va mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirib boradi. Shuningdek, bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish, ularda kitobga mehr uyg‘otishda oilaviy muhit, ya’ni oila davrasida oilaviy kitobxonlik asosida amalga

oshirilganda ham samarali va kutilgan natijaga erishiladi. Yoshlardagi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda albatta hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar yani, kitobxonlik tadbirlari ularda turli xildagi vaziyatlarni idrok etish va ularni bartaraf imkonini beradi. Ayniqsa, oila davrasida birgalikda o‘qish va o‘qilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bir qancha afzalliklarni keltirib chiqaradi. O‘rganishlar asosida bolalarda oila va maktab hamkorligida quyidagi ishlar amalga oshirilsa, o‘smir yoshlarning kitob va kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi ortib samarali natijalarga erishish mumkin. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan birga, yoshlarda vatanparvarlik, sadoqat, qadriyatlarga sodiqlik kabi jihatlarni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, kitoblarni tanlash, maqsadga muvofiqligi va sohaviy tegishliligi bo‘yicha klassifikatsiyalash zarurati ham paydo bo‘lmoqda. Shu sohalarni ham hisobga olsak kitobga qiziqish va uni oqishdagi qulayliklar yaratilgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. https://t.me/ILM_NUR_2020/1593

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo 50 qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risidagi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ3271-sonli Qarori.

3. Ismoilov A. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining savodxonligini baholash. (o‘quv qo‘llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. – B.12

4. Ismailov A. va boshq.PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi T.: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, 2021- yil. – B.13-14.

5. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. IQRO JURNALI, 2(1), 628-631.

6. Akbarjonovich, M. A. (2023). AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2045-2047.

7. https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4292

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA MINTAQALAR XIZMAT KO‘RSATISHIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning globallashuvi mintaqalarda xizmat ko‘rsatish sohasini tarkiban yangilab, inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini iqtisodiy o‘sishning

asosiy determinanti darajasiga olib chiqmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida xizmatlar sektori tobora ko‘proq ma’lumotlar oqimi, algoritmik boshqaruv, avtomatlashtirilgan xizmat ko‘rsatish modellariga tayanmoqda; bu esa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida raqamli kompetensiyalarni birinchi o‘ringa olib chiqadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda raqamli savodxonlikning 1 birlikka oshishi xizmatlar sohasidagi iqtisodiy samaradorlik koeffitsientini o‘rtacha 3–4 % ga oshirishi qayd etilgan bo‘lib, bu inson kapitalining raqamli tarkibi xizmatlar bozorida qiymat yaratishning markaziy mexanizmi ekanini tasdiqlaydi [1].

So‘nggi tadqiqotlar raqamli infratuzilma rivojlangan hududlarda xizmatlar hajmi, xizmat sifati, mehnat unumdorligi va bandlikning yuqori dinamikasi kuzatilishini ko‘rsatadi. Bu jarayon “raqamli bo‘linish” (digital divide) samarasi orqali izohlanadi: raqamli infratuzilmasi sust rivojlangan hududlar texnologik transformatsiya natijalaridan kech foydalanayotganligi sababli xizmatlar bozorida past samaradorlik, malaka yetishmovchiligi va past unumdorlik xavfi kuchayadi [2]. Inson kapitalining raqamli kompetensiyalar bo‘yicha tabaqalanishi mintaqaviy iqtisodiyotdagi farqlarni yanada keskinlashtirishi, ayniqsa xizmatlar segmentida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini toraytirishi mumkinligi e’tirof etilgan [3].

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng tez transformatsiyalanayotgan segmenti sifatida yangi kasblar, yangi mehnat talablari va yangi kompetensiya tizimini shakllantirmoqda. Sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, elektron savdo, fintech, logistik analitika, bulutli texnologiyalar va raqamli boshqaruv xizmatlarining kengayishi inson kapitali tarkibini tubdan qayta formatlashni talab etmoqda. Xalqaro nazariy modellar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasida texnologik yangilanishning chuqurlashuvi mehnat bozorida re-skilling va up-skilling mexanizmlarini majburiy omilga aylantiradi, aks holda hududlararo mehnat samaradorligi farqi yanada tez kuchayadi [4].

O‘zbekiston iqtisodiy tizimida ham xizmatlar sektorining o‘sishi raqamli transformatsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aholi raqamli savodxonligi, texnologik infratuzilmaning sifati va mintaqalardagi malaka resurslari bu jarayonning barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Hududlar kesimida xizmatlar bozorining o‘sish sur’atlari inson kapitalining raqamli komponentlarga moslashuv darajasi bilan sezilarli korrelyatsiya namoyon qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni tez joriy etayotgan tarmoqlarda qo‘shimcha qiymat nisbatan yuqori, mehnat unumdorligi esa keskin oshmoqda; texnologik modernizatsiya sekin kechayotgan hududlarda esa xizmatlar sifati va mahsuldorligi past darajada saqlanib qolmoqda [5].

Shu bois, iqtisodiyotni raqamlashtirish davrida mintaqalarda xizmat ko‘rsatish sohasida inson kapitalidan foydalanish tendensiyalarini o‘rganish nafaqat mavjud vaziyatni baholash, balki hududlararo farqlarni kamaytirish, malaka transformatsiyasini tezlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va xizmatlar sektorining texnologik modernizatsiyasini jadallashtirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

Namangan viloyati va uning tumanlarida 2017–2024 yillar davomida xizmat koʻrsatish sohasining tarkibiy oʻzgarishlari, inson kapitali omillarining ta’siri hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining intensivligi kompleks tahlil qilindi. Ushbu davr mintaqaning xizmatlar sektori uchun strukturaviy burilish nuqtasi boʻlib, xizmatlar hajmining barqaror oʻsishi, korxonalar sonining sezilarli koʻpayishi, raqamli texnologiyalar joriy etilish sur’atlarining keskin tezlashuvi va mehnat bozoridagi kompetensiya talablari oʻzgarishi asosiy tendensiyalar sifatida namoyon boʻldi. Shuningdek, tumanlar kesimidagi differensial dinamikalar — raqamli infratuzilma darajasi, biznes-demografik zichlik, mehnat resurslarining malaka tarkibi hamda servis modeliga moslashuv qobiliyati bilan izohlanib, xizmatlar sektoridagi hududiy tafovutlarning shakllanish mexanizmlarini aniqlashga imkon berdi. Bu sharoitda 2017–2024 yillarga oid koʻrsatkichlarni tizimli tahlil qilish va ularni aniqlash orqali xizmatlar bozorining transformatsion trayektoriyasini ilmiy asosda baholash va muhim tamoyillarini aniqlash shuningdek, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Namangan viloyatida xizmat koʻrsatish sohasining 2019–2024 yillardagi rivojlanish dinamikasi mintaqaning iqtisodiy tuzilmasida chuqur tarkibiy oʻzgarishlarning kechayotganini koʻrsatadi. Xizmatlar hajmining yildan-yilga sezilarli oshishi, korxonalar sonining tez sur’atlarda koʻpayishi, mehnat bozorida bandlikning barqaror kengayishi hamda raqamli texnologiyalar ulushining keskin ortishi xizmatlar sektorining iqtisodiy oʻsishdagi asosiy drayverga aylanganini anglatadi. Ayniqsa 2021–2024 yillardagi oʻsish koʻrsatkichlari xizmatlar bozorining diversifikatsiyasi, raqamli servislar ulushining kengayishi va inson kapitalining texnologik kompetensiyalarga tez moslashuvi bilan izohlanadi.

1-jadval.

Namangan viloyatida xizmat koʻrsatish sektori hajmi va iqtisodiy koʻrsatkichlar dinamikasi

Koʻrsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar umumiy hajmi	8,2	8,6	11,5	14,4	34,0	43,6
Savdo xizmatlari ulushi	28,9	30,5	31,4	33,2	35,8	37,6
Transport xizmatlari ulushi	15,5	14,8	14,1	13,5	12,9	12,2
AKT xizmatlari ulushi	5,0	6,1	7,8	9,4	10,7	11,9
Xizmat koʻrsatuvchi korxonalar soni	11,9	12,7	14,6	16,4	19,8	22,4
Bandlik darajasi	227,5	234,0	245,8	260,3	287,4	301,9
Oʻrtacha ish	1 430	1 580	1 880	2 340	3 120	3 740
Raqamli texnologiyalar joriy etilishi	12,3	16,3	22,5	29,7	38,4	45,1

Manba: OECD raqamli iqtisodiyot boʻyicha hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ma’lumotlarga koʻra, xizmatlar umumiy hajmi 2019 yildagi 8,2 trln soʻmdan 2024 yilda 43,6 trln soʻmga yetib, 5,3 baravar oʻsishni qayd etdi. Savdo xizmatlarining ulushi 28,9 % dan 37,6 % gacha oshib, xizmatlar tarkibida eng tez rivojlanayotgan segmentga aylangan. AKT xizmatlari ulushi 5,0 % dan 11,9 % gacha koʻtarilib, 2,3 baravar oʻsishni koʻrsatdi, bu raqamli infratuzilmaning tez kengayganidan dalolat beradi. Xizmat koʻrsatuvchi korxonalar soni 11,9 mingdan 22,4 mingga (+88 %) yetgan boʻlib, sektorning biznes-demografik zichligi jadal oshgan. Bandlik darajasi 227,5 ming kishidan 301,9 ming kishiga oʻsib, xizmatlar sohasining mehnat bozoridagi salmogʻi sezilarli kuchaygan.

Ushbu dinamikalar xizmatlar bozorining transformatsiyasida inson kapitalining roli keskin oshganini koʻrsatadi. Oʻrtacha ish haqining 1 430 ming soʻmdan 3 740 ming soʻmgacha koʻtarilishi yuqori malakali kadrlarga talabning ortganidan dalolat beradi. Raqamli texnologiyalar joriy etilish darajasining 12,3 % dan 45,1 % gacha oʻsishi qisqa muddatda moslashuv xarajatlarini keltirgan boʻlsa-da, uzoq muddatda xizmatlar samaradorligi, qiymat yaratish sur’atlari va xizmatlar sifatining oshishiga ijobiy ta’sir qilgan. Koʻrsatkichlar tarkibiy oʻzgarishlar mehnat resurslarining yangi kompetensiyalar bilan boyishi, iqtisodiy faollik markazlarining kengayishi va xizmatlar bozorining texnologik modernizatsiyasi bilan izohlanadi. Bu jarayon hududiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi eng muhim tamoyil sifatida namoyon boʻlmoqda.

Tumanlar kesimida xizmatlar sektori oʻsish indekslari 2017–2024 yillar davomida Namangan viloyatida hududiy iqtisodiy faollikning notekis kuchayganini koʻrsatadi. Koʻrsatkichlarning turlicha sur’atlarda oʻsishi tumanlar boʻyicha raqamli infratuzilma darajasi, biznes muhitining faolligi, xizmatlar diversifikatsiyasi hamda mehnat resurslarining malaka tarkibidagi farqlar bilan izohlanadi. Ushbu indekslar hududlarda xizmatlar sektorining transformatsiya intensivligini aniqlashga imkon beradi (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari boʻyicha xizmatlar sektori oʻsish indeksi

№	**Tumanlar**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1	Namangan sh	100	108	115	122	163	205	468	591
2	Davlatobod	100	106	111	119	147	183	415	533
3	Yangiqoʻrgʻon	100	105	110	117	144	178	410	522
4	Pop	100	107	113	120	148	187	402	503
5	Toʻraqoʻrgʻon	100	104	108	113	140	176	392	497
6	Chust	100	106	111	118	145	181	360	439
7	Chortoq	100	104	109	115	138	172	349	418

8	Kosonsoy	100	104	109	116	142	177	387	480
9	Norin	100	103	107	112	137	171	355	447
10	Mingbuloq	100	102	106	111	133	165	330	403
11	Uychi	100	105	110	116	135	169	341	411

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2017–2024 yillar oralig‘ida eng yuqori o‘sish Namangan shahri (591 indeks), Davlatobod (533) va Yangiqo‘rg‘on (522) tumanlarida qayd etilgan bo‘lib, bu hududlarda xizmatlar bozorining 5–6 baravar tez kengayganini ko‘rsatadi. Aksincha, Mingbuloq (403) va Uychi (411) kabi tumanlarda o‘sish nisbatan pastroq bo‘lib, indeks 4 baravar atrofida shakllangan. 2021–2024 yillar mintaqaning barcha tumanlarida keskin sakrash bosqichi bo‘lib, aksariyat hududlar 170–400 birlik diapazonida yuqori o‘sish trayektoriyasiga chiqqan

Tumanlar o‘rtasidagi farqlar xizmatlar bozorida raqamli texnologiyalar qabul qilinishi, infratuzilma sifati va korxonalar zichligi bilan bevosita bog‘liq. Yuqori indeksli tumanlarda xizmatlar sektori raqamli ekotizimga tez integratsiyalashgan bo‘lsa, past indeksli hududlarda malaka resurslarining yetishmasligi va servis diversifikatsiyasining sekinligi sezilgan. Ushbu dinamikalar mintaqaviy o‘sishning asosiy drayveri sifatida inson kapitalining sifat omilini namoyon etadi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar Namangan viloyatida 2017–2024 yillar davomida xizmatlar sektorining yuqori sur’atlarda transformatsiyalanganini, ayniqsa tumanlar kesimida raqamli infratuzilma darajasi, biznes faolligi va inson kapitalining malaka tarkibi bo‘yicha sezilarli farqlar shakllanganini ko‘rsatadi. Xizmatlar hajmining o‘sishi, korxonalar soni va bandlikning kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar segmentining yetakchi drayverga aylanganidan dalolat beradi. Hududiy indekslardagi tafovutlar esa iqtisodiy natijaning birlamchi omili sifatida raqamli kompetensiyalar, texnologik tayanch infratuzilma va xizmatlar bozorining diversifikatsiya darajasi muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi.

2017–2024 yillar davomida Namangan viloyati xizmat ko‘rsatish sektorining o‘sishi, tarkibiy yangilanishi va raqamli transformatsiyasi inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlari, texnologik infratuzilma rivoji hamda mintaqaviy iqtisodiy faollikning oshishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Tumanlar kesimidagi indekslar, sektorlar bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari hamda xizmatlar diversifikatsiyasining chuqurlashuvi iqtisodiy faoliyatning xizmatlar tomon siljiganini, hududlararo tafovut esa texnologik moslashuv darajasi bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar xizmatlar bozorida barqaror o‘sishni ta’minlash uchun inson kapitali sifatini oshirish va raqamli infratuzilmani kuchaytirish strategik ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar hajmining 5–6 baravar kengayishi, korxonalar sonining sezilarli o‘sishi, AKT xizmatlari ulushining 2–3 baravar oshishi va bandlikning muntazam ko‘payib borishi Namangan viloyatida xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi asosiy drayverga aylanganini tasdiqlaydi. Tumanlar kesimida Namangan shahri,

Davlatobod va Yangiqo‘rg‘onning yetakchiligi raqamli infratuzilma sifati, biznes-demografik zichlik va yuqori malakali mehnat resurslari bilan izohlanadi. Pastroq o‘sishga ega tumanlarda esa texnologik moslashuvning sustligi, xizmatlar diversifikatsiyasining kamligi va malaka resurslarining yetishmasligi asosiy chegaralovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu natijalar xizmatlar bozorining hududiy rivojlanishi inson kapitalining sifat darajasi bilan bevosita bog‘liqligini, demakki, mintaqada re-skilling va up-skilling siyosatining kuchaytirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sektor bo‘yicha shakllangan transformatsion jarayonlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar zanjirini modernizatsiya qilish va yangi servis modellari yaratishda inson kapitali, ayniqsa raqamli kompetensiyalar hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatmoqda. 2021–2024 yillardagi keskin o‘sish raqamli texnologiyalar joriy etilishi, korxonalar faoliyatining avtomatlashtirilishi va xizmatlarning sifat jihatdan murakkablashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon kelgusi yillarda ham davom etishi kutiladi. Shu bois xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishi uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, tumanlar bo‘yicha texnologik tafovutlarni qisqartirish, ta’lim tizimini zamonaviy servis kompetensiyalariga moslashtirish va xizmatlar bozorida innovatsion biznes-modellarni qo‘llab-quvvatlash strategik vazifa sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Autor, D., Levy, F., Murnane, R. (2020). Skills, Tasks, and Technologies in the Modern Economy. MIT Press.
2. Castells, M. (2021). The Network Society: Economy, Culture, and Technology. Oxford University Press.
3. Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2017). The Second Machine Age. Harvard University Press.
4. ILO. (2022). Human Capital Transformation in the Digital Labour Market. Geneva.
5. Acemoglu, D., Restrepo, P. (2023). Automation, AI, and the Future of Work. Princeton University Press.

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA KIBERJINOYATLARNI OLDINI OLISH MASALASIGA DOIR

Baxromov Saidolimxon Saydalixon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda inson ehtiyojining ortib borayotganligi, turmush tarzini o‘stirib borish innovatsion yondashishni talab qiladi. Asosan ijtimoiy jarayonlar mazmunini anglash, muhim tendensiyalar va o‘zgarishlar mohiyatini tushunish, inson ongi va tafakkurini rivojlantirish masalalarini tadqiq etuvchi fanlarni o‘qitishda faollashtiruvchi, interfaol va muammoli texnologiyalarni qo‘llash kafolatlangan natijaga

erishishning omiliga aylanmoqda. Chunki, bugungi globallashuv davrida ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishga undovchi manbalarning ko‘pligi, axboriy xurujlar sharoitida inson o‘zligini, qadriyatlarini saqlab qolishni taqozo qiladi. Jamiyatning axborotlashuvi davrida ijtimoiy tarmoq va axborot texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, foydalanuvchi o‘z oldiga ezgu maqsadni qo‘yib, ushbu maqsad sari intilib, hayotiy qarashlari, pozitsiyasi asosida inson bilimlarini o‘stirishga hizmat qilsin. Ta’kidlash kerakki Internet texnologiyalarining rivojlanishi, global tarmoqlarning kengayishi, va raqamli iqtisodiyotning o'sishi kiberjinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Kiberjinoyat – bu axborot texnologiyalari va internetning kengayishi natijasida yuzaga kelgan yangi jinoyat turlari bo‘lib, uning ta'siri har bir soha, jumladan, moliya, sog‘liqni saqlash, ta'lim, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarga jiddiy xavf solidi[1]. Dunyoda kiberjinoyatlarning turli shakllari, jumladan, identifikatsiya o‘g‘irlash, viruslar, phishing hujumlari, tizimlarni buzish, ma'lumotlarni o‘g‘irlash va talablarni qo‘yish kabi jinoyatlar tahlil qilinadi. Kiberjinoyatlarning oldini olish bo‘yicha amaliy choralar, jumladan, huquqiy normalar, texnologik yechimlar, foydalanuvchilarni xabardor qilish va ta'lim berish, hamda global hamkorlikning zarurligi talab etiladi. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish faqat davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamkorlikda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan samarali bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda kiberjinoyatlar dunyoning barcha hududlarida tez o'sib bormoqda. Internetning va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning jadal o'sishi kiberjinoyatlarning yangi shakllarini va usullarini yuzaga keltirgan.

Yurtimizda kiberjinoyatlarni oldini olish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohada hukumat, yuridik va texnologik tashkilotlar birgalikda xavfsizlikni ta'minlash, aholi va tashkilotlarni xabardor qilish, hamda qonunchilikni takomillashtirish borasida faoliyat yuritmoqda. Yangi O‘zbekistonda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, asosiy e’tibor ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish va profilaktik tadbirlarning ta’sirchanligini oshirish kabi masalalarga qaratilmoqda[2]. Bugungi kunda shaxsning qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish g‘oyalari davlatning ichki va tashqi siyosatining tamal toshi, Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Kiberjinoyatlarning so'nggi rivoji – sun'iy intellekt va avtomatlashtirish. Kiberjinoyatlar bilan kurashishda yangi texnologiyalar va metodlar rivojlanayotgani kabi, kiberjinoyatchilar ham sun'iy intellekt (SI), avtomatlashtirish va boshqa ilg'or texnologiyalardan foydalanishni boshladilar. Masalan, SI yordamida kiberjinoyatchilar

tizimlarni buzish va ma'lumotlarni o'g'irlashni yanada samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu texnologiyalar kiberjinoyatlarni amalga oshirishni soddalashtirib, ularning sezilarli darajada kengayishiga sabab bo'lmoqda. Kiberjinoyatchilikni kamaytirish uchun avvalo, tashkilotlar va shaxslar o'z tizimlarida xavfsizlikni mustahkamlashlari kerak. Bunga tizimlarni muntazam ravishda yangilash, antivirus dasturlaridan foydalanish, xavfsiz parollarni ishlatish va tarmoqlarni shifrlash kiradi. O'zbekiston kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kiberjinoyatlarni oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlanmalar olib borilmoqda[3]. O'zbekiston, masalan, Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirgan. Jamiyatimiz yoshlarini kiberxavfsizlik bo'yicha o'qitish va ularga zarur bilimlarni berish borasida turli tashabbuslarni ilgari surmoqda. Kiberxavfsizlikka oid ta'lim dasturlari va seminarlar tashkil etilmoqda, shuningdek, universitetlar va o'quv markazlarida maxsus kurslar tashkil etilgan. Bu, o'z navbatida, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda jamiyatning roli va faoliyatini kuchaytiradi. "Kiberxavfsizlikka oid bilimlarni kengaytirish" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda, ularning maqsadi foydalanuvchilarni kiberjinoyatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega[4].

Qolaversa jamiyatda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Axborotlashtirish bilimlarni ijtimoiylashtirish, uni jamoat mulkiga aylantirishningeng muhim usuli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, faqat bilimlarning umumiy mavjudligi va jahon madaniyatining barcha yutuqlari asosida jamiyatning an'anaviy mafkuraviy munosabatlarida o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Axborotlashtirish jarayonida millatning intellektual va axborot salohiyati yuksalib, bilishning o‘zi imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Bu butun jamiyatning intellektuallashuvining kuchayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalari, qoida tariqasida, iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan ishlabchiqarish jarayonini sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu texnologiyalar, xususan, ish ritmini tezlashtirdi, xodimlarning tashabbuskorligi va ijodkorligi uchun kamroq joy qoldirdi, insonda jismoniy va ruhiy zo‘riqishning kuchayishiga olib keldi. Bularning barchasi inson uchun mehnat tabiatidagi bu o'zgarishlarga halokatli bo'lgan psixologik reaktsiyaning paydo bo'lish xavfiga olib keladi. Binobarin, dunyodagi barcha voqea va hodisalar u yoki bu tarixiy manbaga o‘ziga xos tarzda oydinlik kiritishi va ayni paytda muhim tarixiy ma’lumotlarning ochilishi uchun sabab bo‘lishi mumkin. Zamonaviy jamiyatning aholi va har bir shaxsning savodxonligiga bo'lgan talablari ijtimoiy-madaniy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar va inson faoliyati turlarining paydo bo'lishi bilan ortib bormoqda. Jamiyat rivojlanishining sanoatgacha bo'lgan davrida savodxonlik og'zaki nutq, o'qish, eng oddiy hisoblash operatsiyalari ko'nikmalariga ega bo'lish bilan bog'liq.

Mediata’lim, mediasavodxonlik, virtual madaniyat ayniqsa hozirgi axborotlashgan jamiyat hayotida muhim vazifaga aylanib ulgurdi. Inson nafaqat mediamaxsulot iste’molchisi balki, tarqatuvchisi hamdir. Shunday ekan yoshlarning virtual dunyoda ongli ishtirok etishini ta’minlash zarur. Raqamli muhit rivojlanishi, ta’lim kontentlarining ko‘payishi, yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga ta’siri katta. Mediasavodxonlik haqida so‘z ketganda ekspertlar shuni qayd etadiki, “ko‘nikmalarning an’anaviy to‘plami kengaymoqda. Katta ma’lumotlardan xabardorlik, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, internetda qo‘llaniladigan algoritmlarni bilish, shuningdek, mediaga kirishish va undan chiqish o‘rtasidagi muvozanatga rioya qila olish yangi mediasavodxonlik komponentlari hisoblanadi”[5].

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot madaniyati, kino, teatr, san’atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma’lumot inson ongiga o‘zining ma’lum bir ta’sirini o‘tkazib, uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo‘llanilishi va bugungi kunda mediata’lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o‘rganishga bo‘lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxkamova Sh., O’rinov Sh. Kiberjinoyat va uni oldini olish. “Лучшие интеллектуальные исследования”. Часть-37 Том-3.Январь-2025

2. Глобаллашув шароитида Янги Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқининг ривожланиши: янгича ёндашувлар ва уларнинг тенденциялари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент 2025. Б-117.

3. Kiberxavfsizlik to'g'risida qonun. (2020). O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

4. Kiberxavfsizlikni ta'minlash va qonunchilik. (2022). O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik Agentligi.

5. I.Siddiqov “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati”. Darslik. Farg‘ona. 2025. b-4.

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Baxronova Gulrux Raxim qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, xulq-atvori va ijtimoiy faoliyati turli omillar ta’sirida tez o‘zgarib bormoqda.Internet va axborot oqimlari, texnologiyalari, yangi madaniy ta’sirlar tarbiyada yangi yondashuvlarni talab

etmoqda.Yoshlar ma’naviyatini shakllantiradigan muhim omil bu ta’lim va tarbiya tizimidir.Ilm-u ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Ta’lim tizimi— jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlaydigan,yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan muhim institutdir.Maktab,litsey ,kollej, oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish vazifasiga ega.Ta’lim jarayonining tarbiyaviy mazmuni quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

– shaxsning fikrlash madaniyatini shakllantirish;

– ma’naviy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish;

– vatanga sadoqat ruhini mustahkamlash;

– ijtimoiy faollikni oshirish. Bugungi zamonaviy ta’lim jarayoni quyidagi mezonlar asosida tashkil etilishi kerak.

– shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

– kompetemsiyaga asoslangan yondashuv;

– innovatsion pedagogik texnologiyalar;

– axborot savodxonligi va media madaniyatini o‘rgatish.

Ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi bo‘lib, yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va barkamol shaxs etib tarbiyalashda hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va kasbiy yo‘nalishi ko‘p jihatdan ta’lim tizimining mazmuni, sifati va tarbiyaviy yondashuviga bog‘liqdir. Shuning uchun ta’lim nafaqat bilim berish, balki tarbiya berishning ham asosiy vositasi hisoblanadi. Avvalo, ta’lim tizimi yoshlarning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarida beriladigan bilimlar yoshlarning tafakkurini kengaytiradi, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bilimga chanqoqlik, izlanish, mustaqil fikrlash kabi fazilatlar aynan ta’lim jarayonida rivojlanadi. Bunday fazilatlar yoshlarning hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.Ta’lim tizimining yoshlar tarbiyasiga ta’siri axloqiy-ruhiy jihatdan ham muhimdir. Dars jarayonlarida, sinfdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlar o‘zaro muloqot qilish, jamoada ishlash, o‘z fikrini madaniyatli tarzda ifodalashni o‘rganadilar. O‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, odobi va munosabati yoshlar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxs sifatida yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimi yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quv dasturlarida milliy tarix, madaniyat, til va an’analarni o‘rganish yoshlarni o‘z xalqiga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, tinchlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, qonunlarga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylanadi. Bu esa yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar etib voyaga yetkazadi.Yoshlar tarbiyasida ta’lim tizimining ijtimoiy muhit yaratishdagi roli ham katta. Ta’lim muassasalari yoshlar uchun sog‘lom raqobat, hamkorlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantiradi. Turli to‘garaklar, sport musobaqalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli

o‘tkazishiga xizmat qiladi. Bu esa ularni salbiy ta’sirlardan himoya qilib, ijobiy hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, ta’lim tizimi yoshlarning kasbiy tarbiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kasbga yo‘naltirish, amaliy mashg‘ulotlar va malaka oshirish jarayonlari yoshlarning kelajak kasbini ongli tanlashiga yordam beradi. Mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizom kabi sifatlar ta’lim jarayonida shakllanib, yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.Zamonaviy ta’lim tizimi yoshlarni innovatsion fikrlashga, texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatadi. Axborot texnologiyalari, raqamli savodxonlik va ijodiy yondashuv yoshlarning zamon talablariga moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu esa ularning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi. Sifatli va tarbiyaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi orqali jamiyatda ongli, mas’uliyatli va barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Shu sababli ta’lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va tarbiyaviy jihatlarni kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e’tiborni qaratib, jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvorvazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.Dasturlar avvalo jismonan va ma’nan sog‘lom, mustaqil fikrlaydigam, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi.Umuman mamalakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokink ta’minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy- iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash kabi masalar doimiy nazorat ostida bo‘lmoqda. Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo‘lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e’tibor, mehr, g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinayotganligi e’tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internetlarining maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashtirish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o‘rni buyuk. Yosh yigit va qizlarimiz mustqil hayotga kirib borishi yosh oilalalarning o‘z o‘rinlarining topa olishida, kishilar o‘rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o‘rinlari muhimligini ta’kidlash lozim. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ota-ona mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk bor hayot to‘g‘risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar , yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so‘ngra jamoaga ko‘chada. Ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilim va tajribasi yetarli bo‘lishi lozim. Pedagogik savodxonlik past oilalarda ko‘pincha:

– bolaga e’tibor yetishmasligi;

– ziddiyatli muloqot;

– haddan tashqari talabchanlik yoki befarqlik holatlari kuzatilishi mumkin.Bola oilada koʻrganini takrorlaydi.Shuning uchun ota-ona oʻz harakatlari, odoblari, nutqlari bilan namuna boʻlishlari muhim.Yoshlar tarbiyasini yagona bir institut bajara olmaydi.Ta’lim, oila va madaniy muhit integratsiyasi— samarali tarbiya kalitidir.Integratsiya quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi.

– ota-onalar bilan muntazam hamkorlik

– maktab-mahalla- oila uchligi

– madaniy-ma’rifiy tadbirlarni birgalikda oʻtkazish.

Tarbiya jarayonida masofaviy ta’lim, onlayn treninglar, madaniy -ma’rifiy platformalar, elektron kutubxonlar yordamida yoshlar tarbiyasini yangi boswichga koʻtarish mumkin. Ammo internet qaramligi kabi muammolarning oldi ota-ona va pedagog nazorati bilan olinadi. Chunki bugungi kunda koʻplab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda koʻp vaqt yoʻqotish , zararli kontentga duch kelish , real hayotdan uzilish kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu holat tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Ota-ona bandligi sababli farzand bilan muloqotga kam vaqt ajratyapti. Natijada emotsional boʻshliq, mehr yetishmasligi, ijtimoiy moslashuvning qiyinlashuvi kuzatiladi.

Oila — jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim boʻgʻinidir. Inson shaxsi shakllanishining dastlabki va eng muhim bosqichi aynan oilada boshlanadi. Bola hayotga qadam qoʻygan ilk kunlardan boshlab ota-ona uning uchun nafaqat tarbiyachi, balki namuna, yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi va hayotiy qadriyatlarni singdiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Shu bois ota-onaning bola tarbiyasidagi oʻrni beqiyos va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Avvalo, ota-ona bolaning axloqiy tarbiyasini shakllantiradi. Bola halollik, toʻgʻrilik, hurmat, mas’uliyat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni eng avvalo ota-onaning kundalik xulqi va munosabatlaridan oʻrganadi. Agar ota-ona oʻzaro hurmatda, mehribon va samimiy boʻlsa, bola ham bu fazilatlarni oʻzida mujassamlashtira boshlaydi. Aksincha, oilada doimiy janjal, beparvolik va qoʻpol munosabat hukm sursa, bu holat bolaning ruhiy holati va xulq-atvoriga salbiy ta’sir koʻrsatadi.

Ota-onaning bola tarbiyasidagi yana bir muhim jihati — bu emotsional muhitdir. Mehrga toʻyingan, ishonch va tushunishga asoslangan oilaviy muhitda ulgʻaygan bola oʻziga ishonchli, ochiqkoʻngil va mustaqil fikrlovchi shaxs boʻlib voyaga yetadi. Ota-onaning bolaning his-tuygʻularini tushunishi, uni tinglashi va qoʻllab-quvvatlashi bolada ijobiy “men” tasavvurini shakllantiradi. Bunday bolalar jamiyatda oʻz oʻrnini topishda, muammolarni hal qilishda faol va tashabbuskor boʻlishadi.

Bola tarbiyasida ota-onaning ta’limga boʻlgan munosabati ham katta ahamiyatga ega. Ota-ona bilimga hurmat bilan qarasa, kitob mutolaasini qadrlasa va farzandining oʻqishiga e’tiborli boʻlsa, bola ham ilmga qiziqib, oʻqishga mas’uliyat bilan yondashadi. Uyda oʻrganish, savol berish va izlanish uchun qulay muhit yaratilishi bolaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir koʻrsatadi. Shuningdek, ota-onaning tarbiya uslubi bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol oʻynaydi. Haddan tashqari qattiqqoʻllik bolada qoʻrquv va tortinchoqlikni yuzaga keltirsa, ortiqcha erkalatish va

nazoratsizlik mas’uliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli ota-onalar muvozanatli tarbiya uslubini tanlab, talabchanlikni mehr va tushunish bilan uyg‘unlashtirishlari lozim.

Ota va ona o‘rtasidagi hamjihatlik ham bola tarbiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Tarbiya masalasida bir fikrda bo‘lgan ota-onalar farzandiga aniq va barqaror talablar qo‘yadi. Bu esa bolada intizom, mas’uliyat va ichki tartibni shakllantiradi. Aksincha, ota-ona o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bolaning ruhiy beqarorligiga, ikkilanib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.Ota-ona oilada bola tarbiyasining asosiy poydevorini yaratadi. Ularning mehribonligi, mas’uliyati, shaxsiy namunasi va tarbiyaviy yondashuvi bolaning kelajakdagi shaxsiyati, dunyoqarashi va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Barkamol, ma’naviy yetuk va mas’uliyatli avlodni tarbiyalash, eng avvalo, ongli va mas’uliyatli ota-onaga bog‘liqdir.

Madaniy muhit — bu insonning kundalik hayotida duch keladigan madaniy qadriyatlar yig‘indisi. Mazkur muhit yoshlarning didi, axloqi, dunyoqarashi, o‘zligini anglash jarayonidagi masalaning markazida turadi. Ijobiy madaniy muhit ma’naviy immunitetni mustahkamlash, estetik tafakkurni rivojlantirish, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi jarayonlarga xizmat qiladi.Musobaqalar, madaniy tadbirlar, festivallar, kitobxonlik, teatr madaniyati yoshlarda ijtimoiy faollikni oshiradi.Yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni va ta’siriga alohida urg‘u qaratilgan.

O‘z xalqining tarixi, urf-odatlari, milliy qadriyatlarini chuqur anglaganhar qanday avlod ozligini yo‘qotmaydi, vatanparvarlik, milliy g‘urur va mas’uliyat tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtiradi. Milliy bayramlar, marosimlar, xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot va san’at namunalari yoshlarning yaxshilikka , insonparvarlikka undaydi. Jamiyatda hukmron bo‘lganmadaniy me’yorlar yoshlarning o‘zaro munosabatlarida hurmat, odob, sabr-toqat va hamjihatlikni shakllantiradi. Madaniy muhit sog‘lom bo‘lgan jamiyatda yoshlar yomon odatlardan, zo‘ravonlik va buzg‘unchilikdan yiroq bo‘lib ulg‘ayadi. Aksincha, madaniy qadriyatlar qadrsizlanga muhitda yoshlar orasida axloqiy inqiroz, befarqlik va mas’uliyatsizlik holatlari kuchayishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, madaniy muhit yoshlar tarbiyasining muhim va ajralmas omilidir. Sog‘lom, boy va ijobiy madaniy muhit yosh avlodni barkamol, ma’naviy yetuk va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta’lim, madaniy va oila yoshlar tarbiyasining jch asosiy ustunidir. O‘zaro hamkorlikni kuchaytirish ertamiz bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamoloti garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, O‘zbekiston. 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2016.
7. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Oila tarbiyasi asoslari. — Toshkent, 2019.
8. Qodirov B.R. Yoshlar psixologiyasi va pedagogikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
9. Hasanboyeva O. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
10. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
11. Jo‘rayev R., Zunnunov A. Oila pedagogikasi. — Toshkent: Sharq, 2016.
12. Sodiqov Q. Milliy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMKORLIGINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna
Oriental universiteti o‘qituvchisi
O‘ktamova Jasmina Axtam qizi
Oriental universiteti talabasi

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot –
yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.
Abdulla Avloniy

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim va mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning axloqiy qarashlari, jismoniy rivoji, aqliy salohiyati hamda ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Bola atrof-muhitni anglashni, o‘z xatti-harakatlarini boshqarishni va jamiyatda tutgan o‘rnini tushunishni aynan shu davrda o‘rganadi.

Mazkur jarayonda oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning tarbiyasiga birgalikda va uzviy ta’sir ko‘rsatadi. Oila bolaga dastlabki tarbiyaviy bilim va ko‘nikmalarni bersa, maktabgacha ta’lim tashkiloti ushbu jarayonni ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi. Agar bu ikki muhim ijtimoiy institut o‘rtasida izchil va maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik mavjud bo‘lmasa, bolaning rivojlanishida axloqiy, ijtimoiy va psixologik muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Shu bois oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi bolalar tarbiyasining muhim sharti sifatida qaraladi[3,18].

Oila bolaning birinchi va eng muhim tarbiya maktabidir. Aynan oilada bola dastlabki axloqiy me’yorlar, milliy qadriyatlar, muomala madaniyati va ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan asosiy ma’naviy muhit bu oiladir[1,68].

Ota-onaning tarbiyaviy savodxonligi, mas’uliyati va bolaga bo‘lgan munosabati uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Oiladagi mehr-muhit

bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va uning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi, tengdoshlar bilan muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy faol bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tarbiyachi pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etib, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya beradi. Pedagog tomonidan yaratilgan qulay muhit bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik orqali tarbiyaviy muammolar birgalikda hal etiladi, ota-onalarning pedagogik bilimlari oshiriladi hamda bolaning psixologik holati chuqurroq o‘rganiladi. Hamkorlik ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq mashg‘ulotlar, individual suhbatlar, seminar va treninglar, shuningdek, bayram va tadbirlarni birgalikda tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Mariya Montessori bola tarbiyasida ota-onalar va pedagoglar bir xil yondashuvga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Aks holda, bola qarama-qarshi talablar ta’sirida psixologik beqarorlikka duch kelishi mumkin[5,87].

L.S. Vygotskiy esa bolaning rivojlanishida oila va ta’lim muassasasining birgalikdagi ta’sirini muhim deb hisoblaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivoji kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida jadallashadi[6,32].

Xulosa qilib aytganda, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik bolalar tarbiyasining eng muhim sharti hisoblanadi. Ularning o‘zaro hamjihatligi natijasida bolaning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivoji samarali tarzda ta’minlanadi. Ota-onalar va pedagoglarning bir xil pedagogik yondashuvi bolaning ichki psixologik muvozanatini saqlashga, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va ijtimoiy moslashuvini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, izchil hamkorlik bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning kommunikativ va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi hamda oilada olingan tarbiya bilan maktabgacha ta’lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar uyg‘unlashganida, bolalar o‘z xulq-atvori va axloqiy qarashlarini yanada mustahkam shakllantiradi. Shu bois pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida doimiy va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish nafaqat dolzarb, balki bolaning kelajakdagi shaxs sifatida barkamol rivojlanishini ta’minlovchi asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun. – Toshkent, 2019. URL:https://lex.uz/docs/4467926.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 13.05.2019.
3. Abdullayeva M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2020.
4. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018.
5. Montessori M. The Absorbent Mind. 1-nashr, 1949
6. Vygotskiy L.S. Мышление и речь. – Moskva, 1982.

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Baxtiyorova Zulayho Nuraliyevna
Buxoro Davlat Tibbiyot instituti talabasi
Karimova Lola Muzaffarovna
ilmiy rahbar, dotsent

Bugungi globallashuv jarayonlari inson kapitalining raqobatbardosh bo‘lishini talab qilayotgan bir sharoitda yoshlar tarbiyasi masalasi nafaqat pedagogika, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim strategik yo‘nalishga aylandi. Zamonaviy axborot oqimining keskin kuchayishi, madaniyatlar aralashuvi, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirining ortishi shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ta’lim muassasalari, madaniy muhit va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik sog‘lom, ijtimoiy faol va mas’uliyatli yosh avlodni tarbiyalashning poydevori sanaladi.

Ta’lim tizimining yoshlar tarbiyasidagi strategik o‘rni

Ta’lim tizimi bugungi kunda nafaqat bilim berish, balki jamiyat uchun yetuk inson kapitalini tayyorlaydigan kompleks institut sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchi va talabalar dars jarayonida quyidagi sifat va kompetensiyalarni egallaydilar:

tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati;
ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasi;
ijtimoiy muloqot va tolerantlik madaniyati;
zamonaviy kasblarga mos kompetensiyalar;
ma’naviy e’tiqod, milliy g‘urur va vatanparvarlik.

Hozirgi ta’lim jarayonining asosiy muammolari — o‘quv dasturlarining tez yangilanmasligi, o‘qituvchilar malakasini muntazam oshirish zaruriyati, ta’lim jarayonining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi va tarbiyaviy ishlarning ko‘plab maktablarda ikkinchi darajaga tushib qolganidir.

Bularni bartaraf etish uchun:

- ✓ zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish;
- ✓ o‘qituvchilarni qayta tayyorlashning samarali tizimini yaratish;
- ✓ maktab va oliy ta’limda tarbiyaviy faoliyatni alohida strategiya sifatida yo‘lga qo‘yish;
- ✓ ijtimoiy va loyiha asosidagi ta’limni kengaytirish
- ✓ lozim bo‘ladi.

Madaniy muhitning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali ta’siri

Yoshlarning dunyoqarashi ular yashayotgan ijtimoiy-madaniy makon bilan uzviy bog‘liq. Badiiy adabiyot, teatr, musiqa, kino, xalq og‘zaki ijodi, internet va ommaviy kommunikatsiya vositalari shaxsda ma’lum qadriyatlar tizimini shakllantiradi.

Madaniy muhitning ijobiy jihatlari:

- ✓ estetik did va ijodiy tafakkurning rivojlanishi;

- ✓ ma’naviy qadriyat va e’tiqodlarning shakllanishi;
- ✓ milliy o‘zlikni anglash va tarixiy merosga hurmat kuchayishi;
- ✓ ijtimoiy faollikning oshishi.

Salbiy jihatlari esa quyidagilardan iborat:

- ✓ tajovuzkor, axloqsiz va buzuvchi mazmundagi axborotlar;
- ✓ ommaviy madaniyatning iste’molchilik kayfiyatini kuchaytirishi;
- ✓ yoshlarning real hayotdan uzilishiga olib keladigan virtual-psixologik qaramlik.

Shuning uchun davlat, mahalla va ta’lim muassasalari yoshlar uchun **sog‘lom axborot makoni**, **madaniy-ma’rifiy loyihalar**, **ijodiy to‘garaklar**, **kitobxonlik dasturlari**ni kuchaytirishi lozim.

Oila — yoshlar tarbiyasining birlamchi va eng ta’sirchan instituti

Oila shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishi boshlanadigan bosh makon bo‘lib, unda farzandning xarakteri, dunyoqarashi, odob-axloqi hamda ijtimoiy xulqi shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi muloqot madaniyati, mehr-muhabbat, nazorat va tarbiyaviy talabning uyg‘unligi farzandning kelajakdagi shaxs sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab oilalarda:

- ✓ ota-onalarning haddan tashqari bandligi;
- ✓ oilaviy nizolarning ko‘payishi;
- ✓ bolaga psixologik va ma’naviy e’tiborning kamayishi;

internetning nazoratsiz ta’siri kabi muammolar tarbiyaning sifatiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

Shu bois:

- ✓ ota-onalar pedagogik madaniyatini oshirish;
- ✓ maktab-oila hamkorligini mustahkamlash;
- ✓ sog‘lom oilaviy muhitni yaratish;
- ✓ farzandlar bilan muntazam muloqot olib boorish bugungi tarbiyaviy siyosatning eng muhim vazifalaridandir.

Xulosa

Yoshlar tarbiyasi — jamiyatning ertangi taraqqiyoti poydevoridir. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila tarbiyasi bir-biri bilan uyg‘un bo‘lgan taqdirdagina sog‘lom dunyoqarashga ega, vatanparvar, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan shaxslar voyaga yetadi. Shu sababli ushbu uch institut o‘rtasida tizimli integratsiya, hamkorlik va o‘zaro mas’uliyatni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TERRITORIAL ANALYSIS OF YOUTH'S SPIRITUAL SPACE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION BASED ON DIGITAL CARTOGRAPHY AND GIS TECHNOLOGIES

Bazarbayeva Juldizkhan Sarsenbay qizi
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Xabibullayev Shaxzod Abdugaffarovich
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Introduction. In the current context of globalization, all spheres of society, particularly the lives of young people and their spiritual space, are undergoing profound transformations under the influence of technological advancement, information flows, and digital resources. The expansion of global information networks and the Internet enhances youths' opportunities for acquiring knowledge, strengthens their engagement in cultural and social activities, and also exerts a significant impact on their perspectives and value systems. At the same time, from a territorial perspective, their living conditions, the availability of infrastructure, and cultural institutions represent crucial factors in their spiritual and social development.

In studying the spiritual space of young people, traditional statistical data often fail to adequately capture regional disparities, which is why digital cartography and GIS (Geographic Information Systems) technologies offer substantial potential. Through these technologies, not only can territorial objects and infrastructure elements be mapped, but their spatial relationships and distributions can also be represented in both visual and analytical forms.

The relevance of this study lies in its ability to examine the spiritual space of young people not only from a theoretical standpoint but also from visual and analytical perspectives. Moreover, the practical significance of GIS and digital cartography is demonstrated in their capacity to inform territorial policy-making, develop cultural and educational infrastructure, and serve as a scientific basis for planning youth activities.

Using the Republic of Karakalpakstan as a case study, territorial analysis was conducted with the aid of GIS technologies (Figure 1). Through a system of conventional symbols, districts, cities, main roads, and socio-cultural facilities within the region were identified, ensuring a visual representation of territorial data. (All GIS maps and topographic plans employed in this study were prepared and analyzed by the author.)




Figure 1. Administrative-territorial map of the Republic of Karakalpakstan developed using GIS and the system of conventional symbols. This map depicts the districts, cities, main roads, and significant socio-cultural facilities within the region using conventional symbols.

Territorial Analysis

The analysis conducted across the territory of Uzbekistan indicates that inactive enterprises and organizations exhibit significant territorial disparities nationwide: such entities are relatively less frequent in urban centers, whereas their numbers are higher in rural and peripheral areas, reflecting the level of regional socio-economic development and the efficiency of available resources. These disparities have a direct impact on the spiritual space of young people and their social engagement, as inactive enterprises serve as key indicators in determining the effectiveness of territorial opportunities.

With the aid of GIS technologies, the locations of inactive entities were identified, and their relative relationships with other social, cultural, and infrastructural objects were represented both visually and analytically. This facilitates the understanding of territorial disparities, the development of socio-economic strategies, and the formulation of evidence-based decisions. Consequently, the territorial analysis of inactive enterprises and organizations enables the identification of socio-economic disparities on a national scale and supports the evidence-based planning of regional policies.

The distribution of inactive enterprises and organizations across the Republic of Uzbekistan is territorially uneven (Figure 2). These statistical data were analyzed using GIS layers.




Figure 2. Territorial distribution of inactive enterprises and organizations (based on statistical data). This GIS map displays the number of inactive enterprises and organizations at the district level, illustrating how their territorial distribution varies socially and economically.

As observed from the map, central districts exhibit fewer inactive enterprises, whereas peripheral areas show a higher concentration. This reflects regional socio-economic disparities and aids in understanding the factors shaping the spiritual space of young people.

Methodology / 2D → 3D Analysis

To enhance the effectiveness of territorial analysis, 2D topographic plans were transformed into 3D models using GIS technologies (Figure 3). This approach provides a more precise representation of the terrain, infrastructure, and spatial arrangement of social facilities within the region.



Figure 3. Territorial analysis based on a 2D topographic plan (left) and a 3D GIS model (right). This figure illustrates the transformation of 2D topographic data into a 3D model, enabling precise assessment of spatial variations within the region, terrain features, and the locations of socio-cultural facilities.

As evident from the map, the 3D model accurately reflects the relief of the territory and clearly demonstrates the proximity of social and cultural facilities to central areas. This approach highlights the visual and analytical capabilities of GIS technologies.

Conclusion

This study demonstrates that, in the context of globalization, understanding and evaluating the spiritual space of young people is effectively facilitated by a territorial approach and the use of digital GIS technologies. At the local scale, i.e., within the district level, the spatial distribution of social and cultural facilities related to youth was identified using 2D and 3D GIS topographic plans, and their interrelations were represented both visually and analytically. This provides a deeper understanding of territorial opportunities and the spiritual space of young people.

Moreover, the territorial distribution of inactive enterprises and organizations across Uzbekistan emerged as a key indicator in the study: such entities are relatively fewer in urban centers, whereas their numbers are higher in peripheral and rural areas, reflecting regional socio-economic disparities. Using digital cartography and GIS models, the locations of these entities and their relative spatial relationships were mapped, making territorial disparities and the spatial characteristics of the youth's spiritual space comprehensible in both visual and scientific terms.

As a result, this research not only facilitates evidence-based decision-making for local and national territorial planning, socio-economic strategies, and youth policy, but also provides a solid scientific basis for assessing the impact of globalization processes within the country and for effective resource allocation. In this way, GIS technologies and digital cartography serve as effective tools for analyzing the spiritual space of youth, identifying territorial disparities, and supporting scientifically informed territorial policy-making.

References:

1. Burrough, P.A., McDonnell, R.A. (1998). Principles of Geographic Information Systems. Oxford University Press.

2. Longley, P.A., Goodchild, M.F., Maguire, D.J., Rhind, D.W. (2015). Geographic Information Systems and Science, 4th Edition. Wiley.
3. OECD (2020). Youth and Globalisation: Opportunities and Challenges.
4. Smith, M., Katz, S. (2019). Urban Youth and Community Spaces. Routledge.
5. Uzbekistan State Committee on Statistics (2023). Statistical Yearbook of Uzbekistan. Tashkent.
6. Batty, M. (2018). Inventing Future Cities: GIS and Urban Planning. MIT Press.
7. UNESCO (2021). Youth, Culture and Digital Spaces in the Age of Globalisation.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Bazarova O‘g‘iljon Aminovna
Xorazm viloyati,Urganch tumani 24-MTT Oliy toifali tarbiyachisi

Bugungi kunda ekologik muammolar butun insoniyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish esa eng avvalo yosh avlod tarbiyasidan boshlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning dunyoqarashi, xulq-atvori va qadriyatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutq va ma’ruzalarida ekologik muammolarga alohida e’tibor qaratib, tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash va aholining ekologik ongini oshirish muhimligini ta’kidlab kelmoqda. Davlat rahbari ekologik barqarorlikni ta’minlash avvalo yosh avlodni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdan boshlanishini qayd etadi. Ayniqsa, bolalarda ekologik madaniyatni erta yoshdan shakllantirish kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda uning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va atrof-muhitga munosabati asoslari yaratiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish, bolalarda tabiatni sevish, uni asrash va muhofaza qilishga bo‘lgan mas’uliyat hissini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “yashil makon”, ekologik barqaror rivojlanish, tabiatga ongli munosabat kabi tashabbuslar ham maktabgacha ta’lim tizimida ekologik tarbiyani yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifadir.

Ekologik tarbiyaning mazmuni va ahamiyati

Ekologik tarbiya — bu bolalarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni, uni asrash va muhofaza qilish koʻnikmalarini shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya quyidagilarga xizmat qiladi:

- tabiatni sevish va qadrlash hissini rivojlantirish;
- jonli va jonsiz tabiat haqidagi dastlabki bilimlarni berish;
- atrof-muhitga zarar yetkazmaslik odatlarini shakllantirish;
- ekologik madaniyat asoslarini yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish vazifalari

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarni tabiat hodisalari va tirik organizmlar bilan tanishtirish.
2. Oʻsimlik va hayvonlarga gʻamxoʻrlik qilish koʻnikmalarini rivojlantirish.
3. Tabiatni muhofaza qilishga oid oddiy qoidalarni oʻrgatish.
4. Kuzatuvchanlik, qiziqish va ekologik tafakkurni rivojlantirish.

Ekologik tarbiyani amalga oshirish usullari

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- **Kuzatishlar** – bolalarning tabiatdagi oʻzgarishlarni bevosita koʻrishlari;
- **Suhbatlar** – tabiat, fasllar, hayvonlar va oʻsimliklar haqida suhbatlashish;
- **Didaktik oʻyinlar** – ekologik mavzudagi oʻyinlar orqali bilim berish;
- **Amaliy faoliyat** – gullarni parvarishlash, daraxt ekish, tozalikka rioya qilish;
- **Sayr va ekskursiyalar** – tabiat qoʻynida mashgʻulotlar oʻtkazish.

Tarbiyachining roli

Ekologik tarbiyani shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy namunasi juda muhim. Tarbiyachi bolalarga tabiatga mehr bilan munosabatda boʻlishni oʻz xulqi orqali koʻrsatishi, ularni ragʻbatlantirishi va ekologik faoliyatga jalb etishi lozim.

Avvalo, tarbiyachi bolalarga tabiat haqidagi dastlabki tushunchalarni yosh xususiyatlariga mos, sodda va qiziqarli shaklda yetkazishi lozim. Mashgʻulotlar jarayonida oʻsimliklar, hayvonlar, fasllar va tabiat hodisalari bilan tanishtirish orqali bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, tarbiyachi ekologik tarbiyani faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qolmasdan, uni amaliy faoliyat bilan uygʻunlashtirishi muhimdir. Tarbiyachining shaxsiy namunasi ekologik tarbiyada muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Agar tarbiyachi atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlsa, tozalikni saqlasa, oʻsimlik va hayvonlarga gʻamxoʻrlik qilsa, bolalar ham bu xulq-atvorni tabiiy ravishda oʻzlashtiradilar. Shuning uchun tarbiyachi bolalar oldida ekologik madaniyat namunasi boʻla olishi zarur. Bundan tashqari, tarbiyachi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Masalan, gullarni sugʻorish, xonani toza saqlash, tabiat burchagiga qarash kabi oddiy vazifalarni bolalarga topshirish orqali ularda mehnatsevarlik, javobgarlik va tabiatga gʻamxoʻrlik tuygʻulari rivojlanadi. Bu jarayonda bolalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda

tarbiyachining ota-onalar bilan hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi ota-onalarni ekologik tarbiya masalalarida xabardor qilib borishi, bolalarda shakllantirilayotgan ekologik odatlarni oilada ham davom ettirish bo‘yicha tavsiyalar berishi lozim. Bu esa tarbiya jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

MTTda ekologik tarbiya bo‘yicha amaliy ishlar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) ekologik tarbiyani shakllantirish jarayoni asosan amaliy faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatni bevosita kuzatish, his qilish va amalda ishtirok etish orqali bilimlarni osonroq o‘zlashtiradilar. Shu sababli MTTda ekologik tarbiya mashg‘ulotlari bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Tabiat burchagini tashkil etish

MTTda ekologik tarbiyaning muhim amaliy shakllaridan biri tabiat burchagini tashkil etishdir. Tabiat burchagida turli xildagi xonaki o‘simliklar, urug‘lar, tuproq, suv, toshlar hamda hayvonot olamiga oid rasmlar joylashtiriladi. Bolalar tarbiyachi rahbarligida gullarni sug‘orish, barglarini artish, o‘simliklarning o‘sishini kuzatish orqali tabiatga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini hosil qiladilar.

Sayr va kuzatuv ishlari

Sayr jarayonida bolalar bilan tabiatdagi fasliy o‘zgarishlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. Daraxtlarning barg chiqarishi, gullashi, qushlarning uchib kelishi, ob-havo holatlari bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Tarbiyachi kuzatuvlar asosida bolalar bilan suhbatlar o‘tkazib, tabiatga ehtiyotkor munosabatni shakllantiradi.

Amaliy-mehnat faoliyati

MTTda amalga oshiriladigan ekologik tarbiya ishlari bolalarni mehnat faoliyatiga jalb etish bilan yanada samarali bo‘ladi. Masalan, gul ekish, urug‘ sepish, ko‘chat parvarishlash, hovlini toza saqlash kabi ishlar bolalarda mehnatsevarlik, mas’uliyat va tabiatni asrash tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Ekologik o‘yinlar va mashg‘ulotlar

Didaktik o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni mustahkamlash muhimdir. “Kim qayerda yashaydi?”, “Foydali va zararli”, “Tabiatni asraylik” kabi o‘yinlar bolalarning ekologik bilimlarini oshiradi. Shuningdek, rasm chizish, applikatsiya, loydan buyumlar yasash mashg‘ulotlarida tabiat mavzusidan foydalanish bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Bayram va tadbirlar

MTTda “Qushlar bayrami”, “Yer kuni”, “Tabiatni asraylik” kabi ekologik tadbirlarni tashkil etish bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarda she’rlar, qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari orqali bolalar tabiatni asrash g‘oyalarini chuqurroq anglaydilar.

Ota-onalar bilan hamkorlik

Ekologik tarbiyada ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi ota-onalarga ekologik tarbiya bo‘yicha tavsiyalar berib, bolalar bilan uy

sharoitida amalga oshiriladigan oddiy ekologik ishlarni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Bu esa ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish kelajakda ekologik ongli, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashning muhim omilidir. Bolalikdan tabiatga mehr va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish orqali sog‘lom va barqaror jamiyat poydevori yaratiladi. Maktabgacha yosh davrida bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, ehtiyotkorlik va mas’uliyat hissini shakllantirish ularning kelgusidagi xulq-atvori va hayotiy qarashlariga mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu davrda berilgan ekologik bilimlar, ko‘nikma va malakalar bolaning maktab ta’limi jarayonida ham, kundalik hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ekologik tarbiya uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda tarbiyachilarning kasbiy mahorati, metodik yondashuvi va shaxsiy namunasi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, oilaning, maktabgacha ta’lim muassasasining va jamiyatning o‘zaro hamkorligi ekologik tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tabiat bilan bog‘liq mashg‘ulotlar, amaliy faoliyatlar, sayr va kuzatuvlar orqali bolalarda ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ekologik barqarorlik, “yashil makon” va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslar ta’lim tizimida, xususan, maktabgacha ta’lim bosqichida ekologik tarbiyani yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, bolalarda ekologik tarbiyani erta yoshdan shakllantirish orqali kelajakda tabiatga ongli munosabatda bo‘ladigan, ekologik mas’uliyatni chuqur anglaydigan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishga oid nutq va ma’ruzalari. — Toshkent, 2017–2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga oid farmon va qarorlar to‘plami. — Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **“Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”**gi qarorlari. — Toshkent.
5. Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2018.
6. Qodirova F., Tursunova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Jo‘rayev R.X. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
8. Abdullayeva M. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya asoslari. — Toshkent, 2020.
9. Saidova N. Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. — Ilmiy maqolalar to‘plami. — Toshkent, 2021.
10. UNICEF. Early Childhood Education and Environmental Awareness. — New York, 2019.

O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA MA’NAVIY HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH

Bekchanov Sanjar Ibragimovich
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va ijtimoiy ongning tezkor o‘zgarishi sharoitida O‘zbekiston jamiyatida ma’naviy hayotni modernizatsiyalash eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. XXI asr boshidan boshlab mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarning izchil yangilanayotgani ma’naviy jarayonlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli axborot muhiti kengayib, turli madaniy oqimlar, g‘oyalar va ijtimoiy tendensiyalarning kirib kelishi milliy ma’naviy makonda murakkab jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning ma’naviy hayotini yangilash, uni zamonaviy rivojlanish talablari bilan uyg‘unlashtirish, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, axborot oqimlarida yo‘nalish berish kabi vazifalar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston olimlari ta’kidlaganidek, ma’naviy modernizatsiya jarayoni faqat qadriyatlar tizimini targ‘ib qilish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy institutlar faoliyati, ta’lim siyosati, madaniy merosni asrash va uni zamonaviy shaklda rivojlantirish, aholining media savodxonligini oshirish kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, xususan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosidagi islohotlar ma’naviy hayotni takomillashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvni kuchaytirdi. Bu o‘zgarishlar jamiyatda faollik, ochiqlik, bag‘rikenglik, adolat, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonidagi keskin raqobat, global madaniyatning bosimi, yoshlar orasida g‘oyaviy izlanishning ortishi, tarixiy va milliy o‘zlikni anglash jarayonining murakkablashuvi ma’naviy hayotni modernizatsiya qilishga yangicha yondashuvni talab etadi. Jamiyatdagi mafkuraviy barqarorlik, turli ijtimoiy guruhlarning ma’naviy ehtiyojlari, axborot savodxonligi darajasi, madaniy integratsiya jarayonlari mavjud ma’naviy makonning holati va istiqbollari haqida jiddiy tahlilni taqozo etadi.

O‘zbekiston jamiyatida ma’naviy hayotni modernizatsiyalash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u nafaqat an’anaviy qadriyatlar tizimini yangilashni, balki jamiyat institutlarining zamonaviy sharoitga moslashuvini ham talab qiladi. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib borishi va axborot oqimlarining keskin ko‘payishi natijasida ma’naviy makonda yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavflar ham yuzaga kelmoqda. Olimlar bu jarayonni turlicha izohlashadi, lekin ularning umumiy xulosasi shundan iboratki, ma’naviy modernizatsiya jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan poydevordir.

Akademik A.Yo‘ldoshev ma’naviy modernizatsiyani iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog‘laydi. Unga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish jamiyatning ma’naviy yuksalishi uchun zarur sharoit yaratadi, chunki asosiy e’tibor inson omiliga, uning bilimiga,

tafakkuriga va madaniy salohiyatiga qaratiladi [1]. Biroq ma’naviy modernizatsiyani faqat iqtisodiy o‘zgarishlarga tayanib tushuntirish yetarli emas. Chunki ma’naviy hayotning ildizida axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tamoyillar va milliy o‘zlik yotadi. Ekonomik rivojlanish ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, ammo uni to‘liq belgilab berolmaydi.

Z.Nishonova ta’lim tizimidagi modernizatsiyani ma’naviy yangilanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli ta’lim muhiti va kreativ fikrlashni rivojlantirish yoshlar ongida ma’naviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi [2]. Ta’lim tizimi faqat texnologik yangilanish bilan emas, balki tarbiyaviy mazmun bilan ham boyitilishi zarur. Aks holda modernizatsiya jarayoni faqat tashqi shaklga ega bo‘lib, ma’naviy mazmunga ega bo‘lmay qolishi mumkin.

Yoshlar ongining shakllanishi masalasi ham muhim ilmiy bahs mavzularidan biridir. O‘zbekiston Yoshlar agentligi olib borgan tahlillarga ko‘ra, yoshlar ongiga eng katta ta’sirni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari ko‘rsatmoqda [3]. Bu jarayon, bir tomondan, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ularni begona g‘oyalarga tez ta’sirchan qiladi. Y|oshlarni himoya qilishning asosiy yo‘li ularni axborotdan cheklash emas, balki ularning tanqidiy fikrlash, tanlov madaniyati va media savodxonligini rivojlantirishdan iborat.

Sotsiolog O.Jo‘raevning qarashlariga ko‘ra, ma’naviy modernizatsiya nafaqat shaxsiy ong darajasida, balki ijtimoiy institutlar faoliyatida ham aks etishi kerak. Uning ta’kidlashicha, mahalla, oila, ta’lim, madaniyat va OAV kabi institutlar modernizatsiyasiz ma’naviy o‘zgarishlar to‘liq samaraga erisha olmaydi [4]. Ma’naviy hayotni yangilash faqat g‘oyaviy targ‘ibot bilan emas, balki institutlarning funksional rivoji bilan bog‘liq ekani tasdiqlanadi.

Mamlakatimiz siyosatining so‘nggi yillardagi islohotlari ham ma’naviy modernizatsiyaning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. “Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash” tamoyili jamiyatda ochiqlik, bag‘rikenglik, tolerantlik va fuqarolik mas’uliyati kabi qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan.

Global madaniy oqimlarning ortishi esa milliy o‘zlikni himoya qilish masalasini yanada keskinlashtirmoqda. Tadqiqotchilar milliy madaniyatni zamonaviy talqinda qayta ko‘rsatish, uni yoshlar ongiga innovatsion shakllarda singdirish zarurligini ta’kidlaydilar [6]. Bizning fikrimizcha, milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, ularni zamon talablari asosida qayta yaratish, ya’ni “jonlantirish”, ma’naviy modernizatsiyaning eng muhim shartlaridan biri.

Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, O‘zbekiston jamiyati ma’naviy hayotini modernizatsiyalash murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanish, axborot siyosati, ta’lim tizimi, yoshlar bilan ishlash, davlat boshqaruvi va madaniy institutlarning faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Olimlarning fikrlari ko‘ra, modernizatsiya jarayoni bir vaqtning o‘zida qadriyatlarni asrash, ularni yangilash, global madaniyat bilan uyg‘unlashtirish, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitet

yaratish va raqamli davrga mos ma’naviy ongni shakllantirishni talab qiladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati jamiyatning o‘zi faolligi, institutlarning yangilanishi va modernizatsiyaga bo‘lgan ehtiyojni chuqur anglash darajasiga bog‘liq. Ma’naviy modernizatsiya nafaqat ma’naviy sektorning, balki butun jamiyat rivojlanishining poydevori sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev A. Jamiyat modernizatsiyasi va ma’naviy taraqqiyot. - Toshkent: Fan, 2020. - 220 b.

2. Nishonova Z. Ta’lim va ma’naviyat: zamonaviy yondashuvlar. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. - 180 b.

3. O‘zbekiston Yoshlar agentligi. Yoshlar ijtimoiy holati va ma’naviy jarayonlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma. - Toshkent, 2022.

4. Jo‘raev O. Mahalla instituti va ijtimoiy boshqaruvning modernizatsiyasi // Ijtimoiy fanlar jurnali. - 2022. - №3. - B. 45-60.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” rasmiy hujjatlari to‘plami. - Toshkent: Adolat, 2021.

6. Castells M. The Power of Identity. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2018. - 360 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN MULTIMEDIYALI MAHSULOTLAR YARATISHNING ILMIY JIHATLARINI TAHLIL QILISH

Bekimbetova Aynagul Amangeldievna
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, p.f.n.
Ollaberganova Mohira
NDPI magistranti

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi maktabgacha ta’limda multimediya vositalarini samarali qo‘llash imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, milliy ertaklar, o‘zbek va qoraqalpoq xalq ijodiyati namunalarining bolalarning tarbiyasi va ma’naviy-axloqiy rivojlanishida ahamiyati hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimediya vositalari yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarning diqqatini jalb qilish, tasavvur va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini oshirish imkonini beradi [1]. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun milliy ertaklar asosida multimediya mashg‘ulotlarini yaratishda nafaqat pedagogik, balki tibbiy va psixologik jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, unda kognitiv, ijtimoiy, emotsional va ijodiy komponentlar muhim ahamiyatga ega. Ilm fanda L.S.Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bolalar interaktiv faoliyat orqali o‘rganadi, ya’ni

muloqot va faoliyat jarayonida bilim hosil qiladi [3]. Shu nuqtai nazardan, multimediya vositalari (animatsiya, interaktiv o‘yinlar, audio ertaklar) ta’lim jarayonini kuchaytiradi, bolalarni faol ishtirokchi qiladi va bilish jarayonini samarali qiladi. Shuningdek, J.S.Bruner nazariyasi esa vizual va interaktiv vositalardan foydalanish bilish jarayonini samarali qilish va bolalarda faol konstruksion o‘rganishni rag‘batlantirish imkonini beradi [4]. Shu bilan Vygotskiy va Bruner nazariyalari uyg‘unlashib, multimediya mashg‘ulotlarining pedagogik samaradorligini mustahkamlaydi.

Tibbiy, psixologik va pedagogik jihatlariga keladigan bolsak, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia kontentini yaratishda quyidagi mezonlar muhim: Yoshga moslik: kontent bolalarning diqqat doirasi, nutq darajasi va tasavvuriga mos bo‘lishi lozim. Belgilangan talablarga muvofiq ekran va vizual me’yor: 15–20 daqiqadan ortiq bo‘lmagan mashg‘ulotlar, monitor masofasi 50–60 sm deb belgilangan. Tibbiy va psixologik xavfsizlik: shovqinli, tez-tez o‘zgaruvchi ranglar bolalarni charchatmasligi, mazmun psixologik zarar bermasligi lozim ligi belgilab qoyilgan[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimediya kontenti yaratishda ilmiy, pedagogik, tibbiy va psixologik jihatlarning uyg‘unligi asosiy talab hisoblanadi. Multimediyaning vizual, audio va interaktiv komponentlari bolalarning: kognitiv rivojlanishi; tasavvur va ijodiy fikrlashi; ijtimoiy va emosional o‘sishi; mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini samarali shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy ertaklar asosida yaratilgan multimedia mashg‘ulotlari bolalarning madaniy qadriyatlarni qabul qilishini, axloqiy-ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishini va tarbiyaviy maqsadlarga erishishini ta’minlaydi [3].

Maktabgacha tarbiya bolalar uchun xalq ertaklari asosida milliy kontentlar - bolalarni milliy qadriyatlar, ona tili bilan ta'sir qilishning juda samarali usuli bolib hisoblanadi. Bolalar kontentlari ularning yoshiga mos, qiziqarli, rang-barang va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Milliy kontentlar yaratishdan asosiy maqsad bolalarni ona tilida ravon gapirishga o'rgatish, yosh avlodga milliy qadriyatlar, odob-axloq va mehr-oqibat tuyg'ularini singdirish, xalq ijodini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish va ularning talimiy va manaviy rivojhlanishiga xissa qo'shish hisoblanadi. Ertaklarni audio va video multfilmlar tarzida, qisqa fotoli, rang-barang va musiqali tarzda tayyorlash maqsadga muvofiq. Biz tadqiq qilayotgan Qoraqalpoq xalq ertaklari va bolalar qo‘shiqlari asosida multimediyali texnologiyalar yaratish boyicha olib borilgan tadqiqot ishlari davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasining 16 ta tumanlariga ilmiy safarlar uyushtitirildi va uslubchi va tajribali tarbiyachilar bilan “Qoraqalpoq folklori”dan maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos ertak va bolalar qo‘shiqlari qizg‘in tahlillarga va baxs-munozaralarga boy bo‘lgan holda ertaklar va bolalar qo‘shiqlari saralanib olindi. Olimlar bilan birga ilmiy jihatlari maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga mos tarzda qoraqalpoq ertaklari va qo‘shiqlari multimedia shakliga moslashtirishda ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilindi [5].

Natijada, Qoraqalpoq xalq ertaklari asosidagi multimedia texnologiyalari yaratishda bir qator muhim jihatlarga e’tiborga olinishi aniqlandi:

1. Ertaklarning asl mazmunini buzmasdan – yani, xalq og’zaki ijodiga hos bo’lgan axloqiy, manaviy, tarbiyaviy g’oyalar saqlanishiga erishish;

2. Qahramonlar, voqealar va umuminsoniy qadriyatlarni to’g’ri gapirish – masalan, yaxshilik va emonlik ortasidagi kurash, mexnatkashlik, rostgo’ylik kabi mavzular yaratish;

3. Qoraqalpoq milliy madaniyatini inobatga olib, milliy liboslar, ananaviy urf-odatlarni aks ettirish;

4. Til va sheva xususiyatlariga hurmat bilan yondoshib – imkoni boricha qoraqalpoq tilida ishlab chiqarishga, audio/video matnlariga qorqalpoq tilida ovoz berish;

5. Tanlangan ertaklar va multimedia mahsulotlari bolalarning yoshiga mos, ta’limiy va axloqiy jihatdan to’g’ri kelishi lozimligi;

7. Ertaklar asosida savol-javob, test, mini-o'yinlar kabi interactive o'yinlar kiritish kelajak avlod ta’lim-tarbiyasi uchun mihim masalalar sifatida taklif etildi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi boolalar uchun milliy kontentlar yaratish sohasida quyidagi yo‘nalishlarga etibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

Individualizatsiya – multimediya vositalarini bolaning yosh, diqqat darajasi, qiziqish va psixologik tipiga moslashtirish samaradorligini ilmiy tadqiq etish;

Ijodiy va problematik fikrlashni rivojlantirish – interaktiv o‘yinlar va loyihalar orqali bolalarning ijodiy va problemalarni hal qilish qobiliyatini chuqur o‘rganish;

Madaniy va tarbiyaviy integratsiya – milliy ertaklar va qadriyatlarni multimediya mashg‘ulotlariga samarali qo‘shish metodlarini rivojlantirish;

Tibbiy va psixologik xavfsizlik – ekran ko‘rish va interaktiv faoliyatning fiziologik va psixologik ta’sirini ilmiy asoslash, optimal vaqt va intensivlikni aniqlash;

Pedagogik samaradorlikni baholash – multimediya mashg‘ulotlari natijasida bolalar bilimini, ijtimoiy va ijodiy ko‘nikmalarini baholash standart metodologiyalarini ishlab chiqish masalalarini ilmiy jihatdan chuqur o’rganishni talab qiladi [1].

Shunday qilib, kelajak tadqiqotlari maktabgacha ta’limda multimediya vositalarining samaradorligini ilmiy asoslash va uni amaliyotga tatbiq etishga qaratilishi zarur. Bu esa bolalarning rivojlanishini yanada kompleks, individual va madaniy kontekstga moslashtirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Shu bilan biga milliy ertaklar asosida multimediya vositalarini qo‘llash maktabgacha ta’limda nafaqat bilim berish jarayonini samarali qiladi, balki bolalarning tarbiyaviy, ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishini kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik vosita sifatida qadrli ekanligini ilmiy asos bilan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi va Ta’lim Vazirligi. “Maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish va rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar”, 2020.

3. Haugland, S.W. Early Childhood and Technology: Learning in a Digital World, 2000.

4. Bruner, J. Toward a Theory of Instruction, 1966.
5. Bekimbetova A.A. Maktabgacha ta’limda Qoraqalpoq xalq ertaklari va bolalar qoshiqlari asosida multimediyali mahsulotlar yaratishning ahamiyati. INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV "GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION" CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY. April 07-10, 2025/310p. Chirchik, Uzbekistan & Indoneziya, İKSAD-Institute of Economic Development and Social Researches.

YOSHLAR TARBIYASIDA EMOTSIYALARNI BOSHQARISH VA TANQIDIY FIKRLASHNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Berdiqulova Mahbuba Erkinjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Kirish. Tanqidiy fikrlash insonning eng muhim kognitiv ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, murakkab vaziyatlarda asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Insonning axborotni tahlil qilish, alternativ yechimlarni solishtirish va oqilona xulosa chiqarish jarayoni ko‘plab ichki omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shulardan eng kuchli ta’sirga ega bo‘lgan omillardan biri — emotsiyalardir. Emotsiyalar inson tafakkurida faollikni oshiruvchi kuch sifatida ham, noaniqlik va impulsivlikni kuchaytiruvchi xavf omili sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli qaror qabul qilishda emotsional holatning o‘rni va vazifasini aniqlash psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. [5]

Bugungi globallashuv jarayonida insonlar tezkor axborot oqimi, yuqori stress yuklamasi va ko‘p variantli tanlovlar sharoitida yashamoqda. Bunday vaziyatlarda tanqidiy fikrlashni saqlab qolish yoki uni to‘g‘ri yo‘naltirish emotsional barqarorlik bilan bevosita bog‘liq. Emotsiyalarni boshqara olmaslik qarorlarning shoshma-shosharlik bilan qabul qilinishiga, ularni haddan tashqari ehtiyotkorlik yoki irratsionallik bilan baholashga olib kelishi mumkin. Aksincha, emotsional muvozanat tanqidiy fikrlashni kuchaytirib, insonni vaziyatni aniq, mantiqiy va xolis baholashga undaydi. [1]

Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu shaxsning qaror qabul qilish jarayonidagi psixologik mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi hamda insonning fikrlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir psixologiya fanida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Shu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar qaror qabul qilish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xorijiy olimlar ishlaridan quyidagi olimlar faoliyatlarini misol qilib keltirish mumkin:

D. Kahneman (2011) – “Thinking, Fast and Slow” asarida inson qarorlarini qabul qilish jarayonidagi intuitiv va ongli fikrlash mexanizmlari, shuningdek emotsiyalar va kognitiv xatolar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsiyalarning qaror qabul qilish sifatiga bevosita ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. [3]

J. P. Forgas (2008) – “Affect and Social Thinking” nomli ishlarda ijobiy va salbiy emotsiyalarning tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi eksperimental ma’lumotlar bilan o‘rganilgan. O‘rganish natijalariga ko‘ra, emotsional holat ongli va mantiqiy qarorlar sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.[4]

O‘zbek olimlar ishlaridan ham bir nechta olimlar tanqidiy fikrlash bo‘yicha bir qancha ishlarni amalga oshirganlar

S. Axmedov (2015) – “Shaxs psixologiyasida tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlik” maqolasida o‘zbek yoshlarining tanqidiy fikrlash qobiliyati va emotsional intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik eksperimental ravishda o‘rganilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, emotsional barqarorlik yuqori bo‘lgan shaxslar qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy xulosalar chiqarishga ko‘proq moyil. [2]

G. Raximova (2018) – “Psixologik jarayonlarda emotsiyalar va tanqidiy fikrlash” nomli ishida emotsiyalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus psixologik mashqlar va treninglar orqali tanqidiy fikrlashni kuchaytirish va qaror qabul qilish sifatini oshirish mumkin.

Ushbu tadqiqotda tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash va ularning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish uchun asosan **eksperimental metod** va **kuzatuv metod**idan foydalaniladi. Bu metodlar bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, tadqiqotning ilmiy ishonchliligini oshiradi. [7]

Eksperiment yordamida qatnashchilarning tanqidiy fikrlash darajasi va emotsional holati maxsus testlar orqali baholanadi. Masalan:

- Tanqidiy fikrlashni aniqlash uchun standartlashtirilgan testlar (masalan, mantiqiy vazifalar, muammolarni yechish topshiriqlari) qo‘llanadi.
- Emotsional holatni o‘lchash uchun emotsional intellekt va ruhiy holat shkalalari ishlatiladi.

Eksperiment yordamida quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- Shaxsning turli emotsional holatlarda qaror qabul qilish tezligi va sifatiga ta’siri.
- Tanqidiy fikrlash darajasi va emotsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik.
- Qaror qabul qilish jarayonida ongli fikrlashga o‘tish imkoniyati va uning samaradorligi.

Kuzatuv orqali shaxsning qaror qabul qilish jarayonidagi xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari va muomala uslubi tahlil qilinadi. Bu metod qatnashchilarning real vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishini va emotsiyalarning ularning xatti-harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Kuzatuv yordamida quyidagilar aniqlanadi:

- Tanqidiy fikrlash jarayonida emotsiyalarning real ta’siri.
- Qaror qabul qilishdagi impulsivlik yoki ongli xatti-harakatlar.

• Ijobiy va salbiy emotsiyalar natijasida qaror sifatining o‘zgarishi.

Bu ikki metod birlashtirilganda tadqiqotning natijalari yanada ishonchli va aniq bo‘ladi, chunki eksperiment nazariy bog‘liqlikni ko‘rsatadi, kuzatuv esa real hayot sharoitidagi holatlarni aks ettiradi. Shu yondashuv tanqidiy fikrlash va emotsiyalarning qaror qabul qilish jarayonidagi murakkab o‘zaro ta’sirini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. [8]

Muhokama. D.Kahneman (2011) o‘zining “Thinking, Fast and Slow” asarida insonning qaror qabul qilish jarayonini ikki tizim orqali tushuntiradi: tez, intuitiv va his-tuyg‘ularga bog‘liq birinchi tizim, shuningdek sekin, ongli va mantiqiy fikrlashga asoslangan ikkinchi tizim. U qaror qabul qilish jarayonida emotsiyalarning intuitiv fikrlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ongli va mantiqiy qarorlar chiqarish jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari yuqori bo‘lsa, shaxs emotsiyalarning salbiy ta’siridan samarali himoyalanishi mumkin. [3]

J.P.Forgas (2008) “Affect and Social Thinking” ishida ijobiy va salbiy emotsiyalarning kognitiv jarayonlarga ta’siri, shuningdek, qarorlar sifatini qanday o‘zgartirishi eksperimental ma’lumotlar bilan ko‘rsatadi. U emotsiyalar nafaqat motivator, balki qaror qabul qilishdagi to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lishini qayd etadi. Tadqiqotda ijobiy hissiyotlar shaxsni tez va samarali xulosalar chiqarishga undasa, salbiy emotsiyalar qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi va impulsiv xatti-harakatlarga olib keladi [4].

O‘zbek olimlaridan S.Axmedov (2015) “Shaxs psixologiyasida tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlik” maqolasida tanqidiy fikrlash qobiliyati va emotsional intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi. U emotsional barqarorlikning tanqidiy fikrlash jarayonini mustahkamlashga yordam berishini, shuningdek, qaror qabul qilish sifatini oshirishini ta’kidlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi tanqidiy fikrlash va emotsional intellektga ega shaxslar murakkab vaziyatlarda asosli va ongli qarorlar qabul qila oladi.

G.Raximova (2018) “Psixologik jarayonlarda emotsiyalar va tanqidiy fikrlash” ishida esa pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash va emotsiyalarning shakllanish mexanizmlari, ularni rivojlantirish strategiyalari ko‘rib chiqilgan. U shaxsning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishda emotsional boshqaruv va ongli fikrlashni uyg‘unlashtirish muhimligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, barcha tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosiy e’tibor markazida turadi. Xorijiy tadqiqotlar insonning ongli va intuitiv fikrlash tizimlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, o‘zbek olimlari bu jarayonlarni shaxsiy va pedagogik kontekstda rivojlantirish va qo‘llash masalalarini tahlil qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlikni birgalikda rivojlantirish shaxsning ongli, asosli va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Natijalar. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash maqsadida eksperimental va kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Eksperiment yordamida qatnashchilarning tanqidiy fikrlash darajasi va emotsional holati o‘lchandi, bu esa qaror qabul qilish jarayoniga emotsiyalarning ta’sirini aniqlashga imkon berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijobiy emotsiyalarga ega shaxslar vaziyatlarni tez va samarali tahlil qilgan, mantiqiy xulosalar chiqarishda yuqori natija ko‘rsatgan. Aksincha, salbiy emotsiyalar, masalan, stress yoki xavotir holatlari, qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirib, ba’zan impulsiv yoki irratsional xatti-harakatlarga olib kelgan. [6]

Kuzatuv natijalari eksperimentdan olingan ma’lumotlarni mustahkamladi. Tadqiqot ishtirokchilari real sharoitlarda qaror qabul qilish jarayonida emotsiyalarning kuchli ta’sirini namoyon etdilar. Ijobiy hissiy holatlar shaxslarni xolis va ongli fikrlashga yo‘naltirgan bo‘lsa, salbiy hissiyotlar ularni shoshma-shosharlik bilan qarorlar qabul qilishga majbur qilgan. Shu bilan birga, yuqori darajada tanqidiy fikrlash qobiliyati va emotsional barqarorlikga ega bo‘lgan qatnashchilar murakkab masalalarni yaxlit va asosli tahlil qilgan, qarorlarning sifati yuqori bo‘lgan. [10]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonining samaradorligi va sifatiga sezilarli ta’sir qiladi. Shu bilan birga, emotsional barqarorlik va ongli fikrlash qobiliyati qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Ushbu natijalar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy hayotda, xususan, psixologik treninglar, ta’lim jarayonlari va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot tanqidiy fikrlash va emotsiyalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni aniqlashga qaratildi hamda ularning qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlik bir-birini mustahkamlovchi omillar bo‘lib, shaxsning qarorlar sifatiga sezilarli ta’sir qiladi. Ijobiy emotsiyalar ongli va mantiqiy qarorlar qabul qilishni rag‘batlantirsa, salbiy hissiy holatlar esa impulsiv va irratsional qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, yuqori darajada tanqidiy fikrlash qobiliyati va emotsional intellekt shaxsni murakkab vaziyatlarda xolis va asosli qarorlar chiqarishga imkon beradi. [9]

Tadqiqotdan olingan natijalar amaliy jihatdan ham ahamiyatli bo‘lib, ularni psixologik treninglar, ta’lim jarayonlarida va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llash mumkin. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash va emotsiyalarning o‘zaro ta’sirini chuqur anglash nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki shaxsning ongli, muvozanatli va samarali qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedov, S. Shaxs psixologiyasida tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlik. – Toshkent: O‘zbekiston Psixologiya Instituti, 2015.

2. Abdukarimova, E’zoza F. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari. – SHOKH Library Journal, 2025.

3. Божович, Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 2019.

4. Damasio, A. R. Descartes’ Error: Emotion, Reason and the Human Brain. – New York: Grosset/Putnam, 1994.

5. Forgas, J. P. Affect and Social Thinking. – New York: Psychology Press, 2008.

6. Gigerenzer, G. Gut Feelings: The Intelligence of the Unconscious. – New York: Viking, 2007.

7. Gaffarova, B. M. O‘smir yoshdagi bolalarda emotsional intellekt shakllanishining psixologik vazifalari. – TADQIQOTLAR jurnali, 56(1), 2025, 275–278.

8. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.

9. Raximova, G. Psixologik jarayonlarda emotsiyalar va tanqidiy fikrlash. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Psixologiya Fakulteti, 2018.

10. Sotvoldiyeva, N. A. Qaror qabul qilishning psixologik omillari. – Journal of New Century Innovations, 78(4), 2025, 81–84.

O‘ZBEKISTON MISOLIDA TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Boybuvayev Urayimjon, Kucharov Muzrob
O‘zMU talabalari

Yoshlar tarbiyasi har bir davlatning kelajagi va ijtimoiy barqarorligining asosiy omili hisoblanadi. Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida yoshlarning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishi ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning uyg‘unligiga bog‘liq. O‘zbekistonda davlat siyosati va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarashlari yoshlar tarbiyasini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy bilimlarni integratsiya qilishga qaratilgan. Ta’lim — yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida eng asosiy vosita hisoblanadi. U nafaqat kasbiy va akademik bilim beradi, balki yoshlarning ongini shakllantiradi, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni jamiyatga moslashishga tayyorlaydi. Ta’lim yoshlarning fikrlash qobiliyati, tanqidiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Maktab va oliy ta’lim jarayonida yoshlar axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan tanishadi. Zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘rganish yoshlarni yangi imkoniyatlarga tayyorlaydi, shaxsiy o‘sish va kasbiy muvaffaqiyatga yo‘naltiradi.

Ijtimoiy moslashuv: Ta’lim jarayonida yoshlar jamoaviy ishlash, mas’uliyat, liderlik va kommunikatsiya ko‘nikmalarini egallaydi. Ta’lim orqali yoshlar o‘zaro hurmat, madaniy xilma-xillikni qadrlash va jamiyatdagi o‘rni haqida tushuncha hosil qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy faoliyat va loyihalarda ishtirok etish yoshlarning mas’uliyatini oshiradi.

Ma’naviy va axloqiy tarbiya: Ta’lim shaxsga axloqiy prinsiplar, hurmat, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni singdiradi. O‘zbekiston misolida, maktab va

universitetlarda ma’naviy-axloqiy tarbiya modullari, milliy madaniyat va tarix darslari orqali yoshlar tarbiyalanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, yoshlar tarbiyasida uch asosiy omil ajralib turadi: ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila. Ushbu omillar bir-biri bilan uyg‘un ishlaganda, jamiyat uchun mas’uliyatli, tashabbuskor va bilimli avlod shakllanadi [1].

Media-savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, internet va global kontent xatarlaridan himoya qilish ta’limning bugungi vazifasiga kiradi.

Oila va jamiyat bilan uyg‘unlik: Ta’lim tizimi oilaviy qadriyatlar va madaniy muhit bilan uyg‘un ishlashi zarur. Ota-ona va pedagoglar birgalikda ishlash, ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini kuchaytiradi. Shu uyg‘unlik yoshlarni global media xatarlaridan himoya qiladi va milliy qadriyatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

1. Ta’lim tizimi va yoshlar tarbiyasi

O‘zbekiston ta’lim tizimi yoshlarni nafaqat fan va texnika bilan, balki ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida (2022–2026) ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktablarni rekonstruksiya qilish va raqamli platformalarni joriy etish ko‘zda tutilgan. Madaniy muhit yoshlarning qadriyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantiradi. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ma’naviyat eng katta boylikdir[2]. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki yoshlarning axloqiy va ma’naviy rivojida ham muhim vosita hisoblanadi.

Maktab ta’limi: Milliy dasturlar orqali yoshlar tarbiyasi va ma’naviy qadriyatlar asoslari beriladi. Pedagoglar tomonidan axloqiy, ijtimoiy va madaniy bilimlar integratsiyalashgan holda o‘tiladi.

Oliy ta’lim: Universitetlarda nafaqat kasbiy bilim, balki fuqarolik ongini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

Ta’lim tizimi yoshlarni zamonaviy hayotga tayyorlash bilan birga, milliy qadriyat va axloqiy prinsiplarni mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik va media-savodxonlikni mustahkamlash, yoshlarni global axborot xatarlaridan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Madaniy muhit va yoshlar tarbiyasi

Madaniy muhit yoshlarning ongini va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi: Milliy an’analar: Navro‘z, Mustaqillik kuni, adabiyot va tadbirlari orqali yoshlar ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Jamoat va media: Televizion dasturlar, kinofilmlar va ijtimoiy media orqali yoshlar axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan tanishadi. Madaniy muhit yoshlarni ijobiy tarbiyalash, milliy qadriyatlarni saqlash va global xavf-xatarlar (radikallashuv, dezinformatsiya) dan himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

3. Oila va yoshlar tarbiyasi

Oila – tarbiyaning birinchi va eng muhim makoni. Oila yoshlar tarbiyasining birinchi va eng muhim maktabi hisoblanadi. Oila kodeksining 65–66-moddalari ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini belgilaydi [3].

Ota-onaning roli: Yoshlarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy san’at rivojlanishida ota-ona ta’siri hal qiluvchi hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlar: Hurmat, mehnatsevarlik, milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlar oilada shakllanadi.

Oila va ta’lim uyg‘unligi: Ota-ona va pedagoglarning birgalikdagi ishlashi yoshlar tarbiyasida samarali natija beradi.

Oila va ta’lim tizimi uyg‘unligi yoshlarni barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, oilaning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi va davlat tashabbuslari yoshlar ongini mustahkamlashga xizmat qiladi [4]. Oila yoshlar tarbiyasidagi birinchi va eng muhim makon hisoblanadi. U shaxsiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy poydevorini yaratadi.

Ota-onalar yoshlarning birinchi tarbiyachisi hisoblanadi. Ularning qadriyatlari, axloqiy me’yorlari, odob-axloq ko‘rsatmalari bolaning shaxsiyatini shakllantiradi. Ota-ona va bola o‘rtasidagi yaqin va ishonchli munosabatlar, doimiy suhbat va qo‘llab-quvvatlash yoshlarning ijtimoiy va psixologik barqarorligini oshiradi. Masalan, ota-onaning bilimga, madaniyatga va mehnatsevarlikka bo‘lgan munosabati bolaga o‘rnak bo‘ladi.

Oilaviy qadriyatlar: Oila orqali yoshlar hurmat, mehr-oqibat, odob-axloq, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan hurmati va mehr-muhabbat muhitida bolalar axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida rivojlanadi. Milliy an’analar va bayramlar, oilaviy marosimlar bolalarga madaniy identitetni singdiradi.

Oila va ta’lim uyg‘unligi: Ota-ona va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik yoshlar tarbiyasida samarali natija beradi. Oila va ta’lim muassasalari birgalikda ishlaganda, yoshlar bilim, ma’naviyat va ijtimoiy ko‘nikmalarni uyg‘un o‘rganadi. Masalan, maktabdagi axloqiy tarbiya darslari oilada mustahkamlanib, bolaning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini oshiradi.

Media va raqamli dunyoda oila roli: Global media va internet yoshlar ongiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ota-onaning nazorati va tarbiyaviy yondashuvi zarur. Oilada media-savodxonlik va internetdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha maslahatlar berish, yoshlarni radikal yoki nomaqbul kontentdan himoya qiladi. Menimcha, oila yoshlar tarbiyasining eng samarali poydevoridir. Oilaviy qadriyatlar, ota-ona tarbiyasi va pedagogik hamkorlik yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, global media va raqamli xavflarga qarshi yoshlarni himoya qilishda oila faol ishtirok etishi zarur.

4. Ta’lim, madaniyat va oila uyg‘unligi

Yoshlar tarbiyasida eng samarali model – ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning uyg‘un ishlashi: Maktab va universitetlarda axloqiy va ma’naviy tarbiya dasturlarini joriy

etish. Oila va pedagoglar o‘rtasida doimiy hamkorlik, tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish. Madaniy va ijtimoiy tadbirlar orqali yoshlarning axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlash. Shu uyg‘unlik yoshlarni global media xatarlaridan himoya qiladi, milliy qadriyatlarni mustahkamlaydi va jamiyat barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va media-savodxonlikni oshirish yoshlar tarbiyasining zamonaviy shartlaridan biridir.

Ta’lim dasturlarida “Hayot ko‘nikmalari” va “Axloq-ma’naviyat” modullarini joriy etish, media-savodxonlik va raqamli ko‘nikmalarni integratsiya qilish. Oilaviy tarbiyaga davlat va jamiyat qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish — treninglar, psixologik konsultatsiyalar va oilaviy tadbirlar. Madaniyat va tarixni yoshlar hayotiga faol integratsiya qilish — milliy bayramlar, san’at, hunarmandchilik va modern media kontent orqali. Media-savodxonlik va axborot etikasi bo‘yicha keng ko‘lamli ta’lim-tarbiya dasturlari. Raqamli va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, tenglikni ta’minlash — ayniqsa chekka hududlarda.

UNICEF (2022) tadqiqotlariga ko‘ra, mustahkam oilada tarbiyalanayotgan bolalarning o‘qishga qiziqishi va ijtimoiy faolligi yuqori bo‘ladi. Oilaviy muhit psixologik qo‘llab-quvvatlash, axloqiy qadriyatlarni singdirish va yoshlarni jamiyatga moslashishga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi [5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasida eng samarali va barqaror usul — ta’lim, madaniyat va oila uyg‘unligidir. Bu yoshlarni nafaqat ilmiy va kasbiy jihatdan, balki ma’naviy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham rivojlantiradi. Shu bilan birga: Yoshlarni global media va raqamli xavflarga qarshi barqaror qiladi; Milliy identitet, urf-odatlar va qadriyatlarni saqlab qoladi; Ijtimoiy adolat, tenglik va inklyuziv taraqqiyot siyosatlari bilan uyg‘un jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Agar yuqoridagi tavsiyalar amalda to‘liq tatbiq etilsa — maktabdan tortib jamiyatgacha bo‘lgan har bir bosqichda yoshlar ongli, mas’ul, bilimli va ona vatanga sodiq bo‘lgan avlod yetishtirish mumkin bo‘ladi. Bu nafaqat individual, balki butun mamlakatning kelajagi nuqtai nazaridan juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon PF–60-son. – Toshkent, 2022.

3. www.lex.uz – Oila kodeksi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va ijtimoiy tadqiqotlar. Tashkent, 2022. https://constitution.uz/oz/pages/oilam

5. UNICEF. Uzbekistan: Education Sector Analysis. – Tashkent, 2022.

МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЗАРУРИЯТИ

Бойматов Рустам
Қарши ДУ ўқитувчиси

Мамлакатимиз таълим тизимида, айниқса олий таълим босқичида амалга оширилаётган ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсадлардан бири – бу келажак эгалари бўлган ёшларда мустақил тафаккур маданиятини шакллантиришдир. Зеро мустақил тафаккур юрита оладиган кишигина ким бўлишидан қатъий назар ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлади. Ана шундай мутахассисларгина ўз соҳасини ривожлантиради, муаммоларни ҳал қилишга замонавий ёндошади, ташаббус кўрсатишдан чўчимайди. Юзага келган муаммоларнинг асл сабабларини бировларнинг қошу қовоғига қараб ўтирмасдан дадил айта олади. Ҳар қандай ижодкорлик қобилияти мустақил фикр соҳибларига хосдир. Инсоннинг моҳияти, буюк яратувчилик қудрати фикр туфайлидир. Унинг томонидан яратилган барча маданият намуналари, аввало фикр маҳсулидир. Фикр тўхтаган ва ҳамма бир хил фикрлай бошлаган жойда тараққиёт ҳам тўхтайди. “Дунё фикр қилиб бугунги тараққиётга эришди. Дунё фикр қилса эртага тараққиётга эришади. Фикр тўхтаган жамиятда ботиний таназзул бошланади”[7].

Шундай экан, олий таълим тизимининг бутун моҳияти ёшларни мустақил фикрлайдиган шахслар қилиб шакллантиришга қаратилиши керак. Ёшларни мустақил фикрлашга ўргатиш - бу узоқ ва мураккаб жараён бўлиб, бу жараёнда олий таълим тизими ўта муҳим босқич ҳисобланади. Бу даргоҳга катта умидлар билан қадам босган ҳар бир ёшдаги ташаббускорликнинг, масалаларга индивидуал ёндошувнинг кичкинагина учқуни ҳам раҳбатлантирилиши, қўллаб-қувватланиши ҳамда ривожлантирилиши зарур. Ёшларни мустақил фикрлашга ўргатиш - бу уларнинг келажаги ҳақидаги энг катта ғамхўрликдир. Бугун уларнинг мустақил шахс сифатида шаклланишига кўмак, йўл-йўриқ берилса, улар эртага муаммоларни мустақил ҳал қила олади, тўғри қарорлар қабул қилади, жамиятнинг фаол иштирокчисига айланади.

Айниқса ижтимоий-гуманитар фанлар фикр эркинлиги, ижодкорлик қобилиятини ўстиришда муҳим аҳамиятга эга. Чунки уларнинг барчасида шахс масаласи, унинг шаклланиши, жамиятда бажарадиган вазифалари асосий масалалардан бири сифатида ўрганилади. Ҳар бир мавзу моҳиятини жамият ҳаёти билан чамбарчас боғлаб, бунда шахснинг ўрнини кўрсатиб бериш мақсадга мувофиқдир. Талабаларни дарс машғулотларининг оддий тингловчиси, бефарқ кузатувчиси эмас, фаол иштирокчисига айлантириш керак. Бунинг учун уларни ижодий фикрлашга, муаммоларга ноодатий ечимлар излашга, уларни бошқаларнинг фикрига мос келмаса ҳам ўз фикрини дадил ифодалашга даъват

7 Назар Эшонқул. Мендан “мен”гача. – Тошкен, “Akademnashr”,2014. – Б. 14.

этиш, ўргатиб бориш лозим. Талабаларнинг ўз фикрига эга бўлиши ва уни ҳимоя қила олиши уларнинг ўзига бўлган ишончини оширади ва мустақил шахс бўлиб камол топишига ёрдам беради.

Бу ҳолат айниқса фалсафа фани мисолида янада аниқ кўзга ташланади. Маълумки, фалсафа фанининг олий таълим муассасаларида ўқитилишидан кўзланган асосий мақсад - талаба ёшларда кенг дунёқарашни, юксак тафаккур маданиятини шакллантиришдан иборатдир. Аммо, ҳозирча кўзланган мақсадга тўлиқ эришилаяпти, деб бўлмайди. Фалсафа фанининг ҳикматлар хазинаси, очилмаган тилсимлари, бутун сиру-синоатлари талабалар қалбининг тўридан жой ола билмаётгандек. Бунинг асл сабаби ҳам шахснинг мустақил тафаккур юритиш лаёқати, қобилияти, ҳоҳиш-истаги билан боғлиқ бўлса керак. Зеро, фалсафага чин юракдан қизиқиш учун инсонда мустақил мулоҳаза юритишга иштиёқ, истак бўлиши лозим. Шу боис бўлса керак, файласуфликни ўргатиб бўлмайди, у ўрганилади, унга эришилади, дейишади. Борлиқ мўъжизаларини, тирикликнинг неъматларини, ҳаёт ҳақиқатларини, умр мазмунини, адолат ва ҳақиқатнинг мағзини чақиш учун, уларни бор-бўйича тушуниб етиш учун, дарвоқе, ўқишнинг ўзи камлик қилади, бу ҳикматларнинг ҳар бирини қалбан ҳис қилиш, чуқур англаши керак. Талабаларга бу ҳақиқатларни англатиш эса ўқитувчилар зиммасидаги энг асосий вазифа ҳисобланади.

Бунинг учун эса барча имкониятлар ишга солиниши керак. Ҳар бир дарс машғулоти замонавий педагогик ва ахборот технологияларининг энг сўнги ютуқларидан самарали фойдаланиган ҳолда олиб борилиши зарур. Айниқса фан ўқитувчиларининг чуқур билим ва юксак маҳорати туфайли талабаларда фанга бўлган қизиқишни, демакки, мустақил фикрлашга бўлган иштиёқни кучайтиради.

Шунингдек, фалсафий мушоҳада юритиш борасидаги миллий анъаналаримизни талабалар онгига сингдириш лозим. Зеро ҳар бир миллатнинг дунёни англаш, воқеликка муносабат билдиришида бошқаларникидан фарқли жиҳатлар мавжуд ва у ўзига хос тафаккур тарзи, менталитетига, яъни фалсафасига эга. Ёшлар ҳам ўз фалсафий тафаккури орқали дунёга муносабатини билдириш кўникмасига эга бўлсин. Қолаверса, талабаларда танқидий фикрлаш, ахборотни мустақил излаш ва таҳлил қилиш кўникмалари шакллантириш мақсадга мувофиқдир. Фалсафа илми тарихида жуда кўплаб нодир асарлар яратилганки, уларни ўқиб, уққан кишигина фалсафанинг ҳақиқий жозибасини, қудратини англаб етади, унинг сеҳрли қувватига ошуфта бўлиб қолади.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда олий таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад таълим сифатини жаҳон стандартлари даражасига кўтариш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш” дан иборатлиги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш

концепцияси”[8]да аниқ белгилаб қўйилган. Ҳар бир профессор-ўқитувчи ўз фаолият дастурини мазкур концепция талабларидан келиб чиқиб ташкил этиши ҳамда замонавий мутахассисларни етиштириб чиқаришга интилиши бугунги кун талабидир.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Boymurodov Sanjar, Mirqirbonova Dilnavo, To‘ychiyeva Aziza
O‘zMU talabalari

Bugungi davr globallashuv davri deb bejiz aytilmaydi. Har bir soha, ayniqsa iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalariga globallashuv sharoiti o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan bir paytda, ta’lim, yangilanib bormoqda. Axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgani sababli o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham bu o‘zgarishlarga moslashishi kerak bo‘lyapti. Pedagogika va psixologiya esa aynan shu jarayonda eng muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Chunki insonni tarbiyalash va uning ruhiy holatini tushunish zamonaviy ta’lim sohaning asosi hisoblanadi.

“Globallashuv davrida yoshlarimizning ongi va qalbi uchun kurash ketmoqda. Shuning uchun biz ularning tafakkurini mustahkamlash, milliy o‘zligiga sodiq, lekin zamon bilan hamnafas avlodni tarbiyalashimiz zarur.”[1] Prezidentimizning ushbu so‘zlarida ham globallashuv inson tafakkurini, dunyoqarashini o‘zgartirayotgan bir paytda biz yoshlarga bilim berish bilan birga, ularni katta hayotga tayyorlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatishimiz bizning eng asosiy muammomiz va vazifamiz ekanligi ta’kidlangan.

XXI asrda globallashuv insoniyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot yoki siyosatga, balki ta’lim va tarbiya sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [2]. Shu sababli pedagogika va psixologiya fanlari bugungi kunda insonni zamon talablariga mos tarzda tarbiyalash, uning ruhiy dunyosini muvozanatda saqlashda muhim o‘rin tutadi.

Globallashuv davrida ta’lim tizimi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Zamonaviy pedagogika innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, raqamli ta’lim muhitini yaratish va o‘qituvchi rolini o‘zgartirishni talab etadi [3].Masalan, onlayn o‘qitish, sun’iy intellekt yordamida ta’lim olish, xalqaro ta’lim dasturlari o‘qituvchi pedogoglardandan yangicha metodikani talab qiladi. Bugungi pedagog va psixologning roli o‘ta mas’uliyatli. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ruhiy tayanchi bo‘lishi kerak. Shu bois,

8 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847 “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони. Lex.uz.

ularning kasbiy salohiyatini oshirish, zamon bilan hamnafas bo‘lishi, lekin milliy qadriyatlarimizni ham asrab qolishi zarur. “Pedagogning huquqlari, sha‟ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘ladi”.[4] O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida pedogogning huquqlari qat’iy qonunlar orqali himoyalab qo‘yilgan.

Globallashuv inson psixologiyasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tezkor axborot oqimi, raqobat, va madaniy aralashuv inson ruhiyatida stress va ijtimoiy bosimni keltirib chiqarmoqda [5]. Shu bois psixologlar o‘quvchilar va talabalar orasida psixologik moslashuv, stressni boshqarish, va motivatsiyani oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishlari lozim bo‘lib kelmoqda.

Bugungi pedagog va psixolog shunchaki mutaxassis emas, balki jamiyatning ma’naviy tayanchi hisoblanadi. Ular nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchining ruhiy holatini, dunyoqarashini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, pedagog va psixolog o‘z ustida tinimsiz ishlashi, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi, shu bilan birga milliy qadriyatlarga sodiq qolishi kerak [6].

Globallashuv sharoitida pedagogika va psixologiya fanlari bir-birini to‘ldiruvchi tizimlardir. Ularning asosiy vazifasi – insonni zamon talablariga mos, lekin milliy qadriyatlarini saqlagan holda tarbiyalashdir.

Shu bois, ta’lim muassasalarida pedagogik-psixologik xizmatni kuchaytirish, innovatsion yondashuvlar asosida shaxs rivojiga e’tibor qaratish bugungi kunning dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev, Ta’lim va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdan, 2020-yil 6-noyabr

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. To‘raqulov, B. (2021). Globallashuv davrida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari. – “Pedagogika” jurnali, №3.

4.O‘zbekiston Respublikasi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni (2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son)

5. Raximova, S. (2020). Globallashuv sharoitida yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy moslashuv. – Toshkent: Fan nashriyoti.

6. Qodirov, N. (2022). Zamonaviy pedagog va psixolog shaxsini shakllantirish omillari. – “Psixologiya va ta’lim” jurnali, №2.

NIKOH SHARTNOMASI: MULK, ISHONCH VA KELAJAKNI HIMOYA QILISH SAN’ATI

Chorshamova Go‘zal To‘liboy qizi
“Yurisprudensiya” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Kirish. Sevgi – bu qalb ishidir, ammo oila – bu nafaqat yurak, balki aql va mas’uliyat hamdir. Zamonaviy dunyoda nikoh nafaqat ikki insonning birlashuvi, balki ikki mulkiy subyektning ham uchrashuvidir. Statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda har uchta nikohdan biri ajralish bilan tugaydi, va ajralishlarning 70% dan ortig‘i mulk taqsimoti bo‘yicha nizolar tufayli sudda uzoq yillar davom etadi. Aynan shu og‘riqli tajribalarning oldini olish uchun 1998-yilda O‘zbekiston qonunchiligiga nikoh shartnomasi instituti kiritilgan. Bu – G‘arbning “prenuptial agreement” deb ataydigan hujjati bo‘lib, unda turmush o‘rtoqlar o‘z mulklarini, daromadlarini, qarzlarini va kelajakdagi mulkiy mas’uliyatlarini oldindan, adolatli va oshkora tarzda kelishib oladilar. Nikoh shartnomasi – bu ishonchsizlik emas. Aksincha, bu eng yuqori darajadagi ishonch belgisi: “Men senga shunchalik ishonamanki, hatto eng og‘ir kunlarda ham adolatli bo‘lishni oldindan va’da beraman”.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasida nikoh shartnomasi institutining huquqiy asoslari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan:

Oila kodeksi. Oila kodeksining 40–44-moddalari nikoh shartnomasining mazmuni, tuzilishi va amal qilish tartibini belgilaydi. Nikoh shartnomasi – erkak va ayolning nikoh davomida va nikohdan keyingi mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi kelishuv. Nikoh shartnomasi faqat er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Shartnomada shaxsiy nomulkiy huquqlar (masalan, kim qaysi do‘stlar bilan uchrashishi, uy ishlarini bo‘lishish va h.k.) ko‘rsatilishi mumkin emas. Shartnoma hech qachon er-xotindan birini og‘ir ahvolga solib qo‘yadigan darajada adolatsiz bo‘lishi mumkin emas. Nikoh shartnomasi notarial tasdiqlangan shaklda tuziladi.

Fuqarolik kodeksida shartnomalarning umumiy qoida va talablari, muomalaga layoqatlilik, bitimlarning haqiqiyligi, muhrlash tartibi kabi normalar qo‘llanadi. Nikoh shartnomasi albatta notarius tomonidan tasdiqlanishi shart. Notarius tomonlarga shartnoma mazmuni, oqibatlari va huquqiy javobgarlikni tushuntirishi lozim. Nikoh shartnomasi quyidagi ketma-ketlikda tuziladi: Er va kelin yoki nikohdan o‘tgan turmush o‘rtoqlar o‘zaro: qaysi mulk umumiy bo‘lishi, qaysi mulk alohida bo‘lishi, daromadlar taqsimoti, kredit va qarzdorliklar uchun javobgarlik, nikohdan ajralganda mulkning bo‘linish tartibi kabi masalalarda kelishib olishadi.

Shartnoma odatda yurist yoki notarius tomonidan tayyorlanadi.Unda tomonlarning pasport ma’lumotlari, nikoh haqida ma’lumotlar, mulkiy

tartiblar batafsil yoziladi. Tomonlar quyidagi hujjatlar bilan notariusga boradi: Pasportlar, Nikoh guvohnomasi (agar nikoh tuzilgan bo‘lsa), Mulklarga oid hujjatlar (agar u shartnomaga kiritilsa), Notarius: shartnoma mazmunini tushuntiradi, tomonlarning roziligini tekshiradi, shartnomani tasdiqlaydi. Agar nikohgacha tuzilgan bo‘lsa – nikoh rasmiylashtirilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Agar nikohdan keyin tuzilgan bo‘lsa – notarial tasdiqlangan kundan boshlanadi. Faqat er-xotinning o‘zaro roziligi bilan. O‘zgartirishlar ham notarial tasdiqlanishi shart.

Shartnomani bekor qilish er-xotinning o‘zaro arizasi bilan notarius orqali yoki sud tomonidan — agar shartnoma adolatsiz, bir taraf uchun zararli bo‘lsa.

Nikoh shartnomasi odatda quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

1) Kirish qismi: Tomonlarning pasport ma’lumotlari, nikoh to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

2) Shartnomaning predmet: Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini tartibga solish.

3) Tomonlar mulkiga oid qoidalar. Nikohgacha bo‘lgan mulk, nikoh davomida orttirilgan mulk, xususiy mulk ro‘yxati, umumiy mulk ro‘yxati, sovg‘a, meros, nafaqa mablag‘lari tartibi.

4) Daromadlar va xarajatlar tartibi: Oylik ish haqi, dividendlar, tadbirkorlik daromadi taqsimoti, oila budjeti yuritilishi. Kredit va qarzlar bo‘yicha javobgarlik.

5) Mulkni bo‘lish tartibi: Ajrashgan taqdirda mulk qanday bo‘linishi. Uy-joy, transport, texnika, biznes ulushi, bank omonatlari.

6) Qo‘shimcha shartlar: Mulkni boshqarish. Kafolatlar va majburiyatlar. Ishonchli boshqaruvga berish tartibi (agar kerak bo‘lsa)

7) Yakuniy qoidalar: Kuchga kirish muddati. O‘zgartirishlar tartibi. Tomonlarning imzolari. Notariusning tasdig‘i

Nikoh shartnomasining ahamiyati. Er-xotinni moliyaviy xavflardan himoya qiladi, oila byudjetini aniq boshqarishga yordam beradi, ajrashish holatida adolatli mulk taqsimotini ta’minlaydi, moliyaviy shaffoflik va o‘zaro ishonchni kuchaytiradi

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 27-moddasining asosiy mazmuni — “Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish”. Nima nazarda tutiladi:

27-modda er-xotinning umumiy mol-mulkini (ya’ni nikoh davomida birgalikda orttirilgan mulk) bo‘lishi mumkinligini nazarda tutadi. Buni quyidagi hollarda amalga oshirish mumkin: nikoh davomida, nikohdan ajralgandan keyin, yoki kreditor tomonidan er-xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga nisbatan undiruv talab qilinganda.

Bo‘lish tartibi va variantlari 27-modda bo‘yicha umumiy mol-mulkni bo‘lish quyidagicha bo‘lishi mumkin:

O‘zaro kelishuv asosida — er va xotin o‘rtasida kelishuv asosida umumiy mol-mulk bo‘lishi; agar xohlasalar, bu kelishuv notarial tartibda ham tasdiqlanishi mumkin.

Sud tartibida — agar tomonlar birortasining talab qilishi bilan yoki nizolar sababli bo‘lish zarur bo‘lsa, shuningdek umumiy mol-mulkdagi ulushlarini aniqlash zarur bo‘lganda, sud orqali bo‘lish belgilanishi mumkin.

28-modda bo‘yicha quyidagi jihatlar muhim: Sud bo‘lish qarorini chiqararkan, har bir er-xotinga mulkning qaysi qismi berilishi belgilanadi. Agar bir tomon ulushidan ortiq qimmat mol-mulk olsa — boshqa tomonga kompensatsiya pul yoki boshqa shaklda berilishi mumkin. Nikoh tugaganidan keyin er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mulk, agar bo‘lish paytida ko‘rib chiqilsa — har birining shaxsiy mulki deb hisoblanishi mumkin.

Nikoh davomida umumiy mol-mulkni bo‘lishni talab qilish mumkin, ya’ni bo‘lish har doim faqat ajralish paytida emas.

27-moddaning amaliy ahamiyati shundaki, bu modda er va xotin o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni himoya qiladi — umumiy mulk bo‘linganda adolatli taqsimotga asos beradi. Nikoh davomida bo‘lish imkoniyati mavjudligi — moliyaviy nizolar, qarzlar, kreditlar bo‘yicha aniq huquqiy asos. Nikoh tugagach yoki ajralish holatlarida, sud orqali mulk taqsimatini belgilash imkoniyati — taraflar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Nikoh shartnomasi nikohdan OLDIN ham, nikoh DAVOMIDA ham tuzilishi mumkin.

1) Nikohdan OLDIN tuzilishi: Er va xotin bo‘lishni rejalashtirayotgan shaxslar nikohdan avval shartnoma tuzishi mumkin. Lekin u nikoh rasmiylashtirilgandan keyin kuchga kiradi. Nikohdan oldin tuzilgan shartnoma — kelajakdagi moliyaviy munosabatlarni rejalashtirish uchun qulay.

Er-xotin istalgan vaqtda nikoh davomida ham shartnoma tuzishi mumkin.Bu holatda shartnoma notarius tasdiqlagan kundan kuchga kiradi. Har ikki holatda ham shartnoma faqat notarial tartibda rasmiylashtiriladi. Shartnoma faqat mulkiy huquq va majburiyatlarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Bir tarafning manfaatini keskin buzadigan (og‘ir ahvolga solib qo‘yadigan) shartlar haqiqiy emas deb topiladi.

Hayotdagi real foydalari. Mulkni aniq taqsimlash. Misol: Er va xotin nikoh davomida uy sotib oldi. Shartnomada uyning kimga tegishli ekani yozilgan. Ajralish paytida sud aralashmaydi, mulk avtomatik tarzda shartnoma bo‘yicha taqsimlanadi.

Kredit va qarz masalalarini tartibga solish. Misol: Er shaxsiy biznes uchun kredit oldi, xotinning roziligi bo‘lmasa, umumiy mulk garovga qo‘yilmaydi. Nikoh shartnomasi kredit va qarz javobgarligini oldindan belgilab beradi.

Ajrashish holatlarida nizolarni kamaytirish. Misol: Ajrashish paytida shartnoma asosida bolalar va mol-mulk masalalari allaqachon kelishilgan. Shu bilan ajrashish tez va adolatli bo‘ladi.

Moliyaviy xavfsizlik va ishonch. Misol: Har ikki tomon moliyaviy majburiyatlarini oldindan biladi, oila byudjeti aniq bo‘ladi, moliyaviy nizolar kamayadi. Nikoh shartnomasi hayotda mol-mulk, qarz, ajralish va moliyaviy xavfsizlik masalalarini oldindan tartibga soladi va nizolarni sezilarli darajada kamaytiradi.

O‘zbekistonda ajralish sudi 3–5 yil davom etmaydi. Odatda bir necha oy ichida yakunlanadi. Agar bolalar, mulk, aliment bo‘yicha katta nizolar bo‘lmasa 1–3 oyda tugaydi. Nizo kuchli bo‘lsa ham odatda 3–6 oy atrofida hal qilinadi. Ya’ni, ajralish jarayoni uzoq yillar davom etmaydi. Nikoh shartnomasi bo‘lsa, bu muddat yana ham tezlashadi.

Nikoh shartnomasi bo‘yicha: kredit va mulk masalasi:Kredit olishda bank mulkdorning roziligini so‘raydi. Agar mulk er-xotinning umumiy mulki bo‘lsa, ikkala tomonning ham roziligi talab qilinadi. Nikoh shartnomasida esa oldindan: “Qaysi mulk kimga tegishli, kim kredit bo‘yicha javobgar bo‘ladi” — aniq belgilab qo‘yilishi mumkin. Shuning uchun nikoh shartnomasi kredit va mulk masalalarida aniqlik va xavfsizlik yaratadi.

Hozirgi holatda Nikoh shartnomasi qonunda bor, lekin amaliyotda juda kam qo‘llanadi. Aksariyat odamlar buni “ishonchsizlik belgisi” deb o‘ylaydi. Huquqiy savodxonlik yetarli emasligi sababli ko‘pchilik shartnomaning afzalliklarini bilmaydi. Kelajakda huquqiy madaniyat oshgani sayin nikoh shartnomasi ommalashadi. Yoshlar moliyaviy masalalarda ongliroq bo‘lib, shartnoma tuzish odatiy holga aylanadi. Davlatning oilaviy nizolarni kamaytirish siyosati ham bu jarayonni tezlashtiradi. Hozir kam qo‘llanadi, kelajakda esa keng tarqalishi kutiladi.

Hozirda nikoh shartnomalari asosan boy oilalarda uchraydi, ammo Yevropa va AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, 10–15 yil ichida bu oddiy o‘rta sinf oilalari uchun ham odatiy holga aylanadi. Huquqshunoslar bashoratiga ko‘ra, 2030-yilga kelib O‘zbekistonda har 5-nikohdan 1 tasida nikoh shartnomasi bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Nikoh shartnomasi – bu sevgi haqidagi hujjat emas. Bu – sevgi uzoq yillar davom etishi uchun yaratilgan aql bovar qilmaydigan darajada oqilona va adolatli hujjat. U sevgi tugasa ham, hurmat qolishiga kafolat beradi. U “Agar bir kun kelib ajrashsak…” deb o‘ylaydigan emas, balki “Biz abadiy birga bo‘lishimiz uchun eng yomon stsenariyda ham adolatli bo‘laylik” deb o‘ylaydigan aqlli va mas’uliyatli odamlarning tanlovidir. Nikoh shartnomasi – bu ishonchsizlikning belgisi emas. Bu – eng katta ishonch va eng chuqur hurmatning zamonaviy ifodasidir. Seving, ishonch bilan yashing va

kelajagingizni aql bilan himoya qiling. Chunki haqiqiy sevgi nafaqat yurakda, balki adolatli kelishuvda ham yashaydi.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNI TANLASH VA ULARNING KASBIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MASALALARI

Davlatova Dildora Nuriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar jamiyat taraqqiyotining barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasidagi o‘zgarishlar pedagog shaxsiga, uning kasbiy salohiyati va dunyoqarashiga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarni tanlash hamda ularning kasbiy rivojlanishini boshqarish masalalari dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar pedagog kadrlar sifatini oshirishni ustuvor vazifa etib belgiladi. Xususan, 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim bosqichlarida kadrlar siyosatini ilmiy asosda tashkil etishni taqozo etadi. Ushbu jarayonda maktabgacha ta’lim tizimi uchun yuqori malakali, kasbiy jihatdan yetuk va innovatsion fikrlovchi pedagoglarni tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. 2017-yildan boshlab maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar mazkur sohada boshqaruv va kadrlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagoglarni tanlash jarayoni faqatgina diplom va ish stajiga asoslanib qolmasdan, balki ularning kasbiy kompetensiyalari, psixologik-pedagogik tayyorgarligi, bolalar bilan ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi va shaxsiy fazilatlarini kompleks baholash asosida amalga oshirilishi zarur.

Maktabgacha ta’lim pedagogini tanlashda kompetensiyaviy yondashuv muhim metodologik asos hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi uning nazariy bilimlari, metodik mahorati, kommunikativ qobiliyati, innovatsion faoliyatga tayyorligi va refleksiv fikrlash ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Shu bois, pedagoglarni tanlash jarayonida kasbiy sinovlar, suhbatlar, amaliy mashg‘ulotlar va psixologik diagnostika vositalaridan foydalanish tanlovning samaradorligini oshiradi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini boshqarish maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz va tizimli jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Ushbu jarayon pedagoglarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, metodik xizmat orqali qo‘llab-quvvatlash hamda faoliyat natijalarini monitoring qilishni o‘z ichiga oladi. Kasbiy rivojlanishni boshqarishda individual yondashuv muhim bo‘lib,

har bir pedagogning kasbiy ehtiyojlari, tajribasi va rivojlanish darajasi inobatga olinishi zarur. Maktabgacha ta’lim muassasalarida metodik ishlar pedagoglarning kasbiy rivojlanishini boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi. Metodik ishlar orqali pedagoglarga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etish va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Katta tarbiyachi va muassasa rahbarining metodik rahbarlik faoliyati pedagoglarning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagoglarni tanlash va ularning kasbiy rivojlanishini boshqarishda mentorlik tizimini joriy etish alohida ahamiyatga ega. Tajribali pedagoglar tomonidan yosh mutaxassislarga metodik va amaliy yordam ko‘rsatish kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi hamda ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish ularning kasbiy rivojlanishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Pedagoglarni tanlash jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan maktabgacha ta’lim muassasasida mavjud boshqaruv tizimiga bog‘liqdir. Tanlov jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, aniq mezon va talablarni belgilash, shuningdek, pedagogik faoliyatga layoqatlilikni aniqlovchi baholash vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Nomzodlarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, ularning bolalar bilan ishlash madaniyati, muloqot ko‘nikmalari, mas’uliyati va kasbga sadoqati ham e’tiborga olinishi lozim. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uzluksiz jarayon bo‘lib, u pedagogning butun faoliyati davomida olib boriladi. Ushbu jarayon pedagogning o‘z ustida ishlashi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi, innovatsion metodlarni o‘zlashtirishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Kasbiy rivojlanishni boshqarishda pedagogning shaxsiy ehtiyojlari, kasbiy qiziqishlari va rivojlanish darajasini hisobga olish individual yondashuvni ta’minlaydi. Pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi ularning kasbiy rivojlanishini boshqarishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Malaka oshirish jarayonlari nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va tajriba almashish faoliyati bilan uyg‘unlashgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu pedagoglarning o‘z faoliyatida duch keladigan muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi hamda ta’lim-tarbiyaviy jarayon sifatini oshiradi. Metodik xizmat maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini boshqarishda muhim o‘rin egallaydi. Metodik ishlar pedagoglarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, ilg‘or ish tajribalarini joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Metodik faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan katta tarbiyachi va uslubchining kasbiy mahorati, tashabbuskorligi va boshqaruv kompetensiyasiga bog‘liqdir. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini boshqarishda faoliyatni baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Pedagog faoliyatini muntazam monitoring qilish, erishilgan natijalarni tahlil etish va ularni rag‘batlantirish orqali pedagoglarning kasbiy o‘sishga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Rag‘batlantirish nafaqat moddiy, balki ma’naviy shakllarda ham amalga oshirilishi pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi. Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta’lim pedagogidan yuqori

darajadagi kasbiy moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va ijodkorlik talab etiladi. Shu sababli, pedagoglarni tanlash va ularning kasbiy rivojlanishini boshqarish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda ta’lim jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarni tanlash va ularning kasbiy rivojlanishini boshqarish ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim shartidir. Ushbu jarayonni ilmiy asosda, tizimli va uzluksiz tarzda tashkil etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali maktabgacha ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-3261-son Qarori. – Toshkent, 2017.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PF-5198-son Farmoni. – Toshkent, 2017.
3. Abdullayeva M.M. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari. – *Ta’lim va innovatsiya* ilmiy jurnali, 2019, №2.
4. Qodirova S.R. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagoglar faoliyatini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari. – *Pedagogik mahorat* jurnali, 2021, №4.
5. Azizxoʻjayeva X.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2003.
6. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan, 1995.

ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ БАҒРИКЕНГЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ

Джалилов Б.Х.
ЎзМУ доценти, фалсафа фанлари номзоди

Ёшлар бағрикенглик дунёқарашини шакллантириш долзарб масаладир. Президент Ш.Мирзиёёв таъкидлаганидек: “..ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришга” (1) алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бағрикенглик ҳар бир шахснинг ўз-ўзини англаши, ва шу асосда ўзгаларга муносабати характерини ифодаловчи тушунчадир. Ҳар бир инсон учун бошқа инсонларнинг мавжудлиги, ўзига хос дунёқарашга, ахлоқий қиёфага, турмуш

тарзига, ижтимоий мавқега эгалиги объектив воқеликдир. Бағрикенгликнинг фалсафий негизи ҳам шундадир.

Бағрикенглик тушунчаси моҳиятан ижтимоий воқеликнинг муайян томони, хусусиятини акс эттиришини назарда тутган ҳолда унинг мазмунини аниқ белгилаш учун ўрганиш обектини икки даражада олиб қараш керак: шахслараро муносабатлар ва ижтимоий (жамоавий) муносабатлар. Таҳлилни шахслараро бағрикенглик феноменидан бошлаш кераклиги жамоалар (страта, давлат, миллат, динлар) шахслардан иборат эканлиги, шахслар бағрикенглик дунёқараши ва тафаккури ижтимоий муносабатлар мазмунига таъсирининг белгиловчилик характеридан келиб чиқари.

Бағрикенглик дунёқараши бу ижтимоий феноменнинг мазмуни ва моҳияти, шакллари тўғрисидаги илмий билимлар мажмуидир. Бағрикенглик тафаккури ана шу билимларга таяниб фикр юритиш, мушоҳада ва мулоҳаза қилишдир. Инсонлар ҳаётида бағрикенгликка асосланган амалиётнинг самарадорлиги ва натижадорлиги бағрикенглик дунёқарашнинг кенглиги, чуқурлиги, бойлигига асосланган бағрикенглик тафаккури даражаси ва савиясига боғлиқ. Ижтимоий тараққиёт динамикаси уни амалга ошираётган жамият аъзоларида бағрикенглик дунёқараши ва тафаккури қай даражада юқорилигига боғлиқдир. Бағрикенглик омилининг ижтимоий барқарорлик, жамиятда тинчлик, аҳил-тотувлик, ижтимоий ҳакорликни таъминлашдаги беқиёс ўрни ва аҳамияти бугунги кунда тан олинган аксиоматик ҳақиқатдир.

Дунёқараш мазмунини ташкил этувчи билимларнинг намоён бўлиши, юзага чиқиши тафаккур (фикр юритиш) га боғлиқ эканлигини назарда тутсак, уларнинг узвийлиги муҳимдир. Билимдонлик донишмандлик эмасдир, деган олтин қоидани доимо ёдда тутиш лозим. Кўп ўқиган, кўпни кўрган билимлидир, лекин фикр қилмаса бу билимлар қадр-қимматсиздир. Бу мулоҳазалардан хулоса шуки, бағрикенглик дунёқараши ва тафаккури ички узвий боғлиқдир. Бу қоидани доимо эсда тутиш таълим ва тарбия самарадорлигини таъминлайди.

Шахслараро муносабатларда бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурининг ўрни ва аҳамиятини кўтариб чиқамиз.

Ҳар бир шахснинг ўз ҳаёти мазмуни ва мақсадини аниқлаб олиши ижтимоий фаоллик даражасини белгилайди. Шахснинг бу билимлари (тушунчалари) бошқа шахсларга муносабати характерини белгилайди. Шахснинг ўз атрофидагиларига муносабати шакл-шамойиллари ва мазмунини бойитадиган, инсонийлаштирилган омиллардан бири бағрикенглик дунёқараши ва тафаккуридир. Бағрикенглик шахс дунёқарашининг муҳим жиҳатларидан бири сифатида ҳар бир инсоннинг ахлоқий етуклиги ва маънавий бойлиги кўрсаткичидир. Даврimиз талаби ҳам ёш авлоднинг бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурини шакллантириш ва ривожлантиришдир.

Бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурининг шаклланиши ва намоён бўлишининг нисбатан мустақил, лекин бир-бирини тўлдирувчи босқич ёки

поғоналарини ажратиб кўрсатиш мумкин: улар умумий тарзда қуйидагилардир: 1) тан олиш; 2) ҳурмат қилиш, ва 3) ҳамкорлик қилиш. Биринчи ва иккинчи босқичлар бевосита шахс дунёқараши ва тафаккурининг ички, ботиний томонини ифодаласа, учинчи босқич шахс дунёқараши ва тафаккури намоён (зоҳирий томон) бўладиган ижтимоий фаолияти ифодасидир. Агар бағрикенглик биринчи ва иккинчи босқич билан чекланиб қолса, бу пассив бағрикенгликдир. Учинчи босқичнинг амалга ошиши бағрикенгликни актив фаолият даражасига кўтаради.

Ёшларнинг ўзини англаши жараёни уларнинг ўзларига баҳо беришларидан бошланади. Улар мен кимман, деган саволга (албатта жинсий, ижтимоий мавқе белгиларидан бошқа) жавобда ахлоқий ва маънавий фазилатларини санаб ўтиш сўралганда, қуйидаги ҳолатларга дуч келамиз. Аксарият кўпчилик ёшлар эгоистик мотивлар, ўзига махлиёлик (нарциссизм) туфайли ўзларига ортиқча баҳо берадилар. Бундай ортиқча бўрттиришлар манманлик, ўзини бошқалардан юқори қўйиш, ўзгаларни менсимаслик каби ғайриахлоқий иллатлар асосида эгоизм ва тажовузкор индивидуализм дунёқараши юзага келишига олиб келади. Бундай ёшларнинг дунёқарашида бағрикенглик эмас, тоқатсизлик ҳукмрон бўлиб қолади, бундай тафаккур эгаларининг бошқалар билан муносабатлари аксар ҳолларда зиддиятли, нохуш, салбий кўринишларда бўлади, бундай ҳолат ўз навбатида интолерант тафаккурга эга бўлган йигит ва қизлар мансуб бўлган ижтимоий гуруҳларда носоғлом муҳит юзага келишига олиб келади.

Ҳаётда камроқ бўлсада учраб турадиган ҳолат ёшларимиз ўз билимлари, имкониятлари, фазилатларига ишонқирамай, шубха билан қарашади. Бир ишни қилсам, уддалармиканман, гапирган гапим ёки фикрим тўғри бўлмаса, устимдан кулишмасмикан каби мулоҳазалар асосида улардан воз кечиб қўя қоладилар. Натижада суҳбатлар, гурунглардан ўзларини торта бошлайдилар, ижтимоий алоқалар доираси торая боради. Бу ҳолда биз ўзига ортиқча баҳо беришнинг акси бўлган ўзини камситиш, ўзига ишонмасликни кўрамиз. Инсоннинг, айниқса ёшларнинг ўзига, ўз имконият ва салоҳиятига етарлича баҳо бера олмасликлари, ўз-ўзини камситиши тушкунликка, ўз кучига ишонмасликка, ижтимоий пассивликка олиб келади. Қизиқишлари, интилишлари доираси тобора кичрайиб бориши инсон дунёсини фақат ўзи билан чекланишига олиб келиши мумкин. Бундай кескин ҳолат ҳаётдан безишга ва ҳатто ундан воз кечишга (суицид) олиб келиши мумкин.

Юқоридаги икки ҳолатда ўзига баҳо бериш вариант оқибатларини бартараф этишнинг бирдан-бир тўғри йўли ҳар бир ёш ўзига, ўз қадр қиммати, ижтимоий мавқеи, ахлоқий қиёфаси, дунёқараши кенглиги ва маънавий бойлигига тўғри, холис, объектив баҳо бера билиши керак. Холислик, объективликнинг мезони эса ўз-ўзига бахонинг ўзгалар томонидан тан олиниши, қабул қилинишидир.

Ёшларда бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурининг шаклланиши ва улар фаолиятлари, кундалик турмуш хатти-ҳаракатларида етакчи мавқега эга бўлиши уларнинг маданий-маънавий савияларининг кўрсаткичидир.

Ёшлар орасида ижтимоий ва иқтисодий, жисмоний тафовутлар мавжуд ва улар объектив ҳарактерга эга. Бу тафовутларни бўрттириш, зиддиятли даражага олиб бориш бағрикенглик дунёқараши ва амалиёти орқали бартараф этилади. Бу салбий ҳолатларнинг “болалаб” кетишига йўл қўймаслик ўқитувчи, мураббий ва тарбиячиларнинг вазифасидир.

Инсонларнинг ўзларига холисона баҳо бера олиши бошқа инсонларни бахолашда ҳам объектив бўлишга, уларни фазилатларию камчиликлари билан кабул килишга, ўзлари билан тенгликларини, ўз фикри, дунёкараши, хаёт тарзига эга эканини тўғри тушуниш ва англашга олиб келади. Шахслараро бағрикенгликнинг асоси хам шудир, яъни хар бир инсон томонидан бошқалар ҳам унинг ўзи кабилигини, ўзига ўхшашлигини тан олишдир. Бунда ирқий мансублик, миллат ва элатга тааллуқлилик, ижтимоий келиб чикиш, касб-кор ва бошкалар назарга олинмайди. Фақат соф шахсий фазилатлар асосидагина инсонлар бир-бирини тан олиши тушунилади.

Бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурига эга шахслар бошқа шахсларни тан олиш билан чегараланмай, уларнинг фикрлари, кадриятлари, дунёқарашлари, орзу-умидлари, ҳаёт тарзлари, миллатлари, динлари, ахлок ий фазилатлари, маънавий бойликларига хурмат билан карайдилар. Хурмат килиш инсонлараро муносабатларнинг юксак ахлокий ва маънавий томонидир. Реал ҳаётда шахсларнинг ўзаро тан олишлари бир-бирларини хурмат килиш даражасига кўтарилмаслиги мумкин. Кибр-хаво, хасадгуйлик, кўролмаслик, бахиллик каби иллатларига гирифтор бўлган одамлар бағрикенглик тафаккуридан узоқ булиб, бошқа инсонларга нисбатан беҳурмат муносабатда бўладилар.

Инсонлар ўзгаларни тан олиш ва хурмат килиш асносида фикрлар, карашлар, эхтиёж ва манфаатлар, мақсад ва идеалларда ўхшашликлар борлигини, муштараклик мавжудлигини англай бошлайдилар. Бундай, эътироф инсонларни бир-бирига яқинлаштиради, ижтимоий фаолиятларини ўзаро мувофиклаштириш эҳтиёжини туғдиради ва шу асосда ўзаро хамкорлик юзага келади. Умумижтимоий мақсадларга эришиш йулида инсонларнинг бир-бирларини қўллаб-қувватлаши, ўзаро хамкорлиги бағрикенглик тафаккурининг юқори боскичи сифатида ҳам шахсий, ҳам ижтимоий қадриятга айланади.

Бағрикенглик тафаккури инсонларнинг ўзига хослиги, турфа хиллиги, индивидуаллигини инкор этмайди, уларнинг фикрлари, дунёкарашлари, хаётни тушуниш ва билимлари ўртасида тафовутлар, хатто қарама-қаршиликлар бўлишини тан олади.

Бағрикенглик тафаккурининг мақсад ва вазифаси шундан иборатки, бу тафовут ва қарама-каршиликлар бахс-тортишувларга, кескин зиддиятларга, ўзаро конфликтларга, низо ва тўқнашувларга айланиб кетмаслигининг олдини олишдир. Бундай холларда, бағрикенглик тафаккурига эга шахслар хар доим бу масалаларнинг ҳар иккала томонга маъкул ва манзур ечимини топишга, ўзаро келишишга, муроса қилишга ҳаракат киладилар ва максадга эришадилар. Шундай

қилиб, бағрикенглик тафаккури инсонлараро муносабатларда бир-бирини тан олиш, хурмат килиш ва хамкорлик килишни ўз ичига олади. Маълумки, инсонлар муайян бир миллат, элат, давлат, синф, ижтимоий гурух вакили, муайян диний, сиёсий, хуқуқий ва бошқа карашлар субъекти, маданият, мафкура тарафдори сифатида муайян жамият аъзоларидир. Уларнинг ижтимоий ҳолатларига қараб, бағрикенглик конкрет кўринишларда намоён булади.

“Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили” китоби муаллифлари ёшларимиз бағрикенглик дунёқарашини шакллантирувчи билимлар мазмуни тўғрисидаги фикрлари диққатга сазовор. Ёшларимиз “муросасизлик, нафрат ва зўравонликларнинг турли кўринишларининг асл сабаблари, манбалари ва илдизлари”; “ўзгача анъана ва маросимларга ётсираб караш умуминсоний маданият ва маънавият ривожига салбий таъсир курсатиши”; “бошқаларнинг” шаъни ва қадр-қимматини хақоратловчи хатти-харакатлар, ижтимоий заминдаги адоват, душманлик ва экстремизм инсониятнинг бир бутунлиги, тинчлиги ва тараққиётига тахдид солаётгани; “бошкаларга” ўз қарашлари ва қадриятларини мажбуран сингдиришга каратилган хатти ҳаракатлар инсон хуқуқ ва эркинликларига зидлиги;' “бошкалар” ҳамда “узгача” ходисаларга нисбатан нохолислик, паст назар билан қараш, уларнинг соҳибларига салбий муносабат тарихнинг хамма даврларида кўплаб фожеаларни келтириб чикаргани; “бошқаларга” нисбатан ётсираш, тоқатсизлик ва муросасизлик кўринишлари мамлакат суверенитети ва хавфсизлигига тахдид туғилишининг асосий манбаи; “ўзгача” қадриятларга хар томонлама ҳурмат кўрсатилишини таъминлаш ўзбек халқининг асрий анъаналарига ҳамоҳанг экани” хақидаги: билимларни узларига сингдиришлари лозим.

Шахслараро бағрикенглик тахлили асосида кўрдикки, бағрикенглик шахс дунёқарашининг муҳим томони; юксак ахлокий фазилатдир, комил инсон маънавиятининг намоён бўлишидир.

ОТМларда ўрганилаётган “Фалсафа” ва “Диншунослик” фанларининг ўрни ва аҳамияти катта. Умумий тарзда “Фалсафа” фанининг фалсафий дунёқараш мавзуси, “Инсон фалсафаси”, “Жамият фалсафаси”, “Ахлоқ фалсафаси” мавзуларини ўрганишда улардаги бағрикенглик тўғрисидаги ғоялардан кенг ва чуқур фойдаланиш мухимдир.

Диний бағрикенглик мавзусини ўрганишда бу ғоя ҳамма динларда мавжуд эканлиги ва айниқса Ислом динида катта ўрин ва эътибор берилганига талабалар дунёқарашини шакллантиришда мухим эканлигини назарда тутиш лозим.

Бу фикрлар чуқур ва кенг ўрганилиши илмий ва амалий аҳамиятга лойиқдир.

Бағрикенглик дунёқараши ва тафаккурини шакллантиришни қачондан бошлаш керак? Бу саволга жавоб, бола тарбиясини қачондан бошлаш керак, деган саволга ҳаммага маълум бўлган жавоб, яъни туғилган даврдан бошлаш кераклигини назарда тутиб, унинг ўзига хос қирраларини ҳисобга олган тарзда амалга оширилади.

Ўзбек халқининг менталитетига хос бўлган болажонлик, уларга меҳрибонлик, бор-будини уларга тутиш, мен кўрмаган (емаган, ичмаган) ларга эга бўлсин, деб куйиниш каби фазилатлар албатта муқаддас қадриятларимиздандир.

Болажонларни эркалаш асосида уларга ҳаддан ташқари баҳолар (енг ақлли, доно, гўзал, полвон, зеҳнли ва б.) мурғак онгига муҳрланиб қолиши, келажакда эса ўзи ҳақида нотўғри тасаввурлар ҳосил қилишини назарда тутиш лозим. Болажонларга уларга хос бўлган баъзи нуқсонлар (ўжарлик, қайсарлик, қизғанчиқлик, фақат унга эътибор қилишларини талаб қилиш ва б.) тўғрисида ҳам айтиш ва уларни йўқотишларига кўмаклашиш лозим. Болалар дунёқарашини шакллантиришда асосий икки восита – таълими ва тарбия имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш ота-оналарда муайян масъулиятни англаш билан боғлиқ. Бунда юзага келувчи субект-обект муносабатларидан ташқари оиладаги муҳит, жумладан бағрикенглик муҳити бола онги ва тафаккурига объектив тарзда кучли таъсир кўрсатишини доим эсда тутиш лозим. Оилада эр ва хотин, ака-ука, опа-сингиллар, катта ва кичиклар, қайнона-қайнота ва келин, овсинлар ўртасида реал муносабатлар қанчалик бағрикенглик талабларига мос келиши, сўз ва амал бирлиги болалар онгида муҳрланиб бораверади.

Демак, ёшларда бағрикенглик дунёқараши ва мафкурасини шаклланишида оила институтининг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Айниқса, оила – ёшлар дунёқараши илк куртаклари пайдо бўлувчи маконлигини назарда тутсак, шахс келажак ҳаёти илдизларининг қанчалик мустаҳкамлиги, ҳаётийлиги, умрбоқийлиги оиладаги таълим ва тарбия соҳибларида жуда катта масъулият борлигини тушунамиз.

Бағрикенгликнинг ижтимоий хаёт турли жабхаларида намоён бўлиши жамият мавжудлиги ва ривожланишининг мухим шартларидан бири эканлиги уни ижтимоий қадрият сифатида қарашни тақазо этади. Яна муҳим бир жиҳатни таъкидлаш лозим, яъни бағрикенглик дунёқараши шахс маънавиятининг таркибий қисмидир. Ижтимоий онгнинг атрибутив белгиси сифатида эса жамият маънавиятининг юксак қадриятларидан биридир. Шунинг учун маънавий тикланиш ва юксалишнинг муҳим шартларидан бири бағрикенглик дунёқарашини шакллантириш долзарб вазифалардан биридир.

Адабиётлар:

1. “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент қарори. ПҚ-4307 03.05.2019

2. Бағрикенгликтамойиллари Декларацияси. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. -Т.: Адолат. 2004. 92-6.

3. Бағрикенглик - барқарорлик ва тараққиёт омили. - Т.: Тошкент Ислом университети. 2007. 13-14-6.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Djo‘rayeva Shodiya Oybek qizi
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” talabasi

Kirish. XXI asr globallashuvning keskin jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internetning ommaviylashuvi, iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlari insoniyat hayotining barcha qatlamlariga, xususan, yoshlar ongining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda yoshlar axborot oqimining eng faol iste’molchisi sifatida ma’naviy barqarorlik, qadriyatlar tizimi va identitet masalalarida global ta’sirlar bilan to‘qnashmoqda. Shu bois globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Tahlil. Bugungi axborot dunyosi cheksiz bir maydonga aylangan. Endilikda yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan kundalik foydalanar ekan, ularning ongiga ta’sir qiluvchi asosiy manbalar ham aynan shu raqamli makonga ko‘chib bormoqda. Jahon ilmiy markazlari kuzatuvlariga ko‘ra, yoshlar ko‘proq global kontentni iste’mol qilmoqda, bu esa mahalliy manbalarning ta’sir doirasini tabiiy ravishda qisqartirmoqda. Natijada dunyoqarash kengayadi, ammo shu bilan birga madaniy identifikatsiya — o‘zlikni anglash jarayoni — muayyan bosim ostida qoladi.

Zamonaviy media tizimi butun dunyo bo‘ylab bir necha yirik konglomeratlar qo‘lida jamlanib borayotgani esa yoshlar iste’mol qilayotgan kontentning asosan g‘arb madaniyati markazida shakllanishiga olib kelmoqda. Shu bois global pop-madaniyat, yuqori reytingli filmlar, musiqa industriyasi va ijtimoiy tarmoq yulduzlarining hayoti yoshlar e’tiborini o‘ziga kuchli tortadi. Bu jarayon esa milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatda muayyan o‘zgarishlar, hatto ichki ziddiyatlarni yuzaga chiqaradi.

Globallashuvning ijobiy jihatlari. Shu bilan birga, globallashuv yoshlarning intellektual salohiyatiga yangi ufqlar ochmoqda. Xalqaro ta’lim almashinuvi dasturlarining kengayishi, dunyoning turli universitetlarida o‘qish imkoniyati yoshlar ongida bilimga chanqoqlikni kuchaytiradi. Ular boshqa madaniyatlar bilan yaqindan tanishib, bag‘rikenglikni chuqur his etadi, fikrlash doirasi kengayadi. Shu jarayon global fuqarolik ongining paydo bo‘lishiga zamin yaratib, ekologiya, inson huquqlari, ijtimoiy adolat kabi muammolar bo‘yicha faol pozitsiyaga ega yoshlar avlodini shakllantirmoqda.

Salbiy oqibatlar: identitet inqirozi va ma’naviy bo‘shliq

Biroq har qanday jarayon singari globallashuvning ham muayyan salbiy ta’sirlari mavjud. Ko‘plab sotsiologik tadqiqotlar yoshlarning sezilarli qismi o‘zining kimligi, qadriyatlari va hayotiy yo‘nalishini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatadi. Bu holat global axborot oqimining haddan tashqari kuchli ta’siri bilan bog‘liq.

Virtual dunyoga ortiqcha berilib ketish esa individualizmning kuchayishiga, oila va mahalla bilan ruhiy masofaning ortishiga olib keladi. Bu esa ma’naviy tarozining izdan

chiqishi, ruhiy tanglik, yolg‘izlik hissining kuchayishi kabi oqibatlarni tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, raqamli makon nazoratsiz qoldirilsa, radikal va zararli g‘oyalarning tez tarqalishi uchun qulay muhit hosil bo‘ladi. Shu bois yoshlarning mafkuraviy immuniteti — ongli, tanqidiy fikrlash qobiliyati — zamonaviy sharoitda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston tajribasi: ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi choralar

Globallashuv sharoitida O‘zbekiston yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Yoshlar siyosati bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirishga qaratilgan institutsional tizimlar, yoshlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi yangi agentliklar raqamli davrda ma’naviy tarbiyani modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Ularning asosiy maqsadi — yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, raqamli makonda xavfsizligini ta’minlash va ularda mustahkam hayotiy pozitsiya shakllantirishdir.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar ham yoshlarning globallashuv jarayoniga nisbatan hushyor qarashini tasdiqlaydi: ular jarayonning imkoniyatlar bilan birga xavf ham olib kelishini anglaydi. Shunga qaramay, milliy qadriyatlar yoshlar hayotiy yo‘nalishini belgilashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolayotgani quvonarli holatdir. Chunki aynan o‘zlikni anglagan, tarixini bilgan va ma’naviy poydevori mustahkam yoshgina globallashuvning salbiy oqimlariga berilmaydi.

Shu bilan birga, global axborot oqimi iste’molchilik kayfiyatini, virtual individualizmni, zavq-shavqqa yo‘naltirilgan hayot tarzini kuchaytirayotgan bir paytda, mahalla va oila institutlarining roli, tarbiyaning milliy modellarini rivojlantirish zarurati yanada ortib bormoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida internet tarmog’idan noto’g’ri foydalanish natijasiga turli xil oqimlarga a’zo bo’lib qolayotganligi, turli xil jinoyatlarga qo’l urib qolayotganligi haqida media olamida ko’plab xabarlar tarqalmoqda. Bu jinoyatlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

Diniy ekstremizm va terrorizm. Ushbu jinoyatga kirib qolishni sabablarini turlicha guruhlarga bo’lishimiz mumkin:

Birinchisi, yoshlarning diniy va huquqiy savodxonligi pastligi. Ikkinchisi ko’pgina yoshlarning ishsizligi. Bu esa ko’pgina sohalar bilan zanjir bo’lib bog’lanib ketgan. Ya’ni ishsizlik natijasida ko’pgina hollarda xorijga chiqish holatlari ya’ni migratsiya holati kuzatiladi. Bu esa ba’zi hollarda qonuniy tarzda davlat kafolatlari asosida ketiladi. Ba’zi hollarda esa noqonuniy tarzda hech qanday kafolatlarsiz ketishadi. Bu esa ko’pgina hollarda ekstremistik tashkilotlarga qo’shilib qolish, odam savdosi kabi jinoyatlarning qurboniga aylanib qolinmoqda. Uchinchisi esa yoshlarda axborot madaniyatining pastligidir. Negaki ko’pgina yoshlar ma’lumotlarni qaysi biri rost qaysi biri yolg’on ekanligini ajrata olishmaydi.

Axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda yoshlar oldida eng muhim vazifa — **ko‘rganini shunchaki qabul qilish emas, uni tahlil qila bilish**, har bir

xabar ortida qanday maqsad yashiringanini anglashdir. Endi har bir yigit-qiz internet sahifalarida uchragan ma’lumotga darhol ishonmaydi, aksincha, **manbasini solishtirib**, rost-yolg‘onini ajratadigan bo‘lib bormoqda. Ana shunday e’tibor va hushyorlik ularni turli manipulyatsiya va feyk xabarlardan himoya qiladi. Chunki ongli avlod — so‘zning qudratini ham, yolg‘onning xavfini ham chuqur his etadi.

Dunyo tobora kichrayib borar ekan, milliy qadriyatlarni asrash ham, global madaniyat bilan hamnafas bo‘lish ham zaruratga aylanmoqda. Shuning uchun bugungi yoshlar **o‘z adabiyoti, san’ati va tarixini zamonaviy talqinda yangidan kashf etmoqda**: ekran asarlari, audio kitoblar, interaktiv loyihalar orqali ajdodlar merosi ular uchun yanada yaqinlashmoqda. Shu bilan birga, ular jahon madaniyatidagi yangiliklarni ham ongli ravishda qabul qilib, **o‘zligini yo‘qotmasdan, dunyo bilan hamnafas bo‘lish** yo‘lini tanlamoqda.

Bugungi tezkor hayot yoshlarning ruhiy olamiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sabab ular bilan ishlashda **psixologik xususiyatlarga mos yondashuv** alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yoshning ichki dunyosiga yo‘l topa bilish, uni o‘ziga ishonchli, maqsadli va bardam qilib tarbiyalash — zamon talabi. Motivatsion uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy treninglar esa ularning qalbiga kuch bag‘ishlab, hayot sinovlari qarshisida mustahkam turishga yordam beradi.

Yosh avlod tarbiyasida eng muhim ikki maskan bor: **oila** va **mahalla**. Ana shu ikki muhit uyg‘unlashganda, an’analar ham, zamonaviy fikrlar ham bir o‘zan bo‘ylab oqadi. Ota-onalarning hayotiy tajribasi, mahalla oqsoqollari va nuroniylarning pand-nasihatlari zamonaviy tarbiya shakllari bilan qo‘shilganda, yoshlar uchun mustahkam tayanch paydo bo‘ladi. Shunday muhitda ulg‘aygan yigit-qiz **o‘zligini bilgan, zamonga moslashgan, ammo ildizidan uzilmagan** bo‘lib voyaga yetadi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati murakkab, ko‘p qirrali va dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. U, bir tomondan, ilmiy, intellektual va madaniy imkoniyatlarni kengaytirsa, boshqa tomondan, identitet inqirozi, ma’naviy bo‘shliq va ommaviy madaniyat bosimi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash uchun milliy qadriyatlar, zamonaviy global tendensiyalar va raqamli tarbiya mexanizmlarining uyg‘unligi talab etiladi. Eng muhim vazifa — yosh avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish orqali globallashuvning salbiy ta’sirlarini minimallashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

· O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2016). Toshkent.

· O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4756-son Qarori. (2020). “Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”.

· O‘zFA Falsafa va huquq instituti. (2022). *Yoshlar ma’naviyati va globallashuv jarayonlari: Sotsiologik tadqiqot natijalari*. Ilmiy hisobot. Toshkent.

· “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi. (2021). *O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy qadriyatlari bo‘yicha monitoring natijalari*. Toshkent.

· O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar vazirligi. (2023). *Yoshlar va internet madaniyati bo‘yicha analitik ma’ruza*. Toshkent.

· Pew Research Center. (2023). *Social Media and Technology Use Among Young Adults*. Washington, D.C.

· UNESCO Institute for Statistics. (2022). *Global Student Mobility Report*. Paris: UNESCO Publishing.

· UNESCO. (2020). *Youth Development Index Report*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

DAVLAT BOSHQARUVI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY SALOHIYATINING INSTITUTSIONAL AHAMIYATI

Djurayev Nurmurod Abduyusupovich
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat va jamiyat boshqaruvida tub burilishlarni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda yoshlarning o‘rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni o‘z oldimizga qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiylar va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak” [1]. Ushbu jarayonda yoshlarning nafaqat intellektual salohiyati, balki ma’naviy dunyoqarashi ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi tizimining ochiqligi va shaffofligi ortib borayotgan bir paytda, yosh kadrlarga bo‘lgan talab ham o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy boshqaruvda “kreativ” fikrlash, IT-ko‘nikmalar va chet tillarini bilish bilan bir qatorda, yuksak ma’naviy fazilatlar – vatanparvarlik, halollik va adolatparvarlik birlamchi mezon sifatida qaralmoqda.

Biroq, globallashuv jarayoni ijobiy imkoniyatlar bilan birga, yoshlar ma’naviyatiga turli tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. *“Ommaviy madaniyat”* niqobi ostidagi ma’naviy bo‘shliq, internet tarmog‘idagi tekshirilmagan axborotlar oqimi yoshlarning qadriyatlar tizimiga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shu bois, davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar kontekstida yoshlarda mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [2].

Bugungi kunda davlat xizmatiga qabul qilishda meritokratiya (munosiblik) tamoyilining joriy etilishi yoshlarning o‘z ustida ishlashi va ma’naviy yuksalishi uchun

kuchli motivatsiya bo‘lib xizmat qilmoqda. Yoshlar ishlari agentligining tashkil etilishi, *“Kelajak liderlari”* kabi loyihalar yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan amaliy qadamlardir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy jihatdan yetuk yosh rahbarlar korrupsiya holatlariga kamroq moyil bo‘ladi va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yadi [3].

Shuningdek, raqamli boshqaruv (“E-government”) tizimiga o‘tish jarayonida yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish muhimdir. Texnologik taraqqiyot ma’naviy ildizlardan uzilib qolmasligi lozim. Milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot uyg‘unligi – O‘zbekiston yoshlari uchun muvaffaqiyat formulasidir.

Jumladan,

1. Davlat va jamiyat boshqaruvida transformatsiya jarayonlarining nazariy asoslari

Zamonaviy siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi nazariyalarida transformatsiya tushunchasi ijtimoiy tizimning sifat jihatdan yangilanishini anglatadi. Bu jarayon davlat boshqaruvida markazlashgan, byurokratik modeldan ochiq, inklyuziv va hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeliga o‘tishni nazarda tutadi.

Neoinstitutsional yondashuvga ko‘ra, davlat boshqaruvida samaradorlik nafaqat huquqiy va tashkiliy mexanizmlar bilan, balki inson kapitali, xususan, yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma’naviy salohiyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar boshqaruv tizimining strategik resursi sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan ma’muriy islohotlar, *“xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”* degan tamoyil asosida qayta tashkil etilmoqda. Bu esa boshqaruvda inson omili, ayniqsa, yoshlarning mas’uliyati va ma’naviy yetukligini ustuvor ahamiyatga ko‘taradi.

2. Yoshlarda ma’naviyat tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mazmuni

Ma’naviyat yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori, siyosiy qarashlari va jamiyatdagi faol ishtirokini belgilab beruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. U milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, qonunga hurmat va adolat tamoyillariga sodiqlik kabi jihatlarni qamrab oladi.

Davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar uchun ma’naviy barqarorlik professional kompetensiya bilan teng darajadagi ahamiyatga ega. Chunki qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy manfaat va jamiyat manfaatini ajrata olish ko‘p hollarda insonning ma’naviy darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, ma’naviy yetuklik siyosiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi va davlat xizmatida etik me’yorlarga amal qilinishiga xizmat qiladi. Shu bois, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi davlat boshqaruvi islohotlarining tarkibiy qismi bo‘lishi zarur.

3. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi omillar

Globallashuv jarayonlari yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi axborot olish imkoniyatlarini oshirgani holda, ma’naviy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, virtual makonda tarqalayotgan soxta axborotlar, ekstremistik g‘oyalar, individualizmni mutlaqlashtiruvchi qarashlar yoshlarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishi mumkin. Shu bois, raqamli boshqaruv sharoitida axborot madaniyatini oshirish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda aholining 60 foizdan ortig‘i yoshlar bo‘lib, ularning katta qismi kundalik hayotda raqamli texnologiyalardan faol foydalanadi. Bu holat yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda davlatning ma’naviy-ma’rifiy siyosatini yanada tizimli olib borishni talab etadi.

4. Meritokratiya va yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki

Davlat boshqaruvida meritokratiya tamoyilining joriy etilishi yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu tamoyil bilim, kasbiy salohiyat va shaxsiy fazilatlarni asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ma’naviy jihatdan yetuk yoshlar uchun bu tizim o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda davlat xizmatiga ochiq tanlovlar asosida qabul qilish mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi, *“Kelajak liderlari*”, *“Yoshlar – kelajagimiz”* kabi dasturlar yoshlarni boshqaruv jarayoniga jalb etishga xizmat qilmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2023–2024-yillarda davlat boshqaruvi tizimiga jalb etilgan kadrlarning sezilarli qismini yoshlar tashkil qilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh rahbarlarning ma’naviy barqarorligi oshgan sari korrupsiyaviy holatlar kamayadi, qaror qabul qilishda jamoatchilik manfaatlari ustuvor bo‘ladi.

5. Yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirishning institutsional mexanizmlari

Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda ta’lim tizimi, oila, mahalla va davlat institutlari o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi zarur. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida *“ma’naviyat va davlat boshqaruvi”*, *“yetakchilik madaniyati”* kabi fanlarning joriy etilishi yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Shuningdek, davlat organlarida faoliyat boshlayotgan yosh xodimlar uchun ma’naviy-axloqiy kodekslar va etik treninglar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ma’naviyatni formal tushunchadan real boshqaruv amaliyotiga aylantiradi.

Statistik tahlil bo‘yicha so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonlarida yosh kadrlarning ishtiroki izchil ortmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinayotgan kadrlar tarkibida 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ulushi yil sayin o‘sish dinamikasiga ega [4]. Xususan, 2023–2024 yillarda

davlat xizmatiga ochiq tanlovlar asosida qabul qilingan xodimlarning salmoqli qismini yosh mutaxassislar tashkil etgan.

Bu holat davlat boshqaruvida inson kapitalini yangilash hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega, ma’naviy jihatdan barqaror yosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy fikrni o‘rganish jamoatchilik markazi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijalariga ko‘ra, davlat xizmatiga qiziqish bildirgan yoshlarning aksariyati halollik, adolatparvarlik va vatanparvarlikni o‘z faoliyatida asosiy qadriyat sifatida baholaydi [5]. Shuningdek, so‘rovlarda ishtirok etgan yoshlarning katta qismi korrupsiyaga nisbatan qat’iy salbiy munosabatda ekanini bildirgan.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimli tashkil etilgan bo‘limlarda intizomiy buzilishlar va huquqbuzarlik holatlari nisbatan kam uchraydi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tahlillarida ta’kidlanganidek, profilaktik va ma’naviy tarbiya ishlari kuchaytirilgan tuzilmalarda qonunbuzarlik holatlarining kamayishi kuzatiladi [6].

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari yosh kadrlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini yanada mustahkamlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ma’lumotlariga ko‘ra, elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi[7]. Bu yoshlarning zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga tez moslasha olish qobiliyati bilan bir qatorda, ularda axborot madaniyati va ma’naviy mas’uliyatni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili yosh kadrlarning davlat boshqaruvi tizimidagi ishtiroki faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham yangi bosqichga ko‘tarilayotganini tasdiqlaydi. Bu jarayonda yoshlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat va jamiyat boshqaruvi o‘zgarishlarida yoshlar nafaqat islohotlarning obekti, balki faol subekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning ma’naviy qiyofasi ertangi O‘zbekistonning boshqaruv sifati va samaradorligini belgilab beradi. Shu sababli, yoshlarni davlat boshqaruviga jalb qilishda ularning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu esa mamlakatimizda adolatli va xalqparvar davlat qurish yo‘lidagi strategik vazifalardan biridir.

Shu bilan birga davlat va jamiyat boshqaruvining transformatsiyasi yoshlarning ma’naviy yetukligi bilan uzviy bog‘liqdir. Yoshlar zamonaviy islohotlarning faqat iste’molchisi emas, balki ularni amalga oshiruvchi asosiy kuchga aylanmoqda.

Shu sababli, yoshlarni davlat boshqaruviga jalb etishda ularning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

Bu yondashuv Yangi O‘zbekiston sharoitida adolatli, samarali va xalqchil davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.

3. Quronov M. Ma’naviy tarbiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "Navro‘z", 2018.

4. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: "Akademiya", 2020

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi. Davlat fuqarolik xizmati bo‘yicha tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2023–2024.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy fikrni o‘rganish jamoatchilik markazi. Yoshlar ijtimoiy faolligi bo‘yicha sotsiologik tadqiqot natijalari. – Toshkent, 2023.

6. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi tahliliy ma’lumotlar. – Toshkent, 2023.

COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS: LINGUISTIC, CULTURAL, AND TRANSLATIONAL PERSPECTIVES

Do’monova Kamola
school №8 , English teacher

Introduction. Proverbs are an essential part of every language, serving as a reflection of a nation's cultural identity, moral values, and collective wisdom. They convey deep meanings in concise expressions, making them a valuable tool for teaching life lessons, shaping social norms, and guiding leadership principles. English and Uzbek proverbs, despite originating from different linguistic and cultural backgrounds, share universal themes such as wisdom, hard work, honesty, and leadership. However, they also exhibit distinct characteristics influenced by historical, social, and linguistic factors. This study aims to classify English and Uzbek proverbs based on thematic, semantic, and functional criteria. By analyzing their similarities and differences, the research explores how proverbs shape cultural identity and influence leadership values. Furthermore, the study discusses the challenges associated with translating proverbs while maintaining their meaning and cultural significance. Understanding the role of proverbs in different cultures can contribute to effective communication, cross-cultural awareness, and leadership development.

Theoretical Background. Proverbs have been widely studied in linguistics, folklore, and cultural studies due to their rich historical and social significance. Several theoretical

frameworks provide insights into their classification, meaning, and function within different languages and societies. This section explores key linguistic and cultural theories relevant to the study of English and Uzbek proverbs.

1. Linguistic Theories on Proverbs

1.1. Paremiology and Proverb Classification

Paremiology, the study of proverbs, focuses on their structure, meaning, and usage. Norrick (1985) and Mieder (2004) classify proverbs into different categories based on their linguistic and semantic properties. According to these studies, proverbs can be divided into:

Descriptive Proverbs: Express general truths (e.g., "Time flies." – English, "Vaqt – o‘tkinchi." – Uzbek).

Advisory Proverbs: Offer moral guidance (e.g., "Look before you leap." – English, "Etti o‘lchab, bir kes." – Uzbek).

Metaphorical Proverbs: Use figurative language (e.g., "A rolling stone gathers no moss." – English, "Qimirlagan o‘ringa yetar." – Uzbek).

1.2. Semantic and Pragmatic Perspectives

From a semantic perspective, proverbs can be analyzed based on their literal and figurative meanings. Jakobson (1960) emphasizes that proverbs often use metaphor, analogy, and parallelism to convey deeper meanings. Pragmatically, proverbs serve as communicative tools that help structure discourse, reinforce arguments, and establish social norms.

2. Cultural Theories on Proverbs

2.1. Sapir-Whorf Hypothesis and Cultural Influence

The Sapir-Whorf Hypothesis (1956) suggests that language shapes thought, meaning that proverbs reflect the cultural worldview of a society. For example, English proverbs often emphasize individualism and self-reliance ("God helps those who help themselves."), whereas Uzbek proverbs highlight collectivism and community values ("Birlik bo‘lsa, tiriklik bo‘lar." – Unity brings prosperity).

2.2. The Role of Proverbs in Leadership and Social Norms

Proverbs are frequently used to reinforce leadership principles and ethical behavior. Studies by Hofstede (1991) on cultural dimensions indicate that societies with high power distance, such as Uzbekistan, tend to use proverbs that emphasize respect for authority ("Kattaga hurmat – o‘zinga izzat." – Respect for elders brings honor to oneself). In contrast, English-speaking societies value proverbs that encourage independence and innovation ("Fortune favors the bold.").

3. Challenges in Translating Proverbs

Proverbs often lose their full meaning when translated literally due to cultural nuances and linguistic differences. Baker (1992) identifies three major challenges in translating proverbs:

1. Lack of Direct Equivalents: Some proverbs exist only in one culture ("Actions speak louder than words." has no direct Uzbek equivalent).

2. Cultural Context Differences: The same proverb may have different connotations in different cultures.

3. Metaphorical Variations: Some proverbs require adaptation rather than direct translation ("Don't count your chickens before they hatch." vs. "Bozorda tuxum sanama."

Theoretical approaches to proverbs provide valuable insights into their linguistic, cultural, and communicative functions. By classifying and comparing English and Uzbek proverbs, this study aims to deepen the understanding of how language and culture influence thought, leadership, and social norms. Moreover, recognizing translation challenges can help in preserving the intended meaning of proverbs in cross-cultural communication.

Comparative Analysis of English and Uzbek Proverbs

1. Introduction to Comparative Analysis

Comparative analysis of proverbs helps identify similarities and differences between languages and cultures, shedding light on shared human experiences and unique cultural perspectives. By comparing English and Uzbek proverbs, we can explore how each language encapsulates wisdom, moral values, and leadership principles.

This section examines proverbs from thematic, structural, and cultural viewpoints, highlighting their role in shaping societal norms and communication styles.

2. Thematic Comparison

Both English and Uzbek proverbs reflect universal themes, but their expression and emphasis may differ based on cultural and historical contexts.

2.1. Leadership and Wisdom

English: "A leader is one who knows the way, goes the way, and shows the way."

Uzbek: "Elga yarasha yigit, yigitga yarasha el." (A leader is shaped by his people, and people are shaped by their leader.)

Both proverbs emphasize the reciprocal relationship between leaders and society, though the English version highlights personal initiative, while the Uzbek proverb stresses collective responsibility.

2.2. Hard Work and Success

English: "No pain, no gain."

Uzbek: "Mehnat qilsa, rohat topar." (Hard work brings comfort.)

Both proverbs convey the idea that success requires effort, though the Uzbek version presents success as a reward for perseverance rather than struggle.

2.3. Honesty and Integrity

English: "Honesty is the best policy."

Uzbek: "Haq rostga yetkazur." (Truth leads to righteousness.)

Both stress the importance of truthfulness, but the English proverb frames honesty as a strategic approach, while the Uzbek proverb presents it as a moral principle.

Conclusion:

Proverbs serve as a bridge between language and culture, offering profound insights into the values, beliefs, and traditions of different societies. Through the comparative

analysis of English and Uzbek proverbs, this study has highlighted both universal themes and culturally specific expressions. While both languages emphasize key concepts such as leadership, hard work, honesty, and wisdom, the way these ideas are framed reflects the distinct historical and social contexts of each culture. English proverbs often prioritize individualism, self-reliance, and direct communication, whereas Uzbek proverbs emphasize collectivism, respect for elders, and community-oriented values. Linguistically, English proverbs tend to be concise and straightforward, while Uzbek proverbs frequently employ rich metaphors and extended expressions. Additionally, the challenges of translating proverbs between the two languages underscore the complexities of preserving cultural and contextual meanings. Understanding the similarities and differences between English and Uzbek proverbs enhances cross-cultural communication, critical thinking, and leadership development. This comparative study demonstrates that proverbs are more than just linguistic expressions—they are powerful tools for transmitting cultural heritage, guiding moral behavior, and shaping social norms. Future research could further explore the role of proverbs in contemporary leadership discourse and their impact on intercultural dialogue.

References:

1. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 1992.

2. Hofstede, Geert. Cultures and Organizations: Software of the Mind. McGraw-Hill, 1991.

3. Jakobson, Roman. Linguistics and Poetics. MIT Press, 1960.

4. Mieder, Wolfgang. Proverbs: A Handbook. Greenwood Publishing Group, 2004.

5. Norrick, Neal R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Mouton de Gruyter, 1985.

6. Sapir, Edward, and Benjamin Lee Whorf. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press, 1956.

7. Chicago (Author-Date) formatida

8. Baker, Mona. 1992. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.

9. Hofstede, Geert. 1991. Cultures and Organizations: Software of the Mind. New York: McGraw-Hill.

10. Jakobson, Roman. 1960. Linguistics and Poetics. Cambridge, MA: MIT Press.

11. Mieder, Wolfgang. 2004. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Publishing Group.

12. Norrick, Neal R. 1985. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Berlin: Mouton de Gruyter.

13. Sapir, Edward, and Benjamin Lee Whorf. 1956. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Cambridge, MA: MIT Press.

14. Chicago (Notes and Bibliography) formatida

Bibliography

1. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992.

2. Hofstede, Geert. Cultures and Organizations: Software of the Mind. New York: McGraw-Hill, 1991.

3. Jakobson, Roman. Linguistics and Poetics. Cambridge, MA: MIT Press, 1960.

4. Mieder, Wolfgang. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Publishing Group, 2004.

5. Norrick, Neal R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Berlin: Mouton de Gruyter, 1985.

6. Sapir, Edward, and Benjamin Lee Whorf. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Cambridge, MA: MIT Press, 1956.

XX ASR G‘ARB MADANIYATIDA MUTOLAA SOTSIOMODELINING RATSIONALLIK XUSUSIYATLARI

Dulanboyeva Oygul Asilbek qizi
O’zbekiston Milliy universiteti katta o’qituvchisi,
sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Aynan XVII- XVIII asrlarga kelib, G‘arbiy Yevropa tafakkur tarzi va qadriyatlar tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ko‘p yillar zidiyatlarga sabab bo‘lgan diniy isloxotlarning natijasida, yangi intelektual ustuvorlik xususan shaxsning jismoniy va aqliy imkoniyatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi , o‘tmish tajribalariga shubxa bilan qarovchi, , ayni paytda o‘z o‘ziga ishonchni ortiruvchi tafakkur tarzi vujudga keldi.

Ushbu davrda dunyoviy ta’lim tizimi shakilanishda da’vom etarkan, gumanitar fanlar bilan bir qatorda, texnik fanlarning ham, keskin rivojlanishi kuzatiladi. Italiya va Fransiyada xarbiy akademiyalarning tashkil etilishi diniy bo‘lmagan jamoat tashkilotlarining paydo bo‘lishi mutolaning ijtimoiy nufuzini yanada oshirib yubordi: shaxsiy kutubxonalarning mavjudligi, marifatliylik, o‘qimishliylik jamiyatda yuqori mavqeyga ega bo‘lishga sharoit yaratdi. Misol uchun, o‘sha davrdagi fransuz madaniyatining tadqiqodchilaridan biri A. J. Martening takidlashicha, bu davrda shaxsiy kutubxonalarning tashkil etilishi turli xalqlarning ma’naviy merosiga daxildorlik hissini tuyushni ifodalovchi mazmun kasb eta boshladi.[1]. Endilikda, kitoblardan shifokorlar, xuquqshunoslar, davlat xizmatchilari keng foydalana boshladi: shaxsiy kutubxonaga ega bo‘lish nafaqat oqsuyak zodogonlar balki, oddiy amaldorlarning ham, hayot tarziga aylandi. A. J. Marten bu davrdagi madaniy eletani shartli ravishda ikki turga ajratadi: 1 uyg‘onish davri gumanizm ruxida tarbiyalangan oqsuyaklar madaniyati; 2 aniq va texnik fanlarga moil bo‘lgan nisbatan ochiq, demokratik xizmatchilar madaniyati. Shu bilan birgalikda, yangi davrda ratsional qadriyatlarning ustunligi kitob sanoatida ham, aks etdi, xususan, fan soxalariga oid malumotlar, geografik xaritalar, atlaslarning chop

etilishi mutolaning ijtimoiy axamiyatini yana ham, oshirdi. Natishada kitob o‘qish ijtimoiy hayot demokratlashuvining asosiy omiliga aylandi. Shu bois, shaxsiy kutubxonalarni tashkil etish, ularni ommalashtirish g‘oyat nufuzli faoliyat sanaldi. Aynan ushbu davrda mutolaning sotsial modelini aks etiruvchi quydagi ikki turdagi falsafiy dunyoqarash shakilini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. ratsionalizm;
2. sensualizm.

Ratsionalizm konsepsiyasiga muvofiq, mutola qilish intelektual – avtonom mazmun kasb etadi. Bu ma’noda, ratsionalistlar inson aqlining imkoniyatiga diqqat qaratadilar. O‘z navbatida, aqlni charxlash, mutola qilish har bir kishining avtonom, aloxida qobliyatiga muvofiq bo‘lishi lozim. R. Dekard, Ya. Komenskiy kabi mutafakkirlar ushbu yondashuvni qo‘llab quvatlaydilar. Qolaversa, intelektual-avtonom model inson tabiati moxiyatini aql tafakurda deb biladi. Shu bois, unga ko‘ra, ma’naviy mukamallika intilish keng ko‘lamli, ijtimoiy isloxatlar bilan emas, balki, tafakkurni o‘zgartirish, kishining xoxish istaklarini jilovlash kabi xarakatlar bilan amalga oshiriladi [2].

Ushbu modelga muvofiq, mutola qilish bilm olishning asosiy usullaridan biri xisoblanib, u komunikativ ma’naviy funksiya bajaradi. Misol uchun, R. Dekard bilm olishni individual tafakkurning o‘ziga xos akti- mustaqil amalga oshirishi mumkin bo‘lgan xarakati sifatida baxolaydi.

R.Dekard ilgari surgan qarashlarga ko‘ra, mutola qilish cogita argocum tamoilining ajralmas qismi xisoblanadi. Bu har qanday muloxaza yurutishni anglatadigan shubxasiz o‘qilishi mumkin bo‘lmagan matritsa ya’ni, mutola qilishning sub’ektivligini chegarasini ko‘rsatadi. Zotan matindagi epistemologik matritsianing mavjudligi mualifni tushunishga imkon beradi[3], Shu bilan birgalikda, Dekard tashqi olamni o‘qilishi imkoni bo‘lgan ulkan kitobga o‘xshatadi.

Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, mazkur model doirasida mutola qilish jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishga imkon yaratadi. Masalan,intelektual- avtonom modelini tanqidchilaridan biri bo‘lgan F. Bekon ushbu modelni antik davr saralash metodini saqlab qolishga sabab bo‘lgani uchun tanqid qiladi. Unga ko‘ra, kitob o‘qish kishilarni intelektual jixatdan omma va xos qatlamga ajratadi. Ya. A. Komenskiy esa, kitoblarni pansofik (ilmiy) pampedik)aqlni o‘stiruvchi), panglottik (omma uchun), pannartozik (ezgulikni yoyishga xizmat qiluvchi(kabi toifalarga ajratadi. Bundan tashqari olim kitoblarning amaliy axamiyatiga ko‘ra foydalilik darajasiga muvofiq ham turli darajalarga bo‘ladi. Qolaversa u, kitobxoning yoshi, ma’naviy darajasiga muvofiq ham kitobarni saralash lozimligini takidlaydi. Ya. A. Komenskiyning muhim g‘oyalaridan yana biri bu- xalq uchun manfatli bo‘lgan xaqiqiy kitoblarni asrash g‘oyasi xisoblanadi. Olimning fikriga muvofiq, asl manbalarni maktablarda o‘qitmaslik ommaviy tarzda marifatning pasayishiga olib keladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mutolaning intelektual- avtonom modeli G‘arb tafakkurida o‘rta asrlardan buyon shakilanib kelgan an’analarga asoslanadi. O‘z navbatida ushbu

an’analar inson aql idroki universal mavjudlikni aniqrog‘i xudoni anglashga xizmat qilishi lozim, degan qarashni ilgari suradi.

Mutolaning ushbu davrda keng tarqalgan yana bir turi bu - sub’ektiv ramziy model deb nomlanadi. O‘qishning mazkur modeli yuqorida aytib o‘tilganidek, sensualistlar xususan, J Lok, D. Yumm, T. Gobs kabi faylasuflar tomonidan qo‘llab quvatlanadi. Sensualistlarning nuqtaiy nazariga ko‘ra, kitob o‘qish aniq bir insoning shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq, noyob individual idrok faoliyati xisoblanadi. Qolaversa mutola muayyan sotsium ya’ni, jamiyat tomonidan toki, unga, undagi qadriyatlarga xavf tug‘dirmaguncha ijtimoiy meor sifatida qabul qilinadi. Masalan T. Gobs “Men aminmanki, agar xaqiqat uch burchakning uchchala tomonida bo‘lib, u kvadratning ikki burchagigagina teng bo‘lsa, u xolda, xaqiqat qaysidir tomoning ma’nfatiga to‘g‘ri kelmasdi va ayni shu tomon geometrika xaqidagi kitoblarni xech bo‘lmaganda inkor qilishga yoki, ularni yoqib yuborishga undagan bo‘lardi”, deb yozadi [4].

Bu ma’noda, T Gobsning qarashlari mutolani inson nutqi va muloxazalarini tartibga solishga imkon beruvchi, o‘ziga xos individual faoliyat sifatida tavsiflashga imkon beradi. Gobs uni quydagicha taxlil qiladi:

- Mutoladan maqsad nutqni soddalashtirishdir. Gobs nutq va fikrni o‘zaro bog‘lashning ikki hil turini keltiradi. Birinchi turga ko‘ra, fikr tarqoqligi bois, nutq ham, izchil bo‘lmaydi. Ular go‘yo bir birlariga to‘g‘ri kelmaydigan tarqoq zaralarga o‘xshaydi. Ikkinchi turga muvofiq, aynan mutola oqibatida ortirilgan tasurot maqsadni aniqlashtiradi va natijada, fikr xamda nutq nisbatan doimiy bog‘liqlikda bo‘ladi. Agar bu yerda fikr tarqoqlika yo‘nalsa ham, maqsad va tasurot uni muayyan tartibga solib turadi. [4].

- har qanday shakldagi nutq individning dastlabki tajribalariga bog‘liq sanaladi. “Zero, kelajak o‘tmish tasurotlarining xozirdagi ifodasi xisoblanadi”. [4].

- Aynan mutola vaqtida fikr geshtalt aniqrog‘i, tugalanmagan muloxaza ko‘rinishida shakilanadi. Gobsga ko‘ra, insoning fikrlash jarayoni qisman yoki, butunlay oldingi, boshdan kechirilgan ta’surotlarga asosan yuzaga keladi. “Inson aqlidagi har bir narsa dastlab xissiyot shaklida idrok etiladi, chunki, sezgilar bilan idrok etmagan narsalari xaqida hech qanday tasavurga ega bo‘la olmaydi”. [4].

- mutola qilish uchun, zamon va makon chegaralarining mavjud emasligi. “So‘z va belgilarda qayd etilgan fikr bizlarni bilm olishda maxsus joy vaqt kabi shartlardan xalos etadi” [4].

- mutola muallif va kitobxon o‘rtasidagi xissiy emotsional bog‘liqlikni noyobligini ko‘rsatadi. “Chunki, aynan bir narsa hammada bir xil xis uyg‘otishi mumkin, biroq, bitta insonda u xar doim ham, bir hil xis qo‘zg‘atmaydi”. [4].

T.Gobsning qarashlariga muvofiq, bilm, ayniqsa, kitoblar orqali egalangan bilm insoning aqli kuch qudratini yanada oshiradi. Biroq, bu o‘rinda muloxaza va tanqidiy tafakkur ham, muhim axamiyat kasb etadi. Faylasuf o‘qigan matiniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ergashib ketuvchi kishilarni tutun quvuridga kirib, hech qayoqqa chiqib ketolmayotgan

qushlarga o‘xshatadi. “Bu kabi insonlar o‘zlari quvurga qanday qilib kirib qolganliklarini eslay olmaydilar va shu bois, undan xalos bo‘lish yo‘lini bilmaydilar” [4].

Ingliz faylasufi J.Lokning g‘oyalari ham, sub’ektiv ramziy model tamoillarini boyitdi. Ayniqsa, uning refleksiya (o‘z o‘zini anglash) g‘oyasi mutolaning individual sub’ektiv jixatlarini ochib berishga xizmat qildi. Yana bir sensualist mutafakkir D. Yummning “ong konsepsiyasi” esa, o‘qishning assotsiativ moxiyatini aniqlashga imkon berdi.

Bundan tashqari mutola qilish nafaqat matining an’anaviy belgilarini sub’ektiv anglash balki, individni o‘zini anglash uchun, o‘z xissiy jarayonlarini kuzatishni ham, nazarda tutadi. J Lokning insoning ijtimoiy tabiatini aks etiruvchi ushbu qarashlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, mutola insoning muayyan foydaga intilishi ya’ni, boshqa inson, xususan, mualifning qarashlarini o‘ziga qabul qilish, shuning bilan o‘z tajribasini oshirishga intilish sifatida ham, namoyon bo‘ladi. Chunki, Lokga ko‘ra, insoning ijtimoiy moxiyati “savdo” va “ ayriboshlashga” asoslanadi. [5].

Sub’ektiv ramziy model doirasida mutolaning assotsiativ xususiyati D. Yumm g‘oyalarining asosini tashkil etadi. D. Yummga ko‘ra, inson ongi voqealar o‘rtasidagi realikni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilishga qodir emas. U voqea xodisalarni xamda reallikni o‘ziga mos darajada konstruktlaydi, aniqrog‘i, uni qaytadan yaratadi. Mutafakkirning fikricha, ushbu mexanizm inson ongiga tabiatan xos bo‘lib, u ular o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni ta’minlaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, mutolaning sub’ektiv- ramziy modelining o‘zi bir nechta o‘zaro farqli jixatlarga ajraladi. Ularni quydagicha tavsiflash mumkin:

- mutola faqat bilish jarayonini aks etirmaydi. T. Gobsga ko‘ra, ramz, belgi yoki belgilarning belgisi tushunchalarining o‘zi yangi qarama- qarshiliklarni paydo qiluvchi shaxs va olam uyg‘unligini anglatadi;

- Mutolani faqat sub’ekt va ob’ekt munosabatlari deb qarashning xato ekanligi. Ye

- mutola jarayonidagi ramziy jixatlar turli belgilarning shunchaki yig‘indisi emas, ular muayyan tizmga, mantiqiy bog‘lanishlarga ega;

- mutola qilish, jumladan insoning turli ramzlarni qabul qilish jarayoni, umumiy xisobda, sensorik, geshtalt kabi idrok qonuniyatlari bilan shartlanishi;

- mutolaning faqat masofaviy bilm olish bilan chegaralashning xatoligi. Chunki, mutola jarayonida inson nafaqat o‘ziga begona bo‘lgan bilmlarni o‘zlashtiradi balki, ular bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xos olam, tasavur olamini yaratadi. Ayniqsa ushbu tendensiya keyinchalik XX asrga kelib poststruktualizm g‘oyalariga asos bo‘ldi. Mazkur model doirasida sanab o‘tilgan ushbu tavsiflar keyinchalik matinga nisbatan fenomenologik, germenevtik yondashuvlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Yangi davr g‘arb tafakkur tarzida insoning nafaqat ma’naviy yuksalishiga diqqat qaratganligi bilan balki, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilab berganligi bilan ham, axamiyatli sanaldi. Aynan shu davrda barchaning qonun oldida tengligi, ma’rifat yo‘li bilan ijtimoiy muammolarni hal etish g‘oyalari keng yoyildi. Oldingi davrlarda madaniy taraqiyotda antik manbalarga qarab mo‘ljal olish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lsa, ushbu davrga kelib, kelajakka qarab mo‘ljal olish, dunyoni o‘zgartirish xaqidagi g‘oyalarni ilgari

surish kuzatiladi. Tabiyki, buning oqibatida, o‘qimishli bo‘lishga, kutubxonalarga, extiyoj tug‘ildi. Jamiyatni marifatlashtirishning ijtimoiy zarurati esa, ilk bor davlat tomonidan muxofaza etiladigan, ommaviy, umummilliy kutubxonalarni vujudga keltirdi. Ushbu davrgacha bu turdagi kutubxonalar faqatgina saroylar, manastrlar, universitetlar tasarufidagina edi.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan muloxazalarni umumlashtirib, quydagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Yangi davr g‘arb ijtimoiy hayotidagi keskin o‘zgarishlar kitob mutola qilishning o‘ziga xos sotsial modelini shakilantirdi.

2. Uyg‘onish davrida kitob mutola qilish sakrallik aniqrog‘i, muqaddaslik va dunyoviylik kasb etgan bo‘lsa, yangi davrga kelib, o‘qish sof ijtimoiy xususan, egalitar mazmunga xam ega bo‘ldi. Zotan kitob sanoati texnologiyalarining o‘zgarishi o‘qishni tor, xos doiralardan keng jamoatchilik e’tiboriga olib chiqdi;

3. Mutolaning yangi davrda shakilangan sub’ektiv- ramziy modelli keyinchalik, XX asrda germenevtika va fenomenologiya kabi konsepsiyalarning yuzaga kelishiga imkon yaratdi;

4. Mutolaga nisbatan axloqiy yondashuv yangi davrga kelib estetik xamda pragmatik munosabatga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. The Coming of the Book: The Impact of Printing 1450-1800 (L'apparition du livre). Verso.1997. P-51.
2. Buyuk didaktika. O‘qituvchi nashriyoti (Toshkent). 1999.P-215-222.
3. Discourse on the Method (fr: *Discours de la méthode*). Leiden, Niderlandiya.1968. P-158.
4. Leviathan. Penguin Classics, 1985. P-269.
5. Two Treatises of Government.1689. “Awnsham and John Churchill”. P-96.

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLAR VA YOSHLAR MA’NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIGI

Ilmiy rahbar: professor Samadov Aktam Rafikovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Falsafa kafedrasi mudiri
Dusmurodov Alizod Ma’ruf o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tezlashishi mavjud muammolarni milliy-mintaqaviy emas, balki, global miqyosda hal qilish holatidir. Bu jarayonda birorta jamiyat o‘z-o‘zini izolatsiya qila olmaydi. Globallashuv jarayoni jamiyatning ochiq tizim holatida bo‘lishini xoxlaydi hamda shuni ta’minlaydi. Globallashuv jarayonlari bir vaqtning o‘zida ijtimoiy-madaniy muhitda yutuqlarga (birgalikda tinch-totuv yashash falsafasiga

asoslanadigan makon) va bir qator muammolar (jamiyatda ijtimoiy muvozanatni bo‘lishi, tizim bifurkatsiyaga uchrashi, ana’naviylik va madaniy innovatsiyalarning ustuvorligi)ga uchraydi. Buni tizimlarda katta va kichik buzilishlar deb atash mumkin. Shu boisdan ham U.Astafiyevaning yozishicha, madaniyat rivojlanishi «harakatning maxsus mantig‘ini o‘z ichiga qamrab oladi, bunda tizim o‘zining muhim xususiyatlarini yo‘qotmaydi» .

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar xalqlar va madaniyatlar integratsiyasini ta’minlash kerak bo‘lsa, global boshqaruv usuli qo‘llanilishi bilan insoniyat tarixida yangi ma’naviy paradigmasiga asos solmoqda. Endilikda global madaniy qadriyatlar zamoni va boshqaruv shakllari hukmron bo‘lgan davr keladi. Milliy-madaniy tuzilish sivilizatsiyalarning asosi sifatida global sivilizatsiyalarga singib boradi. Global xavfsizlik tushunchasi an’anaviy ma’noda faqat harbiy yoki siyosiy xavfsizlik bilan chegaralanmaydi.

Bugungi murakkab va shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda eng asosiy vazifamiz — yosh avlodning qalbi va ongiga yuksak ma’naviyat, milliy g‘urur, insonparvarlik fazilatlarini singdirishdan iborat”, — deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1]. Ushbu fikr global ijtimoiy-madaniy xavfsizlik va yoshlar ma’naviyatining o‘zaro bog‘liqligini chuqur anglashga undaydi. XXI asrda dunyo oldida turgan tahdidlar, xususan, axborot xurujlari, mafkuraviy bosim, madaniy ekspansiya, ekstremistik g‘oyalar tarqalishi sharoitida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash nafaqat milliy, balki xalqaro xavfsizlikning eng muhim omiliga aylandi[2]. Ayniqsa, “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi shakllanayotgan bugungi real voqelikda bu masala umumiy mintaqaviy barqarorlikning asosi sifatida ko‘rilmoqda[3].

Bugungi globallashtirilgan, raqamli kommunikatsiya oqimlari kuchaygan sharoitda xavfsizlikning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy qatlamlari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda[4]. Ommaviy madaniyat, axborot manipulyatsiyasi, gibrid urushlar, ijtimoiy tarmoqlardagi mafkuraviy tahdidlar yoshlarning ongiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shuning uchun ham ma’naviy xavfsizlik endilikda davlatlar siyosatida strategik yo‘nalish darajasiga ko‘tarildi[5]. Ayniqsa, Markaziy Osiyodagi yosh demografik ulush yuqoriligi bu masalani yanada dolzarb qiladi: O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog‘i 60 foizdan ortiq[6].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida doimo shuni eslatadi: “Biz kimligimizni, qanday buyuk xalq ekanligimizni yoshlarimiz ongiga chuqur singdirishimiz shart. Ma’naviyat — eng katta kuch, eng ishonchli qalqon.” Ushbu yondashuv davlatning ma’naviy siyosatida tub burilish yasadi. Endi yoshlarning ma’naviy tarbiyasi faqat ta’limga yuklatilgan vazifa emas, balki butun jamiyatning umumiy mas’uliyati sifatida talqin etilmoqda[7]. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional tizim — “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar balansi”, “Ma’naviyat va ma’rifat markazlari” faoliyati, yoshlarning intellektual salohiyatini rag‘batlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning amaliy mexanizmlarini shakllantirmoqda.

Global raqamli makonda yoshlar eng faol auditoriya bo‘lib, aynan ular eng ko‘p ta’sirchan qatlam hisoblanadi. Buning natijasida “ijtimoiy tarmoqlar mafkurasi”, “ommaviy madaniyat bosimi”, “vizual propaganda”, “axborot virusi”, “algoritmik ong

shakllanishi” kabi yangi fenomenlar paydo bo‘ldi. Bugungi kunda yoshlarga tahdidlar ko‘p hollarda an’anaviy siyosiy bosim orqali emas, balki axborot oqimlari, ko‘rinmas g‘oyaviy ta’sirlar orqali singdirilmoqda. Shu sababli yoshlar ongini asrash uchun faqat ogohlantirish yoki nazorat etarli emas — raqamli savodxonlik, media madaniyat, tanqidiy tafakkur, intellektual mustaqillikni keng miqyosda rivojlantirish zarur[10].

“Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi ham ma’naviy xavfsizlikni mintaqaviy miqyosda mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Mintaqa davlatlari o‘rtasidagi yaqinlashuv, madaniy integratsiya, qo‘shnichilik diplomatiyasi va o‘zaro ishonch muhitining shakllanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki madaniy-ma’naviy barqarorlikni ham ta’minlaydi[11]. Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy siyosati mazmunida shunday fikr bor: “Markaziy Osiyo — yagona tarix, yagona madaniyat, yagona tamaddun o‘chog‘i. Biz bu boylikni birgalikda asrasakgina kelajakka dadil qadam qo‘yamiz.” Demak, yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash mintaqaviy birdamlikning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda[12].

Yangi Markaziy Osiyo konsepsiyasining asosiy g‘oyalaridan biri — “madaniy diplomatiya”ni kuchaytirishdir. Bu jarayon yoshlarning global jarayonlarda faol sub’yekt sifatida ishtirok etishini taqozo etadi[13]. Bugungi yosh — bu faqat milliy jamiyatning a’zosi emas, balki global fuqarodir. Shuning uchun yoshlar bir vaqtning o‘zida ikkita maydonda yashamoqda: o‘z ona madaniyati va global madaniy oqimlar ichida. Ma’naviy xavfsizlik ana shu ikki maydon balansida namoyon bo‘ladi[14].

Bugungi globallashuv davrida madaniy identitetni saqlash va rivojlantirish davlat barqarorligining asosiy omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston misolida bu jarayon uch yo‘nalishda ilgari surilmoqda: birinchisi — milliy qadriyatlarni zamonaviy talqinda rivojlantirish; ikkinchisi — yoshlarning kreativ va ilmiy salohiyatini oshirish; uchinchisi — xalqaro madaniy hamkorlik orqali madaniy diplomatiyani kuchaytirish[15]. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ma’naviyat — insonni inson qiladigan asosiy kuchdir. Agar ma’naviyatni yo‘qotsak, jamiyatning o‘zi yo‘qoladi.”

Yoshlar orasida kitobxonlikni oshirish, intellektual muhit yaratish, tarixiy xotirani tiklash, milliy kino, teatr, adabiyot orqali ma’naviy tarbiyani kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir[16]. Chunki ma’naviy bo‘shliq qayerda bo‘lsa, o‘sha yerga begona g‘oyalar, zararli mafkuraviy oqimlar kirib keladi. Shu sababdan davlat siyosati yoshlar ongini bo‘shliqdan himoya qilish emas, aksincha, uni boyitish, mustahkamlash, ma’rifat bilan to‘ldirishga qaratilgan[17].

Shuningdek, “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi madaniy integratsiya orqali ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga qarshi kurashishda ham strategik o‘rin tutadi[18]. Mintaqaviy hamkorlik kuchaygani sari umumiy madaniy-ma’naviy xavfsizlik tizimi ham mustahkamlanib boradi. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlik, yoshlarning sog‘lom dunyoqarashi, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi, global tafakkuri kengayishiga yordam beradi[19].

Shu bilan birga, global madaniy xavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekistonning tashqi siyosati ham muhim o‘rin tutadi[20]. Xalqaro maydonda mamlakatning tinchlikparvar pozitsiyasi, madaniyatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash siyosati yoshlar uchun ijobiy

ma’naviy fon yaratadi. Yoshlar xalqaro almashinuv dasturlarida, ilmiy loyihalarda, madaniy festival va forumlarda ishtirok etayotgani ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bir vaqtning o‘zida milliy identitetni mustahkamlaydi[21].

Xulosa qilib aytganda, global ijtimoiy-madaniy jarayonlar va ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik tushunchalarining tahlili, talqin va yondashuvlarni umumlashtirish asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

birinchidan, g‘arb faylasuf olimlari tomonidan globallashuv hodisasi moliya-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qilinib, bu kapitalning tez harakatlanishi, tovar va xizmatlar harakatining liberallashuvi, milliy iqtisodiyotlarning yagona global tizimga qo‘shilishi bilan bog‘liq dialektik jarayonni aks ettiradi. Biroq globallashuv faqat iqtisodiy hodisa bo‘lmay, u insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, dunyoning yangi manzarasi shakllanishiga olib keladi, dunyoning yaxlitligini tushunishga katta yordam beradi;

ikkinchidan, globallashuv murakkab ziddiyatli hodisa hisoblanadi. U bir tomondan, turli xalqlar va davlatlar uchun chegaralarni ochadi, ularni bilim, axborot va texnologiyalar orqali bog‘laydi, ikkinchi tomondan esa G‘arb davlatlari, avvalambor, Amerika gegemonizmining mondializm g‘oyalari ta’siri ostida shakllangan g‘arblashtirish sifatida ham qabul qilinadi;

uchinchidan, globallashuv ikki o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida qaralib, bu birinchidan, turli millatlar, iqtisodiyotlar va madaniyatlarning bir-biri bilan aloqalar o‘rnatish zarurati ta’siri ostida yuzaga keladigan tabiiy jarayon (gorizontal globallashuv), ikkinchidan, globallashuvning umumiy jarayoni vertikal globallashuvni (sun’iy, uyushgan) o‘z ichiga oladi. Bu bir mamlakat, jamiyat yoki davlatning o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy rivojlanish modellarini boshqa davlat yoki mintaqalarga majburan kiritishga urinishlari natijasi sifatida ham qayd etiladi;

to‘rtinchidan, globallashuv nochiziqli, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uning kontragentlari mavjud iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishga ega bo‘lgan («Oltin milliard» dasturi) mavjud dunyo tartibini saqlab qolish uchun manfaatdor tomonlar yoki bu dunyo tartibini beqarorlashtirishga va dunyo tizimining ijtimoiy muvozanatini (antigloballashuv, rivojlanayotgan mamlakatlar) kiritib, yangi konfiguratsiyani yaratishga urinish bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Nutqlar va intervyular to‘plami. Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va ma’naviyat” qarorlari, 2021.
3. “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi, Toshkent, 2022.
4. Sobirov A. Global xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik, Toshkent, 2021.
5. Karimov O. Ma’naviy xavfsizlik va yoshlar, Toshkent, 2020.
6. Davlat statistika qo‘mitasi, “O‘zbekiston aholisi va yoshlar demografiyasi”, Toshkent, 2023.

7. Mirziyoyev Sh. M. Ma’naviyat va ta’lim: Prezident nutqlari, Toshkent, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar dasturlari va ma’naviyatni rivojlantirish”, 2022.
9. Tursunov B. Raqamli makon va yoshlar ongiga ta’sir, Toshkent, 2021.
10. Akbarov D. Media-savodxonlik va tanqidiy tafakkur, Toshkent, 2022.
11. Mamadaliyev R. Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi, Toshkent, 2022.
12. Mirziyoyev Sh. M. Mintaqaviy siyosat va yoshlar, Toshkent, 2021.
13. Nazarov S. Madaniy diplomatiya va yoshlar ishtiroki, Toshkent, 2022.
14. Qodirov F. Milliy o‘zlik va globalizm, Toshkent, 2021.
15. Raximov H. Madaniy identitet va davlat barqarorligi, Toshkent, 2022.
16. Ahmedov M. Kitobxonlik va ma’naviy tarbiya, Toshkent, 2021.
17. Ergashev N. Ma’naviy bo‘shliq va ekstremizmga qarshi kurash, Toshkent, 2022.
18. Tursunova Z. Mintaqaviy madaniy integratsiya va xavfsizlik, Toshkent, 2021.
19. Yo‘ldoshev A. Ijtimoiy barqarorlik va yoshlar rivoji, Toshkent, 2022.
20. Islomov R. O‘zbekistonning tashqi siyosati va madaniy xavfsizlik, Toshkent, 2021.
21. Nazarova L. Global almashinuv dasturlari va milliy identitet, Toshkent, 2022.
22. Mirziyoyev Sh. M. Yoshlar strategiyasi va ma’naviy tiklanish, Toshkent, 2022.
23. Abdukarimov J. Global xavfsizlik va yoshlar ma’naviyati, Toshkent, 2021.
24. Toshpulatov K. Yoshlar va jamiyat taraqqiyoti, Toshkent, 2022.

O‘ZBEK XALQI MA’NAVIY KAMOLOTINING IJTIMOIY-TARIXIY RIVOJLANISHI VA UNING ILDIZLARI

Dustova Gulnoza Ashurovna
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi o‘tgan davr ichida mamlakatimizning barcha sohalarida bo‘lganidek, milliy-ma’naviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, millatimizning o‘zligini anglash jarayonlari, o‘z milliy-ma’naviy merosini o‘zlashtirish, milliy urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarimizni tiklash va muqaddas dinimizning ulkan imkoniyatlaridan bahramand bo‘lish borasida ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Lekin bu borada qo‘lga kiritilgan yutuqlar qanchalik katta bo‘lmasin, ma’naviy salohiyatning ildizlari mustahkam va dunyo sivilizatsiyasida o‘zining munosib o‘rnini egallab turgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, o‘zbek xalqining iligi to‘q, baquvvat..., millatimizning ichki ma’naviy-ruhiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun hali tinmay mehnat talab etiladi. Shuni hisobga olish lozimki, milliy, ma’naviy-ruhiy imkoniyatimizni yuzaga chiqarish faqat mamlakatimiz va milliy taraqqiyotimiz manfaatlari doirasi bilan cheklanib qolmaydi, uning ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti XXI asrda intellektual salohiyatning qaysi darajasida rivojlanishi va bu tizimda milliyma’naviy omilning ustuvor

bo‘lib qolishi bilan ham bog‘liqdir. Ana shu global, umumbashariy vazifadan kelib chiqiladigan bo‘lsa, mustaqillik yillarida milliy tiklanish borasidagi yutuqlarimizning mohiyati va mazmunini to‘la tushunib yetish, bu borada qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar yo‘nalishlarini bilib olishimiz eng dolzarb masalalardan biri sifatida oldimizda turibdi. Ana shu vazifalar qatorida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qiyofamizni va uning millat hayotidagi roli hamda o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ma’naviy-qiyofa yuksak ma’naviyatning asosi, yuksak ma’naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi yangi O’zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgani ham bejiz emas albatta. Darhaqiqat prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, – “...jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O’zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz[9].

Ma’naviyatning tarixiy ildizlari – xalqimizning ma’naviy taraqqiyoti, milliy tafakkur poydevori, xalqimiz ma’naviyatining shakllanishi va takomillashuvi jarayonini ifodalovchi tushuncha. Xalqimiz ma’naviyatining tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Spitamen, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi rivoyat va dostonlarda vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik, sadoqat, vafo, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. Ma’naviyatning tarixiy ildizlari mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan, har bir din o‘ziga xos ma’naviyat tizimini yaratgan. Ana shu dinlarining asosiy kitoblarida muayyan ma’naviy tizimlar o‘z ifodasini topgan. Ma’naviyatning tarixiy ildizlari takomillashib borgani sari, ulardagi ma’naviy tushunchalar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi “Avesto”da xalqimizning o‘sha davrdagi ma’naviyati, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari yoritib berilgan. “Avesto” zardushtiylikning asosiy kitobi bo‘lgani sababli unda bu dinning ma’naviy tushunchalar tizimi ham o‘z ifodasini topgan. Asarda ezgulik, yaxshilik, ma’naviy barkamollik, hurfikrlik, insonparvarlik kabi xislatlar Ahura Mazda qiyofasi orqali ko‘rsatilgan. “Avesto”da yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy qarashlari, ayniqsa, axloqi va ma’naviyatining rivojlanishi tarixiga oid g‘oyat muhim manbalar bor. Markaziy Osiyoda ma’naviyat to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII–XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan, islom dini ko‘pgina Sharq xalqlarining umumiy diniga aylangan edi. Qur’oni Karimda ta’riflab berilgan ma’naviyat tizimi xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatgan. Yurtimizda yashab o‘tgan har bir mutafakkir, alloma ijodida islom dini ta’siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga, islomning yurtimizda tarqalishi davridagi

9 Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. “Tasvir” нашриёт уйи. – Тошкент – 2021.-Б. 4.

istilo oqibatida milliy ma’naviyatimizning ko‘p qadriyatlari musulmon ma’naviyatiga o‘rin bo‘shatgani to‘g‘risida Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar” asarida yozib qoldirgan.

Xalqimiz ma’naviyati islom tarqalgan xalqlar madaniyatining rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Marg‘inoniy, Zamahshariy, Nasafiy, Najmiddin Kubro, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil kabi zotlarning boy merosining jahon sivilizatsiyasiga ta’siri katta bo‘lgan. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining Imom Buxoriy asarlarini Qur’oni Karimdan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotgani, Imom Termiziy va Naqshband qabrlari muqaddas qadamjolarga aylangani bejiz emas. Milodning VIII–IX asrlariga kelib ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu davrda madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat paydo bo‘ldi. O‘sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy (783–850) xalifa Ma’mun tashkil qilgan “Baytul-hikma”da katta mavqega ega bo‘lgan. U ilgari surgan g‘oyalarda ma’naviyatning umuminsoniy jihatlari ifodalangan. Xorazmiy olimning ma’naviyatini ta’riflar ekan, quyidagicha yozadi: “O‘tmish davrlarda o‘tgan olimlar fanning turli tarmoqlarida asarlar yozish bilan o‘zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o‘zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi, uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi… o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi”. Bu so‘zlar butun Sharq olimlari uchun umumiy talab, kamolot mezoni, hozirgi intellektual mulk egalari ma’naviy qiyofasining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq madaniyati tarixida muhim o‘rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy (873–959) ham ma’naviyatga katta e’tibor bergan. Forobiyning ma’naviyatga oid qarashlari “Madinatul-fozila” ta’limotida o‘z ifodasini topgan. Alloma fozil jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida yuksak g‘oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma’naviy-axloqiy xususiyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy ma’naviyat ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta’kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g‘oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o‘sha davrda, nafaqat Alloh g‘oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan ma’naviyatini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida talqin etgan dastlabki Sharq faylasuflaridandir.

Ma’naviyat mavzusini Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ham chetlab o‘tmagan. Uning fikricha, ma’naviyatning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, kishilar o‘rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko‘pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o‘zini himoya qilish

zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi. Shu bilan birga, u bosqinchilarning yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo‘qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ma’naviyat masalasi Abu Ali Ibn Sinoning (980–1037) ham diqqat markazida turgan. Allomaning ma’naviyatga oid qarashlari “Donishnoma”, “Solomon va Ibsol” kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan. Uning nazarida, o‘z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o‘rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o‘ziga davo topadi. Ibn Sino inson, uni o‘z-o‘zini idora qilishi haqidagi fanlarning ahamiyatini yuksak baholaydi. Ibn Sinoning fikricha, odamning qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishga intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishi bilan belgilanadi.

Ma’naviyatning tarixiy ildizlarining yurtimizga tegishli falsafiy-tarixiy tahlili Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar merosi bilangina chegaralanib qolmaydi. Uning al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy kabi zabardast namoyandalari bo‘lgan tasavvuf ta’limotiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi bor. Shu bilan birga, jahon madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Navoiy kabi zotlarning bu boradagi qarashlari ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ularning butun jahonga mashhur bo‘lgan “Saodatnoma”, “Guliston” va “Bo‘ston”, “Bahoriston”, “Xamsa” kabi bebaho asarlari jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma’naviy-axloqiy ma’naviyatning umumiy tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli. Ushbu an’ana yurtimiz madaniyati tarixida aslo to‘xtab qolgani yo‘q va bu borada A.Donishning “O‘g‘illarga nasihat” (XIX asr oxiri), A.Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” (XIX asr boshlari) asarlarini eslash kifoya. Allomalardan biri Ahmad Yassaviy (1105–1166) diniy, ma’naviy-axloqiy ma’naviyatning o‘sha zamonga mos keladigan tizimining namoyon bo‘lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtai nazaridan ta’riflab bergan. “Devoni hikmat” majmuasida Yassaviy ma’naviyatning asosiy shakllari – iymon, halollik, poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta’rif bergan. Sobiq sho‘ro davrida Yassaviy qarashlari tanqid qilinar edi. Aslida, Yassaviy tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, madaniy merosimizga juda katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ma’naviy merosimizda naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband (1388 yilda vafot etgan), Xo‘ja Ahror (1409–1492) va Husayn Voiz Koshifiy kabi ilohiyot ilmi allomalari ilgari surgan g‘oya hamda qarashlarning ham o‘z o‘rni bor. Naqshbandiya tariqati musulmon Sharqida kyeng yoyilgan, Jomiy, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning hurmat-e’zoziga sazovor bo‘lgan. Hazrat Navoiy “Xoja Bahouddin Naqshband” nomli asar ham yozgan. Naqshbandiylikning vujudga kelishida Yassaviy ta’limotining ta’siri sezilib turadi. Ammo naqshbandlik tariqati o‘zining ko‘pgina jihatlari bilan boshqa oqimlardan farq qiladi. Naqshbandiyada Alloh visoliga yetish uchun dunyodan voz kechish yoki tarkidunyo qilish emas, balki “qo‘l ishda, ko‘ngil Allohda” bo‘lmog‘i, poklik, hayo,

kamtarinlik komil insonga xos asosiy fazilatlar ekani uqtiriladi. O‘rta asrlar ma’naviyatida Amir Temur va temuriylar davrining, umumbashariy ma’naviyatning ilmiy tahlilida Ulug‘bek va u rahbarlik qilgan olimlar merosi katta o‘rin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ma’naviyati, xulqi, axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san’ati bayon qilingan “Temur tuzuklari”da ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga ma’naviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan.

Ushbu asar Sharq va G‘arbda mashhur bo‘lgan, ko‘p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo‘shin, ulamolar, arkoni davlat va boshqaga munosabati uchun asosiy mezon bo‘ladigan ma’naviyat tamoyillari o‘sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Amir Temurning tariximizdagi o‘rni va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o‘git va nasihatlari keyingi davrning siyosiy arboblari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgani shubhasiz. Umumbashariy ma’naviyat tahlilida Mirzo Ulug‘bek (1394–1449)ning fikrlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘z atrofiga Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlarni to‘pladi, ular bilan birga umumbashariy ma’naviyat, koinot sirlari, unda ro‘y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o‘rganish borasida o‘z zamonasidan ilgarilab ketdi. Sirasini aytganda, ular nafaqat umumbashariy ma’naviyatni tadqiq etdilar, balki ilm-ma’rifat, haqiqat, ziyolilik, fozillik kabi umuminsoniy ma’naviy tamoyillarning xususiyatlarini ham izohlab berganlar. Alisher Navoiyning odil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida umumijtimoiy ma’naviyat tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy ma’naviyat tizimi ta’riflanib, ular o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning bu boradagi g‘oyalari bugungi mustaqillik sharoitida jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, farzandlarimizni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ammo Alisher Navoiy vafotidan besh-olti yil o‘tar-o‘tmas, mamlakatda hukmronlik qilgan temuriylar davlati tanazzulga uchrab, parchalanib ketdi. Avval Xiva xonligi va Buxoro amirligi, so‘ngra Qo‘qon xonligi vujudga keldi. Uch yuz yildan oshiqroq davrni o‘z ichiga olgan bu jarayon xonlik, amirlik, turli sulolalar, urug‘lar o‘rtasidagi urushlar, tinimsiz ziddiyatlar orqali kechdi. Yaxlit sivilizasiyamizning hamjihatligini ta’minlaydigan umumiy ma’naviyat tizimi darz ketdi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, amirlik va xonliklarga bo‘linganligiga qaramasdan, mustaqil yashagan Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo‘lib qoldi. Bu davrga kelib Ahmad Donish (1827–1900), Sattorxon (1843–1906), Furqat (1858–1909), Muqimiy (1859–1903) kabi adiblar ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qildilar. Masalan, A.Donishning “O‘g‘illarga nasihat” asarida ma’naviy madaniyat, axloq talablari va ziyolilikning inson kamoloti uchun ahamiyati bayon qilingan. Xususan, XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda “jadidlar” oqimi vujudga keldi. Hayotda ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlarni o‘rganish, umummilliy ma’naviyatimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan tahlil qilish borasida M.Behbudiy, So‘fizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning xizmatlari beqiyosidir. Chunonchi, A.Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida o‘ziga xos ma’naviyat tizimi

ta’riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, Vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, zako, lafz, iqtisod, viqor, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat, avf kabi – “yaxshi xulqlar”, g‘azab, jaholat, razolat, adovat, hasosat, g‘iybat, haqorat, hasad, zulm singari “Yomon xulqlar” teran tahlil etilgan. Afsuski, qatag‘on yillarida xalqimiz ma’naviyati xazinasidan munosib o‘rin olgan bu kabi asarlar taqiqlandi. Buyuk ma’rifatparvar bobolarimizning boy merosini o‘rganish, ularni targ‘ib-tashviq etish cheklab qo‘yildi. Faqat respublikamiz mustaqil bo‘lganidan keyingina ana shunday asarlarni chop etish, xalqimizni ma’rifatparvar ajdodlarimizning ezgu g‘oyalaridan bahramand etish imkoni tug‘ildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

2.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

3.Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

4.To‘xtaboyeva D.E. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysidagi urbanizatsiyajarayonlari (kichik va o‘rta shaharlar misolida 1991-2017-yy). –Toshkent.

O’ZBEK XALQ ERTAKLARINING BOLALAR MA’NAVIY TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna
Oriental universiteti o’qituvchisi
Ergasheva Yulduz Muxtorovna
Oriental universiteti talabasi

O’zbek xalq ertaklari – bolalar ma’naviy tarbiyasidagi eng qadimiy va samarali vositalardan biridir. Ular yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, rostgo‘ylik va mehnatsevarlik ruhini shakllantiradi[1,208]. Shu bilan birga, ertaklar bolalarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, til va nutq madaniyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy normalar va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi[1,210]. Ertaklar orqali bolalar nafaqat axloqiy qadriyatlarni o‘rganadi, balki o‘z milliy merosini anglash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunish va ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, o’zbek xalq ertaklari nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan boy manbadir.

Bundan tashqari, ertaklar bolalarda mehr-oqibat, adolatga intilish va do‘stlik kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Har bir ertak qahramoni orqali bolalar turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishni o‘rganadi, yaxshilik va yovuzlikni farqlash, to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni anglash imkoniga ega bo‘ladi.

Shu tariqa, ertaklar bolalarning ijtimoiy va ma’naviy tarbiyasida uzviy va samarali rol o‘ynaydi[2,59].

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lib, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Boshlanish va tugash formulasi: Ko‘pchilik ertaklar “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” iborasi bilan boshlanib, “Murod-maqsadiga yetibdi” yoki shunga o‘xshash yakun bilan tugaydi. Bu boshlanish va tugash bolalarda xotira va matn tuzilishini yaxshilashga yordam beradi

2. Xayoliy va fantastik obrazlar: Qahramonlar hayvonlar, sehrli mavjudotlar yoki ajoyib hodisalar orqali tasvirlanadi, bu esa bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

3. Takroriy I-M-F formulasi: Ertaklar ko‘pincha Initsial (I) – boshlang‘ich, Medial (M) – asosiy qism, Final (F) – yakun qism formula bo‘yicha tuziladi. Bu struktura bolalarda matnni eslab qolish va hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Axloqiy va tarbiyaviy ahamiyat: Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida ertaklarning insonni yetuklikka yetkazishdagi roli qayd etilgan. Masalan, “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” ertagi bolalarga rostgo‘ylik, adolat va halollik qadriyatlarini o‘rgatadi [1,95]


O’zbek xalq ertaklari bolalarning ma’naviy tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali bolalar yaxshilik, adolat, kamtarlik, do’stlik va sabr-toqat kabi axloqiy sifatlarni o‘rganadi, shuningdek, yovuzlik, xiyonat va adolatsizlik kabi illatlar qoralanganini tushunadi. Har bir ertak qahramonining xatti-harakati bolalarga hayotiy vaziyatlarda qanday axloqiy qarorlar qabul qilish kerakligini ko‘rsatadi va ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, ertaklar bolalarning tafakkurini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular mantiqiy fikrlashni, voqelikni tahlil qilishni va muammolarni o‘z-o‘zidan yechish qobiliyatini shakllantiradi[5,117].



Bundan tashqari, ertaklar til va nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, “Qizil qalpoqcha” yoki “Shum bola” kabi ertaklar o‘ziga xos badiiy til, hazil-uslub va ifoda boyligi bilan bolalarning so‘z boyligini oshiradi, nutqini yanada boyitadi. Shu tariqa ular nafaqat axloqiy, balki intellektual jihatdan ham bolalarni tarbiyalaydi. Ertaklar bolalarni ijtimoiylashtirishga ham xizmat qiladi. Bolalar ertaklar orqali jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish, ijtimoiy normalar va xulq-atvor qoidalarini o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularni kelajakda jamiyatda to‘g‘ri va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ertaklar bolalarning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi: ular murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga o‘rgatiladi, adolat va rostgo‘ylikni qadrlashga chaqiriladi.

Ertaklar orqali bolalarda

- milliy g‘urur va vatanparvarlik hissi shakllanadi;
- axloqiy qadriyatlar: rostgo‘ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik singdiriladi;
- tafakkur va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi;
- til va nutq madaniyati o‘sadi.



O’zbek xalq ertaklari – bu bolalarni faqat ko‘ngil ochish vositasi sifatida qabul qilish mumkin bo‘lgan asarlar emas, balki ular bolalarni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda hayotiy saboqlar berishning samarali vositasidir. Har bir ertak qahramonining xatti-harakati, qaror qabul qilish jarayoni va voqealarning rivojlanishi bolalarga hayotiy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Shu jihatdan, xalqimizning “Ertaklar – yaxshilikka yetaklaydi” degan naqli nafaqat so‘zda, balki amalda ham o‘z tasdig‘ini topadi, chunki ertaklar bolalarga adolat, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat, do‘stlik va fidoyilik kabi fazilatlarni namoyish etadi va ularni o‘z hayotida qo‘llashga undaydi.

Shuningdek, ertaklarni maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda keng qo‘llash bolalarning qiziqishini oshirish va ularni dars jarayoniga faol jalb qilishda katta rol o‘ynaydi. Interaktiv darslar, dramatizatsiya, hikoya qilish va suhbat shaklidagi faoliyat orqali bolalar ertaklarni faqat tinglash bilan cheklanmay, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, bolalar ertakdagi qahramonning muammoni qanday hal qilganini tahlil qilishi, o‘z fikrini bildirish va muloqot qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ertaklar milliy merosni boyitishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa ertaklar bolalarni o‘z madaniy merosini anglashga, milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, ertaklarni o‘quv jarayoniga muntazam kiritish va ularni turli didaktik vositalar bilan boyitish bolalarning ma’naviy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964.
2. Karimov I. Ma’naviyatga, kelajakka e’tibor, Tashkent, 1998.
3. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2006).
4. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. - Toshkent.: Fan, 1988.-B.63-84.
5. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova. Maktabgacha Pedagogika. Darslik. «Tafakkur» NASHR1YOTI TOSHKENT – 2019.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI VA SIYOSIY QARASHLARINING O‘ZGARISHI

Ergashov Zuhriddinjon
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi

Kirish: Bugungi kunda globallashuv jarayoni o‘zining yuqori sur’atlari bilan rivojlanmoqda va bu jarayon turli sohalarda sezilmoqda. Shu sharoitda yoshlar ma’naviyati ham o‘zgarishlarga duch kelmoqda, chunki sun’iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi ularning dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu vositalar globallashuv jarayonini rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo‘lsada, ular bilan birga yoshlar ma’naviyati va siyosiy qarashlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar ham mavjud.

Shuningdek, globallashuv jarayoni yoshlarning milliy identiteti va madaniy qadriyatlariga ham ta’sir qilmoqda. Yoshlar orasida global madaniyat va mahalliy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, axborot va media savodxonligini oshirish, hamda siyosiy qarashlarni sog‘lom shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Asosiy qism: O‘zbekiston globallashuv jarayonida faol davlatlardan biri sifatida ajralib turadi va axborot almashuvi sohasida tezkor o‘sish kuzatilmoqda. Ma’lumotlarga

ko‘ra, 2016-yilda internetdan muntazam foydalanadigan aholi soni taxminan 12,1 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu raqam 22,5 milliondan oshgan. Shuningdek, mobil aloqa abonentlarining umumiy soni 22,8 millionga yetib, ularning 16 milliondan ortig‘i uchinchi va to‘rtinchi avlod mobil aloqasidan foydalanmoqda.

O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning taxminan **60 foizi 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar** bo‘lib, bu nafaqat eng faol raqamli foydalanuvchi qatlamini, balki kelajakdagi yetakchilarni ham tashkil etadi. Shu bilan birga, 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32,7 millionni tashkil etib, bu aholining 89 % ga teng [1]. Ushbu statistika yoshlar orasidagi raqamli madaniyat va global axborot oqimlarining tezkor kengayishini, shuningdek, ularning ma’naviyati va siyosiy qarashlariga globallashuv jarayonida ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini aniq ko‘rsatadi. Zamon bilan hamnafas bo‘lish bugungi yoshlar uchun muhim omillardan biridir. Yoshlarimiz texnologiya, axborot resurslari va sun’iy intellektdan to‘g‘ri va samarali foydalanishga intilmoqda. Ularning aksariyati xalqaro universitetlarda sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida tahsil olib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab bormoqda. Natijada ular mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsion dasturiy mahsulotlar, platformalar va xizmatlarni yaratishga katta hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatimiz ushbu sohalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025-yil 28-noyabr kuni Toshkent shahrida “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” xalqaro forumi tashkil etildi. Ushbu forumda Birlashgan Arab Amirliklari hukumat ishlari bo‘yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh Al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiya hamda bir qator davlatlar vakillari ishtirok etdi. Forumning o‘tkazilishi mamlakatimizda sun’iy intellekt sohasiga berilayotgan e’tibor, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va global ilmiy hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘beklarning algoritm, matematika va mantiq fanlariga qo‘shgan ulkan hissasi bugungi sun’iy intellekt rivojining ilmiy poydevorini shakllantirgan. Shuningdek, yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, davlatimiz rahbari yoshlarning ushbu sohada erishayotgan yutuqlarini yuqori baholab: *“Biz ishonamiz: ular ertaga yurtimizga qaytib, sun’iy intellektning eng so‘nggi yutuqlarini ta’limga, iqtisodiyotga, davlat boshqaruviga joriy qilishda yetakchi kuchga aylanadi”*, deya ta’kidladi [2]. Bu fikrlar globallashuv jarayonida yoshlarning ma’naviy va intellektual rivoji, siyosiy qarashlarining shakllanishi va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari ham mavjud. Internet tarmoqlari va sun’iy intellektning keng tarqalishi yoshlarning ma’naviyati va siyosiy ongi pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yoshlar texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yo‘qotish xavfi bilan duch kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish XXI asrda keng tarqala boshladi va ularda xabarlarni tezkor, sur’atlar bilan

jonli tarzda tarqatish imkoniyati mavjudligi sababli tez ommalashdi. Bugungi kunda “Instagram”, “Facebook”, “Telegram” va “ChatGPT” kabi platformalar yoshlar orasida eng ko‘p ishlatiladigan ijtimoiy tarmoqlar sifatida sanaladi, ulardan eng ko‘p foydalanilgan “ChatGPT” platformasidir. Bu platformada xabarlarni tez topish, matnni istalgan tilda tarjima qilish va boshqa qulayliklar mavjud. Lekin, yoshlarning erkin fikrlashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini kamaytirmoqda, bu esa fojeadir.

Bozarboyeva M. “Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy madaniyatiga ta’siri” maqolasida ta’kidlaganidek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ma’naviy va axloqiy madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual suhbatlar jarayonida ko‘pincha ochiqlik chegarasi buzilib, salbiy muomala muhiti yuzaga keladi. Ba’zi shaxslar yovuz g‘oyalarni tarqatib, yoshlarni yo‘ldan adashtiradi. Bu holat jamiyatning tinchligi, ma’naviy barqarorligi va oilaviy qadriyatlarni xavf ostiga qo‘yadi [3].

Internet endi faqat axborot almashish vositasi emas, balki jamoatchilik fikrini boshqarish quroli sifatida ham ishlatilmoqda. Endi hech qanday katta kuch sarflamasdan, qarshiliklarga uchramasdan, odamlarning ongiga ta’sir qilish, ularning qarashlarini o‘z foydasiga yo‘naltirish mumkin. Shu bilan birga, globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar va jamiyatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot xurujlari, odatda, avvalo inson ongini va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan.

Bunday holatlar davlat barqarorligiga xavf solishi, millat tarixiy qadriyatlari va o‘ziga xosligini tahlikaga qo‘yishi mumkin. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan zararli va buzg‘unchi g‘oyalarning ta’sirini anglash va ulardan doim ogoh bo‘lish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir, ayniqsa yoshlar bu masalani chuqur tushunishi kerak.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “*biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adaboyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz*” [4]. Bu fikrning asosiy mazmuni shundan iboratki, bolalarimizning ongiga va dunyoqarashiga befarq bo‘lmasligimiz kerak. Chunki farzandlar qanday ma’lumotga tayanib ulg‘ayishi – ularning kelajakda qanday inson bo‘lishini belgilaydi. Shuningdek, yoshlar ongini asrlar davomida shakllangan, sinovdan o‘tgan milliy va jahon adabiyoti, ya’ni ma’naviy boyliklar asosida tarbiyalash kerak. Chunki bu manbalar insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, axloq va madaniyatni shakllantiradi. Aksincha, internetda tarqalayotgan shubhali, zararli va ishonchsiz axborotlar bolalarning tafakkurini buzishi, ularning dunyoqarashini noto‘g‘ri shakllantirishi mumkin. Shu sababli, bu jarayonga beparvo qarash – kelajak avlod taqdiriga befarq bo‘lish bilan barobar.

Davlatimiz yoshlar siyosatini rivojlantirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlarni amalga oshirmoqda. Yoshlar masalalariga alohida e’tibor qaratish maqsadida Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Ushbu tashkilotlar yoshlarning ijtimoiy, ma’naviy va intellektual faolligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlar va loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shu jumladan, yoshlar orasida “Eng yaxshi ixtirochi”, “Men dasturchiman”, “Kitobxonlik” va boshqa tanlovlar muntazam o‘tkaziladi. Tanlov g‘oliblari yaratgan

loyihalari va ishlari amaliyotga tatbiq etilib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida esa “Dolzarb 90 kun” loyihalari amalga oshirilib, ular orqali yoshlar turli ijtimoiy, ilmiy va madaniy faoliyatlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi [5].

Shu tarzda, davlat tomonidan yaratilgan sharoit va resurslar yoshlarning intellektual, ma’naviy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda, bu esa ularning globallashuv sharoitida faol, mas’uliyatli va barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Yoshlarning raqamli va sun’iy intellekt sohasidagi ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida maktablarga boshlang‘ich sinfdan boshlab sun’iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha nazariy va amaliy darslarni joriy etish zarur. Hozirgi davrda bolalar telefon va boshqa raqamli qurilmalarni yaxshi bilishadi, shuning uchun ularga multfilmlar yoki interaktiv shaklda internet va raqamli texnologiyalarning asosiy tushunchalarini o‘rgatish samarali bo‘ladi.

Shu bilan birga, chekka hududlardagi maktablarda texnologik sharoit yetarli emasligi muammo hisoblanadi. Ushbu masalani hal qilish maqsadida, har bir viloyatdagi qoloq maktablarni ta’mirlash va jihozlash, hamda “Rivojlangan ta’lim – rivojlangan davlat” loyihasi doirasida zamonaviy infratuzilmani yaratish muhimdir. Bu chora-tadbirlar yoshlarni globallashuv sharoitida zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali foydalanishga tayyorlaydi, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va IT bo‘yicha amaliy ta’lim joriy etilishi zarur. Bu ta’lim faqat nazariy emas, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim, chunki bugungi kunda har bir soha raqamli va kompyuterlashtirilgan xarakterga ega. Shu orqali mutaxassislar soni oshiriladi, universitetlar esa barcha yo‘nalishlarda zamonaviy IT bilimlarini beruvchi markazga aylanadi. Bu esa yoshlarni global ish bozoriga tayyorlash va mamlakatimizning raqamli salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Globallashuv yoshlarning ma’naviyati, siyosiy qarashlari va intellektual rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ularni ma’naviy, axloqiy va texnologik jihatdan barqaror shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasidir. O‘zbekiston yoshlar siyosati doirasida maktablarda sun’iy intellekt va IT bo‘yicha ta’limni rivojlantirish, oliy ta’limda amaliy ko‘nikmalarni oshirish hamda yoshlar uchun loyihalar va tanlovlar tashkil etish orqali ularning intellektual va ijodiy salohiyati mustahkamlanmoqda. Natijada mamlakatimiz globallashuv sharoitida mas’uliyatli, zamonaviy va barkamol avlodni shakllantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi//2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi. https://regulation.gov.uz/

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev forum ochilish marosimi va startap loyihalariga asos solgan yoshlar bilan uchrashuvi (2025, 28 noyabr) – rasmiy veb-sayt https://president.uz/oz/lists/view/8719

3. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy madaniyatiga ta’siri. (2025). zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar: muammo va yechimlar, 2(1), 36-40.

4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. (2025). Elektron hukumat - aholiga qulaylik yaratishning amaliy tizimi. gov.uz. https://www.gov.uz/advice/contact

BAG‘RIKENGLIK– TARAQQIYOT OMILI

Esonaliyeva Gulnoza Dilmurod qizi
O’zbekiston Milliy universiteti magistranti

Yuksak ma’naviyatli shaxsning kamol topishida diniy bag’rikenglik madaniyatining o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Albatta, diniy bag’rikenglik madaniyati inson umrining muayyan bir davrida emas balki uning butun umri davomida shakllanib takomil topib boradi.

Bag‘rikenglik diniy ta’limotlarda insonlar o‘rtasida tinchlik va hurmatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan asosiy qadriyatdir. Har bir dinning o‘ziga xos axloqiy prinsiplari mavjud, ammo ularda bir nechta umumiy tamoyillar mavjudki, ular odamlarni bir-biriga hurmat bilan yondashishga undaydi.

Muqaddas islom dinida bag‘rikenglikka alohida e’tibor qaratiladi. Qur’on oyatlarida ham, Payg‘ambar (s.a.v.) ning hadisi shariflarida ham, boshqa din va e’tiqod vakillariga bag‘rikeng bo‘lish haqida ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. “Baqara” surasi 256-oyatda “Dinga majbur qilish yo‘q” – deb marhamat qilinadi. Aqida, iymon masalasi inson qalbiga bog‘liq juda ham nozik bir masaladir. Bu narsani majbur etib, kuch bilan singdirib bo‘lmaydi. Balki har bir inson bayon qilingan narsalarga tushunib iymon keltirgandagina maqsad hosil bo‘ladi. Islomda ushbu qoidaga qattiq rioya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu masalalarga alohida urg’u berilgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la javob beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida barcha fuqarolarning millati, irqi, jinsi, dini va boshqa holatlardan qat’i nazar teng huquqliligi belgilangan: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. Shuningdek, 31-moddada: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.[1] Ushbu moddada har bir insonning vijdon erkinligi kafolatlanishi va xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi ta’kidlangan.

Yuqorida keltirilgan moddalar mamlakatimizda fuqarolarning dini va millatidan

qat’i nazar teng huquqliligini va vijdon erkinligini ta’minlashga asoslanadi. Qonunda shunchaki belgilanmasdan, amalda ham namoyon bo‘lmoqda. Buni nafaqat jamiyatning har bir fuqarosi his qiladi, ayni paytda jahon hamjamiyati e’tirof etib, o‘zbek modelining mazkur masaladagi tajribasidan namunalar ilib borishmoqda. Bu bejiz emas. Chunki mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridan biri murosa tamoyili bo‘lgan diniy bag‘rikenglikdir.

Qonun doirasida faoliyat yuritgan holda mamlakatimizda mavjud konfessiya va millat vakillari bag‘rikenglikda, o‘zaro do‘stlik va ahillikda yashab, umummilliy yuksalish yo‘lida harakat qilib, yurtimizda milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirish borasida munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Bugungi kunda 16 ta diniy konfessiya, 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar faoliyat yuritib, Konstitutsiya va qonunlarimizda belgilab qo‘yilgan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatilikda o‘z ona tillari, millat tarixi va madaniyatini o‘rganish, o‘sib kelayotgan yoshlarga o‘z milliy qadriyatlarini to‘la yetkazish hamda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini singdirish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda.

Din va e’tiqodga majburlash mumkin emas, balki u qanoat va rozilik bilan qabul etiladi. Bu haqda “Yunus” surasi 99-oyatda “Siz odamlarni mo‘min bo‘lishlariga majbur qilasizmi?” – deb ogohlantirgan.[2] Ularni majburlab dinga kiritishning hojati yo‘q. Kim Islomni qabul qilsa, uzilmas va kesilmas najot arqonini tutgan bo‘ladi.[3]Bag‘rikenglik, shuningdek, musulmonlarning boshqa e’tiqod egalariga zarar bermaslik, ularga nisbatan nafrat va jahllardan saqlanishni anglatadi. Islom dinida tinchlik va odamlar o‘rtasidagi ahillikni saqlash juda muhim.

Shuni ta’kidlash lozim, islom dini dinlarning barchasini e’tirof etadi hamda avvalgi payg‘ambarlar olib kelgan risolatlarga nisbatan hurmatda bo‘lishga chaqiradi. Baqara surasi 134-oyat shunday marhamat qilinadi: “Bular bir ummat edi, o‘tib ketdilar. Ularga o‘zlari kasb qilganlari bo‘ladi, sizlarga o‘zingiz kasb qilganingiz bo‘ladir. Ularning qilgan amallaridan so‘ralmassiz”. Muhammad (s.a.v) Habashistondan kelgan nasroniy mehmonlarni o‘z masjidlariga tushirganlar va “Ular bizning sahobalarimizni hurmat qilgan edilar. Men o‘zim ularni izzat-ikrom qilishni xush ko‘raman”, – deb shaxsan o‘zlari ularga xizmat qilganlar. Shuningdek, u zot elchi bo‘lib kelgan Najron nasorolarini ham o‘z masjidlarida ibodat qilishlariga ruxsat berganlar.[4]

Muhammad (s.a.v) har bir kishining qaysi dinga mansubligidan qat’iy nazar, avvalo, uning insonligi uchun odamiylik nuqtai nazaridan hurmat qilish lozimligini ta'kidlaganlar. Jumladan, Abdurahmon Abu Laylo rivoyat qiladilar: “Bir kuni Rasulullоh (s.a.v)ning yonlaridan odamlar tobut ko‘tarib o‘tishdi. Shunda u zot o‘rinlaridan turdilar. Keyin sahobalar uning yahudiy ekanini aytishdi. Shunda Rasulullоh: “U ruh egasi – inson emasmi?!” – dedilar”.

Muhammad (s.a.v) o‘zlari bu borada ularning haqlariga rioya qilishning oliy namunasini ko‘rsatib, ummatni ham ana shu yo‘ldan borishga da'vat qilganlar. Aksincha qaysi bir inson oralarida o‘zaro tinchlik shartnomasi bo‘lgan kishini joniga qasd qilsa,

uning oqibati yomon bo‘lishidan ogohlantirganlar.

Tarixchilar Horun ar-Rashid davridagi bag‘rikenglikni shunday izohlashgan: “Masihiylar, va musulmonlar hukumat ishlarida birga-birga ishlar edilar”. Abbosiy halifa Ma’mun o‘z akademiyasiga turli din va mazhab sohiblaridan bo‘lgan olimlarni to‘plab, ularga: “Ilmdan nimani xohlasangiz, bahs qilaveringlar, faqat toifachilik kelib chiqmasligi uchun har kim o‘z diniy kitobidan dalil keltirmasa, bo‘ldi”, – degan ekan.

Bu kabi misollarni islom tarixidan juda ko‘plab keltirish mumkin. Islomning bosh manbalarida ta’kidlangan hamda Muhammad (s.a.v) tomonidan qanday amal qilinishi ifoda etilgan ko‘rsatmalar bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.[10]

Demak, ko‘nglida hech bir insonga adovati bo‘lmagan hamda jamiyatga qo‘li va tili bilan zarari tegmaydigan kishilar bilan chiroyli muomalada bo‘lish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish, yovuzlik va zulm-ziyon etkazish yo‘lida aslo hamkorlik qilmaslik muborak dinimiz talabidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bag’rikenglik faqat diniy farqlarga hurmat ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Bu shuningdek, insonning huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan hurmatini ham o‘z ichiga oladi. Har bir insonning boshqalar bilan tinchlikda yashash huquqini tan olishni va ularga nisbatan adolatli va mehribon bo‘lishni o‘rgatadi. Dinlararo hurmat va o‘zaro hamjihatlik, jamiyatda tinchlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning bag‘rikenglikka bo‘lgan e’tibori, insoniyatning birligini va dunyo bo‘ylab osoyishtalikni saqlashga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoning jahon geosiyosiy tizimidagi ahamiyati ortib borayotgan paytda mintaqada tom manoda asosiy o'rin egallagan yurtimizni diniy shiorlarni niqob qilib olgan kimsalardan himoya qilish, asl dinga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, fuqorolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, xalqimizning asriy urf-odat va an’analarini rivojlantirish dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda. Ularning muvaffaqiyatli xal etilishi diniy bag’rikenglik bundan buyon ham jamiyatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib qolishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.1-juz. – T.: “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2023. – 640 b.
2. D.Rahimdjanov, O.Ernazarov. Dinshunoslikka kirish o‘quv qo‘llanma / – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. А.С.Очилдиев. Ўзбекистонда диний бағрикенглик. – Тошкент: ТИУ, 2007. – 162 b.
4. https://www.iiau.uz/oz/news/2576
5. http://old.muslim.uz/index.php/rukn/irfon/item/26899

GLOBALLASHUV DAVRIDA JADID ALLOMALAR MEROSINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Esanov Fazliddin Dushayevich
O‘zMU tayanch doktoranti

KIRISH. Globallashuv bugun inson hayotining barcha qatlamlariga kirib borgan murakkab jarayon sifatida bir tomondan ilm-fan, texnologiya, axborot almashinuvi va madaniy yaqinlashuv uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa, axborot bosimi, “ommaviy madaniyat”ning soddalashtiruvchi ta’siri, iste’molchilik kayfiyati, identitetning parchalangan ko‘rinishlari, radikal g‘oyalarning tez tarqalishi kabi xavf-xatarlarni ham kuchaytirmoqda. Shunday sharoitda yoshlar ma’naviyati masalasi oddiy tarbiyaviy yo‘nalish bo‘lib qolmay, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotini belgilovchi strategik masalaga aylanadi.

Mazkur masalada jadid allomalar merosi muhim ma’naviy manba bo‘la oladi. Jadidlar millatni uyg‘otish, ilm-ma’rifatni yoyish, maktab va tarbiyani yangilash, ijtimoiy fikrni rivojlantirish, vatan va xalq taqdiriga daxldorlikni kuchaytirish yo‘lida fidokorona kurashganlar. Ularning merosi faqat tarixiy xotira emas, balki bugungi avlod uchun ham ma’naviy yo‘l-yo‘riq va qadriyatlar tizimini taklif etadigan tajriba maktabidir.

TADQIQOT MAQSADI VA VAZIFALARI. Maqolaning maqsadi jadid allomalar merosining globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar:

- globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;
- jadidchilik merosining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish;
- jadidlar qarashlarining bugungi tarbiya va ta’lim tizimi uchun dolzarb jihatlarini ochib berish;
- jadid merosini yoshlar bilan ishlash amaliyotiga integratsiya qilish bo‘yicha takliflar berish.

METODOLOGIYA. Maqolada tarixiy-taqqosiy tahlil, konseptual yondashuv, madaniy-falsafiy interpretatsiya, ijtimoiy pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Jadid allomalarining ta’lim-tarbiya, axloq, milliy uyg‘onish, jamiyatni isloh qilish haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitidagi ma’naviy ehtiyojlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

ASOSIY QISM. Globallashuv va yoshlar ma’naviyati: muammo va ehtiyojlar. Globallashuv davrida yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi omillar ko‘paydi: ijtimoiy tarmoqlar, qisqa kontent, algoritmik “axborot pufaklari”, virtual muloqotning ustunligi, mashhurlik va tez natija kultiga moyillik. Bunday vaziyatda an’anaviy tarbiya mexanizmlari (oila, mahalla, maktab) ham yangi muhitga moslashishni talab qiladi. Eng muhim talab shundan

iboratki, yoshlar faqat “qoidani bilish” emas, balki ma’naviy tanlov qila olish, axborotni saralash, qadriyatni anglash, javobgarlikni his etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Bu yerda “ma’naviy immunitet” tushunchasi dolzarb. Ma’naviy immunitet deganda shaxsning o‘z qadriyatlari, milliy o‘zligi va axloqiy mezonlariga tayangan holda turli axborot-ideologik bosimlarga qarshi tura olishi, zararli g‘oyalarni tanib rad eta olishi, foydali tajribani esa ongli qabul qilishi nazarda tutiladi. Jadidlar merosi aynan shunday immunitetni shakllantirishga xizmat qiladigan konseptual resurslarni beradi.

Jadidchilik merosining g‘oyaviy “yadrosi”. Jadidlarning faoliyati turli yo‘nalishlarni qamragan bo‘lsa-da, ularning merosida bir-birini to‘ldiradigan asosiy g‘oyaviy ustunlar mavjud.

Birinchidan, ma’rifatparvarlik va ilmga tayanish. Jadidlar taraqqiyotning bosh omili sifatida bilim va tarbiyani ko‘rgan. Ular “millatning kelajagi maktabdan boshlanadi” degan mazmunda fikr yuritib, yangi usul maktablarini rivojlantirish, darsliklar yozish, o‘qituvchilik madaniyatini kuchaytirishga intilgan.

Ikkinchidan, axloqiy tarbiya va shaxs kamoloti. Jadidlar uchun tarbiya faqat odob qoidalari emas, balki iymon-axloq, mehnatsevarlik, mas’uliyat, vatanparvarlik, halollik, ilmga hurmat, jamiyat oldidagi burchni anglashdan iborat kompleks tizim bo‘lgan. Ular tarbiyani “insonni inson qiladigan” asosiy quvvat sifatida talqin etgan.

Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash va madaniy uyg‘onish. Jadidlar til, adabiyot, teatr, matbuot, tarixiy xotira orqali milliy ongni uyg‘otishga harakat qilganlar. Bu yo‘nalish bugungi globallashuvda identitetni saqlash bilan bevosita bog‘liq.

To‘rtinchidan, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasi. Jadidlar jamiyat muammolariga befarq bo‘lmagan; ular islohot, jamoatchilik fikri, taraqqiyot, adolat, tenglik, ayollar ta’limi kabi masalalarni ko‘targan. Bu esa yoshlarni “faol fuqaro” sifatida tarbiyalashda muhim manbadir.

Jadid merosi va zamonaviy yoshlar tarbiyasi: dolzarb kesishmalar. Globallashuv davrida jadid merosining ahamiyati bir necha yo‘nalishda ayniqsa kuchli ko‘rinadi.

Tanqidiy fikrlash va media savodxonlik. Jadidlar “ko‘r-ko‘rona taqlid”ni rad etib, fikrni uyg‘otishni maqsad qilgan. Bugun ham axborot ko‘pligi sharoitida yoshlar tanqidiy fikrlashsiz yo‘ldan adashishi mumkin. Jadidcha yondashuv yoshni savol berishga, dalil izlashga, mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Buni bugungi ta’limda media savodxonlik, faktcheking, argumentatsiya madaniyati bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

Milliy o‘zlik va ochiq dunyo: muvozanat modeli. Globallashuv ikki ekstremal holatni keltirib chiqarishi mumkin: yopiq millatchilik yoki identitetsiz kosmopolitizm. Jadidlar esa milliy o‘zlikni saqlagan holda dunyoviy ilm-fan va ilg‘or tajribani o‘zlashtirish modelini taklif etgan. Ular an’anani inkor qilmagan, biroq uni taraqqiyotga xizmat qildirishni ko‘zlagan. Bu yondashuv bugun yoshlar uchun “ochiq dunyoda o‘zligingni yo‘qotmaslik” konsepsiyasiga aylanadi.

Axloqiy tarbiya va mas’uliyat madaniyati. Raqamli muhitda shaxsiy mas’uliyat ko‘pincha susayadi: anonimlik, “trend” ortidan ergashish, tezkor baholash, boshqalarning sha’ni va huquqini mensimaslik holatlari ko‘payadi. Jadidlar axloqiy tarbiyani jamiyatni

tuzatuvchi kuch deb bilgan. Ularning merosi yoshlar ongida halollik, mehnat, hurmat, vijdon, burch kabi tushunchalarni mustahkamlash uchun kuchli asos bo‘la oladi.

Ta’limga hurmat va “uzluksiz o‘rganish” g‘oyasi. Jadidlar ilmni najot deb bilgan. Bugun esa bilim tez eskiradi, kasblar yangilanadi, “uzluksiz o‘rganish” hayotiy zaruratga aylangan. Jadid merosi yoshlarni o‘qishga, izlanishga, kasbiy va ma’naviy rivojlanishga undaydigan motivatsion manba vazifasini bajaradi.

XULOSA. Globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish masalasi tarixiy merosga “nostalgiya” sifatida qaytish bilan emas, balki merosdan zamonaviy ehtiyojlar uchun ishlaydigan g‘oyaviy va tarbiyaviy mexanizmlarni ajratib olish bilan hal etiladi. Jadid allomalar merosi ana shunday kuchli manbadir. U ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas’uliyati kabi yo‘nalishlarda yosh avlodga ma’naviy immunitet beradi. Jadidlarning “ilm–tarbiya–millat” uzviyligi bugun ta’lim va tarbiya tizimida amaliy dasturga aylantirilsa, yoshlarning global muhitdagi ma’naviy barqarorligi va ijtimoiy faolligi sezilarli kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (maqolalar va publitsistika).
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (ma’rifat, jamiyat va tarbiya mavzulari).
4. Jadidchilik harakati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va to‘plamlar (tanlab).
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: “Jadidchilik”, “Avloniy”, “Behbudiy”, “Fitrat” maqolalari (tanlab).

RAQAMLI MEDIA DISKURSIDA YOSHLAR MA’NAVIY XAVFSIZLIGINING LISONIY MODELLASHTIRILISHI (O‘ZBEK TILIDAGI IJTIMOIY TARMOQLAR MATERIALLARI ASOSIDA)

Farxodova Lobar Temur qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

So‘nggi o‘n yillikda raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayoti, ularning kommunikativ amaliyoti va ma’naviy qadriyatlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli platformalar yoshlarning til va nutq madaniyatiga, shuningdek, axloqiy-me’yoriy qarorlar qabul qilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki yoshlarning identiteti, o‘zini ifodalash va ijtimoiy faolligini shakllantirish maydoni sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.Yoshlar nutqida yuzaga kelayotgan yangi birliklar, qisqa matnlar, emoji va heshteglar orqali axloqiy-me’yoriy qadriyatlar modellashtiriladi. Umuman olganda, media vositalari shaxsiy va ijtimoiy

xulqqa faol ta’sir ko‘rsatadi va shu orqali til orqali shakllanadigan ma’naviy kontekstni ham o‘zgartiradi.[11]

Ma’naviy xavfsizlik tushunchasi zamonaviy ilmiy diskursda shaxs va jamiyatning axloqiy-me’yoriy barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida izohlanadi. Ushbu tushuncha shaxs ongida mavjud bo‘lgan qadriyatlar tizimining tashqi axborot bosimi, ideologik ta’sir va madaniy transformatsiyalar natijasida buzilmasligini anglatadi. Biroq ma’naviy xavfsizlik nafaqat ijtimoiy institutlar faoliyati bilan, balki til va nutq amaliyoti bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Lingvistik yondashuvda ma’naviy xavfsizlik til ongida shakllangan konseptual struktura sifatida qaraladi. Konsept til birliklari orqali verbalizatsiyalanadi va nutq jarayonida faollashadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar nutqida uchraydigan baholovchi birliklar, axloqiy kategoriyalar, normativ va antinormativ ifodalar ma’naviy xavfsizlik holatini aniqlovchi asosiy indikatorlar sifatida namoyon bo‘ladi.[12]

Lisoniy modellashtirish deganda ma’lum bir ijtimoiy-madaniy hodisaning til vositalari orqali qay tarzda ifodalanishi va tizimlashtirilishi tushuniladi. Raqamli media diskursida ma’naviy xavfsizlikning lisoniy modeli quyidagi asosiy komponentlardan tarkib topadi:

1. Baholovchi komponent — yaxshi/yomon, to‘g‘ri/noto‘g‘ri kabi oppozitsiyalarning nutqda ifodalanishi;

2. Normativ komponent — axloqiy me’yorlarga ishora qiluvchi birliklar (mas’uliyat, uyat, hurmat);

3. Pragmatik komponent — kinoya, istehzo, ironiyaning axloqiy bahoga ta’siri;

4. Madaniy komponent — milliy va global qadriyatlarning til orqali aks etishi.

Mazkur komponentlar raqamli muhitda o‘zaro qorishib, yoshlar ma’naviy ongining o‘ziga xos lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi.[13]

O‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlar materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar diskursida axloqiy-me’yoriy birliklar an’anaviy nutq muhitiga nisbatan sezilarli o‘zgarishga uchramoqda. Xususan, Telegram va Instagram platformalarida “normal”, “trend”, “zamonaviy”, “erkin yashash” kabi birliklar axloqiy mezon sifatida faol qo‘llanilmoqda. Masalan, quyidagi tipik diskursiy holatni ko‘rish mumkin: “Hozir zamon o‘zgargan, buni oddiy qabul qilish kerak, bu normal holat.”

Mazkur misolda “normal” leksemasi axloqiy baholash vazifasini bajarib, muayyan xatti-harakatni ijtimoiy jihatdan oqlash vositasiga aylanmoqda. Bu holat an’anaviy “odob”, “uyat”, “me’yor” tushunchalarining semantik maydonini toraytiradi va ularni nisbiy kategoriyaga aylantiradi.

[11] Van Dik J. The Culture of Connectivity: A Critical History of Social Media. – Oxford: Oxford University Press, 2013.

[12] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

[13] Yakubova G. Konsept tushunchasining lingvokulturologiyada tutgan o‘rni va lingvokulturema masalasi. – Toshkent: Innovate academy, 2024.

Shuningdek, yoshlar nutqida xorijiy tillardan o‘zlashgan birliklar axloqiy bahoni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi: “toxic”, “cringe”, “fake”, “freedom”. Bu birliklar milliy axloqiy kategoriyalarni siqib chiqarib, global madaniyatga xos baholash tizimini shakllantirmoqda. Natijada ma’naviy xavfsizlikning milliy lisoniy asoslari zaiflashmoqda.

Raqamli media diskursining muhim xususiyatlaridan biri — kinoya va istehzoning keng qo‘llanilishidir. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy masalalarni ko‘pincha jiddiy emas, balki istehzoli shaklda muhokama qiladi. Masalan: “Hamma halol bo‘lib ketganda, kim boy bo‘ladi?” Bunday nutqiy konstruktsiyalar axloqiy me’yorlarga nisbatan ishonchsizlik va relativistik munosabatni shakllantiradi. Natijada halollik, mas’uliyat, vijdon kabi tushunchalar o‘zining normativ kuchini yo‘qota boshlaydi. Lingvistik jihatdan qaralganda, bu holat axloqiy konseptlarning dekonstruktsiyasi sifatida talqin qilinadi.[14]

Ironiya va kinoya yoshlar nutqida himoya mexanizmi vazifasini bajarsa-da, uzoq muddatli istiqbolda ma’naviy xavfsizlik uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Chunki bu strategiyalar axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash emas, balki ularni shubha ostiga qo‘yishga xizmat qiladi. Raqamli media diskursida til ko‘pincha vizual belgilar bilan almashadi. Emoji, gif va qisqa kommentlar orqali ifodalangan baholar chuqur axloqiy tahlilni emas, balki tezkor emotsional reaksiyani ifodalaydi. Masalan, biror murakkab ijtimoiy masalaga faqat “kulayotgan emoji” yoki “olov” belgisi bilan munosabat bildirish axloqiy refleksiyaning soddalashganini ko‘rsatadi. Bu jarayon yoshlar ongida ma’naviy tushunchalarning fragmentar shakllanishiga olib keladi. Til orqali amalga oshadigan tahliliy fikrlash o‘rnini qisqa va yuzaki baholash egallaydi. Natijada ma’naviy xavfsizlikning muhim unsuri bo‘lgan tanqidiy va mas’uliyatli fikrlash zaiflashadi.

Axloqiy normaning nisbiylashuvi ham raqamli media muhitida yoshlar diskursining yana bir muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib kelmoqda. An’anaviy jamiyatda axloqiy me’yorlar barqaror va kollektiv ong tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa, raqamli diskursda bu me’yorlar individual baholashga asoslanadi. Yoshlar nutqida “har kimning o‘z fikri bor”, “hamma o‘zi biladi”, “bu shaxsiy masala” kabi konstruksiyalar ko‘payib, axloqiy mas’uliyat individual maydonga ko‘chirilmoqda.

Lingvistik jihatdan qaralganda, mazkur holat normativlikdan deskriptivlikka o‘tish sifatida talqin qilinadi. Ya’ni nutqda axloqiy xatti-harakatlarni “qanday bo‘lishi kerak” nuqtai nazaridan emas, balki “qanday mavjud” ekanligi asosida tasvirlash ustunlik qila boshlaydi. Bu esa ma’naviy xavfsizlikning muhim tayanchi bo‘lgan umumiy axloqiy mezonlarning zaiflashuviga olib keladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez uchraydigan quyidagi fikrlar bunga dalil bo‘la oladi: “Zamon shunaqa, buni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deyish qiyin.” Mazkur nutqiy model axloqiy bahodan qochish strategiyasini ifodalaydi va ma’naviy masalalarga nisbatan betaraflikni normal holat sifatida mustahkamlaydi. Natijada axloqiy muammolar diskursdan siqib chiqarilib, ma’naviy xavfsizlikning til orqali himoyalanish mexanizmlari sustlashadi.

[14] Yakubova G. Konsept tushunchasining lingvokulturologiyada tutgan o‘rni va lingvokulturema masalasi. – Toshkent: Innovate academy, 2024.

Raqamli media diskursida ma’naviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan biri — destruktiv diskurs elementlarining faol qo‘llanilishidir. Bunday elementlar zo‘ravonlikni oqlovchi, axloqiy cheklovlarni masxara qiluvchi yoki ijtimoiy mas’uliyatni inkor etuvchi nutqiy birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Yoshlar orasida keng tarqalgan bunday diskurs shakllari ko‘pincha hazil, mem yoki ironik kontekstda beriladi, bu esa ularning salbiy mazmunini yashiradi. Lingvistik nuqtai nazardan, destruktiv diskurs normani buzuvchi nutqiy strategiyalar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Bunda axloqiy jihatdan salbiy baholanishi lozim bo‘lgan xatti-harakatlar neytral yoki ijobiy konnotatsiya bilan ifodalanadi. Natijada yoshlar til ongida axloqiy mezonlar qayta kodlanadi. Masalan, mas’uliyatsizlik yoki qoidabuzarlikni “jasorat”, “erkinlik”, “trendga moslik” kabi birliklar bilan ifodalash holatlari kuzatiladi. Bu holat lingvistik jihatdan baholash vektorining o‘zgarishi sifatida namoyon bo‘lib, ma’naviy xavfsizlik uchun potensial xavf tug‘diradi.

Raqamli media diskursida yoshlar nafaqat muloqot qiladi, balki o‘zining raqamli identitetini ham shakllantiradi. Ushbu identitet til orqali quriladi va nutqiy tanlovlar orqali namoyon bo‘ladi. Yoshlar o‘zini “zamonaviy”, “erkin fikrlovchi”, “chegarasiz” shaxs sifatida ko‘rsatishga intilar ekan, ular til vositalarini ham shu maqsadga moslashtiradi. Bu jarayonda an’anaviy ma’naviy tushunchalar ko‘pincha eskilik belgisi sifatida talqin qilinadi. Masalan, “odat”, “urf”, “tarbiya” kabi birliklar ba’zi diskurslarda konservativlik bilan bog‘lanib, salbiy yoki kinoyali konnotatsiya kasb etadi. Natijada yoshlar til ongida ma’naviy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasida sun’iy qarama-qarshilik shakllanadi. Lingvokulturologik jihatdan bu holat madaniy kodlarning raqamli qayta talqini sifatida baholanadi.[15] Agar mazkur jarayon nazoratsiz davom etsa, ma’naviy xavfsizlikning til asoslari asta-sekin yemirilishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli media diskursini faqat salbiy hodisa sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘lar edi. Ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlovchi ijobiy diskurs amaliyotlari ham mavjud. Mas’uliyat, halollik, ijtimoiy faollik va fuqarolik ongini targ‘ib qiluvchi postlar va muhokamalar bunga misol bo‘la oladi. Bunday diskurslarda til ko‘pincha normativ xarakter kasb etib, axloqiy baholash aniq va ravshan ifodalanadi. “Mas’uliyatli bo‘lish muhim”, “jamiyat oldida burch bor” kabi konstruksiyalar yoshlar ongida ijobiy ma’naviy modelni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat tilning ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi konstruktiv rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Lingvistik va lingvokulturologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli media diskursida yoshlarning ma’naviy xatti-harakatlari til va kommunikativ strategiyalar orqali shakllanadi va ular ijtimoiy norma va qadriyatlarni qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli, raqamli media va yoshlar nutqi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, til konseptlari va axloqiy-me’yoriy birliklarni modellashtirish orqali yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash mumkin. Ayniqsa o‘quv jarayonida va oilada axloqiy tarbiya berish, shuningdek, media savodxonlikni rivojlantirish yoshlarning raqamli media

[15] Yakubova G. Konsept tushunchasining lingvokulturologiyada tutgan o‘rni va lingvokulturema masalasi. – Toshkent: Innovate academy, 2024.

bilan muloqotini samarali va xavfsiz qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola lingvistik konseptlarni modellashtirish orqali yoshlar ma’naviy xavfsizligini aniqlash, shuningdek, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Van Dik J. The Culture of Connectivity: A Critical History of Social Media. – Oxford: Oxford University Press, 2013.

2. Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. – Cambridge: Polity Press, 2009.

3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

4. Yakubova G. Konsept tushunchasining lingvokulturologiyada tutgan o‘rni va lingvokulturema masalasi. – Toshkent: Innovate academy, 2024.

AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLARNING ASOSIY TURLARI

Farxodova Moxichexra Xo‘jabek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti talabasi

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar turli sohalarda jarayonlarni avtomatlashtirish va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, axborot resurslaridan keng foydalanish ularning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlashni talab qiladi. Shu bois, axborotning himoyalangan holda saqlanishi va uzatilishi bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

“Axborot xavfsizligi - bu axborot resurslarini himoya qilish tizimi bo‘lib, ma’lumotlarning maxfiyligi, butligi va mavjudligini ta’minlashga qaratilgan. Oddiyroq qilib aytganda, axborot xavfsizligi shunday choralarni o‘z ichiga oladi” [2-24]:

Axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari		
Tushuncha	**Tavsifi**	**Misol / Ilova**
Maxfiylik	Ma'lumot faqat unga ruxsat berilgan shaxslar tomonidan ko‘rilishi	Parol, shaxsiy ma’lumotlar, moliyaviy hisobotlar
Butlik	Axborot o‘zgartirilmagan, to‘liq va ishonchli bo‘lishi kerak	Ma'lumotlar bazasidagi xatolar yoki zararli dasturlar turini tekshirish
Mavjudlik	Axborot tizimlari va ma'lumotlar foydalanuvchilar uchun kerakli bo‘lishi	Veb-sayt ishlamay qolmasligi, server uzilishsiz faoliyat ko‘rsatishi
Autentifikatsiya	Foydalanuvchi yoki tizimni aniqlash va uning haqiqiyligini tekshirish	Login va parol, biometrik tekshiruvlar
Avtorizatsiya	Foydalanuvchiga ma'lumotlarga kirish va ularni ishlatish huquqini berish	Foydalanuvchi roliga qarab fayllarni ko‘rish yoki tahrirlash
Zaxira va tiklash	Ma'lumotlar yo‘qolsa yoki buzilsa, ularni tiklash jarayoni	Ma'lumotlarni muntazam nusxalash, server zaxirasi
Xavfsizlik siyosati	Tashkilotda axborot xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha qoidalar va protseduralar	Xodimlar uchun maxfiy ma'lumotlarni ishlash qoidalari, parol siyosati

Axborot xavfsizligi tahdidlari - bu shaxs yoki tizimning axborot resurslariga zarar yetkazish yoki ularni noto‘g‘ri ishlatishga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy omillardir. Bu turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, jumladan, texnologik, inson omiliga asoslangan yoki tabiiy omillar.

“Ta’sir qilish maqsadiga ko‘ra axborot xavfsizliga tahdidlarning uchta asosiy turi mavjud:

- axborot maxfiyligini buzishga qaratilgan tahdidlar;
- axborot butunligini buzishga qaratilgan tahdidlar;
- tizimning ishlash imkoniyatlariga qarshi qaratilgan tahdidlar;

Axborot maxfiyligi buzishga qaratilgan tahdidlar maxfiy axborotni fosh qilish maqsadini ko‘zlaydi. Bu tahdidlar amalga oshirilganda, axborot unga kirish lozim bo‘lmagan shaxslar oshkor bo‘ladi. Kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki bir tizimdan ikkinchisiga uzatilayotgan biron - bir yopiq axborotga ruxsat etilmagan kirish sodir bo‘lgan har qanday holat axborot maxfiyligini buzishga qaratilgan tahdid bilan bog‘liq atamalar bilan nomlanadi. Kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki aloqa kanali bo‘yicha uzatilayotgan axborot butligiga qaratilgan tahdidlar ushbu axborotni o‘zgartirish yoki

buzib koʻrsatishga qaratilgan boʻlib, bu axborot sifatining buzilishiga yoki uni butunlay yoʻq qilinishiga olib keladi.

Axborot butligini buzilishi niyati yoman shaxs tomonidan qasddan amalga oshirilishi, shuningdek, tizimni oʻrab turgan muhitning obyektiv ta’sirlari natijasida sodir boʻlishi mumkin. Bu tahdid kompyuter tarmoqlari va telekommunikatsiya tizimlari kabi axborot uzatish tizimlari uchun tegishli. Axborot butligini qasddan buzishlarni uni ruxsat etilgan oʻzgartirishlardan farqlash lozim, chunki bu oʻrinda oʻzgartirishlar vakolatli shaxslar tomonidan aniq maqsadlarda amalga oshiriladi.

Tizimning ishlash imkoniyatlariga qarshi qaratilgan tahdidlar shunday holatlarni yuzaga keltirishga qaratilganki, bunda qasddan amalga oshirilgan xatti-harakatlar axborot xavfsizligining ishlash imkoniyatini butunlay toʻsib qoʻyadi.

Beruxsat kirish kompyuter buzgʻunchiliklarining eng keng tarqalgan va koʻplab koʻrinishlarga ega turidir. Beruxsat kirishlarning mohiyati shundan iboratki, bunda foydalanuvchi (buzgʻunchi) muyyan tashkilotda qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiq belgilangan kirishni chegaralash qoidalarni buzgan holda tizimga kira oladi. Beruxsat kirish uchun himoya tizimidagi har qanday xato ham qoʻl keladi hamda u himoya vositalari noratsional tanlanganda, ular pala - partish oʻrnatilgan yoki sozlanganda yuz berishi mumkin. Beruxsat kirish axborot tizimining shtatdagi vositalari orqali ham, maxsus shuning uchun yaratilgan apparat va dasturiy vositalar orqali ham amalga oshiriladi”.[3-515]

Beruxsat kirishlarning nihoyatda koʻp yoʻllari va usullaridan eng keng tarqalgani va oʻzaro bogʻliq quyidagi turlarida toʻxtalamiz:

Prollarni tutib olish;

“Makarad”;

Imtiyozlardan noqonuniy foydalanish;

Parollarni tutib olish - bu foydalanuvchining maxfiy kirish ma’lumotlarini yashirincha qoʻlga kiritish orqali tizimga ruxsatsiz kirishga urinishdir. Ushbu jarayon koʻpincha zararli dasturlar, soxta sahifalar, tarmoq orqali uzatilayotgan ma’lumotlarni ushlash yoki oddiy kuzatuv kabi usullarda amalga oshiriladi. Hujumchi parolni qoʻlga kiritgach, foydalanuvchi nomidan tizimga kirishi mumkin. Bunday tahdidlardan himoyalanish uchun kuchli parol qoʻllash, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqish va shubhali havolalarni ochmaslik muhimdir.

“Maskarad”. Obyektning nomi yoki joylashuvini-u haqiqiy yoki zararli boʻlishidan qat’i nazar - himoya tizimlaridan yashirinish yoki kuzatuvdan qochish maqsadida ataylab oʻzgartirish, foydalanuvchini fayl turini notoʻgri tanlashga majbur qilish yoki qonuniy vazifa yoki xizmat nomlaridan foydalanishni oʻz ichiga olishi mumkin.”[4] “Maskarad” usuli bank tizimlarida amalga oshiriladigan elektron toʻlov jarayonlari uchun yuqori xavf tugʻdiradi. Chunki bu usulda foydalangan buzgʻunchi tizimda qonuniy mijoz sifatida notoʻgʻri aniqlanishi mumkin, natijada esa identifikatsiya jarayonining buzilishi bankning haqiqiy mijoziga moliyaviy va operatsion zarar yetkazish ehtimolini oshiradi.

Imtiyozlardan noqonuniy foydalanish axborot tizimlari uchun jiddiy xavf manbai hisoblanadi. Odatda himoya mexanizmlari ma’lum funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan vakolatlar majmuasiga asoslanadi. Har bir foydalanuvchiga uning vazifasiga mos imtiyozlar to‘plamiga beriladi: oddiy foydalanuvchilar - minimal, administratorlar - maksimal vakolatlarga ega bo‘ladi. Ushbu imtiyozlarning, masalan “maskarad” kabi usullari orqali, buzg‘unchi tomonidan qo‘lga kiritilishi himoya tizimini chetlab o‘tib, tizimda ruxsatsiz amallarni bajarish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot xavfsizligi bugungi raqamli davrda har bir tashkilot, muassasa va foydalanuvchi uchun eng muhim masalalardan biridir.Axborotni maxfiyligi, butligi va mavjudligini ta’minlash - tizimning ishonchli ishlashi va foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilishning asosiy shartidir.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, axborot xavfsizligiga tahdidlar turli shakllarda - beruxsat kirish, parolni tutib olish, “maskarad”, hamda imtiyozlardan noqonuniy foydalanish kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, axborot tizimlarini himoya qilishda zamonaviy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, foydalanuvchilarni kiberxavfsizlik madaniyatiga o‘rgatish, shuningdek, texnik va dasturiy himoya choralarini doimiy takomillashtirib borish zarur. Axborot xavfsizligini ta’minlash - faqat texnik masala emas, balki tashkiliy va inson omiliga asoslangan kompleks jarayon bo‘lib, uni har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Tarmoq xavfsziligi:asosiy tahdidlar va himoya usullari // *In-Academy.uz ilmiy jurnali*. – 2025. – №4(26). – B. 45–52. – URL: https://in-academy.uz/index.php/zdaf/article/view/47926 (murojaat sanasi: 13.11.2025).

2. Axborot xavfsizligi asoslari/B.N.Tahirov.Buxora:<<Fan va ta’lim>>,2022.-24 b.

3. R.A.Dadabayev, N.X.Shoaxmedova, L.T.Ibragimova, Sh.T.Nasridinova, Sh.T.Ermatov/Axborot-Kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari-Toshkent:Sano-standart, 2017.-515 b.

4. Masquerading (Technique T1036) //MITRE ATT&CK.-2020.-Rejim kirish: https://attack.mitre.org/techniques/T1036/ (murojaat qilingan sana: 12.11.2025).

MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Fayzullaeva Surayyo Sharif qizi
Angren universiteti talabasi
Zakirov Shakirdjan Mamajanovich
Angren universiteti dotsenti, f.f.n.

Jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy islohotlar, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy tiklanish orqali ham ta’minlanadi. Globalizatsiya davrida milliy qadriyatlar himoyasi va targ‘iboti g‘oyaviy immunitetni shakllantirish uchun zarur. Aynan O‘zbekistonda “ Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi “ doirasida ma’naviy soha ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda[1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir."[2] Ushbu fikr milliy qadriyatlar va merosning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni iqtisodiy islohotlar bilan teng darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Milliy merosni asrash, uni bugungi kun talablari bilan uyg‘unlashtirish va yoshlarga yetkazish — hozirgi davrning eng dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biridir. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi milliy qadriyatlar tizimi va ma’naviy merosning ijtimoiy – axloqiy poydevorni mustahkamlash, shuningdek, jamiyatning umumiy taraqqiyot jarayonlariga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Qadriyat (Aksiologiya) — falsafiy kategoriya bo‘lib, u narsa va hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalaydi. Ular jamiyat a’zolarining xulq-atvorini, munosabatlarini va idealini tartibga soluvchi me’yorlar tizimidir. Milliy qadriyatlar esa aynan shu axloqiy va ijtimoiy me’yorlarning muayyan bir xalqning uzoq davrlik tarixi, turmush tarzi va mentaliteti bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan, faqat shu millatga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi ko‘rinishidir. O‘zbek xalqi misolida, bu tushunchalar o‘zaro hurmat, mehmondo‘stlik, oila muqaddasligi, ustozga ehtirom kabi ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan an’analarda yorqin namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlarning mustahkam negizi bo‘lib ma’naviy meros xizmat qiladi. Ma’naviy meros deganda, buyuk mutafakkirlar, allomalar va olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-ma’rifiy, diniy, adabiy-badiiy asarlar, ta’limotlar hamda tarixiy-madaniy yodgorliklar majmuasi tushuniladi. Milliy qadriyatlar — bu ma’naviy merosning bevosita amaliy ifodasidir. Alisher Navoiyning komil inson haqidagi g‘oyalari, Imom Buxoriyning hadis ilmidagi poklik va halollik tamoyillari, yoki Amir Temurning adolatga intilishi haqidagi qarashlar bugungi kunda ham milliy qadriyatlarni belgilovchi asosiy mezonlardir. "Yangi O‘zbekistonni barpo etishning huquqiy va ma’naviy asosi sifatida qabul qilingan Taraqqiyot Strategiyasi (va uning mantiqiy davomi "O‘zbekiston – 2030 strategiyasi"[4]) milliy qadriyatlar va ma’naviy merosga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraydi. Ushbu hujjatda

"Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash..." [3] alohida yo‘nalish etib belgilanishi, iqtisodiy islohotlar bilan birga, jamiyatning ma’naviy o‘zini anglash jarayoniga qaratilgan tizimli e’tiborning dalilidir. Bunda asosiy e’tibor "Inson Qadri uchun" tamoyili ostida insonning shaxsiy va axloqiy salohiyatini milliy qadriyatlar ruhida rivojlantirishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan "Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat" konsepsiyasi, xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosini, ayniqsa Sharq Renessanslari an’analarini tiklash va ulardan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish zarurligini belgilaydi.

Bu jarayon, eng avvalo, maktab va oliy ta’lim tizimini milliy qadriyatlar va ma’rifat o‘chog‘iga aylantirishni, hamda nomoddiy madaniy meros elementlarini asrab-avaylashni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Aynan 71-maqsadga to‘htaladigan bo‘lsak, ushbu maqsad milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy harakatni shakllantirish zarurligini anglatadi. 72- maqsad "Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish. Ma’rifat (ajdodlar merosi) asosida jamiyat qurish – asosiy g‘oya. Bu merosdan foydalangan holda yoshlarni intellektual va ma’nan yetuk qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi. 73-maqsad (yoki tegishli chora-tadbirlar): o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ushbu maqola mavzusining bevosita nazariy va amaliy asosidir. Davlat darajasida milliy qadriyatlarni muhofaza qilish, jumladan, nomoddiy madaniy meros elementlarini YUNESKO ro‘yxatiga kiritish kabi amaliy ishlarni o‘z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar ijtimoiy normalar va xulq-atvor qoidalarini belgilash orqali insonlararo munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbek xalqining an’anaviy qadriyatlari tizimida oila muqaddasligi, ota-onaga hurmat (izzat-ikrom), farzand tarbiyasiga mas’uliyat kabi tamoyillar ustuvor ahamiyatga ega. Qadriyatlar oilada o‘zaro mehr-oqibat, sadoqat va ishonch muhitini yaratadi. Misol qilib aytganda kattalarga hurmat, kichkinalarga izzat an’anasi avlodlar orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, bu esa oilaviy ajrimlar va ziddiyatlarning oldini olishda muhim ijtimoiy himoya vazifasini o‘taydi. Aynan oila davrasida singdirilgan milliy qadriyatlar birinchi navbatda shaxsning axloqiy jihatdan yetuk va komil inson bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Bizning jamiyatimizda mahalla – noyob ijtimoiy institut bo‘lib, u milliy qadriyatlarni bevosita amalga oshirish maydoni hisoblanadi. Mahalla instituti jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali, yoshlarni tarbiyalash, ularni bo‘sh qolgan vaqtlarini mazmunli tashkil etishda davlat institutlarida yordam ko‘rsatishadi. Axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxsiy va oilaviy hayotga, balki davlat boshqaruvi va siyosiy tizim barqarorligiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Bunga misol qilib, aynan qonunga itoat va fuqarolik mas’uliyatini ta’kidlashimiz mumkin. Aynan qadriyatlar tizimida adolat, halollik, qonunga hurmat - ehtirom kabi tamoyillar mustahkam bo‘lib borsa, bu jamiyatda tartib intizom, qonuniylik va huquqiy ong yuksalib boraveradi.

Miliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri faqatgina ijtimoiy – axloqiy sohalarda emas, balki mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishida va g‘oyaviy barqarorligida ham bevosita aks etadi. Bugungi kunga kelib globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida, milliy qadriyatlarning iqtisodiy jarayonlardagi roli yanada ortib bormoqda. Bevosita o‘zbek xalqining ma’naviy merosida halol mehnat, kasb-hunarga hurmat va tejamkorlik muhim o‘rin egallaydi. Bu qadriyatlar shaxsda mas’uliyat, intizom va sifatga e’tibor kabi jihatlarni shakllantirib, iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston hududidagi tarixiy Ipak yo‘li madaniyati tadbirkorlik, sarmoyani ko‘paytirishga intilish va uzoq joylar bilan aloqa o‘rnatish kabi qadriyatlarni kuchaytirdi. Hozirgi kunga kelib, bu an’ana innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga intilish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash ruhida namoyon bo‘ladi. Jamoaviy yordaman’analari (masalan hashar) esa korporativ ijtimoiy mas’uliyatning milliy shakli sifatida ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarda amaliy ko‘mak beradi[5] .

XXI asr — axborotlar to‘qnashuvi asri bo‘lib, bu davrda millatlarning mustaqilligi nafaqat hududiy, balki g‘oyaviy mustaqillikni saqlash bilan ham belgilanadi. Milliy qadriyatlar tizimi – bu xalqning mafkuraviy immunitetidir. Tashqi madaniy va mafkuraviy xurujlar (ayniqsa, ekstremizm, radikalizm, shaxsiyatparastlikni targ‘ib qiluvchi "ommaviy madaniyat") millatning g‘oyaviy poydevoriga zarar yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Qadriyatlari mustahkam bo‘lgan jamiyat begona ta’sirlarni filtrlay oladi, ularga ko‘r-ko‘rona ergashmaydi. Ma’naviy merosning o‘rganilishi avlodlarda milliy g‘urur va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantiradi[6]. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi ajdodlar merosini chuqur bilish yoshlarni intellektual va ma’nan yetuk shaxslar bo‘lib kamol topishga undaydi. Bu o‘z navbatida, ularning dunyoqarashini kengaytirib, yengil-yelpi xorijiy g‘oyalarga berilishining oldini oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotda “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni” masalasi nafaqat madaniy o‘zlikni saqlash, balki davlatning barqaror va tizimli rivojlanishi uchun fundamental omil ekanligini ilmiy-falsafiy jihatdan asoslashga harakat qilindi. Jamiyat hayotida ma’naviyatning ustuvorligiga qaratilgan ushbu tahlil quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Birinchidan, milliy qadriyatlar – bu ma’naviy merosning shaxs va jamiyat darajasida amaliy ifodasidir. Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa buyuk ajdodlar merosida mujassam bo‘lgan adolat, bunyodkorlik va mehr-oqibat tamoyillari bugungi kunda jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini – oila va mahalla mustahkamligini ta’minlovchi asosiy axloqiy mezonlar bo‘lib xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oladi va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, qadriyatlarning ta’siri iqtisodiyot va siyosatga bevosita o‘tadi. Halol mehnat, tejamkorlik va kasb-hunarga ehtirom kabi an’anaviy qadriyatlar mehnat intizomini kuchaytiradi va korrupsiyaga qarshi g‘oyaviy zamin yaratadi. Natijada,

milliy qadriyatlarga asoslangan inson kapitali yuqori ishonchli va samarali iqtisodiy muhitning shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, globallashuv va mafkuraviy xurujlar davrida milliy qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitet funksiyasini bajaradi. Tashqi, begona madaniyatlar va ekstremistik g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi kurashda, shaxsni milliy o‘zlik, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan qurollasa eng samarali himoya vositasidir. Bu – "Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat" g‘oyasining amaliy mohiyatidir.

To‘rtinchidan, "Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" va "O‘zbekiston-2030 strategiyasi" da ma’naviy taraqqiyotning alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi, mamlakat rahbariyatining bu masalaga qanchalik strategik ahamiyat berayotganini ko‘rsatadi. Prezident Sh. Mirziyoev ta’kidlaganidek, ma’naviyat jamiyatning "joni va ruhi" ekanligi iqtisodiy va ma’naviy islohotlar uyg‘unligini talab qiladi.

Takliflar:

Ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni faqat alohida darslar doirasida emas, balki barcha fanlarga (masalan, iqtisodiyotda halollik, huquqda adolat) integratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Yoshlar orasida milliy qadriyatlar va merosni targ‘ib qilishda ularning qiziqishlariga mos keladigan zamonaviy vositalar (qisqa metrajli filmlar, ijtimoiy tarmoqlar uchun sifatli media-kontent, vatanparvarlik ruhidagi kompyuter o‘yinlari) yaratishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Milliy qadriyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga, xususan, korrupsiyaning pasayishiga yoki mehnat unumdorligining oshishiga ta’sirini aniq sotsiologik va miqdoriy tadqiqotlar (ko‘rsatkichlar) orqali muntazam monitoring qilib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – 416 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. (2022-yil 20-dekabr). – "O‘zbekiston gazetasi", 2022-yil 21-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son (28.01.2022). // Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son (11.09.2023). // Lex.uz.

5. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 320 b.

6. Jabborova S.S. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. // “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent: Elnur-print, 2024. – B. 459-461.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTIDAGI O‘RNI

G‘afforbekova Muslima Otabek qizi
Fan va texnologiya universiteti talabasi
Rasulov R.
Ilmiy rahbar: dotsenti v.b., f.f.f.d, (PhD)

Kirish. Sun’iy intellekt (AI) – bu kompyuter tizimlariga insonning fikrlash, o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatini berishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. U matematika , informatika mantiq va neyrobiologik fanlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakillangan.

Sun’iy intellektning afzalliklari shuki, ish samaradorligini oshiradi, tez va aniq qarorlar qabul qiladi, turli sohalarda innovatsiyalar yaratadi. Bugungi kunda u tibbiyot, ta’lim , transport, sanoat va iqtisodiyot kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Shu bilan birga inson ishlarini yengillashtiradi va ilmiy taraqqiyotlarda yangi imkoniyatlar yaratadi. . Sun’iy intellekt g‘oyasi XX asrning o‘rtasida paydo bo‘lgan. 1956-yilda olim Jon Makkarti “artificial intelligence” atamasini ilk bor ilmiy muammoga kiritdi.[1]

Dastlab AI tizimlari oddiy matematik hisob-kitoblar va mantiqiy xulosalar chiqarishga mo‘ljallangan edi. 1970-1990-yillarda kompyuter texnologiyalari tez rivojlanib, sun’iy intellekt uchun imkoniyatlar yaratildi.[2] Bugungi kunda sun’iy intellekt raqamli iqtisodiyotning markazida turibdi.

XXI asr insoniyat tarixida raqamli inqilob davri sifatida kirib kelmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari , raqamli tizimlar va sun’iy intellekt global taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Raqamli texnologiyalar ma’lumotni raqamli ko‘rinishda qayta ishlash va uzatish imkonini beradigan vositalar majmuasi bo‘lib, sun’iy intellekt - inson tafakkurini mashinalar orqali modellashtirish ilmidir. Raqamli texnologiyalar – bu axborotni raqamli shaklda saqlash, uzatish va qayta ishlashga asoslangan tizimdir. Ular nafaqat kompyuter va internet sohalarida balki, ta’lim , sog‘liqni saqlash, transport, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 ”strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoni dasturi doirasida davlat boshqaruvi, ta’lim va iqtisodiyot tizmlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda.[3] Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy kuchdir.

Olimlar tomonidan sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar va Axborot texnologiyalari kabi sohalarida katta hissa qo‘shgan. Masalan, Oren Etzioni amerikalik sun’iy intellekt sohasida taniqli olim tadbirkor va shu bilan birgalikda “Allen Institute for Artificial Intelligence” tashkilotining asoschilardan biri. U ko‘p yillar davomida sun’iy intellekt jamiyatga foydali, xavfsiz va mas’uliyatli tarzda rivojlanishi targ‘ib qilib kelgan. Quyida uning ayrim mashxur fikrlari keltirilgan**:** “Sun’iy intellekt na yaxshi, na yomon – bu faqat bir vosita. Muhimi uni qanday ishlatishimizda. Sun’iy intellekt insoniyatga xizmat qilishi kerak”[4] deya ta’kidlagan Oren Etzioni. Men Orten Etzioni fikrlariga qo‘shilaman, chunki sun’iy intellekt inson hayotini yengillashtiruvchi vosita bo‘lishi kerak.

U bizning imkoniyatlarimizni kengaytiradi. Lekin insoniy qadriyatlarni hech qachon almashtira olmaydi.

Yana bir olimning fikrlari bo‘yichga “Sun’iy intellekt – bu yangi elektr energiyasidir”. Ya’ni elekrt barcha sohalarda qanday egallagan bolsa, AI ham kelajakda hayotning barcha jabxalariga ta’sir qilad.(Andrew Ng) [5].

To‘g‘ri sun’iy intellekt bizga katta yordam beryabti, bizga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda , lekin bulardan noto‘g‘ri foydalanayotganlar ham yo‘q emas. Yolg‘on ma’lumotlar, AI yordamiya soxta videolar, kibermuhitdagi firibgarlik va jinoyatlar sun’iy intellekt algoritmlar orqali bank tizimiga xujumlar, axloqiy va etik me’yorlarni buzish ba’zi tashkilotlar AI’ni odamlarni kuzatish, yolg‘on yangiliklar AI dasturi orqali avtomatik tarzda maqolalar yozish kabi nojoiz ishlarni qilishadi.

“Sun’iy intellekt faqat mashinalarni o‘rganishni emas, insonlarni o‘rganishi haqida. Sun’iy intellekt dunyoni o‘zgartiradi, lekn u bizning qadriyatimizni aks ettirishi kerak” deydi Fei-Fei Li[6]. Sun’iy intellekt bizning dushmanimiz emas, balki, qudratli vositadir. Ammo u faqat insoniylik , ma’naviyat va adolat tamoyillariga asoslanganda foydali bo‘ladi.

Yann Le Cun fransuz Facebook (Meta) kompaniyasining bosh AI olimi New York universiteti professori texnologiyasining asoschilaridan biri[7]. Uning fikricha, “Bizni inson qiladigan narsa bu – aqlimizdir. Agar biz AI aqlli bo‘lishini istasak, avvalo aqlning o‘zi qanday ishlashini tushunishimiz kerak. Aqlli mashinalardan qo‘rqishimiz kerak emas, balki ularni noto‘g‘ri ishlatishdan qo‘rqishmiz kerak.” Deya fikrlarini qoldirgan.

Sun’iy intellekt AI bu faqat texnik bilim emas , balki ma’naviy mas’uliyatdir. Inson texnologiyani yaratdi , demak uni boshqarish ham inson zimmasidadir. AI to‘g‘ri maqsadda ishlatilinsa yolg‘on ma’lumotlar tarqatish, shaxsiy hayotni buzish , ta’sir o‘tkazish kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi.

Ma’naviyat – bu insonni ruhiy olamiga , fikr va his - tuyg‘ulariga oid sifatdir. U manaviy qadriyat – insonni yaxshilikka, poklikka, vatanparvarlikka undaydi. Ma’naviy dunyo – insonning ichki hissiy olam, fikr, e’tiqod va tuyg‘ular yeg‘indisidir. Yoshlar ma’naviyati yoshlarni fikrlashi, e’tiqodi, dunyoqarashi va axloqiy me’yorlariga asoslangan ruhiy- ahloqiy holatini ifodalaydi. Yoshlar ma’naviyati jamiyatning ma’naviy poydevori, milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni o‘zida mujassam etuvchi muhum tushunchadir. Har bir xalqning kelajagi yosh avlodning bilim , tafakkur, axloq va ma’naviy darajasiga bog‘liq. Yuksak ma’naviyatga ega yoshlar vatanni sevadi, unga sadoqat bilan xizmat qiladi, halol mehnatni tanlaydi, ota-onaga , ustozga jamiyatga hurmat bilan qaraydi, ilm va madaniyatga intiladi.

Bugungi raqamli yoshlarning ma’naviy olamiga internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomonda bu texnologiyalar bilim olish va o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan noto‘g‘ri axborotlar, virtual qaramlik va begona g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston yoshlar ma’naviyati rivoji davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan , yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalashimiz kerak[8]”.

Bugungi kunda yoshlar — jamiyatimizning eng muhim resursidir va ularning tarbiyasi, ta’limi va kasb-hunar egallashi millatimizning kelajagini belgilaydi. Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikri shuni anglatadiki: davlat siyosatida yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, va ayni vaqtda yuksak ma’naviyatga ega shaxslar qilib tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan.

Xulosa. Yoshlar faqat bilim oluvchi emas, balki fikr yurituvchi va qaror qabul qila oluvchi tomonlama shakllanishi lozim. Bu ularga jamiyatda faol, ijobiy rol o‘ynash imkonini yaratadi. Global raqobat va texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlar zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, bilimini yangilashi, malakasini oshirishi zarur. Shu bilan birga, iqtisodiyot, innovatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarida ularning o‘rni ortadi.

Ilm va kasb-hunar yetarli emas; yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yashashi, axloq-madaniyatga ega bo‘lishi, jamiyat manfaatini o‘zining manfaatidan yuqori qo‘yishi kerak. Bu esa jamiyatdagi barqarorlik, birdamlik va taraqqiyotning muhim omili.

Ushbu fikr tarbiya-ta’lim-kasb tizimlarini bir butun sifatida qarashni taqozo etadi — yoshlar nafaqat maktabda o‘qib, balki hayotga tayyorlangan, o‘z tajribasini qo‘llay oladigan shaxslar bo‘lishi kerak. Bu yondashuv bilan yoshlarimiz nafaqat bugungi kun uchun, balki ertangi kun uchun ham tayyor bo‘ladi.

Ular o‘zgaruvchan dunyoda moslashuvchan, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishlari zarur.Yoshlar ma’naviyati - jamiyatning kelajagi, millatning davomiyligi va taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatli yoshlar bu milliy g‘urur, insonparvarlik va vatanga sadoqat timsolidir. Shu sabab raqamli texnologiyalar davrida yoshlar faqat texnik bilim emas, balki axloqiy, e’tiqod va ruhiy barkamollik bilan ham boy bo‘lishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sun’iy intellekt g‘oyasi XX asrning o‘rtasida paydo bo‘lgan. 1956-yilda olim Jon Makkarti “artificial intelligence” atamasini ilk bor ilmiy muammoga kiritdi https://openai.com/index/introducing-gpt-5/

2. 1970-1990-yillarda kompyuter texnologiyalari tez rivojlanib, sun’iy intellekt uchun imkoniyatlar yaratildi https://en.wikipedia.org/wiki/

1970-1990-yillarda kompyuter texnologiyalari tez rivojlanib, sun’iy intellekt uchun imkoniyatlar yaratildi https://en.wikipedia.org/wiki/

3. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=02.04.2021

4. “Sun’iy intellekt na yaxshi, na yomon – bu faqat bir vosita. Muhimi uni qanday ishlatishimizda. Sun’iy intellekt insoniyatga xizmat qilishi kerak https://www.brainyquote.com

5. “Sun’iy intellect – bu yangi elektr energiyasidir”. Ya’ni elekrt barcha sohalarda qanday egallagan bolsa, AL ham kelajakda hayotning barcha jabxalariga ta’sir qiladi”.(Andrew Ng). https://www.gsb.stanford.edu/

6. “Sun’iy intellekt dunyoni o‘zgartiradi, lekn u bizning qadriyatimizni aks ettirishi kerak” deydi Fei-Fei Li https://issues.org/interview-godmother-ai-fei-fei-li/

7. Yann Le Cun fransuz Facebook (Meta) kompaniyasining bosh AI olimi New York universiteti professori texnologiyasining asoschilaridan biri https://yann.lecun.com/

8. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan , yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalashimiz kerak https://www.president.uz/

9 . Rasulov Rustambek Odilovich - The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development. Spanish Journal of Innovation and Integrity, ISSN: 2792-8268, Volume: 37, Dec-2024. https://sjii.es/index.php/journal/article/view/106/150

10. Rasulov, R. . (2024). The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth. Академические исследования в современной науке, 3(48), 124–132. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/61938

11. Rasulov Rustambek Odilovich. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO). http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417

12. Rasulov Rustambek Odilovich. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505. https://www.tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/11321

O‘ZBEKISTONDA ENDOGAM NIKOHLAR TARQALISHINING ASOSIY SABABLARI

G‘ulomova Xurshida Sobit qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

O‘zbeklarning mentalitetida an’analarga qat’iy rioya qilish va jamiyatdan ajralmaslik kuchli bir xususiyatdir. Jamiyatdagi har bir a’zo, o‘zini boshqalarning hayotiga bog’lanib his qiladi va bu o‘zgarishga qarshi bo‘lishdan ko‘ra, boshqalar tomonidan qabul qilingan va sinovdan o‘tgan usullarni qayta ishlatishni afzal ko‘radi. Shuning uchun qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ko‘plab odamlar uchun qulay va xavfsiz variant sifatida qaraladi.

Ko‘plab o‘zbeklar, boshqa juftliklar haqida fikr yuritishda, “notanish kelin yoki kuyov qanday bo‘lishi mumkinligini bilishimiz mumkin, ular giyohvand yoki piyonist bo‘lsa-chi?” deb o‘ylashadi. Ammo qarindoshining qizi haqida esa, “u bizning madaniyatimizni yaxshi tushunadi, uni ko‘z oldimda o‘sgan,” deya ishonch hosil qiladilar. Qarindoshi bilan quda bo‘lishni tanlaganlar bu usulni boshqalarga ham tavsiya qilishadi, chunki ular o‘zlarini boshqalar hayotiga bog’langan hissiyotda ko‘radilar. Shunday qilib, o‘zbeklarning mentalitetida an’anaviylik va jamoaviylikning kuchli bog’lanishi qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlab turadi. Bu holat, o‘z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy tizimning asosiy omillaridan biri sifatida oila va qarindoshchilik rishtalarining qattiqligini saqlab qoladi.

Endogam nikohlarning nafaqat O‘zbekistonda balki, butun musulmon mamlakatlarida keng tarqalishida diniy omillar muhim o‘rin tutadi. Islom dini nikoh masalasida ba’zi muayyan tamoyillarga ega bo‘lib, musulmonlarning musulmonlarga turmushga chiqishi yoki uylanishi tavsiya etiladi. Bu esa endogam nikohlarni rag‘batlantiruvchi omillardan biri sifatida qaraladi.

Islom shariatida nikoh (nikoh aqdi) muqaddas shartnoma sifatida qaraladi. Qur’oni Karim va hadislar asosida musulmon jamiyatlarida nikohga oid muhim mezonlar shakllangan. Qur’onda nikohga oid bir qancha oyatlar bor bo‘lib, ular orasida endogam nikohlarni bevosita qo‘llab-quvvatlovchi yoki taqiqlovchi hukm yo‘q. Lekin quyidagi oyatlar musulmonlar orasida nikohning afzal ekanligini ta’kidlaydi:

“Mushrik ayollarga ular imon keltirmaguncha uylanmang. Musulmon cho‘ri mushrik ayoldan yaxshiroqdir, garchi u sizga yoqib tursa ham.” (Al-Baqara, 221-oyat)[16]

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislari ham nikohning fazilati, kim bilan turmush qurish kerakligi, qanday oila qurish lozimligi haqida ko‘plab tavsiyalar beradilar. Masalan:

- “Ayolga to‘rt narsa uchun uylanishadi: moli uchun, nasabi uchun, husni jamoli uchun va dini uchun. Sen dindorni tanla, sening qo‘ling baraka topsin!” (Buxoriy va Muslim)
- “Sizlarga Allohdan qo‘rqadigan, diniga sodiq bo‘lgan kishilar qizingizga sovchi bo‘lib kelsa, ularni rad etmang!” (Termiziy)

Ushbu hadislarga ko‘ra, o‘zaro diniy e’tiqod va tarbiyaning o‘xshashligi nikohning mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi va bu o‘z navbatida musulmon olamida endogam nikohlarning keng tarqalishiga asosiy sababdir.

Islomda kim bilan nikoh qurish mumkin va mumkin emas? Din ulamolari bilan suhbat qildik va o‘zimizni qiziqtirgan bu kabi savollarga quyidagi javoblarni oldik:

Shariat bo‘yicha mahram qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh taqiqlangan. Qur’onda bu ochiq-oydin belgilangan:

- “Sizlarga onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolangiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, sut onalaringiz, sut opa-singillaringiz, xotinlaringizning onalari va siz yaqinlik qilgan xotinlaringizning qizlari harom qilindi.” (An-Niso, 23-oyat)[17]

Bu oyatga ko‘ra, ota-onasi bir aka-singillar, tog‘a yoki ammaning farzandlari o‘rtasidagi nikohlar taqiqlangan. Biroq, uzoqroq qarindoshlar orasidagi nikoh (masalan, amakivachcha yoki xolavachcha nikohi) Islom shariatida ruxsat etilgan. Ko‘pgina islom olimlari qarindoshlar orasidagi nikohga ruxsat bergan bo‘lsa-da, bu holatda tibbiy tekshiruvlar o‘tkazish muhimligini ta’kidlab o‘tishganlar. Masalan:

Imom Abu Hanifa – Endogam nikohga ruxsat bergan, ammo uni ijtimoiy jihatdan muhokama qilish lozim deb hisoblagan.

Imom Shofe’iy – Uzoq qarindoshlar orasidagi nikohga ruxsat bergan, lekin yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni makruh (yoqimsiz) deb bilgan.

[16]Al-Baqara, 221-oyat
[17] An-Niso surasi, 23-oyat

Endogam nikohlarning keng tarqalishiga yana bir sabablardan biri bu iqtisodiy omil hisoblanadi. Bunga o‘z navbatida jamiyatimizdagi yildan yilga avj olib borayotgan to‘ylardagi ortiqcha hashamat va dabdababozlikni misol keltirishimiz mumkin. Millatimizning jonkuyar farzandi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining 1911-yilda “Oyna” jurnalida nashr etilgan “To‘y” nomli maqolasida to‘ylarga nisbatan shunday ta’rif bergan edi: “Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxm, sil yoki boshqa kasalliklarni nazarda tutyapsizmi? Yo‘q, undan ham yomonroq va undan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz — turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgon to‘y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman."[18]

Darhaqiqat millat ma’rifatparvarning kuyunchaklik bilan aytgan bu so‘zlari 100 yil o‘tib ham dolzarbligini yo‘qotmadi. Bugun men sendan kam emasman deb, to‘yni kimo‘zar poygaga aylantirayotganlar ikki yoshning boshini qovushtirish bahona atrofdagilarga o‘zining mol-u davlatini ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘layotgandek go‘yo.

Afsuski, ko‘cha-ko‘yda to‘y qilaman deb qarz bo‘lib qolgan, ancha vaqtgacha ro‘zg‘ori qiyin ahvolda tebratayotgan haqida eshitish yangilik emas. Ba’zan o‘ylab qolasan kishi, odamzod nahot o‘zi o‘ylab topgan mantiqsiz “qonun-qoidalar”ga, urf-odat deb atalmish keraksiz sarf-xarajatlarga shunchalik tobe bo‘lsa?

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda bir yilda o‘rtacha 300 ming atrofida to‘ylar o‘tkazilar ekan, ularning umumiy sarf-harajati qariyb 3 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bu qay bir davlatning byudjeti degani. Aynan mana shu xarajatlarning taxminan 20 foizi davlat g‘aznasiga soliqlar orqali tushar ekan.[19]Biz to‘y o‘tkazishgacha bo‘lgan marosimlardagi xarajatlarni bu yerda hisob-kitob qilmadik. Ammo mamlakat hududlarida to‘y o‘tkazishgacha bo‘lgan marosimlar ham ortiqcha ekanini payqaysan kishi. Masalan poytaxtning o‘zida to‘yga qadar “sovg‘a berish”, “oq o‘rar”, “fotiha”, “to‘y yuborar” marosimlari o‘tkazish “an’ana”ga aylangan bo‘lsa, to‘ydan keyin “kelin salom”, “qovurdoq”, “challari”, “haftalik”, “chorlov” bilan davom etadi.

Mamlakatning boshqa hududlarida ham “kelin navkari”, “kuyov navkari”, “chorlar”, “ota ko‘rdi”, “ona ko‘rdi”, “sep yoydi”, “quda chaqirdi”, “kuyov chaqirdi”, “kelin chaqirdi”, “tog‘ora yuborish”, “bet ochar” kabi “udumlar” o‘tkaziladi. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida to‘ydan so‘ng qiz uzatgan xonadon kuyov tomonga 40 kun turli yeguliklar yuboradi. Andijonda buni “mazar” deyishadi. Xorazmda esa, “qiz yig‘in”, “xina yoqar” degan keraksiz marosimlar bor.

Umuman bugun to‘y va marosimlarni tartibga solish, ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish borasidagi sa’y-harakatlar natija bermayotganini, targ‘ibotlardan keyin esa, aholi qatlamlari sarf-xarajatni qisqartirish o‘rniga buning aksini qilayogani, gapning indallosini aytganda, “ko‘rpaga qarab oyoq uzatilmayotgani”ning guvohi bo‘lamiz. Ish shu darajaga borib yetdiki, mazkur masala Davlat rahbarining ham e’tiborini tortdi. Esingizda bo‘lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 3-avgust kuni mamlakatning ijodkor

[18] Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yil “Oyna” jurnali.: Turkiston
[19] https://qalampir.uz/.

ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda to‘y-ma’rakalardagi isrofgarchilik, dabdababozlik holatlarini tanqid qilgan edi. “Eng yomoni, ayrim pul topib aql topmagan, ma’naviy saviyasi past kimsalar to‘y-hashamlar, ma’rakalarni o‘tkazish bo‘yicha musobaqa o‘ynab, turli-tuman yangi odatlarni o‘ylab topyapti. Bularni eshitib, ba’zan odam hayratdan yoqasini ushlab qoladi”,[20] degan edi Shavkat Mirziyoyev. Prezidentning o‘sha yig‘ilishida to‘y va marosimlar haqida kuyunchaklik bilan aytgan bu gaplarida nechog‘li ahamiyatli ekanini kim o‘zarga o‘tkazilayotgan to‘y va marosimlarimiz isbotlab turibdi. O‘shanda davlat rahbari O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati to‘y va marosimlarni tartibga solishga oid qaror qabul qilishini aytdi.

14-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senat Kengashining “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi. [21]Qaror bilan “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. (2020-yil 1-yanvar kuchga kirgan)

Nizomga ko‘ra, to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda ijtimoiy adolat, qonuniylik, milliy urf-odat va qadriyatlarga sodiqlik, boshqa din va millat vakillarining urf-odatlariga hurmat qilish hamda jamoatchilik fikrini inobatga olish tamoyillariga rioya qilish kerak.

To‘ylar va boshqa oilaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibiga quyidagi umumiy talablar qo‘yiladi:

- To‘ylar va marosimlar faqat bir kun davomida, soat 06:00 dan 23:00 gacha o‘tkazilishi mumkin (dafn marosimi bundan mustasno).
- Hududlarning sharoitlaridan kelib chiqib, tuman va shahar Kengashlari osh berish marosimining vaqtini alohida belgilashi mumkin.
- Soat 23:00 dan keyin to‘ylarni davom ettirishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- To‘ylar, oilaviy tantanalar va marosimlarda 200 nafargacha kishi qatnashishi mumkin, osh berish marosimida esa 250 nafargacha. Qo‘shaloq to‘ylar uchun 250 nafargacha, osh berish marosimida 300 nafargacha qatnashish mumkin.
- Dafn etish va motam marosimlari uch kun mobaynida cheklanmagan miqdordagi fuqarolar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin, osh berish marosimi bundan mustasno.
- To‘ylarni o‘tkazishda quyidagi talablar mavjud:
- To‘y o‘tkazuvchi shaxslar to‘ydan kamida bir hafta oldin yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini xabardor qilishlari kerak.
- Nikohni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, kelin-kuyovning to‘yxonaga kelishi va ketishida yengil avtomashinalar yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi boshqa transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

[20] Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2016. 40b

[21] 2736-III-сон 14.09.2019. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g’risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

- Litsenziyaga ega bo‘lmagan tashuvchilar tomonidan pulli avtotransport xizmatlari taqdim etilishi mumkin emas. To‘y egalarining shaxsiy avtomashinalari va homiylar yordamida jalb etilgan transport vositalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.
- Shuhratparastlik, dabdababozlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi.
- Mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqaror saqlash, jamiyatda shakllangan odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish talab etiladi.[22]

Agar to‘yda diniy mavzuda ma’ruza o‘tkazilsa, bu ma’ruzani diniy tashkilotning vakolatli vakili o‘qishi kerak. To‘y, oilaviy tantana va marosimlarda litsenziyalanadigan faoliyat turidan foydalanilsa, litsenziyali xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar to‘yxona, kafe yoki restoran ma’muriyatiga va foydalanuvchilarga litsenziyaning nusxasini taqdim etishi lozim.

Shuningdek, milliy an’analar va odob-axloq qoidalariga zid bo‘lgan turli shoular, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan qo‘shimcha rasm-rusumlar, masalan, “kelin navkari”, “chorlar”, “ota ko‘rdi”, “sep yoydi”, “quda chaqirdi” va boshqalar o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ijtimoiy omillar jumladan, mahalla instituti, ijtimoiy tabaqalanish va ta’lim darajasi O‘zbekistonda endogam nikohlarning davom etishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek jamiyatida mahalla muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Mahalla aholisi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, odamlarning xatti-harakatlari, jumladan nikoh masalalari ham jamoatchilik nazorati ostida bo‘ladi. Mahallalar va qishloq jamoalari ichida qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh odatiy hol sifatida qabul qilinadi, chunki bu mustahkam ijtimoiy tarmoqlarni saqlab qolishga yordam beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish (sinfiy farqlar, iqtisodiy holat, ta’lim darajasi) endogam nikohlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Ayrim tadbirkor va boy oilalar mol-mulkning oiladan tashqariga chiqib ketmasligi uchun qarindoshlar orasida nikoh tuzishga harakat qiladi. Yuqori maqomli oilalar ijtimoiy mavqelarini saqlash maqsadida o‘z ijtimoiy qatlamiga mansub qarindoshlar bilan nikoh tuzishga intiladi. Ba’zi oilalar qizlarini begona oilaga bermaslik orqali ularning iqtisodiy kelajagini barqaror saqlashni maqsad qiladi. Ta’lim darajasi oshgani sayin, odamlarning nikoh tanloviga yondashuvi ham o‘zgaradi. Ammo ayrim hududlarda ta’lim darajasining pastligi endogam nikohlarning davom etishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zi kishilar endogam nikohlarning genetik va ijtimoiy xavflari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Tanishish vositalari turlicha bo‘lib, insonlar turli usullar bilan bir-birini tanishadi. Avvalo, shaxsiy xususiyatlar, ma’naviyat, madaniyat va tarbiya kabi omillarga asoslanib, har bir inson mustaqil tarzda boshqa jins vakilini tanishi mumkin. Biroq, ba’zi insonlar bunday qadamni qo‘yishga jur’at etmay, boshqalar vositasida tanishishadi.

O‘zbek xalqida yangi oilalarning shakllanishida sovchilik instituti keng tarqalgan. Bu institut tarixan shakllanib, o‘zbeklar uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, oilaning

[22] 2736-III-сон 14.09.2019. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g’risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

mustahkamligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sovchilikning mohiyati shundaki, u nikohning yuzaga kelishiga zamin yaratadi va bu o‘zbeklarning oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishdagi ehtiyojidan kelib chiqadi. Sovchilik orqali oilani mustahkamlashga erishiladi, bu o‘zbeklar uchun nikoh-oila munosabatlarida muvozanatni saqlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Yoshlar o‘zlari tanlagan kishini har tomonlama to‘g‘ri baholay olishlari har doim ham mumkin emas, shuning uchun kattalar maslahati, ya’ni “Yetti o‘lchab bir kesish” degan mulohazalar yordamga keladi. Bu, yoshlarning to‘g’ri qaror qabul qilishda va turmush qurishda mas’uliyatni his etishda qo‘llanadi. Sovchilik orqali yoshlar, o‘z oilalarining mustahkamligi uchun mas’uliyatni zimmasiga olishni, turmush qurishga jiddiy yondashishni va oilaviy hayotni barqaror saqlashni o‘rganadilar.

Madaniy omillar O‘zbekistonda endogam nikohlarning keng tarqalishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. O‘zbek jamiyatida oila muqaddas institut sifatida qabul qilinadi va nikoh faqat shaxsiy tanlov emas, balki oilaviy va hatto mahalliy darajadagi qaror sifatida qaraladi. Ko‘p hollarda oilalar o‘zaro yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishni afzal ko‘radi, chunki qarindoshlar orasidagi nikohlar tufayli oila mustahkamroq bo‘ladi va moliyaviy, ijtimoiy aloqalar yanada kuchayadi. Notanish oilaga qiz berish yoki o‘g‘il uylantirishdan ko‘ra, tanish va ishonchli muhitda oila qurish ishonchli va xavfsizroq hisoblanadi. Ayrim oilalar farzandlariga bolalikdan turmush o‘rtoq tanlab qo‘yadi va bu nikoh an’analarga mos ravishda amalga oshiriladi. Ayniqsa, qishloq joylarda qizning uzoq joyga turmushga chiqishini yoqlamay, uni o‘z mahallasi yoki qishlog‘iga uzatish maqsad qilinadi. Hatto xalq orasida “yaxshi qiz mahalladan ortmaydi” degan maqollar ham mavjud. Madaniy an’analar shunchalik chuqur ildiz otganki, ko‘p hollarda endogam nikohlarning genetik xavflari haqida yetarlicha ma’lumot berilmaydi.

O‘zbek xalq ertaklari, maqollari va hatto kino va teatr asarlarida ham endogam nikohlar bevosita yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlanib kelingan. Masalan: “Qiz bermagan el – qiz olib bo‘lmaydi” – bu maqol orqali o‘zaro quda-andachilikni mustahkamlashga undanilgan. Bundan tashqari o‘zbek kinosi va seriallarida ko‘pincha yaqin oilalar yoki mahalladoshlar o‘rtasidagi nikohlar tasvirlanadi, bu esa jamiyatda bu odatni yanada mustahkamlashga yordam beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. 1911-yil “Oyna” jurnali.: Turkiston.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2016. 40b.
3. 2736-III-сон 14.09.2019. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g’risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
4. https://qalampir.uz/.

INKLYUZIV TA’LIMDA O’QUVCHILARNI FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA 2D VA 3D GRAFIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI

G’ulomov Bunyodjon Baxtiyorjon o’g’li
NamDPI magistratura talabasi


O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida ta’lim “Ta’lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e’tirof etilib, sifatli ta’lim berish, o’zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish va talabalar intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo’lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi [1].

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimida tizimli islohotlar olib bormoqda va **“Yangi O’zbekistonni xalqimiz bilan birga quramiz”** degan g’oyani ilgari surmoqda [2; B.64].

Mamlakatimiz Oliy o’quv yurtlarida kredit modul tizimini yo’lga qo’yilishi va kompyuter texnologiyalari rivojlanishi natijasida chizmachilik va muhandislik grafikasi fanini an’anaviy usulda o’qitish samarali bo’lmay qoldi. Shu sababli chizmachilik va muhandislik kompyuter grafikasi fanini o’qitishni isloh qilish va innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy etish talab etilmoqda. Shu qatorda ta’limda inklyuziv va dual ta’limga ham katta e’tibor va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalarda kompyuter grafikasi va grafik dasturlaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda nafaqat ilmiy-tadqiqot ishlari, balki arxitektura, qurilish, sanoat, ta’lim, dizayn, reklama, web-loyihalash kabi yo‘nalishlarda uchraydigan vizual masalalarni yechishda grafik muhitning imkoniyatlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, uch o‘lchamli modellashtirish, real obyektlarni aniq va haqqoniy grafik ko‘rinishda tasvirlash, loyihalarni virtual muhitda sinovdan o‘tkazish uchun AutoCAD kabi dasturiy vositalar keng qo‘llanilmoqda.

2D kompyuter grafikasi bu asosan ikki o'lchovli modellardan (masalan, 2D geometrik modellar, matn va raqamli tasvirlar) va o'ziga xos texnikadan olingan raqamli tasvirlarning kompyuterga asoslangan avlodi. Bu atama bunday texnikani o'z ichiga olgan informatika bo'limiga yoki modellarning o'ziga tegishli bo'lishi mumkin. 2D kompyuter grafikasi asosan matbaa, kartografiya, texnik rasm, reklama va h.k. kabi an'anaviy bosib chiqarish va chizish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan ilovalarda qo'llaniladi (1-rasm). Bu ilovalarda ikki o'lchovli tasvir-bu haqiqiy ob'ektning tasviri emas, balki semantik qiymati qo'shilgan mustaqil artefakt;




1-rasm

shuning uchun ikki o'lchovli modellarga ustunlik beriladi, chunki ular 3D kompyuter grafikasidan ko'ra tasvirni to'g'ridan-to'g'ri boshqarishni ta'minlaydi (ularning uslubi tipografiyaga qaraganda fotografiyaga ko'proq o'xshaydi). Ushbu rasmda detal variantini AutoCad dasturida modellashtirishni ko’rib chiqamiz [3].

Ob’ektlarni 3D modellashtirish - uch o‘lchovli grafikani hosil qilishning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi. Uch o‘lchovli modellashtirish tushunchasi kompyuterda obyektlarning uch o‘lchovli modellarini yaratishni anglatadi . 3D modellashtirish - uch o’lchovli fazoda obektlarni modelini qurish hisoblanadi. Bu usuldan 1960 yillardan foydalanish boshlagan bo’lib kompyuter muhandislari modellashtirish bilan shug’ullangan. Zamonaviy 3D texnologiyalar murakkab va hajmli modellarni loyihalashga hamda ularni sinovdan o’tkazish va unga turli bosqichlarda o’zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

3D modellashtirish dasturi murakkab matematik hisob-kitoblarga asoslangan bo'lsa-da, barcha hisob-kitoblar foydalanuvchilarga qulay interfeysni ta'minlagan holda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. 3D modelni yaratish juda murakkab bo’lib, sa’nat darajasiga ko’tarilgan deyish mumkin. Modelni real darajaga yettkazib yaratish uchun modellashtirish jarayonida modellashtirishning xususiyatlarini hisobga olish hamda uni hisoblarini to’g’ri amalga oshirish zarur bo’ladi [4].




2-rasm


3D modellashtirishning afzalliklari Ikki o'lchovli grafikaning asosiy kamchiligi shundaki, eskizlar va chizmalar ob'ektning haqiqatda qanday ko'rinishi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Natijada, chizmalar odatda kelajakdagi loyihaning ko'rinishini ko'rsatadigan tartib bilan to'ldiriladi. Shunday qilib, hisob-kitoblarda xatolar mavjud bo'lsa, tayyor ob'ektga o'zgartirishlar kiritish kerak, bu rejani amalga oshirish jarayonini juda murakkablashtiradi (2-rasm).

3D modellashtirish tizimi obekt modelini uning sinov namunasini yaratishdan oldin yaratiladi va loyihaning zaif tomonlarini yaqqol tarzda ko’rish va uni baholash imkonini beradi. 3D modellashtirishning yana bir, ammo ayni paytda juda muhim afzalligi - bu uch o'lchamli rasm va videolarning ishonchliligi va ravshanligi. Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal degan gapga amal qilsangiz, 3D formatida 30 soniyalik taqdimot

ikki soatlik taqdimot bilan bir xil natija beradi. Eskiz va chizmalardan bino yoki loyihaning kelajakdagi ko’rinishini haqida tasavvur hosil qilish uchun yaxshi fazoviy tasavvurga ega bo’lish kerak. 3D modellashtirish esa loyihaning ishlab chiqish jarayonida ko’rish imkoniyatini beradi. Uch o’lchovli grafika barcha faoliyat turlarida amaliyotda keng qo’llanilib kelmoqda. Yani loyihaning logotipidan to uy joy kompleksi yoki tumanni qurilish loyihalarini 3D modellashtirilmoqda.



3-rasm




4-rasm

Inklyuziv ta’limda o’quvchi va talabalarni fazoviy tasavvurini rivojlantirishda yuqoridagi grafik chizmalar AutoCad dasturida bajarildi (3-4rasm).

Bundan asosiy maqsad:

- Talabalarda muhandislik tafakkurini rivojlantirish
- Zamonaviy grafik dasturlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
- Yaratilgan muhandislik modellarini amaliyotga tatbiq etish
- Proyeksion chizmachilik bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.



5-rasm

Dars jarayonida talabalar konstruksiyalash elementlari, proyeksion chizmalar tuzish, 3D modellashtirish va grafik loyihalash bo‘yicha muhim amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Bunday mahorat darslari talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning tasavvuri va kreativ fikrlashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur reja doirasida S.K. Bogolyubovning “Individualnye zadaniya po kursu chercheniya” nomli qo‘llanmasidan olingan detal variantlari o‘rganildi va taqqoslandi (5-rasm) [5].

Xulosa

AutoCad dasturida 2d va 3d grafik modellashtirish orqali detallarning aksonometrik proyeksiyalarini qurish bo’yicha olib borilgan ilmiy ishlar, uslubiy adabiyotlar tahlil

qilindi, ilg’or pedagoglarni tajribalarini o’rganildi, psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Shakllarning bizga malum bo‘lgan barcha geometrik xossalarini ularning chizmalaridan olingan ma’lumotlardan ham aniqlasa bo‘ladi. Shuning uchun ham buyumlarning chizmalarini ularning geometrik xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi tekis geometrik modellar deb atash mumkin [6].

Inklyuziv ta’limda o’quvchi va talabalarni fazoviy tasavvurini rivojlantirishda Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o’qitishda 2d va 3d grafik modellashtirish orqali detallarning aksonometrik proyeksiyalarini qurish mavzusi dolzarb ekanligini asoslab berdi. Aksonometrik proyeksiyalarini qurishni ahamiyati va loyihalash ishlaridagi o’rnini aniqlandi, Detallarning aksonometrik proeksiyalarni tahlil qilindi va uni qurishning optimal usullarini aniqlandi, 2d va 3d grafik modellashtirish orqali detallarning aksonometrik proyeksiyalarini qurish bo’yicha uslibiy ko’rsatmalar ishlab chiqildi va o’quv jarayonida qo’llanildi.

Talabalarning tushunish darajasi, natijaviyligi va muhandislik tafakkurining rivojlanishi AutoCAD dasturida yaqqol tasvirlar va konstruktiv modellar yaratish jarayoni talabalarning tushunish darajasi, amaliy natijaviyligi va muhandislik tafakkurining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayon nafaqat grafik ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki talabaning texnik fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish hamda fazoviy tasavvurini kengaytiradi. Tushunish darajasining oshishi AutoCAD dasturida bajarilgan amaliy ishlar talabalarga nazariy bilimlarni real modellashtirish orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish KONTSEPTSIYASI. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA
2. Shavkat Mirziyoyev “Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O’zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz” . -T.,2023.
3. https://www.youtube.com/@Autodesk
4. https://help.autodesk.com/view/ACD/2024/RUS/?page=sysvars
5. Sh.Murodov. Chizma geometriya «Iqtisod - Moliya» nashriyoti. 2008 «Ezgulik manbai nashriyoti» 2008
6. С.К.Боголюбов Индивидуа льные задания по курсу черчения Учебное пособие АллъяиС Москва 2007

SHARQ VA G‘ARB MADANIYATLARINING GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI VA ULARNI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Gulomova Dilshoda Xayrullo qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti

Kirish. Bugungi dunyoda globallashuv hamma narsani o‘zgartirmoqda, xususan, yoshlarning ma’naviy olamini. Sharq madaniyatlari – masalan, Xitoy, Yaponiya yoki Koreya – odatda kollektivizm, atrof-muhitga moslashish va jamiyatdagi uyg‘unlikka asoslangan deb hisoblanadi. G‘arbda esa, Yevropa va Amerikada, individualizm, mustaqil fikrlash va shaxsiy yutuqlarga urg‘u beriladi [1]. Bu farqlar Richard Nisbettning “The Geography of Thought” kitobida yoki Markus va Kitayamaning o‘zlik haqidagi nazariyasida yaxshi tasvirlangan [2].

Internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli madaniyatlar bir-biriga yaqinlashmoqda, lekin farqlar hali ham mavjud. So‘nggi tadqiqotlarda, masalan, Kitayama va Salvador (2024) Sharq-G‘arb farqini ekologik va tarixiy omillar bilan bog‘laydi [3]. O‘zbekistonda ham bu masalaga e’tibor katta – masalan, Daminova Mukhlisabonu Askarovna (2021) globallashuvning chet el g‘oyalari orqali yoshlar tarbiyasiga ta’sirini ta’kidlaydi va milliy g‘oyani himoya vositasi deb hisoblaydi [15]. Ushbu maqolada biz bu farqlarni o‘rganishning zamonaviy usullarini ko‘rib chiqamiz, xususan, yoshlar ma’naviyatiga qaratib.

Metodologiya

Sharq va G‘arb madaniyatlarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganishda bir nechta usullar qo‘llaniladi. **Birinchidan,** klassik modellar: Hofstede’ning madaniy o‘lchovlari, masalan, individualizm-kollektivizm yoki hokimiyat masofasi, hali ham asosiy [4]. So‘nggi tahlillar bu farqlarni tasdiqlaydi, lekin ichki farqlarni ham ko‘rsatadi [5]. O‘zbek olimi Sharipova Oqibat Aminjonovna (2021) o‘zbek ma’rifatchilarining merosini yoshlar tarbiyasida qo‘llashni taklif etadi, bu globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni saqlashga yordam beradi [16].

Ikkinchidan, etnografiya va aralash usullar: ijtimoiy tarmoqlarda kuzatish orqali emotsiyalar farqini o‘rganish mumkin [6]. Yaqubova Shokhista Davronbek qizi (2024) internetdagi tahdidlardan himoya qilishda aralash metodlarni ta’kidlaydi, chunki yoshlar tajribasi kam va ular osonlikcha ta’sirlanadi [17].

Uchinchidan, big data va cultural analytics: Lev Manovichning usuli Instagram yoki Google Books ma’lumotlarini tahlil qiladi [7]. Raqamli gumanitar fanlar ijtimoiy media arxivlarini ishlatadi [8].

To‘rtinchidan, statistik va neyrovizual usullar: fMRI orqali o‘zlik farqlarini ko‘rish mumkin [9]. Obid G‘ulomov (2024) yangi O‘zbekistonda sotsial-madaniy omillarni o‘rganib, globallashuvdagi milliy-spiritual xavfsizlikni ta’kidlaydi [18].

Aralash usullar – so‘rovlar, big data va etnografiya – eng samarali, ayniqsa yoshlar ma’naviyatini tushunishda.

Natijalar

Zamonaviy usullar Sharqda kollektivizm, G‘arbda individualizmni tasdiqlaydi [4]. Ijtimoiy media tahlili Sharqda kontekstga, G‘arbda analizga urg‘u berilishini ko‘rsatadi [10]. Globallashuv yoshlar ma’naviyatini o‘zgartirib, Sharqda jamiyat qadriyatlarini, G‘arbda shaxsiy rivojlanishni kuchaytiradi.

So‘nggi tadqiqotlar Sharqda baxt darajasi pastligini kollektivizm bilan bog‘laydi [11]. Pandemiya vaqtida madaniy moslashuv farqlari kuzatilgan [12]. 39 mamlakatda relational mobility Sharqda past [3]. O. S. Otamuradov (2013) globallashuv va milliy-spiritual xavfsizlikni tahlil qilib, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sirlarni ta’kidlaydi [19].

Yosh avlodda farqlar kamaymoqda, lekin asosiy qoliplar saqlanmoqda [13].

Muhokama

Bu usullar an’anaviylarga qaraganda tezroq va kengroq ma’lumot beradi. Cultural analytics madaniy o‘zgarishlarni real vaqtda kuzatadi, lekin G‘arb platformalari dominantligi muammo [14]. Etnografiya chuqurlik beradi, ammo sub’ektiv.

Kitayama va Salvador (2024) dikotomiyani tanqid qilib, ekologik omillarga urg‘u beradi [3]. O‘zbekistonda Ismailova Gulbakhor Azamovna (2022) virtual tahdidlardan himoya qilishni taklif etadi, milliy qadriyatlar orqali yoshlar ma’naviyatini saqlashni [20]. Kelajakda AI bilan usullar rivojlanadi. Tadqiqotlar stereotiplardan qochishi kerak [5].

Bu usullar ta’lim va xalqaro munosabatlarda madaniy dialogni kuchaytiradi, ayniqsa yoshlar ma’naviyatini himoya qilishda.

Xulosa. Globallashuvda Sharq va G‘arb madaniyatlari yoshlar ma’naviyatini shakllantiradi. Hofstede modeli, big data va aralash usullar bu farqlarni ochib beradi. O‘zbek olimlari tadqiqotlari asosida milliy ma’naviyatni himoya qilish muhim – bu globallashuvning asosiy jihati. Kelajakda AI integratsiyasi tadqiqotlarni yanada samarali qiladi, etik masalalarga e’tibor bilan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nisbett, R. E. (2003). The Geography of Thought: How Asians and Westerners Think Differently... and Why. Free Press.
2. Markus, H. R., & Kitayama, S. (1991). Culture and the self: Implications for cognition, emotion, and motivation. Psychological Review, 98(2), 224–253.
3. Kitayama, S., & Salvador, C. E. (2024). Cultural psychology: Beyond East and West. Annual Review of Psychology, 75.
4. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). Cultures and Organizations: Software of the Mind. McGraw-Hill.
5. Oyserman, D., Coon, H. M., & Kemmelmeier, M. (2002). Rethinking individualism and collectivism: Evaluation of theoretical assumptions and meta-analyses. Psychological Bulletin, 128(1), 3–72.
6. Masuda, T., & Nisbett, R. E. (2001). Attending holistically versus analytically. Journal of Personality and Social Psychology, 81(5), 922–934.

7. Manovich, L. (2020). Cultural Analytics. MIT Press.
8. Bail, C. A. (2014). The cultural environment: Measuring culture with big data. Theory and Society, 43(3-4), 465–482.
9. Vignoles, V. L., et al. (2016). Beyond the 'east-west' dichotomy: Global variation in cultural models of selfhood. Journal of Experimental Psychology: General, 145(8), 966–1000.
10. Talhelm, T., et al. (2014). Large-scale psychological differences within China explained by rice versus wheat agriculture. Science, 344(6184), 603–608.
11. Choi, E. (2025). Unraveling why happiness levels vary across cultures. Social and Personality Psychology Compass.
12. Talhelm, T., et al. (2023). How rice fights pandemics. Personality and Social Psychology Bulletin.
13. Kong, F., et al. (2024). Sociability across Eastern–Western cultures. Scandinavian Journal of Psychology.
14. Boyd, D., & Crawford, K. (2012). Critical questions for big data. Information, Communication & Society, 15(5), 662–679.
15. Daminova M. A. (2021). The Effect of Globalization on Youth Education. International Journal of Academic Management Science Research, 5(2).
16. Sharipova O. A. (2021). The Importance of The Spiritual Heritage of Uzbek Enlighteners in the Education of Youth. International Journal on Orange Technologies, 3(7).
17. Yaqubova Sh. D. (2024). Spiritual and Moral Education of Today's Youth. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 23.
18. G‘ulomov O. (2024). Specific Characteristics of Social-Cultural Factors Affecting the Spiritual Development of Youth in New Uzbekistan. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 3(8).
19. Otamuradov O. S. (2013). Globalization and National-Spiritual Security. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
20. Ismailova G. A., Moydinova M. (2022). Globalization in the Process the Student is the National Values of the Youth in the Spirit Bring Up Necessity. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(12).

TURKIY DUNYO YOSHLARI: BIRDAMLIK SARI BIR YO`L

Hakimova Nargiza Feruz qizi
Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Kirish. Turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlik, tarixan, umumiy ildizlar, madaniyat va qadriyatlar bilan mustahkamlangan. Bu xalqlarning umumiy kelib chiqishi, qadimiy davlatchilik an’analari, urf-odatlari va til birligi ularning o‘zaro aloqalarini

mustahkamlashga xizmat qilgan. Masalan, Alp Er Tunga davridan boshlab, turkiy xalqlar o‘zaro do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirib kelganlar. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning madaniy merosi, san’ati va ilm-fani jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan.

Bugungi kunda bu birdamlikni yoshlar orasida yanada rivojlantirish, ularning salohiyatini birlashtirish va kelajakda birgalikda ishlashga yo‘naltirish zarurati ortib bormoqda. Yoshlar — bu xalqlarning kelajagi, ularning madaniyati, tili va qadriyatlarini davom ettiruvchi avloddir. Shu bois, turkiy tilli yoshlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ularning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash va birgalikda ishlashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

Turkiy tilli yoshlar forumi ana shu maqsadni ko‘zlab tashkil etilgan. Ushbu forum turkiy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash, tajriba almashish, hamkorlikni rivojlantirish va xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni yoshlar orasida targ‘ib qilishga qaratilgan. Forumlar, festivallar va boshqa tadbirlar orqali yoshlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mustahkamlanmoqda. Masalan, 2022-yilda Buxoro shahrida o‘tkazilgan IV Yosh liderlar forumi doirasida Buxoro shahri "Birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti" deb e’lon qilindi. Shuningdek, 2023-yilda Qo‘qon shahrida birinchi "Turkiy tilli yoshlar xalqaro festivali" o‘tkazildi, unda Ozarbayjon, Turkiya, Qirg‘iziston va Qozog‘istondan yoshlar ishtirok etdi.

Ushbu tadbirlar yoshlar o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlash, madaniy almashinuvni rivojlantirish va turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni yoshlar orasida targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu kabi tadbirlar yoshlarning salohiyatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va turkiy xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam bermoqda.

Shunday qilib, turkiy tilli yoshlar o‘rtasidagi birdamlikni mustahkamlash, ularning salohiyatini birlashtirish va kelajakda birgalikda ishlashga yo‘naltirish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar yoshlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, madaniy almashinuvni rivojlantirish va turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni yoshlar orasida targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Materiallar va usullar. Turkiy dunyo mushtarak tarixiy ildizlar, til an’analari va madaniy qadriyatlari bilan bog‘langan ko‘plab davlat va xalqlarni birlashtirgan noyob geosiyosiy mintaqadir. Bu mintaqaga kirgan mamlakatlar milliy o‘ziga xosligi va tarixiy o‘z taqdirini belgilashda muhim rol o‘ynaydigan boy madaniy merosga ega. Turkiy dunyoning global ahamiyati uning Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi geosiyosiy mavqeyi, shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkaz va Sharqiy Yevropada barqarorlik va hamkorlikni ta’minlashdagi roli tufayli ortib bormoqda.

Turkiy xalqlar O‘rta Osiyodan Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa va Sibirgacha bo‘lgan hududlarda istiqomat qiluvchi ulkan etnik va madaniy guruhdir. Ularning kelib chiqishi qadimgi turkiyzabon qabilalarga borib taqaladi, ildizlari O‘rta Osiyo dashtlari bilan bog‘liq. VI asrda hozirgi Qozog‘iston va Mo‘g‘uliston hududida ilk Turk xoqonligi davlati tashkil topdi va bu turkiy o‘zlikni shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu davlatning qulashi va qabilalarning keyingi ko‘chishi turkiyzabon aholining keng hududlarga

tarqalishiga olib keldi. Bu esa ularning madaniy tabaqalanishiga hissa qo‘shdi. Biroq ularni birlashtiruvchi bir qator umumiy elementlar hozirgi kungacha saqlanib qoldi. Turkiy qabilalar yuqori harakatchanlikka ega edi. Ular turli xalqlar bilan faol aloqada bo‘lib, madaniy elementlarning o‘zaro kirib borishiga sezilarli hissa qo‘shgan, lekin ayni paytda an’anaviy turkiy urf-odatlar va e’tiqodlarning barqarorligini saqlab qolgan. Turkiy xalqlarning til ildizlari mushtarakligi ulardagi o‘ziga xoslik shakllanishiga xizmat qilgan. Oltoy tillari oilasiga kiruvchi turkiy tillar hozirgi kungacha turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunarlilikni saqlab kelmoqda. Turkiy tillarning umumiy leksik va grammatik asosi yagona etnomadaniy makonga mansublikni anglashni qo‘llab-quvvatlovchi madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida dunyo xalqlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayonda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarga qaytish va madaniy yaqinlik negizida birdamlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turkiy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yosh avlod – turkiy dunyo yoshlari oldida buyuk maqsadlar turibdi: o‘zaro anglashuv, madaniy hamkorlik va ijtimoiy birdamlik sari yo‘l qurish.

Turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlikning asosiy omillaridan biri bu ularning umumiy madaniy qadriyatlari va urf-odatlaridir. Turkiy xalqlarning urf-odatlari va marosimlari ularning madaniy birligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, turkiy xalqlarda to‘ylar, nikoh marosimlari, dafn marosimlari va boshqa hayotiy voqealar bilan bog‘liq an’analar mavjud. Bu marosimlar turli xalqlarda o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, umumiy qadriyatlar asosida shakllangan. Tarix davomida turkiy xalqlar o‘zaro aloqalarini, savdo-sotiqni, diniy va madaniy almashinuvni rivojlantirib, o‘z madaniyatlarini boyitganlar. Masalan, Turk xoqonligi davrida moniylik ta’limoti, turklarning diniy e’tiqodiga ta’sir ko‘rsatib, ularning urf-odatlari va marosimlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Bu davrda sug‘dlar bilan bo‘lgan aloqalar orqali turklar o‘z madaniyatini rivojlantirganlar.

Turkiy xalqlarning til va yozuv madaniyati ham ularning o‘zaro birdamligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda topilgan O‘rxun-Enasoy yozuvlari, turkiy xalqlarning qadimgi yozma yodgorliklari sifatida, ularning tarixiy va madaniy merosini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yozuvlar turkiy xalqlarning o‘zaro aloqalari, diniy e’tiqodlari va madaniy yutuqlarini aks ettiradi . Shuningdek, turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi, she’riyat va dostonlari ham ularning birdamligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashuv va o‘zaro ta’sir ularning san’ati, musiqa, adabiyot va boshqa sohalarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, turkiy xalqlarning mumtoz she’riyati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, aruz vazni asosida yaratilgan. Bu she’riyat shakli turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Turkiy xalqlar she’riyatida aruz vaznining keng qo‘llanilishi ularning madaniy va adabiy aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Aruz tizimi turkiy xalqlar she’riyatiga IX-X asrlarda kirib kelgan va bu jarayon davomida turli xalqlar o‘rtasida madaniy almashuv va o‘zaro ta’sirni

kuchaytirgan. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida aruz tizimini turkiy tilga moslashtirib, turkiy xalqlar she’riyatida aruzning o‘rni va ahamiyatini belgilab bergan. Aruz vaznining turkiy xalqlar she’riyatida qo‘llanilishi ularning adabiy aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Masalan, turkiy xalqlarning mumtoz she’riyatida aruz vaznining qo‘llanilishi ularning til va madaniyatidagi umumiylikni ko‘rsatadi. Bu esa turkiy xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" asarida keltirilgan she’riy parchalar, turkiy xalqlarning og‘zaki ijodining qadimiy qatlamlarini aks ettiradi va ularning madaniy birligini ko‘rsatadi. Turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni rivojlantirishda, ularning umumiy tarixiy ildizlari, til an’analari va madaniy qadriyatlarini o‘rganish va targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali yoshlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlikni mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, turkiy xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni rivojlantirish, ularning global miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Turkiy tilli yoshlar o‘rtasida madaniy birdamlikni mustahkamlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda turizm sohasi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida amalga oshirilayotgan qo‘shma tashabbuslar, xususan, “Buyuk Ipak yo‘li” va “Tabarruk ziyorat” loyihalari, turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy rishtalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

“Buyuk Ipak yo‘li” loyihasi Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjonning tarixiy shaharlarini o‘z ichiga olgan transchegaraviy turizmni rivojlantirishga qaratilgan. Bu loyiha nafaqat madaniy merosni asrab-avaylash, balki sayyohlar va infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

“Tabarruk ziyorat” loyihasi esa Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar bilan turizm sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, ziyorat va madaniy meros ob’ektlariga turlarni tashkil qilish, yangi sayohat marshrutlarini ishlab chiqish, ziyorat va madaniy-tarixiy turizm doirasida muntazam targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Bu loyiha doirasida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon, Termiz kabi tarixiy shaharlarda buyuk allomalarning ilmiy va madaniy merosi to‘g‘risida seminar, simpozium, konferensiya, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish rejalashtirilgan .

Turizm sohasi, ayniqsa, transport infratuzilmasini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali turkiy dunyo mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasiga hissa qo‘shmoqda. Aeroportlar, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llariga sarmoya kiritish mamlakatlar o‘rtasidagi transport aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, Turkiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi havo aloqalarining yaxshilangani so‘nggi yillarda sayyohlar sonining o‘sishiga yordam berdi.

Madaniy turizmni rivojlantirishda TURKSOY va Xalqaro turk akademiyasi kabi tashkilotlar muhim rol o‘ynamoqda. TURKSOY turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, umumiy moddiy va madaniy merosni asrab-

avaylashni o‘z oldiga maqsad qilgan. Xalqaro turk akademiyasi esa turk dunyosini tadqiq etish, til va adabiyotini keng o‘rganish, ilmiy va ta’lim faoliyatini chuqurlashtirish bo‘yicha faoliyat yuritmoqda.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida yoshlar uchun turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Masalan, 2018-yilda Boku shahrida Turkiy kengashning birinchi talabalar o‘yinlari (Turkiya Universiadasi) bo‘lib o‘tdi. Butunjahon ko‘chmanchilar o‘yinlarining muntazam o‘tkazilishi ham turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi madaniy-tarixiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston turkiy xalqlar tarixida asosiy madaniy markazlardan biri sifatida muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatimiz Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida madaniy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ilgari surib kelmoqda. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi mukofotni ta’sis etish taklifi muhim ahamiyatga ega. 2020–2021-yillarda Xiva shahri Turkiy dunyo madaniy poytaxti deya e’lon qilindi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, turkiy tilli yoshlar o‘rtasida madaniy birdamlikni mustahkamlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda turizm sohasi muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar va tashabbuslar bu yo‘nalishda muhim qadamlar bo‘lib, kelajakda yanada kengaytirilishi zarur.

Yoshlar – har qanday jamiyatning harakati va kelajagi. Turkiy yoshlar bugun nafaqat milliy g‘urur va iftixor timsoli, balki o‘zaro bog‘lovchi ko‘priklar quruvchisidir. Yoshlarga ta’lim, fan, texnologiya, madaniyat va sport sohalarida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mushtarak loyihalar, xalqaro forumlar, talabalar almashinuvi dasturlari orqali turkiy yoshlarga bir-birlarini yaqindan tanish, tajriba almashish, do‘stlikni mustahkamlash imkoniyati berilmoqda. Bugungi raqamli asrda IT, startaplar, sun’iy intellekt va ilmiy izlanishlar sohalarida turkiy yoshlar o‘zaro hamkorlikni kengaytirishlari zarur. Masalan, turkiy tilli davlatlar orasida umumiy onlayn platformalar, o‘quv resurslari, tarjima markazlari, fan olimpiadalari va virtual forumlar tashkil etilishi yoshlarning raqamli savodxonligini oshiradi, shu bilan birga, ularni umumiy maqsadlar sari birlashtiradi.

Xulosa. Turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy va madaniy umumiylik yoshlarda birdamlik tuyg‘usini mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. Forumlar, festivallar, turizm va madaniy almashinuv orqali yoshlar bir-biriga yaqinlashmoqda, umumiy qadriyatlarni anglashi kuchaymoqda. Turkiy dunyo yoshlari birdamlik sari bir yo‘lni barpo etishda faol qatnashmoqda va bu harakatni qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifadir. Bugungi kunda turkiy xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat tarixiy ildizlarga, balki zamonaviy tashabbus va sa’y-harakatlarga ham asoslanmoqda. Buxoro shahrining “Birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti” deb e’lon qilinishi, Qo‘qonda o‘tkazilgan “Turkiy tilli yoshlar” xalqaro festivali, shuningdek, Qozog‘istonda boshlangan TÜRKSOY yoshlar forumi kabi tadbirlar, yoshlar o‘rtasida o‘zaro anglashuv va do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu kabi tashabbuslar orqali turkiy yoshlarda o‘z milliy va madaniy merosiga bo‘lgan hurmat, o‘zaro hamjihatlik va birdamlik tuyg‘ulari yanada kuchaymoqda. Yoshlar, o‘z navbatida, bu qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish

mas’uliyatini chuqur his etmoqda. Shunday ekan, turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy va madaniy umumiylikni mustahkamlash, yoshlar o‘rtasida birdamlikni rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan harakatlar, nafaqat bugungi kun uchun, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘ldagi sa’y-harakatlarimiz, albatta, barakali mevalarini beradi.

References:

1. https://jadid.uz/turkiy-meros-va-turizm/
2. https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/umumiy-madaniy-rishtalar-turkiy-davlatlar-ham
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_xalqlar

TA’LIM TASHKILOTLARINI IJTIMOIY - PSIXOLOGIK KLASTER YONDASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

Hamroyeva Malika
Tashkent international university of education magistranti

Informatsion jamiyat ta’lim tizimini isloh etish, bo‘lajak mutaxassisni kasbga tayyorlash, kasbiy qayta tayyorlash, malakasini oshirish va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlaydigan zamon talabiga mos professional kadrlarni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan kreativlikni inkor etib, bir tomonlama yondashuvga asoslangan ta’lim tizimi bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shuning uchun uni doimiy takomillashtirib, taraqqiy etgan mamlakatlar ta’limiga integratsiyalashuvini ta’minlash davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida klasterli yondashuvning joriy etilishi o‘ziga xos yangicha yondashuv bo‘lib, sifatli ta’lim berish va mutaxassis tayyorlashni kafolatli dasturidan biri ekanligini amaliyotda ko‘rsatmoqda.

XXI asr pedagogikaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy sohasida "ta’lim klasteri" tushunchasini MTT tizimidan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan uzluksizlikni ta’minlovchi ta’limning yagona tizimi sifatida qarash davr talabi bo‘lib qolmoqda. Klaster-o‘quv, ilmiy, ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlarning o‘zaro aloqasi va ular asosida OTMdan keyingi ta’limning turli bosqichlarida nazariy va amaliy dasturlarning uzluksizligini hisobga olgan holda ma’lum jarayon doirasida, turli xil ta’lim faoliyati shakllarini amalga oshirish hamda ta’lim sohasida ijtimoiy sheriklik tamoyiliga asoslanadi. Bu jarayonni mazmunan boyitilgan va zamon talabiga mos istiqbolli ta’lim dasturi deb e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim hamda oliy ta’lim tizimidagi bosqichlarida ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash, sohaga oid mamlakat ichida va tashqarisida, shuningdek, rasmiy va norasmiy (ta’lim olish) malaka oshirishdagi uzluksizlik modeliga asoslanadi. "Ta’lim klasteri" milliy ta’limni rivojlantirishning hozirgi bosqichi zamonaviy asoslangan yondashuv bo‘lib, MTTdan oliy ta’limgacha bo‘lgan ta’limdagi nazariy bilimlar bazasi bilan kasbiy va amaliy faoliyatning

dolzarb ehtiyojlari o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy masalalar mohiyatini o‘zida aks ettirgandir. Klaster tushunchasini ijtimoiy sohalarga kirib borishi, mohiyati va mazmun jihatdan sohalararo rivojlanishdagi o‘rni uning samaradorligi bilan ifodalanadi. Klaster yondashuvi ko‘p turli tuzilmalarni anglatib, o‘zaro muvofiqlashgan jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, ma’lum maqsad sari faoliyatlar birligini ta’minlash mexanizmlari taklif etgan holda, umumiy xususiyatga ega va an’anaviy rivojlanish tizimini keng ko‘lamli omillarini tavsiya etadi. T.M.Glushanok, T.I.Volchok, R.V.Golovanov kabi tadqiqotchilar klaster yondashuvi ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqligi va samarasizlik omillarini bartaraf etib, murakkab tartibga solish bilan bog‘liq hamkorlik jarayonini ta’minlaydi degan ilmiy qarashga egadir. Shuningdek, klaster tushunchasini ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlangan yondashuv sifatida shakllantirishdan oldin, ushbu tushunchani ta’lim sifati va mazmuni bilan bog‘lay olish kabi omillariga e’tibor qaratish va aniq dasturlarga muvofiqlashtirish lozim. [3,4,5] Ta’lim klasteri hududiy ta’lim tizimlari samaradorligini ta’minlab, ta’ lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi hamdaishlab chiqarish korxonalari bilan ilmiy-tadqiqot loyihalarini tashkil etish, ta’lim samaradorligini oshirish va logistikasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan institutlari va hokimiyat organlari o‘rtasida konstruktiv munosabatlarni o‘rnatishga xizmat qiladi. Ta’lim klaster yondashuvi hududiy va mintaqaviy ijtimoiy-siyosatning mazmunini tubdan o‘zgartiradi. U o‘zaro hamkorlik konsepsiyasini amaliyotga kirib borishiga, ta’lim tashkilotlari hamda hokimiyat organlari sa’y-harakatlarini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va institutlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini rivojlantirishga zamin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, bu yondashuv birinchi navbatda o‘zaro hamkorlik tizimiga muvofiqlashganligi bilan muhimdir. O‘z navbatida, zamonaviy jamiyat uchun ta’lim klasterning dolzarbligi MTTda oliy ta’limgacha bo‘lgan tafovutlarni bartaraf etish, muvofiqlashagan logistik yondashuv va o‘zaro hamkorlik konsepsiyasini rejalashtirishni rad etish omillariga chek qo‘ygan holda, hududiy va mintaqaviy ta’lim tarmoq tizimining qulashi hamda sifatsiz o‘qitish jarayonlarini kompleks bartaraf etib, tanazzulga uchrayotgan kadrlar tayyorlash tizimini omilkorlik sari olib chiqishga zamin bo‘ladi. Natijada yangi ijtimoiy siyosatning vositasi va ayni paytda maqsadlari sari hamkorlik, ijtimoiy sheriklik tuzilmalarga tabiiy talab shakllandi. Ta’kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday tuzilmalarni yaratish qiyin bo‘lib, iqtisodiy faoliyatning avtonom sub’ektlari markazlashtirilgan boshqaruvga mos kelmaydi hamda u avtomatik tizimga moslashmagan. Shuning uchun ta’lim klasterini joriy etishda va uni to‘liq ijtimoiy jamiyatga singib ketish jarayonida muvaqqat “qo‘l boshqaruvi” mexanizmidan foydalanish tavsiya etiladi. Klasterlash jarayonlarini tashqi rag‘batlantirish muhimligiga qaramay, masalan, davlat siyosati shaklida, har bir klasterda asosiy o‘rinni uning tarixi, mahalliy institutsional muhitdan ajralmas bo‘lgan oldingi rivojlanish trayektoriyasi va xususiyatlari egallaydi. Klaster siyosatining samarali choratadbirlarini ishlab chiqish tartibga solish ob’ektini noaniqligi, faoliyatni baholash mezonlarining rivojlanmaganligi va nomuvofiqligi, prognozlashning adekvat usullarining yo‘qligi bilan murakkablashadi, bu tushunish va tushunishga ilmiy asoslangan yondashuv

zarurligini belgilaydi. Qayd etilgan muammolarning asosiy manbalari klaster turlarining dinamik tabiati va xilma-xilligi bo‘lib, ularni o‘rganish va rivojlantirishga tizimli yondashuvning yo‘qligi bilan murakkablashadi."Klaster" tushunchasi birinchi marta XX asrning 80-yillarida iqtisodiyotda shuhrat qozongan va u erda birinchi marta iqtisodiyot nazariyasida Maykl Porter tomonidan qo‘llanilgan. Bu yerda klasterni shakllantirish mexanizmining batafsil tavsifi "bir-birining raqobatbardoshligi o‘sishiga o‘zaro hissa qo‘shadigan firmalar, chambarchas bog‘liq tarmoqlar" sifatida berilgan. M.Porter iqtisodiy klaster ta’rifini ommalashtiruvchi sifatida ko‘rsatib, korxonalar raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan iqtisodiy muhitining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi degan qarashni ilgari suradi. Ta’kidlash lozimki, mehnat bozorining talablari ortib borayotganligi, bugungi sharoitda kasblarga qo‘yilayotgan talab va mutaxassis malaka doirasi kengaymoqda. Jamiyatda kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq loyihalarni zamon talablariga muvofiqlashtirish, mazmunan boyitish, muhim ahamiyat kasb etib, pedagog-psixolog mutaxassislarini tayyorlash uchun zamonaviy tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq. Pedagogik-psixologik klaster yondashuvi nazariyasiga muvofiq ta’limni rivojlanishi uzviylik va uzluksiz omillari negizida tashkil etilishi e’tirof etilgan bo‘lib, u ta’lim integratsiyasi va yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish kabilarni o‘z ichiga olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, fanlarning nazariy va amaliy o‘zaro integratsiyasini pedagogik-psixologik klaster yondashuvi doirasida uzluksiz ta’lim tizimidagi yangi g‘oyalar va texnologiyalar negizida muvofiqlashtirishni taqozo etib, quyidagilar bilan asoslanish maqsadga muvofiq:

- olingan nazariy bilimlar va amaliy faoliyatdagi qo‘llanilishi bilan bog‘liq tizimli ta’limni tashkillashtirish hamda yangi g‘oyalar va texnologiyalarni amaliy faoliyat va mehnat bozori talablarga muvofiqlashtirish;

- jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, ijtimoiy sohalar faoliyati istiqbollarini prognozlashtirish asosida, klaster doirasida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash. Mutaxassis tayyorlash ta’lim tizimi va ishlab chiqarish tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokdagi ko‘p qirrali faoliyat jarayondir.

O‘zaro hamkorlik orqali ijtimoiy sheriklikdan, ijtimoiy hamkorlik modeli tomon harakatlanishda ta’lim klasterini imkoniyatlarini hisobga olish talab etiladi. Ta’lim klasteri mamlakatda birinchi navbatda mavjud ta’lim tizimini saqlash va rivojlantirish hamda faoliyatini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, mavjud dasturlar asosida ish beruvchi, OTM, va boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga olgan “alyans”ni faoliyatini ifoda etadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan maqsadli pedagogik-psixologik klaster loyihalar real vaziyatda kelib chiqib rejali tashkil etilmaganligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazarda tashkiliy jihatdan rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bugungi jamiyat uchun real ehtiyojdir. Pedagogik-psixologik sohasida ta’lim xizmatlari va innovasion kurslar maqsadli tashkillashtirish, ishlab chiqish va fanlararo integratsion dasturlarni yaratish, ta’limni boshqarish tizimini ma’lum ma’noda “qo‘l boshqaruvi” mexanizmiga muvofiqlashtirish mehnat bozori ehtiyojlarini ta’lim xizmatlari asosida qondirish imkoniyatini beradi. Pedagogik-psixologik sohasida xorij ta’lim xizmatlarini

integratsiyalashtirish jarayonlarida birinchi o‘rinda mahalliylashtirish talablarini kun tartibiga olib chiqish,milliy kadrlarni yuqori saviyada tayyorlash, xalqaro tadqiqot va ishlanmalar yuzasidan PTIK doirasida muvofiqlashgan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ustuvor masala etib belgilanishi kerak. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yagona ta’lim siyosati va zamonaviy yondashuvlar, fanning kundalik hayotda qo‘llanilishidagi integratsiyasining innovatsion komponentlarini samarali rivojlantirish va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh pedagogik ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yilganligi, innovatsion mexanizm yaratilishi uzluksiz ta’lim mazmunini belgilamoqda. Ta’lim klasterlarini samaradorlikni ta’minlovchi omil sifatida belgilashi hamda pedagogik sohaga tatbiq etishning o‘ziga xos milliy modellarini yaratilishi, amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy jihatdan jarayonni muvofiqligini ta’minlash imkoniyatini yuzaga chiqarmoqda. Ta’lim klasterining asosiy maqsadi etib – mahalliy va mintaqaviy innovasion infratuzilmani shakllantirish, uning negizida raqobatbardosh ta’lim mahsulotini yaratish bo‘lib, OTM hamda ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish tashkilotlari hamkorligini maqsadli rivojlanish istiqbollari belgilangan. Maqsadli yondashuv uzluksiz ta’lim jarayonini modellashtirish uchun asos bo‘lib, ijtimoiy hamkorlik masalalarini optimallashtirish, o‘quv, ilmiy va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirishdir. Maqsadli yondashuvdan ko‘zlangan asosiy vazifa, ta’lim muassasa, ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarining faoliyat samaradorligini ta’minlashdir. Klasterli yondashuvda mutaxassis malakasini oshirishda nazariy va amaliy jihatdan o‘zaro tajriba almashish, bilimlarni mustahkamlash hamda yagona axborot muhitini yaratish omillari bilan asoslanadi. Maktab, institut miqyosida malaka oshirish va tadqiqot institutlari o‘zaro aloqalarni amalga oshirishi kasbiy tayyorgarlikni, ta’limi tizimini nazariy, ilmiymetodologik va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, o‘qituvchilar tarkibini axborot ehtiyojlariga muvofiq ravishda malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish talab etiladi. Ushbu yondashuvga muvofiq, klaster doirasida faoliyatini tashkil etish va ishtiroki xususiyatiga ko‘ra ayrim tashkilotlarning o‘rni va roli uzoq va qisqa muddatli, birlamchi va ikkilamchi etib belgilanadi. Bu hamkor tashkilotlar uchun faoliyatni birgalikda rejalashtirishni, maqsad va vazifalar bo‘yicha kelishuvni, o‘zaro aloqalarning aniq jadvalini ishlab chiqishni, o‘zaro hamkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, zarur resurslarning mavjudligini nazarda tutadi. Ta’lim klasteri doirasida ta’lim loyihalarini ishlab chiqish, maqsadga muvofiqligini ta’minlash, faoliyatda ehtimoliy yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy jarayonlarni bartaraf etish mexanizmini shakllantirish hamkorlikning istiqbolli tomoni hisoblanadi. Axborot uzatishda zamonaviy texnologik mexanizmlardan foydalanish va kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, mavjud vositalarini birlashtirish amaliy zarurati keltirib chiqaradi. Pedagogik-psixologik klaster yondashuvi ta’limning har qaysi bosqichida ijtimoiy zarurat bo‘lib, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, litsey, professional ta’lim, oliy ta’lim hamda oliy ta’limdan keyingi ta’limning innovatsion aloqadorlik omili bo‘lib, manfaatli akademik mobillikni ifodalaydi. Ta’lim muassasasida

yuzaga keladigan muammo pedagogik-psixologik klaster asosida bartaraf etish yo‘llari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, uni pedagogik- psixologik diagnostika, pedagogik-psixologik korreksiya qilish hamda psixotrening usul va vositalari asosida bartaraf etish lozim. Xulosa qilib aytganda ilmiy tadqiqot ishida ta’lim klasterni pedagogikpsixologik omillari ijtimoiy-iqtisodiy makonda moslashuvchan tizimi nazariy jihatdan ko‘rib chiqish va tahlil etish maqsad etib belgilandi. Shu nuqtai nazardan muayyan tizimning xususiyatlarini o‘rganib chiqqandan so‘ng, klasterning pedagogik-psixologik omillarini tashqi ta’sirlar tufayli rivojlanish masalalarini nazariy jihatdan ilmiy mulohazalarga muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Ta’lim klasteriga amerikalik iqtisodchi M.Porter tomonidan, “klaster – ma’lum bir hududda faoliyat yurituvchi va umumiy faoliyat bilan ajralib turadigan va bir-birini to‘ldiruvchi... o‘zaro bog‘langan tashkilotlar guruhidir” degan ta’rifdan kelib chiqib, biz o‘zimizning mualliflik ta’rifimizni berdik. Bizningcha ta’lim klasteri, ta’lim berish va uni tashkillashtirishni nazariy va amaliy texnologik zanjir bilan uzviy bog‘langan, bir birini taqozo etuvchi ta’lim sub’ektlari va ob’ektlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turi bo‘lib, o‘zaro hamkorlikni konstruktiv muvofiqligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аврамова Е.М., Александрова О.А., Логинов Д.М. Социальная мобильность выпускников вузов. Социальная дифференциация высшего образования. С.В. Шишкин, отв. ред. Москва, 2005. -С. 159. 2. Ананьина Ю. В. Образовательная среда: развитие образовательной среды среднего профессионального образования в условиях сетевой кластерной интеграции / Ю. В. Ананьина, В. И. Блинов, И. С. Сергеев; под общ.ред. дра пед. наук, проф. В. И. Блинова. – Москва: Аванглион-принт, 2012. - С. 152.

3. Волчок Т. И. Профессионально-образовательный кластер как форма социального партнерства в подготовке кадров // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 25. – С. 18–20.

4. Глушанок Т.М. Социальное партнерство как средство повышения качества профессионального образования//Современные проблемы науки и образования. - 2008. -№ 6 -С. 80-83.

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Hasanova Madinabonu Ulug‘bek qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. Yosh avlod tarbiyasi jamiyatning bugungi kundagi eng ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, uning sifat darajasi mamlakatning kelajagi va intellektual salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimi, oila va madaniy muhit yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlari, ma’naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishida asosiy ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat

yuritadi. Ayni paytda globallashuv jarayonlari yoshlar ongiga turli mafkuraviy oqimlar, madaniy ta’sirlar kirib kelishini kuchaytirgan bir paytda tarbiya jarayonining izchil va tizimli bo‘lishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

1. Ta’lim tizimining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni

Ta’lim tizimi yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, madaniyati va ma’naviy qarashlarini shakllantirishning yetakchi instituti hisoblanadi.[23] Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayon insonning ijtimoiylashuvi, bilim va ko‘nikmalar egallashi bilan bir qatorda, uning axloqiy me’yorlari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik jarayonning zamonaviy metodlari, interfaol yondashuvlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyili tarbiya samaradorligini oshiradi.Shuningdek, Hozirgi kunda globallashuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, inson faoliyatining barcha sohalarini o‘z domiga tortayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ayniqsa, ba’zi nosog‘lom kuchlar, mafkuraviy va ma’naviy sohada o‘z g‘oya hamda mafkuralarini singdirish, ta’sir doiralarini kengaytirish maqsadida, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, globallashuv jarayonidan kengroq foydalanishga intilmoqdalar.

2. Madaniy muhitning tarbiyaviy omil sifatida ahamiyati

Madaniy muhit — muzeylar, teatrlardan tortib ommaviy axborot vositalarigacha bo‘lgan keng ijtimoiy maydon bo‘lib, yoshlarning estetik didi, milliy o‘zlikni anglash, madaniy savodxonlik darajasi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Axborot oqimining keskin oshgan davrida yoshlar turli madaniy ta’sirlarga duch kelmoqda. Bu jarayin nazoratsiz bo‘lishi ularning ma’naviyati uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu bois davlat va ta’lim muassasalari tomonidan madaniy-ma’rifiy dasturlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, yoshlarni teatr, muzey, madaniyat markazlariga jalb etish tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, Milliy va shaxsiy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar shundan iboratki, shaxslarning shaxsiy qadriyatlari ular o‘sgan ijtimoiy muhit va madaniy sharoit ta’siri ostida shakllanadi.O‘z navbatida, ushbu shaxsiy qadriyatlar milliy qadriyatlarning rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir qilishi mumkin, chunki har bir shaxs jamiyat va uning madaniy merosining bir qismidir.[24]

3. Oila — birlamchi tarbiya maktabi

Oila yosh avlod tarbiyasining bosh manbaidir. Bolaning ilk dunyoqarashi, xulq-atvori, qadriyatlari aynan oilada shakllanadi. Oilaviy muhitning sog‘lom bo‘lishi, ota-onaning ma’naviy namunasi, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat muhitining mavjudligi yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojiga bevosita ta’sir etadi. Oila va ta’lim muassasalari hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi esa tarbiya jarayonini yanada mustahkamlaydi. Ota-onalar tabiiy ravishda tarbiya jarayonining ajralmas qismidir. Har bir bolani mehr bilan ulg‘aytiradigan ona, oilasini o‘z yelkasida ko‘tarib yuradigan ota, hamjihatlikda kamol

[23] Karimov, A. O‘zbekiston ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning o‘rni va ahamiyati. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2021.

[1] UNESCO. (2023). Education and Cultural Environment in Youth Development. Paris: UNESCO Publishing.

topayotgan farzandlar – bularning barchasi jamiyatimizning sog‘lom bo‘lishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyamizda ham "Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir" deb belgilab qo‘yilgan.Bugun yurtimizda oila institutini mustahkamlash, ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularning ta’lim olishi, huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.Yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishda har bir oilaning o‘rni beqiyos. Aynan shunday muhitda mehr-oqibat, sabr-toqat va insoniylik fazilatlari avloddan avlodga o‘tadi

Xulosa. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila institutlari yoshlar tarbiyasining uch asosiy poydevoridir. Ushbu institutlarning uyg‘un va tizimli faoliyati yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi. Globallashuv sharoitida yosh avlod ongiga turli ta’sirlar kuchaygan bir davrda ta’lim, madaniyat va oila o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash dolzarb hisoblanadi. Ushbu uch institutning uyg'un va tizimli ishlashi yoshlarning sog'lom va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Globallashuv davrida turli xil ma'lumotlar va ta'sirlar yoshlar ongiga kirib kelishi mumkin, shuning uchun ta'lim, madaniyat va oila o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish yoshlarning to'g'ri yo'nalishda rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. “Education for Sustainable Development: Roadmap.” Paris, 2020

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori. “Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”, 2020.

4.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Ziyamuhammadova M. Ma’naviyat va madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi roli. – T., 2021.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, 2021.

7. Qodirov B. Oila va tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

YOSHLAR VA MEDIA: GLOBAL MA`NAVIY TAHDIDLAR

Hojiyev Farhod Jumaboyevich

“O`zbekiston 24” telekanali bosh muharriri, O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Bugun axborot makoni chegara bilmas xususiyat kasb etmoqda. Bu esa bir tomondan bilim va tajriba almashinuvi uchun keng imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan yoshlar ma'naviyati, milliy qadriyatlar va ma'naviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlarni vujudga keltirayapti.

Prezidentimiz SH.Mirziyov bu borada quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski,

o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”[1].

Global axborot oqimining asosiy iste'molchisi hisoblangan yoshlar ongi va ma'naviy dunyosiga ko‘rsatilayotgan axborotlar ta'sirini o‘rganish, milliy manfaatlar nuqtai nazaridan baholash, qolaversa, mediamakon va ma'naviy xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish har jihatdan ahamiyatli. Tahlillar ko‘rsatadiki, global media yoshlarda tanqidiy fikrlash, axloqiy qarorlar va milliy qadriyatlar kontseptsiyasiga sezilarli ta'sir qiladi. Shu bois yoshlar va mediamakon o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganish, yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi media omillarni tahlil qilish va ularga qarshi samarali choralarini ishlab chiqish lozim.

Ma'lumki, globallashuv - mamlakatlar va jamiyatlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy, siyosiy va axborot aloqalarining kengayishi jarayoni. Mediamakon ushbu jarayonning asosiy tashuvchisi sifatida maydonga chiqmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda zamonaviy mediamakon quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- axborot tarqalishining tezligi va ommaviyligi;
- raqamli platformalar ustuvorligi;
- kontent yaratishda markazlashuvning susayishi;
- auditoriyaning faol ishtirokchiga aylanishi.

Bu xususiyatlar ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasiga ham bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda.

Ma'naviy xavfsizlik — shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy qadriyatlari, madaniy merosi va axloqiy me'yorlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holatidir. Mediamakonda ma'naviy xavfsizlik quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- tarqatilayotgan axborot mazmuni va yo‘nalishi;
- kontentning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mosligi;
- axborot iste'molchilarining tanqidiy fikrlash darajasi.

Agar ushbu omillar yetarli darajada ta'minlanmasa, mediamakon ma'naviy tahdid manbaiga aylanishi mumkin.

Zamonaviy media makon an'anaviy OAVdan farqli ravishda interaktiv va tezkor xususiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir foydalanuvchi axborot ishlab chiqaruvchiga aylanmoqda. Bu esa yoshlar ongiga ta'sir etuvchi g‘oyalar ko‘lamini kengaytirayapti.

Bu o‘z navbatida yoshlarda media savodxonlik va mafkuraviy immunitetni shakllantirishni taqqozo etadi. Media savodxonlik yoshlarni axborotni tanqidiy qabul qilish, manbalar ishonchliligini baholash va axborot manipulyatsiyalarini farqlashga o‘rgatadi. Bu jarayon mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida mediamakonda quyidagi asosiy ma'naviy tahdidlar kuzatilmoqda:

Birinchidan, axborot manipulyatsiyasi va dezinformatsiya. Ya'ni, yolg‘on xabarlar, feyk kontent va manipulyativ texnologiyalar orqali jamoatchilik ongini boshqarishga bo‘lgan urinishlar kuzatilayapti.

Ikkinchidan, yot g‘oyalar va madaniy ekspansiya. Ayrim hollarda global media mahsulotlari milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan hayot tarzi va axloqiy me'yorlarni targ‘ib qiladi.

Uchinchidan, radikallashuv va ekstremistik kontent. Internet makonida radikal g‘oyalarning oson tarqalishi yoshlar ongi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

To‘rtinchidan, ma'naviy befarqlik va identifikatsiya inqirozi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar axborotning asosiy qismini aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qiladi. Bu esa tezkor, ammo yuzaki, yengil-elpi fikrlash, axloqsizlikni ochiq targ‘ib etayotgan vizual kontentlarga haddan ortiq moyillik, shuningdek an'anaviy ma'naviy manbalarga qiziqishning pasayishiga olib kelmoqda.

“So‘z erkinligi” niqobi ostida ayrim ijtimoiy tarmoqlar axloqsizlikni targ‘ib etish yo‘liga o‘tib oldi. Buni yoshlarimiz ongini zaharlashga qaratilgan jiddiy tahdid deb qarash lozim. Masalalan, Ibratli hikoya, Oq va qora uz, Qora marvarid, Sabosh Oficiall, Xumaraxon uz, Zamin uz TV, Qitmircha TV, Munira xuliganka va hakozo saytlardagi videolavhalarning aksariyatida axloqsizlik targ‘ib etilayapti.[2]

Global mediamakonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi ko‘plab davlatlar siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, bir qator mamlakatlarida raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish, zararli kontentni cheklash va feyk axborotga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus huquqiy mexanizmlar joriy etilgan.

Turkmaniston sekin ishlovchi, eng qimmat internetga ega mamlakatlar ro‘yxatida oldingi o‘rinlarda turadi. Mamlakatda Facebook, Twitter, VKontakte, YouTube kabi ommabop ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoni yo‘q. Faqat bitta «Turkmentelekom» nomli davlat provayderi bor, xolos. Ushbu davlatda internetga individual kirishga birinchi marta 2008-yilda ruxsat berilgan. Bu mamlakatda faqatgina Rossiyaning «Odnoklassniki» va «Mail Agent Chatting» ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanishga ruxsat berilgan.

Xitoyda ham Facebook, Twitter, YouTube va boshqa ko‘plab ijtimoiy tarmoqlar bloklangan. Xitoyning internetga nisbatan cheklovlari dunyoning boshqa barcha mamlakatlariga qaraganda ancha keng va murakkab. Noqonuniy onlayn kontentlarni olib tashlash va politsiyaga algoritmlar ishlab chiqishda yordam berish maqsadida sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarga katta miqdorda sarmoya kiritiladi. Den Syaopinning sevimli so‘zlari bo‘lmish «Agar siz derazani ochsangiz, toza havo ham, pashshalar ham uchib kiradi» – Xitoy xavfsizlik devori loyihasining siyosiy va mafkuraviy asosi hisoblanadi.

2021-yilning aprelida «Ijtimoiy media platformalarini blokirovka qilish» deb nomlangan buyruq bilan Pokiston telekommunikatsiya idorasi Twitter, Facebook, WhatsApp, YouTube va Telegram kabi ijtimoiy media platformalariga nisbatan kunduzgi

11:00dan 15:00gacha cheklovlar kiritgan. TikTok platformasi esa «axloqsiz va nomaqbul» videolar tarqatgani uchun to‘liq bloklangan.

Eronda dunyoga mashhur ko‘plab veb-saytlar bloklangan. Xususan, 2019-yildagi norozilik namoyishlari paytida bir hafta davomida internet to‘liq bloklab qo‘yilgan. Ayni vaziyatda mamlakatda Twitter, Facebook, WhatsApp, YouTube va Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha to‘liq taqiq joriy qilingan.

Avstraliyada 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar WhatsApp messenjeri, pochta dasturlari, onlayn-o‘yinlar va o‘quv loyihalaridan tashqari barcha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi taqiqlangan. Avstraliya bosh vaziri Entoni Albaneze OAVlari xodimlariga bergan bayonotida, ushbu qonun bolalarga normal bolalik o‘tkazishga yordam berishi, ota-onalarga ruhiy xotirjamlik baxsh etishi va boshqa mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi ta'kidlangan. Taqiq talablariga bo‘ysunmaslik holatida platformalar 49,5 million Avstraliya dollarigacha jarimaga tortilishi mumkin.

SurfShark kompaniyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, so‘nggi 5 yil ichida 60 dan ortiq mamlakat repressiya vositasi sifatida internet blokadalarini ishlatgan.

AQSh tajribasida so‘z erkinligi printsiplari saqlangan holda, media savodxonlikni oshirish va jamoatchilik nazorati orqali ma'naviy xavfsizlikka erishishga alohida e'tibor qaratiladi. Osiyo mamlakatlarida, jumladan Janubiy Koreya va Yaponiyada milliy madaniy kontentni qo‘llab-quvvatlash orqali global axborot bosimiga qarshi turish amaliyoti shakllangan.

Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda cheklovlardan ko‘ra tizimli ta'lim, milliy kontent va ijtimoiy mas'uliyat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham bu masalada alohida qonunchilik shaklanib, takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, 2017-yil 8-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi.[2]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida"gi qonunga quyidagi mazmunda 27-1-modda qo‘shilgan:

«Mulkdor va (yoki) operator O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlov berishda, shu jumladan internet jahon axborot tarmog‘ida ishlov berishda ularning jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida yig‘ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta'minlashi shart”.[3] Qonunning bu yangi moddasi 2021- yil 16- apreldan kuchga kirdi. Shu modda asos qilinib, Facebook, Telegram, Instagram, TikTok, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlar, Gmail, Mail.ru pochta xizmatlari va Google, Yandeks kabi internet servislar O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari joylashgan ma'lumotlar bazalarini (serverlari) jismonan O‘zbekistonga olib kelib saqlashlari shartligi aytilmoqda. Qonun qabul

qilinganini hisobga olsak, agar yirik kompaniyalar bu talablarni qabul qilmasa, O‘zbekiston hududida ularning faoliyatiga nisbatan chorlar ko‘rilishi tabiiy.

O‘zbekistonda axborot sohasini isloh qilish, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash bilan birga, milliy ma'naviy qadriyatlarni asrash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida"gi qonun, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid me'yorlar bu borada huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan nazoratsiz kontent, blogerlik faoliyatining tizimsizligi va ayrim hollarda axloqiy me'yorlarga zid materiallar ma'naviy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu esa sohada kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Axborot xavfsizligi ko‘pincha texnik va huquqiy masala sifatida qaralsa-da, uning ma'naviy jihati ham juda muhimdir. Zararli axborot, destruktiv g‘oyalar va psixologik ta'sir vositalari orqali jamiyat ma'naviy barqarorligiga putur yetkazilishi mumkin.

Shu bois axborot xavfsizligi strategiyalarida ma'naviy immunitetni shakllantirish, jamoatchilik ongini himoya qilish, milliy qadriyatlarni raqamli makonda ilgari surish kabi ustuvor vazifalarni belgilab olishni taqqozo etadi.

Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- maktab va oliy ta'lim muassasalarida axborot tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- yoshlarni salbiy kontentdan himoya qilishda filьtr va monitoring tizimlarini ishlab chiqish;

- ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun onlayn trening va konsultatsiyalarni ko‘paytirish kerak .

Ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo‘yicha amaliy takliflar:

Ta'lim tizimida media va axborot savodxonligi fanlarini kuchaytirish;

Milliy qadriyatlarga asoslangan sifatli media mahsulotlar yaratishni rag‘batlantirish;

Zararli axborot tarqalishiga qarshi zamonaviy huquqiy normalarni ishlab chiqib, qonunchilikni takomillashtirish;

Ota-onalar va jamoat tashkilotlarining mediatarbiyadagi ishtirokini kuchaytirish;

Mediamakondagi ma'naviy jarayonlarni doimiy ilmiy tahlil qilib, monitoringini yo‘lga qo‘yish.

- Media savodxonlik fanlarini joriy etish;

- Milliy raqamli kontentni qo‘llab-quvvatlash;

- Oila, ta'lim va OAV hamkorligini kuchaytirish.

Globallashuv va mediamakon yoshlar hayotida ham imkoniyat, ham xatarlarni yaratadi. Yoshlar ma'naviyati global va milliy muhitning o‘zaro ta'siriga bog‘liq. Shu bois mediata'limni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash orqali yoshlar ma'naviyatini muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi . Xalq so‘zi. 2017-yil 5-avgust.

2. https://lex.uz/docs/3333797

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Palatalarining Axborotnomasi, 2021- y., yanvar, № 1(1538), 5 -bet

4. Sultonov F.X., Hojiyev F.J. Ommaviy axboro vositalari(televideniye, ijtimoiy tarmoq va matbuot)da tarqatilayotgan ijtimoiy-siyosi materiallar ilmiy tahlili, Toshkent, “ART VERNISSAGE” nashriyoti, 2023- y.,

ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA INSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Hosiljonova E’zoza No’monjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Shoir bo‘lsang, bo‘lsin qalbing
Elga qurbon bo‘lgulik.
Shoir bo‘lsang, bo‘lsin xalqing
Senga qalqon bo‘lgulik.
Erkin Vohidov

She’r – ijodkor qalbining gavhari, uning ruhiy-hissiy kechinmalaridan bunyod bo‘lgan badiiy ifodadir. Ijodkor esa iste’dod ne’matini o‘zida jo qilgan, so‘zning chin ma’nodagi san’atkori bo‘lmish shoir va yozuvchilardir. Badiiy ijod muayyan odam ko‘nglini tadqiq etishi, uni o‘zgalar his etadigan darajada tasvirlay bilishi bilan diqqatga molikdir. Inson tuyg‘ulari o‘ta murakkab, g‘oyat nozik bo‘lganligi uchun ham uni haqqoniy va ta’sirli tasvirlash qiyin. Chunki insonning kechinma-yu hislari cheksiz bo‘lgani holda ularni ifodalash imkoniyati cheklangandir. Ijodkorning talanti darajasi inson qalbi iqlimlarini nechog‘liq to‘liq tadqiq eta bilish mahorati bilan o‘lchanadi. Odamning ko‘ngliga esa faqat samimiyat deb ataluvchi torgina so‘qmoq orqali kirib borish mumkin [3:207]. So‘z sehrgari Erkin Vohidov, shu ma’noda, o‘z so‘qmog‘iga ega bo‘lgan shoirdir. Uning she’rlarida Vatan, tabiat, do‘stlik, muhabbat kabi yuksak tushunchalar ulug‘lanadi. Jumladan, iste’dodli ijodkor kamtarlik haqida shunday yozadi:

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O‘par doim peshonasidan [2:15].

Kamtarlik – inson ma’naviy kamolotining go‘zal fazilatlaridan biridir. Dono xalqimiz: “Kamtarga kamol” , - deya bejiz aytmagan. Shoir hayotiy haqiqatlardan, ya’ni choynakning piyolaga egilishidan mohirona foydalanib, go‘zal badiiy tasvir yaratadi. Tashbeh badiiy

san’ati orqali inson kibrni yengib, kamtarin bo‘lishi kerakligi kitobxonga uqtiriladi. Muqaddas kitoblarda, hadislarda, adabiyotimizda ham barcha davrlarda kamtarlik ulug‘langan. Qur’oni Karimning Isro surasi 37-oyatida: “ Yer yuzida kibrlanib yurma. Chunki sen (oyoqlaring bilan) zinhor yerni tesha olmaysan va uzunlikda tog‘larga yeta olmaysan”, - deyilgan [4:283]. Alisher Navoiyning bir qit’asida kibr-u havo, manmanlik, mol-u davlat hirsi, mansabparastlik kabi nafsoniy istaklar “o‘zlik imorati”ning jihozlari ekani, ular buzilgach, ruhning boqiy ozodligi boshlanishi va “naqdi fano”ga da’vogar odamning o‘zligi Ishq otashida poklanib, vujudi mutlaq bilan topishishi yoritilgan:

Kimki, o‘zluk imoratin buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmayin solik,
Bo‘la olmas bu naqdga molik [1:55].

Erkin Vohidov she’riyati ham donishmandlik mevasidir. Xalq maqollarida “Boshoq to‘lgan sari yerga egiladi” , - deya naql qilingan. Shoir ana shunday ma’nolar mag‘zini bir tartibda tuzilgan so‘zlar orqali she’rning bag‘riga joylaydi. Zero, hazrat Rumiy ta’biri bilan aytganda, so‘z – libos. Ma’no – shu libosning ostiga yashiringan sir demak. Erkin Vohidov poetik tafakkuri g‘oyat keng va tiniq shoir. Hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qarash, ularning tub mohiyatini anglashga intilish, qaysi biri xayrli, qay biri soxtaligini aniqlay olish istagi shoirning har bir satriga hamroh. Erkin Vohidov ijodi jadal sur’atlar bilan kamolot cho‘qqisiga ko‘tarila olgani ayon. Ustoz adabiyotshunos Umarali Normatov lutf qilganlaridek, shoir qalamiga mansub har bir so‘z, har bir satr chindan ham — Ko‘ngillarga ko‘chgan she`riyatga aylandi [1:15]. Shoir she’rlarida Vatanga, ona tuproqqa, xalqqa va milliy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqat tuyg‘usi o‘zgacha ohangda ifoda etiladi. Shuning uchun ham adibning betakror ijodi hayotiyligi, xalqchilligi bilan milliy merosimiz xazinasining noyob durdonalaridan biri sanaladi. “Sadoqat” she’rida ham ona tuproqqa bo‘lgan muhabbat va vafodorlik kabi samimiy hislar “keksa qayrag‘och” obrazi orqali tasvirlangan:

Keksa qayrag‘ochning
Ildizin ochib,
Tortdilar qo‘sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo‘zg‘almasdi
Ungan yeridan…
Nihoyat gurs etib yerga quladi,
Butab, so‘ng ko‘tarib ketdilar, biroq —
U o‘z panjasida olib jo‘nadi
Yashagan yeridan
Bir siqim tuproq [2:99].

Qayrag‘och badiiy adabiyotda, asosan, sadoqat va vafodorlik ramzi sifatida talqin qilib kelingan. Erkin Vohidov qayrag‘ochning o‘zi o‘sgan tuproqdan qo‘zg‘almagani va alaloqibat yerdan sug‘urilganda ham ildizlari tuproqni qo‘yib yubormay uning ma’lum

qismini o‘zi bilan olishini judayam chiroyli jonlantiradi. Shoir keksa qayrag‘ochning o‘z yeriga bo‘lgan muhabbatini, sadoqatini o‘rnak o‘laroq tasvirlaydi.

“Yoshlik devoni”dan o‘rin olgan “ Do‘st bilan obod uying “ she’rida ham do‘stning qadami bilan vayrona uy qanchalik obod bo‘lishi yoinki buning aksi o‘laroq do‘st qadamisiz koshonaning vayronaga yuz tutishi ijtimoiy hayot mazmuniga muvofiq yoritilgan:

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham [2:151].

Do‘stga muhabbat, uni e’zozlash to‘g‘risida bitilgan ushbu bayt ohangdorligi bilan kishini o‘ziga jalb etadi. Shu o‘rinda aytish joizki, Abdulla Oripov shoir she’riyatiga baho berar ekan, shunday yozadi: “Men Erkin Vohidovni she’riyatda o‘ziga xos sehr sohibi deb bilaman. U she’riyatning o‘jar va asov, uchqur otini ustalik bilan jilovlab, mana uzoq yillardan buyon Sharqning sharafli nazm maydonida mohir chavandoz yanglig‘ dong chiqazib kelayotir”. Haqiqatan ham, Erkin Vohidov nazm maydonida o‘ziga xos badiiy uslub bilan mohir chavandoz bo‘la oldi. Umuman, shoir she’riyati o‘zining samimiyligi, teran ma’nosi va milliy qadriyatlarga tayangan obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Mazkur she’rlar ham shoir ijodining insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi, ma’naviy tarbiya beruvchi muhim namunalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati” mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston: 2020.
2. Ҳаккулов И. Камол ет касбким. — Тошкент :Чўлпон. 1991.
3. Орипов А. Сўз сеҳри. – Тошкент: Ўзбекистон. 2006.
4. Vohidov E. Ishq savdosi. — Toshkent: Sharq. 2000.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. — Toshkent. 2000.
6. Shayx Abdulaziz Mansur . Qur’oni Karim. — Toshkent: Sano-standart. 2021.
7. https://share.google/cYBSUgENiICbct0Uj
8. https://share.google/kbiAcPPVtF8YNbjxh

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI ASOSIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ibrohimjonova Feruza Ibragimovna
Andijon Davlat universiteti magistranti

Kirish. Globallashuv jarayoni bugungi kunda insoniyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, yoshlar ma’naviyati va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, ommaviy madaniyatning global modellari yoshlarning dunyoqarashini tezkor tarzda o‘zgartirmoqda. Bu holat bir tomondan bilim va tajriba almashinuvi, madaniyatlararo muloqot uchun keng imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, ma’naviy relativizm, iste’molchilik kayfiyati kabi salbiy tendensiyalarni kuchaytirishi mumkin.

Yoshlar ma’naviyati masalasi aynan globallashuv davrida alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan yosh avlod global axborot oqimiga eng ko‘p ulangan, yangilikni tez qabul qiladigan, shu bilan birga ma’naviy jihatdan ham eng sezgir qatlam hisoblanadi. Shu bois milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektik uyg‘unligi asosida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish va ularni ijtimoiy-falsafiy hamda pedagogik nuqtai nazardan asoslab berishdan iborat.

Globallashuv odatda iqtisodiy integratsiya, bozorlarning ochiqligi, tovar va kapital harakatining erkinlashuvi bilan bog‘liq tarzda talqin qilinadi. Biroq u, avvalo, madaniy va ma’naviy makonlarning o‘zaro aralashuvi, turli qadriyat tizimlarining uchrashuvi va to‘qnashuvi jarayonidir. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tufayli dunyoning turli nuqtalarida yaratilgan g‘oya, obraz, ramz va turmush tarzlari qisqa fursatda yoshlar ongiga kirib bormoqda.

Globallashuv davrida yoshlar qadriyat tizimida bir nechta asosiy tendensiyalar kuzatiladi:

– qadriyatlarning tezkor o‘zgaruvchanligi: kecha ideali bo‘lgan narsa bugun eskicha, ertaga esa mutlaqo boshqa ko‘rinishni olishi mumkin;

– individualizm va iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi: “men” manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yish, moddiy farovonlikni hayot maqsadi sifatida ko‘rish;

– ma’naviy relativizm: yaxshilik va yomonlik, halollik va xiyonat, fidoyilik va befarqlik o‘rtasidagi an’anaviy chegaralarning “xiralashishi”;

– virtual muloqotning ustuvorligi: real ijtimoiy aloqalar virtual tarmoqlar orqali muloqot bilan qisqarib borishi natijasida samimiy suhbat, ustoz-shogird an’anasi, katta-kichikka hurmat kabi qadriyatlarning zaiflashishi.

Agar globallashuv faqat tashqi madaniy ta’sirlar, ommaviy madaniyat mahsulotlari orqali biryoqlama qabul qilinsa, bu jamiyat ma’naviy mustaqilligiga, yoshlar identitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois globallashuvni nafaqat “xavf”, balki “imkoniyatlar maydoni” sifatida ko‘rib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhimdir.

Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyotida shakllangan ma’naviy, axloqiy, estetik, diniy, huquqiy me’yorlar, urf-odatlar, an’ana va ramzlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular jamiyatning tarixiy xotirasi, mentaliteti, milliy o‘zligining asosiy

tayanchidir. Til, din, marosimlar, oila va mahalla hayotiga oid qadriyatlar, tarixiy shaxslar merosi, milliy bayramlar milliy qadriyatlar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa millat, din, hudud va davrdan qat’i nazar barcha insonlar uchun dolzarb bo‘lgan, inson taqdirining umumiy ma’nosini ifodalovchi mezonlardir. Inson qadr-qimmati, hayot daxlsizligi, erkinlik, adolat, tinchlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektika quyidagicha namoyon bo‘ladi:

– milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy-madaniy shaklidir. Masalan, adolat qadriyati har bir xalqda mavjud, ammo u turli tarixiy davr va madaniyatlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi;

– umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarni baholash va yangilash uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. Agar ma’lum bir an’ana inson qadr-qimmati yoki adolat tamoyiliga zid bo‘lsa, uni qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qarama-qarshi qo‘yish, biri foydasiga boshqasidan voz kechish ma’naviy bo‘linishga olib keladi; aksincha, ularni uyg‘unlikda ko‘rish jamiyatda sog‘lom identitetni mustahkamlaydi.

Demak, yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratib qo‘yish emas, balki ularning kesishuvchi nuqtalarini topish, umumiy ma’naviy maydon yaratish muhimdir. Masalan, oila muqaddasligi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, halollik kabi milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan to‘laqonli uyg‘unlashgan holda yoshlar ongida mustahkamlanishi kerak.

Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlaydigan konseptual modelni bir necha darajada tavsiflash mumkin. Mazmuniy daraja - Ta’lim mazmunida, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida jahonda tan olingan umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy adabiyot, tarix, san’at, diniy-ma’naviy meros, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy shaxslar hayoti keng yoritilishi zarur. Har bir mavzu yoshlar ongida “men kimman?”, “qaysi ustun qadriyatlarga tayangan holda yashashim kerak?” degan savollarga javob topishga yordam berishi lozim. Metodik daraja - O‘qitish usullari va tarbiya shakllari yoshlarni faqat tayyor ma’lumotni qabul qilishga emas, balki qadriyatlar haqida mustaqil fikr yuritish, bahs-munozaralarda ishtirok etish, turli nuqtai nazarlarni solishtirishga undashi kerak. Bu jarayonda milliy qadriyatlar bo‘yicha ham, umuminsoniy masalalar – inson huquqlari, ekologiya, tinchlik, adolat kabi mavzular bo‘yicha ham ochiq muloqot zarur. Shaxsiy daraja - Har bir yosh o‘z hayot rejasini tuzar ekan, o‘z milliy o‘zligiga sodiqligini saqlagan holda global maydondagi imkoniyatlardan samarali foydalanishni o‘rganishi zarur. Masalan, chet elda tahsil olish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, turli madaniyat vakillari bilan muloqotda bo‘lish jarayonida milliy qadriyatlarni sharaflash, ayni paytda umuminsoniy qadriyatlarga ham hurmat bilan yondashish ma’naviy barkamollik belgisidir. Ijtimoiy institutlar darajasi - Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi faqat alohida shaxslar sa’y-harakati bilan emas, balki oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik

jamiyati institutlari hamkorligi orqali ta’minlanadi. Shu bois har bir institut o‘z faoliyatida mazkur uyg‘unlikni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rishi lozim.

Oila milliy qadriyatlarning tabiiy tashuvchisi va yetkazuvchisidir. Til, urf-odatlar, diniy marosimlar, hurmat-izzat, mehmondo‘stlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar avvalo oilada o‘rgatiladi. Shu bilan birga, ota-ona bolaga umuminsoniy qadriyatlar – boshqa millat va din vakillariga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik, kuchsizlarga yordam, zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik kabi tamoyillarni ham singdirishi zarur.

Ta’lim tizimi. Maktab va oliy ta’lim muassasalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ilmiy-nazariy asosda tushuntirish, yoshlarni tanqidiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ma’naviy ideal va hayotiy maqsadlarni aniqlashga ko‘maklashishi kerak. Tarix, adabiyot, falsafa, huquq, dinshunoslik kabi fanlar doirasida qadriyatlar masalasini yuzaki emas, balki chuqur tahlil qilish, bahslar, konferensiyalar, uchrashuvlar tashkil etish muhim.

Mahalla va fuqarolik jamiyati. Mahalla, yoshlar markazlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari yoshlarni amaliy faoliyat orqali ma’naviyatga jalb etadi. Hasharlar, xayriya aksiyalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sport va san’at festivallari yoshlar uchun milliy qadriyatlarni his qilish va amalda namoyon etish maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, global ijtimoiy muammolar – ekologiya, inson huquqlari, volontyorlik harakatlari bo‘yicha loyihalar umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar. Televideniye, radio, internet nashrlari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutadi. Milliy kinofilmlar, hujjatli filmlar, teatr spektakllari, podkastlar, ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar global formatlarda ham taqdim etilishi, yoshlar uchun qiziqarli va raqobatbardosh bo‘lishi lozim. Aks holda, bo‘shliqni begona va zararli qadriyatlar bilan to‘ldiruvchi ommaviy madaniyat egallab oladi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida yoshlarda sog‘lom ma’naviy qiyofa shakllantirish, avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to‘g‘ri talqin qilish va ularni uyg‘unlashtirishga bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy xotirasi va ma’naviy identitetini ta’minlovchi asosiy tayanch bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar esa ushbu tajribani baholashga imkon beruvchi universal mezonlardir. Ularni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro boyituvchi tizim sifatida ko‘rish zarur.

Globallashuv jarayonida yoshlar qadriyat tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar tabiiymiz, lekin nazoratsiz kechsa, ma’naviy bo‘shliq, befarqlik va iste’molchilik kayfiyati kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois global axborot makonidan foydalanish madaniyatini maqsadli ravishda shakllantirish muhim.

Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar kesishgan nuqtalar – halollik, adolat, mehnatsevarlik, inson qadr-qimmati, tinchliksevarlik kabi umumiy tamoyillar markaziy o‘rin egallashi lozim. Ana shu “qadriyatlar yadrosi” yoshlarning ichki tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Oila milliy qadriyatlarning tirik maktabi sifatida, ta’lim tizimi esa bu qadriyatlarni ilmiy-nazariy asosda anglab yetish maydoni sifatida ishlashi kerak. Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarni amaliy faoliyat jarayonida – volontyorlik, xayriya, madaniy-ma’rifiy loyihalar orqali – umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar faqat global ommaviy madaniyatni takrorlovchi vosita bo‘lib qolmasdan, milliy madaniyat, tarixiy meros, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini yoshlar uchun jozibador shaklda taqdim etishi zarur. Mediamakonda aynan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ko‘rsatuvchi kontent ulushi oshirilishi kerak.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida yoshlar ma’naviyati masalasi alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu strategiyaning mazmunini real hayotga tatbiq etish uchun davlat siyosati, ta’lim islohotlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va fuqarolik jamiyati tashabbuslari yaxlit tizim sifatida ishlashi lozim.

Shunday qilib, globallashuv davrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish – faqat “qadriyatlarni saqlash” emas, balki ularni zamon ruhiga mos tarzda yangilash, yoshlar hayotiy tajribasiga singdirish va ularni ongli ravishda tanlangan hayotiy pozitsiyaga aylantirish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Jo‘rayev R. Globallashuv va ma’naviyat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020. – 304 b.

Xudoyberdiyev A. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 220 b.

Qodirov B. Yoshlar ma’naviy tarbiyasi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2021. – 232 b.

Globalization, Culture and Education in the New Millennium / Ed. by N. C. Burbules, C. A. Torres. – Lanham: Rowman & Littlefield, 2000. – 312 p.

UNESCO. Learning to Live Together: Education Policies and Realities in the Asia-Pacific. – Paris: UNESCO Publishing, 2014. – 186 p.

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’ZARO BOG’LIQLIGI

Ibrohimova Halima Vahobjonovna
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Bugungi kunda asosiy e'tibor qaratilish kerak bo‘lgan soha ta'lim tizimini rivojlantirish va ma' naviyati yuksak kelajak avlodni yetishtirib chiqarishdan iborat. Bu masala faqatgina yoshlarga taalluqli bo‘libgina qolmay, oila ustunlari bo‘lmish ota-onalarga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ko‘pchilik oliy ma'lumotli oilalarga qaraydiga bo‘lsak, ular naslining ilm olishiga juda katta e'tibor berishadi, ya'ni farzandlarini yaxshi joyda ishlashini va oylik maoshi yaxshi bo‘lishini xohlashadi. Oddiy aholi esa

farzandlarining ta'limiga davlat ishida ishlovchilardan ko‘ra ko‘proq vaqt ajratib, kelajakda ular ham o‘zlaridek oddiy ishchi bo‘lmasligi uchun qattiq mehnat qiladilar. Vaqtlar o‘tib borgan sari oliy ma'lumot olishga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Birgina man shu 2025-yilgi statistikaga qaraydigan bo‘lsak, 732 mingdan ortiq abituriyent talabalikka davogarlik qilgan. Bunda shunu anglashimiz mumkinki, ta'lim sifatining yaxshiligi hamda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning kengligidan dalolat beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi- yoshlarning qiziqishlarini o‘rganish, ularning tanlagan sohalaridan qanchalik ko‘ngli to‘lishi, qolaversa bugungi kun yoshlari o‘z ixtiyori bilanmi, yoki majburan oliygohlarda o‘qishayotganliklarini o‘rganish va ularga bu borada to‘gri maslahatlar berishdan iborat. Olib borilgan so‘rovnoma va tadqiqotlar esa bu muammoga to‘gri yechim topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkinligini ta'kidlab o‘tadi.

2.O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 20- sentabrdagi O'RQ-963-sonli Qonuni tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 5-moddasiga ko‘ra jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga talim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

3. Muqaddas Qur'oni Karimning Mujodala surasida ham Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur. Alloh qilayotgan (barcha yaxshi va yomon) amallaringizdan xabardordir deya ilm olishga chorlagan.

4. Yusuf Xos Hajibning ta'kidlashi bo‘yicha:" Hamma ezguliklar bilim tufaylidir. Bilim tufayli go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi. So‘z bo‘z yerga ko‘kdan tushadi so‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qiladi".

Tadqiqotlar metodologiyasi. Ta'lim tizimining yangilanib borishi, shunga asosan qator islohotlar qilinishi yoshlarga katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2020-yil 24-sentabrda yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonun 1997-yildagi ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida tashkil qilindi. Ko’pchilik yoshlar ota-onasidan olisda, ya’ni musofiy shaharlarda o’qishga kelishishadi. Fikrlash doirasining o’sishi, kimlargadir havas qilish qilish orqali madaniyatga ham putur yetishi ham ko’plab kuzatilib turadi. Bu esa o’smir yoshdagilarning ongidagi ma’naviy bo’shliq tufayli ularni halokatga boshlaydi. Aytaylik, qizlarda ko’pincha tor kiyimlarning kiyilishi yoki, ko’chadan kech qaytish, shuningdek yigitlarda tamaki magsulotlarini iste’mol qilish yoki soqol qo’yish singari turli xil holatlar kuzatiladi. Kim ilm talabida yo’lga chiqsa, Alloh uni jannat tomon yo’lga boshlab qo’yadi. Albatta,farishtalar tolibi ilmdan rozi bo’lib unga o’z qanoatlarini yoyishadi. Yoshlarni

ilmga qiziqtirish, ularning o‘z oldiga qo‘yagn maqsadlarini amalga oshirishda ota-onalar va atrof muhitning ham o‘rni beqiyos, ayniqsa bugungi kun timsolida. Sababi, texnologiyalar asrida yashar ekanmiz yetti yoshdan yetmish yoshgacha hammaning qo‘lida telefon. Tabiiyki, bu xotiraning susayishi, o‘zida bor qobilyatlarning asta-sekin yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikdan so’ng yoshlarning ta’lim-tarbiya olishiga bo’lgan talab yanada kengaydi. Birinchi Prezidentimiz quyidagi fikrlari uning yaqqol isbotidir: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'1masligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi”. Ushbu masala yuzasidan yoshlar va kattalar o‘rtasida alohida tadqiqotlar olib borildi. Unda 50 nafar talaba va 20 nafar ota-onalar ishtirok etdi. Ularga: " Yoshlar qaysi universitetda o‘qishini hamda kelajakdagi kasbini o‘zi tanlashi kerakmi?" degan savol bilan yuzlanganimizda ota-onalarning 80% "Ha, o‘zi qiziqqan sohada qo‘llab-quvvatlash kerak", degan bo‘lsa, qolgan 20%i esa san'at sohasidan ketmoqchi bo‘lgan farzandiga qarshilik qiganini, noni halol, yaxshi oylik daromad tushadigan sohani tanlashini xohlab boshqa yo‘nalishdan ketishga majbur qilishganini aytishdi.

Yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan so‘rovnomada esa bilim olishga nima xalaqit berayotgani, o‘zlari xohlab universitet va yo‘nalish tanlashganmi yo‘qmi, shuni bilish maqsadida eksperiment o‘tkazilda va uning natijalar anchagini qoniqarli ekanligini ko‘rish mumkin. 25%dan ko‘proq talabalarga xalaqit beruvchi omil telefon va qo‘shimcha ish ekanligi ko‘rinmoqda. Qolgan 70% talabalar o‘zlari xohlab, qiziqib shu sohani tanlashgani va bundan mamnunligini aytishmoqda. 5% ga yaqini esa ota-onasining orzu-istaklarini amalga oshirish va diplom uchun o’qishayotgan ekan. Bundan ko’rinib turibdiki, ota-ona va ustozlar ishonchi va mehnati,albatta, ulkan natijalarga sabab bo’ladi.

Xulosa. Yoshlarga berilayotgan har qanday imkoniyatlardan to’g’ri foydalanish,ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida: ta’lim, madaniyat, sport, san’at va boshqalarda o’zini namoyish etish lozim.Yana bir jihatga qaraydigan bo’lsak, tadqiqotlar samarasini yaxshilash va kelajagimiz bunyodkorlari bo’lmish yoshlarning fikr-mulohazalar, start-up loyihalarini ko’rib chiqish va o’zlari tanlagan yo’lda muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularni qo’’lab-quvvatlash, imkoniyatlar yaratib berish ota-onalar va mas’ullarning asosiy vazifasidir. Shunday ekan, xalqimizning farovon hayoti va ertasi uchun birgalikda harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murtazayeva,R.H, Inoyatova.O.M (2023) O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘zMU

2. Imom Termiziy rivoyatlari. https://sammuslim.uz/oz/islam/juma/26112021-y-ilm-organish-har-bir-musulmon-uchun-farzdir

3. https://zamin.uz/uz/jamiyat/105783-eshlarga-berilgan-imkonijatlar-va-imtiezlar.html

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2018.

OILAVIY MUHITDA YOSHLARNING MA’NAVIY VA PSIXOLOGIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI

Ilhomjonova Fotima
“ALFRAGANUS UNVERSITY” talabasi

Oila — bu insonning ilk maktabi, mehr va tarbiya maskani, jamiyatning poydevori hisoblanadi.

Oila — qon-qarindoshlik, nikoh yoki farzand asrab olish orqali shakllangan, birgalikda yashash, o‘zaro mas’uliyat, mehr-muhabbat va tarbiyaviy vazifalar bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruhdir.

Oila jamiyatning eng qadimiy, eng barqaror va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Oila - insonlar kundalik hayotining asosiy qismi- jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ilk ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo‘ladigan ijtimoiy institut.

Ijtimoiy tarbiya - bevosita insoniy munosabatlar, shuningdek shu Insoniylik - bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g‘ururi va erkinligini himoyalash bilan xarakterlanadigan, inson manfaatini ijtimoiy institutlarni baholashning asosiy me’yori deb hisoblaydigan qarashlar tizimi. [1]

G'.B.Shoumarovning "Oila psixologiyasi" kitobidagi ma'lumotlarida aytib o‘tilganidek, oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona - san'atkor, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf- odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuqlik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi. [2]

Olimlar o‘z asarlarida ham oilaning madaniyat muhiti va oiladagi tarbiya haqida fikrlarini aytib o‘tishgan: Oiladagi ma’naviy muhit, shaxslararo [25]munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. Ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston

3. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1967. - B. 21.

yoxud axloq” kitobida “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”[3] – deydi.

G'.B.Shoumarovning "Oila psixologiyasi" kitobidagi ma’lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oila — jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lib, shaxs kamolotining birinchi va eng muhim maktabidir. Farzandning aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivoji avvalo oilada shakllanadi. Ota-ona, bobo-buvi va mahalla kabi tarbiya omillari uyg‘unlashgandagina barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin.Agar oilada tarbiya susaysa, zararli odatlar, ma’naviy buzuqlik va turli yot g‘oyalarga berilish kabi xavfli holatlar paydo bo‘lishi ehtimoli oshadi. Shuning uchun komil insonni tarbiyalash — zamonaviy oilaning eng muhim vazifasi.

O’zbekistonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygan davlatimiz yoshlar tarbiyasi masalalariga yangicha qarashni zaruriyat bo‘lib qoldi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, davr xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqlol ruhida isloh qilishni qat’iy talab qilmoqda. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najo t, yo halokat, yo saodat, yo lazzat masalasidir.” Shunday ekan, milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi, amaliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jamiyatimizda sog‘lom muhitni saqlash bilan barobar ekanini anglashimiz darkor.

Bu fikrga qo‘shilmaslik mumkin emas, chunki inson shaxs sifatida kamol topishi uchun ta’lim va tarbiya berish jarayoni uning ma’naviy kamoloti bilan yosh avlodning ijtimoiy hayotida munosib o‘rin egallashi, mustaqil hayot yo‘lini tanlashi, hayotiy maqsadlarini aniqlashi uchun zarur bo‘lgan axloqiy-ma’naviy sifatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur. Yoshlar da umuminsoniy axloq talabi bo‘lib qolmoqda. Asrimizning 70-yillaridayoq munosib axloqiy sifatlarni shakllantirish vazifasi chindan ham amerikalik etika va tarbiya falsafasi sohasidagi taniqli olim T. Likona shu haqida bunday yozgan edi: “Hozirgi vaqtda mamlakat milliy ongi har qachongidan ko‘ra ko‘proq axloqiy muammolarga qaratilgan. Hozir olimlar axloq tabiatini muhokama qilibgina qolmay, axloq-odobli shaxsni qanday tarbiyalash haqida, hatti-harakatiga qanday omillar ta’sir qilishi haqida, axloqiy-ma’naviy inson hulqining prinsipialligi, subuti, muayyan vaziyatda odamlarning yetuk fuqarolarni voyaga yetkazish uchun oila va jamiyat nimalar qilishi mumkinligi haqida bosh qotirmoqdalar.”[4]

Yoshlar vaqtining katta qismini internet va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgani sababli media makon ularning qadriyatlari va psixologik reaksiyalarini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iliq oilaviy munosabatga ega bo‘lgan yoshlar zararli kontentga nisbatan ancha barqaror bo‘ladi. Oila yoshning axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi, bu esa ma’naviy xavfsizlikni ta’minlaydi. Media yoshlarning psixologiyasiga kuchli ta’sir qiladi, ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: ota-onasi bilan iliq aloqaga ega bo‘lgan yoshlar salbiy media ta’siriga

kamroq beriladi, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy stereotiplarga nisbatan tanqidiy yondashadi; “psixologik immunitet” shakllanadi.

Demak, oilaviy tarbiya — media bosimiga qarshi turishning eng muhim psixologik himoya vositasidir.

Oilaning psixologik iqlimi yoshlarning ruhiy holatiga ta’siri:

Oiladagi psixologik muhit uch darajada koʻriladi:

1) Emotsional iqlim:

Mehr, quvvat, ishonch boʻlgan oilada yoshlar:

barqaror emotsional reaktsiyaga ega boʻladi;

xavotir, tushkunlik darajasi past boʻladi;

ijtimoiy faolligi yuqori boʻladi.

2) Kommunikativ iqlim:

Ochiq muloqot qilinadigan, hissiyotlarni yashirmaydigan oilalarda yoshlar:

tengdoshlari bilan samarali muloqot qiladi,

konfliktlarni sogʻlom yoʻl bilan hal qiladi.

3) Tarbiyaviy iqlim:

Ota-onaning talabchanligi va mehr darajasi muvozanatda boʻlsa, bu avtoritativ tarbiya modeli (Baumrind) hisoblanadi. Bu modelda oʻsgan yoshlar koʻpincha: mas’uliyatli, mustaqil, psixologik barqaror boʻladi.

M.K.Xalimjanova "Oila psixologiyasi maqolasidagi "Har bir oila o'ziga xos, lekin barcha sog'lom oilalar o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan. Oila psixologiyasi orqali nafaqat mavjud muammolarni hal qilish, balki kelajakdagi muammolarning oldini olish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash mumkin. Sog'lom oila - baxtli jamiyatning asosidir!" deb aytib oʻtgan.[5] Bu fikrga xulosa qilsak, sogʻlom oila — bu mehr, hurmat va ishonch uygʻunligidan qurilgan mustahkam qal’a. Oila psixologiyasidan oqilona foydalanish esa bu qal’ani yanada barqaror qiladi, nizolarning oldini oladi va munosabatlarga iliqlik bagʻishlaydi. Har bir oilaning baxti — jamiyat farovonligining poydevori.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Axmedov A.A. Ijtimoiy pedagogika. – Buxoro: “Kamolot nashriyoti, 2023. - B.158.

2. Oila psixologiyasi G’.B.Shoumarov “Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati Toshkent-2011y B-52

3. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”. - Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1967. - B. 21.

4. Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт мавзусидаги V Республика илмий-амалий конференцияси Г.Н.Хушматова, ЎзМУ Фалсафа кафедраси Б-421.

5. M.K.Xalimjonova Oila psixologiyasi maqolasi.

ZAMONAVIY YOSHLARNING RUHIYATIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Ilhomjonova Zuhra O‘lmaskamol qizi
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” talabasi

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlarining katta qismi kuniga o‘rtacha 3–6 soat vaqtini internet va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi. Bu jarayon yosh avlodning ruhiy salomatligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ikkiyoqlama ijobiy va salbiy ta’sirga ega. Bir tomondan ular o‘rganish, muloqot va kreativlikni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan taqqoslash, kiber-zoravonlik, emotsional charchash kabi salbiy jihatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqola aynan shu jarayonlarni psixologik nuqtai nazardan yoritadi hamda o‘zbek psixolog olimlarining tadqiqotlari asosida mavzuga ilmiy yondashuvni taqdim etadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiyatiga umumiy ta’siri: Shaxsning ruhiy rivojlanishi tashqi ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar esa hozirgi zamonda eng faol ijtimoiy maydonlardan biridir. Yoshlar internet orqali o‘z tengdoshlarining hayoti, yutuqlari va faoliyati bilan bevosita tanishib boradi, bu esa ularda psixologik ta’sirlanish jarayonlarini kuchaytiradi.

Psixologlar fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazish: 1. emotsional zo‘riqish; 2. vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar; 3. o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishi; 4. diqqatning tarqoqlashuvi kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq ular kommunikativ ko‘nikmalar, bilim olish imkoniyatlari va ijodkorlik kabi ijobiy jihatlarni ham taqdim etadi.[1]

Yoshlarning ruhiy rivojlanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Zamon taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy tarmoqlar aynan shu muhitning eng faol ko‘rinishiga aylangan. Shaxsning psixologik shakllanishi tashqi ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda bu omillarning eng kuchlisi - internet va ijtimoiy tarmoqlar maydonidir. Ushbu maydon yoshlar ongiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ularning dunyoqarashi, o‘ziga baho berish darajasi, ijtimoiy faolligi va hissiy holatini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlari ko‘p bora tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlab o‘tiladi. Avvalo, ulardan me’yoridan ortiq foydalanish yosh organizmi va ongida emotsional zo‘riqish, tashvish darajasining ortishi, vaqtni to‘g‘ri boshqara olmaslik, diqqatning tarqoqlashuvi kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, boshqalarning yutuqlarini muntazam kuzatish natijasida o‘zini boshqalar bilan solishtirish holati kuchayadi, bu esa o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishi va ichki noqulaylikka sabab bo‘ladi.

Demak, ijtimoiy tarmoqlar nazoratsiz ishlatilganda yosh ruhiyatiga xavf tug‘dirishi mumkin. Biroq masalaning ijobiy jihatlari ham mavjud. Raqamli maydon yosh avlod

uchun keng imkoniyatlar yaratadi: bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, ijodiy g‘oyalarni keng ommaga taqdim etish, yangi bilimlar olish, turli madaniyatlar bilan tanishish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkonlari aynan shu platformalarda mujassam. Eng muhimi, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o‘rtasida kommunikativ ko‘nikmalarni takomillashtirish, tajriba almashish va ijtimoiy faollikni oshirishga ko‘maklashadi. Ijtimoiy solishtirish jarayoni va ruhiy holatga ta’siri: “Ijtimoiy psixologiya asoslari” kitobida ijtimoiy solishtirish inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Yoshlar ko‘pincha boshqalarning muvaffaqiyati, hayoti, tashqi ko‘rinishi bilan o‘zini solishtiradi. Ushbu jarayon quyidagilarga olib kelishi mumkin: 1. o‘ziga ishonchsizlik; 2.keraksiz raqobat hissi; 3.tashqi tasdiqqa qaramlik; 4.depressiv holatlar. Biroq ijtimoiy solishtirish motivatsion natija ham berishi mumkin, agar foydalanuvchi solishtirishni sog‘lom psixologik holatda amalga oshirsa.[2]

Ijtimoiy solishtirish jarayoni inson ruhiyatining tub mohiyatiga chuqur singib ketgan psixologik mexanizmdir. V.M. Karimovaning “Ijtimoiy psixologiya asoslari” asarida ta’kidlanganidek, inson o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali o‘zini anglaydi, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini baholaydi, ijtimoiy o‘rnini belgilaydi. Zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar ushbu jarayonning asosiy maydoniga aylangan bo‘lib, bunda solishtirish tabiiy ehtiyojdan ko‘ra tez-tez takrorlanadigan odatga aylanib bormoqda. Ayniqsa yoshlar har kuni boshqalarning hayoti, muvaffaqiyati, tashqi ko‘rinishi, turmush tarzi haqidagi ma’lumotlar bilan to‘qnash keladi. Bularning barchasi ruhiy holatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy solishtirishning salbiy oqibatlari avvalo o‘ziga ishonchsizlik bilan namoyon bo‘ladi. Yoshlar boshqalarning ideal tarzda ko‘rsatilgan hayoti bilan o‘z real hayotini solishtirar ekan, o‘zini kam baholash, o‘zidan qoniqmaslik holati kuchayishi mumkin. Shuningdek, keraksiz raqobat hissi va doimiy tashqi tasdiqqa ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu esa shaxsning ichki motivatsiyasini susaytiradi, unga mustaqil qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Natijada insonning psixologik barqarorligi buzilib, noaniqlik hissi kuchayadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ideal hayot tasvirlari bilan haddan ziyod to‘qnash kelish esa depressiv holatlar, emotsional cho‘kish, o‘zini kamsitish kabi holatlarga olib kelishi mumkin.Biroq ijtimoiy solishtirish jarayoni faqat salbiy ta’sirga ega deb bo‘lmaydi.

Agar solishtirish sog‘lom psixologik holatda, ya’ni haqiqatni to‘g‘ri qabul qilish, o‘z imkoniyat va cheklovlarini bilgan holda amalga oshirilsa, u motivatsiya manbai bo‘lishi mumkin. Masalan, boshqa insonning muvaffaqiyati yoshlarni o‘z maqsadiga erishish uchun ko‘proq harakat qilishga undashi, o‘z ustida ishlashga rag‘batlantirishi mumkin. Shuning uchun solishtirishni boshqarish, uni to‘g‘ri yo‘naltirish muhim psixologik ko‘nikma hisoblanadi. Ijtimoiy solishtirish yoshlar ruhiy holatining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonni tezlashtiradi, kuchaytiradi va ko‘p hollarda hissiy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Ammo to‘g‘ri yondashuv, sog‘lom o‘zini anglash, real hayot bilan virtual hayot orasidagi farqni bilish orqali bu jarayon ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Eng maqsadga muvofiq yo‘l — ijtimoiy solishtirishni

nazorat qilishni o‘rganish, o‘zini boshqalar bilan emas, balki kechagi o‘zi bilan solishtirishdir. Shunda insonning ruhiy barqarorligi mustahkamlanadi, maqsadlari esa aniq va izchil shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda kiber-zoravonlik va uning oqibatlari: E.G‘oziyev shaxsga nisbatan bosim, tajovuz, tazyiq kabi omillar ruhiy salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi ta’kidlanadi. Kiber-zoravonlik esa aynan shu jarayonlarning raqamli ko‘rinishidir. Kiber-zoravonlik quyidagicha namoyon bo‘ladi: • haqorat qilish; • shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish; • tahdid qilish; • izolyatsiya qilish; • yolg‘on ma’lumotlar tarqatish. Bu yoshlarning ruhiyatida: • qo‘rquv; • tushkunlik; • o‘zini ayblash; • ijtimoiy izolyatsiya kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi.[3]

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo‘layotgan kiber-zoravonlik hodisasi jiddiy ijtimoiy va psixologik muammo sifatida qaralmoqda. An’anaviy zo‘ravonlikdan farqli ravishda kiber-zoravonlik virtual makonda, ya’ni insonning telefoni, kompyuteri, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali sodir bo‘ladi. E. G‘oziyevning “Psixologiya” asarida qayd etilganidek, shaxsga nisbatan bosim, tahdid, tazyiq yoki tajovuz kabi omillar ruhiy salomatlikka chuqur zarar yetkazadi. Kiber-zoravonlik esa ushbu salbiy jarayonlarning zamonaviy va ko‘rinishi o‘zgargan shakli bo‘lib, kishining shaxsiy chegaralarini buzadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va uning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Kiber-zoravonlikning namoyon bo‘lish shakllari turlicha: haqoratli izohlar yozish, shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz tarqatish, muntazam tahdid qilish, ijtimoiy izolyatsiyaga majburlash, yolg‘on yoki obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlar tarqatish. Bularning har biri insonning psixologik holatiga turlicha darajada zarar keltiradi, ammo barchasining umumiy tomoni shundaki — ular shaxs farovonligini buzadi va ijtimoiy muhitda o‘zini himoyasiz his qilishga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu juda xavflidir, chunki ularning ruhiyati hali to‘liq shakllanmagan, o‘z-o‘zini baholash jarayoni barqaror emas, tashqi ta’sirlarga esa juda sezgir bo‘ladi. Kiber-zoravonlikning oqibatlaridan eng ko‘p uchraydiganlari — qo‘rquv, tushkunlik, o‘zini ayblash, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiya. Bunday holatlar yoshlarning nafaqat ruhiy salomatligiga, balki o‘qishdagi faolligiga, ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘z fikrini ochiq aytishdan cho‘chiy boshlaydi, jamoadan chetlashadi, o‘zini yolg‘iz his qiladi.

Ba’zi hollarda bular chuqur stress, depressiya, hatto o‘z joniga qasd qilish xavfiga ham olib kelishi mumkin. Demak, kiber-zoravonlik shunchaki internetdagi “kulguli izoh” yoki “oddiy hazil” emas — bu inson salomatligiga zarar yetkazuvchi real psixologik tazyiqdir. Shu boisdan, ijtimoiy tarmoqlarda madaniyat, hurmat va mas’uliyatni kuchaytirish, yoshlarni raqamli xavfsizlik qoidalariga o‘rgatish, ota-onalar va pedagoglar tomonidan nazoratni kuchaytirish zarur. Har bir foydalanuvchi internet madaniyati, shaxsiy axborotni himoya qilish, haqoratlarga javob bermaslik, zarur hollarda murojaat qilinadigan rasmiy platformalarni bilishi muhim. Buning ustiga, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida kiber-madaniyat bo‘yicha profilaktik suhbatlar, treninglar tashkil etilishi, voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz onlayn muhit yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar

kuchaytirilishi lozim. Umuman olganda, kiber-zoravonlikka qarshi kurash jamiyatning barcha a’zolari — ota-ona, ustoz, psixolog, yoshlar, blogerlar va jamoatchilikning hamkorlikda harakati bilan amalga oshiriladi. Bu hodisani e’tiborsiz qoldirish mumkin emas, chunki bugun bir kishining ruhiy salomatligiga yetgan zarar ertaga butun jamiyatning psixologik muhitiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun ham kiber-zoravonlikka qarshi kurash — yoshlarni himoya qilish, barqaror psixologik muhit yaratish va sog‘lom internet madaniyatini shakllantirish yo‘lidagi eng muhim qadamlardan biridir. Agar bu yo‘nalishda tizimli, izchil va muntazam ravishda ish olib borilsa, yosh avlodning ruhiy salomatligini tiklash, ularning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta’minlash, eng muhimi — inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qiladigan sog‘lom raqamli makon yaratish mumkin bo‘ladi. Yoshlarning o‘zlik imiji va internetdagi identifikatsiya: A. Zohidovning “Ruhiyat va jamiyat” kitobida shaxsning o‘zlik identifikatsiyasi uning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq ekani qayd etiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa yoshlar o‘zining “ideal” obrazini yaratishga harakat qiladi. Bu holat quyidagi psixologik natijalarga olib keladi:

- real va virtual o‘zlik o‘rtasida tafovut;
- o‘zini tanqid qilishning kuchayishi;
- boshqalarning fikriga qaramlik;
- o‘zini “mukammal ko‘rsatish” bosimi.

Zohidovning “Ruhiyat va jamiyat” asarida insonning o‘zlik identifikatsiyasi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi alohida ta’kidlanadi. Zohidov fikriga ko‘ra, shaxsning o‘zini anglash jarayoni hech qachon yakka holda sodir bo‘lmaydi; u doim jamiyatdagi o‘rni, mavqei, ijtimoiy rollari va boshqa odamlar bilan munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqamli makon kengaygani sari yoshlar uchun asosiy “jamiyat”ning bir qismi endi ijtimoiy tarmoqlar bo‘lib qolmoqda. Virtual dunyo ularning o‘zini idrok qilishiga, boshqalar bilan solishtirishiga, o‘zini baholashiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. A. Zohidov aytganidek, shaxsning o‘zlik identifikatsiyasida ijtimoiy fikrning o‘rni kuchli bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa bu fikr ko‘pincha “layklar”, izohlar va kuzatuvchilar soni orqali o‘lchanadi. Shu bois yoshlar ko‘proq maqtov olish, boshqalarga yoqish, ommaga mos kelish uchun o‘zining “ideal” versiyasini yaratishga intiladi. Bu “ideal obraz” ko‘pincha real hayotdagi shaxsdan keskin farq qiladi. Natijada real va virtual o‘zlik o‘rtasida ma’lum tafovut shakllanadi. Zohidov ta’kidlaganidek, insonning o‘zi haqidagi tasavvuri barqaror bo‘lmaganda, ichki ziddiyatlar kuchayadi va psixologik nomutanosiblik paydo bo‘ladi. Uzoq davom etadigan bunday ziddiyat esa o‘zini tanqid qilishning ortishiga olib keladi. Yoshlar real hayotdagi kamchiliklarini virtual dunyodagi «mukammal» tasvirlari bilan solishtirib, o‘ziga nisbatan nohaq, keskin baho berishni boshlaydi. Bu esa ruhiy bosimni kuchaytiradi. A. Zohidov shaxsning o‘ziga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi ruhiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Ammo ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan sun’iy me’yorlar yoshlarni o‘zini past baholashga, o‘zidan norozilik hissiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, boshqalarning fikriga qaramlik kuchayadi. Yoshlar o‘z qadrini ichki qadriyatlari orqali

emas, balki virtual reaktsiyalar orqali o‘lchay boshlaydi. A. Zohidov buni “ijtimoiy qaramlikning psixologik ko‘rinishi” deb izohlaydi. Natijada shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati susayadi, tashqi baholarga ortiqcha bog‘liqlik shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zini cheklash, ijtimoiy rolini yo‘qotish, o‘zligini topishda chalkashliklar kabi oqibatlarni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yana bir xavfli jarayon — o‘zini “mukammal ko‘rsatish” bosimining kuchayishidir. A. Zohidovning fikricha, inson o‘z tabiiyligidan uzoqlashgan sayin, uning ruhiy energiyasi ko‘proq sarflanadi, ichki uyg‘unlik buziladi. Virtual dunyoda esa har kim o‘zining eng yaxshi suratlarini, eng qulay hayotini, eng muvaffaqiyatli ko‘rinishini namoyish etadi. Yoshlar ham shu oqimdan chetda qolmaslik uchun o‘zining tabiiy hayotini yashirib, faqat “filtrlangan” obrazni taqdim etishga urinadi. Bunday ikkiyuzlama hayot uzoq davom etsa, shaxs ichki charchoq, hissiy zo‘riqish va o‘zligini yo‘qotish holatlariga duch kelishi mumkin. A. Zohidovning “Ruhiyat va jamiyat” asari yoshlar o‘zligini shakllantirish jarayonida ijtimoiy omillar, ayniqsa virtual muhitning kuchli ta’sirga ega ekanini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini tanlash va namoyish etish jarayoni psixologik bosim, real va virtual o‘zlik o‘rtasidagi farq, tanqidchanlikning ortishi va boshqalarning fikriga haddan tashqari bog‘liqlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan ongli va mas’uliyatli foydalanishi, o‘zini haqiqiy qabul qilishni o‘rganishi, virtual bosim ostida o‘zligini yo‘qotmasligi muhimdir.[4]

Ijobiy ta’sirlar: kreativlik, ijtimoiylashuv va o‘rganish imkoniyatlari. A. Turdiyevning “Yoshlar psixologiyasi” asarida yoshlarning fikrlash jarayoni ochiq, moslashuvchan va innovatsion bo‘lishi ularning faoliyatida muhim omil ekani qayd etilgan. Ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ma’noda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yangi ko‘nikmalarni o‘rganish;
- kreativ g‘oyalarni rivojlantirish;
- jahon tajribasi bilan tanishish;
- ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish;
- bilim almashish. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ijobiy ta’siri: A. Turdiyevning “Yoshlar psixologiyasi” asarida yoshlar fikrlash jarayoni ochiq, moslashuvchan va innovatsion bo‘lishi ularning psixologik rivojlanishi va shaxsiy salohiyatini amalga oshirishida asosiy omil sifatida ko‘riladi. Turdiyevga ko‘ra, yoshlar ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro aloqada bo‘lganda yangi g‘oyalarni tezroq qabul qiladi, risklarni baholay oladi va ijodkorlikni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun salbiy ta’sir manbasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan bilan birga, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishda juda foydali maydon ham bo‘lishi mumkin. Yangi ko‘nikmalarni o‘rganish: Ijtimoiy tarmoqlar (masalan, YouTube, Instagram, Telegram) yoshlar uchun onlayn o‘quv manbalarini ochib beradi. Turdiyev ta’kidlaydiki, yoshlarning o‘zaro va mustaqil o‘qishi, yangi bilimlar egallashi va ko‘nikmalarini takomillashtirishi psixologik jihatdan juda muhim. Tarmoqlarda ta’limiy sahifalar va kanallar orqali dasturlash, grafik dizayn, til o‘rganish va boshqa kasbiy yoki murabbiy ko‘nikmalar osonlik bilan o‘zlashtirilishi mumkin. Bu o‘rganishga bo‘lgan

motivatsiyani kuchaytiradi va yoshlarning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Kreativ g‘oyalarni rivojlantirish: Ijtimoiy tarmoqlar ijodiy platformaga aylanadi. Turdiyev nazariyasiga ko‘ra, ijodkorlik — yoshlarning psixologik o‘sishida muhim komponent. Raqamli makonda ishtirok etish yoshlarni yangi g‘oyalar bilan tajriba qilishga, o‘z loyihalarini namoyish qilishga va boshqalarning yaratgan kontentidan ilhom olishga undaydi. Masalan, bloglar, vebseriyalar, qisqa videolar (TikTok, Reels) yoshlar orasida ijodiy ifoda shaklini kengaytiradi va ularning g‘oyaviy o‘zligini mustahkamlaydi. Jahon tajribasi bilan tanishish: Global ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni butun dunyo bilan bog‘laydi. Turdiyev fikriga ko‘ra, yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, boshqa mamlakatlardan va madaniyatlardan ilhom olishi psixologik moslashuv va ochiqlikni oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ular chet ellik yoshlar loyihalarini, ilmiy yutuqlarini, yosh tadbirkorlar g‘oyalarini ko‘rib, ularni o‘z hayotlarida qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarni global miqyosda fikrlashga, xalqaro hamkorlikka, raqamli innovatsiyalarga tayyorlaydi. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish: Turdiyev yoshlarning jamoaviy faoliyati, guruhda ishlashi va liderlik qobiliyatlari psixologik o‘sishni rag‘batlantirishini aytadi. Ijtimoiy tarmoqlar — yoshlar uchun butunlay yangi maydon bo‘lib, u yerda ular ijtimoiy faoliyatga qo‘shila oladi: ekologik aksiyalar, volontyorlik guruhlari, ma’rifiy kampaniyalar va raqamli startaplar tashkil qilishi mumkin. Bu ishtirok yoshlarning o‘zini jamiyatda foydali his qilishini oshiradi, mas’uliyat hissini kuchaytiradi va natijada ruhiy salomatlikka pozitiv ta’sir ko‘rsatadi. Bilim almashish: Ijtimoiy tarmoqlar bilim va kontent almashish uchun ideal vositadir. Turdiyevning nazariy jihatdan, yoshlar bir-biriga maslahat berishi, tajribalarini baham ko‘rishi va o‘zlarining intellektual salohiyatlarini rivojlantirishi kerak. Bloglar, ilmiy sahifalar, “webinarlar” va guruh chatlari orqali ular ma’lumotni tez almashadi, o‘zaro fikr almashadi va tahlil qiladi. Bu jarayon yoshlarning o‘zini-o‘zi baholashini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va ularda doimiy o‘qish odatini shakllantiradi. Ta’limiy platformalar va psixologik kontent: Ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda ta’limiy platformalar (Coursera, Khan Academy va shu kabi) va psixologik bloglar yoshlarning intellektual va emotsional rivojiga katta hissa qo‘shadi. Turdiyev psixologik barqarorlik va ma’naviy o‘sishga e’tibor beradi, va ijtimoiy tarmoqlarda psixologik maslahatlar, motivatsion videolar, shaxsiy o‘sish strategiyalari bilan tanishish yoshlar uchun juda samarali bo‘ladi. Bu kontent ular uchun o‘z-o‘zini anglash va ruhiy ozuqa manbai sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, ta’limiy platformalar, ilmiy videolar, psixologik bloglar yoshlarning intellektual rivojiga yordam beradi.[5]

Xulosa qilib aytganda bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining markaziy qismiga aylandi. Internetning qulayligi, tezkor axborot almashinuvi va cheksiz imkoniyatlari yoshlarning nafaqat kundalik faoliyatiga, balki ularning ruhiy holati, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy munosabatlariga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston psixolog olimlarining ilmiy qarashlari — N. Ismoilova, D. Abdullayeva, V. M. Karimova, E. G‘oziyev, A. Zohidov va A. Turdiyev tadqiqotlari ushbu hodisani chuqurroq tahlil qilishga asos yaratadi. Psixologik

nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tarmoqlar inson ruhiyatiga ikkiyoqlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ular axborot olish, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish, ijodiy salohiyatni namoyon etish va global tajriba bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. A. Turdiyev ta’kidlashicha, yoshlarning ochiq va moslashuvchan fikrlashi internet orqali yanada boyiydi, ular kreativlikni rivojlantiradi, jamoaviy loyihalarda ishtirok etadi va intellektual salohiyatini kengaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy ta’lim jarayonining muhim bo‘g‘iniga aylanib, turli psixologik, ilmiy va ma’rifiy kontent orqali yosh avlodning dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlarini inkor qilib bo‘lmaydi. V.M.Karimova tomonidan qayd etilganidek, ijtimoiy solishtirish jarayoni yoshlar orasida o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, raqobat, tashqi tasdiqqa qaramlik va hissiy beqarorlikni kuchaytiradi. E.G‘oziyev ta’kidlagan kiber-zoravonlik esa tajovuz, bosim va tazyiqning zamonaviy ko‘rinishi sifatida yoshlarning ruhiy salomatligiga chuqur shikast yetkazishi mumkin. Bu jarayonlar qo‘rquv, tushkunlik, o‘zini ayblash va ijtimoiy izolyatsiya kabi xavfli oqibatlarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, A.Zohidov ta’kidlaganidek, internetdagi “ideal obraz” yaratish istagi real va virtual o‘zlik o‘rtasida tafovutni kuchaytiradi. Yoshlar o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga moyil bo‘lgani uchun ularning o‘zini baholash jarayoni beqaror bo‘lib qoladi, o‘ziga tanqidiy munosabat kuchayadi, boshqalarning fikriga qaramlik ortadi va mukammal ko‘rinishga intilish psixologik bosimni kuchaytiradi. Shunday bo‘lsa-da, ijtimoiy tarmoqlarni to‘g‘ri va ongli foydalanish orqali ularning salbiy ta’sirini kamaytirish, ijobiy jihatlarini esa kuchaytirish mumkin. Bu jarayonda ota-ona, pedagog, psixolog va jamiyatning umumiy mas’uliyati muhim o‘rin tutadi. Yoshlarni raqamli madaniyatga o‘rgatish, ularda emotsional barqarorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, real hayotdagi ijtimoiy tajribalarni kuchaytirish salbiy oqibatlarning oldini olishga yordam beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun imkoniyatlar maydoni ham, xavfli psixologik zonalar uyg‘unlashgan murakkab raqamli makondir. Agar bu makonda to‘g‘ri yo‘nalish berilsa, u yoshlarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi; aks holda esa ularning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, eng muhim vazifa — yoshlarni raqamli dunyoda ongli, xavfsiz va maqsadli tarzda faoliyat yuritishga o‘rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ismoilova N., Abdullayeva D. “Ijtimoiy psixologiya” – Toshkent, 2013. (45–67b).
2. Karimova V.M. “Ijtimoiy psixologiya asoslari” – Toshkent, 2008. (88–104b).
3. G‘oziyev E. “Psixologiya” – Toshkent, 2010. (120–136b).
4. Zohidov A. “Ruhiyat va jamiyat” – Toshkent, 2014. (55–79b).
5. Turdiyev A. “Yoshlar psixologiyasi” – Toshkent, 2016. (40–62b).

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR TARBIYASIDA MAHALLANING O‘RNI

Ilmiddinov Lutfullo Nizomjon o’g’li
Namangan davlat universiteti talabasi
Atamirzayev I.
Ilmiy rahbar:yu.f.d (PhD)

Bugungi globallashuv jarayonlari hayotning barcha jabhalari kabi yoshlar ongiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, internetning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi, ommaviy madaniyatning tez tarqalishi natijasida yosh avlodning fikrlashi, qadriyatlari va hayotga munosabati tez o‘zgarayotgan bir davrda milliy o‘zlikni asrab qolish masalasi nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlashda mahalla institutining o‘rni beqiyosdir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Ushbu norma Konstitutsiyamizning 127-moddasida keltirilgan bo’lib, bunda mahalla instituti qonunga muvofiq mustaqil ish olib borishi keltirib o’tilgan[1].

Bu ham o’z navbatida mahhala faollari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ular, ayniqsa, yoshlar masalalariga asosiy e’tiborlarini qaratishlari maqsadga muvofiq bo’ladi. Sababi hozirgi kundagi jinoyatchiliklarning aksariyati yoshlar o’rtasida sodir bo’lmoqda. Shuning uchun yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli o’kazish va ular bilan ko’proq shug’ullanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2022-йил 19-январдаги PQ-92-sonli qarorida to'rt asosiy maqsad nazarda tutiladi:

yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish;

ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish;

yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish;

ta'lim muassasalaridagi ma naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshrish[2].

Ushbu maqsadga erishish uchun O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash tizimining eng muammoli nuqtasiga diqqat qaratilmogda. Mahalla yigit va gizlarini qamrab olishning o'ziga xos mexanizmi vujudga keltirilyapti. Mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimining joriy etilishini ana shunday baholash mumkin. Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi.

Mahallada o’tkaziladigan turli tadbirlar, sport musobaqalari, ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar yoshlarni salbiy ta‘sirlardan himoya qiladi, ularni ijobiy yo’nalishga yo’naltiradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32% yoki 10 millioni 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, aynan 30 yoshgacha yoshlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy ma'naviy muhitni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zaruriyatdir.

Mahalla asrlar davomida xalqning eng yaqin ijtimoiy tayanchi sifatida shakllangan bo‘lib, unda tarbiya jarayoni tabiiy tarzda amalga oshib kelgan. Mahalla oqsoqollari, ziyolilari, faollari hamda jamoaning boshqa tajribali insonlari yoshlarning axloqiy dunyosiga ta’sir o‘tkazib, ularni yaxshi va yomonni ajrata olishga, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va adolat kabi fazilatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirib kelgan[3].

Eng muhimi, bu tarbiya ko‘pchilik hollarda majburan emas, balki hayotning o‘zi orqali, kundalik muloqotlar, maslahatlar, qo‘shnichilik munosabatlari va jamoaviy mas’uliyat ruhida shakllangan.

Globallashuv esa yoshlar dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularni yangi sinovlar bilan ham yuzlashtirdi. Virtual olamning kuchli ta’siri, yengil-yelpi axborotlarga moyillik, ommaviy madaniyatning jozibadorligi ko‘plab yoshlarda milliy qadriyatlardan uzoqlashish xavfini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda mahalla yoshlarni noto‘g‘ri yo‘nalishlardan himoyalash, ularga sog‘lom mafkura va to‘g‘ri hayot tamoyillarini singdirishda mustahkam ijtimoiy muhit yaratishi zarur bo‘ladi.

Mahalla – o’zbek xalqining an‘anaviy ijtimoiy institutidir. U yoshlarning ijtimoiylashuvi, jamiyat me‘yorlariga moslashishi uchun muhim makon hisoblanadi. Mahalla faollari, yoshlar bilan ishlovchi ijtimoiy tashkilotlar, diniy ulamolar va yoshlar ittifoqi kabi tuzilmalar yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida faol ishtirok etadi.

Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni asosan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlarda, yoshlarni jamoaga jalb etish orqali ijtimoiy faollikni oshirishda, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda, shuningdek, oilaviy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash orqali namoyon bo‘ladi.

Mahallada o‘tkaziladigan kitobxonlik tadbirlari, ma’rifiy suhbatlar, tarixiy sanalarga doir uchrashuvlar yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitib, fikrlash doirasini kengaytiradi. Ko‘ngilli loyihalar, ekologik aksiyalar, sport musobaqalari esa ularda jamiyatga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu jarayon oiladagi tarbiya bilan uyg‘unlashganda yanada samarali natija beradi, chunki oila – tarbiyaning birlamchi, mahalla esa uning tabiiy davomchisidir[3].

Yoshlar tarbiyasida ta’lim muassasalari va mahallaning hamkorligi ham juda muhim hisoblanadi. Maktab va mahalla o‘rtasidagi doimiy aloqalar, birgalikdagi tadbirlar, yoshlar masalalarida yagona yondashuvning mavjudligi tarbiya jarayonini samarali qiladi[4].

Bu hamkorlik yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularda mas’uliyat, tartib-intizom, ijtimoiy faollikni shakllantirishga katta yordam beradi.

Xalqimiz: “Bir bolaga yeti mahalla ota-ona” - deb bejiz ta’kidlamaydi.

Yuqorida aytib o’tilganidek, yoshlar tarbiyasida mahallaning ro’lini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ularda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ham mahallaning ro’li beqiyosdir.

Xulosa o‘rnida globallashuv yoshlar uchun imkoniyatlar bilan birga turli xavflarni ham olib kelayotgan bugungi sharoitda mahalla milliy o‘zlik va qadriyatlarni asrab-avaylashda, yoshlarni salbiy oqimlardan himoyalashda, ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlashda eng asosiy ijtimoiy tayanch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mahalla faollari, oqsoqollar, ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik qanchalik chuqur va tizimli bo‘lsa, yoshlarning barkamol bo‘lib voyaga yetishi ham shunchalik ta’minlanadi. Shunday ekan, mahalla institutining yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini kuchaytirish – nafaqat bugungi kun vazifasi, balki jamiyat kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tarbiyasida mahalla institutlarining o’rni muhimdir. Mahalla yoshlarni jamiyatga tayyorlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 19.01.2022 yildagi PQ-92-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi rasmiy sayti:www.mahalla.uz

4. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali: www.yoshlar.gov.uz

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ЁШЛАРНИНГ СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Имонқулова Ирода Исматуллаевна
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ҳузуридаги
Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича
Мувофиқлаштирувчи-методик марказ таянч докторанти

Бугунги глобаллашув шароитида кўплаб мамлакатларда барқарорлик, геосиёсий, иқтисодий ва миллий-этник муаммоларнинг кучайиши даврида давлат ва фуқаролик жамияти ўртасида ўзаро самарали алоқаларни ўрнатишда, жамият ресурслари ва давлат тузилмаларини тинчлик-тотувлик ва ривожланиш йўлида бирлаштиришга имкон берувчи маҳалла институтининг механизмаларини шакллантиришда, халқимиз, айниқса ёшларнинг сиёсий маданиятини шакллантириш долзарб масала ҳисобланади.

Юртимизда маҳалла институти узоқ тарихий илдизларга эга. У асрлар оша оқсоқоллар Кенгаши кўринишида намоён бўлиб келган. Бу Кенгашлар маҳаллаларда ҳар бир оиладаги соғлом муҳитни англаш, муҳтожларга моддий ёрдам кўрсатиш, ҳашар, ободонлаштириш каби муаммоларини биргаликда ҳал этиш, ўзини ва ўзгаларга эътиборли бўлиш, фарзандлар тарбиясига лоқайд бўлмаслик ва бошқа жамоат ишлари билан шуғулланадиган жамоатчилик тузилмаси ҳисобланган. Бундай жараёнлар эса ўз навбатида аҳолида сиёсий маданият куртакларини шакллантиришга хизмат қилган.

Бу борада Президент Ш.Мирзиёев: “Бугунги кунга қадар давлат органлари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг аниқ ҳуқуқий механизмлари яратилмаган. Бу эса, нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан давлат органлари ва мансабдор шахслар фаолиятини холисона баҳолашга халақит бермоқда.”[1],- дея таъкидлаган эди.

Дарҳақиқат, бугунги кунда маҳалла тизимни ривожлантиришда туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Аммо жамият ҳаётидаги энг долзарб, аҳолини ташвишга солаётган муаммолардан масалан, давлатда кенг тарқалган коррупциянинг чуқур томир ортиб кетганлиги, ишсизликни олдини олиш, айниқса, ёшларни, кам таъминланган ва ногиронларга ижтимоий-иқтисодий ёрдамнинг баъзи ҳолларда ўз вақтида кўрсатилмагани, қишлоқларни ободонлаштириш дастурларида, йўл қурилиш лойиҳаларида сифатсиз, юзаки иш давом этаётгани ва ҳоказоларни ҳал этиш учун сиёсий маданият ва жамоатчилик назорати ўта муҳимдир.

Бунинг учун эса, халқимиз, айниқса ёшларнинг юридик ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда, қарорларда жамоатчилик манфаатларини ва фикрини шакллантириш, инобатга олиш учун ҳам аввало, маҳаллаларда жамоатчилик назоратининг амалий услубларини такомиллаштириш ҳамда механизмлари учун шароит яратиш муҳимдир. Булар эса, ўз навбатида аввало ёшларнинг сиёсий маданияти даражасига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Жамиятда ҳар бир шахснинг қонунлар асосида кафолатланган ҳуқуқларини билиши ва улардан фойдаланиши, сиёсий маданияга асосланган ҳолда ижтимоий фаоллик кўрсатиши жамият равнақини белгилашда муҳим омил саналади.

Шуни инобатга олиб, жамоат ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган жамоатчилик назоратининг моҳияти, мазмуни ва шакллари, услубларини ҳамда у қандай ҳолатларда намоён бўлиши тўғрисидаги назарий ва амалий масалаларни тадқиқ этиш бугунги кунда олимлар олдида турган долзарб масалалардан бири эканлигини эътироф этиш жоиз. Таъкидлаш керакки, ушбу масалалар мамлакатимиз ва хорижлик олимлар томонидан тадқиқот объекти сифатида муайян даражада ўрганилиб келинмоқда. Аммо Ўзбекистонда бу масалага бағишланган илмий тадқиқотлар бошланғич нуқтада турибди, деса муболаға бўлмайди. Чет эл тажрибасини ўрганувчи ва умумлаштирувчи, бу соҳада

Ўзбекистоннинг муаммо, ютуқ ва истиқболлари таҳлилига бағишланган асарлар деярли йўқ даражада. Ушбу мақолада шу соҳадаги рамзий маънода “бўшлиқ”ни ўрганиш ва тавсиялар бериш ёрдамида бироз тўлдиришга ҳаракат қилинди.

Бу вазифаларни амалга оширишда бир неча муаммоларни кўрсатиш мумкин.

Биринчидан, маҳалладаги муаммоларни тизимли ўрганиш, уларни жойида маҳаллардаёқ ҳал этиш, ёшлар ва хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш, уларни иш билан таъминлаш каби масалалар ечимини кутиб турибди. Яъни, жамоатчилик назоратини ҳуқуқий ва маданий тартибга солиниши халигача юзаки бўлиб қолмоқда. Бу давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишда аҳолининг кенг қатламлари ва ҳақиқий нодавлат нотижорат ташкилотлар маданий иштирокининг кам жалб этилгани ҳисобланади.

Иккинчидан, жамоатчилик назорати ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат идоралари, молия, банк, таълим, соғлиқни сақлаш, коммунал хўжалик, энергетика ва транспорт соҳаларида ҳам жорий этилиши зарур. Шунингдек, бозорлар ва савдо мажмуаларидаги маҳсулотлар ва хизмат кўрсатиш сифати каби масалалар ҳам доимо жамоатчилик назоратида бўлиши даркор.[2]


Учинчидан, ҳозирги кунга қадар давлат органлари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг аниқ ҳуқуқий механизмлари яратилмаган. Бу эса, бугунги кунда нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан давлат органлари ва мансабдор шахслар фаолиятини холисона баҳолашга халақит бермоқда. Бундан ташқари, коррупцияга қарши кураш, маҳаллий давлат ҳокимияти раҳбарларининг қонун ҳужжатларига зид равишда таълим, тиббиёт вакилларини мажбурий ишларга жалб этиш каби аҳолини ташвишга солаётган, мамлакатимиз иқтисодий тараққиётига, аҳолининг кайфиятига салбий таъсир кўрсатаётган соҳалар устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш зарур.

Бугунги кунда ушбу муаммоларнинг ечимини мазмунан бирин-кетин ҳал қилишнинг илк қадамлари бошланган. Ислоҳотларни амалий ҳал этилишида юртимизда яшайдиган ҳар бир фуқаронинг сиёсий маданияти ва ижтимоий фаоллигини ошириш талаб этилади. Бунинг учун эса ҳар бир маҳаллада, ҳар бир жамоада, оммавий ахборот воситаларида жамоатчилик назорати хусусида доимий тарғибот ишларини олиб бориш мақсадга мувофиқ бўлади. Яъни бошқача қилиб айтганда, хориж тажрибасини ўрганган ҳолда, фуқаролар шаффов маълумотларга эга бўлиб, қанчалик кўп билишса, унга нисбатан фаол муносабат билдира олади ва шу ҳолда жамоатчилик назорати маданияти ҳам шаклланади.

2022-2026 йилларда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт натижаларини чуқур таҳлил қилган ҳолда кейинги даврда «Инсон қадри учун» тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислоҳотларнинг устувор йўналишлари белгиланди. Тараққиёт старегияси «Ҳаракатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси

сари» тамойилига асосан еттита устувор йўналишдан иборат 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва уни «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тасдиқланди.[26] Стратегиянинг 1-мақсади “Маҳалла институти фаолиятининг самарадорлигини ошириш, уни жамоатчилик бошқаруви ва назоратининг таянч бўғинига айлантириш” бўлиб, унда маҳалланинг «фаол» моделини жорий этиш, уни аҳоли муаммоларини бевосита ҳал қилиш ҳамда ҳудудни ривожлантириш учун зарур ресурс ва имкониятлар билан таъминлаш мақсадида маҳаллаларда янги институт сифатида жорий қилинган тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокими ёрдамчилари ҳамда ёшлар етакчилари фаолияти самарали йўлга қўйилди. [5]

Дарҳақиқат, янги Ўзбекистон ҳаётига доир ҳар бир қарорни халқ билан маслаҳатлашиб, бевосита мулоқот асосида қабул қилинмоқда. “Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган ғоя бу борада фаолиятимиз мезонига айланмоқда” [1] дея таъкидлайди Президент Ш.Мирзиёев. Қўйидаги жадвалдан кўриниб турибдики (қаранг расм.1) [3] халқ ва жамоатчиликнинг фаол сиёсий ва маданий иштироки ҳамда назорати натижасида мансабдор шахсларнинг фаолияти тартибга солинмоқда. Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “халқ хизматидаги давлат”ни барпо этишда, инсонпарвар бошқарувни таъминлашда маҳалла катта рол уйнамоқда. Доимо эл-юрт хизматида бўлиш, унинг ташвиши билан яшаш барча даражадаги раҳбар ва мутасаддилар фаолиятида энг муҳим ҳаётий мезонга айланмоқда”. [4]



Расм. 1. Мансабдор шахслар жиноятчилиги таҳлили

[26] 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 28.01.2022 йил ПФ-60-сон.

Манба: Ўзбекистон прокуратураси. Коррупцияга қарши кураш. https://www.prokuratura.uz/#/korrupsiyagaqarshi

Демак, маҳалла тизимининг миллий қадриятлар асосида ривожланиши, жамоатчилик назоратининг мавжудлиги сиёсий ҳокимиятнинг том маънода халқ қўлида бўлишининг кўрсаткичи ҳисобланади. Ижтимоий тармоқларда давлат органлари ва уларнинг раҳбар-мутасаддилари хатти-ҳаракатларига нисбатан билдирилаётган сиёсий маданий муносабат туфайли кўплаб камчилик ва муаммолар, қонунбузилиш ҳолатларига чек қўйилаётганини барча бирдек кўриб турибди.

Дарҳақиқат, жамоатчилик назоратидаги сиёсий маданият кўникмаларини кунлик ҳаётда, оддий ҳолатлардаги назоратдан бошлаш муҳим вазифа бўлиб қолмоқда. Масалан, ижтимоий тармоқларда турли хил салбий ва асоссиз маълумотларга холисона, билим ва тафаккурга ишониб мустақил фикр билдира олиш, мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш, ҳомийлик ишларини ҳалол олиб бориш, чиқиндиларни маданият билан ажратилган жойларга ташлаш каби майда, лекин муҳим бўлган ҳолатларда сиёсий маданиятни шакллантиришни давр тақозо этмоқда. Оддий муаммоларни жамоатчилик назорати томонидан ҳал қилина бошлагандан сўнг аҳоли ўртасида мураккаб муаммолар ечимини ҳам ҳал қила олишига ишонч пайдо бўлади. **Масалан, турли соҳаларда чуқур томир ортиб кетган коррупцияга қарши биргаликда кураш олиб бориб, уни енга олиш ишончи ҳам кучаяди.**

Юқоридаги фикр ва мулоҳазалардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, янги Ўзбекистонда жамоатчилик назорати институти янги босқичда шакллана бошлаганини инобатга олган ҳолда, кечаётган сиёсий, ижтимоий-иқтисодий жараёнларга нисбатан сиёсий маданият элементлари ҳисобланувчи шахсий масъулият, ташаббускорлик, яратувчанлик ва дахлдорлик кўникмаларини мустаҳкамлаш муҳимдир. Бундай кўникмаларни мактаб босқичидан бошлаш орқали амалий натижаларга эришиш мумкин. Масалан, мактабларда буюк алломаларимиз ижодида маҳалла тизимининг шаклланиш тарихини ўрганиш, тарбия дарсларида сиёсий маданиятнинг зарарути ҳақида давра суҳбатлари ташкил этиш, юқори синфларда назоратчилик лидерларини тайёрлаш, танлаш ва рағбатлантириш каби замон талабларига мос тадбирларни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Малисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь //http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017

2. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим

мезонидир.07.12.2019//https://president.uz/uz/3119?fbclid=IwAR2xiBI08b2rSxjsfoWNs6LJKBtAjb9OWkVQiq1NL-tMwjIcpUuuEasvTic

3. Ўзбекистон прокуратураси. Коррупцияга қарши кураш. https://www.prokuratura.uz/#/korrupsiyagaqarshi

4. Мирзиёев Ш. Ҳозирги хамон ва янги Ўзбекистон. “Ўзбекистон”, Тошкент. 2024. 382-бет.

5. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йил ПФ-60-сон Фармони.

BO‘LAJAK PEDAGOGNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: NATIJADORLIK VA KASBIY MAHORATGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV

Iskandarov Nurbek Ziyodullayevich
O’zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Kirish: Zamonaviy pedagogik jarayon shaxsning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki uning psixologik madaniyatiga, xususan emotsional intellektiga yuqori talab qo‘ymoqda. Bo‘lajak pedagog shaxsi uchun emotsional intellekt — bu kasbiy muloqot, stressli vaziyatlarda barqaror qaror qabul qilish, o‘quvchilar bilan ijobiy muhit yaratish va motivatsion jarayonlarni samarali boshqarishning asosiy shartidir.

Inson faoliyatini faollashtiruvchi asosiy omillardan biri — bu motivatsion sohadir. Motivlar shaxsning xatti-harakatlarini boshqaradi, yo‘naltiradi va maqsadga erishish jarayonida barqarorlik yaratadi. So‘nggi yillarda psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxs motivatsiyasi faqat tashqi rag‘batlar bilan emas, balki emotsional intellekt darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Emotsional intellekt — bu shaxsning o‘z va boshqalar emotsiyalarini anglash, boshqarish, nazorat qilish, emotsional vaziyatlarga moslashish qobiliyati. Ushbu qobiliyat motivatsion sohaga bevosita ta’sir etadi, chunki insonning ichki holati, emotsional barqarorligi, o‘zini anglash darajasi uning faoliyat motivlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tezisda emotsional intellektning nazariy asoslari, motivatsion soha bilan o‘zaro integratsiyasi va bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellektni rivojlantirish strategiyalari ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

1. Emotsional intellektning psixologik talqinlari va pedagogik faoliyatdagi o‘rni

Emotsional intellekt tushunchasi psixologiya ilmida Salovey va Mayer (1990), D. Goulman (1995), R. Bar-On (1997) tomonidan chuqur asoslab berilgan. Mazkur nazariyalarda emotsional intellekt shaxsning quyidagi qobiliyatlari majmui sifatida ko‘rsatiladi:

Emotsional anglash va baholash

Emotsional boshqaruv
Motivatsiyani o‘z-o‘zini rag‘batlantirish orqali kuchaytirish
Empatiya va ijtimoiy kompetensiyalar
Pedagogik faoliyatda ushbu elementlarning ahamiyati juda katta.
Xususan:
O‘quvchilar bilan muloqotdagi muammolarni bartaraf etadi
Sinfdagi psixologik muhitni optimallashtiradi
Stressga chidamlilikni oshiradi
Dars jarayonida konstruktiv motivatsiya yaratadi
Pedagogning professional imidjini mustahkamlaydi

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, yuqori emotsional intellektga ega pedagoglar o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshiradi, darslarni samarali tashkil qiladi va o‘quvchilar bilan individual yondashuvni ta’minlay oladi.

2. Bo‘lajak pedagogning motivatsion sohasi: nazariy asos va EI bilan uzviy bog‘liqlik

Bo‘lajak pedagogning motivatsion sohasi ko‘plab psixologik nazariyalarda ilmiy asoslangan. Masalan:

A. Maslou – ehtiyojlar ierarxiyasi
F. Gersberg – ikki omilli motivatsiya nazariyasi
D. MakKlelland – yutuqqa intilish motivi
A. N. Leontyev – faoliyat motivlari
K. Rodjers – shaxsning o‘zini ro‘yobga chiqarish tendensiyasi

Pedagogik ta’lim jarayonida motivatsiya ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:
Akademik motivatsiya – o‘qish jarayoniga qiziqish
Kasbiy motivatsiya – pedagog kasbini ongli tanlash va unga sodiqlik

Motivatsion sohaning emotsional intellekt bilan bog‘liqligi shundaki:
Emotsional intellekt ichki motivatsiyani kuchaytiradi
O‘zini boshqara olgan shaxs maqsad qo‘yish va natijaga erishishda faollik ko‘rsatadi

Empatiya pedagogning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, chunki o‘quvchi bilan ishlashda mazmuniy qoniqish paydo bo‘ladi
Stress boshqaruvi kasbiy charchashning oldini oladi

Demak, motivatsion sohani samarali boshqarish uchun emotsional intellekt muhim psixologik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

3. Emotsional intellektni rivojlantirish strategiyasi: natijadorlik va kasbiy mahoratga yo‘naltirilgan yondashuv

Bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellekt rivoji tizimli strategiyalar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Quyida ular ilmiy asoslangan shaklda keltiriladi:

3.1. Shaxsiy-emotsional rivojlanish strategiyasi
Hissiy o‘zini anglash bo‘yicha mashg‘ulotlar
Emotsional refleksiya kundaligi yuritish
Stressni boshqarish texnikalarini o‘rgatish
Mindfulness va relaksatsiya texnologiyalari

3.2. Muloqot va empatiya kompetensiyasini shakllantirish strategiyasi
Empatiya treninglari
Konfliktologiya bo‘yicha amaliy seminarlar
“Faol tinglash” texnikalari
Jamoadagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini mustahkamlash
3.3. Motivatsiyani boshqarish va o‘zini o‘zi rag‘batlantirish strategiyasi
SMART maqsadlar qo‘yish texnologiyasi
Ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi psixotexnikalar
Akademik faoliyatda reflektiv yondashuv (portfolio, kundalik, monitoring)
3.4. Kasbiy mahorat bilan integratsiyalangan EI strategiyasi
Pedagogik amaliyot jarayonida emotsional kompetensiyalarni qo‘llash
Mentor-pedagoglar kuzatuvi asosida emotsional feedback berish
Dars jarayonida emotsional boshqaruv metodlari (pozitiv kayfiyat shakllantirish, ijobiy muloqot, konstruktiv tanqid)

Mazkur strategiyalar natijadorlikni oshirish, pedagogik mahoratni mustahkamlash va bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy-professional o‘sishini ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt bo‘lajak pedagogning kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional intellekt — bu o‘zini va boshqalarni tushunish, hissiy jarayonlarni boshqarish, motivatsiyani kuchaytirish va professional faoliyatni samarali tashkil etishning psixologik resursidir.

Shu bois pedagog kadrlar tayyorlash tizimida:
Emotsional intellektga yo‘naltirilgan treninglar,
psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish dasturlari,
shaxsiy rivojlanish modullari
jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi lozim.

Mazkur strategiyalarning amaliy tatbiqi pedagogik ta’lim sifatini oshiradi va kelajak avlod tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Emotsional intellekt motivatsion sohaning barcha jihatlari — ehtiyojlarni anglash, maqsadlarni aniqlash, o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya va kasbiy rag‘bat — bilan chuqur bog‘liq. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan shaxsning motivatsion barqarorligi kuchli bo‘ladi, kasbiy yondashuvi esa samarali shakllanadi. Shu bois bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellekt rivojlantirish motivatsion sohani boshqarishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

2. Goleman, D., Boyatzis, R., & McKee, A. (2002). Primal Leadership: Learning to Lead with Emotional Intelligence. Harvard Business School Press.

3. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. Psychological Inquiry, 15(3), 197–215.

4. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence. Psicothema, 18, 13–25.

5. Petrides, K. V. (2010). Trait Emotional Intelligence Theory. Industrial and Organizational Psychology, 3(2), 136–139.

6. Karimova, V. (2016). Emotsional intellekt va shaxs rivoji. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot.

7. Yo‘ldoshev, J., & Xodjayev, N. (2020). Pedagogik mahorat va pedagog shaxsining rivoji. Toshkent.

8. Madrahimova, M. (2021). Pedagogning psixologik madaniyati va emotsional savodxonligi. Toshkent.

9. Hasanov, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi. Toshkent.

10. Djalilova, N. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari. Monografiya. Toshkent.

11. Рубинштейн, С. Л. (2010). Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер.

12. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review.

“MA’NAVIY IMMUNITET”DAN “MA’NAVIY YETAKCHILIK”GA: KO‘RISHDA NUQSONI BO‘LGAN YOSHLARNING O‘ZIGA XOS QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Islamova Fotima Shamsiddinovna
Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi
Abduqunduzova Gulsora
Xalqaro Nordik universiteti talabasi

Ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslar deganda barchaning hayolida, ko‘rish qobiliyati butkul cheklangan o‘quvchilar gavdalanadi. Aslida, ko‘rish qobiliyatida nuqson bu- atrof-muhitni idrok etish qobiliyati ya’ni vizual axborotlardan foydalanish to‘liq yoki qisman buzilgan o‘quvchilardir. Ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslarda bilish jarayonlarida, nutqida va ijtimoiy moslashuvida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday o‘quvchilar bilan ishlashda maxsus pedagoglar qo‘shimcha yordamchi texnologiyalar, maxsus pedagogik va psixologik yondashuvlar va ayniqsa, ma’naviy tarbiyani shakllantirishda qo‘shimcha yondashuvlar juda muhimdir. Ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish, ushbu o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va eng asosiysi, o‘z qobiliyatlarini erkin namoyish qila olishi uchun ham juda muhimdir. Ushbu nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ma’naviy immunitetni hosil qilish jarayoni ko‘proq

sezgi, eshitish, muloqot va harakat orqali amalga oshirilishi lozim. Shu boisdan, ushbu nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ma’naviy immunitetni shakllantirish uchun, tarbiyaviy ishlar ularning imkoniyatrlarini hisobga olgan holda, idrok imkoniyatlariga moslangan shaklda, ko‘rsatmalar aniq va amaliy faoliyat bilan boyitilgan bo‘lishi zarur. Bemor insonda qanchalik immunitet hosil qilish murakkab va eng kerakli jarayon hisoblangani kabi, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ham ushbu jarayon shunchalik muhimdir. Ushbu muhim jarayonda esa, albatta maxsus pedagoglarning va psixologlarning ro‘li juda katta.

Maxsus pedagoglar ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda mehr-oqibat, sabr-toqat, o‘ziga va boshqalarga nisbatan ma’suliyat va hurmat, o‘zaro yordam kabi tushunchalarni tajribalar orqali o‘rgata olsalargina, ushbu o‘quvchilarda ma’naviy immunitet shakllanib boradi. Maxsus pedagoglar va ota-onalarning ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni doimiy qo‘llab quvvatlashi, ushbu o‘quvchilarning tengdoshlari va o‘qituvchilari orasida qulay psixologik muhit yaratilishi va albatta, yaxshi nuloqot va namunaviy xulq ko‘rsatish bolalarda ma’naviy tarbiyani shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘plab olimlar ham rivojlanishda nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarni nuqsonlarini korreksiya qilishda pedagogik va ijtimoiy moslashuvning o‘rni beqiyosligi haqida aytib o‘tishgan. Misol qilib shuni keltirishimiz mumkinki, T.A.Vlasovaning aytgan optimistik bashorati naqadar haqiqiy ekanligini hozir defektologiya sohasida erishilgan, erishilayotgan yutuqlar ham ko‘rsatib turibdi. “Ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalarda aqliy va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari saqlanib qoladi, agar ta’lim jarayoni ularning sensor va psixologik xususiyatlariga mos tashkil etilsa.” - deb ta’kidlaydi.[27] Bundan shuni anglashimiz mumkinki, rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarga eng asosiysi psixologik, pedagogik to‘gri yondashilsa va ularga mos ravishda korreksion ishlar olib borilsa ma’naviy immunitetni hosil qilib, to‘g‘ri yo‘naltirilsa ularda kasalliknining hayotidagi o‘rnini osonlashtira olish mumkin bo‘ladi.

Ko‘rishda nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ma’naviy immunitetni hosil qilishdan to ma’naviy tarbiyagacha yo‘lni bosib o‘tish juda murakkab va mashaqqatli jarayon.Ushbu mashaqqatli vazifani o‘z bo‘yniga olgan 77-sonli “Nurli Maskan”ning aniq fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga dars beruvchi, zaif ko‘rishga ega bo‘lgan Oqmurod ...ni misol qilib keltirish mumkin. Oqmurod Otamurodov bilan suhbat olib borar ekanmiz, ko‘rish qobiliyatida ma’lum nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilari bilan shunday muloqot olib boradiki, u o‘quvchilarda bir-biriga bo‘lgan iliq munosabatlar vanamunaviy xulq yaqqol ko‘zga tashlandi. Oqmurod ustoz olib borayotgan maxsus metodlar, adabiyotlar, interaktiv o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar ma’naviy-axloqiy tushunchalarni bolalarga singdirishda tayanch vazifasini bajarmoqda. Bu jarayonlar asosida, biz Oqmurod Otamurodov ni ma’naviy yetakchilik qilayotgan shaxs desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Oqmurod Otamurodov o‘z tajribasi va qobiliyatini jamiyat manfaatiga yo‘naltirmoqda. Ya’ni ma’naviy immunitetni bolalarda hosil qilishda muhim o‘rin tutadi.

[27] Власова Т. А. Дети с нарушениями зрения. — М. : Просвещение, 1982. - 208 стр.

Ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish va ularni jamiyatga integratsiya qilish jarayonida, avvalo, ularning individual qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlarni to‘g‘ri baholash va o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishda ma’naviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda Oqmurod Otamurodovning shaxsiy yetakchiligi hal qiluvchi omil bo‘lib, ular ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda mavjud ichki salohiyatni yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, raqamli texnologiyalardan va axborot resurslaridan foydalanishdagi kamchiliklar, shuningdek, global axborot oqimidan chetda qolish xavfi mavjud. Agar ushbu muammolarning oldi olinmasa, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarda o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari kamayadi, ta’lim va kasbiy rivojlanish jarayonlaridan to‘liq foydalana olmaslik holatlari yuzaga keladi hamda eng muhimi, jamiyat hayotida passivlashuv kuzatiladi.

Mazkur holatda texnologiyalarning mavjudligi yetarli emas, balki ularning ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun qulay foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi muhim. Aks holda, texnologiya rivoji tahdid omiliga aylanishi mumkin, zarur shart-sharoitlar yaratilgan taqdirda esa, aksincha, ularning shaxsiy rivoji va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim imkoniyat vazifasini bajaradi.

Ushbu imkoniyatlarni yaratish va ularni samarali tashkil etish Braille yozuviga ega bo‘lgan texnologiyalar hamda moslashtirilgan o‘quv platformalarisiz sezilarli darajada qiyinlashadi. Shu bois, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus moslashtirilgan platforma yaratish zarur bo‘lib, ushbu platforma orqali ular o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari va tengdoshlari bilan hamkorlik asosida faoliyat olib borishlari mumkin bo‘ladi. Mazkur platforma ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun qulay, tushunarli va oson foydalaniladigan shaklda ishlab chiqilishi lozim.

Platforma doirasida turli tanlovlar va ijodiy musobaqalarni tashkil etish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi. Jumladan, audio-esse, she’r, qisqa audio hikoyalar yaratish, mualliflik qo‘shiqlari yoki ijro etilgan qo‘shiqlarni ommaga taqdim etish kabi faoliyat turlari tashkil etiladi. Shuningdek, ushbu platformada ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarga ma’naviy va zamonaviy bilim berishga xizmat qiluvchi audio-podkastlar, audio kitoblar joylashtirilishi, shuningdek, maxsus muhokama guruhlarini tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning erkin fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularning ma’naviy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Agar bunday platforma yaratilsa, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilar sog‘lom tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jumladan, rassomlar, aktyorlar va boshqa ijodkorlar bilan birgalikda audio ko‘rgazmalar yoki radio spektakllar yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, platforma foydalanuvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda shaxsiy akkauntlar yaratish imkonini ham taqdim etadi. Bu esa

o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlari va ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka taqdim etish imkonini beradi.

Mazkur platforma faoliyati “Mutolaa” platformasi modeliga yaqin tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu texnologiya ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol, mustaqil va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Platforma ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchilarga taqdim etilsa, ular xalqaro hamjamiyatda ham faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ya’ni o‘z tajriba va ijodiy faoliyatlarini global miqyosda namoyon etishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, platforma ekran o‘quvchi dasturlar, ovozli darslar, yuqori kontrastli dizayn, qulay navigatsiya kabi imkoniyatlarni ham o‘z ichiga olishi lozim. Natijada, ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslar ta’lim manbalaridan mustaqil va keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan platforma inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillariga to‘liq mos keladi. U ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslarni umumiy ta’lim jarayoniga va jamiyat hayotiga faol jalb etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur texnologiya maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan o‘quvchilar o‘rtasida ta’limdagi tenglikni kuchaytirib, hamkorlikda ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, maxsus moslashtirilgan platformani inklyuziv ta’limning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin. U nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ko‘rish qobiliyatida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy rivoji, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda qobiliyat va qiziqishlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, inklyuziv ta’lim g‘oyasi jamiyat hayotida samarali tarzda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рубинштейн С. Я. Основы общей психологии. - М.: Педагогика, 1989. - 720 с.

2. Рубинштейн С. Я. Человек и мир. - М.: Наука, 1973. - 255 с.

3. Власова Т. А. Дети с нарушениями зрения. - М.: Просвещение, 1982. - 208 с.

4. Власова Т. А., Плаксина Л. И. Тифлопедагогика. - М.: Академия, 2005. - 336 с.

5. Плаксина Л. И. Психолого-педагогические основы коррекционной работы с детьми с нарушениями зрения. - М.: Владос, 2006. - 192 с.

6. Малофеев Н. Н. Специальное образование в меняющемся мире. - М.: Просвещение, 2010. -319 с.

7. Инклюзивное образование: методология, практика, технологии / под ред. Н. Н. Малофеева. - М. : Педагогическое общество России, 2014. - 256 с.

8. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. - Paris: UNESCO, 2005. - 35 p.

9. World Health Organization. World Report on Disability. - Geneva: WHO Press, 2011. - 350 p.

10. Alimova D. A. Ma’naviy tarbiya va shaxs rivoji. - Toshkent: O‘qituvchi, 2018. - 184 b.

11. Karimova G. Q. Inklyuziv ta’lim sharoitida imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiylashtirish. - Toshkent: Fan, 2020. - 156 b.

12. Islamova, F. (2024). Ёшларни Мустақил Оилавий Ҳаётга Тайёрлашда Инсоний Фазилат Ва Сифатларнинг Тарбиявий Аҳамияти: Ёшларни Мустақил Оилавий Ҳаётга Тайёрлашда Инсоний Фазилат Ва Сифатларнинг Тарбиявий Аҳамияти. Nordic_Press, 1(0001).

13. Xabibullayevna, V. N., Mirakbarovna, F. D., Mirshadmanovna, X.Z., Shamsuddinovna, I. F., Saydulllayevich, N. M. B. R., & Sayfutdinqizi, F. K. (2025). Application of game technologies in education: in the context of Uzbekistan. Lex Localis: Journal of Local Self-Government, 23.

14. Shamsiddinovna, I. F., & Alisherovna, A. G. (2025, June). Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb vazifalari. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 140-146).

15. Islamova, F. (2025). Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachi-pedagoglari ijtimoiy-kasbiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.1), 242-244.

16. Abduqunduzova Gulsora., & Shohida Jo’rayeva Hakimova (2024) Daun sindromi: etiologiyasi, klinik belgilari va ta’lim metodikasi.

ZAMONAVIY TEXNIKALARNING TARJIMA SOHASIGA TA’SIRI

Ismailova Sarvinoz Sherzod qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Tarjima bu ikki xalqni bog‘lovchi ko‘prik,tarjimon esa ko‘rinmas ijodkor.Bir narsani tarjima qilish jarayonida o‘sha xalqni madaniyati,urf-odatini va an’analarini bilmaslik ko‘plab xatolarga olib keladi va bularni bilish juda zarur.Lekin tarjima qilishda boshqa xatolar ham bor.Texnik tarjima — bu turli tillarda so‘zlashadigan odamlar o‘rtasida maxsus ilmiy va texnik ma’lumotlarni almashish uchun ishlatiladigan tarjima. Soddalashtirilgan yondashuvda texnik tarjima deganda texnik matnlarning tarjimasi tushuniladi.

Texnik tarjimaning asosiy muammosi chet tilini bilish bilan texnologiya bilimlarini uyg‘unlashtirish zaruratidan iborat. Ham lingvistik, ham texnik ma’lumotga ega texnik tarjimonlarning yetishmasligi tufayli texnik tarjimonning asosiy ta’lim ma’lumoti haqida munozaralar uzoq vaqtdan beri davom etmoqda. Ba’zi mualliflar lingvistik oliy ma’lumotga (ya’ni, chet tillari sohasidagi ta’lim) ega bo‘lib, keyinchalik terminologik asos

va texnik bilimlarni oshirishni afzal deb hisoblashadi. Boshqa mualliflarning fikricha, savodli texnik tarjima tegishli texnologiya sohasi bo‘yicha professional bilimni talab qiladi, chet tilini yaxshi bilish esa, ayniqsa ona tiliga tarjima qilishda juda muhim emasdir.Ammo bularni hammasini bilish tarjimada texnik muammolarni kamaytiradi va qulayligini oshiradi.Ikki turli yondashuvning mavjudligi tarjima agentliklari tomonidan qo‘llanadigan tarjima texnologiyalarida namoyon bo‘ladi. Birinchi yondashuv tarafdorlari tarjimalarni lingvistik ma’lumotga ega tarjimonlarga bajartirib, maxsus texnik mutaxassislarga tahrir qildirishadi. Ikkinchisining tarafdorlari tarjimada faqat ijrochi muhandislarni jalb qiladilar, tarjimani tahrirlash esa (tilshunos tomonidan) faqat chet tiliga tarjima qilinganda amalga oshiriladi. Texnik tarjimalarni amalga oshirish texnologiyasidan qat’i nazar, tarjimalarni amalga oshirish uchun malakali kadrlarni topish muammosi mavjud bo‘lib, bu tarjimonlarning ma’lumot darajasi bilan ham, tarjima xizmatlari bozoridagi vaziyat bilan ham bog‘liq. Natijada, Rossiyada texnik tarjimalarning umumiy darajasi nisbatan past va bunday ishlarni bajarishi kerak bo‘lgan ko‘plab kompaniyalar ularni tarjima agentliklari yordamisiz mustaqil ravishda tashkil qiladi.[1].Tarjimonlar malakasini oshirish ishlariga ko‘proq e’tibor qaratilsa muxatassislarga bo‘lgan ehtiyoj ham kamayadi,tarjimalarning umumiy darajasi ham oshadi.Texnik bilimlarga kelsak, tarjimonlar, birinchi navbatda, tilshunoslar. Ular ba'zi fanlardan yaxshi bilimga ega bo'lsalar ham , odatda bu sohada eng yaxshi mutaxassis bo‘lmasligi mumkin. Darhaqiqat, siz odatda ularga doktor emas, mutaxassis tilshunos sifatida murojaat qilasiz. Tarjimonlar odatda ma'lum sohalarga ixtisoslashgan va turli mavzular bo'yicha tajribaga ega bo'lishadi. Lekin ba’zida bu bilimlar tarjimaning ayrim turlari uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Ayrim matnlar texnik jargonga to'la bo'lishi mumkin yoki muayyan protseduralar yoki harakatlar haqida batafsil gapirish mumkin. Bu tarjimonlar uchun muammo tug'dirishi mumkin . Agar masala juda texnik bo'lsa, vazifani bajarish uchun sizga ko'p vaqt kerak bo'lishi mumkin - odatdagidan ko'proq. Agar siz nima qilishni bilmay qolgan bo‘lsangiz, ba'zi ko'rsatmalar uchun mijoz bilan bog'lanishingiz yoki o'zingiz yaxshi bilgan mahalliy mutaxassis bilan maslahatlashib, ulardan yordam so'rashingiz mumkin . Bundan tashqari, chuqurroq bilim olish yoki ushbu sohada sodir bo'layotgan yangi o'zgarishlardan xabardor bo'lish uchun o‘z ustingizda ishlashingiz muhim.[2].Darhaqiqat,zamonaviy bilimlar kundan kunga rivojlanayotgani bois ulardan doimo xabardor bo‘lish zamon bilan hamnafas bo‘lish demakdir.Bundan tashqari,har xil turdagi tarjima muammolariga duch kelishlar kam bo‘ladi,qulaylik oshadi.

Tarjimonlar uchun quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lgan tarmoq jamoalarini tashkil qilish mumkin bo‘ladi: bir tildan boshqalariga tarjima jarayonida bilimlarni intensiv ravishda almashinishga imkon beradi, bu sohadagi yangiliklarga erishishdagi yuqori motivatsiyani ta’minlaydi, tarjimada o‘zaro yordamni va til bilan bog‘liq ma’lumotlarning akkumulyatsiyasini amalga oshiradi, tarjima sohasida tajriba almashinish va bu sohada kerakli bo‘lgan amaliy tajriba hamda ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.Tarjima bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni faol ravishda almashinish, bu borada yuqori motivatsiyani ta’minlash, sohadagi yangiliklarni tezkor ravishda bilib turish, o‘zaro yordam, bir-birini qo‘llab-

quvvatlash va tarjimonlik sohasidagi mustaqil faoliyatga undaydigan faol tarmoq jamoasi tashkil qilish imkoniyatini yaratib beradi.[3]

Mashina tarjimasi – bir tabiiy tildan ikkinchi tilga matnni raqamli hisoblash mashinalari va kompyuterlar yordamida tarjima qilish. EHM va kompyuterlar uchun dasturlar tuzish, matematik lingvistika va amaliy lingvistika kabi yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq. Mashina tarjimasi tizimini yaratish ilmiy tadqiqotlar mahsuli hisoblanadi.Mashina tarjimasi g‘oyasini birinchi bo‘lib fransuz ixtirochisi J. Arsruni va undan mustaqil ravishda rus ixtirochisi P. P. Smirnov-Troyanskiylar 1933-yil ilgari surishgan. Pekin u, asosan, 20-asr 40— 50-yillarida rivojlangan. Mashina tarjimasi jarayoni matnni tarjima qilish uchun uni tahlil etish, ya’ni morfologik, sintaktik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqishni taqozo qiladi.Mashina tarjimasi tizimi uchun ma’lumotlar bilan ta’minlashning ushbu 5 turi zarur: lingvistik ta’minot (matnni taxlil va sintez qilish uchun grammatik hamda semantik ma’lumotlarni beruvchi avtomatik lug‘atlar); matematik-algoritmik ta’minot (matnga ishlov berish algoritmlari va ma’lumotlar va algoritmlarni qayd qilish uchun qoidalar tizimi), dasturiy ta’minot (tarjima algoritmini amalga oshiruvchi va qo‘shimcha dasturlar), informatsion ta’minot (tegishli fan sohalariga doir ma’lumotlar bazasi) hamda mantiqiy ta’minot (matnni fan sohasiga doir ma’lumotlar bilan taqqoslash uchun mantiqiy xulosalar usullari) zarur bo‘ladi.Mashina tarjimasi tizimida qaysi tildan qaysi tilga tarjima qilinsa, o‘sha tillarning ham grammatik, ham semantik, imloviy xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus dastur tuzib olish kerak bo‘ladi. Zarur hollarda Mashina tarjimasi ishiga inson-muharrir ham aralashadi.Mashina tarjimasi tizimi kiruvchi va chiquvchi tillarning lingvistik tavsifi (ya’ni barcha darajadagi avtomatik lug‘atlar va shartli grammatika) va algoritm (ya’ni bu lug‘atlar va grammatikadan foydalanishga doir yo‘l-yo‘rikdar) dan iborat. Tarjima shu asosga asoslanib bajariladi. Mashina tarjimasida asosiy kiruvchi tillar – ingliz, fransuz, rus tillari; chiquvchi tillar – o‘zbek, nemis, yapon, chex va boshqa tillar. Agar maxsus dasturlar tuzilsa, aksincha (mas, o‘zbek tilidan rus tiliga) tarjima qilish mumkin[4]. Mashina tarjimasi tez va qulay tarjima qilib beradi,ammo ba’zi bir ma’nolarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunib bizga shuni chiqarib beradi,masalan, biznesi kasod bo‘lib “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi” deyilganni yozsak,tarvuz va tushib ketmoq ma’nolaridagi so‘zlarni taqdim qiladi.Lekin ko‘proq dasturlashdagi va IT sohasidagi so‘zlarni tarjima qilishga yo‘naltirilganini ham unutmaslik lozim.

Texnik tarjimaga inson tarjimon aralashadi,mashina tarjima esa sun’iy intellekt tomonidan tarjima qilinadi.Yuqorida aytib o‘tilganidek,ba’zan inson tarjimon ham aralashadi,qachonki to‘grilash va kengroq ma’lumotlar to‘plash uchun. Texnik tarjima va mashina tarjimasi o‘rtasidagi farqlarni aytadigan bo‘lsak, texnik tarjimada terminlar aniq bo‘ladi,mashina tarjimasida kontekstlar bilan bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin.Texnik tarjimada tarjimon mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsa,mashina tarjimasida bo‘lsa javobgarlik dasturni ishlab chiquvchiga yoki tizim foydalanuvchisiga yuklatiladi,lekin bu tarjima hamyonbop va tez tarjima qiladi.

Ba’zan matn ijodiy emas, balki texnik uslubda yozilishi talab qilinadi. Hayotimizdagi ayrim paytlarda, masalan, «Ikea» javonini yig‘ishda yoki yangi dori qabul qilishni boshlaganimizda, yo‘riqnomalarning qanchalik muhim ekanligini tasavvur qiling. Texnik yozuvchi aynan shunday ishlarni aniq va ravon tarzda bajaradi.[5] Texnik yozuvchi bu murakkab ma’lumotlarni sodda,tushunarli va tizimli holga keltiruvchidir. Bu nafaqat matn yozish, balki tahlil qilish, mantiqiy tuzish va foydalanuvchi nuqtayi nazaridan fikrlashni talab qiladigan ijodiy jarayondir. Shu sababli men texnik yozuvchini oddiy yozuvchi emas, balki “texnologiya va inson o‘rtasidagi ko‘prik” deb hisoblasa bo'ladi.Yana bir muhim jihat shundaki, texnik yozuvchi faqat texnik bilim bilangina emas, balki til madaniyati, kommunikatsiya va pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishi kerak. U murakkiy matnni shunchaki tarjima qilmaydi, balki uni qayta tuzadi, moslashtiradi va o‘quvchi darajasiga tushiradi.Ular sabab dasturiy mahsulot,texnik qurilmalar,muhandislik tizimi chuqur tahlil qilinadi.

Texnik bilim bu shaxsning texnika va texnologiya sohasiga oid nazariy va amaliy tushunchalarni o‘zlashtirganligi, texnik tizimlarning ishlash tamoyillarini tushunishi hamda ularni amaliyotda qo‘llay olish malakasidir.Texnik bilimlar ayniqsa,dasturlashda, IT, muhandislik,mexanika, eleltronika, avtomatika kabi sohalarda kompyuter qismlari,processor,RAM, qattiq disk kabi qurilmalar tuzilishini bilishda asqotadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki,tarjima sohasidagi muammolarni kamaytirish uchun bu soha bilan chuqurroq shug‘ullanish hamda bu muammolar yechimi ko‘lamini kengaytirish zarur.Bir gap bilan aytadigan bo‘lsak,zamonaviy texnikalarning ba’zi bir xatolari bo‘lishiga qaramasdan,tarjima sohasiga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. Yana bir yaxshi tomoni shundan iborat:qulaylik va tezkorlik tarjimonlarga yuklatilgan vazifalarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://t.me/c/2680298848/139 wikipedia ma’lumotlari.

2. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH.International scientific online conference ,22 .TARJIMADAGI ASOSIY MUAMMOLAR Dilbar Anvarjon qizi Alimboyeva

3. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 161-170 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

4. Wikipedia,Tarjima mashinasi

5. biznesgoya.uz https://biznesgoya.uz

JINOYATCHILIKNING MAFKURAVIY SABABLARI: TAHLIL VA OLDINI OLISHDA TARBIYAVIY YONDASHUV

Ismatullayeva Madina Xayriddin qizi
Jamoat Xavfsizligi Universiteti talabasi

Bugungi globallashuv jarayonida jinoyatchilik nafaqat huquqiy, balki mafkuraviy, ijtimoiy va axloqiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida turli yot g‘oyalarga berilish, radikal qarashlarga moyillik va ijtimoiy tarmoqlar orqali zararli axborotlarga duch kelish holatlari jinoyat sodir etilishiga bevosita turtki bo‘lmoqda. Jinoyatlarning asosiy sabablari qatorida mafkuraviy beqarorlik yetakchi o‘rinni egallashi, shaxs ongida shakllanuvchi salbiy tasavvurlar, jamiyatdan ajralish hissi, axborot xurujlari va psixologik bosimlarning kuchayishi bilan bog‘liq.Shu jihatdan qaraganda, jinoyatchilikka qarshi faqat jazolash yo‘li bilan emas, balki tarbiyaviy, mafkuraviy va ijtimoiy yondashuvlar orqali kurashish muhimdir. Shaxsning ongida ijtimoiy mas’uliyat, huquqiy ong va axloqiy immunitet shakllanmasa, jinoyat sodir etishga moyillik yuqoriligi saqlanib qolaveradi. Aynan mana shu bosqichda tarbiyaning ahamiyati va samaradorligi dolzarb mavzuga aylanadi.

Mafkuraviy beqarorlik – bu shaxs dunyoqarashining mustahkam emasligi, hayotda tutgan yo‘lini anglamaslik va har qanday tashqi ta’sirga nisbatan zaif bo‘lish holatidir. Bunday vaziyatda yoshlar yot g‘oyalarga berilishi, virtual dunyodagi noto‘g‘ri axborotlar ta’sirida qolishi va oxir-oqibat jinoyat sodir etishigacha olib keluvchi muhitda yashashi mumkin. Xususan, diniy ekstremizm, etnik radikalizm, siyosiy manipulyatsiyalar va ommaviy madaniyat ta’siridagi mafkuraviy buzilishlar hozirgi kunda eng xavfli jinoyat omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Buning isboti sifatida so‘nggi yillarda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rilgan zo‘ravonlik, radikal kontentlar, nomaqbul guruhlarning ta’siri natijasida amalga oshirilgan jinoyatlar sonining ortgani qayd etiladi. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan o‘tkazilgan ichki tahlil natijalariga ko‘ra, jinoyat sodir etgan 15–25 yoshli shaxslarning 37 foizi jinoyatdan avval ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlik yoki radikal kontentlarni ko‘rganini tan olgan. Shuningdek, 45 foiz holatlarda jinoyatga ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik yoki iqtisodiy muammolar sabab bo‘lgan bo‘lsa, 18 foiz holatda guruh ta’siri yoki “do‘stlar bosimi” aniqlangan.[1] Bu esa jinoyatchilikka olib kelayotgan omillar orasida mafkuraviy muhitning beqarorligi muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Bunday holatlarda tarbiyaviy yondashuvni kuchaytirish, ya’ni shaxs ongini sog‘lom g‘oyalar bilan boyitish, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy bilimlar asosida mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya – bu shunchaki ma’naviy tushunchalar yig‘indisi emas, balki shaxsning butun hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi vositadir. Avvalo, oila muhitida beriladigan tarbiya, bolalikdan boshlab yosh ongiga singdiriladigan qadriyatlar, milliy g‘urur, halollik, adolatparvarlik, ijtimoiy javobgarlik hissi keyingi bosqichlarda jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.Farzand tarbiyasi har qachongidan ham ustuvor ahamiyatga ega va bu o‘z navbatida , oila muhiti bilan bog‘liq. Zero,oila-

yuksak tarbiya maskani. Jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri ham aynan oilaviy muhit hisoblanadi.Oilada ota-ona qanday bo‘lsa, farzand ham kelajakda ulardan andoza olgan holda tarbiya topadi. Xalqimizda : “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”,- degan naql ham bejizga aytilmagan. Tasavvur qiling, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar, doimiy urush-janjallarni ko‘rib kamol topayotgan farzandlardan qanday qilib biz ijobiy natijalar kutishimiz mumkin. Albatta, bunday oilada katta bo‘layotgan farzandlar ham e’tibordan holi emas va bu bolaning jinoyatga qo‘l urishiga turtki bo‘lmoqda. Edwin Sutherlandning jinoyat soddalashtirish nazariyasiga (Differential Association Theory, 1939) ko‘ra, deviant xulq oilaviy va ijtimoiy muhit orqali o‘zlashtiriladi. Ta’kidlash joizki, AQShda Amerika Kriminologiya Jamiyati (ASC) tadqiqotlari voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 75% dan ortig‘i oilaviy muammolar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, yolg‘iz ota-onalar tomonidan tarbiyalangan bolalar jinoyatchilikka 2-3 baravar ko‘proq moyil bo‘lishadi. [2]Buyuk Britaniyada, Milliy Statistik Ofis (ONS) ma’lumotlariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikka duch kelgan voyaga yetmaganlarning 60% jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori.[3] Germaniyada esa, Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, oilaviy ajralish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini 40% ga oshiradi.[4]Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib, oilaning barqarorligi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda muhim omil ekani aniq ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari,ijtimoiy muhit,iqtisodiy omillar ham jinoyatchilikning sodir etilishida asosiy o‘ringa ega. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jinoyat sodir etganlarning yarmidan ko‘pi yetarlicha tarbiya olmagan yoki ijtimoiy nazoratdan chetda qolgan shaxslar bo‘lgan. Shu bois maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalari, mahalla, diniy tashkilotlar, ijtimoiy tarmoqlar kabi omillar shaxs tarbiyasini shakllantiruvchi kuchlar sifatida samarali ishlashi lozim. Ta’lim tizimida esa tarbiyaviy komponent yetarlicha kuchli bo‘lishi kerak. Faqat darslik asosidagi ta’lim emas, balki ochiq muloqotlar, real hayotiy misollar, huquqiy bilimlar, ma’naviyat va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali tarbiya jarayoni jonlantirilsa, jinoyatga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilinadi.

Xorij tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, AQSHda “Scared Straight” dasturi orqali jinoyatga moyil yoshlar qamoqxonalarga olib borilib, u yerda haqiqiy mahbuslar hayotini ko‘rib, jinoyatning qanday oqibatlarga olib kelishini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Ushbu psixologik ta’sir orqali ularning ongida kuchli ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi.[5] Germaniyada esa har bir maktab o‘quvchisiga “ongli fuqarolik” fani majburiy tarzda o‘qitiladi. Bu orqali yoshlar jamiyat, davlat va huquq oldidagi mas’uliyatini anglaydi. Yaponiyada esa mahalliy jamoa, oila va maktabning o‘zaro hamkorligi asosida tarbiya yuritiladi. Har bir bola jamoatchilik nazorati ostida bo‘lib, uni nafaqat ota-onasi, balki qo‘ni-qo‘shnilar, ustozlar va jamiyat a’zolari tarbiyalaydi. Bunday tizim natijasida Yaponiyada jinoyatchilik darajasi dunyodagi eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston tajribasida esa so‘nggi yillarda “Yoshlar daftari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ma’naviyat soatlari”, “Huquqiy targ‘ibot guruhlari” kabi tashabbuslar orqali yoshlar tarbiyasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Biroq bu yo‘nalishda hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p. Jinoyatchilikni mafkuraviy ildizlaridan uzish uchun tarbiya ishlarini

kuchaytirish, ma’naviy-axloqiy yondashuvlarni tizimli amalga oshirish va davlat siyosatini shu asosda shakllantirish dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilikka olib keluvchi mafkuraviy sabablar bilan kurashish uchun har tomonlama, kompleks yondashuv talab etiladi. Shaxsni tarbiyalash, unga sog‘lom dunyoqarash, ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va huquqiy ong berish orqali jinoyatlarning oldi olinadi. Jinoyatchilikning oldini olishda tarbiyaviy yondashuv shaxs ongini ijobiy qadriyatlar, huquqiy bilim va ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan shakllantirish orqali jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan. Bunda oila, ta’lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalari birgalikda ishlashi muhim. Tarbiya nafaqat axloqiy tushunchalarni singdiradi, balki shaxsning to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Shu sababli, tarbiya jinoyatchilikka qarshi eng kuchli va uzoq muddatli profilaktika vositasidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar, 2023-yil. – Toshkent, 2023.

2. American Society of Criminology (ASC). *Juvenile Delinquency Reports, 2023.* Washington, D.C.: ASC Publications.

3. Office for National Statistics (ONS, UK). *Youth Crime and Family Violence Statistics, 2023.* London: ONS.

4. Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law. *Juvenile Delinquency and Family Separation Study, 2022.* Freiburg, Germany.

5. U.S. Department of Justice. Scared Straight Program Analysis. – Washington: DOJ, 2020. – 96 p.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARDA SIYOSIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Berdikulova Surayyo Aslamovna
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)
Isroilova Dildora Baxtiyor qizi
O‘zMU magistranti

Ma’lumki, globallashuv-bu axborot oqimining keskin tezlashuvi, davlatlararo siyosiy aloqalarning kengayishi va global madaniy muloqotning kuchayishi bilan bog‘liq jarayon. Bu jarayon yoshlarning siyosiy ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Internet, xalqaro yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli siyosiy trendlar, g‘oyalar va pozitsiyalarni bir vaqtning o‘zida ko‘rib, ularni qiyoslay oladi. Hozirgi globallashuv jarayoni butun dunyo mamlakatlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon yoshlarning siyosiy qarashlariga va jamiyatdagi faolligiga ham bevosita ta’sir etadi. Shuning uchun globallashuv sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy mavzulardan biri hisoblanadi. Siyosiy

madaniyat yoshlarning huquqiy dunyoqarashini shakllantirish, fuqarolik mas’uliyatini oshirishning asosiy omillaridan biridir [1].

Biz mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllantiruvchi asosiy usullari haqida to‘htalamiz. Xususan, globallashuvning siyosiy ongga ta’siri shundaki, globallashuv siyosiy jarayonlar haqida axborotning tezkor tarqalishi, davlatlararo munosabatlarning kuchayishi va xalqaro institutlar faoliyatining jonlanishi bilan tavsiflanadi. Bu omillar yoshlarning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni global miqyosdagi masalalarga nisbatan ongli bo‘lishga undaydi. Global axborot oqimlari yoshlarning siyosiy dunyoqarashiga bevosita ta’sir qilmoqda [2].

Globallashuv davrida yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar ko‘p bo‘lsa-da, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng muhim va hal qiluvchi uchta omil mavjud. Bugungi globallashuvning bosh harakatlantiruvchi kuchi axborot oqimidir.Yoshlarning siyosiy qarashlari, e’tiqodi va dunyoqarashi asosan: internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali shakllanmoqda. Nega bu eng muhim omil? axborot makoni chegarasiz, ta’siri tezkor va keng qamrovli, yoshlar siyosiy xabardorligining 70–80 foizi internet orqali shakllanadi.

Ta’lim tizimi orqali esa siyosiy madaniyatni shakllantirish qanday kichadi? Globallashuv davrida ta’lim tizimi nafaqat milliy, balki xalqaro demokratik qadriyatlarni o‘rgatishga ham xizmat qilishi zarur. Siyosatshunoslik, huquqiy madaniyat va fuqarolik ta’limi fanlarini modernizatsiya qilish yoshlarning siyosiy savodxonligini oshiradi. Yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllantirish ta’lim jarayonining uzviy qismi hisoblanadi [3]. Ta’lim — siyosiy madaniyatning ongli, tizimli shakllanishini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Ta’lim: tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, siyosiy jarayonlarni tushuntiradi, huquqiy madaniyatni oshiradi, demokratik qadriyatlarni singdiradi.

Oila va mahalla institutlarining o‘rni ham muhim. Yoshlarning siyosiy qarashlari avvalo ularning eng yaqin ijtimoiy muhiti bo‘lgan oilada shakllanadi. Oila nafaqat shaxsning tug‘ilish va tarbiya maskani, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy-psixologik qarashlari va fuqarolik pozitsiyasining dastlabki manbaidir. Mazkur jarayonda ma’naviy muhit, ya’ni oiladagi axloqiy me’yorlar, o‘zaro hurmat, tarbiyaviy an’analar va kommunikativ munosabatlar hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan, oila yosh avlodga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi: hurmat, odob, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, tartib-intizom kabi fazilatlar siyosiy ongning poydevorini tashkil etadi. Shaxsning siyosiy jarayonlarga munosabati ko‘pincha aynan shu qadriyatlar negizida shakllanadi.

Ikkinchidan, oila yoshlarning ijtimoiy mas’uliyat hissi va jamiyat oldidagi burchini anglashini ta’minlaydi. Oilada berilgan to‘g‘ri tarbiya – maktab, oliy ta’lim, jamoatchilik institutlari tomonidan keyinchalik shakllanadigan siyosiy madaniyatning sifatini belgilaydi. Ayniqsa, ota-onaning davlatga, qonunlarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati yoshlar uchun amaliy namuna sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, ma’naviy muhit siyosiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan fuqarolik pozitsiyasi va faolligini rivojlantiradi. Oilada erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish, ijtimoiy masalalarga befarq bo‘lmaslik

tamoyillari yoshda barvaqt shakllansa, u voyaga yetganida ham faol fuqarolik hayotini tanlaydi.

To‘rtinchidan, oila — bu shaxsning madaniy identiteti shakllanadigan makon. Milliy o‘zlikni anglashi kuchli bo‘lgan yoshlar global jarayonlar ta’siriga nisbatan ancha barqaror va ongli munosabat bildiradi. Ayniqsa, globallashuv davrida axborot oqimlari keskin ko‘paygan sharoitda oilaning tarbiyaviy vazifasi yanada ahamiyat kasb etadi: oila yoshni zararli g‘oyalardan himoya qiladi, tanqidiy tafakkurni shakllantiradi, ma’naviy immunitetni mustahkamlaydi. Ota-onalarning siyosiy savodi, jamiyatdagi voqealarga munosabati hamda milliy qadriyatlarga hurmati yoshlarlarning siyosiy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Mahalla instituti esa yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qiluvchi muhim ijtimoiy maydondir. Oila va ma’naviy muhit -siyosiy qarashlarning poydevori Yoshlarning: qadriyatlari, axloqiy me’yorlari, jamiyatdagi o‘rnini his qilishi, avvalo oilada shakllanadi. Bu siyosiy ongning psixologik-emotsional asosini yaratadi.

Keyingi omillardan biri, Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar. Globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning siyosiy ongini shakllantiruvchi eng ta’sirchan vositalardan biriga aylandi. Raqamli axborot makoni fikrlar xilma-xilligi, siyosiy bahs-munozaralar hamda global jarayonlarga oid axborotning tez tarqalishi bilan ajralib turadi Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining kuchayishi ham muhim omillardan biridir. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari yoshlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish, ularning siyosiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, yoshlar ittifoqi va boshqa institutlar yoshlarni siyosiy jarayonlarga faol qo‘shilishiga zamin yaratadi [4].

Globallashuv sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon bo‘lib, ta’lim, oila, OAV, raqamli makon, fuqarolik jamiyati institutlari, raqamli platformalar va davlat siyosati bilan uzviy bog‘liq. Siyosiy faol yosh-bu jamoat ishlarida o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan, qaror qabul qilish jarayonlariga befarq bo‘lmagan fuqarodir [5].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, siyosiy madaniyatning rivoji yoshlarning siyosiy faolligi, demokratik tamoyillarga hurmati va davlat boshqaruvida ishtirokini kuchaytiradi. Siyosiy madaniyatni oshirishning asosiy yo‘llari — siyosiy media savodxonlikni kuchaytirish, debat maktablarini yo‘lga qo‘yish, yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini rag‘batlantirish va axborot xavfsizligini mustahkamlashdan iborat. Bu usullar yoshlarning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni mas’ul fuqarolar sifatida shakllantiradi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A. Demokratiya va inson huquqlari asoslari.- Тошкент: “Huquq”, 2015. – Б. 42.

2. Umarov H. Axborot jamiyati va yoshlar tafakkuri.-Тошкент: “FAN”, 2020. – Б. 118.

3. Xaydarov M. Ma’naviy tarbiya va ijtimoiy jarayonlar. -Тошкент: “Ma’naviyat”, 2017. – Б. 73.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 2023). - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.

5. Jabborov N. Yoshlar siyosiy faolligi va jamiyat taraqqiyoti.- Toshkent, 2018. - B. 56.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR INFANTILIZMI: SABABLAR, OQIBATLAR VA YECHIMLAR

Jabborov Elbek Eshpoʻlatovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

XXI-asr globallashuv jarayonlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, maskur jarayon nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy sohalarda, balki odamlarning ruhiyati va ijtimoiy xulqida ham chuqur oʻzgarishlar yuzaga keltirmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, texnologiyalarning hayotga chuqur kirib kelishi va madaniy me’yorlarning aralashuvi yosh avlodning ijtimoiy-psixologik holatiga sezilarli ta’sir koʻrsatmoqda. Shunday oʻzgarishlardan biri – **yoshlar infantilizmi,** ya’ni yoshlarning yoshi ulgʻaygan boʻlsa-da, mas’uliyat, qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash borasida bolalarcha pozitsiyaga moyilligi kuchayib borayotgan holatdir. Infantilizm muammosining dolzarbligi zamonaviy jamiyatda shaxsning mustaqil qarorlar qabul qilish, mas’uliyat olish va ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatlarining ahamiyati oshib borishi bilan bogʻliq [1].

Globallashuv jarayonining asosiy xususiyati – tezkorlik, qulaylik va cheksiz imkoniyatlardir. Ammo aynan shu qulayliklar ayrim hollarda yoshlar ongining yetarlicha shakllanmasligiga sabab boʻlishi mumkin. Masalan, kundalik hayotda texnologiyalar juda koʻp jarayonlarni yengillashtirganligi sababli, ba’zi yoshlar oʻz mehnati natijasiga bogʻliq boʻlmagan holda natijaga erishishga oʻrganib qolmoqda. Bu esa mustaqil harakat qilish motivatsiyasini pasaytiradi, murakkab vaziyatlarda murosa izlash koʻnikmasini susaytiradi. Bugungi kunda hayotimizga axborotlar kirib kelishini ham aynan yuqoridagi fikrlarga qiyos etishimiz mumkin. Biz yangilik va turli axborotlarga kunda ehtiyoj sezamiz. Sababi bizning rivojlanib borayotgan turmush tarzimiz shuni taqazo etadi. Ammo bular orasida milliyligimizga, qadryatlarimizga zid boʻlgan gʻoyalar sezdirilmay singdirilishiga urinilayotgan holatlarga koʻzimiz tushadi [2].

Shuningdek, ommaviy madaniyat yoshlar ongida “oʻyin-kulgu birinchi oʻrinda turishi kerak” degan tasavvurni kuchaytirmoqda. Reallikdan qochish, virtual olamda koʻproq vaqt oʻtkazish, hayotiy muammolardan qochish yoki ularni kattalar zimmasiga yuklash – bularning barchasi infantizmning zamonaviy shakllari sifatida namoyon boʻlmoqda.

Globallashuv ta’siri ostida oila institutida ham sezilarli oʻzgarishlar yuz bermoqda. Koʻplab ota-onalar iqtisodiy sababalar yoki bandlik tufayli farzandlari bilan yetarli darajada muloqot qila olmaydi. Natijada yoshlar muhim hayotiy koʻnikmalarni mustaqil oʻrganish imkoniyatidan mahrum boʻladi. Murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish, mas’uliyatni oʻz zimmasiga olish, rejalashtirish kabi koʻnikmalar esa aynan oila davrasida shakllanadi. Jamiyatning asosiy boʻgʻini boʻlgan oilalar global ta’sirlarning passiv qabul qiluvchilari emas, balki tez sur’atlarda oʻzgarayotgan global muhitda oʻz madaniy identitetini faol ravishda shakllantirib boradi [3].

Ta’lim tizimida ham texnologiyalashtirish jarayonining kuchayishi, ko‘p hollarda tayyor ma’lumotlarga tayangan holda o‘rganish, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga to‘liq imkon bermaydi. Yoshlar ko‘pincha tayyor javobni izlashga moyil bo‘lib, chuqur tahlil qilish jarayoniga kamroq e’tibor qaratadi. Bu esa intellektual infantillikning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Galoballashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. U yerda o‘rnatilgan virtual obrazlar, mukammal hayot tasvirlari, hech qanday qiyinchiliklarsiz muvaffaqiyatga erishish haqidagi postlar yoshlar psixologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu tasavvurlar ko‘pincha real hayotdagi murakkablik va mehnat talab qiladigan jarayonlar bilan mos kelmaydi. Natijada yoshlar real hayotdagi qiyinchiliklarga duch kelganda uni yengib o‘tishga qiynaladi yoki kattalarning yordamiga tayanadi. Bu esa ularda mas’uliyat, iroda, mehnatsevarlik va mustaqil qarorlar qabul qilishni susaytiradi.

Infantizmning kuchayishi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

– mas’uliyadan qochish va hayotiy qarorlar qabul qilishdagi sustkashlik;
– ijtimoiy faollikning pasayishi;
– stressga chidamlilikning kamayishi;
– ish joyida moslashuvchanlikning susayishi;
– kelajakda mustaqil hayot qurishda qiyinchiliklar.

Globallashuv sharoitida yoshlar infantilizmini bartaraf etish imkoniyatlari:

1. Oila institutining mustahkamlanishi (farzand tarbiyasida mas’uliyat, mustaqillik va mehnatsevarlikni singdirishga alohida e’tibor qaratish).

2. Ta’lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish (loyiha ishlari, tahliliy topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni kuchaytirish).

3. Yoshlarni real hayotga tayyorlash (moliyaviy savodxonlik, vaqtni boshqarish, mustaqil qarorlar qabul qilish).

4. Ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishni o‘rgatish (media savodxonlik va kritik fikrlashni shakllantirish).

Globallashuv jarayonida yoshlar infantilizmi dolzarb ijtimoiy-psixologik masalaga aylanmoqda. Bu jarayonni to‘xtatib bo‘lmasa-da, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish, yoshlarni mas’uliyatli, mustaqil va ongli shaxs sifatida voyaga yetkazish jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Po‘latov U va Holmatov M Psixologik va psixik infantilizm: farqlar, sabablari va rivojlanish xususiyatlari. ”Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2025-yil 10-may, 44-bet.

2. Normurotova A.K Globallashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarda tarbiyaga ta’siri. Journal of Universal Science Research. 2023-yil 6-iyun, 149-bet.

3. Herawati, N., Jafari, M.B., & Sanders, K. The Influence of Globalization on Family Traditions and Values. Journal of Psychosociological Research in Family and Culture, 2:2, 2024-yil, 9-bet.

YOSHLAR INFANTILIZMIGA QARSHI KURASHISHDA MA’NAVIYATNING O‘RNI

Jabborov Elbek Eshpo‘latovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida sodir bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar bilan bir qatorda, ularning shaxsiy kamolotiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar ham mavjud. Shunday muammolardan biri — **yoshlar infantilizmi** bo‘lib, u hayotga yengil qarash, mas’uliyatdan qochish, mustaqil qaror qabul qilishda ikkilanish kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu muammoning oldini olish va unga qarshi kurashishda ma’naviyat muhim ijtimoiy-me’yoriy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Infantilizm, avvalo, shaxsning ichki yetilmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘pincha noto‘g‘ri tarbiya, ma’naviy bo‘shliq va hayotiy maqsadlarning yo‘qligi natijasida yuzaga keladi. Bunday holatda yosh inson tashqi sharoitga qaram bo‘lib qoladi, qiyinchiliklardan qochadi va jamiyat oldidagi burchini chuqur anglay olmaydi. Aynan shu jihatda ma’naviyat shaxsni ichki dunyosini mustahkamlovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat insonni faqat axloqiy me’yorlarga rioya qilishga emas, balki o‘z hayotiga mas’uliyat bilan yondashishga undaydi. Yuksak ma’naviyat sohibi o‘zining har bir xatti-harakatining oqibatini tushunadi, kelajagi uchun javobgarlikni his qiladi va jamiyatda munosib o‘rin egallashga intiladi. Shu sababli ma’naviyat infantilizmga xos bo‘lgan befarqlik va loqaydlikni bosqichma-bosqich bartaraf etadi. Agar madaniyat inson zotining sifatiy ta`riflanishi bo`lsa, ma`naviyat insonning o`z-o`zini yaratish va o`zgartirish faoliyatining mazmunidir [1].

Ma’naviyat insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, hayotga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ma’naviyat yoshlarda o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olish, mas’uliyatni his qilish, jamiyat oldidagi burchini anglashga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning ma’naviyat tushunchasiga bergan quyidagi ta’rifidan ham ma’naviyatning insonni kamolotga eltuvchi ichki kuch ekanligini bilim olishimiz mumkin. Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir [2].

Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar va tarixiy meros muhim manba hisoblanadi. Ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, ularning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Ushbu meros bilan ongli ravishda tanishgan yosh avlod hayotga jiddiy munosabatda bo‘lishni, o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yishni o‘rganadi. Natijada, u “tayyor imkoniyatlar”ni kutuvchi emas, balki o‘z kelajagini o‘zi yaratuvchi shaxsga aylanadi.

Milliy qadriyatlarning yana bir muhim jihati ularning jamiyat barqarorligiga ta’sir qilishidir. Qadriyatlar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy me’yorlar tizimi sifatida xizmat qiladi. Jamiyatda hurmat, mehr-oqibat, adolat va halollik kabi qadriyatlarning ustun bo‘lishi ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga,

milliy qadriyatlar yoshlarga to‘g‘ri tarbiya berishda ham muhim o‘rin tutadi. Ular yoshlarga milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma’naviy yetuklik kabi fazilatlarni singdiradi [3].

Shuningdek, ma’naviy muhitning sog‘lom bo‘lishi yoshlar infantilizmining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorlikda ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘ysa, yoshlar o‘z fikriga ega, tanqidiy tafakkurli va faol fuqarolar sifatida shakllanadi. Bunday muhitda ulg‘aygan shaxs muammolardan qochmaydi, balki ularni hayotiy tajriba sifatida qabul qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviyat orqali infanilizmga qarshi kurash faqat nazariy ma’lumot berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon amaliy qadriyatlarni shakllantirish, hayotiy tajriba orttirish va jamiyat bilan bog‘lanishni o‘z ichiga oladi. Yoshlar o‘zlarini foydali va samarali faoliyatda ko‘rgan sari, ularning infanilizmga moyilligi kamayadi va ular mas’uliyatli, yetuk shaxs sifatida rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar infantilizmiga qarshi kurashishda ma’naviyat nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ma’naviy barkamol yoshlar jamiyatning intellektual va axloqiy tayanchiga aylanadi. Shu sababli yosh avlod ongida ma’naviyatni mustahkamlash — kelajak taraqqiyotining eng ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. Toshkent: Ma’naviyat, 2009 y. 43-bet.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016 y. 19-bet.

3. Axmadjanova M.I., Urinboyeva S.Y. Milliy qadriyatlar - millat ko‘zgusi. Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar. 3-son 4–to‘plam 2025 y. 219-220-betlar.

JAHON ANDOZALARI DARAJASIDA KINO SAN’ATINING AXBOROT-TEXNALOGIYALARI ORQALI KIRIB KELISHI

Jabborova Aziza G’ayratovna
Turon universiteti o’qituvchisi

O‘tgan asrning 70-yillarida kompyuter grafikasining paydo bo‘lishi kino san’atiga asos soldi. Kompyuter grafikasi, keyinchalik vujudga kelgan 3D texnologiyalar, raqamli montaj imkoniyatlari va striming platformalar kino san’atining moddiy-texnika bazasini bemisl takomil toptirdi. Buning sharofati bilan ijodkorlar intertekstuallikka (bir asarda boshqa asarlarga murojaat qilish, ularni qayta talqin qilish uslubi) va vizual effektlarga katta e’tibor qarata boshladilar. Aynan ana shu bosqichda blokbasterlar, franshizalar, superqahramon filmlari, artxaus va zamonaviy hujjatli kinematografiya shakllari paydo bo‘ldi[1]. Shu tariqa kino san’ati umuminsoniy madaniyat industriyasining markaziga aylandi.

[1] Бектурсунов Т. А. Появление и тенденции развития кинематографа.// Вестник Казахского национального женского педагогического университета, 2019, №2.- 339-с.

Kino san’ati axborot funksiyasining IT texnalogiyasining asosiy xususiyatlaridan biri uning ko‘rgazmaliligi va ta’sirchanligi bilan bog‘liq. Harakat, ovoz, rang uyg‘unligiga asoslangan kino kishilar dunyoqarashiga matn yoki suratga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatishga qodir. Masalan, tarixiy mavzulardagi hujjatli filmlarda muayyan davr voqealari real kadrlar, arxiv materiallari va shaxsiy guvohlar intervyulari orqali ustakorona namoyish etiladiki, bu uslubiyot tomoshabin qalbida o‘ta kuchli taassurot qoldiradi. Badiiy film esa ijtimoiy muammolar, siyosiy voqealar yoki ma’naviy qadriyatlar haqida bilim va ma’lumotlarni yetkazishda ustuvorlik qiladi. Masalan, Stiven Spilberg tomonidan 1993 yilda suratga olingan “Shindler ro‘yxati” nomli badiiy filmda nemis tadbirkori Oskar Shindlerning Ikkinchi jahon urushi davrida yuzlab yahudiylarni halokatdan qutqarib qolgani ha-qida hikoya qilinadi. Film tomoshabinning insonparvarlik va g‘ayriinsoniy haqidagi tasavvurlarini benihoya kengaytiradi. Shu tariqa kino san’ati nafaqat voqelik haqida ma’lumot yetkazish, balki uni g‘oyaviy talqin qilish, hissiy ta’sir orqali ijtimoiy ongga singdirish, madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kino nafaqat badiiy ijod mahsuli, balki millatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalarni o‘zaro yaqinlashtiruvchi, ular o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiruvchi universal fenomen hamdir. XXI asrda audiovizual texnologiyalar rivoji, internet taraqqiyoti, striming platformalarning ommalashishi kino mahsulotlarini qisqa muddatda turli qit’alardagi tomoshabinlarga yetkazish imkonini yaratdi. Bunday vaziyatda kino san’ati uch muhim global vazifani bajarmoqda:

madaniy translyatsiya - kino muayyan xalqning tili, urf-odatlari, a’analari, turmush tarzi, tarixiy xotirasi va qadriyatlarini boshqa millatlarga yetkazadigan “madaniy elchi”, o‘ziga xos madaniy ko‘prik vazifasini o‘tamoqda;

madaniy integratsiya - kino turli madaniyat va sivilizatsiya vakil-larini umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlar, ezgu va insonparvar maqsadlar atrofida birlashtirmoqda;

madaniy sintez - kino turli millat va elat madaniyatlarining g‘oyalari, tasavvurlari, qadriyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirmoqda.

Bu uch vazifa zamonaviy global madaniy jarayonlarda kino san’atining strategik ahamiyatini belgilab bermoqda. Xususan, madaniy translyatsiya turli xalqlarning an’analari, tarixiy tajribasi va ma’naviy merosini avloddan avlodga hamda mamlakatdan mamlakatga yetkazish imkonini bermoqda. Madaniy integratsiya globallashgan dunyoda turli millat va sivilizatsiya-lar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hamkorlik va muloqotni kuchaytirmoqda. Madaniy sintez esa turli madaniy an’analarning uyg‘unlashib, yangi, gibrid madaniy shakllarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Ko‘rinib turibdiki, yangi asrga kelib, kino san’ati umuminsoniy madaniyatning qudratli va murakkab tarkibiy qismiga, global madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Zamonaviy kino qiyofasi birinchi navbatda raqamli texologiyalarning kino san’atiga kirib kelishi natijasida o‘zgara boshladi. Ma’lumki, XXI asr arafasida insoniyat taraqqiyotida yangi bosqich – raqamli sivilizatsiya davri[1] boshlandi. Bu jarayon ildizi

[1] Попова С.А. Цифровая (дигитальная) цивилизация и прорывные технологии.// Вестник Университета мировых цивилизаций, 2020, №1.- 41-50-с.

ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi[1] va global tarmoqlar orqali ma’lumotlar almashuvining tezkor tus olishi bilan bog‘liq edi[2]. 1990-yillar oxiridan boshlab kompyuter protsessorlari tezligi, ma’lumot saqlash hajmi va grafik imkoniyatlari jadal oshdi. Shu bilan birga internetning ommalashishi, dasturiy ta’minot sohasidagi innovatsiyalar hamda raqamli qurilmalarning arzonlashishi raqamli texnologiyalarning keng quloch yoyishiga zamin yaratdi.

Milliy kino – muayyan xalqning madaniy an’anala-ri, tarixiy xotirasi, urf-odatlari va ijtimoiy hayotini aks ettiradigan asarlardan tarkib topadi hamda millatning ma’naviy qiyofasini shakl-lantirish, uni jahon hamjamiyatiga namoyon qilish vositasi hisoblanadi. Masalan, rejisser Shuhrat Abbasov tomonidan 1960 yilda suratga olingan “Mahallada duv-duv gap” nomli badiiy film o‘zbek mahallasi hayotini, urf-odat va qadriyatlarini ekranga olib chiqqan ilk namunalardan biri si-fatida mahalladagi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, qo‘shnichilik ruhi, yaqinchilik va o‘zaro mas’uliyat tuyg‘usi samimiy tarzda namoyish etdi va shu orqali millatimiz ma’naviy qadriyatlarini yorqin ifodalab berdi. Film, shuningdek, milliy kinoning jahon sahnasiga chiqishiga ham hissa qo‘shdi va jahon auditoriyasiga o‘zbek hayoti haqida tasavvur berdi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Бектурсунов Т. А. Появление и тенденции развития кинематографа.// Вестник Казахского нацио-нального женского педагогического университета, 2019, №2.- 339-с.

2. Попова С.А. Цифровая (дигитальная) цивилизация и прорывные технологии.// Вестник Университета мировых цивилизаций, 2020, №1.41-50-с.

3. Фролова Н.Х., Фролов Е.С. Становление информационно-коммуникационных технологий.// Символ науки, 2018, №12.- 19-23-с.

4. Nomozov X. Sh. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri: Fals.dokt. (PhD) diss av-toref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

5. Девликамова Э.А. Документальный фильм: концепция жанра.// Культурная жизнь Юга России, 2019, №2.- 102-104-с.

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY O’ZGARISHLAR KONTEKSTIDA KINO SAN’ATINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Jabborova Aziza G’ayratovna
Turon universiteti o’qituvchisi

Global ijtimoiy- madaniy o’zgarishlar jarayonida kino san’ati bir qancha funksiyalarni bajaradi. Kino san’atining ijtimoiy-madaniy funksiyasi uning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyati, madaniy merosni, milliy urf-odat va an’analarni targ‘ib va tashviq qilishdagi roli bilan belgilanadi. Turli janr va uslubdagi kino asarlari madaniy

[1] Фролова Н.Х., Фролов Е.С. Становление информационно-коммуникационных технологий.// Символ науки, 2018, №12.- 19-23-с.

[2] Номозов Х. Ш. Интернет-маконнинг шахс ижтимоийлашувига таъсири: Фалс.докт. (PhD) дисс автореф.- Бухоро: БухДУ, 2024.

meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odat va an’analar, tarixiy xotirani o‘zida mujassam qilgan, ularni tanannum qiluvchi o‘ziga xos virtual-madaniy makondir. Kino asarlari, shuningdek, mazkur an’ana va qadriyatlarni ajdodlardan avlodlarga translyatsiya qiluvchi muhim madaniy institut vazifasini ham o‘taydi[1].

Ijtimoiy-madaniy funksiyaning asosiy xususiyatlaridan biri uning madaniyatlararo muloqot imkoniyatini yaratishi bilan bog‘liq. Kino turli millat va elat vakillarida ularning madaniyati, mentaliteti, dini, an’analari, qadriyatlaridan qat’i nazar yagona tuyg‘u va tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatiga ega. Masalan, rus rejisseri Eldar Ryazanov yoki yapon ijodkori Akira Kurosava tasvirga olgan filmlar turli mamlakatlarda turli madaniy muhitda umumguzaronlik qilayotgan kishilar tomonidan birdek qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, kino turli milliy madaniyatlarni umuminsoniylik maxraji ostida birlishtiruvchi qudratlardan biridir.

Kino ijtimoiy integratsiya vositasi vazifasini ham o‘taydi. U jamiyatdagi turli guruh, sinf va ijtimoiy qatlam vakillarini yagona madaniy meyorlar atrofida birlashtiradi. Tomoshabin filmdagi obrazlar, qahramonlar va voqealar bilan tanisharkan, o‘zini muayyan madaniy hamjamiyat a’zosi sifatida his qila boshlaydi. Bu borada ayniqsa milliy kino asarlarining roli beqiyos, chunki ularda millat madaniyatining o‘ziga xos jihatlari, milliy adabiyotning yorqin g‘oyalari, milliy an’analarning insoniy unsurlari o‘ta yorqin tarzda ifodalab beriladi.

Globallashuv sharoitida kino san’ati ijtimoiy-madaniy funksiyasi ahamiyati ayniqsa oshmoqda. Chunki Gollivud yoki Bollivud kabi kino markazlari mahsulotlari jadal ommalashayotgan hamda aksariyat hollarda milliylikka tahdid solayotgan bir sharoitda aynan kino san’ati asarlari, bir tomondan, milliy madaniyatni asrab-avaylash, ikkinchi tomondan esa uni umuminsoniy miqyosda targ‘ib va tashviq qilish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Globallashgan dunyoda kino san’ati gedonistik funksiyaning ahamiyati yanada oshmoqda. Chunki bugungi davr kishisi doimiy stresslar, axborot xuruji, turli ijtimoiy ziddiyatlar sharoitida yashamoqda. U vaqti-vaqti bilan bu stresslardan, tahdidlardan, tashvishlardan chalg‘ib turmog‘i shart. Kino o‘zining xayoliy obrazlari, ehtirosli sahnalari, yumor va satirasi bilan tomoshabinga ana shunday imkoniyatni taqdim qiladi[2].

Kino san’atining ijtimoiy funksiyalari buning bilan cheklanayotgani yo‘q. Shuning bilan bir qatorda bugungi kunda kino san’ati xalqaro madaniy aloqalarning eng ta’sirchan vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kino nafaqat badiiy ijod mahsuli, balki millatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalarni o‘zaro yaqinlashtiruvchi, ular o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiruvchi universal fenomen hamdir. XXI asrda audiovizual texnologiyalar rivoji, internet taraqqiyoti, striming platformalarning ommalashishi kino mahsulotlarini qisqa muddatda turli qit’alardagi tomoshabinlarga yetkazish imkonini yaratdi. Bunday vaziyatda kino san’ati uch muhim *global vazifani* bajarmoqda:

[1] Гизатова Г.К., Иванова О.Г. Кинематограф как способ формирования социокультурной идентичности.// Казанский социально-гуманитарный вестник, 2010, №2.- 83-85-с.

[2] Конфедерат О.В., Дядык Н.Г. Гедонистическая онтология фильма: порождающие модели.// Социум и власть, 2020, №3.- 74-84-с.

madaniy translyatsiya - kino muayyan xalqning tili, urf-odatlari, a’analari, turmush tarzi, tarixiy xotirasi va qadriyatlarini boshqa millatlarga yetkazadigan “madaniy elchi”, o‘ziga xos madaniy ko‘prik vazifasini o‘tamoqda;

madaniy integratsiya - kino turli madaniyat va sivilizatsiya vakillarini umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlar, ezgu va insonparvar maqsadlar atrofida birlashtirmoqda;

madaniy sintez - kino turli millat va elat madaniyatlarining g‘oyalari, tasavvurlari, qadriyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirmoqda.

Bu uch vazifa zamonaviy global madaniy jarayonlarda kino san’atining strategik ahamiyatini belgilab bermoqda. Xususan, madaniy translyatsiya turli xalqlarning an’analari, tarixiy tajribasi va ma’naviy merosini avloddan avlodga hamda mamlakatdan mamlakatga yetkazish imkonini bermoqda. Madaniy integratsiya globallashgan dunyoda turli millat va sivilizatsiyalar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hamkorlik va muloqotni kuchaytirmoqda. Madaniy sintez esa turli madaniy an’analarning uyg‘unlashib, yangi, gibrid madaniy shakllarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Ko‘rinib turibdiki, yangi asrga kelib, kino san’ati umuminsoniy madaniyatning qudratli va murakkab tarkibiy qismiga, global madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Insonning voqelikni idrok etishi va qayta yaratishi ifodasi bo‘lgan, hayot manzaralarini badiiy obrazlar hamda harakatlanuvchi tasvirlar vositasida tasvirlashga asoslangan san’at turi bo‘lmish kino san’ati adabiyot, teatr va tasviriy san’at imkoniyatlarining o‘ziga xos sintezi sifatida yuzaga keldi va hozirgi vaqtda yoshlar dunyoqarashida juda muhim o’rin egalladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Гизатова Г.К., Иванова О.Г. Кинематограф как способ формирования социокультурной идентичности.// Казанский социально-гуманитарный вестник, 2010, №2.- 83-85-с.

2. Конфедерат О.В., Дядык Н.Г. Гедонистическая онтология фильма: порождающие модели.// Социум и власть, 2020, №3.- 74-84-с.

3. Фролова Н.Х., Фролов Е.С. Становление информационно-коммуникационных технологий.// Символ науки, 2018, №12.- 19-23-с.

4. Nomozov X. Sh. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri: Fals.dokt. (PhD) diss av-toref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

5. Девликамова Э.А. Документальный фильм: концепция жанра.// Культурная жизнь Юга России, 2019, №2.- 102-104-с.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Jabborova Saodat Sattorovna
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Obidova Zilola Fozilovna
Buxoro Davlat Pedagogika instituti magistranti

Kirish.XXI asr – globallashuv, axborot oqimining keskin tezlashuvi, xalqaro integratsiya jarayonlarining jadallashuvi davri bo‘lib, u jamiyatning barcha sohalariga, xususan, yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish demokratik jamiyat barqarorligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, huquqiy ong va huquqiy madaniyati rivojlangan avlodgina globallashuv jarayonlarida faol, mas’uliyatli va ongli ishtirok eta oladi. Globallashuv jarayonlari yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, globallashuvning ijtimoiy-psixologik omillari yoshlarning dunyoqarashi va qadriyat tizimida o‘zgarishlar yuzaga keltirmoqda .[1]

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat: nazariy-metodologik asoslar. Huquqiy ong – bu individning huquqiy bilimlari, huquqqa bo‘lgan munosabati, huquqiy hodisalarni baholash qobiliyati, shuningdek, huquqiy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvoridir. Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, unda huquqiy bilimlardan to‘g‘ri foydalanish, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, yuridik javobgarlikni tushunish va huquqni himoya qilish qobiliyati mujassam. Nazariy manbalarda huquqiy madaniyat quyidagi asosiy elementlardan iborat ekani ta’kidlanadi:

Huquqiy bilimlar (qonunlar, huquq normalari, majburiyat va mas’uliyatlar haqidagi bilimlar);

Huquqiy motivatsiya (qonuniy xatti-harakatlarga ichki ehtiyoj);

Huquqiy ko‘nikmalar (huquqiy munosabatlarda to‘g‘ri ishtirok etish, huquqni himoya qilish usullarini qo‘llay bilish);

Huquqqa hurmat (qonuniylikni qadrlash, davlat organlari faoliyatini tan olish).

Globallashuvning yoshlar huquqiy ongiga ta’siri. Globallashuv jarayoni yoshlar dunyoqarashining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy ta’sirlar:

- Xalqaro tajribaga asoslangan zamonaviy huquqiy bilimlarga kirish imkoniyatining kengayishi;
- Ochiq axborot makoni orqali demokratik qadriyatlarga oid tushunchalarning keng tarqalishi;
- Global fuqarolik hissining shakllanishi;

[1] Ziyodullaev, I. “Globallashuvning ijtimoiy-psixologik ta’siri va yoshlar ongida o‘zgarishlar” // Sotsiologiya va psixologiya, 2020, №4, 22–30-betlar.

- Raqamli texnologiyalar orqali huquqiy savodxonlikni oshirish imkoniyatlarining ko‘payishi.

Salbiy ta’sirlar:

- Yot mafkuralar, ekstremistik g‘oyalar, noqonuniy axborotlarning tez tarqalishi;

- Internetda huquqiy jihatdan tartibga solinmagan axborotlarning ko‘pligi;

- Yoshlarning axborot xurujlariga nisbatan himoyasizligi;

- Virtual makonda qonuniylikka beparvolikning kuchayishi.

Shu bois globallashuv sharoitida yoshlar ongida axborot xavfsizligi madaniyati va media-savodxonlikni shakllantirish huquqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Bu borada quyidagi chora-tadbirlar samarali natija bermoqda:

Huquqiy ta'limni kuchaytirish

- Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida “Huquq” fanlarining takomillashtirilishi;

- Huquqiy mavzudagi seminar, trening, ochiq darslar va viktorinalar tashkil etilishi.

Yoshlarning huquqiy faolligini qo‘llab-quvvatlash

-“Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar maslahati”, “Huquqiy targ‘ibot markazlari” faoliyati;
-Yoshlar uchun bepul yuridik maslahat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi.

Raqamli huquqiy ta’limni rivojlantirish

- Onlayn huquqiy platformalar, elektron kutubxonalar, mobil ilovalar orqali huquqiy savodxonlikni oshirish;

- “Elektron hukumat” tizimining kengayishi yoshlarning huquqiy amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlamoqda.

Globallashuv davrida yoshlar huquqiy tarbiyasining muammolari**.**Shu jarayonda axborot oqimining keskin oshishi, internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi yoshlar huquqiy ongining rivojiga yangi imkoniyatlar bilan birga muayyan xavflarni ham tug‘dirmoqda[1].Buning asosiy sababi:

a)Aholining ayrim qatlamlarida huquqiy savodxonlikning pastligi;
b)Ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri huquqiy axborotlar keng tarqalishi;
c)Raqamli xavfsizlik madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi;
d)Huquqiy targ‘ibotning ayrim hududlarda sustligi;
J)Tahliliy fikrlash va media-savodxonlik ko‘nikmalarining yetishmasligi.

Yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishda ta’lim tizimining roli**.**

Oliy va umumiy o‘rta ta’limda “Huquq” fanining:

yangilangan o‘quv dasturlari,

interaktiv metodlari,

amaliy orientatsiyalangan topshiriqlar,

sud jarayonlari imitatsiyasi,

mojarolarni hal etish bo‘yicha treninglar asosida o‘qitilishi muhim.

[1] Hasanov, O. “Axborot xavfsizligi va yoshlar media-savodxonligi: huquqiy jihatlar” // Oliy ta’lim va jamiyat, 2022, №1, 57–64-betlar.

Raqamli ta’lim vositalari.Raqamli platformalar (ziyonet, eduportal, elektron darsliklar, huquq portal va h.k.)yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.Shuningdek, mobil ilovalar:

1) davlat xizmatlaridan foydalanish,

2) shikoyat berish,

3) huquqiy ma’lumot olish jarayonlarini yengillashtirmoqda.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda davlat siyosatining o‘rni[1]. O‘zbekistonda yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

“Yoshlar ishlari agentligi” faoliyati;

“Yoshlar parlamenti” tashkiliy tizimi;

Sud-huquq tizimidagi ochiqlik siyosati;

“E-huquqiy xizmatlar” yaratilishi;

Huquqiy targ‘ibot bo‘yicha markazlarning tashkil etilishi;

OAV va internetda huquqiy ko‘rsatuvlar sonining ko‘payishi.

Bu islohotlar yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Globallashuv jarayonlari yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, bir qator jiddiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois huquqiy madaniyatni shakllantirish kompleks yondashuvni – ta’lim, tarbiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, axborot xavfsizligi, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini talab qiladi.Yuksak huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan yosh avlod – demokratik jamiyat barqarorligining, huquqiy davlat qurish jarayonining tayanchi va kelajak taraqqiyotining asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov, I.A. *Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

2. Xolmuminov, J. *Huquqiy ong va huquqiy madaniyat nazariyasi.* – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.

3. Abdullayev, M. “Globallashuv sharoitida yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalari” // *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*, 2021, №3, 45–52-betlar.

4. Qosimova, D. “Yoshlar huquqiy faolligini oshirishda davlat siyosati roli” // *Jahondagi huquqiy islohotlar*, 2023, №2, 15–24-betlar.

5. Hasanov, O. “Axborot xavfsizligi va yoshlar media-savodxonligi: huquqiy jihatlar” // *Oliy ta’lim va jamiyat*, 2022, №1, 57–64-betlar.

6. Ziyodullaev, I. “Globallashuvning ijtimoiy-psixologik ta’siri va yoshlar ongida o‘zgarishlar” // *Sotsiologiya va psixologiya*, 2020, №4, 22–30-betlar.

7. Turdaliev, K., & Abdurahmonova, S. “Huquqiy ong shakllanishiga raqamli ta’limning ta’siri” // *Ta’lim va innovatsiyalar*, 2022, №5, 33–41-betlar.

[1] Qosimova, D. “Yoshlar huquqiy faolligini oshirishda davlat siyosati roli” // Jahondagi huquqiy islohotlar, 2023, №2, 15–24-betlar.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning yoshlarga oid siyosat bo‘yicha nutqlari va farmonlari // *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*, turli yillar.

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALALABALARIDA KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKA FANIDAN AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jalolov Ilxomjon Azamjonovich
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tadqiqotimizda talabalarni klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida o‘qitishga tayyorlash haqida gapirar ekanmiz, biz bu konsepsiya ta’rifiga uchinchi yondashuvni nazarda tutamiz, bu ichki psixologik va pedagogik tadqiqotlarda sodir bo‘ladi. Bu yondashuvga ko‘ra, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish individual yondashuvni amalga oshirishni ifodalaydi. Bizning bu yondashuvni asosiy sifatida tanlashimiz, birinchi navbatda, bu ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasiga ko‘proq mos kelishiga asoslanadi. Uning inson shaxsiyatini rivojlantirishga yo‘nalishi. Ikkinchidan, o‘qituvchining individual yondashuvni amalga oshiradigan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga tayyorgarligi ham tashqi, ham darajali farqlashni muvaffaqiyatli amalga oshirishning shartidir.

Klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida o‘qitishda talabalarning tabiiy o‘quv va kognitiv faoliyatini boshqarish ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin[68].

Klinik laborator diagnostika fanini o‘qitishda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida ta’limni tashkil etish metodikasini takomillashtirishda interaktiv elektron ta’lim resursidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. Interaktiv elektron ta’lim resursining afzalligi shundaki, o‘qituvchi og‘zaki tushuntiradigan amaliy va laboratoriya jarayonlarini kompyuterda Interaktiv elektron ta’lim resursidan foydalanib bir necha daqiqada ko‘rsatish mumkin. Dars jaryonida yutilgan vaqt hisobiga interaktiv usullardan, didaktik o‘yinlardan foydalanish va talabalarga ularni bilim darajasini oshirib borishga undaydigan vazifalarni berib borish kerak. Shunday qilib biz taklif qilayotgan o‘qitish metodikasi bir vaqtning o‘zida dars mavzusini an’anaviy va noan’anaviy tarzda tashkil etishni taqozo etadi.

Bu o‘z navbatida, o‘qituvchilarni talabalarning amaliy, laboratoriya topshiriqlarini bajarish tayyorgarligini yuqori saviyada tashkil qilishlarini taminlaydi. Talabalarga ushbu vazifalarni bajrishda interaktiv elektron ta’lim resursining barcha imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Keys-stad inglizcha so‘z bo‘lib, “Case” aniq vaziyat, hodisa, “stady” o‘rganmoq, tahlil qilmoq ma’nolarini anglatadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetda amaliy vaziyatlarda iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan[83]. «Case-stady» o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon

(When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What) (2.2-jadval).

«Case-stady» dan foydalanish bosqichlari
1-jadval

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	Chanoq suyaklari va umurtqa pog‘onasi sinishlarini profilaktikasi haqida asosiy tushunchalarni ajratib oling
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ini belgilash	Chanoq suyaklari va umurtqa pog‘onasi sinishlarini profilaktikasi batafsil tushinish uchun strategik reja tuzish
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini yaratish	Chanoq suyaklari va umurtqa pog‘onasi sinishlarini profilaktikasi yaratishdagi kamchiliklar
4-bosqich: Keys yechimini shakillantirish va asoslash, taqdimot.	Chanoq suyaklari va umurtqa pog‘onasi sinishlarini profilaktikasi obektlarni tahrirlashdagi asosiy xizmat turlari

Ekranda Interaktiv elektron ta’lim resursining laboratoriyalar modulidan «Chanoq suyaklari va umurtqa pog‘onasi sinishlarini profilaktikasi» tasvirlanadi. Talaba dastlab mavzuning rejasi, tayanch tushunchalari va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiriladi.

Talabalarning interaktiv ta’lim resurslari asosida bilim olish ko‘nikmasini shakillantirishni rivojlantirish va talabalarning intilishini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va turli yondashuv texnologiyalarini umumlashtirish; talabalarda o‘qish, tadqiq qilish, fanga bo‘lgan intilishlarini rivojlantirish, darsga va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlariga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish hamda rivojlantirish vositalarini tanlash; talabalarda yangilanishlarga bo‘lgan intiluvchanligini va qiziqishlarini namoyon qiluvchi motivatsiyalarni belgilash keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сатторов Э. Н., Эрмаматова З. Э., “О восстановлении решений однородной системы уравнений Максвелла в области по их значениям на куске границы”, Изв. вузов.

2. Tayloqov N.I. Rustamov N.R. “Klinik laborator diagnostika” fanidan elektron darslik. Oliy o‘quv yurtlari uchun // O‘zbekiston respublikasi davlat patent idorasi. Guvohnoma DGU 01050. 13.02.2006 y.

3. Tayloqov N.I. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Ma’ruza matni. motm.tma.uz/site/wp-content/.../09/3-2-1-MA’RUZA.pdf.

4. Toshtemirov D.E. Klinik laborator diagnost788ika va axborot texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. http://uz.denemetr.com/docs/769/index-317751-1.html?page=6.

5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоев М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари// ўқув қўлланма//- Тошкент, 2006. – 116 б.

MA’NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VOSITALARDAN FOYDALANISH

Jalolova Dilnoza Shuhrat qizi
O’zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining tezlashuvi jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, tarbiya jarayonida media vositalarining roli tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda yoshlar ko‘proq televizor, internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar orqali axborot olishmoqda. Ushbu vositalar esa faqat axborot yetkazuvchi emas, balki tarbiyaviy-mafkuraviy vosita sifatida ham xizmat qilmoqda.

Ma’naviy tarbiya — bu shaxsning ichki dunyosini boyitish, axloqiy qarashlarini shakllantirish, insoniy fazilatlarni tarbiyalash jarayonidir. Ushbu murakkab va uzluksiz jarayon jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, ta’lim muassasalari, oilalar va ommaviy axborot vositalari hamkorligida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida media vositalaridan foydalanish orqali yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, media vositalari ijobiy va salbiy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Ijobiy ta’sir — foydali, tarbiyaviy kontent orqali bilim va axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘lsa, salbiy ta’sir — noto‘g‘ri axborot, zo‘ravonlik, ommaviy madaniyat ta’sirida yoshlarning qadriyatlardan uzoqlashishidir. Demak, bu sohaga ilmiy-pedagogik yondashuv zarur bo‘lib, media vositalaridan foydalanish jarayonini tizimli boshqarish, unga tarbiyaviy mazmun yuklash muhim vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yoshlarni har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol va intellektual salohiyatga ega shaxslar etib tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, yoshlar tarbiyasida barcha vositalardan, xususan, media imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb hisoblanadi. Chunki media vositalari — bu keng jamoatchilikka axborot uzatish, fikr uyg‘otish, munosabat shakllantirish qudratiga ega vositadir.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – bu ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – yuksak ma’naviyatli jamiyat.”[1] bu fikrlar ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglashga chorlaydi.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni o’tkazilgan videselektr yig’lishida so’zlagan nutqidan.

Televizor, internet, matbuot, radio, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar — bularning barchasi media tizimining asosiy qismlaridir. Bu vositalar orqali jamiyatda turli xil g‘oyalar, qadriyatlar, axborotlar keng tarqaladi. Ayniqsa, yoshlar ushbu manbalarni faol iste’mol qilayotgan sharoitda, ularga uzatilayotgan kontentning mazmuni va tarbiyaviy qiymati bevosita ularning ongini shakllantiradi.

Masalan, televizion ko‘rsatuvlar va filmlar orqali milliy qadriyatlar targ‘ib qilinishi, ijtimoiy muammolarga yechimlar taklif qilinishi mumkin. Shu bilan birga, noto‘g‘ri axborot, zo‘ravonlik sahnalari, shaxsiy erkinlikni suiiste’mol qilishga undovchi kontentlar ham tarqatilishi mumkin. Bu esa media vositalaridan foydalanishda ehtiyotkorlik va nazoratni talab qiladi.

Tarbiya jarayonida media vositalari vositasida quyidagi maqsadlarga erishish mumkin:

- Yoshlarning milliy o‘zlikni anglashini kuchaytirish;
- Axloqiy-me’yoriy qarashlarni shakllantirish;
- Jamiyatdagi ijobiy xatti-harakatlar namunalarini ko‘rsatish;
- Tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida madaniyatli shaxsni tarbiyalash.

Bu maqsadlarga erishish uchun esa media vositalaridagi kontentning sifatli, tarbiyaviy va ijobiy ruhda bo‘lishi zarur. Shu sababli ham media sohasi mutaxassislari, pedagoglar, ssenarist va jurnalistlar birgalikda ishlashi, yoshlar uchun foydali kontentlar yaratishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida Instagram, Telegram, TikTok, Facebook, YouTube kabi platformalardan foydalanish keng tarqalgan. Ushbu tarmoqlar axborot olish, o‘zaro muloqot qilish, o‘zini ifoda etish imkonini yaratgan bo‘lsa-da, ularning tarbiyaviy ta’siri ikki tomonlama — ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin.

Ijobiy jihatlar:

1. Zamonaviy axborotga tezkor kirish: Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar yangiliklar, ilmiy maqolalar, ma’rifiy videolar va boshqa foydali axborotlarni osongina oladilar.

2. Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya: Ba’zi sahifalar yoshlarni kitob o‘qishga, sport bilan shug‘ullanishga, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga undaydi.

3. Madaniyatlararo muloqot: Turli millat va madaniyat vakillari bilan tanishish, ularning qadriyatlari bilan tanishish orqali dunyoqarash kengayadi.

4. Ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish: Blog yuritish, video tayyorlash, dizayn, raqamli kontent yaratish orqali yoshlar o‘z qobiliyatlarini namoyon qiladilar.

Salbiy jihatlar:

1. Vaqtni samarasiz o‘tkazish: Ko‘plab yoshlar tarmoqlarda ko‘p vaqtini bekorchi kontentlar bilan band qiladi, bu esa o‘qish va rivojlanishga xalaqit beradi.

2. Nojo‘ya axborot oqimi: Yolg‘on yangiliklar, ekstremistik g‘oyalar, axloqiy buzilishlar aks etgan kontentlar psixikaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Zo‘ravonlik va agressiyani targ‘ib qiluvchi sahifalar: Bu kabi kontentlar yosh ongiga salbiy ta’sir qilib, xatti-harakatlarida tajovuzkorlikni kuchaytiradi.

4. O‘zini real hayotdan chetlashtirish: Virtual olamga haddan tashqari bog‘lanish natijasida ijtimoiy izolyatsiya holati yuzaga keladi.

Yuqoridagi holatlar ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotganlar — kontent yaratuvchilar, ta’limchilar va ota-onalar uchun mas’uliyatli yondashuvni talab qiladi. Har bir yoshning axborot olamidagi yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashi uchun unga ko‘mak berish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini o‘rgatish muhimdir. Ota-onalar farzandlarining qanday kontentlar bilan shug‘ullanayotganini kuzatishi, ular bilan media faoliyatlari haqida doimiy suhbat olib borishi kerak.

Media savodxonlik yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular noto‘g‘ri g‘oyalarga berilmaydi, axloqiy qadriyatlar bilan zid bo‘lgan kontentlardan uzoq turishni o‘rganadi. Media vositalari orqali berilayotgan axborot ko‘p hollarda manipulyatsiya xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, tanqidiy yondashuv va mustaqil fikr yurita olish yoshlar ongining shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Shu bois, ta’lim muassasalarida media savodxonlik darslari, seminar va treninglar orqali o‘quvchilarni axborot olish madaniyatiga o‘rgatish, bu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish kerak. O‘qituvchilar, jurnalistlar, psixologlar va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorligida bu jarayon samarali tashkil etilishi mumkin.

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar — o‘ziga xos ideologik, ma’naviy va axloqiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Media vositalari esa mazkur qadriyatlarni ommaga yetkazishda eng qudratli vositalardan biridir. Shu sababli ham bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni asrash, ularni yangi avlod ongiga singdirish, yoshlarni milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashda media vositalaridan samarali foydalanish lozim.

Milliy qadriyatlar deganda xalqimizning ko‘p asrlik urf-odatlari, an’analari, til, din, tarix, madaniyat, odob-axloq me’yorlari, mardlik, mehmondo‘stlik, halollik kabi xususiyatlari tushuniladi. Ushbu qadriyatlarni ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish orqali yoshlar qalbida vatanparvarlik, ajdodlarga hurmat, milliy birlik va o‘zlikni anglash tuyg‘usi shakllanadi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda milliy ruhdagi kontentlar yaratish borasida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

• Milliy qahramonlar hayoti va faoliyatini targ‘ib qilish: Tarixiy shaxslarimiz — Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jadidlar harakati vakillari hayoti asosida tarbiyaviy seriallar, maqolalar, blogpostlar tayyorlash.

• Oila qadriyatlari va urf-odatlarni aks ettirish: Yaxshi kelin bo‘lish, oila mas’uliyati, farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni, mehr-oqibat, hurmat kabi mavzularda sahna ko‘rinishlari, film va videoroliklar tayyorlash.

• Milliy san’at va madaniyatga oid loyihalar: An’anaviy kuy-qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchilik, milliy liboslar, urf-odatlarni aks ettiruvchi ko‘rsatuvlar orqali yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini oshirish.

• Zamonaviy formatda qadriyatlarni yetkazish: TikTok, Instagram Reels, YouTube Shorts kabi qisqa formatli videolar orqali qadriyatlar targ‘ibotini yangicha uslubda olib borish.

Yuqoridagi mavzuda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham alohida ta’kidlab o’tganlar : “Biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o‘z qo‘limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlarni xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib beramiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma’lumotlar, real voqealarga ehtiyojni biz to‘ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.”[1]

Bunday kontentlar o‘qituvchilar, media mutaxassislari, ijodkorlar va psixologlar hamkorligida tayyorlansa, ularning ta’sirchanligi va natijadorligi yuqori bo‘ladi. Eng muhimi, bunday loyihalar orqali yoshlar uchun qiziqarli, tushunarli va zamonaviy uslubdagi milliy tarbiya namunalarini taqdim etish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Ma’naviy tarbiya har bir jamiyatning, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi sharoitida yoshlarning tarbiyasiga zamonaviy yondashuv talab qilinmoqda. Media vositalari esa bu jarayonning kuchli va ta’sirchan quroli sifatida o‘zining ahamiyatini tobora oshirib bormoqda.

Maqolada ko‘rib chiqilgan asosiy jihatlar shundan dalolat beradiki, media vositalari orqali ma’naviy tarbiyani shakllantirishda quyidagi ustuvor tamoyillarga amal qilish muhimdir:

• Media vositalari orqali ijobiy, tarbiyaviy va milliy ruhdagi kontentlarni yaratish va targ‘ib qilish zarur;

• Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim;

• Ota-onalar va pedagoglar yoshlarning media faoliyatida faol yo‘naltiruvchi rol o‘ynashlari kerak;

• Media savodxonlikni ta’lim tizimiga joriy qilish orqali yoshlarni axborotga nisbatan ongli yondashishga o‘rgatish maqsadga muvofiq;

• Davlat va nodavlat media tashkilotlari, blogerlar, jurnalistlar hamkorlikda tarbiyaviy kontent yaratish va uni keng ommaga yetkazish borasida tizimli ish olib borishlari kerak.

Shuningdek, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Media madaniyati” fanini joriy etish;

2. Milliy qadriyatlarga asoslangan seriallar, vloglar, podkastlar, qisqa videolar yaratish uchun davlat tomonidan grantlar ajratish;

3. Yosh blogerlar uchun tarbiyaviy media loyihalarni ishlab chiqish va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

4. Ota-onalar va ustozlar uchun media vositalar orqali tarbiya berish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish;

5. Ijtimoiy tarmoqlarda zararli kontentni aniqlash va filtrlaydigan texnologik mexanizmlarni takomillashtirish.

[1] Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 12-yanvar kuni bo’lib o’tgan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig’ilishida so’zlagan nutqidan.

Xulosa shuki, media vositalari bugungi kunda ma’naviy tarbiya sohasida kuchli yordamchi vositaga aylangan. Agar undan oqilona, maqsadli va mas’uliyatli foydalanilsa, yoshlarimizni milliy qadriyatlar ruhida, intellektual va axloqiy yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

President.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz (https://president.uz/) Ushbu manbadan Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, bayonotlari, tabriklari va chiqishlari olindi. Jumladan: 2021-yil 19-yanvar videoselektor yig‘ilishi.

Daryo.uz – Axborot-tahliliy portal. https://daryo.uz (https://daryo.uz/) Bu manbadan Prezidentning ommaviy tadbirlardagi nutqlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan iqtiboslar tasdiqlangan holda olindi.

Uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz (https://uza.uz/). Bu saytdan Prezidentning 2023-yilgi ma’naviyat va ma’rifat kengashidagi fikrlari olindi.

Xabardor.uz – O‘zbekistondagi yangiliklar portali. Fikrlar 2024-yil 12-yanvar Xavfsizlik kengashidagi yig‘ilishdan olingan.

Sputniknews.uz – Xalqaro yangiliklar manbasi (mahalliy tarmog‘i orqali).

Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Qo‘shoqov, B. A. Oila va jamiyatda ma’naviy tarbiya. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

Saidov, A. X. Axborot xavfsizligi va media savodxonlik asoslari. — Toshkent: Innovatsiya, 2021.

Jo‘rayev, M. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. — Toshkent: Ma’rifat, 2019.

Qodirov, N. Zamonaviy OAV va yoshlar ongining shakllanishi. — “O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi” jurnali, 2022, №3.

Xalilov, D. Media vositalari va yoshlar tarbiyasi. — “Ma’naviyat va ma’rifat” jurnali, 2023, №1.

UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. — Paris: UNESCO Publishing, 2011.

Jenkins, H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. — MIT Press, 2009.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-maydagi “Ma’naviyatni yuksaltirish va ma’rifat targ‘ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–265-son qarori.

“O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish konsepsiyasi” — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2022.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna
Ilmiy rahbar: O‘zMU dotsenti, sots.f.f.d. (PhD),
Urunboyeva Janona Akmal qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu sababli mamlakatimizda olib borilayotgan xotin-qizlarga oid davlat siyosati islohotlari hamda ular ijtimoiy faolligining jamiyat ravnaqidagi o‘rnini tahlil etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, fuqarolik institutlari faoliyatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi nihoyatda zarur bo‘lib, ulardagi ijtimoiy faollik sifatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ular jamiyat va millatning tayanchi, shaxsning fazl-u kamoli va axloqiy barkamolligida asosiy o‘rinni egallaydilar.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Bizning onalarimiz, opa-singillarimiz, ayol va qizlarimizning jamiyatdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mehnat va turmush tarzini yengillashtirish davlatimizning, jamiyatimizning asosiy va ustuvor vazifalaridan bo‘lib qolishi kerak” [1] degan so‘zlari bugungi kunda o‘z o‘rnini topmoqda.

O‘zbek ayollarining betakror siymolari bo‘lmish To‘maris, Nodirabegim, Barchinoy, Bibixonimlar ham o‘zlarining aqliy va jismoniy barkamolliklari bilan o‘zbekona sharm-hayo, nafosat va latofatning ibratli timsoliga aylanganlar. Shu sababli bugungi kunda xotin-qizlarimizdan hurmatli va taniqli rahbarlar, yetakchi va faollar, olimalar chiqmoqda.

Dunyoning hech bir yerida mamlakatimizdagi singari ayollarga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning natijasi o‘laroq jamiyatimizda ayollar katta ijtimoiy kuchga aylandi. Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan barcha tadbirlar ayollarning ishtirokisiz o‘tmaydi. Ayniqsa, fan, ta’lim va madaniyat sohasida minglab olima-yu fozila ayollar mehnat qilmoqdaki, ular jamiyat taraqqiyotida o‘z mavqelari va munosib o‘rinlariga egadirlar.

Mamlakatimizda insonparvar huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi muhim ahamiyatga ega. Zero, yuksak ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan shaxsgina jamiyatning ustuvor va strategik maqsadlarini amalga oshirishda faollik ko‘rsata oladi. Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotin-qizlar masalasiga alohida to‘xtalib: “Bugun ma’rifiy dunyoda xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o‘rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e’tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo‘lmaydi” [2], - deb ta’kidlagan edi.

Respublikamizda xotin-qizlar masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas, chunki keng miqyosda olib borilayotgan ishlar o‘z ko‘lami jihatidan ayollarning barcha sohalardagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy manfaatlarini qamrab olgan.

Biroq xotin-qizlarimizdan jamiyatda bo‘layotgan har bir voqea-hodisani ongli tahlil eta oladigan, o‘ziga xos qiyinchiliklarni yenga oladigan, har tomonlama yetuk bo‘lishi talab etilmoqda.

“Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi muhim omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo‘lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o‘nta yaxshilik bo‘lib qaytadi” [3], - deya ta’kidlagan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Xalqaro xotin-qizlar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida. Shuningdek, 2021-yil 26-fevral kuni xotin-qizlarning muammolarini hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida respublikamizning ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlarga har tomonlama ko‘maklashish bo‘yicha bir qator vazifalar muhokama qilingan edi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagilar muhimdir: chuqur bilim va salohiyatning tarkib toptirilishi, milliy qadriyatlar va urf-odatlarning ular ongiga singdirilishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik, tadbirkorlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik fazilatlarining barqarorlashuvi va boshqalar. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish natijasida xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanadi va xotin-qizlarning mehnat faoliyati faollashishi, gender muammosining asta-sekin yechim topishi kabi ijobiy natijalarga erishiladi.

Jumladan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son farmoni aynan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli hamda faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash masalalariga qaratilgani bilan e’tiborlidir. Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalari o‘ta dolzarbdir [4].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini kengaytirishga qaratilgan qator dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan,

“Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha 2030-yilgacha strategiya” qabul qilindi;

Oliy Majlisda deputatlar orasida ayollar ulushi oshdi (2024-yil noyabr holatiga ko‘ra 38 %ga yetdi) [5];

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tashkil etildi.

Shunga qaramay, ayrim hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjudki, ular quyidagilardir:

Mahalliy darajada rahbar ayollar sonining yetarli emasligi;

Gender stereotiplari;

Ayrim hududlarda xotin-qizlar bandligining pastligi;

Oilaviy vazifalar og‘irligi tufayli ijtimoiy faoliyatga kam vaqt ajratilishi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Ayollar uchun siyosiy liderlik maktablarini kengaytirish;

Ayollar tadbirkorligini subsidiyalash mexanizmlarini takomillashtirish;

Mahalliy darajada mentorlik tizimini joriy etish;

Oila va ish muvozanatini qo‘llash uchun moslashuvchan ish tizimlarini rivojlantirish.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosdagi dolzarb masaladir. Jahon ilmiy maktablari ushbu yo‘nalishda ko‘plab nazariyalar va empirik tadqiqotlar ishlab chiqqan bo‘lib, ular orasida S. de Bovuar, V. Zomardi, H. Lips, A. Sen, Sh. Roubotem kabi olimlar asarlari alohida o‘rin tutadi.

Nobel mukofoti sovrindori, iqtisodchi Amartya Sen ayollarni ijtimoiy va siyosiy hayotga keng jalb qilish taraqqiyotning asosiy sharti ekanligini e’tirof etadi: “Ayollar erkinligi – iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosi” [6].

Amerikalik psixolog Hilary Lips jamiyatda gender rollarining shakllanishida madaniy va siyosiy omillar hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etadi. Unga ko‘ra: “Ayollar faolligi jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini aks ettiradi” [7]. Bu yondashuv ayollarning faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashga e’tibor qaratishni taqazo etadi.

Britaniyalik tarixchi Sheyla Roubotem esa ayollar harakati tarixini o‘rganar ekan, davlat siyosatining barqarorligini ta’minlashda ayollarni yetakchilikka tayyorlash muhimligini ta’kidlaydi:

“Ayollar siyosatga kirishi – jamiyatda yangi adolat va ijtimoiy uyg‘onish davrining boshlanishidir” [8].

Shuningdek, BMT, Yevropa Ittifoqi va Jahon bankining rasmiy hisobotlarida ayollar faolligini oshirish bo‘yicha quyidagi xulosalar ilgari surilgan:

Ayollar siyosatga faol jalb etilgan mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlik yuqori bo‘ladi;

Gender tengligi iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;

Ayol hukumat a’zolari ko‘p bo‘lgan davlatlarda korrupsiya darajasi past bo‘ladi.

Ushbu ilmiy qarashlar O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan gender siyosati va xotin-qizlar faolligini oshirish bo‘yicha davlat strategiyasining jahon tajribasiga mos kelishini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Qonunchilikdagi islohotlar, ta’lim va bandlik imkoniyatlarining kengayishi, ayollarni siyosiy qarorlar qabul qilish darajasiga ko‘tarishga qaratilgan dasturlar ushbu jarayonning poydevorini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, jamoatchilik ongidagi stereotiplar, iqtisodiy to‘siqlar va hududlar bo‘yicha imkoniyatlar farqi hali ham mavjud bo‘lib, bular kompleks yondashuvni talab qiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan gender tengligi siyosatining izchil davom etishi, fuqarolik jamiyati institutlari faollashuvi hamda ayollar liderligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining kengayishi xotin-qizlarning ijtimoit-siyosiy hayotdagi ishtirokini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda, ayollarning faolligi – jamiyatning barqaror rivojlanishi va demokratik yangilanishlarining asosiy omillaridan biri ekani yana bir bor o‘z isbotini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.03.1995 yildagi PF-1084-son Farmoni .
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 25.05.2004 yildagi PF-3434-son Farmonida belgilab berilgan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan majlisdagi nutqi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-fevral kuni “Xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari” muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 01.03.2022-yildagi PQ-149-sonli Qarori.
5. Qonunchilik palatasining yangi chaqiriq deputatlarining o‘rtacha yoshi oshdi / https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/02/deputies-age/
6. Amartya Sen. Development as Freedom. New York, 2000.
7. Hilary M. Lips. Gender: The Basics. New York: Routledge, 2014.
8. Sheila Rowbotham. Women, Resistance and Revolution. New York, 1972.

RAQAMLI AVLOD SHAKLLANISHIDA KIBERSPORTNING IJTIMOIY-MADANIY DETERMINANTLARI

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi
University of Business and Science Toshkent filiali
o‘qituvchisi, FarDU mustaqil tadqiqotchisi.

Raqamli transformatsiya va globallashuv sharoitida “raqamli avlod” tushunchasining shakllanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, internet tarmog‘ining globallashuvi, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va mobil texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida yangi ijtimoiy tip – raqamli muhitda shakllangan avlod vujudga kelmoqda. Ushbu avlod nafaqat texnologiyalardan foydalanish uslubi bilan, balki tafakkur, muloqot, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvori bilan ham avvalgi avlodlardan tubdan farq qiladi.

“Raqamli avlod” tushunchasi, avvalo, bolalik va yoshlik davridan boshlab raqamli texnologiyalar bilan uzviy aloqada ulg‘aygan shaxslar guruhini anglatadi. Ular uchun internet, smartfon, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar tabiiy ijtimoiy muhit sifatida qabul qilinadi. Bu holat globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, axborot chegaralarining yo‘qolishi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi va global axborot oqimining tezlashuvi raqamli avlod dunyoqarashining shakllanishiga bevosita

ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada raqamli avlod vakillari global tafakkurga ega, ko‘p madaniyatli muhitda fikrlashga moslashgan, tezkor axborot almashuviga odatlangan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya raqamli avlod shakllanishining asosiy omillaridan biridir. Ta’lim, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va kundalik hayotning raqamlashtirilishi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Masalan, ta’lim tizimida masofaviy ta’lim, onlayn kurslar va raqamli resurslar keng qo‘llanilishi bilim olish usullarini individuallashtirdi va tezkor qildi. Bu esa raqamli avlodda mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda shakllangan tafakkur ko‘pincha fragmentar, tezkor va vizual xarakter kasb etib, an’anaviy chuqur mulohaza yuritish usullariga nisbatan yangi yondashuvlarni talab etadi.

Globallashuv jarayoni raqamli avlodning madaniy identifikatsiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Global axborot makoni orqali yoshlar turli madaniyatlar, qadriyatlar va turmush tarzlari bilan tanishadi. Bu holat bir tomondan tolerantlik, ochiqlik va kosmopolit qarashlarning shakllanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan milliy madaniyat va an’anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi xavfini ham yuzaga chiqaradi. Shunday sharoitda raqamli avlodni shakllantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni raqamli makonda asrash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli avlodning ijtimoiy xulq-atvori ham raqamli transformatsiya mahsulidir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish, virtual hamjamiyatlarda ishtirok etish va onlayn identitet yaratish raqamli avlodning ijtimoiy faolligini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, bu jarayonlar individualizmning kuchayishi, real ijtimoiy aloqalarning qisqarishi va virtual qaramlik kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Demak, raqamli avlodni tahlil qilishda nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki ijtimoiy-psixologik va axloqiy oqibatlarni ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, raqamli avlod jamiyat taraqqiyotining yangi subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. U innovatsiyalarni tez qabul qiluvchi, moslashuvchan va global muammolarga befarq bo‘lmagan avloddir. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik, axborot savodxonligining yetarli emasligi va ma’naviy bo‘shliq kabi muammolar ushbu avlod shakllanish jarayonida muhim to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham raqamli avlodni shakllantirish davlat siyosati, ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlar faoliyatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim. “Raqamli transformatsiya va globallashuv sharoitida “raqamli avlod” tushunchasi texnologik rivojlanish mahsuli bo‘lish bilan birga, murakkab ijtimoiy-madaniy va falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi”[1]. Ushbu avlodning shakllanishi jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omil bo‘lib, uni ilmiy asosda o‘rganish, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish zamonaviy ijtimoiy falsafaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Kibersport zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonning muhim fenomenlaridan biri sifatida shakllanib, raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, internet infratuzilmasining kengayishi hamda raqamli platformalarning ommalashuvi natijasida kibersport an’anaviy sport turlariga muqobil bo‘lgan, ammo

o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy mazmunga ega faoliyat shakliga aylandi. Bugungi kunda kibersport nafaqat ko‘ngilochar soha, balki professional sport, madaniy industriya va global ijtimoiy muloqot maydoni sifatida e’tirof etilmoqda.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, kibersport yoshlar ijtimoiylashuvining yangi modelini shakllantirdi. “Virtual maydonlarda jamoaviy o‘yinlar orqali hamkorlik, raqobat, strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Kibersport musobaqalari global miqyosda tashkil etilishi natijasida turli mamlakat va madaniyat vakillari o‘rtasida bevosita muloqot va hamjihatlik muhiti yuzaga keladi”[2]. Bu esa yoshlarning global tafakkurini kengaytirib, ularni zamonaviy dunyoning ochiq va raqobatbardosh subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniy jihatdan kibersport raqamli madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U o‘yin dizayni, vizual estetika, musiqiy hamrohlik va narrativ elementlar orqali zamonaviy madaniy ifodaning yangi shakllarini yaratadi. Kibersport atrofida shakllangan submadaniyat geymerlar hamjamiyati, striming platformalari, onlayn turnirlar va fan-kontentlar zamonaviy ommaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, kibersport madaniy iste’molning interaktiv shaklini taklif etib, tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Kibersportning iqtisodiy va institutsional ahamiyati ham ijtimoiy-madaniy makondagi o‘rnini belgilovchi muhim omildir. Professional jamoalar, homiylik tizimi, media huquqlar va turnir infratuzilmasi kibersportni mustaqil industriya darajasiga olib chiqdi. Bu jarayon yangi kasblar professional geymer, kibertrener, strimer, analitik va o‘yin sharhlovchilarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Natijada kibersport yoshlar uchun o‘z qobiliyatlarini namoyon etish va ijtimoiy mobilitetga erishish imkonini beruvchi yangi maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kibersportning ijtimoiy-madaniy makondagi o‘rni bir qator muammolar bilan ham bog‘liq. Virtual qaramlik, real jismoniy faollikning kamayishi, agressiv kontent ta’siri va ijtimoiy izolyatsiya xavfi mazkur sohaning salbiy jihatlari sifatida ko‘rsatiladi. Shu sababli kibersportni rivojlantirishda axloqiy me’yorlar, sog‘lom turmush tarzi va ta’limiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila, ta’lim muassasalari va davlat siyosati darajasida kibersport madaniyatini ongli va mas’uliyatli tarzda shakllantirish zarur. Kibersport zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonda ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lib, yoshlar madaniyati, raqamli identitet va global muloqotning muhim omiliga aylandi. Kibersport zamonaviy raqamli madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida raqobat, g‘alaba va muvaffaqiyat tushunchalarining mazmunini tubdan qayta talqin etmoqda. An’anaviy sport turlarida raqobat asosan jismoniy ustunlik, kuch va chidamlilik bilan bog‘langan bo‘lsa, kibersportda bu tushunchalar intellektual salohiyat, strategik tafakkur, texnologik savodxonlik va jamoaviy muvofiqlik orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois kibersport raqobat madaniyatini yangi bosqichga olib chiqib, uni raqamli muhitga moslashtirilgan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida shakllanaveradi.

Kibersportdagi raqobat madaniyati, avvalo, tezkorlik va doimiy yangilanish tamoyiliga asoslanadi. O‘yin platformalari, qoidalar va texnologiyalar tez-tez yangilanib borishi natijasida sportchilar doimiy o‘rganish va moslashuv jarayonida bo‘lishga majbur. Bu holat raqobatni statik emas, balki dinamik va jarayon sifatida tushunishga olib keladi.

Natijada g‘alaba bir martalik natija emas, balki uzluksiz rivojlanish, o‘z ustida ishlash va bilimlarni yangilab borish jarayonining mahsuli sifatida talqin qilinadi.

G‘alaba tushunchasining transformatsiyasi kibersportda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. An’anaviy sportda g‘alaba asosan jismoniy ustunlik va natija bilan belgilanar ekan, kibersportda g‘alaba ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘ladi. Musobaqadagi yutuq bilan bir qatorda reytinglar, onlayn auditoriya e’tirofi, strimingdagi mashhurlik va virtual hamjamiyatdagi obro‘ ham muvaffaqiyat mezonlariga aylanadi. Shu tariqa g‘alaba faqat musobaqa natijasi bilan emas, balki raqamli makondagi ijtimoiy kapital orqali ham o‘lchanadi. Muvaffaqiyat konsepsiyasi ham kibersport sharoitida yangi mazmun kasb etadi. Professional kibersportchilar uchun muvaffaqiyat nafaqat turnirda g‘olib bo‘lish, balki shaxsiy brend yaratish, auditoriya bilan muloqot qilish va raqamli platformalarda barqaror faoliyat yuritish bilan bog‘liq. Bu holat muvaffaqiyatni individual yutuqlardan tashqari kommunikativ va madaniy kompetensiyalar bilan bog‘laydi. Natijada kibersportda muvaffaqiyatga erishish ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, texnik mahorat, ijtimoiy moslashuv va axborot madaniyatini o‘z ichiga oladi.

Kibersportdagi raqobat madaniyatining yana bir muhim jihati — jamoaviylikning kuchayishidir. “Ko‘plab kibersport yo‘nalishlarida g‘alaba individual emas, balki jamoaviy strategiya va o‘zaro ishonch orqali qo‘lga kiritiladi. Bu esa raqobatni faqat qarama-qarshilik sifatida emas, balki hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik orqali amalga oshadigan jarayon sifatida talqin etishga olib keladi”[3]. Shu jihatdan kibersport raqobat madaniyatini ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy etikaga yaqinlashtiradi.

Kibersportdagi raqobatning kuchayishi ayrim salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Haddan tashqari raqobat, psixologik bosim, agressiv xulq-atvor va onlayn toksiklik raqamli muhitda keng tarqalgan muammolar sirasiga kiradi. Bu holatlar kibersportda raqobat madaniyatini sog‘lom va axloqiy me’yorlar asosida shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Kibersport sharoitida raqobat madaniyati, g‘alaba va muvaffaqiyat konsepsiyalari an’anaviy sport modellari doirasidan chiqib, raqamli ijtimoiy-madaniy makonga mos holda transformatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon kibersportni nafaqat sport turi, balki zamonaviy jamiyatdagi qadriyatlar, motivatsiya va muvaffaqiyat mezonlarini qayta belgilovchi muhim madaniy hodisa sifatida namoyon etadi. “Kibersportning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatda milliy ma’naviyat va qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv masalasini dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqib, raqamli texnologiyalar asosida shakllangan kibersport global madaniyat mahsuli bo‘lishiga qaramay, u milliy ijtimoiy-madaniy muhitdan tashqarida rivojlana olmaydi”[4]. Shu bois kibersportni milliy ma’naviyat, axloqiy me’yorlar va tarixiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish jamiyatning barqaror rivoji va yoshlar tarbiyasi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ma’naviyat, avvalo, xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, axloqiy tamoyillari va madaniy identitetini ifodalaydi. Kibersport esa raqamli makonda yoshlarning ijtimoiylashuvi, muloqoti va o‘zini namoyon etishining yangi shaklini taklif etadi. Mazkur ikki hodisaning uyg‘unlashuvi yosh avlodda zamonaviylik va milliylik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkonini beradi. Agar kibersport faoliyati milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirilsa, u yoshlarni global raqobatga tayyorlash bilan birga, ularning

ma’naviy tayanchlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Kibersportda milliy qadriyatlarning ifodalanishi, eng avvalo, axloqiy me’yorlar orqali namoyon bo‘ladi. Halollik, adolat, hurmat va jamoaviylik kabi qadriyatlar an’anaviy sportda bo‘lgani kabi kibersportda ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida raqibga nisbatan hurmat, qoidalarga rioya qilish va adolatli raqobat tamoyillari milliy ma’naviyatning raqamli makondagi ko‘rinishi sifatida baholanadi”[5]. Bu jihat kibersportni oddiy ko‘ngilochar faoliyatdan ijtimoiy-axloqiy tarbiya vositasiga aylantiradi.

Madaniy jihatdan kibersport milliy o‘zlikni ifodalash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Milliy ramzlar, tarixiy obrazlar va madaniy motivlarning o‘yin dizayni, turnirlar va vizual identitetda qo‘llanilishi yoshlar ongida milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytiradi. Shu bilan birga, milliy jamoalarning xalqaro musobaqalardagi ishtiroki kibersportni madaniy diplomatiya vositasiga aylantirishi mumkin. Bu jarayonda milliy qadriyatlar global maydonda zamonaviy va raqobatbardosh shaklda namoyon bo‘ladi. Kibersportning milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashuvida ta’lim va tarbiya institutlarining roli alohida ahamiyatga ega. Oila, maktab va oliy ta’lim muassasalari kibersportni nazoratsiz iste’mol qilinadigan faoliyat sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitilgan ijtimoiy faoliyat sifatida talqin etishi lozim. Raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish kibersport orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan muhim tarbiyaviy vazifalardandir.

Shu bilan birga, kibersport va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Agressiv kontent, zo‘ravonlik unsurlari va ma’naviy bo‘shliq keltirib chiqaruvchi o‘yinlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli davlat siyosati, jamoatchilik nazorati va professional etik me’yorlar asosida kibersport muhitini sog‘lomlashtirish muhim vazifa bo‘lib qolaveradi. Kibersportning milliy ma’naviyat va qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi, madaniy identitet va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. To‘g‘ri yo‘naltirilgan va ma’naviy asoslangan kibersport global raqamli makonda milliy qadriyatlarni asrash va targ‘ib etishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar va kibersport siyosati davlatning raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanmoqda. So‘nggi yillarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning intellektual va kreativ salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan kibersport yoshlar siyosatining zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida kibersport siyosati, avvalo, yoshlarni raqamli kompetensiyalar bilan qurollantirish, axborot texnologiyalariga qiziqishini oshirish va global raqamli maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Maxsus kibersport klublari, musobaqalar va ta’limiy platformalarning tashkil etilishi yoshlar uchun yangi ijtimoiy faollik va o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, kibersport orqali jamoaviylik, mas’uliyat va strategik fikrlash kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Biroq yoshlar va kibersport siyosatida ma’naviy-axloqiy muvozanatni ta’minlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Davlat va jamoatchilik institutlari

tomonidan kibersportni sog‘lom turmush tarzi, milliy qadriyatlar va axborot madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish Yangi O‘zbekiston sharoitida barkamol va raqobatbardosh yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лешкевич Т.Г. Цифровые трансформации эпохи в проекции их воздействия на современного человека. // Вестник Томского государственного университета. 2019. № 439. С. 103.

2. Пащыев Ш.Б. Киберспорт как средство развития личности. // «Science Time» Электронный журнал. 2016. № 49. – С.513.

3. Усовская, Э. А. Межкультурная коммуникация [Электронный ресурс] : учеб.-метод. комплекс / Э. А. Усовская. – Минск.: “БГУ”, 2017. – С.31.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2022-йил 16-ноябрдаги ПҚ-423-сон “Киберспорт турларини янада ривожлантириш ва кенг оммалаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.

5. Mardonov, D. Jamoaviy sport turlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. “Yosholim” ilmiy-amaliy jurnali, 2021. № 4(7), 112–115.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING OILAVIY QADRIYATLARNI QABUL QILISHDAGI TRANSFORMATSION YONDASHUVI

Jumaniyazova Moxira Shuxrat qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Ma’lumki, biz yashab, makon topgan dunyo bugungi kunga qadar necha ming yillik rivojlanishni boshdan kechirgan. Bu rivojlanish jarayoni turfa xil madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni taqozo etgan va etib kelmoqda. Eng qadimgi davrda shakllangan G‘arb va Sharqdagi ilm-fanga doir boshlang‘ich bilimlar bugun ham ko‘plab masalalarga javob berishi bir tomondan quvonarli boshqa tomondan esa insonni o‘yga tortishi shubhasizdir. Inson jismoniy, aqliy jihatdan taraqqiy etgan bir davrda unda dunyoni tubdan o‘zgartirib yuborish mumkin bo‘lgan g‘oyalarni yaratayotganligi e’tiborlidir. Ulardan biri bu XX asrda paydo bo‘lgan va XXI asrda richag bo‘lib xizmat qilayotgan postindustrial, postmodernitik, koevolutsion nazariyalar, ularning natijalaridir. Shuningdek, insoniyat eng oliy aql egasi sifatida – asrlar davomida o‘zi bilan o‘zi kurashib kelmoqda. Bu kurashda albatta mag‘lub ham o‘zi bo‘lishi aniq. Lekin, bu uni to‘xtatishga sabab bo‘lolmayotganligi, uni naqadar shafqatsiz mavjudot ekanligidan dalolat beradi.

XX asrda vaziyat anchayin murakkab, qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, o‘zgara boshladi. Biz qadam-ba qadam urush va zo‘ravonlik kategoriyalariga tayangan siyosat tamoyillari va tafakkurining huquqiy va axloqiy normalar ustivorligiga asoslangan tafakkurga o‘rin bera boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. XXI asrda bunday tafakkur asosiy paradigmaga aylanishi kerak. Ikkita jahon urushi va ko‘plab mintaqaviy mojarolar tajribasi, yadro urushi oqibatlari butun insoniyatni halokat yoqasiga olib kelishini anglash, xalqaro

terrorizm xavfi – zo‘rlikka asoslangan siyosat va tafakkur usulining istiqbolsiz ekanligini yorqin namoyon qildi.

Kishilar milliy, diniy, sinfiy va boshqa o‘ziga xos manfaatlar bilan bir qatorda, barchaga tegishli umumbashariy manfaatlarga ham ega ekanligining tushunib yetishi – XX asrning muhim kashfiyotlaridandir. Bunday umumiy manfaatlarning mavjudligi bugungi kunning realligi bo‘lib, u eng avvalo insoniyatning yer yuzida omon qolishi bilan bog‘liq. Bu masala har qaysi davlat yoki davlatlar guruhiga, har qanday ijtimoiy etnik va diniy umumiyatga tegishlidir. XX asrning boshlarida, deyarli barcha mutafakkirlar tomonidan dunyoning keskin bo‘linishi eng yangi davr jahon tarixining asosiy omili sifatida tan olingan. Ikki ijtimoiy tizimi – “kapitalizm” va “sotsializm” ning o‘zaro muqobilligi va raqobati deyarli bir asr davom etdi.

“Sotsialistik lager” ning barham topishi bilan asosiy ijtimoiy keskinlik fokusi G‘arb-Sharq, Shimol-Janub, “oltin milliard” va qolgan insoniyat o‘rtasidagi qarama-qarshilik, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarga ko‘chdi. Insoniyat borlig‘ining parchalanganligi hali ham jamiyat tarixining xususiyati bo‘lib qolmoqda. Lekin, tanglik va manfaatlar to‘qnashuviga to‘la bo‘lgan XX asr tarixi rivojlanib kelayotgan (milliy, diniy, mintaqaviy va h.k) madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning konfrontatsion shakli, ularning ajralib qolganligi va alohida o‘zicha mavjudligi odatiy holat hisoblangan borliq va ong shakllarining tarixan (ya’ni umumbashariy istiqbolda) hayotiy emasligini isbotlaydi. Umumbashariy xususiyat kasb etgan ushbu muammoning murakkabligi, shuningdek, diniy, etnik va davlatlararo ziddiyatlarning hali ham mavjudligiga qaramay, hozirgi zamon sivilizatsiyasining rivojida butun insoniyat taqdiri uchun belgilovchi ahamiyat kasb etuvchi xususiyatlar kuzatilmoqda. Bugun insoniyat qarama-qarshiliklar, xato va qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, o‘zining birligi va yaxlitligini yaratishga qarab harakat qila boshladi. Butun tarixi davomida bashariyat bir-biridan ajralgan milliy-davlatchilik tizilmalari yig‘indisi sifatida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, endi, tarixda birinchi bor ongli ravishda yagona iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axborot makonini yaratish orqali birlashishga harakat qilmoqda.

Hozirgi paytda ham qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarning turli shakllari saqlanib qolayotganligiga qaramay, integratsion jarayonlar o‘ziga yo‘l ochmoqda. Iqtisodiy sohada bu jarayonlar turli mikroiqtisodiy (firma va korxonalar) va makroiqtisodiy (davlatlararo, mintaqaviy va planetar) darajalarda amal qilmoqda. Iqtisodiy integratsiya bojxona, valyuta va iqtisodiy uyushmalar, erkin savdo zonalari, umumiy bozorlar shaklida namoyon bo‘lmoqda.

XX asrda shakllangan bu jarayon XXI asrning keyingi o‘ttiz yilida metin irodali shaxsni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularning o‘rnini saqlab qolishdek vazifani bajarish orqali amalga oshadi. Bunga asosiy sabab qilib, xalqaro aloqalarning kuchayishi, insonlararo munosabatlarda egoizm, individulaizm g‘oyalarining taraqqiy etishi asosiy masala bo‘ladi. Ayniqsa, oila-jamiyatdagi eng muhim mexanizm sifatida keyingi yillarda ko‘p marta transformatsiyaga uchramoqda. G‘arbda sodir bo‘lgan aksilogik, ijtimoiy tendensiyalar buning aniq isbotidir. Tasavvur qiling bir mexanizm butun boshli qurilmani faoliyatini boshqarib tursa, uning bir qismida ish faoliyatida buzilish sodir bo‘lsa, keyinchalik boshqa qismlariga buzilish ta’sir o‘tkazadi. Oila ham

jamiyat mexanizmning asosiy qismi bo‘lib, uning izdan chiqishi, davlat va ijtimoiy jarayonlarning ish faoliyati samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oilani bir butunligini, uzviyligini va mustahkamligini saqlab qolishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak? Uning boshqa yod ta’sirlarga bardosh berish qobiliyatini qanday mustahkamlash mumkin kabi savollarga aniq va izchil javob berish lozim.

Oilaviy munosabatlarni modelini o‘rganayotganda, “an’anaviy oila” va "zamonaviy oila" tushunchalarini ajratib ko‘rsatish muhim hisoblanadi.

An’anaviy oila - bu turmush o‘rtog‘iga sodiqlik g‘oyalariga asoslanib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan erkak va ayol o‘rtasida ixtiyoriy sheriklikka (nikohga) asoslangan, patriarxal oilaviy munosabatlardan kelib chiqqan nikoh va oilaviy munosabatlarni tashkil etish shakli. Xotinlarning manfaatlarini to‘liq himoya qiladigan oilada erkakning ustun rolini tan olish va uzoq muddatli barqarorlik va nikoh barqarorligini ta’minlash, naslni davom etishi va o‘sishi, keksa avlod vakillarini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash, avlodlararo aloqalar va oilaviy qadriyatlarning uzluksiz ta’minlashdir.

Hozirda G‘arb jamiyatida an’anaviy oila tanazzulga uchraganligi aniq. An’anaviy oila paradigmasi o‘rnini zamonaviy oila modeli egallamoqda, bu nikoh va oilaviy munosabatlarning modernizatsiyalangan va umuman inqirozli rivojlanishining bir shakli bo‘lib, ular oddiy teng yadroli oilalarning ustunligini belgilaydi, odatda tenglik va sheriklarning gedonizmi bu oilada ustuvor ahamiyat kasb etadi. Oila institutini o‘rganayotgan zamonaviy olimlar aslida oilaning hozirgi holatini tushunishda ikki munozarali paradigmaning tarafdorlari hisoblanadilar: "oilaviy qadriyatlarning inqirozi" va "oilani modernizatsiya qilish" shu munozarali paradigmalardir. A.I.Antonov bu haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Zamonaviy oila tarixiy sahnada funksional va tarkibiy jihatdan zaiflashib, o‘ziga xos funksiyalaridan mahrum bo‘lib, ta’lim, tarbiya, din, ish, hukumat institutlari foydasiga paydo bo‘ladi “... oilaviy, jinsiy va reproduktiv xatti-harakatlar tug‘ilish va oiladagi barqarorlikni tartibga soluvchi mexanizmini buzadi, bu nikohgacha bo‘lgan munosabatlar, kontrasepsiya va abort, ajralishlar va nikohdan tashqari onalik va hokazolarning yo‘l qo‘yilishiga olib keladi. Oiladagi ajralishlarga olib keladigan va institusional darajada oilaning va boshqa institutlarning tengsizligini namoyon etadi, bu esa uni ma’lum ma’noda kamsitish va ekspluatatsiya qilinishiga olib keladi” [1]. X. Djaber, o‘z navbatida, "oilaviy qadriyatlarni o‘zgartirish faqat haqiqat tomonidan belgilanadigan yangi qadriyat yo‘nalishlarini ongli ravishda qabul qilish va hayot yo‘lida ularga rioya qilishga urinish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta’kidlaydi. O‘zgarishlar inqiroz davrida, eski odat qulaganida va shaxs tomonidan standart sifatida qabul qilingan prinsiplarga muvofiq yashashning iloji bo‘lmaganda yuz berishi mumkin. Natijada, ba’zi qadriyatlar yo‘nalishlari ahamiyati va ahamiyatini yo‘qotadi, boshqalari esa dolzarb bo‘lib qoladi. Inqiroz va transformatsiya jarayonlaridan so‘ng monolit tizim plyuralistik tizim bilan almashtiriladi va har bir inson turli xil asoslar asosida o‘z bahosini beradi” [2].

Tadqiqotchilar oilaning inqirozi to‘g‘risida gaplashishga imkon beradigan asosiy omillarni quyidagicha izohlashadi: naslning ijtimoiy me’yorlarini almashtirish (katta oilani rad etish) mavjud; insonning ijtimoiy hayotining zarur shakli sifatida oilaning ahamiyati pasayadi individual va guruh axloqining ommaviy og‘ishlari qayd etiladi;

an’anaviy oilaviy kommunal ishlab chiqarishning deformatsiyaning jarayoni va iqtisodiyotning noan’anaviy sohalariga o‘tish (fermerlik va hunarmandchilikdan nodavlat xizmatlar sohasiga) va boshqalar. Ayni shu ma’noda, “oila inqirozi nazariyasi” tarafdorlarining dalillari hech bo‘lmaganda yaqindan o‘rganish va tahlil qilishga loyiqdir. Hatto ushbu nazariya tarafdorlari tomonidan doimiy ravishda keltirilgan dalillarga bir qarash ham inqiroz sabablari ob’yektiv, uzoq muddatli va global xarakterga ega deyishga keng imkon beradi” [3].

Inqiroz, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, g‘arb oilaviy munosabatlarni tashkil etish modeliga xosdir. Agar Sharq madaniyatida oilaviy munosabatlar modernizatsiya qilinishiga qaramay, asrlar davomida an’anaviy oilaviy qadriyatlarning uzatilishi mavjud bo‘lsa, unda G‘arb sivilizatsiyasida insonparvarlik yondashuvi asosida oilaviy qadriyatlarni to‘liq qayta qurish mavjud bo‘lib, u chuqurroq o‘rganib chiqilganda individualizm va gedonizm gibridididir. G‘arbda zamonaviy davrda psevdo-oilaviy qadriyatlarning tarqalishi ko‘pchilikning manfaatlari va ehtiyojlariga javob berishiga jiddiy shubha mavjud. Oilaviy inqiroz aniq demografik oqibatlarni keltirib chiqaradi va ekzistensial jihatdan G‘arb sivilizatsiyasining immunitetini pasaytiradi va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatning qo‘zg‘atuvchisi bo‘lishi mumkin. O‘zbek oilasi Sharq va G‘arb modellari chegarasida joylashgan bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish nafaqat ijtimoiy va demografik inqirozdan qutulish manbai bo‘lishi mumkin bo‘lgan an’anaviy oilaviy qadriyatlar foydasiga tanlov qilish juda muhim ko‘rinadi. Shuningdek, madaniyatlararo mediatorning tarixiy missiyasini bajarishga imkon beradi.

Bizning tadqiqotlarimiz zamonaviy oila chuqur inqiroz holatida ekanligini tasdiqlashga imkon berdi. Oilaning sosiologi M.V.Smagin zamonaviy oilaning inqiroz holatini “yosh avlodning disfunksional sosializatsiyasi ko‘rsatkichi, avlodlararo murakkab munosabatlar, oiladagi zo‘ravonlik va boshqa inqiroz tarkibiy qismlarining ko‘rsatkichi" deb juda to‘g‘ri belgilaydi. Transformatsiyani kuzatib boruvchi inqiroz hodisalari (aholining qarishi, yosh guruhlari va oilalar o‘rtasida keskin ijtimoiy tabaqalanish, yosh va katta avlodlarning ijtimoiy zaifligi, qariyalar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining ko‘payishi, marginal oilalar sonining ko‘payishi, nizoli munosabatlarga ega oilalar) oilaviy munosabatlarning keskinlashuvidan va umuman zamonaviy oilaning tobora ko‘payib borayotgan muammolaridan dalolat beradi” [4].

Jamiyatning o‘zgarish jarayoni zamonaviy oilaning asosiy ijtimoiy institut sifatida inqiroz holatida bo‘lishiga olib keldi. Bundan tashqari, o‘tish davri qiyinchiliklariga himoyasiz va tayyor bo‘lmagan toifasi bolalardir. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy oila, odatda, salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan jamiyatdagi o‘zgarishlar, qiymat paradigmalarining ta’siri ostida ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bularga an’anaviy oilaviy poydevorlarni yo‘q qilish, murakkab ko‘p qatorli oilalar institutining tanazzulga uchrashi, nikoh tanlovining deformatsiyasi, jamiyatning ajralishga bo‘lgan ijobiy munosabati, to‘liq bo‘lmagan oilalar institutini rivojlantirish va "fuqarolik" ning so‘zsiz jamoatchilik tomonidan ma’qullanishi kiradi.

Xulosa. XXI asrda oila institutini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, boshqa narsalar qatori, quyidagilar bo‘lishi kerak: o‘zbek oilasining uch avlodining o‘zaro ijtimoiylashuvi va oilaviy qadriyatlarni uzatishda o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish; yosh

avlod bilan ilgari olib borilgan ishlarning yutuqlari va xatolaridan kelib chiqib, yoshlarning oilaga nisbatan qiymat munosabatlarini o‘zgartirish; biologik funksiyalarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida turmush o‘rtoqlarni o‘zlarini jinsiy identifikatsiyalash propedevtikasi, shu jumladan onalar va bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, onalarning bo‘sh vaqtini faol tashkil etish, ularning ta’lim olishlari va bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishning har qanday shaklini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini tenglashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kommutatsiya va rotasion migratsiyaga samarali qarshi turish; monokultural nikohlarni qo‘llab-quvvatlash; oilaviy qurilish va yosh avlodni tarbiyalashda an’anaviy madaniy qadriyatlarni oshirishga qaratilgan diniy konfessiyalar va boshqa ijtimoiy institutlarning faol ishtiroki; yosh avlodning axloqiy, vatanparvarlik va ma’naviy tarbiyasini faollashtirish yo‘nalishidagi ta’lim paradigmasini to‘liq miqyosda qayta ko‘rib chiqish, har bir yosh avlod tomonidan o‘zini erta yoshligidanoq oilaviy shaxs sifatida aniqlash. Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganlarni umumlashtirib, zamonaviy oilaning inqiroz holatini yengish mumkin va kerak deb ta’kidlashimiz mumkin. Buning uchun shaxsni oilaviy shaxs sifatida o‘zini o‘zi identifikatsiyalashni ta’minlash uchun choralar ko‘rish zarur va an’anaviy oilaviy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarni tashkil etish uchun muhim asos bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, oila hodisasi yakuniy tahlilda axloqiy ildizlarga ega. Shu asosda insoniyat tarixida oila va nikohning barcha shakllarining abadiy borligi gipotezasi ilgari surilgan. Har safar har bir davr o‘z oilasining ustun turiga ega (yoki uning bir nechta ijtimoiy jihatdan maqbul variantlari), lekin har bir davrda, asosan, mumkin - va hatto har doim ham katta yoki kichik darajada amalga oshiriladi. Bundan tashqari, inson individual-shaxsiy darajadagi oila insoniyat mavjudligining ma’lum bir boshlang‘ich ko‘ksini tashkil etishini anglash kerak, bunda ham tabiiy, ham ijtimoiy belgilanishlar pishib etiladi. Bu bizga oila va nikohning asosiy ijtimoiy-madaniy shakllari mavjudligining arxetipik tabiati konsepsiyasini tasdiqlash huquqini beradi. Bu kabi oila jamiyatning tarixiy va ontologik arxetipidir. Bu shuni anglatadiki, oila tarixiy jihatdan birinchi inson hamjamiyati bo‘lib, neolit davridan boshlab uning butun insoniyat hayoti uchun ushbu hayot rivojlanib boradigan markaziy o‘qi sifatida belgilovchi xususiyati to‘g‘risida to‘liq ishonch bilan gapirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Antonov A.I. Analiz demograficheskoy situasii i demograficheskoy politiki v Rossii i v mire // Demograficheskiye issledovaniya : sbornik / otv. red. A.I. Antonov. M., 2009. S. 3-8.

2. Djaber X.M.A. Semeynыye syennosti v arabskoy kulture // Psixologiya obrazovaniya v polikulturnom prostranstve. 2016. № 33 (1). S. 25.

3. Bulgakova S.A. Krizis semi i tradisionnыx ustoyev v sovremennom obщyestve // Innovasionnaya nauka. 2016. № 5-1 (17). S. 215.

4. Smagina M.V. Sosiokulturnaya transformatsiya semi v sovremennoy Rossii kak faktor neblagopoluchiya // Ekonomicheskiye i gumanitarnыye issledovaniya regionov. 2016. № 2. S. 110-114.

5. Ensiklopedicheskiy sosiologicheskiy slovar. Общ.red. Osipova G.V. - M.: ISPI RAN, 1995. - 940 s.

6. Falsafa qomusiy lug‘at. -Toshkent.: Sharq, 2004. –B.92

HUQUQIY MADANIYAT HUQUQIY SAVODHONLIKNI OSHIRISHDA TIL-NUTQ VA ADABIYOTNING O`RNI

Jumaniyazova Nafosat Ravshanbekovna
Yangi asr universiteti o‘qituvchisi

Demakratiyaga asoslangan davlatda insonning huquqiy madaniyati adabiy-ma’naviy kamolotida badiiy adabiyot, xususan, so`zning, nutqning o`rni masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.Huquq bilan so`z-nutqning bog`liqligi juda kattadir. **Huquqiy madaniyat** –Huquq kishilarning bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabat, unga rioya huquqni va hurmat qilish ifodalovchi atama. Huquqiy madaniyatning jamiyat rivojida tutgan o‘rni va ahamiyati Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan “Taraqqiyotning o‘zbek modeli”da aniq-ravshan ko‘rsatib berilgan. Huquqiy madaniyat mamlakatimizda obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayot qurish sa’y-harakatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir fuqaroning qonunlarga qat’iy rioya etishi, qonun bo‘yicha yashashi va mehnat qilishini taqozo etadi. Huquqiy madaniyatni takomillashtirish uchun barcha fuqarolarning siyosiy, huquqiy ongini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat zamonda va makon zamonda farqlanib, hozirda va istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan manfaatlar ko‘lami bilan o‘lchanadi. Huquqiy madaniyat insonning bilim va tajribalari orqali narsa va hodisalarni, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, ularning mazmun-mohiyatini anglash, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini farqlash va shu asnosida xulosa chiqarish imkonini beradi. [4-56]

Huquqiy ong – falsafa huquqshunoslik, sohalariga oid kategoriya; huquqiy hodisalarni aks ettiruvchi, huquqiy qadriyatlarni anglash, zarur huquqiy tartibni saqlash bilan bog‘liq ijtimoiy guruh va individual ongga mansub tushuncha. Huquqiy ong jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, uning madaniy-huquqiy, siyosiy shart-sharoitlari bilan tavsiflanadi. Huquqiy ong – ijtimoiy va individual ongga tegishli bo‘lgan, huquqiy bilimlarni o‘z ichiga olgan g‘oyalar majmui. Huquqiy ong bilish, baholash va tartibga solish vazifalarini bajaradi. Huquqiy ong jamiyat hayotida sodir bo‘ladigan voqea-hodisa, shaxs ongida huquqiy normalarning shakllanishi va takomillashuvini ifoda etadi. O‘z navbatida, huquq va uning amaliyotda qo‘llanishi ijtimoiy va individual ong mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy ongning bilish, baholash va tartibga solish vazifalarining mazmun-mohiyatida, bir tomondan, bilim va ma’rifat namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yuksak ma’naviyat va muayyan iroda-e’tiqod o‘z ifodasini topadi. Bugun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning pirovard samarasi, oldimizda

turgan ulkan maqsad-muddaolarga erishish ko‘p jihatdan o‘z haq-huquqini teran anglab yetgan, huquqiy me’yorlarni chuqur o‘zlashtirgan va ularga qat’iy amal qiladigan, huquqiy ongi, bilimi va dunyoqarashi keng bo‘lgan insonlarning faol ishtirokiga bog‘liq. [4-58]

Huquqiy tarbiya – jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzluksiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta’lim va amaliyot, o‘zini o‘zi tarbiyalash kiradi. Huquqiy tarbiya keng ma’noda, jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma’noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o‘rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko‘nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashkilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi. Huquqiy tarbiya ko‘p murakkabv a qirrali jarayon hisoblanib, uning muammolari huquqshunoslik, psixologiyava pedagogika ma’naviyat asoslari, etika va estetika kabi fanlar doirasida tadqiq etiladi. Huquqiy tarbiya samaradorligi oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyatining o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya shakllantirishda OAV, TV, radio, huquqiy mavzulardagi kechalar, davra suhbatlari ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi fuqarolarning birinchi galda yoshlarning huquqiy ongi va tafakkurini o‘stirish, ularni har jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qil

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish tubdan takomillashtirish to`g`risida prezident farmonida ham bu asosida vazifalar belgilangan[1. PF-5618-son]

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli darajada ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda mahalla va oila fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzida yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi va ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni va savodhonlikni yuksaltirishda **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini** aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. [4-3-27]

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga zid, xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy, samarali tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi hamda savodhonligini, huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida:

1. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va savodhonlik, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, jamiyatimiz aholisi ongida **“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”** degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash. [1-PF-5618-son].

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab,birinchilardan aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini** keng targ‘ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

fuqorolar o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, huquqiy savodhonlikni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;

yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

2. **“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati”** degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini har kungi kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan .

Yuqorida takitlab o`tilgan vazifalarni bajarishda bizga til va adabiyotning o`rni juda katta bo`lib, ommaviy axborot vositalari nutqiy savodhonlikni ishga solib samarali hamkorlik qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish lozim

Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va talqini uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Rivojlanib borayotgan yurtimizda har bir sohada bo‘lgani kabi tilshunoslik sohasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. [5-216]

Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqiy madaniy o‘zgarishlar, avvalo, tilda o‘z ifodasini topishi sababli adabiy tilni nutqni nazorat qilish, uning sofligi, madaniyligi uchun kurashish har doim dolzarblik kasb etgan. O‘zbek nutq madaniyatining shakllanish tarixi, taraqqiyoti masalasini o‘rganish va shu asosda dunyoning lisoniy manzarasida o‘zbek milliy mentalitetning o‘ziga xosligini ko‘rsatib berish bugungi tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Til va nutq bir-biriga bog’liq hodisalardir.. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo’lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi. [7-159] Nutq – bu til deb ataluvchi, o’ta muhim aniq vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlaridan foydalangan holda huquqiy savodxonlikni oshirish ya`ni qonun hamma uchun birday ishlashini nutq orqali tushuntirish ularga rioya qilgan holda o`z huquqlarini himoya qila olish huquqiy madaniyatdan darak beradi. Shu o`rinda bir jumla ``Siz ahmoq odam emassiz``degan jumlada bitta vergulni o`z o`rnida ishlatilishi manosiga katta t`sir ko`rsatib ma`nosi

butunlay aksincha bo`lishi juda muhim bo`lgani kabi hiquqiy qarorlar chiqarishda ularni,huquqlarimiz, qonunlarimizni o`rganishimizda mohiyatini anglashimizda tilning muhimligini ko`rishimiz mumkin Nutq aniq, Til - bu aloqa vositasi, nutq esa jarayondir. Til - bu mavjudlik shakli va namoyon bo'lishi nutqning mavjudligi. Til mavjudot sifatida nutqda o'z ifodasini topadi. Til tahlil, nutq idrok va tushunish tushuntira olish orqali o'rganiladi dunyoqarashi yahshi keng teran fikrlaydigan insonlar tafakkur idrok qiladiladilar idrokli insondan esa hech qachon yomon hulq yomon nutq talqini chiqmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni

2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

3. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018yil 15 - avgust,http://www.president.uz/uz/lists/view/

4. Davlat va huquq nazariyasi. O.Qoriyev 2028 yil

5. Nikolaev, V.V. Til va nutq estetikasi / V.V. Nikolaev- L.: Nauka, 1979 y.

6. Rus tili va nutq madaniyati: darslik / Ed. V.I. Maksimova. -M.: Gardariki, 2003 y.

7. Formanovskaya, N.I. Nutq odob va aloqa madaniyati / N.I. Formanovskaya. -M.: Oliy maktab, 1989 y.

O‘SMIRLARDA GEDONISTIK MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaniyazova Sabohat Urinbayevna
Ma’mun universiteti magistranti

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab va psixologik o‘zgarishlarga boy bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda qadriyatlar tizimi, hayotiy maqsadlar, xulq-atvor motivlari, ehtiyojlar va yo‘nalganlik shakllanadi. Shu jarayonda gedonistik tendensiyalar — ya’ni tezkor zavq olishga intilish, yoqimli tajribalarni maksimalizatsiya qilish, noqulaylikdan qochishga yo‘naltirilgan xulq-atvor alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv, raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning psixologik ehtiyojlarini o‘zgartirib, zavq, ko‘ngilxushlik, tezkor rag‘bat olish kabi motivlarni kuchaytirmoqda. O‘smirlarda gedonizmni o‘rganish, ularning qadriyatlar iyerarxiyasidagi siljishlarni aniqlash, shaxsiy farovonlikka bo‘lgan munosabatini tushuntirishga imkon beradi.

Shu o‘rinda, o‘smirlik davriga oid psixologik xususiyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu davr inson ontogenezining 10-11 dan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga olib, hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan aqliy, jismoniy va siyosiy jihatdan bir

muncha ustunlikka egadir [1]. O‘smirlik davrida shaxs hayotdan zavq olishni, atrof muhitga his-tuyg‘ularini kuchliroq ifodalashni istaydi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, shaxsda yangi sezgilar, hislar intensiv rivojlanadi. Ular o‘zi haqidagi fikrlarga ko‘proq qiziqib, o‘zini tushunish, rivojlantirish hamda tarbiyalashga harakat qiladilar. Shu boisdan aynan ushbu davrda gedonistik motivatsiya namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir.

Gedonizm (yunoncha “hedone”-“zavq”,”lazzat”) qadimgi yunon falsafasida shakllanib , bu atamaning eng mashhur tarafdorlari Kiren maktabi vakillari Aristip va uning izdoshlari bo‘lgan. Ularning fikricha, inson hayotining eng oliy maqsadi hayotdan zavq olish va o‘g‘riqdan qochishdir. Ular inson hozirgi lahzani qadrlashini va mavjud quvonchni kechiktirmaslikni targ‘ib qilganlar.

Qadimgi yunon faylasufi Epikurning axloqiy ta’limoti o‘z zamonasiga nisbatan progressiv ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning fikricha, hayotning maqsadi rohat-farog‘at, xursandchilikdan iborat bo‘lgan. Roxat va farog‘at, xursandchilik inson baxtining avvali va oxiridir [2]. Epikur Kiren maktabi namoyondalari kabi rohatni hissiy lazzatda emas, balki azoblardan qutulishda deb biladi. Inson rohat-farog‘atga erishishi bilan baxtli hayot kechiradi va qachonki hayotning ikir-chikirlariga befarq bo‘lsagina hayotdan lazzatlanib yashaydi. Buning uchun albatta inson ruhan va jismonan sog‘lom bolishi lozim.

Epikur fikricha, azob-uqubatdan qutilgan va rohatga erishgan kishi o‘limdan qo‘rqmaydi. Inson xuzur-halovati, lazzati deganda mayl, istak, ayshu-ishrat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilmaslik, ruhiy tashvishdan halos bo‘lish, ozodlikni tushunish lozim [5].

Mazkur ta’limotga ko‘ra inson hayotdan rohat-farog‘at olishga intilishi kerak, uning izidan dard-alam, yomonlik kelmasligi kerak. Ammo hozirda ayrim deversion kuchlar, yoshlar ongi va qalbi uchun ketayotgan kurash jarayonida gedonizm mazmunidagi “huzur-halovat”, “lazzat” ma’nolarini o‘z ma’nfaatlari yo‘lida niqob sifatida foydalanmoqdalar. Tabiiyki inson hayotini mazmundorligiga gedonistik qarash salbiy ta’sir ko‘rsatib, ma’naviy-axloqiy muhitga putur yetkazadi. Hayotning mazmunini lazzatlanish bilan cheklash natijasida axloqiy qadriyatlar susayib, insoniylikka zarar yetadi.

O‘smirlik davrida shaxs hayotdan zavqlanib yashashni, tevarak atrofidagi kishilarga his-tuyg‘ularini kuchliroq ifodalashni, hissiy zavq va ijobiy emotsiyalarni izlashni istaydi. Masalan, raqsga tushish, turli tadbirlarda faol qatnashish, musiqa kuylash, o‘zini erkin tutish kabilar va bularning barchasi o‘smirni hissiy zavq olishga bo‘lgan ehtiyojidir.

O‘smirlar asosan do‘stlari davrasida o‘zini erkin his qiladilar va “men” ligini ifodalashga harakat qilib, bu orqali ular hissiy ehtiyojlarini qondiradilar. Shu tariqa gedonistik motivatsiya ularning ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi [4]

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘smirlik davri-shaxs rivojlanishidagi eng muhim va murakkab bosqich hisoblanadi. Bu davrda shaxsda psixologik va jismoniy o‘zgarishlar katta rol o‘ynaydi. O‘smirning ruhiy hayotida asosan gedonistik motivatsiya markaziy o‘rin egallaydi. O‘smirlarda gedonistik motivatsiya asosan do‘stlar bilan muloqotdan zavq olish, ijtimoiy tan olinish, shaxsiy qiziqishlarni qondirish orqali namoyon bo‘ladi. Biroq gedonistik motivatsiya nazoratsiz namoyon bo‘lishi oqibatida, mas’ulyatsizlik va haddan

tashqari erkinlikka intilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkun. Shuning uchun ota-onalar, pedagoglar va psixologlar muvozanatli gedonizmni shakllantirishga e’tibor qaratishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishanova Z.T., Abdullayeva D., Baykunusova G. “O‘smirlik davri psixadiagnostikasi va psixokorrektsiyasi” Toshkent-2015

2. “G‘arb falsafasi”, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, “Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati”. Toshkent, 2004

3. Haydarov O., Ostonov J., Sultonova O. Falsafa. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamVMI. 2022. 250 bet.

4. G‘oziyev E. “Ontogenez psixologiyasi “Toshkent “NIF MSH”

5. Hedonic and eudaimonic motives to pursue well- being in three samples of youth — Gentzler, A. L., DeLong, K. L., Palmer, C. A., Huta, V. (2021).

INSON KAPITALINING MAZMUNI VA HUQUQIY ASOSLARI BO‘YICHA MILLIY HAMDA XALQARO QARASHLAR

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich
“SANJARBEK MATRASULOVICH” advokatlik byurosi rahbari

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, davlat boshqaruvining samarali faoliyati hamda iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili – bu, eng avvalo, inson kapitali bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi zamon ilmiy qarashlariga ko‘ra, inson kapitali faqat mehnat resursi sifatida emas, balki shaxsning bilim saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, intellektual salohiyati, innovatsion tafakkuri hamda axloqiy va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida izohlanadi. Shu boisdan ham inson kapitali jamiyat faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va uning roli tobora ortib bormoqda. Inson kapitali tushunchasi zamonaviy ijtimoiy fanlar, jumladan, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi hamda huquq nazariyalarining asosiy tushunchalaridan biriga aylangan. Uning nazariy asoslarini anglab yetish faqat ijtimoiy yoki ma’naviy jarayonlargina emas, balki insonning ishlab chiqarishdagi, mehnat sohasidagi va umumiy taraqqiyotdagi o‘rnini qayta baholash imkonini beradi. Inson kapitali degani — bu insonga investitsiya sifatida qarash, uning bilim va ko‘nikmalari, salohiyati va sog‘ligini iqtisodiy hamda ijtimoiy yuksalishning negizi deb bilishdir. Inson kapitali kontseptsiyasi birinchi bo‘lib Geri Bekker, Teodor Shults va Jeykob Mintser tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Ular ta’lim, salomatlik va malakani rivojlantirishga yo‘naltirilgan sarmoyalar insonning mehnat bozoridagi natijadorligini oshiradi, degan nazariy fikrni ilgari surganlar. Masalan, T. Shults: “Inson kapitali – bu mehnat unumdorligini orttiruvchi bilim va ko‘nikmalar majmuasidir, u ishlab chiqarishda moddiy mulk sifatida emas, balki shaxsning imkoniyati tarzida qatnashadi”, – deya ta’kidlagan. Jeykob Mintser esa individual darajadagi bilim va amaliy tajribaning mehnat bozorida qanday moliyaviy baholanishini tahlil qilgan. U inson kapitali nazariyasini amaliy dalillar orqali boyitib,

“ta’lim daromad oshishiga olib keladi” degan g‘oyani ilgari surgan. Inson kapitali tushunchasi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlashda shaxsiy taraqqiyot va uning iqtisodiy faoliyatdagi samaradorligini baholashda markaziy tushunchaga aylangan. Ushbu nazariyaning asoslari ta’lim, sog‘liqni saqlash va malakaga qaratilgan investitsiyalarning dolzarbligini ochib beradi va insonni nafaqat ijtimoiy subyekt, balki taraqqiyotning faol harakatlantiruvchisi sifatida talqin qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Geri Bekker, Teodor Shults va Jeykob Mintser kabi olimlarning tadqiqotlari inson kapitali tushunchasining ilmiy asoslarini mustahkamlab, inson resurslariga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sish hamda mehnat bozoridagi raqobatdoshlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan. Shu sababli, inson kapitali nafaqat iqtisodiyot va boshqaruv tizimi, balki huquqiy normalarda ham o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan strategik ahamiyatga ega tushuncha hisoblanadi. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida davlatning huquqiy-me’yoriy siyosati alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar inson kapitalining asosiy komponentlari – ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat qilish imkoniyati, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy himoya tizimlarini tartibga soluvchi asosiy manbalar sanaladi. Asosiy Qonunda har bir fuqaroning sifatli ta’lim olish, sog‘ligini asrash, erkin mehnat qilish va ijtimoiy himoyaga ega bo‘lish huquqlari kafolatlangan. Mazkur huquqlarning qonuniy asosda mustahkamlanishi jamiyatda inson kapitalini shakllantirish uchun izchil va barqaror yo‘nalishni belgilab beradi. Amalda mavjud qonunchilik, davlat qarorlari va strategik dasturlar tahlili O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, ta’lim sifatini oshirishga oid islohotlar, sog‘liqni saqlash sohasidagi moliyaviy va institutsional yangilanishlar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar inson salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekiston–2030” strategik dasturida inson kapitali ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, unda aholining salohiyatini kuchaytirish, zamonaviy kasblarni o‘zlashtirishga yordam berish, ilg‘or texnologiyalar asosidagi innovatsion muhitni shakllantirish kabi maqsadlar ilgari surilgan. Huquqiy asoslarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud qonunchilik faqat inson kapitali elementlarini rivojlantirishni emas, balki ularni o‘zaro bog‘liq va uyg‘un tizim sifatida takomillashtirishni ham ko‘zda tutadi. Bunda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat yo‘nalishlarining bir-biri bilan integratsiyasi orqali aholining bilim darajasi, sog‘lig‘i va iqtisodiy faolligi oshirilishi nazarda tutilgan. Jumladan, ta’limdagi uzluksizlik va sifat mezonlari, sog‘liqni saqlash xizmatlarining qulayligi va moliyaviy imkoniyatlar, zamonaviy kasblarni o‘zlashtirish bo‘yicha yondashuvlar orqali inson kapitalining innovatsion kuchini oshirish mumkinligi aniqlanmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning milliy qonunchiligi xalqaro standartlarga tobora yaqinlashmoqda. Xalqaro tajribadagi huquqiy mexanizmlarning moslashtirilishi esa milliy sharoitda ijobiy samara berayotganini ko‘rsatmoqda. Yakuniy jihatdan olib qaralganda, inson kapitaliga oid huquqiy-me’yoriy yondashuvlar mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish hamda aholining yashash darajasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish borasida mustahkam huquqiy-me’yoriy poydevor

yaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyada belgilangan huquqlar – ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy himoya sohalariga oid qonuniy kafolatlar inson kapitalini mustahkamlashda asosiy tayanch hisoblanadi. Shuningdek, milliy qonunchilik xalqaro huquqiy tajribalar bilan uyg‘unlashib, aholining salohiyatini amalga oshirish uchun yuridik asoslarni kengaytirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitali faqat ta’lim yoki sog‘liqni saqlash bilan cheklanmaydi, balki u jamiyatdagi huquqiy ong, iqtisodiy ishtirok va ijtimoiy adolat tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli bu sohada tizimli va keng qamrovli yondashuv zarur bo‘lib, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda ayrim tizimlarning o‘zaro uyg‘unligi va amaliy natijadorligi yanada oshirilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish borasida salmoqli huquqiy-me’yoriy baza yaratilgan bo‘lib, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaviy huquqlar, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy himoya sohalaridagi qonuniy kafolatlar, inson kapitalini mustahkamlashda tayanch vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, milliy qonunchilik xalqaro huquqiy tajriba bilan uyg‘unlashib, aholining salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yuridik asoslarni kengaytirib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitali faqatgina ta’lim yoki sog‘liqni saqlash bilan cheklanmaydi, balki u jamiyatdagi huquqiy madaniyat, iqtisodiy ishtirok va ijtimoiy adolat tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, bu borada kompleks yondashuv muhim bo‘lib, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda ayrim tizimlarning o‘zaro muvofiqligi va amaliy samaradorligi yanada kuchaytirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Becker, G.S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago: University of Chicago Press// https://www.nber.org/books-and-chapters/human-capital-theoretical-and-empirical-analysis-special-reference-education-first-edition.

2. Schultz, T. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17// https://la.utexas.edu/users/hcleaver/330T/350kPEESchultzInvestmentHumanCapital.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) // O‘RQ, 2023 yil, 30 aprel.

4. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. https://lex.uz/docs/-6600413

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘RQ–637, 2020 yil 23 sentyabr. https://lex.uz/docs/-5013007

6. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘RQ–408, 2016 yil 14 sentyabr. https://lex.uz/docs/-3026246

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI

Jumanova Zuxra Xolbayevna
“Cyber university” davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Baxodirov Bexruzbek Bexzod o‘g‘li
“Cyber university” davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot oqimlari shiddat bilan kechayotgan davrda inson omili, uning ma’naviy barkamolligi va intellektual salohiyati har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida raqobat asosan tabiiy resurslar yoki texnik imkoniyatlar emas, balki inson kapitali – ya’ni bilimli, tarbiyali va ma’naviy yetuk avlod orqali belgilanmoqda. Shu boisdan, jamiyat taraqqiyoti, millatning kelajagi, davlat barqarorligi, eng avvalo, oilada shakllanadigan tarbiya tizimiga, ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabati va e’tiboriga bevosita bog‘liqdir. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu soha mamlakatimizning barqaror rivoji, ijtimoiy adolat va iqtisodiy yuksalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Davlat siyosatida yoshlar strategik resurs, milliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘riladi. Ushbu masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida bir necha bor ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz”. Ushbu so‘zlar yoshlar masalasi davlat uchun qanday muhimligini va bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning chuqur mazmunini ochib beradi.

Shuningdek, Prezidentning ta’kidlashicha, yoshlar siyosatining samarali amalga oshirilishi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy salohiyatini oshirishga, balki mamlakatning ilmiy-texnologik rivoji, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois oila, ta’lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va davlat idoralari o‘z faoliyatlarini birlashtirgan holda yoshlarning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga, ularni global axborot maydonida yuzaga keladigan turli salbiy oqimlardan himoya qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqdalar.

Mamlakatimizda yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar keng qamrovli bo‘lib, ularga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berish, milliy qadriyatlarni singdirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan. Shu tariqa, yoshlar nafaqat bugungi kunning faol ishtirokchilari, balki Yangi O‘zbekistonni barpo etishda va Uchinchi Renessansni yaratishda asosiy kuchga aylanishi nazarda tutiladi. Prezidentning ushbu so‘zlari

mamlakatimiz yoshlariga bo‘lgan e’tibor va ishonchni ifodalab, davlat siyosatining barcha jabhalarida yoshlar manfaatini ta’minlash ustuvorligini ochiq ko‘rsatadi.

Natijada, O‘zbekiston yoshlarni nafaqat bilimli va salohiyatli, balki ma’naviy barkamol, jamiyat hayotida faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashni o‘zining strategik vazifalaridan biri sifatida belgilab, bu yo‘nalishda tizimli va kompleks ishlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati yoshlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishga jalb qilish hamda ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan [2].

Mamlakatimizda yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va uning bardavomligini ta’minlashda faol ishtirok etadigan avlodni voyaga yetkazishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratildi va vazifalar amalga oshirilmoqda. Uning maqsadi yurтimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning, ijtimoiy sohani rivojlantirishning har tomonlama va jadal taraqqiyotini ta’minlash uchun shartsharoitlar yaratilayotganligidan, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdir. Shu boisdan ham yoshlar tafakkuri sofligini saqlash, ularning kayfiyatlari, orzuumidlari, intilishlarining mazmun-mohiyatini o‘rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish o‘ta dolzarb vazifadir.

Asosiy qism. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirilib bormoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarra oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Har yili Yangi O‘zbekiston yoshlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash hamda ularga zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar va dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat yoshlarning ta’lim va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, balki ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijodiy va yetuk shaxs sifatida tarbiyalanishlariga xizmat qiladi. Shu maqsadda yurtdoshlarimiz orasida yoshlarni birlashtirish, ularning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va jamiyat hayotiga faol ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda.

Xususan, 2024 yil 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston yoshlar va talabalar forumi o‘tkazildi. Tadbirga 6 millionga yaqin g‘ayrati baland, intiluvchan o‘g‘il-qizlarimiz faol ishtirok etdi. “Yangi O‘zbekiston yoshlar, birlashaylik!” shiori ostida tashkil etilgan ushbu forum va unga biriktirilgan festivallar yoshlar uchun haqiqiy yetuklik va vatanparvarlik ko‘rigiga aylandi. Tadbir davomida ishtirokchilar o‘zlarining ijtimoiy faolligi, ijodiy salohiyati va jamiyatga xizmat qilish istaklarini namoyish etdilar, bu esa ularning shaxsiy va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, forum yoshlarning kelajakdagi yetuk fuqarolar sifatida shakllanishida, ularni milliy qadriyatlar, halollik, mas’uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada, har yili tashkil etiladigan shunday tadbirlar

yoshlarning jamiyatga integratsiyasi, o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi va Yangi O‘zbekistonni barpo etishda faol ishtirok etishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu tariqa, davlat siyosati va jamiyatning sa’y-harakatlari birlashgan holda yoshlarni nafaqat qo‘llab-quvvatlash, balki ularni yetuk, mas’uliyatli va ma’naviy barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan umumxalq harakati saflarida yoshlarimizning qudratli to‘lqin bo‘lib maydonga chiqqanligi yuksak tahsinga sazovordir. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko‘ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy ma’rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o‘lmas badiiy asarlarini aynan ana shu yoshlik onlarida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. “Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir”, degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Yoshlar kuniga bag‘ishlangan ma’ruzasida.

Haqiqatan ham biz davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan holda, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida katta qadamlar qo‘ymoqdamiz. Shu bilan birga, Prezidentimiz o‘zining har bir nutqida yoshlarning tarbiyasi, odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq masala doimo uni o‘ylantirib kelayotganligini alohida ta’kidlab, shunday degan edi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz.” [3]

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, bu faoliyatda sansolarlik, o‘zboshimchalik va ayniqsa loqaydlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki har qanday davlatning istiqboli shu mamlakatda voyaga yetayotgan yoshlarning ta’limi, tarbiyasi va intellektual salohiyatiga bog‘liqdir.

Natijalar. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya jarayonini yuksaltirish masalalari insoniyat tarixida doimo markaziy o‘rin tutgan. Ularning ahamiyati nafaqat shaxsning intellektual rivojlanishi, balki uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy barkamolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Vatanimiz tarixi va madaniy merosining eng qadimiy manbalaridan biri bo‘lgan “Avesto”da ham bolaning tarbiyasi haqida ko‘plab qimmatli tavsiyalar berilgan. Masalan, matnda ta’kidlanishicha: *“Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o‘qishni va so‘ngra esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”.* Ushbu qadimiy tavsiyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda, ularni bilimli, mas’uliyatli va jamiyat hayotida faol fuqarolar sifatida tarbiyalashda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarbiya jarayonining tizimli va maqsadli tashkil etilishi yoshlarning nafaqat akademik salohiyatini, balki ularning axloqiy qadriyatlarini, vatanparvarlik ruhini va shaxsiy

intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oila, maktab va oliy ta’lim muassasalari tarbiyani uyg‘unlashtirib olib borish orqali yoshlarni jamiyat hayotida yetuk va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Natijada, tarixiy tajribalar va zamonaviy pedagogik tadqiqotlar birgalikda shuni ko‘rsatadiki, tarbiya - shaxsning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishidagi asosiy poydevor bo‘lib, yoshlarning jamiyatga to‘liq integratsiyasi va mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, bundan 30 asr muqaddam aytilgan bu jumlalar bugungi kunimiz uchun ham g‘oyat ahamiyatli. Inson o‘z hayot yo‘lida tarbiya deb ataluvchi kitobning har bir sahifasini qunt bilan o‘qib, o‘rganmas ekan, har yangi sahifaning ochilishi unga ko‘plab qiyinchiliklar tug‘diraveradi. Buyuk yunon faylasufi Aristotel shunday ta’kidlagan edi: “Ota-ona bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, uni odobli, axloqli qilib tarbiyalab voyaga yetkazganliklari uchungina olqishga sazovor bo‘ladilar.”

Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda ham eng ko‘p ishlatilgan so‘z “ilm” so‘zidir. Payg‘ambarimiz hadislarida “Mingta oddiy omi odamdan bitta ilmli kishi foydalidir”, degan ekan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytadilar: “Alloh ilmni bandalarning qalbidan sug‘urib olishlik bilan olib qo‘ymaydi. Lekin olimlarni (vafot ettirish) bilan olib qo‘yadi. Shunda birorta ham olim qolmagach, insonlar ilmsiz (odam)larni o‘zlariga peshvo qilib oladilar. Ular insonlarga ilmlari bo‘lmagan holda fatvo beradilar. Natijada o‘zlari ham adashadi, o‘zgalarni ham adashtiradi.” [6] Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir” [7;11], deb to‘g‘ri gapni aytgan edi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Muhokama va takliflar. Yoshlar har qanday jamiyatning asosiy tayanch va ishonch kuchi hisoblanadi. Ularning ma’naviy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib voyaga yetishi mamlakatning kelajagi va millatning istiqbolini belgilab beradi. Shu sababli, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning tarbiyasi, dunyoqarashi va ma’naviy dunyosini mustahkamlash bo‘yicha bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, oilada farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish muhimdir. Bola shaxs sifatida shakllanishining dastlabki bosqichini aynan oila tashkil qiladi. Ota-onaning o‘zaro hurmati, mehr-muhabbati va farzand bilan muloqoti uning keyingi hayotidagi ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini belgilashda bevosita rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida yoshlarning nafaqat bilim, balki ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ham e’tibor qaratish lozim. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy tajribasi asosida tarbiya berish yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, san’at, ixtirochilik va innovatsion faoliyatga jalb etish zarur. Bu nafaqat ularning salbiy illatlardan yiroqlashishiga, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga ham yordam beradi.

To‘rtinchidan, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zarur. Bu borada oila, maktab, jamoatchilik tashkilotlari va mahalla tizimi o‘zaro uyg‘unlikda ishlashi muhimdir.

Beshinchidan, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni milliy va jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qishga rag‘batlantirish kerak. Kitob - inson tafakkurining kaliti va ma’naviyatning asosiy mezonidir.

Oltinchidan, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytirish zarur. Shu yo‘l bilan yoshlar nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol, jamiyat hayotida faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi.

Xulosa. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati va tarbiyasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonini yuksaltirish, yoshlarning intellektual, ma’naviy va jismoniy salohiyatini rivojlantirish insoniyat tarixida doimo markaziy o‘rin tutgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati keng ko‘lamli islohotlar va dasturlar orqali amalga oshirilmoqda, ularning huquq va manfaatlari himoya qilinadi, ijtimoiy, ma’naviy va intellektual rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning tarbiyasi birinchi navbatda oilada boshlanadi; ota-onaning mehr-muhabbati, hurmati va farzand bilan muloqoti uning keyingi hayotidagi ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini belgilaydi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, san’at, ixtirochilik va innovatsion faoliyatga jalb qilish, shuningdek kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish ularning salbiy illatlardan yiroqlashishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siriga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi uyg‘unlik va tizimli tarbiya jarayonlari yoshlarning ma’naviy barkamolligi, jamiyat hayotida faol ishtiroki va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida yetuk fuqarolar sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu tariqa, yoshlar nafaqat zamon talablariga javob beradigan bilimli shaxslar, balki milliy qadriyatlarni chuqur anglaydigan, vatanparvar va mas’uliyatli fuqarolar bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. “Taraqqiyot strategiyasi” markazining rasmiy sayti. 24 Iyul 2019.

2. O‘zbekiston milliy axborot agentligining rasmiy sayti. 30.06.2021.

3. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi, mualliflar jamoasi “O‘qituvchi” 1995.

4. Aliyev, B. (2023). Ta’lim islohotlarining ma’naviyatdagi o‘rni. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(9).

5. Mirziyoev Sh. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish mavzusidagi videoselektor. 2021-yil 19-yanvar.

STRESSLI VAZIYATGA TUSHGAN XOTIN-QIZLARGA IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISHNING ASOSIY JIHATLARI

Jurayeva Halima Alisher qizi
O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish kafedrasi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘rolova Sevinch Normurod qizi
O‘zMU talabasi

Hozirgi davrda mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash va ularga yetarlicha to‘g‘ri tushuncha berish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, oilaviy nizolar, zo‘ravonlik holatlari va ijtimoiy tengsizlik ayollarning stressli vaziyatlarga tushishiga olib kelmoqda. Bunday holatlarda ijtimoiy ish tizimi orqali ko‘rsatiladigan yordam ayollarning ruhiy barqarorligi va jamiyatga moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Stressli vaziyatga tushgan xotin-qizlar va ularning ijtimoiy muammolarini tahlil qiladigan bo‘lsak, stressli vaziyatga tushgan xotin-qizlar jamiyatning eng himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar erkaklarga nisbatan ruhiy tushkunlik va stress holatlariga ko‘proq duch keladi [1].

Yana shuni qo‘shimcha qilishimiz mumkinki bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga ayollarning bo‘lar bo‘lmas mativatsion gaplari yoki turli yolg‘on sovg‘alarni sahifasiga joylashi natijasida ham ayollarda o‘zini kamsitilgan holda ko‘rish va o‘zini faqat oila, ish uchun kerak ekanday xis qilishi orqali ham stress holatiga tushayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga ijtimoiy rollarning ko‘pligi, tashqi yoki ichki muhitning yaxshi emasligi iqtisodiy ijtimoiy va ruhiy qaramlikka sabab bo‘lmoqda.Bu juda achinarli holatdir. Ijtimoiy ish amaliyotida stressli vaziyatga tushgan ayollar bilan ishlash individual yondashuvni talab etadi. Chunki har bir ayolning muammosi uning oilaviy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitiga bog‘liq holda shakllanadi. Bunday holatda ayollarga bir nechta yo‘nalishlarda yordam berishimiz zarur. Masalan psixologik yordam. Ijtimoiy ish faoliyatida psixologik yordam stressli vaziyatga tushgan ayollarning ruhiy holatini barqarorlashtirishga qaratilgan muhim vosita hisoblanadi. Psixologik maslahatlar orqali ayollarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi tiklanadi va muammolarni hal etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Huquqiy yordam O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, ayollarga huquqiy yordam ko‘rsatish davlat tomonidan kafolatlanadi. Ijtimoiy xodimlar ayollarga huquqlarini tushuntirish va zarur hollarda tegishli organlarga yo‘naltirish vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash**.** Ushbu yordamning bu turi ayollarning mustaqil hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy nafaqalar, bandlikka ko‘maklashish va kasbga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalashda davlat organlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarning ham roli muhimdir. Ushbu

institutlar o‘rtasidagi hamkorlik ijtimoiy yordamning manzilliligini oshiradi va stressli vaziyatga tushgan ayollar bilan ishlash samaradorligini ta’minlaydi [1].

Asosan xotin-qizlarda stressing kelib chiqish sabablarini o‘rgansak: oilaviy zo‘ravonlik natijasida. Ayollar va qizlar, oiladagi zo‘ravonlik yoki tazyiq tufayli stressga tushib qolishlari mumkin. Bunda turmush o‘rtog‘i yoki oila a’zolari tomonidan qilingan jismoniy zo‘ravonlik - kaltaklash, tanaga og‘riq yetkazish, majburan qamab qo‘yish., ruhiy yoki jinsiy tazyiqlar haqoratlash, qo‘rqitish, doimiy bosim o‘tkazish natijasida kelib chiqishi mumkin. Iqtisodiy qaram ayollar, moliyaviy mustaqilligi yetarli bo‘lmagan, ish bilan ta’minlanmagan yoki bandlik bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashga muhtoj ayollar. Yetarlicha iqtisodiy tomondan ta’minlanmaslik ham ayollarda o‘ziga past baho berishi va stressga tushib qolishiga olib keladi. Ajrashgan yoki yolg‘iz onalar, bolalari bilan yolg‘iz qolgan ayollarda ham ko‘pincha doimiy stress kuzatiladi. Ayol doim parishon bo‘lishi, bu xolatga tushishida o‘zini yoki farzandlarini ayblab stressga tushib bu holatida turli ko‘ngilsiz holatlarni sodir qilishi mumkin. Psixologik stress holatidagi ayollar ruhiy tushkunlik, xavotir, depressiyaga uchragan ayollardir. Oilada, ishda, do‘stlari o‘rtasida kamsitilishlar natijasida ham psixologik stress kelip chiqishi ham mumkin. Ijtimoiy integratsiyaga muhtoj ayollar Jamiyatdagi faol roldan uzoqlashgan, ijtimoiy aloqalarni tiklash va mustaqil hayotga qaytish zarur bo‘lgan ayollardir. Maishiy zo‘ravonlik turi ham mavjud. Bunda ayollar oilada kuzatilishi mumkin bo‘lgan holatlarda kir moshina yoki chang yutgish mobil telifonlardan mahrum etilishini tushinishimiz mumkin. Bu holatda ham ayollar stress holatiga tushishi mumkin.

Ijtimoiy ish sohasidagi berilayotgan yordamlarni mavzuimiz doirasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak: bilamizki ijtimoiy ish sohasida stressli vaziyatga tushgan xotin-qizlar bilan ishlash bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga olishi profilaktik (oldini olish), ayollardagi stressli muammoni vaqtida aniqlagan paytidayoq u bilan ishlash, ayolda kechayotgan stressni oldini olishdan iborat. Reabilitatsion (tiklash), bunda ayolni to‘laqonli jamiyatga qaytarish ruhiy holatini yaxshilash va stressni to‘laqonli bartaraf etish bosqichi hisoblanadi. Integratsion (jamiyatga qayta moslashtirish), integratsion moslashuv – bu ijtimoiy ish jarayonida ayolning stressli vaziyatdan chiqib, o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilishi va o‘z hayotini mustaqil tarzda qurish qobiliyatini tiklashdir. Bu bosqich individual va jamiyat resurslarini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichda ayolning o‘zini qadrlashini tiklash – stress va ruhiy tushkunlikdan so‘ng o‘z qadrini anglash. Ayolni oilaviy va ijtimoiy muhitga qaytarish – jamiyat, oila va ish muhitiga moslashuvni ta’minlash. Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish – muammolarni hal etishda faollik va javobgarlikni oshirishdir. Ko‘p hollarda stressdan keyin ayollar qaror qabul qilishga qo‘rqadilar, negaki noto‘g‘ri qaror natijasida oldinggi holatiga qaytishi va kuchsiz, zaif bo‘lib qolishdan qo‘rqishadi. Resurslardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish ya’ni moliyaviy, huquqiy, psixologik yordamlarni samarali qo‘llashni yo‘lga qo‘yish. Vaqtida bu ma’lumotlar bilan tanishtirb ayollarga tushunchalar berib borish zarur.

Ijtimoiy xodimning vazifasi faqat yordam ko‘rsatish emas, balki ayolning: mustaqil qaror qabul qilishini kutish. Bunda stressli vaziyatga tushgan ayolga ijtimoiy xodim kerakli tushunchalarni berishi lozim. Oxirgi qarorni doimo benifetsiarlarning o‘zlari

qabul qilishlari kerak. Ijtimoiy xodim faqatgina stressli vaziyatga tushgan ayolga yo‘nalish berishi mumkin. Uning nomidan qaror chiqarmaydi. Resurslardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish ham muhim rol o‘ynaydi. Ayol o‘zining huquqiy jihatdan psixologik va ijtimoiy jihatlardan foydalanish kerakligi, stressga tushish oxirgi chora emasligini bilishi zarur. Ijtimoiy ishda stressga tushgan xotin-qizlarning ichki resurslarini faollashtirish asosiy tamoyil hisoblanadi. stressga tushgan ayollarning ichki resurslarini faollashtirish asosiy tamoyil deganda, ayolni faqat yordamga muhtoj shaxs sifatida emas, balki o‘z muammolarini yengib o‘tishga qodir bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rish tushuniladi. Ichki resurslar deganda ayolning psixologik kuchi, irodasi, hayotiy tajribasi, bilim va ko‘nikmalari, moslashuvchanligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi tushuniladi. Ijtimoiy ish jarayonida mutaxassis ayolning mavjud imkoniyatlarini aniqlaydi va ularni faollashtirish orqali stressli holatdan chiqishiga yordam beradi. Bu tamoyil ayolda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch va mas’uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, uni doimiy tashqi yordamga bog‘lab qo‘ymaslikni ko‘zda tutadi. Natijada ayol jamiyatga qayta moslashadi, ijtimoiy faolligi oshadi va mustaqil hayot kechirishga tayyor bo‘ladi.

Biz buni faqatgina mamlakatimiz misolida emas chet el tajribalarida ham o‘rganishimiz mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarida stressga tushgan ayollar bilan ishlashda Crisis Intervention (Inqirozga aralashuv) keng qo‘llaniladi. Ushbu model ayol hayotida yuzaga kelgan keskin psixologik inqiroz holatlarini tezkor va qisqa muddatda barqarorlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Crisis Intervention Modelining asosiy maqsadi ayolni inqiroz holatidan chiqarish, uning emosional holatini me’yorga keltirish va ichki resurslarini faollashtirish orqali mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini tiklashdan iborat. Bu modelni bir qancha asosiy bosqichlarda o‘tkazishadi. Inqirozni baholash - bu bosqichda ijtimoiy ishchi ayolning stress darajasi, ruhiy holati, xavf omillari (o‘z joniga qasd qilish xavfi, zo‘ravonlik, kuchli qo‘rquv) va mavjud muammolarini aniqlaydilar [5]. Xavfsizlikni ta’minlash - ayolning hayoti va sog‘lig‘i xavf ostida bo‘lsa, birinchi navbatda uning jismoniy va ruhiy xavfsizligi ta’minlab beriladi. Zarur holatlarda ularga boshpanalar, tibbiy va huquqiy xizmatlarga yo‘naltiriladi. Emosional qo‘llab-quvvatlash - ijtimoiy ishchi stressga tushgan ayollarni tinglaydi, tushunadi va qo‘llab-quvvatlaydi. Bu bosqichda ayolning his-tuyg‘ulari inkor etilmaydi, balki tan olinadi, natijada ayol o‘zini yolg‘iz emasligini his qiladi. Ichki resurslarni faollashtirish - ayolning ilgari duch kelgan qiyinchiliklarni qanday yenggani, kuchli tomonlari va ijobiy tajribalari aniqlanadi. Bu orqali uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Amaliy reja tuzish bu - ayol bilan birgalikda qisqa muddatli, real va amalga oshiriladigan reja tuziladi. Bu reja stressni kamaytirish, xavfni bartaraf etish va keyingi qadamlarni belgilashga xizmat qiladi ekan. Resurslarga yo‘naltirish – Amerika Qo‘shma Shtatlarida ayollar psixologik maslahat, ijtimoiy xizmatlar, bandlik dasturlari, huquqiy yordam va sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltiriladi. Modelning ahamiyati Crisis Intervention modeli stressga tushgan ayollarga tezkor yordam ko‘rsatish, ularning ichki resurslarini faollashtirish va mustaqil hayotga qaytishini ta’minlashda samarali hisoblanadi. Ushbu model ayolni “jabrlanuvchi” sifatida emas, balki muammoni yenga oladigan faol subyekt sifatida ko‘rishga asoslanadi [4].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida va O‘zbekistonda stressga tushgan ayollar bilan ishlashda yondashuvlarni taqqoslab ko‘rsak: Amerika Qo‘shma Shtatlarida stressga tushgan ayollar bilan ishlashda Crisis Intervention modeli tezkor, tizimli va ayolning ichki resurslarini faollashtirishga yo‘naltirilgan model sifatida qo‘llaniladi. Ushbu modelning asosiy xususiyati — inqiroz holatiga zudlik bilan aralashish, ayolning xavfsizligini ta’minlash va qisqa muddat ichida ruhiy barqarorlikka erishishdir. Ayol muammoning faol ishtirokchisi sifatida qaraladi va u bilan birgalikda aniq harakatlar rejasi ishlab chiqiladi ekan. O‘zbekistonda esa stressga tushgan ayollar bilan ijtimoiy ish olib borishda yordam ko‘proq ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya yo‘nalishida tashkil etiladi. Biz buni asosan mahallada, xotin-qizlar bo‘limlari, ijtimoiy himoya markazlari orqali moddiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatiladi. Bu yondashuvda ayol ko‘pincha yordam oluvchi shaxs sifatida ko‘riladi va tashqi resurslarga tayangan holda muammolarni hal qilishga urg‘u beriladi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida amaliyotida ayolning ichki resurslari (iroda, moslashuvchanlik, hayotiy tajriba) asosiy tayanch sifatida qaralsa, O‘zbekistonda bu jihat hali yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq so‘nggi yillarda psixologik va ijtimoiy xizmatlar rivojlanib, ayollarning o‘z kuchiga ishonchini oshirishga qaratilgan yondashuvlar kengayib bormoqda. Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida Crisis Intervention odeli individual yondashuv asosida olib borilsa, O‘zbekistonda esa oila va jamiyat omili muhim o‘rin tutadi [3]. Ya’ni, ayolning muammosi ko‘pincha oila, qarindoshlar va mahalla bilan birgalikda hal etiladi. Taqqoslashimiz natijasida aytish mumkinki Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Crisis Intervention Modeli stressga tushgan ayollarning ichki resurslarini faollashtirishda yuqori samaradorlikka egaligini bilishimiz mumkin. O‘zbekistonda esa ijtimoiy ish amaliyotida tashqi yordam ustuvor bo‘lib, ushbu model elementlarini joriy etish ayollarning mustaqilligi va ijtimoiy moslashuvini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.O‘zbekistonda ayollar uchun “Ayollar daftari” tizimi joriy qilingani, reabilitatsiya va moslashuv markazlarining faoliyat olib borilayotganligi va mahalla institutining roli ham katta ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni bilsak bo‘ladiki, ijtimoiy ish tizimida xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan yordam turlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borilganda ijobiy natijalarga erishiladi. Ayniqsa, psixologik va huquqiy va ijtimoiy yordamning birgalikda tashkil etilishi ayollarning jamiyatga moslashuvini tezlashtiradi. Xulosa qilib aytsak, stressli vaziyatga tushgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash ijtimoiy ish tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba asosida ijtimoiy ish amaliyotini takomillashtirish ayollarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2019.

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Mental health of women and stress-related factors. — Geneva, 2021.

3. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Violence against women: prevalence and consequences. — Geneva, 2021.

4. UNICEF. Social protection and support for vulnerable women. — New York, 2020.

5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). — New York, 1979.

OILA VA TA’LIM MUASSASALARINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Jurayeva Halima Alisher qizi
O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish kafedrasi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Otoxonova Sojida Faxriddin qizi
O‘zMU magistranti

Yoshlar ma’naviyati jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy-axloqiy hayoti va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma’naviy jihatdan yetuk avlodning voyaga yetishi esa, avvalo, ikki muhim institut — oila va ta’lim muassasalari faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Mazkur institutlar yoshlarning dunyoqarashi, e’tiqodi, qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyati va milliy o‘zligini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois oila va ta’lim tizimi orqali ma’naviy tarbiyaning ilmiy asoslarini o‘rganish bugungi davrda dolzarb masalalardan biridir [1].

Oila jamiyatning eng qadimiy va eng asosiy tarbiya maskani bo‘lib, yosh shaxsning dastlabki ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalari ana shu muhitda shakllanadi.

Ota-ona farzandga halollik, mehnatsevarlik, hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi universal qadriyatlarni kundalik hayot jarayonida o‘rgatadi. Bu esa yoshning keyingi ma’naviy rivoji uchun mustahkam zamin yaratadi.

Sog‘lom oilaviy muhit yoshlarning ruhiy barqarorligi, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi; ziddiyatli oilalarda esa aksincha, ma’naviy inqiroz xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Oila yoshlarni muloqot madaniyati, mas’uliyat, ijtimoiy rol va vazifalarni bajarish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatadi, bu esa kelajakdagi ijtimoiy integratsiyaning asosi hisoblanadi.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino fikricha, bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlamoq lozim. Oiladagi muhit ota-ona o‘z mas’uliyatini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi [2]. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Farzand tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatli jarayon. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. “Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha ilm olish qobiliyatiga ega bo‘lsa da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta’sirliroq va juda muhimdir”, degan edi Abdurauf Fitrat [3]. Har bir ota-ona ana shu fikrni hamisha yodda tutmog‘i lozimdir. Oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. O‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari

ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Prezidentimiz tomonidan keyingi 2-3 yil ichida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning qay darajada dolzarbligiga, bu borada pedagog xodimlarini ijtimoiy himoyasi asosiy vazifalardan biri ekanligini doimiy ravishda o‘qtirib turganligi xam – asosiy e’tibor yoshlarning tarbiyasi, ularning bilim olishi, barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun qilinayotgan xarakatlarning zamirida nima yotganligini tushunib yetishimiz zarur [4]. Buning uchun biz ota-onalar, maxalla faollari, bilim yurt pedagoglari birgalikda farzandlarimizning yaxshi bilim olishi, ma’rifatli bo‘lishi, maьnaviy dunyosi keng bo‘lishi, xam ruxiy xam jismoniy sog‘lom inson bo‘lib yetishishi uchun bor kuchimizni ayamasligimiz, vatanimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizga xar tomonlama ko‘mak berishimiz lozim. Ta’lim tizimi yoshlarning bilimi, madaniy saviyasi va ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi yetakchi ijtimoiy institutdir [5]. Uning ta’siri bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimi ya’ni maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan ma’naviyat darslari, targ‘ibot ishlari, ijodiy uchrashuvlar yoshlar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi.

2. Intellektual salohiyatni rivojlantirish ya’ni keng fikrlash, mustaqil tahlil qilish, ilmiy qarashlarni shakllantirish orqali ta’lim muassasalari ma’naviy yetuklikka zamin yaratadi.

3. Ijtimoiy faollikka undash ya’ni to‘garaklar, ilm-fan klublari, sport va madaniy tadbirlar yoshlarning tashabbuskorligi, liderlik fazilatlari va ijodiy faolligini rivojlantiradi.

4. Raqamli va axborot madaniyatini shakllantirish ya’ni zamonaviy ta’lim texnologiyalari, media-savodxonlik darslari yoshlarni axborotni tahlil qilish, zararli kontentdan himoyalanish va ijtimoiy mas’uliyatli internetdan foydalanishga o‘rgatadi.

Oila va ta’lim tizimi hamkorligining ahamiyati shundan iboratki yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oila va ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritgandagina ijobiy natijaga erishiladi. Bunda:

-o‘quvchi haqida muntazam ma’lumot almashish;

-ota-onalar bilan pedagoglar uchrashuvlari;

-ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda hamkorlik;

-tarbiyaviy ishlarning yagona strategiyasini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon yoshlarning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma’naviyati — davlat va jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Oila dastlabki, ta’lim muassasalari esa tizimli ma’naviy tarbiya beruvchi asosiy institut sifatida bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Ularning uyg‘un hamkorligi natijasida yosh avlodda mustahkam dunyoqarash, yuksak axloq, milliy g‘urur va ijtimoiy mas’uliyat shakllanadi. Shu sababli oila va ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Ibn Sino. Risolalar to‘plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Fitrat A. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat.
4. Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim va tarbiya – eng katta ustuvor vazifamiz. Prezident nutqlari to‘plami. – Toshkent, 2022–2024-yillar.
5. Jo‘rayev R., G‘aybullayev R. Ma’naviyat asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

СОЦИАЛЬНЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КОМПОНЕНТ САМОРЕАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ У МОЛОДЕЖИ

Джураева Муножат Мухтаровна
Студентка Национального Университета Узбекистана

В последнее время молодежь испытывают давление с одной стороны завышенные требования от общества с другой социальная неопределенность. От молодых людей ожидается реализации потенциала в учебной и профессиональной деятельности, и так же на ряду с этим социальная активность, участие в общественных мероприятиях, служение на благо обществу. В контексте этого возникает вопрос, социальная активность - это индивидуальная потребность личности или же это успех, который требует от нас общество.

Мы бы хотели рассмотреть, что социальная активность - это не просто внешняя характеристика поведения, а важнейший компонент и механизм самореализации личности у молодежи, определяющий степень ее включенности в социальную жизнь, уровень субъективной зрелости и способность выстраивать жизненную стратегию.

Изучению социальной активности посвятили свои работы такие авторы как: Е.А. Ануфриева, Г.С. Арефьева и их последователи. Ануфриев рассматривает социальную активность как сознательное, инициативное и целенаправленное участие личности в реформировании социальной действительности, отмечая, что в ней реализуется «глубокая и полная самореализация личности»[2]. У Арефьевой социальная активность связывается с потребностью индивида участвовать в общественно значимых событиях и способностью выходить за пределы повседневной адаптации к среде[3].

Обобщая подходы, можно выделить основные признаки социальной активности:

-субъектность - личность выступает инициатором действий и изменений, а не только объектом воздействия среды;

-осознанность и ценностная обусловленность -действия основаны на разделяемых ценностях и целях;

-ориентация на социально значимые изменения - активность направлена не только на личную выгоду, но и на изменение во благо другим и обществу;

-интегративный характер -социальная активность включает мотивацию, установки, действия и их рефлексивную оценку.

Таким образом, социальная активность -это не просто факт участия в мероприятиях, а качество личности, выражающее ее позицию по отношению к обществу.

Исследователи (Н.В. Гончарова, Т.К. Мухина, Р.М. Шамионов и др.) выделяют в структуре социальной активности несколько взаимосвязанных компонентов:

-мотивационный: ценности, потребности, мотивы участия в социально значимой деятельности;

-когнитивный: знание социальной реальности, представление о возможностях влияния, понимание социальных ролей;

-поведенческий: конкретные формы участия - волонтерство, гражданские инициативы, участие в органах самоуправления, проектах;

-рефлексивный: осмысление собственного участия, оценка результатов, переживание смысла и личной значимости деятельности. Именно рефлексивный компонент связывает социальную активность с самореализацией: молодому человеку важно не только «делать что-то», но и понимать, зачем он это делает и что это меняет в нем самом[4].

В работах С.И. Кудинова самореализация трактуется как процесс раскрытия и воплощения личностного потенциала в значимых для личности и общества сферах жизни. Это не единичный порыв, а длительный, динамический процесс, включающий:

-оценка своих способностей, склонностей, ценностей;

-постановку целей и жизненных ориентиров;

-выбор форм деятельности и социальных ролей;

-оценку достигнутых результатов и изменение жизненной стратегии.

Хочется отметить, что самореализация понимается не только как внутреннее переживание (чувство удовлетворенности), но и как социальный процесс, протекающий в общественных институтах [5].

Если самореализация - это воплощение потенциала личности в деятельности, то социальная активность является одним из ключевых способов этого воплощения.

Молодежь- это тот слой социума, который в активном поиске себя, жизненных ориентиров, возможностей. Именно в этот период потребность в самореализации особенно высока, но при этом жизненные траектории ещё не стабильны, а социальные ресурсы и опыт ограничены. Поэтому социальная активность становится ключевым способом пробовать, ошибаться и искать свое место в обществе.

Условно можно выделить несколько основных направлений социальной активности молодежи:

1)Учебно-профессиональная активность;

-участие в научных сообществах, конференциях, проектах;

-профессиональные конкурсы.

В таком случае, самореализация проявляется через профессиональное становление и формирование идентичности специалиста.

2)Гражданская и общественно-политическая активность:

-участие в общественных организациях;

-инициативы по защите прав, улучшению городской среды.

В таких мероприятиях молодые люди реализуют себя как граждане, осваивая роль ответственного участника общественной жизни.

3)Волонтерская и благотворительная активность:

-помощь социально уязвимым группам;

-экологические акции, культурные и образовательные инициативы.

Это пространство для нравственной и духовной самореализации, формирования эмпатии и ценности другого человека.

Во всех этих формах социальная активность не только служит внешним показателем «занятости» молодежи, но и позволяет ей получать социальное признание и обратную связь, расширять круг социальных связей и ресурсов и пробовать различные роли и выбирать собственную жизненную траекторию.

Социальная активность молодежи - это не внешнее дополнение к самореализации, а ее ключевой компонент и механизм.

Через социальную активность молодые люди переходят от позиции объекта социальной регуляции к позиции субъекта, способного влиять на собственную жизнь и окружающую реальность. В активном участии в общественно значимой деятельности происходит раскрытие и проверка личностного потенциала: способностей, ценностей, жизненных установок.

Для поддержки социальной активности молодежи как механизма самореализации важно создавать условия, где участие опирается на личный смысл и добровольный выбор, а не на формальные требования. Эффективнее всего работают практики, которые дают молодым людям реальные роли и ответственность, сопровождаются наставничеством и доступом к ресурсам (информация, площадки, время). После каждого опыта участия необходима краткая рефлексия и обратная связь, чтобы фиксировать приобретенные навыки и личные изменения. Это позволяет снижать риск формального участия и выгорания и превращает социальную активность в устойчивую жизненную стратегию.

Список литературы:

1. Алексеева, А. Е., Московская, Н. Л. Социальная активность студента как основополагающий фактор его профессионального развития // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. – 2023. – № 1 (94).

2. Ануфриев, Е.А. Социальная активность личности. – М. : Знание, 1969. – 37 с.

3. Арефьева, Г.С. Социальная активность. – М. : Высшая школа, 1974. – 142 с.

4. Гончарова, Н. В., Поповкина, О. П. Социальная активность личности: теоретический аспект в научной литературе // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ). – 2019. – № 4 (61). – С. 17–19.

5. Кудинов, С.И. Системная модель самореализации личности // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. – 2014. – Т. 1, № 1. – С. 45–54.

MILLIY MAFKURA VA INTERNET-MADANIYATI

Kadirov Farxod Absattarovich,
Angren universiteti o‘qituvchisi

Globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ijtimoiy ong, madaniyat va mafkuraviy jarayonlarga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet bugungi kunda nafaqat axborot olish va uzatish vositasi, balki yangi g‘oyalar va qadriyatlarni shakllantiruvchi global maydonga aylanmoqda. Shu bilan birga, milliy mafkura o‘zining asosiy vazifasi sifatida milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, internet - madaniyat va milliy mafkura o‘rtasida ma’lum darajada ziddiyatlar yuzaga keltirishi tabiiydir.

Milliy mafkura – bu xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari, orzu-intilishlari va istiqbolga yo‘naltirilgan g‘oyalarining jamlanmasidir. U jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi kuch bo‘lib, milliy identitetni mustahkamlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkura “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” tamoyili asosida shakllanib, yoshlarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratildi [1, 45–52].

Internet-madaniyat – bu virtual kommunikatsiya, global tarmoqlar orqali shakllanadigan va tarqaladigan qadriyatlar, urf-odatlar va xulq-atvor me’yorlari majmuasidir. Uning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Globallik – milliy chegaralarni inkor etuvchi yagona axborot makoni;

Erkinlik – senzurasiz axborot almashinuvi;

An’anaviylikdan uzilish – yangi madaniy shakllarning tezkor paydo bo‘lishi;

Anonimlik – shaxsiy mas’uliyatning zaiflashuvi [2, 21–38].

Internet-madaniyati yoshlar ongiga tezkor ta’sir ko‘rsatishi, ularda g‘arbona hayot tarzi, individualizm va iste’molchilik qadriyatlarini shakllantirishi mumkin. Bu esa milliy mafkuraning asosiy maqsadlari bilan ma’lum darajada zid keladi. Milliy mafkura va internet-madaniyat o‘rtasida quyidagi ziddiyatlar kuzatiladi:

Qadriyatlar ziddiyati. Milliy mafkura tarixiy xotira, an’anaviy qadriyatlarni mustahkamlashga intilsa, internet-madaniyat ko‘proq yangi, tezkor va global qadriyatlarga asoslanadi.

Identitet muammosi. Internet-madaniyat yoshlarni koʻpincha milliy oʻzlikdan uzoqlashtirib, global “virtual identitet”ni shakllantiradi. Bu esa milliy oʻzlikni anglash jarayoniga xavf tugʻdirishi mumkin [3, 89–95].

Axloqiy me’yorlar toʻqnashuvi. Milliy mafkura axloqiy poklik, oilaparvarlik, mehnatsevarlikni targʻib etsa, internet-madaniyatda individualizm, hedonizm va iste’molchilik kuchayadi.

Axborot xavfsizligi muammosi. Internetdagi mafkuraviy diversiyalar, yolgʻon axborot va manipulyativ texnologiyalar milliy mafkuraga qarshi ishlatilishi mumkin.

Milliy mafkura va internet-madaniyat oʻrtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun quyidagi choralar zarur:

Internet orqali milliy qadriyatlar va tarixiy merosni targʻib qilish;

Milliy mafkuraning zamonaviy kommunikatsion shakllarini ishlab chiqish;

Yoshlarning media savodxonligini oshirish;

Virtual makonda milliy gʻoya va mafkurani innovatsion usullar bilan singdirish.

Milliy mafkura va internet - madaniyat oʻrtasidagi ziddiyatlar jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy masalalardan biridir. Ularni bartaraf etishda muhim vazifa – milliy qadriyatlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uygʻunlashtirish, yoshlarning ongida milliy mafkurani global axborot oqimiga mos holda shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 45–52.

2. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 21–38.

3. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: MIT Press, 1991. – P. 89–95.

4. Toʻxliyev B., Joʻrayev M., Abdurahmonov Q. Milliy mafkura asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015. – B. 112–125.

5. Nurmatov A. Globallashuv va mafkura. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012. – B. 64–70.

6. Castells M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – P. 135–142.

7. Xasanov S. Internet-madaniyat va uning yoshlar ongiga ta’siri. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 73–81.

TA’LIM BOSHQARUVIDA PSIXOLOGIK MUHITNI RIVOJLANTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR (UMUMIY OʻRTA TA’LIM MAKTABLARI MISOLIDA)

Kadirova Xumora

Tashkent international university of education magistranti

Ta’lim muassasalarida sogʻlom va ijodiy muhitni shakllantirish, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini

oshirish bugungi ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatida ijodiy yondashuv va psixologik muhitning ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, AQShning Garvard universitetidagi Career Services markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, maktab rahbarlarining 79,8% qismi ijodiy kompetentlikni belgilovchi asosiy omil sifatida sog‘lom muhitni ta’kidlagan. Shuningdek, Singapurdagi Nanyang Texnologiya Universitetida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, maktab rahbarlarining 65,5% qismi boshqaruv jarayonida ijodkorlik muhim ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqaruvida sog‘lom va ijodiy muhitni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Sog‘lom muhitni yaratish jarayoni ilmiy jihatdan asoslanishi kerak bo‘lib, bu psixologiya, pedagogika va ta’lim menejmenti sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarga tayanishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining “2030-yilgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi” doirasida ta’lim boshqaruvining yangi tamoyillarini shakllantirish, maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish belgilangan. 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli Prezident farmonida xalq ta’limi tizimini boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Prezident farmonida “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida ta’lim menejmentini modernizatsiya qilish va maktab rahbarlarining raqobatbardoshligini oshirish choralari belgilangan. 2019-yil 24- apreldagi PF-5712-sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” maktab rahbarlari uchun yangi kasbiy standartlar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilishni nazarda tutadi[3]. Maktab boshqaruvida psixologik muhitni rivojlantirishga oid strategik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi, rahbarlarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga oid empirik tadqiqotlar yetarli emasligi, ta’lim menejmentining zamonaviy talablariga mos keluvchi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ehtiyoji tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruratini yanada oshiradi. Shu bois, ushbu mavzuda olib boriladigan tadqiqotlar ta’lim tizimining strategik rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi. O‘zbekiston miqyosida ham ta’lim menejmenti, ta’limda innovatsion boshqaruv, ta’limda raqobatbardoshlik, ta’limda strategik menejment asoslarini o‘z ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos qilib olgan J.Yo‘ldoshev, A.Magrupov, R.Jo‘rayev, U.Inoyatov, Ya.Ismadiyarov, S.Turgunov, O.Hayitov, M.Saidov, N.Muhamedova kabi olimlarning ishlari ahamiyatga molik. Pedagogik ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar va ularning psixologik muhitga ta’siri masalasi bo‘yicha ish olib borgan M.Davletshin, S.Jalilova, M.Axmedova, G‘.Shomurodov, D.Narziqulova, V.Karimova, G.To‘ychiyeva, Sh.Mo‘minov, R.Sunnatovalar kabi bir qator olimlar bor. Maktab direktorlari idoraviy faoliyatini yanada rivojlantirish strategiyalari, ta’lim muassasasining innovatsion boshqaruv dinamikasi, jamoaviy nazorat samaradorligi, modellashtirish asosida rahbar xodimlarda boshqaruv etikasini shakllantirish, rivojlantirish va baxolash jarayonlarini tashkil etish tamoyillari S.Teylor, P.R.Sperrov, E.I.Kudryavseva, R.Thorpe, S.Turgunov, A.T.Sergeyev kabi tadqiqotchilar tomonida ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy tadqiqotlar ta’lim

muhitining psixologik omillarga bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional holati, rahbarlarning xodimlar bilan samimiy muloqoti kabi omillar ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu masalalarni o‘rganishga ehtiyoj tobora yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqotda sifatli yondashuv asosida kuzatuv va arxiv (hujjatlar tahlili) strategiyalari qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – maktab rahbarlarining yetakchilik uslublari o‘qituvchilarning farovonligi va ishga qoniqishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot Toshkent shahri Chilonzor tumani 3-dahasidagi 144, 66, 162 – davlat umumta’lim maktablarida olib borildi. Har bir maktabda direktor, direktor o‘rinbosarlari va 8 nafardan o‘qituvchilarning faoliyati kuzatildi. Tanlov qasddan (purposeful sampling) amalga oshirilib, rahbarlik yondashuvlari farq qiluvchi maktablar tanlab olindi. Ma’lumotlar kuzatuv va arxiv tahlili usullarida to‘plandi. Maktab ichida 3 hafta davomida haftasiga ikki marotaba to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuv olib borildi. Direktorlar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, ish muhitidagi psixologik atmosfera va rahbarlik uslublari tahlil qilindi. Maktabning ichki hujjatlari, jumladan pedagogik kengash bayonnomalari, o‘qituvchilarning ishdan ketish sabablari, ichki monitoring natijalari va rag‘batlantirishga oid buyruqlar tahlil qilindi. Ma’lumotlarning ishonchliligi kuzatuv va o‘rganilgan hujjatlar, xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, shu bilan bir qatorda, TALIS2018 xalqaro tadqiqotlari mezonlari asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma’lumotlar to‘plash maqsadida o‘tkazilgan elektron so‘rovnomalar o‘zaro solishtirilib baholandi. Mamlakatimiz miqyosida o‘tkazilgan Talis tadqiqotlariga ko‘ra respublikamizda hozirgi kunda faoliyat yuritib turgan 10104 ta umumta’lim maktablari direktorlarining 12 % (1215 nafar)i o‘z ishlaridan qoniqmayotganligini bildirishgan. Afsuski, mazkur raqamlar tadqiqotda qatnashgam OESD davlatlari (Yaponiya, Janubiy Afrika, Estoniya, Belgiya) maktab direktorlari orasida 6% dan kamroq ko‘rsatkichni qayd etgan. Maktab direktorlarining va pedagog xodimlarning ish jarayonida stressga va tushkunlikka tushish ko‘rsatgichlarida ham OESD davlatlari orasida O‘zbekiston “yuqori o‘rinlarni” egallagan. Tashqi va ichki omillarning mas’uliyati boisidan ish jarayonida yuzaga keladigan stresslarning eng ko‘pi maktab boshqaruvchilari hamda ma’muriyat xodimlari orasida yuzaga keladi. Ushbu omillarning ichida eng ko‘p e’tiborni jalb qiladigan tomon ma’muriy ishlar tashkil etadi. O‘zi faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasasini “o‘ziga munosib, yaxshi ish va jamoa” deb hisoblamaydigan rahbarlarning soni 3197 nafarni, agar yangidan kasb egallash imkoniyati berilsa pedagogik sohani tanlamaslik istagini bildirgan ishtirokchilar soni 2771 nafarni tashkil etgan. Hattoki, tajriba-so‘rovnoma davomida qatnashgan 700 ishtirokchilar jamiyatda pedagog kasbi hech qachon qadrlanmasligiga ishonch bildirishgan. Eng muhimi shundaki, bu ma’lumotlarning aksariyati 45 yoshdan oshgan tajribali xodimlardan olingan. O‘zbekistondagi maktab direktorlarining 28.9 % yosh doirasi 40-49 yoshgacha qismi, 46.9% 50-59 yosh doirasidagi qismi, 48.4% 30-39 yosh doirasidagi qismi, 15.5% 30 yoshgacha bo‘lgan qismi kelajakda imkon tug‘ilsa boshqa ish tanlashlarini aytishgan Mazkur muammolar ta’lim tizimimizdagi tartibga solinilishi lozim bo‘lib turgan og‘riqli nuqtalardir. Keltirilgan fikr-mulohazalardan shu ma’lum bo‘ladiki, ta’lim muassasasi

rahbarining samarali boshqaruv faoliyati strategik fikrlash, yetakchilik koʻnikmalari va innovatsion yondashuvlarga asoslanishi lozim. Agar boshqaruv jarayoni tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot boshqaruvi mezonlariga muvofiq tashkil etilsa, ta’lim muassasasining samaradorligi va sifat koʻrsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Umumta’lim maktablarida ruhiy-ijtimoiy muhit ta’lim sifati, pedagog va oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlari hamda boshqaruv jarayonining natijadorligi bilan chambarchas bogʻliq. Maktab jamoasidagi ma’naviy-axloqiy muhit har bir ishtirokchining ichki holatini shakllantirib, ularning oʻz vazifalariga boʻlgan yondashuvini belgilaydi. Maktab muhitining barqarorligi va rivojlanishi turli omillarga bogʻliq boʻlib, ulardan eng muhimlaridan biri rahbar shaxsining kasbiy tayyorgarligi, uning boshqaruv jarayonidagi puxta qarorlari va jamoa bilan samarali muloqot qura olish qobiliyatidir. Rahbarning tashkiliy-ma’naviy salohiyati, pedagogik jamoaga ta’siri, shuningdek, psixologik jarayonlarni chuqur anglay olishi maktabdagi ijtimoiy-emosional muhitni belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Mazkur tadqiqot umumta’lim maktablarida ruhiy barqarorlik va axloqiy muvozanatga ta’sir qiluvchi omillarni oʻrganishga qaratilib, boshqaruv jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi amaliy yondashuvlarni tavsiya etadi:

1. Maktab rahbarlari uchun malaka oshirish dasturlari: Maktab direktorlarining stressni boshqarish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida, ularning malakalarini oshirishga yoʻnaltirilgan maxsus treninglar va kurslar tashkil etilishi zarur. Bu ularning boshqaruvda samaradorligini oshirishi va stressni kamaytirishi mumkin.

2. Psixologik yordam va stressni kamaytirish: Maktab rahbarlari va oʻqituvchilariga psixologik xizmatlar koʻrsatish tizimini joriy etish zarur. Stressni kamaytirish uchun maxsus seminarlar, kurslar va konsultatsiyalar tashkil etish, ta’lim tizimining sogʻlom muhitini yaratishga yordam beradi.

3. Kadrlar siyosatini takomillashtirish: Maktab direktorlarining kadrlar bilan ishlashdagi samaradorligini oshirish uchun, kadrlar siyosatini takomillashtirish, maktablar uchun malakali kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur. Maktab direktorlarining malaka oshirish jarayonida, ularning pedagogik mahoratini ham e’tiborga olish lozim.

4. Byudjetning shaffofligini ta’minlash: Ta’lim tizimining moliyaviy resurslarini boshqarish va sarf-xarajatlarni monitoring qilish jarayonlarini takomillashtirish. Maktablar uchun byudjetning samarali taqsimlanishi va shaffofligi, ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

5. Jamiyatda ta’lim tizimiga boʻlgan ijobiy munosabatni shakllantirish: Maktab rahbarlari va oʻqituvchilarning kasbiy qadriyatlarini oshirish, jamiyatda ta’limga boʻlgan salbiy munosabatni oʻzgartirish uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlarni targʻib qilish zarur. Bu, pedagoglarning kasbga boʻlgan sadoqatini oshirishi va ta’lim tizimining obroʻini yuksaltirishi mumkin .

6. Davlat va mahalliy ta’lim idoralari oʻrtasida hamkorlikni mustahkamlash: Maktab rahbarlari va ta’lim tizimi faoliyatini tartibga solish va qoʻllab-quvvatlash uchun tuman va shahar ta’lim idoralari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu rahbarlarning ma’muriy ish yuklamalarini kamaytirishga va ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashga

yordam beradi. Umuman olganda, ta’lim sifati va pedagogik faoliyatmuhitini rivojlantirish O‘zbekiston ta’lim tizimining kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Maktablarning psixologik muhitini yaxshilash, ta’lim sifati va pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirish bilan bu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти: Ўқув қўлланма. –Тошкент: Ворис, 2006. – 264 б.; Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим янгиланиш йўлида. -Тошкент: Ўқитувчи, 2000. -207 б.;

2. Иноятов У.И. Теоретические и организационнометодические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже. Дисс...док. пед.наук. - Т.: 2003. -327 с.;

3. Тургунов С.Т. Теоретические основы управленческой деятельности директора средних общеобразовательных учреждений. Автореф.дис. ...докт. пед.наук.-Т.: 2007-43 с.;

4. Юлдашев М.А. Халқ таълими ходимларининг малакасини оширишда таълим сифати 5. Leithwood, K., & Jantzi, D. (2005). A Review of Research on School Leadership and Student Outcomes. Canadian Journal of Education Administration and Policy, 2005(1).

O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA MILLIY XALQ O‘YINLARINI TARG‘IB QILISH ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Karabekov Gayratjon Tashmurotovich
Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti

Kirish. XXI asr -axborot asri deya e’tirof etilayotgan bir vaqtda, voyaga yetmagan yoshlar orasida huquqbuzarlik holatlarining uchrab turishi hech kimga sir emas. Ayniqsa ayrim maktab o‘quvchilari orasida dars vaqtida turli ko‘ngilochar joylarda vaqtlarini behuda o‘tkazish holatlari sodir bo‘layotgani achinarlidir. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Tanlangan asarlar” kitobi: Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur [1] deya ta’kidlagan.

Bundan ko‘rinadiki umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini ham aqlan ham jismonan yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ayniqsa maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ahamiyatlidir. Maktablarda ko‘proq mahalla faollari, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda milliy xalq o‘yinlaridan “Milliy kurash”, “Chillak”, “Oq terek – ko‘k terek”, “Arqan tortish” kabi milliy xalq o‘yinlari ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishimiz mumkin.

Milliy xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ushbu milliy xalq o‘yinlarini targ‘ib qilish orqali ham ularning jismoniy hamda ruhiy salomatligini mustahkamlash mumkin. Olib borilgan tadqiqot natijalarimda maktab o‘quvchilariga

ushbu milliy xalq o‘yinlariga qiziqish, maktabga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarning samarasini xis qildim. Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida:...Insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday hatarlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e’tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodimizni ma’naviy sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog‘liq”[2] deb yozadi.

Glaballashuv jarayonida o‘quvchi yoshlarni turli illatlar, yovuz g‘oyalar ta’siridan asrab, ularni ma’naviy-ma’rifiy qurollantirmog‘imiz lozim. Bu ishlarni amalga oshirishda milliyligimiz, ota-bobolarimizdan meros qolgan milliy xalq o‘yinlarining targ‘ibotini amalda kuchaytirishimiz kerak.

Milliy qadriyatlarni shakllantirishda milliy xalq o‘yinlarining o‘rni

Mamlakatimizda milliy kurrash, belbog‘li kurash, ot sporti, chaqqonlik va jasoratni talab etuvchi xalq o‘yinlari o‘ziga xos jasorat maktablari bo‘lib kelganligi tarixdan tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan diqqatga sazovor. Ushbu sport turlarini maktab to‘garaklariga joriy etish o‘quvchilarning milliy merosga yaqinlashishiga, o‘z xalqining an’anaviy turmush tarzi va madaniyati haqida amaliy tasavvurga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz tamonidan o‘quvchi yoshlarga bo‘lgan e’tibor va e’tirof taqsinga loyiq. Bu ishlarni o‘zbek milliy xalq o‘yinlari orqali jonlantirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish og‘ishmasdan davom ettirish o‘tmishga bo‘lgan xurmat, sadoqat bilan ham ahamiyatlidir.

Sport to‘garaklarini tashkil etishda milliy xalq o‘yinlarini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari

Milliy xalq o‘yinlari to‘garaklari orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishning o‘ziga xos yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Milliy xalq o‘yinlarini dars va to‘garak rejalariga kiritish;

Milliy xalq o‘yinlarini zamonga hamoxang tarzda uyg‘unlashtirish;

Mahallalarda jamoaviy milliy xalq o‘yinlari musobaqasini o‘tkazish;

Oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish.

Olib borilgan kichik tadqiqot natijalari nafaqat yuqori sinf balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziqishlarining oshishini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Milliy xalq o‘yinlaridan maktablarda to‘garaklar faoliyatini jonlantirish, o‘quv dasturlariga kiritish bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tizimli va amaliy ishlar o‘quvchilar ta’lim va tarbiyasida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning o‘ziga hos metodlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi desak ayni muddaodoir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Avloniy. Istiqlol qahramonlari. Tanlangan asarlar. Toshkent “MA’NAVIYAT”, 2009.

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent “Ma’naviyat”, 2008.

VOYAGA YETMAGANLARNI GIYOHVANDLIKDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY VA IJTIMOIY ASOSLARI

Karimberdiyev Iskandar Ozodbek o’g’li
Namangan davlat universiteti talabasi
Qodiraliyeva Ijobat
Ilmiy rahbar.

Bugun insoniyat taraqqiyotning yangi-yangi cho'qilarni zabt etmoqda. Lekn keyngi paytlarda bu dunyoda tarqalayotkan bir yomon illat hammamizni tashvishga solib, og'ir jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'lib kelmoqda. Bu - giyohvandlikdir . Bugungi kunga kelib bu illat ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalmoqda.Bugungi kunga kelib bu illat ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalmoqda. Voyaga yetmaganlar huquqbizarliklarning oldini olish,jinoyatchilik va jamiyatda sodir etilayotkan boshqa salbiy hati -harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq vazifalarning belgilab berilishi , ayniqsa davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini movofiqlashtirilishi ularning yaxlit bir tizim sifatida faoliyat yuritishi natijasida voyaga yetmaganlar manfatlarning ta'minlanishida muhim o'rin egallaydi. Mamlakatimizda aholi orasida soglom muhitni targib qilish , ularning giyohvandlik va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi imunitetni shakilantirish shuningdek , inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda . Ammo songi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli tasir qiluvchi moddalar paydo bolayotgani , ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlarda foydalangan holda , aholi , ayniqsa , yoshlar orasida oson tarqalayotkani bizni judayam tushkunlikka tushurayotkani bejiz emas.

Huquqiy asosi: Aytish kerakki 2024-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari tog'risida" gi. Farmoni bu borada muhim huquqiy asos bo'ldi . Prezident 6-may kuni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakat genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Farmonga ko‘ra, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya qabul qilindi. Milliy strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi: Aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni. O‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishgamurosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta’sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish;

Aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi,

davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarni amalga oshirish;

Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa, internet tarmog‘idagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish;

Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mas’uliyatini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;

Giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiytadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetkazishni ta’minlash. Farmon bilan, shuningdek, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi (rais — bosh vazir Abdulla Aripov) va uning hududiy komissiyalari tarkiblari tasdiqlandi.[1]

Statistika :O‘zbekiston bo‘yicha 2024-yilda giyohvandlikning umumiy yuqori xavf guruhi (TOB) 2024-yilda O‘zbekistonda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar jiddiy ijtimoiy muammo sifatida davom etmoqda. Milliy Giyohvandlikka Qarshi Kurash Markazi ma’lumotlariga ko‘ra, oxirgi besh yil ichida narkotik moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar ikki baravar oshgan, narkotik moddalar musodara qilinishi 8,5 baravar, sintetik moddalar esa 400 baravar ko‘paygan. Ayniqsa, “retsept bo‘yicha dorilarga qaramlik” yoki “pharmacy drug addiction” kabi hodisalar yoshlar orasida tez tarqalmoqda. Bu tendensiya mamlakat bo‘yicha giyohvandlikning yuqori xavf guruhi — TOB1 kengayishini ko‘rsatadi.

TOB-bu ‘’ yuqori xavf guruhi’’ ya’ni giyohvandlikkka chalinish ehtimoli eng yuqori bo’lgan shaxslar yoki guruh.

Senat ma’ruzalariga ko‘ra, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etganlarning 31,2 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilari va kollej-talabalar orasida psixotrop moddalarni sinab ko‘rish holatlari ortib bormoqda. Ayniqsa, 10–11-sinflar, yotoqxonalarda yashovchi talabalar va kechki vaqtlarda nazoratsiz bo‘ladigan yoshlar yuqori xavf guruhini tashkil etadi. 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy Strategiyada yuqori xavf guruhi sifatida quyidagi guruhlar belgilangan: yoshlar (14–30 yosh), maktab va kollej o‘quvchilari, yotoqxonalarda yashovchi talabalar, ishga joylashmagan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar va internet orqali narkotik sotib olishga urinayotganlar. Voyaga yetmaganlar (16–18 yosh) ham maktablarda psixotrop moddalarni sinab ko‘rish hollari ortishi sababli TOB tarkibiga kiritilgan, ammo ular bo‘yicha aniq raqamlar rasmiy manbalarda mavjud emas. Shuni e’tiborga olib, bu guruhlar yuqori xavfli yoshlar sifatida baholangan.Umuman olganda, O‘zbekiston bo‘yicha 2024-yilda giyohvandlik bilan bog‘liq umumiy yuqori xavf guruhi (TOB) yoshlar, maktab o‘quvchilari, talabalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va nazoratsiz guruhlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu guruhlarni aniqlash va ularga qarshi profilaktika choralari ko‘rish, ularni

giyohvandlikdan himoya qilish va kelajak avlod sog‘lomligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.[2]

Ijtimoiy asoslar : Giyohvandlikning oldini olishda ijtimoiy muhitning ro’li katta; Oila: Ota-onalar farzand bilan ishonchli munosabat o‘rnatishi, bo‘sh vaqtini sport, ijodiy va foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirishi muhim. Ota-onaning e’tibori va tarbiyaviy yondashuvi voyaga yetmaganlarni giyohvandlikdan himoya qilishda eng samarali vositalardan biridir.

Ta’lim muassasalari: Maktab, kollej va universitetlarda muntazam huquqiy soatlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari va psixologik treninglar o‘tkazilishi yoshlar orasida giyohvandlikka moyillikni kamaytiradi. 10–11-sinf va talabalar, ayniqsa yotoqxonalarda yashovchilar, bu dasturlardan eng ko‘p foyda oladigan guruh hisoblanadi.

Jamiyat va mahalla: Jamiyatning har bir a’zosi yoshlarni nazorat qilish, do‘stlar va qo‘shnilarning salbiy ta’siridan himoya qilish, sog‘lom muhit yaratishda ishtirok etadi. Mahalla faollari va ijtimoiy tashkilotlar orqali profilaktika tadbirlari kengaytiriladi.

Ommaviy axborot vositalari: Televideniye, radio va internet orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, giyohvandlikning salbiy oqibatlarini ko‘rsatish yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biz bu holatlardan kelib chiqqan holda ‘’SOG’LOM AVLOD MEDIA’’ loyihasini taklif qilamiz :

1. Yoshlar uchun qisqa videoroliklar, animatsiyalar va real hayotdagi misollar. asosida giyohvandlik oqibatlarini ko‘rsatuvchi kontent ishlab chiqish.

2. TikTok, Instagram, Telegram kabi ommabop platformalarda maxsus sahifa ochish.

3.Mashhur blogerlar, sportchilar va tahlilchilarni jalb qilib, “Giyohvandlik yo‘q!” mavzusida ijobiy va samimiy chiqishlar tayyorlash.

4.Yoshlar o‘rtasida onlayn viktorina va konkurslar o‘tkazib, sog‘lom turmush tarsi haqida bilimlar berish.

Yoshlar orasida giyohvandlik bo‘yicha xabardorlik oshadi va zararli axborot oqimi kamayadi,ya’ni sog‘lom hayot modeli shakllanin boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida"

2. Milliy Giyohvandlikka Qarshi Kurash Markazi, Prezident Administratsiyasi, 2024 — kun.uz.

3. lex.uz.

4. Qalampir.uz.

O‘ZBEK VA INGLIZ YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY SPORT O`YINLARINING O`RNI

Karimova Iroda Bobur qizi
O`zbekiston Milliy universiteti talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”,- deya bejizga ta’kidlamadilar. Sport inson o‘z-o‘zini tarbiyalashida, anglashida yetakchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sportdagi ko‘rsatkichlarining asta-sekin o‘sish me’yoriga qarab sportchi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, aqliy, axloqiy va vatanparvarlik jarayonlariga o‘zi ham sezib-sezmay kirib boradi.

Bugungi kunda yoshlarni sog‘lom, barkamol va vatanparvar qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. Yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish jarayonida sportning, ayniqsa, milliy sport o`yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy o`yinlar faqatgina jismoniy chiniqtirish uchun emas, balki ajdodlar merosini davom ettirish, milliy o‘zlikni mustahkamlash, o‘z yurtiga mehr va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bugungi barqaror rivojlanish natijasida yoshlarning ma‘naviy immunitetini mustahkamlash, ularni Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash strategik ahamiyatga ega.[1,25] Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlar va o‘zlikni anglashning ahamiyati ortib bormoqda. Milliy sport o‘yinlari esa yoshlar ongida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va tarixiy merosga nisbatan hurmat tuyg`usini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat an`anaviy tarbiya, balki zamonaviy pedagogika va psixologiya bilan uyg`unlashgan holda olib borilishi zarur.

Milliy sport o`yinlari yoshlarning ruhiy-psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko`rsatadi. Masalan, kurash, uloq, ot sporti kabi mashqlar orqali yoshlarda iroda, jasorat va mas’uliyat hissi shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, milliy sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarda o‘ziga ishonch darajasi 30-40% ga oshadi, shu bilan birga ularning jamoaviy munosabatlari ham yaxshilanadi.[7,319] Bu esa ularni kelajakda Vatan himoyasi va uning taraqqiyoti uchun kurashishga tayyorlaydi.

O`zbekistonning tarixiy, ma`naviy va jismoniy merosida milliy sport o`yinlari muhim o`rin tutadi. Kurash, ko`pkari (uloq-ko`pkari), chavandozlik, o`q otish, shaxmat, qadimiy jismoniy mashqlar kabi sport turlari nafaqat jismoniy chiniqtirish vositasi, balki milliy g`urur, mardlik, jasorat va mas`uliyat timsoli sifatida yosh avlodning tarbiyaviy jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. O`zbek xalqining boy tarixi va madaniyati milliy sport o`yinlarida o`z ifodasini topgan.

O`zbek xalqi tarixining turli davrlarida jismoniy tayyorgarlik, chavandozlik, kurash, o`q otish kabi mashqlar harbiy va ma`naviy tarbiyaning ajralmas qismi bo`lgan. Arxeologik topilmalar, “Alpomish”, “Go`ro`g`li” dostonlari, Amir Temur va temuriylar davri manbalari yurt himoyachilarining jismoniy tayyorgarligi milliy sportga tayanib

shakllanganini ko`rsatadi. Shuningdek, Bobur Mirzo 14 yoshidan harbiy yurishlarda qatnashishni boshlaydi, ungacha otasi Umarshayx Mirzo zamonida harbiy mashqlar, ayniqsa, kamondan o`q uzish harbiy ilmini yaxshi o`zlashtirgan. Shunday qilib, milliy sport o`yinlari tarix davomida vatanparvarlik tushunchasi bilan chambarchas bog`liq bo`lib kelgan.

Buyuk Britaniyada milliy sport turlari — xususan, regbi, kriket va futbol — yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. natijalariga ko‘ra, ingliz yoshlarining 68 foizi milliy sport musobaqalari ularda “milliy birlik” va “milliy g‘urur” hissini kuchaytirishini ta’kidlagan. Tadqiqotchi M. Janes va L. Sanderson esa ingliz yoshlarining regbi musobaqalarini tomosha qilishi davlat ramzlariga hurmat, fuqarolik mas’uliyati va milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qilishini ilmiy asoslagan. [8,117-119]

Zamonaviy sharoitda yoshlarni beg‘araz qadriyatlar, milliy an’analar va ma’naviy tafakkur bilan qurollantirish muhimdir. Milliy sport o‘yinlari orqali yoshlar ra jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham mustahkamlanadi. Bu ularni xorijiy ma’naviy tahdidlar, shu jumladan ekstremizm va terorizm kabi xavflardan himoya qilishga xizmat qiladi. Xalqimizning "Kurash — halollik, mardlik va donolik ramzi" degan ibratli so‘zi shuni tasdiqlaydi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko`ra, jismoniy faoliyat insonning irodasi, intizomi, mas`uliyat hissi va jamoada ishlash ko`nikmalarini kuchaytiradi. Milliy sport esa bunga qo`shimcha ravishda: milliy o`zlikni anglashni mustahkamlaydi; ajdodlar merosiga hurmat uyg`otadi; mardlik va jasorat kabi fazilatlarni shakllantiradi; jamoaviy birdamlik va o`zaro hamkorlikni kuchaytiradi. Masalan, o`zbek kurashi o`yin qoidalarida raqibga hurmat tamoyili ustuvorligi ta’kidlanadi. Sportchidan halollik, sabr, iroda va o`zini boshqarish talab etiladi. Bu esa yoshlar ongida axloqiy tarbiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.[3,27] Hattoki UNESCO hisobotlarida milliy sportlar yoshlar o`rtasida milliy g`ururni mustahkamlashi qayd etilgan. [6, 74]

Vatanparvarlik — bu nafaqat Vatanga sadoqat, balki uni himoya qilishga tayyorlik, milliy qadriyatlarga hurmat hamdir. Milliy sport o`yinlari ushbu jihatlarni quyidagi yo`llar bilan rivojlantiradi:

-Jasoratni kuchaytiradi. Kurash va chavandozlik yoshlarni kuchli bo`lishga, o`zini sinovdan o`tkazishga undaydi. Misol uchun xalq dostonlarimizda uchraydigan qahramonlar ham o`z jasoratini ko`rsatish uchun turli musobaqalarda bellashadi.

- Tajriba va an`analarni davom ettirish hissi. Bu yoshlar ongida o`z millatiga tegishlilik tuyg`usini mustahkamlaydi.

-Vatanga daxldorlik. Milliy sport musobaqalarida yurt nomidan ishtirok etish g`urur hissini uyg`otadi. Ko`plab mashhur sportchilarimiz o`zlarining intervyularida har safar Vatan bayrog`i ko`tarilib, madhiyamiz yangraganida qandaydir etni jumbushga keltiradigan hissiyot o`tganini ta’kidlab o’tishadi.

-Harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligini mustahkamlash. Masalan, ot chopish va o`q otish qadimda bo`lganidek, bugun ham harbiy-amaliy ko`nikmalarni rivojlantiradi. So‘nggi yillarda Qurolli Kuchlar akademiyasi, harbiy litseylar va sport maktablari

o‘rtasida milliy sport turlarini harbiy-amaliy mashg‘ulotlarga qo‘shish tajribasi kengaymoqda. Masalan:

-**Kurash** – jangovar yaqin masofadagi harakatlar, og‘ir vaziyatda o‘zini boshqarish;

-**Ot chopish** – manevr qilish, vaziyatni tez baholash, chidamlilik;

-**Kamondan o‘q otish** – diqqatni jamlash, masofani aniq belgilash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu integratsiya yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Milliy sport an'analari har qanday xalqning madaniy merosining muhim tarkibiy qismidir. Ular nafaqat jismoniy faollikni, balki milliy qadriyatlar, tarix va jamoa ruhini aks ettiradi. Milliy sport turlari ko'pincha xalqning tarixiy sharoitida shakllangan. Faqatgina yuqoridagi sifatlari emas, balki avloddan-avlodga qadriyatlarni yetkazib berishi tufayli ham milliy sport turlari yuqori ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekistonda "Kurash" an'anasining ming yillik tarixi bor va u xalqimizning jasorati, chidamliligi va donoligini ifodalaydi. Bu sport turi bolalarda vatanparvarlik va milliy g'urur, halollik va sportchilik ruhi, shuningdek, jasorat, qat'iyat, hurmat va odob kabi xislatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy sport an'analari xalqimiz ma'naviy boyligining muhim qismi bo'lib, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish har birimizning burchidir.

Hozirgi zamon ta`lim tizimi yoshlar tarbiyasida milliy sportning salohiyatidan keng foydalanishni yo`lga qo`ymoqda: umumta`lim maktablarida milliy kurash va milliy o`yinlar to`garaklari tashkil etilmoqda, shu bilan birgalikda O`zbekiston oliy ta`lim muassalarida milliy sport turlari bo`yicha ilmiy tadqiqotlar kengaymoqda.[5,46] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbek kurashini jahon brendiga aylantirish” bo`yicha qarorlari esa milliy sport mavqeini yanada oshirdi. O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy sportni rivojlantirish bo‘yicha bir qator amaliy choralar ko‘rilmoqda. Jumladan:

- Maktablarda “Milliy kurash”, “An’anaviy o‘yinlar” kabi fanlar va to‘garaklar tashkil etildi.

- Oliy ta’lim muassasalarida milliy sport turlari bo‘yicha ilmiy loyihalar va dissertatsiyalar himoya qilinmoqda.

- Sport tashkilotlari va mahalliy jamoalar hamkorligida an’anavoy musobaqalar, festival va ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda.

Emprik kuzatishlar va ilmiy xulosalarga ko`ra jismoniy tarbiya jarayonida milliy o`yinlardan foydalanish o`quvchilar intizomining ortishiga olib kelishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.[4,58] So`nggi yillarda o`tkazilgan sotsiologik so`rovlar shuni ko`rsatadiki: milliy sport bilan muntazam shug`ullanuvchi yoshlarning 78–82 foizida vatanparvarlik ko`rsatkichlari yuqori; jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida milliy sport elementlari qo`llangan maktablarda ma`naviy-intellektual faollik oshgan; milliy sport musobaqalarida ishtirok etgan o`quvchilar o`z milliy qadriyatlari haqida chuqurroq bilimga ega bo`lishgan. Bu natijalar milliy sportning yoshlar ongini shakllantirishda samarali vosita ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

So‘nggi sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra:

- Milliy sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning 85% o‘z millati va tarixi bilan faxrlanadi.

- 90% holatlarda milliy sport yoshlarda jamoaviy munosabatlar va o‘zaro hurmatni oshiradi.

- Maktablarda milliy sport elementlarini joriy qilgan maktablarda o‘quvchilarning intizomiy ko‘rsatkichlari 25% ga oshgan.

Xalqaro miqyosda milliy sport o‘yinlarini qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha bir qator mamlakatlar (masalan, Yaponiya, Koreya, Turkiya, Mo‘g‘uliston) keng tajribaga ega. O‘zbekiston esa o‘zining noyob modelini yaratish yo‘lida. Bunda nafaqat an’anaviy sport turlari, balki ularni raqamli texnologiyalar, media va turizm bilan uyg‘unlashtirish ko‘zda tutilmoqda.

So‘nggi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, milliy sport o‘yinlari nafaqat tarbiya vositasigina emas, iqtisodiy rivojlanish omilidir. Jumladan: O‘zbek kurashining xalqaro federatsiyalar tomonidan tan olinishidan so‘ng 2021–2024 yillar oralig‘ida turizm oqimi 12–15% ga oshgan. Ko‘pkari va ot sportiga oid festival va chempionatlar Qoratepa, Nurota, Yakkabog‘ kabi hududlarda mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bergan. Bu holat milliy sportning vatanparvarlik bilan birga iqtisodiy faollikni ham kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Milliy sport o`yinlari yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda eng samarali ma`naviy va jismoniy vositalardan biridir.[1,89] Ular nafaqat jismoniy chiniqtiradi, balki axloqiy, ma`naviy, psixologik va ijtimoiy fazilatlarni rivojlantiradi. O`zbekistonning boy sport merosini ta`lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish yoshlarning Vatanga sadoqatini mustahkamlash, milliy o`zlikni anglash va ma`naviy barkamollikni shakllantirishda muhim omil bo`lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (2017–2023).

3. Jo`rayev N., Abdullayev R. O`zbek kurashi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 2019.

4. Qodirov A. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.

5. Sharipov S. Milliy sport turlarining ijtimoiy ahamiyati. – Toshkent, 2021.

6. UNESCO. Traditional Sports and Games: Cultural Heritage Report, 2020.

7. The Effect of Sport Activities on Self-Confidence Levels of 13-14 Year-Olds — Salih Tutku Yaylacı & Çisem Ünlü- **December 31, 2021** in the Journal of Educational Issues (Vol. 7, No. 3). files.eric.ed.gov

8. “Sport England Youth Survey” ,- 2021.

KIBERHUJUMLAR TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Karimova Madinabonu Mas’udjon qizi
TATU magistranti

Bugungi kunda raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi natijasida kiberhujumlar ahamiyati va ko‘lami keskin ortib borayotgani hech kimga sir emas. Kiberhujum axborot tizimlari, tarmoqlar, qurilmalar yoki ular orqali istiqomat qiluvchi ma’lumotlarga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishni ko‘zlagan hujumiyatli harakatdir. Uning maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin: ma’lumotni o‘g‘irlash, texnologiyalarni buzish, iqtisodiy zarar keltirish, yoki jamiyatda noto‘g‘ri axborot tarqatish. Natijada faqat texnik yoki moliyaviy yo‘qotishlar sodir bo‘lmaydi shu bilan birga jamiyatda katta notinchlik keltirib chiqaradi. Kiberhujumlar tahdidi bir necha o‘lchamda qaraladi jumladan, hujumning masshtabi, ta’sir doirasi, ta’sir qilish imkoniyati va tezligi.

Davlat boshqaruvi, bank tizimi, transport, energetika tarmoqlari, ta’lim va tibbiyot sohalari to‘liq raqamlashgan sharoitda ishlamoqda. Bu esa ularni kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan yanada sezgir ob’ektlarga aylantirmoqda. Xususan, O‘zbekistondagi raqamli iqtisodiyot strategiyasi, elektron hukumat tizimlarining rivojlanishi, «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali», «Soliq.uz» kabi yirik elektron platformalarning keng qo‘llanilishi ham yangi xavflarni keltirib chiqarmoqda. Mamlakatda raqamli transformatsiya tezlashar ekan, xususan, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Kiberxavfsizlik markazi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan e’lon qilinayotgan ma’lumotlar so‘nggi yillarda kiberhujumlar soni va ularning murakkabligi sezilarli o‘sganini ko‘rsatadi [1].

IBM Security Cost of a Data Breach Report 2024 ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida ma’lumotlar buzilishi natijasidagi o‘rtacha iqtisodiy yo‘qotish bir hodisa uchun 4,88 million dollarni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich so‘nggi 5 yilda 15% ga o‘sganini anglatadi. Kiberhimoya bo‘yicha yetarli sarmoya kiritmagan kichik va o‘rta biznes subyektlari eng zaif guruhlar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, PwC va Deloitte tomonidan o‘tkazilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, har bir 10 ta tashkilotdan 7 tasi so‘nggi ikki yilda kamida bir marta kiberhujumga uchragan. Ulardan 45% holatda hujum oqibatida ma’lumotlar yo‘qotilgan yoki ichki ish jarayonlar to‘xtab qolgan.

Kiberhujumlarning tabiati shundan iboratki, ular faqat tashqi tahdidlardan emas, balki ichki omillardan ham kelib chiqadi. O‘zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, korporativ muhitda inson omili eng katta xavf manbaiga aylanmoqda. Tez o‘sib borayotgan texnologiyalarga qaramay, ko‘p tashkilotlar Kiberhimoya bo‘yicha zarur tayyorgarlikka ega emas. Xodimlarning bilimsizligi, kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanmaganligi, pandemiya davrida masofadan ishlash shakllarining kengayishi - barchasi zaiflik yaratadi. Xususan, ma’lumot bo‘zilishlarining 60%dan ortig‘i inson omili bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanmoqda. S.Abdurahmonov o‘tkazgan tahlillarda foydalanuvchilarning noto‘g’ri parol siyosati, manzilli fishing xabarlarini farqlashdagi

qiyinchiliklar va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishdagi madaniyatsizlik ko‘plab muammolarni keltirib chiqarayotgani qayd etilgan [2]. Shuningdek, Kiberxavfsizlik markazi xodimlari tomonidan tayyorlangan ma’lumotlarda hujumchilarning asosiy maqsadi ma’lumotlar bazalariga kirish, tarmoq elementlarini zararlash, xizmatlar ishini vaqtincha to‘xtatish yoki ularni shifrlash orqali moddiy manfaat olish.

AQShning eng yirik provayderi – Verizon telekommunikatsion kompaniyasi tomonidan 2025 yilda o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, barcha ma’lumot buzilishlarining 74% inson xatolari yoki manipulyatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

So‘nggi yillarda fishing, spier-fishing, ransomware va DDoS kabi hujumlar O‘zbekistonda ham qayta-qayta kuzatilmoqda. Respublikamizdagi bir qator banklar va yirik korporativ tarmoqlar 2022–2024 yillarda bir necha bor DDoS hujumlariga duch kelgani ommaviy ma’lumotlar orqali ma’lum. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, mahalliy kiberxavfsizlik infratuzilmasi ham global trendlar bilan birgalikda tahdidlar miqyosiga mos ravishda rivojlanishi lozim.

Fishing kiberjinoyatchilar tomonidan foydalanuvchilarni aldash yo‘li bilan ularning shaxsiy ma’lumotlarini (login, parol, bank ma’lumotlari va boshqalar) qo‘lga kiritish usulidir. Bu usulning asosida ijtimoiy muhandislik (social engineering) yotadi, ya’ni hujumchi texnik emas, psixologik ta’sir orqali odamni ishontirishga harakat qiladi. Fishing hujumlari elektron pochta, soxta veb-saytlar, SMS yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. DDoS hujumlari server yoki veb-saytni ortiqcha yuklama bilan to‘ldirish orqali uning faoliyatini to‘xtatishni maqsad qiladi. Bu hujumlar ko‘pincha hakerlar tomonidan nazorat qilinadigan minglab zararlangan qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.

Professor A.Nurmatovning tadqiqotlarida amaliy hujum senariylarini modellash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ekanligi ko‘rsatiladi. Tarmoq muhitini segmentlashtirish, kirishni ko‘p omilli autentifikatsiya bilan cheklash, xavflarni baholashning avtomatlashgan usullarini joriy etish hujumlar samaradorligini keskin pasaytiradi [3].

Shu bilan birga, zamonaviy tahdidlarni aniqlash va bartaraf etishda mashinaviy o‘qitish texnologiyalari tobora muhim o‘rin egallamoqda. Dunyo miqyosida bu sohadagi tadqiqotlar kengaygani kabi, O‘zbekistonda ham sun’iy intellektga asoslangan kiberxavfsizlik mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha ilmiy ishlar yetarlicha. Jumladan, A.Daminov va U.Raxmonovlar tarmoq trafikida anomal faoliyatni ML modellari yordamida aniqlash bo‘yicha bir qator natijalarga erishgan va buni mavjud kibermonitoring tizimlariga integratsiya qilishni taklif qilgan [4]. Ularning fikricha, AI asosidagi tahlil tizimlari klassik fayl-signaturali usullarga nisbatan tezroq va aniqroq ishlaydi, chunki ular noma’lum tahdidlarni ham faol aniqlay oladi.

Zero Trust arxitekturasi masalasi ham mamlakatimiz olimlarining diqqat markazida turibdi. Axborot xavfsizligi bo‘yicha mahalliy ekspertlar A.Xudayberdiev, B.Karimov va boshqalar zamonaviy korporativ muhitda ichki segmentlarni ham tashqi tarmoq kabi xavfli muhit sifatida qabul qilish zarurligini ta’kidlagan. Ularga ko‘ra, «ishonchsizlik tamoyili»ni joriy etish davlat xizmatlari platformalari, bank infratuzilmasi va elektron to‘lov tizimlari uchun ayniqsa muhim. Bu nafaqat hujumlar tarqalishini cheklaydi, balki tahdidlar yuzaga kelganda zararning lokallashuvini ham yaxshilaydi [5].

Kiberhimoyaning yana bir dolzarb yo‘nalishi post-kvant kriptografiyasi. Dunyo bo‘ylab kvant-kompyuterlarning rivojlanishi mavjud shifrlash usullarining kuchini pasaytiradi. Shuning uchun NIST tomonidan ishlab chiqilayotgan yangilangan standartlar, xususan CRYSTALS-Kyber va Dilithium kabi algoritmlar, kelgusi yigirma yillikda shifrlashning asosiy standartiga aylanishi mumkin [6].

Kiberxavfsizlikning amaliy jihatlari orasida inson omili, korporativ kibergigiena va foydalanuvchilarni o‘qitish ham ustuvor ahamiyatga ega. ENISA va IBM hisobotlarida qayd etilganidek, dunyodagi kiberxujumlarning kamida 70% inson xatosi yoki e’tiborsizligi tufayli sodir bo‘ladi [7]. Mahalliy mutaxassislar ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlab, tashkilotlarning xavfsizlik madaniyatini shakllantirishi, xodimlar uchun muntazam treninglar o‘tkazishi, fishing simulyatsiyalari tashkil etishi va parol siyosatida qat’iy me’yorlarga amal qilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda kiberxavfsizlik sohasida multiqabatli himoya kontseptsiyasini joriy qilish bo‘yicha amaliy ishlar kuzatilmoqda. Tarmoq himoyasi, dasturiy ta’minotni himoya qilish, ma’lumotlarni shifrlash, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish, SIEM va SOAR muassasalarini tatbiq etish kabi vositalar birgalikda qo‘llanilganda hujumlarning oldini olish va zararni kamaytirish imkoniyati keskin oshadi. Kiberxavfsizlik markazining yillik hisobotlarida ham bunday kompleks yondashuvning ahamiyati bir necha bor qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, kiberhujumlar tahdidi nafaqat global miqyosda, balki O‘zbekiston uchun ham strategik muammolardan biriga aylangan. Infratuzilmani himoya qilish faqat texnik yechimlar bilan emas, balki inson kapitali, huquqiy baza, tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik va innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlanishi kerak. AIga asoslangan tahdidlarni aniqlash, Zero Trust arxitekturasi, post-kvant kriptografiyasi va foydalanuvchilar xavfsizligi madaniyatini kuchaytirish kiberxavfsizlikni ta’minlashning eng zamonaviy yo‘nalishlaridir. O‘zbekistonlik olimlar va mutaxassislarning ilmiy izlanishlari ham shu yo‘nalishda faol rivojlanmoqda va milliy kibermakonni himoya qilishning mustahkam nazariy hamda amaliy asosini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов С. Axborot xavfsizligida inson omili. – Тошкент: TATU нашриёти, 2021. – 120 б.

2. Нурматов А. Kiberhujumlar modeli va tarmoq himoyasi. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2022. – 156 б.

3. Даминов А., Рахмонов У. Machine Learning asosida kiberxavfsizlik // TATU Ilmiy axboroti. – 2023. – №2. – Б. 45–58.

4. Symantec. Internet Security Threat Report. – California: Symantec Corp., 2021. – 110 c.

5. ENISA. Phishing Threat Landscape 2023. – EU Agency for Cybersecurity, 2023.

6. Google. BeyondCorp: A New Approach to Enterprise Security. – Google Research, 2014.

7. NIST. Post-Quantum Cryptography Standards. – Gaithersburg: NIST, 2022.

8. IBM Security. SIEM and SOAR Overview. – IBM Corp., 2021.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Karimova Muhlisa Azizbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

XXI asr boshlaridan boshlab globallashuv jarayonlari dunyoning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotida ulkan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot almashinuvi tezligi, internet va raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi, xalqaro muloqotning kuchayishi natijasida jamiyat hayotining barcha jabhalari global miqyosda integratsiyalashmoqda. Ayniqsa, globallashuvning yoshlar ongiga, ularning dunyoqarashi va ma’naviyati shakllanishiga ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Bugungi yoshlar raqamli makon, ijtimoiy tarmoqlar, turli g‘oyalar va madaniy oqimlar kesishgan global axborot muhitida voyaga yetmoqda. Bu jarayon bir tomondan ularga dunyo miqyosidagi yutuqlar, ilg‘or bilimlar, ochiq muloqot imkoniyati, innovatsion fikrlash kabi ijobiy omillarni taqdim etayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan ma’naviy bo‘shliq, begona madaniyatga taqlid, iste’molchilik kayfiyati va milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta’lim tizimida, oilada va jamiyatda ma’naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.[1] Chunki kuchli ma’naviyatga ega yoshlar – kelajak jamiyatining intellektual salohiyati, milliy g‘ururi va mustaqil tafakkuri shakllangan avlod demakdir. Mazkur maqolada globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, ma’naviy tahdidlar, mavjud imkoniyatlar hamda yoshlarning ma’naviy yetukligini ta’minlash yo‘llari ilmiy tahlil etiladi.

Globallashuv jarayoni yoshlar uchun yangi imkoniyatlar va keng ufqlar ochmoqda. Avvalo, axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yoshlar dunyoning istalgan nuqtasidagi ilmiy yangiliklar, innovatsiyalar, madaniyat va ta’lim dasturlaridan xabardor bo‘lib bormoqda. Virtual kutubxonalar, onlayn kurslar, xorijiy tillarni o‘rganish imkonining kengayishi yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, madaniy xilma-xillik bilan tanishish, boshqa xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlari va turmush tarzini o‘rganish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi.[2] Bu jarayon tolerantiya, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi. Global axborot maydonida faol bo‘lgan yoshlar tashabbuskorlik, ijodkorlik, tezkor fikrlash kabi fazilatlarga ega bo‘lib, raqamli dunyo talablariga moslashmoqda.

Globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri

Globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham mavjud. Eng avvalo, dunyo bo‘ylab tarqalgan begona madaniyat, turmush tarzi va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

[2] To‘xtayev A. Globallashuv sharoitida yoshlar ongining shakllanishi. – Toshkent, 2020.

ma’naviy qadriyatlarga taqlid qilish yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliq paydo qilishi mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan yengil-yelpi kontent, iste’molchilik mafkurasi, zo‘ravonlik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi materiallar yoshlar ma’naviy olamiga jiddiy zarar yetkazadi. Yana bir muhim muammo — milliy o‘zlikning susayishi. Ba’zi yoshlar o‘zining milliy qadriyatlari, ona tili, urf-odatlari va tarixiga nisbatan befarqlashib, chet el madaniyatini ortiqcha ideallashtirib qo‘yadi. Bu esa ma’naviy tahdidlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, globallashuv sharoitida paydo bo‘ladigan axborot xurujlari, yolg‘on va manipulyativ ma’lumotlar yoshlarni chalg‘itib, ularning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Raqamli savodsizlik esa yoshlarning internetdagi zararli oqimlarga tez tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

2. Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlar

Madaniy ekspansiya: Begona madaniyatning mahalliy qadriyatlardan ustun bo‘lib borishi. Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy axborotlarning ko‘payishi: Zo‘ravonlik, yengil hayot, ma’naviyatsizlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar. G‘oyaviy bo‘shliq: Yoshlarning mustahkam dunyoqarashga ega bo‘lmasligi. Onlayn ekstremizm va radikal g‘oyalarning tarqalishi: Yoshlarning noto‘g‘ri axborot manbalariga ishonib qolishi. Virtual hayotga berilish: Haqiqiy hayotdagi munosabatlar susayishi, ruhiy tushkunlikka olib kelishi. Bu tahdidlar yoshlarning ma’naviy immuniteti kuchsiz bo‘lsa, yanada kuchayib boradi.

Globallashuv jarayonlari yoshlarning ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi yoshlarning dunyoqarashini keskin o‘zgartirib, ularning axborot qabul qilish ko‘nikmalarini yangilamoqda.[1] Bugungi yoshlar global madaniyat mahsulotlari — filmlar, musiqalar, moda yo‘nalishlari va turli g‘oyalarni tezda qabul qilish imkoniga ega. Bu jarayon bir tomondan keng fikrlashni, ijodkorlikni rivojlantirsa, boshqa tomondan milliy qadriyatlarga beparvolik, o‘zlikni yo‘qotish kabi xavflarni tug‘diradi. Shu bois mamlakatimizda yoshlarga oid siyosat doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlikni rivojlantirish, yoshlarni ijtimoiy faol bo‘lishga undash, ularga sog‘lom axborot makoni yaratish kabi yo‘nalishlar kuchaytirilib bormoqda. Bu esa globallashuvning salbiy ta’sirlarini kamaytirib, yoshlar ma’naviyatining barqaror shakllanishiga yordam beradi.

Globallashuv jarayonlari bugungi yoshlar ma’naviy hayotiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalar rivoji, axborot oqimining keskin ortishi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, shu bilan birga ma’naviy bo‘shliq, begona mafkuralarning kirib kelishi, iste’molchilik kayfiyati kabi xavflarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish dolzarb vazifadir. Ta’lim tizimi, oila, mahalla va jamoat tashkilotlari yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yoshlarni milliy meros, tarixiy xotira, ma’naviy-ma’rifiy meros bilan tanishtirish, ularda vatanparvarlik va

[1] Qodirova S. Globallashuvning madaniy jarayonlarga ta’siri. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytiruvchi asosiy omildir.

Yoshlarning ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, zamonaviy ta’lim dasturlari va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ularda kuchli irodali, ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli avlod sifatida shakllanish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, milliy o‘zlikni asrash va yoshlarni to‘g‘ri g‘oyaviy yo‘nalishda tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Yoshlarning milliy o‘zlikni anglashini kuchaytirish, qadriyatlarimizni turli madaniy talqinlar ichida to‘g‘ri tanlashi uchun ularga tarixiy meros, adabiyot, san’at va milliy an’analar haqida chuqur ma’lumot berish muhim ahamiyatga ega. Zero, ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z madaniyatini qadrlagan yoshlar globallashuv jarayonlarida yo‘qolib ketmay, aksincha, zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini mustahkam egallay oladi.nm

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

2. To‘xtayev A. Globallashuv sharoitida yoshlar ongining shakllanishi. – Toshkent, 2020.

3. Qodirova S. Globallashuvning madaniy jarayonlarga ta’siri. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

4. Hasanov U. “Axborotlashgan jamiyat va yoshlar dunyoqarashi”. — Ma’naviyat va hayot jurnali, 2021.

БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ЮКСАЛТИРИШ ҲАМДА ЭНЕРГИЯ ТЕЖАШ ЖАРАЁНЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Касимов Санджар Магрупович
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги Саноатни ривожлантириш техник сиёсатини амалга ошириш ва экспортга кўмаклашиш бошқармаси бошлиғи

Кириш. Бугунги кунда Ўзбекистонда энергия манбалари ва улардан самарали фойдаланиш масаласи иқтисодий ривожланиш, экологияни муҳофаза қилиш ва аҳоли турмуш сифати учун муҳим аҳамият касб этмоқда. Аҳолининг ўсиши, даромадларнинг ортиши, урбанизация жараёнининг тезлашиши ва истеъмол қилиш таркибининг ўзгариши ҳисобига 2030 йилга келиб, бино-иншоотлар соҳасида энергияга бўлган талаб 2,5 баробарга ошиши кутилмоқда [1]. Бундай тенденциялар республикада биноларда энергия истеъмоли ва энергия самарадорлигини баҳолаш, ҳамда энергия тежаш чораларини амалга ошириш заруриятини юзага келтирмоқда.

Ҳозирги даврда Ўзбекистон уй-жой фонди жами 507,5 млн кв. метрни ташкил этади, шундан қишлоқ жойларда 248,1 млн кв. метр. Умумий уй-жой бинолари сони 34 584 та бўлиб, 2000 йилгача қурилган бинолар 95% ни ташкил қилади, 2000 йилдан кейин қурилганлар эса 5% ни ташкил этади [2]. Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, биноларнинг 59,6% таъмирга муҳтож ва 1,3% авария ҳолатида.

Республикада биноларда энергия ресурсларининг сарфи ҳисобга олинмаган ҳолатлар ҳам мавжуд. Масалан, иссиқ сув ҳисоблагич асбоби мавжуд бўлмаган хонадонлар 14%, совуқ сув ҳисоблагичи 12%, табиий газ ҳисоблагичи 9%, электр энергия ҳисоблагичи эса 0,8% ни ташкил этади [3]. Бу ҳолат энергия самарадорлигини оширишда тўсиқлар яратади.

Умумий энергия истеъмоли нефть эквивалентида 29,4 млн тоннани ташкил этади, шундан 9,7 млн т.н.э маиший сектор ва аҳоли истеъмолига тўғри келади. Бу энергиянинг 8,0 млн т.н.э табиий газ ва 1,7 млн т.н.э электр энергиясини ўз ичига олади [4].

Хорижий мамлакатлар билан қиёсий таҳлиллар кўрсатмоқдаки, бутун дунёда жами энергия истеъмолининг 23% турар-жой секторига тўғри келса, Ўзбекистонда ушбу кўрсаткич қарийиб 40% ни ташкил этади [5.] Бир йилда 1 квадрат метрга сарфланадиган энергия миқдори Ўзбекистонда 390 кВт·соат, Европада эса ўртача 120-150 кВт·соат. Масалан, Грецияда 200 кВт·соат, Португалияда 120 кВт·соат энергия сарфланади. Бу кўрсаткичлар республикамиз биноларининг энергия самарадорлиги пастлигини кўрсатади [6].

Шу билан бирга, республикамизда энергия самарадорлигини ошириш имкониятлари юқори. Техник нуқтаи назардан, турар-жой ва маъмурий биноларда нефть эквивалентида 7,9 млн тонна энергияни тежаш мумкин. Биноларнинг амалдаги энергия истеъмолидаги йўқотишлар асосий ҳолатлар: биноларни қуриш ва реконструкцияда норматив ва технологик камчиликлар, паст самарали иситиш ва ҳавони маромлаш тизимлари, иссиқлик сақловчи материалларнинг самарасизлиги. Йўқотишнинг 60% иситиш ва ҳавони маромлаш тизимларида, 11% иссиқ сув таъминотида содир бўлади [7].

Шунингдек, қуёш энергияси ва гелиоколлекторлардан самарали фойдаланиш орқали ҳар бир хонадонда ойига 300 кВт·соат, йилига 4 000 кВт·соат электр энергияси ишлаб чиқариш мумкин. 100 кв. м хонадонни иситиш учун икки контурли қозонда 537 куб метр табиий газ сарфланса, гелиоколлектордан фойдаланганда газ 242 куб метрга, электр энергияси 2 160 кВт·соатгача камайиши мумкин [8].

Шу билан кириш бўлимида республикада биноларда энергия истеъмоли ва самарадорлиги ҳолати, халқаро қиёслар ва энергия тежаш имкониятлари таҳлил қилинди. Бу маълумотлар мақоланинг кейинги бўлимлари – методлар, натижалар ва таҳлил учун асос бўлиб хизмат қилади.

2. МЕТОДЛАР

Тадқиқотда республикадаги биноларда энергия самарадорлигини ошириш ва энергия сарфини камайтириш бўйича комплекс таҳлил қуйидаги усуллар асосида олиб борилди:

Энергия аудитлари ва маълумотларни тўплаш

Биноларнинг энергия истеъмоли, иссиқ ва совуқ сув сарфи, электр энергияси ва табиий газдан фойдаланиш кўрсаткичлари таҳлил қилинди. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ва Бино-иновatив ахборот базаси томонидан тақдим этилган статистик маълумотлар асосий манба сифатида ишлатилди.

Энергия аудитлари биноларда иситиш ва ҳавони маромлаш тизимлари самарадорлигини аниқлаш, иссиқ сув таъминоти ва энергия сарфини таҳлил қилиш, биноларнинг қурилиш материаллари ва изоляция сифатини баҳолаш, энергия йўқотишини аниқлаш ва энергия тежаш имкониятларини ҳисоблаш. вазифаларни ўз ичига олади.

Энергетика аудитлари натижалари республика бўйича биноларнинг энергия самарадорлигини баҳолашда асосий статистик ва техник маълумот сифатида қўлланди.

Маълумотларни солиштириш

Тадқиқотда Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар, хусусан Европа давлатлари энергия истеъмоли кўрсаткичлари билан қиёс қилинди. Бир йилда 1 квадрат метрга сарфланадиган энергия миқдори Ўзбекистонда 390 кВт·соат, Европада 120-150 кВт·соат бўлиб, бу биноларнинг энергия самарадорлиги пастлигини кўрсатди.

Хорижий тажрибалардан қуйидагилар тадқиқотда эътиборга олинди:

- Грецияда 1 кв.м учун энергия истеъмоли 200 кВт·соат;
- Португалияда 120 кВт·соат;
- Ривожланган Европа давлатларида 70-80 кВт·соат энергия сарфланади.

Бу маълумотлар республикада биноларнинг энергия самарадорлигини халқаро стандартлар билан солиштириш имконини берди.

Энергия тежаш потенциали ва ҳисоб-китоб усуллари

Тадқиқотда энергия тежаш имкониятлари нефть эквивалентида ҳисобланди. Республикада турар-жой ва маъмурий биноларда энергия самарадорлигини ошириш ҳисобига жами 7,9 млн тонна нефть эквивалентида энергия тежаш мумкинлиги аниқланди.

Энергия йўқотилишини таҳлил қилишда биноларнинг иситиш ва ҳавони маромлаш тизимларида 60% энергия йўқотилиши, иссиқ сув таъминотида 11% энергия йўқотилиши, энергия сарфини ойлик ва йиллик ҳисоб-китоблар орқали таҳлил қилиш усуллари қўлланилди:

Қуёш фотоэлектр станциялари ва гелиоколлекторлар

Ҳар бир хонадонда қуёш фотоэлектр станциялари ва гелиоколлекторлардан фойдаланиш орқали электр энергияси ва иссиқ сув сарфини камайтириш ҳисобланди. Ҳисоб-китоблар қуйидагича амалга оширилди:

- ҳар бир хонадонда 2 кВтлик замонавий қуёш фотоэлектр станцияси ўрнатилганда ойига 300 кВт·соат, йилига 4 000 кВт·соат электр энергияси ишлаб чиқариш мумкин;
- 100 кв.м хонадонни иситиш учун икки контурли қозонда 537 куб метр табиий газ сарфланади;

- гелиоколлектордан фойдаланганда табиий газ 242 куб метрга ва электр энергияси 2 160 кВт·соатгача камаяди.

Иссиқлик манбаи корхоналари таҳлили

Иссиқлик манбаи корхоналари, қозонхоналар ва иситиш тизимларининг техник ҳолати таҳлил қилинди. Тадқиқотда 794 та қозонхонадан 338 та узоқ йиллардан фаолият кўрсатмайди, бу эса энергия самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Ҳисоб-китоблар асосида табиий газдан ноқонуний ва самарасиз фойдаланиш миқдори ойлик 63,6 млн куб метр ва йиллик 318 млн куб метрни ташкил этиши аниқланди. Бу кўрсаткичлар биноларда энергия самарадорлигини ошириш имкониятларини баҳолашда асос бўлди.

Маълумотларни таҳлил қилиш усуллари

Тадқиқотда қуйидаги таҳлил усуллари қўлланилди:

1. Статистик таҳлил – бинолар ва уй-жой фондлари бўйича маълумотлар, энергия истеъмоли ва йўқотишлар.
2. Солиштириш таҳлили – республика ва хорижий давлатлар энергия сарфи қиёси.
3. Техник таҳлил – бинолар, иситиш тизимлари, қозонхоналар ва қуёш энергия тизимлари ҳолати.
4. Ҳисоб-китоб таҳлили – нефть эквивалентида энергия истеъмоли ва тежам, қуёш энергияси ва гелиоколлекторлар самарадорлиги.

Бу усуллар республикада биноларда энергия самарадорлигини ошириш ва энергия сарфини камайтириш чораларини таҳлил қилишда асос бўлди.

3. НАТИЖАЛАР

Республикада биноларда энергия истеъмоли

Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, Ўзбекистонда умумий энергия истеъмоли нефть эквивалентида 29,4 млн тоннани ташкил этади, шундан маиший сектор ва аҳоли истеъмоли 9,7 млн т.н.э. ёки 8,0 млн т.н.э. табиий газ ва 1,7 млн т.н.э. электр энергиясига тенг.

Ўзбекистон уй-жой фонди жами 507,5 млн кв. метрни ташкил этади. Умумий уй-жой бинолари сони 34 584 та бўлиб, шундан 32 854 та 2000 йилгача қурилган бинолар ва 1 730 та 2000 йилдан кейин қурилган биноларни ташкил этади.

Тадқиқотлар кўрсатмоқдаки, биноларнинг 59,6% таъмирга муҳтож ва 1,3% авария ҳолатида. Ҳисоб-китоблардан кўриниб турибдики, биноларда энергия йўқотишларига асосий сабаблар: биноларни қуришда ва реконструкция қилишда норматив ва технологик камчиликлар, иситиш ва ҳавони маромлаш тизимларининг паст самарадорлиги ҳамда иссиқлик сақловчи материалларнинг самарасизлиги.

Хорижий давлатлар билан қиёс

Бутун дунёда жами энергия истеъмолининг 23% турар-жой секторига тўғри келса, Ўзбекистонда ушбу кўрсаткич қарийиб 40% ни ташкил этади. Бир йилда 1 квадрат метрга сарфланадиган энергия миқдори республикада 390 кВт·соат, Европа давлатларида эса 120-150 кВт·соат. Масалан, Грецияда 200 кВт·соат,

Португалияда 120 кВт·соат энергия сарфланади. Бу кўрсаткичлар биноларнинг халқаро стандартларга нисбатан энергия самарадорлиги пастлигини кўрсатади.

Ривожланган Европа давлатларида бинолар энергия самарадор ҳисобланиши учун йиллик 1 кв.м сарфи 70-80 кВт·соатдан кам бўлиши лозим. Ўзбекистон биноларида эса бу кўрсаткич бир неча баробар юқори бўлиб, энергия тежаш имкониятларини кўрсатади.

Республикада энергия тежаш имкониятлари

Тадқиқот натижаларига кўра, республикадаги турар-жой ва маъмурий биноларда техник нуқтаи назардан энергия самарадорлигини ошириш ҳисобига нефть эквивалентида жами 7,9 млн тонна энергияни тежаш мумкинлиги аниқланди.

Шу жумладан, маъмурий бинолар бўйича 2 млн тонна; турар-жой бинолари бўйича 5,9 млн тонна нефть эквиваленти. Энергия йўқотишининг асосий қисмини иситиш ва ҳавони маромлаш тизимлари ташкил қилади (60%), иссиқ сув таъминотида эса 11% энергия йўқолади.

Қуёш фотоэлектр станциялари ва гелиоколлекторлар самарадорлиги

Ҳисоб-китоблар кўрсатмоқдаки, ҳар бир хонадонда ўртача 2 кВтлик қуёш фотоэлектр станцияси ўрнатилса, ойига 300 кВт·соат, йилига 4 000 кВт·соат электр энергияси ишлаб чиқариш мумкин.

100 кв.м хонадонни иситиш учун икки контурли иситиш қозонида 537 куб метр табиий газ сарфланади; электр иситиш қурилмаси билан 4 800 кВт·соат энергия талаб этилади; гелиоколлектордан фойдаланганда газ 242 куб метрга, электр энергияси 2 160 кВт·соатгача камаяди.

Бу кўрсаткичлар қуёш энергиясидан фойдаланиш орқали энергия истеъмоли сезиларли даражада камайиши мумкинлигини кўрсатади.

Иссиқлик манбаи корхоналари таҳлили

Республикадаги 794 та қозонхонадан 338 таси узоқ йиллардан фаолият кўрсатмайди. Шунинг оқибатида бинолар учун энергия таъминоти самарасиз бўлиб, табиий газ ва электр энергияси юқори миқдорда сарфланади.

Ҳисоб-китоблардан кўриниб турибдики, кўп қаватли уйларда ностандарт газ жихозлари ва комфоркали газ плиталаридан фойдаланиш натижасида ойлик 63,6 млн куб метр ва йиллик 315 млн куб метр табиий газ белгиланган меъёрдан ортиқча сарфланади. Бу биноларда энергия самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади.

4. ТАҲЛИЛ ВА МУҲОҚАМА

Республикадаги биноларда энергия йўқотишлари ва сабаблари

Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, республикадаги биноларда энергия йўқотишларининг асосий сабаблари биноларни қуриш ва реконструкция қилишда норматив ва технологик камчиликлар, қурилишда қўлланиладиган иссиқлик сақловчи материалларнинг паст самарадорлиги, иситиш ва ҳавони маромлаш тизимларининг паст самарадорлиги, олдинги йилларда қурилган биноларнинг техник кўрсаткичлари ҳозирги замон энергия самарадорлиги талабларига жавоб бермаслигини қайд этиш мумкин.

Шу сабабли бинолардаги энергия истеъмоли юқори бўлиб, нефть эквивалентида жами 7,9 млн тонна энергияни тежаш имконияти мавжуд.

Қуёш энергиясидан фойдаланиш ва энергия тежаш имкониятлари

Таҳлилга кўра, қуёш фотоэлектр станциялари ва гелиоколлекторлардан фойдаланиш орқали биноларда энергия сарфи сезиларли даражада камайиши мумкин. 100 кв.м хонадонни гелиоколлектор билан иситиш табиий газ ва электр энергиясини ҳар ой 242 куб метр ва 2 160 кВт·соатгача камайтиради.

Бу кўрсаткичлар биноларда энергия самарадорлигини оширишда замонавий технологияларни жорий қилишнинг самарадорлигини кўрсатади. Шунингдек, ҳар бир хонадонда 2 кВтлик қуёш фотоэлектр станцияси орқали ойлик 300 кВт·соат, йилига 4 000 кВт·соат электр энергияси ишлаб чиқариш мумкинлиги аниқланди.

Иссиқлик манбаи корхоналари ва энергия самарадорлигини ошириш чоралари

Республикадаги 794 та қозонхонадан 338 таси узоқ йиллардан фаолият кўрсатмайди, бу эса бинолар учун энергия таъминоти самарасиз бўлишининг асосий сабаби ҳисобланади[3].

Энергия самарадорлигини ошириш мақсадида қуйидагилар амалга оширилиши тавсия этилади:

- қозонхоналарда сув таъминотида қуёш сув иситгичларини ўрнатиш;
- янги биноларда замонавий қуёш фотоэлектр станциялари ва иссиқ сув таъминоти тизимларини жорий этиш;
- иссиқлик насослари орқали биноларни иситиш ва совутиш тизимини яратиш;
- биноларнинг изоляция ва иситиш тизимларини замонавий стандартларга мувофиқ реконструкция қилиш.

Бу чоралар натижасида энергия ресурсларини 45% гача тежаш ва ижтимоий объектларда энергия сарфини 3 баробар камайтириш имконияти мавжуд.

Халқаро тажриба ва миллий қиёс

Хорижий давлатлар билан солиштирганда, Ўзбекистонда биноларда энергия сарфи юқори бўлиб, Европа стандартларига нисбатан 2-3 баробар кўп. Масалан, Европа давлатларида 1 кв.м учун энергия истеъмоли 70-150 кВт·соат бўлиб, республикада эса 390 кВт·соатга тенг.

Бу ҳолат биноларда энергия самарадорлигини оширишда халқаро стандартлар ва тажрибалардан фойдаланишнинг зарурлигини кўрсатади. Япония ва Европа давлатларида қуёш энергиясини жорий қилиш, биноларни энергия самарадорлиги даражаси бўйича сертификатлаш ва энергия аудитлари орқали самарали натижаларга эришилган. Ўзбекистонда ҳам шу методологияни қўллаш самарали бўлади.

Иқтисодий ва экологик самаралар

Энергия самарадорлигини ошириш натижасида энергия ресурсларини камайтириш орқали иқтисодий тежамкорлик, иссиқлик манбаи корхоналарида газ ва электр энергияси истеъмолини қисқартириш, атмосферага чиқариладиган парник газлари миқдорини камайтириш, аҳоли хонадонлари ва ижтимоий сектор

биноларида энергия таъминоти сифати ва барқарорлигини ошириш каби самаралар кузатилиши мумкин.

Ҳисоб-китоблар кўрсатмоқдаки, қуёш энергия тизимлари орқали аҳоли хонадонларида энергия сарфи 40-45% гача камайтирилиши мумкин, ижтимоий объектларда иссиқлик насослари орқали энергия сарфи 3 баробар камайиши мумкин.

ХУЛОСА

Асосий натижалар

Тадқиқот натижалари кўрсатмоқдаки, Ўзбекистонда биноларда энергия истеъмоли юқори ва энергия йўқотишлари сезиларли даражада. Республикадаги уй-жой ва маъмурий биноларнинг умумий энергия истеъмоли нефть эквивалентида 29,4 млн тоннани ташкил этади, шундан 9,7 млн тонна маиший сектор ва аҳоли истеъмолига тўғри келади.

Биноларнинг энергия йўқотишлари асосан иситиш ва ҳавони маромлаш тизимларида (60%), иссиқ сув таъминотида (11%) содир бўлади. Республикадаги биноларда энергия самарадорлигини ошириш ҳисобига нефть эквивалентида жами 7,9 млн тонна энергияни тежаш мумкин, шу жумладан турар-жой биноларида 5,9 млн тонна, маъмурий биноларда 2 млн тонна.

Энергия самарадорлигини ошириш чоралари

Тадқиқот кўрсатмоқдаки, энергия сарфини камайтириш ва биноларда энергия самарадорлигини ошириш учун қуйидаги чоралар самарали ҳисобланади:

- янги қуриладиган биноларда замонавий қуёш фотоэлектр станцияларини ва гелиоколлекторларни ўрнатиш;
- иссиқлик насослари орқали биноларни иситиш ва совутиш тизимини жорий қилиш;
- қозонхоналарда сув таъминотида қуёш сув иситгичларини жорий этиш ва дастлабки сув ҳароратини 30-60 градусгача ошириш;
- биноларнинг изоляция ва иситиш тизимларини замонавий стандартларга мувофиқ реконструкция қилиш;
- биноларда энергия аудитларини ва энергия паспорти тизимини жорий этиш.

Бу чоралар орқали энергия ресурсларини 45% гача тежаш ва ижтимоий объектларда энергия сарфини 3 баробар камайтириш мумкин.

Халқаро тажриба ва қиёс

Хорижий тажрибалардан кўринадики, Европа ва Японияда биноларда энергия самарадорлигини ошириш учун қуёш энергиясини жорий этиш, биноларни энергия самарадорлиги даражаси бўйича сертификатлаш ва энергия аудитлари самарали қўлланилмоқда. Ўзбекистонда ҳам шу тажрибалардан фойдаланиш биноларнинг энергия сарфини сезиларли даражада камайтиради.

Иқтисодий ва экологик самара

Энергия самарадорлигини ошириш натижасида республикада қуйидаги самаралар кузатилиши мумкин:

- энергия ресурслари истеъмолини камайтириш орқали иқтисодий тежамкорлик;

- иссиқлик манбаи корхоналарида газ ва электр энергияси сарфини қисқартириш;
- атмосферага чиқариладиган парник газлари миқдорини камайтириш;
- аҳоли хонадонлари ва ижтимоий объектларда энергия таъминоти сифати ва барқарорлигини яхшилаш.

Келгусидаги имкониятлар

Ўзбекистонда биноларда энергия самарадорлигини янада ошириш учун бинолар ва иншоотларнинг энергия самарадорлиги даражаси бўйича миллий стандартларни янада такомиллаштириш, қуёш энергияси ва бошқа барқарор энергия манбаларини кенг жорий этиш, биноларни реконструкция қилишда халқаро тажриба ва технологияларни қўллаш, энергия аудитлари ва энергия паспорти тизимини жорий қилиш орқали биноларда энергия истеъмолини мониторинг қилиш мақсадга мувофиқ.

Шу чоралар республикадаги биноларда энергия самарадорлигини ошириш, энергия сарфини камайтириш ва экологик барқарорликка эришишда муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар/литература:

1. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги. Энергия истеъмоли статистикаси. Ташкент, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Бино-иновatив ахборот базаси. Ташкент, 2023.
3. Энергетика вазирлиги ҳисоботлари. Ташкент, 2022.
4. International Energy Agency. Energy Efficiency 2022. Paris, 2022.
5. Eurostat. Energy consumption in households. Luxembourg, 2021.
6. Global Alliance for Buildings and Construction. Global Status Report 2021. Paris, 2021.
7. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳисоботлари. Ташкент, 2022.
8. IRENA. Solar Heating and Cooling: Technology Brief. Abu Dhabi, 2021.
9. Ўзбекистон Республикаси Газ қўмитаси ҳисоботлари. Ташкент, 2022.

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI, MEDIA MAKON VA MA’NAVIY XAVFSIZLIK

Kayumova Lobar va Sadullayeva Ruxshona
O‘zMU talabalari

Raqamli texnologiyalar va global media maydoni O‘zbekistonni axborot-kommunikatsiya makonini shakllantirish va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalalariga majbur qilmoqda. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn media faol ishlatiladi, bu esa ijobiy ta’lim va tarbiya imkoniyatlari bilan birga radikallashuv va dezinformatsiya xavfini ham oshiradi.

O‘zbekistonning axborot siyosati va davlat qarorlari bu xatarlarni bartaraf etish, milliy kontentni rivojlantirish va yoshlarni himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, media-savodxonlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston axborot siyosati va Prezident Shavkat Mirziyoyev qarashlari

O‘zbekiston Respublikasida axborot siyosati davlat tomonidan axborot maydoni, media-kommunikatsiya va raqamli infratuzilmani tartibga solish, milliy kontentni rivojlantirish va fuqarolarni ma’naviy, axborot va ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida shakllantirilgan.

Axborot siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Milliy suverenitetni ta’minlash – axborot maydonida O‘zbekiston manfaatlarini himoya qilish va milliy axborot xavfsizligini mustahkamlash.

2. Ma’naviy xavfsizlikni kuchaytirish – yoshlarni radikallik va zararli kontentdan himoya qilish, ijtimoiy ong va tarbiyani mustahkamlash.

3. Media-savodxonlikni rivojlantirish – tanqidiy fikrlash va axborotni baholash qobiliyatini oshirish.

4. Milliy kontentni targ‘ib qilish – madaniy meros va milliy qadriyatlarni yoshlar va keng jamoatchilik orasida kengaytirish.

O‘zbekistonda axborot siyosati bilan bog‘liq muhim yo‘nalishlardan biri media-savodxonlik hisoblanadi. Media-savodxonlik dasturlari yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiya, ekstremistik kontent va zararli axborotdan himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu dasturlar yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston axborot siyosati nafaqat ichki xavfsizlikni ta’minlaydi, balki yoshlar ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va global axborot maydonida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu siyosat yoshlarni zararli axborotdan himoya qiluvchi, milliy kontentni rivojlantiruvchi va media-savodxonlikni oshiruvchi tizim sifatida amalga oshiriladi. O‘zbekistonda axborot sohasida olib borilayotgan siyosat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Har kim fikrklash, so‘z va e’tiqod erkinligi huqquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” [1].

Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’kidlagan: “Agar biz milliy kontent yaratmasak va voqealarga milliy manfaat nuqtai nazaridan baho bermasak, odamlar yangilik va tahlilga bo‘lgan ehtiyojini xorijiy media to‘ldiradi.” U jurnalistlar va OAV xodimlariga murojaatida: “Informatsion sohada ertangi g‘unchalarimiz tarbiyalanmoqda” deb yoshlar ongini shakllantirish va media-savodxonlik zaruratini ta’kidlaydi [2].

O‘zbekiston axborot siyosati davlat suvereniteti, milliy kontent, yoshlar ma’naviy xavfsizligi va media-savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, siyosiy va madaniy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Global media xatarlar va yoshlar

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar global media maydonini shakllantirdi. Yoshlar bu maydondagi eng faol foydalanuvchilar hisoblanadi. Global axborot oqimi tezligi, kontentning turli xilligi va interaktivligi yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Global media maydoni yoshlarni ijobiy va salbiy tarzda shakllantiradi. Shu sababli, yoshlar ongini

to‘g‘ri yo‘naltirish, media-savodxonlikni oshirish va ijtimoiy monitoring muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarning xavf omillari:

Ekstremistik kontent tarqalishi: Facebook, Telegram, TikTok kabi platformalarda yoshlar radikal guruhlar kontentiga duch keladi.

Shaxsiy ma’lumotlarning suiiste’moli: Onlayn shaxsiy ma’lumotlar noqonuniy foydalanish va kiberxavfsizlik xavfini oshiradi.

Ijtimoiy ta’sir va guruh bosimi: Yoshlar onlayn guruhlar orqali noto‘g‘ri xatti-harakatlar, stereotiplar va zararli qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongini shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib, u ijobiy qadriyatlarni targ‘ib qilishi yoki radikallashuv va dezinformatsiyani kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, nazorat, media-savodxonlik va yoshlarni onlayn xavflardan himoya qilish choralari zarur.

UNESCO 2017-yilda tayyorlagan hisobotda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni radikallashuvga undovchi asosiy sabab emas, balki radikallik jarayonini quvvatlovchi omil ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, yoshlar orasida ekstremistik kontent tarqalishi va guruhlararo aloqalar ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi [3]. Global media maydoni yoshlar ongini shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib, u ijobiy ma’naviy qadriyatlarni tarqatishi yoki salbiy radikal kontentni tarqatishi mumkin. Shu sababli media-savodxonlik va ijtimoiy monitoring muhim.

3.Dezinformatsiya va media-savodxonlik

Dezinformatsiya – yolg‘on, manipulyatsiya qilingan va noto‘g‘ri axborot yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Media-savodxonlik – yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga, manipulyatsiyani aniqlashga va ishonchli manbalarga tayangan holda qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Yoshlar media-savodxonlik orqali global media xatarlariga qarshi himoya qilinishi mumkin. Shu bilan birga, davlat va jamiyatning yoshlar bilan interaktiv ishlashi, ijobiy kontent yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

OSCE hisobotida media-savodxonlik yoshlarni raqamli maydondagi dezinformatsiya va manipulyatsiyadan himoya qiluvchi asosiy vosita sifatida belgilangan. Hisobotlarda media-savodxonlik orqali yoshlar “online narratives”ni tahlil qilish, yolg‘on yoki manipulyatsiya qilingan kontentni ajratib olish, fact-checking, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallashi kerakligi aytiladi. Shuningdek, media-savodxonlik yoshlarni radikallashuv va ekstremistik propagandadan himoya qiluvchi strategiyalarning bir qismi sifatida ko‘riladi — ya’ni, mediada tarqaladigan ekstremistik, manipulyativ va dezinformatsion kontentga qarshi bilimsiz emas, bilimli va tanqidiy kayfiyatda bo‘lishga qaratilgan [4].

O‘zbekiston yoshlarining global media maydoniga kirishi ijobiy va salbiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli:

Milliy kontentni rivojlantirish va targ‘ib qilish, yoshlarni ijobiy axborot bilan ta’minlash.

Media-savodxonlikni maktab va oliy ta’limga joriy etish.

Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda yoshlarni nazorat qilish va xavfsizligini ta’minlash.

Global media xatarlariga qarshi kurashish, yoshlarni dezinformatsiya, radikallashuv va zararli kontentdan himoya qilish O‘zbekistonning axborot siyosati va ma’naviy xavfsizligining asosiy vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda media-savodxonlikni oshirish, fact-checking va etik media amaliyotlarini rivojlantirish dezinformatsiyadan himoya qilishning eng samarali yo‘li. Maktab va oliy ta’limda media-savodxonlik darslarini joriy etish, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish zarur.

4.Mahalliy tajriba va amaliy chora-tadbirlar

O‘zbekistonda axborot xavfsizligi bo‘yicha amaliyotlar mavjud: Media-savodxonlik bo‘yicha treninglar va seminarlar yoshlar, jurnalistlar va davlat vakillarini birlashtiradi. Milliy strategiya va qarorlar axborot xavfsizligini mustahkamlash, onlayn media monitoring va yoshlarni xavfli kontentdan himoya qilish choralarini belgilaydi. Media-savodxonlik yoshlarni radikallikdan va dezinformatsiyadan himoya qiluvchi “qalqon” bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda “Axborot erkinligining tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun 2002-yilda qabul qilingan. “Ushbu qonun talablariga muvofiq, bugun barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar har kimga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashga majburdirlar” [5].

5. Sun’iy intellekt va yangi texnologiyalar

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan soxta kontent (video, audio, matn) ko‘payib bormoqda. Shu sababli: Texnologik himoya vositalari va fact-checking birgalikda ishlatilishi kerak. Media-savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologik himoya bilan uyg‘unlashgan holda samarali bo‘ladi. Sun’iy intellekt yoshlar va jamiyatni global media xatarlaridan himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi, ammo uning noto‘g‘ri ishlatilishi yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Uning yordamida xavfli kontent tarqalishini oldini olish va yoshlar ongini ijobiy axborot bilan shakllantirish mumkin, ammo shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, etik va huquqiy me’yorlarni hisobga olish zarur.

Sun’iy intellekt va yangi texnologiyalar media-savodxonlik bilan uyg‘un ishlaganda yoshlarni global media xatarlaridan samarali himoya qiladi. Shu bilan birga, u milliy kontentni targ‘ib qilish va axborot suverenitetini mustahkamlashda ham yordam beradi. Sun’iy intellekt va yangi texnologiyalar O‘zbekiston axborot siyosati va ma’naviy xavfsizlik tizimida asosiy vosita bo‘lib, yoshlarni himoya qilish va milliy kontentni targ‘ib qilishda samarali ishlatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning axborot siyosati va Shavkat Mirziyoyev qarashlari global va mahalliy media xatarlarini uyg‘unlashtirib, ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan. Yoshlarni radikallashuv va dezinformatsiyadan himoya qilish, media-savodxonlik va tanqidiy fikrlashni oshirish, milliy kontentni rivojlantirish —

axborot suvereniteti va fuqarolik immunitetini mustahkamlashning asosiy omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2010. – 29- modda.

2. Kun.uz. “President Mirziyoyev congratulates journalists, announces new reforms for media sector.” 2025. https://kun.uz

3. UNESCO. Youth and Violent Extremism on Social Media: Mapping the Research. 2017. https://www.unesco.org

4. OSCE. Strengthening Media and Information Literacy in the Context of Preventing Violent Extremism and Radicalization. 2024. https://www.osce.org

5. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligining tamoyillari va kafolatlari tўg‘risida”gi (2002 y.) Qonunining 8 modda. Axborot erkinligi kafolatlari. https://norma.uz

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA O‘SIMLIKLARNING FENOLOGIK O‘ZGARISHLARI VA IQLIM O‘ZGARISHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BIOSTATISTIK TAHLIL QILISH

Kenjaboyeva Nurhayot Nurulla qizi
O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Iqlim o‘zgarishi XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy ekologik muammolardan biri bo‘lib, biosferaning barcha komponentlariga — atmosfera, gidrosfera, pedosfera va biosferaga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlimning isib borishi natijasida dunyo miqyosida biologik ritmlar, ayniqsa o‘simliklarning fenologik jarayonlari jadal sur’atda o‘zgarib bormoqda. Fenologik o‘zgarishlar o‘simliklarning yashash siklining turli bosqichlari — urug‘ unishi, barg yozish, gullash, mevaga kirish va barg to‘kilish kabi jarayonlarning vaqt jihatdan siljishi yoki davomiyligining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston hududida iqlimning quruqlashuvi, qish faslining qisqarishi, bahor va yoz oylaridagi harorat ko‘tarilishi natijasida tabiiy o‘simliklar hamda qishloq xo‘jalik ekinlarining rivojlanish dinamikasi o‘zgarib bormoqda. Misol uchun, bug‘doyning gullash davri so‘nggi 20 yilda o‘rtacha 8–9 kun oldin boshlangan, bodom va o‘rik daraxtlarida esa erta gullash tufayli sovuq zarbalarga uchrash xavfi ortgan. Bu esa o‘z navbatida hosildorlikni kamaytiradi va ekotizim barqarorligiga tahdid soladi.

Fenologik o‘zgarishlarni ilmiy o‘rganish iqlim o‘zgarishining biologik oqibatlarini tahlil qilishda eng muhim indikatorlardan biridir. Chunki o‘simliklar abiotik omillarga, ayniqsa harorat va namlikka sezgir. Shu bois, o‘simliklarning fenologik javobini biostatistik modellar orqali o‘rganish iqlim bashoratini yaxshilash, moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish va biologik xilma-xillikni saqlash uchun zarurdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonning turli tabiiy zonalarida o‘simliklarning fenologik bosqichlari o‘zgarishlarini tizimli tahlil qilish, iqlim omillari bilan statistik bog‘liqligini aniqlash va fenologik monitoringning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot 2000–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonning uchta asosiy mintaqasi — Farg‘ona vodiysi (nam iqlim), Zarafshon vodiysi (yarim qurg‘oqchil), va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (cho‘l iqlimi) hududlarida olib borilgan.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida quyidagi asosiy o‘simlik turlari tanlandi:

Bug‘doy (Triticum aestivum L.),

Lola (Tulipa gesneriana L.),

Bodom (Amygdalus communis L.),

Saksovul (Haloxylon aphyllum).

Bu turlar turli ekologik zonalarda uchraydi va iqlimga sezgirligi yuqori.

Ma’lumotlar bazasi va usullar. Har yili fenologik kuzatishlar (gullash, barg yozish, mevaga kirish va qurish sanalari) olib borildi. Iqlim ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Gidrometeorologiya xizmati ma’lumotlari asosida olindi (o‘rtacha harorat, yog‘in miqdori, quyoshli kunlar soni). Biostatistik tahlil uchun “R-statistics” dasturidan foydalanildi:

Korrelyatsiya tahlili (r) – harorat va fenofazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun;

Dispersiya tahlili (ANOVA) – hududlar o‘rtasidagi farqlarni baholash uchun;

Regressiya modeli – harorat o‘zgarishi asosida fenologik bosqichlarning siljish darajasini bashorat qilish uchun.

Natijalarni ishonchlilik darajasi.Har bir model uchun ishonchlilik (p-qiymat) < 0.05 deb belgilandi, bu esa statistik ahamiyatlilikni kafolatlaydi.

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston hududida o‘rtacha harorat 2000–2024-yillar davomida 1,2–1,5°C ga oshgan. Shunga mos ravishda o‘simliklarning fenologik bosqichlari o‘rtacha 5–10 kun oldinroq sodir bo‘layotgani kuzatildi. Bug‘doy uchun gullash bosqichi 2000-yillarda 25-aprel atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yillarda 14–16-aprelga siljigan. Lola (bahorgi efemer) turlarining gullash muddati 7–9 kun oldin boshlangan, bu esa erta bahor haroratining ortishi bilan izohlanadi**.** Bodom daraxtining mevaga kirish davri esa har yili o‘rtacha 0,3 kun/ yil tezlashgan.

Fenofazalar bilan iqlim o‘zgarish o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti (r) o‘rtacha **–** 0.68 bo‘lib, bu salbiy, ammo kuchli bog‘liqlikni bildiradi (harorat oshgani sari fenofazalar ertaroq sodir bo‘ladi).

Bundan tashqari, cho‘l zonalarida joylashgan **Saksovul** turlarida qurg‘oqchilik stressi natijasida gullash davrining qisqarishi va vegetatsiya davrining umumiy 12–15% ga kamaygani qayd etildi.

Ushbu natijalar global miqyosda o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir (IPCC, 2023; World Bank, 2022), biroq O‘zbekiston sharoitida lokal ekologik omillar, masalan, tuproq namligi, sug‘orish tizimlari va antropogen yuklama natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududida o‘simliklarning fenologik jarayonlari iqlim o‘zgarishlariga bevosita bog‘liqligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

Haroratning ko‘tarilishi o‘simliklarning **fenologik bosqichlarini o‘rtacha 7–10 kun oldinlashtirgan;**

O‘rtacha harorat bilan gullash sanasi o‘rtasida **salbiy korrelyatsiya (r = –0.7)** mavjud;

Cho‘l hududlarida vegetatsiya davri 10–15% ga qisqargan;

Bahorgi efemerlar va mevali daraxtlar (masalan, bodom, o‘rik) iqlim isishiga nisbatan sezgir guruh hisoblanadi.

Bu o‘zgarishlar o‘simliklar va changlatuvchilar o‘rtasidagi biologik sinxronlikning buzilishiga, ozuqa zanjiri va agroekotizimlar barqarorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan:

Fenologik monitoring tizimini raqamlashtirish,

Masofaviy zondlash va sun’iy intellekt asosida biomonitoring algoritmlarini ishlab chiqish,

Iqlimga mos, stressga bardoshli o‘simlik navlarini yaratish ilmiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi zarur.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ekologik siyosatida “Yashil o‘sish strategiyasi”ni amalga oshirishda, shuningdek, milliy fenologik kuzatuv tarmog‘ini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Qodirov, A. A., va Sodiqova, N. I. (2021). O‘zbekiston florasining fenologik o‘zgarishlari va iqlim o‘zgarishi omillari. — “O‘zbekiston biologiyasi jurnali”, №3, 44–53.

2. IPCC (2023). Climate Change 2023: Impacts, Adaptation, and Vulnerability. — Cambridge University Press.

3. Ismoilov, J. E. (2022). Iqlim o‘zgarishi va o‘simlik fiziologiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik. — Toshkent: Fan nashriyoti.

4. World Bank (2022). Climate Risk Profile: Central Asia. — Washington DC.

5. Karimova, D. B. (2020). O‘zbekiston ekologik tizimlarining barqarorligi va antropogen ta’sirlar. — Toshkent: Innovatsion nashriyot.

6. Tursunov M.M. (2023). Iqlim o‘zgarishiga biologik moslashuv mexanizmlari. — “Fan va taraqqiyot”, №2, 33–41.

YOUTH SPIRITUALITY IN THE AGE OF GLOBALIZATION

Komekbayeva Albina Rashid kizi
Second-year student at the National University of Uzbekistan

Globalization is a process by which people, regardless of their geographical barriers, share the same characteristics in policy, trade, education and especially in culture. It is not only the global expansion of one dominant culture such as that of Western countries but rather the interaction of different cultures, with these features passing across borders through social media, television and direct interaction which ,according to Mohamed and Musa, are the main sources for spread of globalization[1]. It is youngsters who are now more involved in the spread of globalization since they are more adaptable to new ideas and exposed to social media such as Instagram, TikTok and Facebook where they

constantly see people from different backgrounds, countries and cultures. At present we can easily witness global similarities among young generations, particularly in their style, communication and perspectives.

The effects of globalization can be seen in many parts of our everyday lifestyle. One common example can be the shift in musical tastes among adolescents. It is a widely acknowledged view that music has an important influence on young people`s spirituality as it has the capacity to heal and uplift them spiritually, such as songs about patriotism, love and motivation for development. In the past national songs were more dominant, appearing in films, on the radio and even at parties but now this situation is rather reversed, with globally trendy music becoming prevalent everywhere. It appears that most of today`s modern and popular songs on social media seem to contain shallow, violent, aggressive and immoral content [2], and in some cases behaviors forbidden in Islamic cultures, including sensuality and murder are referenced in those songs such as "Dance with the Devil" by Immortal Technique and "Gata Only" by FloyyMenor and Cris, one of the most popular Spanish songs on social media in 2025. Young adults enjoy their short-term pleasure, yet receive no moral, spiritual and educational benefits from them. However, not all effects are negative. Among international songs, "Heal the World" by Michael Jackson and "Je te donne" by Jean-Jacques Goldman & Michael Jones encourage humanity, unity and generosity.

As is noticed today that internationalization has significantly affected youth fashion culture. Young people are more curious about wearing baggy and ripped jeans or **midriff-baring tops which conflict with cultural norms. If these fashion trends become the way they express themselves, they put more emphasis on the outer appearance, ignoring their inner development, a sense of purpose and personal beliefs which are the heart of spiritual growth.** The Internet has made modern fashion trends accessible worldwide. Celebrities and influencers on social media are believed to be the main factor driving the spread of Western culture in fashion, mainly among young people [3]. Our national celebrities and influencers are no exception. However,despite these influences, some young people may still keep aspects of their cultural and spiritual values, showning a certain resilience in their connection to tradition even in a globalized environment.

Globalization can be seen as progress in education, on the one hand. Online games, chatting and videos on social media have opened the door for young people to interact with people globally. Connecting with foreign people allows them to learn other cultures, thus challenging their pre-established beliefs and broadening their horizons. Furthermore, as the English language has become the second language almost everywhere, the importance of it lies in the access of reading a wide range of works by different researchers around the world. On the other hand, it is necessary to admit that the spread of the English language is contributing to the declining fluency of native languages. It is entering into our everyday life through music, film and literature. Therefore, youngsters are constantly using English words unnecessarily, even in their native language. Mixing English with their native language weakens their vocabulary and ability to express themselves fluently in their mother tongue [4]. For example, among

Uzbek young people, phrases including "levelini ko`tarmoq", "comment yozmoq" and "post qilmoq" are popular. As native-language fluency weakens, young people may gradually lose touch with the cultural and moral values in their mother tongue, which are essential for their spiritual development, and it might affect the transmission of cultural and spiritual heritage to the next generation

An online questionnaire was conducted among 16 Uzbek students who are 19-20 years old on 13 December 2025. The survey aimed to collect data about their fashion and musical preferences, the influence of globalization on their spirituality and to measure the level of exposure to global media, globally trendy songs, fashion trends, and whether such exposure influences their beliefs and connection to their traditional spiritual practices.

The result suggests that most respondents agreed they consume a lot of global media. The global fashion trends are popular among half of the participants, while foreign music is the most common type of music among 14 out of 16 people. Furthermore, three quarters of the respondents usually use foreign words and expressions in their daily conversation. Although 50% of the participants claimed that global culture changes their beliefs and values, 68.8 % believes that it does not weaken their engagement with traditionanl spiritual practices. It indicates that while global trends may influence Uzbek young people's perceptions and preferences, the majority maintain their connection to their cultural and spiritual heritage, which is a surprisingly positive outcome.

In a world where most cultures are connected to each other, it can be challenging for youngsters to keep shaping their own identity. Therefore, we must encourage them not to accept everything at face value but to analyze whether it corresponds to their life and beliefs. We must avoid letting them flow with the crowd. It is important to make sure that they are curious, not competitive. That is to say, they should explore other cultures, not with the intention to copy, but rather out of interest. A further consideration is that the more properly they utilize globalization, the greater opportunites they gain. For example, inspiration from the experiences of other countries drives them to bring new ideas, contribute to the advancement in technologies and elevate their nation from a condition of intelectual underdevelopment.

In conclusion, how globalization affects young people depends on how they themselves accept it. If they consciously choose the positive aspects of other cultures such as new ideas and technology, while keeping their own identity and tradition, they benefit without losing themselves in the long run, thus enhancing their competence, knowledge along with spirituality. Fitting in is not the ultimate goal; uniqueness is, even in a connected world. The spread of ill-suited fashion, unhealthy music and a dominant language should not be a barrier to their spiritual growth.

References:

1. Mohamed, S. H. & Musa, A. H. (1999). Gejala globalisasi: peranan dan tanggungjawab institusi ilmu. Jurnal Pendidikan Islam. 8 (3), 33-46

2. Gender, Race, and Sexual Content in Popular Music Lyrics (2006) by Michael A. Collins & Richard S. Hunter. Sexually Explicit Content in Popular Music: A Review of

Exposure, Consequences, and Policy Recommendations (Journal of Adolescent Health, 2015)

3. Chiou, J.S.; Huang, C.Y.; Chuang, M.C. Antecedents of Taiwanese Adolescents’ Purchase Intention toward the Merchandise of a Celebrity: The Moderating Effect of Celebrity Adoration. J. Soc. Psychol. 2005, 145, 317–334. [CrossRef] [PubMed]

4. Suleymanova, G. N. (2023). Проблемы развития языка в условиях глобализации. Innovative Development in Educational Activities, 2(2), 208–212.

MILLIY INTERNET RESURSLARNING YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYALASHDAGI AHAMIYATI

Kozimov Azizjon Nozim o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Mustaqil davlatimizning taraqqiyoti har tomonloma bilimli, yuqori malakali barkamol bo‘lgan yoshlarga bog‘liq. Albatta, hayot bir joyda hech vaqt to‘xtab turmaydi, u doimo harakatda va o‘zgarish holatida bo‘ladi. Shu bois har qanday yangi texnologiyalar, masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) yaratilishi bilan u albatta muammolar tug‘diradi va biz ularni yechish uchun tayyor bo‘lishimiz kerak.

Jahon sivilizatsiyasida munosib o‘rinni egallashda, avvalombor, hozirgi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati juda ham kattadir. Ushbu texnologiyalardan biri bu – Internet hisoblanib, u orqali biz bevosita bilim olishga, mamlakatimiz va jahonda fan, texnika, texnologiyalar sohalarida erishilgan yutuqlar bilan tanishishga va tanishtirishga erishdik.

2017-yil 8-sentabrda qabul qilingan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida keltirilgan quyidagi asosiy tushuncha juda muhim hisoblanadi: “axborot mahsuloti – O‘zbekiston Respublikasi hududida aylanish uchun mo‘ljallangan ommaviy axborot vositalari mahsuloti, bosma mahsulot, har qanday turdagi tashuvchilardagi audiovizual mahsulot, dasturiy ta’minotdan foydalangan holda tarqatiladigan, telekommunikatsiya tarmoqlariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtiriladigan axborot, kompyuter o‘yinlari, shuningdek tomoshabop tadbirlar vositasida tarqatiladigan axborot”[1]. Yoshlarimiz esa ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlaridan biri hisoblanadi. Shu bois yaratiladigan axborot mahsulotlari milliy resurslarimizni boyitishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Milliy resurslarni Internetga joylashtirish orqali biz yoshlarimizga to‘g‘ri yo‘nalish berishimiz mumkin. Bu jarayonga biz dastlabki qadamlarni qo‘ymoqdamiz. Masalan, 2005-yilda ishlab chiqilgan ZiyoNet dasturi ham ushbu yo‘nalishga qaratilgan. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 7-iyundagi qarori ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur va qonunlarda prinsipial

yangi axborot markazlarini yaratish, ularda yuqori saviyali mahsulotlarni joylashtirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Hozirgi kunga kelib barcha ta’lim muassasalari jahon axborot tarmog‘iga ulanganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, milliy UzNet tarmog‘imizni zudlik bilan to‘ldirish vaqti yetib keldi. Shu bois maxsus sharoit yaratish orqali resurs markazlarining faoliyatiga yangilik kiritish va yanada rivojlantirish zarur.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ularni zamon talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham bu boradagi aniq maqsadlar belgilab o‘tilgan. Xususan:

IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta’minlash vazifasi belgilanadi;

Maktab o‘quvchilarini xalqaro IT bozori talablariga mos zamonaviy kasblarga tayyorlash;

Bir million dasturchi loyihasini kengaytirish;

Har yili kamida 15 ming iqtidorli yoshlarni xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash;

O‘rta maxsus ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda, xususan axborot texnologiyalari yo‘nalishida davlat grantlari berish: o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantlari IT, qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida 100 %ga yetkaziladi;

Yoshlar uchun zamonaviy kasblar tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash, IT orqali zamonaviy iqtisodiyotga jalb qilish;

Raqamli xizmatlar, elektron davlat xizmatlari, davlat boshqaruvida IT dan keng foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy sektorlarni modernizatsiya qilish;[2]

Yoshlarimizning ongi shakllanishida unga ta’sir etuvchi omillar juda ko‘p bo‘lib, ularning asosiy qismi AKT orqali tarqatilmoqda. Shu bois ko‘pincha g‘arb axborot resurslarida bizning yoshlarimizga nisbatan katta xavf borligi, ya’ni ularda bizning yoshlarimizni qalbi va ongini egallashga intilish borligi ayon bo‘lmoqda. Barcha yo‘nalishlarda ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda mana shu obyektiv holatlarni inkor etib bo‘lmaydi.

Xalqimizning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan milliy qadriyatlari bor. Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda biz shubhasiz, milliy qadriyatlarga asoslanamiz. Lekin Internetda joylashgan ko‘pgina g‘arb axborot resurslari milliyligimizga umuman zid bo‘lib, yoshlarimizni boshqa yo‘llarga chorlashi mumkin. Natijada jamoatchilik fikrining ham o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin, bu esa juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishi o‘z-o‘zidan ayon, ayniqsa, bugungi mafkuraviy kurashlar pinhona tus olgan kunda.

Bunday kurashda milliy axborot resurslarimizni o‘z vaqtida yangilanishi mashaqqatli mehnat talab qiladi. Moliyalashgan ilmiy-ijodiy guruhlar tashkil qilish orqali samarali Internet texnologiyalarini rivojlantirish zarur. Chunki kelajakda Internetning ahamiyati juda katta bo‘ladi va unda biz faqatgina foydalanuvchi sifatida emas, balki faol

ishtirokchi sifatida, o‘z manfaatlarimizni himoya qilish va dunyo hamjamiyatida o‘z ovozimizga ega ekanligimizni ta’kidlovchi kuchli vosita bo‘ladi, bu esa nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh avlodimizni ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga, uning kamol topishiga rivojlangan mamlakatlar AKT orqali o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bunga qarshi AKT sohasidagi milliy mutaxassislarimiz, olimlarimiz birgalikda samarali uslublarni ishlab chiqishlari zamon talabidir. Axborot texnologiyalari taraqqiyoti undagi yutuqlarini o‘rganish, ularni rivojlantirish, hayotga tadbiq qila olish imkoniyatlari ham yoshlarimizning faolligini oshiradi va ularni barkamol avlod bo‘lib yetishiga bir omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqida ta’kidlab o‘tilgan taklifini amalga oshirish uchun asos bo‘ladi, ya’ni: “Biz yosh olimlarga bilim va tajriba almashish, birgalikda tadqiqotlar o‘tkazish imkonini beradigan Musulmon olami yosh olimlari xalqaro markazini tuzishni taklif etamiz”[3]. Shu o‘rinda Prezidentimizning 2019-yil 17-oktabrdagi Surxondaryo viloyatiga qilgan tashriflarida bildirgan fikrlari ham buni tasdiqlaydi, ya’ni “Ilm bo‘lmasa, rivojlanish bo‘lmaydi”. 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Prezident qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasini tashkil etilishi ushbu taklifni amalga oshirishda poydevor bo‘ldi.

Shunday qilib, axborot texnologiyalari yutuqlarini bevosita yoshlarimizning faolligini oshirishga yo‘naltirish va ularni barkamol avlod bo‘lib yetishiga asos bo‘lishida xalqaro ilm markazlarini tashkil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqi. – Ostona: 2017.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI

Kuanisheva Marina Aldabergen qizi
NavDU talabasi
Berdimuratova L.D.
Ilmiy rahbar, NavDU katta o‘qituvchisi

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Internet,ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va media

resurslar nafaqat axborot almashish vositasi, balki jamiyatning ma’naviy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylandi.

Ammo texnologiyalar bilan birga turli xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, yolg’on axborotlar, zararli kontentlar, axloqiy qadriyatlarga zid materiallar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Media makonning yoshlar ongiga ta’siri juda katta. Media makoni- bu internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloger, televedeniye va boshqa ommaviy axborat vositalari yig’indisidir. Ular ma’lumot manbai bo’lib xizmat qiladi, yoshlarning fikrlash uslubini shakllantiradi, jamiyatda bo‘layotgan jarayonlarga munosabatini belgilaydi. Ammo nazoratsiz media iste’mol ularni turli mafkuraviy oqimlarga, zararli g’oyalarga, yolg’on ma’lumotlarga tez jalb qilishi mumkin.

Ma’naviy xavfsizlik – bu shaxsning dunyoqarashi, qadriyati, axloqi va ma’naviyati ustidan tashqi zararli ta’sirlardan himoyalangan holati [1]. U yoshlarni: ma’naviy inqirozdan, yot g’oyalardan, virtual g’oyalardan, internetdagi buzug’unchi axboratlardan himoya qiladi. Bundan tashqari oila nazoratini kuchaytirishi, farzandning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ta’lim muassasalarida media savodxonlikni oshirish, yoshlar yolg’an axborotni tanish, zararli kontentni aniqlashni o‘rganish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni targ’ib qilish kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internet hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, onlayn o’quv resurslari va videoplatformalar har birimizning kundalik hayotimizda faol foydalanmoqda. Biroq raqamli media makonida har bir insonning ma’naviy xavfsizligi muhim ahamiyatga kasb etadi. Ma’naviy xavfsizlik-bu insonning axloqiy, ruhiy va ma’naviy qadriyatlarini himoya qilish, zararli ma’lumot va notog’ri axborot ta’siridan saqlanishdir. Raqamli media makonida esa bu tushuncha yanada dolzarb: notog’ri kontent, zo’rovonlik, yomon odatlar yoki salbiy stereotiplarga duch kelish xavfi mavjud. Raqamli makon ma’lumotlarning tez va oson yetib borishini ta’minlaydi, lekin u bilan birga bir qator xavflarni ham keltirib chiqaradi. Salbiy yoki notog’ri axborot: odamlarni chalg’ituvchi yangiliklar, yolg’on ma’lumotlar. Zo’ravonlik va tajavuzko’r kontent: videolar, memlar yoki shahrlar orqali ruhiy bosim. Giyohbandlik va zararli odatlarga chorlovchi materiallar, shaxsiy ma’lumotlarning notog’ri qo’llanishi va internetdagi tahdidlar shular jumlasidandir.

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash yo’llari:

Ma’lumotni tekshirish: har qanday xabar yoki videoni qabul qilishdan oldin uning manbasini aniqlash.

Ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni boshqarish: foydali va ma’naviy jihatdan boy kontentga ko‘proq vaqt ajratish.

Axborot savodxonligi: internatdagi kontentni tanlashda fikrlash va tanqidiy qarash qobiliyatini rivojlantirish.

Oila va maktabning roli: ota-onalar va o‘qituvchilar yoshlarni onlayn xavfsizlik va ma’naviy qadriyatlar bilan tanishtirish.

Bugungi raqamli makonda axborot cheksiz oqim tarzida tarqaladi. Uning foydali jihatlari ham juda ko‘p. Masalan, bilim olish imkoniyati keng, dunyo yangiliklarini tez

bilish, masofaviy ta’lim va muloqot oson. Ammo salbiy jihatlari ham mavjud, aynan ma’naviy xavfsizlikka tahdid tug’diruvchi holatlar.

Ko‘plab sahifalar odamlarni chalg’ituvchi, yolgo‘n, tekshirilmagan axborot tarqatadi. Bunday kontekt odamning dunyoqarashiga ta’sir qiladi. Bunday videolar yoki postlar ruhiy bosim, qo‘rquv, tajavuzkorlik kayfiyatini oshirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog’lanish psixologik holatni izdan chiqarishi, vaqtni isrof qilish mumkin. Begona madaniyatlar, notog’ri hayot tarzi, yengil-yelpi kontent yoshlarning axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar ko‘p uchraydigan muommolardan biri-onlayn haqorat va bosim. Bu ruhiy holatga ta’sir qiladi.

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy yo‘llari:

Axborot savodxonligi: Axborotni tekshirish, tanqidiy fikirlash, manbalarni solishtirish-bu har bir yosh uchun zarur ko‘nikma.

Raqamli madaniyatga o‘rganish: Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan madaniyatli, xavfsiz, odobli foydalanishni bilish kerak.

Vaqtni boshqarish: Telefon, TikTok, Instagramda cheksiz vaqt o‘tkazish emas, balki maqsadli foydalanishni bilish kerak.

Oila va maktabning roli: Ota-ona nazorati, o‘qituvchilarning tushuntirishi, nazorat dasturlari-bular ma’naviy xavfsizlikni mustaxkamlaydi.

Foydali kontentni ko‘paytirish: ilmiy, diniy-ma’rifiy, tarbiyaviy, madaniy kontentlar yoshlarning dunyoqarashini ijobiy shakllantiradi.

Raqamli makonda yoshlar ma’naviyatga ta’sir qiluvchi omillar: Blogerning fikri, trendlar va challenge’lar, mashhur shaxslarning hayot tarzi, o‘yinlardagi zo‘rovonlik darajasi, algoritmlar tomonidan tavsiya etiladigan videolar. Shuning uchun yoshlar o‘zlari ko‘radigan materiyalni ongli tanlashi kerak.

Raqamli jamiyat shakllanayotgan hozirgi davrda ma’naviyat insonning dunyoqarashi, axloq, tafakkuri va madaniyatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Ma’naviy qadriyatlar avvallari oilada, maktabda, kitoblar orqali shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda ularga eng katta ta’sirni internet va media vositalari ko‘rsatmoqda. Demak, raqamli muhit-yoshlarning ma’naviy kamolotida asosiy tarbiyachi bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makon-katta imkoniyar maydoni, lekin u bilan birga ma’naviy xavfsizlik mas’uliyatni ham talab qiladi. Tog’ri axborotni tanlash, zararli kontentlardan o‘zini himoya qilish, ruhiy va axloqiy barqarorlikni saqlash har birimizning vazifamizdir. Ma’naviy jihatdan himoyalangan yosh-mustahkam jamiyatning poydevori.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008.

2. To’laganova G., Jo’raqulov A. Axborot xavfsizligi asoslari.- Toshkent: Fan va texnologiyalar.2020.

3. Hasnov B. Raqamli jamiyat va axborot tizimlari.- Toshkent: Iqtisodiyot.2021.

4. Qosimov S. Media madaniyati va axborot savodxonligi. –Toshkent: O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 2019.

5. Ulashov A. Internetda ma’naviy tarbiya masalalari.- Marifat gazetasi, 2022-yil.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MENTALITETIGA IJOBIY VA SALBIY TA’SIRI

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbayevna
Urganch davlat tibbiyot instituti dotsenti

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar ijtimoiy-istisodiy va madaniy-ma’naviy hayotga etnotafakkur hamda milliy mentalitetga ham ta’sir etmoqda. Mazkur jarayonni faol boshqarishga intilayotgan davlatlar informatsion va mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish orqali umumjahon madaniyatini shakllantirishga: dunyo xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy fe’l-atvor, umumiy mentalitetni izchil ravishda tarkib toptirishga urinmoqdalar. Bu esa, xalqlarning milliy o‘zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylik an’analariga, milliy xarakter bir butunligiga putur yetkazadi. Shu sababdan millatlar va uning o‘ziga xos jihatlarini ifoda etuvchi, milliy til, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar va milliy tarixni o‘rganish va asrlar mobaynida sayqallangan milliy mentalitetini saqlab qolish ahamiyatiga ko‘ra boshqa global muammolardan qolishmaydigan jahon miqyosidagi masalaga aylandi.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev qayd etganlaridek: “Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o‘ylaydi, bu borada amaliy choralarni ko‘radi. Aks holda u, hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o‘zligini boy beradi” [1, 267].

Falsafa qomusiy lug‘atida “global (umumbashariy) muammolar (frants. global – eng umumiy) – o‘z ko‘lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga daxldor bo‘lgan muammolardir” [14, 92], – deb ta’rif berilgan.

Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, tsivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Amerikalik Jozef Stiglits, Frensis Fukuyama, Zbignev Bjezinskiy[9] kabi olimlar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jarayon sifatida tushuntiradilar. Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglits globallashuv jarayonini taraqqiyotga olib keluvchi, insonlar hayotini yaxshilashning omili sifatida qarab shunday yozadi: “Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potentsialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining hayot jarayoni yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo‘nalishlari hozirning o‘zida masalan, ilmning globallashuvi sog‘liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda”[13, 42].

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, uning aql-zakovati mahsulidir. U ob’ektiv jarayon sifatida shakllanib, insoniyat va mamlakatlar taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, masalan, fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga hamda

ularning jahonda keng ommaviylashuviga, insonlarning moddiy farovonligi oshishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazuvchi omil hisoblanadi.

Madaniy globallashuv dunyoning turli mamlakatlari o‘rtasida biznes va iste’mol madaniyatining yaqinlashishi va xalqaro aloqaning kuchayishi bilan tavsiflanadi. “Bu, bir tomondan, milliy madaniyatning ayrim turlarining butun dunyoda ommalashishiga olib keladi. Boshqa tomondan, mashhur xalqaro madaniy hodisalar milliy hodisalarni siqib chiqarishi yoki ularni xalqaro miqyosga aylantirishi mumkin. Natijada bu milliy madaniy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib keladi” [5, 170-194].

“Har bir xalq va millatning o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohada manfaatlari mavjud. Ammo, ularning barqaror bo‘lishi nafaqat mamlakatlarning o‘zlarida, shuningdek, dunyoda kechadigan jarayonlarga ham bog‘liqdir.

Ayniqsa, bugun XXI asr dunyo mamlakatlarini bir-biriga shunday bog‘lab qo‘ydiki, ularning o‘zaro ayri holda hayot kechirishi mumkin bo‘lmay qoldi. Bu holatning eng xatarli jihati shundaki, garchand dunyoning ikki qutbliligi tugashi bilan sovuq urush siyosati nazariyada tugagan bo‘lsa ham, amalda u globallashuvning avj olishi jarayonida yangi mafkuralar vositasida taraqqiy topgan mamlakatlarning o‘zga mamlakatlarni o‘z izmiga solishga qaratilgan siyosatlari shaklida davom etmoqda. Bu urush o‘zining mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarga nisbatan yuzaga keltirayotgan tahdidi, ikki qutbli dunyoda amal qilgan sovuq urushdan ham kuchliroqdir. Chunki, u real qurol bilan dunyoga tahdid solgan bo‘lsa, hozir ketayotgan urush insonlarning ongi, qalbi, dunyoqarashi va tafakkurini egallashga qaratilgan. Agar ular o‘zga yovuzli kuchlar tomonidan egallanadigan bo‘lsa, dunyodagi turli-tumanlikdan iborat go‘zallik barbod bo‘lib, bir qutbli dunyo paydo bo‘ladi. Bu – insoniyat uchun tuzatib bo‘lmaydigan fojiaga olib keladi” [10, 52-53].

Globallashuv fan, texnika va texnologiyaning yuksak darajada rivojlanishining hamda uning vaqt nuqtai nazaridan soniyalarda ommaviylashuvi insoniyat farovonligining oshishiga ijobiy ta’sir o‘tkazayotgan bo‘lsa-da, uning ma’naviy qashshoqlashuviga jahonning tobora siyosiylashuvi va buning oqibatida insonlar bugun kechagidan ko‘ra ham xavf-xatarda yashashiga sabab bo‘lmoqda. Dunyoning taraqqiy topgan davlatlari aholisining moddiy farovonligi ta’minlangan bo‘lsa-da, uning ma’naviy qashshoqlashuvi chuqurlashib bormoqda. Bunday davlatlarda aholining o‘zligini anglashni asrash kabi ma’naviy-ruhiy qadriyatlaridan judo bo‘lish jarayoni yuz bermoqda.

Globallashuv jarayonlari salbiy ta’siridan saqlanishning asosiy yo‘lini professor S.Otamuratov o‘z asarida: “Buning uchun esa, o‘zligini asrab qolishning muhim omillari bo‘lgan intellektual salohiyatni globallashuvning avj olishi darajasiga muvofiq rivojlantirish, mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarda “boqimandalikka” emas, balki yaratuvchilik, bunyodkorlik, o‘zaro tenglik va teng manfaatdorlikka erishishdir. Faqat shu yo‘ldan borgan mamlakatgina globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanishga, salbiy ta’sirlaridan himoyalanishga muvofiq bo‘la oladi” [10, 10].

Professor N.N.Gubanov hozirgi globallashuv jarayonlari ta’sirida guruh mentalitetining global va umumtsivilizatsiya turi, ya’ni “global mentalitet” [6, 2017] paydo bo‘layotganligi haqida yozadi.

“Global mentalitet” – hozirgi globallashuv jarayonlari ta’sirida guruh mentalitetining global va umumtsivilizatsiya turi paydo bo‘lmoqda.

Avvalgi guruh mentaliteti guruhning barcha a’zolariga xos bo‘lgan, ularni boshqa guruhlardan ajratib turadigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu mentalitet har bir guruhda dunyoni idrok qilish, fikrlash, xulq-atvor va faoliyatning maxsus yo‘llari bilan aniqlangan. Ularning vazifasi guruhlarning o‘z-o‘zini ko‘paytirishni ta’minlash va manfaatlarini himoya qilishdan iborat edi.

Mentalitetning yangi turi turli jamiyat vakillarining zarur doirada idrok etish va xatti-harakatlari yo‘llarini birlashtirishni ta’minlashi mumkin. Bu mentalitet uchun zarur bo‘lgan mental xususiyatlar: barcha ijtimoiy jamoalar-etnik, milliy, mintaqaviy, konfessional, professional – jamoalarni ezgu maqsad – global muammolarni hal etishga va tsivilizatsiyani asrab qolishga qaratilgan xatti-harakatlar va faoliyatni tashkil etadi.

Globallashuv jarayonining asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etadi:

Birinchidan, globallashuv – insoniyat tamadduni rivojining ichki ehtiyojlarini ifoda etadigan ob’ektiv, tabiiy-tarixiy jarayon;

Ikkinchidan, globallashuv – ijtimoiy aloqalarning kengayishi va murakkablashuvi oqibatida sayyoramiz miqyosida iqtisodiyot, texnika va texnologiya, axborot-kommunikatsiya, siyosat, huquq, boshqaruv va boshqa sohalardagi integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi oqibatida vujudga kelgan holda o‘ziga xos tuzilma va institutlarga tayangan holda faoliyat yuritadigan murakkab tizim;

Uchinchidan, globallashuv jarayonining tobora keng ko‘lamda namoyon bo‘lishi jamiyat hayoti, kishilar turmush tarzi va mentalitetiga (yangi ehtiyojlarning, kommunikatsiya shart-sharoitlari va shakllari, qadriyatlarning paydo bo‘lishi, ommaviy madaniyat namunalarini singdirish orqali) jiddiy ta’sir ko‘rsatadi;

To‘rtinchidan, globallashuvning zamonaviy tamaddun rivojining yuqori bosqichi sifatida madaniyat bilan o‘ziga xos munosabatlar tizimi shakllanib bormoqda (bir tomondan, milliy faoliyatning yangi shakl va usullari, uning botiniy mohiyatida tub o‘zgarishlar ro‘y bersa, ikkinchi tomondan, madaniyatning globallashuv jarayoniga ta’siri kuchayadi.

Globallashuvning ijobiy natijalari, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va odamlar tasavvurining keskin o‘zgarib borishidir.

Hozirgi paytda ayrim olimlarning fikricha, axborot va elektron texnika vositalari amaldorlarning ko‘pgina vazifalarini o‘z zimmasiga olayotgani ma’muriy tizim tazyiqini jilovlash, inson va jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishning muhim omili bo‘ladi, deb hisoblamoqdalar. Taraqqiy etgan davlatlarda bu borada jiddiy yutuqlarga erishilgan.

Hozirgi zamon intellektual yoshlar asridir. Buni aksariyat yoshlar to‘g‘ri his etmoqda. Ularda yangi g‘oyalar, texnika va texnologiyalarni egallashga bo‘lgan intilish, ularni yaratish yo‘lidagi harakatlarga bo‘lgan qiziqishlar tobora ortib bormoqda. Ayni paytda, yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan intilish jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, ularda ijtimoiy-siyosiy faollikning ortib borayotgani, ijtimoiy-siyosiy mo‘ljal fenomeniga nisbatan intilishning kuchayishi, jamiyatdagi ayrim salbiy nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar mamlakat va millat taraqqiyotining omili sifatida tan olinmoqda.

Hozirda insonlarning davrga nisbatan munosabatlari tubdan o‘zgardi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik kabi tushunchalar avvallari o‘zbek xalqining milliy ruhiyatidan siqib chiqarilgan bo‘lsa, endi bu tushunchalar qadriyat darajasiga yetdi.

Xalqimiz tabiatida tarixga hurmat, ajdodlarimiz merosiga ehtirom, ularning boy ma’naviy mulkini e’zozlash xususiyati, o‘ziga xos an’analari tarkib topdi. Xalqimizning buyuk allomalari, faxr-iftixorimiz bo‘lgan ulug‘ - ajdodlarimizning ruhini e’zozlab ulkan obidalar, memorial koshonalar, haykallar barpo etildi, maxsus anjumanlar o‘tkazilmoqda, bag‘ishlov kitoblari nashr etilmoqda. Bu esa aholining, xususan, yoshlarning chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkonini kengaytirdi.

Milliy mentalitetga asoslangan bugungi faol, barkamol shaxs, har tomonlama rivojlangan inson, zukko, dono, yaratuvchan, bunyodkor, bag‘rikeng, saxovatli, ochiq yuzli, istarali odamni tarkib toptirish vazifasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

Istiqlol yillarida shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati tizimi o‘zgardi. Odamlarda o‘z-o‘zini hayotda qadrlay bilish, ijtimoiy muhitda munosib o‘rnini topish fazilatlari shakllantirildi. Odamlarning hayotga ratsional qarash, har bir ishda me’yorga rioya qilish fazilati tarkib topmoqda.

Mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta’minlash maqsadida “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan tamoyildan kelib chiqib, bugungi kunda yurtimizda ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash uchun yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Eng muhimi, bu soha ming-minglab fuqarolarimiz, avvalo yoshlarimiz uchun halol mehnat qilib, daromad topish, el farovonligini oshirishda mustahkam zamin bo‘layotgani barchamizni xursand qiladi. Ana shu tufayli millatning ruhi, mentaliteti o‘zgarmoqda. Odamlarda boqimandalik ruhi, mehnat qilib boy bo‘lish istagi bilan almashmoqda” [3, 225].

Mamlakatimizda ta’lim tizimi sohasida ham islohotlar amalga oshirilib, ma’rifiy yuksalishning tamomila yangi kontseptsiyasi hayotga joriy etildi. Ma’rifiy yuksalishning mazkur dasturi jamiyatning barcha a’zolariga intellektual taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar eshiklarini ochib berdi. Bu jamiyatda ma’rifiy taraqqiyot borasida pozitiv o‘zgarishlarning yuzaga chiqishiga imkon yaratdi. Natijada minglab yoshlarimiz xalqaro ko‘rik-tanlovlar g‘oliblari, intellektual olimpiadalar chempionlari, ilg‘or g‘arb universitetlarining nomdor stipendiatlari bo‘lishlariga olib keldi. Davlatimiz tomonidan fan, ta’lim, adabiyot, san’at va sport sohasida muvaffaqiyatga erishgan intellektual qobiliyatli qizlar “Zulfiya” mukofoti sovrindorlari bo‘lmoqdalar.

“Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o‘z an’ana va urf-odatlari, marosim va bayramlariga sodiq qolish, uni har qanday ta’sir va tazyiqlardan himoyalash orqali turli davrlar, ajdodlar o‘rtasidagi ma’naviy yakdillikni ta’minlaganlar hamda milliy o‘zlikni, mentalitetni saqlab kelganlar” [4, 32].

Ma’lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Ming afsuski, so‘nggi yillarda

molparastlik, iste’molchilik kayfiyati kuchayib isrof ko‘paymoqda. To‘ylardagi ortiqcha chiqimlar, dabdababozliklar, shu holat bilan o‘zlarini ko‘rsatishlar, po‘rim kiyinish, aysh-ishrat, shohona qasrlar qurish, jihozlar bilan maqtanish “moda” bo‘ldi. Dunyoparastlik axiyri odamiylikni yeydi. Isrofgarchilik, molparastlik, modaparastlik yaxshi amallarni yeydi, odamni talvasaga soladi, adashtiradi. Isrofgarchilikning ko‘pchiligi ochko‘zlikning oqibati. Hozirgi dunyoda yaratuvchilar emas, iste’molchilar kun sayin ko‘paymoqda. Molparastlik, havoyi orzu havasga berilish, noshukurlik, qanoatsizlik, nafsga qul bo‘lish, ko‘r-ko‘rona kimlargadir taqlid qilish, o‘zini bilmaslik, diniy e’tiqodning sustligidan, jaholat va ilmsizlikdan dalolat beradi.

Globallashuvda “mening millatim”, “mening xalqim”, “mening mamlakatim”, “mening vatanim” kabi tushunchalarga o‘rin qolmaydi [15, 39]. Shu ma’noda U.Saidovning [12, 75] globallashuv sharoitida “ommaviy madaniyat” niqobi ostida aslida milliy qadriyatlar tizimini o‘zgartirish jarayoni ketayotgani haqidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Chindan ham hozirgi davr G‘arb individuallashuv (xudbinlashuv, pragmatik) madaniyati aslo ijobiy va umuminsoniy ma’naviy qadriyat emas. Ya’ni, uning “ommaviy madaniyati” poydevorini ezgu qadriyatlar emas, balki iqtisodiy, siyosiy, harbiy qudratga ega bo‘lgan, o‘z ta’sirini jahonga o‘tkazishga” [11, 179] urinayotgan ayrim salbiy kuchlarning manfaatlari tashkil etadi.

Darhaqiqat globallashuv sharoitida “Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda” [2, 504-505] .

Texnika tamoyillarining ustuvor darajasi mustahkamlanib bormoqda. Buning natijasida yoshlarimizning dunyoni anglash ko‘lami, o‘z bilim-salohiyatini oshirish ehtiyojining qondirilishi holati zo‘rayib bormoqda.

Ayni paytda yoshlarning qaysi saytlarga murojaat qilayotganini aniqlash va bu borada ish olib borish muhim. Bu fikrning jiddiy asosga ega ekanini internetda mavjud salbiy va zararli, ya’ni o‘z-o‘zini o‘ldirish – xudkushlikning oson yo‘llarini targ‘ib etuvchi saytlar, ko‘pdan-ko‘p terrorchilik va ekstremistik kayfiyatdagi, shuningdek, erotik va tarbiyaga zid boshqa saytlarning ko‘payayotgani ham tasdiqlaydi.

Bu holat, eng avvalo, yoshlarda internet tizimiga qullik, tobelikni kuchaytirmoqda, ularda o‘ziga xos texnokratik madaniyatni shakllantirmoqda. Texnokratik madaniyat – faqat texnik vositalarnigina tan olish, ularga anglanmagan holda moslashuv, pirovard natijada, internetga tobelikdan iboratdir. Afsuski, eng muhimi, texnokratik madaniyat tufayli ayrim o‘zbek yoshlarida millatimizga xos bo‘lgan jamoaviylik ruhiyati o‘rniga individualistik qarashlar, samimiylik, mehribonlik xislatlari o‘rniga qo‘pollik, dag‘allik, agressivlik sifatlari kuchayib bormoqda. Bular esa xudbinlik, o‘zaro munosabatlarni inkor etish, milliy qadriyat, urf-odatlarni unutish, ayrim holatlarda kosmopolitik (dunyo fuqarosi) dunyoqarashga davo qilish kabi salbiy illatlarni yuzaga keltirmoqda. Texnokratik madaniyat yoshlarning muayyan qismida kitob fenomeni, kitob o‘qish madaniyatini inkor etmoqda. Kitob o‘qishning kamayishi esa idrok etish, mushohada qilish, o‘zini anglash kabi sifatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [218, 13].

“Texnokratik madaniyat”ni “tartibga solish” uchun, Evropa ittifoqida qabul qilinganidek, “xavfsiz internet” dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Umuman, axborot oqimini nazorat qilishning mukammal tizimi lozimligi – aksioma. Jumladan, Buyuk Britaniyada “O‘zini tutish kodeksi” va “xavfsiz tarmoq” mustaqil jamg‘armasi zararli, noqonuniy axborotlar oqimini nazorat qilmoqda. Ayrim Evropa davlatlarida esa qonun asosida saytlarni blokirovka qilish belgilab qo‘yilgan” [16, 117].

Yoshlarning ayrim qismida hayotga bo‘lgan munosabatlarida gedonizm kabi salbiy holat yuzaga kelmoqda. Gedonizm (“yunoncha” – lazzatlanish) u insonning butun hayoti, hayot mazmuni rohatlanishdan iborat, degan g‘oyani ilgari suradi. Mazkur ta’limotga binoan, huzur-halovat, rohatlanish baxsh etmaydigan harakatga e’tibor qaratish va kuch sarflash arzimaydi. “Gedonizm ta’limotida insonning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy me’yorlarga qarama-qarshi qo‘yiladi, inson erkinligini cheklovchi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyish etishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday ijtimoiy shart va me’yorlar inkor qilinadi” [8, 114].

Gedonizm – o‘z hayotini faqat shaxsiy rohatu lazzatlanishdan iborat, deb bilish, millatni ichidan yemiruvchi illat bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarga e’tiborni susaytiradi. Buni shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash orqali davolash mumkin.

Ayrim yoshlarning tabiatida loqaydlik, dangasalik, e’tiborsizlik, bepisandlik illatlarini paydo bo‘layotganligi achinarli holatdir.

Hozirgi paytda yoshlarni chalg‘ituvchi axborot oqimining ko‘pligi sababli, ma’naviy olamida o‘ziga xos bo‘shliqning paydo bo‘lganligi, ularning ilm olishga, ayniqsa kitob o‘qishga nisbatan qiziqishlarining pastligi, bilim saviyasi va ularni hayotga joriy etish amaliyoti o‘rtasidagi jarlikning yuzaga kelishi, ko‘cha-kuyda uchragan yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarga salom berish, jamoat transportlarida ularga joy berish holatlarining unutilayotganligi, jamoat joylarida o‘zlarini tuta olmaslik, bachkanalik qiliqlari milliy qiyofamizga dog‘ bo‘lmoqda. Ayrim yoshlardagi qo‘pollik, dag‘allik, o‘zaro munosabatlarda bilak kuchiga va tilga erk berishi ular ma’naviyatining sayoz ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa: Yoshlar mentalitetini turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda quyidagi mexanizmlarni joriy etish:

axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirish;

milliy axborot makonini mustahkamlash;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

ijtimoiy nazoratni kuchaytirish;

oilaviy tarbiyani kuchaytirish;

milliy qadriyatlarni zamonaviy shakllarda targ‘ib qilish;

milliy mentalitetni monitoring qilish tizimini yaratish, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. – Б.267.

2. Мирзиёев Ш.М. “Жисмоний ва баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг хал қилувчи кучидир”. “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг

қурултойида сўзлаган нутқ. 2017 йил 30 июнь. Тўла асарлар тўплами 1-жилд, Тошкент: “Ўзбекистон” 504-505 бетлар.

3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.225.

4. Бекмуродов М. Миллий менталитет. –Тошкент: “Info Capital Group" нашриёти, 2011. – Б. 32

5. Гавров С.Н., Ашер Т. Кризис глобализирующегося мира и переход к планетарной культуре / С.Н. Гавров, Т. Ашер // Новая цивилизация. Междисциплинарный научно-практический сборник. Самара: Издательство Самарского научного центра РАН, 2007. – С. 170-194.

6. Губанов Н.Н. Образование и глобалистский менталитет. // Журнал: Век глобализации. Выпуск (21). 2017.

7. Маврулов А., Тўраев Ш., Даминов И. Маънавий таҳдидларнинг олдини олишда маънавий-ахлоқий муҳитнинг аҳамияти. –Тошкент: Муҳаррир, 2018. –Б.13.

8. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: 2009. – Б.114.

9. Стиглиц Дж. Глобализация: тревожные тенденции. Пер. с англ. – Москва: “Мысль”, 2003. –С. 304; Фукуяма Ф.Триумф глобализма. Конец истории или начало? – ООО “ Изд-во Родина”, 2019; Бжезинский З. Великая шахматная доска. – Москва: Международные отношения, 1999. –С.257; Бжезинский З. Выбор. Глобальное господство или глобальное лидерство. –Москва: Международные отношения, 2010. –С. 264.

10. Отамуратов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. –Б.52-53; - Б.10.

11. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. –Б. 179.

12. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. –Тошкент: “Академия”,2008. –Б.75.

13. Uzbekistan and Central Asia — Центр политических исследований // Информационно-аналитический бюллетень. –Т., IX -2007. –С. 42.

14. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.92.

15. Қаҳҳарова Ш.Глобаллашув шароитида инсон ҳаёти маъноси. – Тошкент, 2009. –Б. 39.

16. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Тошкент, 2012. –Б.117.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIYAT, SAN’AT SOHASIDA O‘TKAZILAYOTGAN TANLOVLAR VA ULARDA YOSHLARNING ISHTIROKI.

Kurbanov Ravshan Raimjonovich
TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik
litseyi o‘qituvchisi, 3-darajali yurist, mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlat tomonidan alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atning noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, rivojlantirish, yosh avlod qalbida san’atga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, davlatlararo, xalqlararo do‘stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida ko‘plab qarorlar qabul qilindi, tanlovlar va festivallar o‘tkazildi.

Yosh iste‘dod egalarining jamiyat ma‘naviy hayotini yuksaltirishdagi muhim o‘rnini inobatga olib, o‘zining musiqa, matn va ijro mahorati bilan odamlarning yuragiga yetib boradigan, ezgulikka chorlaydigan asarlar yaratishda faollik ko‘rsatayotgan iqtidorli yoshlarni muntazam rag‘batlantirib borish maqsadida bir qator tanlov va festivallar o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu tanlov va festivallarni o‘tkazish orqali yoshlar o‘rtasida do‘stlik va ahillikni keng targ‘ib etish, musiqa san‘atining jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish, boy tarixiy va betakror o‘zbek madaniyatini keng targ‘ib etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida madaniyat, san’at sohasida o‘tkazilayotgan tanlov, festivallarda yoshlarning ishtiroki masalasi taxlil qilinganda mahalliy va xalqaro darajadagi tanlov va festivallar alohida ajralib turadi.

1991-2025 yilalar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasida juda ko‘p tanlovlar, festivallar o‘tkazildi. Ushbu o‘tkazilgan tanlovlar va festivallarda mamlakatning barcha hududlaridan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ishtirok etib ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishdi.

1992 yil 28-avgustda “O‘zbekiston ijodkor yoshlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni[1] qabul qilindi. Natijada minglab iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni iste’dodini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratildi.

[1] Хотамов Ғ. XXI аср: истиқболимиз тимсоллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 188. // https://lex.uz/docs/-168900

1992 yil 27-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi faoliyati va tuzilishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimligining “Viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[1].

1993 yil 14-aprelda Respublika Madaniyat ishlari vazirligi (hozirgi Madaniyat vazirlilgi) tasarrufidagi san’at, madaniyat oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining talaba-o‘quvchilari, hamda o‘qituvchilari ishtirokida “Istiqlol jilolari” nomli yig‘ma konsertini namoyish etdi[2]. Bu konsertda yoshlar faollik bilan o‘z iqtidorlarini namoyish etdilar.

1995 yil dekabr oyidan boshlab mamlakatda “O‘zbekiston-Vatanim manim” mavzuidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e’lon qilingandan so‘ng yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi. 1996 yil 27-avgustda “O‘zbekiston-Vatanim manim” qo‘shiq bayrami haqida maxsus Farmon[3] qabul qilindi. Bu ko‘rik-tanlov yoshlar madaniy-ma’naviy hayotida unitilmas voqea bo‘lib, ular tomonidan zo‘r mamnuniyat va ko‘tarinki ruh bilan qo‘llab-quvvatlandi. Natijada O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi va “O‘zbekraqs” birlashmasi (2017-yil 28-avgustda “O‘zbeknavo” hamda “O‘zbekraqs” birlashmalari tugatilib, ularning negizida “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi) tashkil etildi.

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonning barcha hududlarida o‘tkaziladigan “Qo‘shiq bayrami” (1992-yildan), Yunus Rajabiy nomidagi maqom ijrochilari, O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqov nomidagi yosh ijrochilar respublika ko‘rik-tanlovi (1997-yildan, Marg‘ilon shahri), F.Mamadaliyev va O.Yusupov nomidagi (2001-yildan, Andijon), “O‘zbekiston - Vatanim manim” (1996, Toshkent), “Yangi taronalar” milliy estrada qo‘shiq va kuylari Respublika tanlovi (1998, Jizzax; 2002, Guliston) “Asrlar navosi” ko‘hna milliy sozlar (tanbur-sato, nay va dutor) ijrochilarining Respublika tanlovi (1998, Buxoro), “Aziz ona yurtim navolari” milliy estrada qo‘shiqlari Respublika tanlovi, “Boysun bahori” xalqaro folklor jamoalari ochiq festivali (2002-yildan, Boysun shahri) va “Alla” ijrochilari (2003-yildan H. Oxunova nomida) Respublika tanlovlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi4.

1997 yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida”gi PF-1701-sonli Farmoni[5] qabul qilindi va respublikada madaniyat, san’at sohasidagi yuksalish yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi.

Sharq xalqlari milliy musiqa va qo‘shiq san’atining betakror namunalarini keng ko‘lamda targ‘ib qilish, milliy musiqiy an’analarni saqlab qolish va rivojlantirish, yosh avlod ongida san’atga muhabbat, go‘zallikni kuylash, asl insoniy qadriyatlar hissini shakllantirish, shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlikni mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’rifiy munosabatlar ko‘lamini dunyo darajasida kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11-martdagi 132-

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 567-yig‘ma jild, 15-varaq
[2] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 41-varaq.
[3] https://lex.uz/docs/-177428
[4] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘ma jild, 39-varaq
[5] https://lex.uz/ru/docs/-283197

sonli qaroriga muvofiq, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali ta’sis etildi[1]. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur festival har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida o‘tkaziladi. An’anaviy “Sharq taronalari” musiqa festivali besh qit’a san’at vakillarini diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

1998 yil O‘zbekistonda birinchi marta simfonik musiqa festivali o‘tkazildi va dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar qatnashdi[2]. O‘zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san’at sohalarida ham iste’dodli ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishilgani tasodifiy emas[3]. Keyingi yillarda milliy raqs va xoreografiya san’atini rivojlantirishga ham e’tibor kuchaydi.

“Sharq taronalari”, “Simfonik musiqa”, “Toshkent bahori”, “Sharq va G‘arb” kabi musiqa va teatr festivallari, tasviriy san’at asarlari ko‘rgazmalari hamda xalqaro ko‘rik tanlovlar, turli cholg‘u va raqs tanlovlari, maqom oqshomlarida respublika yoshlari yuqori faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Jumladan, Ziyoda Sharipova, Aziza Sodiqova, Aleksey Sultonov, Sevil Aliyeva, Irena Gulzarova, Dilfuza Matboboyeva, Gulnora Alimova, Fazliddin Xusanov, Sayyora G‘ofurova, Lola Rasulova, Lola Astanova, Nargiza Alimova, Vasilya Umarova, Bekzod Abdullayev, Malika Sharipova, Rustam Abdullayev, Behzod Abduraimov, Yayra Matyoqubova, Komil Musayev, Suxrob Kenjayev, Dinara Shaxiddinova, Aziza Sodiqova, Sunnat Ibroximov, Nodir Xoshimov, Atham Hamroyev, Oybek Islomov, Madina Tolipova, Nurxon Ziyoxonova, Inomjon Mamajonov, Malika Qo‘ziyeva, Feruza Erkaboyeva, Artur Nemchilov, Komiljon Boboyev, Nigora Mirsolixova, Laylo Boykenova, Anifa Artiqova, Zilola Sulaymonova, Akrom Murodov kabi iqtidorli yosh bastakorlar, sozandalar, rassomlar va tasviriy san’at namoyondalari turli xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘ldilar[4].

Ko‘rik-tanlov va festivallarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida yoshlarning estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirish borasidagi olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Mustaqillikka erishgan davrdan boshlab yaratilayotgan san‘at asarlari orasida Vatan, Istiqlol, ozodlik, millat haqidagi qo‘shiqlar keng o‘rin oldi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25-avgustdagi Yosh iste‘dodlar uchun «Nihol» mukofotini ta‘sis etish to‘g‘risidagi 334-son qarori nafaqat estrada qo‘shiqchiligi sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar, balki musiqa san‘ati ijrochiligi bilan shug‘ullanuvchi guruhlar, yakka ijrochilar ijodiy faoliyati uchun keng yo‘l ochib berdi va mazkur soha vakillari oldiga tegishli vazifalarni qo‘ydi. Yosh ijrochilar tomonidan yaratilgan asarlar Mustaqillik, Navro‘z, «O‘zbekiston - Vatanim manim», «Nihol», «Sharq taronalari», Tarona, «Yangi nomlar» kabi o‘nlab Xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlarida, festivallarda, bayram tadbirlarida, tok-shoularda ijro qilina boshlandi.

Qo‘shiqlarda aks etgan milliylik g‘ururi, Vatanga sadoqat, qolaversa, yosh xonandalar qalbida shakllanayotgan mustaqillik tafakkuri estrada qo‘shiqchiligida ham yangi milliy yo‘nalishlarni topish jarayonini kuchaytiganidan dalolat bermoqda.

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 33-varaq.
[2] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 43-varaq.
[3] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 25-varaq
[4] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 30-varaq.
[5] O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 32-varaq.

O‘zbekiston kompozitorlari ijodida estrada vokal qo‘shiqlari turli hil janr va yo‘nalishlarda Sharq va G‘arb musiqa san‘ati sintezida ko‘plab mavzu, janr, uslub jihatdan rang barang qo‘shiqlar yaratildi.

1997-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqov nomidagi yosh ijrochilar respublika ko‘rik-tanlovining 2015 yil o‘tkazilgan Respublika tanlovining hududiy bosqichlarda 100 nafar ishtirokchi qatnashib 25 nafar yosh xonanda g‘olib bo‘lgan bo‘lsa, tanlovning 2021 yil 6-28 sentabrda o‘tkazilgan hududiy saralash bosqichlarida 360 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etib, shundan 36 nafar ishtirokchi yakuniy bosqichga yo‘llanma oldi. Ushbu tanlovda Farg‘ona viloyati vakillari, jo‘rovozlar Azizbek Abduazimov hamda Ulug‘bek Elmurodzoda ko‘rik-tanlov bosh sovrini – Gran-prini hamda 25 million so‘m mukofotni qo‘lga kiritishdi. 1-o‘rinni egallagan Farg‘ona viloyatidan Saidmurod Topildiyev 20 million so‘m, 2-o‘rin egasi Toshkent shahridan Xushnudjon Solijonov 15 million so‘m, 3-o‘ringa loyiq ko‘rilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasidan Inoyatjon Bazarov 15 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandilar. Barcha g‘olib va sovrindorlarga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Farg‘ona viloyati hokimligining qimmatbaho sovg‘alari, diplomlari taqdim etildi[1].

Yosh iste‘dodlarni kashf etishda Prezident tashabbusi bilan ta’sis etilgan “Nihol” mukofotining o‘rni va ahamiyati g‘oyat muhim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25-avgustdagi 334-sonli Qaroriga asosan ta’sis etilgan san’at sohasidagi qobiliyatli yoshlarga taqdim etiladigan Respublika “Nihol” mukofoti tanlovi 2000-yildan buyon har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelindi hamda 2011-yildan boshlab har ikki yilda bir marta o‘tkazilmoqda.

2017 yilga kelib jami 167 nafar yoshlar san’atning turli yo‘nalishlarida “Nihol” mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Ulardan bir nafari O‘zbekiston xalq artisti, 27 nafari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 6 nafari Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist, 6 nafari “Shuhrat” medali sohibi, bir nafari esa Sharq taronalari festivalining YUNESKO sovrindori bo‘ldi. Avvaliga 15 nafar yoshlar taqdirlangan bo‘lsa, 2017 yildan boshlab ularning soni 20 nafarga oshirildi[2].

Jumladan, 2000 yilda san’atkorlardan Anna Guzairova, Izzatilla Ibrohimov, Abdulaziz Karimov, Dilshod Nazarov, Tohir Sodiqov, Dilfuza Rahimova, Sevara Nazarxonova, Nilufar Rahmatova, Feruza Mirzaydinova, Komila Xo‘jayeva, Laylo Galiyeva, Gulishoda Abdiyeva kabilar “Nihol” mukofoti sovrindori bo‘lgan bo‘lsa[3], 2008 yilda Gulmiraxon Abudulaxatova, Ilyos Arabov, Shavkat Ergashev, Azamat Muxammadjonov, Bexzod Abduraimov, Bunyod Saidov, Saida Saidbekova, Sirojiddin Fayziyev, Muhabbat Mehmonova, Rano Avazova, Sagdulla Badalov, Oybek Alimov, Nigora Ismoilova, Dilnoza Shermatova, Rashid Xodjasov, Ziyoda Qobilova kabi san’at namoyondalari tanlovda g‘olib bo‘ldi[4].

Bugun ularning safi ancha kengayib har yili ko‘rik-tanlovning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bosqichlari yuqori saviyada, bayramona ruhda, qat’iy badiiy talab va mezonlar asosida o‘tkazilayotgani, unda ishtirok etish istagidagi

[1] Farg‘ona viloyati davlat arxivining FDA-1-fond, 3174-ro‘yxat, 19-yig‘ma jild, 10-varaq

[2] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017 yil hisobotlari.

[3] Ҳотамов Ғ. XXI аср: истиқболимиз тимсоллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 142–149.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2008 yil hisobotlari.

yoshlarning ko‘pligi “Nihol” mukofotining nufuzi oshib borayotganidan dalolat beradi. Jumladan, 2008 yilgi tuman, shahar, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi saralash bosqichlarida o‘n ming nafarga yaqin yosh yigit-qiz ishtirok etgani buning dalilidir[1].

“Nihol” mukofotining 2015 yilgi taqdimotida estrada, musiqa, mumtoz qo‘shiq, raqs va opera san’ati ijrochiligi sohasida 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli yoshlar taqdirlandi. Estrada san’ati yo‘nalishi bo‘yicha Shahzodbek Sobirjonov (Andijon viloyati), Shiraz Tursinboyev (Qoraqalpog‘iston Respublikasi), Bekzod Bahromov (Namangan viloyati), Farangiz Shamsiyeva (Samarqand viloyati), Dilmurod Sultonov (Xorazm viloyati).

Mumtoz qo‘shiq yo‘nalishi bo‘yicha Sayyod Jo‘rayev (Buxoro viloyati), Bahodir Sayidov (Navoiy viloyati), Alisher Ahmedov (Toshkent shahri).

Musiqa ijrochiligi bo‘yicha Shahzod Asatullayev (Qashqadaryo viloyati), Dostonjon Mirzokarimov (Sirdaryo viloyati),

Opera ijrochiligi bo‘yicha Zarnigorxon Umarova, Dildora Mirsodiqova (Toshkent shahri), Iqboljon Rahmatov (Farg‘ona viloyati), Aminzoda Jumaniyozov (Xorazm viloyati).

Raqs san’ati yo‘nalishi bo‘yicha Sehriyo Mirzayeva (Toshkent shahri) “Nihol” mukofotiga loyiq topildi. Ularga diplom va mukofotlar tantanali tarzda topshirildi.

2017-yil “Nihol” mukofoti tanlovining tuman (shahar) saralash bosqichlarida 13 ming nafardan ortiq ijodkor yoshlar ishtirok etdi. Yakuniy bosqichga 171 nafar nomzod tavsiya etilgan. Yigirma nafar yosh ijrochi “Nihol” mukofotining 2017 yilgi sohibi sifatida e’lon qilindi[2].

2019-yilgi “Nihol” mukofoti tanlovining Namangan viloyat bosqichida 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan 58 nafar san’atkor musiqa, mumtoz qo‘shiq, raqs, opera va estrada ijrochiligi bo‘yicha o‘z mahoratini namoyish etdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra 11 nafar ishtirokchi tanlovning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi[3].

“Nihol” mukofoti tanlovining Andijon viloyat saralash bosqichida 64 nafar san’atkor musiqa, mumtoz qo‘shiq, raqs, opera va estrada ijrochiligi bo‘yicha o‘z mahoratini namoyish etdi. “Estrada” yo‘nalishi bo‘yicha Andijon shahridan Dostonbek Ahmadaliyev, “Musiqa ijrochiligi” yo‘nalishida - Shahzodbek To‘ychiyev (Andijon shahri), Azimjon Karimov (Shahrixon tumani), Mashhurbek Kozimjonov (Andijon tumani), “An’anaviy xonandalik” yo‘nalishi: Jahongir To‘xtashev (Izboskan tumani), Mohlaroy Bo‘tayeva (Bo‘z tumani), Sultonov Sirojiddin (Jalaquduq tumani), “Raqs” yo‘nalishida – Odina Ortiqnazarova (Andijon shahri), Omina Ro‘ziyeva (Xo‘jaobod tumani), “Opera” ijrochiligida Shohida Nurmatova (Jalaquduq tumani) va Buloqboshi tumanidan Bekzod Ibragimovlar nufuzli tanlovning Respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritishdi[4].

2021-yilgi “Nihol” mukofoti tanlovining tuman (shahar) saralash bosqichlarida 14 ming nafardan ortiq ijodkor yoshlar ishtirok etdi. Yakuniy bosqichga 210 nafar nomzod

[1] http://www.mashhur.uz/festivallar-va-tanlovlar/721-ozbekiston-respublikasi-prezidentining-yosh-istedodlar-uchun-lniholr-mukofoti

[2] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017 yil hisobotlari

[3] Namangan viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019 yil hisobotlari

[4] Andijon viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019 yil hisobotlari.

tavsiya etilgan. Yigirma nafar yosh ijrochi “Nihol” mukofotining 2021 yilgi sohibi sifatida e’lon qilindi[1].

Bundan tashqari, 2017 yil sentyabr oyida Toshkent shahrida “O‘zbegim” milliy qadriyatlar festivali tashkil etildi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy telekanali jamoasi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirda o‘zbek milliy urf-odatlari va an’analari, amaliy va tasviriy san’ati hamda milliy oshxonaning rang-barangliklari namoyish etildi. Shuningdek, milliy bayramda Farg‘ona vodiysi viloyatlari madaniyat va san’at sohasi vakillari ishtirok etishdi. Unda yosh hunarmandlarining yarmarkalari, xalq o‘yinlari va tomoshalari, folklor shoulari, qo‘g‘irchoq teatrlari, san’atkorlarning konsert dasturlari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3022-sonli qaroriga asosan 2018 yilning 29-martidan - 1 apreliga qadar Bolalar musiqa va san’at maktablari ansambllari respublika ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tdi[3]. Ko‘rik-tanlov ikki bosichda o‘tkazildi:

- birinchi bosqichda ishtirokchilar “Xalq cholg‘ulari”, “Estrada xonandaligi”, “Estrada cholg‘u ijrochiligi”, “Xor” yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etdilar;

- ikkinchi bosqichda esa “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi”, “An’anaviy xonandalik”, “Folklor”, “Xoreografiya” yo‘nalishlari bo‘yicha ansambllar ishtirok etishdi. Ko‘rik-tanlovda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardan jami 68 ta ansambl ishtirok etdi. Ko‘rik-tanlovning ochilish va yopilish marosimi va g‘oliblarni tantanali taqdirlash R.Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida bo‘lib o‘tdi. Ko‘rik-tanlovda respublika hududlaridagi g‘olib ahsambllar qatorida Farg‘ona vodiysi viloyatlari ansambllari ham qatnasib sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Jumladan,

“Marg‘ilon nixollari” – Marg‘ilon shahar 8-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi;

“Shodlik” ansambli – Namanagan viloyati 1-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi;

“Lola” ansambli – Andijon viloyati 1-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi yoshlari ko‘rik-tanlov g‘oliblari sifatida taqdirlandi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yilning 19-mart kuni ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni birinchi yo‘nalishi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu birinchi tashabbus yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamkor tashkilotlar bilan birga 2020 yil “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivali tashkil etildi[5]. Festivalda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan ijodkor bolalar yakka, jamoaviy tarzda, quyidagi 6 ta yo‘nalishda ishtirok etishdi:

“A” guruhi: Klassika – fortepiano, torli, damli, zarbli musiqa asboblari;

“B” guruhi: Vokal – an’anaviy va akademik ijro, estrada, folklor hamda xor guruhlari;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2021 yil hisobotlari.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017 yil hisobotlari.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2018 yil hisobotlari.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2018 yil hisobotlari.
[5] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020 yil hisobotlari.

“S” guruhi: Milliy cholg‘u – torli, damli, zarbli va chertib chalinadigan musiqa asboblari;

“D” guruhi: Raqs va badiiy gimnastika – milliy, ball hamda zamonaviy raqslar, buyum (tasma, koptok, halqa, arg‘amchi) bilan va usiz turli nafis gimnastika va raqs mashqlarini musiqa ostida bajarish;

“E” guruhi: Tasviriy va amaliy san’at. Tasviriy san’at yo‘nalishiga – grafika, rangtasvir, natyurmort, liboslar dizayni; Amaliy san’at yo‘nalishiga – haykaltaroshlik, kulolchilik, zardo‘zlik, quroqchilik, gilamdo‘zlik, biser to‘qish, yumshoq o‘yinchoqsozlik, naqqoshlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi kiradi;

“F” guruhi: Nasr va nazm. Nazm yo‘nalishiga – she’r, g‘azal, doston; nasr yo‘nalishiga – hikoya, ertak kiradi.

“Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining viloyat, tuman, shahar bosqichida bir qancha iqtidorli yoshlar qatnashib sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Jumladan, Farg‘ona viloyat bosqichida tuman, shaharlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan va saralangan 300 dan ortiq bolajonlar viloyat bosqichida o‘z iste’dodini namoyish etdi. 6 yo‘nalish 18 nominatsiya bo‘yicha eng iqtidorli yoshlar aniqlandi. Nazm va nasr yo‘nalishi bo‘yicha buvaydalik Xonzoda Muhammadova g‘oliblikni qo‘lga kiritdi[1].

“Kamalak yulduzlari - 2022” bolalar ijodiyoti festivali respublika bosqichida[2] Marg‘ilon shahar “Barkamol avlod'” bolalar maktabining “Yosh doirachilar”, “Munchoqli bezak” to‘garagi a’zolari “B” va “E” yo‘nalishlarida faol ishtirok etdilar.

Festivalning “B” yo‘nalishi 6-10 yosh toifasida “Yosh doirachilar” to‘garagi a’zosi Jafarbek Yunusov 1-o‘rinni hamda respublika laureate bo‘ldi.

Festivalning “E” yo‘nalishi 11-14 yosh toifasida “Munchoqli bezak” to‘garagi a’zosi Mubinaxon Isroiljonova 2-o‘rinni egalladilar.

“Kamalak yulduzlari” festivalning 2020 yil Andijon viloyati tuman va shahar bosqichlarida g‘olib bo‘lgan 6 yoshdan 14 yoshgacha 315 nafar o‘g‘il-qizlar ishtirok etib, mumtoz, vokal va xalq cholg‘ulari, raqs, tasviriy va amaliy san’at, nazm va nasr kabi oltita yo‘nalish bo‘yicha o‘z iste’dod va mahoratlarini namoyish etdilar. Tanlov doirasida yosh rassomlar va hunarmandlarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, yosh san’atkorlar ishtirokida madaniy tadbirlar tashkil etildi3.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, 21 nafar yosh iste’dod sohibi festival g‘olibi deb topildi, ikkita yosh toifasida eng yuqori natijaga erishgan 4 nafar ishtirokchi festivalning respublika bosqichida qatnashish uchun yo‘llanma oldi. Andijon tumanidagi 33-umumta’lim maktabi o‘quvchisi Muxlisa Meliboyeva respublika bosqichida g‘olib bo‘ldi.

“Kamalak yulduzlari” festivalning 2020 yil Namangan viloyati tuman va shahar bosqichlarida g‘olib bo‘lgan 6 yoshdan 14 yoshgacha 300 nafar o‘g‘il-qizlar ishtirok etib, mumtoz, vokal va xalq cholg‘ulari, raqs, tasviriy va amaliy san’at, nazm va nasr kabi oltita yo‘nalish bo‘yicha o‘z iste’dod va mahoratlarini namoyish etdilar[4]. Namangan shahridagi 11-bolalar musiqa va san’at maktabida “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti

[1] Farg‘ona viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020 yil hisobotlari.
[2] Farg‘ona viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2022 yil hisobotlari
[3] Andijon viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020 yil hisobotlari.
[4] Namangan viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020 yil hisobotlari.

festivalining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 17 nafar yosh iste’dod sohibi festival g‘olibi deb topildi, ikkita yosh toifasida eng yuqori natijaga erishgan 7 nafar ishtirokchi festivalning respublika bosqichida qatnashish uchun yo‘llanma oldi. 18-sonli maktabning 8-sinf o‘quvchisi Abdullayeva Zilola Abdulaxad qizi “F” yo‘nalish bo‘yicha, 7-sonli maktabning 5-sinf o‘quvchisi Usmonov Azizbek “A” yo‘nalishi bo‘yicha, 1-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktabining 5-sinf o‘quvchisi Rahmonov Mirzoakbar “A” yo‘nalishi bo‘yicha mutloq g‘olib bo‘lib Respublika bosqichida g‘olib bo‘ldi va diplom bilan taqdirlanishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20-martdagi “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 237-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbek Milliy Maqom san’ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti hamkorligida yurtimizda yosh maqom ijrochilarining iste’dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon etish, o‘zbek musiqa ijrochilik san’atini yanada yuksak darajaga ko‘tarish, milliy maqom san’atini dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag‘batlantirish va ularning ijodini targ‘ib etish maqsadida 2021 yil Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” I Respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Mazkur tanlovda ishtirok etish niyatida bo‘lgan 20 dan 35 yoshgacha jami 100 nafardan ortiq nomzodlarning hujjatlari tashkiliy qo‘mitaga kelib tushdi. Shundan, 60 nafar sozanda, 35 nafar xonanda, 5 ta maqom ansambllari ishtirok etishga tavsiya etildi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2024 yildan boshlab “Televizion shou shakliga o‘tkaziladigan madaniyat va san’at sohasidagi tanlovlar”[2] quyidagilar:

“Yangi O‘zbekiston yulduzlari” madaniyat va san’at milliy mukofoti (2024-yildan boshlab har yili yanvar oyida), “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali (2024-yildan boshlab har yili mart oyida), Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi milliy raqs ijrochilari ko‘rik-tanlovi (2024-yildan boshlab har yili mart - may oylarida), “Xush kayfiyat” respublika yosh qiziqchi va askiyachilar tanlovi (2024-yildan boshlab har yili aprel oyida), Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov nomidagi yosh ijrochilar respublika tanlovi (2024-yildan boshlab har yili may - iyul oylarida), Turg‘un Alimatov nomidagi respublika tanlovi (2024-yildan boshlab har yili may - iyul oylarida), Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo‘shiqchilar tanlovi (2024-yildan boshlab har yili sentabr - dekabr oylarida). Shuningdek, tashkil etish va o‘tkazish xususiy sektorga o‘tkaziladigan madaniyat va san’at sohasidagi ko‘rik-tanlovlar quyidagilar:

“Yosh vokal ijrochilari” ko‘rik-tanlovi (2024-yildan boshlab har ikki yilda bir marta mart oyida), Nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida “Eng yaxshi kitobxon” respublika tanlovi (2024-yildan boshlab har yili may oyida), “Marhabo talantlar” respublika ko‘rik-tanlovi (2024-yildan boshlab har yili may - oktabr oylarida), “Yosh balet ijrochilari” ko‘rik-tanlovi (2025-yildan boshlab har ikki yilda bir marta aprel oyida), “Ona zamin

[1] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari
[2] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari

ohanglari” respublika ko‘rik-tanlovi (2025-yildan boshlab har ikki yilda bir marta iyun oyida) o‘tkazib kelinmoqda.

Madaniyat vazirligi, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi hamda Farg‘ona viloyati hokimligi bilan hamkorlikda “Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov” nomidagi yosh ijrochilar respublika ko‘rik-tanlovini 2024-yildan boshlab har yili may - iyul oylarida o‘tkazish belgilandi[1].

2024 yil 17-sentyabr kuni Farg‘onada “Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov” nomidagi yosh ijrochilar respublika ko‘rik-tanlovining nomzodlarini saralash bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda Respublikamizning turli hududlaridan 70 dan ziyod professional hamda havaskor xonanda va sozanda ijrochilar ishtirok etishdi.

2024 yil 19-sentyabr kuni tanlov hay’ati ijro mahorati, ovoz pardalari, sahnada o‘zini tutish, muxlislar bilan muloqotigacha bo‘lgan jihatlarni hisobga olib, g‘olib va sovrindorlarni e’lon qilishdi. Farg‘onalik Mubinaxon Jo‘rayeva, Namangan viloyatidan ishtirok etgan Otabek Isoqov ko‘rik-tanlovning 3-o‘rniga munosib ko‘rildi. Farg‘onalik Laylo Soynazarovalar ikkinchi o‘rinni egalladi.

2024 yil davomida ijodkor yoshlarning tanlovlardagi ishtiroki yo‘nalishda jami 18 ta respublika ko‘rik-tanlovlari va festivallar o‘tkazildi. O‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlar va festivallarga 10 ming nafardan ortiq ijodkor yoshlar qamrab olindi. Shuningdek, madaniyat va san’at sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan hududlarda 14 ta “Rahbar va yoshlar”, “Xokim va yoshlar” uchrashuvlari tashkil etilib, ularga 1 ming 400 nafardan ortiq yoshlar jalb qilindi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ham “Xokim va yoshlar” uchrashuvlari tashkil etildi. Jumladan, Andijon viloyatida o‘tkazilgan uchrashuvda viloyat hokimi Sh. Abdurahmonov oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar bilan uchrashdi. Sh. Abdurahmonov viloyatda o‘tkazilgan “Open Andijan” I xalqaro investitsiya forumi doirasidagi tadbirlarda talaba-yoshlar ko‘ngilli, tarjimon sifatida faol ishtirok etganini alohida e’tirof etdi.

Tadbirda so‘z olgan yoshlar tengdoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini, intellektual salohiyatini oshirish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi g‘oya va tashabbuslari bilan yurt ravnaqiga munosib xizmat qilish zarurligi xususida taklif, fikr va mulohazalar bildirishdi. Viloyat hokimi Feysbuk ijtimoiy tarmog‘ida “Men Andijonni sevaman” shiori ostida xeshtek ochish, viloyat haqida o‘zbek, rus va ingliz tillarida ma’lumotlar bilan to‘ldirish haqidagi taklifni bildirgan Andijon davlat universiteti talabasi Olimbek Tursunovga alohida raxmat aytib o‘tdi.[2]

Bu shubhasiz, nafaqat O‘zbekistondagi, balki dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarga Andijon haqida keng ma’lumotlar olish imkonini beradi.

Uchrashuvda tashabbuskor va faol yoshlarning bir guruhi tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Xokim va yoshlar” uchrashuvda viloyat hokimi Sh. Abdurazzoqov viloyatda yoshlar yetakchilari mahallabay ishlab, 705 ming nafar o‘g‘il-qiz qayta xatlovdan o‘tkazilgani, ularning 14777 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtisodiy muammosi bo‘lganligi sababli “Yoshlar daftari”ga kiritilganini ta’kidladi. Bugungi kunda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari

[2] Andijon viloyat Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

viloyatda mavjud 730 ta maktabda jami 549602 nafar o‘quvchiga 39531 nafar o‘qituvchi ta’lim-tarbiya berib kelayotganligi, oxirgi 2 yil ichida namanganlik 471 nafar o‘quvchi xalqaro va respublika tanlovlarida faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritganliklarini ta’kidladi. [1]

2024 yil davomida Namangan viloyatida 7936 nafar yoshga 24 milliard so‘mlik ko‘mak berilgan, shundan, 3013 nafar yoshga 9,6 milliard so‘mlik to‘lov-kontrakt, 814 nafariga 964,6 million so‘mlik haydovchilik guvohnomasi, 497 nafar yoshlarga 2,9 milliard so‘mlik safarbarlik chaqiruvi rezervi uchun to‘lovlar qoplangan, 2094 nafar yoshga 8 milliard so‘mlik subsidiya ajratilgan, 380 nafar yoshga 1,4 milliard so‘mlik tibbiy xizmat ko‘rsatilgan.[2]

Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Xokim va yoshlar” uchrashuvida 2025 yilda yoshlarni iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish, ayniqsa, axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, ularni zamonaviy kasblarga o‘qitish hamda shu orqali bandligini ta’minlash maqsadida viloyatda 200 nafar faol va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni IT yo‘nalishida zamonaviy kasbga o‘qitish uchun 600 million so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi. Yoshlar tomonidan xalqaro IT hamda “Biz yoshlar Ibrat izdoshlarimiz” shiori ostida iste’dodli yoshlar Xalqaro forumini o‘tkazish hamda xorijiy tillarni o‘rgatishni rivojlantirishga oid takliflari ma’qullandi.[3]

Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida har yili o‘tkazib kelinadigan Halqaro darajadagi - Zolotoy Feniks ko‘rik tanlovi ham yuqorida keltirilgan fikrlarning yaqqol isboti bo‘la oladi. 2022 yilning mart oylarida o‘tkazilgan ushbu ko‘rik tanlovda Toshkent shahridagi bolalar musiqa va san‘at maktablarining o‘quvchilari ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritganlar.[4]

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida 2022 yil 25-27-mart kunlari bo‘lib o‘tgan ―Zolotoy Feniks xalqaro tanlovinig taqdirlash marosimi Yurtimizda o‘tkazilayotgan Respublika miqyosidagi tadbirlar va ommaviy bayramlarda zamonaviy estrada ijrochilarining rang barang qo‘shiqlari xalqimizga va tomoshabinlarga manzur bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik bayrami, Navrzo‘z umumxalq bayrami, Sharq taronalari (Samarqand), Raqs sehri (Xorazm), Ipak va ziravorlar (Buxoro), Boysun bahori (Surxondaryo), Maqom xalqaro festivali (Shaxrisabz), Baxshichilik (Termiz), Atlas va adras (Marg‘ilon), Gullar sayli (Namangan), Halqaro hunarmandlar festivali (Qo‘qon),

Yagonasan, muqaddas Vatan!, Nihol, Kuyla yoshligim, Akademik va estrada ijrochiligi, Botir Zokirov fondi ijrochilar tanlovi, Nazira Axmedova nomidagi Respublika opera ijrochilari ko‘rik-tanlovlarida kompozitorlarimiz tomonidan yaratilgan estrada vokal qo‘shiqlarini yosh xonandalar, taniqli estrada yulduzlari, bolalar ansambllari tomonidan ijro etib kelmoqdalar.

[1] Namangan viloyati xokimligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

[2] Namangan viloyat Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

[3] Namangan viloyati xokimligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2025 yil 1-chorak hisobotlari.

[4] Mirziyoev Sh.M. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 yil. https://cyberleninka.ru/article/

2017-yil 16-avgustda “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialini tashkil etish to‘g‘risida”[1] Prezident qarorining imzolanishi mamlakatimiz madaniyati va san’ati tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. 2017-yil 16-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017 yil 18-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”, 2018 yil 27-iyunda “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmonlari imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori[2] xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’atining istiqboliga keng yo‘l ochib berdi. Ushbu Qaror asosida “O‘zbek milliy maqom san’ati markazi” tashkil etildi. Milliy maqom san’atini rivojlantirish orqali mamlakat hududlarida shakllangan ijro va ijodiy maktablar an’analari, hofiz hamda sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish, targ‘ib qilish, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kamol toptirish kabi qator vazifalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Har 2 yilda 1 marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati festivalini o‘tkazish belgilandi. Xalqaro maqom san’ati festivalida “Eng yaxshi maqom xonandasi”, “Eng yaxshi maqom sozandasi”, “Eng yaxshi maqom ustozi”, “Eng yaxshi maqom targ‘ibotchisi”, “Eng yosh maqomchi” kabi nominatsiyalar bo‘yicha mukofotlar ta’sis etildi.[3]

Toshkent shahridan boshlab mamlakatning barcha viloyatlarida “Maqom markazi” uchun zamonaviy talablarga javob beradigan loyiha asosida yangi bino qurilishi, maqom yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan ijodiy jamoalar, ansambllar 2023-yilgacha barcha soliq to‘lovlaridan ozod etilishi, maqom san’atini tadqiq qilish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar, o‘quv qo‘llanmalari, zarur adabiyotlarni nashr qilish xarajatlari respublika davlat byudjetidan moliyalashtirilishi kabi o‘ta muhim vazifalarning belgilab qo‘yilishi mamlakat ma’naviy yuksalishini ta’minlashdagi muhim qadam bo‘ldi.[4]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3656-sonli qaroriga[5] asosan Shahrisabz shahrida 2018 yilning 6-10-sentabr kunlari “I Xalqaro maqom san’ati anjumani” o‘tkazildi.

2024 yil 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanida YUNESKO va AYSESKO shafeligi ostida “II Xalqaro maqom san’ati anjumani” o‘tkazildi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialini tashkil etish tog‘risida” 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3218-son Qarori. // https://lex.uz/docs/-3311277

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3391-son qarori. //Xalq so‘zi, 2017-yil 17-noyabr. https://lex.uz/docs/-3581613

[3] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxiv ma’lumotlari. 2017- yil hisobotlari.

[4] To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3656-sonli qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 6-aprel. https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-maqom-san-ati-anjumanini-o-tkazish-to-g-risida-06-04-2018

“II Xalqaro maqom san’ati anjumani”da 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ortiq ishtirokchilar qatnashdi.

I-II “Xalqaro maqom san’ati anjumani”ga Farg‘ona vodiysining Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyati delegatsiyalari o‘zgacha taraddud bilan tashrif buyurishdi. Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlari san’at ustalari mahoratlarini o‘zlariga ajratilgan maydonda va katta sahnada namoyish etishdi.[1] Anjuman doirasida Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘z milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi hunarmandchilik mahsulotlaridan namunalar, oshpazlik san’ati va hududning turizm salohiyatini ham mehmonlar e’tiboriga havola qilishdi.

Shuningdek, bugungi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida Maqom markazi va maqom ansambllari keng miqiyosda faoliyat olib bormoqda. Maqom ansambllarida yosh ijrochilarga ustoz san’atkorlar tomonidan maqom sirlari o‘rgatib kelinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali qoshida tashkil etilgan “Maqom maktabi” hamda “Askiya maktabi” faoliyat olib bormoqda.[2] Ushbu tashkil etilgan maktablarga san’atga qiziquvchi yoshlar keng jalb etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018-yil 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida yosh avlodni milliy-ma’naviy qadriyatlar va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash, uchun baxshichilik hamda dostonchilik san’atini rivojlantirish maqsadida Termiz shahrida Baxshilar maktabi tashkil etildi. Milliy madaniyat tarkibida sayqallanib, xalq badiiy tafakkurining boy qadimiy an’analari, so‘nmas ohanglarini o‘zida jamlagan, sara terma va dostonlarni butun salobati bilan asrlar davomida asrab-avaylab kelayotgan, mehr-muhabbat, qahramonlikni, mardlik va jasoratni tarannum etuvchi baxshichilik san’atini qayta tiklash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[3] (2018-yil 1-noyabr), “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] (2019-yil 14-may) qarorlari madaniy hayot rivojidagi ulkan tarixiy voqea bo‘ldi.

Madaniyat va san’at sohasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini zamon talablari asosida mustahkamlash borasida ham qator meyoriy huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 26-avgust) qarori muzeylarda saqlanayotgan osori-atiqalarimizni asrab avaylash va ularni muhofaza qilish borasida yangi bir qadam bo‘ldi. Qarorga asosan 2017-2027-yillarda yangidan sakkizta muzey ochish, 21 ta muzeyni qayta tashkil etish, 2027-yilgacha davlat muzeylari uchun 9 ta yangi bino qurish, 11 tasida rekonstruksiya ishlarini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. // 2024 yil hisobotlari.

[2] Farg‘ona viloyati madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. // 2024 yil hisobotlari.

[3] 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” PQ-3990-son qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 1-noyabr. https://lex.uz/acts/-5366217, https://lex.uz/uz/docs/-4072873

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2019-yil 14-may. https://lex.uz/docs/-4072873?ONDATE=03.03.2025%2000

amalga oshirish, 68 tasini mukammal ta’mirlash va qayta jihozlash ishlarini olib borish ko‘zda tutilgan. 2018-yil 1-noyabrda imzolangan “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi[1] Prezident qarori esa Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivaliga, jahon hunarmandchilik Kengashining 2019-yilning 23-iyuldagi qaroriga ko‘ra Qo‘qon shahriga yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha Hunarmandchilik shahri maqomi berilishiga sabab bo‘ldi. Bungacha jahonning turli mamlakatlaridagi 35 ta shahargina mazkur maqomga sazovor bo‘lgan.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori[3] madaniyat va san’at sohasidagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Konsepsiyada, avvalo, madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani yaratish, ushbu sohadagi institusional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish asosiy vazifa etib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish ham nazarda tutilgan. 2021-yil 20-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son qonuni[4] qabul qilindi.

Xususan, soha uchun professional malakali kadrlarni tayyorlash, iste’dodli ijodkorlarni yetishtirish, folklor, akademik va estrada musiqasiga doir adabiyotlar yaratish, ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy madaniyat va san’at muassasalari bilan tajriba almashish, chet el ta’lim tizimining eng yaxshi yutuqlaridan, shuningdek madaniyat va san’at ta’limi tizimini rivojlantirishga asoslangan texnologiyalardan keng foydalanish kabi masalalar konsepsiyada asosiy vazifalar etib belgilab berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi, 39 ta professional teatr, 832 ta madaniyat markazi, 597 ta xalq ansambllari, 6 mingdan ortiq badiiy havaskorlik to‘garaklari, bundan tashqari, 323 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 257 ta madaniyat va istirohat bog‘i, 210 ga yaqin tuman (shahar) madaniyat bo‘limlari hamda yana bir qancha madaniyat va san’at muassasalari ishlab turibdi.[5] Ularning har birida, albatta, birinchi rahbar, o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbarlari faoliyat ko‘rsatishadi. Demak, ijtimoiy sohaning eng yirik jabhalaridan biri bo‘lgan madaniyat va san’at sohasini boshqarish, uni yanada rivojlantirish va istiqbolini belgilashga mas’ul bo‘lgan zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash g‘oyatda dolzarb bo‘lib,

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3991-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 1-noyabr. https://nrm.uz/contentf?doc=566362_o%E2%80%9801_11_2018_y_pq-3991-qarori

[2] Haydarov A. Milliy madaniyat renessans poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 28-noyabr. https://lex.uz/docs/-4084926

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son qonuni. // Xalq so‘zi, 2021-yil 20-yanvar. https://lex.uz/docs/-5230682

[5] Mahmudov N. Xalqimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

davlatimiz rahbari tomonidan doimiy ta’kidlab kelinayotgan ushbu jiddiy muammoning yechimini hal etish konsepsiyadagi asosiy masalalardan biridir.

2020-yil 4-fevral o‘zbek madaniyati va san’ati tarixida shonli va unutilmas kunlardan biri bo‘ldi. Ayni shu kuni bir yo‘la ikkita - “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son[1] hamda “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2] PQ-4585-son qarorlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda milliy raqs san’atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish kabi maqsadlar belgilanib, ularga erishish yo‘llari aniq ko‘rsatib berildi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘z vaqtida ustoz san’atkorlar say-harakatlari tufayli olamga mashhur bo‘lgan, biroq ba’zi sabablarga ko‘ra ijodiy faoliyati to‘xtab qolgan Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi «Bahor» davlat raqs ansambli yangidan tashkil etilib, avvalgi mavqei tiklanishi yurtimiz madaniy hayotida, hech mubolag‘asiz, katta tarixiy voqea bo‘ldi.

“Ustoz-shogird” an’analariga asoslangan raqs maktablarini yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda raqs san’ati borasida ilm-fanni jadal rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqib Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etilib, 400 nafar talaba o‘qishi uchun mo‘ljallangan va zamonaviy yotoqxonasiga ega bo‘lgan yangi binoga joylashtirildi.

Uning huzurida Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamda Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs san’ati maktab-internatlarini barpo etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z ifodasini topdi. Qarorda mazkur ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida ular uchun barcha zarur sharoitlarga ega bo‘lgan binolar qurish va kerakli inventarlar bilan ta’minlash vazifalari ham belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon[3] va “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori[4] qabul qilindi. Farmonning bunday nomlanishi ham

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 4-fevral. https://lex.uz/docs/-4724383

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4585-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 4-fevral. https://lex.uz/docs/-4724480

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 2020-yil 26-may.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4730-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 26-may.

milliy madaniyatga bo‘lgan chinakam ehtiromning yorqin namunasidir. Farmon madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatida, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ro‘y berayotgan yangilanish, o‘zgarishlar va yuksalishlar jarayonida madaniyat va san’atning o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan yangi bir qadam bo‘ldi. Farmonda keng ko‘lamli ishlar rejalashtirilgan bo‘lib, 2020-2021-yillarda madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi hamda Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan, shuningdek, soha ahlining mehnatini qadrlash, san’atkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish borasida ko‘p yillardan beri yechimi kutilayotgan dolzarb masalalar hal etilgan. Xususan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash, litsenziatlarning davlat reyestrini yuritish, ularning faoliyati va erishgan natijalari haqidagi axborotlarni kiritib borish Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali orqali amalga oshirilishi, konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig‘imning bekor qilinishi, davlat organlari va tashkilotlarning tashabbuslari bilan o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konserttomosha tadbirlari har yil tasdiqlanadigan kalendar rejaga ko‘ra o‘tkazilishi, konserttomoshalarni tashkil etishga doir barcha xizmatlar to‘lov shartnomalari asosida taqdim etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan turli tadbirlarga san’atkorlarning jamoatchilik asosida jalb qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligi, kelgusida notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar nashri uchun Davlat byudjetidan mablag‘lar ajratilishi, 2020-yil 1-sentabrdan boshlab to‘liq jonli ijro asosida o‘tkazilgan konsertlarga ijara to‘lovidan 50 foiz imtiyoz berish tartibi joriy etilishi, San’atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi tashkil etilishi va buning uchun Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1 mlrd. so‘m ajratilishi belgilab qo‘yildi.[1]

Shuningdek, Farmonga asosan Respublika qo‘g‘irchoq teatriga “O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri” maqomi berildi, Navoiy, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida barcha qulayliklarga ega bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatrlari tashkil etildi. O‘zbek davlat sirki binosini to‘liq rekonstruksiya qilish, qo‘shimcha ravishda hayvonlarni saqlash xonalarini qurish va jihozlash ishlari yakuniga yetkazildi. Mamlakatning har bir hududida ko‘chma sirklar - shapito, dorbozlar guruhlari hamda hayvonot bog‘lari tashkil etilishi belgilandi. Shuningdek, dorbozlik guruhlari a’zolari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi, har bir tuman va shaharda tarix va madaniyat davlat muzeylarining filiallari shaklida o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etilib, muzeylarda “ochiq eshiklar kuni” tadbirlari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

[1] Nazabekov O. Yuksak e’tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so‘zi gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 4. https://cyberleninka.ru/article/

tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi[1] PF-6202-son farmoni va “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi PQ-5060-son Qaroriga[2] asosan o‘tkazilgan “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali o‘zbek kinosining jahon kinosi bilan sintezlashuvining aksi sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, 1968-1997 yillar davomida O‘zbekistonda o‘tkazilib kelingan “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tiklangani - “Tinchlik, taraqqiyot va ma’rifat” shiori ostidagi bu nufuzli anjuman Osiyo qit’asi va qadimiy Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan mamlakatlar yosh kinoijodkorlarining qisqa metrajli filmlari festivalini o‘tkazish borasidagi nufuzli tanlovga mezbonlik qilishi madaniyat va san’at sohamizning taraqqiy yo‘li bo‘ldi.

2021-yil 7-iyunda “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi 694-son O‘RQning imzolanishi g‘oyatda quvonchli voqea bo‘ldi. Madaniyat va san’at sohasi xodimlari ko‘pdan beri orzu qilib kelgan tarixiy voqea amalga oshirilib, Nizomda 15 aprel sanasi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at xodimlari kuni” deb belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 27-dekabrdagi “Opera va balet san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida san’atning ushbu yo‘nalishini yanada rivojlantirish, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri faoliyatini takomillashtirish, uning jahon san’ati olamida tutgan o‘rni va mavqeini mustahkamlash vazifalari belgilandi. Shuningdek, opera va balet san’atini yanada rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Jumladan, respublikada opera va balet san’atini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida milliy opera va balet san’atida ustoz shogird an’analari va mahorat maktablarini rivojlantirish, opera va balet san’atidagi iste’dodli va yuqori malakali ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish, ana shunday maktab yaratgan ijodkorlarni davlat byudjeti hisobidan asosiy ish joyi orqali har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida qo‘shimcha rag‘batlantirib borish va boshqa chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4688-son Qaroriga[3] binoan milliy madaniy merosni qadrlash, buyuk musavvir va rassom Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini keng nishonlash bilan birga atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, tasviriy va amaliy san’at, dizayn sohasini takomillashtirish, “Kamoliddin Behzod izdoshlari” miniatyura va xalq amaliy san’ati asarlari ijodiy tanlovi,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6202-son Farmoni. // Xalq so‘zi, 2021-yil 7-aprel. https://lex.uz/docs/-5374440

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi PQ-5060-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2021-yil 7-aprel. https://lex.uz/docs/-5374446

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4688-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 21-aprel. https://lex.uz/docs/-4795687

“O‘zbekiston zamonaviy miniatyurasi” katalogini tayyorlash, tasviriy san’at yo‘nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste’dodli ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratdi.[1]

2021-yil 20-yanvar “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son Qonuni madaniy faoliyatni, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishi, ijodkorni, ijodiy jamoani, ijodiy faoliyatni qo‘llab quvvatlashi uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Ijodiy faoliyat erkinligi, madaniy faoliyat sohasidagi ta’lim va tarbiyaning tizimliligi, ilmiyligi va uzluksizligi tamoyillariga asoslangan bu qonun asosan madaniy merosimiz, tarixiy milliy o‘zligimizni anglash, tarixiy merosimizni kelajakka bekamu ko‘st yetkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farzandlarimiz tafakkuriga singdirish, xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni taraqqiy toptirish, milliy madaniyatimizni jahon madaniyatining yakdil bir qismi sifatida e’zozlash kabi muhim masalalarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’atni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli Qarorini qabul qilinishi esa, aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratishga zamin yaratdi.

Xulosa qilinsa, Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar hech qachon to‘xtab qolmaydi. Qolaversa, musiqa san’atini targ‘ib qilish va rivojlantirish, musiqa san’atiga doir xalqaro festivallar va yarmarkalar o‘tkazilishini ko‘zda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (15.08.2017, PQ-3212), “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojantirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi qarori (17.11.2017, PQ-3391), “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida” gi qarori (06.04.2018, PQ-3656), “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (26.02.2019, PQ-4214), “Bolalar musiqa va san’at maktablari rahbar, o‘qituvchi va konsertmeysterlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori (30.09.2019, PQ-4468) va Vazirlar Mahkamasining “Buyuk ipak yo‘li” xaqlaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” gi qarori (18.05.2018, 371-sonli), “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (20.02.2019, 149-sonli), “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (02.09.2020,

[1] Mahmudov N. Xalqimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article

536-sonli), “Oltin davr” xalqaro musiqa yarmarkasini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlaridir(06.11.2020, 692-sonli)[1].

Xulosa qilib aytganda madaniyat va san’at sohasidagi islohotlarda yoshlar tashkilotlarining o‘rni beqiyosdir. Yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, madaniyat hamda san’atda yuksak natijalarga erishishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Prezident tashabbusi bilan faoliyat yuritayotgan Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi bu jarayonning muhim omili hisoblanadi. Davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlarining faol qo‘llab-quvvatlashi madaniy-ma’rifiy hayotni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atni rivojlantirishga qaratilgan qarorlar, xalqaro tanlovlar va festivallar esa yoshlarning ijodiy faolligini yanada rag‘batlantirmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 yil. https://cyberleninka.ru/article/

2. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 567-yig‘ma jild, 15-varaq

3. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 41-varaq. https://lex.uz/docs/-177428

4. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘ma jild, 39-varaq https://lex.uz/ru/docs/-283197

5. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 33-varaq.

6. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 43-varaq.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 25-varaq

8. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 30-varaq

9. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘ma jild, 32-varaq

10. Farg‘ona viloyati davlat arxivining FDA-1-fond, 3174-ro‘yxat, 19-yig‘ma jild, 10-varaq

11. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017-yil hisobotlari.

12. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2008-yil hisobotlari.

13. http://www.mashhur.uz/festivallar-va-tanlovlar/721-ozbekiston-respublikasi-prezidentining-yosh-istedodlar-uchun-lniholr-mukofoti

14. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017-2024 yil hisobotlari

15. Namangan viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2017-2024 yil hisobotlari

16. Andijon viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019-2021 yil hisobotlari.

17. Namangan viloyat Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

[1] 2023-yil 13-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohalarni belgilab olish maqsadida bir nechta vazirlar bilan uchrashgan majlisdagi nutqidan.

18. Namangan viloyati xokimligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2025 yil 1-chorak hisobotlari.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialini tashkil etish tog‘risida” 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3218-son Qarori. // https://lex.uz/docs/-3311277

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3391-son qarori. //Xalq so‘zi, 2017-yil 17-noyabr. https://lex.uz/docs/-3581613

21. To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3656-sonli qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 6-aprel. https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-maqom-san-ati-anjumanini-o-tkazish-to-g-risida-06-04-2018

23. 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” PQ-3990-son qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 1-noyabr. https://lex.uz/acts/-5366217, https://lex.uz/uz/docs/-4072873

24. Haydarov A. Milliy madaniyat renessans poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. // Xalq so‘zi, 2018-yil 28-noyabr. https://lex.uz/docs/-4084926

26. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son qonuni. // Xalq so‘zi, 2021-yil 20-yanvar. https://lex.uz/docs/-5230682

27. Mahmudov N. Xalqimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6. https://cyberleninka.ru/article/

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 4-fevral. https://lex.uz/docs/-4724383

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4585-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 4-fevral. https://lex.uz/docs/-4724480

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 2020-yil 26-may.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4730-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2020-yil 26-may.

32. Nazabekov O. Yuksak e’tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so‘zi gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 4. https://cyberleninka.ru/article/

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6202-son Farmoni. // Xalq so‘zi, 2021-yil 7-aprel. https://lex.uz/docs/-5374440

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi PQ-5060-son Qarori. // Xalq so‘zi, 2021-yil 7-aprel. https://lex.uz/docs/-5374446

35. Хотамов Ғ. XXI аср: истиқболимиз тимсоллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 188. // https://lex.uz/docs/-168900

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Kurbonaliyev Ural Xatamovich
“International school of finance technology and science” instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Kirish. Bugungi globallashuv davrida dunyodagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar nihoyatda tez o‘zgarib, avvalgidan ham murakkab, o‘zaro bog‘liq va ko‘p qatlamli tus olmoqda. Turli madaniy maydonlar bir-biriga yaqinlashib, milliy chegaralar shaxs ongida nisbatan yumshab borayotgan bir pallada yoshlar ma’naviy dunyoqarashining shakllanishi masalasi ilmiy hamjamiyat e’tiborida markaziy mavzulardan biri sifatida qolmoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, global kommunikatsiyalarning kuchayishi, madaniyatlararo aloqalarning erkinlasha borishi yoshlarning qadriyatlar tizimi va ma’naviy dunyosida yangi jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlarning aksariyati tabiiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa, ayrimlari yoshlarning milliy va ma’naviy identiteti uchun jiddiy sinov vazifasini ham bajaradi.

Shu nuqtai nazardan, umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ular turli madaniyatlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar va tarixiy davrlarni bog‘lab turuvchi barchaga xos ma’naviy mezonlardir. Inson sha’ni, erkinlik, adolat, mehr-oqibat, tinchlik, o‘zaro hurmat kabi universal qadriyatlar tez o‘zgarayotgan dunyoda yoshlarning barqaror ma’naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu qadriyatlarning mazmunini chuqur anglash, ularni milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashtira olish, global axborot makonida ularning ahamiyatini boy bermaslik falsafiy tahlil va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari bir-biriga qorishib ketgan sharoitda yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish va ularni raqamli asr talablariga mos tarzda rivojlantirish davlat, jamiyat, ta’lim tizimi va ilmiy tafakkur

oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Aynan shu sababli global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga ta’sirini aniqlashda kompleks, tizimli va komparativ yondashuvlar asosiy metodologik tayanchni tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuvning o‘zi qatlamli, murakkab jarayon bo‘lgani uchun uni faqat bitta metod orqali tadqiq qilish yetarli emas. Shu bois, falsafiy umumlashtirish, ijtimoiy tahlil, madaniy tadqiqotlar, kommunikativ yondashuv va struktur-funksional tahlil bir-biri bilan uyg‘un holda qo‘llandi. Avvalo, umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni global madaniyatdagi o‘zgarishlar bilan qanday kesishishini aniqlash uchun konseptual tahlil metodidan foydalanildi. Bu yondashuv qadriyatlarning asosiy kategoriyalarini aniqlash, ularning tarixiy shakllanishi va zamonaviy talqinlarini solishtirish imkonini berdi.

Shuningdek, yoshlar ongida kechayotgan ma’naviy jarayonlarni real ijtimoiy tajriba bilan bog‘lash maqsadida sotsiologik tahlilning ayrim elementlari yoshlar bilan olib borilgan suhbatlar, fikrlar monitoringi, global media maydonidagi tendensiyalarni kuzatish kabi usullar qo‘llandi. Bular empirik material sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, tadqiqotning umumiy yo‘nalishi falsafiy tahlilga tayandi. Globallashuvning ijtimoiy-madaniy oqimlarini tushuntirishda struktur-funksional metod yordamida global madaniyatning yoshlar hayotiga kirib kelish mexanizmlari axborot, madaniy iste’mol, kommunikatsiya, o‘zaro ta’sir, identitet shakllanishi kabi omillar tizimli ravishda o‘rganildi. Natijalarni mustahkamlash uchun komparativ tahlil metodi orqali turli davlatlardagi yoshlar ma’naviyatiga oid ilmiy qarashlar solishtirildi. Bunda Sharq va G‘arb falsafasidagi umuminsoniy qadriyatlar konsepsiyalari, ularning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni alohida tahlil qilindi. Barcha metodlar bir butun ilmiy konsepsiya sifatida uyg‘unlashtirilganda, globallashuvning ma’naviy jarayonlarga ta’siri ko‘p qirrali va chuqur mohiyatga ega ekanligi aniq bo‘ldi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida bir nechta muhim ilmiy xulosalar shakllandi. Avvalo, globallashuvning ijtimoiy-madaniy oqimlari yoshlar dunyoqarashi va ma’naviyatida ikki yo‘nalishli ta’sirni yuzaga keltirayotgani aniqlandi: biri ijobiy modernizatsion tendensiyalarni, ikkinchisi esa ma’naviy xavf omillarini yuzaga chiqaradi. Ijobiy tomonlar sifatida yoshlarning tafakkuri ochiqligi, axborotga erkin kirish imkoniyati, xalqaro tajriba bilan tanishish, tolerantlik va madaniyatlararo muloqot madaniyatining ortishi qayd etildi. Bu jarayon umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini yanada kengaytirib, ularni individual ongda yuqori darajada qabul qilish imkonini beradi.

Biroq natijalar shuni ko‘rsatadiki, global madaniy oqimlarning cheksiz kengayishi ma’lum ma’naviy xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi, virtual madaniyatning kuchayishi, identitetning noaniq shakllanishi, iste’molchilik qadriyatlarining ustuvorligi o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatida barqaror bo‘lmagan jarayonlarni paydo qilishi mumkin. Tadqiqot davomida yoshlar ongidagi ma’naviy “ikkilanish” holati milliy-madaniy ildizlarni saqlab qolish va global madaniyatga moslashish o‘rtasidagi psixologik o‘zgarishlar ko‘p uchrashi aniqlangan.

Natijalarning eng muhim jihati umuminsoniy qadriyatlar yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lishidir. Inson qadr-qimmati, halollik, adolat, tinchlik, o‘zaro hurmat kabi qadriyatlar global madaniy oqimlar ta’sirida o‘z ma’nosini yo‘qotmaydi, aksincha, mazkur jarayonlar fonida yana-da dolzarblashadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yoshlar ma’naviy dunyosida umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan dunyoqarash milliy identitetni zaiflashtirmaydi, balki global jarayonlarni ongli qabul qilish uchun barqaror ruhiy poydevor yaratadi.

Muhokama. Erishilgan natijalar globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyati nima uchun murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekanini chuqurroq tushuntirishga imkon beradi. Global madaniyatning kengayishi tabiatan neytral bo‘lsa-da, yoshlar ongida uning qabul qilinishi bir xil bo‘lib qolmaydi. Bu jarayon yoshlarning oilaviy tarbiyasiga, ta’lim tizimiga, axborotdan foydalanish madaniyatiga va eng muhimi umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun mazkur qadriyatlar global madaniy bosimlar orasida yoshlarni ruhiy va intellektual barqaror tutib turuvchi asosiy “tamoyil markazi” sifatida talqin qilinadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundan iboratki, globallashuv sharoitida umuminsoniy qadriyatlar yoshlar ongida faqat nazariy kategoriya sifatida emas, balki real hayotiy yo‘nalish beruvchi mezon sifatida shakllanishi lozim. Agar bu qadriyatlar amaliy faoliyatda, ta’lim jarayonida, ijtimoiy muloqotda va kundalik hayotda namoyon bo‘lsa, yoshlar global madaniyatni ongli, tanqidiy va mas’uliyatli tarzda qabul qila oladi. Aks holda esa ular yuzaki, beqaror, fragmentar tushunchalar sifatida qolib ketadi. Shuning uchun umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar tafakkuriga singdirish jarayonida falsafiy asoslangan yondashuv, milliy tarbiya an’analari, ijtimoiy institutlarning faol ishtiroki va zamonaviy kommunikatsion vositalardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, global kommunikatsiyalar faqat xavf manbai emas ular umuminsoniy qadriyatlarning keng yoyilishiga zamin yaratadi. Demak, global axborot makoni yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda raqobat maydoni emas, balki imkoniyatlar makoni sifatida ko‘rilishi mumkin. Bunda asosiy vazifa yoshlarning global jarayonlarni baholash va saralash qobiliyatini kuchaytirishdan iborat. O‘z navbatida, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash yoshlar ongida ruhiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, tanqidiy tafakkur va madaniy mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Xulosa. Globallashuvning bugungi bosqichi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning shiddat bilan o‘zgarishini, madaniyatlararo chegaralarning nisbatan yumshab borishini va yoshlarning dunyoqarashida ko‘p qatlamli identitet shakllarining paydo bo‘lishini kuchaytirmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ma’naviyati global madaniy ta’sirlar bilan milliy ma’naviy meros o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar maydonida shakllanadi. Bunday sharoitda umuminsoniy qadriyatlar yoshlar ongida barqaror yo‘nalish beruvchi asosiy tamoyillar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki ularning mazmuni millat, hudud va davrlar chegarasidan kengroq bo‘lib, insoniylikning umumiy mezonlarini mujassamlashtiradi. Aynan shu universallik yoshlarning global muhitda o‘z o‘rnini topishi, madaniy xilma-xillikni chuqurroq anglash, mas’uliyatli qaror

qabul qilish, bag‘rikenglik va ijtimoiy moslashuvchanlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida umuminsoniy qadriyatlarning kuchayishi yoshlar ma’naviyatida tayanch nuqtani shakllantirsa-da, bu jarayonning o‘zi muammosiz emas. Virtual madaniyat, ommaviy axborot oqimlarining nazoratsiz kengayishi, iste’molchilik psixologiyasi, madaniy fragmentatsiya kabi omillar yoshlar ongida beqarorlik va ma’naviy bo‘shliq keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar hayotiga singdirish jarayonida milliy tarbiya an’analarini zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoit bilan uyg‘unlashtirish eng muhim vazifaga aylanadi. Bunda ta’lim tizimi, oilaviy tarbiya, mahalla institutlari, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar bir-biri bilan uyg‘un va izchil faoliyat yuritishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytirish uchun umuminsoniy qadriyatlar faqat abstrakt nazariy tushuncha bo‘lib qolmasligi, balki kundalik hayot, real kommunikatsiya, ijtimoiy munosabatlar va ta’lim jarayonida amaliy mezon sifatida ishlashi lozim. Bu qadriyatlar yoshlar ongida mustahkam o‘rnashganda, ular globallashuv ta’sirida kelayotgan turfa axborot oqimlarini tanqidiy baholay oladi, ma’naviy barqarorlikni saqlaydi, madaniy xilma-xillikni qadrlaydi va global ijtimoiy jarayonlarda faol pozitsiya tutadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, globallashuv sharoitida umuminsoniy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda nafaqat zarur, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir. Yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish, global jarayonlarni ongli qabul qilish, milliy identitetni saqlagan holda dunyo bilan mushtarak qadriyatlarga tayanish zamonaviy falsafiy tafakkurning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois ushbu qadriyatlarni yoshlar ongiga ilmiy asosda, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar yordamida, madaniy an’analar bilan uyg‘un holda singdirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov B. Globallashuv jarayonlarining falsafiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2019. – 224 b.

2. To‘laganov A. Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy rivojlanish masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 190 b.

3. Qosimova D. Yoshlar ma’naviyati va zamonaviy global madaniyat. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 164 b.

4. Nosirov Sh. Globallashuv falsafasi: ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar talqini. – Buxoro: BuxDU, 2020. – 210 b.

5. Baxtiyorov B. Madaniyat va sivilizatsiya: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Sharq, 2016. – 256 b.

6. G‘aniyev O. Yoshlar dunyoqarashi va axborot makoni transformatsiyasi. – Qarshi: Nasaf, 2022. – 142 b.

7. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.

8. Giddens A. Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives. – London: Profile Books, 2002. – 89 p.

9. Fukuyama F. Values and Social Change in the Global Era. – London: Routledge, 2011. – 212 p.

ZAMONAVIY GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MA‘NAVIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Kurbondurdiyeva Hilola va Ergasheva Xurshida
O‘zbekiston Milliy universiteti talabalari

Kirish: Globallashuv – bu dunyo mamlakatlari, jamiyatlari va madaniyatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot aloqalarining tobora kuchayib, bir-biriga bog‘lanib borish jarayonidir. Ushbu jarayon natijasida masofalar qisqaradi, axborot oqimi tezlashadi, madaniy almashinuv kuchayadi va insonlarning dunyoqarashi kengayadi .Globallashuv jarayonida dunyo iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biriga bog‘liq tizim sifatida shakllanadi, bu esa davlatlar va jamiyatlar o‘rtasida yangi ijtimoiy va madaniy interaktsiyalarni yuzaga keltiradi [1].

Yoshlar globallashuv jarayonida eng muhim qatlam hisoblanadi, chunki ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy madaniyat mahsulotlari bilan muntazam aloqada bo‘ladilar. Shu bilan birga, globallashuv yoshlar ma’naviy qadriyatlariga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, bilim va dunyoqarashni kengaytiradi, ijtimoiy faollikni oshiradi; boshqa tomondan, milliy madaniyat va qadriyatlarni e’tiborsiz qoldirish xavfini tug‘diradi.

Shuning uchun zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini saqlash va rivojlantirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu muammoni hal etish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani kuchaytirish hamda oilaning va jamiyatning faol ishtirokini ta’minlash zarurdir .

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review) Zamonaviy globallashuv jarayoni yoshlar hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global axborot maydoni, turli madaniy oqimlar va tezkor kommunikatsiya yoshlar ongida ijobiy va salbiy jarayonlarni bir vaqtning o‘zida uyg‘otadi. Ijobiy jihatdan, globallashuv yoshlarning bilim doirasini kengaytiradi, dunyoqarashini boyitadi va turli madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga, salbiy oqibatlar ham mavjud: ma’naviy me’yorlar va an’anaviy qadriyatlarning sustlashishi, yoshlar orasida moddiy manfaatlarni hayotiy maqsad sifatida qabul qilish tendensiyasi kuchayadi.

Globallashuv jarayonida yoshlarning ongiga turli zararli g‘oyalar va ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri kirib kelishi mumkin. Bu yoshlarning milliy ildizlari va axloqiy qadriyatlaridan uzoqlashishiga, ularni moddiy manfaatlar va yengil hayotga intilishga undash xavfini oshiradi. Shu sababli, yoshlarni tarbiyalashda ma’naviy

immunitetni mustahkamlash, ularni ichki qadriyat va barkamollik ruhida shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning ‘‘Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida jahon axborotlar maydoni kengayib borayotgan bir sharoitda yosh avlod ongini o‘rab-chirmab , uni o‘qima , buni ko‘rma deb bir tomonlama tarbiya berish tarbiyalashda bosim o‘tkazmaslik kerakligi , balki ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish, axborot va imkoniyatlardan ongli foydalanishni o‘rgatish orqali tarbiyalash zarurligi ta’kidlab o‘tilgan[2]. Bu yondashuv yoshlarning ichki tafakkuri, ma’naviy barqarorligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni ma’naviy jihatdan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, yoshlarni cheklash va ularning atrofini temir devor bilan o‘rab qo‘yish kabi yondashuvlar zamon talabi va ezgu maqsadlarimizga mos kelmasligi qayd etiladi. Tarbiya jarayoni majburlashga emas, erkinlik va ongli tanlovga asoslangan bo‘lishi kerak. Bu yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy jihatdan mustahkam va barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metadologoyasi (research methodology) Zamonaviy globallashuv — bu butun dunyo bo‘ylab axborot, madaniyat, g‘oya va qadriyatlarning erkin almashinuvi jarayoni bo‘lib, u yoshlar ma’naviyati shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir ikki tomonlama: bir tomondan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, boshqa tomondan esa ularning ijtimoiy-ma’naviy barqarorligiga tahdidlar tug‘diradi.

Avvalo, globallashuv jarayonining ijobiy ta’sirlariga e’tibor qaratish lozim. Birinchi navbatda, global axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar uchun jahon bilim maydoniga kirish imkonini kengaytirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro ta’lim platformalari orqali yoshlar har qanday joydan zamonaviy ilmiy, madaniy va akademik resurslarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu ularning dunyoqarashi kengayishi, intellektual salohiyatining oshishi va global madaniyatlar bilan tanishishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, globallashuv yoshlarni innovatsion g‘oyalar, yangi bilimlar va ilg‘or tajribalar bilan tanishtiradi, bu esa ularni o‘zlarining shaxsiy va professional rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Jahon bozoridagi professional standartlar, xalqaro ilmiy hamkorliklar, raqamli platformalar orqali bilim olish yoshlar uchun mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu tariqa, zamonaviy globallashuv yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi va ularni keng dunyo hamjamiyatiga tayyorlaydi[3].

Biroq, globallashuv jarayonining salbiy tomonlari ham mavjud. Birinchi salbiy ta’sir — bu ma’naviy me’yorlar buzilishi va milliy qadriyatlarning susayishidir. Global axborot maydonida tez tarqaluvchi g‘oyalar va madaniyatlar yoshlarning ma’naviy dunyosini murakkablashtiradi, ularni milliy identitetdan uzoqlashtirishi mumkin. Ayrim chet el madaniyatlarining dominanti yoshlar ongiga ta’sir qilib, ularni materialistik qarashlarni ustuvor qilishga, noyob milliy qadriyatlarni esa orqaga surishga olib kelmoqda. Bu holat yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq, qarama-qarshi qadriyatlar va axloqiy beqarorlik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, globallashuv jarayonidagi ijtimoiy tarmoqlar va internetning beqiyos ta’siri yoshlarning axborot tanqidchiligini susaytirishi mumkin. Tez tarqalayotgan axborot oqimi ularni chuqur tahlil o‘tkazmasdan, har qanday g‘oyani qabul qilishga undaydi. Bu

esa ma’naviy immunitetning zaiflashishiga, ularning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Ayni paytda ommaviy madaniyat ta’sirida yoshlar orasida soddalashtirilgan qadriyatlar, yorqin ko‘rinish va jozibador hayot uslubiga intilishlar kuchaymoqda.

Tahlil va natijalar(analysis and results) Zamonaviy globallashuv jarayonlari axborot almashinuvi, madaniyatlararo aloqalar va texnologik rivojlanish orqali yoshlar ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli madaniy qadriyatlar tez tarqalayotgani yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda globallashuvning bu jihati bir tomondan bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi, ikkinchi tomondan esa milliy ma’naviy qadriyatlar barqarorligiga muayyan xavf tug‘dirishi ta’kidlanadi .

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar va rasmiy statistik ma’lumotlar yoshlarning axborot makonidagi faolligi tobora oshib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, so‘nggi yillarda yoshlarning asosiy qismi kundalik axborotni raqamli platformalar orqali qabul qilmoqda. Bu holat globallashuvning yoshlar ongiga ta’sirini kuchaytirib, ularning ma’naviy tanlovi va qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, mutaxassislar yoshlar orasida axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini alohida qayd etadilar[4].

Ilmiy manbalarda globallashuv shaxsiy identitetga ta’sir etuvchi murakkab jarayon sifatida baholanadi. Jumladan, globallashuv sharoitida yoshlar umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish bilan birga, milliy o‘zlikni saqlash masalasiga duch keladilar. Bu esa ma’naviy tarbiya tizimida izchil va maqsadli yondashuvni talab etadi. O‘zbek ilmiy-falsafiy adabiyotlarida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda ta’lim, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy globallashuv yoshlar ma’naviyatiga murakkab va ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim va madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini oshiradi, biroq milliy qadriyatlar va identitetning sustlashish xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu bois yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda ta’lim, oila va jamiyatning uzviy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta’kidlaganidek, “Inson kamoloti aql va tarbiya bilan belgilanadi”[5]. Demak, globallashuv sharoitida ma’naviy barkamol yosh avlodni shakllantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, tarbiya va axborot madaniyatini rivojlantirish va ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish orqali amalga oshirilishi lozim, aynan shu yondashuv jamiyatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bauman, Z. (1998). Globalization: The Human Consequences. Polity Press

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Giddens, A. (1999). Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives. Routledge.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Axborot jamiyati va yoshlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar, 2023–2024.

5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent.

NEGOTIATING CULTURAL IDENTITY THROUGH EVERYDAY PRACTICES AS AN INTERNATIONAL STUDENT IN AUSTRALIA

Kushboev Kuvonchbek Salimjon Ugli
Student at The University of Sydney, Australia

Introduction.

It has been almost a year since I began my postgraduate degree at the University of Sydney. Australia is the first country I have lived in outside my home for longer than three months, and the cultural, social, and everyday life here are different in comparison with my country – Uzbekistan. Despite these differences, I continue to engage with Uzbek culture, such as preparing traditional Uzbek meals and consuming Uzbek media content regularly.

Therefore, in this research I will explore how my lived experience as an international student in Australia reflects an ongoing negotiation of my cultural identity. In other words, it addresses the following research question: *how does transnational mobility (re)shape cultural identity while maintaining a sense of cultural continuity?*

Notes on Methodology and Theoretical Framework

In this research, I deployed an autoethnographic approach, combining personal narrative, self-observation, and critical reflection with theoretical engagement to explore how cultural identity is negotiated, challenged, and maintained in a new cultural environment. Focusing on my three everyday practices, such as food preparation, media consumption, and digital communication with my family and friends living in Uzbekistan, I argue that cultural identity is not passively changed by global cultural flows; rather, it is actively maintained through our daily practices.

To frame this analysis, I use three key theoretical concepts – hybridity, mediascapes, and digital connectivity. Bhabha's theory of hybridity is particularly useful to understand how I navigate my cultural identity in a new environment [3]. Appadurai's concept of mediascapes illustrates how cultural narratives cross the border and influence one's identity through social media, which helps me to contextualize how my cultural identity remains connected to Uzbek culture through consuming daily Uzbek media content on platforms like Instagram and YouTube [2]. Lastly, Martin and Rizvi's idea of digital connectivity explain how constant online communication with my family and friends living in Uzbekistan and daily engagement with Uzbek media reinforce my cultural identity despite living in a different country [7]. These frameworks, together, provide a useful lens for analysing how cultural identity is shaped, negotiated, or maintained while living abroad.

In this research my argument is built based on my three daily practices: food preparation, media consumption, and digital communication. Drawing on three theoretical concepts, I begin with an exploration of food practices, then move on to media consumption, and lastly discuss digital communication, followed by a conclusion.

Food Practices: Cultural Continuity through Cooking

One of the most consistent practices I have maintained in Sydney is preparing traditional Uzbek meals regularly. This practice began as a matter of necessity. Cooking at home is certainly a practical way to manage a limited student budget, and Uzbek dishes are the only ones that I know how to cook confidently.

In Uzbek society, household labour is often divided based on a gender role and such works like cooking are typically considered women's duty. Yet, many Uzbek boys also learn how to cook by helping their mothers from a young age [11]. As I was the eldest in the family, I helped my mother most of the time in the kitchen. By helping her, I learned how to cook most Uzbek traditional foods, such as pilaf during my childhood. As a result of this experience, when I moved here, I did not struggle with cooking. Instead, I have almost become a professional cook because of spending a considerable amount of time on cooking. However, at first, cooking was just a daily task. Yet over time, it has taken on deeper meaning. I have realized that meals I prepare regularly bring me a sense of home into my everyday life and evoke vivid memories of my family, reinforcing my cultural identity rooted in Uzbek traditions.

In Uzbekistan, traditional meals like pilaf are not just a daily dish but deeply symbolic of family unity and cultural pride [4]. It is prepared not only during large community events but also ordinary daily family life. For example, at every wedding ceremony, pilaf is primarily served to a large community of invited guests, or it is traditionally prepared in most households on every Thursday [9]. My family always gathered to cook pilaf together, treating it like a ritual that connected us to previous generations. When I cook pilaf alone in Sydney, it evokes those memories. In this way, cooking has become more than a daily task; it is an everyday act through which I maintain and remember my cultural identity.

However, cooking in a new environment often requires adaptation. The process of preparing pilaf is a good example. Pilaf is usually prepared by using onions, carrots, cottonseed oil, beef or lamp, a range of spices, and rice. Among these, rice is the most important ingredient. In Uzbekistan, there are various types of rice, such as *Devzira, Avangard, Lazer,* and each regions have its own preferred type [5]. Yet, it is difficult to find those types of rice in Australian supermarkets. As a result, I have had to make substitutions, using alternative rice, such as Indian *basmati*. This process of adjustment reflects Bhabha's idea of the "third space" – a hybrid cultural zone where different cultural practices are negotiated [3]. Although I cannot cook pilaf in its exact traditional form, I adapt it based on what is available, combining familiar ingredients with unfamiliar ones to cook something that feels both new and rooted in the Uzbek tradition. In other words, while these foods cooked by me are not identical to those made at my home, they carry the essence of Uzbek traditions, making me feel familiar in an unfamiliar environment.

Media Consumption: Mediascapes and Identity

In addition to cooking practice, I find that regular Uzbek media consumption plays an important role in maintaining my cultural identity. Through multiple platforms like Instagram, YouTube, I daily engage with Uzbek content. These digital habits serve as a cultural lifeline, enabling me to stay connected with the social, political, and cultural dynamics of my country, even though I live thousands of miles away.

In this context, social media functions as not just a source of entertainment but as platforms for emotional connection, identity negotiation, and preservation of the language. The concept of mediascapes, suggested by Appadurai, explains this phenomenon, as it illustrates how people engage with distant but familiar cultural narratives to construct a sense of locality in a global setting [2]. In my case, social media helps me to create a familiar environment within my everyday life in an unfamiliar environment. For example, listening to Uzbek songs while cooking Uzbek meals like traditional pilaf creates a familiar cultural atmosphere, making the cooking process both comforting and enjoyable. This practice also reflects Martin and Rizvi's idea of "being in two places" at once, which physically present in Australia, but emotionally connected to Uzbekistan [7].

Furthermore, consuming daily Uzbek media content helps preserve my Uzbek language skills. In Australia, English is the dominant language, and this media engagement, therefore, plays an essential role in maintaining my fluency in Uzbek, which would otherwise fade gradually. Media consumption also helps me to cope with the feelings of isolation. Having lived here for almost a year, I have noticed that my media routines become more intense on days when I feel isolated or disconnected. For example, after long university days that are dominated by English language interactions, I often find comfort in Uzbek media, more specifically in Uzbek language content as a form of emotional recovery. Through engaging with Uzbek content, I not only relax but also stay informed about the latest news in Uzbekistan.

This emotional connection especially becomes noticeable during culturally significant periods like the Navruz – a holiday deeply connected to historical customs and traditions and celebrated nationally with family and relatives [9]. During such holidays, social media serves as a cultural bridge, reinforcing my cultural identity and a sense of belonging.

However, this connection creates a tension between cultural expectations and limitations. In Uzbek society, men, especially elder sons like me, are often expected to act as financial providers within the family, helping both their parents and siblings [10, 11]. These traditional expectations, however, clash with the reality I face in my new environment. Living in Australia as a student, I cannot meet these expectations. Instead of helping my family financially, I primarily focus on studying in Sydney. This, sometimes, creates a moment of uncertainty, where I feel caught between the financial responsibility expected of me as an elder son and the limitation of my current situation.

Martin's concept of "zone of suspension", where students temporarily step outside traditional social roles and expectations without entirely abandoning them, explains this process well [6]. Although I live thousands of miles away, emotional expectations of my home culture remain present. In my case, regular social media consumption reinforces

these expectations by reminding me of the responsibilities traditionally placed on me. Constant online communication with my family and friends living in Uzbekistan, discussed in the following section, further strengthens the connection and the expectation as well.

Digital Communication: Staying Connected with Home

Along with food and media consumption, daily digital communication with my family and friends living in my country sustains my cultural identity in Sydney, Australia. Before coming to Sydney, I imagined I would make new friends, go out with them, and have fun regularly. Yet, over the past months, my experience has been quite different. I find it hard to make new friends, as most of my course mates are Chinese, and they tend to stay with their Chinese friends, speaking only Chinese. Therefore, I find myself studying, sitting, and visiting places alone.

To cope with these challenges, I began spending most of my time making video calls to my family and chatting with my friends online in WhatsApp and Telegram groups. These digital interactions not only make my life enjoyable but also keep me emotionally connected with my culture. I start sharing my daily student life in a video format with my family in a family Telegram group. Moreover, I regularly chat or make video calls with friends in a WhatsApp group. A month ago, I even attended a friend's wedding virtually via video call. Although I was physically located in Sydney, I felt as if I were participating in the wedding, experiencing "being two places" at once, as discussed by Martin and Rizvi [7].

As they suggest, the concept of digital connectivity, which illustrates how students abroad use digital technologies to construct a locality and identity, resonates with my experience. My online relationship with my family and friends helps my emotional well-being. For example, I have noticed that my mood often improves after speaking to my family and friends in Uzbek or just seeing familiar places in pictures. Without these interactions, I might feel culturally confused, especially in moments when I experience cultural and emotional disconnection in Australia.

However, these daily digital interactions also contribute to emotional tensions. While constant online communication helps maintain my sense of belonging, alongside cultural identity, it can also increase feelings of distance and longing. Sometimes, seeing my family gather for dinner or friends gathering, having funs, evoke my feelings of exclusion and homesickness. In this sense, digital connectivity serves both as a bridge between my life here and there, maintaining my identity, and as a reminder of the distance between where I live and where I belong.

Conclusion. In conclusion, my lived experience in Australia has illustrated that cultural identity is not fixed and not passively changed by external forces. Instead, it is actively negotiated and maintained through our daily practices. Moreover, transnational mobility does not lead to cultural loss; instead, it opens a space for hybridity and intentional preservation. I have created a sense of cultural continuity in a new environment by cooking traditional Uzbek meals regularly, consuming daily Uzbek media content, and maintaining constant digital communication with my family and friends living in Uzbekistan. These everyday practices not only help me to stay connected with

my cultural roots but also enable me to navigate the emotional and social challenges of living in a new country.

Drawing on these three theoretical concepts – mediascapes, hybridity, and digital connectivity, this research has shown that cultural identity is shaped in transnational contexts through adaptation and resilience. In other words, cultural identity is not lost in mobility; instead, it is reshaped and negotiated through our everyday practices. As my postgraduate degree lasts one and a half years, my cultural identity continues to evolve during this period, and I think that it will remain deeply connected with my Uzbek culture.

References

1. Adams, L. (2007). Public and Private Celebrations: Uzbekistan's National Holidays. In J. Sahadeo & R. Zanca (Eds.), *Everyday life in Central Asia: Past and present* (pp. 241–255). Indiana University Press.

2. Appadurai, A. (1996). *Modernity at large: Cultural dimensions of globalization*. University of Minnesota Press.

3. Bhabha, H. K. (1994). *The location of culture*. Routledge.

4. Ishniyazova, S., & Egamova, M. (2023). Pilaf: A significant concept of the culture of the Uzbek people. BIO Web of Conferences, 65, 02009. https://doi.org/10.1051/bioconf/20236502009

5. Linhardt, R., Adhikari, K., Grün, I., & Welker, S. (2008). Consumer sensory test of seven varieties of rice in Osh (pilaf) at four different locations in Uzbekistan. *Journal of Food Quality, 31*(3), 394–401. https://doi.org/10.1111/j.1745-4557.2008.00207.x

6. Martin, F. (2018). Overseas study as zone of suspension: Chinese students re-negotiating youth, gender, and intimacy. *Journal of Intercultural Studies, 39(6), 688–703.* https://doi.org/10.1080/07256868.2018.1533538

7. Martin, F., & Rizvi, F. (2014). Making Melbourne: Digital connectivity and international students' experience of locality. *Media, Culture & Society, 36*(7), 1016–1031. https://doi.org/10.1177/0163443714541223

8. Sarimsokov, A. A. (2024). Navruz: Customs and Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, *5*(2), 14–20. https://doi.org/10.17605/cajssh.v5i2.1068

9. Trevisani T (2016). Modern weddings in Uzbekistan: ritual change from 'above' and from 'below'. *Central Asian Survey, 2016 Vol. 35, No. 1, 61–75,* http://dx.doi.org/10.1080/02634937.2015.1114781

10. Zhao, Y. (2022). Breadwinning, migration, and nation-building: a critical scoping review of men, masculinities, and social change in post-Soviet Uzbekistan. *NORMA*, *17*(2), 124–142. https://doi.org/10.1080/18902138.2022.2026106

11. Zhao, Y. (2023). Chopping carrots and becoming 'real' men: Uzbek boys, household work and the reproduction of masculinities in post-Soviet Uzbekistan. *Gender and Education*, *36*(1), 54–69. https://doi.org/10.1080/09540253.2023.2263024

YOSHLAR MA’NAVIYATIDAGI INQIROZ OMILLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO‘LLARI

Lutfilloyeva Muattar Umidillo qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

XXI asrning asosiy belgilaridan biri – raqamli texnologiyalar, internet va global axborot oqimining keskin kengayishi bilan bog‘liq. Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni, balki madaniy va ma’naviy hayotni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, yoshlar raqamli olamning eng faol iste’molchisi bo‘lganligi bois ushbu muhitning ijobiy va salbiy ta’siriga eng tez beriladigan ijtimoiy guruh hisoblanadi[1].

Bunda asosiy muammolardan biri – cheksiz axborot oqimi orasida yoshlarning ma’naviy immuniteti, mustahkam hayotiy pozitsiyasi va tanqidiy fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Shuning uchun bugungi davrda raqamli axborot makoni bilan bog‘liq xatarlarni ilmiy tahlil qilish hamda ma’naviy inqirozning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi.

Axborotlashuv va globallashuv jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo‘qotgan, o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashmoq zarur. Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Internet orqali tarqalayotgan kontentning ko‘pligi yoshlarni axborot ortig‘i (information overload) holatiga olib kelmoqda. Bu diqqat susayishi, fikrlash tezligi pasayishi va hayotiy ustuvorliklarning chalkashishiga sabab bo‘ladi.

Raqamli makon orqali tarqalgan g‘arbona “mass-kultura” ko‘pincha yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Moda, ko‘ngilochar kontent, bepoyon ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ruhiy va ma’naviy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[2]. Mobil qurilmalarga bog‘lanish, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o‘yinlariga haddan ziyod berilish – yoshlarning real ijtimoiy tajribadan uzoqlashishiga olib keladi. Feyk yangiliklar, yolg‘oncha blogerlik, manipulyativ kontent yoshlarni noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, jamiyatga nisbatan befarqlikka yoki agressivlikka undashi mumkin[3].

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar bilan global madaniyat o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelmoqda. Yoshlar ko‘pincha “ikki madaniyat orasida qolgan” holatda bo‘ladi. Raqamli makonda ishonilgan har bir axborotni tekshirish ko‘nikmasi shakllanmagan. Bu esa firibgarlik, ekstremistik kontent, virtual targ‘ibotlarga uchrash xavfini oshiradi.

[1] Qosimov, B. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. 20-b
[2] Vakulova, L. Digital Culture and Youth Behavior in Global Context. – London, 2019. 23-b
[3] Qosimov, B. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. 45-b

Axborotning haddan tashqari ko‘pligi fonida yoshlar ko‘pincha hayotiy maqsad, shaxsiy pozitsiya, o‘ziga xoslikni yo‘qotadi. Virtual muloqotning ko‘pligi real ijtimoiy ko‘nikmalarni pasaytiradi. Bu psixologik turg‘unlik, depressiya va yolg‘izlik hissini kuchaytiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangilanishlar, islohotlar, bunyodkorliklardan ko`zda tutilgan maqsadlar zamirida ham, avvalo, ularning manfaatlari mujassam. Yurtimizning turli hududlarida barpo etilayotgan muhtasham ta’lim muassasalari, musiqa maktablari, sport inshootlari va boshqa yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi farzandlarimizning jismonan sog‘lom, ma’naviy yuksak bo‘lib kamol topishiga qaratilgan. Bunga javoban yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar ham oz emas. Biroq shu bilan birga, axborotlashtirish tizimidagi ulkan yangilik va o‘ziga xos “portlash effekti” yoshlarni o‘z atrofiga o‘rab ulgurmoqda. Eng zamonaviy OAV turi - internet-jurnalistika tobora rivojlanmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz hududi uchun mo‘ljallangan “uz” domeni tizimida 15 mingdan ortiq faol saytlar ro‘yxatdan o‘tgan. Xuddi shuningdek, global tarmoqda bevosita yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashining kengayishi, o‘zaro muloqot olib borishiga qaratilgan Ziyonet.uz, Kamolot.uz, uloqot.uz kabi qator saytlar faoliyat olib bormoqda[1].

Shunday ekan, sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash internet tizimida ish olib borishning muhim omilidir. Bugun ommaviy axborot vositalari inson ma’naviy dunyosiga o‘z ta’sirini o‘tkazib, shu dunyoni ma’naviy ozuqa, ahloqiy harakatlar va estetik did bilan ta’minlab turadi. Har bir individning ma’naviy qarashlari mavjud, shuni e’tiborga olgan holda, OAV ta’sir ko‘rsatkichlarini ma’naviy va ahloqiy namunalar, qadriyatlar bilan o‘stirib borish lozim. Ta’sir etish jihatidan juda ham kuchli bo‘lgan OAV g‘oyaviy jihatdan ham anchagina boy va mustahkam bo‘lsagina, foydalanuvchi undan o‘ziga ijobiy hislatlarni oladi[2].

Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda va ularning dunyoqarashlarini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni benihoya darajada katta. jamoatchilik fikrini shakllantirishda, ayniqsa, yosh avlod ongi va tafakkurida milliy istiqlol mafkurasini singdirish hamda ularni komil inson bo‘lib voyaga yetishlarida ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Biz bugun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni ta’qiqlab qo‘ya olmaymiz, faqat undan foydalanish madaniyatini yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirishimiz kerak bo‘ladi. Har bir foydalanuvchida olayotgan ma’lumotning qanchalik foydali yoki zararli ekanligini anglashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma’naviy olami daxlsizligini asrash ko‘pchilikni o‘ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo‘lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo‘lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanayotir[4]. Ammo, G‘arb madaniyatiga taalluqli ba’zi ko‘rsatuv va saytlar

[1] UNESCO. Media and Information Literacy Guidelines. – Paris, 2016
[2] Karimov, A. Raqamli jamiyat va yoshlar ma’naviyati. – Toshkent, 2022
[3] Toffler, A. Uchinchi to‘lqin. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 453-b
[4] Turdiyev, M. Yoshlar psixologiyasi va raqamli muhit. – Toshkent: Fan, 2021. 22-b

borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilishi aniq. Ayni o‘rinda yana bir fikrni aytib o‘tish joiz. Oynai jahon seriallar bilan to‘lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko‘rishga sarflashi ta’lim sifatiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Raqamli axborot makoni va globallashuv jarayonlari yoshlarning ma’naviyatiga ijobiy imkoniyatlar bilan birga jiddiy xavf-xatarlarni ham olib kelmoqda. Virtual qaramlik, ommaviy madaniyat ta’siri, axborot xurujlari va ma’naviy bo‘shliq yoshlar ongida inqiroz holatlarini yuzaga keltirayotgani hech kimga sir emas. Ushbu jarayonlarni nazorat qilish, yoshlarning ruhiy mustahkamligini shakllantirish va ularni axborot xurujlaridan himoyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Yechimlar - yoshlarning media-savodxonligini rivojlantirish, oilaviy tarbiyani kuchaytirish, milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda targ‘ib etish va davlat siyosati bilan uyg‘un holda raqamli madaniyatni shakllantirishdan iborat. Shundagina yosh avlodni raqamli dunyoning salbiy oqimlaridan himoya qilib, ma’naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari: “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, “Yoshlar siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari”.

2. Toffler, A. Uchinchi to‘lqin. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

3. Castells, M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford University Press, 2001.

4. Qosimov, B. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.

5. UNESCO. Media and Information Literacy Guidelines. – Paris, 2016.

6. Karimov, A. Raqamli jamiyat va yoshlar ma’naviyati. – Toshkent, 2022.

7. Turdiyev, M. Yoshlar psixologiyasi va raqamli muhit. – Toshkent: Fan, 2021.

8. Vakulova, L. Digital Culture and Youth Behavior in Global Context. – London, 2019.

RAHBAR SHAXSINING ALTURIZM VA TOLERANTLIK JIHATLARI

Madumarova Gulnora Sobirovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o`qituvchisi

XXI asrda tashkilotlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri — inson kapitaliga tayangan holda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishdir. Bu jarayonda rahbar shaxsining psixologik fazilatlari, xususan, uning alturistik xulqi va tolerantlik darajasi jamoaning ichki muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [4,B.7] Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari (transformatsion liderlik, xizmatkor rahbarlik, emotsional intellekt nazariyalari va boshqalar) rahbarning insonparvarlikka asoslangan yondashuvini bosh mezon sifatida ko‘rsatmoqda. [3,B.34].

Alturizm – rahbarning o‘z manfaatidan ustun qo‘yib, jamoa manfaatini ko‘zlashga tayyorligi; tolerantlik esa – turli qarash, e’tiqod, madaniyat va shaxsiy xususiyatlarga

nisbatan hurmat va bag‘rikeng munosabat bildirish tamoyilidir. Ular rahbarning boshqaruv uslubini yumshatadi, jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi, nizolarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.[3,B.18]

Bunday rahbarlar sog‘lom motivatsiya muhitini yaratib, xodimlarning ishtiyoqi va sadoqatini oshiradi. [5,B.14]

Alturizm psixologiyada shaxsning boshqa insonlar farovonligi uchun beg‘araz harakat qilishi bilan izohlanadi. Boshqaruv tizimida ushbu sifat quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: [6,B.21]

Jamoaning ehtiyojlarini anglash va qo‘llab-quvvatlash; Rahbarning alturistik pozitsiyasi uning xodimlar holatini chuqur tahlil qilishi, adolatli sharoitlar yaratishga intilishi, insoniy yondashuv bilan boshqarishi orqali ko‘rinadi. [3,B.27]

Empatiya — boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish va ularga mos reaksiya bildirish qobiliyati. Tadqiqotlar rahbarning empatik bo‘lishi ishchilar motivatsiyasi va mehnat unumdorligini sezilarli oshirishini ko‘rsatadi. [6,B.21]

Xizmatkor rahbarlik modeli Robert Greenleaf tomonidan ishlab chiqilgan “Servant Leadership” konsepsiyasi bugungi kunda dunyodagi eng samarali liderlik nazariyalaridan biri hisoblanadi. Bu modelda rahbar avvalo jamoa ehtiyojiga xizmat qiladi, keyin esa boshqaradi. Bunday rahbarlar konstruktiv munosabatlarni rivojlantiradi, insoniy qadriyatlarni ustun qo‘yadi.

Alturizmning motivatsiya tizimiga ta’siri; Alturistik rahbar xodimga nafaqat buyruq beradi, balki uni rag‘batlantiradi, maqsad bilan bog‘laydi va o‘ziga ishonchini oshiradi. Bu esa psixologik xavfsizlik muhitini yaratadi. [4,B.29]

Tolerantlik — rahbarning turli fikr, madaniyat va xarakterdagi xodimlarga nisbatan ochiq, hurmatli va adolatli munosabatda bo‘lishidir. Bu sifat globalizatsiya, axborot oqimining tezlashuvi va jamoalarning xilma-xilligi fonida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. [2,B.34]

Tolerantlikning amaliy natijasi sifatida ishchi almashinuvining kamayishi, ijodiy muhitning rivojlanishi va kollektiv qaror qabul qilish samaradorligining oshishi kuzatiladi. [2,B.49]

Rahbarning tolerantlik kompetensiyasida; Tolerantlik — bu faqat axloqiy fazilat emas, balki kasbiy kompetensiya hamdir. U quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: konfliktlarni boshqarish, xodimlararo munosabatlarni sog‘lomlashtirish, muloqotdagi muloyimlik va diplomatiya, stressga barqarorlik, qaror qabul qilishda adolat tamoyili. [5,B.63]

Alturizm va tolerantlikni shakllantirish yo‘llari

Emotsional intellektni rivojlantirish : Rahbar o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi va boshqalarnikini sezishi uchun EQ bo‘yicha treninglar zarur.

Psixologik treninglar va konsalting : Muloqot madaniyati, konfliktologiya, empatiya bo‘yicha kurslar rahbar kompetensiyasini oshiradi.

“Kuzatuvchi rahbarlik” amaliyoti : Xodimlarni kuzatish, ular bilan individual suhbatlar o‘tkazish, ehtiyojlarini aniqlash alturizmni kuchaytiradi.

Madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash: Tashkilotda turli fikr va qarashlarga nisbatan hurmat bilan yondashish bo‘yicha ichki siyosat ishlab chiqilishi zarur.

O‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyasi: Rahbarning o‘z ustida ishlashi, psixologik adabiyotlar o‘qishi, mentorlik olish jarayonlari ushbu fazilatlarni mustahkamlaydi. [4,B.36]

Rahbarning alturizm va tolerantlik fazilatlari — nafaqat axloqiy qadriyat, balki samarali boshqaruvning psixologik poydevoridir. Insonparvar, bag‘rikeng, empatik rahbar boshqaradigan jamoalarda: motivatsiya, mehnat unumdorligi, sadoqat, innovatsion faoliyat sezilarli oshadi. [2,B.14]

Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarida rahbarning professional kompetensiyasi ularning shaxsiy fazilatlari bilan uyg‘unlashganda eng yuqori natijaga erishiladi. Shu bois rahbarlar uchun alturizm va tolerantlikni rivojlantirish strategiyalari tashkilotning barqaror o‘sishi uchun muhim omil hisoblanadi. [7,B.24]

Rahbar shaxsining alturizm va tolerantlik jihatlari zamonaviy boshqaruv amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlar tashkilotning ichki muhitini yaxshilaydi, motivatsiya va sadoqatni oshiradi, hamda innovatsion va madaniy jihatdan moslashuvchan muhit yaratadi. Ularni maqsadli shakllantirish strategiyalari tashkilotlar uchun uzoq muddatli barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. [5, B.63]

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

Mirzeyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil, Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.Nashryili: 2017Nashriyot: O‘zbekistonNMIU

Ashirov D.A. Xodimlarni boshqarish. - M.: Prospekt, 2007. - 432 b.

O.Hayitov,S.Jalilova. Boshqaruv psixologiya. Toshkent : O‘zbekiston, 2017

Qosimov,Muminov.N.A.Raxbarlik qobiliyati va boshqaruv malakalari. T. 2001.

Abduraxmonov Q.H. Personalni boshqaruv. 2004.

Toshniyozov M. Korxonalarda boshqaruv faoliyati asosl. T.1995 y.

M.Voxidov. «Boshqaruv psixologiyasi». Toshkent. 1992 y.

Internet saytlari:

http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/education/preschool.

https://hozir.org/ozbekiston-respublikasida-maktabgacha-talimga-oid-qonun-xujjat.html

YANGI O’ZBEKISTONDA OILA INSITUTLARINI RIVOJLANTIRISH VA XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY QO’LLAB QUVVATLASHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Mahmalatipova Aziza
O’zbekiston Milliy universititeti talabasi
Xusanova Xayriniso
Ilmiy rahbar, “Sotsiologiya” fanlari doktori (DSc), dotsent

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida oila institutlarini mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning huquq va manfaatlarini har

tomonlama himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, ularni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Oila barqarorligini ta’minlash, ayollarning bandligini oshirish, ularni ta’lim, tadbirkorlik va innovatsion jarayonlarga keng jalb qilish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni mustahkamlash maqsad qilingan.

Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, gender tengligini kuchaytirish, psixologik-huquqiy yordam ko‘rsatishni kengaytirish va oilaga oid institutsional asoslarni rivojlantirish masalalarining ilmiy tadqiq etilishi dolzarb hisoblanadi. Ushbu kirish qismida Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan mazkur jarayonlarning mohiyati, ularning ijtimoiy natijalari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritib beriladi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oila instituti va xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar so‘nggi yillarda kengayib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, gender tengligi, oilaning barqarorligini ta’minlash hamda ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab mahalliy va xorijiy manbalarda o‘z aksini topgan.

Avvalo, O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida oila institutlarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, oila barqarorligini ta’minlash mexanizmlari, xotin-qizlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi ustuvor yo‘nalish sifatida yoritiladi. Xususan, X. Xusanova, M. Qodirova, D. To‘laganova kabi mualliflarning asarlarida ayollarning ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy faollik sohalaridagi ishtiroki, shuningdek, zamonaviy oilaviy munosabatlarda gender yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Mazkur ishlarda ayollarning ijtimoiy himoyasi faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, psixologik ko‘mak hamda oilaviy madaniyatni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Xorijiy adabiyotlarda, jumladan, BMT, UN Women, UNICEF va Jahon banki kabi tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, gender tengligi indekslari, oilani qo‘llab-quvvatlash tizimlari va gender siyosatining global tajribalari tahlil etiladi. Ularning ishlari O‘zbekistonda gender islohotlarini amalga oshirishda xalqaro standartlarga tayanish zarurligini ko‘rsatadi.Shuningdek, sotsiologiya va ijtimoiy siyosatga oid nazariy adabiyotlarda (E. Dyurkgeym, M. Veber, T. Parsons, A. Giddens) oila jamiyatning asosiy instituti sifatida talqin etilib, uning barqarorligi ijtimoiy tizimning mustahkamligiga ta’sir etishi ta’kidlanadi. Ushbu nazariy qarashlar O‘zbekiston sharoitida oila institutini modernizatsiya qilish jarayonlarini ilmiy asoslashga imkon beradi.

Yangi O‘zbekiston strategik hujjatlari — “Oila kodeksi”, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi”, “2030-yilgacha gender tengligini ta’minlash konsepsiyasi” hamda Prezident farmon va qarorlari — mavzu bo‘yicha asosiy normativ manbalar hisoblanadi. Ular adabiyotlarda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishning tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida keng o‘rganilgan.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila institutini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasi kompleks, ko‘p qirrali va zamonaviy yondashuvni talab qiladigan ilmiy-amaliy yo‘nalish bo‘lib, mahalliy va xalqaro adabiyotlar ushbu jarayonning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratgan.

Taraqqiyot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasiUshbu tadqiqot Yangi O‘zbekiston sharoitida oila institutlarini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari mavzu xususiyatidan kelib chiqib tanlandi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi.Birinchidan, nazariy-tahliliy metod asosida mavjud ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlari o‘rganildi. Bu yondashuv oila instituti va gender siyosatini rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy asoslarni shakllantirish imkonini berdi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi orqali O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Ayniqsa, gender tengligi, ayollar bandligini ta’minlash, oilani qo‘llab-quvvatlash tizimi kabi yo‘nalishlarda xalqaro amaliyotlar asosida tahliliy xulosalar chiqarildi.Uchinchidan, sotsiologik tadqiqot metodlari — kuzatish, suhbat va anketalashtirish usullaridan foydalanildi. Bu metodlar ayollar faolligi, bandligi, psixologik va huquqiy qo‘llab-quvvatlash tizimining amaldagi natijalari haqida empirik ma’lumotlar to‘plashga yordam berdi.To‘rtinchidan, statistik tahlil metodi yordamida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari asosida real ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Bu esa ayollar bandligi, ta’lim darajasi, oilaviy barqarorlik va ijtimoiy yordam mexanizmlarining samaradorligini baholash imkonini berdi.Beshinchidan, tizimli yondashuv asosida oila instituti, ayollar faolligi va gender siyosatining o‘zaro bog‘liqligi, ularning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri kompleks tarzda o‘rganildi. Ushbu metodologik yondashuv oila va jamiyat taraqqiyotining umumiy mexanizm sifatida talqin qilinishiga xizmat qildi.Umuman olganda, tadqiqotning metodologik asosini nazariy, empiric va qiyosiy analizning uyg‘unlashtirilgan tamoyillari tashkil etib, oila institutlarini rivojlantirish hamda xotin-qizlar ijtimoiy himoyasining zamonaviy jarayonlarini chuqur va asosli tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida Yangi O‘zbekiston sharoitida oila institutlarini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu jarayonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlardagi samaradorligini ochib berdi.

Birinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza sezilarli darajada kengaydi. Xususan, ayollarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, oilada gender tengligini mustahkamlash, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha qator qonunlar va Prezident farmonlari

amaliy natija bermoqda. Natijada ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligi oshib, ularning davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlaridagi ishtiroki kengaydi.

Ikkinchidan, ayollarning iqtisodiy faolligi, xususan bandlik koʻrsatkichlari sezilarli oʻsishni namoyon etdi. Statistika ma’lumotlari va empirik kuzatishlar ayollarning tadbirkorlikka, kasb-hunarga oʻqitish dasturlariga jalb etilishi ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirayotganini koʻrsatdi. Bu esa nafaqat oila barqarorligiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda.

Uchinchidan, psixologik-huquqiy yordam markazlari faoliyatining kengayishi ayollarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirdi. Intervyu va soʻrovnomalar natijalari koʻra, mazkur markazlardan foydalangan ayollarning 70 foizdan ortigʻi oʻz muammolarini qisqa muddatda hal qilganini bildirgan. Bu holat ijtimoiy xizmatlarning aholi orasida qamrov darajasi kengayganini tasdiqlaydi.

Toʻrtinchidan, oilani mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlash boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar oila institutining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirgan. Aholining turmush sifatini oshirish, ijtimoiy yordam tizimlarini raqamlashtirish, mahalla institutining kuchayishi oilaviy muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va hal etishga yordam bermoqda.

Beshinchidan, xalqaro tajriba bilan solishtirilgan tahlillar Oʻzbekistonda gender tengligi boʻyicha olib borilayotgan islohotlar global standartlarga mos ravishda amalga oshirilayotganini koʻrsatadi. Xususan, ayollarning siyosiy ishtirokini oshirish, majburiy mehnatga qarshi kurash, uy-joy va ijtimoiy infratuzilmaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha ijobiy oʻzgarishlar kuzatilmoqda.

Yakuniy natija sifatida, tadqiqot shuni koʻrsatdiki, Yangi Oʻzbekiston sharoitida oila institutlarini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar kompleks va tizimli xarakterga ega. Ular jamiyatda gender tengligi, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda

Xulosa va takliflar. Yangi Oʻzbekiston sharoitida oila institutlarini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar kompleks, tizimli va uzoq muddatli strategik yoʻnalishga ega ekanligi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi. Normativ-huquqiy baza mustahkamlanishi, ayollarning iqtisodiy va siyosiy faolligi ortishi, oilaviy munosabatlarda gender tengligining kuchayishi, psixologik-huquqiy yordam tizimining kengayishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va farovonlikka xizmat qilayotgan asosiy omillar sifatida namoyon boʻldi.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston gender siyosati va ayollarni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishida jahon standartlariga mos ravishda faol islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayollarning bandligi va iqtisodiy mustaqilligi oshishi oila barqarorligi va jamiyat rivojining muhim omillaridan biri sifatida talqin qilmoqda. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, ijtimoiy xizmatlar, mahalla institutining faollashuvi, raqamlashtirilgan yordam tizimlari ayollar farovonligini ta’minlashda samarali natija bermoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini yanada oshirish

Ayollarni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha grant va kredit dasturlarini kengaytirish;

Kasb-hunar o‘qitish markazlarida ayollar ulushini oshirish.

2. Oila institutini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish

Yosh oilalar uchun psixologik maslahat markazlarini ko‘paytirish;

Oilaviy nizolarni erta bosqichda aniqlovchi mahalla tizimini rivojlantirish.

3. Gender tengligini ta’minlash bo‘yicha ma’rifiy dasturlarni kengaytirish

Ta’lim tizimida gender masalalari bo‘yicha maxsus fanlar yoki modullar joriy etish;

OAV va internet platformalarda gender stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan loyihalarni ko‘paytirish.

4. Ayollarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish tizimini kuchaytirish

Zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun boshpana va huquqiy yordam markazlari sonini oshirish;

Psixologik xizmatlarni har bir hududda qulay va bepul shaklda taqdim etish.

5. Mahalla institutining rolini kuchaytirish

Mahallada xotin-qizlar faollari, ijtimoiy xodimlar va psixologlarning hamkorlik platformasini yaratish;

Ijtimoiy yordam tizimlarini to‘liq raqamlashtirish orqali shaffoflik va tezkorlikni ta’minlash.

6. Monitoring va tahlil mexanizmlarini takomillashtirish

Oila barqarorligi, ayollar bandligi va gender tengligi bo‘yicha muntazam statistika bazasini shakllantirish;

Har yili ayollar farovonligi indeksini ishlab chiqish va e’lon qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanova, X. (2020). Oila va jamiyat: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.

2. Karimov, I. (2019). Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat va oilaviy qo‘llab-quvvatlash. Toshkent: Universitet nashriyoti.

3. Durkheim, É. (1912). The Elementary Forms of Religious Life. London: George Allen & Unwin.

4. Weber, M. (1922). Economy and Society. Berkeley: University of California Press.

5. Rasulov, M. (2021). Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi. Toshkent: Ijtimoiy tadqiqotlar markazi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, 2017–2023.

7. Statistika qo‘mitasi. (2023). Oila va demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent.

8. Sobirov, A. (2018). Jamiyat va oilaning rivojlanish modellari. Toshkent: Fan nashriyoti.

9. https://uzstat.uz

10. https://lex.uz

11. https://socialpolicy.uz

TARIXIY MANBALAR VA MILLIY MA‘NAVIY QADRIYATLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Mamadaliyeva Dano Inayatovna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

O‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, uning dunyoqarashi, axloqiy normalari va ma’naviy qadriyatlari ko‘plab tarixiy manbalarda mujassam. Bu manbalar nafaqat o‘tmishni yorituvchi vosita, balki hozirgi avlodning ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi omil hamdir.

Tarixiy manbalar — qadimiy bitiklar, yozma yodgorliklar, diniy falsafiy asarlar — milliy o‘zlik, xalqning o‘z qadriyatlarini anglashida asosiy manbadir. Jumladan, "Avesto" — zardushtiylik dini va uning axloqiy, ijtimoiy me’yorlarini o‘zida jamlagan eng qadimiy manbalardan biri sifatida ajdodlarimizning dunyoqarashi haqida chuqur ma’lumot beradi.

Bugungi kunda xalqning ma’naviy yuksalishi, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatda axloqiy me’yorlarni mustahkamlashda ushbu qadimiy manbalarni o‘rganish va ular asosida tarixiy-madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil **-** Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

Tarixiy-analitik usul – qadimiy manbalar, xususan "Avesto", xalq og‘zaki ijodi va yozma yodgorliklar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil – qadimgi va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tahlil qilindi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi – tarixiy manbalarda aks etgan axloqiy va estetik qarashlar o‘zbek xalqining ma’naviy hayoti bilan solishtirildi.

Falsafiy yondashuv – qadriyatlar tizimi, ularning shakllanish mexanizmlari va jamiyatdagi o‘rni falsafiy nuqtai nazardan baholandi.

Tarixiy manbalar xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi va ma’naviy ehtiyojlarini ifodalaydi. Bunday manbalar o‘zbek xalqining qadimiy tarixidan tortib, islomiy davr va jadidchilik harakatiga qadar bo‘lgan ma’naviy taraqqiyot yo‘lini o‘zida aks ettiradi.

Oral tarix va dostonlar — Alpomysoq dostonlar orqali vatanparvarlik, sadoqat, jasorat kabi qadriyatlar targ‘ib etilgan.

Islomiy manbalar — Qur’on, Hadis, fiqh va tasavvuf adabiyoti orqali halollik, poklik, adolat tamoyillari o‘zlashtirilgan.

Jadidlar merosi — ilm-fan, ta’lim, ijtimoiy tenglikni targ‘ib etgan.

Bu manbalar xalq tafakkuri, ma’naviy o‘sishi va jamiyat qurilishida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

"Avesto" — miloddan avvalgi I ming yillikda yaratilgan bo‘lib, u zardushtiylik dini asoslarini ifodalaydi. Bu manbada inson hayoti, axloqiy me’yorlar, tabiat bilan uyg‘unlik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash chuqur yoritilgan.

"Avesto"da asosiy qadriyatlar sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

“Xshathra” – adolatli boshqaruv

“Asha” – tartib, haqiqat, ezgulik

“Vohu mana” – ezgu fikr

“Vohu xshathra” – ezgu amal

“Aramaiti” – ruhiy poklik, bardavomlik

Bu qadriyatlar bugungi kunda o‘zbek xalqining haqiqatgo‘ylik, adolatparvarlik, poklik, o‘zaro hurmat kabi tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Avestodagi “ezgu so‘z, ezgu fikr, ezgu amal” tamoyili hozirgi milliy tarbiyada asosiy o‘rin tutadi.[1]

Milliy qadriyatlar har qanday xalqning identitetini, madaniy o‘zligini va ijtimoiy hayot tarzini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bu qadriyatlar o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi — ular ming yillik tarixiy tajriba, tafakkur shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar bilan shakllangan. Tarixiy manbalar, ayniqsa, arxeologik topilmalar, qadimgi bitiklar, muqaddas matnlar, milliy qadriyatlar tizimini izchil tushunish va yoritishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.[2]

Bugungi o‘zbek jamiyatida qadriyatlar tizimi faqat diniy yoki urf-odatga asoslanmay, balki tarixiy tafakkur merosi bilan uyg‘unlashgan holda shakllanmoqda. Masalan, qadimgi xalqparvarlik g‘oyalari, ota-onaga hurmat, yurtparvarlik, mehmondo‘stlik — bular Avesto, qadimiy dostonlar, tarixiy bitiklarda uchraydigan qadimiy g‘oyalar asosida shakllangan. Ular bugungi kunda ham ijtimoiy birlik, ma’naviy uyg‘unlik va ijtimoiy mas’uliyat asoslari sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shu jihatdan qaralganda, tarixiy manbalar — bu faqat o‘tmish haqida xotira emas, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun tarbiyaviy, ma’naviy, madaniy mezonlar to‘plamidir. Bu manbalarni faqat tarixchi yoki arxeolog emas, balki tarbiyachi, pedagog, siyosatchi, madaniyatshunos ham bilishi va ulardan foydalanishi lozim.

Bugungi kunda yosh avlod orasida g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish, ularni ekstremizm va madaniyatsizlikdan asrash uchun chuqur tarixiy va falsafiy ildizlarga ega bo‘lgan qadriyatlar asosida tarbiya berish zarur. Ayniqsa, “Avesto”dagi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy kurash g‘oyasi, insonning o‘z ruhiy olamini pok tutishi zarurligi haqidagi ta’limot axloqiy immunitetni shakllantirish uchun eng qudratli manbaga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari, qadimiy qadriyatlarning bugungi jamiyat bilan ideologik bog‘liqligi ham muhimdir. Masalan, “Yangi O‘zbekiston – ma’naviyatli jamiyat” shiori ostida olib borilayotgan islohotlar, aslida, tarixiy manbalarda mavjud bo‘lgan ezgulik, halollik, adolat, mehr-shafqat tamoyillarining zamonaviy talqini sifatida ham qaralishi mumkin. Bu esa tarixiy manbalarning faqat ilmiy yoki arxiviy qimmatga ega emas, balki amaliy va ijtimoiy-falsafiy qiymatga ham ega ekanligini isbotlaydi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar tarixiy ildizlar bilan bog‘liq holda nafaqat o‘zbek xalqining o‘zligini anglashi, balki barqaror va ma’naviyatli jamiyat barpo etishning poydevori sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli, tarixiy manbalarni o‘rganish, ularga

[1] Xorazmiy, Z. (2020). Avesto va O‘zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi. – Toshkent: Ma’naviyat.

[2] Turaqulov, N. (2012). Milliy qadriyatlar falsafasi. – Samarqand: Zarafshon.

yangi yondashuvlar bilan qarash, ularni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish milliy taraqqiyotning mustahkam asosi bo‘lib qoladi.[1]

“HALOL” VA “HAROM” ATAMALARINING O‘ZBEK TILIDA QO‘LLANISHI: SERTIFIKATLASH, HALOL STANDARTLARI VA SIFAT BOSHQARUVI AMALIYOTIDA SEMANTIK-PRAGMATIK TALQIN

Naibaxon Mamadaliyeva
filologiya fanlari doktori, professor

Abdulloh Orifboyev
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston
Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Boshqarma boshlig‘i

Kirish. O‘zbek tilida “halol” tushunchasi inson hayotining barcha qatlamlarini qamrab olgan ma’naviy va huquqiy kategoriya sifatida shakllangan. Bu tushuncha faqat shariatdagi qonuniylikni anglatib qolmay, insonning ichki pokligi, niyatining tozaligi va muomalasining samimiyatini ham qamrab oladi. Halollik o‘zbek ma’naviyatida yuksak qadriyat sifatida qaraladi, u millatning ma’naviy o‘zagini tashkil etuvchi fazilatlardan biridir.

«Halol» so‘zi o‘zbek tilida turli ma’nolarni ifoda etadi va kontekstga qarab bir nechta semantik qatlamga ega. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ushbu so‘z quyidagicha izohlanadi[1]:

Birinchidan, «halol» so‘zi diniy nuqtayi nazardan, ya’ni shariat qoidalariga muvofiq foydalanish mumkin bo‘lgan narsalarni ifoda etadi. Bu ma’noda so‘z asosan harom va halol tushunchalari orasidagi farqni belgilaydi. Adabiy manbalarda, masalan, A. Qahhorning «Qo‘shchinor chiroqlari» asarida, so‘z insonning halolligi va ma’naviy pokligi bilan bog‘lanadi: «Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo‘lsin». Bu yerda «halol» atamasi nafaqat huquqiy yoki iqtisodiy ma’noda, balki axloqiy qadriyat sifatida ham qo‘llanilgan.

Ikkinchidan, «halol» so‘zi ko‘chma ma’noda inson mehnati va pokligi bilan bog‘liq xususiyatni ifoda etadi. Bu kontekstda halollik — shaxsning o‘z mehnati bilan, adolatli va sohil yo‘l bilan ishlashi, xiyonat va g‘irromlikdan xoli bo‘lishi demakdir. R. Fayziyning «Cho‘lga bahor keldi» asarida va Shuhratning ijodida bu tushuncha haqiqiy mehnatkashlik va ishga sadoqat sifatida tasvirlanadi: «To‘g‘ri tut ishingni va halol yasha!». Shuningdek, gazetada keltirilgan misollar mehnatkashlik va oilaviy mas’uliyat bilan bog‘langan, bolalarni halol pul bilan boqish, demak, halollik atamasi jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga ham daxldorligini ko‘rsatadi.

Uchinchi ma’nosida, «halol» so‘zi shaxsning axloqiy sifatini ta’riflaydi. Bu yerda halollik — g‘irromlik va qing‘irlikka o‘rganmaganlik, to‘g‘ri va sofdillik sifatida

[1] Bertels, E.E. (2010). Zarathustra va Avesto tafakkuri. – Moskva: Vostochnaya literatura. Quron va hadis asosida axloqiy qadriyatlar. (2015). – Toshkent: “Hilol-Nashr”.

tushuniladi. Sh. Rashidovning ijodi va Zargarov misollarida halollik shaxsning mehnatkashligi, mehribonligi va adolatliligi bilan uzviy bog‘langan. A. Qahhor va A. Oripov asarlarida ham halollik odamning ma’naviy pokligi va jamiyatdagi obro‘si sifatida ko‘rsatilgan.

To‘rtinchidan, «halol» so‘zi nikoh va huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ifoda etadi. Bu ma’noda so‘z asosan xotin haqida qo‘llaniladi va uning qonuniy, ya’ni nikohdan kelib chiqqan munosabatini belgilaydi. A. Qodiriy va S. Siyoyev asarlarida ham bu ma’no ijodiy kontekstda qo‘llanib, ijtimoiy normalar va inson munosabatlarida halollik qadriyatlari aks ettirilgan.

Beshinchidan, sport kontekstida «halol» so‘zi g‘alabaning adolatli va sof bo‘lishini ifoda qiladi. O‘zbek kurashi misolida bu atama raqobatda pok va qonuniy g‘alabani ta’riflaydi.

«Harom» so‘zi ham o‘zbek tilida asosan diniy, axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayot kontekstida qo‘llaniladi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga ko‘ra, so‘z bir necha ma’noga ega[2]:

Birinchidan, diniy nuqtayi nazardan, «harom» — Shariat qoidalariga muvofiq yeyish, ichish va foydalanishga yaramaydigan, halol emas narsalarni ifoda qiladi. Bu ma’noda so‘z diniy qoidalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, isboti adabiy manbalarda ham uchraydi. Misol uchun, S. Anorboyevning «Oqsoy» asaridagi «U Ashir bilan qo‘l berib so‘rashishga hazar qilibdi. Chunki Ashir cho‘chqaboqar-da!» so‘zi cho‘chqaning shariatda harom maxluq sifatida qaralishi bilan bog‘liq. Shuningdek, «Eshakning kuchi halol, go‘shti harom deganlaridek» iborasi halol va harom tushunchalari o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, «harom» so‘zi an’ana, qoida yoki jamiyat tartibi bo‘yicha man etilgan ish yoki xatti-harakatlarni ifoda qiladi. Bu ma’noda haromlik nafaqat diniy, balki ijtimoiy va axloqiy me’yorlar bilan ham belgilanadi. S. Siyoyev asaridan olingan misolda: «To‘g‘ri bo‘l, haromdan hazar et, degansiz. Yig‘lab turgan g‘aribning yoniga kir, ko‘nglini ol, degansiz», — deya ta’kidlanganidek, haromlik shaxsning axloqiy va ijtimoiy harakatlariga ham daxldor bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Mushtum va Mirmuhsin misollarida harom pul va harom yo‘l bilan topilgan mahsulotlar, hamda bunday odamlar haqida ijtimoiy tahlil qilingan.

Uchinchidan, so‘zning semantikasida jinsiy va sog‘liq kontekstlari ham mavjud. «S. t.» (sog‘liq tushunchasi) ostida, jinsiy munosabatdan so‘ng g‘usl qilmagan, cho‘milmagan holatlar ham «harom» deb ataladi. Bu ma’noda atama insonning tozalik va qoidabuzarlikka oid xususiyatini ifoda qiladi.

To‘rtinchidan, «harom» so‘zi foydalanish mumkin bo‘lmagan yoki esiz ketgan narsalarga nisbatan ham qo‘llanadi. S. Anorboyev va T. Alimov asarlaridagi misollar shunday kontekstda keltirilgan: «U bu majlisga Saidg‘ozi bilan birga kechalari uyqusini harom qilib tayyorlandi», «yo haftada bir keladigan dam olish kunini ham haromga chiqarib, bozor-o‘char qilsinmi?» Bu yerda «harom» faqat diniy ma’no bilan cheklanmay, balki kundalik hayotda vaqt va imkoniyatlarni yo‘qotishni ham ifoda etadi.

Shuningdek, «harom» so‘zining turli kontekstlardagi qo‘llanishi, ya’ni diniy, axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayotdagi ma’nolari, o‘zbek madaniyatidagi poklik, adolat va ma’naviy normalar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Adabiy misollar va

qo‘llanmalar bu so‘zning semantik va pragmatik qirralarini boyitib, uning til va madaniyatdagi ahamiyatini ochib beradi.

USULLAR

Tadqiqot quyidagi usul va manbalarga tayangan holda amalga oshirildi: nazariy asos sifatida leksik-semantik tahlil, metaforizatsiya va pragmatik faollashuv jihatlari inobatga olindi; ushbu nazariy modellar o‘zbek tili materiallariga qo‘llanib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, qo‘lyozma manbalar, klassik adabiyot, zamonaviy OAV va internet nutqi kontekstlari tahlil qilindi; tahlil jarayonida leksik-semantik va pragmatik tahlil, etnolingvistik yondashuv, kontekstual tahlil hamda qiyosiy tilshunoslik usullari qo‘llanildi; shuningdek, rus tilidagi jarayonlar bilan o‘zbek tilidagi jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

NATIJALAR

“Halol” tushunchasining zamonaviy talqinida yangi pragmatik jihatlar namoyon bo‘lmoqda. Bozor iqtisodiyoti rivoji, mahsulot xavfsizligi, oziq-ovqat sifatini nazorat qilish mexanizmlarining kuchayishi, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarining ommalashuvi natijasida “halol” atamasi qaytadan semiotik qiymat kasb etdi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda “halol” belgisi nafaqat diniy ehtiyoj, balki sifat kafolati sifatida ham qabul qilinmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va global savdo munosabatlari tobora diversifikatsiyalanayotgan bir davrda xalqaro bozorda muayyan talab va qoidalarga asoslangan mahsulotlar segmenti alohida yo‘nalish sifatida shakllandi. Ulardan biri islom huquqshunosligida qonunga muvofiq, ruxsat etilgan degan ma’noni anglatuvchi «Halol» standartlari asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozoridir[3]. Bu yo‘nalish nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki global miqyosda ham talab yuqoriligi bilan ajralib turmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi ikki milliarddan ziyod musulmonlar uchun iste’mol qoidalarida «Halol» talablari ustuvor hisoblanadi.

«Halol» standartlari avvalo diniy-axloqiy asoslarga tayanadi. Islom qonun-qoidalariga ko‘ra, inson tanovul qiladigan oziq-ovqat, ichimlik, dori-darmon va hatto xizmat ko‘rsatish turlari ham ma’lum me’yorlarga javob berishi kerak. Masalan, go‘sht mahsulotlari muayyan tartibda so‘yilishi, qo‘shimchalarda spirt yoki iflos moddalar bo‘lmasligi, ishlab chiqarish jarayonida poklik qoidalariga amal qilinishi talab etiladi.

Iste’molchi nega mahsulotni «halol» sertifikatidan o‘tgan va sifatli deb baholaydigan tovarga afzallik berishi sababini anglash uchun standartlar mazmuniga baho berish zarur. «Halol» sertifikatlashtirish turli talablarga ega bo‘lgan standartlar asosida amalga oshiriladi. Malayziya standarti MS 1500:2009ning 3.5.1.6-bo‘limida shunday deyilgan: «Genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar (GMO) mahsulotlari va/yoki ularning qo‘shimcha mahsulotlarini o‘z ichiga olgan oziq-ovqat va ichimliklar, shuningdek, shariat qonunlariga zid bo‘lgan hayvonlar genetik materiali asosida olingan ingrediyentlar “halol” hisoblanmaydi»[4]. Demak, «halol» standartlari tarkibida GMO mahsulotlari va ingrediyentlar bo‘lishini istisno etadi.

GMO mavjud emasligi bilan birga, eng ko‘p qo‘llaniladigan «halol» sertifikatlash standartlarida, xususan Codex Alimentarius komissiyasi tayyorlagan standart[5] hamda Malayziya standarti MS 1500:2009[6] da «halol» sertifikatlash jarayonida alkogol yoki

boshqa mast qiluvchi va ongni zaiflashtiruvchi moddalar saqlovchi mahsulotlar ham istisno qilinadi[7].

Shunday qilib, «halol» sertifikatlash jarayonida tarkibida GMO, alkogol va turli mast qiluvchi moddalar bo‘lgan mahsulotlar yo‘q qilinadi. Bu esa o‘z xavfsizligi maqsadida yuqorida tilga olingan moddalarning mavjud emasligiga qiziqqan iste’molchi, uning dinidan qat’i nazar, «halol» sertifikatiga ega tovarni tanlashini ta’minlaydi. Shu sababdan «Halol» so‘zi ortiqcha tushuntirishsiz iste’molchilarga ishonch va kafolat ramzi sifatida xizmat qiladi.

Demak, «halol» sertifikatidan o‘tgan mahsulot standartlarda belgilangan qat’iy talablar tufayli sifatli va xavfsiz tovar sifatida baholanib, yuqori talabga ega bo‘ladi.

Barcha musulmon mamlakatlarida halol mahsulotlar uchun o‘z milliy standartlari mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtda ularning uyg‘unlashtirilishi yoki o‘zaro tan olinishi yo‘q. Hozirgi vaqtda quyidagi halol mahsulot standartlari keng qo‘llanilmoqda: Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Islom mamlakatlari standartlar va metrologiya institutining (OIC/SMIIC) standarti, Fors ko‘rfazi arab davlatlari standartlashtirish tashkiloti (GSO) standarti, Malayziyaning MS standarti va boshqalar[8].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini joriy qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2025-yil fevral oyida mahsulot va xizmatlarni «Halol» talablariga muvofiq sertifikatlashtirish faoliyatini hamda «Halol» belgisi bilan tamg‘alangan mahsulot va xizmatlardan foydalanishni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorga ko‘ra mamlakatda rasman «Halol» sertifikati joriy etildi[9]. Bu qaror xalqaro savdo tizimidagi talablarga javob berish, eksport imkoniyatlarini oshirish va iste’molchilar ishonchini mustahkamlash yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Mazkur qaror nafaqat ichki bozorda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish, balki tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Chunki dunyo bozoridagi musulmon mamlakatlari va musulmon diasporalari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun «Halol» sertifikati asosiy talablardan biri sifatida qo‘yiladi.

Shu nuqtayi nazardan «Halol» sertifikati masalasi nafaqat diniy yoki milliy me’yorlarga, balki iqtisodiy strategiyaga ham bevosita bog‘liq. Agar mamlakat xalqaro bozorda o‘z mahsulotlari bilan munosib raqobatlasha olmoqchi bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish jarayonlarini global standartlarga moslashtirishi shart. «Halol» sertifikati ana shunday global standartlardan biri sifatida O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim omilga aylanmoqda. Mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan “halol” belgisining qo‘llanilishi nafaqat diniy ehtiyoj, balki iqtisodiy raqobatning muhim qismiga aylanib bormoqda. Bu o‘zbek iste’molchisi uchun “sifat, ishonch va xavfsizlik” ramzi sifatida qabul qilinadi.

“Harom” tushunchasi esa o‘zbek tilida o‘ta kuchli emotsional va axloqiy baholash quvvatiga ega bo‘lib, jamiyat ongida eng og‘ir ma’naviy ayb sifatida qabul qilinadi. Bu so‘z shariatda taqiqlangan amaliyotlarni bildiradi, ammo xalq ongida u axloqiy buzilish, nohaqlik, zulm, yolg‘on, o‘zga haqini yemoq kabi salbiy holatlarning umumiy nomiga aylangan. “Harom” taqiq ma’nosidan tashqari qattiq ayblash ma’nosini ham oladi, shuning

uchun tildagi “haromxo‘r”, “haromzada”, “harom niyat”, “harom yo‘l” kabi iboralar semantik jihatdan keng, ta’sirchan va qat’iy ma’noga ega.

O‘zbek tilida esa “harom” tushunchasi jamiyat ongining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u axloqiy tartibning markaziy elementidir. Bu jihat shuni ko‘rsatadiki, Ragasova va Xusnutdinov tomonidan qayd etilgan semantik kengayish o‘zbek tilida ancha chuqur va keng qamrovli. Ular ta’kidlaganidek, rus tilida “xaram” ayrim hollarda axloqiy nomuvofiqlikni bildirsa, o‘zbek tilida u hayotning deyarli barcha jabhalarida ma’naviy nazorat mexanizmining asosiy vositasidir.

Halol va harom tushunchalarining o‘zbek tilidagi metaforizatsiya jarayoni ham diqqatga sazovor. “Halol niyat”, “halol munosabat”, “halol mehr” kabi iboralar moddiy narsalar emas, balki ma’naviy holatlarning pokligi va samimiyatini ifodalaydi. Shuningdek, “harom yo‘l”, “harom ish”, “harom qadam” kabi ifoda shakllari insonning niyatidagi buzuqlikni, jamiyat qoidalariga zid harakatlarni, ma’naviy-axloqiy normalarni buzilishini anglatadi. Bu holat Ragasova va Xusnutdinov qayd etgan rus tilidagi metaforizatsiya jarayoni — “xalyalnie dengi”, “xaramnie postupki” kabi iboralar bilan ma’no jihatidan teng[10]. Ammo o‘zbek tilidagi metaforaning kuchli tomoni shundaki, u xalq ongida asrlar davomida shakllangan axloqiy-etik tizimning ajralmas qismiga aylangan.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan “halol” va “harom” tushunchalari o‘zbek tilida faqat diniy-huquqiy me’yorlar doirasida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, maishiy, oilaviy, pedagogik, hatto psixologik kontekstlarda ham faol qo‘llanilmoqda. Mahsulot bozorlarida “halol” belgisi sifat va xavfsizlik ramziga aylangan bo‘lsa, mehnat bozorida “halol daromad” insonning iqtisodiy faoliyatidagi adolat va halollikni bildiradi. Oilaviy munosabatlarda “halol hayot” erining pok niyati, halol mehnatga asoslangan tirikchiligi, halol nikoh va halol muhabbat tushunchalari bilan bog‘lanadi. Bu jarayonlar xalq ongidagi ma’naviy qadamlarning zamonaviy sharoitda qayta shakllanishiga olib kelmoqda.

“Harom” tushunchasi esa zamonaviy siyosiy va ommaviy diskursda ham faol qo‘llanilmoqda. Jamoatchilik nutqida turli korrupsiya holatlari, mansabdan foydalanish, davlat mablag‘larini talon-toroj qilish kabi holatlar “harom ish”, “harom pul” sifatida qat’iy qoralanadi. Bu holat “harom” tushunchasining maishiy va diniy doiradan chiqib, zamonaviy fuqarolik ongidagi adolat o‘lchovi sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu rus tilidagi “xaram”ning faollashuviga oid tadqiqotdagi xulosalarni qiyosiy jihatdan tasdiqlaydi.

Halol-harom konsepti o‘zbek madaniyatida insonning botiniy tozaligi, ma’naviy yuksakligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini belgilaydigan universal me’yorlardan biridir. Bu tushunchalar tildagi semantik maydon orqali ommaviy ongga yo‘naltiriladi va insonning barcha harakatlarini axloqiy filter orqali baholashga xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu leksemalarning ijtimoiy qiymati tilning o‘zgaruvchan tabiati va madaniyat bilan o‘zaro bog‘liq rivojlanishini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

O‘zbek tilidagi “halol” va “harom” leksemalarining semantik va pragmatik rivojlanishi, ularning zamonaviy til va jamiyat ongida tutgan o‘rni o‘zgarmas diniy kategoriyalardan muloqot va ma’naviy tartibning universal qonuniyatiga aylanganini ko‘rsatadi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish, o‘zbek madaniyatining ichki mantig‘ini,

tarixiy qatlamlarini va hozirgi ijtimoiy o‘zgarishlarni anglash uchun alohida ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida “halol” tushunchasi xalq ongida oddiy ruxsat etilishdan yuqori darajadagi ma’naviy me’yor sifatida yashaydi. U insonning ichki tozaligi, halol mehnat qilish, halol daromad topish va halol munosabatda bo‘lish kabi keng ma’naviy vazifalar bilan bog‘langan. Bunday mazmunlar xalq ijodiyotida, maqol-matallarda, diniy va irfoniy adabiyotlarda, zamonaviy nutqda, rasmiy diskursda, hatto iqtisodiy munosabatlarda ham keng uchraydi. Insoniy tarbiya tizimida bolaga birinchi o‘rgatilgan qadriyatlardan biri aynan halollikdir. Halol ko‘rish, halol hayot kechirish, halol niyat bilan ish boshlash – bularning barchasi milliy mentalitetning ajralmas ma’naviy asosidir.

“Harom” tushunchasi esa o‘zbek madaniyatida yanada kuchli axloqiy va emotsional salmoqqa ega. U faqat diniy taqiqni emas, balki butun jamiyat uchun umumiy bo‘lgan ma’naviy cheklovni anglatadi. “Harom” deb belgilangan ish o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyat tomonidan keskin qoralanadi, chunki u insoniy poklikka, adolatga, to‘g‘rilikka, mehnatga rag‘bat va insof kabi qadriyatlarga zid hisoblanadi. Bu tushunchada jamiyat tomonidan shakllantirilgan kuchli tartib-intizom mavjud. “Haromxo‘r” degan ayblov o‘zbek ongida nafaqat diniy yoki huquqiy taqiqni buzgan insonni, balki umumiy insoniy me’yorlarni poymol qilgan shaxsni ham nazarda tutadi. Demak, “harom” tushunchasi axloqiy nazoratning iste’mol qilinishi emas, balki insonni tarbiyalovchi, jamiyatni tartibga soluvchi ma’naviy tuzilmaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Rus tilida “xaram” tushunchasi axloqiy va ba’zan ritorik jihatdan qo‘llanilsa-da, u jamiyat ongidagi axloqiy tartibning markaziy elementiga aylangani yo‘q. O‘zbek tilida esa aksincha – u jamiyatning ichki tartibini belgilaydigan qonun darajasidagi ma’naviy me’yordir. Harom tushunchasining o‘zbek tilidagi semantik kuchi unga nisbatan qo‘llanilgan har bir iborani keskin emotsional va ma’naviy ta’sirga ega ayblovga aylantiradi. Bu jamiyat ongidagi haqiqat, adolat va insoniylik me’yorlariga asoslangan ifoda vositasidir[11].

Halol va harom tushunchalarining o‘zbek tilidagi rivoji zamonaviy sharoitda yangi qirralarni kasb etmoqda. Halol mahsulotlar sertifikatlashuvining rivoji, xalqaro savdo munosabatlarida “Halal industry”ning kengayishi, turizm va xizmat ko‘rsatish sohasida halol standartlarining paydo bo‘lishi, o‘zbek tilida bu tushunchalarga nisbatan iqtisodiy va jamiyatshunoslik nuqtayi nazaridan yangicha talqinning kuchayishiga olib keldi. Mahsulot yetishtirishda halol tamoyiliga amal qilish, ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologiyalarning pokligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining etik talablarga muvofiqligi – bularning barchasi halol tamoyilining zamonaviy talqinlarini yaratadi.

Harom tushunchasi ham zamonaviy hayotda yangi qo‘llanish sohalarini topmoqda. Mansabdorning huquqbuzarliklari, davlat mablag‘larini talon-toroj qilish, arzimagan mablag‘ evaziga inson qadrini poymol qilish kabi holatlar ko‘pincha jamoatchilik tomonidan “harom ish” yoki “harom pul” deb baholanadi. Bu holat harom tushunchasining jamiyatning siyosiy ongida ham muhim kategoriyaga aylanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, bu tushuncha axloqiy me’yordan fuqarolik pozitsiyasini bildiruvchi baholovchi kategoriyaga aylandi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, “halol” va “harom” leksemalarining derivatsiyalanishi o‘zbek tilida juda faol bo‘lib, ulardan yaratilgan yangi so‘zlar tilning o‘z qonuniyatlariga moslashgan va turli nutqiy holatlarda semantik jihatdan to‘g‘ri joy olgan[12]. “Halollik”, “halol qo‘l”, “halol niyat” kabi qiyoslar tildagi ma’naviy-pragmatik munosabatlarni belgilaydi. “Haromzada”, “haromxo‘r”, “harom oylik” kabi derivatlar esa jamiyatning keskin tanqidiy munosabatini ifoda etadi. Bunday shakllar tilda uzoq davr mobaynida yashab kelgan va jamiyat boshqaruvidagi ma’naviy-nazorat tizimining muhim elementlaridir.

Rus tilida “xalyalniy” va “xaram” kabi derivatlar yaratilgani haqida maqolada qayd etilgan fikrlar bilan qiyos qilinganda, o‘zbek tilidagi jarayonning ancha tabiiy va qadimiy ekanini ko‘rish mumkin. Rus tilida bunday derivatlar yangi ijtimoiy ehtiyoj asosida yaratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ular tilning uzoq tarixiy tabiati bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lib kelgan.

Madaniy nuqtayi nazardan, halol-harom konsepti xalqning dunyoqarashidagi ikki polyusli sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sistema insonning har bir harakatini axloqiy baholashga, ichki irodani tarbiyalashga xizmat qiladi. Halol hayot kechirish va haromdan uzoq turish insonning hayotiy maqsadi sifatida ko‘riladi.

Shuning uchun ham halol va harom tushunchalari o‘zbek tilida semantik yoki grammatik kategoriya bo‘lib qolmay, balki madaniy-axloqiy tafakkurning asosini tashkil etadi. Tildagi har bir ibora, sintaktik tizimdagi har bir kuchli ritorik birikma ushbu ikki polyusga bog‘lanib keladi. Demak, halol va harom tushunchalari til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning eng jonli misollaridan biridir.

XULOSA

O‘tkazilgan keng qamrovli tahlil shuni ko‘rsatadiki, “halol” va “harom” tushunchalari o‘zbek tilida faqat diniy mazmunga ega bo‘lgan leksema emas, balki jamiyatning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy tartibini belgilaydigan universal kategoriyalardir. Ular tarixiy jihatdan islomiy huquq va odob-axloq tizimidagi tamoyillar asosida shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy hayotda yangi pragmatik vazifalarni bajarmoqda.

“Halol” tushunchasi insonning ichki pokligi, halol mehnat va halol daromad idealini belgilaydi. Bozor munosabatlari sharoitida u sifat, xavfsizlik va ishonch ramziga aylanib, mahsulot va xizmatlar sohasida muhim sertifikatga aylandi. Halollik mustaqillik davrida milliy o‘zlik va iqtisodiy raqobatning asosiy mezoni sifatida yuksak qiymat kasb etdi.

“Harom” esa zamonaviy jamiyat ongida korrupsiya, huquqbuzarlik, aldov, nohaqlik, nopoklik va jamiyatga qarshi harakatlarning umumiy nomi sifatida mustahkamlandi. U jamiyatdagi axloqiy nazoratning asosiy vositasiga aylandi va fuqarolik pozitsiyasini ifodalovchi kuchli kategoriya sifatida shakllandi.

Ushbu tushunchalarning semantik, pragmatik va madaniy quvvati o‘zbek tilida juda keng bo‘lib, ular tilning ichki tuzilishi va jamiyat ongidagi qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘langan. Rus tilidagi “xalyal” va “xaram” leksemalari haqidagi tadqiqot ularning o‘zbek tilidagi tabiatini yanada chuqur tushunish uchun nazariy asos vazifasini bajardi. Ushbu asos asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida halol va harom konsepti tilning semantik rivoji, metaforizatsiya jarayoni va jamiyat ongidagi ma’naviy-axloqiy tartib bilan birgalikda shakllangan universal va doimiy qadriyatdir.

ADABIYOT/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCENS

1. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»//https://izoh.uz/uz/word/halol
2. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»// https://izoh.uz/uz/word/harom
3. CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использовании арабского термина «halal» («разрешено») [Электронный ресурс].//https://www.fao.org/input/download/standards/352/CXG_024r.pdf
4. Adiarni N., Fortunella A. The Analysis of Halal Assurance System Implementation (HAS 23000) in Fried chicken Flour Product: A Case study on XXX Brand // Atlantis Press: 2018. № 149. С. –57.
5. CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использовании арабского термина «halal» («разрешено»). URL: http://www.fao.org/faowhocodexalimentarius/shproxy/ru/?lnk=1&url=https%253A%252F%252Fworkspac.pdf
6. Ўша жойда
7. Adiarni N., Fortunella A. The Analysis of Halal Assurance System Implementation (HAS 23000) in Fried chicken Flour Product: A Case study on XXX Brand // Atlantis Press: 2018. № 149. С. –57; CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использовании арабского термина «halal» («разрешено») . http://www.fao.org/faowhocodexalimentarius/shproxy/ru/?lnk=1&url=https%253
8. https://www.vietnam.vn/ru/khai-mo-tiem-nang-thi-truong-halal-toan-cau
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Маҳсулот ва хизматларни «Ҳалол» талабларига мувофиқ сертификатлаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2025 йил 1 февралдаги 57-сон қарори// https://lex.uz/en/docs/7354717
10. Рагасова, С., Хуснутдинов, А. А. Слова «халяль» и «харам» в современной русской речи // Вестник Ивановского государственного университета. Серия «Гуманитарные науки». – 2021. – №4. – С. 53–69.
11. Фозил қори Ёсин ҳожи ўғли. «Имом Бухорий» нашриёти. Т.:2020. 80 бет.
12. Эшимова Ш. Тропли деривация-метафоранинг қўлланилиш хусусиятлари. Хорижий филология №2, 2020 йил. Б.81

MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR UYG’UNLIGI, ULARNING TARIXIY ILDIZLARI

Mamadiyeva Nilufar Xalilovna
Toshkent davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi
Muxtorov Sherzod Nurali o’g’li
TDTU talabasi

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ularning aloqadorligi ifodasi bo‘lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandi. Ko‘pgina urf-odatlar milliy

va diniy bayramlar – “Navro‘z” – bahorgi tengkunlik kuni, Ramazon hayiti va Qurbon hayiti, oilaviy tantanalar – to‘ylar, farzand tug‘ilishi va boshqalar bilan bog‘liq. Shu tariqa millatimiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko‘ra, tor doirada to‘xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ayonki, har bir el, elat, urug‘ yoki xalqning urf-odatlarida o‘ziga xoslik bo‘ladi. Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi.

O‘zbek xalqi mehmondo‘st va har qanday yangilik uchun ochiq xalqdir, lekin shu bilan birga o’z qadriyatlarining ildizlarini unutmaydi, boy tarix va dastlabki an’analarni diqqat bilan saqlaydi va eslaydi. Ma’naviyatimizning o‘zagi – milliy an’analarimiz oila bag‘rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan. Asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida etib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an’analarimiz ham milliyligimiz ramzidir.

Mahalla o‘zbek madaniyatida katta o‘rin tutadi. O‘zbek mahallalari xalqimizning o‘tmishi va bugunini bog‘lab, odamlarni birlashtiradi, yaqinlashtiradi, ijtimoiy mavqei, millati va dinidan qat’i nazar, har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xalq an’analari va urf-odatlarini keksa avlod vakillari aynan mahallalarda asrab-avaylaydilar. Zero, bu oddiy yashash joyi emas, mehnatsevarlik, odamiylik, odob-axloq kabi xususiyatlar hukmron bo‘lgan turmush tarzi va asriy an’anasidir.

Milliy qadriyatlar xayr-sahovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug‘vorlik, sabrlilik, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngillilik, mehnatkashlik kabi ma’naviy fazilatlarda qaror topadi. Ular hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo‘lib, bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko‘rsatuvchi, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

O‘zbek xalqi azaldan kattayu kichikka birdek salom berish, keksalarni e’zozlash, qo‘shniga hurmat, qarindoshga oqibat, bolaparvarlik, mehmonni ikrom etish, dini va millatidan qat’i nazar insonlarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni qadrlab kelgan.

Milliy qadriyatlarimizning rivojlanib, boyib, takomillashib borishida islom dinining o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ma’naviy qadriyatlarimizga islom dinining insonparvar g‘oyalari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistonga ko‘chirilgan insonlarga, yetimlarga ko‘rsatilgan mislsiz mehr-oqibat, sahovat milliy va diniy qadriyatlarimizning oliy namunasidir. Islom dini ko‘rsatmalarida yetimlarga mehr ko‘rsatish jannatiy fazilat sifatida e’tirof etilgan. Hadislarda Rasullolloh: “Yetim bolaning tarbiyatini o‘z ustiga olgan kishi jannatda men bilan shunday yaqin bo‘ladi”, deya o‘rta barmoqlari bilan ikkinchi barmoqlarini ko‘rsatdilar, deyiladi. [2; 55] Bu qadriyatlar imon, e’tiqod, vijdon, diyonat, ma’naviyat kabi o‘lmas va engilmas tuyg‘ular samarasidir. Bu qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma’rifatning asosidir. Ularda

tinchliksevarlik, haqsevarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik hamda bunyodkorlik kabi umuminsoniy, deya e’tirof etilgan, jahon tamadduni taraqqiyotiga bemisl ulush qo‘shgan an’analar hosilasi mujassamdir. Kezi kelganda milliy va diniy qadriyatlarimiz o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganini, ularni bir-biridan ajratish mushkulligini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida muqaddas dinimiz xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda qudratli omil bo‘lib kelmoqda. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otib rivojlangan. Xalqimizning buyuk tarixi, betakror qadriyatlari milliy va diniy an’analarni asrlar davomida o‘zida ifoda etib kelgan. Yurtimizda doim keng nishonlanib kelinayotgan diniy bayramlar — ikki iyd bayramida muhtojlarga yanada ko‘proq mehr-oqibat, xayr-sahovat ko‘rsatish xalqimizga xos fazilat. Bu go‘zal odat o‘zida umuminsoniy qadriyatlar mazmun-mohiyatini mujassam qilgan. Aynan shu kunlarda keksalarga hurmat ko‘rsatiladi, yoshlar izzat qilinib, yetimlar, kam ta’minlangan va ehtiyojmandlar holidan xabar olinadi. Bu esa har kimning insoniylik burchi bo‘lib, yaqin qarindoshlardan xabar olish, o‘zgalar qalbiga xursandchilik kiritish, taom ulashish kabi ulug‘ fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog‘langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ldi, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Islom dinida boshqa din vakillariga munosabat va bag‘rikenglik asoslariga katta e’tibor qaratilgan. Ulug‘ ajdodlarimizdan Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Majduddin Ustrushoniy kabi allomalarning asarlarida musulmonlar boshqa din vakillari bilan qanday muomala qilishlari batafsil bayon etib berilgan. Qur’oni Karimda (Mumtahana surasi, 8-oyat) keltirilishicha, “din to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar” deyiladi. Oyatda so‘z borayotgan adolat tushunchasi insonlararo munosabatlarni bog‘lab turuvchi o‘zakdir.

Tolerantlik bu – bag‘rikenglik, o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo‘lish. Tolerantlik o‘zgalarning fikri, qarashlari va xatti harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo‘ysunishni anglatmaydi. Balki, alohida odamlar, turli guruhlar o‘rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo‘lidagi faol axloqiy nuqtai-nazar va psixologik hozirlikni anglatadi. [5; 260, 261]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 8-moddasida qayd etilganidek, O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. [6; 7] Bugungi kunda farzandlarimiz o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, qirg‘iz maktablarida ta’lim olmoqda. Bu dalillar bag‘rikenglik – millatlararo totuvlikni ifodalovchi oliy ne’mat ekanini ko‘rsatadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev shunday ta’kidlaydi: “Ma’lumki bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab

kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi...” [3; 295]. Bu masalada qomusiy olim Abu Nasr Farobiy - “Ma’lum xalq va butun insoniyat to‘plab kelgan ma’naviy-milliy merosi, “ruhlar”i, ya’ni shaxslarning ma’naviyati, ongi milliylashib, bir-biri bilan qo‘shilib boradi” [4; 162], deydi. Demak, bugungi avlod o‘zlaridan oldingi buyuk ajdodlar g‘oyalari, fikrlari va e’tiqodini mujassamlashtirgan holda milliy ongni rivojlantirib boradi.

“Qariyalar muhtojlikka tushib qolsa, kasb-hunar qila olmasa va tilashga tili bormasa, ularga rahm-shavqat qilishga shoshil va qo‘lingdan kelgancha ehson qil. Lekin kambag‘al yigit ketmon chopa olsa, o‘tin tashimoqni uddalasa, unga ehson qilmoq – isrof qilmoqdir”, deydi buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy [1; 86]. Bu fikrlar orqali u o‘zbek bag‘rikengligini ikki tomonlama ifodalaydi. Qariyalarga xayr-ehson qilish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga rahm-shavqat qilish insonparvarlik aqidasi. Bu ota-bobolardan o‘zbekona toleranlik sifatida meros bo‘lib qolgan muqaddas an’analardir. Biroq mehnatga layoqatli yigitlar, yoshlar o‘zlari mehnat qilib, o‘zlarini va oilalarini boqishlari ham qarz, ham farzdir.

Qadriyat masalasi islomda ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Ibodatlar mohiyatida esa qadriyatlarni muhofaza qilish yotadi. Masalan, Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda ota-onaga yaxshilik qilish ta’kidlangan. Bu qadriyat savobi ulug‘ amallardan hisoblanadi. Islom asoslari insoniyatni yomon va buzg‘unchi ishlardan qaytarishi qayd etilgan. Savob uchun ochlik va tashnalikni iroda qilsa-yu yomonliklardan tiyilmasa, bunday mashaqqatdan hech qanday manfaat yo‘qligi, savob uchun ulug‘ ziyoratga borsa-yu ammo tilini buzuq so‘zlar, o‘zini fisqu fujur ishlardan tiymasa, hatto uzoq davom etgan safaridan ham foyda bo‘lmasligi ta’kidlangan. Daromadining qirqdan birini ehtiyojmand kishilarga beraman desa-yu, bu daromad nopok yo‘llardan kelgan bo‘lsa yoxud nopok yo‘llarga sarflansa, savob qilaman, deb gunoh va jinoyatga botib ketishi haqida ogohlantirilgan. Qadim-qadimdan zaminimizda ulug‘langan qadriyatlardan biri bu kattaga hurmat, rahbarga itoat, qonunga rioyatdir. Har bir imonli inson yoshi ulug‘larni e’zozlashi, rahbarlarga bo‘ysunishi, davlat va jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishi o‘ta muhim. Ayni paytda islom olamining ba’zi nuqtalarida yuz berayotgan parokandalik va ziddiyat, ixtilof va adovat, halokatning asosiy sabablaridan biri aynan shu kabi tushunchalarning barbod bo‘lganidandir. “Kimki yoshi kichiklarimizga rahmdil bo‘lmasa va kattalarimizning qadr qimmati va haqini bilmasa, u odam bizning qavmdan emas” [2; 109] mazmunidagi hadis mazkur fikrlarga isbot bo‘ladi.

Milliy va diniy qadriyatlarimizdan yana biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning “Ibodat o‘n qism bo‘lsa, shundan to‘qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir”, degan o‘gitlari halollik maqomi qanchalar yuksak ekanini ko‘rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi. Halollikning eng muhim jihatlaridan biri o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, firibgarlik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi kishilar mulkiga tajovuz va xiyonat qilishdan tiyilish sanaladi. Halollikning muhimligidan, unga olib boruvchi vositalarning barchasi, ayniqsa, mehnat qilish, kasbu hunar bilan shug‘ullanish ham islomiy qadriyatlar orasida alohida o‘rin tutadi. Kishilar haqiga ko‘z olaytirish, tama’girlik muqaddas dinimizda qoralanadi.

Hadisi sharifda “Inson o‘z qo‘li bilan ishlab topgan luqmasidan shirinroq ne’mat yo‘q”, ekanligi ta’kidlangan. Shuning uchun diyorimizdan o‘tgan buyuk alloma va mutafakkirlar kasbu hunar bilan shug‘ullangan. Masalan, Hazrati Imom nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Bakr Shoshiy qaffollik, ya’ni qulfsozlik qilgan. Abu Sa’id Xarroz kosiblikni, Abu Hafs Haddod temirchilikni kasb qilgan bo‘lsa, Bahouddin Naqshband matoga gul solganlar. Diyorimiz musulmonlari amal qiladigan hanafiy mazhabi asoschisi – Imom A’zam No‘’mon ibn Sobit tijorat bilan shug‘ullangan.

Tarixan o‘zbek xalqining asosiy an’analaridan yana biri mehmondo‘stlikdir. Xalq orasida dasturxon to‘kin-sochinligidan, oilaning to‘kin-sochinligidan qat’i nazar, mehmonni qabul qilish qobiliyati yuksak qadrlanadi. Xalqimiz mehmondo‘stligi olamga mashhur. Dunyoda o‘zidan-da mehmonini izzat qiladigan kam sonli millatlardan biri. O‘zbek xonadonlarida hamisha to‘satdan kelib qoladigan mehmon uchun zaxira hozirlangan. Bu esa mehmondo‘stlik milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligining yorqin ifodasidir. Hadisi sharifda qayd etilgan “Kimki Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo‘lsa, mehmonini ikrom qilsin”, degan tamoyilga amal qilish ajdodlarimizdan bizga etib kelgan go‘zal an’ana hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minlashga ko‘maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo‘lib hisoblanadi. Mazkur qadriyatlar Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda hayotimiz ko‘rkiga aylanib, Uchinchi Renessans poydevori uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ustozlar, ota-onalar, ziyolilar o‘zaro chambarchars bog‘lanib ketgan milliy va diniy qadriyatlarimiz mohiyatini xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga etkazishlari bugunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – B. 86.

2. Imom Ismoil al Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) “O‘zbekiston”. – T., 1990. – B. 55, 109.

3. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1. –T., O‘zbekiston, 2017. –B.295.

4. Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 1993. – B.162.

5. Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2010. – B. 260, 261.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiya. “O‘zbekiston”, T., 2023. – B. 7.

RAQAMLI TA’LIM MUHITI SHAROITIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Mamadjonova Marvarid Qurbonazarovna
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti dotsenti v.b., f.d. (PhD),
Qurbonova Maftuna Ikramovna
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti magistranti

Bugungi zamonaviy sharoitda davlatimiz tomonidan o‘qituvchi faoliyati ijodiy, mustaqil, moslashuvchan, yuqori intellektuallikka ega, ijtimoiy muhitga nisbatan yuqori professional kompitentlik va madaniy darajali bo‘lishi talab etmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlagandaridek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishimizga haqqimiz yo‘q” [1.24] Darhaqiqat, davlatning innovatsion imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushadi. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtiruvchi, o‘z ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi. Faqat o‘z ustida ishlaydigan, ijodiy faoliyatga tayyor, mustaqil ta’lim olishga qodir o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini iqtidorini to‘liq namoyon qilishga yo‘naltira oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan buyuk islohotlar sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo‘lgan talab davr taqozosidir. Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyani to‘liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Talabalarga ta’limni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda berish talabaning olinayotgan bilimini o‘zlashtirishda yengillik beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida elektron ta’lim resurslari, onlayn platformalar va interaktiv metodlarning joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni va shaklini takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini oshirish hamda ta’lim oluvchilarning bilish faolligini kuchaytirish imkonini beradi.

Elektron ta’lim resurslari (elektron darsliklar, multimedia materiallar, videoma’ro‘zalar, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar) ta’lim mazmunini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish orqali o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bunday resurslar ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlari va o‘quv sur’atini hisobga olgan holda mustaqil ta’limni tashkil etishga sharoit yaratadi.

O‘quv jarayonida talabalar shaxsiga hurmat bilan qaralishi, turli pedagogik texnologiya vositalari orqali raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tilishi talabalarni mustaqi va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Raqamli ta’lim bu - ta’lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o‘quv amaliyoti hisoblanib, raqamli ta’lim vositalar orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, ta’lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Ushbu ta’lim usulini rivojlantirish orqali talabalar mustaqil ta’limini talab darajasida tashkillashtirish mumkin.

Raqamli texnologiyalar – bu ma’lumotlarni to‘plash, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanuvchilar manfaati uchun foydalanish uchun birlashtirilgan usul, jarayon va dasturiy vositalar to‘plami hisoblanadi. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda avvalo o‘quvchi – talabalar fikrlashlarini rivojlantirish va ularning tizimliligini ta’minlash, o‘quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish lozim. O‘quvchi talabalarning individual ta’lim imkoniyatlari va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o‘quv mashg‘ulotlar mazmuni, shakllarini to‘g‘ri tanlash, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochib beradi..

O‘quvchi talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumotlar, materiallarni mustaqil o‘rganish maqsadida mustaqil ta’lim olishlari lozim. Ushbu o‘quv shaklida talabalar auditoriyada olingan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish, tartibga solish, adabiyotlar bilan ishlashni o‘rganish, olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni shakllantirish, mustaqil fikr yuritish, o‘z-o‘zini o‘stirish, o‘zining rejasini amalga oshirishni shakllantirish, tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish kabi ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish darajasi – o‘qitish mazmunini egallash darajasi bo‘lib, o‘qitish mazmunini egallashdagi faoliyati hamda o‘quv materialini o‘zlashtirish o‘lchovidir.[2.79]

Ta’lim jarayonining raqamlashtiriishi talabalarning o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish imkonini beradi hamda mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi. Indoneziyaning Yogyakarta universiteti professorlarining Social and Bexavioral Science jurnalida e`lon qilingan maqolaga ko`ra, internet texnologiyalari va AKTga asoslangan ta`lim quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

talaba bilan o`qituvchi o`rtasidagi interaktiv muloqoqt darajsi oshadi;

har qanday vaqtda va har qanday joyda ta`lim olish mumkin;

o`quv materiallarini oson va tez yangilash hamda saqlash.[3.717-724]

Talabalarga o‘quv materiallarini raqamli texnologiyalar orqali turli usullar orqali yetkazib berish talabalarning ilmga bo‘lgan ishtiyoqini oshiribgia qolmay, balki ma’lumotlarni xotirasida yaxshi saqlash imkonini beradi.

Masalaning amaliy jihatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan, axborot kompyuter texnologiyalardan foydalanish uchun o‘qituvchi-pedagoglar o‘z ustida doimiy ishlashi, o‘qitiladigan barcha fanlar bo‘yicha elektron axborot resurs maydonchalarini yaratishlari va ularni tarmoqqa joylashtirish ishlariga mas’uliyat bilan yondashishlari kerak. Bu vazifalar tashkiliy, texnologik va metodik tayyorgarlikni talab qiladi.

Metodik ta’minot raqamli ta’lim muhiti talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan fanning o‘quv dasturi, elektron ma'ruza matnlari, mavzular kesimida tayyorlangan multimedia slaydlar, onlayn testlar, tavsiya etilgan manbalarning elektron variantlari,

shuningdek, audio-vizual o‘quv resurslari hamda ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislik profilidan kelib chiqqan holda tayyorlangan qo‘shimcha interaktiv tushuntiruvchi materiallar majmuasidan iborat bo‘ladi.

Texnik ta’minotga qo‘yiladigan minimum talablarni sanab o‘tadigan bo‘lsak, har bir o‘quv auditoriyasiga bitta kompyuter va proyektor, ta’lim muassasasidagi talabalar sonidan kelib chiqib, har 10 nafar talaba uchun bitta kompyuter mavjud bo‘lishi lozim. Bundan tashqari ta’lim jarayonining sifat samaradorligi individual auditoriya mashg‘ulotlari va talabalarning mustaqil ishlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi.

Ta’lim jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish talabalarga ta’lim shakli va mazmunini sifatli o‘zgartirish imkonini beradi, o‘quv jarayoni samaradorligi, sifati oshadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz lozimki, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ilmiy mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta’lim texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida raqamli ta’lim vositalaridan foydalangan holda talabalar o‘qishini jadallashtirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O`zbekston” nashriyoti. 2021.24 bet

Бакунин М. Четерые стадии обучения. Уровни компитентности. – М.:2017. стр 75

Yudi Perbawaningsih Procedia – Social and Bexavioral Sciences 103 (2013) 717-724

Смирнов А. В. Цифровое образование: новые технологии и педагогические практики.//Информационные технологии в образовании. 2019. № 40. С. 48-58.

Yuldashev U.A., Xudoyberdiev M.Z., Axmedov, T.B. O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2021, 2(3), 1262-1268 betlar.

YO‘SHLARNI HARBIY XIZMATGA JALB QILISH: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR

Mamajonov Ibrohim Olimjon o‘g‘li
Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchisi, mustaqil izlanuvchi

Bugungi global sharoitda milliy xavfsizlik nafaqat an’anaviy harbiy kuch, balki intellektual salohiyat, yuqori texnologiyalar va mustahkam ma’naviyatga asoslangan kompleks tizimdir. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va rivojlanishning yangi bosqichida, Prezidentmizning “Yoshlar – kelajagimiz” shiori ostida yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish mamlakatimiz mudofaa qobiliyatining poydevori va davr talabiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoshlarning harbiy xizmatga faol jalb qilinishini muhim vazifa sifatida belgilaydi. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi[1] qonun (O‘RQ-436-II-son) harbiy xizmatning asosiy tamoyillarini belgilab, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatni bajarishi va harbiy xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat hisoblanadi.

Zamonaviy yoshlar – bu raqamli asrning asl mahsuli bo‘lib, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot yo‘nalishlari o‘tgan asrning 80-90-yillarida harbiy xizmatga kirgan avlodlardan sezilarli darajada farq qiladi. Ular erkinlik, shaxsiy rivojlanish, texnologik qulaylik va tezkor natijalarga intiladi. Shu sababli, harbiy xizmatni tashkil etishda, uning imidjini shakllantirishda va jalb qilish mexanizmlarida ushbu psixologik xususiyatlar hisobga olinishi shart.

Yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish – bu nafaqat harbiy kadrlar tayyorlash masalasi, balki yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, intizom va mas’uliyatni shakllantirish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim omilidir. Harbiy xizmat yoshlarga nafaqat mudofaa sohasida, balki hayotning boshqa yo‘nalishlarida ham muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni beradi: qat’iyatlilik, jamoada ishlash qobiliyati, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, qiyin sharoitlarda o‘zini tutish.

Asosiy muammo shundaki, bir tomondan, mudofaa sohasining zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi va professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj oshishi, ikkinchi tomondan esa, yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan an’anaviy qarashlari o‘rtasida tafovut kuchayib bormoqda. Bu tafovut nafaqat kadrlar tanlashdagi qiyinchiliklar, balki mamlakat mudofaa salohiyatining uzluksizligi va raqobatbardoshligi uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Zamonaviy urush va mudofaa strategiyalari yuqori malakali mutaxassislar, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, dron texnologiyalari va sun’iy yo‘ldosh tizimlarini boshqarish bo‘yicha ixtisoslashgan kadrlarni talab qiladi. Biroq, an’anaviy fikrlashda harbiy xizmat ko‘pincha faqat jismoniy kuch, chidamlilik va oddiy qurol-aslahani o‘zlashtirish bilan chegaralanadi.

Zamonaviy yoshlar “aqlli urush” va “raqamli front” tushunchalariga tayyor, lekin ularning aksariyati harbiy xizmatni o‘sha eskirgan formatda – qat’iy ierarxiya, cheklangan erkinlik va texnologik imkoniyatlarsiz muhit sifatida tasavvur qiladi. Ushbu noto‘g‘ri tasavvur yoshlarni harbiy xizmatdan uzoqlashtirib, ularning qimmatli salohiyati va g‘oyalarini boshqa sohalarga yo‘naltirishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, jamiyatda harbiy xizmat haqidagi ma’lumotlar to‘liq emas va ba’zan bir tomonlama tarqalmoqda. Harbiy xizmatning kundalik turmushdagi qiyinchiliklari ko‘proq yoritilsa, uning ta’limiy, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi imkoniyatlari, shuningdek, yuqori texnologiyali qurollar va tizimlar bilan ishlash tajribasi kamroq e’tiborga olinadi. Bu esa yoshlar qaror qabul qilishida muhim omil bo‘lib, ularning harbiy xizmatni tanlash ehtimolini kamaytiradi.

Dolzarb vazifa – bu ikki tomonni yaqinlashtirish: bir tomondan, harbiy xizmatni haqiqatan ham zamonaviy, texnologik jihozlangan va intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi sohaga aylantirish; ikkinchi tomondan, yoshlarga bu o‘zgarishlar haqida

[1] https://lex.uz/m/acts/-78717

samarali va ishonchli tarzda yetkazish, ularning harbiy xizmatga bo‘lgan qarashlarini yangi sharoitlarga moslashtirishdir.

Harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishni oshirishning eng samarali yo‘li bu uni yoshlar uchun nafaqat burch, balki sharaf, imkoniyat va kelajakka investitsiya sifatida ko‘rsatishdir. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli ish olib borish zarur:

Birinchidan, harbiy xizmatning ma’naviy jihatlarini kuchaytirish. Yoshlar ongida harbiy xizmat faqat qurol ko‘tarish emas, balki Vatan himoyasi, milliy g'urur va ajdodlar an'analarini davom ettirishdir. Tarixiy qahramonlarimizning jasorati, mustaqillik uchun kurashganlarining fidokorligi haqida hikoya qilish, zamonaviy formatda – qisqa filmlar, virtual muzeylar, interaktiv darslar orqali yetkazish kerak. Harbiy xizmatni “O'zbekiston himoyachisi” sifatida ko‘rsatish, bu faqat chegara qo‘riqlash emas, balki milliy qadriyatlarni, madaniyatimizni, mustaqillik g‘olibini himoya qilishdir.

Ikkinchidan, harbiy xizmatni zamonaviy va texnologik ko‘rinishga keltirish. Bugungi yoshlar raqamli asr mahsuli, ular uchun texnologiya – hayotning ajralmas qismi. Harbiy xizmatni ham shu darajada qilish kerak: dronlar, simulyatorlar, virtual reallik, sun’iy intellekt kabi texnologiyalarni harbiy mashg‘ulotlarda keng qo‘llash. Yoshlar ko‘zida harbiy xizmat eskirgan, faqat jismoniy mashqlardan iborat bo‘lmasligi, balki yuqori texnologiyalar bilan ishlash, aqlli qurollarni boshqarish, kibermudofaada ishtirok etish imkoniyati sifatida ko‘rinishi lozim.

Uchinchidan, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish. Har bir yosh uchun harbiy xizmat individual o‘quv rejasi, mentorlik tizimi, malaka oshirish kurslari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatda nafaqat harbiy, balki fuqarolik kasblarini ham o‘zlashtirish imkoniyati bo‘lishi – kompyuter dasturlari, muhandislik, til bilish, menejment ko‘nikmalarini rivojlantirish. Harbiy xizmatni tugatgach, yoshlar o‘zini nafaqat jismonan, balki kasbiy jihatdan ham boyigan, yangi ko‘nikmalar egallagan holda his qilishi zarur.

To'rtinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy rag‘batlantirishni kuchaytirish. Moddiy jihatdan harbiy xizmat bozordagi boshqa kasblardan orqada qolmasligi kerak. Maosh, turar-joy, ta’lim, tibbiy yordam kabi masalalarda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari to‘liq himoya qilinishi lozim. Harbiy xizmatni tamomlaganlarga oliy o‘quv yurtlariga kirishda, ish topishda, biznes yo‘lida qo‘llab-quvvatlashda imtiyozlar berilishi motivatsiyani sezilarli oshiradi.

Beshinchidan, oila va jamiyatni jalb qilish. Harbiy xizmatchilarning ota-onalari, oila a’zolari bilan muntazam aloqa, ularga farzandlarining xavfsizligi, yaxshi sharoitda ekanligi haqida ishonch berish. Ochiq eshiklar kunlari tashkil etib, oilalarni harbiy qismlarga taklif qilish, sharoitlarni ko‘rsatish. Jamiyatda harbiy xizmatni yuqori hurmat-e’tiborga sazovor qilish, harbiy xizmatchilarni “Vatan himoyachisi” sifatida doimiy ravishda e’tirof etish.

Oltinchidan, kommunikatsiya va targ‘ibotni zamonaviy usullarda olib borish. Yoshlar qaysi platformalarda bo‘lsa, harbiy xizmat haqidagi ma’lumot ham o‘sha yerda bo‘lishi kerak. TikTok, Instagram, Telegramda qisqa, qiziqarli, ammo mazmunli videolar, harbiy xizmatchilarning haqiqiy hayoti va tajribasi haqidagi hikoyalar. Mashhur blogerlar, sportchilar, artistlarni harbiy xizmat targ‘ibotiga jalb qilish.

Yettinchidan, ta’lim tizimida harbiy-patriotik tarbiyani mustahkamlash. Maktablarda nafaqat “Harbiy tayyorgarlik”, balki “Milliy xavfsizlik asoslari”ni o‘qitish, bunga kiberxavfsizlik, psixologik tayyorgarlik, birinchi yordam kabi zamonaviy modullarni qo‘shish. Harbiy litsyeylar, texnologik yo‘nalishdagi harbiy bilim yurtlarini ko‘paytirish. Oliy o‘quv yurtlarida harbiy kafedralarni rivojlantirish, talabalarni harbiy xizmatga tayyorlash.

Yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish – bu bir kunda hal bo‘ladigan ish emas. Bu – uzluksiz, tizimli, ko‘p qirrali ish bo‘lib, unda davlat, oila, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari hamkorlikda ishlashi shart. Harbiy xizmatni yoshlar uchun nafaqat majburiyat, balki istalgan, obro‘li va kelajakni kafolatlash yo‘li sifatida ko‘rsata olsak, yoshlarning qiziqishi o‘z-o‘zidan ortadi. Chunki har bir yosh o‘z Vatani uchun foydali bo‘lishni, uning himoyasida o‘z hissasini qo‘shishni istaydi. Biz unga bu imkoniyatni jozibador, zamonaviy va hurmatli shaklda taqdim etishimiz kerak.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bir tomondan, ajdodlarimizning jasorati, vatanparvarlik an’analari va milliy g‘urur tuyg‘usini saqlab qolish, ikkinchi tomondan, harbiy xizmatni zamonaviy yoshlarning psixologiyasi, qadriyatlari va texnologik imkoniyatlariga moslashtirish zarur. Harbiy xizmat nafaqat qadimiy fazilatlarni saqlash, balki ularni yangi shaklda davom ettirish maktabi bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish muvaffaqiyati uchta asos tamoyilga bog‘liq: m’naviy asosni mustahkamlash (vatanparvarlik, milliy g‘urur), amaliy jozibadorlikni oshirish (texnologiya, ta’lim, moddiy rag‘bat) va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish (oila, jamiyat, mamlakat). Faqatgina bu tamoyillarning uyg‘unligi va uzluksiz amaliyoti orqali harbiy xizmat nafaqat mudofaa instituti, balki yoshlar orasida eng obro‘li va istalgan martabalardan biriga aylanadi.

O‘zbekiston kelajagi uchun harbiy xizmat – bu nafaqat qurol-yarog‘, balki yosh avlodning ma’naviy qudrati, intellektual salohiyati va milliy g‘ururidir. Bu qudratni to‘g‘ri yo‘naltirish, qadrlash va rivojlantirish – bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 436-II-son. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida.

2. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – 404 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.

4. Каримов И.А Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008. – 176 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ5106-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – № 27. – 2017.

6. G‘aniyev A.S., Mamajonov I.O., Muqaddas dinimizda vatan himoyasi [Matn] diniy-ma’rifiy – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, - 132 b.

7. Маънавият: асосий тушунчалар изохли луғати. Таҳрир ҳайъати: Х. Султонов ва б. – Т. Ғ. Ғулом. Номидаги НМИУ. 2009, - 292 б.

GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLARNING MA’NAVIYATI: QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA ULARNI MUSTAHKAMLASH YO‘NALISHLARI

Mamatov Tuxtamurod
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Kirish. XXI asr insoniyat hayotida axborot almashinuvi va texnologik o‘zgarishlar eng tez davom etayotgan davr bo‘lib qolmoqda. Jahonning integratsiyalashuvi jarayoni turli millat va madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Mazkur jarayon, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarning to‘g‘ri tarbiyalanishi va ularning ma’naviy qarashlari yangi O‘zbekistonning asosini tashkil etadi” (Mirziyoyev, 2021)[1]

Bugungi kunda internet, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning asosiy ma’lumot manbai bo‘lib, ularning ruhiy-axloqiy qarorlariga ham yo‘naltiruvchi kuch sifatida ta’sir qiladi.

Ba’zan global madaniyat unsurlari milliy qadriyatlar bilan mos tushmaydi, ammo o‘ta tezlik bilan yoshlar ongiga singib bormoqda. Shu bois zamonaviy sharoitda yoshlar ongida milliy-ma’naviy negizlarni mustahkamlash masalasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola globallashuvning yoshlar ma’naviy olamiga ta’sir mexanizmlarini ochib beradi hamda mavjud muammolarga ilmiy asoslangan yechimlarni taklif qiladi.

Asosiy qism. Global jarayonlar ta’sirida yoshlar ma’naviyatining o‘zgarishi masalasiga to’xtalganga, globalizatsiya iqtisod, madaniyat, texnologiya va siyosiy munosabatlarning umumjahon miqyosida uyg‘unlashuvini anglatadi. UNESCO (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi yoshlarning katta qismi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi va shu platformalar orqali turli madaniy qarashlarni qabul qiladi. Bu esa yoshlarning o‘zini “global jamoaning a’zosi” sifatida idrok etishiga olib keladi. Ammo globallashuv bilan kirib kelgan ayrim g‘oyalar milliy dunyoqarashga zid bo‘lishi mumkin. Individualizm va iste’molchilikka asoslangan g‘arbona hayot tarzi o‘zbek xalqining oilaviy-ijtimoiy qadriyatlari bilan to‘liq mos kelmaydi. Natijada jamiyatda ma’naviy bo‘shliq kuzatilishi ehtimoli ortadi[2]. Islom Karimov (2008) o‘z asarlarida millatning ma’naviy poydevori zaiflashsa, tashqi g‘oyalar ustunlikka erishib, xalq o‘zligini yo‘qotishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar ongini mustahkam ma’naviy tayanch bilan boyitish global davrning eng asosiy vazifalaridan biridir.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston va yoshlar siyosati bo‘yicha ma’ruzalari va chiqishlari.Toshkent 2021,
[2] UNESCO. Youth and Digital Culture Report. Paris: UNESCO Publishing.2022.

O‘rganilganlik darajasi. Milliy va diniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida to’xtalganda**,** O‘zbekiston xalqining tarixiy taraqqiyotida ma’naviy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilgan. Ota-onaga hurmat, halollik, mehmondo‘stlik, sadoqat kabi fazilatlar milliy o‘zlikning negizidir. Biroq zamonaviy internet muhitida o‘sayotgan yoshlar orasida ushbu qadriyatlarning ahamiyati pasayib borayotgani kuzatilmoqda. 2023- yilda

Yoshlar agentligi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalarida yoshlarning yarmiga yaqini internet madaniyatini hayotining ajralmas qismi deb bilishini bildirgan, ammo milliy qadriyatlarni ustuvor deb hisoblaganlar ancha kam. Diniy qadriyatlar esa yoshlarning ruhiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Islom dini insonni halollik, sabr-toqat, adolat kabi axloqiy sifatlar bilan tarbiyalaydi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi 2024-yilda yoshlar orasida diniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratgan. Oila esa ushbu ma’naviy fazilatlarni birinchi bo‘lib singdiradigan maskan, ta’lim tizimi esa ularni ilmiy asos bilan mustahkamlovchi maydondir[3].

Tahlil va natijalar. Raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bu – bugungi yoshlar hayotining asosiy qismi virtual maydonda kechadi. Ijtimoiy tarmoqlar — TikTok, Instagram, YouTube — nafaqat axborot oqimini, balki yoshlarning o‘zini tutishi, fikrlashi va qadriyatlarini shakllantiradi.

E’tiborning qisqarishi va intellektual faoliyatning susayishi bu – qisqa videolar ongni tezkor axborotga o‘rgatib qo‘yadi, natijada yoshlar uzoq matnlarni o‘qish yoki murakkab mavzularni tahlil qilishda qiynaladi. Psixologik tadqiqotlar bu holatning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani kamaytirishini tasdiqlaydi.

Axloqiy mezonlarning yemirilishi masalasi bu – ko‘pchilik trendlar faqat ko‘ngilochar mazmunga ega bo‘lib, ularning aksariyati ma’naviy jihatdan bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Yoshlar esa ko‘rganiga ergashib, mustaqil fikrlash ko‘nikmasidan uzoqlashib boradilar.

Virtuallikning idealizatsiyasi bu **– s**un’iy tarzda yaratilgan videolar yoshlar ongida “mukammal hayot” tasvirini shakllantirib, ularni real hayotdan uzoqlashtiradi. Bu esa o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va ruhiy bosimlarni kuchaytiradi. Vaqtning boy berilishi bu – qisqa videolar mazmunsiz ko‘rinsa ham, ularni ketma-ket tomosha qilish ko‘p vaqtni egallaydi. Bu esa o‘qish va o‘z ustida ishlash jarayonining sustlashuviga olib keladi.

Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ma’naviy-ma’rifiy axborotni tarqatishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Bunga tarix, din, ma’naviyatga oid sifatli kontent beruvchi platformalar misol bo‘la oladi.

Yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash strategiyalari va ularning ma’naviy immunitetini kuchaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy fanlarni yangicha metodlar bilan o‘qitish.

Oilaviy tarbiyani mustahkamlash va ota-onalarning mas’uliyatini oshirish.

Raqamli platformalarda ijobiy, ma’naviy jihatdan yetuk kontent yaratish va targ‘ib qilish.

Davlat siyosatida yoshlar ma’naviyatini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish.

Xalqaro madaniyat bilan tanishish jarayonida milliy qadriyatlarga zid g‘oyalarni tanqidiy qabul qilish.

Xulosa va takliflar. Yoshlarning ma’naviy olami – jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omilidir. Global dunyo yoshlarning dunyoqarashiga keng imkoniyatlar yaratadi, biroq ular uchun ma’naviy xavf-xatarlar ham mavjud. Tadqiqotdan kelib chiqadiki:

– global madaniyat yoshlarning fikr doirasini kengaytiradi, ammo milliy identitetni zaiflashtirishi mumkin;

– ma’naviy tarbiya oilaviy, ta’limiy va axborot vositalari orqali kompleks tarzda yo‘lga qo‘yilganda samarali bo‘ladi;

– diniy va milliy qadriyatlar zamonaviy texnologiyalar orqali yoshlar ongiga yetkazilishi ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi. Milliy ma’naviyatni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish – kelajak avlodning muvaffaqiyati va millatning barqaror taraqqiyotining bosh omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston va yoshlar siyosati bo‘yicha ma’ruzalari va chiqishlari.Toshkent 2021, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. 2008.

UNESCO. Youth and Digital Culture Report. Paris: UNESCO Publishing.2022.

Ye, J., et al. “Short-video consumption and attention decline among adolescents.” Frontiers in Psychology, 2022, 13.

Chen, Li, Guo & Wang “Impact of short-video addiction on cognitive performance.” Journal of Behavioral Sciences, 2022, 11(4).

Festinger, L. “A Theory of Social Comparison Processes.” Human Relations, 1954, 7(2), 117–140.

O‘zbekiston Yoshlar Agentligi. Yoshlar orasida internet madaniyati bo‘yicha sotsiologik so‘rov natijalari. Toshkent. 2023

O‘zbekiston musulmonlari idorasi. Yoshlar orasida diniy-ma’rifiy targ‘ibot faoliyati bo‘yicha hisobot. Toshkent. 2024

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF EDUCATIONAL AND INFORMATIONAL PROCESSES: DEVELOPING CRITICAL THINKING AND IDEOLOGICAL RESILIENCE

Mamatov Tuxtamurod Otamurodovich,
Ziyatova Iroda Suyunovna
Independent Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Introduction. In today’s rapidly developing world of information and communication technologies, shaping human thinking and moral integrity on new foundations has become one of the central theoretical and gnoseological issues of social philosophy. Within this context, the epistemological, ontological, and axiological interrelations of the education system and information policy—and their role in forming

critical thinking and ideological immunity—should be viewed as a complex dialectical unity.

The education system, as a social institution that influences both consciousness and the subconscious, not only transmits knowledge but also instills the dominant ideas, values, and ideologies of society. In this regard, R. Yuldashev emphasizes an important point: *"Education is not merely a collection of knowledge but a philosophical criterion that shapes ideological culture in an individual."*[1] (Yuldashev, 2019, p. 6). This idea reveals the ideological and philosophical function of education from the perspective of social philosophy. Education is a socializing force through which an individual either integrates into the system of prevailing ideas or develops a critical stance toward it. Therefore, critical thinking must be considered an essential component of education.

Critical thinking is a mode of reasoning that relies not on ontological or epistemological stability, but on intellectual reflection characterized by doubt, testing, and evidence-based reasoning. This aspect occupies a central place in the philosophies of Habermas, Popper, Freire, and Foucault in the 20th–21st centuries. Paulo Freire wrote: *"Only when a learner is able to construct knowledge independently can they become a true enlightened person. Education, in this process, arises not from the relationship between oppressor and oppressed, but from dialogue."*[22] (Freire, 1970, pp. 73–75). This approach views critical thinking as the foundation of social freedom and ideological stability.J. Habermas, explaining the role of critical thinking in information policy, notes that *"only through free communication and rational discussion based on evidence can society protect itself from manipulation."* (Habermas, *The Structural Transformation of the Public Sphere*, 1962, p. 136). This observation shows that information policy can strengthen ideological immunity only when it is based on transparency and openness. Hence, critical thinking is not merely an individual skill but also a social necessity that arises within the communicative sphere of society.

However, Habermas's approach links ideological immunity primarily to communicative rationality and does not fully explore the formation of moral and spiritual immunity in individuals.

M. Heidegger, focusing on the ontological nature of information policy, warns that *"technological information flows may restrict human understanding of being and force thinking into predetermined frameworks."*[31] (Heidegger, *Die Frage nach der Technik*, 1954, p. 18). His reflections suggest that developing critical thinking and ideological immunity is one of the key philosophical conditions for liberation from the ideological pressure of modern information systems. Yet, Heidegger's analysis places emphasis on individual thought, without sufficiently revealing the active role of education and social institutions in this process.

A. Toffler, in his "third wave" concept, points out that the human mind will face new challenges in the information age, stating: *"The greatest wealth of the future human being*

[1] Yuldashev, R. D. (2019). The Philosophy of Education: The Theoretical and Conceptual Basis for the Development of the Educational Process. Samarkand: Samarkand State University. – 137 p.

[2] Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. New York: Herder and Herder, pp. 72–75.

[3] 3 Heidegger M. Die Frage nach der Technik. Pfullingen: Neske, 1954. – P. 18.

will be their flexible thinking and ability to learn quickly."[12] (Toffler, *The Third Wave*, 1980, p. 28). Toffler's idea highlights the strategic importance of ideological immunity and critical thinking in modern society: amid rapidly changing information flows, only intellectual adaptability and independent reasoning can ensure stability. However, his views focus mainly on technological transformation and do not sufficiently explore the moral and spiritual dimensions of ideological immunity.

Conclusion. The philosophical foundations of education, upbringing, and information policy—when viewed from the standpoint of social philosophy— reveal the mechanisms of shaping human consciousness, nurturing individuals as free and responsible beings, and directing society toward ideological stability. In this process, critical thinking serves as the cognitive power that frees the individual from rigid patterns and fosters independent judgment, while ideological immunity acts as a stabilizing factor that protects the person from manipulative information and alien ideologies.

Immanuel Kant's famous idea reinforces this perspective: *"The essential path leading man toward enlightenment is the courage to use his own understanding."* (Kant, *Beantwortung der Frage: Was ist Aufklärung?*, 1784, p. 3). Kant's thought identifies critical thinking as the ultimate goal of education, although it does not directly connect ideological immunity with ideological stability. Therefore, a philosophically grounded integration of education and information policy should aim to cultivate both intellectual independence and ideological resilience in learners—preparing them not only to think critically but also to withstand the pressures of manipulative information and ideological influence in the modern world.

References.

Mirziyoyev, Sh.M. *Continuing Our National Development Path with Determination and Elevating It to a New Stage.* Tashkent: Uzbekistan, 2018, p. 25.

Rajabov, S.A. *Great Scholars of Pedagogy.* Tashkent: "O'qituvchi", 1990.

Yuldashev, R.D. *The Philosophy of Education – The Theoretical and Conceptual Basis for Developing the Educational Process.* Samarkand: SamSU, 2019. – 137 p.

Freire, P. *Pedagogy of the Oppressed.* New York: Herder and Herder, 1970. – pp. 72–75.

Habermas, J. *The Structural Transformation of the Public Sphere.* Cambridge, MA: MIT Press, 1962. – p. 136.

Kant, I. *Beantwortung der Frage: Was ist Aufklärung? Berlinische Monatsschrift,* 1784. – p. 3.

Heidegger, M. *Die Frage nach der Technik.* Pfullingen: Neske, 1954. – p. 18.

Toffler, A. *The Third Wave.* New York: Bantam Books, 1980. – p. 28.

Belinskaya, E.P., Tikhomandritskaya, O.A. *Social Psychology of Personality.* Moscow, 2001.

Islamic Light in the Image of My Uzbek. Textbook. Tashkent: Tashkent Islamic University, 2001.

[1] Toffler A. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980. – P. 28.

Pulatova, F.A., Jurayeva, N. “Critical Thinking — The Demand of the Time.” *The Role and Development Factors of Research in the Progress of New Uzbekistan,* Tashkent, 2024, 7(3), 302–304.

Odilova, Ch.S., Mamatkulova, N. “Critical Thinking and Methods of Its Development.” *Education, Science and Innovative Ideas in the World,* Tashkent, 2025.

Dumarov, M., Erkinboyev, M.N. “The Importance of Critical Thinking Foundations in the Education System of Uzbekistan.” *TADQIQOTLAR,* 2025, 60(2), 196–199.

Matnazarova, K.A., Maxkamova, Sh.A. “Mechanisms for Developing Students’ Critical Thinking Skills.” *Pedagogical Reforms and Their Solutions,* 2025. *WOS Journals.*

Yuldosheva, Ch.T. “Methods and Strategies for Forming and Developing Critical Thinking Skills in the Educational Process.” *Pedagogical Reforms and Their Solutions,* 2025. *WOS Journals.*

Shamsiyeva, M.S. “The Importance of Using Modern Teaching Technologies in Developing Critical Thinking.” *Science and Education,* 2025. *Open Science.*

Ravshanova, Kh. “Scientific Foundations for Developing Critical Thinking Skills in Preschool Educators.” *Actual Problems of Social and Humanitarian Sciences,* 2024.

Sultanova, O.R., Narziyeva, N.N., Suvanova, D.K. “Socio-Economic Situation of Rural Youth and Ways to Improve It.” https://pedagogs.uz/index.php/ped/issue/view/27

ZAMONAVIY OILA VA MIGRATSIYA: O‘ZARO MUNOSABATLAR TA’SIRI

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich
Andijon davlat unversiteti katta o‘qituvchisi

Oila jamiyat ichidagi kichik jamiyat ekanligi. Shunga ko‘ra jamiyatning muntazam o‘zgarib borishi, zamonaviylashuvi dialektik ravishda uning a’zolarining ham hayotida aks etishi, oila va uning mohiyati, zamonaviy funksiyalariga ham ta’sir ko‘rsatishi, migratsiya itimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qanday o‘zgarishlarga olib kelishi haqida batafsil so‘z yuritilgan.

“An’anaviy o‘zbek oilasining asosini kattalarga hurmat, urf-odatlarga rioya qilish va jamoaviy mas’uliyat tashkil etgan”[1.1].

Zamonaviy o‘zbek oilasi esa ko‘proq nuklear tuzilma (ota, ona va bolalar) shaklida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy harakatchanlik, mehnat migratsiyasi, ta’lim va kasb orttirish maqsadida yoshlarning katta shaharlar yoki xorijga ketishi oila tuzilmasini o‘zgartirmoqda. XX asr 80-yillarining oxiri va 90-yillar boshlarida Markaziy va Sharqiy Yevropada ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ham aynan “transformatsiya” tushunchasi orqali tavsiflangan. Keyinchalik esa bu tushuncha kengayib, faqat siyosiy va iqtisodiy emas, balki madaniy mazmunga ham ega bo‘lib, jamiyat tuzilishidagi yangi sifat o‘zgarishlarni qamrab oladigan umumiy nazariy yondashuvga aylangan.

Tadqiqotchi S.Abdikarimovaning yozishicha, uzoq asrlar tashqi xavflardan o‘zini himoya qilib kelgan oila XXI asrga kelib, ichki xavfdan degradatsiya ostonasida turibdi [1.2] deya o’z qarashlarida ifodalagan.

Oilaviy munosabatlar transformatsiyasining ijobiy tomonlari; shaxsiy erkinlikning kengayishi, gender tengligining mustahkamlanishi, o‘zaro munosabatlarda muloqot va kelishuvning ustuvorligi, ta’lim va madaniyat darajasining oshishi.

Oilaviy munosabatlar transformatsiyasining salbiy tomonlari; an’anaviy qadriyatlarning susayishi, oilaviy barqarorlikning zaiflashuvi, oilaviy barqarorlikning zaiflashuvi, bolalar tarbiyasida nazoratning kamayishi. Biroq transformatsiya jarayoni tartibga solinmas ekan, uning **salbiy oqibatlari** ham kuzatilishi mumkin. Masalan, **turmush qurmasdan birga yashash holatlari (grajdanlik nikoh), ajralishlar sonining ko‘payishi**, oilada bolalarning kamayishi, migratsiya sababli ayol yoki erkakning uzoq muddatga oiladan uzoqda bo‘lishi kabi holatlar oila institutining izdan chiqishiga olib keladi.

XX asrning birinchi yarmidayoq faylasuf Ivan Ilin shaxsiy va oilaviy qadriyatlarning chambarchas bog‘liqligi haqida shunday yozgan edi: “Ma’naviy inqiroz oilani yemiradi, agar oilada ma’naviyat o‘zgarib tursa, u insoniy munosabatlarda zaiflasha boshlaydi va buzila boshlaydi”[2.1]. Bu holat zamonaviy dunyoda oilaning hayotiyligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy ongda o‘zgarish bo‘layotganini anglatadi. Shuningdek, zamonaviy oilalarda ayol va erkak o‘rtasidagi ijtimoiy rollar ham yangicha ko‘rinishda taqsimlanmoqda. Ayollar nafaqat uy bekasi, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatda ham ishtirok etayotgan mustaqil shaxsga aylanmoqda. Bu esa an’anaviy patriarxal modelning qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelmoqda. Erkaklar esa ko‘proq bolalar tarbiyasida ishtirok etayotgan, maishiy hayotga aralashayotgan zamonaviy obrazga ega bo‘lmoqda.

Taniqli filipin sotsiologi Princeton Universiteti professori Rhacel Salazar Parreñas o‘zining izlanishlari orqali transmilliy munosabatlarda ota-onalik vazifalari masofadan turib amalga oshiriladi, mehnat migratsiyasi tufayli kelib chiqqan “masofaviy ota-onalik” (remote parenting) holatlari o‘quvchilar tarbiyasi, shaxs shakllanishi va qimmatlar iyerarxiyasida jiddiy muammolar keltirib chiqaradi. Ushbu holat oilaviy institutning funksional o‘zgarishlarini, ayrim hollarda esa qisman parchalanishini ham anglatadi[3.1] deya bildirib o‘tgan. Global migratsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatlarda shaxs identifikatsiyasining yangi, murakkab shakllarini vujudga keltirmoqda.

Xususan, transmilliy oilalarda voyaga yetayotgan bolalar yoki uzoq muddat xorijda ishlayotgan migrantlar o‘z shaxsini bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ijtimoiy-madaniy makon bilan bog‘lashga majbur bo‘lmoqda. Bu holat ***“men-bu yerda” va “men-u yerda” kabi dual*** (ikkiyuzlama) identifikatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Bunday holatda inson o‘zini bir vaqtning o‘zida ikkita ijtimoiy makonga oid deb his qiladi, bu esa o‘z-o‘zini anglash, qadriyatlar tizimini shakllantirish, madaniy moslashuv va ijtimoiy rolining aniqlanishi jarayonlarida ichki qarama-qarshiliklarga sabab bo‘ladi. O‘zbek migrantlarining farzandlari orasida ham identifikatsiyaga oid *“men-bu yerda” va “men-u yerda”* degan dual identifikatsiya modeli kabi ikkilik holatlari kuzatilmoqda. Transmilliy oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning o‘zini anglash jarayonida ota-onaning jismoniy yetishmasligi va masofaviy aloqa vositalarining emotsional ehtiyojlarni to‘liq qondira olmasligi psixologik ziddiyatlar, identitet inqirozi va ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, tashqi mehnat migratsiyasining oilaviy munosabatlarga salbiy ta’siri alohida qayd etilmoqda.

– o‘z yurtida qarindoshlari yoki noto‘liq oilada qolgan mehnat migrantlari farzandlarining ta’limtarbiyasi, salomatligi va ijtimoiy mavqeyiga salbiy ta’siri;

– oila instituti inqirozi, jumladan, nikoh qurish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslar (ayniqsa, ayollar) soni ortishi, ajrimlar sonining ko‘payishi (real hamda fiktiv), ikkinchi oila (qabul qilgan mamlakatdagi ayollar bilan ikkinchi nikoh)

– 76,5% mehnat migrantlari oilasida turmush o‘rtog‘ining uzoq vaqt bo‘lmasligi ajrim to‘g‘risida qarorlariga sabab bo‘lgan. 66,9% vaziyatning barqaror emasligi sababli ko‘pgina migrantlarning oilalaridagi psixologik iqlim yaxshi emas. 5% migrantlar shaxsan ularda turmush o‘rtog‘i bilan munosabati yomonlashganligini aytgan. Ulg‘aygan farzandi xorijda ishlayotgan 82,4% keksa insonlar esa zarur ko‘mak, g‘amxo‘rlik va parvarishsiz qolishini bildirgan[4.1]. Qoldirilgan (“left-behind”) bolalar ko‘pincha psixologik, ijtimoiy va hissiy jihatdan muammolarga duch keladilar.

XX asr oxiri va 2000-yillarning boshlarida ayollar migratsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga intilish kuchaydi. Migrant ayolning uzoq muddatli mehnat faoliyatida bo’lishi natijasida oiladagi an’anaviy vazifalar qayta taqsimlanishi, turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan munosabatda psixologik va emotiv masofa vujudga kelishi, bolalar tarbiyasidagi uzilishlar salmoqli darajada kuchayadi. Bu jarayon faqat sotsiologik muammo emas, balki **insonning ong tarkibi, shaxsiy identifikatsiyasi va oilaviy o‘zligining parchalanishi** sifatida falsafiy tahlilga muhtoj. Ayollar migratsiyasida ham aynan shu muammo yaqqol ko‘rinadi: chet eldagi tajriba uning moddiy ehtiyojlarini qondirsa-da, madaniy o‘zlik, milliy an’ana va oilaviy risolardan uzilish tufayli ichki ziddiyat kuchayadi. Bu ziddiyat esa nafaqat ayolning shaxs sifatidagi muvozanatiga, balki uning farzandlari, turmush o‘rtog‘i va keng oila tizimiga ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, turmush qurgan ayollarning turmush o‘rtoqlari va farzandlarini o‘z yurtida qoldirib, boshqa mamlakatlarga ishlash uchun ketishi natijasida “transmilliy ajralgan oilalar”, “yo‘q ona”, “surrogat onalik”, “transmilliy onalik” kabi atamalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Bu kabi holatlarda ayolning an’anaviy rolidan chetlashishi, ya’ni ona, turmush o‘rtoq va “uy ishlari bilan band” shaxs sifatidagi o‘rni zamonaviy migratsiya kontekstida o‘zgarmoqda. Natijada, ota shaxsiga nisbatan ham ijtimoiy rollar qayta taqsimlanmoqda. Ushbu jarayon, bir tomondan, gender rollarining dinamikasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, transmilliy migratsiya sharoitida an’anaviy oila modelining o‘ziga xos inqirozini ham ifoda etadi. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki bu o‘zgarishlar gender iyerarxiyasi, oila ichidagi rollar, tarbiya mexanizmlari va shaxslararo aloqalarda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, mehnat migratsiyasi tufayli left-behind bolalar soni 400-700 ming nafarni tashkil etishi mumkin bo‘lsa, bu demografik qatlamda ijtimoiy aloqalar va tarbiya tizimiga alohida e’tibor berish kerakligidan dalolat beradi. Zamonaviy migratsiya jarayonlarining o‘zbek oilasiga ta’siri biryoqlama emas-u ijobiy iqtisodiy afzalliklar bilan bir qatorda murakkab sotsiomadaniy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Солиев Қ. Ўзбек оиласи анъаналари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.42 .

Ильин И.А. Путь духовного обновления. СПб., 2008.

Parreñas R. S. Children of Global Migration: Transnational Families and Gendered Woes. - Stanford: Stanford University Press, 2005. - 284 p.

4. Egamberdiyeva N.M., Madjidova D.A. Mahalla va oila institutlarining mustahkamligi jamiyat farovonligi kafolatidir // *Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila*. - 2021. - T. 4, № 1. - B. 7.

YOSHLAR AXLOQIY ONGINING SHAKLLANISHIDA MUMTOZ MEROSNING O‘RNI: JALOLIDDIN DAVONIYNING “AXLOQI JALOLIY” ASARI MISOLIDA

Ikramova I.R.
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent
Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi
Sharqshunoslik universiteti magistranti

Kirish. Xuroson va Movorounahr ilm-fan olamida o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan buyuk mutafakkirlardan biri Jaloliddin Davoniy hisoblanadi. Davoniy o‘z qarashlarida musulmon ahliga xos bo‘lgan axloqiy jihatlarning shakllanishi, ta’lim borasidagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji haqida ham o‘zining asarlarida keltirib o‘tadi. Jaloliddin Davoniyning ilmiy faoliyatida Alisher Navoiy yoki Abdurahmon Jomiyniki kabi insonni yetuk shaxs bo‘lib kamol topishi masalalarida ijtimoiy fikrlarning bir-biriga juda ham yaqin ekanligini ko‘rsak bo‘ladi. “Davoniy axloqiy qarashining shakllanishida XI asr faylasufi va tarixchi Ibn Miskavayxning (1040-yilda vafot etgan) “Taxzib ul-axloq va Tatxir ul-a’roq” risolasi ham muhim rol o‘ynagan” [1,1]. Bundan bilsak bo‘ladiki, Davoniyning axloqshunoslikka doir qarashlarining shakllanishidagi bir omil Ibn Miskavayxning asaridir. Miskavayx bilan bir qatorda ta’sir etgan shaxs Nosiriddin Tusiy hisoblanadi. Uning “Axloqi Nosiriy” risolasidan foydalangan holatda o‘zining “Axloqi Jaloliy” asarini yaratadi. Davoniy faqatgina Tusiyning izdoshi o‘laroq uning asaridagi bayon etgan g‘oyalarini ko‘chirmadi, balki o‘z zamonasining dolzarb bo‘lgan masalalari haqida batafsil yoritib berdi. Hattoki, ushbu asardan parchalar ham keltirib izohlab beradi. Bugungi kunda ham farzand tarbiyasi va ulardagi axloqiy jihatning shakllanishida Alisher Navoiy yoki Jaloliddin Davoniy kabi allomalarning asarlarida bayon etilgan jihatlarni o‘zimiz uchun bir qoida sifatida talqin qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, inson o‘qigan manbalari va hayotida ko‘rgan voqealari asosida axloqini shakllantirib boradi.

Tahlil va metodlar. Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy” asarining o‘zigina uning falsafiy va axloqiy qarashlarini aks ettiradi deya olamiz. Mutafakkir ushbu asarida inson haqida, uning tabiati, insonda shakllanadigan xulq-atvor haqida, yaxshi yoki yomon fazilatlar va umumiy insonga xos bo‘lgan jihatlar haqida barcha bilimlarini jamlab ifodalaydi. Siyosatga doir masalarni ham keltirish orqali jamiyatning shakllanishi va unda insonning o‘rni, qay darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi. Bu masalalar gumanizm, etika, pedagogika va sotsiologiya sohalariga oid bo‘lganligi uchun ham Davoniyning ilmiy faoliyati haligacha ahamiyatlidir. “Axloqi Jaloliy” asarining o‘zini 3

qismga bo‘lib bayon etadi. Asarning har bir qismi bir-birini davom ettiradi. Ular quyidagicha tavsiflanadi:

1. Individual axloq (axloqi fardiya). Bu qismda harakatlar manbai sanalgan aql, istak va g‘azab haqida, umumiy fazilatlar, nuqsonlar, ilohiy tabiat, san’at va ruhiyat bilan bog‘liq kasalliklar haqida yoritilib beriladi. Umuman olganda axloqning namoyon bo‘lish shakllari tasvirlanadi.

2. Oila axloqi (axloqi manziliya). Oilaviy zaruratlar haqida, oziq-ovqatni tayyorlash va jamg‘arishdan tortib boyliklargacha, nikoh va uning maqsadi, bolalarni parvarish qilish va ota-ona huquqlari, xizmatkorlarga qilinadigan munosabatlarning barchasi aynan asarning shu qismida bayon etiladi.

3. Siyosiy axloq yoki davlat boshqaruvi axloqi (axloqi madaniya). Asarning bu qismida hokimiyatning ulug‘ligi, qonunlar, jamiyatdagi toifalar, jamiyatda mehr-muhabbat, kishilarning bir-biri bilan muloqotlari, muomala qilish qoidalari, jamiyatning barcha toifalari bilan munosabatlar, xususan dushmanlar, betaraf kishilar va past tabaqadagilar bilan kechadigan muloqot jarayonlari haqida yoziladi.

Tahlillar davomida induktiv, fenomenologik, pragmatik va sistemali metodlar qo‘llaniladi.

Natijalar va mulohazalar. Olamning eng toza mohiyati sifatida baholangan inson haqida cheksiz qiymatlar berilgan. “Axloqi Jaloliy” da ham inson haqida keng yoritilgan. Insonning boshqa mavjudotlardan farqlanib turadigan aql jihati Alloh tarafidan yaratilgan barcha mavjudotlarda bo‘lishi mumkinligi haqida ham ushbu asarda keltiriladi. Aqlni “omonat” sifatida baholaydi. Bu orqali inson o‘ziga katta mas’uliyatni olganligi aytilmoqda. Bu esa o‘z navbatida insonning inson sifatidagi faoliyatiga bog‘liqdir.

Asarning birinchi qismida aynan insonda shakllanadigan fazilatlar haqida bayon etiladi. Davoniy insonni ikki unsurdan jism va ruhdan tashkil topgan degan fikrda bo‘ladi. Aql insonni nafsdan yiroqlashtiruvchi va tog‘ri yo‘lga boshlovchi kuch sifatida tasvirlasa, ruh esa insondagi ilohiy manba sanaladi va uni ezgulikka chorlaydi. Shuning uchun ham insonni hayvondan farqlab turuvchi jihati bu aql emas,balki ruhdir. Insondagi ezgulik va yovuzlik,aql va nafs, ruh va jism o‘rtasidagi kurash ham aynan ruh sababdir. Inson aql va ruhi orqali nafsi ustidan kurashadi va uni boshqaradi. Davoniyning tahliliga ko‘ra ruhiyatning buzilishi yoki to‘g‘ri harakatlantirishi insondagi illatlarning va boshqa axloqiy holatlarning namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Masalan, eng og‘ir ruhiy kasallik deb hisoblangan g‘azab yuqori darajaga yetsa tajovuzga olib keladi, agar kam bo‘lsa qo‘rqoqlik shakllanadi. Inson g‘azabini jilovlay olishi bu undagi jasoratni bildiradi. Bu sifatlar nafs kuchining bir shakli g‘azabiy quvvat asosida yuzaga kelmoqda. Yana bir shakli bu shahvoniy quvvatdir. Bu orzu va istak orqali tasvirlanadi. Uchinchisi esa aqliy quvvat bo‘lib, uni tafakkur,idrok va farosat tashkil etadi. Agar inson mana shu sifatlarini bir me’yorda olib borsa, u axloqiy jihatdan komil bo‘ladi. Aks holda insonning kibri, ochko‘zlik va jahldorlik kabi yomon illatlari shakllanadi. Mana shu kabi uch turdagi nafs kuchlari haqidagi sistema Aristotel va Farobiyning faoliyatida ham mavjud. Demak, Davoniy ham bu borada o‘zidan avvalgi olimlarning qarashlariga asoslangan.

Asarning ikkinchi qismida ijtimoiy-axloqiy masalalarga urg‘u beriladi. Davoniy ushbu qismda falsafa va so‘fiyona ta’limotlarni nazariy-amaliy tarzda komil insonni

yaratishni ko‘zlaydi. Bu ko‘rinish shakllanguncha inson hayotidagi zaruratlarni bosib o‘tishi va jarayonda bo‘lishi kerak. Bu bosqichlarni Davoniy zanjir orqali tushuntirib beradi. Ya’ni, inson hayotda yashar ekan unda oziq-ovqat ehtiyoji yuzaga keladi. Bu jismoniy quvvatni ta’minlaydi va yashash uchun keyingi kunlarini o‘ylashga majbur qiladi. Oziq-ovqatni ortiqcha miqdorda g‘amlash va uni hayvonlardan saqlab qolish masalasi o‘rtaga chiqadi. Bu esa insondagi uy-joyga bo‘lgan ehtiyojni anglatadi. Shu tariqa hayotiy jarayonlar davom etar ekan inson munosib ayol topishi va nasl qoldirishi kerak. Oila shakllangandan so‘ng farzand tarbiyasi, ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati, turmush masalalari, yordam uchun xizmatkorlarning zarurati kabi majburiyatlar yuzaga keladi. Oilaning boshi sifatida eng katta vazifa otaning zimmasiga tushadi. “Ota tartib bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi, unga boshchilik qilish oila va uyni boshqarish tegishli ravishda yuklatilgan” [3,248]. Bundan otaning oiladagi o‘rni yuqori ekanligini bilsak bo‘ladi. Yana otaning o‘z vazifalarini boshqaruv orqali amalga oshirishini bilamiz. Bu ayoli,farzandi va xizmatkorlariga ham qiladigan munosabatida ko‘rinadi. Ota barcha harakatlarini oilasi uchun rag‘bag‘lantirish yoki qo‘rqitish, va’dalar yoki tahdidlar, xushmuomalalik yoki qattiqqo‘llik bilan tizimga solishi mumkin. Bu oilada har bir insonning bir-biriga o‘zaro munosabatlardagi hurmatni tartibga soladi va axloqiylikni shakllantiradi. Oilaning mukammalligi saqlanadi.

Davoniy oilani axloqiy bir guruh deb hisoblaydi. Oilada farzand tarbiyasi uchun faqat ota yoki ona mas’ul emasligini, oilada tarbiyani shakllantirishda barcha a’zolarning harakati kerakligini ta’kidlaydi. Eng katta ta’sir ota-onaning bir-biriga qilayotgan munosabatida bo‘ladi. Agar oilada axloqiy muhit yaxshi shakllansa, farzand ta’lim olishda ham yuksaladi. Ya’ni, madarasada va uyda ko‘rgan tarbiyaviy muhitdan ta’sirlanadi. Shuning uchun farzandning tarbiyasida bilim va axloqiy kuzatuv muhimdir. Asarda ham tarbiya faqatgina nazariya bilan emas, balki kundalik odatlar va kuzatuvlarning ta’siri kattadir. Bu fazilatlarni mukammallashuvini ta’minlaydi. Masalan, turli xil tahlikali vaziyatlarda insonni o‘zini tuta olishi, vaziyatga mos tarzda harakat qilishini ko‘rsatib beradi. Vasvasaga tushmaslik, sabr qilish va haqiqatdan qochmaslik kabilar ham shu qatorda seziladi. Hayotning turli jarayonlari ham aynan insondagi fazilatlarni mustahkamlab boradi. Bu o‘z navbatida yana bir bor nazariya bilan cheklanib qolmaslik kerakligini bildiradi. Ruhiy tarbiya yaxshi shakllanadi. Ilm, ibodat va axloqiy tajribalar esa ruhiy tarbiyani yana ham kuchliroq qiladi. Ushbu fikrlar aql orqali nafsni tarbga solish va hissiyotlarni boshqara olish kerakligini anglatadi. Nazariy jihatan bu g‘oyalar Aristotel va Farobiyning g‘oyalarida ham mavjud.

Jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon hayot kechirishida podshohlarning o‘rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni bayon etilgan “Axloqi Jaloliy” asarining uchunchi qismi ham aynan dolzarb masalalrdan biriga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Davoniyning fikriga ko‘ra, jamiyat axloqiy poydevor ustiga qurilishi kerak va shaxsiy fazilatlar orqali buni namoyon etish kerakdir. “Insonning kamol topishi uchun jamiyat a’zolari bilan birgalikda hamjihatlikda yashab faoliyat ko‘rsatish zarurligini asoslashga muvaffaq bo‘lgan” [4,67]. Hukmdor xalqning tinch va farovon hayoti uchun xizmat qilish kerak. O‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechish kerakdir. Qonun, adolatga asoslangan holatda jamiyatning ma’lum darajadagi vakillari

bilan maslahat asosida davlat siyosatini olib borishi ham alohida ifodalanadi. Quyi qatlam vakillari kambag‘al va zaif qatlamlarga e’tibor qaratish esa ijtimoiy himoyani va yordamni ko‘rsatadi. Bunday sistemada davlatni boshqarish uchun ideal hukdor bo‘lishi va axloqiy jamiyatning zarurligi asosiy omil sanaladi.

Davoniy ham Farobiy singari fozil shaharni boshqaruvchi shaxsda o‘n jihatning bo‘lishi zarurligini aytadi. Hukmdor odamlarni e’zozlashi, davlat ishlarini adolatli ijro etishi, xirs va shaxvatga berilmasligi, hukmdorlikda shoshqaloqlik va g‘azabga yo‘l qo‘ymaslik, balki shavqatli va muruvvatli bo‘ishi, xalqning ehtiyojlarini qondirish uchun Allohning irodasidan kelib chiqishi va xalqning ehtiyojlariga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi, xalqqa nisbatan odil bo‘lishi va maslahatlashib, kengashib qaror qabul qilishi, har bir insonga layoqatiga mos bo‘lgan lavozim berishi va adolatli tarzda qonun chiqarishi zarurdir. Hukmdorda diniy bilim ham yuqori bo‘lishi haqida ham aytib o‘tadi. Umuman olganda Davoniy hukmdor timsoli orqali insonning kamol topish bosqichlarini ifodalab beradi. Insonning shakllanishi jamiyatning qay tarzda shakllanishini belgilaydi.

Jaloliddin Davoniy inson va jamiyat haqidagi qarashlarini axloqshunoslikka bag‘ishlangan “Axloqi Jaloliy” asari orqali yoritib berar ekan, inson dunyoga kelishidan tortib, hayotning sinovli kunlariga qadar bo‘lgan bosqichlar va jarayonlarda qanday yo‘l tutishi kerakligini tasvirlab beradi. Inson oliy ne’mat sanalib o‘zida tarbiyaviy jihatlarni namoyon etishi kerakdir. Yaxshi axloqni o‘zida jamlash bu ulug‘ fazilat deb hisoblanadi. Insonlarda yomon xulqni yo‘qotish bu pand-nasihatlar orqali amalga oshiriladi. Bu bevosita inson va jamiyat aloqasiga ishora qiladi. Insonlar orasidagi iliq munosabatlar ham axloqiy qadriyatlarning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. “U insonlar orasidagi muhabbatni 5 turga ajratgan. 1. Ilohiy muhabbat. Bu yaratganga nisbatan muhabbat hisoblanadi. 2. Ota-onaga muhabbat. 3. Muallimning o‘z o‘quvchilariga bo‘lgan muhabbati. 4. Davlat boshlig‘ining o‘z fuqarolariga bo‘lgan muhabbati. 5. Insonning ilm-ma’rifatga bo‘lgan muhabbati. Bunday muhabbatga ega bo‘lgan insonlarni kamolotga erishgan deb hisoblaydi” [4,66]. Inson o‘zida axloq jihatidan yetuklikni namoyon etar ekan u inson sifatida kamolotga erishadi. Bunday shaxslarda eng yaxshi fazilatlar mujassamlashgan bo‘ladi. Ota-ona sifatida ham, farzand yoki ijtimoiy qatlamning bir bo‘lagi sifatida ham. Jamiyatni adolatli boshqaruvchi tarafidan boshqarish va uning yonida turuvchi vakillar ham ilmli yetuk shaxslar bo‘lishi kerak. Hozirgi zamonda ham mukammal jamiyatni shakllantiruvchi bu oiladir. Shaxsni yetuk qilib tarbiyalashda va ideal jamiyatni shakllantirishda Aristotel, Farobiy, Ibn Miskavayx, Nosuriddin Tusiy kabi o‘zidan avvalgi olimlarning faoliyatini davom ettirgan Jaloliddin Davoniyning qarashlarini eng asosiy manba sifatida baholasak bo‘ladi. Bularning barchasi esa hayotning amaliy jarayonlarida mustahkamlanib boriladi.

Xulosa. Bugungi kunda jamiyat hayotida glaballashuv jarayonining shiddat bilan kechayotgani har taraflama o‘zining ta’sirini sezdirmoqda. Xususan,yoshlar orasida zamon bilan hamnafas bo‘lgan holatda rivojlanib, o‘sib borishi bilan bir qatorda axloqiy ongining salbiy jihatda o‘zgarib qolishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ham diniy,ham dunyoviylikka mos kelmaydigan yangidan yangi axloqiy qadriyatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Xuddi shu kabi holatlarning oldini olish uchun jamiyat hayotida axloqiy munosabatlarning ahamiyatini yuqorilatish, yoshlar orasida odob-axloq masalalarida

uchrashuvlar tashkil etish, ma’naviy ongning shakllanishi uchun bizga meros qolgan buyuk allomalarimizning asarlarini o‘rganish eng samarali yo‘l hisoblanadi. Negaki, ularning yaratgan asarlari bir-birini to‘ldiradi va tizimli ravishda axloqni shakllantirish imkoniyatini bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Якин ва Ўрта Шарк халклари ижтимоий-фалсафий фикрлари (VIII-XVIII асрлар). – Тошкет: “Brok Class Sevis”, 2014.

Кодиров М. Жалолиддин Давонийнинг Ахлоки Жалолий асари ва унинг тахлили. Монография. – Тошкент: ТДШИ, 2016.

Fakir Jany Muhammad Asaad. Practical philosophy of the Muhammadan people. – London, 1839.

Safarova R.G. Buyuk mutafakkir Davoniyning tarbiyaviy jarayonlar va uni tashkil etishga oid pedagogik ta’limoti.Tarbiyaviy jarayonlarni boshqarishning xalqaro modellarini qo‘llash mexanizmlari: muammolar va yechimlar // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 3-iyun, 2025.

https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00108/108_i_20250611_192821_1.15.pdf

https://arboblar.uz/uz/people/dzhaloliddin-davoni

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEYLAR QADRIYAT VOSITASI SIFATIDA

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Insoniyatning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylashda muzeylarning o‘rni beqiyos. To‘plamlarida tarix, madaniyat va san’atning bebaho yodgorliklari to‘plangan muzeylar-ijtimoiy xotiraning qo‘riqchilari, ular bizga o‘tmishni o‘rganish, bugungi kun haqida o‘ylash va kelajakka qarash imkoniyatini beradi. Muzey kolleksiyalarining ulkan madaniy salohiyati ta’lim va tarbiya uchun katta imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda muzey nafaqat madaniy, balki ma’rifiy makonga ham aylanib bormoqda.

Muzeylar ishining eng muhim yo‘nalishlaridan biri muzey pedagogikasidir. Muzey pedagogikasi ta’lim, fan va madaniyat sohalarini qamrab olgan integratsion jarayonlarning, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlaridagi muzeylarning madaniy-ma’rifiy faoliyatini rivojlantirishning tabiiy natijasi sifatida vujudga keladi. Muzey pedagogikasi-muzey xodimi va muzey o‘qituvchisining sa’y-harakatlarini birlashtiradigan ilmiy-metodik intizom va amaliy faoliyatni o‘z ichiga olgan yangi integrativ soha. Muzey pedagogikasi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, muzeyshunoslik, san’at tarixi, tarix, psixologiya, o‘lkashunoslik kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muzey kolleksiyasi asosida madaniyat va san’atning sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasini taklif etadi. Muzey pedagogikasi o‘quv faoliyatining integrativ va sifat jihatidan yangi sohasi sifatida, uni innovatsion pedagogik texnologiya deb qarash mumkin.

Muzey pedagogikasini shakllantirish uchun Angliya va Aqshdagi muzeylarning o‘quv faoliyati tajribasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, u yerda ilk bor muzey mehmonlarining turli toifalari uchun dasturlar ishlab chiqilgan. Gamburg San’at muzeyi direktori - A.Lichtvark amaliy ishlari orqali san’at sohasidagi tarbiyaviy ishlarni tarqatishga katta hissa qo‘shgan, muzey hamda maktab o‘quv maskani ekanligiga ishonch hosil qilgan. Muzey direktori sifatida "san’at – hayotga" shiorini amalga oshirish uchun A.Lichtvark muzeyni ko‘p tomonlama faoliyati bilan muntazam ravishda qutqarishga harakat qildi. U o‘zining muzeyida havaskor rassomlik va chizmachilik kurslari, "Gamburg san’at do‘stlari jamiyati", darsliklar to‘plamini yaratdi va muntazam ravishda zamonaviy rangtasvir va bolalar ijodiyoti ko‘rgazmalarini o‘tkazdi. A.Lichtvark muzeyning ta’lim maqsadi haqidagi g‘oyalarni birinchi bo‘lib shakllantirdi va muloqot ishtirokchisi sifatida mehmonga yangi yondashuvni taklif qildi. "Muzey dialoglari" metodini amalda tatbiq etib, dastlab tashrif buyuruvchiga san’at bilan muloqotda bo‘lishga yordam beruvchi vositachi rolini oqladi, san’at asarlarini ko‘rish va zavqlanish qobiliyatini rivojlantirdi.

Muzey pedagogikasi, shuningdek, umuman pedagogika shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish vazifalariga qaratilgan. Muzey-pedagogik jarayon pedagogik kategoriyalar (tarbiya, rivojlanish, ta’lim, tarbiya) bilan belgilangan tarkibiy qismlarning yagona va dinamik tizimidir. Muzey pedagogikasi bir xil tushuncha va kategoriyalar bilan faoliyat ko‘rsatadi va umumiy pedagogika bilan bir xil qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shuning uchun muzey pedagogikasining shakl, metod, tamoyil va vositalarini hisobga olib, muzey pedagogikasining texnologiyalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyati, natijalarning o‘lchanuvchanligi va reprezentativligidir. Texnologiyalashgan tizimlarda biror narsa amalda o‘lchab va takrorlab bo‘lmas ekan, e’lon qilinmaydi. Har qanday o‘qitish texnologiyasi: konseptual, izchillik, boshqariluvchanlik, samaradorlik, reprezentativlik kabi asosiy metodologik talablarga javob berishi kerak. Bugungi kunda eng ommabop innovatsion texnologiyalardan biri muzey-pedagogik dasturi hisoblanadi. Muzey – pedagogik dasturi, ikkita blokni - "muzeyning ta’lim makonidagi maktab" va "maktabda muzey pedagogikasi" ni birlashtirib, muzeyning innovatsion o‘quv amaliyotlarini amalga oshirish uchun namuna hamdir. Bu model muzey bilan maktab o‘rtasidagi eng samarali o‘zaro ta’sir imkoniyatini ochib beradi, chunki u maktab o‘quv jarayoni doirasida muzey-pedagogik ta’lim sohasini shakllantirishning shart-sharoitlarini yaratadi.

Muzey-pedagogik dasturi muzey va maktab o‘qituvchilari o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni o‘z ichiga oladi. O‘quv faoliyatining ma’ruza, ekskursiya, didaktik ko‘rgazmalar, seminar kabi an’anaviy shakllarini yangi mazmun bilan boyitish, zamonaviy video va multimediya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritish imkonini beradi. Shaxs, muzey va pedagogik dasturlarning bosqichma-bosqich va izchil rivojlanishini ta’minlash muzey va ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular quyidagilardir:

Ishlab chiqish dasturi, dasturning maqsadi va vazifalari;

dasturning manzili (qaysi auditoriya uchun mo‘ljallanganligi);

dasturning mazmuni;

dasturni amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan shakllar,

vositalar va uslubiy metodlar;
amalga oshirish uchun vaqt oralig‘i;
samaradorlik va samaradorlikni baholash.

Faqat shu holatdagina shaxsning bosqichma-bosqich va izchil rivojlanishini ta’minlovchi dasturlar muzeyning innovatsion o‘quv amaliyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muzey pedagogikasining innovatsion texnologiyasi misolida "Salom, muzey" rus davlat muzeyining dasturini keltirishimiz mumkin. Dasturning maqsadi-talabalarning milliy o‘z-o‘zini anglashi va turli xalqlar madaniyatlari bilan teng muloqotga tayyorligini rivojlantirish bo‘lib, u birinchi navbatda o‘z mamlakatining madaniy merosini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasalari tomonidan dasturni amalga oshirish o‘quv-uslubiy majmuasi (o‘quv fanlari dasturlari va ular uchun metodik tavsiyalar, slaydlar, video dasturlar) va tajriba almashish bo‘yicha tajriba o‘qituvchilarining yillik yakuniy konferensiyasi ortidan eksperimentni metodik tahlil qilish tizimi bilan ta’minlanadi.

Dastur doirasida dialogning ketma-ket aloqalari ketma-ketligi mavjud muzey-o‘quv yurti – muzey. Dasturni amalga oshirish eng zamonaviy axborot va audio-vizual texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Muzey pedagogikasini boshqa har qanday fan kabi, muayyan shartlar bajarilsa, rivojlanishi mumkin, xususan: mintaqaning madaniy merosining ustuvorligi; integrativ bilim; bilimga bo‘lgan ehtiyojni qondirish; dialogik; bolalarni faoliyat orqali rivojlantirish; bolaning hissiy sohasiga tayanish. Muzey pedagogikasida pedagogika uchun umumiy va o‘ziga xos bo‘lgan turli xil ish shakllari mavjud. Barcha ishlar quyidagilarga bo‘linadi: o‘qituvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash; bolalar bilan bevosita ishlash. Bu ish turlarini quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkin: konsultatsiyalar, muzey darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar, seminarlar, tanlovlar, taqrizlar, ma’rifiy hamkorlik, tahliliy hamkorlik, muzey pedagogikasi sohasidagi hamkorlik, mashg‘ulotlar, suhbatlar, ekskursiyalar, sayr qilish, tajriba o‘tkazish. Muzey pedagogikasi o‘z faoliyatini faollashtirish uchun bolalar bilan muzey ta’limi va tarbiyasi doirasida ishlarni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanadi. Darslar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: raqobat; sayohat yoki hisobot kabi har qanday faoliyatni taqlid qilish; bayram; munozara; konsert; dars-fantaziya; hujjatlar bilan ishlash; "tarixiy portret" mavzusidagi dars; muzey eksponatlari bilan ishlash; ekskursiya; o‘yin yoki musobaqa shaklida ekskursiya; shahar ko‘chalarida masofa sayohat; viktorinalar. Muzey pedagogikasi doirasidagi amaliy faoliyatda ishning interfaol shakllaridan foydalanish ancha samaralidir, masalan: qo‘llanmani qahramon sifatida taqdim etish; teatrlashtirish; o‘yin vaziyati.

Bu ish shakllari bolalarni tashabbuskor, erkin va ijodiy shaxs shakllanishiga sababchi bo‘lgan madaniy faktlar, tajriba asosida fikrlashga, tahlil qilishga undaydi. O‘quvchilarning nafaqat kuzatishi, tinglashi, ma’lum vazifalarni bajarishiga, balki faol harakat qilishi va tadbirlarda ishtirok etishiga asoslangan faol metodlar predmet dunyosini bolalarga ochib berishga yordam beradi. Har bir dars motivatsiya va bilimlarni yangilash bilan birga olib borilishi kerak. Agar bola muzeyda bo‘lish maqsadi va unga bo‘lgan ehtiyojni tushunmasa, keyingi tadbirlar samarasiz bo‘ladi. Motivatsiya uchun

ishga quyidagi metodlarni kiritish foydalidir: syurpriz, eng boshida bolani hayratga soladigan va qiziqtira oladigan fakt kiritilganda; maqsadlarni o‘yin vazifasi sifatida belgilash; hissiy sohaga tegadigan darsning epigrafini shakllantirish; muammo o‘rnatish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkunki, muzey va maktab ta’limi integratsiyasi o‘quvchi-yoshlarni san’at va madaniyatga qiziqishini oshirish bilan birga ularning bu sohadagi qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borilgan darslar esa bilim, ko‘nikmalarni kompetensiyalarga aylantirib ta’lim natijasini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Юхневич М.Ю. Я поведу тебя в музей: Учеб. пособие по музейной педагогике / М-во культуры РФ. Рос. ин-т культурологии. – М., 2001.

Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. – Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. – 230p.

Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.

Гнедовский М. Б. Музей и образование: материалы для обсуждения [Текст] // М. Б. Гнедовский, Н. Г. Макарова, М. Ю. Юхневич — М.: ВНИК ≪Школа≫. 1989.

Блинова, Е. В. Интерактивные формы музейной деятельности, способствующие социализации и адаптациидетей-сирот [Текст] //Социальная педагогика,2010, № 4.

O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MIGRATSIYA VA UNING SABABLARI

Matvapayeva Nasiba G‘ayratovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Kirish. Bugungi kunda xalqaro migratsiya jarayoni jadal suratlarda rivojlanib borar ekan, bu jarayonning jamiyatga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ta’sirlari bo‘lishi muqarrar. Tashqi migratsiya hozirgi zamonga xavf solayotgan noan’anaviy tahdidlardan hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar, o‘ziga xoslikni shakllantirish, yoshlarni aktuallashtirish, iqtisodiy farovvonlik hatto davlatning tashqi siyosati va milliy xavfsizlik singari sohalarga ta’sir ko‘rsatadi. [1, c. 23] Ayniqsa, o‘qish va malaka oshirish uchun chet davlatlarga yoshlarning ketishi ya’ni bir so‘z bilan aytganda intellektual migratsiya keng ko‘lamda rivojlanmoqda. Bu vaziyat immigratsiya markazlari bo‘lmish rivojlangan davlatlar uchun ijobiy aha miyat kasb etsa, emigratsiya o‘choqlari rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun esa buning aksi, ya’ni salbiy holatlarga olib kelishi kuzatiladi. Ta’lim migratsiyasi yoki intellektual migratsiyada asosan malakali mutaxxasislar, olimlar, tadqiqotchilar harakatlanadilar. Masalan Hindistondan ko‘plab kompyuter ekspertlari, texnik xodimlar chiqib ketadi. Ammo bu ko‘chishlar migrantlar chiqib ketadigan mamlakatni malakali kadrlardan mahrum etadi. Bu jarayon aql migratsiyasidir.[1] Xorijiy adabiyotlarda, ilmiy maqolalarda umuman olganda keng ilmiy jamoatchilikda migratsiya bilan bog‘liq muammolarga e’tibor

kuchaymoqda va bu mavzuga oid ko‘plab tadqiqotlar qilinmoqda. Chunki bugungi kunda migratsiyalar hajmi ortgani sayin uning jamiyat hayotiga ta’siri ko‘proq sezilmoqda. Bu ta’sir biryoqlama bo‘lmasdan, migrant ketgan davlatning ham, borgan davlatning ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayotiga ta’sir qiladi. Shu jihatdan olib qaralganda aql migratsiyasi, intellektual migratsiya yoki ta’lim migratsiyasi (brain drain) ni o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ham bu borada tadqiqotlar kengaya bormoqda. D.A.Alimova, A.A.Golovanov, O.Atamirzaev, V.Genshtke, R.Murtazaeva, I.R.Mullajonov, D.Bobojonova asarlarida demografik holat, migratsion jarayonlar, ularning turlari, sabablari, oqibatlari haqida ko‘plab ma’lumotlar berib o‘tiladi. Aytish joizki, aynan intellektual migratsiya muammolariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar kamchilikni tashkil qiladi. Ammo uning jamiyat taraqqiyotiga ma’naviy, madaniy ta’siri ancha kuchli hisoblanadi.

Materiallar va usullar. Maqolada O‘zbeksitondagi intellektual migratsiya turi uning sabablari va oqibatlari haqida ma’lumotlar taqdim etiladi. Tadqiqotni yozishda, xronologik, statistik tahlil, qiyoslash, tizimli yondashuvlardan foydalanildi.

Natijalar. UNESKOning xorijda tahsil olayotgan talabalar bo‘yicha 2021-yildagi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha bu borada xitoylik va hindistonlik talabalar yetakchi hisoblanadi. Xorijda o‘qiyotgan xitoylik talabalar soni 1 millionni tashkil qilgan bo‘lsa, hindistonlik talabalar 508 mingga yetgan. O‘zbekiston esa 5-o‘rinda 110 mingdan ortiq talaba chet elda o‘qigan. Xorijiy talabalarning atigi 25-30 % iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan o‘zlari kelib chiqqan mamlakatlariga qaytgan. [2, c.28] UNESKO statistika instituti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga, xorijda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni 150,5 ming nafarni tashkil etgan. Xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni bir yil ichida qariyb 24 ming nafarga oshgan.[3] Mas’ul vazirlik va idoralar, qoida tariqasida, respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan xorijda ta’lim olayotgan yoshlarning migratsiya hajmi va yo‘nalishlarini hisobga oladi. Ammo yoshlarning salmoqli qismi chet elda o‘z mablag‘lari hisobidan tahsil olmoqda yoki xalqaro stipendiyalar sohibi bo‘lib, bu milliy statistikada o‘z aksini topmagan. [4, c. 39] Yoshlarning rivojlangan davlatlarda ta’lim olishga qiziqishining ortishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi: **Birinchi omil –** ijtimoiy-iqtisodiy zarurat. Possovet davlatlari orasida, bir odam boshiga to‘g‘ri keladigan yillik yoki oylik yalpi ichki mahsulot ulushiga ko‘ra, O‘zbekiston ancha orqada. **Ikkinchi omil –** demografik o‘sish sur’atining yuqoriligi. O‘zbekiston, possovet hududidagi eng katta real raqamlarda demografik o‘sish qilayotgan davlat hisoblanadi. 1991-yilda O‘zbekiston aholisi 19 million 900 ming atrofida deb hisoblangan bo‘lsa, bugunga kelib, 38 millionga yaqinlashib qoldi. **Uchinchi omil** – yoshlarga xos tashqi dunyoga talpinish, o‘qish-izlanish, ish o‘rganish – dunyoni ko‘rish. Migratsiya va emigratsiya butun insoniyat tarixi davomida rivojlanishning muhim omili bo‘lgan. Ta’kidlash lozimki, bugungi taraqqiy etgan, boy davlatlardan ham xorijga ko‘chib ketish mavjud.

Yosh avlodning chet elga o‘qish uchun amalga oshirgan ta’lim migratsiyasi ham ijobiy ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy taraflari, talaba o‘qishni tamomlab vataniga qaytgach yangi xorij tajribalarini almashinish orqali sohalarda yangicha metodikaning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim migratsiyasi yoshlarning zamonaviy

ta’lim olish, yuqori tajribaga ega bo’lish shu bilan birga moliyaviy jihatdan mustahkamlanish imkoniyatini oshiradi. Biroq shu bilan birga uning salbiy ta’sirlari ham mavjud bo’lib, bu yuqori malakaga ega bo’lgan yoshlarning chet elda qolib ketishi va boshqa davlatning ilmiy rivojlanishi uchun hissa qo’shishidir. Bu kabi yoshlarning o‘z mamlakatimizda qolib, turli sohalarni rivojlantirishi milliy manfaatlarimizga ancha foyda bo‘lgan bo‘lar edi. Boshqa mamlakatda yashash mobaynida qadriyatlar, urf odatlarning qo‘shilib ketishi, diniy nuqtai nazardan ham aholi ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Ushbu kuzatilishi mumkin bo‘lgan jarayonlarning oldini olish maqsadida mamlakatimizda xavfsiz va tartibli migratsiya ishlari amalga oshirilmoqda. [5, c. 60]

Munozara. O‘zbekistonda 1990-yillarda chetga migratsiya oqimi tufayli respublika mutaxassislari, olimlari yuqori malakali ishchilarning katta qismini yo’qotdi. Xorijiy davlatlarga o‘qish yoki ishlash uchun ketgan ko‘plab yoshlar qaytib kelmagani ma’lum bo‘lgach, 1990-yillar boshlarida migratsiyani cheklashga urinishlar boshlandi. “Umid” jamg‘armasi tuzilib, u orqali yoshlar o‘z vataniga qaytib davlat idoralarida ishlash sharti bilan xorijga o‘qishga yuborildi. So‘nggi yillarda bu jarayon yangi mazmun bilan to‘ldirildi. Migratsiya siyosatidagi bu burilish Prezident SHavkat Mirziyoyevning Nyu-York shahrida AQSHga ketgan vatandoshlar bilan uchrashuvida bo‘ldi. 2018-yilda keng ko‘lamli islohotlarni ilgari surish maqsadida “Buyuk kelajak” jamg‘armasi tashkil etildi. Uning maqsadi respublikani jahon mehnat bozorida raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, katta ilmiy salohiyatga ega vatandoshlarimiz bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Shunday bo‘lsa-da migratsiyaning ketish xavfi sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. [6, c. 23] 2009-2016-yillarda tartibsiz mehnat migratsiyasi va intellektual mehnat migratsiyasining o‘sishi bilan kechdi. Mamlakatimizda migratsion jarayonlarni tartibga solish, boshqarish va mehnat migrantlarining ijtimoiy himoyalash mexanizmlarini kuchaytirilishi zarurati, migratsion jarayonlar va ularning ijtimoiy oqibatlarini ilmiy o‘rganilishida jonlanishga turtki berdi. [7, c.35] Bugungi kunda O‘zbekistonda vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida turli tashkilotlar tuzilgan. Ulardan biri “Vatandoshlar” jamoat fondi hisoblanadi. Fond 2021-yil 11-avgustda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni tarixiy vatani atrofida yanada jipslashtirish, ularning qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg‘usini yuksaltirish, milliy o‘zlikni saqlab qolish, vatandoshlar va ular yomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarini qo‘llab-quvvatlash, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizning salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga samarali yo‘naltirishdir. [8]

Dunyo tajribasini kuzatgan holda migratsiya va emigratsiya jarayoniga normal qaralishi kerak. Asosiysi, salohiyatli kadrlarni vatanning ichida ushlab turish va bu orqali milliy taraqqiyot uchun kerakli bo‘lgan g‘oyalar, dasturlar ishlab chiqara oladigan shaxslardan unumli foydalana olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Muhiddinov E. Aholining ish bilan bandligini ta’minlaahda mehnat migratsiyasining roli. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2009.

2.Parmanov N., To’rayev SH., Daminov I., Tog’ayev SH. Migratsiya; musofir vatangadolar. Monografiya. T.: “Sano-standart nashriyoti”. 2015. 112 B. – 44 b.

2. Qaytish migratsiyasi xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. Moskva, 2020.

3. https://uz24.uz/uz/articles/talabalar-9-30

4. Жасулан С. Толеуов. Регулирование внешних миграционных процессов молодежи в странах Центральной Азии. Вестник КемГУ. Серия: Политические, социологические. 2020.

5. Xashimov P. O‘zbekistonda aholi migratsiyasining xususiyatlari. Iqtisod va moliya. 2021.

6. Maksakova L.P. Zamonaviy O‘zbekistonda demografik xavfsizlik. Часопис экономичисних реформ. №2(38)/2020.

7. Ahmedova Sh. Migratsiya oqimiga tortuvchi va itaruvchi faktorlarning ta’siri. “Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Toshkent. 2023.

8. https://vatandoshlarfondi.uz/

RAQAMLI VOSITALARNING YOSHLAR TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TA’SIRI

Mavlonova Dilnozaxon Shuxratjon qizi
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi doktoranti

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, xususan, ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur kirib kelmoqda. Internet, mobil qurilmalar, raqamli platformalar va multimedia vositalari yoshlarning bilim olish, muloqot qilish hamda ijtimoiylashuv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Marc Prensky tomonidan ilgari surilgan “raqamli tug‘ilganlar” (digital natives) g‘oyasi esa zamonaviy o‘quvchilarning o‘rganish uslubi, qiziqishlari va axborotni qabul qilish xususiyatlari keskin o‘zgarganini ta’kidlaydi[1]

Raqamli muhit yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy jihatdan, raqamli vositalar orqali yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish holatlarida axborotga qaramlik, salbiy kontent ta’siri va ijtimoiy ajralish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Internetga ulanish yosh foydalanuvchilarda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur shart hisoblanadi, biroq u yagona omil emas. Yosh foydalanuvchilarning onlayn muhitda o‘tkazgan vaqti hamda shug‘ullanadigan faoliyat turlari ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, ota-onalar tomonidan internetdan foydalanish qat’iy cheklangan yoshlarda raqamli ko‘nikmalar darajasi pastroq bo‘lishi kuzatiladi.

Yoshlar onlayn muhitda eng ko‘p shug‘ullanadigan faoliyatlar — ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, videoo‘yinlar o‘ynash va videolar tomosha qilish — ularning raqamli ko‘nikmalarini ijobiy rivojlantiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanuvchi yosh foydalanuvchilar maxfiylik sozlamalarini o‘zgartirishni bilish ehtimoli ikki barobargacha yuqori bo‘lib, onlayn qidiruvlar uchun eng mos kalit so‘zlarni aniqlash hamda kontaktlar ro‘yxatidan foydalanuvchilarni o‘chirishni bilish ehtimoli kamida 50 foizga yuqoriroqdir.[2]

So‘nggi yillarda o‘smirlarning sezilarli qismi ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanayotganini tan olmoqda. Joriy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘smirlarning 45 foizi ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari ko‘p vaqt sarflayotganini bildirgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022-yildagi 36 foizga nisbatan oshganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, o‘smirlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlarni ijtimoiylashuv va ijodiy o‘zini namoyon etish uchun ijobiy muhit sifatida baholamoqda. Xususan, respondentlarning 74 foizi ushbu platformalar do‘stlari bilan o‘zaro aloqadorlik hissini kuchaytirishini, 63 foizi esa o‘z ijodiy salohiyatini namoyish etish imkonini berishini ta’kidlagan.[3]

Texnologiyalarning ijobiy tomonlari: Texnologiyaning ta’limdagi ijobiy ta’siri an’anaviy sinflarni kashfiyot va interaktiv o‘rganish markazlariga aylantirdi. Virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi repetitorlar yordamida bugungi talabalar ilg‘or, samarali va ijodiy usullarda bilim olish imkoniyatiga ega. Faqat bir marta bosish orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi bilimlarga kirish mumkin bo‘lib, bu ta’limni barcha o‘quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv qiladi. Smartboardlar, ta’limiy ilovalar va virtual simulyatsiyalar kabi interaktiv vositalar yordamida o‘quv jarayoni yanada qiziqarli bo‘ladi. Texnologiya ma’lumotni taqdim etish, tahlil qilish va qabul qilish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bundan tashqari, ta’limiy o‘yinlar va multimediya kontenti o‘quvchilarning diqqatini jalb qilib, o‘rganishni yanada dinamik qiladi. Texnologiya bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘quvchilarning turli o‘qish uslublariga moslashadi. Internet keng qamrovli bilimlar manbai sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar yangilangan ma’lumotlar, ilmiy materiallar va ta’lim resurslariga tezkor va qulay tarzda kirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu tez va oson kirish imkoniyati o‘rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Texnologiya geografik to‘siqlarni bartaraf etib, talabalar dunyo bo‘ylab tengdoshlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Turli hamkorlik platformalari, videokonferensiyalar va o‘quv boshqaruv tizimlari o‘quvchilarga o‘z fikr va g‘oyalarini baham ko‘rish, mazmunli muhokamalarda ishtirok etish imkonini beradi. Bu kommunikatsiya va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirib, turli nuqtai nazar orqali ta’lim tajribasini boyitadi.

Texnologiyaning yana bir ijobiy ta’siri — talabalar uchun o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Raqamli resurslar, onlayn kurslar va ta’limiy ilovalar yordamida talabalar darsliklar chegarasidan tashqarida boy ma’lumotlar bazasiga ega bo‘ladilar. Bu talabalar o‘z qiziqishlariga mos fanlarni chuqurroq o‘rganish va shaxsiylashtirilgan o‘qish yo‘lini yaratishga imkon beradi.[4]

Texnologiyaning salbiy ta’sirlari:Texnologiya ta’limda faqat ijobiy natijalar va muvaffaqiyatlar keltirmaydi. Raqamli chalg‘ituvchilar va ma’lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi kabi omillar texnologiyaning salbiy ta’sirlariga misol bo‘lishi mumkin. Har qanday texnologiyada kamchiliklar mavjud bo‘lgani kabi, ta’lim sohasida ham ularning mavjudligi seziladi. Barcha o‘quvchilar texnologiyaga teng kirish imkoniga ega emas. Internetga ulanish va qurilmalar mavjudligidagi farqlar o‘quv imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Raqamli kommunikatsiyadan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilar orasidagi va o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasidagi shaxsiy muloqotni kamaytiradi. Bu holat ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishiga ta’sir qilishi va ta’lim muhitida jamoaviylik hissini pasaytirishi mumkin. Texnologiya albatta o‘quvchilarning faolligini oshiradi, biroq u diqqatni chalg‘itish xavfini ham keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlar, o‘yinlar va boshqa onlayn faoliyatlar o‘quvchilarning ta’limiy kontentga e’tiborini kamaytirishi mumkin.[4]

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va vositalar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, yoshlarning bilim olish jarayoni, faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli resurslar, interaktiv platformalar va innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish hamda global bilim makoniga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar yoshlarning ijodiy, tanqidiy fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq texnologiyadan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish ta’lim jarayonida bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Raqamli bo‘linish, diqqatning chalg‘ishi, shaxsiy muloqotning kamayishi, axborot xavfsizligi va maxfiylik bilan bog‘liq muammolar, shuningdek, texnologiyaga ortiqcha qaramlik yoshlarning ta’lim sifati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari raqamli vositalarni pedagogik maqsadlarga muvofiq, ongli va tizimli ravishda integratsiya qilishi, yoshlarning raqamli savodxonligi va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur. Faqat shundagina raqamli texnologiyalar yoshlar ta’lim-tarbiyasini samarali qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi va ularni kelajakdagi ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashga zamin yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pekka Mertala, Sonsoles Lopez-Pernas, Henriikka Vartiainen, Mohammed Saqr, Matti Tedre. “Digital natives in the scientific literature: A topic modeling approach” Computers in Human Behavior 152 (2024) 108076

https://www.unicef.org/innocenti/reports/childhood-digital-world

https://www.pewresearch.org/internet/2025/04/22/teens-social-media-and-mental-health/

https://globalindianschool.org/ahmedabad/guide/what-are-the-positive-and-negative-effects-of-technology-on-education/#elementor-toc__heading-anchor-7

Internet manbalari asosida

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ORFOEPIYA O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Maxmudova Hilola Yashnarjon qizi
Namangan davlat pedagogika Instituti magistranti

Boshlang‘ich sinflarda orfoepiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilish faolligini kuchaytirish va to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar – bu ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilish uchun zamonaviy yondashuvlar, usullar va vositalardan foydalanishdir[1].Ular o‘quvchilarning bilimlarni faol va ongli ravishda o‘zlashtirishini ta'minlaydi, shuningdek, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalar turlari va ta'limda qo‘llanishi[2]

1.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Interaktiv doska: O‘quvchilar interaktiv doskada turli mashq va o‘yinlarni bajara oladi. Masalan, noto‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zlarni to‘g‘rilash, rasmlar bilan ishlash.

Multimediali vositalar: Audio, video va animatsion materiallar orqali dars mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zlar va gaplar yozib eshittiriladi. Keyin ular o‘zlari takrorlab talaffuz qilishadi.

Misol: "Daraxt" so‘zining to‘g‘ri talaffuzini (dar’axt) eshitib, noto‘g‘ri talaffuz (daraxt) bilan solishtiradilar.

Onlayn platformalar: Masalan, Google Classroom, Quizizz yoki Kahoot orqali topshiriqlar berish va ularni real vaqt rejimida baholash.

Videodarslar va animatsiyalar: O‘quvchilarga o‘zbek tilining talaffuz qoidalari haqidagi qisqa videoroliklar ko‘rsatiladi. Bu orqali ular qoidalarni yaxshiroq eslab qoladi.

Misol: Multfilm qahramonlari talaffuzda xatoga yo‘l qo‘yadi, va o‘quvchilar bu xatolarni aniqlab, to‘g‘rilashga harakat qiladi.

2.Interaktiv ta'lim texnologiyalari

"Klaster" usuli: Darsning ma’lum bir mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalar klaster shaklida tasvirlanadi va u o‘quvchilar tomonidan muhokama qilinadi.

Misol: "Orfoepiya qoidalari" mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalar (talaffuz, urg‘u, orfoepik xatolar) aniqlanadi va grafik shaklda tartiblanadi.

"Baliq skeleti" usuli: O‘quvchilar muammoning sabablarini va uning yechimlarini grafik ravishda tasvirlaydi. Elektron taqdimotlar (PowerPoint, Prezi): Orfoepiya qoidalari bo‘yicha slaydlar tayyorlanadi. Noto‘g‘ri va to‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zlar solishtiriladi. Har bir qoidaga oid misollar vizual tarzda taqdim etiladi.

Misol: Slaydda “Do‘st” so‘zining noto‘g‘ri talaffuzi (dos‘t) va to‘g‘risi (do‘st) ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ularni talaffuz qilib, yozma shaklda ham ishlaydi.

3.O‘yin texnologiyalari

[1] Adizova S. – Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.

[2] Norkulov O., Akramova R. – "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish" 2019 O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi

Interaktiv o‘yinlar: Quizizz, Kahoot yoki LearningApps platformalarida o‘yin tarzida mashqlar yaratish. Elektron platformalarda (masalan, Quizizz, Kahoot) orfoepik mashqlar asosida testlar yaratiladi.

Misol: O‘quvchilarga noto‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zlar beriladi va ular to‘g‘ri variantni tanlashadi.

Masalan: “Yolg‘on” (to‘g‘ri) / “Yol‘g‘on” (noto‘g‘ri).

Rolli o‘yinlar: Bolalar orfoepik xatolar bo‘lgan kichik hikoya asosida rollar taqsimlab o‘ynaydi va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qiladi. O‘quvchilar dialoglar tuzib, talaffuzda xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.

"Kim aqlli?" o‘yini: Guruhlarga bo‘linib, ular orfoepik qoidalarga oid test savollariga javob beradi.

4.Loyihaviy ta'lim texnologiyalari[1]

O‘quvchilarga mustaqil ravishda biror mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borish topshiriladi. Guruhlarga bo‘linib, o‘quvchilar talaffuz qoidalarini o‘z ichiga olgan plakat, video yoki taqdimot tayyorlaydi.

Misol: O‘quvchilar orfoepik xatolarni aniqlash uchun matnlar ustida ishlaydi va o‘z topilmalarini taqdim qiladi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida multimediali materiallar orqali o‘quvchilar nafaqat o‘qib, balki tinglab va ko‘rib ham orfoepik qoidalarga amal qilishni o‘rganadi. Qiziqarli dars muhitini yaratiladi. Interaktiv o‘yinlar va mashqlar yordamida o‘quvchilar faol ishtirokchi bo‘ladi. Individual yondashuv imkoniyati paydo bo‘ladi. Texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantiriladi. Innovatsion usullar o‘quvchilarga talaffuzni to‘g‘rilash va mustahkamlash uchun ko‘proq imkoniyat yaratadi. O‘quvchilarning ishtiroki oshadi. Ular darsga faolroq kirishadi va o‘yin shaklida ko‘proq bilim oladi. Bilimlar samaradorligi ortadi. Qoidalarning esda qolish darajasi ko‘tariladi, chunki materiallar bir necha sezgi orqali o‘zlashtiriladi. Individual yondashuv yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva, Savod o'rgatish- Toshkent. 1996

2. O. Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev, Ona tili didaktikasi.- Toshkent: Yangi asr avlodi,2005.

3. B. Adizovning, Ta'lim texnologiyasi.-Toshkent:O'qituvchi,1999.

4. A. Hamroyevning, Ona tili.- Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.

5. U. Masharipova , X. Sattorova, Husnixat va uni o'qitish metodikasi.- Toshkent:Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti nashriyot, 2013

6. Norkulov O., Akramova R. – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish: 2019 O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi

[1] Q. Abdullayeva, Savod o'rgatish- Toshkent. 1996

ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ МАЪНАВИЙ-АҲЛОКИЙ АСОСЛАРИ

Майлиев Азамат Фарход ўғли
Ўзбекистон Республикаси Миллий Гвардия ходими

Инсоният цивидизацияси ҳамма вақт онг ва тафаккур тараққиёти, унинг беқиёс куч-қудрати, яратувчилик даҳоси билан тарихда буюк силжишлар қилган. Турли даврларда, минтақаларда, ҳолатларда юз берган бундай ҳодисалар инсон ва жамият тараққиётини юксак чўққиларга олиб чиққан. Бу чўққиларга қайси бир миллат ўз ҳиссасини бошқа бир миллатга нисбатан кўпроқ қўшган. Ҳиссаси кўп миллатнинг тарихи ва маданияти ҳам бошқа миллатникига нисбатан улуғдир. Бу улуғлик шу миллатнинг миллий ғурури билан ҳам боғликдир. Миллий ғурур миллатнинг барча соҳаларда эришган ютуқлари билан ўсиб боради. Чунки ҳар қандай давлатнинг қудрати тўғридан-тўғри ана шу давлат тенг ҳуқуқли фуқароларининг маънавий қиёфаси, ички дунёсининг бойлиги билан боғликдир. Бундай мамлакатларда меҳнатга муносабат ва ишлаб чиқариш маданияти фуқароларнинг ички маданияти билан уйғунлашиб кетган бўлади. Аслида эса миллий ғурур соф инсоний фазилат, энг покиза, шабнам янглиғ беғубор туйғу. У инсоннинг ҳар бир ҳужайрасига сингиб кетган мўътабар ҳиссиёт. Миллий ғурури кучли бўлган киши ўзининг миллий қадриятларини асраб-авайлайдиган, яъни Ватан, Она замин, Миллат ва миллатлараро муносабатларнинг ноёб қадрият эканини бутун вужуди билан англайдиган ва уни қадрлай биладиган кишидир. Бугунги ўтиш даврининг энг катта руҳий-маънавий эҳтиёжи миллий ғурур туйғусидир. Ёшларимиз миллий ғурур туйғусини кучайтиришда халқимиз ўтмишини ва бой тарихини чуқур ўрганиш, жаҳон тараққиётида юксак ўрин тутган Шарқ маданиятини пухта эгаллаш муҳим аҳамият касб этади.

Мустақиллигини қўлга киритган Ўзбекистон XXI асрга ўзининг миллий-маънавий қадриятларини тиклаган, уларни янги мазмун билан бойитиб, янгича ҳаёт бахш этган ҳолда кириб келмоқда. Бу мустақилликни асраш ҳамда унинг мангулигини сақлашда миллий ғурур туйғусини шакллантириш ва ривожлантириб бориш миллат бирлигини таъминлашда асосий омил, қудрат бўлиб хизмат қилади. Ҳар бир инсонда миллий ғурур туйғусининг ўсиши жамият ғуруррининг ўсишига олиб келади. “Жамият аъзолари – шахслар ғурури бирлашиб, миллат ғуруруни шакллантиради. Шахс ғуруруининг муҳим қисмини эса миллий ғурур деган олий инсоний тушунча ташкил этади”[1]. Ҳозирда, “Олдимизда турган улкан, жуда оғир вазифаларни бажариш, муаммоларни ечиш, катта синовлардан ўтиш – буларнинг ҳаммаси халқимизнинг руҳини, миллий ғуруруни тиклаш билан боғликдир”[2].

Албатта, мустақиллик ва миллий ғурур, миллат бирлиги ва эркинлиги ўртасида қандай боғлиқлик борлигини билиш учун олим ёки мутахассис бўлиш шарт эмас, фақатгина бу тушунчаларнинг мазмунини англаб етиш, ички маънавий оламида чуқур ҳис қилиш лозим. Бугун кимларнингдир наздида биз

мустақилликни осонгина қўлга киритгандекмиз, лекин бу йўлда қанчадан-қанча ота-бобаларимиз ўз жонини фидо қилганлигини буюк ва шонли тарихимиз исботламоқда. Шунингдек, бугунги глобаллашув асрида, бизни мустамлакачиликнинг бошқа бир турлари орқали яна ўзининг мустамлакаси қилмоқчи бўлган кучлар ортиб бораётганлиги ҳеч кимга сир бўлмай қолди. Глобаллашув даврида қайсики мамлакат “...биринчи навбатда, эришган натижалари билан кифояланмасдан, дунёда юз бераётган туб ўзгаришлар жараёнидаги ўз ўрнига ҳаққоний ва танқидий баҳо берадиган, даврнинг тобора ортиб бораётган талабларига уйғун ва ҳамоҳанг бўлиб қадам ташлайдиган мамлакатгина муваффақият қозониши мумкин”[3]. Бундай тез ўзгаришлар руй бераётган жараёнларда истиқлолни англаш, уни асраш халқимиз учун муқаддас вазифадир. Истиқлол – ўз тақдирига эгалик қилиш ҳуқуқи, маънавий қадриятлар ва миллий анъаналарга таяниб яшаш ва юртимиз бойликларидан халқимиз ва Ватанимиз манфаатлари йўлида фойдаланиш имконияти эканлиги бугунги кунда барчамиз англаётган ҳақиқатдир. Чунки “Муайян ижтимоий воқеликка (яъни, инсоният тараққиётининг бирон-бир даврига, жамиятнинг ривожланиш босқичи ёки давлат шаклига) муайян ғоявий-мафкуравий тушунча ва тамойиллар тизими мос келганидек, ўзгарган ижтимоий воқеликка ҳам ўзгарган ғоялар тизими мос келади. Шу маънода, ҳар қандай миллат ва жамият ўзига хос ва мос ғоялар тизимини яратиши, уни такомиллаштириб бориши, турли хуружлар ва таҳдидлардан муттасил ҳимоя қилиши лозимлиги инсоният ҳаётининг абадий қонунидир”[4]. Шу нуқтаи назардан ҳам шахснинг ғоявий дунёси, унинг эътиқоди ва дунёқараши шаклланиш даражаси мазкур жамиятда амал қилувчи қадриятлар ва анъаналарга қанчалик мос келиши билан белгиланади. Шунинг учун ҳам биз ўсиб келаётган ёш авлодда туғилиб ўсган юртига муҳаббат туйғусини шакллантиришимиз керак бўлади. “Ватанга муҳаббат ҳисси одамнинг қалбида табиий равишда туғилади. Яъни инсон ўзлигини англагани, насл-насабини билгани сари юрагида Ватанга муҳаббат туйғуси илдиз отиб, юксала боради. Бу илдиз қанча чуқур бўлса, туғилиб ўсган юртга муҳаббат ҳам шу қадар чексиз бўлади”[5]. Шунинг учун ҳам мустақиллик даврида ўсиб келаётган ёш алод тарихнинг ўзига тегишли саҳифасини ўзи ёзиши керак, яъни ўз ҳаракатлари билан, иродаси ва интилиши билан юксак маррарларга эришиши керак. Зеро, шундагина буюк халқнинг буюк ўтмиши улуғлашиб бораверади. Яъни, халқнинг муваффақияти, халқаро муносабатларда эришган марралари, қолаверса ҳар бир соҳада эришган ютуқлари халқнинг иродаси, миллий ғурурини мустаҳкамлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-Б.466.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-Б.325.
3. Буюк ва муқаддассан, мустақил Ватан! тузувчи: Қ.Назаров ва бошқ.-Тошкент: “Ўқитувчи” НМИУ, 2011.-Б.9.
4. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси.-Тошкент: Академия, 2011.-Б.36.

5. Каримов И.А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман.// Фидокор, 2000 йил 8 июнь.

TA'LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Qoraboyeva Zohida To‘lanboyevna
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Mirabdullayeva Muxlisaxon Mansurjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi nafaqat pedagogika va psixologiya fanlarining, balki butun jamiyatning strategik ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Har bir davlatning barqaror taraqqiyoti, milliy xavfsizligi va intellektual salohiyati, avvalo, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o’zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o’zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg’unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog’langan bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilsn birga dunyo miqiyosida shunday o’zgarishlar sodir bo’lmoqdaki, ushbu o’zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun isoniyatning hayotini o’zgartirib yubormoqda. Ushbu o’zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o’rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta’lim tizimida olib boriladigan sifatli ta’lim – tarbiya orqali erishiladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, ko’plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalqimizning murakkab tarixiy – madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea – hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo’g’ini bo’lgan oiladan izlash an’anasini uchratamiz. Xususan, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayxon Beruniyning “ “Mineralogiya ”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O’tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo’jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat – ul – abror” va “Mahbub – ul – qulub” asarlarida o’z ifodasini topgan. Millatimiz boshiga tushgan ko’pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma’rifat ahllari yaxshi anglashgan. Bizning ham fikrimizcha, bundan xolos bo’lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari” asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. “Har bir

millatning saodati va izzati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog’liq”-deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.

Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo’ladi”

Yoshlar shaxsining shakllanishida ta’lim tizimi yetakchi ijtimoiy institut sifatida bilim, koʻnikma va kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, milliy oʻzlikni anglash va umuminsoniy gʻoyalarga sadoqat ruhini mustahkamlashda muhim oʻrin tutadi. Shu bilan birga, madaniy muhit yoshlarning dunyoqarashi, estetik didi va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi kuchli omil boʻlib, ularning jamiyatdagi oʻrnini anglashiga va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Oila esa tarbiyaning eng dastlabki va eng ta’sirchan muhitini tashkil etib, yoshlarning axloqiy me’yorlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarga munosabatini belgilab beradi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim muassasalari, madaniyat institutlari va oila oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasida uzviylik va tizimlilikni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur masalani ilmiy jihatdan tahlil qilish, ilgʻor pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish konferensiyaning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu ma’ruza ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning yoshlar tarbiyasini shakllantirishdagi oʻzaro uygʻunligini ochib berish, ularning ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda samaradorlikni oshirish yoʻllarini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

Ta’lim tizimi yoshlar tarbiyasini shakllantirishda yetakchi ijtimoiy institut sifatida namoyon boʻladi. Zamonaviy ta’lim muassasalari yoshlarning bilim, koʻnikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy yondashuvlar yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va fuqarolik ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Madaniy muhit yoshlar shaxsining shakllanishida kuchli ijtimoiy-psixologik omil sifatida ta’sir koʻrsatadi. Jamiyatda mavjud madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar hamda san’at va adabiyot namunalari yoshlarning estetik didi, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy faolligini boyitadi. Madaniyat maskanlari, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon orqali uzatilayotgan axborotlarning mazmuni yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir etib, ularning hayotiy qarashlari va xulq-atvorini shakllantiradi. Shu bois madaniy muhitning sogʻlom va tarbiyaviy yoʻnaltirilgan boʻlishi yoshlar kamoloti uchun muhim shart hisoblanadi.

Oila yoshlar tarbiyasining eng dastlabki va eng ta’sirchan muhiti boʻlib, shaxsning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy fazilatlari aynan oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Ota-onaning tarbiyaviy madaniyati, oiladagi psixologik iqlim, oʻzaro hurmat va mas’uliyat yoshlarning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi oʻrin tutadi. Oilada singdirilgan qadriyatlar va xulqiy me’yorlar yoshlarning keyingi hayotiy faoliyatida muhim yoʻnaltiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu institutlar faoliyatining uyg‘unlashuvi tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi va tizimliligini ta’minlaydi. Ta’lim muassasalari tomonidan oilalar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda ijtimoiy loyihalar yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlar tarbiyasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda raqamli vositalardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar yoshlarning faolligini oshirish, mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tarbiya jarayonida milliy mentalitet va madaniy xususiyatlarni hisobga olish yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” asari qahramoni Yusufbek xojining: “Bu xonadondan hech kim norizo bo’lib ketgan emas”, degan so’zlarida Sharqona oilaning mohiyati aks etgan. Sharq oilasining bir qismi bo’lgan o’zbek oilalarida o’zaro hurmat, qat’iy ichki intizom asosida barcha a’zolarning o’z burch va vazifalarini ado etishlari, bir – birlariga nisbatan ezgulik va mehr – oqibat ko’rsatishlari an’anaga aylangan.

Pedagogika fanining yirik namoyandasi Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasida muhit va ta’limning o‘rni haqida shunday fikr bildiradi: tarbiya inson hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat shaxsiy masala, balki millat va jamiyat taqdirini belgilovchi muhim omildir. Olimning ta’kidlashicha, ta’lim muassasalari va oila tarbiyasi uyg‘unlashgan holda olib borilgandagina yosh avlodda yuksak axloq, vatanparvarlik va ma’naviy yetuklik shakllanadi. Ushbu qarashlar ta’lim tizimi va oilaning yoshlar tarbiyasidagi o‘zaro mas’uliyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Mashhur psixolog olim Lev Semyonovich Vygotskiy esa shaxs rivojida ijtimoiy va madaniy muhitning yetakchi rolini alohida ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, bolaning va yoshlarning intellektual hamda ma’naviy kamoloti bevosita u yashayotgan madaniy muhit, ijtimoiy munosabatlar va kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi. Vygotskiy ta’lim va tarbiyani ijtimoiy tajribaning uzatilish jarayoni sifatida baholab, madaniy muhit va ta’lim tizimining uzviy bog‘liqligini asoslab beradi. Bu fikrlar yoshlar tarbiyasida madaniy muhitning ta’sirini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Xulosa. Yoshlar tarbiyasini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning uzviy hamkorligini talab etadi. Ushbu ijtimoiy institutlarning har biri yosh avlod kamolotiga alohida ta’sir ko‘rsatsa-da, ularning faoliyati o‘zaro uyg‘unlashgandagina tarbiyaviy jarayonning samaradorligi ta’minlanadi.

Ta’lim tizimi yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatni anglaydigan shaxs sifatida shakllantirishda yetakchi o‘rin egallaydi. Madaniy muhit esa yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Oila esa tarbiyaning asosiy va uzluksiz manbai bo‘lib, shaxsning axloqiy mezonlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasini takomillashtirish uchun ta’lim muassasalari, madaniyat institutlari va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, tarbiyaviy ishlarni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etish zarur. Shuningdek, milliy qadriyatlar va madaniy merosga tayangan holda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik ongini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni yoshlarni barkamol, ma’naviy yetuk va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan shaxs sifatida voyaga yetkazishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

Bobomurodov M. Duronov M. Bunyodkor kuch. “Tafakkur” jurnali. – 2003, - №3.- 17 – bet.

Ochilov M. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

Qodirov B. R. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.

Vygotskiy L. S. Psixologiya rivojlanishi nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 2005.

“REBORN” QO‘G‘IRCHOQLARNING MA’NAVIY TAHDIDI

Mirakbarova Dildora Miralisher qizi
Toshkent xalqaro universiteti dotsenti v.b., f.d. (PhD)

Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning xatti-harakati qadimda axloqiy me’yorlar asosida, shariat ahkomlari yordamida, keyinchalik esa davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarga ko‘ra tartibga solib kelinadi. Har bir inson jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalarga amal qilganidagina ijtimoiy guruhning to‘laqonli a’zosiga aylana oladi. Jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy odoblar nafaqat insonning dunyoqarashiga, balki uning oilaviy munosabatlariga ham ma’naviy ta’sir o‘tkazmay qolmaydi.

Afsuski, bugungi kunda «ommaviy madaniyat» nomi ostida insoniylik, axloq prinsiplariga zid bo‘lgan madaniyatsizlik butun dunyoga keng yoyilib bormoqda. Eng achinarlisi, uning asosiy maqsadi, harakati niqob ostida bo‘lib, ko‘plab insonlar «ommaviy madaniyat» targ‘ibotchilariga aylanib qolayotganlarini hatto o‘zlari sezmaydilar ham. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, «Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda bamisoli kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so‘z bo‘lishi mumkin emas».[1:195]

I.Saifnazarov va F.Saifnazarova ta’kidlab o‘tganlaridek: «Ommaviy madaniyat» nomi ostidagi axloqsizlik g‘oyasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab tezlik bilan butun dunyoga tarqaldi va uning turli ko‘rinishdagi yo‘nalishlari soni kundan-kunga ortib bormoqda. Uning bugungi kundagi asosiy targ‘ibotchilari ommaviy axborot vositalari va internet

tarmog‘i bo‘lib qolmoqda. Aslida bir qarashda «ommaviy madaniyat» hurfikrlilik, inson erki tarafdoridek ko‘rinadi, lekin barcha «ilmu amali»ning negizida e’tibor berilsa, aslida u insonni fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ekanligi ayon bo‘ladi. Hatto milliy, diniy tarbiyadan, urf-odatlardan begonalashish, ularni mensimaslikka da’vat qilish holatlari ham kuzatilayotgani ayniqsa, tashvishlidir».[2:99] Olimlarning fikri asosli bo‘lib, bizningcha, bu jarayonga loqaydlik milliy va diniy qadriyatlarimiz unutilishi, o‘z mustaqil fikri, didiga ega bo‘lmagan «manqurtlar» avlodi yetishib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida johillar shahrini quyidagicha ta’riflaydi: «Fozillar shahrining ziddi bo‘lgan johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, asl baxt-saodat nimaligini bilmaydi ham. Chunki jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt-saodatga erisholmaydi ham. Farovonlikka kelsak, jaholatdagi odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba’zilar nazarida baxtu davlat bo‘lib ko‘rinadigan o‘tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatlarni, hirsu shahvatni, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylaydilar. Shu ne’matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo‘lib ko‘rinadi».[3:247] Ta’kidlash lozimki, ushbu asarda ta’riflangan johil odam sifatlarini «ommaviy madaniyat»ning ko‘r-ko‘rona tarafdorlarida ham kuzatish mumkin.

Ta’kidlash joizki, bir qarashda ko‘zga yaqqol tashlanmayotgan ma’naviy tahdidlar bugungi kunda nafaqat insonlar ma’naviyatiga, balki oilalar mustahkamligiga ham putur yetkazib, ularni ichidan yemirib bormoqda. Misol uchun, televideniye kanallari orqali xalq tomosha qilayotgan turli teleseriallarda er-xotinlarning bir-biriga xiyonati ko‘rsatilayotganligi oqibatida bugungi kun yoshlarining aksariyatida o‘zaro ishonch yo‘qolib bormoqda. Instagramm kanallarida shaxsiy hayotini ko‘z-ko‘z qilayotgan bloggerlar sababli qanchadan-qancha oilalar xotirjamligi yo‘qoldi. Internet tarmoqlari orqali uyalmasdan er-xotinlarning oilaviy munosabatlariga oydinlik kiritayotganlarini, oilaviy sirlarini boshqalar bilan sirlashayotganilarini kuzatish odatiy tusga aylandi. Bu esa kelajakda an’anaviy oila tendensiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga, oila munosabatlariga oid milliy va diniy qadriyatlarimiz unutilishiga, oila institutiga bo‘lgan ishonchning darz ketishiga olib kelishi mumkin.

«Ommaviy madaniyat»ning yangi ko‘rinishlaridan biri – «reborn» nomi ostidagi qo‘g‘irchoqlardir. Ushbu qo‘g‘irchoqlar vinil va silikon mahsulotlaridan tayyorlangan bo‘lib, xuddi haqiqiy bolaga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘ladi. «Reborn» so‘zi ingliz tilidan tarjima qilinganda «qayta tug‘ilgan» degan ma’noni anglatadi. Bunday qo‘g‘irchoqlar ilk bor Yaponiya va AQSHda 1980-yillarda ishlab chiqarilgan. Reborn qo‘g‘irchoq g‘oyasi ispan dizayneri Salvador Berendjerga tegishli bo‘lib, hozirgi kunda ham u asos solgan AQSHdagi «JC Toys» kompaniyasida yuqori sifatli reborn qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqariladi. Qo‘g‘irchoqlar aslida kichik qizlar uchun yasalgan bo‘lib, bugungi kunda asosan yosh oilalar, katta yoshdagi ayollar o‘rtasida mashhur. Rebornistlar, ya’ni reborn qo‘g‘irchoqlarni yasovchi ustalar fikriga ko‘ra, bu qo‘g‘irchoqlar bolalar va katta yoshdagi insonlar psixikasiga foydali. Masalan, kichkina qizlarda onalik instinktini shakllantirsa, yosh oilalarda farzand ko‘rishdan oldingi tayyorgarlik vazifasini o‘taydi. Shuningdek, befarzand, farzandidan erta ayrilgan onalar uchun xuddi bolasi kabi bo‘ladi. Yoki boshqa farzandlari uchun aka-uka, opa-singil o‘rnini bosadi. Reborn qo‘g‘irchoqlarga xuddi bolani

parvarish qilgandek e’tibor qaratish lozim. Unga kiyimlar, ovqatlar, chaqaloqqa lozim bo‘lgan barcha narsalar kerak. Lekin qo‘g‘irchoq egalarini xursand qiladigan tomoni shundaki, parvarish xarxashalarsiz amalga oshiriladi. Reborn bola e’tiroz bildirmaydi va juda qulay, deb hisoblanadi.[4] Ayanchlisi, ota-onalar bu qo‘g‘irchoqlar bilan band bo‘lib o‘z farzandlarini unutib qo‘ymoqdalar. Ayrim kichik qizchalar esa qo‘g‘irchoqlarni o‘z yaqinlari, oila a’zolaridan ustun ko‘radilar. Bugungi kunda ushbu qo‘g‘irchoqlar O‘zbekiston hududiga ham kirib kelib, ayrim insonlarning aql-hushini olgan. Qo‘g‘irchoqlar yasalish sifatiga qarab ularning narxlari yuqorilab boraveradi. Lekin hech narsa haqiqiy insonning, ayniqsa shirin bolajonning shodon kulgusi, mayin tabassumli chehrasi, yoqimli haroratiga teng kela olmaydi.

Amerikalik faylasuf, jurnalist va siyosiy sharhlovchi Patrik Jozef Byukenen Amerikadagi demografik inqiroz haqida o‘z fikrlarini bildirib: «Odamlarning farzandlik bo‘lishni va ularning parvarishi bilan shug‘ullanishni istamasligi, oila qurmasdan, pala-partish hayot kechirishi Amerikani ommaviy muxojirlikning har jihatdan rag‘batlantirishga majbur qilmoqda. Amerikaliklar o‘z tamadduni, madaniyati va davlatini saqlab qolmoqchi bo‘lsa, bola tug‘ilishi, oila mustahkamligiga e’tibor berishi, bolalar va oilalarga g‘amxo‘rlik esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi darkor»[5:13], deb yozadi.

Inson nafaqat o‘z manfaatini, balki jamiyati, butun dunyo aholisini manfaatini o‘ylagan holda ularni yaxshilikka, odob-axloqqa qo‘ldan kelgancha chaqirmog‘i lozim. Dunyoviy dinlarda ham amru ma’rif, nahiy munkar katta o‘rin tutadi. Sahoba Abu Sa’id Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollollohu alayhi vasallam: «Sizdan kim bir munkar ishni ko‘rsa, qo‘li bilan qaytarsin, agar qodir bo‘lmasa, tili bilan qaytarsin, agar qodir bo‘lmasa, dili bilan qaytarsin, ana o‘sha eng zaif iymondir», dedilar».[6:48] Bugungi kunda, shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonida loqayd, beparvolik bilan bu mening muammoyim emas deb, keyinchalik jamiyatni bunday ma’naviy inqirozga boshlovchi illatlar o‘z oilasiga kirib kelganda afsus nadomatda qolmasligi uchun har bir inson qo‘lidan kelganicha, o‘z salohiyatiga ko‘ra unga qarshi turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. – Toshkent: TA’LIM, 2018.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

Интернет сайт ТОК – онлайн СМИ нового формата. https://tok.media. 2020 yil 11 maydagi videolavhadan olingan ma’lumotlar.

Bahodir Zokir. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur. №2. – Toshkent, 2007.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ochiq xat. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2018.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA GENDER DISKRIMINATSIYASINING OLDINI OLISH: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVI

Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich,
University of Economics and Pedagogy NOTM, falsafa doktori, PhD

Introduction (Kirish). Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Biroq raqamli texnologiyalar taraqqiyoti gender tenglikni avtomatik tarzda ta’minlamaydi. Aksincha, ayrim hollarda texnologiyalar orqali mavjud gender stereotiplari va tarafkashlik yanada kuchayishi mumkin[1]. Sun’iy intellekt algoritmlaridagi gender bias, internetga kirish imkoniyatlaridagi tafovutlar, onlayn zo‘ravonlik va mehnat bozorida raqamli kompetensiyalar bo‘yicha tengsizlik bunga misol bo‘la oladi[2]. Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida gender diskriminatsiyasini oldini olish bo‘yicha xalqaro va milliy tajribalarni solishtirib, O‘zbekiston uchun samarali yondashuvlarni aniqlashdir.

Methods (Metodologiya). Tadqiqot solishtirma tahlil (comparative analysis) metodiga asoslandi. Quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: Xalqaro me’yorlar tahlili: Yevropa Ittifoqi, AQSh, BMT va boshqa tashkilotlarning gender tenglik va raqamli transformatsiya bo‘yicha strategiyalari o‘rganildi. Milliy siyosatni tahlil qilish: O‘zbekistonning “Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa me’yoriy hujjatlar ko‘rib chiqildi. Adabiyotlar sharhi: Gender va raqamli tarafkashlikka oid ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar va xalqaro hisobotlar tahlil qilindi. Solishtirma jadval va tematik kodlash: Xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar asosiy temalar bo‘yicha (AI adolati, raqamli ta’lim, raqamli xavfsizlik) taqqoslandi.

Results (Natijalar). Xalqaro tajriba natijalari bilan tanishib chiqamiz. Yevropa Ittifoqida, AI tizimlari uchun diskriminatsiyaga qarshi audit majburiyati joriy etilgan. “Digital Compass 2030” orqali ayollarni IT sektoriga jalb qilish kuchaytirilgan[3]. AQShda, “Artificial Intelligence Bill of Rights” algoritmik shaffoflik va adolatni talab qiladi[4]. Onlayn zo‘ravonlikka qarshi huquqiy mexanizmlar mustahkamlangan. BMT tashabbuslarida esa, “Digital Gender Equality” dasturi raqamli bo‘linishni kamaytirishga xizmat qiladi[5]. O‘zbekiston tajribasi natijalariga keladigan bo‘lsak. Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha asosiy qonunlar mavjud. Ayollar uchun raqamli savodxonlik kurslari joriy etilgan. IT Park va IT ta’lim loyihalarida ayollar ulushi oshmoqda. Onlayn zo‘ravonlikka qarshi huquqiy baza shakllanmoqda.

1-jadval

Solishtirma tahlil natijalari

Yo‘nalish	Xalqaro amaliyot	O‘zbekiston amaliyoti
AI (Artificial Intelligence) (sun’iy intellekt) algoritmlarida adolat	Audit majburiy, baholash tizimi bor	Normativ talablar shakllanmoqda

Raqamli ta’lim	Keng grantlar, STEM dasturlar	Kurslar mavjud, qamrov cheklangan
Onlayn zo‘ravonlik	Yevropa standartlari tatbiq etilgan	Jinoyat-huquqiy tartib takomillashmoqda
Statistik monitoring	Gender-raqamli indikatorlar mavjud	Statistika yetarli darajada emas

Discussion (Muhokama). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro tajribada raqamli gender tenglikni ta’minlashda algoritmik adolat, raqamli xavfsizlik, statistik monitoring va ta’limga keng kirish hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi va AQShda gender diskriminatsiyasining oldini olish texnologik jarayonning o‘ziga integratsiyalashgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu jarayon instituttsional bosqichda shakllanib bormoqda. O‘zbekiston aholisi, ayniqsa ayollar o‘rtasida raqamli savodxonlikning oshishi, IT ta’lim imkoniyatlarining kengayishi va davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishning ko‘payishi ijobiy natija sifatida baholanadi. Biroq xalqaro standartlar bilan solishtirilganda, algoritmik diskriminatsiyani tartibga solish, keng statistik monitoring tizimini yaratish, shuningdek onlayn gender zo‘ravonligining oldini olish bo‘yicha tizimli choralar kuchaytirilishi lozim.

Conclusion (Xulosa). Raqamli transformatsiya jarayonida gender tenglikni ta’minlash O‘zbekiston uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni raqamli siyosatga integratsiya qilish texnologik taraqqiyotning adolatli kechishini ta’minlaydi. O‘zbekistonning milliy siyosati ijobiy natijalar bermoqda, ammo quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kuchaytirish talab etiladi: AI algoritmlarida gender tarafkashlikni aniqlash bo‘yicha milliy standartlar joriy etish. Ayollar uchun STEM va IT ta’limini kengaytirish. Onlayn gender zo‘ravonligining oldini olish bo‘yicha xalqaro standartlarni tatbiq etish. Gender-raqamli tenglik bo‘yicha statistik monitoring tizimini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

UNESCO. Gender and Digital Transformation: Global Report. Paris: UNESCO Publishing; 2021.

World Bank. Digital Dividends: Gender Gap in ICT Access. Washington DC: World Bank; 2020.

European Commission. Digital Compass 2030: The EU’s Digital Decade. Brussels; 2021.

White House Office of Science and Technology Policy. Blueprint for an AI Bill of Rights. Washington DC; 2022.

United Nations. Digital Gender Equality Initiative: Annual Report. New York: UN Women; 2020.

VIRTUAL MUHITDA ESTETIK EHTIYOJLARNING MA’NAVIY IMMUNITETGA TA’SIRI

Mirzayeva Shahrizoda Shuhratjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Hozirgi globallashuv jarayonida insonlarning kundalik hayoti tobora raqamli makon bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Virtual muhitning jadal rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston yoshlari internetdan o‘rtacha 6–7 soat foydalanishi, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda eng ko‘p vaqtini media-kontentlarni iste’mol qilishga sarflagani statistik ma’lumotlarda ko‘rsatib o‘tilgan[1]. Bu esa estetik ehtiyojlarning shakllanishi, o‘zgarishi va ma’naviy immunitetning mustahkamligi masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Mavzu uchta asosiy tushunchani birlashtiradi: **estetik ehtiyojlar, yoshlarning ma’naviy immuniteti va virtual (raqamli) muhit** hamda shu sharoitda shakllanadigan himoya mexanizmlari. Estetik ehtiyojlar shaxsning go‘zallik, uyg‘unlik, ma’noli obrazlar va san’at tajribasini qabul qilish orqali ruhiy oziqa olish zaruriyatini ifodalaydi. Yoshlar davrida bu ehtiyojlar ayniqsa intensiv bo‘lib, identitet, did, ideal va qadriyatlar aynan shu davrda shakllanadi. Shu bilan birga, ma’naviy immunitet yoshlarni manipulyativ, zararli yoki sayoz estetik oqimlarga qarshi ichki himoya mexanizmi bilan ta’minlaydi.

Virtual muhitda tarqalayotgan kontentlarning aksariyati insonning estetik idrokiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, vizual madaniyat – tasvirlar, videolar, dizaynlar, moda va obrazlar orqali yoshlar ongiga tez kirib boradi[2,112-145]. Media estetikasi sog‘lom va yuksak badiiy qadriyatlarni shakllantirishi mumkin bo‘lgani kabi, yengil, ma’naviy bo‘sh, hatto zararli oqimlarni targ‘ib qiluvchi ko‘rinishlari orqali ma’naviy immunitetni zaiflashtirishi ham mumkin. Shu bois tadqiqotchilar virtual estetik iste’molning insonning ma’naviy barqarorligiga bevosita aloqador ekanini ta’kidlaydilar[3,55-89].

Ma’naviy immunitet tushunchasi bugungi kunda ayniqsa dolzarb bo‘lib, u shaxsning zararli g‘oyalar, buzuvchi axborotlar, ma’naviy bo‘sh kontentlar qarshisida o‘z pozitsiyasini saqlab qola olish qobiliyatini anglatadi. Mazkur mexanizmning mustahkamligi ko‘p jihatdan estetik ehtiyojlarning to‘g‘ri yo‘naltirilganligi, ya’ni shaxsning qanday vizual va badiiy mediasifatlarni iste’mol qilishi bilan bog‘liq[4,34-40]. Zamonaviy tadqiqotlarda estetik tarbiya bilan raqamli texnologiyalar kesishgan nuqtada yoshlar ongida “vizual tanlov immuniteti” shakllanib borayotgani ta’kidlanadi[5,98-123].

Bugungi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ma’naviy olamini sog‘lom estetik mezonlar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan “Ma’naviy immunitetni kuchaytirish” konsepsiyasi ham raqamli muhitda madaniy va axboriy xavfsizlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi[6,12-18]. Shu jihatdan virtual muhitning to‘g‘ri estetik shakllanishi – nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlikning ham muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada virtual makonda estetik ehtiyojlarning shakllanishi, yoshlar ma’naviy immuniteti bilan o‘zaro bog‘liqligi va bu jarayonda media-estetikaning o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot mavzuning nazariy asoslari bilan birga, zamonaviy axborot maydonida yoshlarning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash yo‘llarini ham ko‘rib chiqadi.

Bugungi raqamli jamiyatda estetik ehtiyojlar avvalgidek an’anaviy san’at, adabiyot yoki teatr orqali emas, balki ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar, media platformalar, vizual kommunikatsiya vositalari orqali shakllanmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlarning 78 foizi o‘z estetik qarashlari va didini vizual kontentlar orqali rivojlantirishini bildirgan[7]. Shu bois, virtual makon endilikda nafaqat axborot, balki estetik metamorfomizning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Virtual estetik muhitning tamoyili “tez idrok – tez baholash – tez iste’mol” sikliga asoslanadi. Instagram, TikTok, Pinterest kabi platformalarda tasvirlarning qisqa muddatda chiqishi estetika iste’molini tezlashtiradi va shu orqali yoshlarning “estetik talab darajasi”ni o‘zgartiradi. Bunday sharoitda insonning ichki badiiy mezonlari ko‘proq tashqi vizual oqimlar bilan shakllanib, chuqur estetik idrok o‘rnini tezkor hissiy reaksiya egallaydi. Bu jarayonning ikkinchi tomoni — shaxsning estetik ehtiyojlari yuzaki ko‘rinishlar bilan qisman to‘yintirilsa-da, uning ma’naviy immuniteti bunday oqimlardan himoyalanishga yetarlicha tayyor bo‘lmay qolishi mumkin.

Estetik ehtiyojlar va ma’naviy immunitet o‘rtasidagi bog‘liqligini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ma’naviy immunitet insonning zararli axborot, g‘oya yoki vizual manipulyatsiyalarga nisbatan ichki qarshilik ko‘rsata olish qobiliyatidir[8,47-52]. Zamonaviy psixologiyada ma’naviy immunitetning ikki tarkibiy qismi ta’kidlanadi:

1. Kognitiv immunitet – axborotni tanqidiy baholay olish,

2. Estetik immunitet – vizual manipulyatsiyaga berilmaslik, yengil-yuzaki madaniyatning ta’siriga tushib qolmaslik.

Yoshlar o‘rtasida olib borilgan 2024-yilgi tadqiqotda “estetik qarashlari boy, badiiy tafakkuri shakllangan yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborotlarni tanlab iste’mol qilishga moyil bo‘lishi, ularning ruhiy barqarorligi esa yuqori bo‘lishi” aniqlangan[9,60-75]. Bu estetik ehtiyojlarning sifatli shakllanganida ma’naviy immunitet mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Aksincha, nomaqbul vizual oqimlarga berilish: agressiya aks etgan tasvirlar, axloqan zaif kontent, hayotning noto‘g‘ri ideallashtirilgan ko‘rinishlari yoshlarning ruhiy barqarorligi va ma’naviy immunitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan[10,88-113].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual estetik muhit odam hissiyotlariga real voqelikdan ko‘ra tezroq ta’sir ko‘rsatadi. Chunki inson miyasi tasvirlarni matnga qaraganda 60 000 marta tezroq qabul qiladi[11]. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan tasvirlar shaxsning hissiy holatini, kayfiyatini, qadriyatlarini bevosita boshqarishi mumkin:

ideal ko‘rinishlarning ko‘pligi – o‘zidan norozilikni kuchaytiradi;

zo‘ravonlik aks etgan tasvirlar – agressiya darajasini oshiradi;

o‘zini taqqoslash mexanizmlari – ma’naviy tushkunlikka olib keladi.

2023–2024 yillardagi xalqaro monitoring natijalariga koʻra, yoshlarning 42 foizi ijtimoiy tarmoqlardagi estetik bosim (“goʻzallik standartlari”, “hayotning ideal koʻrinishi”) sabab oʻzini past baholashga moyil boʻlgan[12]. Bu ma’naviy immunitetning zaiflashishiga sabab boʻladi.

Virtual muhit faqat salbiy emas, balki ijobiy estetik manbalar bilan ham toʻyingan. UNESCO tadqiqotlariga koʻra, raqamli san’at, dizayn, musiqa, fotografiya kabi sohalardagi kontentlar yoshlar badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi[13]. Oʻzbekiston sharoitida ham raqamli ijod platformalarining kengayishi yoshlarning estetik ehtiyojlarini sogʻlom shakllantirish imkonini berdi. Masalan: “Digital Art Uzbekistan” loyihasi – yosh rassomlarning aqamli ijodini qoʻllab-quvvatlamoqda; Milliy kinofestivallar – estetik saviyani oshiruvchi videokontentlarni ommalashtirmoqda; Virtual muzeylar – yoshlarning san’atga boʻlgan qiziqishini kuchaytirmoqda. Shunday qilib, toʻgʻri yoʻnaltirilgan virtual estetik manbalar ma’naviy immunitetni mustahkamlovchi omil boʻlib xizmat qiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish bugungi islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri”[14,25-30]. Ma’naviy immunitetning muhim boʻlagi – bu estetik did, badiiy tafakkur va goʻzallikni idrok etish qobiliyatidir. Estetik tarbiya yoshlarning ma’naviy immunitetini bir qator muhim funksiyalar orqali mustahkamlaydi. Avvalo, u badiiy mezonlarni shakllantiradi, natijada yoshlar sifatli va sifatsiz kontentni farqlashga oʻrganadi. Shuningdek, estetik tarbiya ruhiy barqarorlikni oshiradi, hissiy salbiy kontentlardan himoya qiladi va shaxsning psixologik holatini mustahkamlaydi. Bu jarayon yoshlarning oʻzligini anglashini ham kuchaytiradi, milliy madaniyatga hurmat va qadriyatlarni rivojlantiradi. Bundan tashqari, estetik tarbiya tanqidiy qarashni shakllantiradi, virtual manipulyatsiyalarga berilmaslik va media-oqimlarni ongli tarzda qabul qilish imkonini beradi.

Oʻzbekiston ta’lim tizimida estetik tarbiya va media madaniyat boʻyicha yoʻnalishlarning kengayishi yoshlarning ma’naviy immunitetini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

Raqamli jamiyat sharoitida virtual muhitning yoshlar hayotidagi oʻrni tobora kengayib borayotgan bir paytda, estetik ehtiyojlar va ma’naviy immunitetning oʻzaro bogʻliqligini ilmiy jihatdan chuqur oʻrganish dolzarb masalaga aylanmoqda. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, virtual estetik makon shaxsning nafaqat didi va badiiy qarashlarini, balki uning ma’naviy barqarorligi, oʻz-oʻzini anglash darajasi, ruhiy holati va axborotga boʻlgan tanqidiy munosabatini ham shakllantiradi. Estetik ehtiyojlarning sifatli shakllanishi ma’naviy immunitetni mustahkamlasa, aksincha, yuzaki va zararli vizual oqimlar shaxsning axloqiy mezonlarini zaiflashtirishi mumkin. Shu bois, bugungi kunda yoshlarning virtual makondagi estetik iste’molini tartibga solish, ularni badiiy saviyasi yuqori, ma’naviy boy kontentlarga yoʻnaltirish, media madaniyat va estetik tarbiya boʻyicha koʻnikmalarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon yoshlarning estetik ehtiyojlarini sogʻlom shakllantirish va ma’naviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan bir qator strategik yechimlarni oʻz ichiga oladi. Avvalo, media-estetik savodxonlikni oshirish orqali yoshlar vizual kontentni tanqidiy baholash,

manipulyativ yoki zararli tasvirlarni farqlay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, sifatli estetik kontentlarni ko‘paytirish – san’at, dizayn, fotografiya, kinofestival va raqamli ijod platformalarini faol qo‘llab-quvvatlash – yoshlarning ongida sog‘lom estetik talablarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy madaniy merosga asoslangan estetik ko‘nikmalarni rivojlantirish ham muhimdir; O‘zbekistonning boy badiiy an’analari, milliy san’at maktablari, naqsh va tasvir madaniyati virtual makonga integratsiya qilinishi yoshlarning estetik idrokini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik va ma’naviy profilaktika tizimini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlardagi estetik bosim, o‘zini taqqoslash sindromi va vizual stress kabi omillarni kamaytirish orqali ruhiy barqarorlikni oshirish mumkin. Nihoyat, ta’lim tizimida estetik tarbiya va media madaniyatni integratsiyalash yoshlarning estetik ehtiyojlarini to‘g‘ri shakllantirish, media-savodxonlik va ma’naviy immunitetni mustahkamlash uchun ilmiy-metodik asos yaratadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, virtual muhitni inkor etish emas, balki uni sog‘lom estetik mezonlar asosida boshqarish va yoshlarni ongli ravishda undan foydalanishga o‘rgatish bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Estetik ehtiyojlarning to‘g‘ri shakllanishi yoshlarning nafaqat dunyoqarashiga, balki ularning ma’naviy mustahkamligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida yoshlarning estetik ehtiyojlari va ma’naviy immuniteti o‘rtasidagi bog‘liqlik dolzarb ilmiy-madaniy masalaga aylangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, virtual muhitdagi vizual kontentlar – ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va raqamli ijod resurslari – yoshlar ongiga tez va bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, estetik ehtiyojlar sifatli va chuqur badiiy tajribalar bilan qondirilmasa, yoshlarning ma’naviy barqarorligi va ruhiy holati zaiflashishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarni virtual muhitdagi estetik oqimlarga ongli ravishda yo‘naltirish va ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash bo‘yicha bir qator strategik choralar muhim hisoblanadi. Avvalo, media-estetik savodxonlikni oshirish orqali yoshlar vizual kontentni tanqidiy baholash, manipulyativ va zararli tasvirlarni farqlashga o‘rgatilishi lozim. Sifatli estetik kontentlarni kengaytirish – raqamli san’at, fotografiya, kinofestival va ijod platformalarini qo‘llab-quvvatlash – yoshlarning estetik didi va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy madaniy merosni virtual muhitga integratsiyalash esa yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi estetik bosim, vizual stress va o‘zini taqqoslash sindromini kamaytirish bo‘yicha psixologik va ma’naviy profilaktik choralarni amalga oshirish ruhiy barqarorlikni oshiradi. Nihoyat, ta’lim tizimida estetik tarbiya va media madaniyat yo‘nalishlarini integratsiyalash yoshlarning estetik ehtiyojlarini to‘g‘ri shakllantirish, tanqidiy qarash va media-savodxonlikni rivojlantirish hamda ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun ilmiy-metodik asos yaratadi.

Shu tarzda, maqola virtual estetik makon yoshlarning nafaqat dunyoqarashi va badiiy didini, balki ularning ruhiy barqarorligi, o‘z-o‘zini anglash darajasi va aksiologik tafakkurini shakllantirishdagi muhim omil sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Yoshlarning internetdan foydalanish statistikasi. Toshkent, 2024. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/52859-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagi-aholining-ish-joyida-internetdan-foydalanayotganlar-ulushi-oshdi.

2 Manovich, L. The Language of New Media. MIT Press, 2020. 145b.

Jenkins, H. Convergence Culture. New York University Press, 2018. 89b.

Zohidov, A. “Ma’naviy immunitet va yoshlar axborot xavfsizligi”. Ma’naviyat va ma’rifat, 2023, №4.

Suler, J. Psychology of the Digital Age. Cambridge University Press, 2016. 123b.

Mirziyoyev, Sh.M. Ma’naviy siyosatga oid chiqishlar to‘plami. Toshkent, 2023.

Raqamli texnologiyalar vazirligi. Yoshlarning raqamli faoliyati bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2024.

Zohidov, A. “Ma’naviy immunitetning psixologik asoslari”. Ma’rifat, 2022, №3.

Karimova, D. Yoshlar estetik idroki va ma’naviy barqarorligi bo‘yicha tadqiqot. Toshkent, 2024.

Boyd, D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press, 2016.113b.

Visual Teaching Alliance statistik ma’lumotlari, 2023.

Pew Research Center. Social Media & Youth Pressure, 2024. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/52859-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagi-aholining-ish-joyida-internetdan-foydalanayotganlar-ulushi-oshdi.

UNESCO. Digital Creativity and Youth, 2023.

Mirziyoyev, Sh.M. Ma’naviyatga oid nutqlar to‘plami. Toshkent, 2023.

YUSUF XOS HOJIBNING IJTIMOIY TARAQQIYOT KONSEPSIYASI

Muhamedov Asror Asadovich
University of management and future technologies
universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan ma’lum bo‘ladiki, u jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni, jumladan, ijtimoiy qatlamlarning mavjudligiga hayot qonuniyati sifatida qaragan. Uning bu qonuniyatdagi pozitsiyasi tabaqalar orasidagi munosabatlarda har kimning bajarishi kerak bo‘lgan vazifalarni tushuntirib berish bo‘lgan.

Bugungi kunda falsafiy, siyosiy, huquqiy konsepsiyalarda inson, uning hayoti, qadri, sha’ni, boshqa huquq va erkinliklari mustahkamlanib bormoqda. Ushbu jarayon O‘zbekistonda ham milliy g‘oya darajasigacha ko‘tarildi. Yangilangan Konstitutsiyada, davlat boshqaruvida, amalga oshirilayotgan islohotlarda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu masalaga to‘xtalib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degandi: “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz

hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo‘lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylantirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘ymoqdamiz”[1].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan maxsus konsepsiya bugungi kunimizdan ming yil ilgari ulug‘ ajdodlarimizning inson qadrini yuksaltirish borasidagi qarashlariga to‘la mos keladi. Bu esa mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning tub falsafiy mazmuni ulug‘ ajdodlarimizning ulkan ma’naviy xazinasidan suv ichishini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘rtaga tashlanayotgan yangi g‘oyalar, yondashuvlar aslida ajdodlarimizning bebaho asarlarida bayon qilingandi. Yusuf Xos Hojib o‘sha davrning ulug‘ faylasufi, yetuk olimi, oqil davlat arbobi, fan va madaniyat vakili, jamiyatda uchrashi mumkin bo‘lgan kichik muammolardan tortib ulkan samoviy hodisalargacha o‘z nuqtayi nazarini bildira olgan zot bo‘lgan. “Mutafakkirning gnoseologik nazariyasi obyektiv idealizmga asoslangan bo‘lib, bilim zehnning mahsuli sifatida talqin qilinadi, aql, idrok birlamchi, bilim esa unga bog‘liq, ikkilamchi hodisa sifatida qaraladi. Shuning uchun ham inson bilimsiz tug‘iladi, so‘ng o‘rganadi. Zehn esa tabiatga qo‘shilib yaratiladi, uni inson o‘rganmaydi, u azaldan inson tabiatiga singdirilgan bo‘ladi, bilish, o‘rganish qobiliyatining tub ilohiy asosi sanaladi”[2].

Falsafiy fanlar taraqqiyoti Aflotun, Prokl, keyinchalik Leybnis, Shelling va Gegel nomi bilan bog‘liqdir. Ular o‘z davrida obyektiv idealizm konsepsiyasini rivojlantirib bordilar. Gegelning fikricha, “Falsafaning mundarijasi, uning istaklari va qiziqishlari din bilan aynandir, so‘nggisining predmeti abadiy haqiqat, xudo va uning mohiyatidir. Falsafa qachonki dinning mohiyatini tushuna olgandagina, o‘zining mohiyatini tushuna oladi. Shu bilan birga falsafiy jihatdan o‘z-o‘zini tushunish dinni tushunish hamdir”[3]. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar sohasida hukumatning o‘rni va nufuzi ham mavjuddir. Negaki, “Davlat insonlarning huquqiy majburiyatlarini belgilasa, din ularning ichki dunyosi qoidalarini belgilaydi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, din hukmronlik qilishi kerak emas”[4]. Bundan tashqari, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy voqea va hodisalarga diniy tus berish, insoniyat taraqqiyotidagi obyektiv qonuniyatlarini inkor qilishga harakat qilish yurt rivoji yo‘lidagi eng katta g‘ovdir.

Bugungi kunda ham Yangi O‘zbekistonning ma’naviy rivojlanish jarayonida diniy nizolarga sabab bo‘lib xizmat qiluvchi holatlar ham yo‘q emas. Xususan, bir din vakillarining boshqa bir din vakillariga, hattoki, diniy e’tiqodi yo‘q bo‘lgan kimsalarga nisbatan qarshi kayfiyatlarni kuzatish mumkin. Ushbu holatlarning oldi olinmasa, ertaga ulkan ijtimoiy mojarolar paydo bo‘lishi ham mumkin. Shu bois, diniy

[1] “Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас” – Президент URL: https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident

[2] Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Тошкент, 1976. – 94 б.

[3] Hegel G. W. F. Sämtliche Werke. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911 ff. 29.

[4] Овсянников М.Ф. Гегель. Мысл. – М.. 1971. – 193-194 с.

masalalarni hal etishda ham dunyoviy ilm, yuksak aql-zakovat, keng dunyoqarash kerak ekanligi ayon bo‘lmoqda.

Mutafakkir jamiyatdagi hammani inoqlikka, do‘stlikka chorlagan. Ayniqsa, dehqonlar-u chorvadorlar, hunarmandlar-u savdogarlarni e’zozlash tarafdori bo‘lgan. Negaki, aynan ular jamiyatning qolgan a’zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy hayotiy vositalar bilan ta’minlaydi, deb hisoblagan. Shuningdek, adib vatanparvar hamda insonparvar fuqaro o‘laroq, hukmdorlar va shahzodalarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarini, oddiy xalqqa nisbatan jabr-zulmini, inson huquq va erkinliklarining kamsitilishini qoralagan. Yusuf Xos Hojib o‘ziga to‘q insonlarni faqirlarga yordam ko‘rsatishga, ularga nisbatan saxovatli bo‘lishga undagan. Mamlakatdagi tabaqalar o‘rtasidagi adovatni, tafovutni imkon qadar bartaraf etishga, jamiyatni birlashtirishga harakat qilgan.

Allomaning fikricha, jamiyatdagi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro tafovut qachonki boshqaruv insonparvarlik, adolat g‘oyalariga tayanib olib borilsagina yo‘qolishi mumkin. Podshoh va amaldorlar yurtni adolat bilan boshqaruvini, dostondagi asosiy qahramonlardan biri Kuntug‘di singari boy va beklarga ajratmay, jamiyat a’zolarini bir xil ko‘rishlarini xohlardi. Zero, qonunlarga asosan boshqarilgan mamlakat chinakam yurt bo‘ladi, deb ishongan. Davlat rahbari esa ziyoli, aql-u farosatli, teran tafakkurli hamda har jihatdan yetuk bo‘lishi bilan bir qatorda, zamonaviy bilimlar va ilm-fan yutuqlari asosida yurtni boshqarishi lozimligini uqtirgan. Uning bu qarashlari Abu Nasr Forobiyning fozil odamlar shahri haqidagi falsafiy g‘oyalariga o‘xshaydi.

“Qutadg‘u bilig” asari, avvalambor, podshoh xonadoniga, amirlarga, yuqori tabaqa vakillariga taalluqli bo‘lgan, aynan ularga to‘g‘ri yashash sirlarini o‘rgatishni ko‘zlagan. Asardagi falsafiylik anchayin yuksak hisoblanadi. Chunki, asarga kiritilgan voqealar aslida muallifning istaklari, maqsadlariga chambarchas bog‘langandi. Mutafakkirning hikmatli so‘zlari va baytlari jamiyatdagi qaysidir voqelikni qisqa va ravon tarzda tushuntirishga qaratilgandi.

Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy qarashlari haqida to‘xtalganda, adibni hayot, uning mazmuni, kishilarning hayotdagi o‘rni kabi masalalar o‘ziga rom etganining guvohi bo‘lish mumkin. Muallifning fikricha, kishi jamiyatdagi o‘z vazifasini sidqidildan ado etishi orqali o‘zidan yaxshi nom qoldirishga erishishi mumkin. Zero, bu foniy dunyoyimizda barchasi o‘tkinchi, illo, savobli ish va ezgu amallargina boqiydir. Mutafakkir, shuningdek, kishilarning ma’naviy olami, uning hayotdagi ahamiyati to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Jumladan, bu boradagi qarashlari markazida yosh avlodning ma’naviyati va axloqini yuksaltirishga xizmat qiluvchi fikrlar, xalq va mamlakat foydasiga sabab bo‘luvchi vatanparvar insonlarni shakllantirish turgan. Bundan tashqari, kishilarning oilaviy axloqi ham adibning nazaridan chetda qolmaydi. Bu falokatdan omon chiqishning yo‘lini esa u to‘g‘ri tarbiya deb bilgan.

Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy fikrlari orasida ideal shaxs, ideal jamiyat va ideal davlat haqidagi fikrlarni ham uchratish mumkin. Jumladan, ularni qanday shakllantirish lozimligi, ideal shaxs aslida qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligi, buning uchun nimalarga e’tibor berishi lozimligi, mansabdor shaxslarning o‘zaro, oilaviy, xalq va yurt bilan munosabatlari qanday olib borilishi kerakligi kabi ijtimoiy masalalarning falsafiy

sistemasi ishlab chiqilgan. Adib komil insonni chinakam yetuk shaxs deb hisoblagan. Bu qarash Konfutsiyning barkamol inson borasidagi fikrlariga mos keladi.

Yusuf Xos Hojib o‘sha davrining ulug‘ faylasufi ham edi. Xususan, “Qutadg‘u bilig”ning “Yetti yulduz va o‘n ikki burj” (“Yetti kavokib va o‘n ikki burj”) bo‘limida dunyoning tuzilishi hamda borliq olamning harakati to‘g‘risida keng va asosli fikrlar keltirib o‘tilgan. “U Allohni e’tirof qilish va din, shariat yo‘lini bir dam unutmaslikka targ‘ib qiladi. Tarkidunyochilikni qoralaydi. Uning fikricha, tarkidunyochilikda dunyo bir bo‘sh narsa bo‘lib qoladi, dunyo ne’matlaridan voz kechmaslik, undan bahramand bo‘lish va boshqalarni ham bahramand qilish lozim, degan ta’limotni izchillik bilan ilgari suradi”[1]. Muallif olam va uning tuzilishi borasida o‘zining asosli g‘oyalari va ilmiy fikrlariga ham ega edi.

Tadqiqotchi Sh.Hoshimov ta’kidlaganidek: “Biz bu tarixiy asarni o‘qir ekanmiz, asar qahramonlarining o‘zaro mubohasasi, suhbatlari orqali yaxshilik va yomonlik, samimiylik, ezgulik va jaholatni ajratish, Sharqning o‘ziga xos kuchli demokratik jamiyatining qurilishi va taraqqiy etganini tushunib yetgandek bo‘lamiz”[2]. Ushbu fikrlar bizlarni “Qutadg‘u bilig”ning ijtimoiy hamda falsafiy ahamiyatini anglashga va shu orqali unga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, asosiysi esa jamiyatdagi muammolarni bartaraf etishga asardan dasturulamal sifatida foydalanishga chorlaydi.

Adib o‘z asarida davlatni idora etayotgan amaldorlarning qaysi sifatlarni o‘zida mujjassam etmog‘i kerakligi to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, vazir lavozimi haqida to‘xtalar, uni egallamoqchi bo‘lgan kimsaga baho berib, quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Vazir pishiq va odil bo‘lishi, boshqalarni ham shu yo‘lga undab turishi lozim. Vazirlik ulug‘ ish. Bu ishga ishonchli, yetuk va sara, uquv-idrokli, dono va yumshoq ko‘ngil, ayni paytda dadil va jur’atli kishilar kerak. Vazirlikka rostgo‘y, yozuv-chizuv ishlaridan to‘la xabardor bo‘lgan kishi kerak. Uning xulq-atvori ko‘pchilikka manzur, tili bilan dili bir bo‘lishi lozim. Uyat-andisha egasi, dili kirsizlar bu amalga munosibdir. Ko‘zi to‘q, abjir, bilag‘on, sezgir, yaxshi yomonning farqiga boruvchilar vazirlikka loyiq bo‘ladi. Boshliq tili va ko‘nglini to‘g‘ri tutadigan bo‘lsa, uning xodimlari, qo‘l ostidagi ishchilari ham to‘g‘rilik yo‘lini tanlaydi”[3].

Agarda xalq va fuqarolar bo‘lmasa, u holda hech qanday ijtimoiy munosabatlar ham bo‘lmaydi, albatta. Davlat va jamiyat haqidagi fikr va yondashuvlari bilan tanilgan mutaffakkir aytganidek, “Shuni yaxshi bilginki, xalqsiz birorta ham ish bitmaydi”. Haqiqatan ham, agar xalq bo‘lmasa, jamiyat-u mamlakat ham yo‘q deganidir. Shak-shubhasiz, shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ijtimoiy munosabatlarning bosh manbasi – bu xalq. Shu sababli ham qadim davrlardan, ya’ni urug‘-qabila sardorlari, ulus xoqonlari, mamlakat hukmdorlari ro‘yxatidagi olim-u fozil, oqil-u dono boshliqlar o‘zlari olib borgan siyosatlarida bu haqiqatni hech qachon unutmaganlar. Natijada, ularga bo‘ysungan xalq-u

---

[1] Содиқов Қ. Қадимги турк фалсафаси. – Тошкент, 2008. – 4-14 б.

[2] Ҳошимов Ш. “Қутадғу билиг”нинг ҳозирги кун жаҳон давлатчилигида юзага келаётган ижтимоий муаммоларни бартараф этишдаги ўрни / “Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 72.

[3] Маликов Б.Қ. Тарихий сиймолар давлат бошқаруви тизимида давлат хизматининг ўрни хақида // Multidisciplinary Scientific Journal. November, 2023, – B. 78-79. https://t.me/ares.uz

jamiyatlar ularning hukmronligidan rozi bo‘lgan. Ko‘plab xalqlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilgan, mamlakatlar yuksalgan. Insonlar minglab yillar ilgari ham ushbu qoidaning ijtimoiy munosabatlarda qanchalik muhim omil ekanligini bilishgan.

Jumladan, adib o‘zining mashhur asari “Qutadg‘u bilig” Ya’ni, “Saodatga eltuvchi bilim” asarida “davlat bilan jamiyat, hukmdorlar bilan xalq o‘rtasidagi kabi barcha jihatlarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy munosabatlarni har tomonlama tahlil etgan”[1], boshliqlar va xodimlar o‘rtasida yuz beruvchi munosabatlarga o‘z e’tiborini qaratgan. Jumladan, mamlakat va xalq ustidagi hukmdorlarning o‘zini tutishi, fe’l-atvori va boshqaruv faoliyati to‘g‘risida nihoyatda qimmatli tavsiyalarni keltirib o‘tadi. Muallif ushbu fikrlarni bildiradi: “El orasida doim obro‘ni saqlash uchun to‘rt narsa kerak: biri – tili to‘g‘ri, so‘zi chin, butun bo‘lsin. Ikkinchi, el-yurt uchun qonun-qoidalar mutlaqo muvofiq tuzilsin. Ochiq ko‘ngil, saxovat – uchinchi xislat. El-elat boshliqdan doimo muruvvat ko‘rishsin. Nihoyat, to‘rtinchi xislat, boshliqning jasur va botir bo‘lishidir. Toki yov, dushmanlar bo‘yin egib qolsin”[2].

Keltirib o‘tilgan mazkur fikrlardan ko‘rish mumkinki, Yusuf Xos Hojib hukmdorlar hamda davlat amaldorlari Abu Nasr Forobiy ta’kidlab o‘tgandek, 12 ta emas, balki 4 ta ezgu fazilat sohibi bo‘lishi zarurligini aytadi. Jumladan, uning “El-yurt uchun qonun-qoidalar mutlaqo muvofiq tuzilsin” degan fikri nihoyatda qadrli. Shu joyda mutafakkir ham o‘zidan oldin yashab o‘tgan allomalar kabi qonunlar inson va jamiyat uchun xizmat qilishi, ularning manfaatini ifodalashi lozim, deb hisoblaydi. Zotan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tartibda turishi, har xil tabaqa hamda qatlamlar o‘rtasidagi hamkorlik va barqarorlikning ta’minlanishi avvalo mamlakatdagi mavjud qoidalarning jamiyat manfaatlarini ko‘zlab o‘rnatilganligiga bog‘liq ekanligini Yusuf Xos Hojib yaxshi anglagan. Hozirda ilm ahliga shunisi ayonki, bir qancha Sharq allomalarining fikrlari dialektik xarakterga ega. Bu narsa ko‘p ilmiy izlanishlarda ham aks etgan. Ana shunday izlanishlar qatorida, biz ham o‘z tadqiqotlarimizda shu jihatlarga bir necha marta murojaat qilganmiz.

Jumladan, mutaffakkir ilmiy merosini o‘rganib, ulardagi dialektik tamoyillarni ko‘ramiz. Adib jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o‘zgaruvchanligini shunday qiyosiy o‘xshatish yordamida yuqori darajadagi ta’rifini keltirib o‘tadi: “To‘p (koptok) davlat (boylik)ga juda o‘xshaydi. Ularning ikkalasi ham bir joyda to‘xtab turmaydi, yumalab ketaveradi. Boylik bilan davlat ko‘zi ko‘r odamga o‘xshaydi. Kim boylik va davlatning qo‘lidan tutsa, o‘shanga ergashib ketaveradi: bu yaxshi, mana bunisi esa yomon, deb ajratib o‘tirmaydi”[3]. Haqiqatan ham, bu yuqori saviyada keltirib o‘tilgan qiyoslashdir. Bu uning dialektika sohasini yaxshi anglaganligini bildiradi. Buni quyidagi fikr ham tasdiqlaydi: “Yusuf Xos Hojib bu o‘xshatish bilan boylik va davlat koptok kabi aylanishini, bugun qo‘lingda bo‘lsa, ertaga qo‘lingdan ketishi mumkinligiga, zamon va davrlar doimiy o‘zgarishdaligiga, har qanday davr-u davronning oxiri borligiga ishora qiladi. Shuningdek,

[1] Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. – B. 406-410.

[2] Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. – B. 178-182.

[3] Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили: Фалс. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2022. – 224 б.

alloma keyingi fikrlarida boylik va davlatning doimo munosib qo‘llarda bo‘lavermasligiga, ba’zan unga nomunosib bo‘lganlar qo‘lida to‘planib qolishi mumkinligini aytib o‘tgan”[1].

Yana bir qiziq savol bor: bordi-yu davlat va hukmdorlik unga mos bo‘lmagan kishilarning qo‘lida to‘plansa nima bo‘ladi? Afsuski, ushbu savolga “Hammasi ko‘ngildagidek bo‘ladi” deya javob bera olmaymiz. Shu o‘rinda, ajdodlarimizning “Agar insonni sinab ko‘rmoqchi bo‘lsang, u holda unga davlat va amal berib ko‘r” degan hikmatli so‘zini yodga olamiz. Zero, bu imtihondan hamma ham yaxshi o‘tmasligi hayot haqiqatlaridan biri. Negaki, odamlar qalbida ezgu xislatlar bilan bir qatorda, salbiy illatlar ham mavjud bo‘lib, aynan shu illatlar kishilarni qabihliklar tomon boshlaydi. Ushbu haqiqat hukmronlik va mol-dunyosi bor bo‘lgan odamlarni ham chetlab o‘tmaydi.

“Islom olamidagi Uyg‘onish davrining buyuk namoyandalaridan biri Forobiy ham o‘zining davlat to‘g‘risidagi qarashlarida shariat qoidalariga tayanib, adolatparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. U o‘z qarashlarida hukmdor va uning hokimiyatini amalga oshirishda davlat xizmatchilarining vazifalari hamda ularga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida fikr yuritadi”[2]. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari anchayin ahamiyatli hisoblanadi. Negaki, u davlat va jamiyat borasidagi fikrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino kabi o‘z davrining yetuk donishmandlari ortidan ergashmagan. Buning sababi “Qutadg‘u bilig” asari hukmron sinflarga bag‘ishlanganida ham bo‘lishi mumkin. Biroq, shunisi aniqki, asardagi har bir misra inson va jamiyat, mamlakatga naf keltirish uchun bitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас” – Президент URL: https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident

Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Тошкент, 1976.

Hegel G. W. F. Sämtliche Werke. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911

Овсянников М.Ф. Гегель. Мысл. – М.. 1971. – 193-194 с.

Содиқов Қ. Қадимги турк фалсафаси. – Тошкент, 2008

Маликов Б.Қ. Тарихий сиймолар давлат бошқаруви тизимида давлат хизматининг ўрни хақида // Multidisciplinary Scientific Journal. November, 2023

Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021

[1] Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. – B. 178-182.

[2] Маликов Б.Қ. Шарқ мутафаккирларининг давлат хизматларига доир сиёсий қарашлари. “Scientific Progress” Scientific Journal. Volume 1, Issue 4. – B. 209. www.scientificprogress.uz

GLOBALLASHUV VA YOSHLARNING MA’NAVIYATI

Atamirzayev.I.X
Ilmiy rahbar: yu.f.d(PhD)
Musayev Hamzahon Zokirjon o’g’li
Xabibullayev Sayfiddin Saydullo o’g’li
Namangan davlat universiteti talabalari

Zamonaviy dunyoda jamiyatlar rivojlanishini globallashuv jarayonlarining insonlar tafakkuri, ma'naviyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sirisiz tasavvur qilish qiyin. Insoniyatning kelajak taraqqiyoti globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, maqsadlari, qadriyatlari, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va jamiyat bilan munosabatlaridagi o'zgarishlarga bog'liq.

Shu bois, ijtimoiy va gumanitar fanlar globallashuvning jamiyat hayotining nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy, balki madaniy hamda mafkuraviy jabhalariga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar insonning fikrlash tarzi va qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyat rivojlanishining yangi yo'nalishlarini belgilamoqda.

Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi oʻrni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Biroq bu jarayonlarning inson tafakkuri va ma’naviy dunyosiga ta’siri masalasiga yetarli darajada e’tibor berilmagan. Vaholanki, g'oyalar globallashuvi uzoq tarixga ega murakkab jarayondir.

“Global” fransuzcha “global” degan soʻzdan kelib chiqqan boʻlib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bogʻliq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” soʻzi lotincha “globus” ya’ni “shar” soʻzidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qoʻllagan[1].

Globallashuv faqat XX asr oxirida boshlanmagan. Tadqiqotchilar so'nggi 500 yil davomida insoniyat bu yo'nalishda izchil harakat qilganini ta'kidlashmoqda.

Yangi dunyoning kashf etilishi, Yer yuzining muntazam transport yo'llari bilan bog'lanishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi kabi hodisalar shakllanayotgan globallashuvning bosqichlari edi.

O'tgan asrning so'ngida bu jarayon misli ko'rilmagan tezlikda jadallashdi va globallashuv davri deb nom oldi. Bu davr insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi, dunyo miqyosida g'oyalar, madaniyatlar va texnologiyalarning tez almashinuviga olib keldi.Eng avvalo, ushbu muammo xususida gap ketganda, shuni ta’kidlash kerakki,

“Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar oʻrtasidagi tafovutning oʻsishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va koʻlamiga koʻra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda[2].”

Insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida azaldan ma’naviyat sohasi dolzarb masala sifatida alohida e’tibor qaratib kelingan. Shu oʻrinda, ma’anaviyat insonni oʻzligini anglatuvchi betakror moʻjizaviy kuch - qudratga egadir. Ma’naviyat shunday qudratli

kuchdirki, u har qanday xalq va millatni buyuk va ulug’vor maqsadlar sari birlashtirishga da’vat etadi.

Yuksak ma’naviyat, sifatli ta’lim va odob yonma – yon tursagina har qaysi jamiyatda rivojlanish bo’ladi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o’zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni davr talabi bo’lib qolmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz inson manfaatlari yuqoriga ko’tarish, huquq-erkinliklari, qonun ustuvorligi kafolatlashda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir.

Mustaqillik yillaridan so’ng yurtimizda ko’zga ko’rinadigan o’zgarishlar bo’ldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o’zgarmas bo’lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin va demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat» deb ta’kidlagan edilar. Erkin va ozod vatanimizni istiqbolli rejalar asosida kelajak sari ildam qadam tashlash uchun bizga sog’lom , ilm fan taraqqiqyotiga hissa qo’shuvchi jamiyat kerak[3].

Har bir sohada yuksak istiqbolga erishish uchun biz yana Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniydek shaxslarni yana qayta kashf etishimiz kerak.

Bunday barkamol avlodni yetishishtirishda mahalla, oila, jamoat tashkilotlari va ta’lim muassasalari alohida o’rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg’urish, sog’lom, barkamol avlodni voyaga yetkazishga intilish xalqimizga xos milliy xususiyatlardandir.

Oilada sog’lom muhit mavjud bo’lgandagina, ularda har tomonlama sog’lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog’lom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo’lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila ma’naviyatining tutgan o’rni alohidadir. Barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning ma’naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir.

O’zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan olib qaraganda, davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, g’ayrat-shijoatiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg’usining qanchalik yuksakligiga, komillik darajasiga bog’liq.

Yoshlarning ma’naviyatini oshirish, uning dunyoqarashi, bilimi va axloqini ham boyitib boradi.

Yoshlar ma’naviyatini yuqoriga olib chiqishdan asosiy maqsadimiz, ularni ona Vatan oldidagi burchi, o’z taqdiri uchun mas’ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilari hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Lekin texnika taraqqiyoti davrida yashar ekanmiz, axborot bugungi kunda inson qalbiva ongini turli yo‘nalishlarda ta’sir o‘tkazuvchi qudratli vositasi eng kuchli qurolga aylangan. Chunki, «Kimki axborotga ega bo‘lsa u dunyoga egalik qiladi», - degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e’tirof etilmoqda[3].

Hozirgi vaqtda yoshlar subkulturalari batafsil tavsiflangan, ammo kamroq tanqidiy. Ushbu yondashuvning shubhasiz afzalliklari bilan shuni ta'kidlash kerakki, o'zini e'lon qilgan yoshlar harakatlarining mafkuraviy yo'nalishi, ushbu muhitda qabul qilingan marosim va urf-odatlarni sinchkovlik bilan sharhlaganda, yoshlarning zamonaviy jamiyatdagi haqiqiy o'rni haqida savol tug'iladi, ham ko'rib chiqilmagan. Yoshlar ko'pincha

ba'zi avtonom madaniyatlarning sub'ekti sifatida paydo bo'ladi (va ko'pincha o'tmishga aylangan yoki o'z xarakterini o'zgartirgan), madaniyatning ushbu sohasining belgilar tizimi mafkuraviy spekulyatsiya va ommaviy axborot vositalariga murojaat qilish ob'ekti sifatida batafsil o'rganiladi, yoshlarni hisobga olmagan holda.

Biroq, hech bo'lmaganda, bir tomondan, ushbu guruhning umumiy ijtimoiy massadan faol ajralib chiqishi va uning aniq (yoki tarixiy davr uchun moslashtirilgan) chegaralarining yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshilik, ular ichida ba'zan bir nechta avlodlar mavjud, boshqa tomondan, bu haqda o'ylashga undaydi. Ommabop tomoshalarning virtual olamida barcha yuqori baholangan teleko'rsatuvlar, seriallar va blokbasterlarning bosh qahramonlari, qoida tariqasida, 35 yoshdan katta bo'lmagan va ko'pincha 30 yoshdan katta bo'lmagan qahramonlardir.

"Yosh qahramonlar" tasvirlari ommaga taqdim etilgan rivojlangan iste'molchi muvaffaqiyati jamiyatining asosiy qiymatiga mos keladi (bu holda yoshlarning salomatlik, faollik, chaqqonlik va jismoniy jozibadorlik kabi fazilatlaridan iborat). Bolalikdan ommaviy madaniyat tomonidan to'liq uzatilgan qadriyatlar stereotipini o'zlashtirgan zamonaviy yoshlar o'qishni tugatishdan ancha oldin "rivojlanib boradi"; o'rta va katta yoshdagi fuqarolar ularni xattiharakatlarida, kiyinish uslubida, turmush tarzida va hokazolarda taqlid qilishga faol intilishadi, ya'ni "yosh bo'lish". Mulohaza yuritishga undaydigan yana bir ziddiyat ommaviy ongdagi “bo‘lmoq”ni siqib chiqaradigan “rivojlanmoq” va “ko‘rinmoq” o‘rtasidagi farqdir.

A.C.Panarin muqobil madaniyatning ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Yoshlik – XX asr hodisasi; O'sha vaqtgacha tarix yoshlarni bilmas edi: yoshlar bor edi, lekin yoshlar yo'q edi an'anaviy hayot tarzi bolalikdan to'g'ridanto'g'ri kattalikka o'tish bilan tavsiflanadi[4].

Yoshlik, tadqiqotchi sotsializatsiya jarayonini boshidan kechirayotgan, boshqa jamoalar munosabatidan farq qiladigan muayyan qadriyat munosabatlarini ro'yobga chiqarishga va ozmi-ko'pmi izchil ob'ektivlashtirishga qodir bo'lgan (yosh) tengdoshlarning o'ziga xos shartli jamoasini anglatadi.

Shu ma'noda, globallashuv jarayonida yoshlar muammosi zamonaviy madaniyat fenomeni bo'lib, madaniyatdagi ko'p narsalar singari, dastlab mifologiyadan oziqlangan. U asosan ikki omil ta'sirida shakllanadi va madaniy faktga aylanadi: birinchidan, ijtimoiy - umumiy ta'lim tizimi tomonidan joriy etilgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi va yoshning balog'atga etishishini kechiktiradigan uzoq o'qish davri; ikkinchidan, nazariy va undan ham ko'proq mifologik.

Gap shundaki, yoshlar submadaniyatining dolzarb hodisasi XIX asrga borib taqaladi, o‘shanda romantizm arboblari sa’y-harakatlari bilan ideallashtirilgan bolalik va yoshlik g‘oyasi yaratilgan va yangi muammo – avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar paydo bo‘lgan, shuningdek badiiy, sotsiologik va falsafiy adabiyotlarga kirib keldi. Romantiklarning (boshqa narsalar qatori, psixologlarning yoshlarga bo'lgan ilmiy qiziqishini uyg'otgan) xizmatlari ham yoshlar nazariyasida, balki ko'proq darajada ular yoshlar ongini va yoshlar madaniyatini ifodalash uchun pretsedent yaratganlaridadir.

Globallashuv jarayonida yoshlar madaniyati o‘z g‘oyalarini rivojlantirmaydi, balki o‘tmish va mavjudlarini tanlaydi, agar g‘oya zamonaviy madaniyatning umumiy holati

bilan qadrsizlanmasa yoki o‘z-o‘zidan ma’lum bir diniy tizim bo‘lmasa, u mifologik shaklga ega bo‘ladi. Bu yoshlar madaniyati sub'ektlarining ichki psixologik ehtiyojini amalga oshiradi va uning eng muhim ijtimoiy-madaniy funktsiyalaridan biridir. Bu ham yoshlarning potentsial sub'ektiv kuchi bo'lib, u vaqti-vaqti bilan tartibsizliklarda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda: - ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; - yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish; - yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Globallashuv va yoshlarning ma'naviyati. // Xalq so'zi gazetasi. - 2023. - 15-may.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: O'zbekiston, 2008.

3. Panarin A.S. Globallashuv va madaniyat. - Moskva: Nauka, 2014.

4. Atamirzayev I.X. Yoshlar ma'naviy tarbiyasi nazariyasi. - Namangan: NamDU, 2020.

5. Abdulxamidov M. Globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi. // Pedagogika jurnali. - 2022. - №3. - B. 45-52.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Musoyev Mironshoh Tursun o’g’li
O’zMU talabasi

XXI asr, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida qadimdan inson manaviyati dolzarb masala bo’lib kelmoqda. Shu o’rinda ma’naviyat insonni o’zligini anglatuvchi kuch. U har qanday insonni oldinga va yangicha g’oyalarga chorlaydi. Zamon rivojlanib borar ekan, mamlakatimizda barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish, yatuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxasislarga talab o’z o’zidan oshib boradi. Konstitutsiyada takidlanganidek, bizning asosiy maqsadimiz inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari va fuqarolik jamiyatini qurish hisoblanadi.[1] Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o’zgarmas bo’lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin va demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat» deb ta’kidlagan edilar. Erkin va ozod vatanimizni istiqbolli rejalar asosida kelajak sari ildam qadam tashlash uchun bizga sog’lom , ilm fan taraqqiqyotiga hissa qo’shuvchi jamiyat kerak .[2] Global jarayon har jamiyatda rivojlanish va tiklanish kabi ta’sirlar ko’rsatmoqda.

Mana’viyat dunyo iqtisodiyoti, siyosati va global miqyosda keskin o’zgarishlarga yuz tutdi. Ma'lumotlar almashinuvi tezligi, internet texnologiyalarining ommaviylashuvi ayniqsa yoshlar ongida murakkab jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu masala dolzarbligiga misol qilib O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: ‘’Yoshlar – bizning tayanchimiz, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Globallashuv sharoitida ularning ma’naviyatini mustahkamlash eng muhim vazifadir.’’ – degan so’zlari yaqqol misol bo’la oladi.[3] Yoshlarning ma’naviyatini oshirish uning dunyoqarashi , bilimi va axloqini ham boyitib boradi . Yoshlar ma’naviyatini yuqoriga olib chiqishdan asosiy maqsadimiz , ularni ona Vatan oldidagi burchi, o’z taqdiri uchun mas’ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilari hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Lekin texnika taraqqiyoti davrida yashar ekanmiz , axborot bugungi kunda inson qalbi va ongini turli yo‘nalishlarda ta’sir o‘tkazuvchi qudratli vositasi eng kuchli qurolga aylangan. Chunki, «Kimki axborotga ega bo‘lsa u dunyoga egalik qiladi», - degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e’tirof etilmoqda. [4] Ayniqsa, dunyo miqyosida axborot almashinuvining kuchayishi yoshlarni hamisha axborot oqimi ta’sirida bo‘lishiga olib kelmoqda.

Axborot texnologiyalari kengaygani sari yoshlar dunyoni turlicha qabul qila boshladi: kimdir bundan imkoniyat sifatida foydalanmoqda, kimdir esa aksincha, chalkashlikka duch kelmoqda. Shu sababli, bu jarayonni bir tomonlama baholash qiyin – unda ham ijobiy ham sezilarli salbiy jihatlar bor. Avvalo, globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri dual xarakterga ega bo’lib, unda integrativ va disintegrativ jarayonlar bir vaqtning o’zida namoyon bo’ladi. Integrativ jarayonlar – bilim-axborot almashinuvini ortishi, madaniy muloqotning kengayishi, global ta’lim imkoniyatlarining o’sishi kabi ijobiy natijalarni anglatadi. Disintegrativ jarayonlar esa milliy identitetning yemirilishi, ma’naviyatsiz kontentning ko’pligi kabi salbiy oqibatlar bilan ifodalanadi.

Globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ijobiy ta’sirlari:

1. **Bilim va axborot imkoniyatlarining kengayishi.** Global kommunikatsiya vositalari, internet va onlayn ta’lim platformalari yoshlar uchun dunyo tajribasini o‘rganish imkonini beradi. Ular orqali yoshlar eng so‘nggi ilmiy, madaniy va texnologik bilimlarga ega bo‘lishadi, bu esa ularning dunyoqarashi kengayishiga xizmat qiladi. Bu jarayon yoshlarni ijodkorlik, innovatsiya va dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishga undaydi

2. **Madaniy almashinuv va dunyoqarashning boyish.** Global madaniy mahsulotlar (filmlar, adabiyot, musiqa) va chet tillarni o‘rganish orqali yoshlar boshqa xalqlar hayoti va urf-odatlari bilan tanishadi. Bu jarayon tolerantlikni oshiradi, boshqa madaniyatlarga hurmatni shakllantiradi va yoshlarni global fuqarolik ruhida tarbiyalaydi. . Ushbu fikr arbobi L.Ronal’d Reygan shunday degan: ’’Erkinlik va ochiqlik – yoshlarni kuchli qiladi’’. Ya’ni turli madaniyatlar bilan muloqot yosh avlodning fikrlashini kengaytiradi**.**

3. **Axborot va innovatsion imkoniyatlar** BMT Bosh kotibi Kofi Annan aytgan edi: “Axborot — bu kuch. To‘g‘ri foydalanilgan axborot yoshlarni kuchaytiradi.” Internet orqali ilmiy manbalarga kirish yoshlarni kreativ va ijodkor qiladi.

4. Global hamkorlik ko‘nikmalari, chet elda o‘qish, almashinuv dasturlari yoshlarning muloqot, til, madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiradi.

5. **Milliy qadriyatlarni qayta anglash imkoniyati:** globallashuv yoshlarni o‘z madaniy qadriyatlarini yaxshiroq anglashga undaydi. Chetdan kelayotgan axborot oqimi milliy o‘zlikni, til va tarixiy merosni qadrlashga sezgirlikni oshiradi. Shu asosda yoshlar milliy identitetni saqlab qolish yo‘llarini izlashadi, o‘z ma’naviyatini mustahkamlashga intiladi.

Salbiy tomonlar:

Axborot ta’siri va yot g‘oyalar. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar chet el kontenti bilan ko‘proq muloqot qilmoqda. Biroq, bu axborotlarning barchasi ijobiy maqomga ega emas: ayrimlari noto‘g‘ri ideologiyalar, stereotiplar va zararli kontentni targ‘ib qilishi mumkin. Natijada yoshlarning ijtimoiy va axloqiy ongida buzilishlar sodir bo‘lishi mumkin. Shavkat Mirziyoyev bu haqda ogohlantiradi: “Yoshlar ongiga yot g‘oyalar bilan kirib kelish — eng katta xavf.”

Zararli axborot oqimlari. Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat aytganidek: “Nodonlik — eng katta dushman, ammo yolg‘on axborot undan ham yomon”. Internetdagi zararli kontent yoshlar psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyatdan uzoqlashish, individualism. Mahatma Gandi shunday degan: “Texnologiya ma’naviyatdan ustun bo‘lsa, insoniyat halokatga yuz tutadi.

Milliy o‘zlikning zaiflashuvi. Ba’zan chet el madaniyatining ortiqcha ta’siri milliy o‘zlikni rad etish, qadriyatlar sustlashuviga olib keladi. Tilga e’tibor susayishi, mahalliy adabiyot, tarix va san’atga qiziqishning kamayishi kuzatiladi.

ijtimoiy izolyatsiya

depressiya va xavotir

kiberzo‘ravonlik

shaxsiy hayotning yo‘qolishi

Demak, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning real hayotidagi ijtimoiy va ruhiy holatiga **salbiy ta’sir ko‘rsatishi** ilmiy-tadqiqot bilan tasdiqlangan.

Ushbu muommolarni oldini olish uchun ma’naviyatni kuchaytirish birichi o’rinda turadi. Bugungi kunda ma’naviyatni mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Avvalo, yoshlar qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun ta’lim muassasalarida badiiy adabiyot, tarix va san’atni yanada jonli, qiziqarli shakllarda o‘qitish zarur. Oddiy ma’ruza yoki ko‘rsatma bilan emas, balki munozara, ijodiy mashg‘ulot, amaliy loyihalar orqali ularda fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini erkin bayon etish madaniyatini shakllantirish muhim. Oila ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Farzandlar ko‘proq ota-onaning o‘zini tutishi, har kuni qilayotgan ishlari orqali tarbiya oladi. Shuning uchun halollik, odob, hurmat, mas’uliyat kabi fazilatlarni bolaga so‘z bilan emas, amalda ko‘rsatib berish eng samarali yo‘ldir.

Bundan tashqari, bugungi raqamli dunyoda yoshlarni axborotni tanlab qabul qilishga o‘rgatish juda kerak. Internetda ham foydali, ham zararli ma’lumotlar ko‘p, shuning uchun mediasavodxonlikni oshirish, ijobiy kontentni targ‘ib qilish ma’naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda ishtirok etish, tarixiy joylarga sayohat, san’at bilan shug‘ullanish, volontyorlik ishlari qilish kabi faoliyatlar esa yoshlarning dunyoqarashini yanada boyitadi va ularda jamiyatga foydali bo‘lish istagini kuchaytiradi.

Shuni ham tan olish kerakki, hozirgi tezkor axborot oqimi davrida yoshlar orasida bir qator ma’naviy muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda. Eng avvalo, ommaviy madaniyatning bosimi ostida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayib bormoqda. Ko‘plab yoshlar vaqtining katta qismini internetda o‘tkazgani sababli, ba’zan ular uchun virtual dunyo real hayotdan ham muhim bo‘lib qolmoqda. Bu esa axborotni tanqidiy baholay olmaslik, yolg‘on ma’lumotlarga ishonish, zararli kontent ta’siriga tushish kabi holatlarga olib keladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan boshqalarning “bezavol hayoti”ni ko‘rib, o‘zini ularga qiyoslash, o‘zidan norozilik holatlari kuchayayotgani ham sir emas. Natijada ba’zi yoshlar orasida maqsadsizlik, befarqlik, hatto ruhiy tushkunlik holatlari kuzatiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda oila bilan muloqotning kamayishi, ota-onaning bandligi, uyda ma’naviy suhbatlarning yetishmasligi ham yoshlarning ichki dunyosida bo‘shliq paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois ma’naviyatni mustahkamlashga qaratilgan har bir chora aslida mana shu mavjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qilishi kerak. Yoshlar o‘zligini anglashga, hayotida maqsad qo‘yishga, jamiyatga foydali bo‘lishga intilganda, ularning ma’naviy barqarorligi ham mustahkamlanadi.

Xulosa. Globallashuv yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularga yangi bilim va madaniy tajribalarni tezda o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarning susayishi xavfi ham mavjud. Shuning uchun yoshlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, ularni global jarayonlarga moslashgan, milliy ruhda yetuk shaxslar sifatida shakllantirish muhim vazifadir.

Ma’naviyatni mustahkamlash ta’lim tizimi, oila tarbiyasi, milliy madaniyat va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv platformalar orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, xalqaro tajribalardan foydalanish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ushbu jarayonga sezilarli hissa qo‘shadi.

Shu bois, globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish va yoshlarning milliy-o‘zligini yo‘qotmasdan rivojlanishiga ko‘maklashish, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlar ongida mustahkamlash zamonaviy jamiyatning poydevorini tashkil qiladi.

Foydalanilgan dabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. Rasmiy nutqlar to'plami, 2017-2024.
4. Fitrat A. Asarlar to'plami. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot.
5. Kofi Annan nutqlari. BMT rasmiy arxivi, 2017.
6. Reygan R., Mahatma Gandi, xalqaro arboblar nutqlaridan iqtiboslar to'plami.
7. Baxtiyorov R. Axborot xavfsizligi va ma’naviy tahdidlar. – Toshkent: Aloqa, 2020.
8. Globallashuv va ma'naviyatga doir ilmiy maqolalar (internet manbalari).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И АУДИТА РАСХОДОВ НА ИННОВАЦИОННУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Мустафоев Акбар Мустафо угли
преподаватель университета OXUS UNIVERSITY

В обновляющемся Узбекистане внедрение новшеств, поиск, новые идеи и деятельность в соответствии с требованиями времени становятся важнейшими задачами во всех сферах.

Как подчеркнул наш Уважаемый Президент: «Важнейшая задача - сформировать инновационное мышление у нашего народа. Где нет инноваций, там не будет развития и конкуренции. Без широкой пропаганды новшеств в этой сфере, формирования у людей умения мыслить и работать по-новому мы не сможем идти в ногу с нынешним стремительно меняющимся временем, научным прогрессом. Поэтому выведение инновационной деятельности на уровень, соответствующий требованиям современности, должно стать главной задачей нового министерства и данного центра».[1] Инновация — это созданный в результате научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ новый или усовершенствованный продукт (товар, работа, услуга и др.), производственный процесс, новый метод маркетинга, рабочее место или внешние связи, предназначенные для удовлетворения потребностей общества или достижения других положительных эффектов. При этом основная задача заключается в глубокой реформе и обновлении всех сфер государственной и общественной жизни, развитии научных исследований и инновационной деятельности, создании необходимых условий для этого, привлечении молодежи к участию в этом процессе, поддержке новых творческих поисков и разработок.В целях создания правовых основ инновационной деятельности в нашей стране был разработан и представлен для обсуждения на Едином портале интерактивных государственных услуг проект Закона Республики Узбекистан «Об инновационной деятельности». Он был всесторонне изучен и доработан с учетом предложений широкой общественности, и на сегодняшний день выработаны правовые нормы, регулирующие эту сферу.

Проблемные вопросы бухгалтерского учета инновационных расходов и предложения по их совершенствованию

С точки зрения учета инновационной деятельности возникает ряд проблем, связанных с прямым определением объектов учета, а также с идентификацией инновационных активов, затрат и расходов.Учет расходов, связанных с инновационной деятельностью, в первую очередь зависит от ее видов. Для представления отчетов об инновационной деятельности в органы статистики необходимо разграничить технологические, маркетинговые и организационные инновации. Каждый вид инноваций характеризуется своей спецификой:

[1] Шавкат Мирзиёевhttps://president.uz/ru/lists/view/1309

Технологические инновации — это инновации в виде новых или усовершенствованных продуктов или услуг, а также новые или модернизированные процессы производства продуктов или оказания услуг. Эти инновации делятся на два типа:

• **Продуктовые инновации** подразумевают внедрение качественно новых или усовершенствованных товаров, разработку новых способов их использования в производственной сфере, создание и внедрение принципиально новых услуг, а также усовершенствование методов предоставления существующих услуг путем добавления новых характеристик и функций, значительно повышающих качество обслуживания;

• **Процессные (технологические) инновации** включают разработку и внедрение технологически новых или существенно усовершенствованных методов производства и оказания услуг, включая методы их доставки.

В настоящее время одним из основных недостатков организации учета инновационной деятельности является то, что не существует единой системы счетов и регистров бухгалтерского учета для отражения расходов, доходов и финансовых результатов научно-исследовательской деятельности на предприятии, имеющиеся учетные регистры, бухгалтерские счета не предоставляют достоверных для проведения анализа инновационной продукции и ее влияния на финансовые результаты деятельности предприятия. В таблице приведены возможные варианты учета затрат на научно-исследовательскую деятельность на предприятии, которое самостоятельно разрабатывает и внедряет инновации.

Таблица 1.1. Отражение затрат на инновационную деятельность на счетах бухгалтерского учета

Варианты зачета затрат на инновационную деятельность	**Корреспонденция счетов бухгалтерского учета**
А	1
Распределение затрат на стадии научных исследований и разработок по элементам затрат Ввод в эксплуатацию нематериального актива	Д-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ» К-т 1000 «Материалы», 05 00«Износ нематериальных активов», 6710 «Расчеты по оплате труда», 6910 «Расчеты по социальному страхованию и обеспечению», 6010«Расчеты с поставщиками» и др. Д-т 0400 «Нематериальные активы» К-т 0800 «Приобретение (создание) нематериальных активов»
Отнесение затрат на научно-исследовательские работы к текущим затратам предприятия	Д-т 2010 «Основное производство», 2310 «Вспомогательные производства», 44 00«Расходы на продажу» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»
В случае получения отрицательного результата и невозможности использования результатов инновационной деятельности	Д-т 9120 «Прочие расходы» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»

В свою очередь в связи с тем, что отсутствует четкое представление об инновационном продукте как об объекте учета, формирование системы 56 бухгалтерского учета затрат на инновационные мероприятия должно быть ориентировано на выполнение следующих принципов, определяющих направления его развития: - рассмотрение инновационного продукта как объекта бухгалтерского учета с учетом свойств его измеримости и обособленности; - отражение инноваций на счетах бухгалтерского учета как количественно определенных и обособленных объектов; - накопление на счетах бухгалтерского учета «инновационных» затрат по этапам инновационной деятельности; - расширение содержания и перечня объектов «инновационного» учета путем расширения понимания инвестиций как вложений не только в основной капитал и в нематериальные активы, но и в научные исследования и разработки, в человеческий капитал. На данный момент существующий план счетов предполагает лишь накопление затрат по инновационной деятельности на субсчете 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ». Учет затрат на одном счете не дает возможность разделения понесённых расходов по направлениям инновационной деятельности, что безусловно важно для оценки эффективности полученного результата. Для обеспечения раздельного учета расходов по инновационной деятельности, которая является составным элементом хозяйственной деятельности организации, мы предлагаем открыть счета второго порядка к счету 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»: 0881 «Расходы на выполнение научных исследований» и 0882 «Расходы на выполнение научных разработок». Данные счета предназначены для накопления затрат, связанных с инновационной деятельностью. В целях организации учета затрат по этапам становления инновационного продукта можно предположить следующую группировку инновационных затрат: – маркетинговые исследования; – научные исследования или разработки; – инновационное проектирование; – инновационное производство; – коммерциализация продукции; – прочие расходы.

Литература:

1. Шавкат Мирзиёев https://president.uz/ru/lists/view/1309

2. Врублевский Н. Д. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник. – М.: Бухгалтерский учет, 2005. – 400 с. 3. Головина Т. А. Методика оценки затрат и показателей риска в усло виях выбора эффективного варианта производственной деятельнос ти предприятия //

3. Голубев А. А., Александрова А. И., Скрипниченко М. В. Экономика, финансирование и управление инновационной деятельностью //СПб.: Университет ИТМО. – 2016. – Т. 153.

4. Дорошенко Ю. А., Бухонова С. М. Выбор способа финансирования инновационной деятельности в условиях ограниченности финансо вых ресурсов // Инновации. – 2005. – № 5. Недělкин А. А. Методы калькуляции инновационной продукции // ТДР. – 2010.

6. «Экономическая ста тистика» / Абдрахманова Г. И., Абдулгалимов А. М., Айвазян С. А. и др. – Москва: Федеральная служба государственной статистики, 2013.

ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Мухитдинова Феруза Кутбиддиновна
преподаватель Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Турсунмуродова Гульноза Дильшод кизи
студентка 1 курса направление Филология и обучение языкам

Вторая страница книги нашего первого президента И.А.Каримова “Высокая духовность - непобедимая сила” начинается со слов: “Будущее нашей родины, завтрашний день нашего народа, авторитет нашей страны в мировом сообществе зависят прежде всего от того, как наши дети вырастут, вырастут и войдут в жизнь как люди. Мы никогда не должны забывать такую острую правду”.[1] Наличие высокой духовности у молодежи очень помогает нам создать сильное общество. Ведь общество с высокой духовностью не может быть побеждено никакими силами.

На этапе развития человеческого развития особое внимание издавна уделялось культурной среде, вопросам формирования воспитания молодёжи в семье и сфере образования как актуальным вопросам. Этот вопрос рассматривается не только в нашей стране, но и как глобальная проблема. Здесь следует упомянуть, что система образования, культурная среда и формирование воспитания молодёжи в семье - это три взаимосвязанных элемента. Система образования обеспечивает молодых людей знаниями и обучает их необходимым навыкам. А культурная среда формирует у молодёжи национальные ценности, традиции и культуру. Однако в семье процесс воспитания основан на семейном взаимодействии, где любовь, уважение и ответственность играют важную роль. Третий фактор, а именно общественность, играет важную роль в развитии социальных характеров молодёжи. Все эти факторы в совокупности обеспечивают правильное воспитание молодёжи. Культурная среда играет большую роль в формировании личности молодёжи. Через традиции, искусство, литературу и обычаи культура передаёт молодым людям ценности, которые важны для их идентичности и будущего. Культурные мероприятия, фестивали и традиционные праздники помогают связать молодёжь с сообществом. В этой связи продвижение Ш. М. Мирзиёевым 5 важных инициатив по систематизации усилий в социальной, духовно-просветительской сферах открыло еще один новый этап в истории Узбекистана в области образования и воспитания молодёжи.[2] Это следующие:

[1] I.A.Karimov,Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. I.Karimov –T.: «Ma’naviyat»,2016.-2в.
[2] https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz

1. Первая инициатива-служит повышению интереса молодежи к музыке, живописи, литературе, театру и другим видам искусства, раскрытию ее таланта.

2. Вторая инициатива-физическая закалка молодёжи, направленная на создание необходимых условий для проявления способностей в спортивной сфере.

3. Третья инициатива направлена на организацию эффективного использования компьютерных технологий и интернета среди населения и молодежи.

4. Четвертая инициатива направлена на организацию систематической работы по повышению духовности молодежи, широкому распространению среди них чтения.

5. Пятая инициатива-касается вопросов занятости женщин.[1]

Эта благородная идея главы государства была с большим интересом встречена народом Узбекистана, особенно молодежью, и за короткое время получила широкую огласку по всей стране. "В соответствии с этими пятью инициативами, которые в дальнейшем будут широко внедряться в реальную жизнь, материально-техническая база и доступность культурных центров, музыкальных и художественных школ в регионах резко улучшились, в соответствии с интересами молодежи будет создано дополнительно еще 1,5 тысячи кружков. Даже в культурных центрах самых отдаленных сел будет налажена деятельность художественно-самодеятельных коллективов, молодежных театров-студий и молодежных клубов», - отметил в своем выступлении уважаемый глава государства. Ш. Мирзиёев на основании данных инициатив создал огромные условия в сфере спорта, гуманитарии, здравоохранении, культуры, науки, поддержал финансово малообеспеченных детей с точки зрения образования, создал возможность учиться девушкам бесплатно в магистратуре. Молодёжь Узбекистана по сравнению с другими странами, опережают своих конкурентов по всем сферам, оправдывая надежды Президента и всего узбекского народа. Это в большой степени определяет судьбу целой нации.

Использованная литература:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan: https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz

I.A.Karimov, Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. I.Karimov –T.: «Ma’naviyat»,2016.-176в.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi: https://yuz.uz/uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoeva-na-forume-molodeji-uzbekistana

[1] Там же

GLOBALLASHUV JARAYONINING YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOQARASHIGA SALBIY TA’SIRI VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI

Namozaliyev A.G‘.
Yangi asr universiteti magistranti
Bahodirova Sh.R.
O‘zMU magistranti

XXI asr boshidan boshlab globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylandi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot maydonlarining integratsiyalashuvi natijasida dunyo tobora yagona makonga aylanib bormoqda. Globallashuv zamonaviy jamiyat rivoji uchun muhim imkoniyatlar yaratgani holda, ayniqsa yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga nisbatan murakkab va ziddiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlar jamiyatning eng faol, yangilikka ochiq va ta’sirchan qatlami bo‘lib, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan axborot oqimlari, ommaviy madaniyat, virtual makon va transmilliy g‘oyalar ularning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayon yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy mezonlarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Mazkur ilmiy maqolada globallashuv jarayonining mohiyati, uning yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga salbiy ta’siri, ushbu salbiy oqibatlarning ijtimoiy-ma’naviy sabab va oqibatlari hamda ularni oldini olish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Globallashuv tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Umuman olganda, globallashuv — bu dunyo mamlakatlari va jamiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va axborot aloqalarining integratsiyalashuvi jarayonidir.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan globallashuv:

madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va raqobati;

axborot maydonining kengayishi;

qadriyatlar tizimining transformatsiyasi;

milliy chegaralarning ma’naviy jihatdan nisbiylashuvi bilan tavsiflanadi [1:35].

Globallashuvning asosiy tashuvchilari sifatida ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, transmilliy kompaniyalar va global madaniy mahsulotlar namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu omillar yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy dunyoqarash – bu shaxsning hayotga, jamiyatga, axloqiy qadriyatlarga, milliy va umuminsoniy tamoyillarga bo‘lgan munosabatlar tizimidir. Yoshlar ma’naviy dunyoqarashi jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Yoshlar ma’naviy dunyoqarashining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

milliy o‘zlikni anglash;

axloqiy va estetik qarashlar;

ijtimoiy mas’uliyat hissi;

tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyati.

Globallashuv sharoitida ushbu tarkibiy qismlar turli tashqi ta’sirlarga duch kelib, o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Globallashuv jarayonining yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri bir qator yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, **ommaviy madaniyatning ustuvorligi** yoshlar ongida soddalashtirilgan, iste’molchilikka asoslangan hayot tarzini targ‘ib qiladi. Natijada chuqur ma’naviy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Ikkinchidan, **axborot tahdidlari** kuchaymoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yolg‘on axborot, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar va axloqsizlik yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, **milliy identifikatsiyaning zaiflashuvi** kuzatiladi. Ayrim yoshlar begona madaniyat va turmush tarzini mutlaq qadriyat sifatida qabul qilib, o‘z milliy an’analariga befarq bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida **ma’naviy relativizm** kuchayib, aniq axloqiy mezonlarning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Axborot makoni globallashuvning eng ta’sirchan vositasi hisoblanadi. Virtual makon yoshlarning asosiy ijtimoiylashuv muhitiga aylanib bormoqda. Bu esa real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin [2:98].

Axborot makonida:

manipulyativ texnologiyalar;

stereotiplarni singdirish;

madaniy birxillikni targ‘ib qilish holatlari keng tarqalgan.

Bunday sharoitda yoshlarning axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, ularning ongida salbiy qarashlar mustahkamlanadi. Ma’naviy xavfsizlik — bu jamiyat va shaxs ma’naviy qadriyatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir. Globallashuv jarayonida ma’naviy xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar ma’naviy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar quyidagilardan iborat:

begona g‘oyaviy ta’sirlar;

ma’naviy bo‘shliq;

tarbiyaviy nazoratning sustligi.

Mazkur tahdidlarni bartaraf etish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

Birinchidan, **ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish** orqali yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, **ta’lim tizimida globallashuvni tanqidiy tahlil qilish**ga yo‘naltirilgan fanlar va mashg‘ulotlarni joriy etish lozim.Uchinchidan, **milliy madaniyat va qadriyatlarni targ‘ib etish** zamonaviy usullar orqali amalga oshirilishi kerak.

To‘rtinchidan, **axborot madaniyatini rivojlantirish** yoshlarning internetdan ongli foydalanishini ta’minlaydi.

Yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda oila asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onalarning shaxsiy namunalari, tarbiyaviy yondashuvi yoshlarning ma’naviy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalari esa yoshlarni milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashi, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi lozim. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muqarrar bosqichi bo‘lib, u yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy ta’sirlarning oldini olish uchun yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini takomillashtirish va axborot madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 386-388.

Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.

Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(42), 144-149.

Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, *4*(5), 36-38.

O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, *2*(2), 46-50.

Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(9), 271-276.

Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.

Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.

Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *12*(3), 438-442.

Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,

Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,

Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri’s novel “The Past Days”. Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.

Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.

YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY KO‘RINISHLARI.

Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o‘g‘li
O‘zMU magistranti

Insoniyat rivojidagi o‘ziga xos tam’dunlar va sivilizatsiyalar vujudga kelishida va ularning taraqqiy etishida insonning ilmiy yutuqlari va bir-biriga nisbatan shakillangan ijtimoiy hayot tarbiyasi asosiy o‘rin tutgan.

Bugungi globallashish va raqamli transformatsiyalashish sharoitida sun’iy intellekt (AI) insoniyat hayotining barcha jabhalariga jadal kirib bormoqda. Avvalam bor, yosh avlod ushbu texnologiyalarning asosiy foydalanuvchisi, iste’molchisi va yaqin kelajakdagi yaratuvchisi o‘laroq alohida e’tibor talab qiladi. Shu sababli sun’iy idrok rivojlanayotgan hozirgi jamiyatda yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash masalasi har tomonlama dolzarblik kasb etmoqda.

Yurtimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilgan islohatlar natijasida ko‘plab innovatsion ishlammalar va g‘oyalar yoshlar tomonidan ilgari surulmoqda. Misol uchun “5 millon su’niy intellekt yetakchilari[1]” va “aileaders.uz[2]” loyihalarini ko‘rish mumkin. Bunday ishlarni yurtimizda amalga oshirilganligi (ilmiy-nazariy hamda huquqiy siljishlar) yoshlar intellektual salohiyatini vujudga kelishidagi qo‘rquvlar, tashqi to‘siqlar va boshqa omillarni yengishga va ularni rag‘batlantirishga olib keladi.

Rivojlangan davlatlarda ham yurtimizda ham su’niy intellektga oid davlat dasturlari qabul qilinmoqda. O‘zbekiston ham chet el davlatlari bilan sun’iy intellect tajribasi bo‘yicha hamkorlik qilmoqda. Bunga yaqol misol: *Bugun biz Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million dasturchi” loyihasining uzviy davomi sifatida “5 million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasiga start beramiz. Bu oddiy dastur emas, balki yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar olamidir,* – degandi davlatimiz rahbari[3]. Bazi ta’lim muassalarida su’niy intellektga oid fanlarni yoki qo‘shimcha o‘qish turlari paydo bo‘layotganligi bunga yaqol misol bo‘la oladi.

Yoshlarning intellektual salohiyatini tarbiyalashning asosiy ko‘rinishlarini olib qaraydigan bo‘lsak, birinchidan, sun’iy idrok (AI) va uni yoshlar ongiga ta’siri hisoblanib, u yoshlarning idrok qilish uslubi, dunyoqarashi va jamiyatdagi odobiga va xulq-atvoriga

---

[1]. https://president.uz/oz/lists/view/8719 “Besh million su’niy intellekt yetakchilari” xalqaro forumi 28.11.2025.

[2]. https://aileaders.uz/ Sun'iy intellekt, dasturlash va raqamlashtirish olamining boshqa sohalarida onlayn ta'lim platformasi.

[3]. https://president.uz/oz/lists/view/8719 Prezidentimizning “Besh million su’niy intellekt yetakchilari” (Five Million Uzbek AI Prompters) xalqaro forumidagi nutqidan. 28.11.2025.

sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda albatta ijobiy va salbiy jihatlar mavjud bo‘lib, ularga ijobiy jihatdan mustaqil fikrlash va muammolarni tez hal qilish ko‘nikmasi shakillanayotganligi, bilim olish doiralarini kengayib borishi, erkin ijodiy fikrlash va innovatsion tafakkur rivojlanishini olib qarashimiz mumkin.

Sun’iy intellektning yoshlar ongiga salbiy tasiriga keladigan bo‘lsak, avvalambor tehnologiyalarga haddan tashqari qaramlik, tayyor javoblarga o‘rganib qolish va real muloqat hamda ijtimoiy faollikning kamayishi kabi muammolar vujudga kelmoqda. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida muvozanatni saqlash muhimdir. Ikkinchi jihatdan esa shaxsning axloqiy va ma’naviy tarbiyasi masalalari ham vujudga kelmoqda. Bizning fikrimizcha sun’iy idrok (AI) vositalaridan foydalanishda yoshlarning axloqiy immunitetini mustahkamlash zaruriyati vujudga kelmoqda. Bunda insoniyatga hos bo‘lgan, halollik va ma’suliyat tushunchalari, plagiat va yolg‘on axborotdan tiyilish ko‘nikmasi, insoniy qadriyatlarga sodiqlik masalalari va texnologiyalardan maqsadli va ongli foydalana olishlarni kiritsak bo‘ladi. Bunda biz yoshlarga sun’iy intellekt (AI) insonni biologik robitga almashtiruvchi emas, balki inson uchun xizmat qiluvchi vosita ekanini ularning ongiga to‘g‘ri singdira olishimiz muhim hisoblanadi.

Yoshlarning intellectual salohiyatini tarbiyalshning asosiy ko‘rinishi esa tanqidiy fikrlash qobilyati va umumiy media savodxonlik jarayonida ko‘rinadi. Sun’iy intellektning bugungi rivoji sharoitida yoshlar axborotlar tizimini to‘g‘ri tahlil qilish, axborotlar orasida soxta va manipulyativ kontentni ajrata olish va zamonaviy algoritmik tavsiyalarga ko‘r-ko‘rona ishonmaslik kabi sun’iy intellect ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Bu esa albatta tarbiyaning asosiy yoki muhim intellektual yo‘nalishini ko‘rsatadi. To‘rtinchi tomondan sun’iy intellektning tarbiyaviy jihatlarni oila va ta’lim muassasalari tizimiga bog‘lasak bo‘ladi. Bunda oila texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakillantiruvchi birlamchi muhit ro‘lini bajaradi. Maktab va oliy ta’lim esa sun’iy intellect asoslari, raqamli etika va kiberxavfsizlikni o‘rgatuvchi markaz sifatida maydonga chiqadi.

Bu jarayonda ota-onaning, ustoz va murabbiylarning o‘rniga juda katta e’tibor berishimiz lozim. Chunki tarbiya va texnologiyani uyg‘unlashtiruvchi yetakchi shaxs aynan ulardir. Ularning sayi harakatlari bilan yoshlar sun’iy intellektdan foydalanuvchi emas, balki uni ongli boshqaruvchi shaxs bo‘lib yetishishlari aniqdir.

Ysohlarning intellectual salohiyatini tarbiyalashning beshinchi asosiy ko‘rinishi, bu milliy qadiryatlar bilan sun’iy intellektning uyg‘unligini taminlashda ko‘rinadi. Bunda sun’iy intellekt tarbiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma’naviy ma’suliyat va ijtimoiy birdamlik kabi o‘ziga hos jihatlar bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt rivojlanayotgan jamiyatda yoshlarni tarbiyalash – bu faqat texnologiyalarni o‘rgatish emas, balik ong, ma’naviyat va mas’uliyatni shakllantirishdir. To‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya yoshlarni kelajak jamiyatining yetuk, axloqiy va innovatsion yetakchilarga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 243-bet.

2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 26-bet.

3. S., Brazevich, D.S., Kosgeleva, D.N. “Cognitive mobility in the structure of intellectual potential of personality.”

4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 27-bet.

5. “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 26.04.2022. PQ-221-son.

6. Sh.M.Mirziyoyev. “Besh million su’niy intellekt yetakchilari” (Five Million Uzbek AI Prompters) xalqaro forumidagi nutqidan. 28.11.2025.

МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ОМИЛЛАРИ

Қиём Назаров
ф.ф.д., профессор

Бугунги глобаллашиб бораётган дунёнинг барқарор ва тинч яшаётган халқнинг мустаҳкам такомил топишига раҳна соладиган, унинг маданиятига, миллий қадриятларига маданий тарбия тизимига салбий таъсир кўрсатадиган таҳдидларнинг кўпайиб бораётганлиги ҳар биримизни юрагимизда ҳадикни уйғотмоқда. Нега деганда, юртимиздаги мавжуд узлуксиз таълим тизими аҳолининг бешдан бир қисмини қамраган холос. Мазкур тизимни қамраб олган ёшлардан ташқари аҳолининг жуда катта қисми орасида таълим ва тарбия соҳасини тизимли йўлга қўйишни, бунда миллий қадриятларга содиқликка эришиш зарурати бугунги куннинг талабига айланди.

Айнан шу жиҳатдан таълим-тарбия бир томондан, юксак маданиятли жамиятни барпо этишда асосий негизи, иккинчидан эса, баркамол авлодни шакллантиришнинг маърифий воситаси бўлиб ҳисобланади. Бу соҳада юртимизда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислоҳотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда. Президентимиз томонидан ишлаб чиқилган “Янги Ўзбекистон 2030 стратегияси”да бу борадаги амалга оширилиши зарур бўлган фаолият йўналишлари аниқ-тиниқ белгилаб берилган.

Мазкур стратегияда келгуси 7 йиллик муддати ичида, яъни 2030 йилгача эришилиши кўзда тутилган мақсадлар ислоҳотларнинг бардавом бўлишидан далолат беради. Бу йўналишда боғчаларга бўлган эҳтиёж 2030 йилгача 100 фоизга қондирилади. Мактаб етишмовчилиги муаммоси эса 7 йил давомида ҳар йили 500 мингтадан ўқувчи ўрни, жами 2,5 миллионта қўшимча ўрин яратиш орқали ҳал қилиниши айтиляпти. Ўзбекистондаги боғча ва мактабларнинг ҳаммаси филтрланган ичимлик суви билан таъминланиши ваъда қилинди. Кейинги 7 йилда ҳар битта боғчада компютер синфи, ҳар битта мактабда эса бошланғич синф ўқувчиларининг ҳаммасига етадиган таълим планшетлари бўлади. Информатика фанини ўқитиш 1-синфдан бошланади. Барча мактабларга чет элдан чет тили

ўқитувчилари олиб келинади. Чекка ҳудудларда бепул мактаб автобуслари қатнай бошлайди.

Буларнинг барчаси мамлакатимизда сифатли таълимни амалга ошириш ва маърифатли авлодни тарбиялаш имкониятларини янада кенгайтиради, албатта.

Аммо Президент асарлари ҳамда мазкур йўналишдаги қарор ва фармонларда ушбу соҳадаги ишлар таҳлили билан бирга, қуйидаги муаммолар сақланиб қолаётганлигига алоҳида эътибор қаратилган. Хусусан:

биринчидан, ёш авлод онгига Ватанга содиқлик ва унинг тақдири учун дахлдорлик ҳиссини сингдиришга, уларда ёт ғоя ва қарашларнинг салбий таъсирига нисбатан мафкуравий иммунитетни шакллантиришга қаратилган чора-тадбирлар етарли даражада самара бермаяпти;

иккинчидан, миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш, шунингдек, экстремизм, терроризм ва бошқа бузғунчи ғояларга нисбатан муросасизликни шакллантириш юзасидан давлат органлари ва жамоат ташкилотларининг фаолияти ҳамон талаб даражасида эмас;

учинчидан, ўқувчи-ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш учун зарур бўлган маданий-кўнгилочар обектлар, мактабдан ташқари таълим муассасалари, шу жумладан, жойларда турли ижодий ва таълим тўгараклари, спорт сексияларининг етишмаслиги болаларнинг соғлом руҳда тарбияланишига ва тўғри ҳаёт йўлини танлашига салбий таъсир кўрсатмоқда;

тўртинчидан, ўқитувчи ва мураббийларнинг ижтимоий мавқеи ва нуфузи пасайиб кетганлиги, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириш тизими бугунги кун талабига мутлақо жавоб бермаслиги ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ҳамда мустақил дунёқарашини шакллантириш борасида жиддий муаммоларни келтириб чиқармоқда;

бешинчидан, ёшларнинг олий таълим муассасаларига қамраб олиниш даражаси пастлиги, етакчи хорижий олий таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлик етарлича йўлга қўйилмаганлиги малакали кадрларнинг етишмаслигига ва олиб борилаётган ислоҳотлардан кўзланган мақсадга тўлиқ эришилмаслигига сабаб бўлмоқда;

олтинчидан, соҳада қонун бузилиши ҳолатларининг сақланиб қолаётганлиги, шу жумладан, ёшларни қўллаб-қувватлашга ажратилаётган маблағларнинг мақсадли сарфланишида назоратнинг етарли даражада эмаслиги тизимли муаммоларни юзага чиқармоқда.

Буларнинг барчаси эса ўз навбатида, бир томондан, ёшларни амалга оширилаётган ислоҳотларни янада чуқурлаштириш жараёнларига фаол жалб этиш, уларнинг ҳуқуқ ва эркинлиги ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни таъминлаш, иккинчидан эса, уларнинг маънавий, маърифий ва интеллектуал даражасини юксалтириш, маданий савиясини ошириш, миллий қадриятларга содиқлигини янги босқичга олиб чиқиш борасидаги фаолиятни изчил давом эттиришни талаб қилади. Айни пайтда ёш авлодни юксак маънавий

қадриятлар асосида тарбиялаш, ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини ошириш, “оммавий маданият” ва ёт ғоялар таъсиридан асраш, уларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш энг устувор вазифалардан биридир.

Афсуски, кейинги йилларда таълим тизимида ўз ўрнига эга бўлган, дунёқараши кенг, ўз фуқаролик позициясида собит турадиган, ҳар томонлама баркамол ва маънавий етук ёшларни тарбиялашга хизмат қиладиган айрим ижтимоий-тарбиявий фанларнинг ўқув режаларидан чиқариб ташланиши, ўқув соатларининг кескин қисқартирилиши миллий тараққиёт жараёнларига дахлдорлик ҳисси ва фаол ватанпарварлик туйғуси сусайишига олиб келмоқда.

Айрим таълим муассасаларида бу соҳа билан боғлиқ ишларга иккинчи даражали вазифа сифатида қаралаётгани, ушбу йўналишдаги баъзи факультет ва кафедраларнинг қўшиб юборилгани, уларнинг сони қисқариб, таркиби эса ҳаддан зиёд кенгайиб кетгани натижасида мазкур тузилмаларни бошқариш ҳамда фаолиятини ташкил қилиш самарадорлиги пасайиб кетган.

Ижтимоий-тарбиявий фан вакиллари, профессор-ўқитувчилар фаолиятини ташкил қилишда ушбу соҳа хусусиятлари ва методологияси талаблари етарли даражада ҳисобга олинмаган, бу борадаги ўқув юкламаларида дарс соатлари ортиб кетган. Бу эса мазкур соҳадаги ўқитувчилар фаолиятининг самараси кескин пасайишига сабаб бўлмоқда.

Миллий ўзликни англаш ва мустаҳкамлаш жараёнларига турли ёт ғояларнинг салбий таъсири ортиб бораётган бугунги кун воқелиги Тараққиёт стратегияси билан боғлиқ янгиланиш суръатлари, жамиятимизнинг ривожланган давлатларга хос замонавий қиёфасини шакллантиришга қаратилган кенг қамровли ислоҳотлар билан биргаликда ижтимоий-тарбиявий фанлар бўйича илмий-тадқиқот ишларини амалга оширишни талаб қилмоқда.

Бугунги воқеликлар нуқтаи назаридан ижтимоий фанларнинг ўтган даври ортда қолди, сохта тушунча ва тамойилларга эҳтиёжманд воқелик йўқолди. Эндиликда нима оқ ва ниманинг қоралиги ҳам аён бўлди. Аслида, масала бунда эмас, чунки у давр ўтди, унинг ижтимоий фанлари ўтмишга айланди. Аммо ижтимоий фанларнинг ўзи ўзгардими? У ҳаётимизнинг барча соҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида янгиланиб бораётган жамиятимиз манфаатларига хизмат қиладиган, замонга мос, давр билан ҳамнафас ва бугунги ҳаёт талабларига жавоб бера оладиган фанларга айлана олдими? Шу соҳада хизмат қилаётганлар, яъни биз ўз тафаккуримиз, ҳаётга ва фанга муносабатимизни бугунги кун талабларига мос тарзда ўзгартира олдикми? Бу борада олиб борилаётган тадқиқотлар ва ҳимоя қилинаётган диссертацияларнинг “фойдали иш коэффиценти” қандай? Уларнинг қанчаси ҳозирги давр талабларига, янгиланаётган жамият эҳтиёжларига жавоб бера олади? Бу муҳим саволлар барчамизни ўйлантиради, безовта қилади, албатта.

Мазкур саволлар билан боғлиқ масалаларнинг бир неча жиҳати борки, бу аввало, шу йўналишдаги инкор ва янгиланиш диалектикасини тўғри тушуниш, ижтимоий фанларни давр талаблари даражасида ўргатиш, тадқиқотларни самарали ташкиллаштириш ва илмий кадрларнинг салоҳияти, энг асосийси, бу

соҳада хизмат қилаётган кишилар, яъни барчамизнинг дунёқарашимиз ва масъулиятни ҳис қилишимиз билан боғлиқлиги, шубҳасиз.

Ҳозирги кунда жаҳон тараққиётининг устувор хусусиятларига айланаётган глобаллашув жараёнлари, кенг миқёсли интеграция, фан-техника ҳамда ахборот технологиясининг беқиёс ривожланиши ҳам соҳага жиддий таъсир кўрсатмоқда. Бундай шароитда миллий ўзликни сақлаш, халқимизнинг азалий қадриятларини асраб-авайлаш ва келажак авлодларга омон-эсон етказиш, миқёси ҳар йили икки марта кўпайиб бораётган сон-саноқсиз ахборотлар дунёсида адашиб қолмаслик, бу борада ҳам “оқ ва қора”ни ажрата олиш кўникмасини шакллантириш ниҳоятда долзарб аҳамият касб этмоқда.

Шу билан бирга, бугунги дунё нафақат глобаллашиб ёки ахборотлашиб, балки технократлашиб ҳам бормоқда. Мутахасислар фикрича, бунинг натижасида шаклланаётган технократ инсон роботга ўхшайди, у кўпроқ вертуал дунёда яшайди, аста-секин бошқалардан узоқлашиб, жамиятдан ажрала бошлайди. Унга тарих нидолари, боболар ёди, халқи ва юртининг ўтмиши ҳамда келажаги олдидаги қарздорлик ҳисси бегона, қалбида бокира туйғуларга ўрин йўқ. У халқ достонларини ўқимайди, бахшиларнинг хонишларини тушунмайди, миллий қўшиқларимизни ҳиргойи қилолмайди, мумтоз мусиқаларимизни тинглаб, “сел бўлиб оқмайди”. У қаерда яхши яшаса, ўша ер унинг ватани, унга ҳеч ким тегмаса, ўз телефони ва компъютерлари дунёсига “кўмилиб” ўтириш учун шароит бўлса, бас.

Замонавий ижтимоий фанлар бу билан келиша олмайди. Агар у ўз тушунча ва тамойилларини халқ мақсадларига мослаштира оладиган, қонун ва категориялар ечимини давр талабларидан излайдиган ҳушёр ва огоҳ инсонларни тарбиялаш давр эҳтиёжи эканини англамаса, ҳақиқий ижтимоий фанларга айлана олмайди.

Шу муносабат билан таъкидлаш жоизки, жаҳон халқлари ижтимоий тафаккурида гуманитаризм ва технократизмнинг ўзаро муносабати, уларнинг ҳаётдаги ўрни ва аҳамияти масаласига доир турли хил қарашлар тарихи узоқ асрлардан буён давом этиб келмоқда. Бу борада “Техник билимлар ва аниқ фанларнинг кўлами ва таъсири ҳаддан ортиб кетмаяптими?”- деган хавотирлар билан бирга “Ижтимоий фанлар мавҳум ва амалий аҳамиятга эга эмас, шунинг учун уларнинг кераги йўқ”, каби иддаоларнинг тарихи ҳам худди шундай олис ўтмишдан бошланган.

Аслида, бу иккала жабҳа бир тананинг икки қисми, бир япроқнинг икки томони, қушнинг икки қаноти каби бир бутун, узвий боғлиқ ва ажралмасдир. Аниқ фанлар ривожи ва техник тараққиётсиз ҳар қандай жамият ҳаёти ва унинг келажагини тасаввур этиб бўлмагани каби, маънавият тамойиллари, ахлоқий қадриятлар ва эзгу ғоялар асосида баркамол авлодни вояга етказадиган, унинг дунёқараши ва тафаккурини шакллантирадиган ижтимоий фанлар, хусусан фалсафий билимларсиз ҳушёр ва огоҳ, бугунги дунёда рўй бераётган воқеалар моҳиятини тўғри англайдиган, уларга дахлдорлик ҳисси билан ёндошадиган замонавий инсонни тарбиялаб бўлмайди.

Бу эса, ўз навбатида, соҳа мутасаддилари ва мутахассисларининг давр эҳтиёжларини чуқур англаши, унинг талабларини тўғри тушуниши лозимлигини кўрсатади. Айни пайтда, мазкур соҳадаги фаолиятнинг барча йўналишларини қамраб олган ва 2023-2030 йилларга мўлжалланган махсус Дастур ишлаб чиқиш ва унда қуйидагиларни белгилаш зарурати етилган:

ўқув дастурларида назарда тутилган миллий қадрият ва анъаналарга оид тушунчаларни мустаҳкамлаш, ахлоқий меъёр ва тамойилларни ўзлаштириш бўйича таълим-тарбия, тарғибот ва ташвиқот ишларини тизимли ташкил қилиш, бу борада фаолият усулларини босқичма босқич такомиллаштириб бориш;

ўқувчи ва талабаларни миллий ўзликни англаш, халқимизнинг ўзига хос урф-одатларига ҳурмат руҳида тарбиялаш чораларини белгилаш;

ёшларни турли ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимоя қилиш ва уларга қарши курашишда маънавий-маърифий ва ғоявий-тарбиявий омиллардан самарали фойдаланиш имкониятини кенгайтиришга қаратилган механизмни шакллантириш;

таълим тизимида ижтимоий-тарбиявий фанлар мазмунининг реал ҳаёт, ёшлар маънавий эҳтиёжлари ва фаолият соҳалари билан боғлиқлигини таъминлаш, ўқув режалари ва дастурларини узвийлик ва узлуксизлик асосида тайёрлаш, мазкур фанларни ўқитишга тизимли ёндашиш;

таълим муассасаларидаги илмий-педагогик фаолият самарадорлигини янада ошириш ва маънавий-маърифий ишларнинг ғоявий асосларини мустаҳкамлаш ҳамда ушбу йўналишдаги илмий тадқиқотлар тизимининг академик илм-фан тараққиёти билан интеграциялашувини кучайтириш,;

ижтимоий-тарбиявий фанлар бўйича янги авлод ўқув адабиётларини яратиш ва уларни таълим-тарбия жараёнига тизимли татбиқ этиш, таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик, илмий ва ёрдамчи адабиётлар билан таъминлаш;

таълим тизими ва ундан ташқаридаги фаолиятда маънавий-маърифий йўналишдаги тадбирларни ташкил этиш, талабаларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш бўйича давлат ташкилотлари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва хусусий секторнинг ҳамкорлигини таъминлаш.

Ушбу масалаларнинг ижтимоий фанларни янги босқичга кўтариш эҳтиёжлари нуқтаи назаридан таҳлили соҳа мутахассислари масъулиятини ошириш билан узвий боғлиқ эканидан далолат беради. Бу борада ҳам нафақат жамият, балки илм-фан, хусусан ижтимоий фанлар янгиланиши ўз-ўзидан ва муқаррар тарзда, инсон модернизациясини тақазо этаётгани, шубҳасиз. Шу маънода, аллома Суқротнинг “Ўзгаларни ўзгартирмоқчи бўлган инсон, аввал ўзини ўзгартириши лозим” деган фикри бежиз айтилмаган.

Бу эса, асл ижтимоий фанларнинг асосларини ўрганиш қанчалик зарур бўлса, уларнинг бугунги глобаллашув, технократлашув ва ахборотлашув жараёнлари билан боғлиқ замонавий масалалари ҳам долзарб вазифаларини билиб олиш ва эришилган натижаларни ҳаётда қўллаш кўникмаларини ҳосил қилиш ҳам шунчалик муҳимлигидан далолат беради. Ижтимоий фанларнинг айрим категория

ва қонунлари мавҳум бўлиб қолган, дея уни ўрганмай қўйиш ёки ундан фойдаланмаслик хато бўлгани каби, баъзи мутахассисларнинг давр талабларини акс эттирмайдиган, ҳаётдан йироқ тушунчаларга ёпишиб олиши ва бундай позициядан воз кечмаслиги ҳам, худди шундай янглишлиги, шубҳасиз.

Кейинги йилларда бошқа соҳалар қатори, бу жабҳадаги янгиланиш ва ўзгариш, мавжуд масалалар моҳиятини англаш, долзарб вазифаларни аниқлаш ва уларнинг ечимини топиш масаласида ҳам янгича илмий парадигмалар шаклланмоқда. Халқимизнинг миллий тафаккури, ижтимоий фанларнинг эволюцияси ва динамикаси, умумий қонуниятлари ва ўзига хос хусусиятларини ана шу асосда чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш, унинг тушунча ва тамойиллари, ривожланиш йўллари ва самарали воситаларини аниқлаш имкони пайдо бўлди.

Бу эса, халқимизнинг асл тарихи ва мустақилликка эришиш жараёни, миллий тараққиёт йўлининг моҳияти ва аҳамиятини чуқур ўрганиш, аҳоли, айниқса ёш авлод тафаккурида истиқлол ғоялари, Ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуларини тарбиялаш энг устивор ва масъулиятли вазифамизга айланганидан далолат беради. Давр талаби шундай, ижтимоий фанларнинг модернизацияси ва уларни миллий тараққиётнинг муҳим омилига айлантириш эҳтиёжлари ҳам барчамиздан шуни талаб қилмоқда.

Адабиётлар рўйхати:

Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022 йил

“Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. http://www.president.uz/uz/lists/view/

POSTGUMANISTIK KELAJAK: ONGNI RAQAMLASHTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI

Ne’matov Zokirjon Muhiddin o’g’li
O’zMU o’qituvchisi

Inson abadiy yashashi mumkinmi? Asrlar davomidan insoniyatni aynan shu savol o’ylantirib kelgan. Ushbu maqsadda yaratilgan alkimyo kabi sohalar bir qator fanlarning rivojlanishiga zamin yaratgan bo’lsada, hali-hanuz abadiy hayotga erishilgani yo’q.

Transgumasizm falsafasiga ko’ra *homo sapiens* deb ataluvchi odamlarning hozirgi shakli evolutsiyaning yakuni emas, balki postgumanistik hayotga o’tishda bir bosqich sifatida ta’riflanadi. Postgumanistik hayotga olib boruvchi yo’llar sifatida ko’pincha farmasevtik, genetik yoki inson ongining komputerga yuklanishi kabi yo’nalishlar ko’rsatiladi.[1]

[1] Bostrom, Nick. “A History of Transhumanist Thought.” Journal of Evolution and Technology 14, no. 1 (2005): 1–25.

Yuqoridagi yo’nalishlardan hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgani ongning yuklanishi (*mind uploading*) hisoblanadi. Ong yuklash deganda inson ongini komputer qattiq diskiga ko’chirib o’tkazish nazarda tutiladi. Ong yuklash jarayoni bir necha muammolarni o’ziga qamrab olgan bo’lib, ularni mos ravishda falsafiy va texnik muammolarga ajratishimiz mumkin. Texnik muammolar ong emulatsiyasini yaratish, ongni skanerlar, ongdagi har bir neyronning joylashuvi, ularning funksiyalarini va ma’lum jarayonlarga qanday javob qaytarishini aniqlash kabi muammolarni qamrab olgan holda juda rivojlangan komputer texnologiyalarini talab qiladi. Kurzweilning 2005 yilda olib borgan hisob-kitoblariga ko’ra ong yuklash texnologiyasi 2030-yillarga kelib yaratilishi mumkin.[1] Bugungi kundagi Sun`iy Intellekt texnologiyalarining jadal tarzda rivojlanayotganini kuzatgan xolda shuni aytish mumkinki, ong yuklashga qodir texnologiyalar yaratilishi ham yaqin kelajakda yuz berishi kutilmoqda.

Ongni yuklashning falsafiy muammolari qatoriga, ongni ta’riflash muammosi, shaxsning identikligi, yuklangan ong identikligi, determenizm, etikaviy muammolar kabi masalalarni qamrab oladi.[2] Transgumanistlar ong yuklash jarayoniga ijobiy yondashgan holda, insoniyatning kelajak hayot tarzini raqamli borliqda ko’rmoqdalar. Ammo bu jarayonda yuzaga keladigan muammolardan biri insonning shaxsiyati, o’zligi, “men”i saqlanish yoki saqlanmasligidir.

Shu nuqtada eng muhim savollardan biri insonning “o‘zligi” (selfhood) nima bilan belgilanadi degan masaladir. Ongni komputerdagi raqamli muhitga ko‘chirish mumkin bo‘lsa-da, shaxsning o‘zi aynan shu raqamli nusxada davom etadimi yoki u faqat biologik asosda shakllanishi mumkin bo‘lgan hodisami — bu borada bir fikrga kelish qiyin. Shaxsiyatni ong jarayonlarining yig‘indisi sifatida tushunadigan reduksionistik yondashuvga ko‘ra, neyron faolliklari to‘liq takrorlansa, o‘zlik ham takrorlanadi. Ammo fenomenologik yoki ekzistensialist falsafaga ko‘ra, insonning “men”i faqat ong hodisalari bilan emas, balki tanaviy tajriba, jismoniy mavjudlik, vaqt va makonga joylashuv, hatto boshqalarning bizni qanday qabul qilishi bilan uzviy bog‘liqdir.[3] Demak, ongni yuklash jarayonida shaxsiyatning to‘liq ko‘chishi haqida qat’iy ishonch hosil qilish mushkul.

Shuningdek, ong yuklash jarayonida paydo bo‘ladigan muammolardan yana biri — ko‘chirilgan ong asl shaxsning davomi bo‘ladimi yoki uning nusxasi sifatida mutlaqo yangi mavjudot paydo bo‘ladimi, degan masaladir. Agar raqamli ong faqatgina identik informatsion tuzilma sifatida mavjud bo‘lsa, u o‘zini asl shaxs deb o‘ylashi mumkin, biroq hodisa ontologik jihatdan asl “men”ning yo‘qolishi bilan yakunlanishi ehtimoldan xoli emas. Shunday ekan, ko‘chirilgan ongning “identikligi” (identity) masalasi texnologik emas, balki chuqur falsafiy muammo bo‘lib qolaveradi.

Bundan tashqari, ongning biologik cheklovlardan xoli bo‘lishi odamning mavjudlik mazmuniga qanday ta’sir qilishi ham alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzudir. Insonning qadri ko‘pincha vaqtning cheklanganligi, hayotning nihoyaliligi, o‘limning muqarrarligi orqali ma’no kasb etadi. Agar ong abadiylikka erishsa, ekzistensial ma’noda yangi muammolar — masalan, ma’no yo‘qolishi, doimiylikka moslasha olmaslik, raqamli

[1] Kurzweil, R. (2005) The Singularity Is Near: When Human Trancend Biology, Viking, New York.

[2] Chalmers, David. The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. Oxford: Oxford University Press, 1996.

[3] Heidegger, Martin. Being and Time. 1927.

abadiyatning ma`no jihatidan bo‘shligi kabi holatlar paydo bo‘lishi ehtimoli katta. Shu sabab, ayrim faylasuflarning fikricha, ong yuklash orqali erishiladigan abadiyat insonning hayotini ma’no bilan boyitishi emas, balki uni mutlaq noaniqlikka yetaklashi ham mumkin.

Etik nuqtai nazardan qaraganda esa, ong yuklash texnologiyasining jamiyatga ta’siri, unga kimlar ega bo‘lishi, kimlarning bundan chetda qolishi, raqamli onglar huquqiy maqomi, ular ustidan kim mas’ul bo‘lishi kabi masalalar yuzaga chiqadi. Inson va raqamli ong o‘rtasidagi ierarxiya yoki tenglik prinsiplari hal qilinmasa, yangi shakldagi axloqiy ziddiyatlar kelib chiqishi tabiiy.

Bundan tashqari yuklangan ongning bioinjinering texnologiyalari asosida yaratilgan tanaga qayta ko’chirib o’tkazish hodisasi yuz berishi kutilmalardan biri hisoblanib bu hodisaga inson klonlarining yaratilishi yoki inson hayotining davomiyligini biologik muhitda ta’minlash deya postgumanistik tarzda yondashish mumkin.

Xulosa qilganda, postgumanistik kelajak insoniyat oldiga ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda, chuqur falsafiy, ontologik va axloqiy savollarni ham qo‘ymoqda. Ongni yuklash texnologiyasi orqali abadiy hayotga intilish insonning qadimiy orzusi bo‘lsa-da, ushbu orzuning amalga oshishi inson o‘zligini qanday anglashiga, jamiyatning qanday tuzilishiga va mavjudlikka berilgan ma’noga tubdan ta’sir qilishi mumkin. Shunday ekan, postgumanizm faqat texnik taraqqiyot emas, balki insonning kimligi va mavjudlik mazmuni haqidagi munozarani yanada chuqurlashtiruvchi falsafiy konsepsiya sifatida o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Bostrom N. A History of Transhumanist Thought // *Journal of Evolution and Technology*. – 2005. – T.14, №1. – B. 1–25.

Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

Chalmers D. J. The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

Chalmers D. J. The Character of Consciousness. – Oxford: Oxford University Press, 2010.

Heidegger M. Being and Time / tarj. J. Macquarrie, E. Robinson. – Oxford: Blackwell, 1927.

Husserl E. Ideas Pertaining to a Pure Phenomenology and to a Phenomenological Philosophy. – The Hague: Martinus Nijhoff, 1913.

Kurzweil R. The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology. – New York: Viking, 2005.

Merleau-Ponty M. Phenomenology of Perception. – London: Routledge, 1945.

Parfit D. Reasons and Persons. – Oxford: Oxford University Press, 1984.

Sartre J.-P. Being and Nothingness. – New York: Washington Square Press, 1943.

PSIXOLOGIYA FANINING KELIB CHIQISHI TARIXI

Nig`matova (Qosimova) Shohsanam Nabijon qizi
O`zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituchisi,
Psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori

Psixologiya eng qadimiy fanlardan bo'lib, bundan 2,5 ming yil ilgari jon haqidagi ta‘lim ot sifatida vujudga kelgan. VII—V asrlarda o 'tgan qadimgi grek faylasuflarining asarlaridayoq kishining jonli va ruhiy hayoti to 'g 'risida juda ko'p xilma-xil fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Bu m asalalar qadimgi xitoy va qadimgi hind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o‗rin tutadi. Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta ‘lim otni birinchi m arta Aristotel (eram izdan oldingi 384—322-yillar) «Jon haqida» degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo'lgan psixologiyani vujudgakeltirgan kishi yoki psixologiya fanining «otasi» hisoblanadi.Uzoq vaqtgacha psixologiya m ustaqil fan bo 'lmay , falsafa tarkibiga kirib kelgan. Alohida ilmiy fan m a ‘nosidagi «psixologiya» termini ham yo'q edi. Bu termin XVI asr oxirida paydo bo'lib, XVII asr o'rtalaridan boshlab hamma ishlatadigan bo`lib qoldi. Psixologiya XVIII asrning oxirida va XIX asrning boshlaridagina mustaqil fan bo'lib shakllandi. Qadimgi zamonlardan to bizning zam onimizgacha psixologiya sohasida idealizm bilan materializm o'rtasida kurash bo'lib keldi. Psixologiyadagi bu kurash hamisha sinfiy kurashning in‘ikosi bo'lib keldi. Psixika, ong nima degan masala, shu bilan birga, odam organizmida psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlar o'rtasidagi munosabat masalasi ham shu kurashda markaziy o 'rinni egallab keldi.Psixika va ong haqidagi ta ‘limot idealistik va vulgar materialistik qarashlar hamda nazariyalarga qarshi kurashda chiniqa bordi.Idealistlar, odamning psixik hayotini odam tanasi bilan qandaydir noma‘lum yo'l bilan qo'shilib , odamda gavdalangan, jismi yo´q moddiy bo'lmagan alohida bir narsaning, ya‘ni ruh yoki jonning zo h ir bo'lishi deb hisoblaydilar. (Sizda va adabiyotda ham «odamning joni» va «odamning ruhi» degan termin ishlatamiz. Ammo bu terminlarni biz m oddiy bo'lmagan alohida bir narsani ifodalash uchun emas, balki «psixika» so'zini qay ma‘noda ishlatsak, o'sha ma‘noda ishlatamiz). Idealistik psixologiya namoyandalari psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati haqidagi masalani talqin qilishda yo psixofizik parallelizmyoki psixofizik o'zaro ta‘sir nuqtayi nazarida turadilar. Psixofizik parallelizm tarafdorlari fiziologik va psixik hodisalar birbiriga bog'liq bo'lmagan holda yonma-yon (parallel ravishda) voqe bo'ladi, deb hisoblaganlar. Bu qarashga ko'ra, odam ning hayot faoliyati qo'shilib ketmaydigan ikki oqim — organik hayot bilan psixik hayotning harakatlanishidaniborat emish.Psixofizik o'zaro ta‘sir tarafdorlari ta ‘lim otiga k o 'ra, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z tabiati e‘tibori bilan har xil b o‗lsa-da, bir-biriga o´zaro ta‘sir qiladi. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti. Jamiyki materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to organik materiyaning yuksak hamda murakkab shakli - inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyatiga, ya'ni turli ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Jonsiz tabiatda harakat jism yoki moddalarning o‘zaro mexanik, fizik va kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Voqelikdagi ta'sirni aks etish qobiliyati-materiyaning

umumiy xususiyatidir. Lekin olamda tirik va o‘lik tabiatni aks etishi turlichadir. Tirik materiyaning tashqaridan ta'sir etayotgan moddalar almashinuviga javob berishi ta'sirlanuvchanlik deb ataladi. Oddiy ta'sirlanuvchanlik barcha o‘simliklarga xos. Evolyusiya jarayonida organizmlar tashqi muhit bilan munosabatlarining umumiy turini o‘zgarishi natijasida ta'sirlanuvchanlikning sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishi sezuvchanlikni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. A.N.Leontevning faraziga asosan sezuvchanlik "genetik shunday ta'sirlanuvchanlik-ki tashqi muhit ta'siriga organizmni yo‘naltiradi va buning natijasida organizm tashqi muhitida signal vazifasini bajaradi. Demak, sezuvchanlik shunday ta'sirlanuvchanlik-ki, uning natijasida hayot uchun zarur ta'sirlar signallashadi. Sezuvchanlikning namoyon bo‘lishi,psixikaning paydo bo‘lishiga ob'ektiv biologik belgi sifatida xizmat qiladi. Psixik ta'sirlanuvchanlikning o‘ziga xos yuqori sifat o‘zgarishi - sezuvchanlik-psixik aks ettirishning oddiy turi yuzaga kelganida boshlanadi. hayvonlar evolyusiyasi jarayonidagi psixikaning sifat o‘zgarishlarini A.N.Leontev o‘zi ifodalagan psixik rivojlanish bosqichlariga asos qilib oldi.

Xulosa qilib aytganda psixika va ong har bir odamning tug´ilish paytidan boshlab, butun umr bo‘yi o‘sib boradi. Odam ongining yoshga qarab o‘zgarish sababi nimada, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Turmushdagi kuzatishlar va biologlar, jamiyatshunoslar, psixologlar va pedagoglarning ko‘pgina ilmiy tadqiqotlari bu savolga quyidagicha javob qaytarishimiz ga asos beradi: har bir kishi, onining yoshga qarab taraqqiy etishi shu kishi organizmining o‘sishiga, iltimoiy muhit ta´siriga, ta´lim va tarbiyaga, shuningdek, odamning o‘z faoliyatiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya

2. G‘oziyev E ―Umumiy psixologiya‖ 1-kitobi Toshkent 2004

3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O ‗SMIRLARNING SOG‗LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

4. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR VA MEDIANING ROLI.

Niyatov Olimxon Nodirjonovich
Unveristy of Menegment and future Technologies
Moliya va Moliyaviy texnalogiyalar yo’nalishi talabasi

Zamonaviy globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida hal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Raqamli platformalar, internet tarmoqlari, ijtimoiy media va mobil ilovalar

insonlar o‘rtasidagi muloqot, bilim almashinuvi va axborot tarqalish tezligini keskin oshirdi. Shu bilan birga, media makonning kengayishi va yangi kommunikatsiya vositalarining paydo bo‘lishi inson ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ham kuchaytirmoqda[1].

Bugungi raqamli davrda axborot oqimining nazoratsiz ko‘payishi, yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ media kontent va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligiga jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga zararli g‘oyalar, ekstremistik axborotlar yoki ma’naviy qadriyatlarga zid materiallarning kirib kelishi ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash jarayonini yanada muhimlashtiradi.

Shu sababli, AKTdan samarali va xavfsiz foydalanish, media madaniyatni rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish hamda ma’naviy qadriyatlarni himoya qilish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu doirasida AKTning jamiyatga ta’siri, media makonning imkoniyatlari va xavflari, shuningdek, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritib beriladi.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadal rivojlanib, inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internetning keng ommalashishi, smartfonlarning kundalik hayotdagi o‘rni, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirining kuchayishi axborot almashinuvi jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Bu jarayon jamiyatga juda katta imkoniyatlar yaratgan bo‘lishiga qaramay, yangi xavf-xatarlarning ham paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Xususan, media makonning kengayishi va nazoratsiz axborot oqimlari shaxs va jamiyatning ma’naviy xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda[2].

Shu bois axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tahlil qilish, media makondagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni o‘rganish va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

AKTning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bugungi kunda internet nafaqat axborot olish vositasi, balki iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan[3].

Birinchidan, raqamli texnologiyalar kommunikatsiya jarayonini tezlashtirdi. Oldin bir necha kun davom etadigan axborot uzatish jarayonlari endi soniyalar ichida amalga oshadi. Bu esa biznes, ilmiy izlanishlar va xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirmoqda.


Ikkinchidan, AKT insonlarning o‘qish va ishlash uslublarini o‘zgartirdi. Onlayn ta’lim, masofaviy ish, raqamli xizmatlar ko‘lami kengaydi. Bu yutuqlar jamiyatga qulaylik yaratish bilan birga, har bir insonni axborot oqimiga chuqur bog‘lamoqda.

Uchinchidan, AKT iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylandi. Raqamli iqtisodiyot ulushi oshib borayotgani, elektron to‘lovlar, internet savdo, logistika tizimlarining rivoji buning isbotidir.

Shu bilan birga, AKTning jadal rivoji yangi muammolap — axborot manipulyatsiyasi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va ma’naviy tahdidlar kabi masalalarni ham kun tartibiga chiqarmoqda.

Bugungi kunda media makon global xarakterga ega bo‘lib, unda turli g‘oyalar, mafkuralar, yangiliklar, reklama va turli kontent turlari doimiy ravishda harakatda. Media nafaqat voqealarni aks ettiradi, balki jamiyat fikrini ham shakllantiradi[4].

Quyida medianing ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko’rib chiqamiz;



1-rasm. Medianing ijobiy ta’siri.

Bugungi media makonda har kim axborot tarqatuvchi subyektga aylangani sababli nazoratsiz va zararli kontentning tarqalish tezligi juda yuqori. Bu esa ma’naviy xavfsizlikka bevosita tahdid soladi. Ma’naviy xavfsizlik orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlari, milliy merosi, tarixiy xotirasi, madaniy o‘zligini tashqi va ichki zararli axborotlar, mafkuraviy bosimlar, g‘arazli g‘oyalar ta’siridan himoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

A.E. Ashurov, S.X. Ziyamatova **“**Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni” b.296-300 https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/index.

Abdullaev Akhrorjon Axadjon o‘g‘li. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining muammolari va yechimlari. Raqamli texnologiyalarning yangi O‘zbekiston rivojiga ta’siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi june 21, 2023 kokand university.

Z.Aripova., T.Nurmuxamedova “Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga ta’siri” Yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz elektron jurnali b.577-580, 2025-yil 6-son.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA KONSTITUTSIYANING ROLI

Norboboyev Baxtiyor Jaxongir o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Asosiy qism. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida Konstitutsiya davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sohaning modernizatsiya qilinishida asosiy normativ poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, konstitutsiyaviy islohotlar “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining markazida turib, inson manfaatlari, erkinliklari va ijtimoiy adolatni davlat siyosatining bosh mezoniga aylantirgan [1].

So‘nggi o‘n yillik davomida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o‘zgarishlar inson huquqlari, gender tenglik, mahalla tizimi, sud-huquq mustaqilligi, parlament nazorati, mulk daxlsizligi va ijtimoiy himoya kabi sohalarda sezilarli natijalar berdi. Konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” tamoyilining belgilanishi aholining ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik va ijtimoiy yordamga oid konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamladi. Sarsenovning fikricha, ijtimoiy davlat modeli zamonaviy jamiyatda tenglik va barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi [2].

Mahalla institutining Konstitutsiyada alohida maqomga ega bo‘lishi ham Yangi O‘zbekistonning demokratik modernizatsiyasi jarayonidagi eng muhim yangiliklardan biridir. Bu tizim aholining ehtiyojlarini joyida aniqlash, ijtimoiy muammolarni tezkor hal etish va davlat bilan jamiyat o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega. Nemirovskaya o‘z tadqiqotlarida mahalla kabi an’anaviy institutlar demokratik o‘zgarishlar jarayonida sezilarli ijobiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi [3].

Davlat hokimiyatining tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni kuchaytirish, parlamentning nazorat vakolatlarini kengaytirish, hukumatning jamiyat oldidagi hisobdorligini kuchaytirish va sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘ldi. Jahon banki ekspertlari institutsional islohotlarning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi hal qiluvchi ahamiyatini yuksak baholaydi [4]. Bu o‘zgarishlar davlat boshqaruvini samarali va ochiq tizimga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Yangi Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik masalalarining alohida mustahkamlanishi ham hozirgi global muhitda dolzarb hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik huquqlarni himoya qilish bo‘yicha belgilangan yangi konstitutsiyaviy normalar O‘zbekistonda barqaror rivojlanish tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv xalqaro ekologik standartlarga muvofiq bo‘lib, Aralbo‘yi inqirozi kabi mintaqaviy muammolarni hisobga oladi [5].

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilm-fan, innovatsiya va ta’lim sohasiga oid kafolatlarning kuchaytirilishi zamonaviy bilimga asoslangan jamiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida yosh olimlar va tadqiqotchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy salohiyatni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu haqda Yuldashev zamonaviy jamiyat taraqqiyotida huquqiy modernizatsiyaning hal qiluvchi o‘rnini ta’kidlaydi [6].

Shuningdek, xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlik erkinligini kengaytirish va iqtisodiy muhitni liberallashtirishga qaratilgan normalarning mustahkamlab qo‘yilishi iqtisodiy islohotlarning natijadorligini oshirdi. Monopoliyaga qarshi siyosat, biznes yuritishni yengillashtiruvchi mexanizmlar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish tizimining takomillashuvi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida Konstitutsiyaning roli davlat va jamiyatning barcha sohalarida chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun strategik-huquqiy platforma yaratishdan iboratdir. U o‘z mazmuni bilan mamlakatning demokratik qadriyatlarga tayanishini, inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishini va adolatli jamiyat barpo etish yo‘lidagi aniq maqsadlarni belgilab bermoqda. Shu bois, Konstitutsiya

O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalarini belgilovchi, zamonaviy va barqaror davlatni shakllantiruvchi asosiy siyosiy-huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida Konstitutsiya davlat va jamiyatning barcha sohalarida islohotlarni tizimli amalga oshirish uchun mustahkam normativ-huquqiy poydevor sifatida xizmat qilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalla institutining konstitutsiyaviy maqomini mustahkamlash, sud mustaqilligi va parlament vakolatlarini kengaytirish orqali Yangi O‘zbekistonning demokratik modernizatsiyasiga asos yaratdi.

Shuningdek, Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik, ta’lim va ilm-fan rivoji, innovatsiya va iqtisodiy erkinlikni ta’minlovchi normalarning mustahkamlanishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv Konstitutsiyani nafaqat huquqiy, balki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarida markaziy instrumentga aylantirdi.

Shu bilan, Konstitutsiya Yangi O‘zbekistonning demokratik qadriyatlar, adolat, oshkoralik va inson manfaatlari asosida rivojlanishini ta’minlovchi strategik-huquqiy hujjat sifatida o‘zining beqiyos ahamiyatini tasdiqlamoqda. Bu esa mamlakatning yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishini, jamiyat va davlat o‘rtasida mustahkam muvozanatni ta’minlashni va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Karimov, A. (2021). *Constitutional reforms in Uzbekistan: Democratic transformation and governance modernization*. Tashkent: Legal Research Institute.

Nemirovskaya, O. (2019). *Community governance and traditional institutions in Central Asia*. Central Asian Social Studies Journal, 7(2), 45–60.

Sarsenov, B. (2020). *Social state concepts in modern governance systems*. Astana: Eurasian Policy Center.

UN Human Rights Council. (2022). *Human Rights Report: Uzbekistan 2022*. Geneva.

World Bank. (2018). *Institutional reforms for sustainable economic development*. Washington, DC: World Bank Publications.

Yuldashev, D. (2017). *Legal modernization processes in Uzbekistan*. Journal of Comparative Law, 12(4), 66–75.

MIGRATSIYA VA IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MADANIY INTEGRATSIYANING O‘RNI

Norov Shaymardon Omonovich
International school of finance technology and science instituti tadqiqotchisi

Global miqyosdagi demografik harakatlar, xususan, mehnat migratsiyasi zamonaviy jamiyatlarning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy tuzilmasini ham o‘zgartirib bormoqda. O‘zbekistonda bu jarayon tobora ommaviy tus olib, davlat va jamiyat oldida

murakkab masalalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda 1,3 milliondan ortiq fuqarolarimiz xorijda, asosan Rossiya, Qozog‘iston va Turkiyada mehnat qilmoqda[1; 3]. Biroq bu raqamlar ortida yotgan asosiy muammo mehnat migrantlarining xorijiy jamiyatga nafaqat iqtisodiy, balki madaniy integratsiyasi yetarli darajada chuqur tahlil qilinmaganidir. Xususan, madaniy integratsiya bu migrantlarning yashayotgan muhitga ijtimoiy moslashuvi, qabul qiluvchi jamiyat madaniy va axloqiy normalarini ichki ong darajasida anglab, ularni hurmat qilishi, ayni paytda, o‘z milliy qadriyatlaridan voz kechmagan holda barqaror ijtimoiy muhitda yashay olishini anglatadi. Ijtimoiy falsafa doirasida bu jarayon “begonalik” va “uyda bo‘lish” dialektikasi asosida tahlil qilinadi. Nemis faylasufi M.Heidegger bu holatni ontologik jihatdan izohlar ekan, “inson o‘zini “uyda” his qilmasa, u o‘zligini to‘liq ifoda eta olmaydi, deb ta’kidlaydi”[2; 136]. Migrantlar esa yangi ijtimoiy makonda aynan mana shu “uyda bo‘lmaslik” hissiyotini boshdan kechiradi. Bu hissiyot ijtimoiy aloqalardan uzilish, ruhiy bosim, ishonchsizlik, madaniy izolyatsiya va hatto radikalizmga olib boradigan ijtimoiy begonalashuvga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, madaniy integratsiya faqatgina til o‘rganish yoki mehnatga yaroqlilik emas, balki migrantning ijtimoiy “insoniyligini” qayta tiklash vositasi sifatida qaralishi kerak.

Madaniy integratsiya — bu nafaqat migrant tomonidan amalga oshiriladigan jarayon, balki qabul qiluvchi jamiyatning ham tayyorgarligini talab qiluvchi ikki tomonlama sotsial harakatdir. J.Habermasning kommunikativ harakat nazariyasiga ko‘ra, “haqiqiy ijtimoiy integratsiya muloqot, tushunish va kelishuv asosida amalga oshadi”[3; 212]. Shu bois, migrantlar bilan emas, balki ular haqida qabul qiluvchi jamiyatda qanday fikr shakllanishi, ularning kimligi va qadriyatlariga qanday munosabatda bo‘lishi ham madaniy integratsiya muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. R.Tursunovning “Ijtimoiy migratsiya nazariyasi” asarida migratsiya fenomeni asosan iqtisodiy va demografik nuqtai nazardan yoritilgan. Biroq, unda “madaniyat masalasi ikkilamchi, yondosh omil sifatida talqin qilingan”[4; 71]. Bu yondashuv tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni talab etadi, chunki har qanday ijtimoiy integratsiya, ayniqsa, chet elda yashash sharoitida, madaniy va axloqiy moslashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. Migrantlarning ijtimoiy moslashuviga to‘siq bo‘layotgan omillar (til bilmaslik, madaniy tafovutlar, huquqiy savodsizlik) ularning ijtimoiy ishtirokini kamaytiradi va bu, o‘z navbatida, qabul qiluvchi jamiyatdagi barqarorlikka tahdid soladi.

Ayni paytda mavjud “Ishga marhamat” monomarkazlarida til va kasbga tayyorlash ishlari olib borilayotgan bo‘lsa-da, bu yetarli emas. Ular bazasida madaniy integratsiya bo‘yicha maxsus bo‘limlar tashkil etilishi, xorij madaniyati, ijtimoiy urf-odatlar, dinlararo bag‘rikenglik, huquqiy mas’uliyat, va axloqiy me’yorlar bo‘yicha treninglar o‘tkazilishi lozim. Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumati “UzMigrant” nomli yagona raqamli platforma ishlab chiqib, bu yerda nafaqat hujjatlarni rasmiylashtirish, balki madaniy-ma’naviy kontentlar joylashtirilsa, bu ijobiy samara beradi. O‘zbek migrantlarining farzandlari xorijda tug‘ilib o‘sayotgan bir davrda ularning milliy qadriyatlar, til va madaniyatdan ajralib qolmasligi uchun diaspora asosida o‘zbek maktablari, madaniy markazlar, milliy bayramlar va festival tadbirlari o‘tkazilishi zarur. Bu faqat madaniy ko‘ngilochar faoliyat emas, balki migrantlarning ijtimoiy barqarorlikda qatnashuvini

ta’minlovchi omildir. Aks holda, begonalashgan ikkinchi avlod ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Madaniy integratsiyaning asosiy vazifasi turli madaniy muhitlar orasida o‘zaro tan olish, bag‘rikenglik va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash orqali jamiyatda konsensusli axloqiy-madaniy maydonni shakllantirishdir. S.Alimovning tadqiqotida ta’kidlanishicha, “migratsion jarayonlar asosan ijtimoiy-axloqiy muhitning transformatsiyasiga olib keladi. Migrantlar retsipiyent jamiyatning axloqiy strukturasiga kirar ekan, ular o‘zlari bilan boshqa madaniy tasavvurlar, dunyoqarash va axloqiy me’yorlarni olib keladilar”[5; 55]. Bu esa ijtimoiy muhitda yangi ziddiyat va ayni vaqtda yangi uyg‘unlik imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Sh.Boybekova esa o‘zining “Ma’naviy qadriyatlar – ijtimoiy barqarorlik omili” nomli tadqiqotida ma’naviy qadriyatlar barqaror jamiyatning ichki asosini tashkil etishini asoslagan. U “madaniyatni ijtimoiy barqarorlikni saqlovchi kuch sifatida talqin qilarkan, ayni paytda ushbu qadriyatlarning migratsion muhitda qanday uzatilishi, saqlanishi yoki o‘zgarishi haqida chuqur tahlil bermaydi”[6; 72]. Bu esa bizni qadriyatlar mobilligini yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga undaydi: qadriyatlar nafaqat milliy doirada, balki transmilliy darajada uzatiluvchi ijtimoiy kapitaldir. Shuningdek, S.Ashurova barqarorlik va beqarorlik jarayonlarini jamiyatdagi epistemologik va ontologik o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Uning yondashuvi “beqarorlikni faqat salbiy fenomen emas, balki yangilanish, ijtimoiy ong transformatsiyasiga olib keluvchi zarur bosqich sifatida talqin qiladi”[7; 65]. Bu jihat madaniy integratsiyaning faqat ijobiy emas, balki murosaviy, kompleks yondashuvni talab qiluvchi hodisa ekanligini isbotlaydi. Ya’ni integratsiya jarayoni ijtimoiy silliqlikda emas, balki o‘zaro madaniy tarangliklarni boshqarish va uyg‘unlashtirish orqali barqarorlik yaratadi.

Migratsiya va madaniy integratsiya o‘rtasidagi nisbat ijtimoiy adolat, tan olish, identitet va o‘zaro mas’uliyatni o‘z ichiga olgan qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Shunday ekan, madaniy integratsiyani faqat iqtisodiy yoki madaniy moslashuv emas, balki qadriyatlar sathidagi falsafiy uyg‘unlashuv sifatida tushunish talab etiladi. Madaniy integratsiya zamonaviy jamiyatlarda migratsiya oqibatida yuzaga kelgan axloqiy-madaniy fragmentatsiyani bartaraf etuvchi asosiy ijtimoiy barqarorlik mexanizmidir. Bu integratsiya o‘zining chin mohiyatida qadriyatlar uyg‘unligi, madaniy tan olish, identitetga hurmat va jamiyatning o‘zini “boshqacha”lar orqali yangilashga tayyorligi orqali namoyon bo‘ladi.

Madaniy integratsiya ikki tomonlama jarayondir: bir tomondan, migrantlar mahalliy qadriyatlar, me’yorlar va institutlarni qabul qilishlari zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qabul qiluvchi jamiyatlar ham madaniy xilma-xillikni tan olish va unga nisbatan bag‘rikenglik bilan yondashishlari lozim. Ushbu o‘zaro moslashuv barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga, ziddiyatlarning oldini olishga va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksincha, madaniy ajralish, ksenofobiya va ijtimoiy chetlab qo‘yish holatlari jamiyatda qarama-qarshiliklar, marginalizatsiya va ijtimoiy ishonchsizlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, nazarimizda, migratsiya siyosatida faqat iqtisodiy va xavfsizlik masalalari emas, balki madaniy integratsiyani rag‘batlantiruvchi strategiyalar ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston sharoitida migratsiyaning milliy ong va identifikatsiyaga ta’siri nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali. Bir tomondan, tashqi mehnat migratsiyasi orqali yurtimiz fuqarolari iqtisodiy daromad oladi va oilaviy sharoitini yaxshilaydi. Boshqa tomondan, bu jarayonda madaniy tafakkur o‘zgarishi, assimilyatsiya, milliy qadriyatlardan uzilish holatlari yuzaga keladi. Z.A.Tolametova bu borada shunday yozadi: “O‘zbek muhojirlari faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki madaniy va ma’naviy jihatdan ham yangi muhitga taslim bo‘lish xavfi ostida qolmoqda”[8; 113]. Shu bilan birga, yuqori malakali mutaxassislarning migratsiyasi “aqlli migratsiya” jarayonini ham o‘zida mujassam etadi. Bu jarayonda, agar migrantlar ta’lim olib, yurtiga qaytsa, ular xorij tajribasini mahalliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirishi mumkin. Ammo aksincha holda, intellektual salohiyatning yo‘qotilishi kuzatiladi. Buni inson kapitalining chetga oqib ketishi deb ham atash mumkin.

Binobarin, N.Muminov va O.Yegamberdiyeva bu masalada shunday yozadilar: “Ta’lim migratsiyasi orqali inson kapitali rivojlansa-da, uning vataniga qaytishini ta’minlash siyosati kuchli bo‘lmasa, mamlakat salohiyatida nosog‘lom bo‘shliq paydo bo‘ladi”[9; 237-240]. Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan, migratsiyani ijobiy kuchga aylantirish uchun davlat va jamiyat inson ongi, milliy identifikatsiya va madaniy o‘zligini saqlash mexanizmlarini yaratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, madaniy integratsiya migratsiya oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy o‘zgarishlarni muvozanatli yo‘naltirish, jamiyat ichidagi turli guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunishni mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat ijtimoiy sarmoya va fuqarolik birligini kuchaytiradi, balki inson huquqlari va madaniy xilma-xillik tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyat qurilishiga ham zamin yaratadi.Xulosa sifatida, madaniy integratsiya faqat ijtimoiy tuzumlarni emas, balki inson ma’naviyati va axloqiy ongini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan falsafiy jarayondir. U ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, davlat siyosati, jamoatchilik tafakkuri va shaxsiy harakatlar birligida samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

AOAKA. Matbuot anjumani bayoni. O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. – T.: 2025. – B.3.

Heidegger M. Being and Time. – New York: Harper & Row, 1927. – 136 p.

Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1987. – P. 212.

Tursunov R. Ijtimoiy migratsiya nazariyasi. – T.: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2020. – B. 71.

S.K.Alimov. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida: Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss. – T.: O‘zMU, 2022. – 55 b.

Sh.A.Boybekova. Ma’naviy qadriyatlar – ijtimoiy barqarorlik omili: Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss. – Qarshi: QDU, 2025. – B. 72.

S.U.Ashurova. Jamiyat taraqqiyotiga barqaror va beqaror jarayonlarning ta’siri: Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss. – Qarshi: QDU, 2022. – B. 65.

Z.A.Tolametova. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – T.: 2017. – B. 113.

N.Muminov., O.Egamberdiyeva. Modern aspects of human capital development as a method for improving the labor market of Uzbekistan. – Устойчивое развитие экономики, 2020. – P. 237-240.

KO‘CHISH JARAYONLARIDA BUXORO AHOLISINING ETNIK VA DINIY O‘ZLIGINI SAQLAB QOLISH MASALALARI

Nuriddinov Abrorbek To‘lqin o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

XVI–XVIII asrlarda Movarounnahr, xususan Buxoro vohasida kechgan etnik va diniy jarayonlar o‘zbek xalqining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin tutdi. Bu davrda turkman, qirg‘iz va o‘zbek guruhlarining tojik aholisiga singib borishi, shuningdek, tojikzabon guruhlarning o‘zbek etnik muhitiga qo‘shilib ketishi muntazam tus oldi. Tojiklar va ularning ilk ajdodlari qadimdan o‘zbeklar bilan bir hududda yashab, xo‘jalik, madaniyat va kundalik turmushda yaqin aloqada bo‘lganlar. Natijada, Buxoro vohasiga kelib o‘rnashgan turkiy etnoslar asta-sekin o‘troqlashib, butun Movarounnahrda turg‘un turkiyzabon aholining shakllanishiga zamin yaratdi. Mashhur etnograf O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro aholisi etnik va diniy o‘zligini anglashdagi murakkablikka alohida e’tibor qaratadi. Uning qayd etishicha, “buxoroliklar” atamasi ostida ko‘pincha eroniy kelib chiqishga mansub shialar tushunilgan bo‘lsa, tojik tilida so‘zlashuvchi sunniy aholi ko‘pincha “o‘zbek” deb atalgan. Bu holat ayrim mahallalarda tojik tilli o‘zbeklar hamda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi tojiklarning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ayrim mahallalarda “tojik”, “fors (eroniy)” va “o‘zbek” etnoslari vakillari birgalikda istiqomat qilgan xonadonlar ham uchragan.

Buxoro vohasida yashagan aholining sezilarli qismi o‘z kelib chiqishini o‘zbek urug‘-qabilalari bilan bog‘lagan. Jumladan, mang‘itlar sakkizta mahallada, urganchilar to‘rtta, kenagaslar esa uchta mahallada istiqomat qilgan. Ushbu urug‘ va aholi guruhlari nomlari ko‘plab aholi maskanlari va joy nomlarida saqlanib qolgan bo‘lib, bu ularning hudud etnik va diniy tarixidagi o‘rnini ko‘rsatadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Qorako‘l va Karmana hududlarida murakkab va rang-barang etnik tarkib shakllangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Tojiklar hamda o‘zlarini arab kelib chiqishiga mansub deb bilgan, o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashuvchi aholi ham muhim ulushga ega bo‘lgan. Ro‘yxatlarda “Mirishkor”, “Turk”, “Turkon” kabi joy nomlarining takroran uchrashi mazkur hududlarda ushbu etnik guruhlar avlodlarining tarixiy iz qoldirganidan dalolat beradi. Mang‘itlar son jihatdan eng yirik guruhlardan biri bo‘lib, ularning umumiy soni qariyb 44 ming kishini tashkil etgan. Qorako‘l vohasida ham sakkiz mingga yaqin mang‘itlar yashagan. Qo‘ng‘irotlar esa XVI asr boshlarida Movarounnahrga ko‘chib kelib, til, madaniyat va etnik tarkib jihatidan yirik qabilalardan biri sifatida shakllangan. Shuningdek, “Nayman”, “Qalmoq” va “Qalmakon” nomlari bilan bog‘liq qishloqlar mavjudligi ushbu urug‘-aymoqlarning XX asr boshlarigacha joy nomlarida saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Etnik jarayonlar davomida

o‘zbeklar bilan doimiy aloqalar boshqa guruhlarning asta-sekin assimilyatsiyalashuviga olib kelgan. Bu holat o‘zbek–tojik va tojik–o‘zbek ikki tilliligining shakllanishi uchun muhim shart-sharoit yaratgan. Ayniqsa, shahar va voha muhitida til va madaniyatning o‘zaro ta’siri kuchli bo‘lgan.

Diniy jihatdan, Buxoro vohasida yashovchi aholining ko‘pchiligi sunniy islomni, ayrimlari esa shia mazhabini tutgan. Migratsiya jarayonlari davomida yangi kelgan guruhlar o‘z diniy amaliyotlarini mahalliy aholi bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilganlar. Masjidlar va madrasalar diniy va ma’rifiy markaz sifatida xizmat qilgan, bu joylarda nafaqat ibodat, balki diniy ta’lim ham davom etgan. Diniy bayram va marosimlar jamoaviy tarzda o‘tkazilib, yangi kelgan guruhlarning diniy o‘zligini saqlashga yordam bergan. Shia va sunniy guruhlar orasidagi o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik diniy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Sovet davrida (1920–1930-yillar) kollektivlashtirish va paxta siyosati sababli ko‘plab oilalar qishloqdan shahar va sanoat markazlariga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Bu jarayonda diniy faoliyat cheklangan, masjidlar yopilgan yoki faqat norasmiy tarzda faoliyat yuritgan. Shu bilan birga mahalla, guzar va diniy institutlar yangi joylarda jamoaviy yordam va diniy identitetni saqlash funksiyasini bajargan.

Buxoro vohasiga XVIII–XIX asrlarda ko‘chib kelgan xorazmliklar ham etnik va diniy tarkibda muhim o‘rin egallaydi. Ular markazi Urganch bo‘lganligi sababli “urganjiylar” nomi bilan tanilgan. 1924-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatida ularning soni 26 715 kishiga yetgan. Urganjiylar vohaning deyarli barcha hududlariga tarqalib, o‘z nomlari bilan ataluvchi qishloqlarga asos solganlar. Ular hunarmandchilik, xususan adras va beqasam to‘qish bilan shug‘ullangan, o‘z guzarlarida masjid va maktablar tashkil etgan. Buxoro shahrida yashagan urganjiylar ko‘pincha ikki tilli bo‘lib, tojik va o‘zbek tillarida erkin so‘zlashgan. Ayrim guzarlar, xususan Bo‘yrobofon guzari aholisi o‘zbek tilini saqlab qolgan bo‘lsa, Olimxo‘ja guzari urganjiylari ikki tillilik an’analarini davom ettirgan. Diniy faoliyat ham shu guzarlar orqali saqlanib, urganjiylar o‘z diniy marosimlarini mahalliy aholiga moslashtirib o‘tkazgan. Buxorodagi etnik guruhlar orasida tatarlar ham alohida o‘rin tutadi. Ular O‘rta Osiyodagi sunniy musulmon turkiyzabon aholi bilan diniy jihatdan yaqin bo‘lib, dastlab savdogar va tarjimon sifatida Buxoroga kelganlar. Keyinchalik iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko‘ra Rossiyadan ko‘chib kelgan tatarlar soni ikki-uch ming kishiga yetgan. Ularning bir qismi mahalliy aholi bilan qo‘shilib ketgan bo‘lsa-da, ko‘pchiligi alohida karvonsaroylarda istiqomat qilgan va o‘z diniy amaliyotlarini alohida davom ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro shahri va uning atroflarida o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, arablar, eroniylar, yahudiylar va lo‘lilar yonma-yon yashab, o‘zaro bag‘rikenglik, diniy hurmat va madaniy hamkorlik muhitini shakllantirgan. Ushbu tarixiy-etnik va diniy jarayonlar, shuningdek sovet davridagi ko‘chishlar va diniy cheklovlar Buxoro aholisining etnik va diniy o‘zligini saqlab qolishida muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Suxareva O.A. Etnicheskiy sostav Bukhary v XVII–XX vv. – Moskva: Nauka, 1987.

Karimov B. Buxoro vohasi tarixi va etnografiyasi. – Toshkent: Fan, 2001.

Akhmedov Sh. Buxoro shahri va vohasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida. – Samarqand: Sharq, 1995.

Abdurakhmanov T. O‘zbek etnografiyasi va madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

Vitkevich V. Puteshestvie po Bukhare. – Sankt-Peterburg: Tipografiya, 1912.

Rakhmatullaev N. Buxoro vohasida ko‘chish jarayonlari va ijtimoiy tarkib. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2010.

Allworth E. Central Asia: A Historical Overview. – New York: St. Martin's Press, 1990.

Holzwarth W. Islamic Institutions in Central Asia. – Berlin: De Gruyter, 2002.

RAQAMLI MADANIYAT VA YOSHLAR AXLOQIY ME’YORLARI XAVF VA IMKONIYATLAR

Nurmatova Dilnoza Shokirjon qizi
O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Bugungi kun yoshlari – "Raqamli mahalliy aholi" — axborot texnologiyalari va global tarmoqlar muhitida voyaga yetmoqda. Raqamli madaniyat qadriyatlar, xulq-atvor va axloqiy me’yorlarga tubdan ta’sir ko‘rsatuvchi yangi ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Ushbu maqola yoshlarning axloqiy dunyoqarashiga raqamli texnologiyalarning qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani, shuningdek, ular duch kelayotgan asosiy axloqiy xavflarni tahlil qiladi.

1. Raqamli madaniyatning ijobiy-axloqiy imkoniyatlari

Raqamli muhit yoshlarga an’anaviy jamiyatlarda mavjud bo‘lmagan yangi axloqiy ufqlarni ochmoqda:

* Global empatiya va bag‘rikenglik: Internet turli madaniyatlar, qarashlar va hayot tarziga ega insonlar bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi. Bu yoshlarda global muammolarga nisbatan hamdardlikni (empatiya) kuchaytiradi va ularni o‘ziga o‘xshamaganlarga nisbatan bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydi.

* Axborotga egalik va xabardorlik: Raqamli platformalar tufayli yoshlar ijtimoiy adolat, inson huquqlari va ekologiya kabi murakkab axloqiy masalalar haqida chuqur bilim olishadi. Bu esa ularni mas’uliyatli fuqaro sifatida faollashishga undaydi.

* Shaffoflik va hisobdorlik: Ijtimoiy tarmoqlarning tezkorligi adolatsizlik holatlarini fosh qilish va mansabdor shaxslarning hisobdorligini talab qilish uchun kuchli vositaga aylandi. Yoshlar buni axloqiy me’yorlar ustunligini ta’minlash usuli sifatida qo‘llamoqda.

2. Raqamli davrning axloqiy xavflari

Texnologik taraqqiyotning ushbu ijobiy tomonlariga qaramay, raqamli muhit yoshlarning axloqiy me’yorlariga xavf tug‘diruvchi jiddiy muammolarni ham o‘z ichiga oladi:

2.1. Axborot xavfsizligi va halollik masalalari

* Dezinformatsiya va Soxta Yangiliklar: Axborot oqimining ko‘pligi yoshlar uchun haqiqatni yolg‘ondan ajratish vazifasini qiyinlashtirmoqda. Haqiqatni tekshirmasdan ma’lumot tarqatish halollik va mas’uliyat me’yorlariga zid keladi.

* Plagiat va intellektual mulk: Onlayn resurslarning cheksizligi sababli yoshlar orasida boshqalarning ishini o‘z nomidan taqdim etish (plagiat) kabi intellektual halollik tamoyillarini buzish holatlari uchramoqda.

2.2. O‘zaro munosabatlar axloqi

* Kiberbulling (Kiberzo‘ravonlik): Internet anonimlik tuyg‘usini bergani sababli, ba’zi yoshlar onlayn platformalarda boshqalarga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lishadi. Bu o‘zaro hurmat va inson qadr-qimmati me’yorlarini buzuvchi eng jiddiy axloqiy xavflardan biridir.

* Maxfiylikning qadrsizlanishi: Shaxsiy hayot tafsilotlarini ijtimoiy tarmoqlarda ochiqchasiga joylashtirish odati maxfiylik me’yorining qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Natijada yoshlar o‘zlarining va boshqalarning ma’lumotlari xavfsizligiga beparvo bo‘lishmoqda.

Xulosa

Raqamli madaniyat yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ham imkoniyatlar, ham xavflar taqdim etadi. Ushbu davrning qiyinchiliklariga qarshi turish uchun axloqiy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish zarur:

* Raqamli fuqarolik darslari: Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida raqamli axloq, kiberxavfsizlik va tanqidiy media savodxonligi bo‘yicha ta’limni kuchaytirish lozim.

* Empatiyani rivojlantirish: Yoshlarga onlayn muloqotda ham real hayotdagi qoidalar va hamdardlik tamoyillari amal qilishini tushuntirish.

* Oilaviy muloqot: Ota-onalar farzandlari bilan raqamli dunyoda yuzaga keladigan axloqiy dilemmalar haqida ochiq muloqot olib borishi kerak. Xulosa qilib aytganda, raqamli davr yoshlarning axloqiy me’yorlarini mustahkamlash uchun noyob vosita bo‘lishi mumkin.Ammo buning uchun faqatgina texnologiyani o‘rganish emas, balki mas’uliyatli, axloqli va tanqidiy fikrlovchi raqamli fuqarolarni tarbiyalash ustuvor vazifa bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buckingham, D. (2015). The Material Child: Growing Up in Consumer Culture. Polity Press. (Yoshlar madaniyatiga va uning raqamli muhitdagi iste’molchilik axloqiga ta’siri haqida).

2. Katz, J. E., & Rice, R. E. (2002). Social Consequences of Internet Use: Access, Involvement, and Interaction. The MIT Press. (Internetdan foydalanishning ijtimoiy oqibatlari va axloqiy munosabatlarni tahlil qiladi).

3. Livingstone, S. (2018). The Challenge of Protecting Children Online: A New Digital Paradigm. Pediatrics, 142(5), e20182470. (Bolalar va yoshlarning onlayn xavfsizligi, xavf va axloqiy mas’uliyat bo‘yicha fundamental ish).

4. Nissenbaum, H. (2010). Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. Stanford University Press. (Raqamli davrda maxfiylikning axloqiy va sotsial kontekstini chuqur o‘rganadi).

5. Ribble, M. (2017). Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Need to Know. International Society for Technology in Education (ISTE). (Raqamli fuqarolik, shu jumladan raqamli axloqiy me’yorlar va mas’uliyatning ta’limdagi ahamiyati).

6. Suler, J. R. (2004). The Online Disinhibition Effect. CyberPsychology & Behavior, 7(3), 321–326. (Kiberbulling va anonimlik kabi muammolarning psixologik asoslarini, ya’ni onlayn erkinlik effektini tushuntiradi).

7. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books. (Texnologiyalarning insoniy munosabatlar va empatiyaga ta’siri haqida tanqidiy tahlil).

8. Valcke, M., De Wever, B., Van Keer, H., & Guislain, P. (2007). Diffusion and Use of ICT in Primary Schools in Flanders: Comparison of Teachers' and Students' Perceptions. Computers & Education, 50(2), 445–458.

INSON HUQUQLARI TA’LIMI: YOSHLAR ORASIDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Nurmurodova Dilorom Umidjon qizi
O`zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Inson huquqlari — har bir insonning qadr-qimmati, erkinligi va qonun oldida tengligi bilan ta'minlanishining muhim asoslarini tashkil etadi. Dunyo bo'ylab inson huquqlari ta'limi yoshlar orasida ularning huquqlarini bilish va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning huquqiy madaniyati nafaqat ularning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, erkinlik, tenglik kabi qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekiston hukumati va ta'lim tizimi yoshlarni huquqiy madaniyatga o‘rgatishga alohida e'tibor qaratmoqda [1]. Inson huquqlari ta'limi yoshlarni nafaqat huquqiy bilimlar bilan tanishtiradi, balki ijtimoiy faoliyatga chaqiradi va jamiyatda hurmatli fuqarolarni tarbiyalaydi.

Inson huquqlari – har bir fuqaro, jamiyatning ajralmas qismi sifatida erkinlik, tenglik va adolatga asoslangan huquqlarga ega bo‘lishi zaruriyatini belgilaydi. Inson huquqlarining himoya qilinishi va rivojlanishi har bir jamiyatda muhim o‘ringa ega bo‘lib, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham asosi hisoblanadi. Yoshlar, o‘z huquqlari haqida to‘liq xabardor bo‘lmasliklari natijasida ba'zan huquqlarini himoya qila olmaydilar yoki ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashishda noaniqliklarni boshdan kechirishadi. Shunday qilib, yoshlarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlash, ularni o‘z huquqlarini himoya qilishga va boshqalarning huquqlariga hurmat bilan yondashishga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, ta'lim tizimida inson huquqlari va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. Biroq, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish, inson huquqlarini bilish va ularga rioya qilish darajasi hali ham zamon talablari darajasida emas. Shuning

uchun, inson huquqlari ta'limini yoshlar orasida keng targ‘ib qilish, ularga huquqiy madaniyatni o‘rgatish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Muhokama va natijalar:

Inson huquqlari ta'limining maqsadi va vazifalari

Inson huquqlari ta'limining asosiy maqsadi — har bir shaxsga o‘z huquqlarini tushunish va himoya qilishni o‘rgatish, shu bilan birga boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni ta'minlashdir. Bu ta'lim yoshlarni huquqlarini boshqarishning yuridik va axloqiy jihatlari bilan tanishtiradi. Yoshlar, inson huquqlari bilan bog'liq qonunlar, shuningdek, xalqaro me'yorlar bilan tanishib, o‘z hayotida ulardan qanday foydalanish kerakligini o‘rganadilar. Buning natijasida, ular jamiyatda hamkorlik, hurmat va tenglikni saqlab qolishga yordam beruvchi muhim yuridik bilimlarga ega bo‘ladilar [2].

Inson huquqlari ta'limining asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Huquqiy bilimlar bilan tanishtirish: Yoshlarni inson huquqlari, shaxsiy erkinliklar va fuqarolik huquqlari bo‘yicha bilimlarni olishga o‘rgatish.

Huquqlarni himoya qilishni o‘rgatish: Yoshlarni o‘z huquqlarini himoya qilishda qanday harakat qilishni o‘rgatish, ularga huquqiy yordamga murojaat qilishni ko‘rsatish.

Xalqaro huquqlarni tushuntirish: Yoshlarni BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi, Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo‘yicha tamoyillari va boshqa xalqaro huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish: Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy adolat va tenglikni rivojlantirish [3].

Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirishning usullari

Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun turli usullar mavjud. Bu usullarni ishlab chiqishda quyidagi elementlar muhim ahamiyatga ega:

O‘quv dasturlari va seminarlar: Inson huquqlari va huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish uchun maxsus o‘quv dasturlari va seminarlar o‘tkazish. Bu jarayon, yoshlarni huquqlarini tushunishga, ularga qanday erishish mumkinligini va qanday qilib himoya qilish kerakligini o‘rgatadi [4].

Ijtimoiy faoliyat: Yoshlarni huquqiy bilishlarini amalda qo‘llashga o‘rgatish. Masalan, huquqiy yordam olish, qonunlar bilan tanishish, ijtimoiy masalalarda faol ishtirok etish.

Media va internet: Yoshlarning huquqiy bilimlarini kengaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanish. Bu platformalarda huquqiy mavzularni targ‘ib qilish, huquqiy ta'limni keng ommaga yetkazish mumkin [5].

Xalqaro tajriba: Inson huquqlari sohasida xalqaro tajribalarni o‘rganish, boshqa davlatlarda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar va ta'lim dasturlarini o‘rganish yoshlar uchun yangi bilim manbai bo‘lishi mumkin [6].

Huquqiy madaniyat va yoshlarning ijtimoiy faolligi

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish ularning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi. Huquqlarini bilgan va ularga hurmat bilan yondashadigan yoshlar jamiyatda nafaqat o‘z huquqlarini himoya qilishadi, balki boshqalarning huquqlariga ham hurmat bilan yondashadilar. Bu ijtimoiy faollikning natijasida yoshlar

fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etadilar, o‘zlarini mas'uliyatli fuqarolar sifatida namoyon qiladilar [6].

Masalan, yoshlar inson huquqlari va adolatga asoslangan siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga tayyor bo‘ladilar. Ular nafaqat o‘z huquqlarini himoya qilishni biladilar, balki jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurashishda ham o‘z fikrlarini bildirishga tayyor bo‘ladilar.

Yoshlarni inson huquqlari ta'limiga jalb qilishning ijtimoiy foydasi

Yoshlarni inson huquqlari ta'limiga jalb qilishning ijtimoiy foydasi katta. Birinchidan, huquqiy madaniyatni rivojlantirish orqali yoshlar jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurashishadi. Ikkinchidan, ular ijtimoiy tizimda o‘z o‘rnini topishga va muammolarni qonuniy yo‘l bilan hal etishga intilishadi. Uchinchidan, huquqiy ta'lim yoshlarni demokratik qadriyatlar va inson huquqlariga hurmat bilan tarbiyalaydi, bu esa jamiyatda yanada barqaror va farovon muhit yaratadi [6].

Inson huquqlari ta'limining global tendentsiyalari

Dunyo bo‘ylab yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish va inson huquqlari ta'limining rivojlanishi yuqori darajada ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, YUNESKO va boshqa mintaqaviy tashkilotlar, yoshlar uchun huquqiy ta'limni kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, 2016 yilda BMT tomonidan qabul qilingan **2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari** doirasida inson huquqlari va huquqiy ta'limni ta'minlash global miqyosda asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan [7]. Shu asosda, yoshlar orasida huquqiy bilimlarni oshirish, adolatli jamiyatlar qurishga hissa qo‘shishga yordam beradi.

Huquqiy ta'lim va ijtimoiy media

Bugungi kunda ijtimoiy media va internet yoshlar orasida huquqiy ta'limni targ‘ib qilishda muhim vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. YouTube, Instagram, Twitter kabi platformalarda huquqiy mavzularni yoritishga oid videolar, maqolalar, infografikalar va online kurslar mavjud. Bu resurslar nafaqat yoshlarni huquqlarini bilishga o‘rgatish, balki ularda fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o‘z huquqlarini himoya qilishda bir-birlariga yordam berishlari, axborot almashishlari va ijtimoiy masalalarga oid mulohazalar bildirishlari mumkin [8].

Inson huquqlari ta'limining O‘zbekistondagi holati

O‘zbekistonda yoshlarni huquqiy madaniyatga o‘rgatishga qaratilgan bir qancha tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ***"Inson huquqlaribo‘yicha davlat strategiyasi"***ni ishlab chiqish orqali yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishni va ular orasida huquqiy bilimlarni kengaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu strategiya yoshlar, o‘qituvchilar va huquqshunoslar uchun maxsus treninglar, seminarlar va huquqiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi [9]. Shuningdek, **"Yoshlar ittifoqi"** tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy tashabbuslar va huquqiy ma'lumotlarni tarqatish bo‘yicha loyiha va kurslar bu sohada o‘z samarasini bermoqda.

Inson huquqlari va huquqiy madaniyat: O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi

O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi, ayniqsa, BMT va YUNESKO bilan, inson huquqlari va huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi samarali usullarga o‘z hissasini qo‘shmoqda. YUNESKO tomonidan tashkil etilgan **"Inson huquqlari ta'limi"** dasturlari

doirasida, mamlakat yoshlariga huquqiy ta'limni kengaytirish bo‘yicha bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirishga va ularning global miqyosda huquqlarini himoya qilishga yordam beradi [10].

Huquqiy madaniyat va zamonaviy ta'lim tizimi

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimining o‘rni juda katta. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limni samarali integratsiya qilish, huquqiy bilimlarni yanada kengaytirish uchun yangi metodologiyalar ishlab chiqilmoqda. Interaktiv metodlar, huquqiy simulyatsiyalar, muhokama majlislari kabi usullar orqali yoshlarni nafaqat huquqlarini bilishga, balki ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish mumkin. Bunday yondashuv yoshlarni huquqiy jarayonlarga jalb qilish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishda samarali bo‘ladi [11].

NATIJA VA XULOSALAR

Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish inson huquqlari sohasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Huquqiy ta'lim, yoshlarni nafaqat o‘z huquqlarini himoya qilishni, balki jamiyatda boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, demokratik jarayonlarning rivojlanishiga, fuqarolik jamiyatining shakllanishiga, va ijtimoiy tizimning yanada adolatli va murosali bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyati jamiyatda tenglik, adolat va erkinlikni ta'minlashga yordam beradi.

Inson huquqlari ta'limi yoshlarni faqat huquqiy bilimlar bilan tanishtirishni emas, balki ularda ijtimoiy mas'uliyatni, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishni ham maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun inson huquqlari ta'limi yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdullaev, O. (2013). O‘zbekiston va inson huquqlari: Asosiy tamoyillar va qonunchilik.Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

BMT. (1948). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.BMT, New York.

Vohidov, E. (2010). Huquqiy madaniyat va jamiyat. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.

Mahmudov, N. (2015). Yoshlar va huquqiy ta'lim. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.

Aytmatov, Ch. (2007). Inson huquqlari va adolat.Bishkek: Shejire nashriyoti.

Mahmudov, M. (2018). Inson huquqlari va ta'lim: Mustahkamlash va rivojlantirish yo‘llari.Toshkent: Yangi avlod nashriyoti.

BMT. (2016). 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari.BMT, New York

Shokirov, T. (2019). Ijtimoiy media va huquqiy ta'lim.Toshkent: Ijtimoiy ilmiy nashr

O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha davlat strategiyasi.(2020). Toshkent: O‘zbekiston hukumati nashriyoti.

YUNESKO. (2021). Inson huquqlari ta'limi bo‘yicha global dasturlar.YUNESKO, Parij.

Xodjaev, M. (2022). Huquqiy ta'lim va zamonaviy metodlar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

YOSHLARNING IJTIMOIY ONGINI SHAKLLANTIRISH

Nurmuxamedov Toir Kurbanbekovich
O’zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o’quv markazi katta o’qituvchi

Mustaqilik davrida mamlakatimizning aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotining barcha sohalarida tub o’zgarishlar ro’y berdi.

Bu jarayonda obektiv va subektiv omillar bilan belgilanadigan yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu jarayonning rivojlanish tendenttsyalarini bilish va tushunish turli ijtimoiy guruhlarning ongidagi o’zgarishlarning xususiyatlari va tabiatini o’rganishni, undagi hukmron qadriyatlarni, motivlarni, tafakkurni aniqlashni, ongdagi o’zgarishlarning kelib chiqishi va sabablarini tushunishni o’z ichiga oladi. Shu munosabat bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va odamlar hayotining barcha sohalarini maqsadli tartibga solish uchun nazariy va uslubiy asosni tashkil eta oladigan, davom etayotgan jarayonlarning yaxlit ijtimoiy-falsafiy tasavvurini yaratish zarurati ortib bormoqda. Hozirgi mustaqil O’zbekistonda jamiyatning ijtimoiy tuzilishi sezilarli darajada o’zgardi, ayrim ijtimoiy guruhlar o’rnini boshqalari egalladi, ularning ijtimoiy mavqei va roli o’zgardi, jamoat tashkilotlarining turli yo’nalishlari paydo bo’ldi.

Shubhasiz, yoshlarning ongi ham o’zgarishlarga uchradi va o’zgarishlarni boshdan kechirmoqda . Jamiyatni isloh qilish jarayonida guruh ichidagi va guruhlararo dinamika kuchayadi, turli guruhlar o’rtasidagi chegaralarning xiralashuvi, jamiyatning alohida a’zolarining guruhlararo muhitda harakatchanligi, bu ko’pincha shaxsning yetarli darajada aniq bo’lmagan guruh pozitsiyasida ifodalanadi; Mamlakatda va jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan ma’naviyatda ob’ektiv va sub’ektiv vaziyatlar ommaviy ongni birinchi o’ringa qo’yadi, uning belgilari: rattsonal tarkibiy qismlarni irratsional qismlarga almashtirish, his-tuyg’ularning ustunligi, kelajakka ishonch, ijtimoiy faollik. Bunday sharoitda ushbu jarayonlarning kelib chiqishini tahlil qilish, ularning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash dolzarb bo’lib qoladi va amaliy jihatdan zarur bo’ladi, qoidalarni aniqlashtirish va to’siqlarni bartaraf etish yo’llarini izlash talab etiladi.

Bu jarayonlar yoshlar orasida yaqqol namoyon bo’ladi. Bu guruhning shakllanishi jamiyatning turli qatlamlarining nafaqat turmush darajasi, balki hayotga qarashlari, siyosiy-mafkuraviy yo’nalishi, munosabati jihatidan ham keskin qutblanish sharoitda sodir bo’ldi. o’z hayotining maqsadlari va mazmuniga. Yoshlar muammolari bo’yicha ko’plab tadqiqotchilar yoshlar ongida sezilarli deformatsiyalar bo’lganligini ochiq tan olishadi.

Yangi O’zbekistonda mazkur muammoning hal etilishiga hukumat tomonidan yoshlarga oid siyosatning ilmiy asoslari ishlab chiqildi, jamiyat manfaatlariga yo’naltirilgan yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatidan samarali foydalanish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning tamoyillari va chora-tadbirlari qo’landi. Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadga muvofiqligi yoshlarni hayotga qadam qo’yish, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarga ega bo’lish chog’ida qanday qiyinchiliklarga duch kelishi bilan belgilanadi. Shubhasiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo’lidagi

keyingi taraqqiyot ko’p jihatdan davlatning yoshlarga oid siyosatini samarali olib borish, uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotiga qo’shgan hissasini kuchaytirishga bog’liq bo’ladi.

Bu borada o’z yurti ravnaqi yo’lida olgan bilim va ko’nikmalarini samarali hayotga tatbiq etishga qodir, tashabbuskor, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash nihoyatda muhim. Biroq , yoshlarning ommaviy ongining mavjud kontseptsiyasi ommaviy ong jarayonlari tobora kuchayib borayotgan jamiyat hayotining ma’naviy sohasiga ta’sir qiluvchi zamonaviy jamiyat rivojlanishining bir qator boshqa ob’ektiv va sub’ektiv omillari va tendentsiyalari bilan bog’liq.

Ular shuningdek ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalarning tobora ortib borayotgan roli bilan bog’liq bo’lib, ular "virtual haqiqat" ni yaratadi, bu ma’lum bir toifadagi odamlar uchun, ayniqsa, yoshlar uchun real hayotdan ko’ra jozibali va ishonchliroq ko’rinadi. Natijada, hayot qadriyatlari va me’yorlari haqidagi xayoliy g’oyalar paydo bo’ladi. Bunga , jumladan, ommaviy ongni manipulyatsiya qilish vositalari va texnologiyalari orqali erishiladi .

2024-yil O‘zbekistonda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” i deb e’lon qilinishi strategik ahamiyatga ega. Davlat rahbarining ushbu murojaatida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish O’zbekiston hukumatining diqqat markazida ekanidan yaqqol dalolat beradi.

Ma’lumki, O’zbekiston aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Shuningdek, u keksa avlod mehnatining davomchisi, jamiyatning, umuman, millat va davlatning kelajagi bo’lgan bunyodkor kuch va haqiqiy dvigateldir.

Belgilangan maqsadni amalga oshirish yoshlar siyosatining turli ustuvor yo’nalishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu borada juda muhim jihatlardan biri, yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish, shuningdek, uni axloqiy va ma’naviy jihatdan yuksaltirish. Shu munosabat bilan joylarda tarbiyaviy maqsadlarni ko’zlagan holda turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda yoshlarning mehnat, ta’lim va sog’liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy huquqlarini kafolatlash masalalarini ham e’tiborga olish zarur.

Yoshlar tashkilotlari va davlat muassasalarining yana bir vazifasi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini ro’yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda yoshlarning intellektual va jismoniy rivojlanishi masalalariga davlat darajasida katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”deb e’lon qilingan 2024 yil yoshlar tashabbuslarini amalga oshirishda yangi istiqbollarni ochdi. Mamlakat bo’ylab turli yoshlar loyihalari, yosh yetakchilarning ijobiy ijtimoiy tashabbuslari rag’batlantirmoqda. Xalqaro miqyosdagi “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” doirasida madaniy-iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy jarayonlarga yoshlar ham faol jalb etildi. Shu bois, qabul qilingan Davlat Strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”deb e’lon qilinishi yoshlarga oid siyosat, eng avvalo, O’zbekiston Respublikasida yoshlarining o’z-o’zini anglashi uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoit va kafolatlar yaratishga qaratilganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda davlatimiz yoshlar muammolariga katta e’tibor qaratib, sog’liqni saqlash, ta’lim va madaniyatni - yosh avlodning ma’naviy, axloqiy va jismoniy shakllanishi muammolari hal etilayotgan sohalardagi ahvolni sezilarli darajada yaxshilashga intilmoqda. Bugungi kunda davlatning barcha sa’y-harakatlari madaniy infratuzilmani – teatrlar, kutubxonalar, yoshlar madaniyat markazlari, sport inshootlari, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini rivojlantirish va moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bularning barchasi, umuman olganda, faqat shu yo’l bilan yosh avlodning bo’sh vaqtini va bandligini rivojlantirishga ko’maklashish mumkinligini tushunish bilan bog’liq. Darsliklar, badiiy va uslubiy adabiyotlar chiqarish, ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar hamda sog’lom insonlarni shakllantiruvchi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo’yicha davlat va hududiy dasturlar ishlab chiqilayotgani bu borada muhim fakt bo’lishi mumkin. Ayni paytda yoshlarimiz yurtimizda yaratilgan qulay sharoitlar bilan bir qatorda muammolar ham mavjud bo’lgan davrda yashab, mehnat qilmoqda. 33 yil davomida O’zbekiston rivojlangan, erkin va demokratik davlatga aylandi. Bu davlatni sevish, asrash, obodonlashtirish har bir yurt fuqarosining muqaddas burchidir.

O’zbekistoni qudratli va taraqqiyparvar davlatga aylantirish, dunyoning boshqa davlatlari bilan ko’p tomonlama do’stona munosabatlar o’rnatishni jahon miqyosida ilgari surish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan dabiyotlar:

1. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. M., 2000 yil.

2. Respublikasi Prezidentining mamlakat yoshlari bilan uchrashuvdagi nutqi, 23.05.2013,

3. V. P. Lenshin, falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati, M, 2004 y.

4. T. Ibodov . Yoshlar - bu kelajak sahifasi

USMON NOSIR POETIKASIDA ROMANTIZMINING FALSAFIY ASOSLARI

Nuraliyeva Nasiba Axmadqulovna
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

XX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotida yangicha fikrlash, ruhiy uyg‘onish, ichki kechinmalarni badiiy talqin qilish jarayonlari jadallashdi. Bu jarayonlarda qisqa, ammo mazmunli ijodi bilan adabiyot tarixida yorqin iz qoldirgan Usmon Nosirning o‘rni beqiyosdir. Shoir poetikasida romantik dunyoqarash hayot, inson, orzu, ruhiy yuksalish va sevgi haqidagi falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlashib, o‘zbek she’riyati uchun yangi ufqlar ochgan[1]. Uning asarlarida romantik falsafa oddiy kayfiyat emas, balki hayot mazmunini izlashning badiiy-falsafiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Usmon Nosir romantizmi o‘z mohiyatiga ko‘ra falsafiy xarakterga ega bo‘lib, unda hayotning ideal timsoli, insonning ichki olamiga murojaat, ruhning cheksizlikka intilishi kabi g‘oyalar yetakchilik qiladi. Shoirning ilk she’rlaridayoq orzu va ruhiy yuksalish

asosiy falsafiy tamoyil sifatida koʻrinadi. Usmon Nosir ijodi romantik idealizmga yaqin boʻlib, unda insonning ruhiy kuchi va ichki “men”ining yuksak qadri ta’kidlanadi[2].

Romantik falsafaning bunday talqini shoirning jahon adabiyoti bilan tanishligi, ayniqsa, Yevropa romantiklari — Lermontov, Shekspir, Bayron ijodi bilan munosabatlari orqali shakllanganligini koʻrsatadi[3]. Shoirning tarjimalari va badiiy xotirasi uning romantik falsafasining shakllanishiga bevosita ta’sir koʻrsatgan.

Usmon Nosir she’riyati orzu tushunchasisiz toʻliq anglab boʻlmaydi. Orzu shoir poetikasida nafaqat his-tuygʻu, balki hayotni harakatga keltiruvchi metafizik kuchdir. U orzuni ilohiy nur, ruhiy yuksalishning asosi deb biladi.

Shoir orzuni faqat shaxsiy istak emas, balki insoniyatning ma’naviy evolyutsiyasini belgilovchi kuch sifatida koʻradi. “Orzularim — yuragimning quyoshi” mazmunidagi obrazlar shoir tafakkurida orzuning metafizik ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi. Bu qarash romantizmning klassik falsafiy tamoyillari bilan hamohangdir[4].

Usmon Nosir she’riyatida insonning oʻzini anglash, oʻzini yengish, ruhiy borligʻiga quloq tutish jarayonlari alohida oʻrin tutadi. Insonning “men”i — oʻsuvchi, kamolga intiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu falsafa shoirning “Yurak” kabi asarlarida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Usmon Nosirning sevgi haqidagi she’rlari oʻzbek romantik lirikasining eng yuksak namunalarini tashkil etadi. U sevgi tushunchasini sof, ilohiy, ruhiy yuksalishga chorlovehi kuch sifatida talqin qiladi.

Shoirning sevgi haqidagi qarashlari ekzistensial mazmunga ega. U sevgi orqali insonning cheklilikdan yuksalib, abadiy mohiyatga yaqinlashishini tasvirlaydi. Bu tamoyil Yevropa romantiklari falsafasiga yaqin boʻlib, shoirning ichki ruhiy kechinmalarini poetik shakllarda ifodalaydi[6].

Usmon Nosir sevgi mavzusida sof tuygʻu va poklikni alohida ulugʻlaydi. Unga koʻra, sevgi insonni oʻzgartiradi, uni ruhiy jihatdan yuksaltiradi va inson mohiyatini mukammal holga olib keladi. Shoirning ba’zi she’rlarida sevgi tabiat manzaralari orqali ramziy talqin qilinadi, bu esa romantik falsafaning asosiy unsurlaridan biridir.

Usmon Nosir poetikasida tabiat oddiy manzara emas, balki falsafiy mazmun yuklangan obrazlar tizimidir. Tabiat unsurlari — quyosh, shamol, osmon, yulduzlar — ruhiy holatlarning metaforalariga aylanadi.

Quyosh — ijodiy ilhom va ruhiy uygʻonish, shamol — orzu va harakat, osmon — cheksizlik va abadiylik ramzidir. Bu obrazlar romantizmning kosmik falsafasi bilan uygʻunlashadi va shoirning poetik tafakkurining falsafiy yuksakligini koʻrsatadi[8].

Tabiatning jonlanishi yoki sokinligi shoirning kayfiyati bilan uygʻun boʻlib tasvirlanadi. Lirik qahramonning kechinmalari tabiatning oʻzgarishlari orqali ifodalanadi. Bunday yondashuv Yevropa romantiklari uslubiga yaqin boʻlib, oʻzbek she’riyatiga yangi badiiy metod olib kirgan[9].

Usmon Nosir oʻzbek she’riyatini ruhiy-falsafiy mazmun bilan boyitgan shoir sifatida baholanadi. U adabiyotga-yangicha poetik obrazlar, kosmik tafakkur, ruhiy-metafizik izlanishlar, sof romantik falsafiy qarashlar olib kirdi. Shoirning uslubi keyingi avlod ijodkorlarining poetik qarashlariga sezilarli ta’sir koʻrsatdi[10]. Usmon Nosir lirikasidagi

falsafiy romantizm hozirgi o‘zbek she’riyati uchun ham muhim badiiy maktab bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Usmon Nosir poetikasida romantik falsafa — shoir ijodining markaziy asosidir. Uning she’rlarida orzu, sevgi, ruhiy yuksalish, tabiiy va kosmik obrazlar falsafiy talqin bilan uyg‘unlashib, o‘zbek she’riyatida yangi ruhiy-estetik makon yaratadi. Shoirning romantik falsafasi nafaqat badiiy qiymatga, balki ma’naviy va intellektual ahamiyatga ham ega bo‘lib, o‘zbek adabiy tafakkurining yuksalishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Karimov N. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: Fan, 2010.
Yo‘ldoshev Q. *XX asr o‘zbek she’riyati*. — Toshkent: Akademnashr, 2015.
Qosimov B. *Romantik tafakkur va o‘zbek she’riyati*. — Toshkent, 2008.
Fayzullaev A. *Usmon Nosir poetikasi*. — Toshkent: Yozuvchi, 1989.
Nosir U. *Yurak*. — Toshkent: 1935-yil nashri.
Madrahimov S. *O‘zbek romantiklarining badiiy falsafasi*. — Toshkent, 2012.
G‘afurov M. *Lirika va falsafa*. — Samarqand: SamDU nashri, 2017.
Tolipov O. *O‘zbek she’riyatida kosmik obrazlar talqini*. — Toshkent, 2020.
Turaev S. *Usmon Nosirning badiiy dunyosi*. — Buxoro, 2014.
Oripov A. *She’riyat va ruhiyat*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.

YANGI O`ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY TARBIYASI VA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI

A.Utamurodov
Ilmiy rahbar: O`zMU professori
Obbosxonov Alimardon Akmalxon o`g`li
O`zMU magistranti

Kirish. Yoshlarning o`z-xohish irodasini erkin namoyon etishi, bilimi, intelektual salohiyati, hayotiy tajribasi, go‘zal odobi va xulqi ularning jamiyatdagi mavqeini belgilab berishning, muhim omilidir.Yoshlarga oid institutsional tuzilmalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohatlat jarayonlaari bilan bog`liq ravishda mustahkamlanib bormoqda. Davlatamiz bu jarayonlarda yoshlarning tarbiyasiga oila-mahalla-maktab ma’suldir deb ta’kidlamoqda. Yoshlar madaniyatini rivojlartirish ma`naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg`unligida amalga oshirishni hozirgi davr taqozo qilmoqda. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta`kidlaganidek “Mafkura sohasida bo`shliq degan narsaning o`zi xech qachon bo`lmaydi. Chunki inson qalbi, miyasi, ongu tafakkuri xech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta`sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga ma`naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu

muhit uni qoniqtirmasa, nima bo`ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo`l qo`ymasligimiz kerak.”[1]

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo‘lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Shu bois yoshlarga sifatli ta’lim berish, kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi va ongiga tahdidlar tobora kuchaymoqda. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Har bir millatning saodati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” deya ta`kidlagan. Lekin ma`naviy targ‘ibotning qamrovi va ta’sirchanligi pastligi, yoshlarning qiziqishlari inobatga olinmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilib, ularga sog‘lom fikr beradigan manbalarni ko‘paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi. Umuman, bu sohadagi davlat siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan “Yangi O‘zbekiston yoshlari” dasturini ishlab chiqish, qonunchilikni o‘zgartirish vazifalari belgilandi. Prezidentimiz yoshlar bilan ishlash barcha rahbarlarning, keng jamoatchilikning, butun jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi ekanini ta’kidladi.[2]

O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga suveren davlat sifatida kirib borishi bilan aloqador tarzda yoshlar ongida o`z mamlakati taqdiri borasida kuyunish, faxr va iftixor, turli madaniy-marifiy tadbirlar, sport musobaqalarida erishilgan yutuqlardan g`ugurlanish, va ona Vatanni e`zozlash, bilim va ilmiy imkoniyatlarining behad o‘sganligidan sevinch va kelajakka ishonch tuyg`ulari o`tish jarayonidagi yoshlar mavqeyiga nisbatan bo`lgan ijobi ta`sirning oqibatlari sanaladi. Yoshlar hayotida salbiy holatlarning kuchayishi tabiiy ravishda davlat boshqaruvi organlariga nisbatan norozilik kayfiyatining paydo bo`lishiga olib keladi, ularni jamiyatdagi barqarorlik va bunyodkorlik faoliyatidan chetga tortadi, urug`-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo`rlik, korrupsiya esa ko`pincha yoshlarning hayotga bo`lgan qiziqishlarini so`ndiradi. Bunday paytda ular tafakkurida hayotning rang-barangligidan ko`ra, dunyoni qora-oq bo`yoqlar orqari ko`rish va anglash, pessemistik kayfiyatlar kuchayadi.

Yoshlar o`rtasidagi ma`naviy qashshoqlik, eng avvalo, moddiy ta`minotning hayotiy mezoniga aylanganligi, moliyaviy ehtiyojni yuqori darajaga qo`yish, indivuvidualizm g`oyalarining o`sib borishi, pul topish maqsadida jinoyatdan ham tab totmaslik, kaltabinli, boqimandalik, jur`atsizlik, mas`uliyatdan qochish, hamma narsani menga davlat yoki ota-ona yaratib berish lozim degan egoistik aqida, siyosiy ongni past saviyada ekanligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy faollikning negizini insonning ma’naviy tarbiyasi va siyosiy-huquqiy madaniyatini tashkil etadi. Faoliyat qanday maqsadga va qanday mexanizmlarga tayanishi yaxshi anglamay, bilmay jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarishda

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida “Ijtimoiy barkamollikni ta`minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash -davr talabi” mavzusidagi anjumanda so`zlagan nutqi. http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017

[2]Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig`ilishi.

qatnashib bo‘lmaydi. Shuning uchun maxsus adabiyotlardan siyosiy madaniyat davlat-jamiyat-shaxs munosabatlari o`rtasida rioya etiladigan normalar, qadriyatlar, ustanovkalar sifatida jamiyatning siyosiy idealini, tajribasini va boshqarishga oid faoliyatlarini ifoda qiladigan voqealikdir, deb tarif beriladi.[1]

Bizga ma`lumki, madaniyat, zehniya shu qadar murakkab shakllanuvchi va qiyin o`zgaruvchi jarayonki, bu insonlarning va jamiyatning dunyoqarashi va ishonchi bilan bog`liq. Agar odamlar qadriyatni, dunyoqarashni samimiylik va chuqur ishonch bilan qabul qilmas ekan, aytilga fikrlar qisqa muddatli effektga ega bo`ladi va odamlar vaziyatni biroz ishonchsizlik bilan kuzatishda davom etaverishadi. Madaniyat esa ijtimoiy hayotda amal qilinadigan rasmiy va norasmiy normalarga rioya etish darajasini ifoda etadigan tushunchadir.

Yoshlarning Mahalla ma`naviy-madaniy hayotini tashkil etish va boshqarishda ishtirok qilish ularda ijtimoiy faollikni shakllantiradi, undagi o`zining ijodiy tashkilotchilik qobiliyatini o`stiradi. Aholi bilan muloqot esa kishilarda munosabatlarni mustahkamlaydi, bir-biriga yordam berish, ahil bo`lib yashash, kommunitar turmush tarzining afzalligini tuyish imkonini beradi. Milliy o`zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning obyektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o`zlikning anglashning shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratadi va u madaniyatda o`z ifodasini topadi. Agar xalqlarning mental xususiyatlaridan kelib chiqib fikr yuritadigan bo`lsak, bizga malumki, o`zbek xalqi g`ururi, oriyati, ma`naviyati baland xalq hisoblanadi. Bu hech shubhasiz, katta boylik Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo`qotib qo`ysak, kelgusi avlodlar bizni also kechirmaydi.

Bizning fikrimizcha, madaniyat o`zini o`zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida amal qilinishi ikki darajada rivojlanishi mumkin: birinchi-milliy birlikning o`zgarayotgan vaziyatga moslashivuni nazarda tutuvchi moslashish darajasida; ikkinchi-milliy tuzilmalar faoliyatining u yoki bu jihatlari faol tus olishidan iborat bo`lgan moslashish darajasida. Shaxsning madaniyati darajasining madaniy yuksalishini ta`minlovchi milliy uyg`onishda ma`rifat va vatanparvarlik ulkan ro`l o`ynaydi. Aynan shu omillar uning poklanishiga, soxta ideallar va g`oyaviy illyuziyalardan xalos bo`lishiga ko`maklashishi, halollik, ezgulik va haqiqatning qaror topishiga imkoniyat yaratish mumkin Ma`rifat va vatanparvarlikdan xalqni kamsitgan va kamsituvchi hamma narsaga chuqur nafrat shakllarini topish va targ`ib qilishgina emas, balki ezgulik va oliyjanoblik urug`ini sochuvchi hamma narsani ulug`lashni ham kutish o`rinli bo`ladi

Tajriba milliy omillarni tushunmaslik, ularni e`tiborga olmaslik yoki ularga loqaydlik, milliy hayotning barcha sohalarini yangilash asoslari haqidagi dogmatik fikrlash uslubi, ushbu jarayonda mavjud jiddiyatlarga e`tiborsizlik, milliy va vatanparvarlik asoslarining rivojlanishi yo`lida sun`iy to`siqlar yaratish milliy rivojlanish uchungina emas, balki umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyoti uchun ham zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Madaniyat, milliy o`zlikni anglash, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar yaxlit hodisa-inson ma`naviy dunyosinig muhim omillaridir. Xulosa qilib aytganda jamiyatga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun yoshlarni ma’naviy tarbiya va

[1] Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig`ilishi. 260-261 betlar.

madaniyatini shakllantirish muhim omillardan biri bo`lib, ijtimoiy faollikni ta`minlaydi. Bu esa o`z navbatida siyosiy-huquqiy bilimlarni talab etadi. Faqat siyosiy-huquqiy bilimga va madaniyatga ega shaxsgina jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashadi, ijtimoiy faollikni o`zining fuqarolik burchi deb bilad. Yoshlarda milliy o`zlikni anglash kabi tushunchalarni paydo qilish uchun uchun moddiy va madaniy meroslarni chuqur o`rganish ham talab etilmoqda. Bu fazilarlarni uyg`un ravishda shakllantirishni va rivojlantirishni O`zbekistonda uchinchi Renesans poydevorini yaratish asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida “Ijtimoiy barkamollikni ta`minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash -davr talabi” mavzusidagi anjumanda so`zlagan nutqi. http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017

2. Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig`ilishidagi nutqi

3. O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to`g`risidagi xujjatlar. -T,1991; Mustaqil tarixi- Toshkent: Sharq;2000;

4. Muxayev R.T. Politologiya. Uchebnik 1997 260-261 betlar

5. Otamurodov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari Toshkent “O`zbekiston” 2015

6. Abilov U. Mustaqil O`zbekiston falsafa fanining dolzarb muammolari-Toshkent-1997

7. kun.uz 26.01.2020

8. www.yuz.uz A.Ikromov O`zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vaziri. Yangi O`zbekiston gazetasi 2023-yil 14-noyabr 3-son

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING MEDIA SAVODXONLIGI: INGLIZ TILIDAGI RAQAMLI KONTENTNING MA’NAVIY QADRIYATLARGA TA’SIRI

Ochilova Diyora Axtam qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Globallashuv va raqamli platformalarning keng tarqalishi yoshlarning informatsion maydoniga yangi oqimlar kiritdi. Ingliz tilidagi kontent global ommaviy axborot oqimining markazida turib, mahalliy madaniy qadriyatlarni sinovdan o‘tkazmoqda. Media savodxonlik nazariyasi bu muammoni hal etuvchi kalit hisoblanadi: media matnini tanib olish, tahlil qilish va ijodiy qayta ishlash kompetentsiyalari yoshlar ongini mustahkamlash mumkinligini ko‘rsatadi [1, 7]. “EU Kids Online” tadqiqot markazi

19ta mamlakat bo‘yicha 25,101 nafar o’smirni o‘rganib, yoshlarning onlayn faoliyatlari va ularning xavf/foyda ko’rsatkichlarini xaritaladi (EU Kids Online, 2020, [p.1; p.13]).

Media-savodxonlik tushunchasi insonni mediada konstruksiya qilingan mazmunni tahlil qilishga o‘rgatadi (Livingstone, 2020, [p.1]). UNESCO va xalqaro tadqiqotlar media-savodxonlikni fuqarolik huquqi va demokratik ishtirok uchun asosiy kompetentsiya deb ataydi (UNESCO, 2020, [p.3–4]). “Global Kids Online” va “Nominet Digital Youth Index” kabi tadqiqotlar yoshlar raqamli hayotining turlicha tomonlarini — ijtimoiy, psixologik va madaniy — statistik asosda tasvirlaydi (UNICEF, 2019, [p.1]; Nominet, 2022, [p.2]). “Pew Research 2023” tadqiqoti AQShda 1,453 o‘smir ishtirokida o‘tkazilib, yoshlar orasida platformaga qaramlik va kontent iste’moli tendensiyalarini aniq ko‘rsatadi (Pew Research, 2023, [p.1]).

Maqolada asosiy ma’lumot manbalari sifatida asosan ingliz tilidagi xalqaro tadqiqotlar va o‘rganilgan adabiyotlardan foydalandim: Livingstone (LSE eprints), UNESCO Media and Information Literacy Curriculum for Teachers hujjati, EU Kids Online 2020, Global Kids Online (UNICEF), Pew Research (2023), Nominet Digital Youth Index (2022), TikTok Ads What's Next (2023). Har bir hujjatning tegishli bo‘limlari o‘qildi va maqolada ko‘rsatilgan dalillar shular asosida yig‘ildi. Hozirgi kunga kelib, yoshlar ingliz, rus va boshqa chet tillaridan foydalangan holda quyidagi guruhlarga bo’linadi:

1. Yoshlar ingliz tilidagi kontentni faol iste’mol qiladi — platforma tendensiyalari va Pew/TikTok statistikasi bunga dalil (Pew, 2023, [p.1]; TikTok, 2023, [p.3]).

2. Media madaniyatga ikkala yo‘l bilan ta’sir qiladi — foydali ham, xavfli ham. Ijobiy tomoni shundaki, Internet va media bolalarga o‘z fikrini erkin aytish, o‘z madaniyatini ko‘rsatish va dunyo bilan bog‘lanish imkonini beradi. Ya’ni ular global hayotda ishtirok etishadi. Ammo, bu masalaning ijobiy tomoni bo’lgani kabi salbiy tomoni ham mavjud. Internetdagi ba’zi kontentlar bizning mahalliy qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmasligi mumkin — masalan, yoshlar uchun mos bo‘lmagan g‘oyalar, turmush tarzlari yoki xatti-harakatlarning tarqalishi. (UNICEF, 2019, [p.1]; EU Kids Online, 2020, [p.1; p.13]).

3. **Yoshlar internetdan foydalanayotganda o‘zlarini xavfsiz his qilishadi.** Ular ko‘p xavflarni sezmaydi yoki jiddiy deb hisoblamaydi. **Kattalar esa aksincha — ko‘proq xavotir qiladi.** Ota-onalar, o‘qituvchilar yoki mutaxassislar yoshlar duch kelishi mumkin bo‘lgan xavflar (cyber bullying – kiber zo’ravonlik, yolg‘on ma’lumot, zararli kontent)ni ancha ko‘proq sezadi. (EU Kids Online, 2020, [p.1]; Nominet, 2022, [p.2]).

4. **Internetdagi algoritmlar yoshlarni o‘zlari xohlamagan holda ham ma’lum turdagi videolar, postlar yoki kontentga yo‘naltiradi.** Masalan, TikTok yoki Instagram biror narsaga 2–3 marta qarasangiz, shunga o‘xshash kontentni ko‘proq chiqaradi. Shu sababli **media-savodxonlik faqat “bu yolg‘on, bu rost” deb topishdan iborat bo‘lmasligi kerak.** Yoshlar **algoritmlar qanday ishlashini** ham o’rganishi kerak. (UNESCO, 2020, [p.3–4]). Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo’lsak, ingliz tilidagi kontent yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini ikki xil yo‘l bilan shakllantiradi:

- Ijobiy ta’sir: global fuqarolik, o‘zini ifoda etish va madaniyatlararo muloqot (intercultural communication) imkoniyatlari;

- Salbiy ta’sir: lokal (mahalliy) qadriyatlar bilan ziddiyat, stereotiplash va ba’zan identitet ziddiyati. Bu holatni faqat boshqarish emas, balki ta’lim orqali moslashtirish

mumkin: media-savodxonlikni ingliz tili darslari bilan integratsiyalash, kontekstual muhokamalar (case-studies of trending content), va kampusdagi mentorlarga platforma monitoringi berish samarali amaliy choralar bo‘ladi. Universitetlar va o‘qituvchilar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi:

1. Media-savodxonlik modulini ingliz tili kurslariga qo‘shish: har hafta 1 seminar (TikTok/YouTube case-study + critical discussion) (UNESCO, 2020, [p.3–4]).

2. Algoritm savodxonligi treninglari: talabalar algoritmlar qanday ishlashini oddiy terminlarda o‘rganishi kerak (EU Kids Online, 2020, [p.13]; Nominet, 2022, [p.2]).

3. Mahalliy madaniyatni mustahkamlovchi kontent yaratuvchilar qo‘llab-quvvatlansin: universitet grantlari orqali ingliz tilida, ammo mahalliy qadriyatlarni aks ettiruvchi videolar va podkastlar yaratish zarur (UNICEF, 2019, [p.1]).

4. Monitoring va baholash: kampus miqyosida yoshlarning kontent iste’molini o‘lchovchi yillik so‘rovnomalar o’tkazish lozim (Pew, 2023, [p.1]; Nominet, 2022, [p.2]).

Xulosa. Ingliz tilidagi raqamli kontent yoshlar ma’naviyati va identitetini shakllantirishda kuchli omil hisoblanadi. Ta’sirni yo‘lga qo‘yish uchun ta’limiy, texnologik va siyosiy choralar talab etiladi. Universitetlar, ayniqsa filologiya va ta’lim fakultetlari, media-savodxonlikni ingliz tili ta’limiga integratsiyalash orqali yoshlarni global xabardorlik bilan mahalliy qadriyatlarni muvofiqlashtira oladigan fuqaroga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Livingstone, S. “What is media literacy?” — LSE eprints (PDF), [p.1].

2. UNESCO. “Media and Information Literacy Curriculum for Teachers”/ Media and Information Literacy overview (PDF), [p.3–4].

3. EU Kids Online. “EU Kids Online 2020: Survey results from 19 countries” (PDF), [p.1; p.13].

4. UNICEF Office of Research. “Global Kids Online: Growing up in a connected world” (Comparative report, 2019) (PDF), [p.1].

5. Pew Research Center. “Teens, Social Media & Technology 2023” (PDF), [p.1].

6. TikTok Ads / What's Next. “2023 Trend Report” (PDF), [p.3].

7. Nominet. “Digital Youth Index Report 2022” (PDF), [p.2].

8. EU Kids Online technical report / methodological annex (PDF), [p.1].

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR MA’NAVIY QIYOFASIGA TA’SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Odilov Komiljon Furqatjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Yangi O‘zbekiston davrida yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuvning chuqurlashuvi, axborot oqimlarining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat

yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ommaviy madaniyatning ko‘plab mahsulotlari — musiqiy yo‘nalishlar, qisqa video kontentlar, reklama, blogerlik faoliyati, internet-memlar va hayot tarzi stereotiplari yoshlarning qadriyatlar tizimini qayta shakllantirish jarayonini tezlashtirmoqda. Ushbu jarayonda yoshlar ongida ijobiy imkoniyatlar (kreativlik, kommunikativ madaniyat, global kompetensiyalar) bilan bir qatorda, ma’naviy bo‘shliq, iste’molchilik kayfiyati, yengil-elpak qarashlar singari muammolar ham kuchaymoqda.

Shu bois, Yangi O‘zbekiston sharoitida ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviy qiyofasiga ta’sirini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish, uning ijtimoiy va ma’naviy oqibatlarini baholash, shuningdek, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni taklif etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ommaviy madaniyatning mazmun-mohiyati, uning tarqalish mexanizmlari, yoshlar ongiga ta’sir qilish psixologik va sotsiokulturologik jihatlari, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy siyosati bilan bog‘liq strategik yondashuvlar tizimli tahlil qilinadi.

Ommaviy madaniyatning yoshlar dunyoqarashi va axloqiy qarashlariga ta’siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik taraqqiyot kuchaygan sari ma’naviy tarbiya masalasi ham yanada murakkablashib bormoqda.[1] Shunday ekan, mavjud jarayonlarni ilmiy asosda baholash va ularni zamonaviy ma’naviy siyosat bilan uyg‘unlashtirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviy hayotiga ta’siri ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u sotsiokultural omillar, axborot texnologiyalari rivoji va global kommunikatsiya dinamikasi bilan bevosita bog‘liq. Ommaviy madaniyatning asosiy xususiyati — uning keng auditoriyaga tezkor yetib borishi, axborotning soddalashtirilgan, ko‘ngilochar va ko‘pincha emotsional shaklda taqdim etilishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda yoshlar turli media platformalardan — TikTok, Instagram, YouTube, Telegram — bir vaqtning o‘zida turli xil madaniy signallarni qabul qilmoqda. Bu esa ularning ongida madaniy qabul qilish tezligi, emotsional reaksiya va axloqiy baholash jarayonlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Ommaviy madaniyatning ijobiy ta’siri, birinchi navbatda, yoshlarning global dunyoqarashini kengaytirish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Media madaniyat orqali yoshlar xorijiy tillarni tezroq o‘zlashtirmoqda, turli xalqlarning urf-odatlari bilan tanishyapti, texnologik innovatsiyalar bilan tez moslashmoqda. Bundan tashqari, motivatsion kontent, kreativ loyihalar, ilmiy-populyar videolar va ijtimoiy mavzulardagi muhokamalar ham yoshlarning intellektual rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Biroq ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri ham jiddiy ilmiy muammo sifatida ko‘rilmoqda. Avvalo, iste’molchilik kayfiyati kuchayishi, hayotiy maqsadlarning soddalashtirilishi, yengil-elpak qadriyatlarning ideal sifatida targ‘ib qilinishi yoshlarning ma’naviy barqarorligiga tahdid solmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan “tez muvaffaqiyat”, “boylikni namunaviy hayot mezoni sifatida ko‘rsatish”, “shaxsiy hayotni

[1] Ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri haqida qarang: Toffler A. Future Shock. New York: Bantam Books, 1990.

namoyish etish” kabi fenomenlar yoshlar ongida real hayot va virtual hayot o‘rtasida tafovutni kuchaytirishi mumkin. Natijada, ma’naviy bo‘shliq, psixologik bosim, past o‘zini baholash kabi salbiy holatlar ham yuzaga chiqmoqda.

Yana bir muhim jihat — ommaviy madaniyatning milliy identitetga ta’siri. Ba’zi ommabop kontentlar orqali individualizm, hedonizm va utilitar qarashlar targ‘ib qilinishi natijasida yoshlar orasida milliy qadriyatlardan uzoqlashish, tarixiy xotiraga befarqlik, ma’naviy merosga nisbatan sovuqlik paydo bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy kontent ishlab chiqaruvchilarning soni ko‘paygani, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi dasturlar, ko‘rsatuvlar, internet loyihalarining ko‘payishi bu jarayonni muvozanatlayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta’siri, asosan, “ijtimoiy ta’sir mexanizmlari”, “identifikatsiya”, “imitatsiya”, “qadriyatlar almashinuvi” kabi psixologik jarayonlar orqali sodir bo‘ladi. Yoshlar ko‘pincha ommabop shaxslar, blogerlar, estrada yulduzlari, internet trenlarini o‘ziga namuna sifatida qabul qiladi. Shu jarayonda ularning axloqiy qarashlari, ma’naviy ideallari va hayotiy pozitsiyalari o‘zgaradi. Mazkur o‘zgarishlar ijobiy bo‘lishi mumkin, ammo nazoratsiz ommaviy axborot oqimi ma’naviy xavfsizlik masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Shu sababli Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy siyosat ommaviy madaniyat jarayonlarini boshqarish, yoshlar uchun sog‘lom axborot muhitini yaratish, oila va ta’lim tizimi orqali ma’naviy immunitetni kuchaytirish kabi strategik vazifalarni ilgari surmoqda. [1]Shu bilan birga, ilmiy asoslangan media-savodxonlik dasturlari, yoshlar bilan ishlashning zamonaviy pedagogik yondashuvlari ham ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishidir.[2]

Ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviy hayotiga ta’siri Yangi O‘zbekiston sharoitida strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-madaniy masala hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv va raqamli kommunikatsiya muhiti kengaygani sari yoshlar ongiga turli xil madaniy, axloqiy, estetik signallar ta’siri kuchayib bormoqda. Bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, jiddiy ma’naviy muammolar yuzaga chiqmoqda. Demak, ommaviy madaniyatni to‘liq inkor etish emas, balki uni boshqarish, yo‘naltirish va sog‘lom mezonlar asosida rivojlantirish dolzarbdir.

Ommaviy madaniyatning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, u yoshlarni global axborot makoniga integratsiyalashuviga, kreativlik va tashabbuskorlik rivojiga, axborotga tezkor moslashuviga xizmat qiladi. Yoshlar dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘ladi, ingliz tilini mustaqil o‘rgana oladi, xorijiy ta’lim dasturlari, texnologik innovatsiyalar bilan tanishadi. Bundan tashqari, ilmiy-populyar kontentlarning ko‘payishi ularning intellektual saviyasini oshirishga ham yordam bermoqda.

Biroq salbiy oqibatlar ham kam emas. Eng muhim xavflardan biri — yoshlarning ma’naviy qadriyatlari almashinuvida beqarorlik sodir bo‘lishi. Ommaviy madaniyat orqali namoyish etilayotgan yengil-elpak kontent, tez boyish, virtual muvaffaqiyat va shaxsiy hayotni namoyish qilish stereotiplari yoshlarning ongida noto‘g‘ri hayotiy mezonlarni shakllantirishi mumkin. Natijada iste’molchilik ruhiyati kuchayishi, ma’naviy bo‘shliq,

[1] Qarang: Baumann Z. Culture in a Liquid Modern World. Cambridge: Polity Press, 2011.
[2] Qarang: Livingstone S. Media Literacy and the Challenge of New Media. Oxford University Press, 2018.

qadriyatlardan uzoqlashish, ruhiy beqarorlik, ijtimoiy mas’uliyatning pasayishi kabi muammolar kuzatiladi.

Shunday ekan, yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlash bo‘yicha bir nechta strategik yo‘nalishlar muhimdir:

— **Birinchidan**, ta’lim tizimida media-savodxonlikni rivojlantirish zarur. Yoshlar axborotni tanlash, tahlil qilish, filtrdan o‘tkazish, yolg‘on va manipulyativ kontentni tanish ko‘nikmasini egallashi kerak.

— **Ikkinchidan**, oilada ma’naviy tarbiya kuchaytirilishi, ota-onalar farzandlari iste’mol qilayotgan media kontentdan xabardor bo‘lishi lozim.

— **Uchinchidan**, mahalliy kontent ishlab chiqarishning sifatini oshirish, milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda targ‘ib qiluvchi loyihalarni ko‘paytirish ma’naviy barqarorlikning muhim omilidir.

— **To‘rtinchidan**, davlat siyosati yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga qadriyaviy asoslangan madaniy muhit yaratish, sog‘lom ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy madaniyatni yoshlar ma’naviyatiga tahdid sifatida emas, balki uni boshqarish va sog‘lomlashtirish orqali ijobiy kuchga aylantirish mumkin. Bunda davlat, oila, ta’lim, jamiyat va media subyektlarining hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy siyosatning samarali amalga oshirilishi, yoshlarning madaniy immuniteti, axloqiy barqarorligi va milliy identitetning mustahkamlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri haqida qarang: Toffler A. *Future Shock*. New York: Bantam Books, 1990.

Qarang: Baumann Z. *Culture in a Liquid Modern World*. Cambridge: Polity Press, 2011.

Qarang: Livingstone S. *Media Literacy and the Challenge of New Media*. Oxford University Press, 2018.

RENESSANS YOSHLARI VA ZAMONAVIY YOSHLAR: GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY UYG‘ONISHNING IKKI MODELI

Odilova Nilufar Zoirjon qizi
O‘zMU talabasi

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda jamiyatda yosh avlod ma’naviyati masalasi doimiy ravishda ilmiy va jamoatchilik muhokamasining markazida bo‘lib kelmoqda. Globallashuv jarayonlari natijasida madaniy ta’sirlar intensivlashuvi, axborot almashinuvi sur’atining mislsiz tezlashuvi hamda kommunikatsiya texnologiyalarining keng ommalashuvi yoshlarning an’anaviy qadriyatlar tizimidan uzoqlashishi ehtimoli haqida turli doiralarda xavotirli baholarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu kontekstda jamiyatda “yoshlar ma’naviyati yo‘qolyapti” mazmunidagi fikrlar tez-tez uchrab, u ko‘pincha

globallashuvning salbiy oqibatlari bilan izohlanadi hamda avvalgi avlodlar tajribasi bilan qiyosiy tarzda talqin qilinadi.

Biroq tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ma’naviyati va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni “tanazzul” sifatida baholashga moyillik turli davrlarda ham uchragan. Xususan, XV asr Italiya shaharlaridagi ijtimoiy kayfiyatda ham yoshlarning yangi bilimlar va madaniy manbalarga murojaati an’anaviy muhit tomonidan shubha bilan qabul qilingan: yoshlar lotin tilidan tashqari arab va yunon tillarini o‘rganishi, cherkov amaliyotidan uzoqlashishi, antik adabiyotga qiziqishi hamda san’at va haykaltaroshlik bilan shug‘ullanishi “ma’naviy og‘ish” sifatida talqin etilgan.

XIV–XVI asrlarda Yevropa sivilizatsiyasi ko‘pincha “birinchi globallashuv” to‘lqini sifatida tavsiflanadigan jarayonlarni boshdan kechirdi: geografik kashfiyotlar, savdo yo‘llarining kengayishi, arab hamda yunon-rim ilmiy merosining qayta kashf etilishi va kitob bosish texnologiyasining joriy etilishi axborot muhitini tubdan o‘zgartirdi. Mazkur o‘zgarishlar, avvalo, yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijodiy faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab zamondoshlar tomonidan “ma’naviy tanazzul” sifatida baholangan bu jarayonlar keyinchalik Renessans deb ataladigan yirik madaniy-ma’naviy uyg‘onishning shakllanishi uchun zamin yaratdi.

Shu asosda globallashuvni biryoqlama salbiy hodisa sifatida emas, balki bir vaqtning o‘zida xavf-xatarlar va imkoniyatlarni mujassam etuvchi murakkab jarayon sifatida talqin qilish mumkin. Renessans davri yoshlari tashqi madaniy ta’sirlarni passiv tarzda qabul qilish bilan cheklanmay, ularni mavjud qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi ma’naviy-ijtimoiy yo‘nalishlarni vujudga keltira oldilar. XXI asrning raqamli globallashuvi sharoitida ham yosh avlod oldida shunga o‘xshash tanlov dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Renessans davri yoshlarining globallashuv sharoitidagi tajribasini tahlil qilish hamda uni zamonaviy yoshlarning ma’naviy qadriyatlari bilan qiyoslash orqali quyidagi ilmiy savolga javob izlashdan iborat: globallashuv jarayonlari ma’naviy qadriyatlar tizimining muqarrar tanazzuliga olib keladimi yoki u yangi ma’naviy sintez uchun sharoit yaratadimi? Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, Renessans davridagi madaniy-ma’naviy transformatsiyalarni belgilagan asosiy mexanizmlarni to‘g‘ri anglash va metodik jihatdan qo‘llash zamonaviy sharoitda ham yoshlar ma’naviy rivojlanishini ilmiy asosda yo‘naltirish imkonini beradi.

Maqola uch asosiy tarkibiy qismdan iborat. Birinchi qismda XIV–XVI asrlarda Yevropada kechgan globallashuv jarayonlari hamda ularning yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Ikkinchi qism XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan globallashuv jarayonlari va ularning zamonaviy yoshlarning ma’naviy yo‘nalishlariga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Uchinchi qismda esa ikki tarixiy davr o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi hamda zamonaviy sharoit uchun ilmiy-amaliy xulosalar shakllantiriladi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-solishtirma metod, madaniyatshunoslik va sotsiologik yondashuvlardan foydalaniladi. Ishning nazariy-metodologik asosini Y. Burkxardt, L. M. Batkin, A. F. Losev, Z. Bauman, J. M. Twenge kabi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy

qarashlari, shuningdek, I. A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari hamda O‘zbekiston Respublikasida milliy ma’naviyat va yoshlar tarbiyasiga oid rasmiy materiallar (jumladan, Ma’naviyat va ma’rifat markazlari nashrlari) tashkil etadi.

Tadqiqotlar natijalari. XIV–XVI asrlar Yevropa madaniy taraqqiyotida tub burilish davri bo‘lib, ushbu bosqich ilmiy adabiyotlarda Renessans (Uyg‘onish) nomi bilan tavsiflanadi. Mazkur davr nafaqat san’at va ilm-fan sohalaridagi yuksalish bilan, balki keng ko‘lamli globallashuv jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida ham ahamiyatlidir. Savdo yo‘llarining kengayishi, yangi geografik hududlarning kashf etilishi hamda kitob bosish texnologiyasining joriy etilishi Yevropa jamiyatining axborot va madaniy muhitini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu jarayonlar keyingi tarixiy davrlarda raqamli kommunikatsiya vositalari bajarayotgan funksiyalarga qiyoslanishi mumkin.

Mazkur o‘zgarishlar, avvalo, yosh avlodning dunyoqarashi va ma’naviy shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yoshlar yangi bilim manbalarini faol o‘zlashtirish orqali mavjud qadriyatlar tizimini qayta anglash va yangicha talqin qilishga intildilar. Renessans davridagi globallashuv jarayonlarining asosiy omillari iqtisodiy va texnologik transformatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa dengiz savdosining rivojlanishi va uzoq hududlar bilan aloqalarning kengayishi muhim rol o‘ynadi. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Portugaliya va Ispaniya dengizchilari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar, jumladan, Xristofor Kolumbning 1492-yilda Amerika qit’asiga yetib borishi, yangi savdo yo‘llarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Mazkur jarayonlar iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda madaniy almashinuvni ham jadallashtirdi: Osiyo va Afrika mintaqalaridan Yevropaga nafaqat moddiy boyliklar, balki ilmiy-falsafiy meros ham kirib keldi. Bu borada Ispaniyadagi mashhur Toledo tarjima maktabining faoliyati alohida ahamiyat kasb etib, arab tilidagi ilmiy asarlarning lotin tiliga tarjima qilinishi orqali ularning Yevropa intellektual muhitiga keng kirib borishini ta’minladi. Jumladan, Ibn Sino va Al-Xorazmiy kabi sharq mutafakkirlarining asarlari tarjimalari yunon-rim ilmiy an’analarining qayta kashf etilishi va rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi [1, 45–47-betlar].

Shu bilan birga, Iogann Gutenberg tomonidan XV asr o‘rtalarida (taxminan 1440-yil) kitob bosish texnologiyasining joriy etilishi Yevropada axborot muhitining tubdan o‘zgarishiga olib kelib, keng ma’noda axborot inqilobining boshlanishiga zamin yaratdi. Bosma kitoblar sonining tez sur’atlarda ko‘payishi natijasida bilim faqat tor doiradagi ijtimoiy qatlamlar mulki bo‘lib qolmay, balki jamiyatning kengroq qatlamlari, xususan, yosh avlod uchun ham nisbatan ochiq bo‘la boshladi.

Shveytsariyalik tarixchi Yakob Burkxardt mazkur jarayonni “madaniy inqilob” sifatida tavsiflab, matbaa qadimgi matnlarning ommaviy tarqalishini ta’minlash orqali yangi avlodning intellektual va ma’naviy ongini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi [2, 112-bet]. O‘zbek olimi Anvar Choriyev ham ushbu jarayonlarni tahlil qilib, Renessans davrida matbaa zamonaviy davrda internet bajaradigan funksiyaga qiyoslanadigan tarzda, ma’naviy va madaniy sintezning shakllanishi uchun muhim shart-sharoit yaratganini ta’kidlaydi [3, 78-bet]. Mazkur globallashuv jarayonlari yosh avlod faoliyatida bevosita namoyon bo‘ldi. Yoshlar, asosan 15–25 yosh oralig‘idagi qatlam vakillari, savdo va madaniy almashinuv markazlari hisoblangan Florensiya va Venetsiya

kabi shaharlarda ijtimoiy va intellektual jihatdan faol ishtirok etdilar, shuningdek, chet el sayohatlariga chiqish orqali turli madaniy muhitlar bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu holat ularning dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, dastlabki bosqichda ma’naviy ziddiyatlarni ham keltirib chiqardi. Xususan, an’anaviy xristian qadriyatlar tizimi yangi shakllanayotgan gumanistik g‘oyalar bilan to‘qnashib, zamondoshlar tomonidan ko‘pincha “ma’naviy inqiroz” sifatida talqin etilgan murakkab transformatsion jarayonlarni yuzaga chiqardi.

Renessans davri yoshlari ijtimoiy jihatdan nisbatan erkinroq va faolroq mavqega ega bo‘ldilar. Ushbu jarayonda oliy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengayishi muhim ahamiyat kasb etdi: Bolonya (1088-yilda asos solingan) va Padova kabi yirik universitetlar Yevropaning yetakchi intellektual markazlariga aylandi. Mazkur o‘quv dargohlarida tahsil olgan yoshlar, odatda 18–22 yosh oralig‘ida bo‘lib, ularning hayot tarzi akademik ta’lim, ilmiy munozaralar, sayohatlar hamda ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq edi [4, 156–158-betlar].

Bolonya universitetining huquq fakultetida tahsil olgan yoshlar soni XIII asrdayoq 10 ming nafarga yetgani ma’lum bo‘lib, bu yerda ular klassik tillar — lotin va yunon tillari, shuningdek, gumanitar fanlarni chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Padova universiteti esa tibbiyot va falsafa yo‘nalishlari bo‘yicha yetakchi ilmiy markaz sifatida shakllanib, bu muhitda keyinchalik Nikolay Kopernik kabi yirik olimlar yetishib chiqdi. Mazkur universitet muhiti Renessans davri yoshlarining intellektual faolligi va ma’naviy qidiruvlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Yosh gumanistlar ushbu davrning eng yorqin vakillari sifatida namoyon bo‘ldilar. Franchesko Petrarka (1304–1374), ko‘pincha “gumanizm otasi” sifatida e’tirof etiladigan mutafakkir, 1341-yilda Rim shahrida shoirlik tojiga sazovor bo‘lgan birinchi zamonaviy shoir sifatida tarixga kirdi. U qadimgi mualliflar, xususan Tsitseronning maktublarini izlab topish va tadqiq etish orqali “ad fontes” — “manbalarga qaytish” g‘oyasini ilgari surdi. Rotterdamlik Erazm (1466–1536) esa yunon tilidagi Yangi Ahdni qayta nashr etish (1516-yil) orqali xristian gumanizmining rivojiga sezilarli hissa qo‘shdi hamda “Ahmoqlik madhi” (1511) asarida jamiyatdagi ma’naviy va ijtimoiy illatlarni tanqidiy tahlil qildi.

Rus tadqiqotchisi L. M. Batkin ushbu yosh gumanistlarni “o‘z hayotini san’at sifatida quruvchi shaxslar” deb ta’riflab, Petrarkaning sayohatlari va epistolyar merosini bunga misol sifatida keltiradi. Uning ta’kidlashicha, Petrarkaning Rimdan Avinyonga qilgan sayohatlari va qadimgi qadriyatlarga murojaat qilishi Renessans yoshlari uchun xos bo‘lgan chuqur ma’naviy izlanishlar va o‘zlikni anglash jarayonini ifodalaydi [4, 89-bet]. L.M. Batkinning ta’kidlashicha, yosh gumanistlarning kundalik hayot tarzi — kiyinish madaniyati, muloqot shakllari va kitobxonlik amaliyoti — qadimgi madaniy modellar asosida shakllangan bo‘lib, aynan shu jarayon ularning ijtimoiy va ma’naviy jihatdan “yangi inson” sifatida vujudga kelishiga xizmat qilgan [4, 92–94-betlar]. O‘zbek tadqiqotchisi Anvar Choriyev ham mazkur jarayonni tahlil qilib, Renessans davri yoshlari insonparvarlik g‘oyalarini o‘zlashtirish jarayonida Sharq madaniy merosi bilan samarali sintezga erishganini ta’kidlaydi [3, 112-bet].

Renessans davri yoshlari ma’naviy dunyoqarashidagi o‘zgarishlar “ad fontes” — “manbalarga qaytish” shiori bilan chambarchas bog‘liq edi. Mazkur tamoyil yunon-rim

klassik merosiga murojaat qilishni anglatib, yoshlarning Platon va Aristotel asarlarini faol o‘rganishi orqali an’anaviy teologik tafakkur doirasidan qisman chiqishiga olib keldi. Ushbu jarayon natijasida shaxsning individual rivoji va erkinligini asosiy qadriyat sifatida ilgari suruvchi individualizm g‘oyasi shakllana boshladi.

A. F. Losev ushbu jarayonni “inson shaxsiyatining estetik uyg‘onishi” sifatida tavsiflab, Renessans estetikasi individualizmni targ‘ib etgan bo‘lsa-da, mazkur hodisa diniy asoslardan to‘liq ajralmaganini alohida ta’kidlaydi [5, 234-bet].

Mazkur ma’naviy va dunyoqarashdagi o‘zgarishlar san’at va adabiyotda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Leonardo da Vinchi (1452–1519) va Mikelanjelo (1475–1564) kabi Renessans davri ijodkorlari inson tanasini estetik va g‘oyaviy jihatdan idealizatsiya qilgan asarlarida “yangi inson” obrazini shakllantirdilar. Ushbu asarlarda inson shaxsiyati, uning jismoniy va ruhiy mukammalligi markaziy mavqega ko‘tarildi.

Yakob Burkxardt bunday yosh ijodkorlarni “globallashuvning ijodiy vakillari” sifatida baholab, ular yangi bilimlar va kashfiyotlarni san’at tilida ifodalash orqali madaniy hamda ma’naviy sintezni yuzaga keltirganini ta’kidlaydi [2, 201–203-betlar]. Biroq ushbu o‘zgarishlar diniy inkvizitsiya hamda an’anaviy ijtimoiy tuzilmalarning qarshiligi sharoitida, yosh avlod faoliyatiga nisbatan kuchli bosim mavjud bo‘lgan muhitda kechdi. Shunga qaramay, yosh gumanistlarning intellektual va ijodiy faoliyati mazkur davrni tarixda Renessans nomi bilan tanilgan yirik ma’naviy uyg‘onish bosqichiga aylantirdi. Xulosa qilib aytganda, XIV–XVI asr yoshlari globallashuv jarayonlarini xavf manbai sifatida emas, balki ma’naviy va madaniy rivojlanish imkoniyati sifatida anglab, ulardan samarali foydalanishga intildilar [7, 156-bet].

XXI asr boshidan boshlab insoniyat globallashuvning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi, bu jarayon avvalgi tarixiy davrlarga nisbatan ancha tezkor va chuqur xarakter kasb etmoqda. Agar Renessans davrida matbaa va savdo yo‘llarining kengayishi axborot almashinuvini bir necha baravar tezlashtirgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda internet va mobil texnologiyalar ushbu jarayonni mislsiz darajada jadallashtirdi. Internet tarmog‘ining keng tarqalishi va smartfonlarning ommalashuvi axborot oqimining hajmi va tezligini tubdan o‘zgartirib, qisqa vaqt ichida ulkan miqdordagi vizual va matnli kontentning global miqyosda tarqalishiga imkon yaratdi. Natijada, madaniy chegaralarning nisbiy ravishda yo‘qolishi va turli madaniy maydonlarning o‘zaro yaqinlashuvi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida mazkur jarayon milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv asosida rivojlanmoqda. I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, globallashuv sharoitida jamiyatning ruhiy boyligini asrab-avaylash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ma’naviyat shaxs va jamiyatni tashqi ta’sirlardan himoya qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [6, 45-bet]. Z. Bauman esa zamonaviy jamiyatni “oqim jamiyati” deb atab, unda “doimiy o‘zgarish va noaniqlik” hukmronligini ko‘rsatadi [7, 112–118-betlar]. Bu yoshlarga cheksiz imkoniyatlar ochsa-da, tanlov mas’uliyatini ham oshiradi.

1997–2012-yillar oralig‘ida tug‘ilgan Z-avlod raqamli muhitda shakllangan birinchi avlod sifatida tavsiflanadi. Raqamli globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari ushbu

avlod vakillarida, avvalo, ruhiy salomatlikning zaiflashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda. Amerikalik psixolog J. M. Twenge olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Z-avlod vakillari avvalgi avlodlarga nisbatan tashvish, depressiya va yolg‘izlik holatlariga ko‘proq duch kelmoqda. Xususan, 2019-yilda AQShda o‘tkazilgan so‘rov natijalarida o‘smirlarning 70 foizi o‘zini “doimiy stress holatida” his qilayotganini bildirgan [8, 89–94-betlar]. O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash tendensiyalar kuzatilmoqda. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Toshkent va Samarqand shaharlaridagi talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovda respondentlarning 60 foizi ijtimoiy tarmoqlardan charchaganini, 45 foizi esa hayot mazmuni haqida shubha uyg‘onayotganini bildirgan [9, 56-bet]. Ushbu holatlarning asosiy omillari sifatida “doomscrolling” — salbiy axborotni uzluksiz iste’mol qilish, FOMO — muhim voqealarni o‘tkazib yuborish qo‘rquvi hamda ijtimoiy taqqoslash jarayonlari ko‘rsatiladi.

Mazkur omillar natijasida yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq holati yuzaga kelib, axborot oqimining yuqori zichligi sharoitida ularning o‘z o‘rnini anglash jarayoni murakkablashmoqda. I. A. Karimov ta’kidlaganidek, bunday vaziyatlarda milliy ma’naviyatni mustahkamlash shaxs va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [6, 134-bet].

Z-avlod vakillari orasida Renessans davri yoshlari faoliyatiga qiyoslash mumkin bo‘lgan ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Avvalo, “manbalarga qaytish” tamoyilining kuchayishi e’tiborni tortadi: stoitsizm (Seneka, Mark Avreliy), buddizm hamda sharq falsafasiga oid asarlar zamonaviy yoshlar orasida keng ommalashmoqda. Ushbu jarayon zamonaviy axborot muhitida qadimgi falsafiy an’analarga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, R. Holidayning stoik falsafaga asoslangan *“The Obstacle Is the Way”* asari 2014-yildan buyon 3 milliondan ortiq nusxada sotilgani mazkur tendensiyaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi [10, 12-bet]. O‘zbekistonda “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasi (2023-yildan) doirasida Navoiy, Qodiriy asarlari grafik dizayn va audiokitob shaklida qayta nashr etilmoqda [11]. Ikkinchidan, “maker culture” rivojlanmoqda: YouTube va TikTok platformalarida yoshlar o‘z ijodini (musiqa, she’r, rasm) joylashtirmoqda. Mumtoz asarlar zamonaviy prizmada qayta ishlanmoqda. Bu milliy o‘zlikni raqamli shaklda qayta tiklaydi. Uchinchidan, mindfulness va meditatsiya ommalashmoqda: Headspace va Calm ilovalari 2023-yilda 100 million yuklab olingan. Twenge bu jarayonni ijobiy baholab, “Z-avlod qadimgi donolikni qayta kashf etmoqda” deb yozadi

Ikkinchidan, zamonaviy raqamli muhitda “maker culture” deb ataladigan ijodiy faoliyat shaklining rivojlanishi kuzatilmoqda. YouTube va TikTok kabi platformalarda yoshlar musiqa, she’riyat va tasviriy san’atga oid ijodiy mahsulotlarini ommalashtirib, o‘z g‘oyalarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Shu jarayonda mumtoz asarlar zamonaviy talqin va vizual shakllarda qayta ishlanib, milliy madaniy merosning raqamli makonda qayta tiklanishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, mindfulness va meditatsiya amaliyotlarining ommalashuvi yoshlar orasida ichki muvozanat va ma’naviy barqarorlikka intilish kuchayganini ko‘rsatadi. Jumladan, Headspace va Calm ilovalari 2023-yilda 100 milliondan ortiq marta yuklab olingani mazkur tendensiyaning keng qamrovli ekanligini tasdiqlaydi. J. M. Twenge ushbu

jarayonni ijobiy baholab, Z-avlod vakillari qadimgi donolik an’analarini zamonaviy sharoitda qayta kashf etayotganini ta’kidlaydi [8, 267-bet].

Xulosa qilib aytganda, raqamli globallashuv jarayonlari yoshlar uchun muayyan xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi bilan birga, Renessans davridagi jarayonlarga qiyoslanadigan yangi ma’naviy sintez imkoniyatlarini ham ochib bermoqda. Shu bois, ushbu ikki tarixiy bosqichni qiyosiy tahlil qilish orqali globallashuvning yoshlar ma’naviyatiga ta’siridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur qiyosiy tahlil madaniyatshunoslik va sotsiologik yondashuvlarga asoslanib, tarixiy tajriba va zamonaviy statistik ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Ikki davr o‘rtasidagi asosiy o‘xshashlik, avvalo, axborot inqilobi hodisasida namoyon bo‘ladi. Renessans davri yoshlari Gutenberg matbaasi (1440-yil) orqali arab va yunon-rim manbalariga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsalar, zamonaviy yoshlar internet va smartfonlar yordamida cheksiz hajmdagi axborot resurslaridan foydalanmoqdalar. Har ikki holatda ham axborot oqimining keskin ortishi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va mavjud qadriyatlarni qayta anglash jarayonini jadallashtirdi.

Yana bir muhim umumiy jihat “manbalarga qaytish” tamoyilida kuzatiladi. Renessans davrida “ad fontes” g‘oyasi yoshlarni antik merosga murojaat qilishga undab, “yangi inson” konsepsiyasining shakllanishiga olib kelgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda yoshlar stoitsizm, mindfulness hamda Sharq falsafasi vakillari — Farobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Rumiy va Navoiy asarlariga qaytish orqali ushbu merosni raqamli formatlarda qayta talqin qilmoqdalar. Individualizmning namoyon bo‘lishi ham qiyosiy jihatdan o‘xshashdir: Renessansda shaxs erkinligi va o‘zini namoyon etish g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayon ko‘pincha shaxsiy brend va individual identifikatsiya shakllarida ifodalanmoqda.

Shu bilan birga, ma’naviy xavflar masalasida ham muayyan o‘xshashliklar mavjud. Biroq ikki davr o‘rtasidagi asosiy farqlar axborot tarqalishining tezligi va hajmi bilan belgilanadi. Agar Renessans davrida bilim va g‘oyalar asrlar yoki yillar davomida tarqalgan bo‘lsa, zamonaviy raqamli muhitda vizual va matnli kontent soniyalar ichida millionlab auditoriyaga yetib boradi. J. M. Twenge ta’kidlaganidek, Renessans yoshlari ma’lum vaqt oralig‘ida yangi fikrlar bilan tanishgan bo‘lsalar, bugungi yoshlar bir vaqtning o‘zida yuzlab tasvir va axborot birliklariga duch kelmoqdalar [8, 245-bet]. Zamonaviy sintez bo‘lsa murakkabroq. Bauman globallashuvni “madaniy sintezning zamonaviy shakli” deb baholaydi [7, 89-bet].

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonlari ma’naviy tanazzulning muqarrar omili sifatida emas, balki ma’naviy uyg‘onish uchun yangi imkoniyatlar manbai sifatida talqin etilishi mumkin. Renessans davri tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashqi madaniy ta’sirlarni mutlaq inkor etish emas, balki ularni milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shu ma’noda, Renessans tajribasi bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Chet madaniy unsurlarni passiv iste’mol obyekti sifatida emas, balki milliy madaniyatni boyituvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida qabul qilish raqamli makonda

yangi ma’naviy sintezning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Tarixiy jihatdan Renessans yoshlari jahon madaniyatiga yangi g‘oyalar va badiiy shakllar hadya qilgan bo‘lsalar, zamonaviy o‘zbek yoshlari ham globallashuv sharoitida shunday ijodiy salohiyatga ega ekanliklarini namoyon etish imkoniyatiga egadirlar. Shunday qilib, globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyati yo‘qolib ketmaydi, balki yangi tarixiy, madaniy va texnologik sharoitlarda yangicha shakllarda qayta vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хофстеде Г. Культуры и организации: программное обеспечение ума : [пер. с англ.]. – М. : Дело, 2011. – 624 с.

2. Буркхардт Я. Культура Возрождения в Италии : [пер. с нем.]. – М. : Юристъ, 1996. – 512 с.

3. Чориев А. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. – Тошкент, 2015.

4. Баткин Л. М. Итальянские гуманисты: стиль жизни и стиль мышления. – М. : Наука, 1978. – 224 с.

5. Лосев А. Ф. Эстетика Возрождения. – М. : Мысль, 1978. – 624 с.

6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

7. Бауман З. Текучая современность / пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008. – 240 с.

8. Twenge J. M. iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.

9. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi. Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma’naviyatini mustahkamlash. – Toshkent, 2023. – Rasmiy nashr.

10. Holiday R. The Obstacle Is the Way: The Timeless Art of Turning Trials into Triumph. – New York: Portfolio, 2014. – 224 p.

11. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasi. – Toshkent, 2023. – Rasmiy hujjat.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR TARBIYASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Atamirzayev Ibrohim Hakimovich
Ilmiy rahbar
Olimjonov Biloliddin Azizbek o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi

Bugungi dunyoda globallashuv jarayoni hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Insonlarning ijtimoiy hayotini bevosita yengillashtiruvchi texnologiyalar yaratilib kundalik hayotga tadbiq qilinmoqda. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, internet tarmog‘ining ommalashuvi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi yoshlar dunyoqarashi va ma’naviy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu

bois, globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini asrash va rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir.

“Globallashuv” atamasi turli mamlakatlar iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniyatining o‘zaro ta’siri hamda borliqning kuchayishini anglatadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi murakkab globallashuv davrida yoshlar ma’naviyati masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning ham mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy sohalarini yaratish bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim-tarbiya sohasini isloh etish, yoshlarimizni ham ma’nan, ham jismonan yetuk, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yuksak aql-zakovat sohibi etib voyaga yetkazish davlatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Aslida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti ma’naviy yetuk va axloqan barkamol yoshlarni tarbiyalash bilan bevosita bog‘liqdir.

Boshqacha aytganda, globallashuv mamlakatning ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq. Shu o‘rinda madaniy globallashuv nafaqat madaniyatlarning birlashishini o‘z ichiga oladi, balki aksincha, madaniy xilmaxillikning o‘sishiga, madaniyatning aralash, gibrid shakllarining, madaniy qotishmalarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Avvalo, u yoshlar uchun ilm-fan, ta’lim va texnologiya borasida ulkan imkoniyatlar ochmoqda. Internet orqali xorijiy tillarni o‘rganish, onlayn kurslarda tahsil olish, rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganish bugungi yoshlar uchun odatiy holga aylanmoqda. Bu jarayon ma’naviy dunyoni kengaytiradi, yoshlarni o‘z ustida ishlashga undaydi hamda ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, globallashuv madaniy xilma-xillikni anglashi, bag‘rikenglik, tolerantlik, inson huquqlarini hurmat qilish kabi qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Yurtimiz yoshlarining xalqaro loyihalarda ishtirok etishi, turli millat vakillari bilan muloqotda bo‘lishi ularni keng fikrlovchi, zamonaviy dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllantiradi.

Shu bilan birga, globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Internetda cheklanmagan axborot oqimi mavjud bo‘lib, yoshlar ba’zan zararli g‘oyalar va ma’naviyatsizlikni targ‘ib qiluvchi kontentga duch kelishlari mumkin. Begona madaniyatni tanqidiy fikrsiz qabul qilish, milliy qadriyatlarga beparvolik bilan qarash ma’naviy tarbiya jarayoniga putur yetkazadi.

Shuningdek, individualizm, iste’molchilik ruhi, turli zararli oqimlarning ta’siri ostida yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelishi ehtimoli bor. Ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on axborotlar, ekstremistik va aqidaparastlik g‘oyalari ham yoshlar ongiga xavf tug‘diradi. Shu bois, ma’naviy immunitetni mustahkamlash bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir.

Milliy qadriyatlarni chuqur singdirish. Yoshlar o‘z tarixini, madaniyatini, ajdodlarimizning merosini yaxshi bilishi va undan faxrlanishi zarur. Yoshlarga o‘z tarixini o‘rgatish va vatanparvarlik ruhini uyg‘otish barchamizning burchimiz deb hisoblayman. Bunda axborot madaniyatini rivojlantirish, internetdan to‘g‘ri va ongli foydalanishni o‘rgatish, zararli axborotni ajratib olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy mavzularni kuchaytirish. Maktab va oliygohlarda ma’naviyat darslari, tarbiyaviy soatlar samaradorligini oshirish lozim. Yoshlarni sport, san’at, madaniyat va ijodga yo‘naltirish. Bunday faoliyatlar yoshlarni bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishga undaydi va ularni salbiy oqimlardan himoya qiladi.

Oila — ma’naviyatning asosiy manbai bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ota-onaning namunasi muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, yoshlarni har qanday zararli ta’sirlardan o‘zini himoya qiishi va ularga mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatish, ularni asosiy vazifalaridan biridir.

Globallashuv jarayoni yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, ammo shu bilan birga ma’naviy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lsalar, ular globallashuvning ijobiy jihatlaridan unumli foydalanib, salbiy oqimlarga berilmaydigan barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetadilar. Milliy qadriyatlarga sodiqlik, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish, ma’naviy immunitetni mustahkam qilish va tanqidiy fikrlash bugungi kun yoshlarining asosiy fazilatlari bo‘lishi zarur.

Bugungi kunga avvalgi avtoritarizm uslubidagi, mahalliy shart-sharoitlar e’tiborga olinmagan tarbiya tizimi barham topib, uzoq va sharafli tariximizga ega bo‘lgan milliy-ahloqiy tarbiya, ayniqsa, milliy-ahloqiy odob me’yorlari, sharq mutafakkirlarining merosidan samarali foydalanish, o‘z-o‘zini anglash asosidagi tarbiya qaror topdi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ma’naviy-mafkuraviy xurujlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sirining olidini olishda yuqorida sanab o‘tilgan milliyahloqiy qadriyatlarimizga suyanib, bu borada qilinayotgan ishlarimizning uzluksizligini ta’minlash davrimizning muhim talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent O‘zbekiston 2017.

2. Milliy istiqlol g‘oyasi va manaviyat asoslari Manaviyat 2015. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz May 2024 / Volume 5 Issue 5 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.182 302

3. Allanbaev R. “Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda musiqa san’atining o‘rni”. O‘zDSMI xabarlari — 2018, №1(5),388

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Olmonov Sirojiddin G‘aybulla o‘g‘li,
Usmonova Sevinchoy Usmon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabalari

Yoshlar tarbiyasi – bu har qanday jamiyatning kelajagini belgilaydigan fundamental jarayon bo‘lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila kabi asosiy ijtimoiy institutlarning o‘zaro uyg‘un va izchil harakati talab etiladi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va qadriyatlarning tez o‘zgarishi sharoitida yoshlarni har tomonlama barkamol, milliy an’analarga sadoqatli, ammo zamonga mos shaxslar sifatida tarbiyalash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasini shakllantirishda ushbu uch omilning roli, o‘zaro bog‘liqligi va ular o‘rtasidagi uzluksizlik masalalarini tizimli tahli qilishga harakat qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat ma’lum bir soha bo‘yicha bilim va malaka berish, balki yoshlarning butun umri davomida ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi kerak. Bu borada maktab va oliy ta’lim muassasalari quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

· Chuqur vatanparvarlik tuyg‘usi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

· Jamiyat va tabiatga nisbatan ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish;

· Tangidiy va konstruktiv fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘stirish;

· Milliy madaniy merosga hurmat bilan birga insoniy universal qadriyatlarni o‘zlashtirish[1].

Zamonaviy mehnat bozori talablari va hayotning o‘ziga xos murakkabligi yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ham qurollantirishni taqozo etadi. Shu sababli, ta’lim jarayoni quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilishi zarur:

· Samarali og‘zaki va yozma kommunikatsiya (muloqot) ko‘nikmalari;

· Turli xil odamlar bilan hamkorlikda ishlash va jamoa ishini tashkil etish qobiliyati;

· Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanish (raqamli savodxonlik);

· Murakkab muammolarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari.

Yoshlar dunyoqarashining shakllanishiga nafaqat oila va maktab, balki kengroq ijtimoiy-madaniy muhit ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

· Ommaviy axborot vositalari (OAV), internet va ijtimoiy tarmoqlarning mazmuni;

· Ko‘ngilochar sanoat (kino, musiqa, o‘yinlar) va globallashuv jarayonida tarqalayotgan pop-madaniyat;

· Sport musobaqalari, festivallar, ko‘rgazmalar kabi ommaviy madaniy tadbirlar;

· Jamiyatdagi diniy va ma’naviy-axloqiy muhitning holati va tendensiyalari.

An’anaviy jamiyatlarda mahalla va mahalliy jamoat birlashmalari yoshlar tarbiyasida maktabdan keyingi asosiy muhit bo‘lib kelgan. Zamonaviy shahar hayoti sharoitida bu rolni qayta tiklash va innovatsion shakllar bilan boyitish imkoniyatlari mavjud:

· Mahalla yoshlar markazlarining faoliyatini mazmunan va usluban yangilash;

· Ko‘ngilli (volonterlik) harakati, loyihalar asosida ta’lim va ijodiy guruhlar kabi yoshlar bilan ishlashning zamonaviy shakllarini keng joriy etish;

· Milliy o‘yinlar, an’anaviy hunarmandchilik, musiqiy merosni o‘rganish kabi o‘tmishning ijobiy an’analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish[2].

Oila – bu yoshlar tarbiyasining dastlabki va eng barqaror poydevori bo‘lib, bola shaxsining asosiy xususiyatlari aynan shu yerda qalinadi:

· Hayotga munosabat, odamlar bilan aloqadorlik, vazifaga sadoqat kabi dastlabki va eng chuqur qadriyatlar va me’yorlarni shakllantirish;

· Kattalarning harakati va so‘zlari orqali xulq-atvoring haqiqiy namunalarini ko‘rsatish;

· O‘ziga, oila a’zolariga, kattalarga va atrofdagilarga nisbatan hurmat, mehribonlik, g‘amxo‘rlik va mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirish.

Muvaffaqiyatli tarbiya jarayoni oila va maktab o‘rtasidagi uzluksiz aloqa va o‘zaro ishonch asosida amalga oshiriladi. Bu hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

· Ota-onalarning bolaning o‘quv-tarbiya jarayonida faol va ongli ishtirok etishini (maktabda va uyda) ta’minlash;

· Maqsadli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun birgalikda (o‘qituvchilar va ota-onalar) tashkil etiladigan tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish;

· Bolaning rivojlanishi, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari haqida muntazam ravishda o‘zaro axborot almashish va maslahatlashuvlar olib borish.

Uchala institut o‘rtasidagi muvozanat va uyg‘unlik sifatsiz bo‘lsa, yoshlar tarbiyasida jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin, jumladan:

· An’anaviy (milliy, oilaviy) qadriyatlar bilan zamonaviy (globallashuv, OAV orqali) qadriyatlar tizimidagi ziddiyatlar;

· Maktab, ota-onalar va ommaviy madaniyatning yoshlardagi xulq-atvorga nisbatan talab va kutishlaridagi keskin farqlar;

· Bolaning shaxsiy rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar, muammolar va yechimlar bo‘yicha oila, maktab va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi axborot oqimidagi uzilish va nomuvofiqlik.

Samarali tarbiya uchun ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlash muhim bo‘lib, buning yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

· Yoshlarning yaxlit shaxs sifatida rivojlanishini maqsad qilgan holda uchala soha vakillarining ishtirokida integratsiyalashgan yondashuv va dasturlarni ishlab chiqish;

· Pedagogik kengashlar, ota-onalar yig‘inlari, jamoat kengashlari doirasida muntazam uchrashuv va muzokaralar o‘tkazish;

· Milliy va umuminsoniy, an’anaviy va zamonaviy, g‘ayrat va ma’rifatni uyg‘unlashtirgan yagona tarbiya konsepsiyasi va falsafasini yaratish va amalga oshirish;

· Yoshlarning o‘ziga xosligini, ijodiy salohiyatini, ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda yoshlarning o‘zlarini faol ishtirokchilari qilish[3].

Har bir yosh avlod, hatto har bir yoshing o‘ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va dunyoqarashi borligini hisobga olgan holda, tarbiya quyidagi tamoyillar asosida olib borilishi lozim:

· Har bir yoshing psixologik xususiyatlari, shaxsiy qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash va ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yordam;

· Yoshlarni “passiv ob’ekt” emas, balki o‘z taqdiri va tarbiyasining “faol sub’ekti” sifatida qarash va ularga munosib hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

· Yoshlarga hayotiy yo‘l tanlash erkinligi berish bilan birga, ushbu tanlovning o‘ziga, oilasiga va jamiyatga nisbatan mas’uliyatini tushunishga o‘rgatishni muvozanatlashtirish.

· O‘quv materiallarini virtual reallik, interfaol platformalar va mobil ilovalar orqali taqdim etish kabi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;

· Muammoli vaziyatlarni o‘rganish, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish asosida ta’lim-tarbiya berish;

· Yoshlarda jamoa ruhi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun ekologik harakatlar, mahalla obodonlashtirish, qariyalarga yordam kabi jamiyat xizmati (ko‘ngilli harakat) dasturlarini keng tashkil etish.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yoshlar tarbiyasini shakllantirish – bu uzoq muddatli, murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati birinchi navbatda ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila institutlarining o‘zaro uzluksiz, uyg‘un va izchil hamkorligiga bog‘liq. Har bir institut o‘ziga xos rol va mas’uliyatga ega bo‘lib, ularning bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi ta’siri yoshlarni zamonaviy dunyoning qiyinchilik va imkoniyatlariga tayyorlash, shu bilan birga ularning milliy o‘zligini va insoniy fazilatlarini saqlab qolishga imkon beradi. Kelajakda yoshlar tarbiyasi samaradorligini tubdan oshirish uchun ushbu uch omil o‘rtasidagi tizimli muloqot, o‘zaro tushunish va strategik hamkorlik mexanizmlarini yaratish, shuningdek, tarbiyaning asosiy “ob’ekti” bo‘lgan yoshlarning o‘zlari faol ishtirok etadigan inklyuziv va demokratik yondashuvni joriy etish zarur. Chunki yoshlar – bu har qanday jamiyatning eng qimmatli boyligi va strategik resursi hisoblanadi, ularni to‘g‘ri tarbiyalash – esa kelajakka eng ishonchli va barakali sarmoya kiritishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. –B. 48.

Shayxislamov R. O‘zbekiston madaniyati: an’ana va zamonaviylik. – T.: Akademnashr, 2015. –B. 112.

Hasanboyeva O. Pedagogik jarayonlarni loyihalash. – T.: O‘zbekiston, 2021. –B. 76.

МАФКУРАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА ЗАРУРАТИ

Бахтиёр Омонов
сиёсий фанлар доктори, профессор (ЎзМУ)

Мафкура – жамиятнинг маънавий-руҳий таянчи, миллат ва давлат тараққиётининг ғоявий асоси ҳисобланади. У халқни бир мақсад атрофида бирлаштиради, ёшларни тарбиялайди ва миллий манфаатларни ҳимоя қилади.

“Мафкура соҳасида бўшлиқ деган нарсанинг ўзи ҳеч қачон бўлмайди. Чунки инсоннинг қалби, мияси, онг-у тафаккури ҳеч қачон ахборот олишдан, фикрлашдан, таъсирланишдан тўхтамайди. Демак, унга доимо маънавий озиқ керак. Агар шу озиқни ўзи яшаётган муҳитдан олмаса ёки бу муҳит уни қониқтирмаса, нима бўлади, айтинглар? Бундай озиқни у аста-секин бошқа ёқдан излайди. Шунга йўл бермаслигимиз керак. Мана, гап нима ҳақида кетяпти!”[1], деб таъкидлайди давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев 2017 йилда “Ижтимоий барқарорликни

[1] https://president.uz/uz/lists/view/649 15.06.2017.

таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқида.

Мафкура нафақат ғоялар, мақсадларни тарқатиш ва тарғиб қилиш, балки фуқароларнинг ўз олдига қўйган вазифаларини амалга оширишда мақсадли ҳаракатларига эришишга даъват этади. Сиёсий мафкуранинг ҳақиқий “вазни” эса асосий функциялари ва жамоат онгига таъсир қиладиган даражалари билан белгиланади.

Мисол учун, Япония жамиятида мафкура халқнинг руҳиятига сингдирилган. Ҳар бир жамоада ижтимоий битим – консенсус тизими яхши ишлайди, битим ижтимоий нормага мос келмаса, ҳуқуқий кучга эга бўлмайди. Японларда батафсил расмий битим кам учрайди, битим учун берилган сўз – лафзнинг ўзи кифоя қилади. Бизда эса лафз, ғурур, деган қадриятларнинг қадри тушиб бораётир.

Японлардан ўрганиш керакка ўхшайди. Яна тарихга мурожаат қиламиз. Йирик олим Б. Исида ишлаб чиққан Этик қоидага кўра, ишчилар ва тадбиркорлар сиёсатдан узоқда юриб, *давлатнинг сиёсий ишларига аралашмаслиги лозим*[1]. Корхоналарда консенсус wa (уйғунлик) тушунчаси етакчи аҳамият касб этади. Япония маданиятида *和 (wa)* тушунчаси марказий маънавий қадриятдир. *和* – иероглифнинг асл маъноси *“уйғунлик, тинчлик, ҳамжиҳатлик”* дегани[2]. Шунингдек, у “японлилик” маъносини англатади (масалан, “ва-ёшоку” – японча ғизо, “вафуку” – японча кийим). Сўзнинг фалсафий ва маданий маъноси уйғунлик ва ҳамжиҳатлик – жамиятда можаро ва келишмовчиликка йўл қўймасдан, аҳиллик ва бирдамликни сақлаш. Бунда *жамоавийлик* – шахсий манфаатдан кўра жамоа манфаатини устун қўйиш; *мўътадиллик ва сабр* – кескинликдан қочиш, бошқалар билан мувозанат топиш. Япон жамиятида “wa” – одамлар ўртасидаги муносабатларда *мулоқот маданияти,* ортиқча тортишишдан қочиш, ўзаро ҳурмат қилиш тамойилидир.

Иш жамоаларида “wa” – ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик ва “жамоа руҳи” асосий қоида ҳисобланади.

Янги Ўзбекистонда японларникига ўхшаган ва миллатни жипслаш-тирадиган Этика қоидалари ишлаб чиқилиши керак, деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун Баҳоуддин Нақшбандийнинг “Дил ба ёр, даст ба кор” таълимотини асос қилиб олиб, бугунги кун билан уйғунлаштирса бўлади.

Ўзбекистон 1991 йилда мустақилликка эришганидан кейин сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда улкан ўзгаришлар бошланди. Бироқ миллий мафкуранинг дастлабки йилларда тўлиқ ва тизимли шаклланмагани мамлакат тараққиётида маълум қийинчиликларни келтириб чиқаргани айни ҳақиқат эмасми?! “Мафкура – бу шунчаки мафкуравий таълимот эмас, балки бутун жамиятнинг мафкуравий тузилиши, уни Олам, инсон тўғрисидаги, дунёда шахс ҳаётининг мазмуни ҳақидаги фалсафий, илмий, эстетик, ахлоқий, ҳуқуқий, сиёсий,иқтисодий, социологик билимлар ва қадриятлар мажмуи,– дейди

[1] Омонов Б.А. Жамиятни модернизациялашнинг концептуал асослари. – Т.: Aloqachi, 2019. – Б. 96.
[2] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B0_(%D0%BD%D0%B0%D1%80

профессор Қ.Назаров. –Шу билан бирга, мафкура жамият келажагини энг яхши тарзда қурилиши тўғрисида тасаввур ҳам беради”[1].

Совет Иттифоқи тажрибасидан асосий сабоқ шуки, мафкурани йўқ қилиш мумкин, аммо унинг ўрнини тезда тўлдирмаса, ўрнига тезда ёт ғоялар кириб келади. Бизнинг ўлкада ҳам 1990 йилларда айни шундай ҳолат кузатилди - унга эътиборсиз бўлганимиз учун бизга қимматга тушди.

Мана, энди, орадан 20 йиллар ўтганидан кейин ёшларимизнинг тафаккур дунёси билан боғлиқ воқеаларни таҳлил қилар эканмиз, Ўзбекистонда миллий мафкуранинг ўрни жойига қўйилмаганлиги, ёшлар онггига сингдириш механизмлари ишланмаганлиги ва унинг комплекс қўлланмагани айрим салбий оқибатларга олиб келганига шоҳид бўлмоқдамиз.

Мафкура – жамиятнинг маънавий-руҳий таянчи, миллат ва давлат тараққиётининг ғоявий асоси ҳисобланади. У халқни бир мақсад атрофида бирлаштиради, ёшларни тарбиялайди ва миллий манфаатларни ҳимоя қилади.

Таҳлилларимизга кўра, *постсовет республикаларида мафкуравий бўшлиқнинг йилдан-йилга кучайиб бораётганлиги ва Ғарб демократия экспортига мойиллик ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатмоқда.*

Очиғини айтганда, Истиқлол йилларида мамлакатимизда Ғарб тарғибот технологияларига қарши турадиган таълим технологияларини ҳам, индивид, шахс юксалишига хизмат қиладиган технологияларни ҳам ярата олмадик. Афсуски, ҳозирги кунда ҳам мамлакатимиз таълим-тарбия тизимида ҳар йили экспериментларнинг ўтказилиши амалиётда етарли самара бермаётир.

Ҳа, мамлакатимизда миллий мафкура изчил, тизимли тарзда ўрнатилмагани турли маънавий йўқотишларга олиб келмоқда. Хусусан:

а) миллий ўзлик ва бирдамлик: миллатнинг турли қатламлари ягона мақсад атрофида бирлаша олмади; ёшларда миллий ғурур, ўз тарихига ва маданий меросига содиқлик кучсизланди; этник ва маданий хилма-хиллик ҳамда миллий ғоя доирасида уйғунлашган ҳолда яшаш имконияти йўқолди.

б) ёшлар онгида ғоявий бўшлиқ: миллий ғоя тизимли тарзда ёшлар онгига сингдирилмаганидан диний экстремизм, миссионерлик ва турли ёт ғоялар кенг тарқалди; ёшларда мафкуравий иммунитет сусайди ва ташқи таъсирларга қарши бардошлилик шаклланмай қолди.

Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев томонидан илгари сурилган Янги Ўзбекистонни барпо этиш ва Учинчи ренессансни шакллантириш каби эзгу ғояларни амалга ошириш халқимиздан сиёсий ирода, кучли билим, кенг дунёқараш ва юқори сиёсий маданиятни талаб қилади. Шу сабабли, миллий ғоя, мафкурани замонавий таъсирчан усулларда ёшлар онгига сингдириш долзарб вазифамиздир. Ўзбекистонда мафкурани кучайтиришнинг тизимли ечими – бу бошқарув, таълим, маданият, ахборот ва фуқаролик жамияти соҳаларини бир бутун мафкуравий тизимга айлантиришдан иборат. Бундай тизимнинг асосий тамойиллари қуйидагича бўлиши лозим: *“Бир ғоя – бир мақсад – бир руҳ!”.*

[1] Назаров Қ. Мафкура. –Т.: Республика миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази, 2014. – Б. 12.

Нима қилмоқ керак? Янги Ўзбекистонда ёш авлоднинг мафкуравий онги ва иммунитетини ошириш масаласи янада долзарблашмоқда. Бу масалада давлат ва жамоат арбоблари, зиёлилар, олимлар бош қотириши зарурга ўхшайди. Қисқа қилиб айтганда, фуқароларимиз олдида “Хитойни севаман”, “Американи севаман” каби шиорларга ўхшаган “Ўзбекистонни севаман, ҳаётимни юртимга бағишлайман” деган миллатпарварлик ғояларини ёшлар қалбига тўлақонли сингдиришга катта эҳтиёж туғилган.

Чиндан ҳам, АҚШ, Хитой, Япония фуқароларида миллий мафкура кучлилиги ва сингдирилганлиги учун дунёда юқори даражага чиқишмадимикан? Ўзбек жамиятига ҳам миллий ўзликни сақлаш учун мафкура керакми ёки мафкурасизликда яшаймизми?!

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SHAXS MA’NAVIYATINI ASRASHNING DOLZARBLIGI

Oripov Xasan Abdivaxobovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Nosirova Gulbeka Ahmadjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

XXI asr insoniyat taraqqiyotida raqamli texnologiyalar rivoji misli ko‘rilmagan darajada tezlashdi. Bugungi globallashuv, axborot oqimining cheksizligi, internet va sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari bir tomondan jamiyatning intellektual salohiyatini oshirsa, ikkinchi tomondan shaxs ma’naviyatiga, uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida raqamli muhitning ma’naviy xavfsizligi masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Shaxs ma’naviyati — bu insonning axloqiy qarashlari, e’tiqodi, ma’rifati, ichki madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini ifodalovchi murakkab hodisa. Axborot muhitidagi beqarorlik, yolg‘on ma’lumotlar ko‘payishi, virtual kommunikatsiya va raqamli bog‘liqlik insonning ruhiy holati va ma’naviy mustahkamligiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar davrida shaxs ma’naviyatini asrash ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur tadqiqotlarni talab qiladigan masalalardan biridir.

XXI asr insoniyat taraqqiyotida raqamli texnologiyalar rivoji misli ko‘rilmagan darajada tezlashdi. Bugungi globallashuv, axborot oqimining cheksizligi, internet va sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari bir tomondan jamiyatning intellektual salohiyatini oshirsa, ikkinchi tomondan shaxs ma’naviyatiga, uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida raqamli muhitning ma’naviy xavfsizligi masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Shaxs ma’naviyati — bu insonning axloqiy qarashlari, e’tiqodi, ma’rifati, ichki madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini ifodalovchi murakkab hodisa. Axborot muhitidagi beqarorlik, yolg‘on ma’lumotlar ko‘payishi, virtual kommunikatsiya va raqamli bog‘liqlik insonning ruhiy holati va ma’naviy mustahkamligiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar davrida shaxs ma’naviyatini asrash ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur tadqiqotlarni talab qiladigan masalalardan biridir.

Hozirgi kunda raqamli platformalardan foydalanuvchilar soni (ya’ni internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari) dunyo bo‘yicha quyidagicha tashkil etmoqda:

- Internet foydalanuvchilari 5,56 milliard kishi internetdan foydalanuvchi bo‘lib, bu global aholi sonining taxminan 67,9 % ini tashkil etmoqda;

- Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 5,24–5,66 milliard kishi ijtimoiy tarmoqlar yoki raqamli platformalar (masalan, Facebook, Instagram, TikTok, YouTube, WhatsApp va boshqalar) foydalanuvchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yoki faol foydalanmoqda. Bu global aholi sonining 63–69 %ga to‘g‘ri keladi [1].

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida internetdan foydalanish darajasi bo‘yicha Qozog‘iston va O‘zbekiston yetakchi o‘rinni egallaydi. Qozog‘istonda aholining 90 foizdan ortig‘i internetdan foydalanadi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda bu borada katta o‘sishga erishib, internet foydalanuvchilari soni 33 milliondan oshdi va bu umumiy aholining qariyb 85–89 foizini tashkil etmoqda. Qirg‘izistonda internet qamrovi o‘rtacha darajada bo‘lib, aholining taxminan 75–80 foizi internetdan foydalanadi. Tojikiston va Turkmanistonda esa bu ko‘rsatkich nisbatan past bo‘lib, texnik va infratuzilmaviy omillar bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda raqamli platformalardan foydalanish jarayoni ayniqsa tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatda 33 milliondan ortiq internet foydalanuvchisi mavjud bo‘lib, mobil internet asosiy ulushni tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar foydalanuvchilari soni 14 milliondan ortiq bo‘lib, bu ko‘rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Aholi asosan Telegram, YouTube, Instagram, Facebook va TikTok kabi platformalardan faol foydalanadi. Mobil aloqa abonentlari sonining aholiga nisbatan yuqoriligi esa bir kishining bir nechta raqamdan foydalanishi bilan izohlanadi [2].

Globallashuv davrida raqamli texnologiyalar shaxs ma’naviyatiga ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy ta’sir ham ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, axborot oqimining haddan ortishi insonning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Virtual makonda shaxs ko‘plab qarama-qarshi ma’lumotlar ichida adashishi, yolg‘on xabarlarga chalg‘ib axborotni haqqoniy baholashda qiynalishi mumkin [4]. Bu esa ma’naviy tanlovni murakkablashtiradi. Ikkinchidan, raqamli avlod vakillarining virtual kommunikatsiyaga haddan ortiq bog‘lanib qolishi real ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuzma-yuz muloqotning kamayishi empatiya, bag‘rikenglik, hurmat kabi ma’naviy qadriyatlarning susayishiga, shu bilan bir qatorda yosh avlodning ijtimoiy tarmoqlardagi hayotga taqlid qilib o‘z hayotidan norozi bo‘lishiga olib kelish ehtimoli mavjud [3].

Virtual makonning cheksizligi va nazoratning murakkabligi sababli unda turli ma’naviy tahdidlar mavjud. Jumladan:

• kiberbulling (virtual zo‘ravonlik);

• axloqiy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi kontent;
• ekstremistik va radikal g‘oyalar;
• feyk axborot va manipulyativ materiallar;
• qimor, zo‘ravonlik va shafqatsizlikni targ‘ib etuvchi kontentlar.

Ushbu tahdidlar shaxsning ruhiy barqarorligi, axloqiy qarashlari va ma’naviy immunitetiga zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, yoshlarning psixologik va ma’naviy rivojlanishi uchun bunday tahdidlar jiddiy xavf tug‘diradi [5]. Raqamli texnologiyalar davrida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash quyidagi nazariy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi mumkin:

1) Ma’naviy immunitet nazariyasi — shaxsning zararli axborotlarga nisbatan barqaror qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini yuzaga chiqaradi.

2) Raqamli madaniyat konsepsiyasi — texnologiyalardan madaniyatli va mas’uliyatli foydalanish qoidalarini belgilaydi [4].

3) Axborot xavfsizligi paradigmasi — shaxs va jamiyatning ma’naviy, psixologik hamda intellektual xavfsizligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Raqamli makonda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash quyidagi choralarni talab qiladi:

1) Ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni kuchaytirish.
2) Oila muhitida raqamli madaniyatni mustahkamlash.
3) Yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish bo‘yicha treninglar.
4) Davlat darajasida axborot xavfsizligi mexanizmlarini kuchaytirish.
5) Ma’naviy-ma’rifiy kontentlarni ko‘paytirish.

Raqamli texnologiyalar sharoitida shaxs ma’naviyatini asrash bugungi jamiyatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli muhitda yuzaga kelayotgan ma’naviy-axloqiy tahdidlarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Ma’naviy immunitetni kuchaytirish, axborot savodxonligini oshirish, raqamli madaniyatni rivojlantirish va ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish orqali bu muammoning samarali yechimiga erishish mumkin. Globallashuv va raqamli texnologiyalar shaxs ma’naviyatida ham taraqqiyot ham tahdiddir. Undan to‘g‘ri, samarali va ongli foydalanish barqarorlik, ma’naviy kenglik, taraqqiyot bilimlar almashinuvi, dunyoqarashning kengayishi, ma’naviy-ma’rifiy resurslarga oson ega bo‘lishi va shaxs ma’naviyatining boyishiga ko‘maklashsa, nazoratsiz foydalanish ma’naviy qadriyatlarning buzilishiga, yolg‘on va zararli axborotlar, ijtimoiy tarmoqqa qaramlik esa ma’naviy tanazzulga olib kelishi xavfini kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli bugungi globallashuv sharoitida shaxs ma’naviyatini mustahkamlash, axborot madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish, kelajak avlodni ma’naviyatli va ma’rifatli qilib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ma’naviy taraqqiyotga foydali xizmat qilishi uchun undan maqsadli va mas’ulyatli, samarali va oqilona foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/

Prospects for us Digital Diplomacy in Central Asia. (2025). American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 3(5), 87-89.

Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.

UNESCO. Digital Literacy Global Framework. – Paris, 2018.

Turkle Sh. Alone Together: Why We Expect More from Technology. – New York: Basic Books, 2011.

AXBOROT GLOBALLASHUVI DAVRIDA YOSHLAR ONGINING SHAKLLANISHI: IMKONIYAT VA TAHDIDLAR

Ortiqova Husnora Bekbo‘lsin qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.
Konfutsiy.

Kirish. Hech kimga sir emas-ki hozirgi axborot globallashuvi davrida yoshlar ma’naviyatiga turli xil ta’sirlar kuchayib bormoqda.bu ta’sirlarning aksariyati biz yoshlarga ijobiy o‘zgarishlar taqdim qilsa,boshqa tarafdan yomon ta’sirlari ham borligini alohida ta’kidlab o‘tmog‘imiz darkor.Shu o‘rinda biroz globallashuv atamasiga izoh bersak.

Xo‘sh globallashuv aslida nima? Uning tarixiy ildizlari qayerga bor taqaladi?

Avvalo globallashuv-bu butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy ,siyosiy,madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir.Uning tarixiy ildizlariga qaraydigan bo‘lsak,globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo‘lib kelgan.Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar.Iqtisodchilar bu jarayonni moliya bozorlarining transmilliylashuvidan ekanligini ta’kidlab kelishmoqda. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg‘u berishadi. Madaniyatshunoslar esa globallashuvning namoyon bo‘lishini madaniyatning g‘arbiylashuvi ,jumladan Amerika iqtisodiy ekspansiyasi bilan bog‘lashadi. [1]

O‘zbekiston aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil qilishi hech kimga sir emas va shuni aytib o‘tishimiz kerak-ki, bugungi yosh avlod bir vaqtning o‘zida cheksiz axborot resurslariga ega bo‘lib, dunyoning turli nuqtalaridagi g‘oyalar, qadriyatlar, xulq-atvor modellari va madaniy namunalardan ta’sirlanmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, innovatsion fikrlash, ochiq muloqot, global raqobatbardoshlik va shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Boshqa tomondan, keraksiz yoki xavfli axborot oqimlarining bexato kirib kelishi, madaniy an’analar va milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, informatsion manipulyatsiya, feyk xabarlar va virtual qaramlik kabi tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, axborot globallashuvi sharoitida yoshlar ongining shakllanishi — bir

[1] Дергачёв В.А.”Глобалистика”. М.:2005

vaqtning o‘zida imkoniyatlar va xavf-xatarlar uyg‘unligidan iborat murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy tahlil, ayniqsa, global axborot makonida faol bo‘lgan yoshlarning dunyoqarashi, qiziqishlari va ijtimoiy pozitsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganishni talab etadi.

Asosiy qism. Bugungi yoshlar tafakkuri raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan holda rivojlanmoqda. Internet, sun’iy intellekt, global media va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlashi, xulq-atvori va o‘zini tutish strategiyalarini bevosita shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarni “xalqning oltin zaxirasi”deb ta’kidlaganligi bejizga emas albatta.Undan tashqari Prezidentimiz yoshlarni “ergashayotgan avlod emas, balki yangi O‘zbekistonning quruvchilari” deb ko‘radi — bu fikr yoshlarning bilim, ijtimoiy faollik va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga chaqiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni “xalqning oltin zaxirasi” deb ataganida, ularning jamiyat uchun naqadar qadrli va muhim ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan.Shu nuqtai nazardan, axborot globallashuvi davrida yoshlar ongini shakllantirish mas’uliyati ham oshadi, chunki ular nafaqat shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita hissa qo‘shadi.

Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektorni, balki siyosiy va ijtimoiy jabhalarda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma’lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Globallashuvning asosi ham aynan shu ma’lumotlarni qabul qilish, o‘zlashtirish, tahrir etish va uzatishdan tashkil topgan[1].

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning keng quloch yoyishi natijasida yoshlar axborotni nafaqat iste’mol qilmoqda, balki uni yaratish jarayonida ham faol ishtirok etmoqda. Bu holat shaxsning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, qadriyat tizimi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, globallashuv axborot makonining kengayishi bir tomondan shaxs ongida ochiqlik, tanqidiy fikrlash va demokratiya tamoyillarini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan ma’naviy beqarorlik va identitet inqirozini ham keltirib chiqarishi ham mumkin. Axborotlarning ko‘pligi hamda betartibligi insonni haqiqatdan ruhan zo‘riqtirishi mumkin.Bu esa insonga turli xil emotsiyalarni bir vaqtda yashab o‘tishdek mashaqqatli bir hissiy bosim berishi ham bor gap.

O‘ylab qaraydigan bo‘lsak hayotimizdagi jamiki axborotlar biz uchun yo foydali yoki foydasiz bo‘ladi.Lekin afsuski ba’zida bu axborotlarni keraklisi bilan birga keraksizlarini ham “iste’mol” qilmoqdamiz.Xo‘sh bu axborotlarni keraklisini keraksizidan qanday ajratib olamiz? Albatta axborotlarni analiz qilish va o‘zimizdagi, atrofimizdagi insonlarning axborot madaniyatini yuksaltirish orqali.

Bu madaniyatni yoshlarimizda yuksaltirish esa albatta oilada ota-onalarimizga, ilm dargohlarida esa jonkuyar pedagoglarimiz zimmasiga tushadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Hozirgi zamon oilada ota-onalarimizdan farzandlari uchun faqat ota-ona emas balki motivator,psixolog hamda eng yaqin do‘st vazifasini o‘tashi farzandiga mehribon va

[1] Burxonov J. Globallashuv sharoitida axboriy tahdidlar va ularning shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashiga ta’siri // Journal of New Century Innovations. – 2024. – Vol. 53, Issue 3. – B. 3–5.

talabchan bo‘lishini talab qilmoqda.Ta’lim dargohlarida esa pedagoglar qisqa muddat ichida yosh avlodni qiynayotgan savollarga javob berishi,ularni ta’lim va tarbiya olishlarini ta’minlashi hamda shu o‘rinda ularni qaysidir ma’noda mafkuraviy immunitetlarini shakllantirishga ulgurishlari kerakligini alohida ta’kidlab o‘tmog‘imiz kerak.Har ikkala muqaddas dargohdagi mas’ul shaxslar o‘z vazifalarini bajarmas ekanlar,yoshlarimiz bu o‘z vaqtida to‘ldirilmagan bo‘shliqni ijtimoiy tarmoq bilan to‘ldirishi turgan gap.

Bu boradagi xalqaro maydondagi ilmiy dalillarga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, global axborot maydoniga tezkor kirish yoshlar kreativlik, innovatsion fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi (Castells, 2010; Prensky, 2001).[1] Shu bilan birga, axborot oqimlarining murakkabligi yoshlarni tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va manbalarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga undaydi.

Globallashuv sharoitida madaniy va ijtimoiy diversifikatsiya yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ular turli xalqlar va jamiyatlarning qadriyatlari, an’analari va ijtimoiy tajribalari bilan tanishadi, bu esa shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, axborot globallashuvi yoshlarning psixologik va ijtimoiy holatiga tahdidlar keltirishi mumkin. Noto‘g‘ri ma’lumotlar, yolg‘on yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi bosim va raqamli qaramlik yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Livingstone & Haddon, 2009).[2]

Amerikalik olim E.Toffler “Uchinchi to‘lqin” asarida “Insoniyat ortda qoldirgan yo‘l uch bosqichdan iborat” degan fikrni ilgari suradi.Ya’ni qishloq xo‘jaligi,sanoat hamda hozirgi axborot tamaddunlari.[3]

Ha, yoshlar ongining samarali shakllanishi nafaqat individual, balki ijtimoiy darajada ham ahamiyatli ekanligini unutmasligimiz lozim. Global axborot maydoni orqali bilim olgan va axborot savodxonligi rivojlangan yoshlar ijtimoiy sohada faol va innovatsiyalar yaratish, jamiyatdagi muammolarni hal etish va o‘z ijtimoiy guruhlariga yetakchilik qilish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, ularning global nuqtai nazardan fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi.

Ammo shuncha imkoniyatlarga qaramasdan,yoshlarning global axborot maydonida ongli va mas’uliyatli harakat qilish qobiliyati yetarli darajada bo‘lmasa, ularning dezinformatsiyalarga aldanib qolishi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida esa turli xil muammolar yuzaga kelishi ham mumkin.

Biz yashar ekanmiz shuni ham unutmasligimiz kerak-ki biz atrofimizdagilar uchun yo axborot oluvchi sifatida yoki axborot tarqatuvchi sifatida namoyon bo‘lamiz.Har ikkalasi ham bizdan axborot madaniyatiga ega bo‘lishimiz kerakligini talaba qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak axborot globallashuvi yoshlar ongini shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega va bu jarayon juda ko‘p qirrali. Global axborot maydoni yoshlarni turli madaniyat, qadriyat va tajribalar bilan tanishtiradi, shu orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri

[1] Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
[2] Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). Kids Online: Opportunities and Risks for Children. Policy Press.
[3] Dostmuhammad, X. (2018,4-iyun) “Axborot madaniyati – hayot –mamot masalasi.Xalq so‘zi gazetasi.

ma’lumotlar, dezinformatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi haddan tashqari faollik yoshlarning ongini chalg‘itishi, qaror qabul qilish qobiliyatini susaytirishi va ularni passiv tomoshabinlarga aylantirishi mumkin.Shuning uchun yoshlar axborotni tanqidiy baholash, raqamli vositalardan ongli foydalanish va axborot savodxonligini rivojlantirish ko‘nikmalarini mustahkamlashlari zarur. Shu yo‘l bilan ular faqat bilim egasi bo‘lib qolmay, balki jamiyatdagi innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va yetakchilik qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Axborot globallashuvi sharoitida yoshlar ongini samarali shakllantirish jarayoni murakkab bo‘lsa-da, ularning kelajakda bilimli, ma’rifatli va ijtimoiy faol shaxslar bo‘lib yetishishiga asos yaratadi. Shu sababli menimcha, yoshlar axborot olganda faqat iste’molchi emas, balki tanqidiy fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida o‘sishlari shart. Bu esa ularning nafaqat shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burxonov, J. (2024). Globallashuv sharoitida axboriy tahdidlar va ularning shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashiga ta’siri. Journal of New Century Innovations, 53(3), 3–5.

2. Dostmuhammad, X. (2018, 4-iyun). Axborot madaniyati – hayot-mamot masalasi. Xalq so‘zi gazetasi.

3. Dergachyov, V.A. (2005). Globalistika. M.: ISBN 5-238-00957-7.

4. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.

5. Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). Kids Online: Opportunities and Risks for Children. Policy Press.

РУЎХЫЙ МИЙРАСЛАРЫМЫЗДЫ ҮЙРЕНИЎ – БҮГИНГИ ДӘЎИРДИҢ ӘҲМИЙЕТЛИ МӘСЕЛЕСИ

Гуззал Отепбергенова
филология илимлери бойынша философия докторы (PhD)
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм
мәденият институты Нөкис филиалы

Илим-маърифат ҳәм әдебият – жаңа ояныў дәўириниң тырнағы оның тийкарында халқымыздың миллий сана сезими, миллий идея, раўажланыўға болған исеним, жәмийеттиң турақлылығын тәмийинлеўдеги беккем әмеллердиң бири болып табылады. Соның ушында Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: «Әдебиятқа ҳәм көркем өнерге, мәдениятқа итибар, ең әўеле, халқымызға итибар, келешегимизге итибар екенлигин, уллы шайырымыз Шолпан айтқандай, әдебият, мәденият жасаса, миллет жасайтуғынлығын умытыўға бизиң ҳеш қандай ҳақымыз жоқ» [1.181] деген еди. Әдебияттың уллылығы миллет келешеги, жәмийет раўажланыўының тийкарғы буўыны. Демек, ҳәзирги әдебият пенен бирге, әдебияттың ерте дәўир басқышларын, аўызеки дөретпелер, ески әдебий қолжазбалар, уллы данышпанлардың руўхый мийрасларын үйрениў бүгинги

дәўирдеги жас әўладты тәбиялаўда орны шексиз бийбаҳа мийраслар болып табылады.

Бул бойынша да Президентимиз Ш.М.Мирзиёев:-«Егер биз сийрек гезлесетуғын көркем өнерди сақлаў ушын бүгин барлығымыз биргеликте ҳәрекет етпесек, ертең дым кеш болады, келешек әўладлар, тарийх буны кеширмейди. Елимизде 100 томлық «Ўзбек халық дөретиўшилиги естеликлери» баспадан жәрияланбақта ... «Қарақалпақ фольклоры» топламы да баспада жәрияланды. Булардың барлығы усы бийбаҳа көркем өнер мәнаўий турмысымызда айрықша әҳмийетли орын тутатығынлығынан дәрек береди». [2.136-137]

Тийкарғы бөлим. Әдебиятшы алым Н.Жаббаров «... қурамалы ҳәм қарама-қарсылықлы шараятта дүньяны ғалабалық мәденият соққасынан, мәнаўаятсызлық ҳәм бузықлық ийириминен сақлап қала алатуғын бирден-бир күш бул әдебият» [4.3] деген еди. Демек, миллий руўхый мийрасларымызды үйрениў- жас әўладты Ўатанға садық, муҳаббат руўхында тәрбиялаўда, руўхый дүньясын байытыўда, раўажланыў кепиллиги болатуғынлығы сөзсиз.

Инсаният жәмийетиниң раўажланыўында әййемги дәўирлеринде көркем әдебият ҳәм көркем өнер түрлери жүдә узақ дәўирлерде тамыр урғанлығы әдебият тарийхы арқалы жақсы билемиз. Өйткени, инсан сыртқы орталықты, жәмийетти, турмысты тек ғана әмелий хызмет барысында билиў менен шекленип қалмай, оларды көркем-эстетикалық пикирлеўлер, сезиўлер арқалы үйренеди.

Инсаният тарийхының барлық дәўирлеринде де көркем әдебият ҳәм шешенлик өнери көркем өнер түрлериниң бири, олар арасында ең жетекши, айрықша түри сыпатында әҳмийетли роль атқарған. Соның ушын да «...әдебият инсанды ақылый ҳәм руўхый камалға жеткереди, жәмийеттиң мәнаўий раўажланыўына хызмет етеди» [5.39] деп баҳалағаны бийкарға емес. Әлбетте, көркем әдебият – көркем сөз өнери болып, сыртқы дүньяны, жәмийетлик турмысты образлар арқалы таныйды. Әдебият жәмийетлик сананың ажыралмас түри болып, тәбиятты, турмысты билиўге умтылады ҳәм олар туўралы түсиниклерди көркем образлар менен береди.

Әййемги мәденият, әдебият ҳәм көркем өнер үлгилери Мыср, Шумер, Қытай, Ҳиндстан, Орайлық Азия еллери улыўма Шығыс халықларында пайда болғанлығын көпшилик илимпазлар мойынлап атыр. [1.13-14-б.;7,8-б.; 6.3-б.] Шығыс халықлары мәденияты тарийхын үйрениўши алымлар «Әййемги Шығыста шегине жеткен жыртқышлық соншама мәдениятты жоқ етпегенде, биз Греция менен Римнен бурынырақ сол еллердиң мәдениятын тереңирек үйренген болар едик. Әййемги мәдениятты төркини Шығыстан таралыўына қарамастан, олар реҳимсиз түрде қыйратылған» [1.13-14]-деп жазады. Буның айқын дәлили сыпатында Шығыс халықларында кең тарқалған «Авесто», «Гильгамеш», «Махабхарата», «Румияна», ҳ.т.б. көркем әдебий естеликлерди атап өтиў орынлы. Мине, усындай Шығыс халықларында кең тарқалған фольклорлық әдебий естеликлер түркий халықлары әдебиятының қәлиплесиўине әдебий тәсир жасады.

Миллий руўхый мийрасларымыздың бири көркем әдебият пенен шешенлик өнерин мәнаўый қәдириятлар сыпатында үйрениў менен бирге, жас әўладты сөз

өнерине тәрбиялаўда, сиясий-дипломатиялық қатнасықларда әҳмийетли роль ойнайтуғынлығын аңлаўға болады.

Шешен - тилге жүйрик, сөз қыйсынын ушқыр ойдың қас қағымында таўып айтатуғын халық тәрепинен баҳаланған сөз шебери. Ол қәлеген ўақтында ақыл-сананың жәрдеми, импровизациялық уқыбы менен терең мәнили, жүйели, тапқырлық пенен сөйлейтуғын инсанлар. Шешенлик ағып турған поэзия, тынып турған философия, гейде қосық пенен тоқылған сөз тынығы, сырлы теңеў, астарлы сөз, жыйнақлы, тужырымлы, жумбақлы, тилсимли ой толғанысының туўындысы. Бул ҳаққындағы өнер (ораторлық) шешенлик өнери деп аталып, дүнья халықларының мәдений, руўхый, сиясий-экономикалық ҳәм жәмийетлик-психологиялық турмысындағы сөйлеў өнериниң улыўмалық атамасы болып табылады.

Шешенлик сөз шеберлиги адамзат жәмийетиниң сиясий-дипломатикалық, социал-экономикалық турмысы зәрүрликлеринен келип шыққан өнер ҳәм кәсип түри болып қәлиплескен. Демек, шешенлик сөз өнери жәмийеттиң тарийхый раўажланыў басқышларында кәсип түрине айланып, өз дәўириниң көркем эстетикалық талапларын қанатландырыў менен бирге, сиясий гүрестиң бирден-бир жедел қуралына айлана баслады. Шешенлик өнери (сөз өнери) кәсибиниң әмелий нәтийжелери руў-қәўимлердиң, халықлардың, мәмлекетлердиң сиясий-дипломатиялық, экономикалық қатнасықларында сиясий-әскерий даўлы-жәнжеллерди тыныш жол менен шешилиўлерин, халықлар дослығын тәмийинлеўде, жәмийетлик тарийхый процесслерде, көркем әдебий дәреклерде, халық аўызеки дөретпелеринде көрип отырмыз.

Усындай жәмийетлик тарийхый зәрүрликлерге байланыслы шешенлик сөз өнери пайда болған ҳәм бул өнерди ийелегенлер шешен деп аталған. Шешенлер импровизациялық қәбилетлерин жетилистириў ушын халықтың бай көркем аўызеки дөретпелери, әдебий шығармалары менен бирге дүньялық илимлерден де хабардар болып, энциклопедиялық билимге де ийе болған. Соның менен биргеликте шешенлердиң сөз ҳәм пикир өткирлигинде тынық ҳаўаз, бәлент даўыс ҳәм импровизациялық уқып та үлкен рол ойнаған. Демек, шешен сөз өнериниң жетик қәнигеси болыўы менен бирге саз (музыка), ҳәрекет (театр) өнеринлериниң де жетик устасы болған. Бул синкретикалық өнерлер шешенлердиң сөз өнеринде, дипломатияда айрықша әҳмийетке ийе болған. Буны биз түркий халықлардың тарийхый өтмиши арқалы байқап отырмыз. Мәселен, Қотан, Кетбуға, Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан қайғы, Доспамбет ҳәм т.б жыраў-шайырлардың дөретиўшилигинде бул өнерлердиң әҳмийетли тәреплери тарийхта қалған.

Шешенлик өнери (ораторлық) көркем әдебият пенен тығыз байланыслы. Көркем әдебияттың тәсиршеңлигиниң, көркемлик бояўының артыўына шешенлик сөзлердиң әҳмийети оғада жоқары екенлигин биз жақсы сезemiz. Өйткени, халық аўызеки дөретиўшилигиниң үлгилери: дәстанлар, жырлар, терме-толғаўлар, тарийхый қосықлар әпсана ҳәм рәўиятларда, жазба әдебиятта (поэма, роман, повест ҳ.т.б) толып атырған шешенлик сөзлер үлгилериниң шығарма сүйегине енисип кеткенин аңлап отырмыз.

Әййемги Грецияда ораторлық өнери (риторика) бул сөйлеў теориясы, лекторларға (баянатшы, шығып сөйлеўшилер) бағдарланған қағыйдалар топламы болды. Кейинги дәўирлерде (Орта әсирлерде) риторика қағыйдалары көркем әдебиятқа өте баслады. Риторика көркем әдебияттың көркем тәсиршеңлигиниң артыўына алып келди. Бир неше әсирлер даўамында көркем әдебий дөретиўшилик (әсиресе, эпос, трагедия, ода) риторика қағыйдаларына бойсынған ҳалда, ораторлық (шешенлик) тәжирийбеден пайдаланылған. [8,243-б.] Солай етип шешенлик өнери, шешенлер дөретиўшилиги (ораторлық) әййемги Грецияда риторика илими болып қәлиплескени менен көркем әдебият пенен бирге өмир сүрип ҳәм әдебияттаныў илими менен сыбайлас үйренилип киятыр.

Шешенлик өнери Египет, Ассирия, Вавилон, Ҳиндстан ҳәм Орайлық Азияда жасаўшы түркий халықларда (Түрк қағанаты) да жоқары баҳаланған. Халық алдында, үлкен рәсмий ҳәм рәсмий емес жыйынларда, той-мәресим салтанатларында шығып сөйлеў, сөйлеў механизмин қәлиплестириў бағдарындағы әййемги тәжирийбелик үлгилер биз атап өткен мәмлекетлер менен халықларда болыўы тәбийий қубылыс.

Түркий халықлары әдебияты, фольклоры тарийхында да ерте дәўирлерден бизиң халқымыз шешенлик сөз өнерине терең итибар бергенлигиниң гүўасы болып отырмыз. Әсиресе, өзбек, қарақалпақ, қазақ, қырғыз, ноғай, башқурт ҳәм басқа да түркий халықлардың ески фольклорлық шығармаларында шешенлик сөз өнери ҳәм импровизациялық усылдың дәслепки үлгилери сақланған.

Барлық түркий халықлар өзлерининиң көркем әдебияты, тарийхы, философиясы, этнографиясы, жазыў мәденияты ҳәм басқа да энциклопедиялық билимлердиң түп сағасын «Орхон Енисей жазыўлары» деп аталған мәдений-тарийхый ҳәм көркем әдебий тас жазыўлардан баслағанды мақул көреди. Бул тарийхый жазба естелик қарақалпақ халқының да руўхый дүньясы болып табылады. Өйткени, қарақалпақларда түркий халықлардың бири болғанлықтан бул ески мәдений-руўхый естеликке мийрасхор екенлигимизди естен шығармаўымыз керек. Сонлықтан да биз халқымыздың тарийхын, көркем әдебиятын, руўхый дүньясын, этнографиясын, шешенлик өнери ҳәм импровизациялық дәстүрин ҳәм оның туўылыў, қәлиплесиў, тарийхый раўажланыў басқышларының түп дәрегин усы естеликтен баслаўға толық ҳақылымыз.

Түркий халықлардың ерте дәўирдеги фольклорлық шығармалары менен бир қатарда аўызеки тарийхый эпикалық шығармалары болған «Тумарис», «Шырақ» ҳәм басқа бир неше көркем әдебий дөретпелер әсирлер даўамында Орта Азия халықларының руўхый дүньясында өмир сүрип келди. Мине, бул шығармаларда шешенлик сөз өнериниң үлгилерин, импровизациялық қубылыстың белгилерин, дәстүрлерин аңлаўға болады.

Шешенлик өнерин ийелеўде үлкен әҳмийетке ийе болған Риторика пәни Грецияда, Афинада турмыс талапларының нәтийжесинде суд мәжилисleриниң бағдарында жүзеге келип, кәсип түри ҳәм илим сыпатында раўажланған болса, Орта Азияда жасаўшы қәўимлер, руўлар, миллетлер арасында көркем әдебияттың

базасында дидактикалық бағдарда пайда болды ҳәм раўажланыў басқышына түсти, бирақ ораторлық пәни сыпатында баҳаланбаса да, көркем әдебияттың түри сыпатына шешенлик өнери, ал өнер, кәсип бағдарында болса, бул дөретиўшиликти ийелеген адамды шешен деген халықлық атама берилди.

Қарақалпақ халқының шешенлик өнериниң тарийхын Түрк қағанаты (ханлығы) дәўиринен мийрас қалған «Орхон-Енисей жазыўлары» деп аталған қулпы тасқа қашаў менен ойып жазылған қулпы тас жырларынан баслаў мақсетке муўапық болады. Түрк қағанатлығы дәўиринде Билке қаған, Қултегин, Тоныкөк сыяқлы ел бийлери ҳәм баҳадырларының қара сөз бенен шешенлик импровизациялық усыл ҳәм көркем тил менен жазылған жанрлық тәбияты тарийхый жырды, жоқлаўды елеслететуғын тас поэзия нағыз буның айқын дәлийли болып табылады.

Түркий халықлары шешенлик өнери тарийхында шешенлик ҳәм импровизациялық талантқа, уқыпқа ийе болған барлық түркий халықларға ортақ данышпанлардан Абу Райхан Беруний, Абу Наср Фарабий, Ибн Сина, Абу Абдулла Әл Хорезмий, Юсуп Ҳас Ҳажиб, Махмуд Қашқарий, Ахмет Югнакий, Хожа Ахмет Яссаўий, Сулайман Бақырғаний, Әмир Унсурулмаоний Қайқабус, Саадий, Насратдин Рабғузий, Әлийшер Наўайы, Заҳриддин Муҳаммед Бабур дөретиўшилиги ҳәм олардан бизге жетип келген көркем әдебий ҳәм энциклопедиялық шығармалары да айрықша әҳмийетке ийе. Бул данышпанлардың шығармаларында көркем поэзия ҳәм илимий болжаўлар менен қарысып кеткен ораторлық (шешенлик) ҳәм импровизациялық уқыплылықтың үлгилерин аңлаўға болады.

XIV–XVII әсирлерде шешенлик өнериниң жыраўлық поэзия менен қарысып раўажланғанында байқаўға болады. Демек бул дәўирлерде жасап өткен жыраў-шайырлар мийрасында Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан қайғы, Доспанбет жыраў, Мүйтен жыраў ҳәм басқа жыраў-шайырлар дөретиўшилигинде олардың жыраўлық, шайырлық таланты менен бирге шешенлик өнериниң де үлгилерин ийелегенин аңлаўға болады. Соның ушын да бул дөретиўши тулғаларды шешенлик өнериниң ўәкиллери сыпатында да баҳалаўға толық тийкар бар.

Буннан соңғы XVIII-XIX әсирлерде қарақалпақ классикалық әдебиятында да шешенлик өнери поэзия менен қарыстырып, қос өнердиң ийеси болған Жийен жыраў, Күнхожа, Әжинияз, Бердақ, Өтеш шайырлардың дөретиўшилигинде, олардан халқымызға бай руўхый ғәзийне болып бизге жетип келген шығармаларында да көриўге болады. Солай етип шешенлик өнери жыраўлық поэзия, классикалық әдебият базасында қәлиплесе раўажланыўын сезсек, оның менен қарасып, синкретикалық (синкретизм) усылда раўажланғаны көзге тасланады.

Қарақалпақ халқы турмысында шешенлик өнерин шешенлер, жыраўлар, шайырлардан басқа да сол дәўирлердеги ҳәкимшилик басқарыў уйымларының алдыңғы данышпан ел ағалары, аталықлар, қәўим ҳәм урыў бийлеринде де жүдә шеберлик пенен үрдис еткенлигин көриўге болады. Себеби бул тәбийий ҳәм нызамлы қубылыс еди. Әлбетте, ел басшылары, бийлер халық алдында шығып

сөйлеўде биринши нәўбетте шешенлик талантқа (ораторлық), импровизациялық уқыплылыққа мүтәж еди. Солай етип бул дәўир турмысында шешенлик өнериниң раўажланыўына үлкен үлес қосқан ҳәм шешен ҳәм импровизатор, ҳәм ел ағасы, халық атасы, қәўим ҳәм урыў басшыларынан Маман бий, Айдос бий, Ерназар бий, Турым бий, Ережеп тентек, Өмирбек лаққы ҳәм т.б. бий ҳәм шешенлердиң исмин атаў өтиў орынлы.

Шешен болыў ушын импровизациялық уқыпқа ийе болыў керек. Егер де шешенде импровизация болмаса, мәселени унамлы шешип бере алмаўы, машқала туўдырып турған жағдайда сөз құдирети арқалы жумсарта билмеўи де мүмкин. Солай етип оның шешенлик таланты, ақыл-парасаты, сөз жүйесин таўып бериў позиция көринбей қалады.

Импровизация усылы көркем өнердиң барлық түрлеринде (көркем әдебият, музыка, театр, жиповись, хореография) бар болған көркем әдебий қубылыс болып табылады. Бул көркем әдебий қубылыс таярлықсыз суўырып салыў, ҳәзир жуўаплы, төкпе талант, тәбийғый таланттың сол заматта туўылыўы, сөз тапқырлығы қәсийетлерине ийе болады.

Қарақалпақ әдебиятында улыўма сөз өнеринде жыраўлар, шайырлар, бақсылар, шешенлер (ораторлар), лаққыларда импровизациялық қубылыс, яғный сөзге таярлықсыз суўырып салыў, төкпе талантлылық қәсийетлерине, уқыпларына ийе болған. Бундай импровизациялық қәсийетке ийе болған дөретиўши тулғаларды биз ерте дәўирлерден көзге тасланатуғын халқымыздың көркем аўызеки дөретиўшилигинде, жыраў-шайырлар дөретиўшилиги (Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан қайғы, Доспанбет жыраў, Мүйтен жыраў, Жийен жыраў, Жийренше шешен ҳәм XIX әсирдеги классик шайырлардан Күнхожа, Әжинияз, Бердақ, Өтеш ҳәм кейинги дәўирлердеги халық шайырлары Садық шайыр, Рам шайыр, Т.Жумамуратов ҳәм т.б. шайырлар дөретиўшилигинде, күлкили сөз айтыўшыларда, лаққыларда, шешенлерде (ораторлар) ушыратыўға болады.

Қарақалпақ шешенлик өнери тарийхында әпсанаўий жыраў Қорқыт ата, Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан қайғы, Жийренше шешен, Доспамбет ҳәм т.б. жыраўлардың өз дәўиринде дана сазгер жыраў, философ данышпаны болыўы менен бирге ханды ҳәм халықты аўзына қаратқан шешен екенлигин жақсы билемиз. Бул жыраў-шайырлардың шығармалары өз дәўириниң тарийхы, социал-жәмийетлик сиясий турмысы менен тығыз байланыслы. Жыраў-шайырлардың әдебий мийрасларын үйрене отырып олардың шешен, мәмлекетлик сиясат ҳәм дипломатиялық ислер менен шуғылланғанын, хан кеңесгөйи болғанлығы сеземіз.

Қорқыт атаның «Ешектен тулпар болмас, мыйқыдан суңқар болмас», Соппаслы Сыпары жыраўдың «Ҳә хан ийем, хан ийем, қулағыңды сал ийем… қызыға берме урысқа, зыяны тийер ырысқа», Асан Қайғының «Әй хан ийем, хан ийем, мен айтпасам билмейсең, қымыз ишип қызынып, қызараңлап терлейсең, өзиңнен басқа хан жоқтай» деген сөзлери импровизация менен батыл түрде айтылған шешенлик өнериниң үлгилери болып табылады.

Асан Қайғының жәмийетлик искерлиги хан мәсләҳәтшиси (мәмлекетлик кеңесгөй) халықлар ҳәм мәмлекетлер арасындағы дипломатиялық ислерди әмелге

асырыўшы сыпатында көринеди. Базы жағдайларда мәмлекетлик сиясатқа толық араласып, Жәнибек ханның сиясий ислерин мақулламай батыл түрде қарсы шығады. Бул оның көрегенлиги, мәмлекеттиң абыройсызланыўының алдын алыўда, халықтың тыныш өмир сүриўде үлкен роль ойнағанлығын көрсетеди. Демек оның;

«Аңылып жүрген көп душпан,
Елге жаў боп келеди,
Қуладин қусты өлтирсе,
Өз басыңа келеди:
Әй Жәнибек ойласаң,
Қыйлы-қыйлы заман болмайма?»-деген қатарлары хан кеңесгөйи болғанлығын билдирсе, екиншиден оның импровиазтор шешен, шайыр екенлигин толық дәлилейди.

Қарақалпақ әдебияты тарийхында шешенлик өнериниң идеялық бағыты, мазмунына, тематикасына итибар қаратсақ, XIV-XV әсирлердеги Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан Қайғы ҳәм Жийреншеге байланыслы шешенлик сөзлерде ханлар ҳәм халық турмысы, мәмлекетлик сиясат, дипломатия, халықлар дослығы сыяқлы мәселелер сөз етиледи. Ал, кейинги дәўирлердеги Маман бий, Айдос бий, Турым бий, Ережеп бий, Өмирбек лаққы ҳәм т.б. бийлер, шешенлер, лаққылар тусындағы шешенлик сөзлерде урыўлар арасындағы даў-жәнжеллер, суў мәселеси, аўызбиршилик, жер даўы ҳәм т.б. мәселелердиң шешимин табыў ушын даналық, тапқырлық ҳәм импровизациялық усыл менен айтылған әңгимелер, шешенлик сөзлер қурайды.

Ерте дәўирдеги қарақалпақ халқының руўхый-психологиялық турмыслық келбетин белгилейтуғын шешенлик сөзлерде ҳәзир жуўаплылық (импровизация) терең ой-пикир, мәнили ҳәм жумбақлы гәп, астарлы сөзлер менен орап бериў дәстүрге айланған. Бундай дәстүр дәўир тарийхы ушын ҳәм сиясий-жәмийетлик процессте оғада әҳмийели қубылыс еди.

Шешенлик сөз өнеринде шешенликти ҳәм жыраўлық поэзияны бирлестире алған Соппаслы Сыпыра жыраў, Асан Қайғы, Мүйтен жыраў, Жийен жыраў, Шанқай жыраў ҳәм т.б. шешен-жыраўларды биз әдебият тарийхы арқалы жақсы билемиз. Булардың ақыл-парасатлылық пенен сөз тапқырлығы, дилўарлығы, қыйын-қыстаўлы жағдайдан сөз құдирети арқалы жағдайды жумсарта алыўы импровизациялық қубылыстың көриниси сыпатында баҳалағымыз келеди.

Жуўмақ. Улыўма айтқанда шешенлик өнериниң дәреклери әййемги Грецияда ораторлық өнери сыпатында қәлиплескен. Ал, түркий халық әдебияты тарийхында шешенлик өнери сыпатында раўажланған. Шешенлик өнери жәмийеттиң сиясий-экономикалық, жәмийетлик-психологиялық турмысында оғада әҳмийетли қубылыслардың бир болды. Шешенлик сөзлер тапқырлық, терең ақыл-ой жемеси, импровизация туўындысы болып табылады. Иимпровизациялық усыл шешенлик өнерде әҳмийетли әдебий қубылыс екенлигин белгилеп өттик. Солай етип шешенлик сөзлер жәмийеттиң көркем-эстетикалық талапларын қанатландырыў менен бирге, жаңа Үшинши Ренессанс дәўиринде халықлар

дослығын беккемлеўде, миллетлер ара татыўлық, сиясий-дипломатиялық халықаралық қатнасларда орны уллы руўхый мийрас болып табылады.

Әдебиятлар:

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир, II том. «Ўзбекистон»2018.

2. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқининг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади, III том. «Ўзбекистон»2019.

3. История древнего востока. (под ред. В.И.Кузищин) Москва, «Высшая школа», 2003 г.

4. Жаббаров Н. Адабиёт ва миллий маънавият, Тошкент: «Манавият», 2015.

5. Қурбанов Д. Адабиётшуносликка кириш, Андижон:- «Ҳаёт», 2002.

6. Қобланов Ж.Т. Шет ел әдебиетінің тарихы Алматы.: 2011.

7. Мамбетов К. Шығыс әдебияты тарийхы, «Билим», 1993.

8. Хализев В.Е. Теория литературы: Москва, «Высшая школа» 2004. стр. 243.

ЎЗБЕКИСТОН МТРК АХБОРОТ ДАСТУРЛАРИДА ТЕХНИК ЖИҲАТДАН ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИНИ ЁРИТИШ: ЖУРНАЛИСТИК ЁНДАШУВ ВА ПРОФЕССИОНАЛ МАҲОРАТ МУАММОЛАРИ

Пўлатова Лобар
Ўзбекистон МТРК "Давр" ахборот дастурлари
бош муҳарририятининг катта муҳаррири

Кириш. Замонавий жамиятда техник жиҳатдан тартибга солиш тизими иқтисодиёт барқарорлиги, маҳсулот хавфсизлиги ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг муҳим институционал механизми сифатида намоён бўлади. Стандартлаштириш, метрология, мувофиқликни баҳолаш ва аккредитация соҳалари ишлаб чиқариш сифатини таъминлаш, халқаро савдода ишончни мустаҳкамлаш ва инновацион ривожланиш учун зарур шарт-шароитларни яратади. Бироқ ушбу соҳанинг мазмуни ва аҳамияти кенг жамоатчиликка тўлиқ ва тушунарли тарзда етказилмаса, унинг ижтимоий самарадорлиги чекланиб қолади.

Айни шу нуқтаи назардан оммавий ахборот воситалари, хусусан телевидение техник жиҳатдан тартибга солиш тизими фаолиятини жамоатчиликка етказишда стратегик аҳамиятга эга. Ахборот кўрсатувлари орқали стандартлар, сертификатлаштириш жараёнлари, лаборатория синовлари ва назорат механизмлари ҳақидаги маълумотлар аудитория онгида муайян тасаввур ва ишончни шакллантиради. Бу жараёнда журналист маҳорати ҳал қилувчи омил ҳисобланади, чунки мураккаб техник маълумотни содда, аниқ ва ишончли тарзда тақдим этиш юқори касбий тайёргарликни талаб қилади.

Ўзбекистонда техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида олиб борилаётган институционал ислоҳотлар, миллий тизимни халқаро стандартлар билан уйғунлаштиришга қаратилган чора-тадбирлар мазкур соҳани ахборот майдонида

фаол ёритиш заруратини кучайтирди. Бу жараёнда миллий телевидение ахборот кўрсатувлари давлат сиёсати, ишлаб чиқарувчилар манфаати ва истеъмолчилар ҳуқуқлари ўртасидаги мулоқот платформаси сифатида намоён бўлади.

Мазкур мақолада техник жиҳатдан тартибга солиш тизими фаолияти ҳақидаги маълумотларни Ўзбекистон МТРК ахборот кўрсатувларида ёритишда журналист маҳорати илмий-таҳлилий жиҳатдан тадқиқ этилади. Журналистик ёндашув, ахборотни визуал ва вербал ифода этиш, таҳлилий талқин ва аудитория билан мулоқот масалалари комплекс равишда кўриб чиқилади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тадқиқот назарий таҳлил ва амалий кузатувлар уйғунлиги асосида олиб борилди. Техник жиҳатдан тартибга солиш, оммавий коммуникация ва журналистика назариясига оид илмий манбалар ўрганилди. Ахборот кўрсатувларидаги материаллар контент-таҳлил усули орқали таҳлил қилиниб, журналистик услуб, терминологиядан фойдаланиш, визуал воситалар қўлланилиши ва таҳлилий даража баҳоланди.

Шунингдек, системали ёндашув қўлланилиб, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ва медиа муҳити ўртасидаги ўзаро боғлиқлик таҳлил қилинди. Журналист маҳоратини фақат индивидуал қобилият сифатида эмас, балки таҳририят сиёсати, институционал қўллаб-қувватлаш ва технологик инфратузилма билан боғлиқ ҳолда ўрганишга эътибор қаратилди.

НАТИЖАЛАР

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ҳақидаги ахборотни ёритишда журналист маҳорати биринчи навбатда соҳанинг мазмунини чуқур англаш билан боғлиқ. Стандартлаштириш ёки мувофиқликни баҳолаш каби тушунчалар ўз табиатига кўра мураккаб бўлиб, уларни юзаки ёритиш ахборотнинг мазмуний қийматини пасайтиради. Юқори касбий маҳоратига эга журналист ушбу тушунчаларни соддалаштириб, уларнинг жамият ҳаётидаги амалий аҳамиятини очиб бера олади.

Ахборот кўрсатувларида техник соҳаларни ёритишда терминология билан ишлаш алоҳида аҳамият касб этади. Журналист маҳорати терминларни тўғри танлаш, уларни изоҳлаш ва аудитория учун тушунарли контекстда қўллашда намоён бўлади. Тадқиқот шуни кўрсатдики, изоҳсиз ёки нотўғри қўлланган техник атамалар аудиторияда чалкашлик келтириб чиқаради ва ишонч даражасини пасайтиради.

Визуал коммуникация ҳам техник жиҳатдан тартибга солиш мавзусини ёритишда муҳим ўрин тутади. Лаборатория синовлари, сертификатлаштириш жараёнлари ёки назорат тадбирларини визуал кўрсатиш ахборотни аниқ ва ишончли қабул қилишга хизмат қилади. Бироқ визуал воситалар мазмун билан уйғунлашмаган ҳолда қўлланилса, улар фақат ташқи эффект сифатида қолиб кетиши мумкин. Медиа-профессионал журналист визуал элементларни мазмунни очиб берувчи восита сифатида қўллайди.

Тадқиқот натижаларидан яна бири шуки, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ҳақидаги материаллар таҳлилий ёндашувни талаб қилади. Ахборотни

фақат расмий хабар шаклида бериш жамоатчилик қизиқишини чеклайди. Журналистик таҳлил эса стандартлар жорий этилишининг иқтисодий, ижтимоий ва истеъмолчи манфаатларига таъсирини очиб бериш имконини яратади.

МУҲОКАМА

Муҳокама жараёнида техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ва оммавий ахборот воситалари ўртасидаги ўзаро таъсир комплекс феномен экани аниқланди. Журналист маҳорати ушбу ўзаро таъсирнинг марказида туради. Бир томондан журналист давлат органлари ва соҳавий муассасалар фаолиятини жамоатчиликка етказувчи воситачи ҳисобланса, иккинчи томондан у аудитория манфаатларини ҳимоя қилувчи ижтимоий субъект сифатида намоён бўлади.

Муҳокама шуни кўрсатадики, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасини ёритишда журналистик холислик алоҳида аҳамиятга эга. Рекламага яқинлашиб кетган ёки фақат расмий позицияни акс эттирувчи материаллар жамоатчилик ишончига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шу боис журналист маҳорати фактларни текшириш, турли нуқтаи назарларни таққослаш ва таҳлилий хулосалар чиқаришда намоён бўлиши лозим.

Муҳокамани давом эттирар эканмиз, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими фаолиятини ёритишда журналист маҳоратининг яна бир муҳим жиҳати — ижтимоий масъулият масаласи экани ойдинлашади. Техник регламентлар, стандартлар ёки мувофиқликни баҳолаш натижалари жамият ҳаётига бевосита таъсир кўрсатади, чунки улар маҳсулот хавфсизлиги, инсон саломатлиги ва атроф-муҳит муҳофазаси билан боғлиқ. Шу сабабли бундай маълумотларни нотўғри талқин қилиш ёки юзаки ёритиш кенг жамоатчиликда нотўғри хулосалар шаклланишига олиб келиши мумкин. Журналист маҳорати айнан шу хавфларни англаш ва ахборотни масъулият билан тақдим этишда намоён бўлади.

Ахборот кўрсатувларида техник жиҳатдан тартибга солиш мавзусини ёритиш журналистдан юқори даражадаги таҳлилий тайёргарликни талаб қилади. Чунки бу соҳа кўпинча меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, техник стандартлар ва институционал жараёнлар билан боғлиқ бўлиб, уларни бир қарашда қабул қилиш қийин. Шу нуқтаи назардан журналистнинг вазифаси фақат ахборотни етказиш эмас, балки уни маъно жиҳатдан қайта ишлаш, жамоатчилик учун долзарб бўлган жиҳатларини ажратиб кўрсатишдан иборат бўлади. Бу жараёнда таҳлилий журналистика элементларини қўллаш ахборотнинг сифатини оширади.

Муҳокама шуни кўрсатадики, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ҳақидаги материалларни ёритишда контекст масаласи алоҳида аҳамиятга эга. Ахборот кўрсатувларида муайян стандарт ёки регламент ҳақида хабар берилганда, унинг қандай шароитда қабул қилингани, қайси муаммоларни ҳал этишга қаратилгани ва амалда қандай натижалар бериши мумкинлиги очиб берилиши лозим. Контекстсиз берилган маълумот аудитория учун қуруқ факт сифатида қолиб кетади. Медиа-профессионал журналист эса контекст яратиш орқали ахборотни жонлантиради ва унинг ижтимоий аҳамиятини оширади.

Журналист маҳоратининг яна бир муҳим кўрсаткичи — манбалар билан ишлаш маданиятидир. Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида ахборот

манбалари кўпинча расмий органлар, лабораториялар, экспертлар ва ишлаб чиқарувчилар ҳисобланади. Ушбу манбалардан олинган маълумотларни таққослаш, уларнинг ишончлилигини текшириш ва мувозанатли ҳолда тақдим этиш журналистдан юқори касбий этикани талаб қилади. Айниқса, техник соҳада манфаатлар тўқнашуви эҳтимоли мавжуд бўлган шароитда холисликни сақлаш журналист маҳоратининг асосий мезонига айланади.

Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасини оммавий ахборот воситаларида ёритишда журналист томонидан атамаларни тўғри қўллай билиш алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу соҳа стандартлаштириш, метрология, мувофиқликни баҳолаш, аккредитация ва техник регламентлар каби махсус тушунчаларга бой бўлиб, уларнинг мазмуний жиҳатдан нотўғри ёки юзаки талқин қилиниши ахборотнинг ишончлилигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Журналист маҳорати атамаларни механик тарзда қўллашда эмас, балки уларнинг мазмунини англаб, аудитория учун тушунарли контекстда изоҳлай олиш қобилиятида намоён бўлади. Бу жараёнда терминологик аниқлик ва нутқ маданияти ўзаро чамбарчас боғлиқ ҳолда намоён бўлади.

Журналист томонидан атамаларни қўллаш маҳорати, аввало, соҳавий билимлар даражаси билан белгиланади. Техник жиҳатдан тартибга солиш тизимида ишлатиладиган атамалар кўпинча ҳуқуқий, техник ва илмий мазмунга эга бўлгани сабабли журналистдан ушбу соҳанинг асосий тамойиллари ва институционал тузилмасини тушуниш талаб этилади. Агар журналист атаманинг ҳуқуқий ёки техник мазмунини чуқур англамаса, унинг ахборот кўрсатувида қўлланилиши формал характер касб этиб, мазмунни очиб бермайди. Шу боис атамалар билан ишлаш маҳорати журналистик таҳлил ва масъулият билан уйғун бўлиши зарур.

Атамаларни самарали қўллаш журналистдан аудитория даражасини ҳисобга олишни ҳам талаб қилади. Ахборот кўрсатувлари кенг жамоатчиликка мўлжалланган боис, мураккаб техник атамаларни изоҳсиз қолдириш ахборотнинг қабул қилинишида қийинчилик туғдиради. Медиа-профессионал журналист атамани қўллар экан, унинг мазмунини ҳаётий мисоллар, қиёслар ёки визуал тасвирлар орқали очиб беришга интилади. Бу эса техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ҳақидаги ахборотни аудитория учун тушунарли ва аҳамиятли қилади.

Журналист маҳоратининг яна бир муҳим жиҳати — соҳадаги янгиликлар ва ўзгаришлар ҳақида доимий равишда хабардор бўлиб боришдир. Техник жиҳатдан тартибга солиш тизими халқаро стандартлар, қонунчиликдаги ўзгаришлар ва технологик ривожланишлар билан узвий боғлиқ бўлгани сабабли, журналист ушбу динамик жараёнларни кузатиб бориши лозим. Соҳавий янгиликлардан хабардор журналист ахборот кўрсатувларида нафақат мавжуд ҳолатни, балки ислоҳотлар йўналиши ва уларнинг эҳтимолий таъсирини ҳам ёритиб бера олади. Бу эса ахборот материалларининг таҳлилий қийматини оширади ва жамоатчилик онгида тизимли тасаввур шаклланишига хизмат қилади.

Муҳокама жараёнида аудитория билан мулоқот масаласи ҳам кенг қамровда таҳлил қилинди. Ахборот кўрсатувлари орқали техник жиҳатдан тартибга солиш

тизими ҳақида маълумот берилганда, аудитория бу ахборотнинг ўз ҳаётига қандай дахлдор эканини англаши муҳим. Журналист маҳорати айнан шу нуқтада — техник маълумотни инсон манфаатлари билан боғлаб кўрсата олишда намоён бўлади. Масалан, стандартларнинг жорий этилиши маҳсулот сифатига, хавфсизликка ёки иқтисодий барқарорликка қандай таъсир кўрсатиши тушунтирилганда, аудитория ахборотни фаол қабул қилади.

Муҳокама шуни ҳам кўрсатдики, визуал ва аудиовизуал воситалар техник жиҳатдан тартибга солиш мавзусини ёритишда муҳим ўрин тутади. Лаборатория синовлари, ўлчаш жараёнлари, сертификатлаштириш тартибларини визуал кўрсатиш орқали журналист ахборотнинг ишончлилигини оширади. Бироқ визуал элементлардан фойдаланиш ҳам маълум профессионал меъёрларга асосланиши лозим. Агар визуал воситалар мазмунни очиб бермаса ёки нотўғри талқинга олиб келса, улар ахборотнинг сифатини пасайтиради. Шу боис журналист маҳорати визуал саводхонлик билан чамбарчас боғлиқдир.

Муҳокама доирасида журналист маҳоратининг институционал жиҳатлари ҳам таҳлил қилинди. Ахборот кўрсатувларининг сифатли бўлиши фақат алоҳида журналистнинг маҳоратига эмас, балки таҳририят сиёсати, касбий муҳит ва таҳририй назорат тизимига ҳам боғлиқ. Техник жиҳатдан тартибга солиш каби мураккаб соҳани ёритиш учун таҳририят даражасида мутахассислар билан ҳамкорлик қилиш, экспертлик маслаҳатларини жалб этиш ва узоқ муддатли таҳлилий лойиҳаларни йўлга қўйиш муҳим аҳамиятга эга.

Муҳокама натижалари шуни кўрсатадики, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими фаолиятини ёритишда журналист маҳорати динамик хусусиятга эга. Қонунчилик базаси, халқаро стандартлар ва технологиялар доимий равишда янгиланиб бораётган шароитда журналист ҳам ўз билимларини мунтазам равишда янгилаб бориши лозим. Бу эса касбий ривожланиш, соҳавий ўқувлар ва медиатаълим тизимини такомиллаштириш заруратини келтириб чиқаради.

ХУЛОСА

Ушбу илмий-таҳлилий тадқиқот натижалари техник жиҳатдан тартибга солиш тизими фаолияти ҳақидаги маълумотларни миллий телевидение ахборот кўрсатувларида ёритишда журналист маҳорати ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини тасдиқлади. Журналист маҳорати мураккаб техник маълумотни жамоатчилик учун тушунарли, ишончли ва ижтимоий аҳамиятли тарзда тақдим этиш қобилиятида намоён бўлади. Бу қобилият журналистик билимлар, таҳлилий фикрлаш, нутқ маданияти, визуал саводхонлик ва ахлоқий масъулиятнинг уйғун бирлигига асосланади.

Тадқиқот шуни кўрсатдики, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасини ёритиш фақат ахборот бериш вазифасини эмас, балки жамоатчилик онгини шакллантириш миссиясини ҳам ўз ичига олади. Ахборот кўрсатувлари орқали стандартлар, сертификатлаштириш ва назорат механизмлари ҳақида берилган маълумотлар жамиятда ишонч муҳитини шакллантиришга хизмат қилади. Бу жараёнда журналист маҳорати давлат сиёсати ва жамоатчилик манфаатлари ўртасида мувозанатни сақлашда намоён бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, техник жиҳатдан тартибга солиш тизими ҳақидаги ахборотни ёритиш журналистдан юқори даражадаги касбий тайёргарлик ва масъулиятни талаб қилади. Шу боис оммавий ахборот воситаларида ишлаётган журналистлар учун техник соҳаларга ихтисослашган медиатаълим дастурларини ривожлантириш, экспертлар билан ҳамкорликни кучайтириш ва таҳлилий форматларни кенг жорий этиш долзарб вазифа ҳисобланади. Бу эса ахборот кўрсатувларининг сифати ошишига, жамоатчилик ишончи мустаҳкамланишига ва техник жиҳатдан тартибга солиш тизимининг ижтимоий самарадорлиги юксалишига хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Абдуазизова Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2007;

Достмуҳамедов Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарийметодологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Филол.фан.докт.... дис. автореферати. – Тошкент: ЎзМУ. 2008;

Дўсмуҳаммад Х. Шарҳловчилик маҳорати. // Халқ сўзи. 2003 йил 11 ноябрь; Оммавий ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999;

Зарва М.В. Произношение в радио и телевизионной речи. – М., 1976. – 178 с.

Леонтьев А.А. Радио и телевизионная речь как вид общения // Психолингвистические проблемы массовой коммуникации. – М.: Наука, 1974. С.28-52.

Светана С.В. Телевизионная речь: функции и структура. – М.: Изд.МГУ, 1976. - 150 с. Телевизионный сценарий. – М., 1975.

Сандлер Л.Л. Современная телевизионная речь. – Воронеж: ВГУ, 2006. – 256 с.

Сенкевич М.П. Культура радио и телевизионной речи. Учебное пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 1997. - 96 с. ва бошқалар.

Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010, 64-67-б.

Каримов А. Телевидение Узбекистана. – Ташкент, 1973. Тошкентдан гапирамиз ва кўрсатамиз. – Тошкент, 1977.

Оммавий ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999.

Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. ... дис.автореферати. - Тошкент, 2012. – 48 б.

Саидов Ҳ. Янгиликлар ёзиш ва таҳрир санъати, 24-б.

Пардаев А., Рўзиев Ф., Маҳамадалиев Х. Журналистикада тил ва ифода. – Тошкент: Истиқлол, 2006, 14-16-б.

ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЁШ АВЛОД МАЪНАВИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ИЛДИЗЛАРИ

Примова Фотима Абдурахимовна,
Самарқанд Давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялари университети Тошкент филиали доценти, ф.ф.н.

Бугунги кунда жамият глобал тенденциялар ва чақириқлар билан тўқнашув даврини бошдан кечирмоқда. Биламизки, глобаллашув бутун Ер сайёраси учун ягона бўлган тузилмалар, алоқалар ва муносабатларнинг шаклланиши, универсаллашувидир. Глобаллашувнинг ижобий ва салбий жиҳатлари мавжуд, унинг ижобий жиҳатларига дунё мамлакатларини бирлаштириш, мамлакатлар ҳамда халқларнинг иқтисодиёт, сиёсат ва маданият соҳаларидаги ўзаро боғлиқлигини, алоқадорлигини кучайтириш, ягона дунё маконини, шу жумладан, бир-биридан ажралмас жаҳон хўжалигини вужудга келтириш, иқтисодий ўсиш, технологиялар ва товарларга эга бўлиш, халқлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни яхшилаш ва бандликнинг янги соҳаларини ривожлантириш каби омиллар киради. Глобаллашувнинг салбий жиҳатларини эса миллий ўзлик ва маънавий қадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар ҳамда ўз манфаатлари йўлида маданият ва маънавиятни йўқ қилиш, тарихни қайтадан яратиш, уни ўз ғояларига бўйсиндириш, терроризм, экстремизм, трансмиллий ва кибер-жиноятчилик, одам савдоси, наркотрафик каби таҳдидлар хавфи ошиб бориши, глобал муаммолар Ернинг нафақат одамлар яшайдиган қисмини, балки унинг қолган юзаси, ер ости бўшлиқлари, атмосфера, гидросфера ва ҳатто космик фазони қамраб олиши каби иллатлар ташкил этади.

Ушбу таҳдидларга қарши туришнинг энг муҳим шарти ёшлар онгида миллий маданият ва анъаналар асосида ҳақиқий маънавий-ахлоқий фазилатларни шакллантириш, уларнинг илмий салоҳиятини юксалтириш ҳисобланади. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъбири билан айтганда, “Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустаҳкам ривожланишига рахна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир” [1, 22-бет].

Шундай қилиб, цивилизациявий таҳдидларга жавоб бериш зарурати жамиятда ёшлар дуч келаётган маънавий, илмий, ижтимоий ривожланиш муаммоларни ҳал этиш ва ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш талабини кун тартибига киритди. Ўзбекистоннинг ёшларга оид давлат сиёсати баркамол, ҳар томонлама билимли авлодни шакллантириш, ёшларни қўллаб-қувватлаш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини тубдан ислоҳ этиш каби масалалардан иборат бўлиб, ёшлар билан ҳамкорлик муносабатларини ривожлантиришга қаратилган.

Халқаро экспертлар ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигига қуйидаги уч мезон асосида баҳо беради:

ёшларнинг жисмонан ва маънан саломатлик даражаси;

ёшларга берилаётган таълим-тарбиянинг сифат кўрсаткичи даражаси;

ёшларнинг ижтимоий таъминланганлик даражаси.

Бу бежиз эмас, албатта, чунки маънан ва жисмонан соғлом, юқори билим салоҳиятга эга, ижтимоий жиҳатдан таъминланган ёшлар жамият ҳаётида муҳим роль ўйнайди, энг муҳими, улар ўзлигини эркин ва дахлсиз фуқаро сифатида ҳис этади ва она-Ватанига бўлган меҳр-муҳаббати ортиб боради. Шу боис ёш авлоднинг соғлигини муҳофаза қилиш, фаоллигини ошириш, уларга сифатли таълим-тарбия бериш, ижтимоий ҳимоялаш, долзарб вазифа эканлигини унутиб бўлмайди.

Глобаллашув шароитда ёшларни ижтимоийлашувнинг дастлабки босқичидаёқ Ватанга муҳаббат, миллий ўзликни англаш руҳида тарбиялаш долзарб масалалардан бири синалади. Миллийлик – инсон қалбидаги Ватанга, ўз миллатига бўлган муҳаббат, туйғу ва фахр ҳиссидир, у ўзликни тан олиш ва уни асраб-авайлаш ҳамда ўзини муайян бир миллатга мансуб деб билиш, унинг тили, маданияти, тарихи, урф-одатлари ва қадриятлари билан фахрланиб яшаш демакдир. Шуни унутмаслик керакки, тилимиз, динимиз, қадриятларимиз, тарихий меросимиз, анъаналаримиз ва урф-одатларимиз – буларнинг барчаси бизнинг кимлигимизни билдириб туради. Шу жиҳатдан олганда миллийликни асраб-авайлаш нафақат ўз тарихимиз ва маданиятимизни сақлаш, балки уларни замонавий дунёга мос равишда ривожлантиришни ҳам англатади.

Замонавий технологиялар, глобаллашув ва умумжаҳон маданияти таъсирида миллий анъаналаримиз, ўзлик тимсолларимизга кўплаб таҳдидлар кун сайин ортиб бораётган бир даврда яшаяпмиз. “Бу каби таҳдидлар миллий ва умуминсоний қадриятлар емирилишига, зўравонлик, инсон тақдири, жамият ҳаётига беписандлик, масъулиятсизлик, лоқайдлик, андишасизлик, беҳаёлик каби иллатлар илдиз отишига, одамзотнинг ўз тарихий, диний, миллий-маънавий илдизларидан узилиб қолишига сабаб бўлмоқда ва жаҳондаги кўплаб давлатларда умумий тенденцияга айланиб бормоқда. Бундай мураккаб шароитда миллий ва умуминсоний қадриятларни асраш мустақилликни асрашдай, мустаҳкамлашдай, ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашдай муҳимдир [2, 15-сон]. Яхшиямки, жамиятимизда шундай инсонлар борки, уларнинг қалбида умуминсоний қадриятлар, бағрикенглик фазилатлари биргаликда миллий ўзлик яшайди, улар бу улуғ туйғуларни авлоддан авлодга ўтиши учун жон куйдирадилар. Афсуски, шу билан бирга миллатчилик руҳида фаолият юритаётган, ёшлар онгини заҳарлашга уринаётган кимсалар ҳам оз эмас. Шунинг учун ҳам ёш авлодга “ватанпарварлик” ва “миллатчилик” тушунчалари ўртасидаги фарқни кўрсатиб беришимиз зарур, деб ҳисоблайман, негаки бу ҳолат келажакда ўта радикал қарашлар, этнотсентризм, ирқчилик ва бошқа экстремистик кайфиятларнинг намоён бўлишига йўл қўймаслик имконини беради.

Миллийлик инсоният ҳаётини бойитувчи ижобий қадриятдир, бусиз ҳаёт мавҳумлик томон қадам ташлайди, миллатчилик эса ёвуз, худбин, ўзини ўзи тан олиш ва бошқа халқларга нафрат билан қарашдан иборат ўта салбий хусусият

бўлиб, у миллатчилик шовинизмини ва ксенофобияни келтириб чиқаради. Бу иллат бир этник гуруҳ вакиллари ўзларининг бошқа этнос (тарихий асосда шаклланган, ягона этник хусусиятларга эга бўлган барқарор ижтимоий гуруҳ)лардан устунликни даъво қилишга ҳаракат қилганда содир бўлади. Бундай хатти-ҳаракатлар миллатчиликнинг намоён бўлишига олиб келиши туфайли ҳар қандай жамият учун жуда хавфли ҳисобланади. Шуни таъкидлаш керакки, радикал характердаги миллатчи гуруҳлар ўзларининг бундай хатти-ҳаракатларини “ҳақиқий ватанпарварлик ва миллатпарварлик” дея инсонлар, айниқса, ёшлар онгига сингдиришга зўр бериб ҳаракат қиладилар. Шу боис ҳақиқий ва сохта ватанпарварлик ҳамда миллатпарварлик тушунчаларининг моҳиятини ёшлар онгигига сингдириш шу куннинг долзарб масаласига айланди.

Ҳақиқий ватанпарварлик ва миллатпарварлик Ватанга, демакки, унда яшовчи барча халқларга беғараз муҳаббатни, умумий мақсадларга эришишга, маданий ва маънавий қадриятларни асраб-авайлашга интилишни англатади. Бу туйғу нафақат миллий, балки умуминсоний қадриятларга, шу жумладан, маънавий қадриятларга асосланади, турли халқларни бирлаштиради, қарама-қаршилик ва душманликка барҳам беришга интилади. Ёлғон, бошқачароқ қилиб айтганда, миллатчилик руҳидаги ватанпарварлик ўзининг этник гуруҳига кўр-кўрона “содиқлик”ни, маълум бир халқнинг манфаатларини “ҳимоя қилиш” ниқоби остидаги хатти-ҳаракатлар мажмуини англатади. Бундай ҳолатларга йўл қўйилган жамиятда радикал “ғоя”лар авж олади, бу вақт ўтиши билан миллатчиликнинг энг охирги шакли – экстремизмга йўл очиб беради. Табиийки, бундай “ватанпарварлик ва миллатпарварлик” халқларни бирлаштирувчи, миллий ғояни шакллантирувчи юксак маънавий фазилатларга қарама-қарши қўйилади.

Кўп миллатлилик маданиятлараро чегараларнинг йўқолишига, ассимиляция жараёнига, яъни бир маданиятнинг ўз миллий хусусиятларини йўқотишига ва уларни қисман ёки тўлиқ бошқа халқ қадриятлари билан алмаштиришига олиб келмайди. Кўп миллатли давлат учун ҳар бир халқнинг маданий хусусиятларини сақлаб қолиш муҳим вазифа бўлиб, бунда бирликнинг аҳамиятини ҳисобга олиш керак, чунки одамларнинг фикрлари ва интилишларида бирлик бўлмаса, тараққиётга эришилмайди, халқ орзусидаги мақсадлар рўёбга чиқмайди. Назаримда Ўзбекистон Республикаси халқини бирлаштиришнинг энг юқори даражаси сифатида миллийликка эътибор бериш билан биргаликда бағрикенглик, миллалараро тотувликка эришиш йўлидан оғишмай бориш талаб этилади.

Ўзбекистон – кўп миллатли давлат. Бугунги кунда мамлакатимизда 130дан ортиқ миллат ва элат вакиллари бир оила фарзандларидек аҳил ва иноқ яшамоқда. Бу борада, ҳеч шубҳасиз, халқимизга азалдан хос бўлган бағрикенглик анъаналари муҳим роль ўйнамоқда. Шу ўринда Конституциямизнинг 19-моддасида “Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар [3, 9-бет]” дея белгилаб қўйилган. Қолаверса, биз бугун амалга ошираётган “*2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”*нинг бешинчи

устувор йўналишидаги 74-мақсад “Жамиятда миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлаш” деб номланган бўлиб, унда миллий маданий марказларни ва хорижий тилларда фаолият юритаётган ҳамда миллатлараро муносабатлар соҳасида давлат сиёсатини ёритаётган оммавий ахборот воситаларини қўллаб-қувватлаш, миллатлараро муносабатлар концепциясини изчил амалга ошириш, турли миллат ёшлари учун қулай шарт-шароитлар яратиш, уларда фуқаролик бурчини англаш, ватанпарварлик, бағрикенгликка асосланган миллатлараро муомала маданиятини юксалтириш, дўстлик жамиятлари фаолиятини такомиллаштириш [4] каби муҳим вазифалар белгилаб берилган.

Глобаллашув жараёнлари юз бераётган ҳозирги даврда ёшларнинг онгини миллий ғоя асосида шакллантиришда оилада ва таълим даргоҳларида бериладиган тарбиянинг аҳамияти беқиёс, чунки оила ва таълим даргоҳлари таълим-тарбия бериш билан бирга шахс онгига ўзини халқнинг бир қисми эканлигини англаш туйғусини синдиради. Шуни ёдда тутиш керакки, тарбия сифатида маънавий-ахлоқий ривожланишнинг энг муҳим воситалари ва ресурслари шахсни маънавий янгилайдиган ва шакллантирадиган соғлом таълим муҳити (боғча, мактаб, олий таълим ҳаётининг тартиби)ни яратишдир, унда миллий педагогик идеалга мувофиқ мақсадлар ва қадриятларнинг энг муҳим элементлари ва унинг тўлиқ ҳаётий фаолиятга айланиш механизмлари мавжуд тўлиқ акс этиши лозим.

Таълим тизими ёшлар маънавиятини юксалтиради ҳамда уларнинг қалбига ватанпарварлик, миллатпарварлик, миллий ва умуминсонийлик қадриятлар, Ватанига, ўз халқига содиқлик руҳини сингдиради. Шу боис таълим билан тарбия уйғун ҳолатда ёшларнинг маърифат ва маънвиятини ривожлантириш вазифасини ўтайди ва уларга қарши қаратилган таҳдидларга муросасиз бўлишини таъминлайди. “Агарки мендан, ҳозирги кунда маънавиятимизни асраш учун нима қилиш лозим ва унга таҳдид соладиган хуружларга нимани қарши қўйиш керак, деб сўраса, - деб ёзган эди Биринчи президентимиз Ислом Каримов, - мен аввалambор шу юртда яшаётган ҳар қайси инсон ўзлигини англаши, қадимий тарихимиз ва бой маданиятимиз, улуғ аждодларимизнинг меросини чуқурроқ ўзлаштириши, бугунги тез ўзгараётган ҳаёт воқелигига онгли қараб, мустақил фикрлаши ва диёримиздаги барча ўзгаришларга дахлдорлик туйғуси билан яшаши зарур, деб жавоб берган бўлардим” [5, 11-бет].

Бундан ташқари, глобаллашув даврида ёшларнинг Ватан, халқ ва ҳар бир фуқаро фаровонлиги йўлида олиб борилаётган бунёдкорлик борасидаги ишларга фаол жалб этилишини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун ёшларда миллий, умуминсоний қадриятлар, маданий ўзига хослигини шакллантириш, бундёкорлик ҳиссини ривожлантириш зарур бўлади.

Шуни унутмаслик керакки, глобаллашув даврида ёш авлод маънавиятини юксалтиришда миллий меросимиздан ҳам унумли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Негаки, бу улкан бойлик минг йиллар давомида халқимиз учун қудратли маънавият манбаи сифатида хизмат қилиб келди. Тарихнинг турли

даврларида кучли мафкуравий тазйиққа қарамай, у ҳамон ўзининг буюк тарбиявий кучини йўқотгани йўқ. “Миллий меросимиз бизга камида икки маънода керак.

Биринчиси. Дунё халқларининг обрўси башарият тамаддумига қўшган ҳиссаси билан ўлчанади. Шу маънода, биз ҳеч кимдан кам эмасмиз. Очиғи, бошқалар қанча ҳавас қилса арзийди. Табиий фанлар, адабиёт, санъат, маънавият, дин, давлатчилик бўйича ҳам шу қадар катта меросга эгамиз. Бу бизга фахр ва ғурур бағишлайди, яна ўша даражаларга кўтарилишга ундайди.

Иккинчиси. Шу меросни ўқиб, ўрганиб, бугуннинг корига яратиш керак. Жаҳон майдонида бўй кўрсатиб турган халқларнинг аксарияти тараққиётни миллий мероси пойдеворига қурган. Бунга алоҳида урғу бераётганим бекорга эмас. Мустамлака даврида миллатни ўз илдизларидан узиб қўйиш учун кўп ҳаракатлар бўлди. Энди икки-уч ҳисса куч сарфлаб, ўзликни англашимизга тўғри келади” [6, 237-238-бетлар]. Чунки миллатнинг ўзлиги қанчалик мустаҳкам бўлса, у шунчалик мустақиллик сиёсатни ардоқлайди ва кимларгадир кўр-кўрона эргашмайди, ёт ғоялар ва чақириқлар таъсирига тушиб қолмайди.

Шунингдек, ҳозирги глобаллашув даврида ёшлар маънавиятини янада юксалтириш учун қуйидаги вазифаларнинг оғишмай амалга оширилишини таъминлаш лозим, деб ҳисоблаймиз:

ёшлар онгига ватанпарварлик, мардлик, шижоат, миллий ғурур, қатъият, орият, қаноат, меҳнатсеварлик, иродалилик, масъулиятлилик каби маънавий-ахлоқий фазилатларни сингдириш;

жамиятмизнинг маънавий-ахлоқий асосларини мустаҳкамлаш, ватанпарварлик тарбияси соҳасидаги таълим-тарбия ишлари механизмини такомиллаштириш, бу соҳада муҳим ижтимоий лойиҳаларни амалга ошириш ва миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган тизимли ёндашувни жорий этиш;

ўз конституциявий ҳуқуқ ва мажбуриятларини биладиган, кенг дунёқарашга, ахлоқий ва фуқаролик қадриятларининг барқарор тизимига эга бўлган ёшларни тарбиялаш ва ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратишни назарда тутувчи қадриятлар тизимининг ролини ошириш, ҳар қандай миллатчилик руҳидаги қарашларнинг олдини олиш;

жамиятимизда бирдамлик, ҳамжиҳатлик, миллатлараро дўстлик ва тотувликни, диний бағрикенгликни мустаҳкамлашда ёшлар иштирокини ошириш;

ёшлар ўртасида олиб борилаётган маърифий ишлар самарадорлигини кенгайтириш, инновацион таълим ва тарбия технологияларини ривожлантириш, шунингдек, таълимнинг барча босқичларида ёшларнинг сифатли таълим олишини таъминлаш;

ёшларни она-Ватанга, оилага, мустақиллик ғояларига муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий соҳадаги салоҳиятини рўёбга чиқариш учун шарт-шароитлар яратиш;

ёшларни маънавий жиҳатдан тарбиялашга оид ахборот майдонини ривожлантириш, уларнинг ахборот ресурсдан фойдаланиш самарадорлигини

ошириш, давлат тузилмалари, жамоат бирлашмалари ва ёшлар ўртасидаги алоқа механизмларини ривожлантириш.

Хуллас, “...дунёдаги зўравон ва тажовузкор кучлар қайси бир халқ ёки мамлакатни ўзига тобе қилиб, бўйсундирмоқчи, унинг бойликларини эгалламоқчи бўлса, аввалambор, уни қуролсизлантиришга, яъни энг буюк бойлиги бўлмиш миллий қадриятлари, тарихи ва маънавиятидан жудо қилишга уринади... Чунки ҳар қайси миллат ёки халқнинг маънавияти унинг бугунги ҳаёти ва тақдирини, ўсиб келаётган фарзандларининг келажагини белгилашда шак-шубҳасиз ҳал қилувчи аҳамият касб этади” [5, 8-бет]. Шу боис бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар ечимини топиш, халқимиз маънавиятини асраш ва юксалтириш, айниқса, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан сақлаш ва ҳимоя қилиш борасида фидойилик кўрсатиш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимизга айланмоғи шарт.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом зттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017.

2. Минҳожиддин Мирзо, Янги даврнинг уйғониш маърифати, “Янги Ўзбекистон” газетаси, №15 (271), 2021 йил 22 январь сони.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

4. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.

6. Норқулов А.Ў. Мустаҳкам маънавий ришта жамият тараққиётининг пойдеворига айланади. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: Ижтимоий маънавий тадқиқотлар институти, 2025 йил.

YANGI O’ZBEKISTONDA MA’RIFATLI JAMIYATNI YARATISHDA YOSHLARNING O’RNI VA ROLI

Qahramonova Zebiniso
O’zbekiston Milliy universiteti magistranti

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan Yangi O’zbekistonni barpo etish va bundan yoshlarning o’rni o’ta muhim ekanligi ham aytilmoqda. Bugun biz tarixdan xulosa chiqarib yangi O’zbekistonni qurish uchun harakat qilmoqdamiz. Tarixdan ma’lumki O’zbekiston sobiq Sovet davlati tarkibidagi davlat bo’ldi. Lekin bugun u mustaqillikka erishib dunyoga o’z so’zini aytmoqda. Qadimdan bu yurt ilm-fan, madaniyat, ma’rifat markazi bo’ldi. Qanchadan-qancha olim-u-fuzololarni yetishtirib chiqardi. Bugun ham ma’rifatli jamiyatni qaytadan uyg’otib va bu jarayonga Vatanimizning katta qismini tashkil qilgan yoshlar bilan birga hamkorlikda harakat qilinmoqda. Har bir davlatning suyanchg’i ertangi kunining egasi yoshlari hisoblanadi.

Bugun mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berish, zamon talabiga hamohang ravishda amalga oshirib borilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillkka ershgandan so’ng hurmatli birinchi prezidentimiz I.A.Karimov yoshlarga oid juda katta isloxotlarni va o’z natijasini beradigan qonun-u farmonlarni chiqardi va shuningdek qo’ldan kelgancha ularga yordamlarni amalga oshirdi. Yoshlarga oid amalga oshirilgan islohotlar o’z samarasini berdi va jahon hamjamiyatini havasini keltirdi. “Agar mendan sizni nima qiynaydi? Deb so’rasangiz farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi” - deb javob beraman degan edi:- SH.M.Mirziyoyev.[1]

Bu so’zlarning isbotini bugun yoshlarga oid amalga oshirilayotgan tizimli va izchil holatda amalga oshirilayotgan islohotlar ko’rishimiz mumkin. Xususan, bu borada: 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida” gi qonun, 2017-yil 12 yillik ta’limdan 11 yillik ta’limga o’tilishi, 2017-yil 30-sentabr “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish tog’risida” gi, 2017-yil sirtqi ta’lim tizmini shakllantirildi. 2017-yil 16-noyabrda “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalaviriatiga kirish test sinovlarini o’tkazish tartibi o’tkazish tartibini takomillashtirish tog’risidagi, 2017-yil 7-fevralda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi, 2018-2019 o’quv yilidan boshlab testlar 15 kun davomida bo’lib, imtihon natijasi ertasi kuniyoq e’lon qiliinadgan bo’ldi.[2] Shuningdek Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilindi.

Yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizda 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan O‘zbekiston yoshlari forumida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga va xalqimizga Murojaatnomasida qayd etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq vazifalar belgilab olindi.[3] Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilindi.

Prezidentimiz tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko’p yoshlar qatlami bilan yashayotganizmizni yana bir bor inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to’g’risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Prezidentimiz bunga asos qilib bugun dunyo miqyosida 2 mlrddan ortib ketgani xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o’sib

[1] Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovan,demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent,”O’zbekiston”-2016- yil

[2] Jo’rayev N., Zamonov A. “O’zbekiston tarix”,”G’.G’ulom”. – T.: 2018.

[3] 23-сон 18.01.2021. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini asoslab berdi. Ma’rifatli jamiyatni yaratishda yoshlarning o’rni beqiyosdir. Binobarin aholimizning yarmidan ko’prog’ini yoshlar tashkil qilishi yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o’z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtimzda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo’lmagan, yurtning ertangi munosib kelajag uchun dahildorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg’ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O’zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlar safidan o’rin olishining muhim omili ekanini mamlakatimiz rahbari va hukumatimiz yaxshi angladi. Ayni paytda ta’lim-tarbiya tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Bugun ta’lim tizimi shuningdek ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat budjeti harajatlar miqdorining yarmidan ko’prog’ini tashkil qiladi. Har qanday davlat uchun og’ir, shunday bo’lsada zarur mablag’ va resurslar izlab topilmoqda. Rahbarimiz mazkur harajatlarni ortiqcha xarajat emas, balki kelajak uchun qo’yilga eng samarali sarmoya deb, ta’lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqboli ekanini ta’kidlab qanchadan-qancha islohotlar ammalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi yangi O’zbekistonni barpo etish va bunda yoshlarning muhim rol o’ynashini aytmoqda. Kitob mutoalaasini yoshlar orasida yanada shakillantirish va buni amalyotga tadbiq etib ko’plab tanlovlar, rag’batlar shakillantirildi va shakillantirilmoqda. Xususan, “Yosh kitobxon”, “Ilhom”, “Yosh olimlarning amaliy va innovatsion loyihalari”, “Mard o’g’lon” tanlovlarini keltirishimiz mumkin. Bu tanlovlarning barchasi yoshlarimizni ma’naviyatli, ilmli, srg’ayrat qilib tarbiyalashga juda kata yordam beradi. Bizning fikrimizcha ularga imkoniyatlarni yaratib bersak ertaga mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadilar. Shu o’rinda xalqimiz orasida keng tarqalgan gap deymizmi yoki hikmat deymizmi esimizga tushdi. “Eng yaxshi investitsiya ilm tikilgan investitsiya” dir. Shunday ekan har birimiz bugun farzandlarimizga e’tiborli bo’laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovan,demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent,”O’zbekiston”-2016- yil

2. N.Jo’rayev,A.Zamonov “O’zbekiston tarix”,”G’.G’ulom” T-2018 yil

3. 23-сон 18.01.2021. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

ZAMONAVIY OILA KONSEPSIYASINI BELGILOVCHI TARIXIY VA MADANIY SHART-SHAROITLARNING KOMPLEKS O‘RGANILISHI TALABLARI

Qilichev Rajab Ergashevich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n.
Ashirova Hilola Zaripovna
Buxoro davlat pedagogika instituti magistrsanti

Oila jamiyatning eng qadimiy va eng mustahkam ijtimoiy institutlaridan biri sifatida insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida markaziy ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir jamiyatda, har bir tarixiy bosqichda oila tushunchasining mazmuni, vazifalari, shakllari va tamoyillari turlicha bo‘lgan. Bugungi kunda esa globallashuv, modernizatsiya, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy ongning o‘zgarishi natijasida “zamonaviy oila” tushunchasi yangi mazmunga ega bo‘lib bormoqda. Zamonaviy oilaning shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki ko‘p asrlar davomida to‘plangan madaniy tajriba, tarixiy an’analar va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida yuzaga kelgan murakkab evolyutsion natijadir. Shu bois mazkur konsepsiyani chuqur o‘rganish uchun uning ildizlari va shakllanishiga turtki bo‘lgan tarixiy hamda madaniy shart-sharoitlarni kompleks tahlil qilish zarur.

Mazkur maqolada oila institutining turli tarixiy davrlardagi o‘rni, milliy qadriyatlar va urf-odatlarning oilaviy munosabatlarga ta’siri, modernizatsiya jarayonlarining oilaning zamonaviy ko‘rinishiga olib kelgan omillari, shuningdek globallashuv sharoitida oilaning funksional vazifalaridagi o‘zgarishlar keng yoritiladi.

Antropologik manbalarda oila tushunchasi insoniyat tarixi bilan barobar shakllangan ijtimoiy birlik sifatida talqin qilinadi. Qadimgi urug‘-qabila tizimida oila ko‘proq iqtisodiy omillarga asoslangan bo‘lib, u mehnat taqsimoti, mulkchilik munosabatlari va avlodni davom ettirish zaruratidan kelib chiqqan. O‘sha davrdagi oila erkak yoki ayol ustuvorligiga qarab turli shakllarda namoyon bo‘lgan — matriarxal va patriarxal oilalar shaklida.[1]

Oila shu davrdayoq jamiyatning asosiy tayanch bo‘lib, har bir a’zo o‘zining aniq vazifasi va mas’uliyatiga ega bo‘lgan. Ijtimoiy nazorat, tarbiya, mehnat jarayoni va jamiyat xavfsizligi kabi masalalar oilaning asosiy funksiyalari qatoriga kirgan.

O‘rta asrlarda diniy e’tiqodlar oilaviy hayotga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda nikohning muqaddasligi, oilaning barqarorligi va avlod davomiyligini ta’minlash eng muhim ijtimoiy vazifa sifatida qaraldi. Erkak va ayolning o‘zaro munosabatlari mafkuraviy asoslar bilan belgilandi, ijtimoiy me’yorlar esa oilaning ichki tuzilmasini qat’iy tarzda tartibga solib turdi.[2]

Mazkur davrda oilaning iqtisodiy vazifalari yanada kuchaygan, ayni paytda axloqiy va diniy me’yorlar ustuvorlik kasb etgan. Ayolning oiladagi o‘rni ko‘proq uy xo‘jaligini yuritish bilan belgilanib, erkak boshqaruvchi sifatida qaralgan. Biroq ayrim hududlarda, xususan Sharq mamlakatlarida ayolning ilm-fan, iqtisod va madaniyatdagi ishtiroki sezilarli bo‘lgan.

Yangi davrga kelib industrial inqiloblar, shaharlarning kengayishi, iqtisodiy tizimlarning o‘zgarishi oilaning an’anaviy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mehnat

munosabatlari o‘zgargan sari oilaning iqtisodiy mustaqilligi ham qayta shakllandi. Ayollarning ishlab chiqarish jarayoniga kirib kelishi gender rollarini qayta talqin qilish zaruratini tug‘dirdi.

Oila asta-sekin katta patriarxal tuzilmalardan yadro (kichik) oilalarga o‘tishni boshladi. Bu jarayon jamiyatdagi individualizmning kuchayishi, shaxsiy erkinliklarning kengayishi va ijtimoiy institutlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Har bir xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, ma’naviy qadriyatlari oilaning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Milliy mentalitet oilaviy munosabatlarning tamoyillari, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi hurmat, o‘zaro mas’uliyat, mehr-oqibat kabi tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Markaziy Osiyo xalqlarida oila qadimdan muqaddas qadriyatlar tizimining markazida turgan. Ota-ona roziligi, yoshi ulug‘larni e’zozlash, farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor, qarindosh-urug‘lar bilan mustahkam aloqalar kabi an’analar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

To‘y, sunnat marosimi, nikoh udumlari, oila bilan bog‘liq rasm-rusumlar jamiyatda oilaning ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlaydi. Ushbu udumlar nafaqat madaniy merosning bir qismi, balki oilaning birlashuviga, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni saqlashga xizmat qiladi.[3]

Bugungi texnologik va axborotlashgan davrda internet, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar oilaning psixologik muhiti va kommunikatsiya jarayonlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining kuchayishi natijasida yoshlar orasida g‘oyaviy rang-baranglik kuchaygan, bu esa oilaviy munosabatlarda ham yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy jamiyatda ayollarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va iqtisodiy mustaqilligi kuchaygani sari oiladagi gender rollari ham qayta talqin qilinmoqda. An’anaviy qarashlar asta-sekin o‘zgarib, “erkak — boquvchi, ayol — uy bekasi” modeli o‘rniga teng huquqli sheriklik tamoyili kirib kelmoqda.

Ta’lim darajasining oshishi zamonaviy oilaning intellektual va madaniy ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqmoqda. Oilada o‘zaro hurmat, mas’uliyat, kommunikativ madaniyatning shakllanishi ta’lim bilan chambarchas bog‘liq.

Shahar hayotining sur’ati, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy bosimlar oilaning ichki dinamikasini o‘zgartiradi. Shahar sharoitida oila ko‘proq mustaqillikka, kichik oilalarga moyillikka ega bo‘ladi. Qishloq joylarda esa an’anaviy oila modeli ko‘proq saqlanib qolgan.

Globallashuv natijasida iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalari kuchaydi. Bu oilaning tarbiya jarayonini murakkablashtirgan bo‘lsa-da, yangi imkoniyatlar ham yaratdi. Masalan, ta’limning raqamli shakllari, onlayn kommunikatsiya, xalqaro madaniy almashinuv oilaning dunyoqarash doirasini kengaytiradi.

Mehnat migratsiyasi oilaning ajralishi, masofaviy munosabatlar, moliyaviy yuklamalar va psixologik bosimlarga olib keladi. Shu bilan birga, migrant oilalarda dunyoqarashning kengayishi, turli madaniy tajribalarni qabul qilish tendensiyasi kuchayadi.

Zamonaviy dunyoda farzand tarbiyasiga bo‘lgan talablar keskin oshgan. Oilalar farzandning nafaqat ma’naviy, balki intellektual, texnologik va kasbiy rivojiga ham mas’ul bo‘lib bormoqda. Bu esa oilaning tarbiyaviy funksiyalariga qo‘shimcha yuklamalar beradi.

Ko‘plab davlatlarda ajrimlar sonining ortishi oilaning barqarorligiga tahdid solmoqda. Buning sabablari orasida iqtisodiy qiyinchiliklar, psixologik moslashuv darajasi, turmush tarzining o‘zgarishi va ijtimoiy bosimlar mavjud.

Stress, depressiya, ijtimoiy faollikning oshishi, raqamli texnologiyalarga qaramlik oilada muloqot madaniyatining pasayishiga, tushunmovchiliklar kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.[4]

An’anaviy va zamonaviy tarbiya uslublari o‘rtasidagi farq oilada muayyan ziddiyatlarga olib keladi. Katta avlod va yoshlar dunyoqarashidagi tafovutlar ko‘pincha tarbiyaviy muhokamalarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oila konsepsiyasi ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar, madaniy an’analar, ijtimoiy evolyutsiya va modernizatsiya ta’sirida shakllangan murakkab tizimdir. Oila institutining hozirgi ko‘rinishini to‘g‘ri anglash uchun uning tarixiy ildizlarini, milliy mentalitetdagi o‘rni va zamonaviy o‘zgarishlarga moslashuv mexanizmlarini chuqur o‘rganish zarur. Globallashuv davrida oila yangi vazifalarni bajarishda davom etmoqda va uning barqarorligi jamiyatning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, H. Oila sotsiologiyasi asoslari. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2019. – 256 b.

2. Karimova, D. Zamonaviy oila psixologiyasi: nazariya va amaliyot. – Buxoro: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2021. – 312 b.

3. Rasulov, M. Globallashuv va ijtimoiy institutlar transformatsiyasi. – Samarqand: “SamDU Press”, 2020. – 228 b.

4. Sodiqova, M. Sharq oilaviy qadriyatlarining tarixiy rivoji. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot”, 2018. – 198 b.

5. G‘afforov, A. Modernizatsiya jarayonlari va oila modeli evolyutsiyasi. – Qarshi: “Nasaf” nashriyoti, 2022. – 275 b.

6. Yusupova, Z. Gender Rollarining Zamonaviy Talqini. – Namangan: “Ustoz” nashriyoti, 2020. – 164 b.

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BADIIY IDROK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVLARNING O‘RNI

Qobiljonova Jasmina Jasur qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning shaxsiy, kreativ va ijodiy ijodiy rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida o‘quvchilarni

faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasviriy san’at fanining ta’lim jarayonidagi o‘rni o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va san’at asarlarini ongli idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Tasviriy san’at darslari o‘quvchilarning asarlarni estetik jihatdan idrok etish, go‘zallikni ko‘ra bilish va uni ijodiy faoliyat orqali ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, san’at asarlarini tahlil qilish va badiiy idrok jarayoni o‘quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy tasavvur hamda estetik baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, mazkur jarayon o‘quvchilarning hissiy-tafakkur faoliyatini faollashtirib, ularning ichki dunyosini boyitadi va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori 2-bobida “Ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish” masalalari belgilangan[1]. Bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligi va qiziqishini kuchaytirish zarurati kreativ pedagogik yondashuvlarni ta’lim jarayoniga joriy etishni taqozo etmoqda. Kreativ yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, erkin ijod qilishi hamda san’at asarlarini chuqur anglab, ularga shaxsiy munosabat bildira olishiga imkon yaratadi.

Badiiy idrok – bu o‘quvchining san’at asarini ko‘rish, his etish, tushunish va uning mazmun-mohiyatini anglash qobiliyatidir. Tasviriy san’at darslarida badiiy idrokni rivojlantirish o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, estetik didi va tahliliy fikrlashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, o‘quvchilarni faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklash o‘rniga, ularning san’at asarlarini ongli idrok etish va tahlil qilish malakalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Kreativ pedagogik yondashuvlar talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantiradi va o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Masalan, o‘quvchilarga san’at asarlarini turli burchakdan tahlil qilish, muallifning niyatini anglash, rang va shakllarning o‘zaro uyg‘unligini his etish vazifalarini berish orqali ularning badiiy idrok qobiliyatlari oshadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini rasm, kompozitsiya yoki boshqa ijodiy uslublar orqali ifodalashga o‘rgatiladi, bu esa ularning estetik tafakkurini rivojlantiradi. Patti Drapeau bo‘lajak o‘qituvchilarga shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”[2].

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning badiiy idrok qobiliyatlarini rivojlantirishda kreativ pedagogik yondashuvlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilar nafaqat san’at asarlarini ko‘rish, balki ularning mazmunini his etish, tahlil qilish va estetik jihatdan baholashga o‘rganadilar hamda ta’lim jarayonining sifat va samaradorligi oshib, o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va estetik madaniyati izchil rivojlanadi. Ular san’at asarlarini faqat ko‘rish bilan cheklanmay, ularni baholash, talqin qilish va o‘z shaxsiy qarashini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan,

biror rassomning asarini o‘rganayotganda, o‘quvchi uning rang, kompozitsiya va obraz yaratish uslublarini tahlil qiladi, keyin esa shaxsiy hissiy reaksiyasini rasm orqali ifodalaydi. Shu jarayon nafaqat badiiy idrokni, balki kreativ tafakkur va ijodiy tafsiliy fikrlashni rivojlantiradi. E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

- faraznitekshirish va o‘zgartirish;

qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

muammo yechim ini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik[3].

Bundan tashqari, kreativ pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning faolligini rag‘batlantiradi. O‘quvchilar o‘zaro fikr almashish, guruhda ijodiy ishlash va muammolarni hal qilish orqali badiiy idrok va tahliliy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydilar. “Kreativ yondashuv ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, moslashuvchan va samarali qilishga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga va innovatsion pedagogik faoliyatni rag’batlantiradi”[4]. Shu bilan birga, san’at asarlarini turli kontekstlarda baholash orqali ularning estetik tafakkuri va madaniy bilimlari kengayadi. Natijada o‘quvchilar san’at asarlarini faqat vizual qabul qiluvchi sifatida emas, balki ularni baholash, talqin qilish va shaxsiy munosabat bildirish imkoniga ega bo‘lgan faol subyekt sifatida rivojlanadilar.

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning badiiy idrok qobiliyatlarini rivojlantirishda kreativ pedagogik yondashuvlarni qo‘llash natijalari amaliy tadqiqotlar orqali ham o‘z samarasini ko‘rsatadi. Masalan, Jizzax viloyatining bir qator maktablarida o‘tkazilgan kuzatuv va eksperimental darslarda o‘quvchilarga san’at asarlarini turli burchaklardan tahlil qilish, muallifning niyatini anglash va o‘z shaxsiy qarashini rasm orqali ifodalash vazifalari berilgan. Amaliy ishlar davomida o‘quvchilar tabiat manzaralarini, madaniy meros ob’ektlarini yoki rassomlarning mashhur asarlarini o‘rganib, ularni ranglar, kompozitsiya va obrazlar orqali talqin qilishga harakat qiladilar. Shu jarayonda o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini, fikr va qarashlarini erkin ifodalaydilar, bu esa ularning kreativ tafakkuri va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Bundan tashqari, guruh ishlari va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar bir-birining fikrlarini tinglash va baholashga o‘rgatiladi. Masalan, bir guruh o‘quvchilar rassomning asarini tahlil qilgach, o‘z qarashlarini guruhda taqdim etadi va boshqa o‘quvchilar bilan muhokama qiladi. Shuningdek, guruh ishlari va ijodiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar bir-birining fikrlarini tinglash va baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa ularning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi. Natijada ta’lim jarayoni faqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, o‘quvchilarning ijodiy va estetik kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar san’at asarlarini turli kontekstlarda tahlil qilganda, ularning estetik tafakkuri va badiiy idrok qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Kreativ pedagogik yondashuvlar dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, ularning faolligini rag‘batlantiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning badiiy idrok qobiliyatlarini rivojlantirishda kreativ pedagogik yondashuvlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning san’at asarlarini chuqur anglash, mustaqil fikrlash va ijodiy ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning shaxsiy va estetik rivojlanishi, ijodiy potensialining yuzaga chiqishi va tasviriy san’at ta’limining sifatini yanada yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori https://lex.uz/ru/docs/-3137130

Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

B.E. Karimova – Kreativ pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022, 9-10-betlar.

O‘ktamov Madadjon, Toshpo‘lotova Jasmina –“Raqamli ta’lim sharoitida kreativ ta’limning o‘rni va roli”, “Kreativ ta’lim: innovatsiya va samaradorlik” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent-2024, 60-bet.

MADANIY HAYOTIMIZNING MA’NAVIY QIYOFASIGA AYLANAYOTGAN MADANIYAT MARKAZLARI

Qolqanatov Asilbek Nazarbay o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti

Madaniyat va san’at yoshlarni ma’naviy kamolotga chorlab, inson ruhiyatining benazir chizgilarini ezgulik, mehr, yaxshilik siyratlari bilan bezovchi, shunga da’vat qiluvchi soha ekanligiga kundan-kunga ishonchimiz ortib bormoqda. Yangi O‘zbekistonda bundan to‘qqiz yil avval ijtimoiy va madaniy sohada yangicha dunyoqarash asnosida shiddatli islohotlar boshlangan edi. Madaniyat va san’at sohasida ijod va ijodkor erkinligi muammolari to‘liq qaytadan ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda mohiyatan yangi davlat, yangi ma’rifiy jamiyat barpo etish, unga mos qadriyat va munosabatlar tizimini shakllantirish borasida inson qadri tamoyiliga katta e’tibor qaratdi. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan farmon va qarorlar ana shu ulkan o‘zgarishlarga hamohang tarzda, yangidan-yangi ijobiy islohotlarning bardavomi bo‘layotir.

Yangi O‘zbekistonda madaniyat muassasalarining taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilib, ularning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va mavqeini oshirish yo‘lida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar sirasiga kiruvchi madaniyat markazlarining faoliyatida yanada oldinga siljish kuzatilayotgani quvonarli. Sababi, madaniy hayotimizning ma’naviy qiyofasi unsurlarini o‘zida jamlagan mazkur maskanlarda – havaskor ijod ahli madaniyat va san’at sohasida o‘z iqtidor va qobliyatlarini sinab ko‘radi.

Qobiliyatlarini shakllantiradi va o‘z ijodini sahnaga olib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Ular professional ijodkorlar emas, xalqimiz orasidan chiqqan noyob havaskor iste’dod sohiblaridir. Buning natijasida esa, madaniy salohiyatimiz birmuncha sayqallanadi. Soha rivoji yo‘lidagi islohotlar natijasida mamlakatimizda ko‘plab madaniy-ma’rifiy muassasalar tashkil etildi va bu jarayonlar davom etmoqda [1:146].

Hozirgi davrda hududlarda jami 837 ta madaniyat markazlari faoliyat olib borayotgan bo‘lib, mazkur markazlarda jami 7143 nafar ijodiy xodimlar, shundan 3942 nafar to‘garak rahbarlari 210 nafar badiiy rahbarlar, 210 nafar rejissyorlar, 840 nafar ovoz rejissyorlari, 210 nafar to‘garaklar faoliyatini nazorat qilishi bo‘yicha mutaxassislar, 210 nafar yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar faoliyat olib bormoqda [2:2].

Madaniyat markazlari xodimlari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta amaliy-seminar tashkil etilib, mazkur seminarlarda 4 300 nafar xodimlar jalb etildi. Shuningdek, madaniyat markazlari faoliyatini nazorat qilish va to‘garak rahbarlari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha yangi jurnallar ishlab chiqilib barcha madaniyat markazlariga to‘liq yetkazib berildi. Madaniyat markazlarida hujjatlar bilan ishlash va ijodiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha 4 ta video-qo‘llanmalar tayyorlanib, hududlarga taqdim etildi. To‘garaklardagi mashg‘ulotlarni yagona mezon asosida olib borilishini ta’minlash maqsadida 58 ta yo‘nalishda mashg‘ulot dasturlari va yillik kalendar rejalar ishlab chiqilib, hududlarga yetkazib berildi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi,” [3:276] – deya ta’kidlagan edi. Madaniyat markazlari ham mazkur poydevorni yanada mustahkamlashga qodir madaniy maskan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-son qarori asosida respublikamizda faoliyat ko‘rsatib kelgan madaniyat va aholi dam olish markazlari negizida yangi tipdagi madaniyat markazlari tizimi shakllantirildi.

Madaniyat markazlarining asosiy vazifalari esa, aholiga madaniy xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash, milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni aks ettiruvchi ijodiy namunali dasturlarini shakllantirish, xalq ijodiyoti va tarixiy paradigma asnosida shakllangan havaskorlik san’atini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, bolalarni to‘garaklarga jalb etish, yuksak saviyali zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etish hamda badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o‘tkazish funksiyalarini bajaradi.

2019-yil 30-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 263-son qarori mazkur ishlarning silsilasi bo‘lib xizmat qildi. Birgina, Qoraqalpog‘iston hududida amalga oshirilgan amaliy natijalar madaniyat markazlarining jamiyat taraqqiyotini ta’minlashdagi muhim polifunksional ahamiyatini yaqqol namoyon qildi. Madaniyat markazlari xalq ma’naviy ehtiyojini qondiruvchi dam olish maskani, jonli muloqot,

madaniy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etuvchi, shaxsiy va ijodiy rivojlanish uchun qulay ma’naviy maskanga aylandi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligi va qoraqalpoq xalqiga yuqori hurmat-ehtiromi natijasida Yangi Qoraqalpog‘istonda ovul va qishloqlarimizning ijtimoiy-madaniy hayoti tubdan yangilandi va taraqqiyotga yuz tutdi. Yangi Qoraqalpog‘iston madaniyat markazlari faoliyati islohot narvoni orqali yuqorilay boshladi. “Orol fojiasidan eng ko‘p zarar ko‘rgan asli shu Mo‘ynoq aholisi. Ularning sabr – qanoati vatanparvarligi, mehnatkashligi uchun rahmat aytishimiz shunga munosib xizmat qilishimiz kerak,” – deya Mo‘ynoqdan boshlangan sobit islohotlar barcha tumanlar uchun namuna bo‘ldi.

2019-yil 16-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019 – 2021-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 37-son Qarori asosida Mo‘ynoq tuman madaniyat markazi binosini tanib bo‘lmas darajada rekonstruksiya qilinib, qayta foydalanishga topshirildi.

Yana mazkur qarorning quvonarli jihati Mo‘ynoq tuman markazida kamida 2000 o‘rinli amfiteatrning qurilishi va zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanib, xalqimizning foydalanish uchun topshirilishi bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida Mo‘ynoq tumanidagi madaniy hayot shu darajada o‘zgardiki, ko‘rib faqat tasannolar aytasiz! “Madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi” degan so‘zlarning irratsionalizm emas ratsionalizm, g‘ayrihayotiylik emas hayotiylikga aylanganiga biz yoshlar guvoh bo‘ldik. Mo‘ynoqdagi muhtasham madaniyat markazi va amfiteatr madaniy hayotimizning ma’naviy timsoli sifatida, xalqimizning ongu-shuurini yaxshilik sari da’vat etadiga mayoq bo‘lib xizmat qilaveradi.

Shu bilan birga, Yangi Qoraqalpog‘istonda amalga oshirilayotgan oldin quloq eshitmagan, insonlar hayoliga kelmagan ishlar ko‘z o‘ngimizda ro‘yobga oshmoqda. 2019-yili 20-avgustda Bo‘zatov tumaning qayta tashkil etilishi xalqimiz osmonidagi yorug‘ yulduzning qayta porlashi va ijtimoiy-madaniy jihatdan qiynalgan xalqning ertasiga umid bo‘ldi.

Bo‘zatov haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bo‘zatovda azaldan mirishkor odamlar yashaydi. Yeri unumdor, sho‘ri yo‘q. Lekin uzoq yillar imkoniyatlar tahlil qilinmay, biroz e’tiborsiz qolgandi. Bo‘zatov xalqidan qarzimiz bor edi... Endi shu yerning o‘zida sharoit yaratib, davlat xizmatlarini yo‘lga qo‘yib, ish o‘rinlari tashkil etishga harakat qilayapmiz” – dedi. Bo‘zatov aholisining ko‘ksiga baxt shabadasi, yaxshi kunlarning tafti tega boshladi. Keng ko‘lamli islohotlar – xalqning roziligiga sabab bo‘ldi. Bo‘zatovlik yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarimiz, opa-singillarimiz hamda aka-ukalarimizning duolarida mustajob bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2021-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Bo‘zatov tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 243-son Qaroriga asosan, 180 o‘ringa mo‘ljallangan madaniyat markazi binosini yangidan qurish belgilangan edi. Bo‘zotov tumanida Madaniyat markazi 2021-yilning 21-sentabrdan o‘z faoliyatini boshlagan. Qisqa fursat ichida Bo‘zatov madaniyat markazida 7 ta to‘garak o‘z faoliyatini boshladi. Natijada to‘garak a’zolaridan M.Rambergenov estrada yo‘nalishi bo‘yicha “Nihol” mukofotining Respublika bosqichiga yo‘llanma oldi. G.Amanbayeva bo‘lsa yoshlar ovozi festivalining “Hurliman baxshi qizlar” tanlovida ishtirok etib 3-o‘rin

sohibasi bo‘ldi. Bu natijalar kundan-kunga yuksalavergay! Bo‘zatov tuman hokimi tomonidan yanada madaniyat markazi ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida moliyaviy yordam ajiratilib, musiqiy asbob-uskunalar va sahna liboslari bilan ta’minlangan.

Endilikda, eng chekka tumandagi yoshlar ham madaniy-ma’rifiy ijod ne’matlaridan bahra olmoqda. Bo‘zatov tumanida qurilgan Amfiteatr 1000 kishiga mo‘ljallangan bo‘lib, ochiq tomoshalar zalini ham qamrab oladi. Bugungi kunda eng chekka qishloqdagi mazkur madaniy maskanlarda O‘zbekiston xalq artistlarining konsertlari uzviy o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu degani, madaniyatimiz taraqqiyoti – jilovini mahkamlamoqda.

Yana bir madaniyat markazi 2021-yil dekabr oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tegishli qarori bilan To‘rtko‘l tumani “Ko‘kcha” va Ellikqal’a tumani “Sarabiy” QFY hududlarida madaniyat markazlari tashkil etilib, To‘rtko‘l tumani “Ko‘kcha” madaniyat markazi va Ellikqal’a tumani “Sarabiy” madaniyat markazi maqomi berildi. Mazkur madaniyat markazlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-son qaroriga binoan, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari asosida qad rostladi. 2021-yil mart oyida Beruniy tuman madaniyat markazi binosiga mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 3 mlrd. so‘mlik rekonstruksiya ishlari olib borildi. 2022-yil oktabr oyida esa, Qorao‘zak tumanida madaniyat markazi va kutubxona xalqimiz uchun foydalanishga topshirildi. Bunday katta islohot Yangi Qoraqalpog‘iston madaniyat markazlarining debochasi bo‘ldi. Shu bilan birga, Qorao‘zak tumani “Qutlug‘ makon” MFYda yangidan qurilgan bu inshootlar tuman ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shish bilan bir qatorda, iqtidorli yoshlarning yuzaga chiqishiga zamin yaratdi. Bu islohotlar bardavom bo‘ldi. 2022-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 30 yillik bayrami arafasida ya’ni, 7-dekabrda Shumanay tumanida tuman madaniyat markazi qayta ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi. Madaniyat markazida jami 200 million so‘mlik kapital ta’mirlash ishlari olib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Qoraqalpog‘istonning yutug‘i – butun O‘zbekistonning yutug‘i, Qoraqalpog‘istonning tashvishi – butun O‘zbekistonning tashvishi” degan g‘oya hamisha amaliy harakat dasturi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Bizning ezgu maqsadimiz – birgalikdagi mehnatimiz bilan Yangi O‘zbekistonda har tomonlama rivojlangan, obod va farovon Yangi Qoraqalpog‘istonni bunyod etishdir, – degan so‘zlari qoraqalpoq yoshlari qalblarida bir umrga muhrlandi.

Azaliy va asriy qadriyatlarimiz mushtarakligini ta’minlashda madaniyat markazlarining xizmatlari ham katta. Chunki, so‘ngi yillarda Respublikamiz ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarida madaniyat markazlari o‘z rutbaniga ega madaniy maskanga aylanib ulgurdi. Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ko‘p qirrali ishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tanqidiy yondashuv asnosida tahlil qilinib kelinmoqda. Markazlarni ommaning keng qamrovli maskaniga aylantirish, aholining estetik saviyasi va savjiyasini oshirish, yosh iqtidor egalarini shakllantirish kabi vazifalarni bajaradigan dargohlarga aylantirishi kunning dolzarb vazifasidir.

Madaniyat markazlarida tashkil etiladigan to‘garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari va badiiy havaskorlik jamoalari hududiy imkoniyat va mutaxassislar mavjudligiga qarab faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasidagi madaniyat markazlarida 2019-yil 30-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 264-son qarorida 33 turdagi to‘garak, 9 ta studiya, 6 ta kurs, 8 ta qiziquvchilar klubi, 7 ta badiiy havaskorlik jamoalarining nomlari tasdiqlangan.

Bu kabi islohotlar respublikamizning barcha viloyatlarida davom etmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan har bitta tuman va shaharlarda bittadan namunali madaniyat markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha bergan topshirig‘i ham madaniy hayotimizning ma’naviy qiyofasiga aylanayotgan madaniyat markazlarining ishi xalqimiz uchun zarur ehtiyoj ekanligidan dalolatdir.

Madaniyat vazirligi tomonidan mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, hududlarda bosqichma-bosqich namunali madaniyat markazlari barpo etilmoqda.

2025-yil noyabr oyida shunday namunali madaniyat markazlari Navoiy viloyatining Konimex va Xatirchi tumanlarida foydalanishga topshirilgandi. Konimex tumanidagi 13 ming aholiga madaniy xizmat ko‘rsatuvchi namunali madaniyat markazi mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 1 milliard 100 mln so‘mga ta’mirlangan. Shuningdek, 28 ming aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan Xatirchi tumanidagi 28-sonli “Yangiyo‘l” madaniyat markazi ham mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 700 million so‘mga to‘liq ta’mirlanib, xalqimiz ixtiyoriga topshirilganligi, insonni g‘oyatda suyuntirib yuboradi[4:1]. Barakalla deb, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishga yangicha ilhom, kuch-g‘ayrat baxsh etadi.

Qadimiy tarix va zamonaviy taraqqiyot sadosi yangrab turgan, porloq istiqbolli nur sochib turgan diyor, azim Navoiy viloyatining ikki hududida foydalanishga topshirilgan namunali madaniyat markazi madaniy hayotimizning yangi ma’naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi, albatta. Ehhe, bu kabi og‘iz to‘ldirib gapiradigan ijobiy islohotlarining qaysi birini, qog‘ozga tushirib ilmiylashtirishga ulgurasiz dersiz. Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida yangidan-yangi madaniyat markazlari qurilmoqda. Bu jarayonlar ma’naviyatimizning yangilanishi, jamiyatning ma’naviy uyg‘onishi, madaniy hayotimizning yuksalishidan dalolat. Qad rostlayotgan madaniyat markazlari chekka hududlarda ham sifatli madaniy xizmat ko‘rsatishga sabab bo‘ladi.

Aholiga yaratib berilayotgan keng ko‘lamli madaniy imkoniyatlar ma’naviy taraqqiyotning yangi bosiqchi, yangicha yuksalish davri, dorilomon kunlarning boshlanishi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Madaniyat va san’at hayotimizning ajralmas qismidir. Sirasini aytganda, madaniyat va san’atga oshno insondan yomonlik chiqmaydi. Madaniyat markazlarining ham asosiy ish me’zoni – insonlarni yaxshilikka, ertangi yorug‘ kunlarga da’vat etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Qolqanatov A. (2025). New cultural centers in the new Karakalpakstan. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *5*(3), 145–151. Retrieved from https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/535

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ma’lumotnomasidan. www.madaniyat.uz

Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

Qarang: Madaniyat vazirligi rasmiy sahifasi: https://t.me/madaniyatvazirligi/52520

MA’NAVIYAT VA ERKINLIK: “YOLG‘ON ERKINLIK” FENOMENIGA IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV

Qolqanov Nuriddin
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti
Qolkanova Sabohat
Chilonzor tumanidagi 537-sonli DMTT tarbiyachisi
Tashpulatova Mohiro‘y
“UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE” talabasi

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitusiya va qonunlarida mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”[1] deya qayd etilgan. Erkinlik insoniyat taraqqiyotida eng muhim qadriyatlardan biri sifatida qaraladi. U shaxsning o‘z taqdirini belgilash, fikr bildirish va ongli tanlov qilish imkoniyati bilan bog‘liq. Bugun zamon o‘zgardi, endi hammamiz erkinlik, ochiqlik, oshkoralik sharoitida ishlashga o‘rganishimiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar, dunyo hamjamiyati shunday yashamoqda[2]. Biroq zamonaviy jamiyatda erkinlik ko‘p hollarda ma’naviy va axloqiy asoslardan xoli tarzda talqin qilinmoqda. Bu esa erkinlikni cheksiz xohishlar, shaxsiy manfaat va subyektiv istaklar bilan tenglashtirishga olib kelmoqda.

Bunday yondashuv erkinlikning ijtimoiy va ma’naviy mohiyatini zaiflashtirib, uni mazmunan bo‘sh tushunchaga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada **erkinlikning ma’naviyatdan uzilishi qanday qilib “yolg‘on erkinlik” fenomenini yuzaga keltirishi** nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Erkinlik tushunchasining falsafiy asoslari

Klassik falsafada erkinlik har doim axloq va mas’uliyat bilan uyg‘un holda qaralgan. Immanuil Kant erkinlikni insonning axloqiy qonunlarga ongli ravishda itoat etishi sifatida talqin qiladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, haqiqiy erkinlik tashqi cheklovlarni inkor etishda emas, balki ichki axloqiy tartibga tayanishda namoyon bo‘ladi.

Gegel esa erkinlikni aqlli irodaning ijtimoiy hayotda ro‘yobga chiqishi bilan bog‘laydi. Jon Styuart Mill erkinlikni himoya qilgan holda, uning boshqalarga zarar yetkazmaslik tamoyili bilan cheklanishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar erkinlikni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.22.

[2] Prezident Shavkat Mirziyoevning O‗zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‗ishlangan tantanali marosimdagi nutqi https://president.uz/uz/lists/view/28466

mutlaq ixtiyor emas, balki ma’naviy boshqariluvchi ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

“Yolg‘on erkinlik” tushunchasining mohiyati

Ma’naviyatdan uzilgan erkinlik “yolg‘on erkinlik” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda inson o‘z xohish-istaklarini mutlaq qiymat sifatida qabul qilib, jamiyat, qonun va axloq oldidagi mas’uliyatni inkor etadi. Erkinlik bunday holatda shaxs kamolotiga xizmat qilmaydi, aksincha, uni ichki qaramlikka yetaklaydi.

Yolg‘on erkinlik quyidagi shakllarda ko‘zga tashlanadi:

so‘z erkinligi niqobi ostida nafrat, yolg‘on va axloqsizlikni tarqatish;

shaxsiy tanlov bahonasida qonunbuzarlikni oqlash;

milliy va ma’naviy qadriyatlarni zamonaviylikka zid deb inkor etish.

Bu jarayonlar erkinlikni ijtimoiy taraqqiyot omili emas, balki buzg‘unchi kuchga aylantiradi.

Ma’naviyatsiz erkinlikning ijtimoiy oqibatlari

Ijtimoiy nuqtai nazardan, ma’naviyatsiz erkinlik jamiyatda ishonch, hamjihatlik va umumiy qadriyatlarni zaiflashtiradi. Axloqiy meyorlar susaygan jamiyatda qonun ustuvorligi ham mustahkam bo‘lmaydi. Natijada ijtimoiy munosabatlarda beqarorlik va ziddiyatlar kuchayadi.

Ayniqsa yoshlar ongida yolg‘on erkinlik g‘oyasining mustahkamlanishi shaxsiy mas’uliyatning pasayishiga, ma’naviy bo‘shliq va qadriyatlar inqiroziga olib kelishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy taraqqiyot uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Ma’naviyatsiz erkinlikning salbiy oqibatlari

jamiyatda qonunga va axloqqa nisbatan hurmatsizlikni kuchaytiradi;

yoshlar ongida mas’uliyatsizlik va individualizmni avj oldiradi;

ommaviy madaniyat orqali buzg‘unchi g‘oyalarni “erkinlik” niqobi ostida tarqatadi;

milliy, diniy va insoniy qadriyatlarni inkor etishga olib keladi.

Bunday holatda inson o‘z nafsi quliga aylanadi, erkin shaxs emas, balki xohishlariga asir mavjudotga aylanib qoladi.

Haqiqiy erkinlik va ma’naviy mas’uliyat

Haqiqiy erkinlik o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq. U insonning ongli qaror qabul qilishi, o‘z harakatlarining oqibatlarini anglashi va jamiyat manfaatlarini hisobga olishida namoyon bo‘ladi.

Haqiqiy erkinlik – bu:

qonun oldida mas’uliyatli bo‘lish;

o‘z huquqi bilan birga boshqalar huquqini ham hurmat qilish;

vijdon va insofga tayangan holda qaror qabul qilish;

jamiyat manfaatini shaxsiy manfaat bilan uyg‘unlashtirish demakdir.

Bunday erkinlik faqat yuksak ma’naviyat, axloqiy tarbiya va bilim orqali shakllanadi.

Ma’naviyat erkinlikni cheklamaydi, balki unga mazmun beradi. Yuksak ma’naviyatga ega shaxs erkinlikni:

o‘zboshimchalik bilan adashtirmaydi;

shaxsiy manfaatni umumiy manfaat bilan uyg‘unlashtiradi;

erkinlikni ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi qadriyat sifatida anglaydi.

Milliy tajribada ma’naviy erkinlik konsepsiyasi

O‘zbekiston taraqqiyot modelida erkinlik huquqiy kafolatlar bilan bir qatorda ma’naviy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda qaraladi. Milliy taraqqiyot strategiyasida erkin fuqaro deganda faqat huquq egasi emas, balki Vatan va jamiyat oldida mas’uliyatni his qiladigan shaxs nazarda tutiladi.

Bu yondashuv erkinlikni mutlaqlashtirishdan saqlab, uni ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi omilga aylantiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviyatsiz erkinlik haqiqiy ozodlikni ta’minlamaydi, balki shaxs va jamiyat uchun xavfli bo‘lgan yolg‘on erkinlik shaklini yuzaga keltiradi. Erkinlik faqat ma’naviy qadriyatlar, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy ong bilan uyg‘un bo‘lgandagina o‘zining haqiqiy mohiyatini namoyon qiladi. Shu bois erkinlik va ma’naviyat uyg‘unligi barqaror jamiyat rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyatsiz erkinlik insonni ozod qilmaydi, aksincha uni ichki bo‘shliq va ma’naviy qaramlikka yetaklaydi. Faqat ma’naviyat bilan boyitilgan erkinlikgina haqiqiy erkinlik bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.22.

Prezident Shavkat Mirziyoevning O‗zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‗ishlangan tantanali marosimdagi nutqi https://president.uz/uz/lists/view/28466

Bahodir Zokir. Erkinlik g‗oyasi takomili yoxud demokratiya tarixiga bir nazar // Tafakkur jurnali. 2008. №2. 18-b.

Kant, I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. Cambridge University Press, 1997.

Гегель, Г.В. Ф. Философия права / Г. В. Ф. Гегель. – М.: Мысль, 1990.

INTELLEKTNING TA’LIM VA SUN’IY TARBIYA JARAYONLARIGA IJOBIY TA’SIRI

Qozaqova Dilshoda Abduvoid qizi
Namangan davlat pedagogika insituti magistranti

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib, an’anaviy bilim berish modelidan raqamli, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tmoqda. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim va tarbiya jarayonlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Sun’iy intellekt — bu ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan algoritmlar va tizimlar majmuasidir.

Bugungi kunda sun’iy intellekt nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki tarbiyaviy jarayonlarni ham samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning

individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning psixologik holatini monitoring qilish, ijtimoiy-emotsional koʻnikmalarini rivojlantirishda SI muhim pedagogik vositaga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — sun’iy intellektning ta’lim va tarbiya jarayonlariga ijobiy ta’sirini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdir.

1. SUN’IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING TA’LIM SOHASIDAGI RIVOJI

Sun’iy intellekt tushunchasi dastlab 1956-yilda J. McCarthy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan boʻlib, u inson tafakkuriga xos boʻlgan funksiyalarni mashinalar orqali amalga oshirishni anglatadi. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt quyidagi yoʻnalishlarda rivojlanmoqda:

adaptiv ta’lim tizimlari;

aqlli tutorlar (Intelligent Tutoring Systems);

avtomatlashtirilgan baholash tizimlari;

ta’lim analitikasi (Learning Analytics);

virtual yordamchilar va chatbotlar.

Mazkur texnologiyalar oʻqituvchining ishini yengillashtirish bilan birga, oʻquvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi.

2. SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIM JARAYONIGA IJOBIY TA’SIRI

2.1. Shaxsga yoʻnaltirilgan ta’limni rivojlantirish

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan platformalar har bir oʻquvchining bilim darajasi, oʻzlashtirish tezligi va qiziqishlarini tahlil qilib, individual oʻquv trajektoriyasini yaratadi. Bu esa:

oʻquv motivatsiyasini oshiradi;

bilimlardagi boʻshliqlarni oʻz vaqtida aniqlaydi;

mustaqil ta’lim koʻnikmalarini shakllantiradi.

2.2. Ta’lim samaradorligini oshirish

SI texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida baholash, tahlil va teskari aloqani tashkil etish mumkin. Natijada:

baholashning subyektivligi kamayadi;

oʻquvchilarning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi;

oʻqituvchining pedagogik qarorlari ilmiy asoslanadi.

3. SUN’IY INTELLEKT VA TARBIYA JARAYONI

3.1. Axloqiy va ijtimoiy tarbiya

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan simulyatsiyalar, virtual muhitlar va interaktiv platformalar orqali oʻquvchilarda:

mas’uliyat;

hamkorlik;

tolerantlik;

muammoli vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlar rivojlanadi.

3.2. Raqamli madaniyat va xavfsizlik tarbiyasi

SI texnologiyalaridan foydalanish jarayonida oʻquvchilarda raqamli etikani tushunish, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash koʻnikmalari shakllanadi. Bu esa ularni zamonaviy jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

4. O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, balki uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi. SI yordamida o‘qituvchi:

darslarni samarali rejalashtiradi;

o‘quvchilar faoliyatini chuqur tahlil qiladi;

individual yondashuvni amalga oshiradi.

Natijada o‘qituvchi ko‘proq tarbiyaviy va ijodiy faoliyatga e’tibor qaratish imkoniga ega bo‘ladi.

5. SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Shu bilan birga, sun’iy intellektni ta’lim va tarbiya jarayonlariga joriy etishda quyidagi masalalar e’tiborga olinishi lozim:

etik va axloqiy me’yorlar;

ma’lumotlar maxfiyligi;

o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi;

texnologik tengsizlik.

Ushbu muammolarni hal etish orqali sun’iy intellektning pedagogik salohiyatidan to‘liq foydalanish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim va tarbiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular ta’limni individuallashtirish, tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektdan maqsadli va mas’uliyatli foydalanish orqali ta’lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McCarthy J. Artificial Intelligence. Stanford University, 2007.

2. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, 2021.

3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

4. Scrivener J. Learning Teaching. Macmillan, 2011.

5. OECD. AI and the Future of Education. Paris, 2022.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

Qudratova Maftuna Murodulla qizi

O’zbekiston Milliy universiteti magistranti

Insoniyat hayoti bugun mislsiz sur’at bilan o‘zgarib, avvalgi davrlardan tubdan farq qiladigan murakkab va shiddatli davrda davom etmoqda. Bu davrni turli soha vakillari turlicha ta’riflaydi: kimdir uni texnologiyalar asri, boshqalar tafakkur yoki axborotlar hukmronligi davri deb baholaydi. Jamiyatning kelajagi hisoblangan yoshlarni ma’naviy

yetuk, mustaqil fikrlovchi va yangicha qarashlarga ega shaxslar etib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Har bir qarash zamonaviy hayotning muayyan jihatlarini ochib beradi. Hozirgi kunda yoshlar bilim va axborotni faqat maktab va oliy ta’lim muassasalarida emas, balki radio, televideniye, matbuot va internet orqali ham olmoqda. Axborot makoni kengayib borayotgan sharoitda yoshlarni faqat taqiqlar bilan cheklash, “buni o‘qima, buni ko‘rma” degan yondashuv bilan tarbiyalash zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Ochiq va erkin demokratik jamiyat barpo etish maqsadi esa yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Globallashuv jarayonlari yoshlarning dunyoqarashi va ongida katta iz qoldirmoqda. Shu bois, milliy ma’naviyatni mustahkamlash va unga ta’sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali chet el madaniyati elementlarining milliy qadriyatlarga bosim o‘tkazayotgani olimlar tomonidan ham qayd etilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan davlatlarda ommaviy axborot vositalarining katta qismi chet el manbalariga bog‘liq, bu esa milliy mentalitet va qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi jamiyat asoslarini yaratishda yana bir muhim jihat – sobiq mafkura inkor etilgach, ayrim yoshlar ongida yuzaga kelgan bo‘shliqdan foydalanib, axloqiy tubanlikni targ‘ib qiluvchi “ommaviy madaniyat” unsurlarining kirib kelish xavfi mavjudligi. Ommaviy madaniyat- bu ma’lum madaniyatning asosiy oqimiga qo’shiluvchi g’oya, nuqtai nazar, ko’rinish va boshqa ijtimoiy fenomenlar to’plamiga aytiladi.

Bunday oqimlar ko‘pincha zo‘ravonlik, axloqsizlik, individualizm va manfaatchilikni targ‘ib etib, ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyat va an’analarga zid ravishda ta’sir qiladi. Afsuski, bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat sifatida ko‘rsatish va asl ma’naviy qadriyatlarni eskilik deb baholash holatlari ko‘paymoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli ma’naviy tahdidlarning oldini olish va yoshlar ongida hushyorlikni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Har qanday salbiy ta’sirga qarshi kurashishda eng samarali yo‘l — immunitetni kuchaytirishdir. Shu yo‘l bilan yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni turli zararli g‘oyalardan himoya qilish mumkin. Bunda Vatanga muhabbat, milliy tarixga hurmat, diniy va ma’naviy qadriyatlarga sadoqat muhim rol o‘ynaydi. Natijada yoshlar o‘z milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy dunyo jarayonlarini tushunadigan yetuk shaxslar bo‘lib voyaga yetadi.

Ilmiy-amaliy tadbirlar globallashuv jarayonlarining yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta’sirini o‘rganadi, shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash yo‘llarini muhokama qiladi. Professorlar ma’naviyatni millatning ruhi deb atab, yoshlarning milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati va qonunlarga hurmat tuyg‘usini oshirish orqali jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni yaratish mumkinligini ta’kidlashadi. Globallashuv yoshlar ijtimoiy muhitiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Global kommunikatsiya texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot oqimini tezlashtiradi, yoshlarni turli g‘oyalar bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, ular axloqiy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi va yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini oshiradi.

Raqamli texnologiyalar yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Onlayn darslar, xalqaro madaniy almashinuv platformalari va zamonaviy ta’lim dasturlari orqali yoshlar global dunyoqarashni o‘rganadi va milliy qadriyatlarini chuqurroq anglaydi. Bu jarayon ularni global jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish orqali ma’naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish, mafkuraviy immunitetni kuchaytiradigan innovatsion usullarni joriy etish va davlat hamda jamoat tashkilotlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Globallashuvning ijobiy tomonlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur: internet va xalqaro kommunikatsiya vositalari yoshlarning ilmiy, madaniy va gumanitar bilimlarini oshiradi, ularni dunyoning turli burchaklaridagi tajribalar bilan tanishtiradi va milliy qadriyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, yoshlarni axborot makonida ongli, tanqidiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish barqaror, ma’naviy kuchli jamiyatni barpo etishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va rivojlanishi nafaqat bugungi kun, balki jamiyat kelajagini belgilovchi strategik vazifa hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish, milliy qadriyatlarni himoya qilish, yoshlarni ongli va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish orqali biz barqaror, ma’naviy jihatdan kuchli va rivojlangan jamiyatni yaratishimiz mumkin. Shu maqsadda ilmiy tadqiqotlar, ta’lim-tarbiya tizimi va davlat hamda jamoat institutlarining mas’uliyati juda katta ahamiyatga ega. Natijada, globallashuv sharoitida yoshlarni ma’naviy yetuk, zamonaviy dunyoqarashga ega va milliy qadriyatlarni chuqur anglaydigan shaxslar qilib tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Xulosa o’rnida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan parcha bilan yakunlash o‘rinlidir: **“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat..”(4)**

Foydalanilgan adabiyotlar:

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2010, -B. 110–120.

Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023.

https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-manaviyati-globallashuv-davridagi-dolzarb-vazifa

“YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI” Sh.Mirziyoyev, “O’zbekiston” Toshkent-2023

https://innoworld.net/index.php/ziftmy/article/view/260

AXBOROT TERRORIZMI VA YOSHLAR ONGIGA TA’SIR: MA’NAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti Axborot resurs markazi direktori

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi natijasida shakllangan raqamli ijtimoiy makon, ayni vaqtda, yosh avlod ongiga ma’naviy va axloqiy jihatdan keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot terrorizmi fenomeni esa ushbu texnogen makonda yoshlar ongini nishonga olgan ko‘p darajali, murakkab va ongli strategiyalar asosida faoliyat yuritmoqda. Shu boisdan, zamonaviy axborot tahdidlariga qarshi kurashishda faqat texnik vositalar bilan cheklanilmay, balki ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar asosida shakllangan kompleks himoya mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratga aylandi.

Ma’naviy immunitet tushunchasi zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning kognitiv, axloqiy va ruhiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy falsafiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Inson ongiga kirib kelayotgan turli axborot oqimlari, g‘oya va mafkuralar jarayonida ma’naviy immunitet kuchli bo‘lmasa, shaxs tanqidiy fikrlash qobiliyatidan mahrum bo‘lib, virtual manipulyatsiya qurboniga aylanadi. Shu bois bugungi kunda axborot savodxonligi va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish ma’naviy jarayonlarning dolzarb yo‘nalishiga aylandi. “Virtual targ‘ibot resurslaridan oqilona foydalanish, ularning samaradorligini oshirish, yoshlarning ongiga zararli g‘oyalarning kirib kelishini to‘suvchi ma’naviy filtrlarni shakllantirish zarur”[1.12-15.]. Bu yondashuv ma’naviy immunitetni nafaqat himoya mexanizmi, balki ijtimoiy ongni barqarorlashtiruvchi texnologiya sifatida tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda asosiy e’tibor axborot savodxonligiga qaratiladi, ya’ni shaxsning mavjud axborotni izlash, tahlil qilish, manbani tekshirish va undan ongli ravishda foydalanish qobiliyatini oshirishga. Axborot savodxonligi inson ongida axborot oqimlariga qarshi tanqidiy filtrlash mexanizmini yaratadi. “Internet-makon shaxs ijtimoiylashuvi mexanizmlariga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy institutga aylanib, ijobiy va salbiy ijtimoiylashuvni bir paytning o‘zida yuzaga chiqaradi”[2.27-10.]. Demak, bu makonda inson tanqidiy fikrlashni qo‘llay olmasa, uning dunyoqarashi biryoqlama shakllanadi. Shunday ekan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ma’naviy immunitetning eng muhim poydevori hisoblanadi.

“Mafkuraviy tahdidlar yolg‘onni haqiqatga o‘xshatish va hissiyotni aql ustiga qo‘yish” usullari orqali ongga singdirilmoqda, bunga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li sifatida tanqidiy tafakkur va ma’naviy immunitetni kuchaytirishni ko‘rsatadi[3.18-22.]. Bu jarayon ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida shaxsning intellektual faoliyatini axborot xavfsizligi bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki axborot savodxonligi – texnologik ko‘nikma, tanqidiy tafakkur esa – ma’naviy-axloqiy ko‘nikma bo‘lib, ular uyg‘unlashgandagina chinakam ma’naviy immunitet shakllanadi. “Axborot muvozanatining buzilishi jamiyatning ma’naviy mustahkamligini zaiflashtiradi” [4.9-14.]. Bu esa shuni anglatadiki, ma’naviy immunitetni mustahkamlash nafaqat

individual ong darajasida, balki ijtimoiy muhitda ham tizimli ravishda tashkil etilishi zarur. Ya’ni, axborot savodxonligini rivojlantirish o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda, ommaviy axborot vositalarida, ta’lim va madaniyat institutlari faoliyatida ma’naviy mexanezimlar sifatida qo‘llanilishi lozim. Ma’naviy immunitetni kuchaytirish insonni tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan chegaralanmaydi, balki ongni erkinlashtirish, mustaqil tafakkur madaniyatini shakllantirish va haqiqatni izlash qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Axborot savodxonligi va tanqidiy tafakkur uyg‘unligi esa bu jarayonning strategik yo‘nalishi bo‘lib, u orqali shaxs va jamiyat global axborot maydonida o‘z qadriyatlarini himoya qila oladi hamda barqaror ma’naviy taraqqiyot sari intiladi.

Ma’naviy immunitet tushunchasi bugungi kunda axborot oqimlarining haddan ziyod ko‘pligi sharoitida yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon orqali singdirilayotgan ko‘plab xabarlar, vizual obrazlar va manipulyativ mazmunlar inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlarda ma’naviy immunitetni mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Paulo Freire “Pedagogy of the Oppressed” asarida “insonni ozod qiluvchi ta’lim uni mavjud muhitga ko‘r-ko‘rona moslashtirish emas, balki u orqali ijtimoiy va ma’naviy muammolarni tanqidiy idrok etishga o‘rgatishdir” deya ta’kidlaydi[5.81.]. Ushbu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, axborot savodxonligi nafaqat texnik malaka, balki insonni manipulyatsiyaga qarshi himoya qiluvchi ma’naviy-axloqiy texnologiya sifatida qaralishi lozim. Tanqidiy fikrlash esa ongning passiv qabul qiluvchanlik holatini buzib, uni faol baholash va xulosaga kelish qobiliyatiga yo‘naltiradi. Richard Paul va Linda Elder “Critical Thinking” asarida “tanqidiy fikrlash inson ongini yolg‘on dalillar va manipulyativ diskurslardan himoya qiluvchi intellektual vositadir” deya ta’kidlaydi[6.45.]. Bu fikrga tayanib shuni aytish mumkinki, tanqidiy tafakkur ma’naviy immunitetning intellektual asosi bo‘lib, u insonni har qanday tayyor qoliplarga majburiy ergashishdan saqlaydi. Demak, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ma’naviy jarayonlarda shaxsiy mustaqillikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashning o‘zaro uyg‘unligi insonni turli manipulyativ texnologiyalardan himoya qiluvchi “ko‘rinmas qalqon” sifatida talqin qilinadi. Howard Rheingold “Net Smart” asarida “axborot oqimlari zamonaviy jamiyatning asosiy resursi bo‘lsa-da, ularni tanqidiy qayta ishlashni o‘rganmagan shaxs intellektual mustaqilligini yo‘qotadi” deb yozadi[7.14.]. Bu mulohaza shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy immunitetni mustahkamlash jarayoni faqatgina axborot olish bilan emas, balki uni chuqur tahlil qilish va baholash texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq.

Ma’naviy immunitetni mustahkamlash masalasi hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida inson ongini ongli ravishda himoyalashning eng dolzarb muammolaridan biridir. Axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali shaxs nafaqat turli manipulyativ axborot oqimlariga qarshi tura oladi, balki ma’naviy barqarorlik va ongli qaror qabul qilish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bu jarayon ma’naviy texnologiyalar va jarayonlar kontekstida insonning ichki dunyosi bilan tashqi axborot muhitining o‘zaro munosabatini tahlil qilishni taqozo etadi. Pierre Lévy ta’kidlaganidek, “raqamli muhit shaxsni doimiy ravishda yangi semantik kodlar bilan

to‘qnashishga majbur qiladi, ammo bu jarayon tanqidiy fikrlash vositasida nazorat qilinmasa, inson ongining ma’naviy mustahkamligi yemiriladi”[8.83.].Bu fikrga munosabat bildirish joizki, tanqidiy fikrlash bu holatda ma’naviy immunitetning markaziy mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

Tanqidiy fikrlash esa axborot savodxonligidan farqli ravishda bevosita tafakkur jarayonlarining intellektual va ma’naviy asosini belgilaydi. “Tanqidiy tafakkur ongning intellektual mustaqilligini ta’minlab, insonni tashqi ta’sirlardan ma’naviy jihatdan ozod qiladi” deya ta’kidlaydi[9.67.]. Ushbu nuqtayi nazar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy tafakkur jarayoni ongni psixologik manipulyatsiyalardan asraydi, insonni tayyor qoliplarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan xalos qiladi va ma’naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining uyg‘un rivojlanishi ma’naviy jarayonlarda “himoya texnologiyasi” sifatida amal qiladi.

Ma’naviy immunitetni mustahkamlash, avvalo, insonning ongini turli manipulyativ axborot oqimlaridan himoya qilish, unga mustaqil fikrlash va axloqiy mezonlarga asoslangan qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqamli jamiyatda bu jarayon axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi orqali amalga oshadi. Axborot savodxonligi insonni turli manbalar, xabar va tasvirlarning ortidagi yashirin maqsadlarni anglashga, ularni ma’naviy qadriyatlar bilan solishtirishga undaydi. Shunday ekan, bu savodxonlik nafaqat texnologik vositalardan foydalanish qobiliyati, balki ular orqali tarqatilayotgan g‘oyaviy oqimlarni ma’naviy filtrdan o‘tkazish imkonini ham beradi.

Ma’naviy immunitetni mustahkamlash jarayoni inson ongini turli manipulyativ oqimlardan himoya qiluvchi ma’naviy-axloqiy texnologiyalarning uyg‘un tizimini talab etadi. Bunda axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari markaziy o‘rin egallaydi, chunki ular yoshlarni virtual makon va ijtimoiy tarmoqlarda oqib kelayotgan turli g‘oyaviy xabarlar, tasvir va videomateriallarning yashirin ta’sir mexanizmlaridan ogoh etadi.

Shunday qilib, ma’naviy immunitetni mustahkamlashda axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari asosiy poydevor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ikki unsur birgalikda ishlaganda, shaxsning nafaqat intellektual, balki ma’naviy immunitetini ham oshiradi, uni turli ideologik manipulyatsiyalardan, qo‘rquv uyg‘otish va stereotiplashtirish kabi psixologik mexanizmlardan asraydi. Natijada shaxs mustaqil qaror qabul qila oladigan, ma’naviy jihatdan barqaror va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘shuvchi ongli subyekt sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. To‘rayev K.Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimining virtual targ‘ibot resurslari samaradorligini oshirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.

2. Nomozov X. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024.

3. Suvanov I. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.

4. Biyimbetov J. Axborot va jamiyat axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy tahlili. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024.

5. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum.
6. Paul, R., & Elder, L.Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life. – New Jersey: Pearson.
7. Rheingold, H. Net Smart: How to Thrive Online. – Cambridge, MA: MIT Press.
8. Lévy, P. Collective Intelligence: Mankind’s Emerging World in Cyberspace. – Cambridge, MA: Perseus Books.
9. Dewey, J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co.

MITOXONDRIAL DNKNING SHAXS IDENTIFIKATSIYASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Quronbayeva Dilnoza Davron qizi
O’zbekiston Milliy universiteti magistranti
Saitova Niyyora Sobirjonovna
X.Sulaymonova nomidagi RSEM
Bekmuxamedov Abduqayum Azimovich
b.f.n.dots.v.b, O’zbekiston Milliy Universiteti

Kirish (introduction). Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda shaxsni aniq va ishonchli identifikatsiya qilish masalasi sud ekspertizasi kriminalistika hamda inson genetikasi fanlari oldida turgan eng muhim ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy genetika yutuqlari biologik izlar, ayniqsa DNK tahliliga asoslangan identifikatsiya usullarini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon jinoyatlarni ochish, inson huquqlarini himoya qilish, yo‘qolgan shaxslarni aniqlash va tarixiy qoldiqlarni o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi [1]. Shu jihatdan mitoxondrial DNK (mtDNK) tahlilining ilmiy va amaliy imkoniyatlarini chuqur o‘rganish bugungi genetika fanining strategik yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘zining 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish — mamlakat taraqqiyotining asosiy tayanchidir” deya ta’kidlagan [2]. Ushbu so‘zlar biologiya va tibbiyot sohasidagi genetik tadqiqotlarni, jumladan DNK tahliliga asoslangan shaxs identifikatsiyasi tizimlarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish hamda genetik tahlil laboratoriyalarini rivojlantirish vazifalari belgilangan bo‘lib, bu yo‘nalish mamlakatda kriminalistik ekspertizalarda DNK tahlilini keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Mitoxondrial DNK yadroviy DNKdan farqli ravishda faqat ona orqali irsiylanadi va har bir hujayrada minglab nusxalarda mavjud bo‘lgani sababli, u degradatsiyalangan yoki qadimiy namunalar tahlilida ham muvaffaqiyatli aniqlanadi. Shu sababli, mtDNK ommaviy falokatlar, tarixiy qoldiqlar, arxeologik topilmalar hamda jinoyat joylaridan olingan izlarni o‘rganishda muhim molekulyar marker sifatida qo‘llaniladi. Mazkur

tadqiqotning asosiy maqsadi mitoxondrial DNKning shaxs identifikatsiyasidagi o‘rni, ahamiyati va afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari mtDNKning tuzilishi va genetik xususiyatlarini o‘rganish, uning meroslanish mexanizmini tahlil qilish, forensik tahlilda qo‘llanilish afzalliklari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida identifikatsiyada mtDNKning istiqbollarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi kunda butun dunyoda biologik identifikatsiya usullarining aniqligi, tezligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, va mitoxondrial DNK tahlili ana shu yo‘nalishdagi eng ishonchli hamda istiqbolli molekulyar metodlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mavzuvga oid adabiyotlar tahlili (literature review). So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mitoxondrial DNKning (mtDNK) shaxs identifikatsiyasida beqiyos ahamiyatga ega molekulyar marker ekanini tasdiqlamoqda. Uning halqasimon tuzilishi, yuqori nusxa soni va faqat onadan o‘tuvchi irsiylanish xususiyati uni yadroviy DNKdan ajratib turadi. Ayniqsa, mtDNKning degradatsiyalangan yoki qadimiy biologik namunalar — suyak, tish, soch kabi materiallardan ham muvaffaqiyatli ajratib olinishi sud ekspertizasi genetikada muhim ustunlik yaratadi [4].

Parson va Bandelt (2020) o‘z tadqiqotida mtDNKning yadroviy DNK mavjud bo‘lmagan hollarda shaxsni aniqlashda eng ishonchli vosita ekanini ta’kidlaydi [5]. Huber, Parson va Dür (2018) tomonidan ishlab chiqilgan EMPOP ma’lumotlar bazasi esa mtDNK tahlillarini xalqaro miqyosda standartlashtirish, natijalarni solishtirish va statistik ishonchlilikni oshirish imkonini beradi [6]. Shuningdek, Lee va hamkorlari (2017) NGS (Next Generation Sequencing) texnologiyasi yordamida to‘liq mitogenomni o‘rganish orqali geteroplazmiya hodisasini aniqlash ishonchliligini oshirganini qayd etadi [7].

So‘nggi yillarda mtDNK tahlili nafaqat sud ekspertizasi, balki antropologiya va tibbiy genetika sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Llamas va hamkorlari (2017) qadimiy mtDNK tahlili asosida inson migratsiyasi yo‘nalishlarini aniqlagan [8], Cavalcanti va boshqalar (2024) esa mtDNKning zamonaviy sud ekspertizasi diagnostikadagi amaliy ahamiyatini yoritgan [9]. Shu bilan birga, mutaxassislar mtDNKning cheklovlarini ham qayd etadi: u faqat onalik nasl orqali o‘tadi, shuning uchun individual diskriminatsiya darajasi yadroviy DNKga nisbatan pastroq; shuningdek,geteroplazmiya natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi (research methodolog). Mazkur tadqiqot “Mitoxondrial DNKning shaxs identifikatsiyasidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusiga bag‘ishlanib, ilmiy-analitik va qiyosiy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi mtDNK tahlilining sud ekspertizasi amaliyotidagi qo‘llanish imkoniyatlarini, texnologik ustunliklarini va ilmiy asoslarini o‘rganishga qaratildi. Metodologik asos sifatida deduktiv yondashuv tanlanib, mavjud nazariy konsepsiyalar, xalqaro ilmiy manbalar hamda sud ekspertizasi laboratoriya tajribalari tahlil qilindi.Tadqiqot dizayni analitik-solishtiruv tamoyiliga asoslangan bo‘lib, unda mitoxondrial va yadroviy DNK tahlil usullari o‘zaro taqqoslandi, mtDNKning tuzilishi, meroslanish mexanizmi hamda tahlil texnologiyalarining aniqlik darajasi baholandi.

Tadqiqot davomida analitik, qiyosiy, deskriptiv va kontent-tahlil metodlari qo‘llanildi. mtDNK tahlilining samaradorligini aniqlashda identifikatsiya aniqligi,

ma’lumotlar bazasi mosligi va texnologik natijalarning ishonchlilik ko‘rsatkichlari (aniqlik, ishonchlilik) tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga oid ma’ruza va farmonlarida belgilangan vazifalar tadqiqotning yo‘nalishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot mitoxondrial DNK tahlilining ilmiy va amaliy qiymatini aniqlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida shaxs identifikatsiyasining ishonchliligini oshirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mtDNKning yuqori nusxa soni va ona tomonidan irsiylanish uni degradatsiyalangan namunalar (suyak, tish, soch po‘stlog‘i)dan ham profil olishga mos qiladi; bu holatlarda mtDNK yadroviy DNKni samarali to‘ldiruvchi marker sifatida ishlaydi [11]. Zamonaviy oqimlarda to‘liq mitogenomni o‘qish (NGS) geteroplazmiya sezgir aniqlash, past miqdordagi DNKdan barqaror ketma-ketlik olish hamda laboratoriyalararo moslikni oshirishga xizmat qiladi [12]. Talqinda esa tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazalari va standart ko‘rsatmalar (genetik hududiy chastotalar, sifat-nazorat mezonlari) natijalarni statistik jihatdan ishonchli qilishda muhim o‘rin tutadi [13].

1-jadval.

Shaxs identifikatsiyasida mtDNK va nDNK: amaliy qiyos

Mezon	**mtDNK**	**nDNK (yadroviy)**
Qaysi holatda eng foydali	Degradatsiyalangan/oz miqdorli namunalar (soch, qadimiy suyak)	Yaxshi saqlangan, to‘liq hujayrali namunalar
Identifikatsiya turi	ona tarafdan kelib chiqish (ona yo‘li) bo‘ylab moslashtirish	Individual darajadagi profillash (STR/SNP)
Kuchli tomon	Ko‘p nusxa → tiklash oson; to‘liq mitogenom orqali chuqur tahlil [11]	Individual diskriminatsiya kuchli
Cheklov	Maternal qarindoshlar o‘xshash; geteroplazmiya talqini zarur [12]	Degradatsiyada fragmentatsiya → profil olish qiyin
Tipik texnologiya	PCR–Sanger (HV1/HV2), **NGS (to‘liq mitogenom)** [12]	STR/SNP panellar
Talqin va statistika	Tizimlashtirilgan bazalar, populyatsion chastotalar, QC protokollari [13]	RMP, LR va STR statistik modellari

Xulosa (conclusion). O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mitoxondrial DNK (mtDNK) shaxs identifikatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa yadroviy DNK saqlanmagan yoki degradatsiyalangan holatlarda ishonchli genetik marker sifatida qo‘llaniladi. Uning halqasimon tuzilishi, ko‘p nusxaliligi va ona tomonidan irsiylanish xususiyati uni boshqa genetik markerlardan ajratib turadi. Zamonaviy sekvenirlash texnologiyalari — xususan, NGS (Next Generation Sequencing) — yordamida mtDNK tahlilining aniqligi, tezligi va takrorlanuvchanligi yanada oshmoqda.

Mitoxondrial DNK tahlilining joriy etilishi nafaqat kriminalistika, balki tibbiyot, antropologiya va tarixiy tadqiqotlarda ham katta ilmiy va amaliy foyda beradi. Shu sababli, bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish va mahalliy sharoitga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Takliflar:

Milliy ma’lumotlar bazasi yaratish: O‘zbekiston aholisi uchun mtDNK asosidagi genetik ma’lumotlar bazasini shakllantirish va uni xalqaro tizimlar bilan uyg‘unlashtirish lozim.

Laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish: Zamonaviy genetik tahlil uskunalari bilan jihozlangan sud ekspertizasi markazlarni tashkil etish va mutaxassislar malakasini oshirish zarur.

Qonunchilikni takomillashtirish: Genetik axborotdan foydalanish jarayonida shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini himoya qiluvchi aniq huquqiy asoslar ishlab chiqilishi kerak.

Ilmiy hamkorlikni kengaytirish: Mahalliy va xorijiy ilmiy markazlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, qo‘shma tadqiqot va tayyorlov dasturlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlarni chuqurlashtirish: mtDNK mutatsiyalari, nasliy guruhlarning populyatsion xususiyatlari va ularning genetik tibbiyotga oid ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy ishlarni davom ettirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Budowle, B.; Allard, M. W.; Wilson, M. R.; Chakraborty, R. Forensics and Mitochondrial DNA: Applications, Debates, and Foundations // *Annual Review of Genomics and Human Genetics.* – 2003. – T. 4, № 1. – S. 119–141.

Mirziyoyev, Sh. M. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.* – Toshkent, 20 dekabr 2022 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026 yillar).* Prezident farmoni PF–60. – Toshkent, 28 yanvar 2022 y.

Parson, W.; Bandelt, H.-J. Mitochondrial DNA in forensic genetics: application and interpretation // *Forensic Science International: Genetics.* – 2020. – T. 46. – № 102275.

Huber, N.; Parson, W.; Dür, A. Next generation database search algorithm for forensic mitogenome analyses // *Forensic Science International: Genetics.* – 2018. – T. 37. – S. 204–214.

Lee, H. Y.; et al. Recent advances in mitochondrial DNA analysis for forensic identification // *Legal Medicine.* – 2017. – T. 25. – S. 49–59.

Llamas, B.; Harkins, K. M.; Fehren-Schmitz, L. Genetic studies of the peopling of the Americas: insights from diachronic mitochondrial genome datasets // *Quaternary International.* – 2017. – T. 444. – S. 26–35.

Amorim, A.; Fernandes, T.; Taveira, N. Mitochondrial DNA in human identification: a review // *PeerJ.* – 2019. – T. 7. – e7314.

Cavalcanti, P.; Lima, R.; Coelho, D.; et al. Forensic use of human mitochondrial DNA: a review // *Anais da Academia Brasileira de Ciências.* – 2024. – T. 96(4). – e20231179.

Just, R. S.; Irwin, J. A.; Parson, W. Mitochondrial DNA heteroplasmy in the emerging field of massively parallel sequencing // *Forensic Science International: Genetics.* – 2015. –

T. 18. – S. 131–139.

Amorim, A.; Fernandes, T.; Taveira, N. Mitochondrial DNA in human identification: a review // *PeerJ.* – 2019. – T. 7. – e7314.

Strobl, C.; Eduardoff, M.; Bus, M. M.; Allen, M.; Parson, W. Evaluation of massively parallel sequencing for mitogenome sequence concordance and heteroplasmy detection // *Forensic Science International: Genetics.* – 2019. – T. 40. – S. 34–43.

Parson, W.; Gusmão, L.; Hares, D. R.; et al. DNA Commission of the ISFG: Revised and extended guidelines for mitochondrial DNA typing // *Forensic Science International: Genetics.* – 2014. – T. 13. – S. 134–142.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DESTRUKTIV TENDENSIYALARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar doktori

Bugun axborot makonida, insonning hayot makoni va sohasida ham yuz berayotgan mafkuraviy, ma’naviy, ruhiy salbiy o‘zgarishlar insonlararo munosabatlarning jiddiy shikastlanayotganligiga, jamiyatlar, millatlar, etatlar, madaniyatlar hattoki, davlatlar o‘rtasidagi nizolarning ham asl sababchisiga aylanayotganligi guvoh bo‘lib turibmiz. Insoniyatning texnik va texnologik taraqqiyoti, har doim ham uning baxtli yashashining garovi emas, gohida uning hayotini murakkablashtiruvchi, turli-tuman yangidan-yangi muammolarni, halokatlarni keltirib chiqaruvchi, ba’zida esa uning baxtsizligiga sabab bo‘luvchi omil bo‘lib qolayotganligini alohida e’tirof etmoq joiz.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar avvalo xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash, strategik taraqqiyot sari olg‘a harakatlanishga qaratilgan bo‘lib, bu borada komplekschora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Insoniyatga xos bo‘lgan xususiyat, bu uning doimiy tinchlikka, farovonlikka, baxtli yashashga bo‘lgan intilishidir. Buning uchun esa turli uslublar, vositalar, sharoitlar yaratiladi va barchasi inson uchun tatbiq qilinadi. Ammo, uning turli qarashlarga, turli manfaatlarga egaligi natijasida esa doimiy ziddiyatlar paydo bo‘ladi va turli yo‘llar va tendensiyalar asosida rivojlanadi, amalga oshadi, kerak bo‘lsa, davlat va jamiyat uchun yetarlicha xavf-xatarlarni keltiradi. “Shaxs uchun destruktivlik – bu mavjud ijtimoiy, xulq-atvor, timsoliy tuzilmalardan voz kechishga undovchi madaniyatning bir komponentidir” [1].

Destruktiv, ya’ni vayronkor, buzg‘unchi tendensiyalar o‘zining uzoq yillik tarixiga ega ekanligini, ya’ni insoniyat paydo bo‘libdiki, ularni bunday xatarlar aslo tark etmagan. Xoh diniy bo‘lsin, xoh milliy yoki etnik bo‘lsin, xoh siyosiy bo‘lsin va xoh mafkuraviy bo‘lsin, ularning hammasi inson hayoti uchun ma’lum bir kulfatlarga sababchi bo‘lgan. Sababki, o‘z nomidan destruktiv, ya’ni buzg‘unchidir. Destruksiya so‘zi - lotinchadan olingan bo‘lib, destructio — “konstruksiya yoki qurilmaning buzilishi, sochilishi”, de —

rad qilish (yoki voz kechish) va structio — tashkil qilish yoki qurish ma’nolarini anglatadigan termin. Falsafiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, destruksiya buzg‘unchi ta’sirining asosiy mo‘ljali – bu o‘zaro bog‘langan birliklarni bir-biridan ajratish uchun, konstruksiyaning nozik joyini ishdan chiqarish, tortib olish yoki zarba berishdir. Bu yerda u asosiy elementlar ichida nozik hududni, qismni tanlaydi va unga qarshi zarba berish orqali voqelik funksiyasini buzadi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, destruksiya (yoki destruktivlik) — o‘z mo‘ljaliga ko‘ra konstruktivlikning teskarisi, ya’ni antonimidir. Bunyodkorlik yoki bir butunlikning buzilishi uchun ro‘y beradigan, tashkil qilinadigan, amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Umuman olganda, destuktiv faoliyat amaliy jihatdan barcha sohalarga (ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, diniy, moliyaviy, kasbiy va xokazo) tegishlidir, ya’nikim ushbu barcha sohalarda yuz berishi mumkin bo‘lgan holatdir. Bugungi kunda destruktiv tendensiyalar tobora ko‘chayayotgan va insoniyat hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgan (kerak bo‘lsa, katta xavf-xatarlar va kulfatlar keltirayotgan) soha bu insoniyat tinchligi va barqarorligidir. “Davrlar o‘tishi bilan progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik naqadar jadallashsa, regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota bordi. Vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar va negativ holatlar o‘zining o‘ta murakkab tabiati, oqibatlari ko‘lami bilan jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan destruktiv holatlarning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, buning uchun esa mazkur jarayonlarning mohiyati va sabablariga doir mulohazalarni umumlashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda” [2]. Tinchlik va barqarorlikka nisbatan amalga oshirilayotgan destruktiv faoliyat boshqa barcha sohalarda o‘z ta’siri ko‘rsatmoqda va namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, inson ongu-tafakkuriga nisbatan radikal g‘oyalarni, ekstremistik, millatchilik, diniy, irqchilik va xokazo destruktiv g‘oyalarni, mafkuralarni, inson hayotini izdan chiqarishga qodir madaniyatni axborot makonida tarqatish singari tendensiyalarning ortib borayotganligi o‘tgan XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmida sodir bo‘layotgan eng dahshatli va kulfatlarga to‘la ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish mumkin.

Chunki, so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar kishilar hayot sifatini, madaniy turmush darajasini, jamiyatning dunyoqarashini butkul o‘zgartirdi. Bunday jarayonlarning barchasi ham ijobiylik sari emas, balki salbiy tomonga ham ro‘y berganligi kuzatildi. Qanchalik taraqqiyot ilamlab borgani sari jamiyatda regressiv, negativ, vayronkorlik jarayonlari ham yuz bermoqdaki, ular insoniyat hayotini turli negativ va vayronkorlik holatlari bilan cho‘lg‘ab olayotganligi o‘z isbotini topmoqda.

Zamonamizda ro‘y berayotgan bunday destruktiv xususiyatdagi tendensiyalardan, jarayonlardan hech kim kafolatli darajada himoyalangan emas. Chunki, destruktiv xususiyatlarga ega bo‘lgan mafkuralarning tarqalishi va uning insoniyat hayotiga ta’siri borasida juda ko‘plab tadqiqotlar va qarashlar shakllanganligiga qaramasdan, bugungi kunda ularga qarshi kurashish bo‘icha yagona bir standartlar yoki xalqaro hamjamiyatning o‘zaro birdamlik tamoyillari afsuski mavjud emas.

Yoshlar o‘rtasida radikal qarashlarning keng tarqalishining asosiy motivlari yoki sabablari asosan ikki xil bo‘lib, ularni quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

Birinchi motiv - yoshlarning ruhiy holatiga tez va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan diniy, milliy, turli adovatni qo‘zg‘aydigan, toqatsizlikka sabab bo‘ladigan axborotlarning hech bir to‘siqlarsiz “nishonga” yetib borishi, diniy, siyosiy yoki milatchi targ‘ibotchilarning siyosiy va mafkuraviy maqsadga qaratilgan ma’ruzalarining, video va audio roliklarini yoshlar ma’naviy va ruhiy olamiga jiddiy zarar yetkazishi bilan bog‘liq jarayonlar;

Ikkinchi motiv – yoshlarning o‘z shaxsiga nisbatan, yon-atrofidagilarga yoki qarindosh-urug‘lariga nisbatan yetkazilgan ba’zi bir adolatsizliklar. Ushbu holat ularda radikal kayfiyatni vujudga keltiradi va jamiyatga, davlatga nisbatan norozilik kayfiyati tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ushbu tendensiyalar avvalo, insonning ongiga ta’sir ko‘rsatish va uning qalbiga turli nafrat va isyon ruhiyatini singdirish yo‘li bilan davlat, xalq, jamiyat yoki biror bir millatga qarshi jinoyatlarga boshlashi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va mafkuraviy holat ekanligini alohida e’tirof etmoq joiz. Insonning hayotda uchraydigan har qanday kulfat, tushkunlik, omadsizlik, adolatsizlikka nisbatan qalbida g‘alayon bo‘lishi, unga nisbatan darmon izlashi, ko‘p hollarda, unda jamiyatni ayblash bilan bog‘liq kechinmalarni hosil qilishi psixolog olimlarimiz tomonidan isbotlab berilgan. Xususan hayot murakkabliklariga, tashvishlariga duch kelgan shaxs hayotida destruksiya jarayoni kuzatiladi. Destruksiyaning asl mohiyati — bu insonning ma’lum bir jiddiy sabablar tufayli hayotdagi barqarorlikdan beqarorlik sari ketishidir. Bunday holatlarning asosiy resursi esa inson hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Трошин А.А. Теоретические основы деструкции в обществе. Доклад, 2015. С. 1. [Электронный ресурс] URL: https://bookscafe.net/read/troshin_a-teoreticheskie_osnovy_destrukcii_v_obschestve-203507.html#p1

(дата обращения: 27.06.2020).

2. Бекмуродова Г. Ижтимоий - деструктив ҳолатлар талқини динамикаси. National University of Uzbekistan Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022 Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-661-667 Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari.

3. Лучко А.А. Как интернет влияет на психику и организм человека // Афиша-Daily. 17.03.2016.

[Электронный ресурс] URL: https://daily.afisha.ru/brain/928-kak-internet-vliyaet-na-psihiku-i-organizmcheloveka/ (дата обращения: 28.06.2020).

4. Top 10 types of information security threats for IT teams. https://www.techtarget.com/searchsecurity/feature/Top-10-types-of-information-security-threats-for-IT-teamsмас.

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Radjapova Dilnura Anvarbekovna
Ma’mun universiteti talabasi

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasining psixologik jihatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar shaxs sifatida rivojlanish jarayonida oila, ta’lim muassasalari va madaniy muhitning uzluksiz psixologik ta’siri ostida bo‘ladi. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, shaxsning rivojlanishi bir vaqtning o‘zida mikro (oila), mezo (maktab va jamoadagi munosabatlar), ekzo (ijtimoiy institutlar) va makrotizim (madaniyat, qadriyatlar, an’analar) ta’siri ostida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tarbiyasini to‘liq anglash, ularni rivojlantirish strategiyalarini yaratish uchun oila, ta’lim tizimi va madaniy muhitning psixologik ahamiyatini birgalikda tahlil qilish talab etiladi.

Yoshlarning psixik rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayondir. Bu jarayonni to‘g‘ri boshqarish uchun L. S. Vygotskiy, J. Piaje, E. Erikson, A. Maslou, D. Baumrind kabi nufuzli olimlarning ilmiy qarashlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlari shaxsning ijtimoiylashuvi, motivatsiyasi, emotsional rivojlanishi va kognitiv taraqqiyoti tarbiya sharoitlariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston jamiyatida oila institutining mustahkamligi, ta’lim tizimining isloh qilinayotganligi va milliy madaniy qadriyatlarning kuchli ekanligi yoshlar tarbiyasini o‘rganishda alohida e’tibor talab qiladi.

Oila muhitining shaxs rivojlanishiga psixologik ta’siri. Oila — shaxsning eng dastlabki psixologik ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, unda bola emotsional tajriba, qadriyatlar, xulq me’yorlari, muloqot ko‘nikmalari va shaxslararo munosabatlar asoslarini o‘zlashtiradi. D. Baumrindning tarbiya uslublari tasnifi bolaga nisbatan psixologik ta’sirning to‘rtta asosiy modelini ko‘rsatadi: avtoritar, demokratik (avtoritativ), ruxsatchi va befarq tarbiya. Tadqiqotlar demokratik tarbiya uslubi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya, ijtimoiy faollik va ijobiy o‘z-o‘zini baholashini yuqori darajada rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Oila muhitidagi emotsional qo‘llab-quvvatlash bola ruhiy barqarorligining asosiy omillaridan biridir. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bola kattalarning xatti-harakatlari, munosabati va muloqot uslubini kuzatish orqali yangi xulq modellarini shakllantiradi. Shuning uchun ota-onaning shaxsiy psixologik madaniyati, konfliktlarni hal etish uslubi, stressni boshqarish ko‘nikmalari bevosita bolaga o‘tadi.

O‘zbek oilalarida kollektivizm, kattalarga hurmat, oilaviy birdamlik kabi qadriyatlar yuqori bo‘lib, ular yoshlarning ijtimoiy norma va me’yorlarini anglashida asosiy rol o‘ynaydi. Oila — nafaqat psixologik rivojlanishning boshlang‘ich nuqtasi, balki yoshlarning axloqiy, intellektual va ma’naviy kamolotiga ta’sir qiluvchi eng muhim institutdir. Shu sababli ota-onalar psixologik savodxonligini oshirish, sog‘lom oilaviy

kommunikatsiyalarni shakllantirish davlat ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Ta’lim muassasalarining yosh avlod tarbiyasidagi psixologik-pedagogik roli. Ta’lim muassasalari o'g'il-qizlar shaxsining kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida asosiy maktab bo‘lib, ularning ijtimoiylashuv jarayonini chuqurlashtiradi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘qituvchi va tengdoshlari tomonidan berilgan psixologik-pedagogik yordam orqali o‘zining yuqori intellektual imkoniyatlariga erishadi. Demak, ta’lim muassasalaridagi interfaol o‘qitish, ko‘maklashuvchi muhit, hamkorlikda o‘rganish texnologiyalari yoshlarning kognitiv faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Maktab psixologiyasi zamonaviy ta’limda alohida o‘rin egallaydi. Maktab psixologlari o‘quvchilarning emotsional holatini monitoring qilish, moslashuv jarayonini yengillashtirish, sinf jamoasidagi nizolarni yumshatish, ijtimoiy psixologik profilaktika ishlarini olib borish orqali tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etadi. Maslou piramidasiga ko‘ra, o‘quvchilar birinchi navbatda xavfsizlik, qo‘llab-quvvatlash, jamoadagi qabul qilinish ehtiyojlarini qondirgandagina yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasiga ega bo‘ladi.

Ta’lim sifati bilan bir qatorda maktab iqlimi ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, intellektual faolligi va stressga bardoshliligi yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa pedagoglarning kommunikativ madaniyati, motivatsion yondashuvi va psixologik savodxonligini oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Madaniy muhit va ijtimoiy omillarning psixologik ta’siri. Bronfenbrennerning ekologik yondashuvi madaniy muhitning shaxs rivojiga makrotizim sifatida ta’sirini ko‘rsatadi. Jamiyatdagi qadriyatlar, an’analar, diniy qarashlar, san’at, madaniy meros, ommaviy axborot vositalari yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda kuchli psixologik mexanizm sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi yoshlar ongida milliy o‘zlik, vatanparvarlik, mas’uliyat va ma’naviy soflik kabi tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy media muhiti yoshlar psixologiyasidagi eng ta’sirchan omillardan biridir. Media tomonidan berilayotgan ma’lumotlar nafaqat bilim, balki emotsional munosabatlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq me’yorlarini shakllantiradi. Shu sababli yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, zararli kontentdan himoya qilish davlat siyosati doirasida muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish stress, ijtimoiy taqqoslash va past o‘z-o‘zini baholashga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Madaniy muhitning yana bir muhim jihati — yoshlarda kommunikativ kompetensiyani, ijtimoiy tolerantlikni, millatlararo totuvlikni shakllantirishidir. Global axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlarning axborot immuniteti, ma’naviy mustahkamligi, ongli tanlovi, psixologik barqarorligi milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yoshlar tarbiyasida shaxslararo munosabatlar va kommunikativ kompetensiya. Yoshlarning shaxslararo munosabatlari — ularda empatiya, ijtimoiy mas’uliyat, hamkorlik, konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi eng muhim psixologik jarayondir. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davri “identifikatsiya vs. rol chalkashligi” bosqichi bo‘lib, bu davrda yoshlar o‘zligini anglash, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, shaxsiy ideallarini shakllantirishga intiladi.

Shu jarayonda oila, tengdoshlar guruhi va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tengdoshlar bilan kommunikatsiya yoshlarning o‘z-o‘zini anglashini kuchaytiradi, lekin salbiy guruh ta’siri xatarlarini ham oshirishi mumkin. Shuning uchun maktablarda ijtimoiy-psixologik treninglar, muloqot madaniyati bo‘yicha darslar, emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari samarali natija beradi.

Yaxshi rivojlangan kommunikativ kompetensiya yoshlarning kelajak kasbiy muvaffaqiyatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozori texnik bilim bilan birga soft-skills (muloqot, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik) ko‘nikmalariga ham yuqori talab qo‘ymoqda. Shu asosda ta’lim tizimida psixologik treninglar, jamoaviy o‘yinlar, bahs-munozara mashg‘ulotlari tobora ko‘paymoqda.

Xulosa. Yoshlar tarbiyasi masalasi nafaqat pedagogik jarayonning bir bo‘lagi, balki jamiyat taraqqiyoti va milliy xavfsizlikning strategik omillaridan biri sifatida qaralishi lozim. Ushbu tadqiqot oila, ta’lim tizimi va madaniy muhitning shaxs rivojlanishiga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini kompleks tarzda o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Chunki shaxsning shakllanishi uzluksiz, ko‘p qirrali va tizimli jarayon bo‘lib, uning har bir bosqichida oila, maktab va ijtimoiy-madaniy makon o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi muhimdir. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar modeli, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Baumrindning tarbiya uslublari tasnifi va Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlari shuni isbotlaydiki, har bir psixologik tizim shaxs rivoji uchun o‘ziga xos resurs va cheklovlarga ega. Bu resurslarni uyg‘unlashtirish esa tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, oilada emotsional barqarorlik, sog‘lom muloqot, hurmat va ishonch asosida qurilgan munosabatlar bolalarning keyingi psixologik rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ta’lim muassasalari esa nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni jamiyatga moslashtiruvchi psixologik maydon bo‘lib, unda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyati shakllanadi. Madaniy muhit esa yoshlarning ongida milliy identitet, ma’naviy qadriyatlar, axloq me’yorlari va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida madaniy muhitning ta’siri yanada murakkablashib, media oqimining kuchayishi yoshlarning psixologik immunitetini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishni talab qilmoqda.

Shu bois, yoshlar tarbiyasida psixologik yondashuvni chuqurlashtirish, ota-onalar va pedagoglar psixologik savodxonligini oshirish, maktablarda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, media savodxonlikni rivojlantirish va madaniy merosni modernizatsiyalash — bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Oila, ta’lim tizimi va madaniy muhitning

bir-biri bilan uzviy integratsiyasi yoshlarning barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuqori ma’naviyatli, kasbiy jihatdan yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida psixologik omillarni chuqur o‘rganish va ularga asoslangan tizimli yondashuvni amaliyotga joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishi, millatning intellektual salohiyati va ijtimoiy farovonligini ta’minlaydigan eng ishonchli yo‘ldir. Bu uch tomonlama tizim — oila, ta’lim va madaniy makon — uyg‘un holda faoliyat yuritgandagina kelajak avlodning har tomonlama komil shaxs sifatida kamol topishi kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Baumrind, D. (1966). *Child Development*.
Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.
Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development*.
Erikson, E. (1959). *Identity and the Life Cycle*.
Maslow, A. (1954). *Motivation and Personality*.
Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*.
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

YOSHLARNI VIRTUAL VA MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN ASRASH MASALALARI

Rahimjanov Shohruxmirzo Shuxrat o’g’li
O’zbekiston Milliy universiteti magistranti

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda yoshlar hayoti virtual makon bilan chambarchas bog’liq bo’lib qoldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun bilim olish, muloqot qilish va dunyoqarashni kengaytirish imkonini bersa-da, ayni paytda turli virtual va mafkuraviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Axborot xurujlari, yolg’on ma’lumotlar, ekstremistik g’oyalar, ma’naviy buzuqlikka undovchi kontentlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois yoshlarni virtual va mafkuraviy tahdidlardan asrash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Yoshlar va talabalar uchun raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bir vaqtning o’zida ham ulkan imkoniyatlar, ham ilgari misli ko‘rilmagan xavf-xatarlarni yuzaga keltirdi. Kiberzo‘ravonlik, onlayn radikallashuv, yolg’on axborotlar, zo’ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent hamda raqamli qaramlik kabi “virtual tahdidlar” yoshlarning ma’naviy kamoloti, axloqiy tamoyillari va psixologik salomatligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega. Tadqiqotlarga ko’ra, o’smirlar va yoshlar shaxsiy identifikatsiya jarayonining davom etishi, hissiy va kognitiv rivojlanish bosqichida bo’lgani sababli bunday tahdidlarga ayniqsa zaif hisoblanadi[1].

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna

solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”[2].

Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi virtual tahdidlarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishga ta’siri: Raqamli axloqiy chekinish va sezgirlikning pasayishi. Salbiy onlayn kontentga duch kelish axloqiy tafakkurning zaiflashishiga hamda zo‘ravonlikka nisbatan sezgirlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlarga kora, doimiy ravishda tajovuzkor onlayn muhitga duch kelayotgan o’smirlar vaqt o‘tishi bilan hamdardlik hissini yo‘qota boshlaydi va salbiy xatti-harakatlarni me’yoriy hol sifatida qabul qiladi[3]. Axloqiy chekinish — bu shaxsning zararli xatti-harakatlarni oqlash jarayoni bo‘lib, anonimlik hukmron bo‘lgan onlayn muhitlarda u yanada keng tarqaladi, chunki bunday sharoitda oqibatlar uzoq va noaniqdek ko‘rinadi.

Ikkinchi kiberzo‘ravonlik va psixoijtimoiy zarar: Kiberzo‘ravonlik yoshlarning axloqiy baholashi, o‘z-o‘zini qadrlashi hamda ma’naviy salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, kiberzo‘ravonlik jarayonida ishtirok etish axloqiy bog‘liqlikning pasayishi, xavotir va depressiya holatlarining kuchayishi bilan doimiy ravishda bog‘liqdir. Zo‘ravonlikni boshidan kechirgan yoshlar ko‘pincha salbiy onlayn tajribalarni o‘z shaxsiy qadri va ijtimoiy ahamiyatining ifodasi sifatida qabul qilib oladilar.

Uchinchidan Onlayn radikallashuv : Markaziy Osiyoda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar ekstremistik guruhlarning yoshlarni jalb qilish jarayonida raqamli vositalardan faol foydalanishini ko‘rsatadi. Ushbu tashkilotlar diniy tushunchalarni manipulyatsiya qilish orqali yoshlarning ongiga ta’sir o‘tkazadi. Isbotlangan va ishonchli diniy ta’lim manbalarining yetishmasligi ayrim yoshlarning internet orqali tarqatilayotgan mafkuraviy manipulyatsiyalarga moyilligini kuchaytiradi, bu esa axloqiy qarorlar va ma’naviy qarashlarning buzilishiga olib keladi.

To’rtinchidan yolg‘on axborot va buzilgan dunyoqarash: O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqaladigan yolg‘on axborot va fitna nazariyalari yoshlarning adolat, jamoa va axloqiy mas’uliyat haqidagi tasavvurlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu narrativlar ko‘pincha shaxsiy identitet, noaniqlik va emotsional beqarorlikdan foydalanib, yoshlarning dunyoqarashini noto‘g‘ri shakllantiradi. Shuningdek, yolg‘on axborot va fitna nazariyalari yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytiradi, ularni manipulyatsiyalarga nisbatan zaif qiladi va ijtimoiy hodisalarga nisbatan passiv yoki noto‘g‘ri munosabatga olib keladi. Yoshlar o‘z qarorlarini axborotning ishonchliligi yoki manbasi bo‘yicha baholay olmasliklari tufayli, ular ko‘pincha xato va zararli g‘oyalarga ergashadi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanish va axloqiy barqarorlikka, balki butun jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, yolg‘on axborot va fitna nazariyalarining tarqalishini cheklash va yoshlarni mazkur tahdidlardan himoya qilish uchun raqamli savodxonlikni oshirish, ijtimoiy-media madaniyatini rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni mustahkamlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Yoshlarni virtual tahdidlardan himoya qilishning oldini olish usullari quidagicha ko’rishimiz mumkin.

Birinchidan. Maktab ta’lim muassasasi asosidagi raqamli fuqarolik va axloqiy ta’lim. Talabalarning qadriyatlar tizimi asosan ta’lim muassasalari ta’sirida shakllanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida olib borilgan tadqiqotlar raqamli fuqarolik dasturlari talabalarning onlayn xavflarni baholash, yolg‘on axborotga qarshi turish hamda virtual muhitda axloqiy me’yorlarga rioya qilgan holda muloqot qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi[4]. Media savodxonlik, qadriyatlar asosidagi tarbiya va tanqidiy fikrlashni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlari axloqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xususan mamlakatimizda ham fuqarolik va axloqiy ta’limni integratsiya qilish samarali natijalar bergani kuzatilmoqda. Shuningdek axloqiy mulohaza yuritish va to’g’ri diniy savodxonlikka o‘rgatilgan yoshlar ekstremistik mazmundagi kontent bilan kamroq muloqot qilishi mumkin. Yani tog’ri ta’lim olgan o’quvchida yot g’oya bo’lmaydi. Shu bois ta’lim muassasalarida kompyuter savodxonligi bilan bir qatorda axloq va ijtimoiy mas’uliyat masalalariga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ikkinchidan. Ta’lim muassasasining yagona yondashuvi asosida onlayn xavfsizlikni ta’minlash. Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zararli onlayn xatti-harakatlarni kamaytirishga qaratilgan eng samarali maktab dasturlari o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash, muammolar haqida xabar berish tizimlarini joriy etish hamda tiklovchi adolat (restorative justice) yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Samarali dasturlar quyidagi elementlarni qamrab oladi:

a) pedagoglar tomonidan hurmatga asoslangan raqamli xulq-atvorni namuna sifatida ko‘rsatish;

b) tengdoshlar o‘rtasida mentorlik (yo‘lboshlovchilik) tizimlarini joriy etish;

c) kiberzo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar;

d) internet muhitida ruhiy bezovtalik belgilarini erta aniqlash.

Ta’lim muassasalarida javobgarlik va jamoaviy mas’uliyatga asoslangan madaniyat shakllantirilgan taqdirda, talabalarning axloqiy yo‘nalishi onlayn va oflayn muhitda birdek mustahkamlanadi.

Uchinchidan. Oila ishtiroki va ota-onalarning raqamli savodxonligi. Ota-onalar onlayn tahdidlarga qarshi kurashishda hanuzgacha asosiy himoya chizig‘i bo‘lib qolmoqda. Tadqiqodga ko’ra AQSh da internetdagi tajribalari haqida ota-onalari bilan ochiq muloqot qiladigan yoshlar yuqori darajadagi axloqiy mulohaza yuritish qobiliyatiga hamda xavfsiz onlayn xulq-atvorga ega bo‘ladilar. Tadqiqotchilar quyidagi jihatlarning muhimligini ta’kidlaydilar:

a) media vositalaridan birgalikda foydalanish;

b) ota-onaviy vositachilik (nazorat va yo‘naltirish) usullari;

c) onlayn kontent yuzasidan qadriyatlarga asoslangan suhbatlar.

Markaziy Osiyoda ota-onalarning raqamli savodxonligi yetarli bo‘lmagan sharoitda tashkil etilgan treninglar va jamoatchilikka yo‘naltirilgan tashabbuslar yoshlarning ekstremistik g‘oyalarga moyilligini hamda axloqiy chalkashliklarni sezilarli darajada kamaytirgani qayd etish mumkin.

To’rtinchidan. Yoshlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari. Psixologlar ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar ko‘pincha axloqiy va ma’naviy beqarorlik bilan birga kechishini ta’kidlaydilar. Ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilgan maslahat va psixologik yordam dasturlari yoshlarning shaxsiy barqarorligi, emotsional nazorati va axloqiy o‘zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning onlayn ekspluatatsiyaga uchrash ehtimolini kamaytiradi. Ruhiy salomatlik mutaxassislari, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik mavjud bo‘lganda profilaktika choralarining samaradorligi yanada ortadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarni kiber tahdidlardan himoya qilish masalasiga oid fikrlari dolzarb va o‘rinlidir.

“Bugungi kunda kibermakonda xavf-xatar va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bunda noqonuniy faoliyat, yollash va radikal g‘oyalarni targ‘ib etish bo‘yicha faol ishlar milliy chegaralar va qonunchilik normalarini tan olmaydigan internet tarmoqlari hamda kanallari vositasida tobora ko‘p amalga oshirilmoqda.

Buning oqibatida bugungi kunda aholining nisbatan zaif qatlamlari vakillari, jumladan, bizning yoshlarimiz va mehnat migrantlari “onlayn manqurtlashtirish” qurboniga aylanmoqda, turli noqonuniy guruhlarga jalb etilmoqda va jinoyat sodir etmoqda.

Shu bois qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish hamda SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi va MDH Aksilterror markazi faoliyati doirasida bunday xavf-xatar va tahdidlarni bartaraf etish va ularga tezkorlik bilan javob qaytarish bo‘yicha xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shma amaliy chora-tadbirlarni o‘tkazish eng muhim vazifalar hisoblanadi.”[5]

Virtual tahdidlar, ayniqsa shaxsiy identitet va qadriyatlar hali to‘liq shakllanmagan davrda, talaba-yoshlarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Markaziy Osiyo va Amerika Qo‘shma Shtatlarida olib borilgan tadqiqotlar onlayn radikallashuv, yolg‘on axborotlar va kiberzo‘ravonlik kabi muammolarning nafaqat mintaqaviy, balki global xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy asoslangan profilaktika strategiyalari raqamli fuqarolik ta’limi, ta’lim muassasalarida kompleks xavfsizlik yondashuvlari, ota-onalar ishtiroki, jamoatchilik va diniy sezgirlikni hisobga olgan dasturlar, platformalar mas’uliyati hamda ruhiy salomatlik xizmatlarining keng qamrovli tizimini o‘z ichiga olishi zarur. Ushbu yo‘nalishlarni mustahkamlash nafaqat virtual tahdidlarni kamaytiradi, balki tobora murakkablashib borayotgan raqamli dunyoda mustaqil va mas’uliyatli harakat qila oladigan, ma’naviy jihatdan barqaror va axloqan yetuk yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Livingstone, S., & Third, A. (2017). Children and young people’s rights in the digital age. New Media & Society, 19(5), 657–670.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”. 1-jild. – Toshkent.: “O’zbekiston” NMIU, 2017, 27-bet.

3. Kircaburun, K., Jonason, P., & Griffiths, M. (2020). Cyberbullying and moral disengagement. Journal of Interpersonal Violence, 35(17–18),

4. Jones, L. M., & Mitchell, K. J. (2016). Defining and measuring youth digital citizenship. New Media & Society, 18(9), 2063–2079.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaat.” Toshkent. 2024.

SUN'IY INTELLEKT VA MA'NAVIY XAVFSIZLIK

Rahmatova Nargizaxon Azamxonovna
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b.
G'aniyeva Malika
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizning barcha sohalarini egallagan. Yoshlar kundalik hayotlarida AI-dan keng foydalanadi, ammo bu texnologiyalar ma'naviy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Yoshlarning ma'naviy xavfsizligi - bu ularning ruhiy salomatligi, qadriyatlar tizimining mustahkamligi va shahsiy fikrining shakllanishidir [1]. AI texnologiyalari bu sohalarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun bu muammo ayniqsa muhimdir. Yoshlar ma'naviy salomatligini himoya qilish milliy xavfsizlikning muhim qismidir. Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, AI texnologiyalari yoshlarning ruhiy kasallikka chalinish darajasini oshirgan.

Sun'iy intellekt - inson ongiga o'xshash tarzda fikrlash, o'rganish va qaror qabul qila oladigan kompyuter tizimi. AI mashinali o'rganish, chuqur o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash usullarini ishlatadi.

1956 yildan buyon rivojlanayotgan AI texnologiyasi oxirgi o'n yilda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda [3]. Bugun AI ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy tavsiyalar, video platformalardagi kontentni tanlash, chatbotlar, raqamli reklama va o'yin texnologiyalarida keng qo'llaniladi. Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalar yoshlarning qiziqishlari va xulq-atvorini bashorat qilish uchun AI algoritmlarini ishlatadi. Bu algoritmlar har bir harakatni, platformada o'tkazilgan vaqtni, laiklar va izohlarni tahlil qiladi. Natijada yoshlar platformalarda ko'proq vaqt o'tkazadi, bu esa ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.AI algoritmlari yoshlarni doimiy bir xil kontentni ko'rsatish orqali tafakkur tarzini shakllantiradi. "Algoritmik qamoq" yoki "filter bubble" yoshlarning dunyoqarashini torayishiga olib keladi. Agar salbiy kontentni ko'rsa, algoritm shunga o'xshash kontentni doimiy ko'rsatadi. Natijada, yoshlar hartomonlama fikrlash qobiliyatini yo'qotadi va qadriyatlar tizimi faqat algoritm "yoqtirgan" fikrlarga asoslanadi.

AI algoritmlari yoshlarga influencerlar orqali ta'sir etadi. Bu shaxslar yoshlarni taqlid qilishga undaydi va material qadriyatlarni targ'ib qiladilar. Yoshlar haqiqiy rivojlangan ong o'rniga virtual ong shakllantirib, raqamli dunyoda "yoqtiriladigan" shaxs bo'lishga urinadi [12], [14]. Bu ruhiy stressga, o'z-o'ziga ishonmaslikka va shahsiyatining yo'qolishiga olib keladi. AI algoritmlari yoshlarni platformalarga qayta-qayta qaytishlari uchun maxsus tuzilgan. "Dopamin loop" tizimi orqali har bir layk va izohga dopamin chiqariladi va bu addiktivlikka olib keladi [4], [7]. Yoshlar kuniga 5-8 soatini ijtimoiy

tarmoqlarga sarflaydi. Natijada psixik salomatlik pasayadi, depressiya va o'z-o'ziga zarar yetkazish holatlari ko’payadi. AI ilovalari yoshlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'playdi va saqlaydi. Ushbu ma'lumotlar o’z navbatida boshqa kompaniyalarga, reklamachilar va hatto jinoyatchilarga sotiladi. Yoshlarni nazorat qilinishiga bunday holatlar ko’p uchramoqda, erkin fikrlash qobiliyati yo'qolmoqda va kiber-ta'qib xavfi irtib borayapti. Yoshlar asosan faqat o'z fikrini tasdiqlash mumkin bo'lgan kontentni ko'rishga harakat qiladi, yangi va boshqacha fikrlarni bilishdan mahrum bo’lib qoladi. Bir narsani o'tkazib yuborishdan qo'rqish - boshqalarning muvaffaqiyatini ko'rish yoshlarni norozilikka olib kelish holatlari lo’payib bormoqda. Tez tarqaladigan yolg‘on axborot yoshlar orasida tanqidiy fikrlash qobiliyatining susayishiga olib keladi. Natijada yoshlar manipulyativ mazmundagi kontent ta’siriga osonroq berilib, axborotni tahlil qilish va baholashda qiyinchilikka duch keladilar. Internet muhitidagi anonimlik kiberbulling holatlarining keng tarqalishiga hamda uning shiddat va shafqatsizlik darajasining oshishiga zamin yaratadi. Javobgarlikning sezilmasligi yoki javobgarlikdan qochish imkoniyati haqorat qilish va tahdid solish kabi noqonuniy xatti-harakatlarni osonlashtiradi.Shu bilan birga, jabrlanuvchi shaxs hujumchi kim ekanligini bilmasligi sababli doimiy psixologik bosim, xavotir va stress holatini boshdan kechiradi, bu esa uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktab va oliy ta’lim dasturida "Raqamli savodxonlik", "AI asoslari", "Media kritikasi" va "Tafakkurni rivojlantirish" fanlarini qo'shish zaruriyat keltirib chiqarmoqda. Praktik-amaliy mashg‘ulotlar orqali yolg‘on axborotni aniqlash hamda raqamli platformalar algoritmlarining ta’sir mexanizmlarini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Ota-onalar farzandlarining raqamli makondagi faoliyatini haddan tashqari cheklamasdan, biroq izchil va ehtiyotkor monitoring asosida kuzatib borishlari lozim. Raqamli muhitning ehtimoliy xavflari haqida ochiq muloqot olib borish hamda oilaviy darajada umumiy xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ovqatlanish vaqtida mobil qurilmalardan foydalanmaslik, uyquga yotishdan oldin ijtimoiy tarmoqlarga kirishni cheklash kabi me’yorlar yoshlarning uyqu sifati va ruhiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, sun’iy intellekt asosidagi ilovalarning xavfsizligini qat’iy nazorat qilish, voyaga yetmaganlar uchun mo‘ljallangan raqamli mahsulotlarni reglamentlashtirish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir normativ-huquqiy bazani mustahkamlash hamda ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan influencerlar uchun mas’uliyatli va sifatli media-ta’lim tizimini joriy etish zarur.Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborot va kontentni tahliliy yondashuv asosida baholash, boshqalarning fikriga ko‘r-ko‘rona ergashmaslik hamda internet makonida erkinlik va mas’uliyat tamoyillarini uyg‘unlashtirish yoshlar media savodxonligining asosiy tarkibiy unsurlaridan hisoblanadi.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy dunyoning ajralmas qismi bo'lib, ko'plab foydali tomonlarga ega. Ammo ularning salbiy tomonlari hozir sezimasligi mumkin. AI algoritmlari yoshlarning tafakkurini shakllantirish, addiktiv qilish, shaxsiy ma'lumotlarni to'plash orqali ma'naviy xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu jarayonlar ruhiy salomatlik, qadriyatlar tizimi va fuqarolik identiteti shakllanishida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yoshlarning ma'naviy xavfsizligini mustahkamlash uchun ta'lim tizimi,

oila a’zolari, davlat, oliy ta’lim muassasalari va yoshlar hamkorlikda ishlashi kerak. Media savodxonligi, kritik tafakkurni rivojlantirish, oilada ochiq muloqot va davlat tomonidan qat'iy nazorat - bu vazifalarning asosiysidir. O'zbekiston uchun ham bu muammo xususan juda muhimdir. Ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangi qonunlar qabul qilinishi, ota-onalarga ma'lumot berib turish va yoshlarning o'z-o'zini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Kelajak avlod - raqamli avlod tarbiyalanmoqda. Ularning ma'naviy salomatligi va fuqarolik identiteti shakllantirish jamiyat uchun eng muhim investitsiya hisoblanadi. O'zbekiston yoshlarining ma'naviy xavfsizligini ta'minlash milliy xavfsizlikning garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Tashkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Sun'iy intellekt markazi rasmiy axborotlari. Tashkent, 2024.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi materiallari. Tashkent, 2023.

4. Turaev S. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari. TDIU nashriyoti, Tashkent, 2021. - 198 bet.

5. Sultanova M., Alimov R. "Suniy intellekt va jamiyat: O'zbekiston konteksti". O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axboroti, Tashkent, 2022. - 45-67 bet.

6. Ro'yxon U., Toshmurodova M. Yoshlarning ma'naviy xavfsizligi va raqamli ta'lim. O'zbekiston ma'naviyati nashriyoti, Tashkent, 2021. - 178 bet.

7. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Wave of AI and the Future of Productivity. MIT Press, Cambridge, 2023. - 302 pages.

8. Chui M.et al. The Economic Impact of Generative AI. McKinsey Global Institute, New York, 2024. - 156 pages.

9. Kim J. "Generative AI and the Transformation of Public Services". Government Information Quarterly, 2024. Vol. 41, No. 2. - pp. 101-118.

10. Ahmed R. "AI-Based Service Models in FinTech Ecosystems". Springer AI & Society Journal, 2023. Vol. 28, No. 4. - pp. 567-584.

11. Wang H. "AI Workforce Shift and Digital Economy". Journal of Digital Transformation, 2024. Vol. 7, No. 1. - pp. 45-62.

12. World Economic Forum. Future of Jobs Report. Geneva, 2024.

13. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report 2023. Geneva: WEF Publications, 2023.

14. OECD. Digital Economy Outlook 2022. Paris: OECD Publishing, 2022.

15. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. Paris, 2023.

16. UNDP. Digital Economy of Uzbekistan: State, AI and Entrepreneurship. New York, 2024.

17. IMF. AI and Productivity in Emerging Markets. Washington D.C., 2024.

18. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. United Nations, Geneva, 2024.

19. McKinsey & Company. The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier. https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/the-economic-potential-of-generative-ai-the-next-productivity-frontier (2024).

20. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Economy of Uzbekistan: State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/digital-economy-uzbekistan-state-digital-entrepreneurship-and-artificial-intelligence (2024).

GLABALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Rahmonaliyev Javohir Umidjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat unversiteti talabasi

Globallashuv XXI asrning asosiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan biri sifatida insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur singib bormoqda. Globallashuv jarayonlari bugungi kunda yoshlarning ma’naviy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ko‘payishi, madaniy almashinuvning kuchayishi hamda internetning cheksiz imkoniyatlari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyati va axloqiy mezonlarida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keltirmoqda.[1] Zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli kommunikatsiya vositalari, transmilliy madaniyatlar oqimi yoshlar ma’naviy dunyosida yangi tendensiyalarni vujudga keltirmoqda. Mazkur sharoitda milliy ma’naviyatning barqarorligini saqlash, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va global ta’sirlarni tanqidiy fikrlash asosida tahlil eta oladigan shaxslarni tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli davlat va jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri — globallashuv ta’sirida yoshlarni ma’naviy jihatdan barkamol, mustahkam e’tiqodli, o‘z milliy qadriyatlariga sodiq holda kamol topishiga ko‘mak berishdir. Buning uchun ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning zamonaviy shakllarini qo‘llash, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va milliy g‘ururni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Globallashuv tushunchasi sotsiologiya, madaniyatshunoslik va falsafa fanlarida turlicha talqin qilinadi. Sotsiologiyada globallashuv, asosan, jamiyatlarning bir-biri bilan chuqur integratsiyalashuvi, ijtimoiy institutlar, mehnat bozori va kommunikatsiya tizimlarining o‘zaro bog‘lanishi sifatida izohlanadi.[3] A. Toffler, R. Robertson, M. Castells kabi olimlar global integratsiya jarayonlarini “axborot jamiyati”, “global maydon”, “madaniy siqilish” kabi nazariyalar orqali izohlagan. R. Robertsonning fikriga ko‘ra, globallashuv — mahalliy va global jarayonlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi (“glokalizatsiya”) bo‘lib, aynan shu uyg‘unlashuv yoshlar ma’naviyati uchun yangi vaziyat yaratadi. Yoshlarning qadriyatlar tizimi doimiy ravishda o‘zgaruvchan bo‘lib, global jarayonlar bu o‘zgarishlarni yanada tezlashtirmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muhit

[1] Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008.
[2] Qodirov, B. Ma’naviyat asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
[3] Giddens, A. Sociology. Cambridge: Polity Press, 2013.

yoshlarni milliy muhitdan global madaniy muhitga koʻproq bogʻlab qoʻymoqda. Natijada shaxsning oʻzligini anglash jarayoni murakkablashib, milliy identifikatsiya elementlari va global madaniy kodlar oʻrtasida muvozanat zarur boʻladi.

Globallashuv koʻplab imkoniyatlar yaratgani bois, yoshlarning ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir koʻrsatadigan omillarni toʻgʻri baholash zarur. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va ochiq axborot maydoni sharoitida intellektual imkoniyatlar kengayib, shaxsning ma’naviy kamoloti uchun yangi sharoitlar vujudga kelmoqda.[1] Onlayn ta’lim resurslari, digital kutubxonalar, virtual laboratoriyalar yoshlarning intellektual oʻsishiga real turtki beradi. Bular ma’naviyatning asosiy komponentlari — bilim, tafakkur, madaniy savodxonlikning oshishiga xizmat qiladi. Turli madaniyatlar bilan muloqot yoshlarni pluralistik fikrga oʻrgatadi. Boshqa xalqlarning qadriyatlari bilan tanishish milliy ma’naviyatni boyitadi, bagʻrikenglikni shakllantiradi. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim omil hisoblanadi. Global axborot almashinuvi yoshlarni yangilik yaratishga undaydi. Startap madaniyati, texnologik gʻoyalar bozori, xalqaro musobaqalar — bularning barchasi yoshlarning ma’naviy-ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi omillardir.

Global madaniyatning agressiv kirib kelishi ba’zan yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashuviga sabab boʻladi. Natijada “kimlik inqirozi”, ya’ni oʻz-oʻzini anglashda noaniqlik, qadriyatlarga befarqlik, ma’naviy maqsadning yoʻqolishi kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter oʻyinlari, tezkor axborot oqimi yoshlarni real hayotdan uzib qoʻyadi. Virtual muloqotning haddan ziyod ustunligi shaxsning ruhiy holatiga salbiy ta’sir koʻrsatadi, ma’naviy tarbiyani susaytiradi. Globallashuvning eng xavfli jihatlaridan biri — internet orqali kirib kelayotgan yot mafkuraviy oqimlardir. Radikalizm, ekstremizm, axloqsizlikni targʻib qiluvchi kontent yoshlar ongiga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Bu holat jamiyat barqarorligiga xavf tugʻdiradi. Materializm, iste’molchilik, virtual muvaffaqiyat illuziyasi yoshlarni ma’naviy qadriyatlardan uzoqlashtiradi. Bu esa ma’naviyatning eng muhim koʻrsatkichlari — halollik, hayo, mas’uliyat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarning sustlashuviga olib keladi.

Globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari oʻrtasidagi iqtisodiy, madaniy va axborot almashinuvining keskin ortishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon bir tomondan imkoniyatlar yaratgan boʻlsa, ikkinchi tomondan yoshlar ma’naviyatiga turli tashqi ta’sirlar, yot gʻoyalar, zararli axborot oqimlari kirib kelishiga ham sabab boʻlmoqda. Shunday sharoitda yoshlar ongini mustahkamlash, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlash davlat, jamiyat va oilaning ustuvor vazifasidir. Buning uchun bir nechta tizimli yondashuvlar amalga oshirilishi zarur.

Birinchidan, yoshlar ongida **ma’naviy immunitetni shakllantirish** muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy immunitet — bu shaxsning global axborot maydonida uchraydigan zararli, buzgʻunchi ta’sirlarga qarshi ongli ravishda qarshilik koʻrsatish qobiliyatidir. Bunday immunitet mustaqil fikrlash, media savodxonlik, tanqidiy tahlil qilish koʻnikmasi va milliy qadriyatlarga sadoqat bilan bevosita bogʻliq. Mustaqil fikrlaydigan yoshlar har qanday axborotga tanqidiy yondashadi, ularning maqsadi, oqibati va ta’sirini baholay oladi. Media savodxonlik esa internet va ijtimoiy

[1] Hasanov B. “Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning intellektual rivoji. “Ma’rifat” gazetasi, 2021.

tarmoqlardagi manipulyativ axborotni ajrata bilish, yuklanayotgan ma’lumotni tekshirish va to‘g‘ri xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

Ikkinchidan, globallashuv davrida **milliy-ma’naviy tarbiyani modernizatsiya qilish** talabi keskin oshdi. An’anaviy ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot usullari bugungi tezkor axborot davrida yoshlar e’tiborini doimo jalb eta olmaydi. Shu bois ma’naviy tarbiyada zamonaviy metodlarga, raqamli texnologiyalarga, kreativ yondashuvlarga ehtiyoj katta. Ma’naviy mavzularda sifatli videodarslar, audiokitoblar, podkastlar, animatsiyalar, zamonaviy dizayn asosidagi targ‘ibot materiallarini yaratish yoshlar uchun yanada ta’sirchan bo‘ladi. Bugungi yoshlar raqamli avlod bo‘lgani sababli, ma’naviy kontent ham internet platformalarida ilg‘or formatlarda taqdim etilishi lozim.

Uchinchidan, ma’naviy tarbiya faqat maktab yoki ta’lim muassasalarining vazifasi emas. Bu jarayon oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, san’at va sport tashkilotlari, diniy-ma’rifiy markazlar hamkorligida amalga oshirilishi zarur. **Oila, maktab va jamiyatning integratsiyalashgan tarbiyasi** ma’naviy tarbiyaning uzluksiz va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Oila — birlamchi tarbiya maskani bo‘lib, undagi mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, milliy qadriyatlarga amal qilish farzand ma’naviyatining shakllanishida asosiy omildir. Maktab bu jarayonni tizimli ravishda davom ettiradi, jamiyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar esa uni boyitadi.

To‘rtinchidan, yoshlarni **ilm-fan va ijtimoiy hayotga faol jalb etish** ma’naviyatni mustahkamlashning eng samarali yo‘llaridan biridir. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularni zararli axborotlardan va salbiy odatlardan himoya qiladi. Kitobxonlikni targ‘ib etish, san’at va sport to‘garaklari, ilmiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ma’naviy boyliklarini oshiradi. Bunday faoliyatlar yoshlarni mas’uliyatli, tashabbuskor va jamiyatga foydali shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati katta imkoniyatlar va bir vaqtning o‘zida jiddiy tahdidlar bilan yuzma-yuz turibdi. Internet, texnologiya va global madaniyat yoshlarning dunyoqarashini kengaytirsa-da, ularni begona g‘oyalar, ma’naviy zaiflik va virtual hayotga qaramlik xavfiga ham duchor qilmoqda. Shuning uchun yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda milliy qadriyatlarni chuqur singdirish, sog‘lom axborot muhitini yaratish, media savodxonlikni oshirish va oila hamda ta’lim muassasalarining tarbiyaviy faoliyatini kuchaytirish muhimdir. Ma’naviy yetuk yoshlar globallashuvning ijobiy jihatlaridan foydalana oladigan, salbiy ta’sirlariga esa qarshi tura oladigan shaxslar sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchidir.

Foydalaningan adabiyotlar:

1. Giddens, A.Sociology. Cambridge: Polity Press, 2013.

2. Hasanov, B. “Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning intellektual rivoji. “Ma’rifat” gazetasi, 2021.

3. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008.

4. Qodirov, B. Ma’naviyat asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.

BEHBUDIY ASARLARIDA VATANPARVARLIKNING TARG'IB QILINISHI.

Rajabbayeva Shahrizoda Kazbek qizi
CHDPU magistranti
Tog'ayev Shavkat
Ilmiy rahbar

Kirish. Jadidlikni o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning g'oyalarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e’tiboridadir Xattoki bu borada . Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 -yil 24-yanvarda Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida “biz jadidlik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” [1] deb ayatdi.

Behbudiy asarlarida vatanparvarlik mavzusi milliy uyg‘onish harakati va milliy g‘urur tuyg‘ularini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidimizning asarlarida vatanga muhabbat, milliy madaniyat va tarixi haqida fikrlari chuqur bayon etilgan.Uning asarlarida milliy uyg‘onish harakatining muhim bo‘lgan taraqqiyoti o'z aksini topgan. Behbudiy ijodida milliy g‘urur, milliy madaniyat va tarixni targ‘ib qilish, shuningdek, milliy uyg‘onish harakatini qo‘llab-quvvatlash fikrlari ilgari surilgan.Behbudiyning yozgan asarlarida vatanga muhabbat, vatan taqdiri haqidagi fikrlari keltirilgan. Behbudiy asarlarida vatan taraqqiyoti, tinchligi va mustaqilligi uchun xizmat qilish haqidagi qarashlari berilgan.Behbudiy milliy madaniyat va tarixni targ‘ib qilishga asosiy diqqat-e’tiborini qaratgan. Bundan tashqari Behbudiy sarlarida milliy madaniyat, urf-odatlari va tarixi haqida ma’lumotlarni ham ko'rishimiz mumkin..O'z asarlari orqali xalqni ayniqsa kelajak avlodni vatanparvar bo'lib yetishiga o'z hissasini qo'shgan buyuk jadidchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan materiallar va usullar. Mustaqillikga erishganimizdan so'ng jadidchilik yangi nazariy-metodologik tamoyillar asosida o‘rganilob, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jadidchilik harakati bòyicha uning qay darajada mihim ahamiyat kasb etgani, uning dolzarbligi haqida ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan bular qatorida adabiyotshunos, tarixchi olimlardan – B.Qosimov, P.Mirzo-Axmedova, D.Rashidova, R.Shamsitdinov, I.G‘afurov, D.Alimova, R.Sharipov va boshqalar o‘z asarlarida jadidchilik g'oyalari haqida o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirgan. M.Fattoyev, A.Zohiriy, Q.Rajabov, X.Ismatullayev kabi olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida, ularning dissertatsiyalarida jadidlarning vatanparvarlik g‘oyalari, ma’naviy-ma’rifiyishlari haqida bilib oloshimiz mumkin.Jamiyatimizdagi turmush madaniyatini isloh qilish muammolari, falsafiy qarashlari tahlil etilgan.

Buyuk jadid arbobimiz Mahmudxo'ja .Behbudiyning ma’rifatparvarlik faoliyati va uing ijtimoiy-siyosiy qarashlari ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining tadqiq obyekti bo'ldi Jadidchilik mavzusi B.Qosimov, X.Suvon, Sh.Turdiyev, N.Avazov, H.Sayyid, N.Karimov, D.Alimova, D.Rashidova, A.Aliyev, Sh.Rizayev, nemis olimasi Ingeborg

Baldauflarning ishlarida o‘z aksini ko'rsatadii. Xususan, Qosimov S. “Behbudiy va jadidchilik”, Alimova D., Rashidova D. “Махмудходжа Бехбуди и его исторические воззрения”, Ingeborg Baldauf. “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda”kabi asarlarida jadidchilik va Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ko'pgina ma'lumotlarni yozgan.

Bundan tashqari bugungi kunda ko'pgina yosh tadqiqotchilar tomonidan jadidchilik va uning nomoyondalari haqida ilmiy izlanishlar olib borilib , bu sohaga salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Natijalar. Qalbida ma’rifat va vatanparvarlik ziyosi porlab turgan Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlodni istiqlolga tayyorladi, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali ular ongiga milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga sa’y-harakat ko‘rsatdi. Shu ma’noda allomaning “Yoshlarg‘a murojaat” nomli maqolasi e’tiborga molikdir.

O'tgan asr boshidagi milliy uyg'onish harakatini Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatidan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Jadidshunos Begali Qosimovning ta'kidlashicha: "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Buni ulug' millatparvarning zamondoshlari ham e'tirof etgani ma'lum. "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman" Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning Behbudiy haqidagi bu so'zlarida zarracha mubolag'a yo'q. Zero, "Mahmudxo‘ja Behbudiy siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jumalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi.[3]

Mahmudxo'ja Behbudiy publisistik asarlarida milliy g'oya - millatga o'zligini anglatish, uni taraqqiy etgan xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Vatan va millat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlar qattiq tanqid qilindi. Zamon talablaridan kelib chiqib, millat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi.Mahmudxo’ja Behbudiy uchun milliy g’oya-millatni taraqqiyotga olib chiqish g’oyasi edi. 5]

Bugunda ma’rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g’oyalari o’zbek xalqining ma’naviy ma’rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongni yuksaltirish yo’lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg’ularini tarbiyalab kelmoqda.[4]

Taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldauf mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi mu-nosabati bilan "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" nomida maqola nashr qilgan. Bal-dauf maqolasida Behbudiy kuzatishlarining o'ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o'rtagan eng katta dard erk va ma'rifat ekanligini aytgan. Darhaqiqat, "Xotiralar"da-gi ma'rifiy ruh, iztirob to'la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi o'quvchini befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuyg'usi ifodasi uni bugun siz bilan bizga haddan tashqari yaqin qilib qo'yadi. U Quddusi sharifdagi Hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi.

"Do'konig'a bir oz o'lturdik. yozadi Behbudiy, mamlakatdan so'radi. Qo'lig'a bir necha nusxa "Oyina" va "Turkiston xaritasi"ni berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsat-dim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'ziga surtdi. ("Hubbul vatani mi-nal iymon".) Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratga ma'lum bo'lur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak". Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in.[2]

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgianlardan xulosa qilib shuni aytish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning qirq to‘rt yillik qisqa umri mobaynida millatning, yurtning yorqin kelajagi uchun qilgan sa’y-harakatlari besamar ketmaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkini. Oradan bir asr o‘tgan bo‘lsada Mahmudxo'ja Behbudiyning fikrlari hamon yoshlar uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Behbudiy bobomizning milliy davlatchiligimiz ravnaqiga qo‘shgan hissasi esa tengsizdir. Jadidimiz hayoti davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilangina kifoyalanib qolmasdan. Ilm va ijod bilan shug‘ullanish natijasida o‘zidan ulkan meros ham qoldirib ketdi. Behbudiy asarlari bugungi kunda ham boshqaruv, iqtisodiyot, huquq, pedagogika sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr o‘zbek millati va davlati yo‘lboshchisi, ko‘plab islohotlar asoschisi, ma’rifat, ozodlik yo‘lida faol harakat olib borgan allomaning faoliyati bugungi yoshlar uchun o‘ziga xos bir o'rganishga arziydigan maktab desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga murojaatnomasi. // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020.

2.Abdirashidov Zaynobidin.Jadidlar.Mahmudxo'ja Behbudiy Matn[risola] - Toshkent Yoshlar nashriyot uyi.2022.19-20-betlar.

3.Adhamjon Otahanov “Hidoya” o’rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi

4. Jadid ma’rifatparvarlari: abdulla avloniy, fitrat va behbudiyning tarbiyaviy qarashlari 1U.B.Nigmanova, 2D.Jalolova.

5. Odina Mahmudova, O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi magistranti .“Jadid” gazetasi 2024-yil 22 -mart 13-son.

ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Rajabov San’atjon Sunnatovich
Buxoro davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Hamidov Begzod Toshpo‘lot o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Biz yashayotgan zamin qadim-qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo`lib, xalqimiz boy madaniy merosga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir. Buyuk bobomiz Amir Temur, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy, al

Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad alFarg‘oniy, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko`plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shganlar.
Siyosiy bilimlar qadimgi dunyo tarixidayoq insonlar tafakkurida tug’ila boshladi. Insonlarning shug’illanayotgan yumushlari, tevarak atrofni o’zlashtirish jarayoni, shakllanayotgan urug’-qabilachilik munosabatlari, siyosiy bilimlarning vujudga kelishi, “siyosiy ong”ning shakllanishi uchun sharoit yaratadi. Ammo o’rta asrlar jamiyat hayotining bu sohasi uchun haqiqiy “revolyutsiya” yasadi. Ham Yevropa, ham Markaziy Osiyoda jamiyat hayotining tuzilishi, davlat va jamiyat munosabatlarinng o’zaro shakllanishi, kishilar orasidan boshqaruvchilar ya’ni siyosiy liderlarning paydo bo’lishi va o’sha liderlarning bir-biri bilan to’qnashishi yangi bosqichga o’tdi. Aynan Markaziy Osiyoda, shakllanayotgan siyosiy ta’limotlarni islom dini bilan yo’g’rilgani ham ahamiyatga molikdir.Chunki Xudodan qo’rqish hissi barcha kishilarni adolatli bo’lish va pokiza yashashga undagan bo’lsa, davlat boshliqlari esa Xudoning yerdagi soyasi sifatida ko’rilgan. Aynan islom dini jamiyatda barqarorlikni saqlab qolgan bu davr olimlari ham ijtimoiy ham tabiiy fanlarda izlanishlar olib borib, katta yutuqlarga erishdilar. Jumladan, Abu-Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk kabi olimlar davlat, jamiyat, qonunlarning umumiyligi haqida yetarlicha asarlarni taqdim etganlar. Nizomulmulkning “ Siyosatnoma’’sida, Abu Ali ibn Sinoning “Kitob al-ishorat vat tanbidat” (Ko’rsatmalar va tanbehlar kitobi)da, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri’asarida o’sha davrdagi Movarounnahr va Xurosonning siyosiy kayfiyati tasvirlanib, o’sha davrdagi siyosiy qarashlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shunday ulug‘ allomalardan biri Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)dir. O`rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlaridagi taraqqiyparvar ijtimoiyfalsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog‘liq. U hayotlik vaqtidayoq «Ikkinchi Aristotel», «Sharq Aristoteli», «Muallimin as-soniy» («Birinchi muallim», birinchi ustoz Aristotel bo`lgan) degan faxriy nom olgan edi. Bu uning ilmi va xizmatlariga berilgan yuksak bahodir [5]. Forobiy asarlari Sharq va G‘arb olimlarini haligacha bilim doirasining kengligi bilan hayratga solib kelmoqda. U fanning turli sohalari bo`yicha 160 dan ortiq asar yozgan, lekin ko`plari bizgacha yetib kelmagan. Uning «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv yo`llari haqida risola», «Davlat arbobining hikmatlari» kabi asarlarida O`rta Sharqda birinchi bo`lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida ta‘limot yaratgan. Bu ta‘limotda ijtimoiyhayotning ko`p masalalari – davlatga birlashish xususiyatlari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o`rni va burchi, umumiy baxt-saodatga erishish yo`llari, ta`limtarbiya, axloq, ma`rifat, diniy e`tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalar qamrab olingan. Ular orasida olimning “Fozil odamlar shahri” kitobi o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lib, unda kishilarning o’zaro birlashuvga ehtiyoji borligi ya’ni jamiyatga birlashuvi, davlatning tuzilishi va undagi qismlarning o’ziga xos ahamiyati, shahar-davlat rahbarining qanday fazilatlarga ega bo’lishi kerakligi asoslab ko’rsatiladi. Olim shu narsani ta’kidlaydiki: insonlar o’z fe’l-atvori, tabiatiga ko’ra, o’z ehtiyojlarini qondirishi, kamol topib, rivojlanishi uchun ko’plab narsalarga zarurat sezishadi. Aynan shunday ehtiyojlar

kishilarning o’zaro birlashuviga turtki bo’ladi. Chunki insonlar o’ziga kerak bo’lgan barcha narsani yolg’iz o’zi qilolmaydi va o’z ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil sohadagi odamlar xizmatiga muhtojlik sezadi. Bunday manfaatlar birlashuvi, kishilarning o’zaro jamoaga ya’ni jamiyatga birlashuviga sabab bo’ladi. Bu jamoada insonlar o’z tabiati, qobiliyatlariga qarab, turli kasblarni egallaydilar va o’z kasblarida rivojlanib kamol topishga harakat qiladilar. Shu sababli turli din, turli millatga mansub, turli hududlarda yashovchi insonlar turli jamiyatlarga birlashib, o’zaro hamkorlikda harakat qilishadi. Asarda ne’matlar erkin istak(iroda) va erkin tanlov bilan qabul qilinishi ta’kidlanadi. Shunday ekan, yomonliklar ham insonlarning erkin tanlovi va xohish-irodasi bilan sodir etiladi. Agarda istak, niyatlar yaxshi bo’lsa, shahar aholisi ma’naviy kamolotga yetib, baxt-saodatga erisha oladi. “Haqiqiy baxt-saodatga yetishuv yo’lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go’zal ish, amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar – fozil odamlar shahridir. Inson barcha a’zolari solim, butun, mukammal ishlab turganida sog’lom bo’lganiday, barcha aholisi go’zal, yaxshi xulqli, yaxshi ishlar bilan bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir [2]. Ya’ni asarda inson ta’na a’zolariga qiyoslanishni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, badan a’zolari o’z vazifasiga ko’ra bir-biridan farqlanadi va barcha a’zolar qalbga, yurakga bog’lanadi. Yurakga vositasiz bog’langan a’zolar, vositali bog’langan a’zolarga nisbatan ancha baland mavqega ega. Shunga qaramasdan, bu a’zolarni barchasining katta va kichik vazifalari bor. Aynan kichik a’zolar ham o’z vazifasini yaxshi bajarolmasa, inson sog’lig’iga yetarlicha ziyon yetishi mumkin. Davlat boshqaruvi ham shunga monand bo’lib, davlat rahbari yurak kabi asosiy vazifani bajarishi, undan keyingi lavozimlar ikkinchi darajali bo’laklar bo’lib, ular ham vazifasi va qobiliyatiga qarab, kattakichik qismlarga bo’linadi va har bir qism o’z vazifasi uchun javobgar hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy o’z asarida “Fozil odamlar shahri” hukmdorining fazilatlarini ham bayon etadi. Bunday shaxslar go’zal xulq, fazilatlar va qobiliyatlarga ega bo’lib, ular o’z faoliyatida Tangrining buyurganlarini, oliy maqsadni ko’zlaydilar va bu jarayonlarda ul zotdan quvvat oladilar. “Fozil odamlar shahrining rahbari ham ana shunday, Xudo taolo siylab, nazar qilgan barkamol insonlardir. Shahar-davlatning boshqa a’zolari ham rais, rahbar oldiga qo’ygan maqsadiga yetsh uchun harakat qiladilar. Rahbar bo’lishning avvalgi ikki sharti: 1. Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma’naviy va aqliy yetuklik) bo’lishi zarur. Bunday odam yuqori mavqeyi, insoniy fazilatlari, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo’lishi zarur. Rahbarlik sohasida tajriba orttirish ham muhim” [3]. Bunday insonlar moddiylikka bog’lanmagan, ruhiy va ma’naviy olami yuksak, barkamol shaxslar hisoblanadi. Uning ruhi faol aql bilan bog’langanligi tufayli u barcha insonlarni baxt-saodatga yetaklishini olim ta’kidlaydi va bunday odam aqliy, ma’naviy va jismoniy jihatdan ham sog’lom ekanligini keltirib o’tadi. “Fozil odamlar shahri’ hukmdori aynan shunday fazilatlarga ega ekanligi, bundan tashqari yana o’n ikkita xislatni ham o’zida aks ettirishi lozimligi aytiladi. O’sha xislatlardan biri, hukmdor tabiatan adolatparvar bo’lib, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlamganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o’zi suygan go’zalliklarni ravo ko’ruvchi shaxs bo’lishi zarurdir. “Fozillar jamiyatining adolatli bo’lishi va tabaqalar o’rtasida tafovutlarning saqlanishida adolat huquqiy kategoriya vazifasini bajaradi. Ana

shu jihatlardan yondashganda Farobiyning adolat g’oyasiga nisbatan ishlatgan ta’rifi Platon talqinlariga yaqindir” [4].

Xulosa. Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” kitobida ideal davlat andozasi va fuqarolik jamiyati tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, o’rta asrlar siyosiy ta’limotlarining yanada rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu qarashlar yangi davr siyosy nazariyalari shakllanishiga ham turtki bo’ldi. “Olim shahar-davlat birlashmasining hayoti va o’ziga xosligi, davlatning funksiyalari, va uni boshqarish shakllari, davlat birlashmasiining vazifasi va pirovard maqsadi, yalpi birlashuvga erishishning yo’llari va usullari kabi masalalarni ko’rib chiqadi [5]. Bundan tashqari haqiqiy lider shaxs qanday bo’lishi kerakligi haqida aniq-ravshan ma’lumotlarni keltirdi.

Fozil shahar, undagi umumiy madaniy ravnaq munosabati bilan Forobiy axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e‘tibor berdi. Xulq-odob masalalarini Forobiy insonning intellektual sifatlari – «aqlliligi», «donoligi» bilan uzviy bog‘liq holda olib tekshirdi. Shuning uchun u qayd qilgan va tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o`zaro munosabatlarida mavjud bo`lgan xulq normalarining ifodasigina emas, balki kishilarning o`z hayotlari davomida olib borgan aqliy faoliyatining natijasi sifatida talqin etadi. Forobiy fozil shaharning fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo`llarini ko`rsatuvchi va komil inson g‘oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir. Uning g‘oyalari O`zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishda yetakchi bo`lib kelayotgan shahar, tuman va viloyatlarning hokimlari hamda boshqa rahbarlar uchun ibrat maktabidir. Bu ko’rsatmalar asrlar osha siyosiy shaxslar uchun dasturiamal bo’lib kelmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy-madaniy merosda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o`ziga xos yo`lini belgilashda o`z ahamiyatini yo`qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlol mafkurasini rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm - fan, ijtimoiy-siyosiy, ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlarni o`zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Zero, «o`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr / Mual. A. Muhammadjonov. – T.: <>, 2017. – 94 b

2. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Farobiy / Tarjimonlar A.Irisov, M.Mahmudov, U.Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi 2022. – 239 b

3. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Farobiy / Tarjimonlar A.Irisov, M.Mahmudov, U.Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi 2022. – 243 b

4. Siyosatshunoslik: oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma / M.Qirg’izboyev; Andijon davlat universiteti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 42 b

5. Biturayev O’. B. Siyosatshunoslikka kirish (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. – 52 b

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILAR TABIAT HAQIDAGI BILIMLARNI STEAM O’QITISH TIZIMI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Tohirova Mohichehra
University of economics and pedagogy **o**’qituvchisi
Rasulova Mushtariy
University of economics and pedagogy talabasi

“Zamonaviy bilimlarni o`zlashtirish, chinakam ma`rifat va yuqori madaniyat egasi bo`lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak ”.

Shavkat Mirziyoyev.

So`nggi yillarda ta`lim tizimida innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar va zamonaviy texnalogiyalarni o`quv jarayoniga joriy etish alohida e`tibor markazida turibdi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi F-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasi` Prezidentining Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ” da hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida STEAM ta`limini joriy qilish yuzasidan alohida vazifalar belgilangan. Xususan boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiat hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, bugungi kun talabiga aylandi.

STEAM ta`limini asosiy maqsadi ijodiy fikrlashni rivojlantirish real muammolarni hal qilish muhandislik yondashuvidan foydalanish ko`nikmalarini rivojlantirish va ularni hal qilishda texnologiyaning rolini bilishdir. Bundan tashqari, ekspertlar STEAM ta`limini sifatli kadrlar tayyorlashning universal modeli sifatida ko`rish mumkinligini ta`kidlamoqda. Bu yondashuv orqali: o`quvchilar bilimni amaliy faoliyat orqali egallaydilar; fanlararo aloqadorlikni anglaydilar; ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar; hayotiy muammolarga yechim topishga o`rganadilar

Shu nuqtai nazardan STEAM o‘qitish tizimi (Science – ilm, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika) boshlang‘ich ta’limning barcha yo‘nalishlari, ayniqsa tabiatshunoslik fanida keng imkoniyatlar yaratadi.

STEAM yondashuvi o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi, ijodkor, izlanishga qiziqadigan shaxs sifatida shakllantiradi. Tabiiy fanlarga doir mavzularni real hayotiy vazifalar, kichik loyihalar, tajribalar va modellashtirish orqali o‘rganish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiat haqida bilim berishning ahamiyati. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiat hodisalarini sezgirlik bilan qabul qiladigan, kuzatish orqali dunyoni o‘rganadigan yosh guruhidir. Aynan shu davrda:

- ekologik ong,
- tabiatni asrash madaniyati,
- ilmiy fikrlash,
- sabab–oqibat ketma-ketligini tushunish

kabi sifatlarning shakllanishi muhim sanaladi.

An’anaviy o‘qitish usullarida o‘quvchi ko‘proq tayyor bilimlarni qabul qiladi. Biroq STEAM yondashuvi bu jarayonni faollashtiradi: o‘quvchi kuzatadi, solishtiradi, tajriba o‘tkazadi, kichik model yaratadi, ijod qiladi va xulosaga keladi. Bu esa bilimning mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi.

STEAM tizimining tabiatshunoslik ta’limidagi o‘rni

“Science” – ilmiy tadqiqot asosida o‘rganish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatdagi sodda hodisalarni amaliy tarzda o‘rganishi mumkin:

- suvning bug‘lanishi,
- aralashmalarni ajratish,
- o‘simliklarning o‘sish jarayoni,
- yorug‘lik va issiqlikning ta’siri.

Bu jarayonlarda o‘quvchilarga “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Agar shunday bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollar beriladi. Bu ilmiy fikrlashni shakllantiradi.

“Technology” – texnologiyalarni qo‘llash

O‘quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun:

- planshet orqali tabiat haqidagi videolarni ko‘rish,
- onlayn tajribalarni kuzatish,
- oddiy simulyatsiyalardan foydalanish,
- elektron mikroskop yoki kamera bilan kuzatish kabi mashg‘ulotlar amalga oshiriladi.

“Engineering” – muammoni yechish va konstruksiya

Tabiatshunoslikda muhandislik elementlari juda samarali:

- shamol yo‘nalishini aniqlovchi sodda moslama yasash,
- o‘simliklar uchun mini-issiqxona qurish,
- suvni tozalashning sodda modelini yaratish.

Bu jarayon o‘quvchilarda “o‘ylash–sinab ko‘rish–baholash–takomillashtirish” bosqichlarini shakllantiradi.

“Art” – ijod orqali tabiatni anglash

San’at STEAM yondashuvining muhim bo‘lagi. O‘quvchilar tabiatni:

- rasm chizish,
- kollaj,
- natural materiallardan maket yasash,
- ranglar uyg‘unligini kuzatish

orqali chuqur his qiladi. Bu jarayon ekologik ongni rivojlantiradi.

“Mathematics” – o‘lchash, hisoblash, solishtirish

Tabiatshunoslikda matematik amallar tabiiy bog‘langan:

- barg uzunligini o‘lchash,
- o‘simlikning o‘sish sur’atini haftalik qayd qilish,
- yog‘ingarchilik kunlarini sanash,
- grafik chizish.

Bu o‘quvchilarda analitik fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

STEAM asosidagi dars namunasi (misol)

Mavzu: O‘simliklarning o‘sishi uchun zarur sharoitlar

Bosqichlar:

Science (Tadqiqot)

O‘qituvchi savol beradi:

“Nima uchun ba’zi o‘simliklar tez, boshqalari sekin o‘sadi?”

O‘quvchilar taxminlar bildiradi.

Technology (Texnologiya)

Planshetda 2 daqiqalik “O‘simliklarning o‘sishi” animatsiyasi ko‘riladi.

Engineering (Konstruktorlik)

O‘quvchilar ikki xil sharoitda (yorug‘likda va qorong‘ida) o‘simlik yetishtirish uchun sodda mini-issiqxona tayyorlaydi.

Art (Ijod)

O‘quvchilar ishtirokidagi tajribani rasmda tasvirlaydi yoki o‘simliklarning “hayot sikli” kollajini yasaydi.

Mathematics (Hisob-kitob)

Har kunlik o‘sish uzunligi o‘lchanadi; oxirida jadval va grafik tuziladi.

O‘quvchilar tajriba orqali yorug‘likning o‘sishga ta’sirini o‘zlari isbotlaydi va mustahkam bilimga ega bo‘ladi.

STEAM yondashuvining afzalliklari

- o‘quvchida mustaqil izlanish ko‘nikmasi shakllanadi;
- nazariya amaliyot bilan bog‘lanadi;
- tabiatga bo‘lgan qiziqish ortadi;

Bu metodlar dasrni jonlantiradi, o`quvchilarda mustaqil izlanish va jamoaviy ishlash ko`nikmalarini shakillantiradi. STEAM asosidagi o`qitishda o`qituvchi bilim manbai emas, balki yo`naltiruvchi, motivator va hamkor rolini bajaradi. U quydagilarga ega bo`lishi zarur: fanlararo bog`liqlikni anglay olish; loyiha va tajribalar asosida dars tuza bilish; raqamli texnologiyalarni qo`llay olish; o`quvchilarni muammoli vaziyatlarda yechim topishga yo`naltirish; o`quv jarayonida ijodiy muhit yaratish. STEAM yondashuvini samaradorligi: o`quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarni 20-30 % ga chuqurlashtiradi; ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasini oshiradi; maktabga bo`lgan ijobiy munosabat va o`qishga motivatsiyasini kuchaytiradi; jamoaviy ishlash madaniyatini shakillantiradi. Shu bilan birga, bu tizim o`qituvchilarga dars jarayonini shunchaki bilim uzatish emas, balki tadqiqot va ijodiy faoliyat sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o`quvchi o`simliklarning o`sishi faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tajriba orqali o`zlashtiriladigan jarayon ekanligini anglaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirishda STEAM o‘qitish tizimi eng samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv o‘quvchini faollikka undaydi, atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantiradi, ilmiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ta’lim jarayoniga STEAM loyihalarini kiritish o‘quvchilarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O`zbekiston Respublikasi` Prezidentining Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to`g`risidagi» PF-5712-son Farmoni.Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

G`ulomova N. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining tabiatga oid bilimlarini rivojlantirish yo`llari. «Boshlang`ich ta`lim » jurnali 2024-yil.

Bybee R.W. The Case for STEAM Education. Challenges and Opportunities – NSTA Press 2019.

Mavlonova R. Yusupova D. «Ta`lim jarayonida STAEM loyihalarining o`rni – Pedagogik izlanishlar » jurnali, 2024-yil.

Bahromova M. Boshlang`ich ta`limda tajriba asosida o`qitish metodlari. – Toshkent. 2023-yil.

Ziyonet.uz sayt orqali.

MAMLAKATIMIZDA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

Raximov Azizbek Bekturdiyevich
UrDPI katta o‘qituvchisi

Kirish. Inson ma’naviy kamoloti har bir davrning dolzarb masalalaridan bo’lib kelgan. Ushbu masalaga yondashuvlar turli mintaqah va millatlar madaniyatida turlicha bo’lsada, insonning baxtli va farovon hayotining asosi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Xalqimiz o‘rtasida mutolaa madaniyatini shakllantirishni ko‘zda tutgan holda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” farmoyish berdilar. Ilm-fanga berilgan yuksak e’tibor yoshlarni yanada bilimli, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishiga imkon yaratdi. Shuningdek, ushbu farmonda “aholi, ayniqsa yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual tarbiyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, ijtimoiy so‘rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqarilgan badiiy, ma’rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (shu jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimining holatini”[1] takomillashtirish uchun yaratib beriladigan keng imkoniyatlar sabab eng sara badiiy adabiyot namunalarini, madaniyva tarixiy merosimizni chuqur o‘rganishga barcha imkoniyatlar eshigi ochildi. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat “Avlod tarbiyasi – millat tarbiyasi” deya ta'kidlagan edi. Zero, yosh avlod tarbiyasida, ularning komil inson bo'lib yetishuvida kitob mutolaasining o'rni alohida.

[1] Mirziyoyev Sh.M. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017. 13-yanvar.

Maqsad va uni asoslash. Prezidentimizning kitobxonlik saviyasini oshirish, kitob targ'ibotini namunali yo'lga qo'yishni ko'zda tutgan farmoyishi va ushbu farmoyish ijrosini ta'minlashga qaratilgan qarorlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2019-yilning fevral` oyida e'lon qilingan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusdan biri ham yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish, kitobsevarlikni targ'ib etishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorida “...xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda”,[1] deyilgan.

Albatta, bu kabi vazifalarni birgina qaror va buyruq orqali bajarish mushkul. Bunda, eng avvalo, yoshlar, ayniqsa, umumta'lim maktablari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ilm-fanga qiziqtirishning yangicha yo'llarini izlab topish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda Respublika “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazining “O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va hayotiy e'tiqodi” mavzusida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalarini misol keltirish mumkin. Masalan, 12-16 yoshli o'g'il-qizlar ishtirokida o'tkazgan so'rovnoma tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlarning 43,7 foizi o'quv adabiyotini o'qish bilan cheklanar ekan. Shuningdek har o'n ishtirokchidan birining tan olishicha, o'quv adabiyotidan boshqa kitob o'qimaydi. Qatnashchilarning yarmi (o'g'il bolalar) ko'pincha tengdoshlari bilan suhbat qurish, komp`yuter o'ynashni afzal biladi. Tadqiqot doirasida “Maktabingizni yaxshi ko'rasizmi?” degan savolga ularning 90,9 foizi ijobiy javob bergan. O'rta va yuqori sinf o'quvchilarining deyarli hammasi (97,7 foiz) hayotdagi maqsadi va kelajakdagi rejalarini belgilab olgan. Shuningdek ushbu tadqiqotda yoshlarni “Milliy g'oya” asosida komil inson qilib tarbiyalashda – buyuk ajdodlarimizning asarlarini chuqur o'rganiz zarur deb – 49,2 %, oila va tarbiyaviy ishlar sifatiga e'tibor berish kerak deb – 45,1 % respondentlar qayd etishgan.[2] Shundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda Vatanimizga sodiq va davlatimiz rivojida o'z hissasini qo'shadigan barkamol avlodni shakllantirishda ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan noyob asarlar bitilgan kitoblarni mutolaa qilish qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda hozirgi kunda aksariyat yoshlarimiz ilm va bilim olishni qadriyat sifatida e'zozlab, uning yechimini asosan kitob sahifalaridan topmoqdalar. Shunday ekan, biz ularga o'zlari xohlagan intellektual cho'qqi pillapoyasi hisoblangan kitoblarni taqdim

[1] Mirziyoev Sh.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida, PQ-3271-son, 2017y.13 sentyabr.

[2] Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Каюмов У.К. “Социология общественного мнения Узбекистана: теория, методы, практика” Т.: “Ижтимоий фикр”, 2010, 130 с.

etib, ularning kelajakda jamiyatimiz uchun kerakli mutaxassislar bo'lib yetishishlarida ko'maklashishimiz zarur.

Kitob tajribalar, bilimlar majmuasi. U oddiy kishilardan tortib, butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti, tajribalarini, yutuq va kamchiliklaridan tortib, insonning ruhiy olami, o'y-fikrlarini mujassamlashtirgan noyob xazina. “Kitob kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan eng buyuk ixtiro, bir avlodning o'zidan keyingi avlodlarga qoldiradigan bebaho madaniy merosi” degan fikrda ham kitobga berilgan ta'rifning to'g'ri ekanligini his etamiz. Kitob o'qish, u bilan so'zlasha bilish va ayni paytda kitobdan to'g'ri foydalana olish madaniyatini shakllantirish lozim. Kitob mutolaasi bilan shug'ullanayotganda saralab o'qish, mag'zini chaqish, kitobni o'z hayot faoliyatining mazmuniga bog'lay olish har bir kitobxon uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalambor, kitobxonlik san'at darajasiga ko'tarilgan ijodiy mehnatdir. “Kitobxonlik tor ma'noda kitob o'qishni bildirsa, keng ma'noda tanlab o'qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko'magida yuksala boradi”.[1]

Kitobxonlikning ijodiy hal qiluvchi jarayoni ijodkorlarning mahorat qirralari bilan bog'lanadi. Kitob va kitobxonlik rivojlangan davlatlarda fan sifatida taraqqiy etgan. Bizning yurtimizda ham bu borada ko'plab ishlarning amalga oshirilayotganligi, hatto davlat siyosati darajasida ko'tarilib, yosh avlodni kitob o'qishga rag'batlantirish asosida ular ma'naviy tafakkurini o'stirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda kitobxonlik tanlovlarining o'tkazilayotganligi, ko'plab iqtidorli yoshlarimiz jahon, mumtoz badiiyat namunalaridan bahramand bo'layotganligi kitobxonlikka qiziqish ortayotganligidan dalolatdir. Pedagog olim Safo Matchon iborasi bilan aytganda: “... kitobxonlik adabiyotshunoslik va ta'lim-tarbiyaning mushtarak va muhim sohasi sifatida, shubhasiz, chuqur izlanishlarni taqozo etadi.Uning rivojini adabiyotning taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy asar orqali amalga oshiriladigan yozuvchi-kitobxon muloqoti natijasi ham yozuvchi mahoratiga bog'liq”.[2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratish ta'kidlanadi, ajdodlar tafakkuri, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, an'analar, qadriyatlar bugungi kun ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligi qayd etiladi. Davlat rahbari tomonidan aytilgan “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz”.[3]

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Tadqiqotda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi metodlariga tayanildi.

---

[1] Safo Matchon. Kitob o'qishni bilasizmi? –Toshkent: O'qituvchi, 1993. 4-bet.

[2] Safo Matchon. O'sha asar. 20-bet.

[3] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi 2017 yil 12 yanvardagi PF-4789-son Farmoyishida ta'kidlanganidek, “...Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan “Ijod” jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p ming nusxada nashr etilmoqda. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim. Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyondalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan”ligi[1] alohida qayd etiladi.

Yakuniy qism. Yozma obidalarimiz, adabiy-manbalarimiz ko'p yillardan beri o'rganilib kelmoqda. Hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar mumtoz manbalarning yangi qirralarini kashf etmoqda, undagi ibratli fikrlarni, o'tmishda aytilgan bugunning gaplarini ilg'ab olishga yordam bermoqda. Yoshlar kelajakka olib boruvchi yo'lning ajdodlarimiz tafakkur ziyosi bilan yo'g'rilgan sarhadlardan o'tishini aslo unutmasliklari lozim. Ajdodlar merosini, o'tmishini, ma'naviyatini, milliy qadriyatini, o'zlikni qadrlamasdan, tarix haqidagi xotirani shakllantirmasdan turib, har tomonlama yetuk, barkamol mutaxassis kadr sifatida kamol topish mushkul. Ajdodlarimiz hozirda dolzarb mavzu hisoblangan kadrlar tayyorlash masalasida ham qimmatli fikrlar bildirishgan. Chunonchi Behbudiy: “Turkistonda muallim oz bo'lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddir... Endi ushbu mushkul hollarni nazari e'tiborga olub, Turkiston yoshlari muallim yetushturmoqning chorasini topmoqlari lozimdur”,[2] deb yozgan edi. Demak, kadrlar tayyorlash, soha mutaxassislarini yetishtirish o'zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotida belgilovchi omillardan bo'lib kelgan va mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarilgan dolzarb masaladir.

Adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14- bet.

Mirziyoev Sh.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida, PP-3271-son, 2017 y.13 sentyabr.

Mirziyoyev Sh.M. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017. 13-yanvar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi 2017

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi 2017 yil 12 yanvardagi PF-4789-son Farmoyishi.

[2] Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg'a murojaat. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 1997.153-b.

yil 12 yanvardagi PF-4789-son Farmoyishi.

Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg'a murojaat. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 1997.153-b.

Safo Matchon. Kitob o'qishni bilasizmi? –Toshkent: O'qituvchi, 1993. 4-bet.

Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Каюмов У.К. “Социология общественного мнения Узбекистана: теория, методы, практика” Т.: “Ижтимоий фикр”, 2010, 130 с.

О ДУХОВНОСТИ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Рахимова Ш.Ш.
студентка магистратуры Азиатского Международного Университета

Сегодня усиливаются процессы глобализации в мире, возрастают новые угрозы и риски для мира и стабильности. Всестороннее глубокое освещение сути и содержания сложных геополитических и идейно-идеологических процессов, происходящих в мире, проведение эффективной идеологической борьбы с терроризмом, религиозным экстремизмом, сепаратизмом, торговлей людьми, «массовой культурой», наркобизнесом и другими угрозами а также безразличное отношение к семейным ценностям и воспитанию молодежи. Основой развития и силой, делающей страну могучей, а нацию — великой, являются наука, образование и воспитание. Прежде чем вести разговор о высшей духовности надо определиться, что такое духовность. Духовность свойство психики человека, состоящие в преобладании нравственных и интеллектуальных интересов над материальными интересами. Духовно богатый человек характеризуется высокой культурой, готовностью к самоотдаче и саморазвитию. Его духовные потребности побуждают его размышлять о вечных ценностях бытия, смысли жизни. Именно наука и просвещение ведут человека к совершенству, придают ему уверенность. Ярким подтверждением данной мысли являются слова президента Шавката Мирзиёева в своих выступлениях подчеркивает: «Завтрашний день, благополучие планеты зависят от того, какими людьми вырастут наши дети. Наша ключевая задача — обеспечить условия для самореализации молодежи». [1]

В современный период Правительства Узбекистана уделяет значительные внимания к условиях преобразований. Общество сталкивается с кардинальными изменениями во всех сферах жизни — экономике, образовании, культуре и коммуникациях. Эти процессы оказывают как положительное, так и отрицательное влияние на формирование духовных и моральных ценностей. Для достижения целей духовного образования и воспитания необходимо наращивать научный потенциал. Потому что «односторонний технократический подход к развитию науки ведет к краху человеческой личности, моральной деградации общества» [2]. В прогрессивных обществах роль науки постоянно растёт, что должно видеть молодое поколение нашей страны. Если мышление молодёжь

широкое и свободное, такими станут образованными и духовно совершенными личностями и естественным образом происходит рост и развитие страны.

«Будущее не приходит само по себе. Оно создано сегодняшним кропотливым трудом. То, что мы создали сегодня, тоже принадлежит будущему. Если мы сегодня что-то в спешке забудем, то этого лишатся будущие поколения» [3].Чрезмерное использование социальных платформ часто снижает уровень критического мышления и реального общения, формируя поверхностные взгляды на жизнь. Влияние массовой культуры, особенно через социальные сети, может приводить к ослаблению традиций, родного языка и духовных корней. Нужно выработка и реализация комплексной программы действий по обеспечению информационной безопасности несовершеннолетних, защите их от негативного воздействия угроз.

В этом процессе важно своевременно уделять серьезное внимание вопросу образования, и в этой связи необходимо помнить мудрое изречение нашего Президента Мирзиёев во время обращения к Олий Мажлису, [4] заявил, что «необходимо воспитать кадры новой формации, выступающие инициаторами реформ, обладающие стратегическим видением, глубокими знаниями и высокой квалификацией». С этой целью были созданы Агентство по делам молодежи и Межведомственный совет по делам молодежи. Молодежные парламенты также созданы в Олий Мажлисе и Молодежная академия при Министерстве инновационного развития.

Благодаря интернету, международным программам и открытым образовательным платформам молодёжь имеет доступ к мировым знаниям, научным достижениям и культурному наследию разных народов. Чтобы сохранить нравственные ориентиры и национальную идентичность, важно сочетать открытость миру с бережным отношением к культурному наследию. усиление роли семьи, школы и общества в формировании духовных ценностей и расширение молодежных культурных и образовательных программ, направленных на патриотическое и нравственное воспитание.

Реформы дают формированию как нравственного, эстетического, политического, правового, художественного воспитания и определение идеологического иммунитета молодежь в борьбе с религиозным экстремизмом, терроризмом, наркоманией и организованной преступностью, а также повышает интерес молодежи к музыке, живописи, литературе, театру и другим видам искусств. Физическое воспитание молодежи создание для нее необходимых условий для проявления своих способностей в области спорта.

В нашей стране привнесло новой социальной ситуацией – такие ценности, как деловитость, инициатива, предприимчивость, стремление к инновациям, возможность реализовать творческий потенциал. Молодые люди становятся более информированными, активными в социальных проектах, волонтёрстве и движениях, направленных на защиту прав человека и устойчивое развитие.

Список использованной литературы:

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев 19 сентября 2017 года выступил на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН.

2. Бекмуродов, М. Творческая сила / М. Бекмуродов, М. Куронов Текст: непосредственный // Тафаккур. 2003. № 3. С. 17

3.Очилова, Н. Р. Структура образа жизни молодежи Узбекистана на современном этапе развития / Н. Р. Очилова, М. М. Мамасалиев. Текст: электронный // Молодой ученый. 2016. № 5 (109). С. 587–588. URL: https:// moluch.ru/archive/109/26479/.

4. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, Uza.uz, 25 января 2020 г.

YOSHLAR ONGIDA MA’NAVIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY HAYOT TALABLARI O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
MG‘MAHT kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda ma’naviy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat kabi qadriyatlar asrlar davomida xalqimizning hayot mezoni bo‘lib kelgan. Biroq XXI asrning zamonaviy talablari, tezkor axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi va g‘arb madaniyatining ta’siri yoshlar ongiga yangi dunyoqarash va turmush tarzini singdirmoqda. Ana shunday vaziyatda milliy-ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy hayot talablari o‘rtasida qanday muvozanat saqlanishi kerak? Bu savol bugungi ijtimoiy-tarbiyaviy hayotimizdagi eng dolzarb muammolardan biridir. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”[1].Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, dunyoqarashlar xilma-xilligi, va hayot tarzidagi tezkor o‘zgarishlar yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi omillarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, asrlar davomida xalqimiz tomonidan asrab-avaylab kelinayotgan **milliy va ma’naviy qadriyatlar** bugun yangi sinovlar qarshisida turibdi. Ma’lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni[2] tashkil etgan edi.Yoshlar bir vaqtning o‘zida ikki bosim ostida qolmoqda: biri – **global zamonaviylik talablari**, ikkinchisi – **milliy qadriyatlarni asrab qolish majburiyati**. Ular o‘rtasida muvozanat saqlash masalasi esa ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy sog‘lomlik va shaxsiy kamolot uchun asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2019.

[2] Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. –B. 5.

Muhokama. Ma’naviy qadriyatlar - bu jamiyatning axloqiy negizini belgilovchi mezonlar majmuasidir. Ular orasida halollik, hurmat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar mavjud. Bu qadriyatlar yosh shaxs ongini to‘g‘ri shakllantiradi, uni o‘zlikni anglashga undaydi. Aynan yoshlikda shakllanadigan qadriyatlar butun hayot davomida shaxsiy qarorlar va ijtimoiy xatti-harakatlarga ta’sir etadi.

Zamonaviylik - bu tezlik, raqobatbardoshlik, erkinlik va texnologik ilg‘orlik bilan bog‘liq hayot tarzidir. Yoshlar, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali g‘arbcha hayot uslubini ideal sifatida qabul qilishga moyil bo‘lib qolmoqda. Zamonaviylik va qadriyatlar bir-biriga zid tushunchalar emas. Aslida, ular o‘zaro uyg‘unlashishi mumkin. Masalan, texnologiyalardan foydalanish orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish yoki zamonaviy kasb-hunar egallash orqali vatanparvarlikni amalda namoyon etish mumkin. Muammolar esa bu ikki yo‘nalishning **qarama-qarshi qo‘yilishi** oqibatida yuzaga keladi.

Bugungi yoshlar qanday bo‘lishi kerak? Bu savol har bir ota-onaning, ustozning, siyosatchining, hatto har bir ziyolining qalbidan o‘tadi. Chunki yoshlar - bu kelajakning egalari, ammo ayni paytda ular bugunning mahsuli. Bugun qanday tarbiyalaymiz - ertaga shunday jamiyat quramiz. Zamonaviy dunyo hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Telefonlar, internet, sun’iy intellekt, global madaniyat... Yoshlar endi dunyo bilan bir zumda bog‘lana oladi, biroq bu tezkorlik ko‘p hollarda **ma’naviy chuqurlikni qurbon qiladi**. Har bir “trend” ortida ko‘rinmas mafkura yotganini ular har doim ham payqamaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etilayotgan “go‘zal hayot” ko‘rinishlari, individual erkinlik shiorlari, “boshqacha yashash” istagi yosh ongini egallay boshlaydi. Shu bilan birga, azaldan xalqimiz hayotida muqaddas bo‘lgan qadriyatlar bor: ota-onaga hurmat, kattalarga itoat, el-yurtga sadoqat, halollik, sabr-toqat... Bu qadriyatlar bizni bir millat sifatida birlashtirib turgan, inqirozlarda saqlab qolgan kuchlar edi. Bugun esa ular ba’zida zamonaviy hayot “yukini” ko‘tara olmayotgandek tuyuladi. Ammo chin ma’nodagi muammo - **zidlikda emas, balki muvozanatsizlikda**. Ma’naviyatni o‘tmishga, zamonaviylikni esa g‘arbga xos tushuncha deb qabul qilish xato. Aslida, ikkalasi bir-birini to‘ldirishi mumkin. Yosh avlod zamonaviy texnologiyalarni bilgan, xorijiy tillarda erkin so‘zlasha oladigan, shu bilan birga, milliy qadriyatlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Bunday yosh - nafaqat raqobatbardosh, balki o‘zligini yo‘qotmaydigan, mustahkam irodali shaxsdir. Shu sababdan, muvozanat - bu chiziq emas, bu **ichki hissiyot**, bu **tarbiya**, bu **anglash**. Yoshlar ongida bu muvozanatni yaratish uchun birinchi navbatda ota-ona mehriga, ustoz donoligiga, jamiyat ishonchiga ehtiyoj bor. Biz ularni tanbeh bilan emas, ishonch bilan yo‘naltirishimiz zarur. Sababini tushuntirish, fikrlashga undash, qadriyatni o‘rgatish - mana, haqiqiy yo‘l. Axir, texnologiyalar yangilanadi, urf-odatlar o‘zgaradi, lekin **yurtga sadoqat, halollik, insoniylik** kabi qadriyatlar har doim dolzarb bo‘lib qoladi. Biz yoshlarimizga mana shularni ichki kompas sifatida berishimiz kerak. Qolgan yo‘lni ular o‘zlari topa oladi.

Natijalar. “Independence Generation” deb nomlangan 1991–2016 yillarda tug‘ilgan yoshlar orasida olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, ular uchun eng asosiy qadriyatlar: **sog‘liq, sevgi, oilaviy baxt, mashaqqatli emas, balki qiziqarli va yaxshi ish**, shuningdek, **do‘stlik va o‘zlariga ishonch** hisoblanadi. Bu ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkin: yoshlar uchun ma’naviyat - nafaqat diniy yoki milliylashtirilgan tushuncha, balki

kundalik hayot bilan bog‘liq chuqur qiymatlar tizimi. Ijtimoiy o‘rganishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, yoshlarning 91,4 % dan ortig‘i oilaviy hayotdan mamnunligini bildirgan. Shuningdek, ishtirokchilarning 86,9 % kelajakdan umidvor ekanini aytgan. Bu ko‘rsatkichlar ijobiy psixologik barqarorlik va ma’naviy xavfsizlik hissi yo‘qligini emas, balki mavjud qadriyatlar asosida qurilgan ong sofligini burchagida turishini isbotlaydi. Namangan davlat universiteti olimlaridan Shavkat G‘ulomov 2025- yilda e’lon qilgan maqolada raqamli texnologiyalar yoshlarning **axloqiy ongi va ruhiy rivojlanishini** ham shakllantirishi mumkinligini qayd etadi. Maqola muallifiga ko‘ra, **onlayn jamiyatlar, axborot madaniyati** va **ta’lim dasturlari** yordamida yoshlarda tanqidiy fikrlash va etika rivojlanadi. Agar bir tomondan axborot qulayligi mavjud bo‘lsa, boshqa tomondan ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 13–18 yoshlar oralig‘idagi o‘quvchilar orasida Welch Davlatikti chiqarilgan monitoring natijalariga ko‘ra, 15,4 % kuchli xavotir (anxiety), 9,8 % esa depressiya simptomlariga ega. Bu esa ma’naviy boylik emas, balki ruhiy bo‘shliqqa olib kelishi mumkin[1]. Qozog‘iston misoli (Buribayev, 2025) yoshlar orasida global qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatli harakat kuzatilishini isbotlaydi: ular bir tomondan zamonaviy bilim va ochiqlikni qadrlaydi, boshqa tomondan esa o‘z milliy o‘tmishiga sodiq qolmoqda.[2]

Bugun axborot ocharchiligi davri. Endi o‘quvchilar, talabalar, hatto biznes startapchilari ham fantaziya bilan bugungi kundalikni aralashtirib, “go‘zal hayot” ni ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etishmoqda. Biroq ilmlar ko‘rsatmoqda: **ma’naviy qadriyatlar yetishmasa**, ekstremizmga, depressiyaga, boshqarilmaydigan ichki bo‘shliqqa yo‘l ochiladi. Ammo hammaning ham aksincha, ham ijodkorlikka intiladigan algoritmlar bilan jamiyatni boyitish ehtiyoji mavjud - G‘ulomov ham aytganidek, **raqamli texnologiyalar ortida axloq va ruhiy tafakkur vujudga kelishi mumkin.** Yana bir tomondan, yoshlarning 91,4 % o‘z oilasi hayotidan mamnun bo‘lsa, demak, oilaviy qadriyatlar tizimi hanuzgacha markaziy o‘rinni himoya qilmoqda. Bu - ma’naviy immunitetning asosiy poydevori. Ammo stress va axloqiy mo‘rtlik xavfli: Yoshlar orasida **16,7 % maktabda yolg‘izlik**, **8,7 % hech qayerda o‘zini hammasi bilan qabul qilinmayapti**, **9,8 % depressiya**, **15,4 % og‘ir stress** holatlariga duch kelmoqda. Bu faqat ijtimoiy tashvish emas, balki millatning ruhiy sog‘lomligi uchun signal hisoblanadi.

Xulosa. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan zamonaviy hayotning talablarini uyg‘unlashtirish dolzarb va murakkab muammo sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o‘ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o‘ldirishga yoki zarar yetkazishga yo‘l qo‘ymaydi ”[3]- deya o‘z munosabatlarini bildirganlar.Zamonaviy texnologiyalar va global madaniyat sharoitida yosh avlod o‘zligini yo‘qotmasdan, ma’naviy poydevorini mustahkamlab, yangi zamon talablari bilan hamnafas bo‘lishi zarur. Tadqiqotlar ko‘rsatganidek, oilaviy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya va tanqidiy fikrlash yoshlarning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga

[1] https://journalsnuu.uz/index

[2] https://www.frontiersin.org/journals/sociology/articles/10.3389/fsoc.2025.1563274/full?utm

[3] Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2019.

ega. Shuningdek, zamonaviy axborot maydonida yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun davlat siyosati, ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlar hamkorligida samarali dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Chunki ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy hayot talablari o‘rtasidagi muvozanat nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning barqarorligi va rivoji uchun asosiy shartdir. Yoshlarni ma’naviy jihatdan boyitib, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish orqali biz kelajak avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar va ijtimoiy mas’uliyatli insonlar qilib tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2019.

2. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2019.

4. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.

5.https://journalsnuu.uz/index

6.https://www.frontiersin.org/journals/sociology/articles/10.3389/fsoc.2025.1563274/full?utm

OMMAVIY MADANIYAT FILTR VAZIFASINI BAJARISHINING SOTSIOLOGIK AHAMIYATI

Raxmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Yangi texnologiyalar, raqamli madaniyat va global ommaviy madaniyatning yoshlar xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganish istiqboli mavjud. Mamalakatimiz hududida yoshlarning milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglash tushunchalaridan og‘ituvchi xususiyatga ega bo‘lgan “zamonaviy xurujlar” ta’siridan himoya qilish ushbu mavzuning jiddiy ahamiyat kasb etishini anglatadi. Inson dastlab o‘zidagi biologik ehtiyojlarni qondirish uchun turli xil moddiy boyliklarni: oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlarini ishlab chiqaradi. Bu iste’mol vositalarini ishlab chiqarish jarayonida zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari (mehnat predmeti va mehnat vositalari)ni yaratadi. Albatta, moddiy boyliklar insonning muayyan qobiliyat, tajriba, ko’nikma va malakalarisiz vujudga kelmaydi. Demak, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo’lgan barcha elementlar: mehnat vositalari, ishlab chiqarish qurollari, insoniy qobiliyat, malaka, ko‘nikma va tajriba, shuningdek, iste’mol vositalari ham moddiy madaniyatning asosiy elementlarini tashkil etadi.

Shuningdek, madaniyat tushunchasining shakllanishi, zamonaviy ko‘rinishi globallashuv degan tushuncha bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, millatning madaniy rivojlanishi bu obyektiv jarayondir. Bu jarayon

jamiyatdagi ijtimoiy holatlardan ayro holatda emas, aynan bu jarayonlar bilan bir vaqtda shakllanib boradi. Madaniyatning taraqqiy topishiga ta’sir etadigan katta bir jarayon bu globallashuv jarayonidir. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodiyoti va ma’naviyatini tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan baravar bo‘ladi.

Globallashuv – fransuzcha Global – umumiy degan so‘zdan olingan bo‘lib, bu atama ilk bor 1983-yilda amerikalik olim T.Levitt tomonidan “Garvard biznes’s plans” jurnalida Transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni sifatida tilga olingan.[1] Bu tushunchani o’sha vaqtda sotsiologlar madaniyatning universallashuvi ta’sirida turli mamlakat va mintaqa xalqlari turmush tarzini bir xillashuvi sifatida izohlaganlar. Umumiy qilib aytganda, globallashuv davri – iqtisodiy-texnik taraqqiyot, boshqaruv tizimi, siyosiy-huquqiy qadriyatlar, turmush tarzining barcha jabhalarini qamrab oluvchi texnik jarayonlarning o‘zinigina emas, balki turli sotsial guruhlar ta’sirida shakllangan axloqiy-me’yoriy xatti-harakatlarning ham paydo bo‘lishi va transformatsiyalashuvidir.

Globallashuv jarayonlari ommaviy madaniyatni jadallashtirmoqda. “Ommaviy madaniyat” ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida o‘zida yakdil uchta tushunchani qamrab oladi. Ya’ni, birinchidan, “madaniyat” – alohida xarakterdagi tushuncha. Ikkinchidan, “ommaviylik” – mahsulotni tarqatish me’yori. Uchinchidan, “madaniyat” – ma’naviy boylik. Shuning uchun ommaviy madaniyatning namoyon bo‘lish holatlarini va uning oqibatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Faylasuf A.Fliyer taklifiga binoan “ommaviy madaniyat” yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:[2]

“Yoshlar submadaniyati” industriyasi;

Ommaviy ijtimoiy mifologiya (odamga murakkab qadriyatlar yo‘nalishi tizimini joylashtirish; dunyoni ko‘p qirrali tushunishni oddiylashtirish);

Ommaviy dam olishning tashkiliy turlarini, turli shoularni, qiziqish va dam olishni sanoat asosiga ko‘chirish;

Sog‘lomlashtirishga qaratilgan dam olish indusrtiyasi;

Ehtiyojlarni qondirishni boshqarish va individual, shuningdek, jamoa foydalanadigan xizmatlar, takliflarni rag‘batlantirish tizimini tashkil etish (reklama, imidjmeykerlik va hakazo);

Har xil o‘yinlar, mexanik o‘yinladan tortib, elektron kompyuter va boshqa vositalardan foydalanish.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida ma’naviy ehtiyojlarini ham qondirishga harakat qiladi. Insonning ijtimoiy mavjudotligi ijtimoiy ongining turli shakllari; ilmiy, badiiy,

[1] Falsafa, qomusiy lug‘at. - Toshkent. 2004. –B. 95.

[2] G’aybullayev O.M. Estetik madaniyat. - Toshkent. Navro’z nashriyoti – 2020. 146-bet.

huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa qarashlari bilan bevosita bog‘liqdir. U o‘zining bu qarashlarini insoniyat tomonidan yaratilgan fan, san’at, huquq, axloq va diniy e’tiqod kabilar orqali ifodalaydi. Kishilar o‘zlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, obyektiv borliqni va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan barcha ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish jarayonida o‘z ma’naviy qiyofalarini ham o‘zgartirib boradilar. Boshqacha qilib aytganda, inson ma’naviy boyliklar yaratish jarayonida o‘z qiyofasini o‘zgartirib, ijodiy kuch va qobiliyatlarini rivojlantiradi, aqliy, axloqiy va badiiy-estetik jihatdan takomillashadi. Omma - bu olomon. Miqdoriy va vizual nuqtai nazardan olomon to‘plam, sotsiologiya nuqtai nazaridan esa to‘plam ommaviydir. Massa – o‘rtacha odam. Jamiyat hamisha ozchilik va ommaning harakatchan birligi bo‘lib kelgan. Ozchilik - bu alohida ajratilgan shaxslar yig‘indisi, ommaviy - hech qanday tarzda ajratilmagan. Xalq ommasining tarixda birinchi o‘ringa ko‘tarilishi sababini madaniyatning past sifatida, bu madaniyatga mansub kishining “boshqalardan farq qilmasligi va umumiy tipni takrorlashida” ko‘radi. Ommaviy va elita madaniyati tushunchalari zamonaviy jamiyat madaniyatining ikki turini belgilaydi, ular jamiyatda madaniyat mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq: uni ishlab chiqarish, ko‘paytirish va jamiyatda tarqatish usullari, madaniyatning ijtimoiy hayotdagi tutgan o‘rni, jamiyat tuzilishi, madaniyat va uning ijodkorlarining kundalik hayotga munosabati, odamlar hayoti va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolari. Elita madaniyati ommaviy madaniyatdan oldin paydo bo‘lgan, ammo zamonaviy jamiyatda ular birgalikda mavjud va murakkab o‘zaro doimiy ta’sirda ekanligi sababli ommaviy madaniyat atamasi kattaroq aurani o‘zida jamlaydi va bu elita madaniyatini ham o‘z-o‘zidan domiga tortib ketadi. Amerikalik sotsiolog D.Bell o‘zining “Массовая культура и современное общество” nomli asarida bayon qilishicha, ommaviy madaniyatning qanday bo‘lishi kerakligi omma soni yoki xarakteri bilan belgilanmay, balki shu omma a’zolarining aqliy qobiliyatiga, dunyoqarashiga, uning ongi nimani «hazm» (qabul) qila olishiga bog‘liq.[1] Ommaviy madaniyatning asosiy usuli bu tomoshabinlarning sodda ravishda beriluvchanlik his-tuyg‘ularidan foydalanishdan iborat, ya’ni chuqur mulohazalantirmaydigan asarlar orqali ularning his-tuyg‘ularini “qarmoqqa ilintirish”. Ommaviy madaniyat turi ilk bor XX asrda AQSHda industrial va postindustrial sivilizatsiyasining mahsuloti sifatida vujudga keldi. Ommaviy madaniyatning asosiy shakllariga: vestern, fantastika, erotika, pomografiya, ujas, mistika, melodrama va detektivni kiritish mumkin. Aynan mana shunday ommaviy madaniyatning turlari nafaqat AQSHdagi o‘sha davrda, balki Sharq madaniyatida ham o‘z trayektoriyasini qoldirayotgan edi.

Ommaviy madaniyatning tarqalishi ba’zan an’anaviy madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarni va odob-axloq normalarini zaiflashtiradi. Keng omma tomonidan qabul qilingan yangi shakllar va qoidalar, ba’zi jamoalar va madaniyatlar tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Ayniqsa, o‘z madaniyati va diniy qadriyatlarini hurmat qilgan jamiyatlar ommaviy madaniyatga qarshi chiqishi mumkin. Bu, masalan, kichik jamoalarda yoki konservativ oilalarda ko‘rinadi, chunki ular yosh avlodni yangi va g‘aroyib qadriyatlardan himoya qilishni maqsad qilishadi va buning uchun o‘zlari tomonidan o‘ylab topilgan yoki eski an’anaviy tamoyillardan foydalanishadi.

[1] [1] Е. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. М ировая культура. - Акад. Худ. Узб., 2001.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Shavkat Mirziyoyev “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” – 19.01.2021. Prezident Matbuot Xizmati.

Л.Морган. Древнее общество. Лондон.1934.

CHarlz Xorton Kuli (1864-1929) «Moya zerkalnaya teoriya».

SHitov S.B. Sotsializatsiya individa v protsesse distantsionnogo obucheniya Vestnik

A.I.Kravchenko. Kulturologiya. O’quv-uslubiy qo’llanma – Moskva, 2005.

Е. Ахмедова, Р. Габидулин. Культуралогия. М ировая культура. - Акад. Худ. Узб., 2001.

Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya. — T., 1999.

Entoni Giddens. Sotsiologiya. - T.: Sharq, 2002.

Yunusov K. Sotsiologiya. – Andijon. 2019

https://stat.uz/uz/component/search/

https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/

BUGUNGI YOSHLARLARNING MA’NAVIY QIYOFASI: GLOBAL OMILLAR TA’SIRIDA SHAKLLANISH JARAYONI

Risaliyeva Sarvinoz Bunyod qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Globallashuv jarayonlari chuqurlashgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy qiyofasi ko‘plab tashqi omillar ta’siri ostida shakllanmoqda. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlar hayot tarziga aylangani, turli xalqlar madaniyatining erkin kirib kelishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati va xulq-atvorida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Glaballashuv tobora jadallashgani sari turli mafkura va g‘oyalarning aralashuvi yuzaga kelmoqda. Bu esa g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkablashuviga sabab bo’lmoqda. Natijada esa, hozirgi davrda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib bormoqda. Darhaqiqat, ushbu holat nafaqat mahalliy, balki xalqaro munosabatlarda eng dolzarb mavzuga aylangan. G‘oyaviy qarama-qarshiliklar bilan bir vaqtda xalqlarning xavsizligi, barqarorlik va tinchlik masalalariga e’tibor kuchayib borishi, ma’naviy taraqqiyoti va rivojlanishi aynan shu muammolarning qay darajada yechilishiga bog’liqdir. Mana shunday vaziyatda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlashi va ularni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, hayotda o‘rnilarini tapish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish mintaqa davlatlari oldida turgan dolzarb masala bo‘lib , bu ishlarning amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish hozirgi zamon talabidir.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti, jadal rivojlanishi, keng qamrovli islohatlari, xalqning faravon bo‘lishi yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan hamda eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “2022–2026 yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi.Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha—yo‘l xaritasi‖da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda. To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish-adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning 70-maqsadi: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish deb nomlanib, unda:

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;

Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash;

Yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, ta‘limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash, hududlarda inklyuziv ta‘lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag ‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash;

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish kabi vazifalar qo‘yilgan[1].

Bugungi globallashuv jarayonlari yoshlarning ma’naviy qiyofasiga kuchli va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida yoshlar hayotiga kirib kelayotgan internet va ijtimoiy tarmoqlar ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Turli manbalarda qayd etilishicha, yoshlarning kunlik axborot iste'molining 60–70 foizi internet orqali shakllanadi[2]. Bu esa ularning ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ijobiy hamda salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Ijobiy jihatlardan biri — yoshlar global miqyosda mavjud bilimlar, fan-texnika yangiliklari, xalqaro tajribalar bilan tanishib, intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘layotganidir. Ammo, buning bilan birga, ommaviy madaniyatning to‘lqinlari, qisqa muddatli “trend”lar va chetdan kirib kelayotgan turli g‘oyalar yoshlar ongida beqarorlik, milliy o‘zlikdan uzoqlashish, axloqiy me’yorlarning zaiflashishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarning ma’naviy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning sog‘lom turmush tarzi, jismoniy sog‘ligi va psixologik mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liq. Agar yosh avlod sog‘lom bo‘lsa, u atrofdagi hodisalarga tanqidiy ko‘z bilan qaray oladi, zararli oqimlarga berilmaydi va o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Shu sababli ko‘plab tadqiqotlarda yoshlar uchun tibbiy savodxonlikni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va turmush madaniyatini rivojlantirish zarurligi qayd etiladi[3]. Bu omillar bevosita yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi.

Milliy qadriyatlar esa yoshlar uchun ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi. Oila, mahalla, ta’lim muassasalari tomonidan berilayotgan ma’naviy tarbiya, o‘zligini anglash, milliy urf-odatlar va tarixni bilish yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qiladigan mustahkam poydevorki rolini bajaradi. Agar shu tizim kuchli bo‘lsa, yoshlar internetdagi salbiy oqimlarga berilmaydi, balki dunyoqarashi keng, ammo o‘z milliy qiyofasiga sodiq bo‘lgan shaxs sifatida shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ma’naviy qiyofasi global omillar ta’sirida o‘zgarayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonda ijobiy yo‘nalishni ta’minlash oila, ta’lim, jamiyat va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Kompleks yondashuv mavjud bo‘lgan taqdirdagina yoshlar sog‘lom, ma’naviy barkamol, zararli oqimlarga qarshi immunitetga ega avlod sifatida voyaga yetadi.

Yoshlarning ma’naviy qiyofasini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, globallashuv sharoitida ular ongining shakllanishiga ta’sir etayotgan omillar bir vaqtning o‘zida ijobiy va salbiy xarakterga ega. Tahlillar davomida aniqlanishicha, internet va ijtimoiy tarmoqlarning cheklanmagan imkoniyatlari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, axborotning tartibsiz oqimi ma’naviy barqarorlikka xavf tug‘dirayotganini inkor qilib bo‘lmaydi. Pedagog olimi A. Qodirovning ta’kidlashicha, bugungi yosh avlodning ma’naviy immuniteti kuchli bo‘lsa, tashqi madaniy bosimlar va zararli axborot oqimlariga berilish darajasi keskin kamayadi. U bu jarayonda milliy tarbiya, oilaviy muhit va ta’lim tizimi bosh omil ekanini ilmiy asoslar bilan ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, o‘zbek pedagogikasining yetakchi tadqiqotchilaridan N. Toshpulatovning yondashuvi shuni tasdiqlaydiki, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi bilan chambarchas bog‘liq. Uning fikricha, tanqidiy fikrlay olgan yosh kishi ijtimoiy tarmoqlar yoki ommaviy madaniyat orqali tarqalayotgan zararli g‘oyalarning mohiyatini anglay oladi va ularga ongli munosabat bildiradi. Tadqiqot jarayonida Toshpulatov ilgari surgan nazariyaning amaliyotda o‘z tasdig‘ini topayotgani kuzatildi: maktab va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlarning kuchaytirilishi yoshlar ongida barqaror ma’naviy qadriyatlarning shakllanishiga yordam bermoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar siyosatiga oid nutqlari va tashabbuslari ham natijalarning muhim asosini tashkil qiladi. Davlat rahbarining “yoshlarning qalbi va ongini asrash – eng ustuvor vazifamiz” degan fikri mazkur masalaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Prezident ilgari surgan “ma’naviy mustahkamlik – har qanday tashqi ta’sirga chidamli jamiyat poydevoridir” degan g‘oya tahlillar davomida o‘z amaliy isbotini topdi: yoshlar bilan ishlash bo‘yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari, ularning ma’naviy kamolotiga qaratilgan yangi tizimlar real ijobiy samara bermoqda. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning huquqlari, ta’lim olish imkoniyati, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, bandlik va ijtimoiy himoya kabi sohalarda yaratilayotgan sharoitlar ularning ma’naviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy himoyasi kuchli bo‘lgan, sifatli ta’limga ega bo‘lgan, sog‘lom muhitda voyaga yetayotgan yoshlarning global salbiy oqimlarga berilish ehtimoli past bo‘lishi amaliy dalillar bilan tasdiqlandi[4].

Natijalar, shuningdek, milliy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va mahalla tizimi yoshlarni ma’naviy inqirozdan himoya qiluvchi eng barqaror poydevor ekanini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tahlillar yoshlarning ma’naviy qiyofasi globallashuv jarayonida murakkab omillar ta’sirida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va global axborot oqimi yosh avlodning dunyoqarashiga kuchli ta’sir qilayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek olimlari ta’kidlaganidek, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi mavjud bo‘lgan muhitda bu ta’sirlar barqaror ma’naviy immunitet orqali yumshatiladi. Shuningdek, davlat tomonidan yoshlarga yaratilayotgan ijtimoiy, ma’naviy va ta’limiy sharoitlar ularning ongida sog‘lom hayotiy pozitsiya shakllanishiga xizmat qilayotgani kuzatildi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning uyg‘un hamkorligi natijasida ma’naviy yetuk, global tahdidlarga qarshi tura oladigan yosh avlod tarbiyalanishi mumkinligi bu tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri bo‘ldi.

Amaliy tavsiyalar:

Ta’lim muassasalarida yoshlarning tanqidiy fikrlashi va ma’naviy immunitetini mustahkamlovchi dars va mashg‘ulotlarni kuchaytirish. Bu, o‘zbek olimlari ta’kidlaganidek, yoshlarni global axborot oqimida ongli yo‘l tutishga o‘rgatadi.

Oilada va mahalla tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish. Barqaror ma’naviy qiyofa, avvalo, oiladagi munosabatlar va ota-onalarning ma’rifiy yondashuviga bog‘liq.

Yoshlar orasida axborot savodxonligini oshirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu ularga zararli g‘oyalarni farqlash va sog‘lom dunyoqarashni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Каранг: —2022 —2026 иилларга мулжалланган Янги Узбекистоннинг тараккиет стратегияси тугрисида‖ги Узбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 иилдаги ПФ-60-сон.Lex.uz, 29.01.2022[1].

Karimov I.A. Yoshlar ma’naviyati va globallashuv jarayonlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021[2].

Rasulov M. Internet madaniyati va yoshlar ongidagi o‘zgarishlar. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yoshlar siyosati bo‘yicha davlat dasturi. – Toshkent, 2022[4].

Xoliyorov B. Ma’naviy barqarorlikning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. – Samarqand, 2019.

Globallashuv va yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash masalalari. B. N. Boboyorov f.f.b falsafa doktori (PhD), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nurafshon filiali, Toshkent, O'zbekiston boss.boboyorov@mail .ru Shohjahon Boboyorov Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi. https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-va-yoshlarning-ma-naviy-xavfsizligini-ta-minlash-masalalari

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT AXLOQINING SHAKLLANISHI: YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIR OMILLARI

Ro‘zimurodov O‘rolboy Madatovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

XXI asr texnologik inqiloblar davri bo‘lib, u insoniyat tarixida tub ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot, metavers, algoritmik boshqaruv, media-avtomatlashtirish kabi jarayonlar jamiyat rivojining yangi bosqichiga o‘tilayotganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlarning markazida esa sun’iy intellekt turadi. U nafaqat texnik tizim, balki ijtimoiy ong, axloqiy me’yorlar, madaniy kodlar hamda ma’naviy qadriyatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq hodisaga aylanmoqda. Bugungi kunda yoshlar hayoti sun’iy intellekt bilan faol tarzda tutashgan: ta’lim jarayoni, ijtimoiy tarmoqlar, axborot iste’moli, kommunikatsiya, mehnat bozoriga kirishish, o‘yin va dam olish, hatto shaxsiy rivojlanish strategiyalari algoritmik tizimlar tomonidan boshqariladi. Shu bois yoshlar ma’naviyati va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabatlar masalasi ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan L. Floridi, N. Bostrom, D. Harari, Tomas Metzinger, Z. Baumanning nazariyalarida alohida o‘rin egallaydi.

Mazkur maqoladan maqsadimiz global transformatsiyalar fonida sun’iy intellekt axloqining shakllanish jarayonini tahlil qilish, uning yoshlar ma’naviyati va axloqiy tanlovlariga ta’sir qiluvchi omillarini ilmiy asosda yoritib berishdir.

Global transformatsiyalar mohiyati shundaki, insoniyat hayotida pandemiya sharoitida, karantin qoidalaridan kelib chiqib hayot tarzining o‘zgarishi yuz berdi. Global ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar jamiyatning turmush tarzi, mehnat shakllari, madaniy aloqalari, kommunikatsiya tizimi va qadriyatlar tuzilmasida chuqur sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladigan jarayonlardir. Bu jarayonlar raqamli madaniyatning ustunligi; sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv mexanizmlarining kengayishi; axborot oqimining keskin ortishi va ma’lumotning asosiy kapitalga aylanishi; yoshlarning identiteti va ijtimoiylashuvining virtual makonga ko‘chishi kabi omillar bilan tavsiflanadi. Z. Bauman buni “suyuq modernlik” deb atar ekan, qadriyatlarning barqaror emasligi, identitetning tez-tez almashinishi va ma’naviy mezonlarning parokandaligi global o‘zgarishlarning asosiy belgilaridan ekanini ta’kidlaydi [1]. Bu jihatdan sun’iy intellekt axloqi 2 yo‘nalishda tadqiq etiladi:

- sun’iy intellektning o‘zining axloqi (axloqiy tizimning algoritmlarga qo‘llanishi). Bu yo‘nalishda “Algoritmlar qanday me’yorlar asosida qaror qabul qilishi kerak?”, “Buning mas’uliyati kimda bo‘ladi?” kabi savollarga javob topiladi.

- algoritmik intellekt ta’siridagi inson axloqi (yangi axloqiy odatlar shakllanishi). Ushbu yo‘nalishda “Insonning axloqiy tanloviga algoritmik muhit qay darajada ta’sir qiladi?”, “Yoshlarning ma’naviy ongini shakllantirayotgan bosh omillar nimalar?” degan savollar atrofida bahslar kechadi.

Shu nuqtai nazardan biz maqolada ikkinchi yo‘nalishga, ya’ni yoshlar ongida shakllanayotgan “algoritmik axloq” fenomeniga e’tibor qaratamiz.

Algoritmik madaniyat bu inson xulq-atvorini boshqaruvchi, nazorat qiluvchi yoki yo‘naltiruvchi algoritmik aql tizimlari hukmron bo‘lgan ijtimoiy makondir [2]. Bu madaniyat quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- algoritmlar inson xulqini oldindan bashorat qiladi (predictive analytics);
- media iste’moli shaxsiylashtiriladi (YouTube, TikTok, Instagram Reels algoritmlari);
- yoshlarning e’tiqodlari va e’tibor markazi algoritmik tavsiyalar orqali shakllanadi;
- “axloqiy avtopilot” holati yuzaga keladi.

Ushbu holatlar natijasida yoshlar ongida faol tanlov emas, balki algoritmga mos tanlov shakllanadi.

Bugungi yoshlar tarixda birinchi bor algoritmlarning axborot tanlab berishi muhitida ulg‘aymoqda. Bu holat dunyoqarashning torayishi (“filter bubble”) [3]; ma’naviy qadriyatlarning fragmentar sifatga ega bo‘lishi; algoritmik manipulyatsiyalarga yuqori duchorlik; fikrning chuqurlashmasligi va tezkor iste’molga mos axloqiy odatlar kabi oqibatlarni allaqachon keltirib chiqarmoqda. Shu o‘rinda P. Rikorning “o‘zlikni anglash hikoya orqali shakllanadi” [4] degan g‘oyasi bugungi algoritmik muhitda jiddiy inqirozga uchrayotganligi sezilmoqda: yoshlar o‘z “hikoyasi”ni emas, algoritm taqdim etgan “hikoya”ni iste’mol qilmoqda [5]. Asliyatda insonlarda axloqiy erkinlik uning ongli axloqiy tanlov qila olishi bilan o‘lchanadi. Sun’iy intellekt esa tanlovni osonlashtiradi, ko‘pchilikka “qaysi yo‘l to‘g‘riroq” degan signallar beradi, qaror qabul qilishni algoritmik modelga bog‘laydi. Shu sababli yoshlarning axloqiy avtonomiyasi zaiflashishiga tomon qadam qo‘yib bormoqda.

Sun’iy intellekt va raqamli ijtimoiylashuvning dialektik aloqadorligi masalasi ham dolzarb. Raqamli ijtimoiylashuv yoshlarning ijtimoiy tajribani virtual muhitda o‘zlashtirishidir. Bunda sun’iy intellekt kommunikatsiya tartibini belgilaydi, kim bilan, qanday kontent asosida muloqot qilishni tanlab beradi, ijtimoiy normalarni algoritmik tarzda shakllantiradi. Natijada ma’naviy me’yorlar ijtimoiy emas, algoritmik kontekst orqali shakllana boshlaydi. Yoshlarning ko‘pchiligi onlayn makonda o‘zining ideal versiyasini yaratadi [6], virtual muvaffaqiyatga real muvaffaqiyatdan ko‘proq e’tibor qaratadi, raqamli baholash tizimi (like, views, comments) asosida o‘zini baholaydi [7]. Bu esa ma’naviy barqarorlikning pasayishiga, o‘ziga nisbatan talablari o‘zgarishiga, ruhiy bosim ortishiga olib keladi va kelmoqda ham.

Sun’iy intellektning ma’naviy xavf-xatarlarini bir qator yo‘nalishlarda ko‘rib chiqamiz. Algoritmik aqlning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari quyidagilarga ajratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi;

1. Axloqiy relativizmning kuchayishi. Algoritmik muhitda “haqiqat” o‘zgaruvchan, moslashuvchan va ko‘p variantli ko‘rinishga ega bo‘ladi.

2. Axloqiy tanlovning avtomatlashtirilishi. Oson tanlovga o‘tish kuchayadi, murakkab axloqiy mulohaza esa eskiradi.

3. Virtual emotsiyalar orqali manipulyatsiya. Deepfeyk, neuromedia, emotsional algoritmik aql kabi tizimlar ma’naviy ongga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. O‘zlikni anglashning zaiflashuvi. Shaxs xulqini algoritm belgilab berar ekan, o‘zlik ham algoritmik modelga moslashadi.

Sun’iy intellektning ma’rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlari doirasida uning ijobiy tomonlarini ham ta’kidlash zarur. Jumladan, shaxsiylashtirilgan ta’lim kontentini yaratish, axloqiy tafakkurni shakllantiruvchi simulyatsiyalar, yoshlarning mustaqil mantiqiy fikrlashini kuchaytiruvchi tizimlar, zararli kontentdan himoya mexanizmlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi algoritmik aql platformalari kabilardir. Bunday aql xavf emas, balki to‘g‘ri boshqarilsa, ma’naviy taraqqiyot quroliga aylanish qudratiga ega vosita hamdir.

Endigi masala algoritmik axloq. “Algoritmik axloq” inson axloqiy xatti-harakatining algoritmlar orqali boshqarilishi tufayli shakllanadigan yangi axloqiy modeldir. Bu modelning asosiy belgilari me’yorlar algoritmik statistika asosida shakllanadi, “ko‘pchilik qilayotgan xatti-harakat” to‘g‘ri deb qabul qilinadi, axloqiy qarorlar tezkor, chuqur tahlilsiz amalga oshadi, ijtimoiy-axloqiy me’yorlar algoritm logikasiga moslashadi. Tadqiqotchilardan biri Metzinger ta’kidlashicha, algoritmik muhit insonning “axloqiy ong”ini ijtimoiy jarayondan texnik jarayonga ko‘chiradi.

Sun’iy intellekt ta’siridan himoyalanishning eng muhim sharti ma’naviy immunitet hisoblanadi. Bunday immunitetni shakllantiradigan jihatlar quyidagilardan iborat: 1. media savodxonlik; 2. ma’naviy-axloqiy tafakkur; 3. mustaqil fikrlash; 4. raqamli axloqni bilish; 5. shaxsiy mas’uliyatni anglash. Yurtimizda yoshlar siyosati, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va raqamli transformatsiya strategiyalari uyg‘un bo‘lishi zarur. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni raqamli platformalarda targ‘ib etish; yoshlarni sun’iy intellekt xavfsizligiga o‘rgatish; ta’limda sun’iy intellekt orqali ma’naviy tarbiya modullarini yaratish; zararli axborotdan himoya tizimlarini kuchaytirish muhim. Bunday texnologiyaning axloqini boshqarish jarayonida qonunchilik; etik standartlar; ma’naviy me’yorlar; texnik talablar uyg‘unlashtirilishi lozim. Agar bu uyg‘unlik bo‘lmasa, yoshlar ongida algoritmik madaniyat ustunligi kuchayadi.

Biz quyidagicha tadqiqot natijalari va umumiy xulosalarga keldik:

1. Global transformatsiyalar sun’iy intellektni ijtimoiy ongning asosiy omiliga aylantirdi. Shuning uchun ham algoritmik aql axloqi masalasi jamiyatning ma’naviy kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Yoshlar ma’naviyati algoritmik madaniyat ta’siri ostida yangi shakllanish bosqichiga kirdi. Axborot iste’moli, ijtimoiylashuv, identitet yaratish va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlari sun’iy intellekt orqali boshqarilmoqda.

3. “Algoritmik axloq” fenomeni yoshlarning axloqiy avtonomiyasini zaiflashtirishi, ma’naviy relativizmni kuchaytirishi va shaxsiy mas’uliyatni susaytirishi xavfi mavjud.

4. Shu bilan birga, bunday texnologiya yoshlarning ma’rifiy va axloqiy salohiyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, jumladan shaxsiylashtirilgan ta’lim, axloqiy simulyatsiyalar, xavfsiz media muhiti va ma’rifiy kontentlar.

5. Yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish va algoritmik aql axloqi bo‘yicha normativ tizimlarni ishlab chiqish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bauman, Z., Lyon, D. Liquid Surveillance: A Conversation. Updated Edition. Cambridge: Polity Press, 2021. 190 p.

2. Floridi, L. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. Oxford: Oxford University Press, 2021. 284 p.

3. Metzinger, T. A World Without Us: The Ethics of Intelligent Machines. Berlin: Springer, 2022. 315 p.

4. Lin, P., Abney, K., Jenkins, R. Robot Ethics 2.0: From Autonomous Cars to Artificial Intelligence. Cambridge, MA: MIT Press, 2020. 550 p.

5. Bauman, Z., Lyon, D. Liquid Surveillance: A Conversation. Updated Edition. Cambridge: Polity Press, 2021. 190 p.

6. Jobin, A., Ienca, M., Vayena, E. “The global landscape of AI ethics guidelines.” Nature Machine Intelligence, 2020, vol. 2, pp. 389–399.

7. IEEE. Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems. New York: IEEE, 2020. 240 p.

8. European Commission. AI Act: Regulation of Artificial Intelligence in the EU. Brussels, 2023. https://ec.europa.eu/ (murojaat etilgan sana: 15.12.2025).

YANGI O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI PARLAMENTARIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ro‘ziboyev Sardorbek Qo‘ziboy o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Kirish. Yangi O‘zbekiston siyosiy tizimining samaradorligini oshirish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida parlament institutining rolini kuchaytirish bir qancha strategik hujjatlar orqali belgilangan ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. "Mustaqillikdan so‘ng parlament tizimi bir palatali Oliy Majlisdan ikki palatali parlamentga o‘tgan hamda qonun ijodkorligining samaradorligini oshirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda."[1]

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya mamlakatning barcha sohalarida, jumladan davlat boshqaruvi, xizmatlar ko‘rsatish va jamoatchilik bilan muloqotda ham ustuvor yo‘nalishga aylangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi davlat boshqaruvining raqamli modernizatsiyasini amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi, raqamli texnologiyalar orqali xizmatlar ko‘rsatish samaradorligi sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatda fuqarolarning davlat siyosatidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida parlament faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha ham chora-tadbirlar belgilangan. "Xususan, 2020-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida “Elektron parlament” tizimi joriy etilishi ko‘zda tutilgan va deputatlar faoliyatini elektron platformalar orqali olib borish tartiblari ishlab chiqilgan."[2] Bu esa parlament ishining shaffofligini oshirish,

1 Tursunov.M. O‘zbekiston parlament tizimining shakllanishi va rivoji. Scientific Journal. №3, 2023. https://scientific-jl.com/ilm/article/view/28151

2 O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. “Elektron parlament tizimi joriy etiladi”. https://old.gov.uz/oz/news/view/26671

deputatlarning saylovchilar bilan onlayn muloqotini kengaytirish hamda qonun loyihalarini elektron tarzda muhokama qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli davlat xizmatlari ko‘lamining kengayishi va jamoatchilikning siyosiy jarayonlarga bevosita aralashuvi hozirgi siyosiy islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu tufayli raqamli parlamentarizm konsepsiyasini o‘rganish va uning Yangi O‘zbekiston sharoitidagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy bo‘lim. Raqamli parlamentarizm parlament faoliyatining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi boshqaruv modeli bo‘lib, u siyosiy jarayonlarning ochiqligi, tezkorligi va ishtirokchilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur model an’anaviy parlament jarayonlarini optimallashtirish bilan birga, jamoatchilik fikrini siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etish imkonini yaratadi. "Xalqaro amaliyotda raqamli parlament tushunchasi uch asosiy mezonda talqin qilinadi: birinchisi — parlament ichki ishlarini elektronlashtirish, ikkinchisi — qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilishda raqamli platformalardan foydalanish, uchinchisi esa parlament va jamiyat o‘rtasidagi ochiq kommunikatsiyani kengaytirishdir."[1]

Dunyoning rivojlangan davlatlari ushbu sohada sezilarli natijalarga erishgan. Masalan, "Estoniya parlamenti to‘liq raqamli hujjat aylanishi, elektron ovoz berish tizimi va ochiq ma’lumotlar siyosati orqali “eng raqamli parlamentlar” reytingida yetakchi o‘rinlarda turadi."[2] "Buyuk Britaniya parlamenti “Open Parliament” tashabbusi orqali qonun loyihalarini onlayn muhokama qilish, jamoatchilik fikrini yig‘ish va deputatlar faoliyatini ochiq namoyish etishni tizimli asosga qo‘ygan."[3] Koreya Respublikasida parlament faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, qonun loyihalarining ta’sirini prognoz qilish, statistik tahlil va ijtimoiy fikr monitoringi bo‘yicha AI modullar joriy etilgan.

Raqamli parlamentarizmning nazariy asoslari demokratik boshqaruvning yangi paradigmasi sifatida baholanadi. Chunki raqamli texnologiyalar parlamentning asosiy funksiyalari — qonun ijodkorligi, vakillik va nazorat mexanizmlarini samarali bajarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Elektron masofaviy ovoz berish, raqamli arxivlar, onlayn jamoatchilik eshituvlari, parlament faoliyatining bevosita translyatsiyasi kabi jarayonlar parlament tizimini yanada ochiq va hisobdor qiladi. Demokratik ishtirokchilik nazariyasiga ko‘ra, elektron muloqot platformalari fuqarolarning siyosiy qarorlarga ta’sirini oshiradi va siyosiy jarayonlarda yangi ishtirok shakllarini yuzaga keltiradi. Xalqaro tajribadagi o‘zgarishlar raqamli parlament modelining global trendga aylanganini, mamlakatlarning siyosiy boshqaruv sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rsatadi. Shu boisdan O‘zbekiston uchun ham ushbu modelni o‘rganish, moslashtirish va milliy siyosiy tizimga tatbiq etish zamonaviy islohotlarning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

1 Hans J. Schultze. Digital Parliament Theory: Interaction Between ICT and Legislative Governance. London, 2021.

2 Estonian Parliament (Riigikogu) Official Digital Governance Report, 2022. https://www.riigikogu.ee

3 UK Parliament. Open Parliament Initiative Report, 2021.

O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmning shakllanishi va amaliy jarayonlari. O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmning shakllanishi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalish “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. "Mazkur strategiya parlament faoliyatida elektron hujjat aylanishi, raqamli monitoring, jamoatchilik nazorati va ochiq ma’lumotlar siyosatini keng joriy etishni ko‘zda tutadi. Islohotlarning asosiy maqsadi parlament ishini tezkor, shaffof va xalqaro standartlarga mos holga keltirishdan iborat."[1]

So‘nggi yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida bir qator elektron tizimlar yo‘lga qo‘yildi. Xususan, deputatlar uchun elektron ovoz berish moduli, hujjatlarni elektron shaklda ko‘rib chiqish, qonun loyihalarini masofaviy muhokama qilish va ularning jamoatchilik uchun ochiq taqdimoti amaliyotga joriy etildi. "Parlamentning rasmiy portali — parliament.gov.uz orqali qonun loyihalari bo‘yicha barcha materiallar ochiq e’lon qilinmoqda, bu esa fuqarolarning siyosiy jarayonda bevosita ishtirokini ta’minlaydi."[2] Raqamli parlamentarizmning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — jamoatchilik eshituvlarining ochiqligi va onlayn shaklga o‘tishi bo‘lib, bunda Senat qo‘mitalarining majlislari real vaqt rejimida translatsiya qilinadi. Bu jarayon parlament jamiyat oldida hisobdorligini sezilarli oshirmoqda. Shuningdek, deputatlarning hududlar kesimida onlayn ravishda aholi murojaatlarini qabul qilishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy muloqot olib borishi siyosiy muloqotning yangi bosqichini yaratdi.

"2022–2023 yillarda “Elektron parlament” axborot tizimining joriy etilishi parlamentdagi hujjat aylanishini to‘liq raqamlashtirish imkonini berdi. Mazkur tizim yordamida qonun loyihalarining har bir bosqichi markazlashgan monitoring ostida bo‘lib, deputatlarning ovozlari, fikr-mulohazalari va tahrirlari raqamli bazaga kiritiladi."[3]

Bundan tashqari, O‘zbekistonda fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirishga qaratilgan elektron petitsiya tizimi ham shakllanmoqda. 100 mingdan ortiq ovoz to‘plagan takliflar parlament qo‘mitalarida ko‘rib chiqilishi bo‘yicha tartib ishlab chiqilgan. Bu tizim demokratik jarayonlarda xalqning bevosita ishtirokini kuchaytirish orqali raqamli parlamentarizmning real amaliy foydasini ta’kidlab beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston parlamenti bosqichma-bosqich raqamli siyosatga o‘tib bormoqda. Ushbu jarayon demokratik islohotlarda parlamentning rolini kuchaytirish bilan birga, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi masofani qisqartiradi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining ochiqligi va samaradorligini ta’minlaydi. Natijada elektron parlament modeli mamlakatning siyosiy tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqayotgan asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib bormoqda.

O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmning bugungi holati, rivojlanish tendensiyalari va muammolar. Bugungi kunda O‘zbekistonda raqamli parlamentarizm amaliy bosqichga to‘liq o‘tgan siyosiy jarayon sifatida shakllanib bormoqda. 2024–2025-yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatida qonun ijodkorligi

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil.

2 Oliy Majlis rasmiy portali: Qonun loyihalari bo‘yicha axborot. https://parliament.gov.uz

3 O‘zbekiston Respublikasi Senati. “Elektron parlament tizimi” bo‘yicha axborot, 2023-yil.

jarayonlarining asosiy qismi elektron tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. "Parlament rasmiy axborotlariga ko‘ra, qonun loyihalarining 70–75 foizi dastlab raqamli platformalar orqali muhokamaga qo‘yilmoqda."[1] Bugungi kunda parlament majlislarining katta qismi ochiq va onlayn shaklda yoritilmoqda. Senat va Qonunchilik palatasi majlislarining 80 foizdan ortig‘i rasmiy saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali jonli efirda namoyish etilmoqda, bu esa parlament faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Deputatlar va senatorlarning saylovchilar bilan onlayn muloqoti ham kengayib, ijtimoiy tarmoqlar parlamentarizmning muhim kommunikatsiya maydoniga aylangan.

Bugungi raqamli parlamentarizmning yana bir muhim ko‘rsatkichi — fuqarolarning siyosiy ishtirokidir. "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali parlament va deputatlar faoliyatiga oid murojaatlar umumiy murojaatlarning qariyb 20 foizini tashkil etmoqda."[2] Elektron petitsiya mexanizmi orqali ilgari surilgan takliflarning bir qismi parlament qo‘mitalari darajasida muhokama qilinayotgani fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi real ta’sirini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hududlar kesimida bir xil emas: Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, ayrim chekka hududlarda barqaror internet qamrovi 60–65 foiz atrofida qolmoqda. Bundan tashqari, barcha deputatlarning raqamli platformalardan bir xil samaradorlik bilan foydalanmasligi raqamli parlamentarizmni to‘liq institutsional darajaga olib chiqishda to‘siq bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, bugungi kunda O‘zbekistonda raqamli parlamentarizm parlament faoliyatining ajralmas qismiga aylanib, siyosiy jarayonlarning ochiqligi, hisobdorligi va fuqarolik ishtirokini oshirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish esa ushbu tizimni keyingi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar. Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmni rivojlantirish davlat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, “Raqamli parlament 2.0” konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Ushbu konsepsiya qonun ijodkorligi jarayonlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish, qonun loyihalarining butun hayotiy siklini (ishlab chiqish, muhokama, qabul qilish, monitoring) raqamli nazorat ostiga olishni nazarda tutishi lozim. Bu parlament faoliyatining tizimliligi va shaffofligini oshiradi.

Ikkinchidan, deputatlar va senatorlar uchun majburiy raqamli kompetensiyalar standartini joriy etish taklif etiladi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish parlament a’zolarining qonun ijodkorligi va saylovchilar bilan muloqot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada maxsus qisqa muddatli o‘quv dasturlari va sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Qonun ijodkorligi faoliyati bo‘yicha rasmiy axborotlar, 2024-yil. https://parliament.gov.uz

2 Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz). Elektron murojaatlar statistikasi, 2024-yil.

Uchinchidan, jamoatchilik ishtirokini kuchaytiruvchi raqamli mexanizmlarni kengaytirish zarur. Xususan, qonun loyihalarini muhokama qilishda fuqarolar fikrini yig‘ishning interaktiv onlayn shakllarini takomillashtirish parlament va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yanada mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, parlament faoliyatida sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Bu normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, takrorlanishlarni aniqlash va qonun loyihalarining ijtimoiy ta’sirini oldindan baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Beshinchidan, hududlar kesimida raqamli tenglikni ta’minlash masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Chunki raqamli parlamentarizmning samaradorligi fuqarolarning texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq. Shu bois parlament islohotlari raqamli infratuzilmani rivojlantirish siyosati bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, parlament faoliyatining ochiqligi va samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bugungi holati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida parlament faoliyatini raqamlashtirish davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri ekani, ushbu jarayon ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qilayotgani asoslab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida elektron tizimlarning joriy etilishi qonun ijodkorligi jarayonini soddalashtirish, parlament va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish hamda fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirishga imkon yaratmoqda. Ayniqsa, parlament majlislarining ochiq yoritilishi, qonun loyihalarining raqamli platformalarda e’lon qilinishi va fuqarolar murojaatlari uchun elektron mexanizmlarning mavjudligi raqamli parlamentarizmning amaliy natijalarini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari raqamli parlamentarizmni yanada rivojlantirish uchun institutsional va texnologik muammolarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, hududlar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik, parlament a’zolarining raqamli kompetensiyalarini oshirish ehtiyoji va zamonaviy texnologiyalarni chuqurroq integratsiya qilish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizm demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu yo‘nalishda ilgari surilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish parlament faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. "Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi. Rasmiy axborot va qonun loyihalari materiali. https://parliament.gov.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. https://senat.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalari Vazirligi. Davlat boshqaruvida rqamlashtirish bo‘yicha rasmiy axborotlar. https://digital.uz

6. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. Fuqarolarning elektron murojaatlari va davlat organlari bilan raqamli muloqoti. https://my.gov.uz

7. Inter-Parliamentary Union (IPU). World e-Parliament Report. Geneva, rasmiy hisobot (so‘nggi nashrlar).

8. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Governance and Democratic Institutions. New York, rasmiy tahliliy hisobot.

10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha nutqlar va ma’ruzalar. Toshkent. O‘zbekiston, rasmiy nashrlar.

НОМАРКАЗЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ

Абдулла Рузиқулов

Демократик жараёнларни таҳлил қилиш маркази Навоий ҳудудий бўлими раҳбари, Сиёсий фанлар бўйича Фалсафа доктори (PhD)

Охирги йилларда ахборот технологияларининг ривожланиши инсоният тарихида содир бўлаётган ўзгаришлар нафақат ҳаёт тарзимизга балки сиёсий жараёнларга ҳам ўз таъсирини кўрсатиб бормоқда ва ўз ўрнида сиёсий ҳаётимизнинг кўп жабҳаларига глобал даражада кириб келмоқда. Айниқса COVID-19 дан сўнг давлат ташкилотлари ҳам ўз фаолиятида бу технологиялардан фаол фойдалана бошлаши бу таъсирларни янада ортишига сабаб бўлди. Натижада давлат, жамият, фуқароларнинг қарорлар қабул қилишдаги иштирок, сиёсий жараёнларнинг шаффофлик даражаси ортиб, турли сиёсий жараёнлар иштирокчилари ўртасидаги ҳамкорлик ва ўзаро муносабатлар шаклларини трансформациясига олиб келмоқда. Бу эса ривожланишининг бугунги босқичида алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Айни дамда рақамли ва ақлли технологиялар, ижтимоий тармоқлар, веб саҳифалар, онлайн платформалар нафақат ўзаро маълумот узатиш жараёнларини тезлаштирмоқда балки давлат ва нодавлат ташкилотлар, фуқаролар ҳамда ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни ҳам янги босқичга олиб чиқмоқда.Бу ҳолат эса ўз ўрнида жамиятнинг барча жабҳаларини сиёсий бошқарувдан тортиб, жамоатчилик фикрини ўрганиш, сиёсий мобилизацияга қадар ўзининг маълум аммо мухум таъсирини кўрсатмоқда.

Рақамли технологияларнинг шиддатли ривожланиши сиёсий кун тартиб яратиш учун кенг имкониятлар яратиш билан бирга, олдингидан сергакроқ бўлиш, ўз вақтида керакли қарорлар чиқариш ҳамда халқчилроқ ва чора-тадбирлар ишлаб чиқиб муаммони ўз вақтида бартараф этишга хизмат қилмоқда.

Ўз ўрнида бу имкониятлардан фуқаролик жамияти институтлари ҳам самарали фойдаланмоқда. Жумладан, бугунги кунда республикамизда фаолият юритаётган сиёсий партиялар ва уларнинг қуйи ташкилотлари ҳам ўз фаолиятини янада кўпроқ аҳолига тезкор ва кенгроқ етказиб келаётгани фикримизнинг яққол далилидир.

Интернет нафақат сайлов кампанияларига, балки давлат институтлари ишига ҳам таъсир қилади. Давлатлар технологиялардан давлат бошқарувини такомиллаштириш ва давлат органлари самарадорлигини ошириш учун фойдаланади. Электрон овоз бериш, давлат онлайн-хизматлари, электрон тўлов тизимлари каби рақамли воситалар давлат ишининг муҳим қисмига айланди. Масалан, Эстония электрон ҳукумат концепциясини ривожлантириб, фуқароларга овоз бериш, солиқ декларациясини топшириш ва бошқа хизматларни интернет орқали олиш имконини берди.

Технологиялар сиёсий иштирок усулларини ҳам ўзгартирди. Илгари фуқаролар ўз сиёсий позициясини билдириш учун митинг ёки намойишда қатнашиши, оммавий ахборот воситаларига мурожаат қилишлари керак эди. Ҳозирги кунда интернет орқали одамлар фикр билдириш, онлайн-петициялар ташкил этиш, виртуал норозилик акцияларида қатнашиш ва сиёсий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш ёки қаршилик кўрсатиш имкониятига эга. Бу янги сиёсий фаоллик шаклларини очди ва фуқароларга қарорлар қабул қилиш жараёнига тўғридан-тўғри кириш имконини берди.

Шу вақтгача қарорлар қабул қилишда маълум бир инсонлар иштирок этган бўлса албатта бунга ўзига хос сабаблар бор бўлар, аҳолининг медиасаводхонлик, ахборотларни тизимли кузатиб бормаслик, янгиликларни кеч етиб келиши ва ҳоказолар ўз таъсирини кўрсатган.Аммо бугунги кунда барча мобил алоқа воситалари орқали республикамизда юз бераётган ижтимоий-сиёсий вазият, норматив-ҳуқуқий хужжатлар лойиҳалари, оммавий тадбирлар ва йиғинларга оид маълумотларни мунтазам кузатиб бормоқда.

Технологиялар сиёсий таъсирининг яна бир муҳим оқибати — ҳокимият моделларини ўзгартириши. Илгари сиёсий ҳокимият кам сонли шахслар ва институтларда тўпланган эди. Ҳозирги технологиялар сиёсий таъсирни номраказлаштиради ва фуқароларга янги иштирок шакллари орқали жамоат жараёнларига таъсир қилиш имконини беради. Бу «рақамли демократия» деб аталади. [1]

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки рақамли технологиялар бошқарувга ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қўймайди.Ўз ўрнида сиёсий таъсирни кенгайишга ҳам торайишига ҳам таъсир этади.Яъни аниқ мақсадли ва тезкор чоралар кўриш бу жараёнларни ижобий томонга ўзгартиради ва ислоҳотлар бардавомлигини таъминлайди.

С.В.Володенков ва С.Н.Федорченколарнинг нуқтаи назарига кўра, жамият-сиёсий маконнинг рақамлашуви гибрид давлат-технологик режимлар шаклланишига олиб келмоқда. Бундай шарт-шароитда сиёсий ҳокимият

[1] https://proza.ru/2025/01/03/38

суверенитетни тобора кўпроқ рақамли корпорациялар ва платформалар билан бўлишмоқда. Бу ҳолат рақамли дипломатияда ҳам, анъанавий ҳокимият шаклларининг (парламентаризм, сайловлар) институционал қайта қурилишида ҳам намоён бўлади. Айниқса, фуқароларнинг рақамли иштирок даражаси юқорироқ бўлган демократиявий режимларда бу жараён яққолроқ сезилади[1].

Номарказлаштириш жараёни бу бошбошдоқликка эмас самарали бошқарувни таъминлашга хизмат қилиши лозим. Бунда ваколатлар тақсимот, сиёсий, психологик ва жисмоний юкламаларни камайтириб давлатни яхлит бир тузилма сифатида ривожланишига хизмат қилиши керак.Иқтисодий, ҳуқуқий, маданий ва ижтимоий муаммоларни ўз имкониятлари ва ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда мавжуд муаммоларни бошқа ҳудудлардан фарқли аммо умум давлат манфаатларига ҳамда конституцион яхлитликка ҳамда мавжуд миллий қонунчиликка мос ечимлар орқали ислоҳотлар бардавомлигини таъминлашга хизмат қилиши даркор.

Шунинг учун ҳам рақамли технологияларда фойдаланишда жуда эҳтиёткор бўлиш ҳам талаб этилади. Бу технологиялар фақат халқ фаровонлиги, ватан равнақи ва албатта республика ривожланишини янги босқичга олиб чиқишига хизмат қилиши керак.Шу вақтгача жисмоний куч орқали жойлардаги вазиятни ўрганиш учун жуда катта вақт ва маблағ сарфланиш билан бирга асосий ишларга ҳам ўзининг маълум бир таъсирларини кўрсатган сир эмас.Рақамли технологиялар эса ортиқча қоғозбозликлар, нохолис фикрилар ва албатта нотўғри қарорлар қабул қилишга йўл қўймайди ва вақт ҳамда маблағни тежашга халқчилроқ қарорлар қабул қилишга кўмаклашади.

Эътиборли жиҳати шундаки, хорижий давлатлар тажрибаси ҳам бу борада маълум даражада назорат зарурлигини кўрсатмоқда.

Хитой адабиётида эътибор «рақамли суверенитет» ва «технологик суверенитет» тушунчаларига қаратилган. Геосиёсий рақобат шароитида Европа Иттифоқи(ЕИ) ва Хитой рақамли соҳада стратегик автономияни сақлаб қолишга интилишмоқда. Хусусан, ЕИ «digital sovereignty» сиёсатини ташқи ва ички легитимлаштириш воситаси сифатида қўлламоқда, бироқ бу жараён ички институционал чекловлар билан тўқнаш келади[2,3]. Шу билан бирга, қатор тадқиқотларда таъкидланишича, демократик режимлар ҳам, уларга хос деб ҳисобланадиган очиқликка қарамай, рақамли технологияларни назоратни кучайтириш ва сиёсий ресурсларни қайта тақсимлаш учун ишлатмоқда[4].

---

[1] Володенков С.В., Федорченко С.Н. Традиционные политические институты в условиях цифровизации : риски и перспективы трансформации // Дискурс-Пи. 2022. Т. 19. № 1. С. 84–103

[2] Цай Цуйжун, Чжан Жо Ян. Стратегия цифровой трансформации ЕС в дис- курсе «технологического суверенитета» и «цифрового суверенитета» // Исследования международной политики. 2022. № 1 (на китайском языке).с. 9–22

[3] Гун Юньму. Возвращение концепта суверенитета в цифровую эпоху и циф- ровое управление ЕС // Европейская интеграция. 2022. № 5 (на китайском языке).с. 91–104

[4] Туробов А.В. Возможности трансплантации политических институтов при торговле технологиями: результаты сетевого анализа в сравнительной пер- спективе // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2022. № 65.с. 310–327

Аксарият ҳолларда кўпчилик номарказлаштириш тушунчасини фақатгина иқтисодий жиҳатдан қарорлар қабул қилишда, мавжуд маблағларни ўзларининг имконияти ва мавжуд вазият ҳамда ҳудуднинг ўзига хос муаммоларидан келиб чиқиб сарфлашда ваколатлар берилиши деб тушунади.Бу маълум даражада тўғри, аммо бу ўзига яраша мураккабликларни келтириб чиқариши билан бирга умум давлат манфаатларига ва тенг миқдор, барча ҳудудларни бир хил даражада ривожланишини ҳам унутмаган ҳолда амалга оширилишини назарда тутади.

Бу борада республикамизда бир қанча амалий ишлар олиб борилаётгани замонавий талаб ва стандартларга мос изчил чора-тадбирлар натижасидир.

2017 йил декабрь ойида ҳудудларни комплекс ривожлантиришни барқарор молиялаштиришни таъминлаш, даромадлар базасини тубдан мустаҳкамлаш ва маҳаллий бюджетларни номарказлаштириш асосида бюджетлараро муносабатларни янада такомиллаштириш ва давлат ҳокимияти органларининг молиявий мустақиллигини мустаҳкамлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5283-сонли “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг молиявий эркинлигини ошириш, маҳаллий бюджетларга тушумларнинг тўлиқлигини таъминлаш бўйича солиқ ва молия органлари жавобгарлигини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Ушбу Фармонда маҳаллий бюджетлар даражасида солиқ-бюджет сиёсатининг устувор вазифалари белгилаб берилган. Улар орасида:

солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг айрим турларини белгилаш орқали маҳаллий бюджетларнинг даромад базасини тубдан мустаҳкамлаш;

вилоят, шаҳар ва туман бюджетларининг субвенциясини тугатиш, уларнинг юқори бюджетлар ажратмаларига боғлиқлигини изчил камайтириш, шу асосда маҳаллий давлат ҳокимият органларининг ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш масалаларини ҳал этишдаги мустақиллиги ва жавобгарлигини ошириш;

тизим асосида маҳаллий бюджет даромадларини кўпайтириш учун қўшимча захираларни аниқлаш;

депутатлик ва жамоатчилик назоратини тенглаштириб маҳаллий бюджетларнинг шаклланиши ва ижроси устидан назоратнинг ошкоралигини таъминлаш;

даромадлар базасини мустаҳкамлаш ва маҳаллий бюджетларнинг тасдиқланган харажат параметрларини ўз вақтида, мақсадли молиялаштириш, ижтимоий объектлар ва инфратузилмани янада ривожлантириш ва сақлашни зарур даражада таъминлаш учун маҳаллий ҳокимият, молия ва солиқ органларининг жавобгарлигини кучайтириш.[1]

Сўнгги йилларда давлат молиясини бошқариш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва бюджет интизомини янада мустаҳкамлаш, солиқ-бюджет тизимининг шаффофлигини таъминлаш, хусусан, маҳаллий Кенгашларнинг маҳаллий бюджет маблағларини бошқаришдаги иштирокини кенгайтириш борасида изчил ишлар амалга оширилмоқда.

[1] https://lex.uz/docs/3454970

2020 йилдан буён Олий Мажлис Сенатида бевосита маҳаллий Кенгашлар депутатлари иштирокида ҳудудда аҳолини узоқ йиллардан буён ташвишга солаётган муаммоларни ҳал этиш бўйича таклифлар шакллантирилиб, республика бюджетида уларни акс эттириш бўйича чораларни кўриш амалиёти шакллантирилган. Умумий ҳисобда 2020 йилдан буён республика бюджетидан ҳудудлардан келиб тушган таклифлар асосида 11 триллион сўмга яқин маблағ ажратилишига эришилди.[1]

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки рақамли платформалар орқали фуқароларнинг сиёсий жараёнлардаги иштирокининг ортиши номарказлаштиришнинг демократик асосини мустаҳкамлаб, аҳолини тўғридан-тўғри қарор қабул қилиш жараёнининг субъектига айлантирмоқда. Туман ва шаҳарларда ҳудудий эҳтиёжлар таҳлили, инфратузилма ҳолатини рақамли мониторинг қилиш, бюджет ҳаракатларини очиқ юритиш марказий ва маҳаллий органлар ўртасидаги ваколат ва ресурслар тақсимотини оптималлаштирмоқда. Энг муҳими, рақамли технологиялар номарказлаштириш жараёнини бошбошдоқликка эмас, балки аниқ ҳисоб-китоб, тезкор мониторинг ва илмий асосланган қарорлар орқали барқарор, бошқариладиган ва самарали бошқарув тизимига айлантирмоқда.

Юқоридагиларни инобатга олган холда қуйидаги таклифларга эътибор қаратиши мақсадга мувофиқдир:

Ҳар бир туман ва шаҳарда маҳаллий ҳокимиятлар учун онлайн бошқарув марказларини жорий этиш ва рақамли платформаларни юритиши ва назорат қилиш ишларини йўлга қўйиш (бу бошқарув марказларида аҳоли мурожаатлари харитаси, инфратузилма ҳолати, иқтисодий кўрсаткичлар панели ва бюджет ҳаракатлари мониторингига оид маълумотлар тизимли таҳлил қилиниши ва тегишли тартибда мутасаддиларни ўз вақтида хабардор қилиши)лозим ;

Номарказлаштиришнинг асосий талаби — малакали раҳбар. Шунинг учун маҳаллий раҳбарлар учун рақамли компетенциялар стандартини жорий этиш яъни “Рақамли бошқарув” бўйича мажбурий ўқув дастурлари ва олинган билимларни қанчалик ўзлаштирганлигини текшириш механизмларни ишлаб чиқиш керак;

Номарказлаштириш ҳудудлар маълумотларининг хавфсизлигини талаб қилади. Шунинг учун ахборот хавфсизлигини ҳудудий даражада мустаҳкамлаш керак бунинг учун ҳудудий маълумотлар марказларини ҳимоя қилиш,киберхавфсизлик бўйича маҳаллий мутахассислар тайёрлаш шарт.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида” ги Конституциявий Қонуни – Т.: Ўзбекистон, 2007.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши

[1] https://senat.uz/oz/post/post-2451

бўйича Ҳаракатлар стратегиясини келгусида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 15 август Ф-5024-сонли фармойиши//

http://www.press-service.uz.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги ПФ-5185-сонли Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги фармони// http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1008.

5. Володенков С.В., Федорченко С.Н. Традиционные политические институты в условиях цифровизации : риски и перспективы трансформации // Дискурс-Пи. 2022. Т. 19. № 1. С. 84–103.

6. Цай Цуйжун, Чжан Жо Ян. Стратегия цифровой трансформации ЕС в дискурсе «технологического суверенитета» и «цифрового суверенитета» // Исследования международной политики. 2022. № 1 (на китайском языке).с. 9–22

7. Гун Юньму. Возвращение концепта суверенитета в цифровую эпоху и цифровое управление ЕС // Европейская интеграция. 2022. № 5 (на китайском языке).с. 91–104

8. Туробов А.В. Возможности трансплантации политических институтов при торговле технологиями: результаты сетевого анализа в сравнительной перспективе // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2022. № 65.с. 310–327

9.https://www.rcoit.ru/upload/iblock/39c/fx6pso489wu9wgk6emu366l3qgh2lje7/ВЛИЯНИЕ%20ЦИФРОВЫХ%20ТЕХНОЛОГИЙ%20НА%20ПОЛИТИЧЕСКИЕ%20ПРОЦЕССЫ%20И%20ДИПЛОМАТИЧЕСКОЕ%20ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ%20В%20УСЛОВИЯХ%20ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ%20РЕЖИМОВ.pdf.

10. https://proza.ru/2025/01/03/38.

11. https://lex.uz/docs/3454970.

12. https://senat.uz/oz/post/post-2451.

GENETIK MANIPULYATSIYA VA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI: BIOAXLOQIY ONGNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY XAVFLAR

Saatova Zulayxa Ochilovna
O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent shahar
bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha yordamchisi,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

XXI asrning so‘nggi o‘n yilligi fan-texnika taraqqiyotining eng keskin bosqichlaridan biri bo‘lib tarixga kirmoqda. Xususan, gen muhandisligi, genetik manipulyatsiya, CRISPR-Cas9 texnologiyasi, embrional aralashuv, somatik gen terapiyasi kabi tushunchalar nafaqat ilmiy doiralarda, balki keng jamoatchilik, davlat institutlari va yoshlar ongida ham tobora faol muhokama qilinmoqda. Genetik manipulyatsiya jamiyat uchun bitta emas, balki o‘nlab ijtimoiy-axloqiy savollarni kun tartibiga olib chiqmoqda: “Inson tabiati

o‘zgaradimi?”, “Naslga aralashish qanchalik joiz?”, “Bu jarayon yangi tengsizliklarga olib keladimi?”, “Yoshlarning bunga munosabati qanday shakllanishi kerak?”, “Bioetik mas’uliyat fuqarolik identitetiga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy diskurslarning markazida turibdi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi yosh avlod genom, DNK, sun’iy intellektga asoslangan biotexnologiyalar, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va tanlanadigan genlar kabi masalalarni kundalik hayotda uchratmoqda. Genetik ma’lumotlar bilan ishlovchi transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi, biobozorlar, tijoriy genom testlari va davlatlararo bioiqtisodiy raqobat fonida yoshlar ongida bioaxloqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Biz maqolada genetik manipulyatsiya texnologiyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, yoshlar ongida bioetik madaniyatni shakllantirish mexanizmlari, ijtimoiy faollikning yangi ko‘rinishlari, diniy va milliy qadriyatlar bilan o‘zaro uyg‘unlashish jarayonlarini tahlil qilamiz. Shuningdek, yoshlarni biotexnologik xavf-xatarlar haqida ongli qaror qabul qilishga tayyorlashga doir nazariy model ham taklif etiladi.

Genetik manipulyatsiya dastlab faqat ilmiy laboratoriyalar doirasida mavjud bo‘lgan texnologiya sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda u ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. T.Fukuyama (2020), J.Habermasning inson tabiatining o‘zgartirilishi haqidagi tezislari [1], P.Singerning bioetik utilitarizm yondashuvi kabi konsepsiyalar bugungi genetik aralashuv jarayonlariga bevosita tatbiq etilishi mumkin [2]. Bunday yangi texnologiyalar jamiyatda quyidagi o‘zgarishlarni keltirmoqda:

Birinchidan, genetik manipulyatsiyaning asosiy falsafiy muammosi insonning “tabiiylik” chegarasi to‘g‘risidagi bahsdir. Habermas genetika yordamida oldindan belgilangan xususiyatlarga ega bola yaratish holatlarini “axloqiy avtonomiyaning buzilishi” deb baholaydi [3].

Ikkinchidan, Y. Harari genetik boylar va genetik kambag‘allar toifasining shakllanishi mumkinligini global xavf sifatida ko‘rsatadi [4]. Bu jarayon yoshlar ongida ijtimoiy adolat tasavvurlarining qayta shakllanishiga olib keladi.

Uchinchidan, shaxsiy ma’lumotlar endi faqat ijtimoiy yoki tibbiy emas, balki biologik identitetni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu esa biopolitik boshqaruvning kuchayishiga olib keladi [5].

Yoshlarning bioaxloqiy ongini shakllantirishning bir nechta omillari mavjud. Bular:

- ta’lim tizimi va bioetik kompetensiyalar orqali. Bunda zamonaviy biologiya, genetika va axloq fani integratsiyasi zarur. Bioetika nafaqat tibbiyot uchun, balki falsafa, jamiyatshunoslik, huquq va texnik yo‘nalishlardagi yoshlar uchun ham asosiy fan bo‘lishi kerak [6]. Yoshlarning bioaxloqiy ongini shakllantiruvchi asosiy komponentlar genetik xavflarni anglash, genetik ma’lumotlarning maxfiyligi, naslga aralashuvning diniy-axloqiy cheklovlari, texnologik qarorlarda fuqarolik mas’uliyati, tanqidiy fikrlash, axborot manipulyatsiyasidan himoyalanishdir.

- media va axborot makonining ta’siri orqali. Yoshlar ongiga eng kuchli ta’sir qiluvchi omil bu media makoni, xususan: TikTok va Instagramdagi “gen testlari reklamasi”, “designer baby” [7] haqidagi ommabop kontent, sun’iy intellekt yaratgan noto‘g‘ri biotexnologik axborotlar, senzatsion yangiliklar.

Media axborotining keskin ortishi yoshlar ongida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi: birlari ortiqcha qo‘rquvga, boshqalari esa haddan ziyod texnologik optimizmga berilib ketadi.

- milliy va diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashish orqali. Mamlakatimizda genetik aralashuv masalasi diniy-axloqiy normalar bilan uzviy bog‘liq. Ko‘pchilik Islom olimlarining pozitsiyasi shundan iboratki, inson genomiga zarar yetkazuvchi yoki naslni ifloslantiruvchi aralashuvlar haromdir [8], ammo davolash maqsadidagi gen terapiyasi joiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar ongida bioaxloqiy tafakkur bevosita diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanadi.

Genetik manipulyatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi jarayonlarida fuqarolik pozitsiyasi va bioetik mas’uliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Bioetik fuqarolik” (biocitizenship) tushunchasi [5] yoshlar ongida tobora qat’iy o‘rnashmoqda. Bu genetik axborotdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha mas’uliyat, sog‘liq siyosatiga faol munosabat, genetik xavf haqida o‘z jamiyatiga xabardorlik ko‘rsatish, bioxavfsizlik qoidalariga rioya qilish kabilarni o‘z ichiga oladi [9]. Genetik texnologiyalar yoshlar orasida bioetik volontyorlik, sog‘liqni saqlash bo‘yicha fuqarolik monitoringi, genetik diskriminatsiyaga qarshi kurash harakatlari, ekologik-biologik xavfsizlik bo‘yicha tashabbuslar, ilm-fan va axloq bo‘yicha ochiq debatlarda ishtirok kabi faol ijtimoiy yo‘nalishlarni vujudga keltirmoqda. Bu holatda yoshlar uchun genetik texnologiyalar bo‘yicha qaror qabul qilish jarayoni ilmiy asoslangan tahlil, axloqiy me’yorlarni hisobga olish, jamiyat manfaatiga moslik, shaxsiy va kollektiv xavfsizlikni ta’minlash, diniy va milliy qadriyatlarni buzmaslik kabilarga tayangan bo‘lishi kerak.

Biotexnologik xavflar yoshlarda:

- Genetik tengsizlik va diskriminatsiya ta’siriga ega. “Genetik elita va genetik periferik guruhlar”ning vujudga kelishi ijtimoiy adolatni izdan chiqarishi mumkin. Yoshlar buni erta anglamasa, jamiyatda keskin tabaqalanish kuchayishi ehtimoli mavjud.

- Tijoriy genom bozori xatarlari mavjud. 2020-yildan keyin tijoriy genom testlari global bozorda keskin kengaydi [10]. Bu jarayon yoshlar uchun shaxsiy ma’lumotlarning sotilishi, noto‘g‘ri tibbiy xulosalar, psixologik bosim, sog‘lom bo‘lmagan toifalash kabi xavflarni tug‘diradi.

- “Odam o‘zgartirish” g‘oyasining psixologik ta’siri yuzaga keladi. “Superbola” yoki “genetik mukammallik” haqidagi media tasavvurlari yosh avlod ongida o‘zidan norozilik, o‘z-o‘zini tanqidiy baholash pasayishi, boshqalar bilan salbiy taqqoslash, texnogenez qo‘rquvi holatlarini kuchaytiradi.

- Bioxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘ladi. Pandemiya davri (2020–2022) bioxavfsizlik masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Genetik manipulyatsiya bilan bog‘liq laboratoriya xatolari yoki ataylab suiste’mol qilish holatlari global xavf tug‘dirdi. Yoshlar bu masalada mas’uliyatsizlik bilan texnologik optimizmga berilmasligi lozim.

Biz yoshlar uchun bioaxloqiy ongni rivojlantirishning quyidagi konseptual modelini taklif qilamiz:

1. Kognitiv tarkib. Bunda genetika asoslari, texnologik xatarlarni tahlil qilish, axloqiy normalarni bilish muhim hisoblanadi.

2. Emotsional-aksiologik tarkib. Unda inson sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat, ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda qaror qabul qilish, diniy me’yorlarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

3. Ijtimoiy-amaliy tarkibda bioetik muammolar bo‘yicha munozaralarda ishtirok etish, jamiyatga foyda keltiruvchi tashabbuslarni ilgari surish, genetik diskriminatsiyaga qarshi faol pozitsiyada bo‘lish muhim.

Genetik manipulyatsiya jarayonlari insoniyatning kelajak tamoyillarini tubdan o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan murakkab texnologik, falsafiy va axloqiy jarayonlardan biridir. Yoshlar bu jarayonning eng faol subyekti, eng ko‘p ta’sirga uchrovchi qatlam va ayni paytda eng muhim qaror qabul qiluvchilar sifatida jamiyatning strategik resursini tashkil etadi. Yoshlarning bioaxloqiy ongini shakllantirish nafaqat ilmiy bilimga, balki milliy va diniy qadriyatlarga, fuqarolik mas’uliyatiga, tanqidiy fikrlashga va jamiyat oldidagi burchni anglashga asoslanishi kerak. Genetik aralashuv bilan bog‘liq ijtimoiy xavflarni kamaytirishning asosiy yo‘li yoshlarni ongli, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli pozitsiya egasi sifatida tarbiyalashdir. Ushbu o‘rganishlar asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Genetik aralashuv inson tabiati, nasl, erkinlik va tenglik kabi asosiy falsafiy kategoriyalarni o‘zgartiruvchi kuchga ega. Bu jarayon milliy va diniy qadriyatlar bilan uyg‘un ravishda, bioetik tamoyillar asosida yondashishni zaruratga aylantiradi.

2. Yoshlar genetik texnologiyalar haqidagi qarorlar va ijtimoiy jarayonlarning eng faol subyekti ekanligi sababli, ularda axloqiy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash, genetik xavflarni anglash va biotexnologiyalar bo‘yicha ongli pozitsiya shakllantirish davlat va jamiyat oldidagi strategik vazifa hisoblanadi.

3. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, biotexnologiyalar haqidagi axborotlar ko‘pincha manipulyativ, senzatsion yoki noto‘g‘ri talqin qilinadi. Shuning uchun yoshlar orasida media savodxonligini oshirish, ilmiy asoslangan axborotlar bilan ta’minlash va axborot xavfsizligini mustahkamlash zarur.

4. Genetik tengsizlik, diskriminatsiya, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi buzilishi, “superinson” g‘oyasi kabi xavf va xatarlar yoshlarni bioetik qarorlar qabul qilishga, jamiyat manfaatini himoya qilishga va bioxavfsizlik tamoyillariga rioya etishga undaydi.

5. Maqolada taklif etilgan kognitiv, emotsional-aksiologik va ijtimoiy-amaliy komponentlar yoshlar ongida bioetik madaniyatni shakllantirishning samarali yo‘lidir. Bu model milliy qadriyatlarga tayangan holda, zamonaviy biotexnologiyalar bilan bog‘liq global jarayonlarga mos keluvchi ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi.

Ushbu xulosalar asosida biz qator tavsiyalarni berib o‘tishni lozim topdik:

1. Oliy va o‘rta ta’lim dasturlariga bioetika, genetik xavfsizlik, genom texnologiyalarining ijtimoiy oqibatlari bo‘yicha alohida modullar kiritilishi lozim. Yoshlarning ilmiy asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bioaxloqiy ongni mustahkamlaydi.

2. Genetik texnologiyalar haqidagi noto‘g‘ri, manipulyativ yoki senzatsion axborotlarning oldini olish maqsadida yoshlar orasida medialarni tahlil qilish, faktlarni tekshirish, ilmiy axborotni tanlash bo‘yicha maxsus treninglar va platformalar joriy etilishi maqsadga muvofiq.

3. Genetik aralashuv bo‘yicha qarorlar diniy-ma’naviy me’yorlar, milliy qadriyatlar va jamiyatning axloqiy tamoyillariga mos bo‘lishi kerak. Bu yo‘nalishda dinshunoslar, bioetika mutaxassislari va sotsiologlar ishtirokida jamoaviy maslahatlashuv mexanizmlari shakllantirilishi lozim.

4. Yoshlar genetik diskriminatsiya, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va bioxavfsizlik bilan bog‘liq masalalarda ijtimoiy tashabbus ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlar yaratish, jamoatchilik monitoringi, volontyorlik va ochiq debatlarni qo‘llab-quvvatlash lozim.

5. Ta’lim, ma’naviyat, huquq, sog‘liqni saqlash va media sohasi birgalikda ishlaydigan tizim yaratib, yoshlar uchun kognitiv (bilim), aksiologik (qadriyat), va amaliy (faollik) komponentlarga asoslangan yondashuvni joriy etish zarur. Bu model zamonaviy genetik texnologiyalar sharoitida yoshlarning mas’uliyatli, ongli va ijtimoiy faol bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Fukuyama F. Our Posthuman Future: Consequences of the Biotechnology Revolution. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2021.

Singer P. Practical Ethics. — Oxford: Oxford University Press, 2021.

Habermas J. The Future of Human Nature. — Cambridge: Polity Press, 2020.

Harari Yu.N. 21 Lessons for the 21st Century. — London: Jonathan Cape, 2020.

Rose N. The Politics of Life Itself: Biomedicine, Power, and Subjectivity in the Twenty-First Century. — Princeton: Princeton University Press, 2022.

Sandel M. The Case Against Perfection: Ethics in the Age of Genetic Engineering. — Harvard University Press, 2020.

Kaebnick G., Murray T. Genetic Ethics and the Future of Humanity. — MIT Press, 2021.

Resnik D. Environmental Health Ethics and Genomics. — New York: Routledge, 2022.

Baylis F., Robert J.S. Human Genome Editing: Science, Ethics, and Public Policy. — Oxford: Oxford University Press, 2021.

Brokordt N. Bioethics in the Age of Genomic Technologies. — Springer, 2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Izzatilloyeva Sabina Ilhom qizi
Ilmiy rahbar: Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
Saidova Habibaoy Sherzod qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Barkamol va har tomonlama yetuk avlod tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O‘zbekiston

Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning asosiy g‘oyalarida o‘z aksini topgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda uzluksiz ta‘lim tizimining maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimida bolalarni mashg’ulotlar bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. [1] Maktabgacha ta'lim davri bolalarning shaxsiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim bir bosqichdir. Ushbu davrda bolalar o'z fikrlarini ifoda etish, yangi g'oyalarni sinab ko'rish va ijodiy yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ijodiy qobiliyatlar, bolalarning muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni yaratish va o'z his-tuyg'ularini ifoda etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim usullari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. [2]

Maktabgacha yosh — bolaning shaxsiyati, tafakkuri va ijodkorlik qobiliyatlari jadal shakllanadigan davrdir. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda **ijodiy fikrlashni rivojlantirish** — ularning keyingi intellektual rivojlanishi uchun poydevor hisoblanadi. Psixologlar (L.S. Vygotskiy, J. Piaget, A.N. Leontyev) fikriga ko‘ra, bu davrda bola **tasavvur orqali fikrlaydi**, shuning uchun ijodiy faoliyat (o‘yin, rasm, hikoya, rolli o‘yin) orqali tafakkur kengayadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘yinlardan foydalanish, bolalarni turli xil faoliyatlarga jalb qilish va ularga erkinlik berish muhim. O‘yinlar bolaning aqliy, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi.

Ijodiy fikrlash — bu bolaning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud narsalarga noodatiy yechim topish, erkin tasavvur qilish qobiliyatidir.
Bu bolada mustaqil va originallik, moslashuvchanlik (turli yo‘llarni topish), keng tasavvur va emotsional ishtirok, o‘z fikrini ifoda etish jasorati kabi fazilatlarni shakllanishida yordam beradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari:

o‘yinlar: turli xil o‘yinlar orqali bolaning tafakkurini o‘stirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshirish mumkin.

rassomchilik va haykaltaroshlik: ranglar, shakllar va materiallar bilan erkin ishlashga imkoniyat berish orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish.

qurilish o‘yinlari: g‘ishtlar, bloklar yoki boshqa materiallardan turli narsalar yasash bolaning tasavvurini o‘stiradi.

hikoya yaratish: bolalardan rasmlar yoki turli narsalarga qarab hikoya to‘qib berishni so‘rash.

savol-javob: bolaning savollariga sabr bilan javob berish va ularni o‘zicha fikr yuritishga undash.

musiqa va raqs: musiqaga moslash va erkin harakatlanish, ijodiy ifodalash imkoniyatini beradi.

tabiat bilan aloqa: tabiatdagi turli narsalarni o‘rganish va kuzatish, ulardan ilhom olishga undash.

erkin ijodiy jarayon: bolani biror narsani yaratishda cheklamay, uning o‘z tasavvuriga erkin ishlashiga imkoniyat berish.

sayohatlar: yangi joylarni koʻrish va yangi narsalarni oʻrganish bolaning dunyoqarashini kengaytiradi.

Bryakova I.E.ning soʻzlariga koʻra ijodiy kompetentsiya motivatsion, kognitiv, operativ, aksiologik, aksiologik komponentlarni oʻzida mujassam etgan boʻlib, ular muammolarni samarali hal qilish va maksimal natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydi. [3] Ijodiy fikrlashning xususiyatlari esa quyidagilardan iborat:

ochiq fikrlash: ijodiy insonlar yangi gʻoyalar va qarashlarni hukm qilmasdan qabul qilib, innovatsiyalar rivojlanishi mumkin boʻlgan muhitni yaratadilar.

qiziquvchanlik: ularda yangi bilim va tajribalarni oʻrganishga, savol berishga va izlashga undaydigan tabiiy qiziqish bor.

tasavvur: ijodiy insonlar jonli tasavvurga ega boʻlib, ularga odatdagidan tashqari imkoniyatlarni tasavvur qilish imkonini beradi.

tavakkalchilik: muvaffaqiyatsizlik muvaffaqiyat sari pogʻona boʻlishi mumkinligini bilib, ular hisoblangan tavakkal qilishdan qoʻrqmaydilar.

moslashuvchanligi: ijodiy shaxslar oʻzgaruvchan sharoitlarga moslashadi va kerak boʻlganda oʻz strategiyalari yoki gʻoyalarini oʻzgartirishga tayyor.

qat'iylik: Ular oʻzlarining ijodiy maqsadlariga erishish uchun qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarni yengib, qat'iyat va tashabbusni namoyish etadilar.

hamkorlik: Ijodiy insonlar koʻpincha boshqalar bilan hamkorlik qiladilar va

turli nuqtai nazarlar yanada innovatsion yechimlarga olib kelishi mumkinligini tan oladilar

Ijodiy fikrlash — bu bolaning yangi gʻoyalar yaratish, noodatiy yechim topish va mavjud voqelikka yangi nuqtai nazardan qarash qobiliyatidir. L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, ijodkorlik “tasavvur va tafakkur birligi”da shakllanadi. Bola oʻz tajribasi asosida yangi obrazlar, gʻoyalar va yechimlar yaratadi. Shu sababli ijodiy fikrlashni shakllantirish jarayoni **oʻyin, muloqot va badiiy faoliyat** bilan chambarchas bogʻliq. Psixologik jihatdan, 3–6 yosh oralig‘ida bolaning tafakkuri **sezgi, qiziqish va emotsional tajriba** asosida shakllanadi. Shu davrda unga erkin fikrlash imkonini berish, oʻz fikrini ifoda etish va xatodan qoʻrqmaslik muhiti zarur.

Maktabgacha ta’limda ijodiy fikrlashni shakllantirish quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

a) Oʻyin faoliyati orqali

- rolli oʻyinlar (“Doʻkonchi va xaridor”, “Shifokor va bemor”) bolalarda ijodiy muloqot va vaziyatga mos fikrlashni rivojlantiradi.

- konstruktorlik va dramatik oʻyinlar bolaning **fantaziya, tahlil va rejalashtirish** qobiliyatini oshiradi.

- montessori yoki STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) asosidagi oʻyinlar bolalarda **mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatni hal etish**ni oʻrgatadi.

b) Badiiy va estetik faoliyat orqali

- rasm chizish, loydan yasash, qoʻgʻirchoq teatri, musiqiy mashgʻulotlar — bular ijodiy tafakkurning eng samarali shakllaridir.

- bola bunday faoliyatda **rang, shakl, tovush, harakat** orqali oʻz ichki dunyosini ifodalaydi.

- badiiy faoliyat **estetik idrok, tafakkur moslashuvchanligi va emotsional boylikni** rivojlantiradi.

c) Nutqiy ijodkorlikni rivojlantirish

- topishmoq, maqol, hikoya to‘qish, she’r aytish — so‘z boyligini kengaytiradi.

- “Nima bo‘lsa edi…?”, “Agar sen bo‘lganingda nima qilarding?” kabi savollar orqali bolaning **tahliliy va divergent fikrlashini** rivojlantirish mumkin.

Tarbiyachi ijodiy tafakkurni rivojlantirishda **yetakchi shaxs** hisoblanadi. U quyidagi yo‘llar orqali bolalarda ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi bolalarga **erkin fikrlash imkonini berish**, tayyor javoblarni berishdan saqlanish, har bir bolaga **shaxsiy yondashuv** asosida ijodiy topshiriqlar berish, ijobiy rag‘bat va qo‘llab-quvvatlov orqali **motivatsiyani oshirish,** mashg‘ulotlarda **“nima uchun?”, “qanday?”, “agar bo‘lmasa-chi?”** kabi savollar orqali tafakkurni faollashtirish, ijodiy natijalarni baholashda **tanqid emas, e’tirof** usulidan foydalanish.

Zamonaviy texnologiyalar asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirish bugungi ta’limda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Interfaol o‘yinlar, multfilmlar asosida topshiriqlar, raqamli hikoyalar tuzish (digital storytelling) orqali bola **ijodiy tafakkur va texnik ko‘nikmalarni** birgalikda rivojlantiradi. “STEAM” yondashuvi orqali bola **amaliy faoliyatda muammoli vaziyatlarni hal etish**ni o‘rganadi.

Ijodiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun tarbiyalanuvchilarni o’rab turgan muhit ham erkin, xavfsiz va ishonchli muhit bo’lishi, rang-barang o‘quv vositalari, tabiiy materiallar, ijodiy burchaklar, guruhli ishlarda hamkorlikni rag‘batlantirish, xatodan qo‘rqmaslik, “har bir fikr qimmatli” tamoyiliga asoslanishi lozim

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish — ularning kelgusidagi intellektual, estetik va ijtimoiy rivojlanishining asosi hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘yin, san’at va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali ijodkor, erkin fikrlovchi, o‘z fikrini himoya qila oladigan shaxsni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. 2020-yil 23-sentyabr 4-modda.

2.Maxmudova.O.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.,"Niso poligraf'. 2019

3. Tuychiyeva.M., N. A`zamov “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy fikrlashga o`rgatishning pedagogik asoslari” International scientific-practical conference “preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, December 4-5, 2024. –B. 809-812

4. Torrance, E.P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking.* Scholastic Testing Service.

5. Nurmatova, S. (2021). *Maktabgacha ta’limda ijodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi.* Toshkent: TDPU nashriyoti.

6. UNESCO (2023). *Early Childhood Education for Creativity and Innovation.* Paris: UNESCO Publishing.

АДОЛАТ ТАМОЙИЛИНИНГ ИНСОН МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ЭҲТИЁЖЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ КОНСТРУКТИВ АҲАМИЯТИ

Акбар Саиткасимов
Жиззах Давлат педагогика университети
профессори, фалсафа фанлари доктори

Жамиятда ижтимоий-маънавий барқарорликни сақлаш, кишилараро ўзаро узвий ҳамкорликни йўлга қуйиш ва мамлакатнинг истиқболдаги ривожланишини таъминлашдаги энг муҳим принциплардан бири адолат тамойили ва унинг меъёрлари билан иш юритиш хисобланади. Адолат принципи *деб кишиларнинг жамият томонидан белгиланган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-маданий нормаларни ҳаққонийлик билан, одилона ва холисона, тўғри, қонуний тарзда ҳаётга татбиқ этишга қаратилган фаолиятига айтилади.*

Жамиятда ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маънавий ҳаётда олиб бориладиган барча ислоҳотлар инсон ҳаётий манфаатларини кўзлаган ҳолда ҳар бир кишининг ҳаётини яхшироқ, муносиброқ, маънавий жиҳатдан такомилга етказишга қаратилиши, унинг шаъни ва қадр-қимматини янада улуғлаш, олий қадрият даражасига етказишга ҳаракат қилиниши оламшумул амалий ютуқларни олиб келиши билан биргаликда ижтимоий адолатнинг қарор топишига хизмат қилади. Абдулла Авлонийнинг фикрича, “Ҳар бир миллатнинг тараққий ва таолийси, давлат ва ҳукуматларнинг узоқ яшамоғи адолатга боғлиқдур”[1]. [1; 38]

Тарихан бизнинг халқимиз ҳаёти ва ижтимоий фаолиятида адолат, инсонпарварлик, ғамхўрлик, хайрихоҳлик ва саховат каби маънавий қадриятлар устивор аҳамият касб этиб келган. Бу бугунги кунимизда ҳам ижтимоий ҳаёт фалсафаси ва мантиғига мос, айни пайтда жамият томонидан инсоннинг ҳаёт кечириши учун хос бўлган манфаатлар, эҳтиёжлар ва имтиёзларни яратиб беришга қодир анъаналар билан боғлиқ бўлмоқда. Бу жараён жамиятда шундан ижтимоий қадриятлар вужудга келтирадики, натижада инсоннинг ёруғ келажаги ва истиқболи учун муҳим бўлган тамал тоши қўйилиб, жамият аъзоларида шуурида ижтимоий ҳаётдан розилик фалсафаси шаклланади.

Президентимиз Ш.Мирзиёев жамиятда адолат тамойилини қарор топтириш юзасидан қуйидаги фикрларни айтган: “Халқимиз ҳамма нарсадан устун қўядиган адолат туйғусини ҳаётимизда том маънода қарор топтириш - энг асосий вазифамизга айланиши шарт. Биз барпо этаётган ҳуқуқий давлатда, адолатсизликнинг ҳеч қандай кўринишига йўл қўйилмаслиги даркор. Нега деганда, одамлар ҳамма нарсага чидаши мумкин, лекин адолатсизликка чидай олмайди. Бу чуқур маъноли сўзлар бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам кўра муҳим ва долзарб аҳамият касб этаётганини сезиш, англаш қийин эмас”[2]. [2; 194].

[1] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т., “Ўқитувчи”, 1992. –Б. 38.

[2] Мирзиёев Ш,М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; - «Ўзбекистон», 2017. –Б 194.

Улуғ аллома Носиридцин Тусий: «Ижтимоий адолатнинг учта асосий талаби бордир, булар: биринчидан, аҳоли турли табақаларининг ўзаро уйғун бўлишини таъминлаш; иккинчидан, эл-улуснинг ҳақ-ҳуқуқи тенг таъминланган ҳолда кишиларни хизматга тайинлашда шахснинг салоҳияти ва имкониятларидан келиб чиқиш; учинчидан, барчанинг тенг фаровонлигини ҳимоя қилиш билан бирга, бу фаровонликни юзага келтиришдаги хизмати ва ҳуқуқига қараб ҳар бир инсон ўз улушини олишига имкон яратишдан иборатдир»[1], [3; 358-359] - деган эди. Бу доно фикрлар ҳозирги кунда ҳам ўзининг кучини йўқотгани йўқ.

Инсоннинг ижтимоий ва маънавий борлиқдаги манфаатлари устиворлигини таъминлаш ижтимоий адолат тамойилининг рўёбга чиқиши бўлиб, бу макон ва замон нуқтаи назари билан жамиятдаги ижобий ўзгаришлар, моддий ва маънавий ривожланиш даражасига боғлиқдир. Ижтимоий адолатнинг замонавий гуманистик талқини инсоннинг ҳаётда муносиб ҳаёт кечириши, қадр-қимматини ҳимоя қилиниши, инсон олий қадрият тамойилининг амалдаги рўёбга чиқишидир. Инсонни жамиятдаги ўрнини юксалиши яхши адолатли муносабатларга асосланган ижтимоий кафолатлар билан чамбарчас боғлиқдир.

Мамлакатимизда инсонлар ҳаёти, турмуш тарзи ва яшаш шароитларини яхшилаш борасида амалга оширилаётган дастурий асосдаги чора-тадбирлар ижтимоий адолатни таъминлашдек муҳим жараённи кенг асосда амалий рўёбини таъминламоқда. Бу эса, аҳолининг ҳуқуқ ва манфаатларини доимий ҳимояси, жамиятимизда меҳр-оқибат, ўзаро ёрдам, саховат ва мурувват муҳитини мустаҳкамлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини янада такомиллаштириш бўйича ўта долзарб ғоялар илгари сурилиб, амалиётга жорий этилмоқда.

Жамиятимизда ислоҳотлар замирида шундай муҳим жараёнлар кузатилмоқдаки, улар инсоннинг муносиб ҳаёт кечиришига тўла мос келадиган, ижтимоий адолатни қарор топтиришга хизмат қиладиган барқарор муносабатларни шакллантирмоқда. “Ижтимоий адолатнинг таъминланиши жамият барқарорлиги асосини ташкил этади, одамларнинг давлатга ва ислоҳотларга ишончини мустаҳкамлайди. Чунки адолатпарварлик ғояси халқимизнинг онгига, маънавиятига минг йиллар давомида чукур сингган, унинг қаддриятлар тизимида муҳим ўрин эгаллайди. Адолатпарварлик ғоясида дунёвий ва диний қадриятлар бирлашиб кетган”[2]. [4, 189]

Инсоннинг олий қадрият сифатида ҳуқуқ ва манфаатларининг рўёбга чиқарилиши, жамиятда унинг фаравон ҳаёт кечиришини таъминлаш билан ўзаро боғлиқ. Бу эса, инсоннинг ижтимоий ҳаёт ва унинг такомилига ўзгача жозиба берадиган, куч бағишлайдиган муҳим омил эканлигини англатади. Яна бир нарсани ҳисобга олишимиз керакки, глобаллашув, илмий ва технологик тараққиёт таъсири остида инсон фаравонлиги шакллари ўзгаради, унинг жамиятдаги ҳатти-ҳаракатларига боғлиқ равишда ижтимоий ҳаётдаги ўрни аниқланади.

[1] Ибрагимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Т:, “Ўзбекистон”, 1996. -Б. 358-359.
[2] Эркаев А. Ўзбекистон йўли. Т., “Маънавият”, 2011. –Б. 189.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мамлакатимизнинг ҳар бир фуқароси учун адолатлилик энг мухим хислатлардан бири булмоғи керак. Чунки адолат азалдан халқимизда ардокланган энг улуғ хислатлардандир. Шунга кўра, ҳар бир шахс, мутассадди ходим адолатпарвар бўлиши керак. Адолатли бўлиш - одобнинг устуни, инсонийликнинг асоси ҳисобланади. Ҳар бир инсон одоб ва инсонийликка етишаман деса, адолатли бўлишни унутмаслиги керак. Адолатли сўз уни айтувчига ҳам, эшитувчига ҳам манфаат етказади. Тўғрилик одамларни ҳамиша яхшиликка етаклайди, яхшилик эса адолатга етказади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т., “Ўқитувчи”, 1992. –Б. 38.

Мирзиёев Ш,М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; - «Ўзбекистон», 2017. –Б 194.

Ибрагимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Т:, “Ўзбекистон”, 1996. - Б. 358-359.

Эркаев А. Ўзбекистон йўли. Т., “Маънавият”, 2011. –Б. 189.

SALOMLASHUV VA XAYRLASHUV NUTQIY AKT BIRLIKLARINING LINGVOPRAGMATIK BIRLIK SIFATIDAGI TALQINI

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Salomlashish odoblari turli xalqlarda turlicha tarzda ifodalanib, turli pragmatik funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Kishilar o‘rtasida salomlashish bir-biriga *sog‘lik, baraka, Allohning rahmatini tilashni* anglatadi. Salomlashish odob birligi sifatida miloddan avvalgi asrlardan buyon doimiy ravishda ijtimoiy omillar ta’sirida har bir xalqning mentalitetiga xos tarzda shakllanib kelmoqda.

Musulmon xalqlarida salomlashishning fazilati haqida gapirilib, uni keng ommaga yoyish Rasulullo s.a.v. buyurgan 7 narsadan biri ekanligi[1.: 401], salom berish kishilar o‘rtasida mehr-muhabbat uyg‘otishi, hamisha salom berishga odatlangan inson Alloh huzurida eng *oliy martabada* ekanligi ta’kidlanadi[1.: 405].

Salomlashish fazilatlari haqida gap borar ekan, kishilar o‘rtasida salomlashish odobi qanday kechishi haqida fikr yuritsak, aslida faqat tanish emas, tanimagan insonlarga ham salom berish joizdir. Manbalarda eng yaxshi islom amali sifatida “tanigan-tanimaganingga salom berish” [1.: 400] keltiriladi.

Salom berayotgan kishimiz bitta kishi bo‘lsa ham ko‘plik shaklda, ya’ni “Assalomu alaykum” tarzida salomlashish kerakligi va salomni olgan kishi javob tariqasida “Va alaykum assalom” deyishi lozimligi salomlashishning dastlabki qoidalaridandir. Salom sifatida ifodalanayotgan har bir jumla uchun savob belgilanganligini Nabiy s.a.v. haqidagi rivoyatdan anglashimiz mumkinki, “Assalomu alaykum” 10 ta savob, “Assalomu alaykum

va rahmatullohi” 20 ta savob, “Assalomu alaykum va rahmatullohu va barokatuhu” 30 ta savobni o‘zida jamlaydi[1.: 403].

Qolaversa, xalq orasida bir-birovga salom yo‘llash an’anasi ham mavjud bo‘lib, g‘oyibdan salom yo‘llagan kishi salomiga javob qaytarish ham joiz amallardandir. (*Akam salom ayttilar siza. - salomat bo‘lsinlar/eson bo‘lsin/hasan bo‘sin/mannanam salom ayting*)

Jamoa orasida salomlashish odobida, bir kishi ko‘pchilik orasiga kirib kelgan holatida uch marta salom berishi odobdan ekanligi ta’kidlangan[1.: 403]. Uzoqroq masofadagi kishi bilan salomlashganda salom birligi bilan birga ishora amalini ham qilish kerakligi odob-axloq qoidalariga zid emas bo‘lib, bu maqbul amallardandir. Faqat ishoraning o‘zi hech qanday fazilatli ma’no anglatmasligi va bu musulmon ahliga xos odat emasligi ta’kidlanadi. Chunki faqat qo‘l ishorasi bilan ko‘rishish yahudiy xalqi odatlaridan kelib chiqqanligi manbalarda misol va dalillar orqali izohlab berilgan[1.: 404].

Erkak va ayol o‘rtasida salomlashish odobi agar ayollar ko‘pchiligu erkak bitta bo‘lsa, erkak avval salom boshlashi, ayollar javob qaytarishi, agar erkak-u ayol bitta bo‘lsa, kim salom boshlaganining ahamiyati yo‘q. Kim birinchi salom berishining fazilati haqida yuqorida izoh berib o‘tgan edik. Mobodo erkak va ayol o‘rtasida salomlashish fitna uyg‘otishi ehtimoli sezilsa, salomlashmagani ma’qul ko‘rilgan.

Bundan tashqari, suvoriy piyodaga, piyoda o‘tirgan kishiga, ozchilik ko‘pchilikka, kichiklar kattalarga salom berishi odobdan ekanligi ta’kidlanadi. Imom Buxoriy hadislarida kichiklarning kattalarga salom berishi odobdan ekanligi keltirilsa, Abu Zakariyo Rasulullоh haqidagi hadislarida u Zotning yo‘lda ketayotib bolalarga salom berib o‘tganligi rivoyati keltiriladi. Piyoda yuruvchi kiruvchi kishiga o‘xshashligi, shuning uchun birinchi salom berishi, kichik yoshlilar kattalarni hurmat qilish, ularga tavoze ko‘rsatish lozimligi yuzasidan dastlab salom berishi, biror ulovga minib olgan kishi o‘sha minib olganini deb faxrlanib kibrlanmasligi uchun salomni birinchi bo‘lib berishi, ozchilik ko‘pchilikka salom berishiga sabab, chunki ko‘pchilikning haqi ozchilikka qaraganda ko‘proq ekanligi izoh tariqasida keltiriladi. Islomda salom berish odobi mana shu ko‘rinishda ifodalanishi kerak.

Bundan tashqari, salom jumlasi bilan bog‘liq shunday amallar borki, ular qut-baraka, halollik, qilgan savob amallarini yonidagilarga ham tilashni anglatadi. Ya’ni bular namoz o‘qilgach ikki yelkaga, uyga kirayotganda, qolaversa, namozni tugatgan kishi yonidagi insonlarga salom berishida o‘z aksini topadi.

Biror joyga kirish uchun eshik taqqillatib, kirishga izn so‘ralganda “Assalomu alaykum, kirish mumkinmi?” tariqasida ijozat so‘rash odobdandir.

Salom berish sog‘lik, omonlik tilashni anglatib, xalq orasida ko‘pincha aksa urgan kishiga “sog‘ bo‘ling”, “salomat bo‘ling” jumlalari aytiladi. Lekin aksa urgan kishi “alhamdullilah” deyishi va yonidagilar unga javoban “Yarhamukalloh”(Alloh senga rahm qilsin) deyishi lozimligi manbalarda o‘z aksini topgan. Lekin aksa urib “Alhamdullilah” demaganga javob qaytarmaslik haqida rivoyat va hadisdan misollar keltirilgan[1.: 412].

Salomlashish odobi so‘zlar misolida ifodalanishi lozimligi ta’kidlangan holda ayrim ishoraviy belgilar ham joizligi keltirilgan. Xususan, bular orasida qo‘l siqish, o‘pishib yoki quchoqlashib ko‘rishish, bosh egish holatlari kuzatiladi.

Qo‘l siqish (salomlashuv) ming yillar davomida turli shakllarda mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, uning kelib chiqishi unchalik aniq emas. Ayrim nazariy fikrlarga ko‘ra, bu harakat *tinch niyatni bildirish vositasi* sifatida paydo bo‘lgan. Notanish odamlar bo‘sh o‘ng qo‘lini uzatib, qo‘lida qurol yo‘qligini va yomon niyatda emasligini ko‘rsatgan. Ba’zilar esa qo‘l siqishdagi yuqoriga-pastga harakati yeng ichiga yashirilgan pichoq yoki xanjarning tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishadi. Yana bir izohga ko‘ra, qo‘l siqish *qasamyod* yoki *va’da berishda* yaxshi niyatni ifodalovchi ramz bo‘lgan. Qo‘llarni birlashtirish orqali odamlar o‘z so‘zlariga qattiq sodiq ekanliklarini bildirganlar. Tarixchi Valter Burkert shunday deb yozgan edi: “Kelishuv so‘zlar bilan tez va aniq ifodalanishi mumkin, lekin u faqat marosimiy ishora — ya’ni ochiq, qurolsiz qo‘llarni bir-biriga cho‘zish va ularni o‘zaro siqish orqali kuchga kiradi”.

Qo‘l siqishning eng qadimiy tasvirlaridan biri miloddan avvalgi 9-asrga oid haykaltaroshlikda uchraydi. Unda Ossuriya shohi Shalmanaser III Bobil hukmdori Marduk-zakir-shumi I bilan qo‘l siqib, ittifoqqa kirganini ko‘rish mumkin. Yunon yozuvchisi Gomer ham “Iliada” va “Odisseya” asarlarida qo‘l siqishni bir necha bor tilga olgan bo‘lib, odatda bu harakat *va’da berish* va *ishonch bildirish* holatlarida ifodalangan. Miloddan avvalgi IV–V asrlarda esa qo‘l siqish yunon qabr toshlarida muntazam uchraydigan obrazga aylangan. Qabr toshlarida vafot etgan kishi yaqin qarindoshi bilan qo‘l siqib turgan holatda tasvirlanib, bu *so‘nggi xayrlashuv* yoki *tiriklar va o‘liklar o‘rtasidagi abadiy bog‘liqlikni* anglatgan. Qadimgi Rimda esa qo‘l siqish *do‘stlik* va *sadoqat* ramzi sifatida qo‘llanilgan. Hatto rim tangalarida ham qo‘l siqib turgan juftliklar tasvirlangan. Qadim dunyoda qo‘l siqish turli ma’nolarda ishlatilgan bo‘lsa-da, uni oddiy kundalik salomlashuv sifatida ishlatish ancha keyinroq, ya’ni yangi davrlarda ommalashgan. Ular oddiy qo‘l siqishni egilishga yoki bosh kiyimni yechishga nisbatan tenglikka asoslangan muomala deb hisoblashgan. Bu salomlashuv keyinchalik odatiy holga aylangan va XIX asrga kelib hatto odob-axloq qo‘llanmalarida ham qo‘l siqishning to‘g‘ri usullari haqida ko‘rsatmalar berilgan. U haddan ortiq qattiq bo‘lmasligi kerak deb ta’kidlangan. XIX asrning 70-yillariga oid manbalarda shunday deyiladi: “Salomlashishda uzatilgan qo‘lni qo‘pol tarzda siqadigan yoki haddan ziyod kuch bilan silkitadigan kishi bunday xatoni boshqa takrorlash imkoniga ega bo‘lmasligi kerak” [4.: 4].

Qo‘l siqib ko‘rishish islom manbalarida ham kuzatiladi. Musulmon ulamolarining izohlashicha, Yaman ahli o‘zi bilan birga bu odatni olib keladi. Abu Dovud rivoyatida Rasulullоh s.a.v.ning “ikki musulmon yo‘liqib, qo‘l berib so‘rashishsa, ular ikkovi ajralmaslaridan oldin gunohlari kechiriladi” tarzidagi fikrlari uchraydi[1.: 414].

Ikki do‘st uchrashganda bosh egish yoki quchoqlab o‘pish emas, qo‘lidan ushlab so‘rashish islomiy odatlardan ekanligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, farzandni o‘pib ko‘rishish rahm belgisi bo‘lib, “kim rahm qilmasa, rahm qilinmaydi” tariqasida “Riyoz us-solihin” kitobining 143-bobi 893/9-faslida keltiriladi[1.: 415]. Salomlashishning ishoraviy amallaridan ko‘rishganda qo‘l berib so‘rashish(885/1-888/4), ochiq chehra bilan kutib olish(892/8), solih kishilarning qo‘lini(890/6), o‘z bolasining yuzini o‘pish(893/9), safardan qaytgan kishi bilan quchoqlashib ko‘rishish(891/7) nafaqat odob-axloq me’yorlariga mos keladi, balki islomiy amal sifatida ham baholanadi.

Qo‘l siqish tasvirlari qadimgi yunon, etrusk va rim dafn marosimida va dafn marosimida bo‘lmagan san’atda ham uchraydi. Qo‘l siqish bilan bog‘liq turli xil urf-odatlar mavjud, ular umumiy va ma’lum madaniyatlarga xosdir: qo‘l berib ko‘rishish, odatda, uchrashish, salomlashish, xayrlashish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish yoki biznes yoki diplomatik kelishuvni yakunlashning ommaviy belgisi sifatida amalga oshiriladi. Sport yoki boshqa musobaqalarda bu yaxshi sport mahoratining belgisi sifatida ham amalga oshiriladi. Uning maqsadi *ishonch, hurmat, muvozanat* va *tenglikni* bildiradi. Agar kelishuv tuzish uchun qilingan bo‘lsa, qo‘llar ajratilmaguncha shartnoma rasmiy emas hisoblanadi. Qo‘l siqish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ba’zi odamlar musht urishtirishni afzal ko‘rishadi. Qo‘l siqish kabi musht urishtirish boshqa odam bilan munosabatlarni tan olish uchun ishlatilishi mumkin. Qo‘l berib ko‘rishishning rasmiyligidan farqli o‘laroq, musht urishtirish odatda biznes bitimini muhrlash yoki rasmiy biznes sharoitida ishlatilmaydi.

Qo‘l berib ko‘rishish salomlashishdan tashqari belgilarni ham anglatadi. Ya’ni xayrlashganda, yaqin davlatlar elchilari o‘rtasida muzokara qilishganda, kelishuv holatlarida, musobaqalarda o‘yin tugagach raqiblar bir-birining kuchi va g‘olib-u mag‘lublikni tan olganda qo‘l berib ko‘rishish kuzatiladi.

Salomlashishda bo‘lgani kabi xayrlashuv jarayoni ham o‘zining axloqiy me’yorlariga ega bo‘lib, xayrlashuv birliklari xayrlashuvdan tashqari vazifalarni ham amalga oshiradi.

Xayrlashuv insonlararo muloqotning qadimiy va muhim tarkibiy qismidir. U til, madaniyat, ijtimoiy odob va pragmatik maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir xalqda o‘ziga xos madaniy ko‘rinishlarga ega.

Xayrlashuv an’analari insoniyat tarixining dastlabki davrlarida, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida aloqa va hamkorlik zarurati yuzaga kelgan paytlarda shakllangan. Odamlar muloqotni tugatishda urf-odatlarga asoslangan so‘zlar bilan muloqotni ijobiy ruhda yakunlashga intilgan. Xayrlashuv faqat muloqotni tugatish emas, balki suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish, unga ezgu tilaklar bildirish, kelgusidagi muloqotga ochiqlikni anglatuvchi vosita sifatida ham shakllangan.

Islomiy madaniyatda xayrlashganda ham salomlashuv birligi sifatida keng tarqalgan *“Assalomu alaykum va rahmatullohu va barokatuh”* iborasi muhim o‘rin tutishi manbalarda ta’kidlangan(869/1-fasl) [1.: 409]. Xayrlashishda bugungi kunda *“Xayr”, “Ollohga omonat bo‘ling”, “Yaxshi qoling”* kabi duoli shakllar ishlatiladi.

Har qanday muloqot tartibli yakun talab qilishi nuqtayi nazaridan muloqotni ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri tugatish maqsadida xayrlashuv birliklari qo‘llanadi. Bu jarayon madaniy me’yorlar asosida bajariladi. Bu turli xil nutqiy birliklar yoki imo-ishoralar (paralingvistik vositalar) orqali amalga oshiriladi. Qolaversa, suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish *(“Yaxshi qoling”, “Omad siz bilan bo‘lsin”, “Allohga topshirdim”* kabi birliklar) orqali samimiylik ifodalanadi. Xayrlashuvdagi iliq tilaklar muloqotning ijobiy yakun topishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, yana ko‘rishishga ochiqlikni *(“Ko‘rishguncha”, “Yana gaplashamiz”, “Telefon qilaman”* kabi birliklar) yuzaga keltirib, kelajakdagi aloqani davom ettirish niyatini bildiradi. Bundan tashqari, xayrlashuv birliklari ijtimoiy mavqe va yaqinlikni anglatadi. *“Xayr, salomat bo‘ling”, “Omadingizni bersin”, “Ko‘rishamiz”, “Xabarlash”* kabi variantlar suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa darajasini ko‘rsatadi.

Quyida ayrim xayrlashuv shakllarining qisqacha lingvopragmatik xususiyati keltiriladi:

Xayrlashuv birligi	**Lingvopragmatik xususiyati**
Yaxshi qoling, sog‘ bo‘ling	Duoli, norasmiy, iliqlik bildiradi
Omadingizni bersin	Ezgu tilak, ijobiy energiya bilan to‘la
Rahmat sizga, bor bo‘ling	Minnatdorchilik va xayrlashuv uyg‘unlashgan
Allohga topshirdim	Diniy asoslangan xayrlashuv. Alloh panohida bo‘lgan inson balo-qazolardan yiroq turishi haqidagi qarashni ifodalaydi.
Ko‘rishguncha	Kelajakda uchrashuv niyati borligini anglatadi.

Xayrlashuv birliklari shunchaki muloqotni yakunlovchi so‘zlar emas, balki madaniyatni aks ettiruvchi pragmatik vositalar, insonlararo ijobiy munosabatni mustahkamlovchi, suhbatdoshga bo‘lgan hurmat va tilakni ifoda etuvchi nutqiy birliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy. Riyoz us-solihiyn. “Matbaachi” nashriyoti. Toshkent 2022.

Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

О.Анчимиук Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. – Б.: 2020.

The History of the Handshake . https://www.history.com/articles/what-is-the-origin-of-the-handshake

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Saxlayeva Aziza
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga chuqur bilim berish, ularni erkin fikrlaydigan, ijtimoiy faolligi yuqori shaxs sifatida tarbiyalashdir. Boshlang‘ich ta’lim bu jarayonning poydevori bo‘lib, aynan shu bosqichda o‘quvchilarning keyingi rivojlanishiga zamin yaratiladi. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda sifat – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari davlat ta’lim standartlari hamda xalqaro mezonlarga muvofiqligini anglatadi. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchining metodik mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan

samarali foydalanishi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida turli ko‘lamdagi chuqur o‘rganishlar o‘tkazilib ta`lim sifatiga ijobiy ta`sir etadigan yangi dars tuzulmasi ishlab chiqilmoqda. Ta`lim jarayonida ilg‘or pedagogic texnologiyalarni faol qo‘llash, ta`lim samaradorligi va sifatini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hamdir.

Boshlang‘ich ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta`limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.Uning ta`limda qo‘llanilishi quyidagi samaradorliklarni beradi.

O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.Bunga misol qilib interaktiv usullar(aqliy hujum,klaster, insert) kabi texnologiyalar bolalarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadi.

Darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Multimedia, o‘yinli texnologiyalar bolalar diqqatini yaxshi o‘ziga jalb eta oladi va dars mashg‘ulotida zerikish hissini yo‘qotadi.

O‘qituvchi mehnati ancha yengillashadi bunda raqamli texnologiyalar,masalan, elektron testlar, onlayn darslar,va virtual laboratoriyalar orqali o‘qituvchi vaqtini tejaydi va nazoratni osonlashtiradi. Ushbu jarayon orqali o‘qituvchi qisqa vaqt ichida ko‘proq natijalarga erishadi bu, albatta, dars jarayonida o‘qituvchiga anchagina qulayliklar beradi.

Axborot madaniyatini shakllantiradi, bunda o‘quvchilar raqamli texnologiyalar bilan ishlashni erta o‘rganadi, bu esa kelajakda texnologiyalarda ishlash madaniyatini paydo qiladi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi bevosita bu bilan tanishtirib borishi, ular uchun foydali dasturlar bilan bir qatorda zararli dastur va axborotlar haqida ham ma`lumot berishi kerak bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda xususiy ta’lim muassasalari faoliyati keng yo‘lga qo‘yildi. Mazkur maktablarda STEAM yondashuvi, CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi, robototexnika va boshqa innovatsion usullar keng qo‘llanilmoqda. Bu tajribalar umumta’lim maktablarida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Finlyandiya ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvi, baholashning individualligi bilan ajralib turadi. O‘quvchilar dars davomida real hayotdagi muammolarni hal qiluvchi kichik loyihalar bajaradilar. Masalan, o‘zimizda qo‘llasak “Tabiatni asraymiz” loyihasi asosida 2-sinf o‘quvchilari chiqindilarni saralash haqida plakat tayyorlashadi. Yana Finlandiyada o‘qituvchi bilimni beruvchi emas, yo‘l ko‘rsatuvchi(mentor) hisoblanadi. O‘qituvchi ko‘proq yo‘naltiruvchi savollar beradi, javobni tayyor aytmaydi. Darslarda planshet, interaktiv doska, o‘quv platformalari keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda esa bundan ilhomlanib “Learning Apps”,”Kahoot”,”Quizizz” kabi vositalardan foydalanish.

Janubiy Koreyada ham texnologiyalardan keng foydalanish, intizom va ta’limning natijaviyligiga katta e’tibor qaratiladi. Hattoki har bir o‘quvchida planshet yoki noutbuk bor. Ammo buni ta`lim tizimimizga kiritish hozirgi vaziyatda yaxshi yechim emas, chunki bizning o‘quvchilarda hali raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati shakllantirilmagan. Janubiy Koreya ta`lim tizimida bolalarda texnik fikrlash, muammo yechim va kreativlikni rivojlantirish alohida qaraladi. 1-sinfdan boshlab robotexnika,

kodlash kabi mashg‘ulotlar o‘tiladi. Bu jarayonni dastlab boshlang‘ich sinflarda oddiy kodlash o‘yinlari, texnik konstruktorlar (Lego, Arduino) orqali amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zimizni maktablarda qo‘llasak yaxshi natija berishi xususiy maktablar misolida o‘z aksini topmoqda. Singapurda ta’lim jarayonida ham tanqidiy fikrlash va kreativlik asosiy omil sifatida qaraladi. Har bir o‘quvchi texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadi. Axborotni tahlil qilish, raqamli xavfsizlik, media savodxonligi kabi dars mashg‘ulotlari boshlang‘ich sinfdanoq o‘rgatilib boriladi. Angliya tajribasida esa differensial ta’lim va ijodiy topshiriqlarga ustuvorlik beriladi. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va xorijiy tajribalarni solishtirganda, umumiy jihatlar – innovatsiyaga intilish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga e’tibor qaratishdir. Farqli jihat esa – xorijda o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ularni doimiy ilmiy-amaliy izlanishga jalb qilish tizimining mukammalligidir. Shu bois, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘qituvchilarning muntazam malaka oshirishiga e’tibor kuchaytirilishi zarur. Chet el ta`lim tizimi ancha avval zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni tadbiq etgani va o‘quvchilarni ham bunga tayyorlagani bizning ta`lim tizimimizdan farq qiladi. Buning uchun ta`lim tizimida chet el tajribasidan o‘tgan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kutilgan natijani beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etish, o‘qituvchilarning metodik mahoratini muntazam oshirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ta’lim va tarbiya sifatini oshirishning muhim omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid qaror va farmonlari. – Toshkent, 2017–2024.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Xoliqova N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2021.
5. OECD. Education in Finland: Best Practices. – Paris, 2020.
6. Singapore Ministry of Education. Educational Strategies and Innovations. – Singapore, 2021.
7. South Korea Education Development Institute. – Seoul, 2019.
8. National Curriculum of England. – London, 2018.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report (2023).

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Kudeshova G.
Ilmiy rahbar: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Seytnazarova Gulmira
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Kirish. Yoshlar jamiyatning kelajagi davlatning eng qimmat manbai hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri tarbiyasi va ijtimoiy faolligi milliy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Ularning ijtimoiy, ma’naviy va intellektual rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning tarbiyaviy roli yoshlarning hayotga tayyorlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyat birgalikda yoshlarning to‘g‘ri tarbiyalanishi uchun mas’uldir. Madaniy qadriyatlarni o‘rganish va o‘zlashtirish, oilaviy tarbiya va maktabdagi ta’lim jarayoni yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi [1].

Maqolada ta’lim tizimi va madaniy muhitning yoshlar tarbiyasidagi roli, oilaviy tarbiya metodlari, shuningdek, amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

1. Ta’lim tizimining yoshlar tarbiyasidagi roli

Ta’lim tizimi yoshlarning bilim, ko‘nikma va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy vositadir. Maktabda o‘qituvchilar nafaqat fan bo‘yicha bilim beradi, balki yoshlarni ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantiradi.

Masalan, ta’lim dasturlarida interaktiv metodlarni qo‘llash, guruh ishlari va loyihaviy faoliyat yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maktabda tashkil etilgan madaniy tadbirlar va sport musobaqalari yoshlarni sog‘lom va ijtimoiy faol bo‘lishiga yordam beradi [2].

2. Madaniy muhit va yoshlar tarbiyasi

Madaniy muhit – bu yoshlarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. U maktab, jamiyat va media orqali shakllanadi. Madaniy muhit yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, estetik didini va axloqiy qadriyatlarini rivojlantiradi.

Masalan, teatr, muzey, kutubxona va madaniy tadbirlarda ishtirok etish yoshlarning madaniy bilimini oshiradi. Shu bilan birga, maktabning madaniy muhitini boyitish uchun turli klub va to‘garaklar faoliyati tashkil etilishi lozim [3].

3. Oilaviy tarbiya metodlari va ijtimoiy qadriyatlar

Oila yosh tarbiyasining birinchi maktabidir. Ona- ota tarbiyasida axloqiy qadriyatlar, hurmat, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi. Oilaviy muhit mustahkam bo‘lsa, yoshlar ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muloqot, ijobiy motivatsiya va ruhiy qo‘llab- quvvatlash yoshlarning shaxs sifatida to‘la yetilishi uchun muhim hisoblanadi. Oila yoshlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisi hisoblanadi. Ona-ota tarbiyasi orqali axloqiy qadriyatlar, odob-axloq qoidalari va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Oilaviy tarbiyada quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:
Qoidalarni va tartiblarni belgilash;
Ijobiy rag‘batlantirish va motivatsiya berish;
Farzand bilan muloqot va suhbat orqali tushuntirish;
Oilaviy an’analarni saqlash va madaniy merosni o‘rgatish [4].
4. Amaliy tavsiyalar
Ta’lim jarayonida interaktiv va ijodiy usullarni qo‘llash;
Madaniy tadbirlar va loyihalarda yoshlarni faol ishtirok ettirish;
Ota-onalarga tarbiyaviy maslahatlar berish va oilaviy treninglarni tashkil etish;
Jamiyat va maktab hamkorligini kuchaytirish;
Yoshlar psixologiyasini tushunish va individual yondashuvni qo‘llash.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari bugungi jamiyat taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishi bevosita ushbu uch muhim omilning o‘zaro uyg‘un va tizimli faoliyatiga bog‘liqdir. Ta’lim muassasalari yoshlarni bilim bilan qurollantirish bilan bir qatorda, ularda mustaqil fikrlash, mas’uliyat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishi lozim.

Madaniy muhit yoshlar ongida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Teatr, muzey, kutubxona, madaniy tadbirlar va ijodiy to‘garaklar yoshlarning estetik didini rivojlantiradi hamda ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida yoshlarni zararli axborotlardan himoyalash, ularda tanqidiy fikrlash va ongli munosabatni shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Oilaviy tarbiya esa yoshlar shaxsining shakllanishida asosiy va hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Ota-onaning farzandga bo‘lgan e’tibori, mehr-muhabbati, shaxsiy namunasi va to‘g‘ri muloqoti yoshlarning axloqiy qadriyatlari va hayotiy qarashlarini belgilaydi. Mustahkam oilaviy muhit mavjud bo‘lgan taqdirdagina ta’lim va madaniy muhitning ijobiy ta’siri yanada samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov, S. (2020). Oila va maktabda tarbiya masalalari. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Karimova, L. (2018). Madaniy muhit va yoshlar. Samarqand: Fan.
3. Rustamov, O. (2019). Ta’lim tizimi va ijtimoiy rivojlanish. Toshkent: Pedagogika.
4. Smith, J. (2021). Youth Development and Education. London: Academic Press.
5. Islomov, A. (2022). Yoshlar tarbiyasi va madaniy qadriyatlar. Toshkent: Fan.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION: PRONS AND CONS

Shamieva Nargiza Abdusattarovna
PhD student National University of Uzbekistan
Tulegenova Jazira
Foreign language and literature

Introduction: Nowadays, artificial intelligence plays a crucial role in our lives. AI is a special machine that includes some tasks such as learning and finding data, recognizing patterns, searching images and videos, and also making decisions. The first artificial intelligence (AI) was developed in 1956 at a Dramaturgy Conference, which was organized by John McCarty, Marvin Minsky and Nathan Naylor and other scientists. At this conference, researchers explored the main factors of AI and discussed several topics which related to the machine; they wanted to create a machine that will imitate human cognition and learning skills in a computer system. Then, artificial intelligence (AI) started to develop and passed all checking and special experiments. Despite of some challenges in the beginning of the 21st century in progress of algorithms, AI improved its system and became more popular among people. Nowadays, artificial intelligence is widely used in various spheres such as medicine, education and others. In this article we will discuss the advantages and disadvantages factors of using AI in the educational field and its influence on the learning process. According to the Simon Kemp's statistics of using AI worldwide is about 20 % of the population. The use Artificial Intelligence (AI) in education includes a wide range of opportunities in learning aspects such as using some methods for engaging students or intelligent tutoring, and natural language processing. In addition to this, artificial intelligence may control your time and provides opportunities for assessment.

Methodology: The main purpose of the research is to identify the various areas of artificial intelligence in educational sphere, especially the analysis of pros and cons factors in education. In order to find information about artificial intelligence literature, we searched in some databases such as Google Scholar, Education platforms and e-libraries. Many researchers explored the aspects of Artificial Intelligence (AI) and also, they noticed that many students use Artificial Intelligence in their schools, universities and language courses. Researcher Zawacki- Richter has been developed the application of artificial intelligence (AI) in education for 30 years [1]. Then, Chen (2020) believed that the application is growing and it leads to improvements. The statistic shows that students often use some application of artificial intelligence in educational field [2].

Pros and Cons of Artificial Intelligence. Every technological innovation has its own purpose and pros and cons factors. Learning the pros and cons factors of Artificial Intelligence can help to understand its functions better in the future. Sundar Pichai believes that the artificial intelligence is the most important thing in humanity [3]. *The pros of using Artificial Intelligence*. There are some benefits of using Artificial Intelligence such as Intelligent Tutoring Systems (ITS), Personalized Learning, Automatic assessment and Natural Language Learning which bring benefits to education. Intelligent Tutoring

Systems (ITS) are a special application for learning by yourself; students can learn knowledges based on their major, motivation, and some strategies. It provides individual study and improves their self-development. Clancey and Hoffman (2021) mentioned about how it is effective especially in teaching STEM. Personalized Learning is a popular type of application, where students can find any information related to their occupations, such as motivational letter, learning styles and other tasks. This system can help students, for example students who cannot decide what he should study or which subject will choose, so that Personalized Learning not only helps find information but also gives a right direction and advice in their educational field. Automatic Assessment is a smart application where students can get automatic grades and feedback on their works. For example, students often check their mistakes and writing skills in ChatGPT, as a result the application gives feedbacks, correct mistakes and writes an overall score of writing part [4].

The cons of using Artificial Intelligence in education. All technological systems have some disadvantages, including technical issue of the system, data or privacy. Many AI systems give unnatural answers or wrong data, such as wrong names. When people overuse AI, it can lead to a lack of human interaction. For example, nowadays, students prefer to search for any information through AI machines, but there are some drawbacks to overuse AI systems. Instead of searching for information through books or asking professors, students just type their question into the ChatGPT. It can not only lead to the loss of human interaction, but also students can decrease the level of critical and creative thinking because they do not train their brains critically and logically.

Pros of AI	Cons of AI
- Personalized Learning	- Ethical Concerns
- Improved Efficiency	- Loss of Human Interaction
- Innovative Teaching Methods	- Dependence on Technology

Literature Analysis: There are many researchers who have explored the aspects of AI systems. An analysis of the practical application of AI in education shows that using AI platforms boost the level of motivation and interaction. For example, in Duke University, students use special chat-bots and this approach has influenced their academic level, as a result, about 15% of students graduated successfully [5]. In the scientific literature we can find many examples of dialogue systems in order to learn foreign languages with a practice. Researchers highlighted that using chat-bots on a daily basis can decrease the level of critical thinking and decision-making [6]. Moreover, teachers worried about their work that AI systems can replace the role of teachers and negatively influence on their knowledge. According to Baker and Smith (2019), supposed that an AI system can do many tasks as well as human [7]. Scientists suggested that using Artificial Intelligence, especially virtual systems and chat-bots can boost their independence. For example, students may communicate with ChatGPT virtual voice or learn some strategies that improve their speaking level [8,9].

Results and Discussion: The statistic shows that using artificial intelligence (AI) enhances the effectiveness of the learning process which gives essential resources for

students. As a result of using adaptive learning in education, the success of students was raised by 15-20% compared to traditional approaches. According to the Research and Markets, the investment for AI increased from $2.30 billion in 2023 to $2.98 billion in 2024. When researcher explored the pros and cons factors of using artificial intelligence, some scientists believed that it could also bring some disadvantages for students and teachers because of using AI systems all the time rather than thinking logically. For example, a professor conducted an experiment at our university. She gave a permission to use AI, and all students started to search information through ChatGPT, then she gave some questions and students answered without thinking critically. The next day, our professor collected all the student's phones and again gave them some questions about media, the students were silent, and nobody wanted to answer. After that, she explained do not rely on your phone just think logically and critically and some students started to answer one by one. This experiment showed that students depended on phones, but when they could not use them, then they tried to think and analyze answers. This approach can help to improve critical thinking and highlighted the main idea that we should think firstly and use our brain.

Conclusion: Nowadays, Artificial Intelligence has become more popular and it has influenced on educational system. There are also have advantages and disadvantages factors of using artificial intelligence but AI system will never be a replacement for the human workforce. Thus, students and teachers should limit the use of ChatGPT and the best way to research something is to use books and articles.

References:

Zawacki-Richter, O., Marín, V.I., Bond, M. and Gouverneur, F., 2019. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education–where are the educators? *International journal of educational technology in higher education*, *16*(1), pp.1-27.

Zhuang, Y.T., Wu, F., Chen, C. and Pan, Y.H., 2017. Challenges and opportunities: from big data to knowledge in AI 2.0. *Frontiers of Information Technology & Electronic Engineering*, *18*(1), pp.3-14.

Max Editorial ed., 2024. *Sundar Pichai, A Vision for the Future of Google-The Architect of the Digital Future*. Max Editorial.

Clancey, W.J. and Hoffman, R.R., 2021. Methods and standards for research on explainable artificial intelligence: Lessons from intelligent tutoring systems. *Applied AI letters*, *2*(4), p.e53.

Polozhikhina, M.A. and Korovnikova, N.A., 2024. Russian Science under the Pressure of Sanctions: New Risks and Opportunities for Development. *Herald of the Russian Academy of Sciences*, *94*(4), pp.180-187.

Kooli, C., 2023. Chatbots in education and research: A critical examination of ethical implications and solutions. *Sustainability*, *15*(7), p.5614.

Smith, B.C., 2019. *The promise of artificial intelligence: reckoning and judgment*. Mit Press.

Sysoyev, P.V. and Filatov, E.M., 2023. Chatbots in teaching a foreign language: advantages and controversial issues. *Tambov University Review. Series: Humanities*, *28*(1), pp.66-72

Islamov, R., Greenwald, O. and Tunyova, N., 2020. Information and communication technologies in foreign language teaching in multinational higher education environment of mining region. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 174, p. 04042). EDP Sciences.

TA’LIM TIZIMIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH: HALOLLIK VA ODOB-AXLOQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

Shamsiddinov Orifjon Firuzovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi,

Kirish. Globallashuv sharoitida korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikka ham jiddiy tahdid solayotgan omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, ta’lim tizimidagi korrupsiya kelajak avlod ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jamiyatning ishonch kapitalini pasaytiradi. Ta’lim muassasalarida halollik va axloqiy madaniyatning sustligi, baholash tizimining shaffof emasligi, manfaatparastlik va mas’uliyatning pasayishi korrupsiyaning shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Shu bois, korrupsiyani oldini olishning eng samarali yo‘li — o‘quvchi, talaba va pedagoglar ongida halollik, adolat va ma’naviy poklik qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Ta’lim tizimidagi tarbiya jarayoni yosh avlodning dunyoqarashi, odob-axloqi va ijtimoiy xulqini shakllantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Demak, halollikni ta’limning ajralmas qismi sifatida ko‘rish dolzarb pedagogik vazifadir.

Tahlil va muhokama. Ta’lim tizimidagi korrupsiyani oldini olish masalasi jamiyatning ma’naviy rivoji, ijtimoiy barqarorligi va kelajak avlodning hayotiy qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Korrupsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, manfaat evaziga adolat, qonunlilik va me’yoriy tartibni buzishdir. Ta’lim tizimida esa bu jarayon yanada xavfli tus oladi, chunki u ijtimoiy ong va qadriyatlar shakllanadigan eng muhim tarbiya muhitiga putur yetkazadi. Ta’lim muassasasida yuzaga kelgan korrupsiya natijada yoshlar ongida “bilim emas, vosita ishlaydi” degan noto‘g‘ri qarashni shakllantirib, insonning ma’naviy asoslarini yemiradi 1.

Ta’lim muassasalarida korrupsiya odatda baholash, imtihon, attestatsiya, kirish sinovlari, o‘quv jarayonini boshqarish, resurslarni taqsimlashda ko‘rinadi. Masalan, talaba bilimiga emas, moddiy yoki boshqa shaxsiy manfaatga asoslangan baho olganda bilimning qadri pasayadi. Bu holat nafaqat o‘quvchi yoki talabaning intilishiga salbiy ta’sir qiladi, balki jamiyatda malakasiz mutaxassislarning ko‘payishiga ham olib keladi. Vaqt o‘tib bunday tizim jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib, raqobatbardosh kadrlar yetishmasligiga sabab bo‘ladi 2.

Ta’limda korrupsiya natijasida:

adolat mezonlari zaiflashadi;

mehnatning qadri yo‘qoladi;

bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiya pasayadi;

ijtimoiy ishonch inqirozi yuzaga keladi 3.

Demak, korrupsiyani faqat huquqiy choralar bilan emas, tarbiyaviy-pedagogik mexanizmlar orqali ham oldini olish zarur. Bu jarayonda shaxs ongida halollik, poklik, vijdon, mas’uliyat va adolat qadriyatlarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Halollik va odob-axloq madaniyati shaxs psixologik va ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadi. Insonning axloqiy qiyofasi avvalo oilada, so‘ng maktabda va ijtimoiy muhitda rivojlanadi. Oilada ota-onaning halol mehnatga munosabati, jamiyatga itoati, boshqalar huquqini hurmat qilishi bolada axloqiy me’yorlar shakllanishining boshlang‘ich bosqichi bo‘ladi 4. Agar oila halollikni qadrlasa, bola uchun halollik tabiiy me’yorga aylanadi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalari esa bu jarayonning keyingi bosqichidir. Ta’lim jarayonidagi eng katta tarbiyaviy kuch o‘qituvchi shaxsining o‘zi bilan bog‘liq. O‘qituvchi qanday gapirsa, qanday o‘zini tutsa, qanday qarorlar qabul qilsa — barchasi o‘quvchi uchun model bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchining axloqiy madaniyati korrupsiyani oldini olishda eng ta’sirchan vositalardan biridir. “O‘qituvchi qanday bo‘lsa — jamiyat shunday bo‘ladi” degan fikr zamirida katta ma’naviy haqiqat mavjud 5.

Korrupsiyani oldini olishda halollik madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari mavjud. Birinchidan, o‘quv dasturlariga “Halollik saboqlari”, “Odob-axloq asoslari”, “Vijdon va mas’uliyat” kabi mavzularni muntazam kiritish muhim. Bunday darslar orqali yoshlar nafaqat korrupsiya oqibatlari, balki halollikning shaxsiy va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladi 6.

Ikkinchidan, ta’lim tizimining baholash jarayonini shaffoflashtirish korrupsiyaning eng katta manbalaridan birining oldini oladi. Elektron baholash tizimlari, avtomatlashtirilgan reyting platformalari, ochiq imtihon protokollari — inson omilining noxolis ta’sirini kamaytiradi 7.

Uchinchidan, pedagogik etika kodeksining amalda qat’iy qo‘llanishi o‘qituvchining kasbiy axloqiy mas’uliyatini oshiradi. O‘qituvchi korrupsiyaga sabab bo‘ladigan har qanday harakat faqat qonun bilan emas, o‘zi uchun yuksak axloqiy me’yor bilan cheklanishi lozim. Chunki o‘qituvchi jamiyatning ma’naviy ko‘zgusi hisoblanadi 8.

To‘rtinchidan, talabalar va o‘quvchilarni jamoatchilik nazorati jarayoniga jalb etish samarali natija beradi. Masalan, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish kengashlari, debat klublari, volontyor guruhlari yoshlar ongida faollik va mas’uliyatni oshiradi. Jamiyatda o‘z o‘rnini anglagan shaxs korrupsiyaga qarshi ongli pozitsiya shakllantiradi 9.

Halollik madaniyatini shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, bunda tarbiya, ta’lim, muhit va shaxsiy tajriba o‘zaro uyg‘un holda ishlashi kerak. Shu ma’noda, korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash bilan emas, balki halollikni qadrlaydigan madaniy muhit yaratish orqali samarali amalga oshadi. Yoshlar halollikni nafaqat axloqiy talab, balki shaxsiy hayot strategiyasi sifatida qabul qilishi kerak. Agar inson halol mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglab yetgan bo‘lsa — u korrupsiya yo‘liga kirmaydi.

Shunday qilib, ta’lim tizimida korrupsiyani oldini olishning pedagogik asoslari:

halollik qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

baholash jarayonini shaffof qilish;

o‘qituvchi shaxsining namunasini kuchaytirish;

ta’lim muassasalarida sog‘lom ma’naviy muhit yaratishdan iboratdir.

Korrupsiyasiz ta’lim – bu kelajakda ma’naviy yetuk, vijdonli, adolatparvar va mas’uliyatli jamiyatni shakllantirishning asosiy garovidir.

Xulosa

Ta’lim tizimida korrupsiyani oldini olish nafaqat huquqiy nazorat, balki ma’naviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak. Halollik va odob-axloq madaniyatini shakllantirish yosh avlodni ongli, mas’uliyatli va adolatparvar inson sifatida voyaga yetkazadi. Ta’lim tizimida shaffoflik, o‘qituvchi shaxsining namunaviyligi, o‘quv jarayonida halollik tamoyillarining muntazam targ‘iboti korrupsiya ildizlarini zaiflashtiradi. Demak, korrupsiyani yengishning eng samarali yo‘li — halol, ma’naviy yetuk va vijdonli shaxsni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2017. – 12-bet.

Karimova V. “Ma’naviyat va tarbiya asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 45-bet.

OECD Report on Education Integrity. – Paris, 2021. – 33-bet.

Abdullaeva N. “Oila va tarbiya madaniyati”. – Toshkent: Fan, 2019. – 67-bet.

Hasanov M. “Pedagogik mahorat va etika”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 74-bet.

UNESCO “Ethics Education Framework”. – Geneva, 2020. – 51-bet.

YDigital Education Transparency Systems Journal. – Seul, 2022. – 112-bet.

O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilar etikasi kodeksi. – Toshkent, 2020. – 18-bet.

Islomov B. “Talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish”. – Samarqand, 2021. – 39-bet.

Ergasheva D. “O‘qituvchi shaxsining tarbiyaviy ta’siri”. – Qarshi: Nasaf, 2022. – 92-bet.

ЦЕЛЬ И НАПРАВЛЕННОСТЬ ВОЕННО – ПАТРИОТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ОРГАНИЗАЦИЯХ И УЧРЕЖДЕНИЯХ

Шарипов Абдурашид Базарбаевич

Руководитель начальной допризывной подготовки политехникума №2

Шараф Рашидовского района Джизакской области

Введение. Последние несколько лет оказали значительное влияние не только на экономическую и геополитическую ситуацию в мире, но и затронули трансформацию всех сторон социально-общественной жизни нашей страны. Изменения, которые происходят в том числе и в системе образования, затрагивают

не только учебный процесс, но и, прежде всего, всю систему воспитания современной молодежи. В настоящее время педагогическая наука должна в первоочередном порядке уделять приоритетное внимание патриотическому воспитанию современной молодежи. Это обусловлено тем, что именно данная категория нашего социума находится на этапе становления личности, определяется со своим будущим, формирует для себя приоритеты, идеалы, нормы поведения в тех или иных ситуациях. Соответственно, именно молодежь более всего подвержена влиянию, как прямому, так и опосредованному.[1]

В условиях геополитической напряженности, обусловленной процессами, происходящими в мире, вопрос патриотического воспитания современной молодежи является одним из краеугольных камней воспитания будущего поколения. Сегодня для полноценного развития личности молодого человека мало просто получить образование в техникуме или институте (университете). Очень важно создать у современной молодежи желание не только жить и работать в своей стране, но и готовность защищать и отстаивать ее интересы, в том числе и в экстремальных ситуациях.

Основная часть. Военно-патриотическое воспитание в системе образования реализуется согласно следующим основным директивным документам: Конституция Республики Узбекистан, Закон Республики Узбекистан от 23.09.2020 г. № ЗРУ-637 «О образовании», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 23.02.2018 г. № 140 «Об утверждении концепции воспитания молодёжи в военно-патриотическом духе».

Военно-патриотическое воспитание рассматривается как масштабная и многоплановая деятельность, охватывающая все категории молодежи и пронизывающая все стороны жизнедеятельности общества, особенно в аспекте Вооруженных сил РУ, воинских формирований и органов. Также военно-патриотическое воспитание определяется как нравственный процесс, направленный на формирование у подрастающего поколения гражданской ответственности, воспитание преданности своей стране, любви к своему народу, уважения культуры и традиций народов.[2]

Цель военно-патриотического воспитания - формирование у граждан, особенно молодежи, чувства патриотизма, гражданственности, духовно-нравственных ценностей и готовности к служению Отечеству и его защите, прививая ответственность, честь, мужество, уважение к истории и традициям страны, а направленность включает в себя военно-спортивные мероприятия, профориентацию в силовые структуры, изучение истории армии, взаимодействие с воинскими частями и развитие морально-психологических качеств, необходимых для защиты Родины.[3]

---

[1] Мирзиёев Ш.М. О дополнительных мерах по патриотическому воспитанию молодёжи. 13 дек., 2018 г.

[22] Миллер В.Ю., Дунаев Г.Р., Шичкин А.Ф. О военно-патриотическом воспитании молодежи в современной России // Перспективы науки. 2024. № 6 (177). С. 229-231.

[3] Азизхонов А.Т., Ефимова Л.П. Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане. Ташкент: НУУ им. М. Улугбека, 2005. С. 277-228.

Направленность военно-патриотического воспитания - это формирование у молодежи чувства верности Родине, готовности защищать ее интересы, основанное на уважении к истории, воинской славе и традициям предков, развитии физических и нравственных качеств, а также воспитании гражданской ответственности и активной жизненной позиции через такие направления, как военно-историческое, военно-спортивное, идеологическое и военно-прикладное, чтобы подготовить их к служению Родине.

Основные направления военно-исторического воспитания и их содержание включают следующее:

Военно-идеологическое: Формирование высоких ценностей, идеалов служения Отечеству, нравственных норм, чести, ответственности, коллективизма. Военно-идеологическое воспитание — это комплексная система формирования у молодежи патриотического сознания, верности Родине, готовности к ее защите через привитие моральных, нравственных ценностей, уважения к истории и боевым традициям, а также через развитие физической выносливости, социальных навыков и готовности к службе в вооруженных силах, сочетая идеологию с практической подготовкой.

Военно-историческое: Изучение истории страны, роли Вооруженных сил, подвигов предков, формирование исторической памяти и гордости за прошлое. Военно-историческое воспитание — это часть военно-патриотического воспитания, направленная на формирование патриотизма, любви к Родине, уважения к её истории и боевым традициям через изучение прошлого, особенно героических страниц истории своей страны, подвигов предков и роли вооруженных сил, с целью воспитания готовности к защите страны и формирования гражданской ответственности. Оно включает изучение истории, участие в мемориальных мероприятиях и передачу воинских традиций.

Военно-спортивное или **Военно-прикладное:** Развитие силы, выносливости, ловкости, мужества через спортивные игры, походы, туристические слеты, подготовку к военной службе. Военно-спортивное воспитание — это часть военно-патриотического воспитания, направленная на развитие у молодёжи физической подготовленности, морально-волевых качеств и навыков, необходимых для службы в армии и защите Родины, через военно-прикладные виды спорта, игры и туристические походы, что формирует патриотизм, дисциплинированность и готовность к выполнению долга. Например, военно-спортивная игра «Шункорлар» (Shunqorlar) — это ежегодные военно-спортивные игры в Узбекистане, направленные на патриотическое воспитание молодежи, развитие физической подготовки, командного духа и начальных военных навыков, включающие элементы эстафет, полосы препятствий, огневой подготовки и тактических заданий, как часть программы подготовки допризывников и развития военно-прикладных видов спорта

Основными его целями являются :

Физическое развитие: Укрепление здоровья, развитие силы, выносливости, ловкости.

Патриотизм и гражданственность: Воспитание любви к Родине, преданности, чувства гордости за историю страны.

Психологическая подготовка:

Формирование стойкости, целеустремлённости, ответственности, умения работать в команде.

Допризывная подготовка: Обучение основам тактики, ориентирования, маскировки, преодоления препятствий, навыкам выживания.

Гражданско-патриотическое: Воспитание правовой культуры, гражданской позиции, готовности к выполнению конституционного долга, уважения к закону и правам человека.[1] Гражданско-патриотическое воспитание — это целенаправленный педагогический процесс формирования у человека любви к Родине, чувства гордости за свою страну, глубокого уважения к её истории и культуре, а также готовности быть ответственным гражданином, защищать её интересы и выполнять конституционные обязанности, развивая активную жизненную позицию, социальную ответственность и нравственные ценности, основанные на патриотизме и гражданственности. **Целями и задачами данного вида являются:**

Воспитание гражданина-патриота, способного творить и созидать во имя Отечества, как в мирное, так и в военное время. Формирование социально активной личности, обладающей гражданским достоинством. [2]

Духовно-нравственное: Формирование моральных качеств, таких как совесть, долг, честь, а также общечеловеческих и национальных ценностей. Духовно-нравственное воспитание – это целенаправленный процесс формирования у человека системы ценностей (долга, справедливости, чести, совести, патриотизма, милосердия) и морально-этических качеств для гармоничного развития личности, основанный на общечеловеческих и национальных идеалах, любви к Родине, семье, уважении к труду и природе, подготовке к осмысленному служению обществу. **Основными его целями и задачами являются:**

Формирование нравственных чувств: воспитание совести, ответственности, долга, веры, гражданственности.

Развитие нравственного облика: формирование таких качеств, как терпение, милосердие, честность, доброта.

Развитие нравственной позиции: умение различать добро и зло, готовность к самопожертвованию.

Воспитание нравственного поведения: готовность к служению людям, Отечеству, проявление доброй воли.

Приобщение к культуре: освоение духовного и исторического наследия, национальной культуры, воспитание уважения к другим народам.

---

[1] Миллер В.Ю., Дунаев Г.Р., Шичкин А.Ф. О военно-патриотическом воспитании молодежи в современной России // Перспективы науки. 2024. № 6 (177). С. 229-231.

[2] Мамалова Х.Э., Ахмадова З.М. Военно-патриотическое воспитание студенческой молодежи как патриотизм, преданность своему Отечеству // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 2 (75). С. 129-131.1

Патриотическое воспитание: формирование любви к России, своему народу, гордости за Родину.

Воспитание трудолюбия: творческое отношение к учению, труду, жизни.

Таким образом, использование различных практико-деятельностных и интерактивных форм военно-патриотического воспитания способствует формированию у обучающихся чувства патриотизма и гражданственности, стремления и готовности к защите своей Родины.

Заключение. Следует отметить, что принятие на вооружение только одного из направлений военно-патриотической работы или применение одной из описанных ее форм не принесет должного эффекта. В организации этой работы нужно использовать весь спектр направлений, форм и средств. Ее успех также зависит от правильного взаимодействия различных организаций в патриотическом воспитании молодежи, грамотном привлечении к нему ветеранов и деятелей военных направлений культуры. Наконец, на эффективность и качество усилий влияет понимание специалистами – организаторами военно-патриотической работы сущности и содержания ее основных составляющих.

Использованная литература:

Мирзиёев Ш.М. О дополнительных мерах по патриотическому воспитанию молодёжи. 13 дек., 2018 г.

Азизхонов А.Т., Ефимова Л.П. Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане. Ташкент: НУУ им. М. Улугбека, 2005. С. 277-228.

Идея национальной независимости: основные понятия и принципы. Ташкент: Узбекистан, 2003. С. 6–7.

Проблема патриотического воспитания будущих офицеров на этапе становления независимого Узбекистана. Ташкент: ГФНТИ, 1996. 108 с.

Миллер В.Ю., Дунаев Г.Р., Шичкин А.Ф. О военно-патриотическом воспитании молодежи в современной России // Перспективы науки. 2024. № 6 (177). С. 229-231.

Козлов В.А. Актуальные вопросы военно-патриотического воспитания молодёжи в современных условиях // Проблемы современного педагогического образования. 2024. № 83- 3. С. 201-204.

Мамалова Х.Э., Ахмадова З.М. Военно-патриотическое воспитание студенческой молодежи как патриотизм, преданность своему Отечеству // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 2 (75). С. 129-131.1

Постановление Президента Республики Узбекистан, от 04.08.2018 г. № ПП-3898 «О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих вооружённых сил Республики Узбекистан»

Постановление Кабинета Министров от 29.06.2023 г. №267 «О мерах по повышению эффективности работы по военно-патриотическому воспитанию молодежи».

TA`LIM JARAYONIDA O`QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Sharipov Sherzod Shamsiddinovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

XXI asr – innovatsiyalar, axborot texnologiyalari va ijodkorlik asri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal etish kompetensiyalarini shakllantirish ta’limning eng asosiy vazifalaridan biridir. Shu sababli maktab ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va kreativ metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

Ijodiy fikrlash bir necha sabablarga ko'ra turli kasb va sohalarda yuqori baholanadi. Birinchidan, bu shaxslar va jamoalarni qutidan tashqarida o'ylashga va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undash orqali innovatsiyalarni kuchaytiradi. Bu tashkilotlarga raqobatdosh ustunlik beradigan yangi mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin [2]. Ikkinchidan, ijodiy fikrlash muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Bu odamlarga muqobil echimlarni aniqlash, turli nuqtai nazarlarni baholash va qiyinchiliklarni engish uchun noyob yondashuvlarni topish imkonini beradi. Va nihoyat, ijodiy mutafakkirlar ko'pincha o'zgarishlarga moslashish, tanqidiy fikrlash va o'sish va muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlari uchun qidiriladi. Ijodiy fikrlash qobiliyatini egallash yangi martaba imkoniyatlari va turli sohalarda yuksalish uchun eshiklarni ochishi mumkin [3].

Ijodiy fikrlashga quyidagicha qisqa ta`rif berilsa ham bo`ladi. O`quvchi yangi g‘oya yarata olishi, mavjud bilimlar asosida noodatiy yechim topishi, muammoni turli rakurslardan tahlil qilishi, tasavvur, tafakkur va mantiqni uyg‘unlashtira olishi lozim[4].

Pedagog olimlar (J. Guilford, E. Torrens, V. Drujinin va boshqalar) ijodiy fikrlashning asosiy komponentlari sifatida fluensiya (ko‘plab g‘oyalar yaratish), originallik, moslashuvchanlik, mantiqiylik va tasavvur kuchini qayd etganlar. Ijodiy fikrlashni shakllantirishning zamonaviy usullari deyilganda hozirgi kundagi o`quvchini tezroq ijodiy fikrlashga yondashish usullari hisoblanadi. Bugungi zamon tez rivojlanib borayaotgan bir davrda yoshlardan zamonga mos tezroq fikrlash, chaqqonlik va ilg`orlik talab etiladi. Quyida uning zamonaviy turlari bilan tanishamiz [5].

Muammoli ta’lim**.** Muammoli ta’lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, echim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo‘llaniladigan bir yangicha tizimidir. O‘quvchilarni tayyor javob emas, balki **savollar, vaziyatlar, muammolar** orqali o‘ylashga undaydi. Bu usul: izlanish, tahlil qilish, noodatiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6].

Dizayn o‘ylash. Bu metod o‘quvchilarda ijodkorlikni bosqichma-bosqich shakllantiradi: b**u muammoni inson ehtiyojlari asosida chuqur tahlil qilish, unga ijodiy va amaliy yechimlar topishga qaratilgan bosqichma-bosqich metod bo‘lib**, unda yangilik yaratish, tajriba o‘tkazish, prototip qilish va sinovdan o‘tkazish jarayonlari muhim o‘rin egallaydi. Bu metod o‘quvchilarda **kreativ fikrlash, muammoni turli**

rakurslardan ko‘ra bilish, hamkorlikda ishlash, ijodiy yechim yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi, muammoni anglash, hamdardlik (empatiya), g‘oyalar yaratish, prototip yaratish, sinovdan o‘tkazish. Bu usulda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) loyihalarida samarali qo‘llaniladi [7].

3. “Aqliy hujum” va “Klaster” metodlari. “Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar [8]. Bu interfaol metodlar o‘quvchilarda: erkin fikrlash, ko‘plab g‘oyalar ilgari surish, insho, loyiha, kichik tadqiqotlar yaratish imkoniyatini beradi.

Kreativ yozuv. O‘quvchilar matn, hikoya, she’riy parchalar yaratish orqali tasavvurini rivojlantiradi. Bu metod adabiyot, til, tarix va hatto fan darslarida qo‘llanishi mumkin. Loyiha asosida o‘qitish mustaqil qidiruv, jamoada ishlash, ijodiy g‘oyalarni amalda sinash, natija yaratish jarayonlarini boshdan kechirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va multimediyadan foydalanish**.** Zamonaviy raqamli vositalar (Mind-map, Canva, Scratch, Quizlet, GeoGebra va b.) o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi [9].

Rol o‘yinlari va dramatizatsiya**.** Ssenariy tuzish, obraz yaratish, muammoli vaziyatni jonlantirish o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantiradi [10].

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli beqiyos hisoblanadi. O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun o‘qituvchidan rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi, o‘quvchilar fikrini baholashda demokratik bo‘lishi, xatoga ijobiy munosabatda bo‘lishi, individual yondashuvni qo‘llashi lozim. O‘qituvchi ijodkor bo‘lsa, o‘quvchilar ham ijodkor bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Ijodiy fikrlashni rivojlantirish — zamonaviy ta’limning asosiy talabi va kelajak avlodning muhim kompetensiyalaridan biridir. Innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar, loyihaviy ta’lim va raqamli vositalardan keng foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, kreativ yechimlar topa oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Guilford, J.P. The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1967.

Torrance, E. Creativity: Theory and Practice. Routledge, 2004.

https://rolecatcher.com/uz/konikmalar-boyicha-qollanma/yumshoq-mahorat/fikrlash-qobiliyatlari-va-malakalari/ijodiy-va-innovatsion-fikrlash/ijodiy-fikrlash/

Ken Robinson. Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone Publishing, 2011.

Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

Hamrogul Yormuhammedovna Qodirovaю Muammoli ta’lim texnologiyasi o’qitishning eng samarali usuli sifatidaю "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz August 2023 / Volume 4 Issue 8

Yo‘ldoshev J., Qo‘shboqova D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

Musurmonov Raxmatilla, Usarboeva D. U. Otaqulov A., Kurbanbayeva N. Zamonaviy ta’lim metodlari – ta’lim samaradorligi kafolati. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 20 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

UNESCO. Education for Creativity Report. Paris, 2022.

Xoliqova D. Interfaol metodlar va kreativ yondashuvlar. Toshkent, 2021.

TALABALARNING SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVI VA FUQAROLIK ONGINI SHAKILLASHTIRISHDA TA’LIM MUASSASALAR O‘RNI

Shavkatova Shaxrizoda
O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan davrda yosh avlodning siyosiy madaniyati va fuqarolik ongini shakllantirish masalasi jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lgan siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning mamlakat hayotida faol ishtirok etishiga, davlat siyosatiga ongli munosabat bildirishiga hamda fuqarolik mas’uliyatini his etishiga xizmat qiladi. Shu boisdan bu bugungi kunga kelib ko‘plab tadqiqotlar orqali o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda dunyoda yoshlarga oid siyosatning mustahkamlanishi, demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash, ochiq jamiyat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimining rivoji ta’lim muassasalari zimmasiga yanada mas’uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Ta’lim – siyosiy madaniyatni shakllantiruvchi eng samarali vosita bo‘lib, u orqali talabalar jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan, tanqidiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan yetuk fuqaroga aylanadi. Shu bois, ta’lim jarayonida siyosiy ijtimoiylashuvning metod va mexanizmlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini zamon talablariga mos ravishda boyitish, amaliy siyosiy jarayonlarga yoshlarning jalb qilinishini rag‘batlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Yoshlarni bunga tayyorlashdan oldin ijtoiylashuv va siyosat o‘rtasidagi bog‘liklarni aniqlash kerak. Siyosiy ijtimoiylashuv – bu shaxsning siyosiy bilimlar, qadriyatlar, g‘oyalar va munosabatlarni egallash jarayonidir [1]. Bu jarayonda shaxs siyosiy tizimni va jamiyatdagi siyosiy hayotni tushunishni o‘rganadi, shuningdek, unga o‘z fikrini bildirish huquqini beradi va u turli bosqichlarda kechadi.

Siyosiy bilimlar va qadriyatlarni egallash: Jamiyatdagi siyosiy tizim, uning qonun-qoidalari, siyosiy institutlar va jarayonlar haqida ma'lumotlarni o‘zlashtirishdir. Bunga jamiyatimizdagi bir qancha instutlar yordam beradi. Shular jumlasidan oila, maktab ta’limi kiradi. Siyosiy g‘oyalar va munosabatlarni shakllantirish: Davlatning roli, siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy institutlarga nisbatan shaxsiy fikr va munosabatlarni shakllantirish. Bunga oliy ta’lim muassasalari va hokimiyat tashkilotlari yordam beradi.

Siyosiy faoliyatga tayyorlash: Shaxsni jamiyatdagi siyosiy hayotga jalb etish, masalan, saylovlarda ishtirok etish, ijtimoiy harakatlarda qatnashish kabi faoliyatlarga tayyorlash.

Siyosiy ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy fanlar ayniqsa siyosatshunoslik va sotsiologiyada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Amerikalik olim David Easton bu jarayonni “siyosiy tizimni qabul qilish va unga moslashish vositasi” sifatida izohlaydi. Ya’ni ijtimoiylashuv jarayoni siyosiy jarayonlarga moshlashishga va ularni tadbiq qilishga yordam berishini ta’kidlab o‘tadi. Shu bilan birga yoshlarni siyosiy hokimiyatga intilishini ta’minlaydi. Siyosatshunos Gabriel Almond va sotsiolog Sidney Verba "Siyosiy madaniyatni individual munosabatlarni umumiy siyosiy tizim tuzilishi bilan bog‘laydigan element" deb hisoblashadi[2]. Hamda siyosiy ijtimoiylashuvni "shaxslar va guruhlarning siyosiy qarashlarini avloddan-avlodga o‘tkazuvchi institutlar va mexanizmlar tizimi" deb tariflaydi. Ularning fikricha, siyosiy ijtimoiylashuv orqali fuqaro jamiyatdagi siyosiy me’yorlarni o‘zlashtiradi va siyosiy tizimga moslasha oladi.

Siyosiy ijtimoiylashuv turli vazifalarni bajaradi.

Integratsion - shaxsni siyosiy tizimga moslashtiradi, odamlar ijtimoiylashuv jarayoni orqali siyosiy tizimga munosabatni rivojlantiradilar. Siyosiy qonuniylik, saylovlari kabi siyosiy tizim va jarayonlarning yaxlitligiga ishonib moslashadi.

Translyation– siyosiy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatadi.

Identifikatsion – fuqaroda siyosiy identitetni shakllantiradi, shaxsni siyosiy jarayonlardagi o‘rni va ro‘lini belgilab beradi.

Faollikni oshirish– siyosiy qarorlar qabul qilishda rag‘batlantiradi.

Quyidagi kõrsatilgan vazifalar orqali insonning siyosiy ijtimoiylashuvi tobora ortib boradi va natijada kirishimliligi ortadi.

Shu sababli ta’lim muassasalarida bu jarayon markaziy o‘rinni egallab kelmoqda. Oliy ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida nafaqat kasbiy bilimlar, balki ma’naviy axloqiy va siyosiy tarbiya ham beriladi. Dars jarayonlari, ma’naviy tadbirlar , seminarlar orqali talabalar siyosiy faolligi , mas’uliyatliligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatilari rivojlanadi. Talabalar davlat siyosati bo‘yicha ochiq muloqotlar, forumlar, konferensiyalar va davra suhbatlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Talabalar ongini mustahkamlash uchun yurt taqdiri, qonunlarga hurmat, burch va mas’uliyat haqida ma’naviy - ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi. Ya’ni “Ma’rifat dars”lari orqali fuqarolik ongiga oid mavzular mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda talabalarga siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, yangiliklarni to‘g‘ri baholash, yolg‘on axborotni farqlash bo‘yicha ham ma’lumotlar berilmoqda. Natijada ta’lim tizimi yoshlarni ongli, ma’suliyatli va jamiyat hayotiga befarq bo‘lmagan fuqarolar sifatida voyaga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Yoshlar siyosati to‘g‘risida"gi qonun, "Yangi O‘zbekiston – yangi tafakkur egalari" konsepsiyasi hamda Prezident tashabbuslari talaba–yoshlarning siyosiy ongi va fuqarolik mas’uliyatini oshirishga qaratilgan[3]. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu masalaning dolzarbligini bir necha bor alohida ta’kidlab o‘tgan. U 2021-yilgi Oliy Majlisga murojaatida quyidagicha fikr bildirgan edi. “Bugungi O‘zbekiston yoshlari har tomonlama yetuk, siyosiy jihatdan hushyor va vatanparvar bo‘lishi kerak. Zero, bu–yangi O‘zbekistonning asosi bo‘lgan fuqarolik jamiyatini barpo etishni eng muhim shartidir” [4]. Chunki talabalarning hushyorligi-

ularni siyosiy jarayonlarga befarq bo‘lmasligi, har xil noto‘g‘ri g‘oyalarga berilmasligi va ijtimoiy muammolarga ongli yondashuvi bilan ko‘rsatiladi. Shuning uchun ham ta’lim tizimida siyosiy ijtimoiylashuv roli beqiyos, bu jarayon davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan fikrlar har ikki taraflama ya'ni ham nazariy ham amaliy jihatdan siyosiy ijtimoiylashuvning zarur ekanini ta’kidlaydi. Shu mamlakatda olib borilayotgan tadqiqotlarni misol qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, ularni hokimiyat ishlariga ko‘nikma va malakasini oshirish davlatlar aro munosabatlarda barqarorlikni belgilashi kabi bir qator masalar oldimizda turgan aniq maqsaddir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, talabalarning siyosiy ijtimoiylashuvi va fuqarolik ongini shakllantirish jarayoni uzluksiz va ko‘p omilli bo‘lib, unda ta’lim muassasalari yetakchi ijtimoiy institut sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oliy ta’lim muassasalari orqali yoshlar nafaqat professional bilimlarga ega bo‘ladi, balki jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni anglash, davlat boshqaruvi tizimi mohiyatini tushunish, fuqarolik mas’uliyatini his qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi. Ta’lim tizimi shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Talabalik davri esa inson hayotidagi eng faol, intellektual yetuklik, dunyoni anglash va ijtimoiy mavqe shakllanishi kechadigan bosqich bo‘lgani uchun bu jarayonning poydevori sifatida yorqin ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalari talabalarning siyosiy bilimi, davlat va jamiyat boshqaruvi haqidagi tasavvurlari, siyosiy institutlar faoliyati, huquqiy ong va fuqarolik madaniyati borasida keng ko‘lamli ko‘nikmalar hosil qiladigan ijtimoiy makon vazifasini bajaradi. Ayniqsa, siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishning boshlanish nuqtasi bo‘lgan saylov madaniyati, siyosiy partiyalar faoliyatiga munosabat, jamiyatdagi fuqarolik institutlarini anglash talabalarda aynan ta’lim jarayoni orqali shakllanadi. Bugungi sharoitda ta’lim tizimi yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydigan, ularda tanqidiy fikrlash, huquqiy ong, demokratiyaga hurmat, tolerantlik va vatanparvarlik qobiliyatini mustahkamlovchi eng samarali platformadir. Shu bois ta’lim muassasalarida siyosiy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, yangicha metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishda muhim strategik yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

https://www.google.com/url?sa=i&source=web&rct=j&url=https://www.inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/download/15053/10477%.

Politics and Film: The Political Culture of Film in the United States. https://books.google.com/books?id=CZaA0QEACAAJ&dq=inauthor:%22Daniel+P.+Franklin%22&hl=uz&newbks=1&newbks_redir=1&ovdme=1&sa=X&ved=2ahUKEwiJ2_bV3OqQAxWxQvEDHfgTDlIQ6wF6BAgJEAU

https://www.edu.uz/uz– Oliy ta’lim va ilmiy faoliyat portali

https://president.uz/oz/lists/view/4057

EVENT MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY KONSEPTUAL TUSHUNCHALARI

Shaxabatdin Maxamatdinov
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istqibolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktaranti

Event-menejment – bu tadbirlarni boshqarishning ilmiy va amaliy sohasi bo‘lib, u ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy maqsadlarga xizmat qiladi. Professor Filip Kotler ta’rifiga ko‘ra, event – bu maqsadli auditoriyaga ma’lumot uzatish uchun mo‘ljallangan voqea ya’niy tadbirdir. Ushbu tushuncha tadbirni rejalashtirishdan tortib, natijalarni baholashgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi [1:1]. Ilmiy yondashuvlarni qaraganimizda event-menejment tizimli yondashuv sifatida ko‘riladi, unda resurslar (insoniy, moliyaviy, texnologik) va tashqi muhit o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanishi “Event menejment” (Tadbirlarni boshqarish) yo‘nalishini alohida ilmiy va amaliy soha sifatida shakllanishiga olib keldi. Event menejment shunchaki bayramlarni tashkillashtirish emas, balkim strategik rejalashtirish, marketing, moliyaviy tahlil, logistika va inson resurslarini boshqarishni o‘z ichiga olgan kompleks loyiha boshqaruvidir.

Event-Menejmentning Ta’riflari va Asosiy Tushunchalari

Event-menejment – tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va baholash jarayoni. APEX ta’rifiga ko‘ra, event – bu uchrashuv, konferensiya yoki maxsus tadbir kabi tashkil etilgan voqea bo‘lib, bir nechta bir-biriga bog‘liq funktsiyalardan iborat. Goldblatt esa maxsus eventlarni “vaqtning noyob lahzasi” deb ta’riflaydi, u maxsus marosim va rituallar orqali ehtiyojlarni qondiradi. Getz eventlarni fazoviy-vaqtli hodisa sifatida ko‘rib chiqadi, unda muhit, odamlar va boshqaruv o‘zaro ta’sir etadi [2:2].

Rejalashtirish (Planning): Maqsadlarni aniqlash, byudjet va logistikani tashkil etish. SMART tamoyillariga asoslanadi (Specific, Measurable, Agreed, Realistic, Timed) [2:3].

Tashkil etish (Organizing): Resurslarni taqsimlash, vazifalarni belgilash va infratuzilmani yaratish [1:1].

Muvofiqlashtirish (Coordination): Jamoa va pudratchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash [3:1].

Boshqarish va Nazorat (Leading and Controlling): Jamoani motivatsiyalash va natijalarni baholash.

Ilmiy adabiyotlarda event-menejment loyiha boshqaruvi sifatida ko‘riladi, unda vaqtinchalik va noyob natijalar yaratiladi. Masalan, SWOT tahlili tadbirning imkoniyatlarini baholash uchun ishlatiladi. Eventlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

Turlari	**Tavsif va Misollar**	**Xususiyatlari**
Korporativ Eventlar	Konferensiyalar, seminarlar, mahsulot taqdimotlari.	Brending va tarmoqqa e’tibor; byudjet va ROI (Return on Investment) muhim.
Ijtimoiy Eventlar	To‘ylar, festivallar, xayriya	Emotsional qoniqish va jamoa

	tadbirlari.	ruhiga asoslangan; ko‘ngilochar elementlar ko‘p.
Sport Eventlari	Olimpiadalar, marafonlar va boshqa sport musobaqalari.	Xavfsizlik va infratuzilmaga e’tibor kuchli; turizmni rag‘batlantiradi.
Ta’limga bog‘liq Eventlar	Seminarlar, konferensiyalar, ish yarmarkalari.	Bilim tarqatishga yo‘naltirilgan; interaktiv elementlar mavjud.

Mega-eventlar (Olimpiada o‘yinlari kabi) global tasirga ega, hallmark-eventlar esa joylashuv bilan bog‘liq (masalan, Karnavallar). Ilmiy tahlilda eventlar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan eventlarga bo‘linadi, rejalashtirilganlari esa qisqa muddatli jalb qilish natijalarida iqtisodiy foyda beradi [2:3].

Event-menejmentning tamoyillari quyidagilarga asoslanadi:

Kontseptsiya va Dizayn: Tadbir mavzusini ishlab chiqish, unda sezgi elementlari (ko‘rish, eshitish, hid) ishlatiladi.

Byudjet va Moliyaviy Tahlil: Qattiq (venue, sug‘urta) va o‘zgaruvchan (ovqatlanish) xarajatlarni hisoblash; break-even tahlili (zarar nuqtasi) ishlatiladi.

Xavf-Xatarlarni Boshqarish: Xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish (masalan, favqulodda reja) [3:1].

Sponsorship va Marketing: Sponsorlarni jalb qilish, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib qilish.

Eventlarni tashkil etish jarayoni 12 bosqichli modelga asoslanadi: maqsadlarni aniqlash, jamoani tashkil etish, byudjetni o'rnatish, master-reja yaratish va boshqalar. Ilmiy yondashuvda event-menejment motivatsiya nazariyalariga (Maslou ierarxiyasi) asoslanadi, unda jamoa motivatsiyasi muhim [4:1]. Event-menejmentning asosiy tushunchalari ilmiy yondashuvda tizimli va vaziyatli yondashuvlarga asoslanadi, bu esa tadbirlarni samarali boshqarishni ta’minlaydi. Ammo murakkabliklar (tashqi muhit, inson omili) sababli doimiy takomillashtirish talab etiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar texnologiyalar (virtual eventlar) va barqarorlikka e’tibor qaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Kotler, F. Event Management Basics. – p. 1 https://nhck.in/wp-content/uploads/2020/06/CHAPTER-1-PEM.pdf

Getz, D. Introduction to Event Management. – p. 2-3 https://uou.ac.in/sites/default/files/slm/HM-402.pdf

IRFU. Event Management Handbook. – p. 9-10. https://d2cx26qpfwuhvu.cloudfront.net/irfu/wp-content/uploads/2019/01/22111234/IRFU_event-management-large.pdf

USU. 12-Step Event Planning Guide. – p. 1-2. https://events.usu.edu/files/12-step-event-planning-guide-2-21.pdf

TARBIYA FANI ORQALI O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Sherikbayeva Durdona Bahodir qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Tarbiya fani o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglaydi, huquq va majburiyatlar bilan tanishadi hamda ijtimoiy jarayonlarda mas’uliyat bilan ishtirok etishni o‘rganadi. Tarbiya fanining pedagogik vazifalari o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni, fuqarolik ongini va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular orasida hurmat, hamkorlik, hamjihatlik va jamoaga foyda keltirish kabi sifatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlar o‘quvchilarga nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan faol va mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetish imkonini beradi. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi va davlat siyosati doirasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, o‘quvchilar xayriya aksiyalari, ekologik loyihalar, mahalla va jamoat tadbirlarida faol ishtirok etadi. Ayrim maktablarda hududiy bog‘larni obodonlashtirish, daraxt ekish va atrof-muhitni asrash ishlari tizimli tarzda amalga oshirilmoqda, bu esa o‘quvchilarga jamiyatga befarq bo‘lmaslikni amalda o‘rgatadi. Shu bilan birga, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda jamiyatdagi muammolarni muhokama qilish, o‘z tashabbuslarini ilgari surish va fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishga harakat qiladi. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin, ya’ni, tarbiya fani nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki real hayotdagi jarayonlar bilan uzviy bog‘langan holda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarbiya fanida fuqarolik ongini shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Fuqarolik ongiga ega bo‘lgan o‘quvchi jamiyatdagi o‘z o‘rnini aniq biladi, ijtimoiy jarayonlarga mas’uliyat bilan yondashadi va faol hayotiy pozitsiyani egallaydi. Shu jihatdan tarbiya fani o‘quvchilarni mas’uliyatli, tashabbuskor va jamiyat hayotida faol qatnasha oladigan shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy vositasidir. Ushbu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘zlarini, balki jamiyatni anglashga, muammolarni tahlil qilishga va ularga yechim topishga o‘rganadi, bu esa ularni kelajakda yetuk fuqarolar sifatida shakllanishiga yordam beradi.Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar falsafiy nuqtai nazardan ham markaziy ahamiyatga ega. Falsafa fanlari doktori J.K. Yusubovning tadqiqotlariga ko‘ra, shaxsning ma’naviy yetukligi uning ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ma’naviy jihatdan yetuk shaxs jamiyat manfaatlarini tushunadi, ijtimoiy mas’uliyatni his etadi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Shu asosda tarbiya fanida shakllantiriladigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va fuqarolik ongining amaliy ahamiyati yanada kuchayadi. Ularning pedagogik ahamiyati shundaki, o‘quvchi amaliy vaziyatlarda o‘z pozitsiyasini to‘g‘ri belgilash, muammolarga mas’uliyat bilan yondashish va tashabbuskorlikni namoyon etishga o‘rgatiladi.Zamonaviy ta’lim jarayonida tarbiya fanini interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyiha ishlari va guruh mashg‘ulotlari orqali boyitish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, ekologik loyihalar orqali o‘quvchilar hududlarni obodonlashtirish, daraxt ekish va atrof-muhitni asrash ishlari bilan shug‘ullanadi, ko‘ngillilik tadbirlari esa ularni xayriya va madaniy faoliyatlarda ishtirok etishga undaydi. Bizning fikrimizcha, bu usullar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, ularni jamiyat hayotida faol bo‘lishga tayyorlaydi va shaxsiy tashabbus ko‘rsatishga o‘rgatadi.Shuningdek, tarbiya fanida o‘quvchilarning liderlik qobiliyati, ijtimoiy tashabbuskorligi va guruh ichidagi faol ishtiroki rivojlantiriladi.

Maktab jamoalarida amalga oshiriladigan loyihalar, o‘quvchilarning faoliyatini baholash va tan olish jarayonlari ularni mas’uliyatli va tashabbuskor bo‘lishga rag‘batlantiradi. Shu yo‘l bilan tarbiya fanining amaliy qismi o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki jamiyatdagi real vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va samarali harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, tarbiya fanini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish orqali ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk va fuqarolik mas’uliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash mumkin. Ushbu fan o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim vosita bo‘lib, ularni jamiyat hayotida faol, mas’uliyatli va tashabbuskor bo‘lishga o‘rgatadi, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Shu yo‘l bilan tarbiya fanining nazariy va amaliy ahamiyati to‘liq namoyon bo‘ladi.

Tarbiya fani o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar jamiyatga befarq bo‘lmagan, mas’uliyatli va faol shaxs sifatida voyaga yetadi. Zamonaviy pedagogik metodlar va hayotiy tajriba bilan boyitilgan ta’lim jarayonida tarbiya fani o‘quvchilarning tashabbuskorligini oshiradi va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. J.K. Yusubovning falsafiy qarashlari esa tarbiya fanining mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 . Yusubov J.K. Abu Nasr Forobiy ma’naviy-axloqiy ta’limotining Sharq va G‘arb madaniy sivilizatsiyasiga ta’siri: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

3. Abdullayeva M. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

4. Jo‘rayev R. Pedagogika asoslari. – Toshkent, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlar va yoshlar faolligi. – https://www.uzedu.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. Yoshlar siyosati va ijtimoiy faollik. – https://www.prezident.uz

7. “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati. Ma’naviyat va tarbiya faoliyati bo‘yicha materiallar. – https://marifat.uz

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY IMMUNITETINI KUCHAYTIRISH OMILLARI

Shodmonqulova Dildora Toshpulatovna
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Globallashuv bugungi kunda nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni, balki ma’naviy-madaniy hayotni ham tubdan o‘zgartirayotgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yoshlar qisqa vaqt ichida turli g‘oya, qadriyat va turmush tarzlari bilan tanishmoqda. Bu jarayon bir tomondan bilim va tajriba almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan ma’naviy nisbiylik, iste’molchilik, individualizm, befarqlik kabi salbiy tendensiyalarni kuchaytiradi.

Mazkur sharoitda “yoshlar ma’naviy immuniteti” tushunchasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma’naviy immunitet deganda shaxsning ma’naviy tahdidlarga nisbatan ichki qarshilik ko‘rsatish qobiliyati, ma’naviy mezonlar asosida tanlov qilish, zararli g‘oyaviy ta’sirlardan o‘zini asrashga intilishi tushuniladi. Yuksak ma’naviy immunitetga ega bo‘lgan yoshlar globallashuvning salbiy oqimlariga qo‘shilib ketmaydi, balki undan foydali bilim va tajriba olishga intiladi.

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytirish omillari tahlil qilinadi, ma’naviy tahdidlar manbalari va ularni bartaraf etish yo‘llari ijtimoiy-falsafiy hamda pedagogik nuqtai nazardan yoritiladi.

Globallashuv – bu iqtisodiy, siyosiy, axborot va madaniy makonlarning o‘zaro bog‘lanishi natijasida dunyoning “kichrayishi”, chegaralarning nisbiy ravishda yo‘qolishi jarayonidir. Yoshlar uchun globallashuv, avvalo, axborot makonining cheksizligi, virtual tarmoqlardagi muloqot, turli madaniy kodlar va ramzlar bilan to‘qnash kelish deganidir. Ma’naviy immunitet tushunchasi tibbiyotdagi immunitet metaforasi asosida talqin qilinadi. Qandayki organizm tashqi infeksiyalarga qarshi kurashish mexanizmlariga ega bo‘lsa, shaxs ham ma’naviy “infeksiyalar” – buzg‘unchi g‘oyalar, axloqsizlik, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent, iste’molchilik va befarqlik kayfiyatlariga qarshi ichki himoya tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Ma’naviy immunitetning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

– barqaror qadriyatlar tizimi (milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda hayot ma’nosini anglash);

– tanqidiy fikrlash (axborotni baholash, savol berish, manbalarni solishtirish, manipulyatsiyani anglay olish);

– axloqiy mas’uliyat (o‘z harakatlari oqibatini hisobga olish, jamiyat va yaqinlariga nisbatan javobgarlikni his qilish);

– ijtimoiy faollik (jamiyat hayotida ishtirok etish, foydali tashabbuslarga qo‘shilish, befarq bo‘lmaslik).

Globallashuv sharoitida ma’naviy immunitet nafaqat “himoyalanish”, balki ongli tanlash, integratsiya va yangilanish imkoniyati sifatida ham namoyon bo‘ladi. Buning

uchun ichki qadr-qimmat, o‘zligiga sodiqlik va keng dunyoqarash uyg‘unlashgan bo‘lishi zarur.

Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviy immunitetiga ta’sir etuvchi tahdidlar bir nechta manbalarda to‘planadi.

Ommaviy madaniyatning yuzaki ko‘rinishlari. Reallik shoular, zo‘ravonlik va behayolikni targ‘ib qiluvchi filmlar yoki kontent, faqat iste’mol va ko‘ngilxushlikni qadriyat sifatida ko‘rsatuvchi reklama mahsulotlari yoshlar ongida “tezkor zavq – hayot maqsadi” degan xavfli stereotipni shakllantirishi mumkin.

Axborotning ortiqcha ko‘pligi va tartibsizligi. Ijtimoiy tarmoqlarda har kuni yuzlab xabar, rolik, postlar oqimi yoshlar ongida charchoq, befarqlik va e’tiborni jamlay olmaslik holatini keltirib chiqaradi. Bu esa chuqur o‘qish, mulohaza yuritish, ma’naviy mavzularga jiddiy yondashish odatini zaiflashtiradi.

Ma’naviy relativizm. “Hammasi mumkin”, “har kimning o‘z haqiqat hukmi bor” kabi qarashlar ko‘pincha mas’uliyatsizlik va axloqiy mezonlarning yo‘qolishiga olib keladi. Natijada yoshlar uchun yuksak maqsadlar, ma’naviy ideallar ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin.

Virtual muloqotning ustuvorligi. Onlayn muloqotning qulayligi real muloqotni siqib chiqargan sari oila davrasi, mahalla, do‘stlar davrasidagi samimiy suhbatlar, ustoz-shogird an’anasi zaiflashadi. Bu esa ma’naviy tajriba va qadriyatlarning tabiiy uzatish kanallarini cheklab qo‘yadi.

Agar ma’naviy immunitet tizimli ravishda shakllantirilmasa, yuqoridagi tahdidlar befarqlik, ma’naviy bo‘shliq, tajovuzkorlik, o‘z joniga qasd qilish kayfiyati, ekstremistik g‘oyalarga berilish kabi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois ma’naviy immunitetni kuchaytirish strategik vazifa sifatida ko‘rilishi zarur.

Yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda bir nechta ijtimoiy institutlar hamkorligi muhim. Oila – birlamchi ma’naviy maktab. Mehr, hurmat, mas’uliyat, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar avvalo oilada singdiriladi. Ota-ona shaxsiy namuna orqali bolaga ma’naviy immunitetning ilk poydevorini qo‘yadi. Oiladagi samimiy muloqot, kitobxonlik muhitini yaratish, birgalikdagi ibodat yoki ma’naviy mashg‘ulotlar, muhokama va maslahatlar bu jarayonni mustahkamlaydi. Ta’lim tizimi ya’ni maktab va oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi maydondir. Darsliklar mazmunida ma’naviy qadriyatlarga oid materiallarni integratsiya qilish, tarbiyaviy soatlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlik klublari, teatr va muzeylarga tashriflar, loyihaviy ishlar yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi. Mahalla, yoshlar markazlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, turli klublar va jamoat birlashmalari yoshlar uchun amaliy ma’naviy maktab bo‘la oladi. Volontyorlik, xayriya aksiyalari, sport va madaniy tadbirlar, mahalliy tashabbuslar yoshlarni befarqlikdan chiqarib, ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalaydi. Televideniye, radio, internet nashrlari, bloglar, podkastlar ma’naviy immunitetni kuchaytirishda ham qudratli vositaga aylanishi mumkin. Buning uchun chuqur ma’naviy mavzularga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar, yoshlar bilan ochiq muloqot formatlari, milliy va jahon madaniy merosini targ‘ib qiluvchi loyihalar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi kontentni ko‘paytirish zarur. Ma’naviy immunitet faqat tashqi ta’sir bilan emas, shaxsning

o‘z ustida ishlashi bilan ham bog‘liq. Kitob o‘qish, tafakkur qilish, kundalik yuritish, ustozlar bilan suhbatlar, maqsad qo‘yish va unga intilish, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish kabi amaliy mashg‘ulotlar ichki tayanchni mustahkamlaydi.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimining ma’naviy immunitetni kuchaytirish bo‘yicha strategiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Birinchidan, o‘quv dasturlariga ma’naviy-aksialogik komponentni chuqur singdirish. Faqat alohida “ma’naviyat” yoki “tarbiya” fanlari bilan cheklanib qolmay, tarix, adabiyot, falsafa, huquq, iqtisod, hatto tabiiy fanlar kurslarida ham ma’naviy va axloqiy masalalarni muhokama qilish, bahs-munozaralar tashkil etish muhim.

Ikkinchidan, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish. Talabalarga manbalarni solishtirish, fakt va fikrni ajratish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, reklama va PR matnlaridagi manipulyatsiyani aniqlash ko‘nikmalarini o‘rgatish ma’naviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, “yashirin dastur” (hidden curriculum) ga e’tibor qaratish. O‘qituvchining munosabati, baholash uslubi, sinfdagi muhit, pedagogik muloqot tili – bular hammasi yoshlar ma’naviy qiyofasiga ta’sir qiladi. Adolatli baholash, hurmatga asoslangan muloqot, o‘quvchi sha’nini kamsitmaslik, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish – ma’naviy immunitetni kuchaytiradigan omillardir.

To‘rtinchidan, raqamli savodxonlik va media-ma’rifat. Ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, feyk xabarlarni aniqlash, ekstremistik kontentdan uzoqlashish, internet etikasi kabi mavzular bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazilishi kerak.

Beshinchidan, talabalarning ijtimoiy va ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash. Ilmiy, madaniy, sport va volontyorlik loyihalarida ishtirok etish, talabalar o‘z tashabbuslarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratish ularda “men jamiyat uchun foydali bo‘lishim mumkin” degan ijobiy ichki e’tiqodni shakllantiradi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytirish strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga erishildi:

Ma’naviy immunitet shaxsning turli ma’naviy tahdidlar fonida barqaror qadriyatlar, tanqidiy fikrlash va axloqiy mas’uliyatga tayangan holda ongli tanlov qilishi bilan tavsiflanadi.

Globallashuv axborot makonini kengaytirgan holda yoshlarning dunyoqarashiga ijobiy imkoniyatlar yaratadi, biroq ommaviy madaniyatning yuzaki ko‘rinishlari, ma’naviy relativizm va iste’molchilik kayfiyatlari orqali ma’naviy inqiroz xavfini ham kuchaytiradi.

Oila, ta’lim tizimi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari ma’naviy immunitetni shakllantirishning asosiy ijtimoiy poydevorlari bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlikda ishlagan taqdirda samaradorlik oshadi.

Ta’lim tizimida ma’naviy immunitetni kuchaytirish uchun o‘quv dasturlariga ma’naviy-aksialogik komponentni integratsiya qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, sog‘lom pedagogik muhit yaratish va raqamli savodxonlikni oshirish zarur.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarda ma’naviy immunitetni kuchaytirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati tashabbuslari o‘rtasidagi hamkorlikka tayanishi lozim.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida ma’naviy immuniteti kuchli, tanqidiy fikrlovchi, maqsadli va ijtimoiy mas’uliyatli yosh avlodni voyaga yetkazish zamonaviy taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Jo‘rayev R. Globallashuv va ma’naviyat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020. – 304 b.

Qodirov B. Yoshlar ma’naviy tarbiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 228 b.

Karimova V., Usmonov S. Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy moslashuvi. – Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2019. – 196 b.

Globalization and Culture: The Three H Scenarios / Ed. by P. L. Berger, S. P. Huntington. – New York: Oxford University Press, 2002. – 320 p.

Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 272 p.

TA’LIM SIFATI VA KADRLAR TAYYORLASHDA NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI

Shomurodov Alijon Turayevich
International school of finance technology and science instituti tadqiqotchisi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va inson kapitali sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. XXI asrda jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sish darajasi, avvalo, inson resurslarining bilim va malaka darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi milliy taraqqiyotning strategik omili, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning asosiy manbai sifatida qaralmoqda.

Global miqyosda oliy ta’lim tizimi so‘nggi o‘n yilliklarda tub o‘zgarishlarga uchradi: ta’lim bozorining kengayishi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, xalqaro mobilitet va xususiy ta’limning paydo bo‘lishi ta’lim paradigmasini tubdan o‘zgartirdi. Xususan, xususiy (nodavlat) oliy ta’lim muassasalari dunyo miqyosida ta’lim xizmatlari tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda global ta’lim bozorida talabning 30-35 foizini xususiy ta’lim tashkilotlari qondirmoqda.

O‘zbekistonda ham nodavlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Bu holat mamlakatda ta’lim xizmatlari bozorini diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini shakllantirish va sifatni oshirish uchun muhim asos bo‘ldi. 2018-yildan boshlab qabul qilingan bir qator davlat hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni hamda 2021 yil 20 apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-6208-son Farmoni, - ushbu sohada nodavlat sektorning ishtirokini kengaytirish uchun huquqiy zamin yaratdi.

Mazkur hujjatlarda ta’lim tizimida davlat va nodavlat sub’yektlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim dasturlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion pedagogika va amaliy o‘qitish tamoyillarini joriy etish vazifalari belgilandi. Shunday qilib, nodavlat oliy ta’lim muassasalari mamlakatda ta’lim tizimining yangi segmenti sifatida shakllanmoqda va asta-sekin ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Hozirgi sharoitda oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biridir. O‘zbekiston “raqamli iqtisodiyot”, “innovatsion jamiyat” va “yangi avlod inson kapitali” konsepsiyalarini ilgari surayotgan bir paytda, ta’lim tizimining sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifaga aylandi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari bu jarayonda moslashuvchan boshqaruv tizimi, innovatsion o‘qitish texnologiyalari va xalqaro ta’lim modellarini joriy etish orqali ta’lim sifatiga yangi nafas olib kiradi. Ular ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish bilan birga, bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashni ta’minlamoqda.

Bugungi kunda respublikada 70 dan ortiq nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati xalqaro hamkorlikda tashkil etilgan (masalan, TEAM University, AKFA University, MDIST, Tashkent International University va boshqalar). Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimining global ta’lim maydoniga integratsiyalashayotganidan dalolat beradi.

Ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va jamiyatni modernizatsiyalovchi institutdir. Sharq mutafakkirlari, xususan, A.Avloniy, ta’limni “millatning hayotiy masalasi” deb ta’kidlab, uni ma’naviy va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida talqin qilgan.

Bugungi kunda bu g‘oya yanada chuqurlashib, ta’limning falsafiy mohiyati “insonni o‘zgarish sub’yekti” sifatida qarash bilan boyitildi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ana shu konseptual burilishning amaliy ifodasi bo‘lib, shaxsning erkin tanlov huquqini, ijodiy tafakkurini va o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatini markazga qo‘yadi.

Ta’limda plyuralizm (fikr va uslublar xilma-xilligi) kuchaymoqda. Xususiy universitetlar milliy ta’lim makoniga turli falsafiy yondashuvlar, xorijiy tajribalar va metodologik yangiliklarni olib kirish orqali fikrlar xilma-xilligi asosidagi yangilanishni ta’minlamoqda.

Shunday qilib, nodavlat oliy ta’lim muassasalari O‘zbekistonda ta’lim tizimining yangi bosqichini boshlab berdi. Ular inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, ta’limda plyuralizm va erkin tanlov tamoyillarini joriy etish orqali jamiyat tafakkurini yangilashga xizmat qilmoqda.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari aynan shu hayotiy vazifani XXI asr sharoitida yangi metodlar, raqobat muhiti va innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshirishga harakat qilmoqda.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali ko‘rish mumkin:

Birinchidan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim makonida plyuralizm, ya’ni ta’lim konsepsiyalari va uslublarining xilma-xilligini ta’minlaydi. Ijtimoiy falsafada plyuralizm jamiyatda fikrlar, tajriba va qarashlar xilma-xilligi orqali barqarorlikka erishish usuli sifatida talqin qilinadi. Xususan, nodavlat sektorining kirib kelishi natijasida ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi oshdi, talab va taklifning yaxlit tizimi shakllandi, talabalarga tanlov imkoniyatlari kengaydi.

Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash jarayonida amaliyotga yaqinlashuv kuchaymoqda. B.Qodirov ta’kidlaganidek, “Inson kapitali samarasi uning bozor muhitida real ishtirok etish qobiliyati bilan belgilanadi”. Nodavlat muassasalar mehnat bozori bilan to‘g‘ridan-tog‘ri hamkorlikda bo‘lgani uchun o‘quv dasturlarini tez qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni joriy etish imkoniga ega.

Uchinchidan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’limning ijtimoiy missiyasini qayta ko‘rib chiqishga turtki beradi. Jamiyatda bilimga bo‘lgan talab o‘sgani sari ta’limning faqat diplom berish emas, balki shaxsning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilish vazifasi yanada dolzarb bo‘lmoqda. T.Po‘latova ta’kidlaganidek, ta’lim hamisha “Ijtimoiy ong va qadriyatlar translyatori” vazifasini bajaradi. Nodavlat sektorda bu vazifa yangicha interpretatsiyalar bilan boyiydi: akademik erkinlik, yangi identifikatsiya modellari, global ta’lim bilan integratsiya kabi jarayonlar paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va adolat muammolari bilan ham bevosita bog‘liq. Xususiy sektorda ta’lim to‘lovi yuqori bo‘lishi ayrim ijtimoiy qatlamlarni chetlab qo‘yish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun grantlar, maqsadli tayyorlov dasturlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. S.Mamatqulov ta’kidlaganidek, “Ta’lim imkoniyatlarining noteng taqsimlanishi jamiyatda ijtimoiy stratifikatsiyani kuchaytiradi”. Demak, nodavlat sektorining rivoji davlatning barqaror ijtimoiy siyosatini talab qiladi.

Beshinchidan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot makonini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Bugungi kunda ko‘pgina nodavlat OTMlarda ilmiy maktablar hali yetarlicha shakllanmagan. Vaholanki, ilm-fan universitetning asosiy mohiyati. Zunnunov va Umarovlar ta’kidlaganidek, “Intellektual salohiyatni shakllantirish faqat ta’lim orqali emas, balki tadqiqot faoliyati orqali amalga oshadi”. Demak, xususiy sektorda ilmiy infratuzilmani yaratish strategik masalaga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining jamiyat rivojidagi o‘rni faqat iqtisodiy yoki tashkiliy emas, balki ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega. Ular inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy ongni yangilash, ta’lim makonida raqobat va innovatsiyani kuchaytirish, jamiyatdagi tenglik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun esa huquqiy-institutsional asoslarni mustahkamlash, ta’lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, ilmiy muhitni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlovchi mexanizmlarni joriy etish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: Ma’naviyat, 1992. - 160 b.

Haqnazarov M. Jamiyat va taraqqiyot falsafasi. - Toshkent: Fan, 2005. - 248 b.

Qodirov B. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. - 224 b.

Po‘latova T. Ta’lim tizimining ijtimoiy vazifalari. - Toshkent: Fan, 2016. - 186 b.

Mamatqulov S. Ijtimoiy tenglik muammolari va ta’lim. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. - 192 b.

Zunnunov A., Umarov X. Intellektual salohiyat va modernizatsiya jarayonlari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 210 b.

UNESCO. Global Education Monitoring Report 2022: Non-State Actors in Education. - Paris: UNESCO Publishing, 2022. - 412 p.

Altbach P., Salmi J. The Road to Academic Excellence. - Washington: World Bank, 2011. - 385 p.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ ДИСЦИПЛИНАРНЫХ НАКАЗАНИЙ С СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННОЙ СРЕДОЙ

Шукуруллаева Гулчехра Насруллаевна
Соискатель Национального университета имени Мирзо Улугбек,

Введение: Обеспечение порядка и дисциплины в обществе, развитие взаимного уважения, ответственности и гражданского сознания среди граждан являются ключевыми задачами любой социально-воспитательной системы. Для достижения этих целей важно гуманное и целесообразное применение дисциплинарного контроля и связанных с ним мер наказания. Дисциплинарное наказание - это мера, принимаемая в отношении лица за нарушение определённых правил дисциплины, представляющая собой не только юридический, но и нравственно-социальный процесс.

Виды дисциплинарных наказаний чаще всего применяются в образовательных учреждениях, трудовых коллективах, военных подразделениях и других социальных структурах. Цель таких наказаний - не только наказание, но и воспитание, пробуждение чувства ответственности у личности и укрепление коллективных норм морали.

Поэтому их эффективность напрямую зависит от существующей социально-нравственной среды. Иначе говоря, любой вид наказания тесно связан с моральными стандартами общества, культурой, духовной атмосферой и верховенством закона.

С этой точки зрения,исследование взаимосвязи дисциплинарного наказания с социально-нравственной средой позволяет выявить суть процесса, его эффективность и определить перспективные направления его развития. Поскольку воздействие наказания имеет не только юридические, но и нравственные последствия, которые могут влиять на психологическое состояние, отношения, мировоззрение и социальную активность личности. Нездоровая моральная среда - несправедливое отношение, дискриминация, грубое обращение,

сомнительные практики наказания - усиливает негативное влияние дисциплинарных мер и может привести к результатам, противоположным их воспитательным целям.

Одновременно с этим, в контексте масштабных реформ, проводимых в Узбекистане в годы независимости в целях защиты прав человека, формирования прозрачного и справедливого управления, повышения правовой и нравственной культуры граждан, возникает необходимость переосмысления дисциплинарного наказания с учётом социально-нравственных факторов и разработки новых подходов.

Анализ литературы: Вопросы дисциплинарного наказания и его связи с социально-нравственной средой изучаются не только в национальной, но и в международной научной среде. Учёные мира по-разному оценивают его эффективность, соответствие правам человека и моральное воздействие.

В частности, Мишель Фуко в своём известном труде анализирует историческую трансформацию системы наказания. По его мнению, наказание изначально выражалось в физических пытках, но впоследствии трансформировалось в систему социального контроля и нравственного воспитания. Том Тайлер подчёркивает, что люди соблюдают законы не только из страха наказания, но и благодаря доверию к системе и справедливому отношению.

Следовательно, дисциплинарные меры, основанные на общественном доверии, дают наибольший эффект. Американские исследователи Скиба и Питерсон анализируют, каким образом дисциплинарные меры, особенно в отношении молодёжи, влияют на их участие в социальной жизни и формирование моральных установок.

Из отечественных исследователей И.Х. Джафаров в своей статье анализирует девальвацию традиционных нравственных ценностей как результат глобализации, технологического прогресса и усиления индивидуализма. Он утверждает, что разрушение моральных ориентиров ведёт к духовному вакууму и росту социальных конфликтов. Это напрямую влияет на эффективность дисциплинарного наказания, поскольку в среде с ослабленными ценностями его воспитательное значение теряется.

Ш.Рахмонов видит в наказании не только меру принуждения, но и способ осознания ошибок и реинтеграции личности в общество. Д.Хакимов исследует роль нравственных ценностей в предотвращении отчуждения молодёжи от общества и подчёркивает важность воспитательного воздействия дисциплинарных мер в этом процессе.

Анализ литературы показывает: если зарубежные исследователи видят в наказании инструмент социального контроля и морального воздействия, то узбекские учёные акцентируют внимание на балансе между наказанием и воспитанием, подчёркивая необходимость его разработки на принципах гуманизма. В обоих подходах общий вывод один: эффективность наказания обеспечивается его соответствием нравственной среде и уважением к человеческому достоинству.

Обсуждение и выводы: В современном обществе дисциплинарное наказание рассматривается не просто как карательная мера, а как педагогический, моральный и профилактический механизм, влияющий на поведение личности и состояние моральной среды.

Исследования показывают, что нарушения дисциплины часто возникают вследствие слабой моральной атмосферы, нарушений принципов социальной справедливости или недостатка коммуникации.

Если наказание применяется исключительно в репрессивной форме, это может привести к недовольству, внутреннему сопротивлению, недоверию и социальной отчуждённости. Но при воспитательном, разъяснительном и восстановительном подходе оно оказывает позитивное влияние и способствует социальной адаптации личности.

Социальная среда общества - это совокупность отношений между людьми, общественного сознания, ценностей, традиций, культурной и духовной атмосферы. Дисциплинарное наказание осуществляется именно в этой среде и зависит от её состояния. Если в обществе преобладают справедливые отношения, ценится человеческое достоинство, развита гражданская активность - дисциплинарное наказание становится действенным инструментом морального воспитания. В противном случае оно может быть воспринято как оскорбление или форма давления.

Абу Наср аль-Фараби в своём труде «Город добродетельных людей» подчёркивает, что развитие личности и общества возможно только через моральное, интеллектуальное и духовное совершенствование. Его учение утверждает, что добродетельное общество строится на знании, разуме, нравственности и порядке. В этом смысле можно сказать: «Порядок и дисциплина в добродетельном обществе ведут к нравственному совершенству». Фараби указывает, что «Общество становится добродетельным, если его члены стремятся к добру друг для друга. Лишь при господстве порядка и справедливости они достигают счастья».

Если нравственная среда здорова, любое применяемое наказание будет направлено не на унижение, а на воспитание, осуществляться на принципах справедливости и служить духовному развитию личности.

В таком случае дисциплинарное наказание становится источником позитивных изменений, укрепляет гражданское сознание, ответственность и коллективные отношения.

Изучение влияния дисциплинарного наказания на социально-нравственную среду и наоборот - важное направление научных, педагогических, психологических и правовых исследований.

С педагогической точки зрения наказание должно быть не только мерой воздействия, но и средством обучения и саморазвития. В случае соблюдения моральных ценностей дисциплинарные меры становятся эффективными. В психологическом плане важно учитывать, как личность воспринимает наказание, как реагирует и насколько оно побуждает к саморефлексии и изменениям.

Слишком суровые наказания могут вызывать страх, гнев и даже ненависть, поэтому важно учитывать психологические последствия. С юридической точки зрения дисциплинарные меры служат реализации социальной справедливости - равенства возможностей и защиты прав каждого. Если они применяются справедливо и прозрачно, это укрепляет доверие в обществе. В противном случае может возникнуть моральный кризис. Для всех членов общества должны быть единые моральные стандарты.

На основании проведённого анализа можно сделать следующие ключевые выводы:

Дисциплинарные меры и социально-нравственная среда взаимосвязаны. Только при их согласованности достигается воспитательный эффект.

Наказание, основанное на нравственных нормах, формирует чувство ответственности.

Эффективность наказания зависит от подхода: уважение, понимание и справедливость обеспечивают социальную адаптацию и нравственное развитие.

Альтернативные методы — моральная пропаганда, открытый диалог, позитивная мотивация — могут заменить карательные меры, особенно среди молодёжи и в образовании.

Изучение требует междисциплинарного подхода: педагогика, психология, социология, юриспруденция.

Таким образом, исследование взаимосвязи дисциплинарного наказания с социально-нравственной средой имеет не только теоретическое, но и практическое значение в формировании здорового общества и правового государства.

Список литературы:

Foucault, M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison.* New York: Vintage Books. 1977.

Tyler, T.R. *Why People Obey the Law.* Princeton University Press. 2006.

Skiba, R., & Peterson, R. *School discipline at a crossroads: From zero tolerance to early response.* Exceptional Children. 2000.

Ja’farov I.X. *Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning buzilishi va uning global jamiyatga ta’siri.* Ilmiy maqola. Olingan: https://journal-web.uz/index.php/05/article/view/1295. 2025.

Rahmonov, Sh. *Tarbiyada jazo va rag‘batning o‘rni.* Toshkent: “Muallim” nashriyoti. 2019.

Xakimov, D.A. *Yoshlarning jamiyatdan begonalashuvini oldini olishning ijtimoiy-axloqiy asoslari.* O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Olingan: https://library.ziyonet.uz/ru/book/132977. 2024.

Sharipov, M. *Sotsiologiya va ijtimoiy munosabatlar.* Toshkent: Fan. 2020.

To‘xtayev, H. “Tarbiyada jazolashning axloqiy chegaralari”. *Axloq va Ma’naviyat* jurnali, №2. 2021.

Фаробий, Абу Наср. Фозил шаҳар аҳолисининг қарашлари. Тошкент: Фан, 1993. (Араб тилидан таржима ва шарҳ: Б. Қосимов)

GLOBAL MADANIY TA'SIRLAR SHAROITIDA O‘ZBEK BOLALARIDA MA'NAVIY QADRIYATLAR

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna
Oriental universiteti o’qituvchisi
Soatova Barno Sherali qizi
Oriental universiteti talabasi

So‘ngi yillarda globalizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanib, dunyo xalqlari orasida madaniy almashinuvlarni kuchaytirmoqda. Bu jarayon har bir davlat va millat, xususan, o‘zbek jamiyatiga ham ta'sir ko‘rsatmoqda. Bolalar tarbiyasida esa global madaniy ta'sirlar ularning ma'naviy qadriyatlari, dunyoqarashi va shaxsiy identitetini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [3,26].

Maqolaning maqsadi – global madaniy ta'sirlarni tahlil qilib, o‘zbek bolalarida ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish yo‘llarini aniqlashdir. “Bolalarning ma'naviy va madaniy rivojlanishi ularni milliy qadriyatlar bilan bog‘laydi va global dunyoda o‘z o‘rnini topish imkonini yaratadi”[5,41]. Shu sababli global madaniy ta'sirlarni o‘rganish va ularni bolalar tarbiyasida to‘g‘ri yo‘naltirish dolzarb masala hisoblanadi.

Global madaniy ta'sirlar bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

1) Axborot va media ta'siri: televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalar turli madaniy muhitlar bilan tanishadi. Media resurslari bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, lekin ularni milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish xavfi ham mavjud”. Biz ham bu fikrga qo‘shilamiz, chunki dunyo rivojlanmoqda va biz ham yuksalishimiz zarur. Milliy merosimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, dinimiz va tilimizdan voz kechmagan holda, asl holatini saqlash bilan birgalikda rivojlantirishimiz kerak.

2) Xalqaro madaniy almashinuvlar: ta'lim dasturlari, bolalar festivallari orqali chet el tajribalari orqali yangi qadriyatlar va ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi. Globallashuv sharoitida insonning eng katta muammosi axborot oqimiga moslasha olishidir. Agar yosh avlodda mustahkam qadriyatlar shakllanmagan bo‘lsa, bu jarayon ularning ma'naviy rivojiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

3) Internet va ijtimoiy tarmoqlar: bolalar ijtimoiy jamiyatning turli normativlari bilan onlayn muhitda tanishadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan ma'lumotlar bolalarda kreativlikni rivojlantiradi, ammo ular orasida axloqiy me'yorlarni yo‘qotish xavfi ham mavjud”. Shu sababli, farzandlarimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarning quliga aylanishidan oldin, ularga e'tibor berish va to‘g‘ri yo‘naltirishimiz zarur.

4) Tashqi adabiyot va san'at orqali ta'siri: Musiqa, kitoblar va filmlar orqali bolalarning estetik didi va dunyoqarashi kengayadi. Chet el adabiyoti, ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar orqali bolalar boshqa xalqlarning hayot tarzi, urf-odatlari, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari bilan tanishadilar. Kino va animatsiyalar ham bolalarga kuchli ta'sir ko‘rsatadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta'kidlaganidek: Ilm va san'at insonni kamolga yetkazadi, [2,91] ammo bu jarayon milliy ma'naviyat asosida amalga oshirilganda samarali bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatida bolalar tarbiyasida qadriyatlarning asosiy manbalari:

- **Oilaviy qadriyatlar:** Hurmat, sadoqat, mehr-oqibat.
- **Diniy qadriyatlar:** Halollik, adolat, sabr-toqat.
- **Milliy va madaniy qadriyatlar:** Milliy urf-odatlar, bayramlar, xalq og‘zaki ijodi.

Bolalarning ma'naviy tarbiyasi milliy qadriyatlar bilan mustahkamlanmasa, global ta'sirlar ularni identitetsiz qoldirishi mumkin.[2,34] Shu sababli pedagogik metodlar orqali qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish zarur. Global ta'sirlarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali bolalarda ijobiy xususiyatlarni mustahkamlash va salbiy oqibatlarni kamaytirish mumkin:

Ijobiy ta’sirlar	**Salbiy ta’sirlar**
Dunyoqarashning kengayishi	Mahalliy qadriyatlarning susayishi
Madaniy ko‘nikmalar va kreativlikni rivojlantirish	Milliy o’zlikni anglash muammolari
Til o‘rganish va xalqaro tajribalarni qabul qilish	Axborotdan noto‘g‘ri foydalanish xavfi

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar va global madaniy ta'sirlarni uyg‘unlashtirilgan tarbiya modeli eng samarali hisoblanadi. Masalan, Yaponiya va Finlandiya tajribalari bolalarni global dunyoga tayyorlash bilan birga, milliy madaniy merosni saqlashga ham katta e'tibor beradi. O‘zbek olimlari esa bolalarni tarbiyalashda milliy merosni saqlashning dolzarbligini ta'kidlaydilar.

Global madaniy ta'sirlar bugungi kunda o‘zbek bolalarining ma'naviy tarbiyasiga chuqur va ko‘p qirrali ta'sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari, tashqi adabiyot va san'at orqali kirib kelayotgan global oqimlar bolalarning dunyoqarashini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ularning milliy qadriyatlari va ma'naviy tayanchlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar va ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida global madaniy ta'sirlarni inkor etish emas, balki ularni ongli va tanlab qabul qilish zarur degan xulosaga kelindi. Milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmagan global ta'sir yosh avlodning ma'naviy bo‘shlig‘iga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, global madaniy ta'sirlar sharoitida o‘zbek bolalarining ma'naviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish mumkin. Buning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida muvozanat yaratish lozim. Ana shundagina biz global dunyoda raqobatdosh, lekin o‘z milliyligini yo‘qotmagan, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Ismoilov Sh. Ma'naviyat asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 180 b.

Yo‘ldoshev M. Bola tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 152 b.

Qodirov N. Madaniyat va globallashuv: nazariy va amaliyot. Toshkent: Akademik nashr, 2019. – 200 b.

Rashidov S. Zamonaviy pedagogika va ma'naviy tarbiya. Toshkent: Fan, 2020. – 168 b.

Abdullayev Z. Globallashuv va milliy identitet muammolari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2017. – 176 b.

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, МЕДИАПРОСТРАНСТВО И ДУХОВНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ

Соатова Нигина Камол кизи
Национальный Университет имени Мирзо Улугбека
Студентка 3-го курса Практической психологии

Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в XXI веке коренным образом преобразовало медиапространство, сделав его глобальным, интерактивным и доступным. Этот процесс принес не только преимущества, такие как свободный доступ к знаниям, ускорение коммуникаций и социальная мобилизация, но и породил новые вызовы. Одним из наиболее значимых среди них является вопрос **духовной безопасности** личности, общества и государства [1]. Духовная безопасность понимается как состояние защищенности системы ценностей, культурно-нравственных ориентиров и идентичности от внутренних и внешних негативных воздействий. В цифровую эпоху медиапространство становится главной ареной для испытания этой безопасности.

Основные вызовы цифровой эпохи для духовного здоровья нации

Анализируя современную медиасреду, мы выделяем несколько ключевых угроз, которые, на наш взгляд, представляют наибольшую опасность для духовной безопасности.

В первую очередь, **информационная перегрузка как почва для манипуляции.** Ежесекундный поток информации и данных сегодня настолько велик, что наша психика не успевает его фильтровать. Именно в этой усталости и растерянности пользователя кроется корень манипуляции. Деструктивные силы, будь то политические активисты или маркетологи, целенаправленно используют нашу когнитивную уязвимость. Их задача не просто проинформировать, а изменить наше восприятие реальности, подорвав доверие к традиционным институтам, от семьи до государства [2]. Мы видим, как это работает на примерах волн фейковых новостей, которые мгновенно вирусятся в соцсетях.

Помимо этого можно заметить **глобализацию против идентичности: кто кого?** Открытость медиапространства имеет и обратную сторону. Прокручивая ленту Instagram или просматривая зарубежные сериалы, мы незаметно усваиваем чужие культурные коды. Проблема не в самом факте заимствования, а в том, что стандарты гиперпотребления, гедонизма и новые этические нормы часто вступают в прямое противоречие с нашими национальными и религиозными традициями. В долгосрочной перспективе это ведет к тревожной тенденции, где

наша собственная культура начинает восприниматься молодежью как «немодная» и устаревшая, что размывает национальную идентичность и порождает духовный вакуум.

Стоит учесть, что **анонимность считается как привилегия безнаказанности.** Потому что виртуальная среда, где можно скрыться за аватаром, размывает чувство ответственности. То, что мы не сказали бы человеку в глаза, в сети пишется не задумываясь. Кибербуллинг, троллинг, распространение деструктивного контента, все это стало печальной нормой. Опасность здесь в привыкании: общество постепенно становится равнодушным к агрессии и злу, что в конечном счёте ведёт к эмоциональному оскудению и девальвации моральных норм в реальной жизни.

В таком случае, что мы можем противопоставить этим вызовам? Опыт показывает, что путь запретов и тотальной цензуры в глобальной сети тупиковый. Гораздо продуктивнее, на мой взгляд, работать на опережение, формируя у общества внутренний «иммунитет».

Начнем с образования: почему медиаграмотность — это новый английский язык? Сегодня умение критически анализировать информацию так же важно, как знание иностранного языка. Речь идет не о технических навыках, а о воспитании особой культуры мышления. Школьные и университетские программы должны учить не просто пассивно потреблять контент, а задавать вопросы: «Кто это написал?», «Какую цель преследует?», «Какие приемы использует, чтобы меня убедить?». Только так мы сможем вырастить поколение, устойчивое к манипуляциям [3].

Как сделать наше культурное наследие «вирусным»? На наш взгляд, чтобы противостоять глобализации, нужно не прятать сокровища национальной культуры в архивы, а активно выводить их в цифровое пространство. Мы должны создавать контент, который будет интересен и конкурентоспособен. Представьте интерактивные экскурсии по Самарканду в VR-очках, мобильные игры по мотивам народных эпосов, качественные исторические блоги. Это превратит наше наследие из чего-то застывшего в живой и увлекательный диалог с молодежью.

Но все таки, кто отвечает за этику в сети: государство или мы сами? Правовые рамки, безусловно, важны для борьбы с откровенно противоправным контентом, такому как призывы к насилию, экстремизму, распространение детской порнографии и т.д. Однако тотальный контроль убивает свободу. Поэтому ключевая ответственность лежит на нас самих. Этику цифрового общения нужно воспитывать с малого: в семье, в школе. Каждый репост, каждый комментарий - это наш личный выбор. Культура уважения к оппоненту, конструктивный диалог вместо хейтерства должны стать новой социальной нормой, которую мы поддерживаем сами, начиная от владельцев крупных новостных порталов и популярных блогеров до рядовых пользователей социальных сетей. Подобная этика должна стать не навязанным сводом правил, а внутренней нормой, поддерживаемой как общественным порицанием деструктивного поведения, так и

поощрением позитивных примеров для формирования здорового информационного поля.

Подводя итог, можно сказать, что в цифровую эпоху духовная безопасность становится практикой ежедневного осознанного выбора. Это выбор между критическим мышлением и доверием к кликбейту, между пассивным потреблением глобального контента и интересом к своему наследию, между анонимной агрессией и уважительным диалогом. Наша общая задача - сделать так, чтобы у каждого был интеллектуальный и моральный компас для этого выбора. Только тогда технологии будут служить человеку, а не подменять его ценности [4].

Использованная литература:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 176 с.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. - Wiley-Blackwell, 2010. - 656 p.
3. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность: теория, история, методика. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2019. – 450 с.
4. Назарли М.Р. Цифровизация и её влияние на трансформацию социальных ценностей в современном обществе // Журнал социологических исследований. - 2021. - № 4. – С. 45-58.

TA'LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sobirjanova Munisaxon Fazliddin qizi

Ta'lim tizimi yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy institut hisoblanadi. Uning vazifasi shunchaki bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga, ijodiy yondashuvga va muammolarni hal qilishga o'rgatishdir.

Zamonaviy uslublar: An'anaviy ta'lim metidlari, ba'zan faqatgina ma'lumotlarni yodlashga urg'u berish, yoshlarning qiziqishini pasaytirib, ularda XXI asr talab etadigan kummunikatsiya, hamkorlik innovatsiya kabi ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantirmayabti. Global axborot oqimi sharoitida, maktab va universitetlarda berilayotgan ma'lumotlarning tezda eskirishi ham dolzarb muammo hisoblanadi. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga loyihaviy o'qitish. (project-based learning), individual yondashuv, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarni keng tatbiq etish lozim. O'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish va ularning kasbiy obro'sini yanada yuksaltirish asosiy vazifadir. Ta'limda faqatgina "nimani o'rganish" emas balki "qanday o'rganish" va "o'rganilgan bilimlarni hayotda qanday qo'llash" masalalariga e'tibor qaratish zarur.

Madaniy muhit yoshlarning ma'naviy dunyosini, axloqiy qadriyatlarini, estetik didini va milliy o'ziga xosligini shakllantiruvchi muhim omildir. Bu muhit o'z ichiga san'at, adabiyot, musiqa, tarix, urf-odatlar va jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni qamrab oladi.

Globallashuv jarayonida internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan begona madaniyatning salbiy ta'sirlari, qadriyatlar ziddiyati, ma'naviy qashshoqlik va ma'naviy immunitetning zaiflashishi yoshlar tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yuzaki "ommaviy madaniyat"ning yoyilishi yoshlarning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatini pasaytirib, ularda begona xatti-harakatlar va dunyoqarashni shakllantirishi mumkin.

Samarali Yechimlar: Milliy madaniy merosimizni yoshlar tili va tushunchasiga mos tarzda, zamonaviy formatlarda (yuqori sifatli filmlar, seriallar, animatsiyalar, kompyuter o'yinlari, virtual muzeylar, interaktiv mobil ilovalar) targ'ib qilish lozim. Yoshlar uchun qiziqarli va foydali milliy kontent yaratish, ularni madaniy tadbirlar va ijodiy jarayonlarga faol jalb qilish orqali ma'naviy immunitetni shakllantirish zarur. Milliy madaniyatni shunchaki saqlab qolish emas, balki uni rivojlantirish va raqamli davr bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Oila – yoshlar shaxsiyatini shakllantirishning eng asosiy va dastlabki maskani hisoblanadi. Bolaning ilk bilimlari, xulq-atvor me'yorlari, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashi oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, unga beriladigan e'tibor va to'g'ri yo'l-yo'riqlar uning kelajakdagi hayotiga fundamental ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda oilalarda ham bir qator muammolar kuzatilmoqda. Avlodlar oralig'idagi farq kuchayib, ota-onalar va bolalar o'rtasida axborot savodxonligi, dunyoqarash va qadriyatlar borasida tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Oilada ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish, farzandlar bilan doimiy va ishonchli muloqot o'rnatish, ularning muammolarini tinglash va qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ota-onalar farzandlarining virtual dunyosidan xabardor bo'lishlari, ularga internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatishlari va virtual tahdidlardan himoya qilishlari lozim. Shuningdek, oilada milliy an'analarga hurmat, mehr-oqibat va vatanparvarlik ruhini singdirish asosiy vazifadir.

Ta'lim tizimi, madaniy muhit va oila – bu uchta mustaqil, ammo bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan institutlardir. Ularning har biri yoshlar tarbiyasida o'ziga xos o'rin tutadi. Agar maktab oilada olingan tarbiyani davom ettirsa, madaniy muhit esa bu bilimlarni mustahkamlasa, yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topishga, millat va Vatan ravnaqiga hissa qo'shishga qodir bo'ladilar. Aksincha, bu omillar o'rtasida uzilish yoki qarama-qarshilik bo'lsa, tarbiya samaradorligi pasayadi, natijada ma'naviy qashshoqlik va qadriyatlar inqirozi yuzaga kelishi mumkin. Bu uch ustunni bir-biriga bog'lovchi zanjir qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat shunchalik barqaror va rivojlangan bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasi masalasi birgina institut yoki shaxsning zimmasidagi yuk emas, balki butun jamiyatning, har bir fuqaroning umumiy mas'uliyatidir. Ta'lim tizimini doimiy isloh qilish, madaniy muhitni milliy qadriyatlarimiz asosida boyitish va oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish orqali biz kelajakda O'zbekistonning jahon arenasida munosib o'rin egallaydigan, bilimdon, ma'naviyatli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalay olamiz. Faqatgina ana shunday keng qamrovli, integratsiyalashgan va strategik yondashuv orqali biz zamon chaqiriqlariga munosib javob bera olamiz va yoshlarimizni

buyuk maqsadlarga erishishga qodir avlod qilib voyaga yetkazamiz. Bu bizning bugungi kunimiz uchun eng katta investitsiya va kelajakdagi farovonligimizning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://share.google/RWF3hwcEYupKrwJBW
2. https://share.google/OTUJ5ZTlkX1iUeHI2
3. IIAU https://share.google/cCYlrEmupwOChwNMx
4. https://share.google/NipgVjxHGp3hGfSVc
5. https://share.google/9cD5Hv5ciRe6sVRnM
6. https://share.google/IlAWHzqOXGRf3z3UM

TALABALARNI KOMPYUTER GRAFIKASI VOSITALARI ASOSIDA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI ZARURATI

Sodikjonova Mahliyo Abduvahhob qizi
Namangan Davlat pedagogika instituti magistranti

Kirish. Zamonaviy grafik vositalarga asoslangan kompyuter modellashtirish o‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi, ijodiy muhitni uyg‘otadi va o‘quvchilarga dunyoni ijodkor nigohi bilan ko‘rish imkonini beradi. Kompyuter ekranida grafik muharrir yordamida murakkab rang-barang kompozitsiyalar yaratish, ularni tahrirlash, o‘zgartirish va yaxshilash, dizaynga turli tipografik elementlarni kiritish, yaratilgan kompozitsiyalar asosida tayyor bosma mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Asosiy qism: Kompyuter texnologiyalarining mavjudligi va xilma-xilligi (3D, animatsiya, video va an'anaviy vizual texnikaga taqlid qilish) kompyuterni o'quvchilarning ijodkorligi va o'z-o'zini kashf etishi uchun ochiq ta'lim va rivojlanish muhiti sifatida ko'rish imkonini beradi. Turli xil idrok, xotira va intellektual tafakkurni rivojlantirib, o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Turli xil asboblar yordamida, rasmdagi kabi, chiaroscuro, yorug'lik va soyalar, rang va yorug'lik kontrastlari yordamida hajm illyuziyasi yaratiladi. Talabalar har qanday ob'ektni kosmosga joylashtirgan holda uch o'lchovda tasavvur qilishlari va takrorlashlari jarayonida estetik mezonlar va qarashlarni o’zlarining bilim va ko’nikmalari ortidan namoyon etadilar.[1]

Zamonaviy grafik vositalarga asoslangan kompyuter modellashtirish jarayoni o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiradi, ijodiy muhitni uyg‘otadi, dunyoga ijodkor nigohi bilan qarash imkonini beradi. Kompyuter ekranida grafik muharrir yordamida murakkab rang-barang kompozitsiyalar yaratish, ularni tahrirlash, o‘zgartirish va yaxshilash, chizmaga turli tipografik elementlarni kiritish, yaratilgan kompozitsiyalar asosida tayyor bosma mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.[2] Asosiy shakllarni - ellips, to'rtburchaklar, uchburchaklarni yaratishni avtomatlashtirish, shuningdek, bu shakllarni rang bilan

[1] Baratov, A. (2021). Raqamli pedagogika va vizual madaniyat. – Toshkent. “Raqamli grafik muhit o‘quvchini faol vizual tajriba yaratishga jalb etadi”.

[2] Zabrodina N.A. San’at yo’nalishi bo’yicha o’quvchilarni o’qitishda kompuyuter grafikasining o’rni. https://moluch.ru/archive/139/38130

to'ldirish va boshqa chizmalarni yaratish va tahrirlash vositalaridan foydalangan holda, bolalar juda murakkab rasm kompozitsiyalarini yaratishlari mumkin. Kompyuter grafikasi monitor ekranida yoki tashqi xotira qurilmasidagi nusxa sifatida inson uchun mavjud bo'lgan tasvirning barcha turlari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Kompyuter grafikasiga oʻrgatish oʻquvchilarning estetik rivojlanishi va ijodiy oʻzini namoyon etishiga yordam beradi.

Bugungi kunda kompyuter san'ati inson hayotida muhim haqiqatga aylandi. Biz uning asarlarini deyarli barcha sohalarda uchratamiz. Zamonaviy bolalar o'zlarining estetik, semantik va mazmunli tomonlarini egallashga mo'ljallangan.[1] Ta'limning maqsadi - ijodiy shaxsning barkamol rivojlanishi uchun yo'naltirilgan pedagogik jarayon orqali ushbu mahoratni optimallashtirish. Ijodkorlikning yangi shaklini rag'batlantirish, zamonaviy san'atga qiziqish uyg'otish, nafaqat u bilan shug'ullanish, balki uni tushunish va uning estetik tamoyillarini tushunish istagini uyg'otish - bunday darslarda o'qituvchining asosiy maqsadi.

Ushbu fanda kompyuter nafaqat jahon madaniyatini oʻrganishda kuchli oʻquv quroli, balki rangtasvirning nazariy asoslarini oʻzlashtirish, badiiy didni oʻstirish, oʻquvchilarning tasavvur va ijodkorligini rivojlantirish vositasidir. Qolaversa, kompyuter insoniyat yillar davomida toʻplagan barcha goʻzalliklarni oʻrganish uchun oʻquv quroli boʻlishi bilan birga rangtasvirning nazariy asoslarini oʻzlashtirish, oʻquvchilarning badiiy didini oʻstirish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish vositasidir.

Estetik tarbiya tizimining eng muhim vazifasi zamonaviy axborot jamiyati voqeligi va muammolariga mos keladigan estetik madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Yangi axborot texnologiyalari badiiy asar yaratish ijodiy jarayonining oʻrnini bosmaydi yoki siqib chiqarmaydi, lekin ular unga befarq emas, yangi imkoniyatlar ochadi, yangi vazifalarni qoʻyadi, badiiy obrazlar qurishda yangicha qoliplarni belgilaydi.

Kompyuter grafikasi o'zaro o'quv aloqalarini o'rnatadi. Amaliy topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar rang nazariyasi asoslarini, kompozitsiyani, chiziqli va havo nuqtai nazari (tasviriy san'at) qonunlarini tushunishlari kerak; oddiy qismlarni ishlab chiqarish texnologiyasi (texnologiyasi); geometrik figuralar va qattiq jismlar (geometriya); rangni idrok etish va o'zgartirish xususiyatlari (fizika); matbaachilikning kelib chiqishi va rivojlanishi, uning kitob dizayni talablarini ishlab chiqishga ta'siri; va shrift o'lchamlaridagi farqlarning sabablari (tarix).[2]

Kompyuter san'ati inson hayotida muhim haqiqatga aylandi. Biz uning asarlarini deyarli barcha sohalarda uchratamiz. Zamonaviy bolalar ularni estetik, semantik va mazmunli o'zlashtirishga mo'ljallangan.[3]

Ta'limning maqsadi - ijodiy shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun boshqariladigan pedagogik jarayonda ushbu o'zlashtirishni optimallashtirish. Yangi ijodiy yondashuvni rag'batlantirish, zamonaviy san'atga qiziqish uyg'otish, nafaqat u bilan shug'ullanish,

[1] Ayupova, M. (2020). Zamonaviy tasviriy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand. “Raqamli vositalar rang sezgirligining rivojlanishiga tezkor ta’sir koʻrsatadi”.

[2] Temirova, M. I. (2022). Tasviriy san'at va uning mazmuniy mohiyati. Innovatsiyalar: Ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar jurnali , 1 (2).

[3] Karimov, I. (2018). Ta’lim jarayonida multimedia vositalari. – Buxor

balki uni tushunish va uning estetik tamoyillarini tan olish istagini uyg'otish - bunday darslarda o'qituvchining asosiy maqsadi.

Ushbu tanlov kursidagi kompyuter nafaqat jahon madaniyatini oʻrganishning kuchli ta’lim vositasi, balki rassomlikning nazariy asoslarini oʻzlashtirish, badiiy didni rivojlantirish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish vositasidir.

Shu bilan birga, kompyuter insoniyatning yillar davomida toʻplagan barcha goʻzalliklarini oʻrganishning kognitiv quroli boʻlishi bilan birga rangtasvirning nazariy asoslarini oʻzlashtirish, badiiy didni rivojlantirish, oʻquvchilarning tasavvur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasidir.[1]

Estetik tarbiya tizimining eng muhim vazifasi - zamonaviy axborot jamiyatining voqeliklari va muammolariga mos keladigan shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdir.

Yangi axborot texnologiyalari badiiy asar yaratishdagi ijodiy jarayonning oʻrnini bosmaydi yoki oʻrnini bosmaydi, lekin ular unga befarq emas, yangi imkoniyatlar ochadi, yangi vazifalarni qoʻyadi, badiiy obrazni qurishda yangicha qoliplarni belgilaydi.

Xulosa: Bugungi kunda kompyuter grafikasi texnik texnik vosita yoki dizayn jarayonini yengillashtirish dastur majmuasi, balki zamonaviy jamiyatning vizual madaniyatini shakllantiradigan narsadan biri sifatida estetik jihatdan ega bo'ladi. Raqamli texnologiyalar, vizual axborot vositalarining keskin ortishi, media makonning kengayishi va insonning vizual idrok mexanizmlarining o' limz kompyuter grafikasining san'at, ta'lim madaniyat, arxitektura, reklama, muhandislik, tibbiyot, ilmiy tadqiqot kabi ko'plab sohalardagi rolini tubdan oshirishdi. Ush jarayoni kompyuter grafikasini oddiy tasvirlangan tasvir darajasidan keng qamrov estetik fikrlashni shakllantiruvchi, dizayn qarashlarni boyituvchi va vizual tafakkurni rivojlantiruvchi universal fenomen darajasiga ko’tarilmoqda.

Kompyuter grafikasi ishlab chiqarish kategoriyalarining plastikasi, kompozitsiyaning struktural asosi, yorug'lik va soyaning o'zaro munosabati, makonning vizual tashkil etilishi kabi fundamental estetikalarni chuqur anglash va ular bilan amaliy tajriba o'tkazishni beradi. Raqamli grafik muhiti cheksiz ijodiy taqdim etgani tufayli olinadigan foydalanuvchi o'z badiiy i i mustaqil ravshan bo'yitadi, dizayn nazariyasini mukammal o'z shakli, estetik mezonlarga qarorlar qabul qiladi va o'z fikrini vizuallar orqali aniq, ifodali va badiiy yuksak darajada ifodalay. Bu jarayon estetik tafakkurning ishlashini tabiiy, tizimli va samarali yo'l bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy yosh avlodning informatsion makonda bo'lishi, ijtimoiy tarmoqlarda doimiy vizual axborot iste'mol qilishi, reklama va media mahsulotlari bilan uzluksiz muloqotda bo'lishi kompyuter grafikasining estetik zaruratini yanada rivojlantirish. Bu asosiylikni savodxonlik bilan bir qatorda estetik savodxonlik, vizual madaniyatni, dizayn dizaynlarini, kompozitsion fikrlashni va vizual tahlil ko'nikmasini rivojlantirishni zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylantiradi. Kompyuter grafikasining estetik ahamiyati, u insonning jismoniy ko'rishi, balki idrok, tasavvur, kreativ tafakkur, badiiy qarashida o’z aksini topadi, bu holat esa talabalarda kompuyuter grafikasini

[1] Halimov, D. (2020). Grafik dizayn metodikasi. – Namangan.

o’rgatish jarayonida estetik mezonlarni chuqur o’rgatish zaruratini keltirib chiqaradi, jamiyatning moddiy madaniyatga o'tish jarayonida yanada rivojlanib, rivojlanmoqda. Raqamli kontent, multimedia mahsulotlari, vizual aloqa, grafik interfeyslar, mobil ilovalar, animatsiya, 3D va virtual reallashtirish texnologiyasining kengayib borishi kompyuter grafikasining estetik va funksional mazmunida birlashgan integrativ mexanizm sifatida talab qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Baratov, A. (2021). Raqamli pedagogika va vizual madaniyat. – Toshkent. *“Raqamli grafik muhit o‘quvchini faol vizual tajriba yaratishga jalb etadi”*.

Ayupova, M. (2020). Zamonaviy tasviriy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand. *“Raqamli vositalar rang sezgirligining rivojlanishiga tezkor ta’sir ko‘rsatadi”*.

Nuratov.O’.N, Hakimov U.B Chizmachilik va rangtasvir o’qitish jarayonida tasviriy san’at o’qituvchilarini ixtisoslashtirilgan tayyorlashning ilmiy asoslari

Mamatova, S. (2019). Kompyuter grafikasi asoslari. – Toshkent.

Karimov, I. (2018). Ta’lim jarayonida multimedia vositalari. – Buxoro.

Halimov, D. (2020). Grafik dizayn metodikasi. – Namangan.

Zabrodina N.A. San’at yo’nalishi bo’yicha o’quvchilarni o’qitishda kompuyuter grafikasining o’rni. https://moluch.ru/archive/139/38130

8. Temirova, M. I. (2022). Tasviriy san'at va uning mazmuniy mohiyati. *Innovatsiyalar: Ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar jurnali* , *1* (2).

KOMPYUTER GRAFIKASI VOSITALARI ASOSIDA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Sodikjonova Mahliyo Abduvahhob qizi
Namangan Davlat pedagogika instituti magistranti

Kirish. Bugungi raqamli asr ta’lim jarayonida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki estetik tafakkurni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli vizualizatsiya, grafik dizayn dasturlari, 3D modellashtirish, animatsiya va multimedia elementlari o‘quvchilarda tasviriy idrok, ijodkorlik va badiiy tafakkurni rivojlantirishga yangicha imkoniyatlar yaratadi[1].

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, raqamli grafik muhit (Baratov, 2021) o‘quvchini faol tajriba jarayoniga jalb etadi, vizual obrazlar yaratish qobiliyatini kengaytiradi va o‘qitish jarayonini motivatsiya bilan boyitadi. Shu sababli, kompyuter grafikasi zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, estetik tarbiya mazmunini ham sifat jihatdan yangilaydi[2].

Asosiy qism; Kompyuter grafikasi vositalari bugungi kunda raqamli jamiyatning deyarli barcha sohalarida markaziy o‘rin egallab, vizual axborotni yaratish, qayta ishlash

[1] Baratov, A. (2021). Raqamli pedagogika va vizual madaniyat. – Toshkent. “Raqamli grafik muhit o‘quvchini faol vizual tajriba yaratishga jalb etadi

[2] Ayupova, M. (2020). Zamonaviy tasviriy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand. “Raqamli vositalar rang sezgirligining rivojlanishiga tezkor ta’sir ko‘rsatadi”.

va taqdim etishning eng samarali usullaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta’lim, san’at, dizayn, arxitektura, tibbiyot, injeneriya va ommaviy kommunikatsiya tizimlarida grafik dasturlar, vizual modellashtirish, 2D/3D animatsiya va multimedia texnologiyalari yordamida murakkab jarayonlarni tushunarli, aniq va ta’sirchan tarzda ifodalash imkoniyati vujudga kelgan.

Hozirgi kunda kompyuter grafikasi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, estetik idroki va vizual tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida pedagogik jarayonda keng qo‘llanilmoqda. Grafik dizayn dasturlari (Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDraw), 3D modellashtirish platformalari (Blender, 3ds Max, Maya) va raqamli chizish ilovalari o‘quvchilarga cheksiz tajriba qilish, rang va shakl bilan erkin ishlash, kompozitsiya yaratish jarayonini chuqur anglash imkonini beradi.

Shuningdek, kompyuter grafikasi vositalari bugungi kunda virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va interaktiv media texnologiyalari bilan birga qo‘llanilib, tasviriy san’atni o‘qitishda yangi pedagogik imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa o‘quvchilarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, fazoviy tasavvurlarini kuchaytirish va kreativ tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi[1].

Umuman olganda, kompyuter grafikasi vositalarining zamonaviy ta’lim va san’at amaliyotidagi ahamiyati ortib borayotgani ularni nafaqat texnologik vosita, balki estetik madaniyatni shakllantirishning muhim pedagogik omili sifatida qarash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Kompyuter grafikasi vositalarining estetik rivojlanishdagi o‘rni;Kompyuter grafikasi – vizual obrazlar yaratish texnologiyasi bo‘lib, o‘quvchilarni:

rang uyg‘unligini his qilish,

kompozitsiya asoslarini o‘zlashtirish,

shakl va proporsiya bilan ishlash,

badiiy tafakkurni rivojlantirishga undaydi.

Ayupova (2020) fikriga ko‘ra, raqamli grafik muhiti o‘quvchida rang sezgirligini an’anaviy usullarga nisbatan tezroq rivojlantiradi.

Raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalar;Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi texnologiyalar estetik tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi:

Grafik dizayn dasturlari (Photoshop, Illustrator, CorelDraw);— rang bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi; ijodiy vazifalarni yuqori darajada bajarishga yordam beradi.

3D modellashtirish va animatsiya (Blender, Maya);— fazoviy tafakkurni kuchaytiradi;realistik tasvirlar yaratish ko‘nikmasini shakllantiradi.AR/VR texnologiyalari,o‘quvchini virtual badiiy muhitga olib kiradi; estetik idrokni chuqurlashtiradi.UNESCO (2022) ta’kidlashicha, immersive texnologiyalar san’atni o‘qitishda sezgi tajribasini kengaytiradi.

Pedagogik yondashuvlar va metodlar

Interaktiv o‘qitish metodlari

“Raqamli tajriba”,

[1] Qizi, T. M. I. (2024). TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDAN (CHIZMATASVIR YOKI RANGTASVIR) NUSXA KO'CHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-2), 30-34.

“Vizual laboratoriya”,

“Dizayn loyihasi” kabi metodlar o‘quvchilarning estetik ehtiyoj va qiziqishlarini faollashtiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv;O‘quvchida quyidagi kompetensiyalar shakllanadi[1]:

badiiy-ijodiy kompetensiya,

vizuallashtirish kompetensiyasi,

dizayn tafakkuri,

raqamli madaniyat.

Muammoli-ta’lim;

Kompyuter grafikasi orqali o‘quvchi mustaqil tahlil, solishtirish, yaratish va baholash jarayonlarini bajaradi.

Kompyuter grafikasi orqali estetik tafakkurni rivojlantirishning afzalliklari

Tezkor vizual natija;Motivatsiyani oshiradi[2].

Individual yondashuv;Har bir o‘quvchi o‘z tezligida ishlaydi.

Tajriba qilish imkoniyati;Cheksiz variantlarda shakl, rang va kompozitsiya bilan ishlash imkoniyati mavjud.

Ijodiy muhit yaratadi;O‘quvchi san’atni zamonaviy ko‘rinishda idrok qiladi.

Xulosa;Kompyuter grafikasi vositalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning badiiy didi, kreativ tafakkuri va vizual idroki shakllanishiga yangi impuls beradi. Grafik dasturlar, AR/VR vositalari va interaktiv metodlar ta’limni individuallashtiradi, motivatsiyani oshiradi hamda san’atni zamonaviy idrok etish imkonini yaratadi.

Shu boisdan, kompyuter grafikasi asosida estetik tarbiya jarayonini tashkil etish tasviriy san’at pedagogikasida innovatsion yondashuv bo‘lib, zamonaviy o‘qituvchining metodik mahoratini boyitadi va ta’lim sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (iqtiboslar bilan):

Baratov, A. (2021). Raqamli pedagogika va vizual madaniyat. – Toshkent. *“Raqamli grafik muhit o‘quvchini faol vizual tajriba yaratishga jalb etadi”*.

Ayupova, M. (2020). Zamonaviy tasviriy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand. *“Raqamli vositalar rang sezgirligining rivojlanishiga tezkor ta’sir ko‘rsatadi”*.

UNESCO (2022). Digital Art Education Standards. *“Immersive texnologiyalar o‘quvchining estetik idrok doirasini kengaytiradi”*.

Mamatova, S. (2019). Kompyuter grafikasi asoslari. – Toshkent.

Karimov, I. (2018). Ta’lim jarayonida multimedia vositalari. – Buxoro.

Halimov, D. (2020). Grafik dizayn metodikasi. – Namangan.

Saidov, B. (2021). Raqamli dizaynning pedagogik jihatlari. – Toshkent.

Qizi, T. M. I. (2024). TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDAN (CHIZMATASVIR YOKI RANGTASVIR) NUSXA KO'CHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-2), 30-34.

[1] Halimov, D. (2020). Grafik dizayn metodikasi. – Namangan.

[2] Saidov, B. (2021). Raqamli dizaynning pedagogik jihatlari. – Toshkent.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI, MEDIA MAKON VA MA’NAVIY XAVFSIZLIK

Solijonova Zebo Miraxmad qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish: Yaqin yillardan beri axborot texnologiyalari va internet hayotimizga chuqur kirib kelgan. Axborot maydoni orqali yuzaga kelayotgan o’zgarishlar nafaqat iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda balki jamiyatning xulq-atvori, ma’naviy barqarorligiga ham katta ta’sir ko’rsatmoqda. To’g’ri axborot texnologiyalari yurtimizda ta’lim, fan va innovatsiyalar rivojlanishi va tezkorlik bilan tarqatishi bilan juda katta yordam hamda ta’lim yo’nalishiga ko’p imkoniyatlar yaratib bermoqda. Biroq texnologiyalar imkoniyatlari ortishi bilan birga ma’naviy xavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ochiq media makon orqali turli zararli g’oyalar, yolg’on (feyk) axborot ya’ni yangiliklar, radikal yoki buzg’unchi oqimlarning ta’siri, yoshlar ongiga salbiy kontetlar kirib kelmoqda. ”Global axborot maydonida yosh avlodning qalbi va ongini zabt etishga urunishlar kamaygani yo’q . Internet orqali begona g’oyalar, yot mafkuralar, milliy qadriyatlarga zid axloqiy tasavvurlar ong ostiga singdirilmoqda”[1].Chunki, bugungi kunda internetda har kim istagan ma’lumotni joylay oladi hamda tarqata oladi.

Yana bir eng katta xavflardan biri bu internet orqali global madaniyat ommalashib bormoqda ya’ni insonlar orasida milliy urf-odatlar va qadriyatlarning insonlar orasidan balki ongidan ham siqib chiqarilishi yoshlarning o’zlikni unutish xavfiga olib keladi. Milliy qadriyatlar o’rniga chet el madaniyatlari, o’ziga xos urf odatlari kirib keladi. Milliy ma’anaviyat o’rnini begona va buzuvchi g’oyalar egallaydi. Misol uchun, odob-axloq qoidalariga rioya qilmagan holda olingan video va kontetlar. Hozirgi kunda o’smir yoshidagi bolalar “Kvadroberlik” ya’ni hayvonlarga taqlid bilan shug’ullanib , uni targ’ib qilishmoqda.

Yoshlarning media makondagi ma’naviy immuniteti har doimgidan ham dolzarb masaladir. Chunki, yoshlar yurtimizning yangi kelajagi. Barchani tashvishga soladigan holat bu yoshlar uchun internet asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. Shu boisdan, ularni raqamli xavfdan muhofaza qilib, ularga yolg’on xabar bilan to’g’ri yozilgan ma’lumotni farqlashni o’rgatish lozim. Ijtimoiy tarmoqdagi salbiy fikrlarga ham qarshi tura olishni shakllantirish kerak. Muhim masalalardan yana biri milliy va diniy qadriyatlarni asrash zarurati. Internet orqali globalmadaniyat ommalashib bormoqda. Ammo bu vaziyat milliy urf-odatlarimizga qadriyatlarimiz o’rnini yo’qotib borishiga olib kelyapdi. Masalan, internetni katta qismini G’arb davlati tomonidan ishlab chiqilgan platformalar (Youtube, Instagram, Facebook, TikTok, Neftlix va hokazolar) egallagan. Bu platformalar orqali G’arb davlati madaniyati va urf –odatlari ommaga tarqatilmoqda , natijada kelajagimiz omonat bo’lgan yoshlar o’z udumlarini va o’zligini xotirasidan siqib chiqarmoqda. Shuning uchun milliy ma’naviyatni axborot texnologiyalardan himoya qilish muhim vazifadir. N.Xomskiy “Axborot vositalarining ommaviy nazorati, ma’naviy qiyinchiliklarga olib keladi. Axborot texnologiyalardagi feyk xabarlar tarqalishi ham balki, jamiyatni

manipulatsiya qilishi ham mumkin”.[2]Axborot xavfsizligi-bu axborotni himoya qilish, noqonuniy foydalanish va dezinformatsiyadan saqlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir.Axborot xavfsizligi masalalari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

Dezinformatsiya va yolg’on axborot tarqalishi.Yolg’on ma’lumotlar jamiyatda o’zaro ishonchni yo’qotadi va ma’naviy qadriyatlarni zaiflashtiradi.

Axloqiy buzilishlar. Zo’ravonlik, pornografiya kabi zararli kontentning keng tarqalishi yosh avlodning axloqiy o’sishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi global media makonning cheksiz kengayishiga axborot tizimining bazasi ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda oddiy aholidan tortib, bilimli insonlarda ham internet xuruji yuz beryapdi. Buni oldini olish uchun jamiyatni raqamli texnologiya savodxonligini oshirish, foydali bo’lgan ma’lumotlar va videolar ko’paytirish, ommaviy axborot tarmoqlarida ishonchli axborotlarni yaratish lozim. Axborot texnologiyalardan oqilona foydalanish esa jamiyatning ma’naviy barkamolligi, axborot xavfsizligi hamda taraqqiyotning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

M.Jo’rayev, “Ma’naviyatva g’oyaviy tahdidlar”, Toshkent, 2020, 45- bet.

Chomsky. N, 1997. “Media Control “, p.24

N.Musinov, “Jamiyat ma’naviy xavfsizligi: axborot xavfsizligi masalalari”,Toshkent, 2022.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI, MEDIA MAKON VA MA’NAVIY XAVFSIZLIK

Sotvoldiyeva Mushtariybonu
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, pedagogik texnologiyalarning yangilanishi, o‘quvchilar ehtiyojlariga mos interaktiv metodlardan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. 2022-yil 28-fevraldagi PQ–118-sonli qarorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, AKTni har birsohada, xususan, ta’limda keng qo‘llash masalasi alohida e’tirof etilgan. Bu esa O‘zbekistondata’limning sifatini zamonaviy texnologiyalar asosida oshirish uchun huquqiy va institutsionalzamin yaratdi[1]. Dastavval, sharq uyg’onish davrida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning “O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabat” haqidagi fikrlarini ko’rib chiqamiz. “O’qituvchi o’zini tutishda ham, bilim berishda ham ibrat bo’lishi shart” bu fikrlar bugungi kunda ham pedagogik ahloqning asosiy tamoyillaridan biridir. Beruniy fikricha, ta’limning asosiy vazifasi - o’quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan bir qatorda, uning ma’naviy va axloqiy kamolotini ta’minlashdir. U ta’kidlaganidek, ta’lim insonni zulmatdan nurlikka olib chiqadigan vosita. Shu sababli, Beruniy ilmni shaxsni rivojlantiruvchi, tafakkurni kengaytiruvchi va hayotiy

tajribaga asoslangan tarzda o’rgatish tarafdori bo’lgan. U faqatgina nazariy emas balki amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga ham yo’naltirilish zarurligini ta’kidlagan. Masalan:

matematika fanlari faqat sonlarni yodlash emas, balki ularni hayotda qo’llashni o’rgatishi kerak

geografiya va tarix fanlari insonni atrof-muhit va jamiyat bilan uyg’un hayot kechirishga tayyorlashi lozim

tibbiyot va tabiatshunoslik bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda yordam berishi kerak.

Shu bilan birga, Abu Rayhon Beruniy yoshlarni o’z bilimini baholashga, tanqidiy fikrlashga va mustaqil qarorlar qabul qilishga o’rgatish tarafdori bo’lgan. Mazkur yondashuv bugungi pedagogik tamoyillarga to’liq mos keladi. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq asar yaratgan. Uning ilmiy merosi va pedagogik qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo’lib,, zamonaviy ta’lim tizimida ham keng qo’llanilmoqda.(2)

Zamonaviy ta’limda raqamli resurslar, onlayn platformalar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlari o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish va ta’lim jarayonini moslashuvchan qilish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya — ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, elektron platformalar va AKT (axborot kommunikatsiya texnologiyalar) vositalaridan foydalanish orqali o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilishdir. Sharipovaning tadqiqotida ta’lim tizimining raqamlashtirilishi infratuzilma, AKT vositalari va o‘quvchi-faollikni oshirish imkoniyati bilan bog‘liq holda yoritilgan.(3) Pedagogik innovatsiyalar esa an’anaviy dars shakllariga nisbatan samaraliroq bo‘lgan yangi metodlar — interaktiv, modulli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvlar bilan bog‘liq.

Dela Fuente ta’lim jarayonida innovatsion metodlarning o‘quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. (4)

Shuningdek, Raqamli ta’lim infratuzilmasi va o‘quv muhiti haqida so’z borarkan, raqamli ta’lim infratuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

smart-sinfxonalar;

masofaviy ta’lim platformalari

(Moodle, Google Classroom va boshqalar);

elektron darsliklar va raqamli kutubxonalar;

onlayn lug‘atlar, simulatsiya va virtual laboratoriyalar.

European International Journal of Pedagogics ma’lumotlariga ko‘ra, AKT (axborot kommunikatsiya texnologiylar) integratsiyasi ta’limni moslashuvchan, ochiq va interaktiv qilishi tufayli o‘quvchilar faolligini sezilarli oshiradi. So‘nggi yillarda sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ular o‘quvchilar bilim darajasiga qarab moslashtirilgan topshiriqlar berish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning raqamli innovatsiyalarni qo‘llashga tayyorgarligi ta’lim sifati uchun asosiy omil ekanligi qayd etilgan. Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishida ham bir qancha yangiliklar bo’lmoqda**.** Bulardan**,** raqamli innovatsiyalar - robototexnika, kodlash asoslari, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.(5)

STEM yo‘nalishi:

S – Science (Fan)

T – Technology (Texnologiya)

E – Engineering (Muhandislik)

M – Mathematics (Matematika)

Demak, STEM - fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo‘nalishlarini birlashtirgan ta’lim yondashuvi degani. STEM modellaridan foydalanish erta yoshdan ilmiy-texnik tafakkurni shakllantiradi. (6) Demak, bugungi an’anaviy ta’lim tizimida ham keng qo’llanilayotgan mazkur tizim nimalarga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, meta-tahlilga ko‘ra, STEM ta’limi o‘quvchilarning o‘rganish natijalariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bir tahlil 66 ta tajribaviy va quasi-tajribaviy tadqiqotni ko‘rib chiqib, umumiy “iray natija” - STEM ta’lim usullari bilan o‘qigan o‘quvchilar akademik jihatdan ustun bo‘lishini ko‘rsatgan

Boshqa meta-tahlilda aniqlanganidek, agar STEMni “mastery learning”, “evidence-based” yoki aralash (blended) o‘qitish metodlari bilan birga foydalanilsa, o‘quv natijalari juda katta samaraga ega bo‘lyabdi.

Boshlang‘ich ta’limdan boshlab STEM yondashuvi va raqamli innovatsiyalar joriy etilganda, bolalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki **muammolarni hal etish, kreativ fikrlash, texnologik savodxonlik** kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki - STEM ta’limi orqali o‘quvchilarning ilmiy savodxonligi, tabiiy fanlar va matematikaga qiziqishi ortadi, bu esa texnik va ilmiy yo‘nalishlarga tayyorgarlikni oshiradi.

STEM orqali o‘quvchilar **zamonaviy dunyoga mos ko‘nikmalar** - tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish, kreativlik, hamda texnologik savodxonlik - egallaydi. Bu o‘z navbatida ularga shaxsiy rivojlanish va keyingi kasb-mahoratlarda afzallik beradi.

Ko‘p ilmiy tadqiqotlar va meta - tahlillar STEM ta’limining samaradorligini — nafaqat nazariy bilimda, balki amaliy jihatda ham - isbotlagani, uni an’anaviy ta’lim modellari bilan solishtirganda yanada samarali qilishini ko‘rsatadi.Yoshdan boshlab STEM va raqamli pedagogik texnologiyalar bilan tanishish - jamiyatda ilm-texnika, innovatsiya yo‘nalishlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni kashf qilish va mamlakatning kelajak raqobatbardoshligini oshirish uchun poydevor bo‘ladi.

Ta’limdagi innovatsiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o‘quvchilar ehtiyojlariga mos metodlarni qo‘llash imkonini yaratadi. Pedagogik texnologiyalarning samarali joriy etilishi o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, infratuzilmaning sifatli bo‘lishi va o‘qitish jarayonining ilmiy asoslangan tashkil etilishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

https://lex.uz/uz/docs/-6427809

Sharipova, Z. (2024). Digital Transformation of the Education System in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Pioneering Studies and Theories Journal.

Dela Fuente, J. (2023). Education and Pedagogical Innovations: Transforming Learning in the Digital Era. Modern World Science Journal.

Sodiqova, N. (2024). Integration of Digital Technologies in the Modern Educational Process. Lajoe.

Xudoyberdiyeva, N. (2024). Raqamli innovatsiyalar asosidagi boshlang‘ich ta’limda STEM. Ziyo Digital International Academy

Fayziyeva, D. (2023). Technology Reshapes Pedagogy Toward Student-Centered Approaches. International Journal of Applied Innovations.

Kholmuminova, D. (2022). The Application of Innovative Technologies in Pedagogy. Inlibrary.uz.

Arxiv (2025). Assessing Pedagogical Readiness for Digital Innovation: A Mixed-Methods Study.

TIL TA’LIMIDA ARALASH TA’LIM: O’ZBEKISTONNING PANDEMIYADAN KEYINGI KONTEKSTIDA IMKONIYATLAR VA QIYINCHILIKLARNI TAHLIL QILISH

Sulaymonova Hamidabonu Toshpo'lotovna
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi va an'anaviy ta'lim usullarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi [1]. O'zbekistonda ham internet tarmog'iga kirish cheklanganligi, raqamli qurilmalarning yetishmasligi va o'qituvchilarning texnologik tayyorgarlik darajasining pastligi asosiy muammolar bo'ldi [2].

Blended learning (aralash ta'lim) - an'anaviy yuzma-yuz va onlayn ta'lim elementlarini birlashtiruvchi pedagogik yondashuv - bu muammolarni hal qilishda dolzarb yechim sifatida paydo bo'ldi [3]. Garrison va Vaughan (2008) uni "yuzma-yuz va onlayn ta'lim tajribalarining o'ylangan birlashmasi" deb ta'riflaydi.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistonning turli ta'lim bosqichlarida ingliz tili o'qitishda blended learning samaradorligini empirik baholash va tizimli joriy etish tavsiyalarini ishlab chiqish.

2. Metodologiya. Ikki parallel tajriba 2023-yil sentyabr-dekabr oylarida 12 hafta davomida o'tkazildi. Flipped Classroom modeli qo'llanildi: talabalar darsdan oldin video leksiyalar va materiallarni uyda o'rgandilar, sinfda esa amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

TAJRIBA 1: O'rta maktab (Buxoro, 21-sonli maktab)

- Ishtirokchilar: 30 nafar 9-sinf o'quvchisi (14-15 yosh, A2-B1 daraja)
- Rahbarlik: 5 nafar mentor va ma'murlar
- Haftalik o'quv yuki: 4 soat
- Platformalar: Google Classroom, Quizlet, Kahoot, WhatsApp
- Xususiyatlar: Ko'pchilik smartfondan foydalandi, internet tezligi past

TAJRIBA 2: Oliy ta'lim (O'zbekiston Milliy universiteti)

- Ishtirokchilar: 17 nafar birinchi kurs talabasi (18-19 yosh, B1-B2 daraja)
- Rahbarlik: 2 nafar PhD professor
- Haftalik o'quv yuki: 6 soat

• Platformalar: Moodle, Google Classroom, Zoom, Padlet
• Xususiyatlar: Ko'pchilik noutbukka ega, yaxshi internet aloqasi
Baholash vositalari:
1. Til ko'nikmalari: Cambridge English Placement Test, IELTS Speaking criteria
2. Raqamli savodxonlik: Digital Literacy Assessment Tool (DLAT)
3. Mustaqil o'rganish: Self-Directed Learning Readiness Scale (SDLRS)
4. Motivatsiya va ishtirok: Qatnashish foizi, Student Engagement Questionnaire

3. NATIJALAR

3.1. O'rta maktab bosqichi (9-sinf): ~30% yaxshilanish
Til ko'nikmalari:
• Umumiy daraja: 45 balldan 58 ballga (+28.9%)
• Speaking: +25% (oddiy dialoglar osonlashdi, ammo pauzalar ko'p)
• Writing: +22% (grammatik xatolar kamaydi)
• Vocabulary: 180-200 yangi so'z o'zlashtirildi
• Listening: +32% (video leksiyalar tinglab tushunishni oshirdi)
Raqamli savodxonlik: 35 balldan 52 ballga (+48.6%)
Mustaqil o'rganish: 92 balldan 108 ballga (+17.4%)
Darsga qatnashish: 91%, topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish: 67%
O'quvchilar fikrlari:
• Ijobiy: "Video darslarni bir necha marta tomosha qilish yordam beradi" (73%), "Kahoot o'yinlari qiziqarli" (89%)
• Salbiy: "Uyda o'qishni unutaman, eslatma kerak" (54%), "Ba'zan internet ishlamaydi" (41%)

Mentorlar xulosasi: O'quvchilar o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hali rivojlanmagan, doimiy nazorat va qo'llab-quvvatlash talab qilinadi.

3.2. Oliy ta'lim bosqichi (Birinchi kurs): 62-70% yaxshilanish
Til ko'nikmalari:
• Umumiy daraja: 58 balldan 95 ballga (+63.8%)
• Speaking: +68% (murakkab mavzularda munozara, tabiiy nutq)
• Writing: +71% (akademik esse, to'g'ri strukturaviy tashkil)
• Vocabulary: 420-480 yangi so'z, akademik lug'at
• Listening: +69% (TED Talks, BBC podcastlarni tushunish)
Raqamli savodxonlik: 54 balldan 89 ballga (+64.8%)
Mustaqil o'rganish: 118 balldan 178 ballga (+50.8%)
Darsga qatnashish: 97%, topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish: 94%
Talabalar fikrlari:
• "Uyda video ko'rib, sinfda chuqur muhokama qilish juda samarali" (94%)
• "O'z vaqtimda o'rganish imkoniyati katta afzallik" (88%)
• "Bir -birimizni natijalarimiz orqali ko'p narsa o'rgandik" (82%)

PhD professorlar xulosasi: Talabalar yuqori motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega. Blended learning ya’ni aralash ta’lim akademik o'qishga juda mos. Critical thinking va soft skills sezilarli yaxshilandi.

3.3. Qiyosiy tahlil

Ko'rsatkich	9-sinf (Buxoro)	Universitet (Toshkent)
Ishtirokchilar	30 nafar	17 nafar
Umumiy yaxshilanish	~30%	62-70%
O’g'zaki nutq amaliyoti	+25%	+68%
Yozish ko’nikmasi	+22%	+71%
Lug’at boyligi	180-200 so'z	420-480 so'z
Raqamli savodxonlik	+48.6%	+64.8%
Mustaqil o'rganish	+17.4%	+50.8%
Topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish	67%	94%

Asosiy farqlar:

1. Amaliy qobiliyatlar: 9-sinf hali rivojlanmagan, universitet yuqori.

2. O'z-o'zini boshqarish: 9-sinf past (58% video ko'rmagan), universitet yuqori (94% barcha materiallarni o'rgangan).

3. Motivatsiya: 9-sinf tashqi, universitet ichki va tashqi kombinatsiya tommonlama qobiliyatli.

4. Kognitiv rivojlanish: 18-19 yoshda umumiy fikrlash to'liq rivojlangan.

4. Muhokama. Natijalar xalqaro adabiyotlar bilan uyg'un [14, 15, 16]. Piaget ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, 18-19 yoshda amaliy ko’nikmalar to'liq rivojlangan, shuning uchun umumiy fikrlash va bilishga oid tafakkur mavjud. Bu universiteda yuqori natijalarni tushuntiradi.

Dziuban va boshqalar (2018) blended learning muvaffaqiyati o'z-o’zini rivojlantirishga(avtonomiya) bog'liqligini ko'rsatdi [17]. Bizning tadqiqotda ham xuddi shunday: yuqori autonomiya (universitet) → 62-70%, past autonomiya (9-sinf) → 30%.

Means va boshqalar (2013) meta-analizida blended learning har doim ham ustun emasligini ta'kidladi [19]. Bu metoddan foydalanganda tashqi muhit muhim. Bizning xulosamiz: yosh, kirishuvchanlik, infrastruktura hal qiluvchi omillar.

5. AMALIY QIYINCHILIKLAR

Texnik qiyinchiliklar:

• O'rta maktab: 63% uyda Wi-Fi yo'q, 73% faqat smartfon, 68 marta video yuklanish muammosi

• Universitet: 82% shaxsiy noutbuk, yaxshi Wi-Fi, minimal muammo

Pedagogik qiyinchiliklar:

• O'rta maktab: 5 mentordan faqat 2 tasi blended learning ni bilgan, kontent yaratish 12-15 soat/hafta

• Universitet: 2 PhD professor tajribaga ega, 10-12 soat/hafta

Yosh xususiyatlari:

• O'rta maktab: O’zini-o’zi nazorat qilish past, ota-onalar nazorati kerak

• Universitet: Yuqori o’z-o’zini nazorat qila olish, mustaqil bo’lish

Madaniy qarshilik:

• O'rta maktab ota-onalari: 75% "kompyuterda ko'p o'tirish zararli", ammo 55% oxirida ijobiy baho

• Universitet: Talabalar mustaqil, ota-onalar aralashmaydi

6. XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot blended learning samaradorligi yosh va ta'lim bosqichiga sezilarli bog'liqligini isbotladi. Universitetda 62-70% yaxshilanish (rivojlangan amaliy qobiliyatlar , o’z-o’zini nazorat qilish kuchli), o'rta maktabda 30% (cheklangan, doimiy qo'llab-quvvatlash kerak).

O'rta maktab uchun tavsiyalar:

1. Bosqichma-bosqich joriy etish: 30% onlayn, 70% yuzma-yuz
2. Kuchli qo'llab-quvvatlash: Har 20-25 o'quvchiga 1 mentor, haftalik monitoring
3. Texnik yechimlar: Maktabda bepul Wi-Fi, oflayn materiallar (PDF), past hajmli video
4. Ta’limiy o’yinlar: Kahoot, Quizlet, badges, competitions

Umumiy tavsiyalar:

1. O'qituvchilar tayyorgarligi: 40 soatlik trening (texnik va pedagogik)
2. Pilot loyihalar: 20-30 talaba bilan 3-6 oy sinov
3. Madaniy moslashuv: Ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish
4. Moliyaviy rejalashtirish: Bosqichma-bosqich, bepul platformalar

Yakuniy xulosa: Blended learning samarali, ammo “one size fits all - besh barmoqni baravar og’izga tiqish “ strategiyasi yo'q. Har bir bosqichning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish va moslashtirilgan strategiyalar qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kumar, A., et al. (2021). Blended learning tools and practices: A comprehensive analysis. IEEE Access, 9, 85151-85197.

2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education. San Francisco: Jossey-Bass.

3. Staker, H., & Horn, M. B. (2012). Classifying K-12 blended learning. Mountain View, CA: Innosight Institute.

4. Graham, C. R., et al. (2013). A framework for institutional adoption of blended learning. The Internet and Higher Education, 18, 4-14.

5. Hashemi, A., & Si Na, K. (2020). The effects of using blended learning in teaching English. The Eurasia Proceedings, 18, 173-179.

6. López-Pérez, M. V., et al. (2011). Blended learning in higher education: Students' perceptions. Computers & Education, 56(3), 818-826.

7. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential. The Internet and Higher Education, 7, 95-105.

8. Rovai, A. P., & Jordan, H. M. (2004). Blended learning and sense of community. International Review of Research in Open and Distance Learning, 5(2), 1-13.

9. Zainuddin, Z., & Halili, S. H. (2016). Flipped classroom research and trends. International Review of Research, 17(3), 313-340.

10. Porter, W. W., & Graham, C. R. (2016). Institutional drivers and barriers to faculty adoption of blended learning. British Journal of Educational Technology, 47(4), 748-762.

11. Rasheed, R. A., et al. (2020). Challenges in the online component of blended learning. Computers & Education, 144, 103701.

12. Park, J. H., & Choi, H. J. (2009). Factors influencing adult learners' decision to drop out. Educational Technology & Society, 12(4), 207-217.

13. Hill, J., & Smith, K. (2023). Visions of blended learning in higher education. Technology, Pedagogy and Education, 32(3), 289-303.

14. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford: Oxford University Press.

15. Willis, J. (1996). A framework for task-based learning. Harlow: Longman.

16. Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

17. Dziuban, C. D., et al. (2018). Blended learning: the new normal. International Journal of Educational Technology, 15(1), 1-16.

18. Allen, I. E., & Seaman, J. (2013). Changing course: Ten years of tracking online education. Babson Survey Research Group.

19. Means, B., et al. (2013). The effectiveness of online and blended learning. Teachers College Record, 115(3), 1-47.

20. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2006). The handbook of blended learning. San Francisco: Pfeiffer.

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TALQINI

Suleymanov Baxoriddin Jumanazarovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi
Andijon akademik litseyi o‘qituvchisi

O‘quvchilarda o‘z qobiliyatlarini namoyish qilish, jamoadagi o‘rnini belgilash, boshqalarga ta’sir ko‘rsatishga intilish kuchayadi. Bu esa liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tabiiy motivatsiya yaratadi.

O‘z-o‘zini aktuallashtirish (faollashtirish) va uni amalga oshirish qobiliyati, faollikning o‘ziga xos xususiyatlari «oldindan belgilanmaganlik, miqdoriy va sifatli individual o‘ziga xoslik hamda maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanish imkoniyati» liderlik sifati rivojlanganligining yuqori darajasi sanaladi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida liderlik sifatlarini tarkib toptirish masalasi ayrim tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan ma’lum bir darajada tadqiq etilgan. Ayniqsa co‘nggi yillarda talaba va pedagoglarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Aksariyat ishlarda mualliflar liderlik sifatlarini shakllantirish bo‘yicha o‘zlari ishlab chiqqan trening dasturlarini taklif etganlar.

Liderlik haqida fikr yuritar ekanmiz, insoniyat Yer yuzida paydo bo‘lganidan boshlab unga ehtiyoj sezishini aytib o‘tish lozim. Guruhda kim va nima sababdan liderlik qilishi masalasi faqat mutaxassislarnigina qiziqtirib qolmay, balki jamiyat a’zosi bo‘lgan har qanday inson uchun tegishlidir. Sharq kishilik dunyosida bu masalaga uzoq o‘tmishda ham qiziqish katta bo‘lgan. Jumladan,buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy o‘zining

“Fozil odamlar shahri” asarida liderga xos bo‘lgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni ta’kidlaydi:

birinchidan, to‘rt muchasi sog‘lom bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a’zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur;

uchinchidan, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur;

to‘rtinchidan, zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlari va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur;

beshinchidan, u fikrini aniq tushuntirish maqsadida uni chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur;

oltinchidan, u (ustozlardan) ta’lim olishga, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish-o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, mashaqqatlardan qochmaydigan bo‘lishi zarur;

yettinchidan, yeb-ichishda ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini tiya olishi, (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur;

sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘on va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur;

to‘qqizinchidan, u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug‘ma oliyhimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur;

o‘ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur;

o‘n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur;

o‘n ikkinchidan, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Ko‘rinadiki, Farobiy qarashlarida liderlikka talabgor shaxsda mavjud bo‘lishi lozim deb topilgan sifatlarda jamiyat va davr omilining ta’siri seziladi.

Liderlik hodisasi barqaror emas, liderni tanlash, ko‘pincha, guruhdagi kayfiyatga bog‘liq, rahbarlik esa, nisbatan barqaror hodisa. Qo‘l ostidagilarga rahbarlik, liderlikdan farqli ravishda turli cheklashlarning nisbatan aniq tizimiga ega, liderda esa bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaydi.

“Yosh rahbarlarning innovasion faoliyatiga ta’sir qiluvchiomillar qatorida o‘ziga bo‘lgan ishonch, moddiy manfaatdorlik, shaxsiy dunyoqarash va xarakter, xorijiy til

hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va boshqalarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Avvalo, yangilikka qo‘l uradigan rahbarlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchning yuqori bo‘lishi unda yetarli darajada liderlik xususiyatlari mavjudligidan dalolat beradi yoki aksincha”.

Rahbarlik tizimida qaror qabul qilish jarayoni murakkabroq, u faqatgina mazkur guruhda mavjud bo‘lgan ko‘pgina turli sharoit va mulohazalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Liderlik faoliyatida esa, ko‘proq guruhli faoliyatga taalluqli bo‘lgan qarorlar qabul qilinadi.

Liderlikni rivojlantirishda faoliyat sohasi sifatida kichik guruhlar qulay bo‘lsa, rahbarlikni shakillantitish uchun kichik guruhdan tarkib topgan kengroq ijtimoiy tizim zarur bo‘ladi.

Pedagog kasbi boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishga asoslangan bo‘lib, uni nafaqat rasmiy rahbar, balki tashabbuskor liderga aylantirish imkonini ham beradi. Shu tariqa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasida liderlik vaziyatiga ega bo‘lishi zaruriyat ekani yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Шамрина Е.А. Развитие творческого потенциала будущих учителей образовательной области “искусство”: В системе педагогичес-кого образования: Автореф. дис. ...канд.пед.наук. Москва, 2006. - 19 с.

Шек Г. Г. Средовой подход как педагогическая инновация и условия его освоения: дис.... канд. пед. наук. - Елец, 2001. - 148 с.

Шумилова Н.С. Научно-исследовательская деятельность как средство развития творческого потенциала будущих учителей технологии и предпринимательства: Дисс. ...канд.пед.наук. Армавир, 2006. -213 с.

Яковенко И.М. Педагогическое сопровождение развития творческого потенциала будущего педагога в условиях вуза: Дисс. ...канд.пед.наук. Петропавловск-Камчатский, 2006. - 251 с.

Яковлева Е.Л. Психология развития творческого потенциала школьников: дисс. ... докт.психол.наук. М., 1997. -368 с.

МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ДАВЛАТНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ

Султонов Фозил Хожиевич
Турон ФА академиги

Маълумки, бугунги кун мафкуравий курашлар авж олган давр ҳисобланади. Турли-туман ғоявий кучлар ўз таъсир доирасини кенгайтириш учун тинимсиз иш олиб боришмоқда. Бу жараён мамлакатимиз ҳаётига ҳам дахлдордир. Зеро, ҳар-хил ғоя ва мафкуралар бизнинг юртимизга ҳам кириб келмоқда. Минг афсусуки, улар орасида бизга бегона бўлган, зарарли ғоя ва мафкуралар ҳам бор. Уларга қарши туриш учун аввало, ёшларимизда мафкуравий иммунитетни кучайтириш талаб

этилади. Эътиборингизни, 2020 йилнинг 30 октябрь куни Президент Шавкат Мирзиёев раислигида мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича видеоселектор йиғилишида бўлиб ўтган давлат раҳбарининг қуйидаги сўзларига қаратмоқчимиз: "Биз бугун мактабларимизда фарзандларимизга таълим ва тарбия бериш билан бир қаторда уларга маърифат ва маънавиятни ҳам чуқур ўргатмоғимиз зарур. Бу борада жойларда яшаб ижод қилаётган ҳурматли шоир ва ёзувчиларимизни кенг жалб қилишимиз, уларнинг ижод ва истеъдодларидан унумли фойдаланишимиз лозим" [1].

Шу ўринда, диний ва маънавий эътиқодларимизга ҳамоҳанг Малайзия давлатининг қисқа вақт ичида эришган натижалари диққатга сазовордир. Кўплаб экспертлар фикрича, Малайзия Жануби-Шарқий Осиё минтақасида ҳар томонлама ривожи ҳамда эришган натижалари билан иқтисодиётида мўъжиза ярата олган давлатдир. У сўнгги 25 йил ичида аграр мамлакатдан саноатлашган, иқтисодиёти энг рақобатбардош индустриал давлатлардан бирига айланди. У бунга қандай эришди?

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, аксарият Осиё етакчилари Ғарб қадриятлари ва унинг агрессив сиёсатини ўз қалбида қабул қилмасада, унинг ошкор қилишга ботина олмас эди. Малайзия бош вазири Дато Сери Маҳатхир бин Муҳаммад эса бундан истисно эди. У давлат арбоблари ичида биринчи бўлиб энг олий даражадаги мансабдор бўлишига қарамасдан Ғарб ва Шарқ қадриятлари иерархиясининг ўзаро қарам-қарши эканлигини очиқдан-очиқ айта олди. Махатхир Шарқ фарзанди, жамоатчилик асосига қурилган жамиятдаги давлат сиёсатчиси сифатида жамоавий ва жамоатчилик манфаатларининг айрим олинган шахсдан устуворлигига, бу Ғарбдаги индивидуализмга тескари эканлигига алоҳида урғу берди. Албатта, бу мазкур қадриятлар тизимидаги мавҳум қарама-қаршиликлар эмас эди. Махатхир «либерал демократик Ғарб»нинг ўз фуқароларига яратган турмуш тарзи ва маънавий муҳитидан хафсаласи пир бўлган эди. У Ғарбдаги маънавий таназзул, наркотикларга берилиш, сексуал ўзбошимчалик, бир жинсли оилалар ва яна берилиб меҳнат қилишни хушламаслик каби ижтимоий ва биологик иллатларни танқид қилди. Шунинг учун ҳам Махатхир Ғарбдан фақат технологик ютуқларни олиб, уларни малаяликлар менталитетига уйғунлаштиришга ҳаракат қилди. Махатхир шарқ жамиятини меҳнат этикасига бой эканлиги учун қадрлади, бу ҳақда у очиқчасига қуйидаги фикрларни билдирди: «Биз узоқ вақтлар ўз нигоҳимизни Ғарбга қаратдик, аммо унинг моделини бизга тўғри келмаслигини англаб етдик». Шунингдек, у ислом дини маърифати тарихини, айниқса юртимизнинг буюк алломаларини фахр билан эслашни хуш кўрар эди: «Илк мусулмонлар орасидан буюк математик ва тадқиқотчилар, олимлар, врачлар, астрономлар ва бошқа алломалар етишиб чиқди. Улар ўз дини бўлмиш исломни ўрганиш ва ҳаётга жорий этиш билан бирга замонасидаги барча фан соҳаларида ҳам муваффақият қозонишди. Натижада мусулмонлар ўз ерларининг бойликларидан фойдаланишга, ташқи савдодан фойда олишга, мудофаа қобилиятини мустаҳкамлашга, ўз халқларини ҳимоя қилишга муваффақ бўлди ва исломга мувофиқ ҳаёт кечириш имкониятини яратди. Ўрта асрлар Европаси хурофот ва қолоқлик ботқоғида ётган бир пайтда маърифатли мусулмонлар ҳурматга лойиқ ва қудратли, дунёнинг қолган қисми

билан рақобатлашишга ва ўз умматини ташқи агрессиялардан ҳимоя қилишга қодир буюк ислом цивилизациясини барпо этиб бўлган эди. Европаликлар ўз илмий меросига эга бўлиш учун мусулмон олимларга қуллуқ қилиб, шогирд тушишга мажбур бўлган» [2].

Шарқ тамаддунидан илхомланган Махатмир мамлакатга сиёсий раҳбарлик қилишдан ташқари, ўз елкасига малаяликлар жамоасини қайта тарбиялашдек машаққатли ва оғир вазифаларни олиб, малаяликларга нисбатан қаттиқўллика асосланган талабларни қўйди: малаялар жамоасини жонлантириш мақсадида уларни қайтадан тарбиялаш, уларни патриархал муносабатлар, феодал тизим қадриятлари, хулқий стереотиплардан фориғ қилиш, шавқатсиз ва ўткир рақобатли ҳозирги даврда яшаш муҳитига олиб келиш мақсадини қўйди. Махатхир нафақат мамлакат раҳбари ва олий маъмури бўлиш, балки халқни ва мамлакатни яхшилашни ўзининг асосий мақсади, деб билган инсон эди. У ўз халқини яхши яшаш учун туғма миллий белгилар – фатализм, фаолсизлик, мулк, вақт ва пулнинг баҳосини билмаслик кабилардан халос бўлишга ундади: «Шунга эришамиз – ёки миллий айнишни давом эттирамиз». Албатта, бу каби шавқатсиз талабларни ўз халқи юзига айтиш осон эмас эди, малаяликлар нафақат маънавий касал, балки ўз ерларида яшашни билмас эди [3].

Махатхир Муҳаммад олий ўқув юртларини битирувчиларини йирик шаҳарлардан узоқда ишлашларини хоҳламасликлари, малая ишчиларининг легал ва нолегал, кам малакали ишларга интилишлари, малаялик талабаларни аниқ фанлар ўқитиладиган ўқув юртларига киришни хоҳламасликларидан норози эди. У давлат аппаратидаги мансабдорларнинг фаолсизлиги, интизомсизлиги, коррупцияга берилиши ва улардаги сансалорликка қарши уруш бошлади. Меҳнат қилишга қалбдан берилган, тиришқоқ Бош вазир ватандошларини (айниқса малаяларни) тизимли ва ватан фаровонлиги учун фидокарона меҳнат қилишга ундай бошлади. Шу тариқа унинг Лоок Эаст Полисй («Шарққа тенглашиш сиёсати») концепцияси шаклланди. Махатхир малайзияликларни Япония, Жанубий Корея, Тайван каби давлатларга тенглашига даъват этди. Бу мамлакатларда бизнесни ташкил этиш, менежмент усуллари ва меҳнат этикаси ривожланган эди. Махатхирни бу мамлакатлардаги меҳнатга берилишни шакллантирувчи, ишчи ва ходимларни ўз компаниясига шахсан берилиши, ишлаб чиқаришни оқилона ташкил этишни қуйидан бошланиши, ҳоусе унионс тизими (бир корхонага бир касаба уюшмаси қоидаси) каби қадриятларни шакллантиришга сабабчи бўлган- умрбод муддатга ёлланиш тизими тажрибаси ўзига тортган эди [4].

Махатхир Муҳаммад Бош вазирлик даврида малаянинг миллийлигини рад этмаган ҳолда уни малайзия миллийлигига айлантириб, мафкуравий ўзгариш қилишга ҳаракат қилди. У малаяликларни давлат ташкил этишга қобил миллат даражасига кўтариш учун мамлакатда ислом динини ўрнини юқорига кўтара бошлади. Ислом дини малаяликлар учун ўзига хослиги ва миллий маданиятини намоён қила олиши учун ҳимоя қобиғи вазифасини бажарди, уларнинг мусулмон иқтисодий институтлари, жумладан Ислом банкига ўрнашиб олишлари учун шароитлар яратишга ҳаракат қилди. Лекин, бунда Махатхир чегарадан чиқиб кетмаслик учун ўрта йўлни топишга уринди. Махатхир фақат ислом динидаги экстримистларга қарши курашишдан ташқари халқни догматизм ва қолоқликда ушлаб туришга мойил бўлган

ислом реакционерларига ҳам қарши кураш олиб борди. Унинг фикрича, ислом дини нафақат еттинчи аср, балки йигирманчи аср учун ҳам дин бўлиши, ислом дини қўйган муқаддас вазифа – билим олишга интилишга амал қилиш, унинг натижаси ўлароқ мамлакатни қолоқликдан олиб чиқишни тарғиб қилди .

Махатхирнинг фикрича, унинг ватандошлари эгаллай олмайдиган марралар бўлиши мумкин эмас эди: «Малайзиялар ҳам европаликлар каби одамлардир, агар таъбир оиз бўлса, улардан ҳам яхшироқ одамлардир». Унинг «Малайзияни қўлидан келади!» шиори нафақат малазияликларни, балки барча Осиё халқларини руҳантирди. Осиёдаги қолоқ мамлакатлар вакиллари малайзияликлар ютуқларини кўриб, қуйидаги фикрни изҳор этгани бежиз эмас: «Улар янги асрга зафар қучиб кирди. Демак, бу каби ғалаба қилиш мумкин экан. Энди улардан кейин биз ҳам ғалабага эришишимиз лозим – барча муаммо ҳам шунда».

Махатхирнинг малайзия халқига қуйидаги панд-насиҳатларни мерос сифатида қолдирган эди:

«Самимий ва ҳалол бўлиш керак, дин, миллат ва мамлакат фаровонлиги учун меҳнат қилиш керак».

«Мамлакатдаги барча мактаблар компьютерлар билан жиҳозланиши ва Интернетга уланиши лозим. Компьютерсиз бола – бу келажаги йўқ бола. Бу дегани ҳар бир оила албатта битта компьютерга эга бўлиши лозим».

Хулоса қилиб айтганда, Шарқ тамаддунига асосланган Малайзиянинг миллий ва диний қадриятларига таянган тажрибасини ўрганиш, унинг Ўзбекистонга хамоҳанг хос ва мос жиҳатларини турли соҳаларга татбиқ этиш истиқболда самарали натижаларни бериши муқаррар. Шунинг учун Ўзбекистон ушбу мамлакат билан ўзаро ҳамкорликка жиддий киришган. Айниқса, сўнгги йилларда давлатларимиз ўртасида иқтисодий дипломатиянинг янада фаоллашуви натижасида ўзаро ҳамкорликдаги корхоналар сони каррасига ортди. Ўтган 5-6 йил ичида ахборот технологиялари, электротехника саноати, маиший электроника, мебель ва тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш соҳаларида қўшма корхоналар ташкил этишни ўз ичига олган йирик савдо ва сармоявий шартномалар имзоланди.

Демак, зиёли олимларимиз олдида, "Биринчи ва Иккинчи ренессанслар"га тамал тошини қўйган буюк алломаларимизнинг минг йиллик тарихимиз зарварақларига битилган илмий, диний ва ижтимоий фанлардаги таълимотларини чуқур ўзлаштириб, ҳозирги замон талабига мослаштириб, **Учинчи ренессанс** асосига мустаҳкам пойдевор бўладиган **“Миллий таълимотимиз”**ни яратишдек долзарб вазифа турибди. Фикримизча **“Миллий таълимотимиз”**ни яратишда замонимизнинг ижтимоий-сиёсий, фалсафий, тарихий, маънавий-маърифий соҳасида танилган энг зукко, зиёли олимларидан иборат ишчи гуруҳини ташкил этиш, фаолиятини жадаллаштириш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Яратилажак миллий таълимот келажак авлод учун янги зафарларни, маънавий юксалиш чўққиларини забт этишда муҳим омил бўлиб хизмат қилишига шак-шубҳа йўқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш

масалалари муҳокамаси бўйича видеоселектор. Тошкент, 2020, 30 октябр. https://daryo.uz/uz/2020/10/30/shavkat-mirziyoyev-raisligida-talim-sohasidagi-muammolar-ularni-hal-etish-va-talim-sifatini-oshirishga-bagishlangan-videoselektor-otkazildi/.

2. Золотухин И.Н. Малайзия в зеркале этноконфессиональной ситуации: история и современность. 2010, https://cyberleninka.ru/article/n/malayziya-v-zerkale-etnokonfessionalnoy-situatsii-istoriya-i-sovremennost/viewer.

3. Погадаев, В.Малайзия. феномен личности Махатхира // Copenhagen: Denmark (ELIB.DK). https://elib.dk/m/articles/view/

4. Г.Т.Тюнь. Идея глобализации Махатхира Мухаммада и мусульманская банковская сеть в Малайзии. Учёные записки Петразаводского государственного университета. Исторические науки и археология, 2016 г., № 3 (156), с.43-50.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA‘NAVIYATINING O’RNI

Sultonov Fuzayl Dilshod o‘g‘li
University of Management and Future Technologies talabasi

Globallashuv mavzusiga kirishishdan oldin shu so‘zning mantig‘i haqida gapirmoqchiman. Globallashuv – (lotincha globus-shar, yer sayyorasi) XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, davlatlar va insonlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi va diniy-ekstremistik xavflarning ortishini ifoda etuvchi tushuncha. “Globallashuv” atamasi dastlab amerkalik olim T.Levitning 1983-yili chop etilgan maqolasida tilga olingan (u yirik korporatsiyalar ishlab chiqaraadigan mahsulot bozorlarning birlashuv jarayonini globalllashuv deb atagan)[1].

Globallashuv avvalo insonlar tafakkuri, ma‘naviyati, dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta‘sirdir (ko‘p hollarda salbiy ta‘sir qiladi). Insonlarni, davlat va madaniyatlarni bir-biridan ajraib turuvchi ijtimoiy ong, maqsadlar, qadriyatlar, hayotiy tushunchalar, oila tushunchasi va fikrlash tarzi globallashuv natijasida o‘zaro birlashib, yo‘qolib ketish darajasiga kelib qoladi. Endilikda sayyoramizda chekka mamlakatlar yoki yashirin svilizatsiyalar mavjud emas. Hududlar va masofalar o‘z mohiyatini yo‘qotadigan chegarasiz dunyo tushunchasi endi real hayotda sodir bo‘lmoqda.

XXI asr boshlarida dunyo hamjamiyati globallashuv jarayonlari ta’sirida bir-biriga yaqinlashmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston yoshlari ongida ham yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiy va texnologik jihatdan global integratsiya rivojlanishi ijobiy omil sifatida milliy taraqqiyotga ko‘maklashsa, axborot almashinuvi kuchayishi bilan “mahalliy madaniyat”ga ham salbiy ta’sir etayotgan yangicha tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Masalan, telefon va internet orqali dunyo madaniyati va axborot maydoniga kirib keluvchi ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlar ongiga yangi ijtimoiy-hissiy munosabatlar olib kelmoqda. Axborot texnologiyalarining yuksalishi va

milliy chegaralarning ahamiyatini yo‘qotishi oqibatida, yoshlar turli xorijiy g‘oyalar – individualizm, egosentrizm kabi qadriyatlar bilan zaharlanish xavfi ostidadir. Tadqiqotchilar ta’kidicha, bugungi yoshlarning mustaqil fikrlash va sog‘lom dunyoqarashga ega emasligi turli ma’naviy tahdidlarga qarshi chidamliligini susaytirmoqda. Shu bois ham axborot maydonida milliy manfaatlarni himoya qilish, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlaridan yoshlarni himoyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuv jarayonining ijtimoiy-axloqiy ta’siri ikki tomonlama: bir tomondan, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni jahon bilimlari va ijodiga ochib, madaniy hamkorlikni kuchaytiradi; ikkinchi tomondan, u yoshlarni noqonuniy yoki befoyda axborot bilan oshib ketishidan himoya qilish zaruratini tug‘diradi. Mahalliy mutaxassislar e’tiroficha, globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari aynan internet, mass-media va madaniyatlararo aloqalar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, iqtisodiy integratsiya O‘zbekistonga yangi rivojlanish imkoniyatlari olib kirsa-da, axborot kengayishi milliy madaniyatga kirib kelayotgan ma’naviy tahdidlarni kuchaytirmoqda. Respublika ekspertlari hozirgi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash yoshlarni turli zararli g‘oyalardan himoya qilish uchun muhim ekanini ta’kidlaydilar. Umuman olganda, globallashuv yoshlarning ma’naviyati va dunyoqarashini formallashda jahon tendensiyalari bilan uyg‘unlashayotgan bo‘lsa, u bilan birga mahalliy qadriyatlarimizni saqlash vazifasini ham o‘z oldimizga qo‘yish lozim[2].

Global jarayonlar yoshlar ongida qaysi qadriyatlarni ustun qo‘yish borasida tanlovni murakkablashtirmoqda. Madaniy identitet – shaxsning milliy madaniy muhitiga bog‘liqligi – globallashuv davrida maxsus ahamiyatga ega. Ma’naviyat o‘z navbatida millatning, milliy madaniyat va urf-odatlarning himoyachisi hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarimizni o‘zbek an’analari va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatida tarbiyalash muhimdir. Masalan, tadqiqotlarda qayd etilishicha, shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirilishi millatning g‘oyaviy barqarorligini, ma’naviy yuksalishini va fuqarolik ongining rivojlanishini ta’minlaydi. Ya’ni, yoshlar milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lib, mustaqil fikrlashga egasi bo‘lsa, jamiyat ham chet madaniyat ta’siridan kamroq aziyat chekadi[3].


Global informatsion maydonda yoshlar ongida an’anaviy qadriyatlar zamonaviy ifodasini topmasa, axborot oqimi ulug‘ avlodning ma’naviy merosini bosib olishi mumkinligi ham qayd etilgan. O‘zbekiston sharoitida ham bu borada ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish zarurati ko‘tarilmoqda. Hukumat 2024-yilgi hisobotda yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb belgiladi. Ya’ni, yoshlarning mafkuraviy sohada immuniteti, milliy g‘oya va qadriyatlar asosida tarbiyalanishi muhim vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, ma’naviy merosimiz namunalarini yoshlar ongiga singdirish, kitobxonlik va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish orqali ham identitet muammosini hal etish mumkin. Ma’naviy merosimizga hurmatni oshirish (milliy she’rlar, qo‘shiqlar, tarixiy voqealar) orqali yoshlarimizning o‘z ildizlariga sodiqligini ta’minlash mumkin[4].

Yuqoridagi muammolar fonida, O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatini mustahkamlash choralari ham ko‘plab muhokama qilinmoqda. Tadqiqot va amaliy tajribalar shuni

ko‘rsatadiki, yoshlarning ma’naviy immuniteti asosan ta’lim-tarbiya tizimi va atrof-muhit ta’sirida shakllanadi. Quyidagi asosiy yo‘nalishlar muhim deb topilgan:

Axloqiy-ma’naviy tarbiya. Makotab va oliy ta’lim muassasalarida axloqiy va gumanitar fanlar orqali yoshlarning ma’naviy yetukligi, qadriyatlarga sadoqati va mustaqil fikrlash qobiliyati oshirilishi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan shu sifatlar yoshlarni turli mafkuraviy va axborot tahdidlardan himoya qilishda asosiy omil hisoblanadi.



1-rasm. *Yoshlarni turli mafkuraviy va axborot tahdidlardan himoya qilishda asosiy omillari*

Madaniy meros bilan tanishtirish. Yoshlarni doimiy ravishda xalqimizning an’anaviy adabiyot, san’at va tarix namunalari bilan tanishtirish orqali ularning milliy g‘ururi va identiteti mustahkamlanadi. Masalan, ma’naviy meros namunalarini o‘qish, teatr va konsertlar, mahalliy hunarmandchilik yo‘nalishlari yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi.

Ta’lim-tarbiyada yangilanish. Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, o‘quv dasturlarini yoshlar manfaatlariga moslashtirish va zamonaviy innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish orqali yoshlarning ta’lim olishiga motivatsiya oshiriladi. Ta’lim-tarbiya tizimi insonning nafaqat bilim darajasini, balki axloqiy-ma’naviy mas’uliyatini ham shakllantiradi, demak, immunitetni yuksaltirishda ustuvor o‘ringa ega.

Jamiyat va media roli. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida sog‘lom ma’naviyatni targ‘ib qilish, yoshlarga mo‘ljallangan ijobiy ma’lumotlar oqimini ta’minlash ham zarur. Masalan, yoshlar orasida demokratik g‘oyalarga asoslangan va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega kontent yaratish ularning ongi va dunyoqarashini boyitadi. Bugungi yirik loyihalar – “Ma’rifat ulashib”, adabiy-ijodiy uchrashuvlar, kitobxonlik tanlovlari – buni amalga oshirish uchun yaxshi misol bo‘la oladi.

Yuqoridagi sa’y-harakatlar ta’sirida, yoshlarimizning ma’naviy immuniteti, ya’ni milliy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan immun tizimi sezilarli darajada mustahkamlanadi. Ta’kidlash kerakki, bosqichma-bosqich olib borilayotgan yangilanishlar hamma jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishga qaratilgan bo‘lsa, O‘zbekiston yoshlari ana shunday zamonaviy tahdidlarga tayyor turishga qodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Leavitt, T. (1983) The Globalization of Markets. Harvard Business Reviews, 61, 92-102.

V.S.Alekseva, Sh.Dumakhonova “Social and cultural identity of uzbek youth in the conditions of globalization” 19.07.2025 p-s 315-322.

Djangabayev.M.(2025). Globallashuv jarayonida yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati. B. 28–30. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/132880

Sh. Qurbonov. “Yoshlar ongida axborot tahdidlariga qarshi imunitet shakllantirish” mavzusidagi nutqi. www.yuz.uz axborot manbaasi.

BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI

Tashanov Abduxoliq
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Buzg‘unchi g‘oyalar ijtimoiy, madaniy, siyosiy va axloqiy tizimlarga katta zarar yetkazadi. Bu o‘z navbatida jamiyatning tarkibiy qismlari muvozanatiga, uning barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Taraqqiyotning hozirgi davrida turli xil eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs munozara doirasidan chiqib to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”[1.38-39]. Buzg‘unchi g‘oya va buzg‘unchi faoliyatning ijtimoiy-madaniy muammolari jamiyatda ijtimoiy birlikning buzilishi, kuchli madaniy inqiroz, madaniy globalizatsiya va madaniy parchalanish, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va o‘shu kabi bir qancha muammolarni qamrab oladi.

Ma’lumki, buzg‘unchi g‘oyalar va uning natijasidagi faoliyat ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtirib, madaniy merosga tahdid soladi va umumiy qadriyatlarni yo‘q qiladi. Bu o‘rinda muhim muammolardan biri itimoiy birlikning buzilishi bo‘lib, buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatda qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va birdamlikni yo‘q qiladi, pirovardida vujudga kelgan adovat, ig‘vo va jamiyatning parchalanishiga olib keladi. “Inson onggi va qalbi uchun kurash yangi sifatiy xususiyat kasb etgan bir davrda, e’tiqod umumiyligiga asoslanish, etnik birlikka urg‘u berish hamda yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlikni ro‘kach qilish asosda yakka mafkuralar hukmronligini ta’minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar kuzatilmoqda”[2.38-39].

Ijtimoiy birlikning buzilishi jamiyatning asosiy tuzilmalari, insoniy munosabatlar va ijtimoiy me’yorlar o‘rtasidagi uyg‘unlikning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan muammodir. Ijtimoiy birlikning buzilishiga sabab bo‘luvchi asosiy muammolarning falsafiy tahlili uning shaxs, jamiyat bilan bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishni talqozo qiladi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy birlikning buzilishida inson tabiati va shaxsning mustaqilligi bilan bog‘liq muammolar muhim o‘rin tutadi. Falsafiy nuqtai nazardan, insonlar tabiatan individualist bo‘lib, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan yuqori qo‘yadilar. Bu individualizm jamiyatning yakdillikka erishishiga to‘sqinlik qiladi.

Ijtimoiy birlikning buzilishi falsafiy muammolardan kelib chiqib, inson tabiati, axloq, mafkura, iqtisodiy tengsizlik va madaniy tanazzul bilan bog‘liq. Insoniy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar, iqtisodiy adolat, siyosiy barqarorlik va madaniy birlikni zaiflashtirish orqali ijtimoiy birlikka putur yetadi. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatdagi hamjihatlik, ma’naviy qadriyatlar va umumiy maqsadlar muhim ahamiyatga ega.

Buzg‘unchi g‘oyalar va buzg‘unchi faoliyatning siyosiy oqibatlari ham jiddiy muammolarga olib keladi. Ular davlat tuzilmalari, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Bu muammolar sirasiga siyosiy inqiroz, terrorizm va ekstremizm, siyosiy instrumentalizatsiya, siyosiy inqiloblar va shu kabi buzg‘unchi harakatlarni kiritirish mumkin.

Davlat va jamiyat hayotidagi radikal mafkuralar va buzg‘unchi faoliyatlar siyosiy barqarorlikni buzadi, davlatni parchalanish yoki diktatura o‘rnatishga majbur qiladi. Bunday harakatlar ortidan siyosiy inqiloblar, fuqarolik urushlari yoki hokimiyat vakuumlari kelib chiqishi mumkin. Buzg‘unchi g‘oyalar terroristik harakatlarga asos bo‘ladi, ekstremistik guruhlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Terrorizm jamiyatning tinch va osuda hayotiga, davlat xavfsizligiga katta tahdid soladi. Ba’zan buzg‘unchi g‘oyalar va harakatlar siyosiy kurashlarda instrument sifatida qo‘llanilishi mumkin. Hokimiyatga erishish uchun radikal g‘oyalardan foydalanish yoki muxolifatni zaiflashtirish maqsadida ijtimoiy va siyosiy tizimlar buzilishi ehtimoli mavjud[3.299].

Buzg‘unchi g‘oyalar siyosiy muhitni o‘zgartirish, hokimiyatga ta’sir o‘tkazish yoki uni ag‘darish maqsadida qo‘llaniladi. Bu jarayonlar jamiyatni parchalashi, ziddiyatlar keltirib chiqarishi va siyosiy inqirozlarga sabab bo‘lishi mumkin. Falsafada hokimiyat va mafkura tushunchalari markaziy o‘rinlardan birida turadi. Buzg‘unchi g‘oyalar aksariyat hollarda mavjud hokimiyatni tanqid qiladi yoki uning o‘rnini egallashga urinadi. Siyosiy tuzilmalarga qarshi harakatlar o‘z maqsadlariga erishish uchun radikal mafkuralardan foydalanadi. Siyosiy tuzilmalar ko‘pincha hokimiyatdagi gegemon mafkurani himoya qiladi. Buzg‘unchi g‘oyalar esa bu mafkurani inkor etib, muqobil siyosiy nazariya va tamoyillarni taklif qiladi. Bu kurash hokimiyatning qayta taqsimlanishiga yoki uning inqiroziga olib kelishi mumkin[4.114].

Siyosiy inqiloblar aksariyat hollarda radikal g‘oyalarga asoslanadi. Buzg‘unchi harakatlar inqilob orqali mavjud hokimiyatni ag‘darishga harakat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan inqiloblar bir tomondan ijtimoiy o‘zgarishlarning zarur qismi sifatida qaralsa, boshqa tomondan ular jamiyatda zo‘ravonlik va beqarorlikka olib keladi. Falsafiy tahlilda davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Davlat hokimiyatining legitimligi va jamiyat bilan munosabatlar buzg‘unchi g‘oyalar tufayli qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Buzg‘unchi g‘oyalar mavjud davlat tuzilmalari va ularning legitimligini shubha ostiga qo‘yadi. Ular davlatning fuqarolar manfaatlariga xizmat qilmayotganini iddao qilib, yangi siyosiy tuzilmalarni taklif etadi. Bu jarayon davlatning hokimiyat vakolatlariga ta’sir ko‘rsatib, jamiyatdagi siyosiy inqirozlarni kuchaytirishi mumkin. Ba’zi buzg‘unchi g‘oyalar davlat tuzilmalarini umuman inkor etadi, anarxizmga asoslangan siyosiy nazariyalarni targ‘ib qiladi. Anarxistik g‘oyalar fuqarolar o‘rtasida hokimiyatga qarshi

harakatlar va davlatsiz jamiyat konsepsiyalarini ilgari suradi. Bu esa jamiyatda siyosiy parchalanishga va qonunsizlikka olib kelishi mumkin.

Buzg‘unchi g‘oyalar demokratik jarayonlarga ham, avtoritar tuzilmalarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular siyosiy tizimlarning barqarorligi va qonuniyligini shubha ostiga qo‘yadi. Demokratik tizimlar buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida zaiflashadi, demokratik muhitda erkin fikr va qarashlar mavjud bo‘lgani sababli, radikal g‘oyalar ham tez tarqalishi mumkin[5.214]. Bu, ayniqsa, saylov jarayonlari yoki siyosiy faoliyatlarda ko‘rinib, radikal partiyalar va guruhlarning kuchayishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar avtoritar tuzumlarga qarshi harakatlar orqali ham namoyon bo‘lishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bunday g‘oyalar inson erkinligi va haq-huquqlarini himoya qilish uchun vosita sifatida qaralishi mumkin, lekin ular ko‘pincha zo‘ravonlikka asoslangan bo‘ladi va siyosiy inqirozlarga sabab bo‘ladi.

Terrorizm va ekstremizm radikal buzg‘unchi g‘oyalar asosida siyosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ular zo‘ravonlik va qo‘rquv orqali o‘z siyosiy maqsadlariga erishishga urinadi. Terroristik va ekstremistik harakatlar davlatga va jamiyatga nisbatan radikal qarshilik ko‘rsatadi. Falsafiy tahlilda bu harakatlar ijtimoiy adolat yoki mafkuraviy maqsadlar uchun kurash sifatida qaralishi mumkin, ammo ular ko‘pincha siyosiy beqarorlik va inson huquqlarining buzilishiga olib keladi[6.114]. Falsafiy nuqtai nazardan, terrorizm va radikal buzg‘unchi harakatlar legitim maqsadlarga erishish vositasi sifatida bahsga sabab bo‘ladi. Ba’zi nazariyalarda bu harakatlar zulmga qarshi kurash sifatida ko‘rilsa, boshqalar ularni yomonlik va inson erkinliklariga tahdid sifatida inkor qiladi.

Ijtimoiy qo‘zg‘olonlar va inqiloblar ko‘pincha buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida yuzaga keladi. Siyosiy falsafada bu jarayonlar ijtimoiy adolat, hokimiyat taqsimoti va inson huquqlari masalalaridagi ziddiyatlar asosida qaraladi. Buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pincha ijtimoiy adolatni tiklash, erkinlik va tenglikni ta’minlash bahonasida tarqaladi. Ammo, bunday harakatlar ba’zan yangi zulm va siyosiy bosimlarga olib kelishi mumkin, bu esa inson huquqlari bilan bog‘liq muammolarni yanada kuchaytiradi. Turli siyosiy ideologiyalar o‘rtasidagi kurashlarda buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy bo‘linishni chuqurlashtiradi. Falsafiy tahlilda bu jarayonlar ijtimoiy tanazzul va parchalanishga olib kelishi mumkin.

Buzg‘unchi g‘oyalarning inson va jamiyat hayotida keng tarqalishi keng ko‘lamli **axloqiy muammolar**ni keltirib chiqaradi. Bu muammolar qatorida axloqiy deklinatsiya, individualizmning kuchayishi, inson qadr-qimmatining pasayishi, axloqiy relyativizm va universal qadriyatlar muammosi, mas’uliyatsizlik, egoizm kabi axloqiy muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Buzg‘unchi g‘oyalar va faoliyat axloqqa, insonning ma’naviy qadriyatlari va jamiyatdagi axloqiy normalarga jiddiy zarar yetkazadi. Buning natijasida eng ayanchli oqibatlarga olib keluvchi axloqiy deklinatsiya holati sodir bo‘ladi. Buzg‘unchi g‘oyalar inson axloqini buzadi, uning ma’naviy asoslarini zaiflashtiradi. Bu yomonlik, zo‘ravonlik va qonunsizlikni normallashtiradi[7.215].

Axloqiy relyativizm — har bir inson yoki jamiyatning o‘z axloqiy me’yorlari va qadriyatlari bo‘lishi mumkinligini tasdiqlovchi qarashdir. Falsafiy nuqtai nazardan, “axloqiy relyativizm axloqning umumiy prinsiplari yo‘qligini yoki ularning sub’ektivligiga ishonishni keltirib chiqaradi. Bu axloqiy inqirozga va ma’naviy qadriyatlarning

zaiflashuviga sabab bo‘ladi”[8.62]. Axloq sub’ektivlashganda, har bir shaxs o‘z shaxsiy manfaatlari va xohishlariga mos keladigan qoidalarni yaratadi. Bu jamiyatda umumiy axloqiy me’yorlarning yo‘qolishiga olib kelib, axloqiy inqirozni kuchaytiradi. Shuningdek, axloqiy relyativizm insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda axloqiy barqarorlikni yo‘qotadi. Har bir shaxs o‘z axloqini himoya qilar ekan, jamiyatda birdamlik va umumiy axloqqa rioya qilish pasayadi.

Ma’lumki, buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatning umumiy manfaatlaridan ko‘ra shaxsiy manfaatlarni yuqori qo‘yadi. Bu individualizm va egoizmning kuchayishiga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Bu kabi g‘oyalar insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini ham pasaytiradi, uni faqat siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlar uchun foydalaniladigan vosita sifatida ko‘radi. Buzg‘unchi g‘oyalar va inson buzg‘unchiligining axloqiy muammolariga falsafiy nuqtai nazaridan yondashilganda, ularning jamiyatning ma’naviy asoslari, inson qadriyatlari va axloqiy qoidalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlash mumkin. Bu muammolar axloqiy me’yorlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar hamda inson mas’uliyati kabi masalalarda qayd etilgan. Buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pincha axloqiy relyativizm, ya’ni har bir inson yoki jamiyatning o‘z qadriyatlari va qoidalariga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu, falsafiy nuqtai nazardan, universal axloq va umumiy qadriyatlar tushunchasiga qarshi chiqadi. Axloqiy relyativizm buzg‘unchi g‘oyalarni himoya qilish uchun asos sifatida qo‘llaniladi. Universal axloqiy me’yorlarning yo‘qligi yoki ularning inkor qilinishi insoniyatning birlikka kelishi va hamjihatlikka erishishida jiddiy muammolarga sabab bo‘ladi[9.5].

Buzg‘unchi g‘oyalar umumiy axloqiy tamoyillarni, masalan, insoniylik, adolat va shafqatni inkor qiladi yoki zaiflashtiradi. Bu qadriyatlar inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosi hisoblanib, ularning inkor qilinishi ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtiradi. Falsafiy tahlilda buzg‘unchi g‘oyalar yaxshilik va yomonlikning aniq chegaralarini zaiflashtiradi. Bu holatda axloqiy me’yorlar noaniq bo‘lib, shaxslar va guruhlar o‘z manfaatlariga mos keladigan axloqiy qoidalarni ilgari suradilar. Buzg‘unchi g‘oyalar yaxshilik va yomonlik tushunchalari o‘rtasidagi chegarani buzadi. Insonlar o‘z shaxsiy yoki guruh manfaatlari yo‘lida yomonlikni yaxshilik sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu jamiyatda yovuzlikning normallashishiga olib keladi.

Shuningdek, buzg‘unchi g‘oyalar haqiqatni sub’ektiv tushunishni targ‘ib qiladi, ya’ni har kim o‘zini haq deb hisoblashi mumkin. Bu haqiqat va yolg‘on, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini bir-biriga aralashtiradi va axloqiy me’yorlarning umumiy qabul qilinishiga to‘sqinlik qiladi. Buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pincha insonlarni shaxsiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga undaydi va jamiyat yoki boshqa insonlar oldidagi ma’naviy javobgarlikni zaiflashtiradi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarning shaxsiy manfaatlarini ustuvor qo‘yadi. Bu egoizm va individualizmni kuchaytirib, insonlarning bir-biriga nisbatan javobgarligini pasaytiradi. Jamiyatda axloqiy me’yorlar va javobgarlik tushunchalari yo‘qolishi mumkin[10.472].

Buzg‘unchi g‘oyalar inson ma’naviyatining asosini tashkil qiluvchi qadriyatlarni inkor qiladi yoki ularni faqat shaxsiy manfaatga yo‘naltiradi. Bu, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy bo‘shliq va axloqiy me’yorlarga bo‘lgan ishonchning zaiflashishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarga zo‘ravonlik va buzg‘unchilikni qonuniy deb qabul

qilishga yordam beradi. Ular zo‘ravonlikni ma’lum bir axloqiy oqlov yoki maqsadlar asosida asoslashga harakat qiladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarning zo‘ravonlikka moyilligini oshiradi va uni axloqiy jihatdan oqlaydi. Bu yovuzlikni yaxshilikka erishish vositasi sifatida ko‘rsatadi, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda nizolar va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Zo‘ravonlikni oqlash orqali buzg‘unchi g‘oyalar inson huquqlarini buzadi va jamiyatdagi insoniy qadriyatlarni zaiflashtiradi. Buning natijasida inson qadr-qimmati va erkinliklari inkor qilinadi.

Buzg‘unchi g‘oyalar inson ma’naviyatini zaiflashtiradi va jamiyatda ma’naviy inqirozga olib keladi. Bu g‘oyalar ma’naviy qadriyatlarni inkor etib, odamlarning axloqiy yo‘ldan chetlashishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarni ma’naviy jihatdan zaiflashtiradi, ularni yomonlik va zo‘ravonlikka moyil qiladi. Ma’naviy inqiroz jamiyatda boshqa qadriyatlar va axloqiy qoidalarning ham buzilishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarni ma’naviy nuqtai nazardan zaiflashtirib, ularni hayotning ma’nosi va maqsadini yo‘qotishga undaydi. Bu shaxsning ma’naviy tanazzuli va jamiyatdan chetlashishiga olib kelishi mumkin[11.708].

Xullas, buzg‘unchi g‘oyalar va inson buzg‘unchiligi axloqiy relyativizm, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining buzilishi, egoizm va zo‘ravonlikni qonuniylashtirish kabi muammolar orqali jamiyatning axloqiy va ma’naviy asoslarini zaiflashtiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayonlar axloqiy inqirozga olib kelib, insoniyatning ma’naviy qadriyatlariga zarar yetkazadi, shaxslar va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni zaiflashtiradi. Buzg‘unchi g‘oyalar va faoliyat ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolarni chuqurlashtirib, jamiyatning barqarorligiga katta xavf tug‘diradi. Ularga qarshi kurashish uchun jamiyat barqaror axloqiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar asosida ish tutishi va radikalizmga qarshi samarali choralar ko‘rishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39

Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39

Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар -Тошкент: Турон замин зиё, 2015. -Б.299.

Пахрутдинов Ш., Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-115

Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси Қомуси 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214

Пахрутдинов Ш.. Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-116

Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214-215

Щипунов О.К. Этический релятивизм как социорегулятивная парадигма // -М.: Наука и современност, – 2014.

Круглов А. Моралный релятивизм // Здравый смысл. – 2001. – № 4. -С. 5-7

Фалсафа қомусий луғати. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. -Тошкент: Шарқ, 2004. -Б. 472

Назаров Қ. ва бошқалар. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати - Тошкент:, Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б. 708

YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM-TARBIYANING O‘RNI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent, falsafa fanlari doktori (DSc)

Bugungi kunda yoshlarimizni turli yot va zararli g‘oyalar, shuningdek vayronkor mafkuralardan himoya qilish, ularning barqaror mafkuraviy immunitetini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi va milliy g‘ururni rivojlantirish, shuningdek ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, ular hozirgi zamondagi keskin intellektual va ma’naviy raqobatga tayyor bo‘lgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yuksak malakali mutaxassislar sifatida shakllanadi. Zero, bu globallashuv davrida uzluksiz ta’lim va tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois, milliy iftixor tuyg‘usi va o‘tmishimiz hamda kelajagimizning qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish orqali biz yangi avlodlarni tarbiyalashimiz va o‘z milliy davlatchiligimizni mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni etkazishning zamonaviy infratuzilmasi va texnologiyalarini takomillashtirish orqali yot mafkuralarning oldini olish va yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti fuqarolarining ijtimoiy faolligi, ma’naviy ongi va mustaqil fikrlash qobiliyati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz taraqqiyot strategiyasi ma’rifiy jamiyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ma’rifiy jamiyat esa mustaqil fikrlovchi, ma’naviyati yuksak, o‘z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan barkamol avlodni tarbiyalay olishga bog‘liq. Biroq, insoniyatning ilmiy-kashfiy ishlanmalaridan keng foydalanish, global axborot oqimining tezligi va yoshlar ustidagi bevosita yoki bilvosita bosimning ortib borishi ularning ma’naviy o‘zligini yo‘qotish xavfini oshirmoqda. Shu bois, mazkur jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va ularni mustahkam ma’naviy qadriyatlarga tayanchlangan holda tarbiyalash ayni vaqtda muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarga yuqori ma’naviy tarbiya berish va ularning salohiyatini yuksaltirish davlatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Prezidentimiz Sh.M.M i rziyoyev ta’kidlaganidek “.... Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillasht i rishni o‘zimizning b i rinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[1]. Shu ma’noda, global o‘zgarishlar sharoitida yoshlarga tarbiya berish masalasi nafaqat milliy, balki jahon miqyosida ham muhokama qilinayotgan dolzarb masalaga aylangan.

Hozirgi kunda ayrim davlatlarda sodir bo‘layotgan qo‘poruvchilik, harbiy zo‘ravonlik, tinch aholini qiynoqlash, vahima uyg‘otish va g‘oyaviy beqarorlik kabi

holatlar yoshlarning ma’naviy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, dunyoning mafkuraviy manzarasida tajovuzkor aqidaparastlik, ekstremizm, irqchilik, fundamentalizm, odam savdosi va “ommaviy madaniyat” terrorizmi kabi xavfli oqimlarning faoliyati yoshlarning ongini shakllantirish jarayoniga jiddiy tahdid solmoqda. Bu muammolarga qarshi kurashishda xalqimizning madaniy meroslari, falsafiy durdonalari va milliy qadriyatlari ustuvor ahamiyatga ega. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalangan yoshlar mustaqil fikrlash, o‘ziga xos dunyoqarash va ma’naviy barqarorlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni amaliy hayotda qo‘llash mas’uliyati shakllanganda, zararli g‘oya va tushunchalarga qarshi mafkuraviy immunitet mustahkamlanadi. Zero, mafkuraviy immunitet – ma’lum b i r shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o‘ziga xos bo‘lgan, qat’iy, barqaror, sog‘lom mafkuraviy qarashlarning shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo‘lgan turli zararli mafkuraviy ta’s i r va tayziqlarga berilmasligida muhim omil bo‘lib hisoblanadi[2]. Shu jihatdan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi strategik ahamiyatga egadir. Yoshlarda ta’lim va tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni barkamol, mustaqil va ma’naviy yetuk avlodga aylantirish muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mafkuraviy immunitet deganda – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g‘oyaviy ta’s i ridan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi tushuniladi[3]. Haqiqatdan ham, mafkuraviy immunitet turli xil yot va zararli g‘oyalar ta’s i rlaridan biz uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakllant i ruvchi vositalar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratd i r: b i rinchidan, yoshlarimizni ta’limning barcha bosqichlari bilan qamrab olishni yanada osh i rish; ikkinchidan, yoshlarimiz orasida tarbiyaviy jarayonlarni har doimgidanda yuqor i roq darajaga ko‘tarish; uchinchidan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarini targ‘ibot qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish; to‘rtinchidan, media tarbiyani yoshlar orasida shakillant i rsh ya’ni turli xil internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlant i rish.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning “mafkuraviy immunitet” kategoriyasiga bergan ta’rifi yuqoridagilardan mantiqiy jihatdan tubdan farq qiladi. Muallif: “mafkuraviy immunitet – odam o‘z hayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramziy qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi, deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. B i rinchisi – u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar. I kkinchisi – shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlasht i rilgan qismi”,- deb izohlaydi[4].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mafkuraviy immunitet shaxsning ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi, uni zararli mafkuralardan himoya qiluvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish hamda jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ularni sog‘lom, insonparvar g‘oya va mafkuralar bilan qurollantirish zarur. Mazkur g‘oyalar taraqqiyot qonunlari, ijtimoiy adolat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un

bo‘lishi lozim. Shu orqali shaxsning o‘zligini, odob-axloqini, tarixiy merosini va milliy ruhini zararli mafkuralardan himoya qilish nafaqat individual, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitetni yuksaltirishda ta’lim-tarbiyaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishda “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi” prinsipini asosiy tamoyil sifatida qo‘llash yoshlarda ijodkorlik ruhini va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, jamiyat hamda davlat manfaatlarini qadrlaydigan, milliy qadriyatlar bilan yashaydigan shaxslarni tarbiyalash muhim vazifadir. Shu sababli, yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish davlat va jamiyat uchun strategik ahamiyatga egadir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan uzliksiz ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va media resurslaridan oqilona foydalanish orqali yoshlar mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi, Vatanga sadoqatni his qiladi, milliy g‘ururini rivojlantiradi va tarixiy merosni chuqur anglaydi. Bunday yondashuv, yoshlarni mafkuraviy jihatdan barqaror, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 22

Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2020. – B. 166.

Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 56.

Quronov M., Bizni birlashtirgan g‘oya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 142-b.

RAQAMLI MEDIA MAKONDA YOSHLARNING MA’NAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH: TAHDIDLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
NamDPI katta o’qituvchisi
Botirjonov Muhammadzoxid Muxammadmansur o‘g‘li
NamDPI talabasi

Raqamli transformatsiya - bugungi jamiyatning ajralmas qismi. Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim olish, muloqot qilish, o‘zini namoyon etish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Biroq, raqamli media bilan birga ma’naviy va axborot-ruhiy tahdidlar ham oshmoqda. Ishonchsiz axborot, dezinformatsiya, nomaqbul kontent - bular yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy prinsip va xulq-atvoriga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, kiberzo‘ravonlik, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi, onlayn identitet muammolari ham yoshlar uchun xavf tug‘diradi. Shu sababli, raqamli media

makonda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi - raqamli media muhitidagi asosiy tahdidlar va ularning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri tahlilini olib borish, hamda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlaydigan zamonaviy yondashuvlarni ko‘rsatish. Maqolada mavjud adabiyotlar analizi (literature review) metodidan foydalanildi. 2023-2025 yillarda chop etilgan maqolalar va tadqiqotlar o‘rganildi. Xususan: yoshlar mediasavodxonligi va onlayn xatarlar holatini o‘rganuvchi empirik tadqiqotlar, ijtimoiy-psixologik va pedagogik maqolalar, kiberxavfsizlikga oid huquqiy va texnik tahlillar tahlil qilindi. Shuningdek, yoshlar onlayn muhitida holatlarni tahlil qiluvchi nisbiy so‘rovlar va modellashtirish natijalari ham ko‘rib chiqildi. Bundan ko‘zlangan maqsad - raqamli media va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning ma’naviy-axloqiy taraflarini aniqlash va himoya choralari uchun nazariy asos yaratishdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki: Yangi tadqiqotlar onlayn mediadan noto‘g‘ri, manipulyatsion, chalg‘ituvchi kontent yoshlar ongiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi: psixologik bog‘lanish, real hayotdagi ijtimoiy faollikning pasayishi, dezinformatsiya ta’siri bunga yorqin misol. Onlayn makonda kiberzo‘ravonlik (cyberbullying, cyberharassment, cyberstalking) keng tarqalgan: bir nechta tadqiqotlarda yoshlar orasida digital media orqali tajovuz va tazyiqlar sezilarli ekanligi qayd etilgan. Masalan, Digital Media Used in Education: The Influence on Cyberbullying Behaviors among Youth Students nomli 2023-yil tadqiqoti natijalariga ko‘ra, 1012 nafar talabalardan olingan so‘rovda deyarli yarmi onlayn tarmoqlarda tajovuz, kiberzo‘ravonlik yoki tazyiqqa duch kelganini bildirgan. Yoshlar onlayn shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, parol va xususiylikni boshqarish bo‘yicha yetarli ma’lumot va ko‘nikmalarga ega emasligi aniqlangan - bu esa ularni “phishing”, ma’lumot o‘g‘irlash va boshqa kiberxavflarga ochiq qiladi. Ijtimoiy va diniy-axloqiy tarbiya kontekstida ham raqamli media yoshlar ma’naviyati uchun tahdid bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan: raqamli madaniyat, noto‘g‘ri axborot, tanqidiy fikrlash yetishmasligi yoshlarda axloqiy tushunchalarning sustlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy tomonlari ham qayd etilgan: media platformalar yoshlar uchun bilim olish, til o‘rganish, ijodiy faoliyat, ijtimoiylashuv va yangi kommunikatsiya shakllarini yaratmoqda.

Raqamli media makonida yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda birinchi navbatda ijtimoiy va axborot muhitini tahlil qilish zarur. Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoniyati tufayli bilim olish, ijodiy faoliyat, muloqot, shuningdek, o‘zini ifoda etish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, raqamli media xavflari ularning psixologik, ma’naviy va axloqiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida kiberzo‘ravonlik (cyberbullying) va onlayn tazyiq ko‘plab ijtimoiy va ma’naviy muammolarni yuzaga keltiradi [1]. Bu holatlarning psixologik oqibatlari orasida depressiya, izolyatsiya, o‘zini past baholash, xatti-harakatlar uyg‘unligining buzilishi va ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatiladi [2]. Eng keng tarqalgan tahdidlar - noto‘g‘ri axborot va onlayn tahqirlashdir. Bu yoshlar ma’naviyati va ijtimoiy faoliyatini bir vaqtning o‘zida shakllantiruvchi omillardir.

Shuning uchun raqamli media makonida yoshlar bilan ishlashda pedagogik, psixologik va huquqiy choralar muhim ahamiyatga ega.

Mediasavodxonlik yoshlarning raqamli makondagi faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim omil sifatida koʻriladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mediasavodxonligi past yoshlar notoʻgʻri axborotga tez-tez ishonadi va kiberzoʻravonlikdan himoyalanish imkoniyatlari cheklangan boʻladi [3], [4]. Shu bilan birga, mediasavodxonlikni oshirish orqali yoshlar oʻzini onlayn muhitda samarali himoya qilish va axborotni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega boʻladi. Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi ham yoshlar ma’naviyati va axloqiy tarbiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar yana shuni koʻrsatadiki, yoshlar oʻz shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish boʻyicha yetarli ma’lumotga ega emas [5]. Bu holat “phishing”, onlayn identitet oʻgʻirlash, firibgarlik va boshqa kiberxavflarga duchor boʻlish xavfini oshiradi. Shu sababli, yoshlar uchun shaxsiy ma’lumotlarni boshqarish va xavfsiz muhitni yaratish boʻyicha koʻnikmalarni rivojlantirish muhimdir. Onlayn axborot oqimi va algoritmik tavsiyalar yoshlarning axloqiy va ma’naviy qarashlariga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yoshlar algoritmik tavsiyalar orqali ular uchun “maxsus” tayyorlangan kontentni tez-tez qabul qiladi, bu esa dunyoqarashning torayishi, stereotiplar kuchayishi va tanqidiy fikrlashning pasayishiga olib keladi [6], [7]. Shu bilan birga, axloqiy tarbiya va ijtimoiy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirilgan onlayn platformalar yoshlarni zararli kontentdan himoya qilishda samarali vosita boʻlishi mumkin.

Ijtimoiy institutlar: oila, maktab, diniy va ma’rifiy muassasalar yoshlar bilan ishlashda raqamli media xavflarini kamaytirish va mediasavodxonlikni oshirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Bu jarayon quyidagi komponentlarni oʻz ichiga oladi:

1. Pedagogik chora-tadbirlar - maktab va universitetlarda mediasavodxonlik, onlayn xavfsizlik, axloqiy tarbiya darslarini joriy etish.
2. Psixologik chora-tadbirlar - kiberzoʻravonlik va onlayn stressni boshqarish boʻyicha psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish.
3. Huquqiy chora-tadbirlar - yoshlar onlayn huquqlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik qoidalarini targʻib qilish.
4. Texnologik chora-tadbirlar - filtrlar, monitoring tizimlari, xavfsiz onlayn platformalar yaratish.

Shuningdek, raqamli media ijobiy imkoniyatlar ham yaratadi: bilim olish, ijodiy loyiha va ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirish, xususan: til oʻrganish, madaniy va ijtimoiy muloqot kabilar. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ijobiy foydalanish va pedagogik nazorat orqali raqamli media yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash va ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin [7], [8]. Tahlil shuni koʻrsatadiki, raqamli media xavflarini kamaytirish va yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv pedagogik, psixologik, huquqiy va texnologik komponentlarni oʻz ichiga oladi va yoshlarni onlayn muhitda faol va ma’naviy jihatdan sogʻlom boʻlishga yoʻnaltiradi.

Xulosa. Raqamli media va onlayn platformalar yoshlar hayotida yangi imkoniyatlar yaratmoqda - ta’lim, kommunikatsiya, ijod, jamiyat bilan integratsiyaning yangi shakllari

mavjud. Biroq, bu imkoniyatlar bilan birga yoshlar ma’naviy, axloqiy va psixologik jihatdan jiddiy xatarlar ostida. Kiberzo‘ravonlik, noto‘g‘ri axborot, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, axloqiy degradatsiya - bular yoshlar ma’naviyatiga tahdid soladigan asosiy omillardir. Shu munosabat bilan, raqamli media makonda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash uchun mediasavodxonlikni oshirish, kiberxavfsizlik choralarini joriy etish, axloqiy va ma’naviy tarbiya, davlat siyosati va jamoat hamkorligini birlashtirgan kompleks yondashuv zarur. Kelajakda bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar kengaytirilishi - yoshlar onlayn makonda duch kelayotgan ma’naviy xatarlar bilan kurashish strategiyalari, madaniy-ijtimoiy immunitetni shakllantirish metodlari, mamlakatimiz kontekstida mediasavodxonlik bo‘yicha darslik va metodikalar ishlab chiqish muhim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Omar A. Alismaiel. Digital Media Used in Education: The Influence on Cyberbullying Behaviors among Youth Students. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2023, 20(2), 1370.

Abdulmalik Alluhidan, Mamtaj Akter, Ashwaq Alsoubai va boshqalar. Teen Talk: The Good, the Bad, and the Neutral of Adolescent Social Media Use. 2024 (pre-print).

Abdijapporova N. Raqamli texnologiyalar sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi va diniy-axloqiy tarbiyasi. KONFERENSIYA, 1(1), 2025, 357–364.

Mamtaj Akter, Jinkyung K. Park, Campbell Headrick va boshqalar. Calculating Connection vs. Risk: Understanding How Youth Negotiate Digital Privacy and Security with Peers Online. 2025.

Ozioma C. Oguine, Oghenemaro Anuyah, Zainab Agha va boshqalar. Online Safety for All: Sociocultural Insights from a Systematic Review of Youth Online Safety in the Global South. 2025 (pre-print).

Salomov S. The Impact and Potential Risks of the Internet and Social Networks on Youth Awareness. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2025.

Abdupattaev H., Rustamjonova S. Raqamli media vositalari orqali til o‘rganish: imkoniyatlar va xavf-xatarlar. Modern education and development, 2025.

Umida Imamova. Jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minlashning ma’naviy omillari. Tamaddun nuri jurnali, 1(64), 2025, 334–336.

SUN’IY INTELLEKT VA YOSHLAR SADOQATI: ZAMONAVIY FALSAFADA ISHONCH, VAFODORLIK VA AXLOQIY MEZONLAR TAHLILI

To‘laboyeva Shoira Abdulxamidovna,
Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” davlat muassasasi Muharririyat bo‘yicha yetakchi muharrir, Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan sharoitda yoshlarda insoniy munosabatlar tizimida ishonch

va vafodorlik kategoriyalari tubdan qayta talqin qilinmoqda. Jamiyat hayotida individualizmning kuchayishi, sun’iy intellekt kabi texnologik sub’yektlarning paydo bo‘lishi, raqobat va manfaatdorlikning ustuvor bo‘lishi yoshlar axloqiy qarorlarining mohiyatini o‘zgartirib bormoqda. Bugungi kunda falsafa axloqiy me’yorlarni nazariy jihatdan qayta ko‘rib chiqish, ishonch va sadoqatning ontologik-gnoseologik asoslarini aniqlash, shuningdek, bu kategoriyalarning sotsial hayotdagi funksiyalarini chuqur tahlil qilish zaruratiga duch kelgan.

XXI asr insoniyat taraqqiyotida yangi bosqich sun’iy intellekt erasini boshlab berdi. Bu bosqich inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda: boshqaruv, iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, xavfsizlik, madaniyat va ijtimoiy hayot. Ayniqsa, yoshlar ongiga, emotsiyasiga, axloqiy tanlovlariga va ijtimoiy qadriyatlariga ta’siri kuchayib bormoqda. Shu jarayonda sadoqat tushunchasi ham tubdan o‘zgarishga yuz tutmoqda.

An’anaviy ma’noda sadoqat bu vafodorlik, ishonch, qadr-qimmatga sodiqlik, ma’naviy barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyatdir. Islom, Sharq falsafasi, milliy ma’naviy merosimizda sadoqat eng oliy axloqiy fazilatlardan hisoblanadi: vatan, oila, ustoz, maslak va e’tiqodga sodiqlik.

Sadoqat masalasi tarixan falsafa, axloqshunoslik va diniy tafakkur markazida bo‘lgan. Sharq ulamolaridan Abu Hamid G‘azzoliy sadoqatni “qalb va amal birligi” sifatida ko‘radi, uni riyo va manfaatga zid bo‘lgan chinlik mezoni deb ta’riflaydi. Alisher Navoiy insonning komilligi sadoqat bilan bog‘liqligini uqtiradi. A. Avloniy axloqiy tarbiyani milliy taraqqiyot poydevori deb qaragan. M. Xayrullaev va A. Yo‘ldoshev fikricha, sadoqat jamiyatning ma’naviy yadrosidir, ijtimoiy birdamlik kafolatidir.

G‘arb falsafasiga nazara tashlasak, E. Fromm “sadoqat — insonni begonalashuvdan saqlovchi ruhiy poydevor” ekanini aytadi. J. Habermas sadoqatni kommunikativ kelishuv va ijtimoiy ishonch tizimi sifatida tahlil qiladi. Texnologik tadqiqotlarda olim N. Bostrom sun’iy intellektning axloqiy nazoratsiz rivoji “inson qadriyatlariga xiyonat” xavfini keltirishi mumkinligini qayd etadi [1].

Tadqiqotchi S. Zuboff “nazorat kapitalizmi” orqali inson ongiga hukmronlik va platformaga majburan sadoqat hosil bo‘lishini ko‘rsatadi [2]. Sh. Turkle 2016-yilda chop ettirgan “Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age (Nutqni tiklash: raqamli asrda nutqning kuchi)” asarida yoshlarda raqamli yordamchilarga psixologik sadoqat kuchayib borayotganini ilmiy jihatdan isbotlaydi [3]. Ko‘rinadiki, ilmiy adabiyotlarda sadoqat fenomeni antropologik, axloqiy va sotsiomadaniy kontekstda yoritilgan bo‘lsa-da, sun’iy intellekt sharoitida raqamli sadoqat hodisasi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Sadoqat axloqiy munosabatlar, ma’naviy mas’uliyat va ijtimoiy ishonch kategoriyasidir. U quyidagi komponentlardan iborat: e’tiqod bu haqiqat va qadriyatga ishonch; mas’uliyat vafo va axloqiy burch; onglilik qadriyatni ongli tan olish; daxldorlik o‘zlikni anglash va fidoyilik; barqarorlik situatsion emas, uzluksiz sadoqat. Sun’iy intellekt kuchayib borayotgan davrda ushbu asoslar texnokratik va marketing mexanizmlar bilan sinovdan o‘tmoqda.

Bu davrda ishonch inson mavjudligining eng muhim ma’naviy-psixologik holatlaridan biridir. U nafaqat shaxslararo munosabatlarni, balki sivilizatsiya

taraqqiyotining asosiy mexanizmlaridan birini tashkil etadi. Antik falsafada Aristotel o‘zining “Nikomax axloqi” asarida ishonchni “ruhning barqaror holati” sifatida talqin qilgan bo‘lsa, uyg‘onish davridan boshlab u insonning ijtimoiy tabiatini belgilovchi kategoriya darajasiga ko‘tarildi. G. Xegel ishonchni “erkin onglarning o‘zaro tan olinishi” sifatida baholaydi [4]. Bu esa ishonchni faqat psixologik holat emas, balki ijtimoiy ontologiyaning zarur sharti ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy antropologiya vakillaridan F. Fukuyama ishonchni “ijtimoiy kapitalning eng ustun shakli” sifatida izohlaydi [5]. Uning fikricha, ishonch jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy resurslar kabi muhim o‘rin tutadi. Bunda ishonch kapitali yuqori bo‘lgan jamiyatlar barqaror iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarga ega bo‘ladi.

Biroq bugungi kunda inson ba’zan oila yoki jamiyatdan ko‘ra, raqamli platformalar, algoritmlar, virtual shaxslar va algoritmik intellekt tizimlariga ko‘proq sadoqat ko‘rsatmoqda. Raqamli jamiyatda insonlar ishonchni real munosabatlardan ko‘ra algoritmlarga, raqamli identifikatsiyaga, reyting va baholash tizimlariga bog‘lashmoqda. Shuning uchun bugun ishonchning sotsiologik mazmuni o‘zgarib, u “axborotga nisbatan ishonch” va “texnologik ishonch”ga ajraldi. Hozirda raqamli jamiyatda “algoritmik sadoqat”, “raqamli ishonch” va “kognitiv delegatsiya” fenomenlari tahlil qilinishga muhtoj. Ularning har biriga ta’rif berib o‘tish lozim bo‘ladi. Algoritmik sadoqat shaxsning ijtimoiy va axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida an’anaviy ma’naviy mezonlar o‘rniga algoritmik tavsiyalar, texnologik qulaylik va raqamli platformalar ko‘rsatmalariga ongli yoki ongsiz ravishda tayanishi natijasida shakllangan sodiqlik holatidir. U insonning axborot oqimi, boshqaruv va nazorat tizimlari ta’sirida texnologik tizimlarga qarshi tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi, qarorlarni tashqi algoritmlarga topshirishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon shaxs sadoqatining ma’naviy-axloqiy ildizlardan uzoqlashuvi va “foydalilikka sadoqat” prinsipining kuchayishi sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli ishonch insonning ijtimoiy munosabatlar, axborot almashinuvi, xavfsizlik va identifikatsiya jarayonlarida shaxsiy tajriba, an’anaviy ijtimoiy institutlar va intersubyektiv ishonchdan ko‘ra, raqamli tizimlar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar bazalari va algoritmik tasdiqlarga asoslangan ijtimoiy-psixologik holatidir. U kishilarning platformalar, reytinglar, onlayn identifikatsiya, shaxsiylashtirilgan tavsiyalarga tayangan holda ishonchni bevosita insoniy munosabatlardan raqamli vositachilik tizimiga ko‘chirishini anglatadi. Natijada ishonch ijtimoiy-axloqiy fenomendan texnologik-verifikatsion hodisaga aylanadi. Kognitiv delegatsiya esa shaxsning fikrlash, tahlil qilish, eslab qolish, tanlov qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi aqliy jarayonlarni qisman yoki to‘liq ravishda sun’iy intellekt tizimlari, algoritmlar yoki raqamli qurilmalarga topshirish jarayonidir. Bu hodisa insonning aql-idrok mustaqilligidan chekinishi, tashqi intellektga tayanish orqali kognitiv avtonomiyaning qisqarishi bilan kechadi. U ijtimoiy-falsafiy jihatdan inson subyekti maqomini qayta talqin qiladi hamda “fikrlovchi subyekt”dan “qaror tashuvchiga” aylanish jarayonini aks ettiradi.

Bunday holatlarning oqibatida shaxsiy ishonch mexanizmlari zaiflashmoqda; shubha va xavotir tuyg‘usi kuchaymoqda; ijtimoiy aloqalar formallashmoqda; sun’iy intellektga nisbatan ishonch muammosi yuzaga chiqmoqda. Bu jarayon jamiyatda axloqiy regulyator sifatida ishonchning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Vafodorlik kishining ma’lum g‘oya, shaxs, jamiyat yoki axloqiy tamoyilga sodiqligini ifodalaydi. U qadimdan buyuk fazilat sifatida e’tirof etilgan. Konfutsiychilikda vafodorlik “ren” g‘oyasi bilan, islom falsafasida “vafo” tushunchasi bilan bog‘langan. Platon vafodorlikni “ruh pokligi va g‘oyaga sadoqat” deb talqin qiladi. Kant axloqqa oid qonunga vafodorlikni kategorik imperativning zaruriy qismi sifatida ko‘radi. M. Weber esa siyosiy munosabatlarda vafodorlikni qonuniy hukmronlikni legitimlashtiruvchi kuch deb baholaydi [6]. Faylasuf olimlar fikrlarini jamlaydigan bo‘lsak, vafodorlik shaxs erki, mas’uliyat va ma’naviylikning uzviy birligi sifatida namoyon bo‘ladigan fazilatdir.

Sun’iy intellekt inson sadoqati va ishonch tizimini qayta shakllantirmoqda. Muammo shundaki, raqamli sadoqat ko‘pincha ma’naviy emas, texnologik manfaat, algoritmik qulaylik va psixologik bog‘liqlik natijasida shakllanadi.

Maqsadimiz sun’iy intellekt sharoitida sadoqat tushunchasining falsafiy mohiyatini ochish, uning transformatsiyasini tahlil qilish va axloqiy mezonlarni asoslashdir. Ushbu masalaning dolzarbligi shundaki, insoniyat axborot-avtonomiya va algoritmik qaramlik chegarasini keskin his qilayotgan davrda, ma’naviy immunitet masalasining global ahamiyat kasb etganidadir.

Axloqiy mezonlar inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi tamoyillar bo‘lib, ular tarix davomida turlicha talqin qilingan. Tug‘ma axloqiy tamoyillar tarafdorlari (Suqrot, Foma Akvinskiy, Kant) axloqiylikning universalligini himoya qiladi. Kantning “axloqiy qonun ichimizda” degan fikri har qanday davrda vafodorlik, adolat va ishonch kabi tamoyillar o‘zgarmasligini bildiradi. Masalan, xalqimiz ma’naviy merosida ham vafodorlik va ishonch eng yuksak qadriyat sifatida ulug‘langan. Alisher Navoiy “sadoqat va vafo insonning zebu ziynati” degan [7]. Zamonaviy falsafa vakillaridan M. Fuko axloqni ijtimoiy hokimiyat tizimlarining mahsuli deb baholaydi [8]. R. Rorti ham axloqiy me’yorlarni ijtimoiy konstrukt sifatida ko‘radi [9]. Bu yondashuvga ko‘ra, axloqiy mezonlar jamiyat ehtiyojiga ko‘ra o‘zgaradi. Biz universal axloqiy mezonlar bilan relativistik tamoyillarni birlashtirgan holda “moslashuvchan axloqiy paradigma” zaruriyatini ilgari suramiz. O‘zbekiston milliy taraqqiyot strategiyasida ishonch, vafodorlik, adolat, halollik kabi qadriyatlar ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Jamiyatimizda oila va jamoa qadriyatlari, ishonchga asoslangan ijtimoiy aloqalar, ma’naviy sadoqat an’analari muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, axborot asri ta’sirida pragmatizm, individualizm va iste’molchilik qarashlarining kuchayishi axloqiy tizimlarda transformatsiyaga olib kelmoqda. Bu jarayon shaxsiy manfaat va jamoaviy burch o‘rtasida muvozanatni saqlashni talab qiladi.

Bugungi jamiyatda sadoqat shakllari transformatsiyaga uchramoqda. An’anaviy sadoqat vatanga, oilaga, ustozlarga, qadriyatlarga, insoniylikka asoslansa, zamonaviy qadriyatlar brendga, platformaga, virtual hamjamiyatga, sun’iy intellektga asoslangan konsultantga, algoritmik qulaylikka, texnoxarizmatizmga tayanadi. Bu o‘zgarish insonning qaror qabul qilish erkinligiga ta’sir qiladi. Sun’iy intellekt muntazam ravishda inson xatti-harakat modeli, qaror qabul qilish tendensiyalari, hissiy reaksiyalar, shaxsiy qadriyatlar kabilarni ham o‘rganadi. Natijada inson algoritmga ko‘r-ko‘rona ishonchi kuchayadi. Tadqiqotchi Turkle “sun’iy empatiya” deb atagan hodisaga ko‘ra, odam algoritmik intellektga hissiy sadoqat hosil qiladi. Bu esa fikrlashni tashqi tizimga

topshirish, ijtimoiy izolyatsiya, texnoqaramlik, xavflarini kuchaytiradi. U axloqiy tanlovlarni standartlashtiradi. Bu jarayonda insoniy qadriyatlarning relativizatsiyasi, ma’naviy sadoqat o‘rniga texnik ishonchlilik kriteriyasi, axloqiy javobgarlik markazining siljishi kuzatiladi. Sotsiolog Habermas fikriga ko‘ra, axloqiy me’yorlar dialogda shakllanadi, ammo sun’iy intellekt axborot diktati orqali qarorlarni odam o‘rniga qabul qilmoqda. O‘zbekiston jamiyatida sadoqat vatanparvarlik, ma’naviyat, oilaviy qadriyatlar, ustozga hurmat, e’tiqod va vijdon bilan bog‘langan. Bu qadriyatlar algoritmik intellekt bosimi ostida qayta talqin qilinmoqda. Ijtimoiy tarmoqqa sadoqat, virtual submadaniyatlarga kirish, algoritmik ijtimoiylashuv, ma’naviy filtrlarning zaiflashuviga olib kelmoqda. Milliy ma’naviy immunitetni mustahkamlash strategik vazifaga aylandi

Biz yuqorida o‘rganganlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, sun’iy intellekt sharoitida sadoqat va ishonch transformatsiyaga uchradi. Raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellektning jadal rivojlanishi inson sadoqati va ishonchi tushunchalariga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli makonda sadoqat tobora algoritmik va texnologik mexanizmga aylanib, an’anaviy ma’naviy mohiyatdan uzoqlashmoqda.

Ikkinchidan, algoritmik nazorat va axloqiy mas’uliyat muammosi yuzaga chiqdi. Algoritmik boshqaruv va kuzatuv tizimlarining kengayishi insonning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy javobgarligini susaytirishi ehtimolini kuchaytiradi. Bu jarayon shaxsiy axloqiy mezonlar o‘rnini texnologik ko‘rsatmalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari bilan almashtirish xavfini tug‘dirmoqda.

Uchinchidan, Sharqona ma’naviy an’analarimiz barqaror axloqiy tayanch sifatida maydonga chiqdi. Sharq falsafasi va xalqimizning ma’naviy merosida sadoqat, vafodorlik va ishonch chuqur ruhiy-axloqiy tamoyillar sifatida e’tirof etilgan. Ushbu qadriyatlarni zamonaviy axborot makonida himoya qilish, ularga yangi ijtimoiy-kognitiv mazmun berish zaruriydir.

To‘rtinchidan, universal axloqiy qadriyatlar o‘zining davomiyligini saqlab qolmoqda. Global axloqiy paradigmalarda o‘zgarishlar ro‘y berayotganiga qaramay, sadoqat, halollik, ishonch kabi universal fazilatlar o‘z kuchini yo‘qotmayapti. Sun’iy intellekt davrida ham insoniy axloqiy javobgarlikning ustuvorligi axloqiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, texnologiya va ma’naviyat uyg‘unligi kelajak strategiyasi sifatida e’tirof etilmoqda. Sun’iy intellekt etikasi, ma’naviy tarbiya va raqamli madaniyatni uyg‘un rivojlantirish jamiyat barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda tarixiy-madaniy qadriyatlar bilan zamonaviy axloqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish vafodorlik va ishonchni mustahkamlaydi, ma’naviy immunitet va milliy taraqqiyotni ta’minlaydi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni berib o‘tishni lozim topdik:

1. Sun’iy intellekt etikasi va axloqiy me’yorlar tizimini kuchaytirish zarur. Sun’iy intellektning inson psixologiyasi, qaror qabul qilish jarayoni va ma’naviy qadriyatlarga ta’siri chuqur o‘rganilishi lozim. Raqamli platformalarda shaffoflik, axloqiy standartlar va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan etik normalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish samaralidir.

2. Raqamli sadoqat va algoritmik ta’sirni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish natija beradi. Jamiyatda “ma’naviy ong – algoritmik ong” muvozanatini saqlash uchun axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, algoritmik manipulyatsiya va texnoqaramlikning oldini olishga qaratilgan davlat va fuqarolik tashabbuslari kuchaytirilishi kerak. Ta’lim tizimida raqamli madaniyat, media-savodxonlik va algoritmik fikrlashni rivojlantirish muhim.

3. Sharq va milliy ma’naviy meros asosida axloqiy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish darkor. Navoiy, G‘azzoliy, Avloniy va boshqa allomalar sadoqat haqidagi merosini zamonaviy talqin qilish, uni ta’lim, ommaviy axborot vositalari, tarbiya dasturlari va ijtimoiy siyosatga singdirish zarur. An’anaviy vafodorlik — oilaga, jamiyatga, vatanga sadoqat —ni raqamli muhitda mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak.

4. Insoniy ishonch kapitalini saqlash va rivojlantirish samarali. Jamiyatda ishonch darajasini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar kuchaytirilishi lozim. Oilaviy tarbiya, professional etik kodekslar, boshqaruv tizimi va fuqarolik jamiyati faoliyatida shaffoflik, javobgarlik, halollik va ochiqlik tamoyillarini chuqurlashtirish kerak. Ishonch milliy taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy immunitetning asosidir.

5. Texnologiya va ma’naviyat uyg‘unligiga asoslangan milliy model yaratish yaxshi natija beradi. Sun’iy intellektdan foydalangan holda ma’naviy-ma’rifiy platformalar, raqamli axloqiy monitoring va tarbiya dasturlari ishlab chiqish, yoshlarni raqamli fazoda axloqli bo‘lishga o‘rgatish zarur. “Raqamli ma’naviyat”, “axloqiy AI” va “insonga yo‘naltirilgan texnologiya” tamoyillari asosida O‘zbekistonning o‘ziga xos milliy raqamli ma’naviy modeli shakllantirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies.* — Oxford: Oxford University Press, 2014. — 390 p.

Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power.* — New York: Public Affairs, 2019. — 704 p.

Harari, Yuval Noah. *Homo Deus: A Brief History of Tomorrow.* — London: Harvill Secker, 2016. — 450 p.

Hegel G. V. F. Huquq falsafasi asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 412 b.

Fukuyama F. *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity.* — New York: Free Press, 1995. — 457 p.

Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft: Grundriss der verstehenden Soziologie. — Tübingen: Mohr Siebeck, 1922. — 846 p.

Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. — Toshkent: Fan, 1983. — 312 b.

Foucault M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison.* — New York: Vintage Books, 1977. — 333 p.

Rorty R. Contingency, Irony, and Solidarity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989. — 201 p.

TARAQQIYOTIMIZ RIVOJLANISH DAVRI

To’layev Begzod
Namangan davlat universiteti talabasi
Qodiraliyeva Ijobat Baxromjonovna
Ilmiy rahbar Namangan davlat universiteti o’qituvchisi

Bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Bu davr — nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, balki xalqimizning ongidagi uyg‘onish, islohotlarga nisbatan yondashuv va kelajak sari dadil intilish davri sifatida e’tirof etilmoqda. “Taraqqiyotimiz rivojlanish davri” deganda, eng avvalo, mamlakatimizning barcha sohalarida izchil yangilanishlar, texnologik o‘sish, modernizatsiya jarayonlari, shuningdek inson kapitaliga, ta’lim va innovatsiyalarga qaratilgan e’tibor ko‘zga tashlanadi**.** Iqtisodiy o‘sish va modernizatsiya O‘zbekiston bugun jadal iqtisodiy o‘sishni boshdan kechirmoqda. Bozor mexanizmlarini rivojlantirish, tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish — taraqqiyotning eng muhim drayverlaridan biriga aylandi. Zamonaviy infratuzilma qurilishi, energetika sohasidagi yirik loyihalar, raqamli iqtisodiyotning kengayishi mamlakatning global iqtisodiy tizimga faol kirib borishini ta’minlamoqda**.** Ta’lim va ilm-fan sohasidagi tub o‘zgarishlar Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori — ta’limdir. Shu sababli oxirgi yillarda O‘zbekistonda ta’lim sifati, ilmiy salohiyat va modernizatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi universitetlar tashkil etilishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi, dual ta’lim tizimining joriy qilinishi yoshlarning zamonaviy kasb va ko‘nikmalarni egallashiga keng yo‘l ochmoqda. Ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar ajratilayotgani esa innovatsion g‘oyalar rivojiga yangi turtki bermoqda**.** Raqamli transformatsiya — taraqqiyotning muhim bosqichi Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron hukumat tizimi, aholi reyestri, onlayn xizmatlarning ko‘payishi, sun’iy intellekt va big data kabi yangi texnologiyalarga e’tibor qaratilishi jamiyatning samaradorligini oshirmoqda. Bu jarayon nafaqat qulaylik yaratadi, balki korrupsiyaning oldini olish, shaffoflikni ta’minlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi rivojlanish davrining bosh qahramoni — yoshlar. Ularning bilimli, ijodkor va tashabbuskor bo‘lib ulg‘ayishi mamlakatning ertangi kuni qanday bo‘lishini belgilab beradi. Shu sababli yurtimizda yoshlar siyosatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim, sport, texnologiya va tadbirkorlik sohalarida ularga keng imkoniyatlar yaratilayotgani yangi avlodning global maydonda raqobatbardosh bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

Ma’naviy yuksalish — taraqqiyotning ma’naviy poydevori Taraqqiyot faqatgina iqtisodiy yutuqlar bilangina o‘lchanmaydi. Jamiyatning ma’naviy uyg‘onishi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, madaniyat va san’atni rivojlantirish — millatning kuchi va birligini mustahkamlaydi. Bugun yoshlarimizning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi oshayotgani, teatr, kino, adabiyot va boshqa madaniy yo‘nalishlarning rivoji kuzatilayotgani ma’naviy yuksalishdan dalolat beradi.

Taraqqiyot faqat iqtisodiy yoki texnologik o‘zgarishlar bilangina belgilanmaydi. Ma’naviy hayotdagi yuksalish ham jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Bugungi

kunda kitobxonlik madaniyatining rivoji, teatr va san’atga e’tiborning ortishi, tarixiy merosning o‘rganilishi va targ‘ib qilinishi yosh avlodning ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ma’naviy uyg‘onish jamiyatda birdamlik, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini kuchaytirmoqda.

Yoshlar – taraqqiyotning bosh kuchi. Yoshlar siyosati O‘zbekistonning strategik yo‘nalishidir. Bugungi kunda yoshlar quyidagi imkoniyatlarga ega: bepul IT kurslari, startap markazlari, inkubatorlar., “Yoshlar daftari” orqali ta’lim va ishga joylashishda ko‘mak, talabalarga stipendiya va grantlarning ko‘payishi; sport inshootlari va ijodiy markazlar faoliyatining kengayishi. Yoshlar mamlakatning kelajagi bo‘lgani uchun ularning bilim va salohiyatini rivojlantirish — taraqqiyotning hal qiluvchi omilidir. Ijtimoiy himoya va aholining farovonligini oshirish Aholi turmush darajasining yuksalishi taraqqiyot bosqichining eng muhim ko‘rsatkichidir. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha manzilli tizim joriy etilish , yoshlar va ayollar daftarlari orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; zamonaviy shifoxonalar qurilishi va tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish; ipoteka dasturlari orqali uy-joy sharoitini yaxshilash; nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimining kuchaytirilishi. Bu yo‘nalishlardagi islohotlar jamiyatda barqarorlik, ishonch va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot bosqichi — bu faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishi yoki infratuzilmaning kengayishi bilan cheklanmaydigan, balki jamiyatning barcha qatlamlarida chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berayotgan tarixiy jarayondir. U mamlakatning siyosiy boshqaruv tizimidagi ochiqlik, iqtisodiy liberallashuv, raqamli transformatsiya, ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi, ta’lim va ilm-fanning modernizatsiya qilinishi kabi ko‘plab yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashib, kompleks rivojlanish modelini shakllantirmoqda.

Bugungi islohotlar, avvalo, xalq manfaatiga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Davlat boshqaruvida jamoatchilik bilan muloqotning kuchaytirilishi, idoralar faoliyati ustidan nazoratning oshishi, ochiq statistika va budjet ma’lumotlarining joriy qilinishi demokratiya va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday ochiq boshqaruv modeli aholining davlatga bo‘lgan ishonchini kuchaytirib, jamiyatni umumiy maqsadlar sari birlashtirmoqda.

Iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlar mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengayishi, klaster tizimining joriy qilinishi, qishloq xo‘jaligi, energetika va transport tarmoqlarining modernizatsiya qilinishi — bularning barchasi iqtisodiy o‘sishning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayon nafaqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilamoqda, balki oddiy fuqarolarning turmush darajasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari to‘plami. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, turli yillar.

O‘zbekiston Respublikasi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”. — Toshkent: Adliya vazirligi nashri, 2022.

Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

Nazarov Q., Jo‘rayev Sh. *O‘zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichlari*. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti: islohotlar va istiqbollar” mavzusidagi ilmiy maqolalar to‘plami. — Toshkent, 2020–2024.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Tojiboyeva Maftuna Turabjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Globallashuv jarayoni bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga, xususan, yoshlar dunyoqarashi va ma’naviyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari, internet va global kommunikatsiya tizimlari yoshlar ongini tezkor axborot oqimi bilan boyitadi, biroq ba’zan bu salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Yoshlar submadaniyati, g‘arb va sharq madaniyati ta’siri, gedonistik va ekstremistik tendensiyalar yoshlarning qadriyat tizimini shakllantirish jarayonida yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli yoshlarning ma’naviyati va axborot madaniyatini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zamonaviy globallashuv sharoitida dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada globallashuvning yoshlar ongiga va submadaniyati rivojiga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda globallashuvning yoshlar dunyoqarashi va ma’naviyatiga ta’siri ikki metod yordamida o‘rganildi:

Analitik metod – mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy maqolalar, kitoblar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Bu metod yordamida yoshlar ongiga globallashuvning ijobiy va salbiy ta’sirlari aniqlandi.

So‘rovnoma (anket) metod – yoshlar orasida so‘rovnoma o‘tkazilib, ularning axborot, submadaniyat va global madaniyat ta’siriga nisbatan fikrlari o‘rganildi. Bu metod real tajribalarni va yoshlarning qarashlarini aniqlashga yordam berdi.

Bu metodlar birgalikda tadqiqotga ilmiy asos va aniq natijalar beradi hamda yoshlar ma’naviyati va submadaniyati rivojiga globallashuvning ta’sirini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv jarayoni va uning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri masalasini tadqiq qilishda bir qancha manbalar ishlatilgan. Nazarova M.M.[4] yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladi, axborot va texnologiyalarning ijobiy hamda salbiy ta’sirlarini ko‘rsatadi. Mirziyoev Sh.M.[3] davlat va jamiyat tomonidan ma’naviyatni yuksaltirish va yoshlarni tarbiyalashning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi. Held A. va McGrew A.[2] globallashuvning global ijtimoiy va madaniy oqibatlarini tahlil qiladi, yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi muammolarni yoritadi. Smith A.D.[5] milliy identitet va qadriyatlarni saqlash masalalarini o‘rganadi, yoshlar ma’naviyatida milliy ildizlarning

ahamiyatini tushuntiradi. Akbarova Sh.A.[1] yoshlar submadaniyatining shakllanishi va madaniy tahdidlarga duchor bo‘lishini, shuningdek emo va gedonistik tendensiyalarning yoshlar ongiga salbiy ta’sirini tahlil qiladi.

Umuman olganda, ushbu manbalar globallashuv jarayonining yoshlar ongiga ta’sirini tushunishda ilmiy asos yaratadi va tadqiqot uchun zarur konseptual poydevorni ta’minlaydi.

Muhokama va tahlillar. Hozirgi globallashuv davrida axborotning jamiyatdagi roli keskin ortib bormoqda. Ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni axborotsiz tasavvur qilish qiyin. Zamonaviy axborot tizimlari kompyuter texnologiyalari, global tarmoqlar, internet va multimediali vositalarni o‘z ichiga oladi va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, axborotlashuv yoshlar ongiga va psixikasiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.

Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojga, balki ma’naviy va psixologik sohalarga ham ta’sir qiladi. Chet el g‘oyalari yoshlar ongini individualizm va egotsentrizm kabi tushunchalar bilan shakllantirishi mumkin. Shu bois, jamiyat va davlat darajasida axborot xavfsizligini ta’minlash, ma’naviy va psixologik barqarorlikni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi[4].

Bugungi globallashuv hodisasi ma’naviy va mafkuraviy ta’sir nuqtai nazaridan xavfli vositaga aylanib bormoqda. U turli davlat va siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qiladigan ko‘rinmas qurol sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday sharoitda shaxsning mustaqil fikri, milliy qadriyatlari, sog‘lom dunyoqarashi va mustahkam irodasi bo‘lmasa, ma’naviy marginallashuv ta’siriga tushishi ehtimoli yuqori. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar, tezkor axborot oqimi va madaniyatning yangicha shakllariga chanqoq yoshlar bunday ta’sirga juda moyil. Shu bois, ularni sog‘lom axborot madaniyati va mustahkam ma’naviy qadriyatlar bilan tarbiyalash muhim hisoblanadi[3]. Demak, yangicha yondashuv sifatida yoshlar ma’naviyati va axborot madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion ta’lim metodlari, raqamli resurslar va interaktiv platformalarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat ularni ma’naviy tahdidlardan himoya qiladi, balki globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga ham xizmat qiladi.

Globallashuv jarayoni yoshlar dunyoqarashiga sezilarli va murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, umuminsoniy qadriyatlarning tarqalishi yoshlar ongida mustahkam o‘rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar insoniyatning umumiy madaniy merosi, inson huquqlari, demokratiya, ekologik mas’uliyat va global hamkorlik kabi universal tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Ular yoshlarni global dunyo bilan uyg‘unlashishga, boshqa xalqlar va madaniyatlarni tushunishga, shuningdek, zamonaviy axborot oqimi va texnologiyalar ta’sirida sog‘lom dunyoqarashni saqlashga yordam beradi. Umuminsoniy qadriyatlar yoshlar shaxsini shakllantirishda barqaror poydevor bo‘lib xizmat qiladi va ularni axborotlashgan jamiyatda o‘z pozitsiyasini to‘g‘ri belgilashga tayyorlaydi[2].

Ikkinchidan, milliy tarixiy, madaniy va ma’naviy merosni saqlash yosh avlodni milliy o‘ziga xoslik asosida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida yoshlarning milliy ildizlariga sodiqligini ta’minlash strategik vazifa hisoblanadi. Milliy

qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ular global maydonda o‘z madaniyati, an’analari va qadriyatlarini himoya qila oladigan shaxslar sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashganda yoshlar nafaqat o‘z milliy merosini saqlaydi, balki global jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi[5].

Shu jihatdan, globallashuv sharoitida axborot xavfsizligi va ma’naviy barqarorlikni ta’minlash yoshlar tarbiyasining muhim qismiga aylanadi. Axborot oqimi tezligi, yangi texnologiyalar va madaniy yangiliklarga chanqoq yoshlar ongida global va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish jarayoni strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat va jamiyat darajasida yoshlar ma’naviyati va madaniyati, shuningdek, axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Globallashuv jarayoni insoniyat tarixida uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida uning ta’siri kuchaydi. G‘arb va Sharq madaniyati o‘rtasidagi farqlar kengaydi, axborot vositalari (telegraf, telefon, televizor) tez rivojlana boshladi. Bu yoshlar ongiga ham ta’sir ko‘rsatib, ba’zi hollarda zararli axborotlarning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

O‘tgan asrning 80–90-yillari va 2000-yillarda yoshlar orasida “Rok”, “Pop”, “Roker”, “Metalist” va “Taqirboshlar” kabi submadaniy guruhlar paydo bo‘ldi. Bu guruhlar ba’zan agressiv xulq-atvor, narkomaniya, suitsid va egoistik hayot tarzini rivojlantirishga olib keldi. Gedonizm – hayotdan maksimal lazzat olishga intilish – bu jarayonda muhim rol o‘ynadi. XXI asrda emo-submadaniyati va emogyorl kabi yoshlar guruhlari paydo bo‘ldi, ba’zan ularning xatti-harakatlari o‘z joniga qasd qilish kabi xavfli intilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi[1]. Avvalgi davrlar bilan solishtirganda, XXI asrda axborot texnologiyalari va internetning keng tarqalishi yoshlar orasidagi submadaniyatlarni yanada tez va keng ko‘lamda rivojlantirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, bu jarayon yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda: ba’zi yoshlar o‘zini ifodalashda ekstremistik, egoistik va hatto o‘z joniga qasd qilish kabi xavfli xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongiga va ma’naviyatiga axborot, texnologik va madaniy sohalardagi tezkor o‘zgarishlar sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv yoshlar orasida submadaniyatlarning shakllanishiga, ba’zan esa ekstremistik, egoistik va xavfli xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, axborot xavfsizligi va sog‘lom axborot madaniyatini shakllantirish yoshlar ma’naviyati va madaniy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarni ma’naviy va axborot madaniyati jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarur.

Takliflar:

Yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash va ularni zararli axborot oqimidan himoya qilish maqsadida ta’lim jarayonida axborot madaniyati va etikani o‘rgatish, interaktiv mashg‘ulotlar va amaliy loyihalarni joriy etish lozim.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqilib, yoshlar orasida sog‘lom axborot madaniyati va madaniy barqarorlikni shakllantirishga e’tibor qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Akbarova Sh.A. Bugungi globallashuv davrida yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoyalash // Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, hosted online from Toronto, Canada. – 2024. – 5 March. – P. 143.

Held, A., & McGrew, A. Globalization/Anti-Globalization: Beyond the Great Divide. Polity Press. 2007. – P. 304.

Mirziyoev, Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. - T.: O‘zbekiston. 2017. – 326 b.

Nazarova, M.M. Globalashuv sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik mexanizmlari // Science and Education Scientific Journal. – 2022. – Vol. 3, Iss. 4. – P. 905.

Smith, A.D. National Identity. University of Nevada Press. 1991. – P. 240.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

To‘rayeva Laylo
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80 – yillarida iqtisodiy sohada sodir bo’lgan o’zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983 – yildagi “Garvard biznes revyu“ jurnalida e’lon qilingan edi. Globallashuv jarayoni – bu bir nechta sohalaeni qamrab oladi: ijtimoiy, iqtisodiy,siyosiy jarayonlardir. Shuningdek xalqlarning etnografiyasiga ham kuchli tasir etuvchi soha ham deb o’rganiladi.

XXI asrda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborat va uning almashinuvining o’sishi bilan u madaniyat , ma’naviyat, ilm- fan sohalariga ham kirib kelmoqda.1991- yil O’zbekiston Mustaqil bo’lganidan so’ng Yurtimizda ko’zga ko’rinadigan ishlar amalga oshirildi.Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o’zgarmas bo’lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin va demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat” deb ta’kidlagan edilar.[1]

Hozirgi kunda yoshlarning ma’naviyatini oshirishda yoshlarning dunyoqarishi, bilimi, axloqi avvalombor mahalla, oila, jamoat tashkilotlari ta’lim dargohlari alohida o’rin egallaydi.

Xususa, bugungi yoshlar tarbiyasi jismonan baquvvat, aqlan sog’lom, madaniayt darajasi yuqori bo’gan, zamonaviy bilim va o’z kasbining mihir ustasi bo’lgan va kelajak avlod uchun o’rnak bo’la oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Yoshlarning ma’naviyatini oshirish, dunyoqarashi, bilimi va axloqini boyitib boradi.Yoshlar ma’naviaytini yuqori bosqichga olib chiqish bugungi kuning asosiy maqsadi va yoshlarni ona Vatan oldidagi

[1] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston. 2000. 8-jild. – B. 331.

burchi, o’z taqdiriga o’zi ma’sul ekanligi, mahalla, oila , yaqin insonlar, yoshlar hayoti uchun javobgar hisoblanadi.

XXI asr texnika taraqqiyoti davri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda axborot bugungi kunda kunda inson qalbi balki, uning ongini ham egallab olmoqda.Axborot qudratli qurolga aylanib bo’lgan.Chunki, “ Kimki axborotga ega bo’lsa u dunyoga egalik qiladi” - , degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e’tirof etilmoqda.[1]

Yoshlarda axborot madaniyatini shallantirishga, zamonaviy texnologiyalardan to’g’ri foydalanishga undaydi. Jamiyatning yuragi oila ta’lim-tariya maskani oila hisoblanadi.Vatan, milliy g’oya, ma’naviyatni yoshlar ongo va qalbiga singdirish aynan oilada yanada osonlashadi.Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi va bu jarayon yuksak ma’naviyatli bo’lishni tanlaydi[2].

Bugungi kunda yoshlarimiz turli mafkura, g’oyalardan uzoq bo’lishlari uchun yuksak ma’naviyatli kuchli fikrlash, immunitet hosil qilgan bo’lishlari kerak o’zlarida. Buning uchun yurtimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarni tarbiyalshda avvalombor bog’cha,umumta’lim, tizimi yuklatilgan.Ta’lim va tarbiya jarayonlari yuqoriga ko’tarish uchun umumta’lim tizimidagi muammolarni bartararaf etish,shuningdek o’quvchilarda malaka ko’nikmalarini shakllatirish lozim.

Ona zaminimizda qadim zamondan inson ma’naviy kamoloti,axloqiy va ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlardan foydalangan holda bugungi yoshlarimiz tafakkuriga singdirish lozim.Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda ma’naviy – axloqiy kategoriyalar, qadriyatlar tizimida yetarli bilimga ega bo’lishlari va amaliyotda foydalana olishlari lozim. Bugungi kunda yurtimizda axborot xavfsizligini ta’minlash , butunjahon Internet axborot tarmog’ida o’zbek tilidagi segmentini rivojlantirish, aholi va yoshlarning media savodxonligini oshirish,respublika global axborot makoniga sifatli integrasiyasini masalasiga alohida e’tobor berish.Yoshlarda milliy axborot tizimlariga ega bo’lish uchun milliy axborot resurslaridan samarali foydalanish va ularning sonini ko’paytirish.

Yoshlar ma’naviyatini va madaniyatini yuksaltirishda axborot sohasiga alohida e’tibor berish.Hozirgi kunda axborot xuruji ya’ni keraksiz , zararli va noto’gri ma’lumotlarning Internet olamida ko’pligi va bularning yoshlar ongiga ta’siri. Bugungi kunda ayrim yoshlarimizning milliy qadriyatlarimizni unutib boshqa xalqlarning hayot tarziga ko’r-ko’rona ergashib o’zligini unutib qo’yishi. Bunga axborot va internet olami, ijtimoy o’yinlar, qo’shtirnoq ichidagi ayrim bloggerlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’sir qiladagan chiqishlari.Bu esa yoshlarimiz ma’naviyatida bo’shliq paydo qoladi. Ma’naviyat yo’q joyda ya’ni oila, jamiyat va qadriyatlar yo’q joyda o’rniga “faqat men” - degan tushuncha foyda bo’ladi.

Globallashuvning ijobiy tomonlari ham ko’p. Yoshlar ma’naviyatini oshorishga ham xizmat qiladi. Yoshlar turli xaqlarining madaniyati, ilm- fani bilan tanishgan holda o’ziga kerakli bo’lgan ma’limotlarni olishi mumkin.Turli xalqlar bilan tanishuv yoshlar uchun

[1] Ziyovuddinova N.M., Xaitov SH.N., O’ronov Y.M. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari(o’quv qo’llanma)-T: Tafakkur -Bo _ stonil,2019.-b . 216

[2] Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024-yil 26-mart.

dunyoqarash kengayishi uchun xizmat qiladi.Firklash va muloqat qilish, zamonaviy bilimlardan foydalanish, online kurslar , ilmiy platformalar , IT , tillar bo’yicha cheksiz ma’lumotlar yoshlar ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, agar shu manbalardan to’g’ri foydalana olsa.

Shu bois hozirgi kunda Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyatini asrash, rivojlantirish va mustahkamlashda davlat siyaosatining eng muhim yo’nalishlaridan biri bo’lib qolmoqda va bunga alohida e’tibot berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T: O'zbekiston. 2000. 8-jild.

2. Ziyovuddinova N.M., Xaitov SH.N., O’ronov Y.M. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari (o’quv qo’llanma)-T: Tafakkur. 2019.

3. “Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024-yil 26-mart.

JAMIYAT BOSHQARUVIDA GENDER DISKRIMINATSIYASINING OLDINI OLISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Toshmurodov Mirolim Ismoil o‘g‘li
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktaranti

Jamiyat boshqaruvi va gender siyosati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishi va adolat tamoyillarining amalda qaror topishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy va amaliy omillar hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy rollar, mehnat taqsimoti, siyosiy ishtirok va iqtisodiy imkoniyatlar tizimi orqali shakllanadi. Shu ma’noda gender siyosati boshqaruv tizimining ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan holda yuritilishini kafolatlaydi. Gender siyosati jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal, stereotipik qarashlarni yengib o‘tish, shaxsning ijtimoiy salohiyatini jinsidan qat’i nazar namoyon etishiga imkon beruvchi ijtimoiy mexanizmdir. “Boshqaruvda ayollarning ishtiroki faqat siyosiy kvota yoki statistik ko‘rsatkich sifatida emas, balki ijtimoiy tafakkurning yangilanishi, demokratiya madaniyatining chuqurlashuvi sifatida qaralishi lozim” [1]. Bu o‘z navbatida boshqaruvda inklyuziv yondashuvni kuchaytiradi, qaror qabul qilish jarayonlarida turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlari inobatga olinadi.

Jamiyat boshqaruvida gender siyosati samarali yo‘lga qo‘yilsa, boshqaruv tizimida ijtimoiy ishonch va legitimlik darajasi ortadi. Zero, boshqaruvda tenglik tamoyili fuqarolarning o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etishiga zamin yaratadi. Aksincha, gender diskriminatsiyasi mavjud jamiyatlarda boshqaruvda muvozanat yo‘qoladi, natijada qarorlar bir tomonlama qabul qilinib, ijtimoiy adolat buziladi. Yangi O‘zbekiston sharoitida gender siyosati “inson qadri uchun” [2] tamoyilining tarkibiy

qismi sifatida qaralmoqda. Bunda jamiyat boshqaruvida ayollarning roli nafaqat siyosiy lavozimlarda, balki iqtisodiy, ma’naviy, madaniy sohalarda ham kengaymoqda. Bu jarayon ijtimoiy ongda “ayol – faqat oilaviy rol egasi” degan an’anaviy qarashlarni o‘zgartirib, shaxsning ijtimoiy faolligini yangi bosqichga olib chiqdi. Demak, jamiyat boshqaruvi va gender siyosati bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy-falsafiy tizimlardir. Ularning uyg‘unligi orqali boshqaruvda adolat, tenglik, erkinlik va inson qadr-qimmatiga hurmat tamoyillari mustahkamlanadi. Shu jihatdan, gender siyosatini boshqaruv falsafasining ajralmas qismi sifatida anglash – demokratik jamiyat qurishning muhim falsafiy asosidir.

Gender diskriminatsiyasi – bu shaxsning ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlari, huquqlari va mavqeining faqat jinsiy mansubligi asosida cheklanishi yoki kamsitilishidir. Falsafiy nuqtai nazardan, bu hodisa inson qadr-qimmati va adolat tamoyillariga zid bo‘lgan ijtimoiy ong mahsuli sifatida talqin qilinadi. U jamiyatdagi patriarxal tafakkur, stereotipik qarashlar va ijtimoiy rol taqsimotining notengligidan kelib chiqadi. Sotsiologik jihatdan esa “gender diskriminatsiyasi ijtimoiy institutlar – ta’lim, mehnat bozori, siyosat va madaniyat tizimlarida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ijtimoiy tengsizlikni mustahkamlaydi, ayollar va erkaklar o‘rtasida ijtimoiy resurslar taqsimotida nomutanosiblik keltirib chiqaradi” [3]. Shu bois, gender diskriminatsiyasini falsafiy-sotsiologik tahlil qilish ijtimoiy adolat, erkinlik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

BMT, YUNESKO va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar gender tenglikni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraydi. BMTning 1948-yilgi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da barcha insonlar jinsidan qat’i nazar teng huquqli ekani e’tirof etilgan. Keyinchalik “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi (CEDAW, 1979) konvensiya gender tenglikni global darajada huquqiy asosda mustahkamladi.

YUNESKO esa gender tenglikni ta’lim, fan, madaniyat va axborot siyosatining markaziy tamoyili sifatida ilgari suradi. U ayollar ta’limdagi ishtirokini kengaytirish, ilm-fanda yetakchi rolini kuchaytirish orqali barqaror rivojlanishga erishishni maqsad qiladi.

Yevropa Kengashi esa gender tenglikni demokratiya va inson huquqlarining asosi deb biladi. U “Gender mainstreaming” – barcha siyosiy va ijtimoiy dasturlarda gender omilini inobatga olish tamoyilini ilgari suradi. Shunday qilib, ushbu tashkilotlar gender tenglikni faqat ijtimoiy masala emas, balki global taraqqiyot, tinchlik va adolatning asosi sifatida ko‘radi.

Gender tenglik masalasi zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida dolzarb mavzulardan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezident tashabbusi bilan “Gender tenglikni ta’minlash strategiyasi”, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oilani mustahkamlash bo‘yicha milliy dastur” kabi hujjatlar qabul qilinib, ularning amaliy mexanizmlari yaratildi.

Biroq, amaliyotda gender tenglikni ta’minlash hali ham to‘liq yechim topmagan masaladir. An’anaviy ijtimoiy qarashlar, patriarxal stereotiplar, ayollarning mehnat bozori va siyosiy jarayonlarda past ishtiroki dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shu sababli gender siyosatini jamiyat boshqaruvi, ta’lim, mehnat va madaniyat tizimlariga

chuqur singdirish zarur. Bu jarayon nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, gender tenglik masalasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasining ma’naviy va ijtimoiy poydevorini tashkil etadi.

“Diskriminatsiya” va “gender tenglik” tushunchalarining ontologik va aksiologik tahlili ularning jamiyatdagi mavjudlik mohiyatini va qadriyat sifatidagi o‘rnini anglash imkonini beradi. Ontologik jihatdan “diskriminatsiya – inson mavjudligining ijtimoiy munosabatlar tizimidagi nomutanosiblik holatini ifodalaydi” [4]. Bu holatda shaxs jinsiy, irqiy yoki ijtimoiy mansubligi sababli teng imkoniyatlardan mahrum bo‘ladi, ya’ni insonning ontologik maqomi – “erkin va teng mavjudot” sifatidagi tabiiy mohiyati buziladi. Gender tenglik esa, aksincha, insonning mavjudlik mohiyatiga mos bo‘lgan adolat, erkinlik va o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Aksiologik tahlilda diskriminatsiya salbiy ijtimoiy qadriyat – tengsizlik, kamsitish, adolatsizlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Gender tenglik esa insonparvarlik, adolat va erkinlik tamoyillariga asoslangan ijobiy aksiologik qiymatdir. U shaxsning qadr-qimmatini e’tirof etish, ijtimoiy tizimda barqarorlik va uyg‘unlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bois gender tenglik qadriyatlari demokratik jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevorini tashkil etadi.

Patriarxal tafakkur va sotsiomadaniy stereotiplarning falsafiy ildizlari insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Patriarxal tafakkur — bu erkak ijtimoiy tizimning markazi bo‘lib, unda erkak shaxs ustunlikka, ayol esa ikkilamchi ijtimoiy rolga ega deb qaraladi. Bunday tafakkur shakli tarixan iqtisodiy, diniy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi orqali shakllangan. Ayniqsa, qadimiy agrar jamiyatlarda mehnat taqsimoti, mulk egaligi va naslni davom ettirish kabi amaliy omillar erkakning ustun mavqeini mustahkamladi. Shu tariqa patriarxat faqat biologik emas, balki falsafiy-ijtimoiy tuzilma sifatida qaror topdi.

Bu tizimning ildizlari Platon, Aristotel, Forobiy va boshqa qadimgi mutafakkirlarning g‘oyalarida ham ko‘rinadi. Aristotel ayolni “to‘liq aqlga ega bo‘lmagan mavjudot” [5] sifatida tasvirlaydi, bu esa ijtimoiy tafakkurda ayollarning tabiatan erkaklardan pastroq darajada ekanligi haqidagi stereotipni mustahkamlagan. Shu kabi qarashlar diniy tafakkurda ham o‘z ifodasini topdi – ko‘plab diniy matnlarda erkak “rahbar” va “himoyachi”, ayol esa “bo‘ysunuvchi” va “itoatkor” sifatida talqin qilindi.

Sotsiomadaniy stereotiplar esa patriarxal tafakkurning madaniy shakllanish jarayonidagi mahsulidir. Ular urf-odat, tilda, xalq og‘zaki ijodida, adabiyot va san’atda chuqur ildiz otgan. Masalan, ayolning “uy bekasi”, “ona”, “sokin va itoatkor” obrazlari madaniy model sifatida jamiyat ongida mustahkam o‘rnashgan. Bu stereotiplar ijtimoiy rolni jinsiy asosda belgilab, shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Falsafiy tahlilda patriarxal tafakkur ijtimoiy ierarxiya va hokimiyat munosabatlarining mahsuli sifatida qaraladi. U jamiyatda erkinlik va tenglik tamoyillarining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Sinergetik yondashuvga ko‘ra, patriarxal tizim – bu o‘zini o‘zi takrorlovchi ijtimoiy tizim bo‘lib, uni o‘zgartirish uchun ong darajasida transformatsiya zarur. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy falsafiy tafakkur patriarxal stereotiplarni dekonstruksiya qilish, ya’ni ularning ijtimoiy asoslarini tahlil

qilib, yangicha gender tafakkur modelini shakllantirishni maqsad qiladi. Demak, patriarxal tafakkur va sotsiomadaniy stereotiplar insoniyat tarixida uzoq davom etgan ijtimoiy-falsafiy jarayon mahsulidir. Ularni yengib o‘tish esa jamiyatda adolat, erkinlik va inson qadr-qimmatiga asoslangan yangi ijtimoiy ongni shakllantirishni talab etadi.

Yangi O‘zbekiston boshqaruvida gender tenglik ijtimoiy tizimning muvozanatini ta’minlovchi, adolat va barqarorlikni mustahkamlovchi falsafiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Bu jarayon inson qadr-qimmati, erkinlik va teng imkoniyatlarga asoslangan boshqaruv falsafasining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Gender tenglik faqat ayollar huquqini himoya qilish masalasi emas, balki jamiyatning intellektual va ma’naviy resurslarini to‘liq safarbar etishning sharti hisoblanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni teng bo‘lgan taqdirdagina davlat kuchli, jamiyat barqaror bo‘ladi”[6]. Ushbu fikr Yangi O‘zbekiston konsepsiyasida gender tenglikni ijtimoiy tizimning barqaror muvozanat omili sifatida anglash zaruratini ifodalaydi. Boshqaruvda ayollar ishtirokining kengayishi qaror qabul qilish jarayonlarini demokratlashtiradi, ijtimoiy manfaatlarning xilma-xilligini inobatga olish imkonini beradi. Yangi O‘zbekiston boshqaruvida gender tenglik ijtimoiy tizimning barqarorligi, hamjihatlik va ma’naviy uyg‘unlikni mustahkamlovchi poydevordir. U nafaqat siyosiy islohotlarning, balki jamiyat ongining yangilanishining ham muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, “inson qadri uchun” tamoyilining amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Zamonaviy O‘zbekiston boshqaruvida bu sinergetik yondashuv amalda namoyon bo‘lmoqda. Ayollar parlament, mahalliy kengashlar va boshqaruv organlarida faol ishtirok etayotgani ijtimoiy tizimni barqaror va muvozanatli holatni ta’minlaydi. Erkak va ayol subyektivligining sinergetik uyg‘unligi boshqaruv tizimini murakkab, ammo barqaror ijtimoiy mexanizmga aylantiradi. U insonparvarlik, adolat va ijodiy fikrlashga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantiradi, bu esa Yangi O‘zbekiston taraqqiyot falsafasining amaliy ifodasidir.

O‘zbekiston Respublikasida ayollarni boshqaruvga keng jalb etish siyosati so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimining demokratik yangilanishida muhim bosqichga aylandi. Ushbu siyosat mamlakatning gender tenglikni ta’minlash, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash yo‘lidagi strategik yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning faolligini oshirish – taraqqiyotimizning eng muhim omillaridan biridir”.

So‘nggi yillarda parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushi sezilarli darajada oshdi. 2019-yilgi Oliy Majlis saylovlari natijalariga ko‘ra, Qonunchilik palatasidagi ayollar soni **32 foizni** tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich xalqaro standartlarga mos ravishda, O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda gender tengligi bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Gender tenglik indeksi”da ham O‘zbekistonning reytingi barqaror o‘sib bormoqda.

Mahalliy kengashlarda ham ayollarning faolligi oshgan. 2024-yil holatiga ko‘ra, mahalliy kengash deputatlarining qariyb **27 foizi ayollardir**, bu 2014-yildagi ko‘rsatkichdan ikki baravar yuqori. Ayol deputatlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya,

oilaviy siyosat kabi ijtimoiy yo‘nalishlarda tashabbuskorlik ko‘rsatib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shmoqdalar. Davlat xizmatida ham ayollarning ulushi ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, davlat xizmatchilarining **29 foizdan ortig‘ini ayollar tashkil etadi**, ularning aksariyati rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, Prezident huzuridagi Xotin-qizlar va gender tenglik komissiyasi faoliyati natijasida ayollar uchun malaka oshirish, yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlari kengaytirildi.

Bu jarayon O‘zbekistonning gender siyosatini xalqaro huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishini ham ko‘rsatadi. Xususan, mamlakat CEDAW (Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Konventsiya) talablarini milliy siyosatga integratsiya qilmoqda. Bugun jamiyatimizning boshqaruvida S.Mirziyoyeva, T.Narbayeva, Z.Mahkamova, M.Axmedova, N.Egamberdiyeva, O.Musurmonova, M.Qaxxarovalar jamiyatimizni siyosiy hayotida faol ishtirok etib, gender tengligini ta’minlash, oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish, oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish, oilaviy ajrimlarni oldini olish, jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtirish kabi mas’uliyatli vazifalarni bajarib, yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda.

Gender diskriminatsiyasi – bu jamiyatda insonlarning jinsiy belgisi asosida turlicha munosabatda bo‘lish, teng imkoniyatlardan foydalanish huquqini cheklovchi ijtimoiy hodisadir. Ushbu muammoni hal etish faqat huquqiy yoki iqtisodiy mexanizmlar orqali emas, balki falsafiy asoslangan konseptual model yordamida amalga oshirilgandagina ijtimoiy tizimda barqaror natijaga erishish mumkin. Chunki diskriminatsiyaning ildizlari inson haqidagi tasavvurlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongda chuqur joylashgan.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, jamiyat boshqaruvida gender diskriminatsiyasining oldini olish, eng avvalo, inson erkinligi va tenglik tamoyillarini falsafiy jihatdan asoslashni talab etadi. Erkak va ayolning ijtimoiy subyekt sifatidagi teng maqomini tan olish boshqaruv tizimining adolat va muvozanat tamoyillariga asoslangan holda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, gender diskriminatsiyasi ijtimoiy ongda mustahkam o‘rnashgan patriarxal stereotiplardan kelib chiqadi. Shu sababli, falsafiy nuqtai nazardan bu stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish, yangi gender madaniyatini shakllantirish zarur. Bu jarayon ijtimoiy qadriyatlar tizimida tenglik va hurmat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jamiyat boshqaruvida gender muvozanatini ta’minlash sinergetik yondashuvni talab etadi. Erkak va ayol subyektivligining uyg‘un faoliyati ijtimoiy tizimda dinamik muvozanat, innovatsion fikrlash va barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois, boshqaruv tizimida gender tenglikni strategik omil sifatida ko‘rish muhim falsafiy ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, gender diskriminatsiyasini kamaytirishning ijtimoiy-falsafiy asosi – bu inson qadri, adolat va erkinlikni markazga qo‘ygan boshqaruv modeli yaratishdir. Habermas ta’kidlaganidek, ijtimoiy tizimda adolat muloqot va o‘zaro tan olish orqali vujudga keladi. Shu bois, boshqaruv jarayonlarida ayollar ovozini eshitish zaruriy falsafiy tamoyildir.

Beshinchidan, Yangi O‘zbekiston sharoitida gender tenglikni ta’minlash siyosati milliy qadriyatlar va global falsafiy g‘oyalar uyg‘unligida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon jamiyat boshqaruvida insonparvarlik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, demokratik qadriyatlar tizimining muhim falsafiy poydevorini shakllantirmoqda.

Ushbu mavzuni tadqiq qilishda asosiy e’tiborni quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz: 1. Gender adolatini boshqaruv tizimiga integratsiyalash bo‘yicha ilmiy monitoringni yo‘lga qo‘yish. Tadqiqot doirasida davlat boshqaruvi organlarida gender tenglik darajasini muntazam tahlil qiluvchi ilmiy monitoring tizimini yaratish zarur. Bu orqali rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushi, qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki hamda teng imkoniyatlarni ta’minlash mexanizmlari baholanadi.

2. Ijtimoiy ongni o‘zgartirishga qaratilgan falsafiy-ma’rifiy dasturlar ishlab chiqish. Gender diskriminatsiyasining ildizlari ongdagi patriarxal stereotiplarda mujassam. Shu sababli, tadqiqot asosida falsafiy-ma’naviy ta’sirga ega o‘quv va trening dasturlarini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimi orqali gender madaniyatini shakllantirish zarur.

3. Sinergetik yondashuv asosida boshqaruv tizimini modernizatsiyalash. Jamiyat boshqaruvida erkak va ayol subyektivligining uyg‘unlikda faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida sinergetik boshqaruv modeli taklif etilishi lozim. Bu yondashuv gender rollarining raqobat emas, balki hamkorlik va ijodiy sintez asosida kechishini falsafiy jihatdan asoslab beradi.

4. Gender tenglikni baholashning falsafiy-aksiologik mezonlarini ishlab chiqish. Tadqiqot natijalariga tayanib, jamiyat boshqaruvida gender tenglikni faqat son jihatdan emas, balki qadriyat, adolat va ijtimoiy ishonch mezonlari asosida baholash tizimini yaratish lozim. Bu boshqaruvdagi axloqiy muvozanatni falsafiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning falsafiy modelini joriy etish. Ayollar uchun yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ma’naviy motivatsiya va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish maqsadida falsafiy asoslangan tayyorgarlik modeli ishlab chiqish zarur. Bu model jamiyatda gender adolatini amalda ro‘yobga chiqarishning muhim bosqichi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Рахимова Г. Гендерный аспект: участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах. https://yuz.uz/ru/news/genderny-aspekt

Mirziyoyev Sh.M. Prezidentlik saylov oldi dasturining 9-ustuvor yo‘nalishi.

Голубев А.А. Энциклопедический словарь политологических терминов. – СПб. Издательство: Петрополис. 2013.

Радаев В.В., Шкаратан О.И. Социальная стратификация. М.: «Аспект Пресс», 1994. –С.226.

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent.: “O‘zbekiston”, – B.236.

JAMIYAT RIVOJIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING TA’SIRI VA UNING FALSAFIY TALQINI

Tulishov G‘olib Ravshanovich
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi

Kirish. Raqamli transformatsiya-korxonalarning ish faoliyatini yoki imkoniyatlarini tubdan yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish–butun dunyo bo‘ylab kompaniyalar uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda. Barcha sohalardagi rahbarlar analitik, mobillik, ijtimoiy media va aqlli o‘rnatilgan qurilmalar kabi raqamli yutuqlardan foydalanmoqdalar va mijozlar bilan munosabatlarni, ichki jarayonlarni va qiymat takliflarini o‘zgartirish uchun ERP kabi an’anaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirmoqdalar.” [1.https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1740/1796]

Raqamli transformatsiya XXI asrning eng muhim konseptual jarayonlaridan biri bo‘lib, u nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki inson ongining, ijtimoiy munosabatlarning, madaniy qadriyatlarning tubdan o‘zgarishini anglatadi. Raqamli jamiyat shakllanishi internet, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, IoT (Internet of Things) kabi innovatsiyalar asosida rivojlanmoqda. Ushbu jarayonlar jamiyatni yanada globallashgan, tezkor, shaffof va ma’lumotlarga boy muhitga aylantirmoqda. Falsafiy jihatdan qaralganda, raqamli transformatsiya insonning borliqni idrok etish usullariga, mehnat faoliyatiga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, axloqiy qadriyatlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, insonning real va virtual hayot o‘rtasidagi munosabatlari murakkablashib, yangi ijtimoiy ong shakllari paydo bo‘lmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, texnologiyalar rivoji shunchaki texnik masala emas, balki inson hayot tarzini o‘zgartiruvchi falsafiy-ijtimoiy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar sharhi (Review of Literature) Raqamli transformatsiya masalasida G. Simondon, M. Kastels, N. Bostrom, J. Habermas kabi olimlar jamiyatning texnologiyalar ta’siridagi evolyutsiyasi haqida turli yondashuvlarni ilgari surgan. Kastelsning “Axborotlashgan jamiyat” konsepsiyasiga ko‘ra, axborot global iqtisodiyotning asosiy manbai bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar tarmoq (network society) modeli asosida shakllanadi. N. Bostrom esa texnologiyalar insoniyat uchun imkoniyat yaratishi bilan birga, xavfli oqibatlar ham tug‘dirishini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya bo‘yicha ilmiy izlanishlar asosan iqtisodiy va texnologik sohalarga qaratilgan bo‘lsa-da, falsafiy tahlilga oid ishlar so‘nggi yillarda faollashdi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va mehnat sohalarida raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Adabiyotlarda raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlari – yuksalish, samaradorlik, shaffoflik, kommunikativ imkoniyatlarning kengayishi – batafsil yoritilgan bo‘lsa-da, virtual haqiqatga qaramlik, ma’lumotlar xavfsizligi, ijtimoiy tenglikning buzilishi kabi salbiy jihatlar ham alohida o‘rin tutadi.

Metodologiya (Methods) Maqolamizda quyidagi usullardan foydalanildi. Falsafiy-analitik yondashuv va raqamli transformatsiyaning mohiyatini, inson ongiga ta’sirini, ehtiyojlar va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni falsafiy jihatdan tahlil qilish uchun qo‘llanildi. Raqamli texnologiyalarning jamiyatning turli qatlamlariga ta’siri ijtimoiy jarayonlar kontekstida o‘rganildi. Taqqoslama tahlil orqali an’anaviy va raqamli jamiyat o‘rtasidagi farqlar hamda ularning rivojlanish mexanizmlari solishtirildi.

Natijalar (Results) Raqamli transformatsiya falsafiy kategoriya sifatida raqamli transformatsiya quyidagi falsafiy mazmunga ega ekanini ko‘rib o’tganimizda esa ontologik nuqtai nazar orqali virtual haqiqat yangi “raqamli borliq”ni yaratadi degan xulosa olishimiz mumkin bo‘ladi. Bugungi jamiyatimizda insonning mavjudligi endilikda ikki olam-real va raqamli o‘rtasida kechmoqda. Gnoseologik nuqtai nazar bilan tahlil qilsak, bilim olish jarayoni algoritmlar, sun’iy intellekt, tarmoq tizimlari orqali tezlashmoqda.

Aksiologik nuqtai nazar orqali tahlil qilsak qiymatlar transformatsiyasi, raqamli etika, shaxs erkinligi va ma’lumot suvereniteti masalalari kuchaymoqda. Raqamli transformatsiyaning mehnat va ijodkorlikka ta’siri bevosita sun’iy intellekt va avtomatlashtirish mehnatning an’anaviy shakllarini qisqartirmoqda. Ijodiy sohalarda yangi imkoniyatlar raqamli dizayn, media-art, kontent yaratuvchanligi kengaymoqda. Masofaviy ish va gibrid mehnat modeli jamiyatda yangi kasbiy madaniyatni shakllantirmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda o‘zgarishlarga virtual kommunikatsiya real ijtimoiy aloqalarni qisqartirmoqda. Bu esa onlayn identiklik va “raqamli men” tushunchasi shakllandi. Jamiyatda “raqamli tengsizlik” muammosi kuchayib, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari turlicha bo‘lib qolmoqda.

Axborot xavfsizligi va etika masalalariga oid nuqtaiynazar orqali shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liq xavf-xatarlar ortib bormoqda. Bu esa katta ma’lumotlar tahlili orqali inson xatti-harakatlarini boshqarish yoki manipulyatsiya qilish ehtimoli kuchaydi. Raqamli transformatsiyaning ijobiy natijalari esa davlat boshqaruvida shaffoflik oshmoqda. Ta’limning sifat ko‘rsatkichlari o‘smokda. Innovatsion iqtisodiyot shakllanmoqda.

Muhokama (Discussion) tadqiqot raqamli transformatsiyaning jamiyat rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatdi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshiradi, bilim olishni tezlashtiradi, iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini yaratadi. Boshqa tomondan esa, insonning texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanishi, ma’lumotlar xavfsizligi xatarlarining kuchayishi, ijtimoiy munosabatlarning sovuqlashishi kabi muammolar ham mavjud. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiyani faqat texnologik jarayon sifatida qabul qilish noto‘g‘ri. U jamiyatning qadriyat tizimini o‘zgartiruvchi chuqur ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonini boshqarishda falsafiy, axloqiy, ijtimoiy omillarni ham inobatga olish zarur.

Xulosa Raqamli transformatsiyaning zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, uning falsafiy talqini inson faoliyati, mehnat, madaniyat, axborot ekotizimlari va jamiyatning tuzilishiga ta’sirini chuqur anglash imkonini beradi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar progressning asosiy drayveri bo‘lsada, ularni

boshqarish va rivojlantirishda humanistik yondashuv, axloqiy tamoyillar va shaxs manfaatlarini himoya qilish ustuvor bo‘lishi kerak. Raqamli transformatsiyaning barqaror va adolatli rivoji falsafiy refleksiya bilan uyg‘unlashganda, jamiyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Castells, M. The Rise of the Network Society. Blackwell Publishers, 2010.

Bostrom, N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press, 2014.

Simondon, G. On the Mode of Existence of Technical Objects. Univocal Publishing, 2016.

Toffler, A. The Third Wave. Bantam Books, 1980.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Beacon Press, 1984.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. Raqamlashtirish siyosati bo‘yicha hujjatlar to‘plami.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI FE’L FRAZEMALARIDA MA’NAVIY VA MADANIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jadallashuvi til tizimiga, xususan, uning leksik-semantik qatlamiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Til jamiyat ma’naviy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy mentaliteti hamda axloqiy-ruhiy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan barqaror til birliklari, jumladan, fe’l frazemalari jamiyat ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalardan biri hisoblanadi.

Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji va media makonining kengayishi natijasida til birliklarining qo‘llanish doirasi hamda semantik mazmunida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida faol qo‘llanilayotgan frazemalar soddalashuvi, ularning ma’nosining torayishi yoki aksincha, yangi pragmatik funksiyalar bilan boyishi kuzatilmoqda. Bu holat yoshlar ma’naviyati, axloqiy me’yorlar va milliy qadriyatlarning til orqali uzatilishida muhim masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Fe’l frazemalari harakat, holat va munosabatlarni ifodalovchi barqaror birikmalar sifatida xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini til vositasida namoyon etadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalarini qiyosiy o‘rganish har ikki xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki ta’lim tizimi, tarjima amaliyoti hamda ma’naviy-tarbiyaviy jarayonlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalarining semantik, lingvomadaniy va aksialogik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning leksik boyligini tashkil etuvchi muhim qatlamlardan biri sifatida qaraladi. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, madaniy an’analari hamda ijtimoiy munosabatlarini til orqali ifodalovchi barqaror tuzilmalar hisoblanadi. Tilshunos olim V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni “ma’nosi tarkibiy qismlarining yig‘indisidan kelib chiqmaydigan, barqaror va ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan birliklar” sifatida ta’riflaydi (Vinogradov, 1986). Ushbu ta’rif fe’l frazemalarining semantik yaxlitligini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fe’l frazemalari frazeologik birliklarning alohida turi bo‘lib, ular asosan harakat, holat yoki jarayonni ifodalovchi fe’l komponenti asosida shakllanadi. Bunday birliklar nutqda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish, baholovchi munosabatni ifodalash hamda ma’naviy-axloqiy tushunchalarni obrazli tarzda yetkazish vazifasini bajaradi. Masalan, o‘zbek tilidagi ko‘z yumoq, qo‘l urmoq, yuragi orqaga tortmoq kabi fe’l frazemalari insonning ichki kechinmalari va axloqiy holatini ifodalaydi.

Ingliz tilshunosligida fe’l frazemalari, ayniqsa phrasal verbs doirasida keng o‘rganilgan. A.V. Kunin fe’l frazemalarini “til tizimida barqarorlik va qayta ishlab bo‘lmaslik xususiyatiga ega bo‘lgan semantik jihatdan yaxlit birliklar” sifatida talqin qiladi (Kunin, 1996). Ingliz tilidagi give up, stand by, look down on kabi fe’l frazemalari ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy pozitsiya va axloqiy bahoni ifodalashda faol qo‘llaniladi.

Fe’l frazemalarining muhim xususiyatlaridan biri ularning lingvomadaniy mazmunga egaligidir. Har bir fe’l frazemasi muayyan xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy madaniyatning til orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida qaraladi. Shu bois, fe’l frazemalarini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida fe’l frazemalarining qo‘llanish doirasi kengayib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarida ayrim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, media makon va raqamli kommunikatsiya jarayonida fe’l frazemalarining qisqartirilishi, soddalashtirilishi yoki yangi ma’nolarda ishlatilishi til taraqqiyotining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bu holat fe’l frazemalarini zamonaviy lingvomadaniy va aksialogik nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalar bo‘lib, bu bog‘liqlik ayniqsa frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Fe’l frazemalari xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini til vositasida ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Shu bois, ularni qiyosiy o‘rganish turli xalqlarning mentaliteti va qadriyatlar tizimini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilidagi fe’l frazemalarida jamoaviylik, kattaga hurmat, sabr-toqat va or-nomus kabi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, or-nomusini saqlamoq, yuzini yorug‘ qilmoq, ko‘ngliga ozor bermoq kabi fe’l frazemalari milliy ma’naviyatning

asosiy tushunchalarini ifodalaydi. Bu birliklar o‘zbek jamiyatida axloqiy me’yorlarning til orqali mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tilshunos Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, “frazeologik birliklar xalqning milliy tafakkuri va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan til birliklaridir” (Rahmatullayev, 2018).

Ingliz tilidagi fe’l frazemalarida esa shaxsiy mas’uliyat, individual erkinlik va ijtimoiy faollik kabi qadriyatlar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Stand up for, take responsibility, give in kabi fe’l frazemalari shaxsning jamiyatdagi o‘rni, qarori va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilshunosligida bunday birliklar jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini aks ettiruvchi vositalar sifatida baholanadi.

Fe’l frazemalarining aksialogik (qadriyatga oid) tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda ular ma’naviy baholash funksiyasini bajaradi. Ya’ni, fe’l frazemalari orqali ijobiy yoki salbiy munosabat, axloqiy norma va ijtimoiy qadriyatlar ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi look down on frazemasi salbiy baholashni bildirsa, o‘zbek tilidagi yuksak baho bermoq ijobiy aksialogik ma’noga ega.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalari umumiy semantik funksiyaga ega bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy mazmuni milliy xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu farqlar yoshlar ma’naviyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim tizimida til birliklarini madaniy kontekstda o‘rgatish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va media makonining kengayishi til birliklarining, xususan, fe’l frazemalarining qo‘llanish doirasi va semantik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali tarqalayotgan matnlar fe’l frazemalarining yangicha ma’nolarda qo‘llanishiga, ularning funksional imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

Media diskursida fe’l frazemalari ko‘pincha soddalashtirilgan, qisqartirilgan yoki kontekstga mos ravishda semantik jihatdan qayta talqin qilingan holda ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi give up yoki move on kabi fe’l frazemalari ijtimoiy tarmoqlarda motivatsion mazmunda, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faollikni targ‘ib etuvchi vosita sifatida qo‘llanilmoqda. “Ingliz tilida fe’lning uchta asosiy shakli mavjud: **infinitiv (Infinitive)**, **o‘tgan zamon shakli (Simple Past)** va **o‘tgan zamon sifatdosh shakli (Past Participle)**. Ular zamonaviy barcha fe’l shakllarini hosil qilish uchun ishlatiladi.”[1] O‘zbek tilida esa oldinga qadam tashlamoq, qo‘l urmoq kabi birliklar zamonaviy media matnlarida yangicha pragmatik ma’nolar kasb etmoqda.

Bu jarayon yoshlar nutqida fe’l frazemalarining faol qo‘llanilishiga olib kelmoqda. Yoshlar orasida media orqali ommalashgan frazemalar tezda kundalik nutqqa singib, tilning rivojlanish dinamikasini belgilab bermoqda. Biroq, ayrim holatlarda frazemalarning asl lingvomadaniy mazmuni yo‘qolib, ularning ma’nosi yuzaki yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi kuzatiladi. Bu esa yoshlar ma’naviyati va axloqiy qadriyatlarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

[1] Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi “Classification of verbs”, Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. (May 2022), pages: 162–163.

Shu nuqtai nazardan, fe’l frazemalarining media makondagi transformatsiyasini o‘rganish ma’naviy xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilshunos D. Crystal ta’kidlaganidek, “raqamli muhit tilning nafaqat shakliga, balki uning mazmuniy qatlamiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi” (Crystal, 2011). Bu fikr fe’l frazemalarining zamonaviy kommunikatsiya jarayonida o‘zgarib borishini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish, fe’l frazemalarining to‘g‘ri va madaniy kontekstda qo‘llanishini o‘rgatish yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish jarayonida fe’l frazemalarining lingvomadaniy mazmunini tushuntirish yoshlarning fuqarolik identiteti va ijtimoiy faolligini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalari semantik, lingvomadaniy va aksialogik jihatdan turlicha bo‘lsa-da, ularning asosiy vazifasi bir xil: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni ifodalash, shaxsiy va jamoaviy munosabatlarni belgilashdir. O‘zbek tilidagi frazemalar ko‘proq milliy madaniyat, jamoaviylik va axloqiy qadriyatlarni aks ettirsa, ingliz tilidagi frazemalar individual mas’uliyat, fuqarolik faolligi va shaxsiy erkinlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar va media makonining kengayishi frazemalarning semantik transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu esa, ayniqsa, yoshlar nutqida frazemalarning yangicha ishlatilishiga, ba’zan esa ularning asl madaniy-ma’naviy mazmuni yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, fe’l frazemalarining lingvomadaniy va aksialogik xususiyatlarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri va kontekstga mos o‘rgatish yoshlar ma’naviyati va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Natijada, o‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalarining qiyosiy tahlili nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim, madaniyat va ma’naviy tarbiya sohalari uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlangan lingvomadaniy va aksialogik xususiyatlar, shuningdek, media makondagi frazemalarning o‘zgarishi yoshlar ongini shakllantirish va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy resurs hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Виноградов В.В. Русская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1986. – 240 с.

Кунин А.В. English Phraseology. – Moscow: Higher School, 1996. – 312 p.

Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2018. – 400 б.

Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 256 p.

Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi “Classification of verbs”, Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. (May 2022), pages: 162–163.

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA MIGRATSION JARAYONLARNING AXLOQIY MUAMMOLARI

Turopov Y.Sh.
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Migratsiya insoniyat ijtimoiy hayotining eng muhim muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat odamlarning oddiy mexanik harakati, balki jamiyat hayotining ko‘plab jabhalariga ta’sir qiluvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Migratsiya insoniyat tarixida muhim rol o‘ynadi.Bu aholining yangi yerlarga joylashishi, yerlarning xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirilishi, iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, irqlar, tillar va xalqlarning ta’lim olishi va aralashish jarayonlari bilan bog‘liq.

XX asr davomida migratsiya oqimlarining intensiv kengayishi kuzatildi va XXI-asrning boshlarida migratsiya hodisasi barcha global o‘zgarishlarning tarkibiy omiliga aylandi. Darhaqiqat, globallashuvning o‘zi bu jarayonni sezilarli darajada kuchaytirdi. Bu esa migratsiya jarayonlarini tartibga solishda ishtirok etuvchi xalqaro sub’ektlar manfaatlari muvozanatiga erishish va saqlashga yordam beradigan migratsiya siyosatiga yangi yondashuvlarni talab qildi.

Hozirgi zamonda globallashuv tufayli aholi migratsiyasi jarayonlari tobora jadallashib, yangicha mohiyat kasb etmoqda. Mazkur fenomenning ta’sirida global axloqiy muhitning transformasiyaga uchrashi, migrantlarning umumbashariy axloqiy qadriyatlar, norma va prinsiplarni o‘zlashtirishi hamda resipient jamiyat axloqiy muhitiga moslashuvidagi qiyinchiliklar, immigrant jamiyatda muhojirlarga nisbatan beqaror, bag‘rikeng bo‘lmagan munosabatning shakllanishi, migrantlarning odam savdosi, turli aqidaparast va ekstremistik guruhlar, “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’sirlariga tushib qolishi, ularning individualizm, kosmopolitizm, nigilizm kabi zararli illatlarning tashuvchisi bo‘lib qolayotganligi kabi axloqiy muammolarga yechim topish zaruratga aylanib bormoqda.

Davlatimizning tashqi migrasion siyosatida muhojir sifatida chet elda yurgan yurtdoshlarimizning har qanday vaziyatda ham O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligini hisobga olgan holda, migrantlarga har tomonlama ko‘mak berish, boshqa davlatlardagi o‘zbek diasporalari bilan samarali hamkorlik qilish, xorijdagi vatandoshlarimizning madaniy, estetik, axloqiy ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalarga davlatning fuqarolar oldidagi axloqiy majburiyati sifatida yondashilmoqda. Mamlakatimizning migratsiyaga oid siyosatida o‘ziga xos strategiya ishlab chiqilgan bo‘lib, “bu borada taqdim etilayotgan strategiya asosida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ular qaerda ekanliklaridan qat'iy nazar, ishonchli himoyasini ta'minlash masalasi turibdi” [1]. Bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan va davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun migratsiya (lot. migratio –bir joydan boshqa joyga ko‘chishi) aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi, yoki ko‘chirish [2], degan ma'nolarda ishlatiladi.

Aholi migratsiyasi (lotincha “migration” – ko‘chish) – bu aholining o‘z yashash joyini o‘zgartirishi, insonlarning har qanday hududiy harakati, bir geografik hududdan boshqa hududga ko‘chishi hisoblanadi[3]. Ushbu fenomen murakkab mazmunga ega bo‘lib, o‘zida turli darajadagi insonlarning barcha shakldagi harakatlarini birlashtiradi. O‘z navbatida aholi migratsiyasini jamiyat hayotidagi boshqa turdagi faoliyat shakllaridan (masalan, sotsial harakatdan) farqlash zaruriyati ham mavjud. Umuman olib qaraganda, kishilarning mamlakat ichida yoki tashqarisida yashash joyini geografik nuqtai nazardan har qanday shaklda o‘zgartirishi, muddatidan (doimiy, uzoq muddatli, mavsumiy yoki qisqa muddatli) va maqsadidan (doimiy yashash, o‘qish, ishlash, davolanish, sayohat qilish va boshqalar) qatiy nazar aholi migratsiyasining ko‘rinishi hisoblanadi.

Migratsiya jarayoni yer yuzining barcha hududlarida uchraydigan, qadimiy va murakkab ijtimoiy munosabat turi hisoblanadi. Migratsiya jarayoni doimo mintaqalar, mamlakatlar, hududiy birliklar chegaralariga, demografiyasi, aholi ma’lumoti, yoshi va boshqa toifalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Mazkur sohada tadqiqot olib borgan O.D.Vorobyovaning tahlillariga ko‘ra – “migratsiya bu aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o‘zgartirishi bo‘lib, har qanday hududiy ko‘chib o‘tish ijobiy yoki salbiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladi”[4] . Ya’ni, inson o‘z tug‘ilib o‘sgan, doimiy yashash joyini, qarindoshlari va tanishlarini shunchaki tashlab boshqa hududga ketmaydi. Shaxs hayotida sodir bo‘ladigan turli ob’ektiv va sub’ektiv sabablar migratsiyaga olib keladi. Shu sababdan migratsiyaning kuchayishi bu insoniyatning asosiy muammolaridan biri sanalib, bu shunchaki aholining oddiy mexanik harakati emas. Migratsiya tabiiy-ijtimoiy muammolar natijasida paydo bo‘ladigan va boshqa ijobiy yoki salbiy oqibatlar bilan baholanadigan murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Hozirda dunyoni tashvishga solayotgan migratsiya muammosining ayanchli oqibatlarga sabab bo‘layotgani hech birimiz uchun sir emasligini ta’kidlash joiz. Yuqorida ta’kidlanganidek, migratsiya o‘ziga xos murakkab va ziddiyatlarga boy bo‘lgan jarayondir. Mazkur hodisa kuzatuvchi va qabul qiluvchi davlatlarning har ikkisi uchun bir qator ijobiy jihatlar bilan birgalikda ko‘psonli muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Davlat aholisining nechog‘li migrasion jarayonlarga jalb etilganligi, uning oqibatlarining chuqurlashuvida aks etadi. Masalan, migratsiya natijasida muayyan oilaning moddiy ahvoli yaxshilanadi, ammo ota-onalardan biri yoki har ikkisining ishtirokisiz oilani saqlab qolish va farzandlar tarbiyasini to‘laqonli tashkil etish imkoni kamayadi. Migratsiya muammosining o‘ziga xosligi shundaki, u jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab oladi va o‘zining keng qamrovli ta’sirini namoyon etadi. Shunga ko‘ra, mavjud muammoning kelib chiqishi va uni hal etish borasidagi yondashuvlardan hech birini universal deb bo‘lmaydi. Bu boradagi optimal yo‘l mavjud yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanishni talab etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti bergan ma'lumotga ko‘ra, 1970 yildan 2019 yilgacha migrantlar soni sayyora aholisining 2,3 foizidan 3,5 foizigacha oshib, 84 mln.dan 271 mln.ga yetgan[5]. 1990 yilda Yer yuzidagi har 35 kishidan bittasi muhojir bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 29 nafarga bir migrantga to‘g‘ri kelmoqda. Agarda butun dunyodagi migrantlarni bir hududga yig‘ib, yagona davlatga birlashtirish imkoniyati bo‘lganida edi, ushbu davlat 2019 yil yakuniga ko‘ra aholi soni bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSh,

Indoneziyadan keyin beshinchi o‘rinni egallagan bo‘lardi[6]. Hattoki migrantlar hayoliy davlati aholisining soni bo‘yicha tez orada Indoneziyadan o‘tib ketishini ham taxmin qilish mumkin bo‘lar edi. Bu raqamlar migratsiyaning yanada globallashib, ko‘lami ortib borayotganligidan dalolat berib turibdi. Ko‘lamning keskin ortib borishi esa migratsiyaning zamonaviy tendensiyalari shakllanishi olib keldi.Global iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi bilan global migrasion jarayonlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Aholi migratsiya bugungi kunga kelib bir qator axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu muammolar oqibatida global va mintaqaviy darajada axloqiy muhitning transformasiyasiga olib keladi. Bunday axloqiy muammolar qatoriga rivojlanayotgan davlatlardan intellektual qobiliyatli insonlarning rivojlangan mamlakatlarga ommaviy ravishda ko‘chishi, turli omillar tufayli majburiy migratsiyaning yuzaga kelishi, nolegal migratsiyaning oshib borishi, xalqaro jinoyatchilarning, xususan jangarilarining migratsiyasi, odam savdosi kabilar kiritish mumkin. Ularning barchasi u yoki bu shaklda migratsiyaning namoyon bo‘lishi hisoblanadi.Migratsiya fenomenining axloqqa ta’siri jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar tizimida namoyon bo‘lmoqda.

Migratsion jarayonlarning transchegaraviy xarakteri oqibatida turli konkret jamiyatlardagi axloqiy munosabatlardagi anomal holatlarni, shaxslar va submadaniyatlar axloqidagi degradasiyaning mexanik qorishuvni ko‘rishimiz mumkin.

Aholi migratsiyasi fenomeni global axloqiy muhitning transformasiyasiga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Mazkur omil migratsiyaning axloqiy muhitga ta’siri bir biri bilan izchil bog‘liq bo‘lgan quyidagi uch jihatga ega:

1) migratsiyaning immigrant mamlakatlar yoki jamiyatlar axloqiy muhitiga ta’siri, davlatlarning immigratsion siyosatining axloqiy mohiyati;

2) aholi migratsiyasining emigrant davlat yoki jamiyat axloqiy muhitiga ta’siri hamda ushbu ta’sirning ijobiy va salbiy jihatlari;

3) migratsiya jarayonining muhojirlar, muhojirlar jamoasi, diasporasining hayotiga, ularning axloqiy qiyofasiga ta’siri, migrantlar jamoasining axloqiy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar.

Migratsiyaning bu xususiyatiga mos ravishda ushbu jarayonning barcha axloqiy normalari, tamoyillari, ideallari, qoidalarini o‘zida jamlagan migratsiya axloqi ham doimiy ravishda turli omillar, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar ta’sirida transformasiyaga uchrab boradi.

Migrantlarning ijtimoiy muhitga adaptasiyasida marginallashuv, traybalizm, stigmatizm, ksenofobiya (migrantofobiya), diskriminasiya, rasizm, hatto ekstremistik zo‘ravonlik kabi ijtimoiy axloqiy muammolar vujudga kelishi mumkin. Ushbu muammolar og‘ir axloqiy oqibatlarga olib kelib, adaptasiyani migrantlar uchun og‘riqli, murakkab, xavfli jarayonga aylantiradi.

Demak, migratsiya emigrant mamlakatning axloqiy muhitiga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir qiladi. Odatda, migratsiyaning emigrant davlat va jamiyat axloqiy muhitiga ta’sirini bag‘rikenglik axloqi, fikrlar xilma-xilligining qaror topishi bilan bog‘liq ijobiy va mavjud axloqiy qadriyatlar tizimining yemirilishi bilan aloqador salbiy ma’noda tushunish mumkin. “Ommaviy madaniyat”ning tarqalishi, axloqqa zid illatlarning

ommalashuvi, axloqiy muhitga migratsiyaning salbiy ta’sirining oldini olish uchun migrantlarda milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga asoslangan “ma’naviy immunitet” mavjud bo‘lishi talab qilinadi.

O‘zbekistonda aholi migratsiyasining ijtimoiy axloqiy muhit, axloqiy qadriyatlar tizimidagi transformasion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatayotganligini jamiyatimiz hayotida turli ko‘rinishdagi g‘ayriaxloqiy, zararli tahdidlarning paydo bo‘layotganligi, “ommaviy madaniyat”ning milliy axloqiy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ko‘rinishlarining kirib kelayotganligi, oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlar, oilaning milliy axloqiy qiyofasi, uning muqaddasligiga munosabat o‘zgarayotganligi kabi jarayonlarda kuzatishimiz mumkin. Ikkinchi tomondan olib qaraganda esa, aholining boshqa davlatga, begona axloqiy muhitga ko‘chishiga o‘zi yashayotgan jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar tizimida mavjud bo‘lgan muammolar, o‘zgarishlar sabab bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, aholi migratsiyasi tarixan insoniyat populyasiyasining zaruriy sharti bo‘lgan bo‘lib, u globallashuv davrida ko‘p qirrali global mohiyat kasb etmoqda. Aholi migratsiyasi jarayoni migratsiya axloqi va migratsion siyosatning ta’sirlashuvini taqozo etadi. Bu o‘z navbatida migrantlarda milliy o‘zlikni va tarixiy xotira, ma’naviy tarbiya va mafkuraviy immunitet, intellektual salohiyat va vatanparvarlik tuyg‘ularini bugungi zamon ruhiga mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 446.

2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 589-bet.

3.Богомолова Ю.А., Острецова А.В.. Миграционные тенденции населения Российской Федерации // Инновационная наука. – М., 2016. – no. 1-1 (13). – С. 151-153.

4. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. - №9 (202). –С. 32.

5. World Migration Report 2018 (https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2018_en.pdf) International Organization for Migration. – P. 15.

6. Allahyarova T. The decline of liberal political philosophy as one of the reasons of crisis of migration and multiculturalism in western society // Philosophy and life. – Tashkent, 2018. – № 1/2 (1). – P. 13.

MUZEYLARDA ESTETIK VA MA’NAVIY IDROKNING SHAKLLANISHI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
Alfraganus universiteti professor v.b., f.f.d. (DSc)

Bugungi kunda globallashuv, raqamli texnologiyalar va tezkor axborot oqimi insonlarning madaniy va estetik tajribalarini o‘zgartirib yubormoqda. Bu sharoitda an’anaviy madaniyat maskanlar xususan, muzeylar o‘z dolzarbligini saqlab qolish va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashish zaruratiga duch kelmoqda. Muzeylar tarix, madaniyat va san’at xotirasini saqlash bilan birga, yangi avlod uchun estetik, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi faol makon sifatida xizmat qilmoqda. Ammo muzeylarning dolzarbligi bir qator muammolar bilan ham bog‘liq bo‘lib, ularning auditoriya bilan o‘zaro aloqasi zaiflashishi, raqamli raqobatga dosh berish ehtiyoji, estetik va ma’naviy tajribani yetarlicha zamonaviy shaklda yetkazish zarurati shular jumlasidandir.

Shu sababli, bugungi kunda muzeylarning faqat eksponat saqlovchi emas, balki ijtimoiy, estetik va ma’naviy rivojlanishga faol ta’sir ko‘rsatuvchi dinamik institutga aylanishi masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu ma’noda, ushbu maqolada muzeylarning hozirgi kundagi ahamiyati va dolzarbligi hamda ularning duch kelayotgan asosiy muammolari tahlil qilinadi.

Muzeylar boshqa ko‘plab san’at shakllaridan farqli o‘laroq, daromad olishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar. Teatr, kino, musiqiy konsertlar yoki moda ko‘rgazmalari kabi san’at sohalari odatda aniq tijorat modeliga ega, ular chipta sotish, homiylik, reklamalar yoki mahsulot brendi orqali muntazam va tez aylanadigan moliyaviy oqimga ega. [1.]

Muzeylarning asosiy faoliyati esa ma’rifat va estetik tarbiyani targ‘ib qilishga qaratilgani uchun ular iqtisodiy daromad olishni maqsad qilmaydi. Ularning asosiy vazifasi tarixiy, madaniy va estetik merosni saqlash, namoyish etish va uni ilmiy-tarixiy asosda tushuntirishdir. Bu esa ko‘pincha keng ommani jalb qilish, daromad keltiruvchi shov-shuvli yoki ko‘ngilochar faoliyatlarni cheklashni talab qiladi. Bundan tashqari, muzey kolleksiyalari ko‘pincha juda nozik va qimmatbaho bo‘lgani uchun ularni tijorat maqsadida foydalanish imkoniyatlari cheklangan, artefaktlar va san’at asarlarini ko‘chirish, namoyish qilish yoki interaktiv shaklda ommalashtirish katta ehtiyotkorlik va ko‘p mablag‘ talab qiladi.

Yana bir muhim omil zamonaviy auditoriyaning istaklari va kutganlari ham o‘zgarib bormoqda. Internet va raqamli madaniyat sharoitida odamlar tezkor, interaktiv va oson hazm bo‘ladigan kontentni afzal ko‘radilar, bu esa an’anaviy muzey tajribasini tijorat darajasida raqobatbardosh qilishni yanada murakkablashtiradi. Shu sababli, muzeylar daromad olish yo‘llarini izlar ekanlar, o‘zlarining asosiy maqsadlari ma’rifat, madaniyat va tarixni saqlash tamoyillaridan voz kechmaslik uchun doimiy ravishda muvozanat topishga majburdirlar.

Muzeylar nafaqat o‘tmish eksponatlarini saqlovchi joy, balki insonning estetik sezgi va ma’naviy tafakkurini uyg‘otuvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy-madaniy makonlardir.[2]

Ular insoniyat tarixining turli bosqichlarida yaratilgan madaniy, san’at va ilmiy merosni o‘zida jamlagan holda, har bir tashrif buyuruvchini o‘z shaxsiy va umumiy xotirasi bilan yuzlashtiradi. Muzeylarda qadimgi artefaktlardan tortib zamonaviy san’at asarlarigacha bo‘lgan turli ko‘rgazmalar insonni nafaqat o‘tmishni idrok etishga, balki o‘z estetik dunyoqarashini rivojlantirishga, san’at va madaniyat olamida yangi ma’nolar kashf etishga undaydi.

Muzey tajribasi insonni o‘z o‘tmishi, qadriyatlari va mavjud estetik me’yorlar bilan ruhiy muloqotga chorlaydi. Har bir eksponat, har bir kompozitsiya va ekspozitsiya zamirida nafaqat tarixiy voqelik, balki estetik tafakkur va ma’naviy izlanish mujassamdir. Bu muloqot inson qalbida o‘tgan avlodlarning ruhiy olamiga hurmat, zamonaviy qadriyatlarni chuqurroq anglash va kelajak uchun ma’naviy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi. Natijada, muzey tajribasi orqali shaxsda ongli estetik va ma’naviy idrok shakllanadi, u nafaqat ko‘rganini ko‘rish, balki his qilish, tushunish, baholash va o‘zining ichki dunyosi bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu ma’noda muzeylar faqat tarixni eslatadigan joylar emas, balki har bir insonning estetik va ma’naviy shakllanish yo‘lida muhim rol o‘ynovchi tirik va faol madaniy makonlardir. [3]

Muzeylarga tashrif buyuruvchi tomoshabin ko‘pincha ma’naviy va estetik idrokni to‘liq shakllantirishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Asosiy muammo shundaki, ko‘plab eksponatlar va ko‘rgazmalar o‘zining tarixiy, madaniy va estetik kontekstidan ajralgan holda namoyish etiladi yoki tomoshabinga yetarli darajada tushuntirib berilmaydi. Bu holat tomoshabinning eksponatni anglash va uni ma’naviy jihatdan qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Muzeyga tashrif buyuruvchi shaxs, agar zarur tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, ko‘rgazmadagi obyektlar va ularning ma’nolari o‘rtasidagi murakkab aloqalarni anglashda qiyinchilik sezadi. Tarixiy tafsilotlar, estetik uslublar, san’at asarining yaratilish shart-sharoitlari va u bilan bog‘liq madaniy ma’nolar ko‘pincha chuqur bilim va tahlil talab qiladi. Mazkur bilimlarning yetishmasligi natijasida tomoshabin eksponatlarni shunchaki yuzaki ko‘zdan kechirish bilan kifoyalanadi, ammo ularning chuqur estetik va ma’naviy qatlamlariga kira olmaydi [3].

Bundan tashqari, ko‘plab muzeylarda ko‘rgazma dizaynining interaktivlik va emotsional jalb etish darajasi past bo‘lishi ham tomoshabinning faol ishtirokini cheklab qo‘yadi. An’anaviy va rasmiy ekspozitsiya shakllari zamonaviy tomoshabinning faol, dinamik va individual izlanishga asoslangan qabul qilish uslublariga har doim ham mos kelmaydi. Natijada, muzey tashrifidan kutilayotgan estetik zavq va ma’naviy tajriba yetarli darajada shakllanmaydi. Shu boisdan zamonaviy muzeyshunoslik tomoshabinning tajribasini boyitish uchun innovatsion taqdimot shakllari, interaktiv ekspozitsiyalar va madaniy-ma’rifiy dasturlarni keng qo‘llash zaruriyatini ta’kidlaydi. Zero, muzey faqat eksponatlarni saqlash va namoyish qilish makoni emas, balki tomoshabinning estetik sezgisini uyg‘otish va ma’naviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faol madaniy maydon bo‘lishi kerak, deb bilamiz.

Muzeylar estetik tajribalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular san’at va madaniyatni namoyish etish orqali tomoshabinlarning his-tuyg‘ulari, tafakkurlari va

estetik idroklari bilan bevosita bog‘lanadi.[4] Quyida muzeylarning estetik tajribalarni shakllantirishdagi asosiy jihatlari keltirilgan:

Birinchidan, san’at asarlari orqali estetik sezgini uyg‘otish, muzeylar san’at asarlari, skulpturali kompozitsiyalar, arxitektura yodgorliklari, foto-rasmlar va boshqa eksponatlar orqali tomoshabinni estetik idrokini rivojlantirishga undaydi. San’at asarlarini ko‘rish tomoshabinga nafaqat go‘zallikni, balki ifoda, rang, shakl va kompozitsiyaning chuqur ma’nolarini tushunish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, rassomning ishlari, chizmalar yoki haykallar orqali tomoshabin turli estetik his-tuyg‘ularni (xursandchilik, xafa bo‘lish, hayratlanish, qo‘rquv va h.k.) his qilishlari mumkin.

Ikkinchidan, tarixiy va madaniy kontekst orqali ma’naviy idrokni shakllantirish, muzeyda ko‘rsatilgan eksponatlar nafaqat estetik jihatdan, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar sifatida ham qimmatlidir. Muzeylar tomoshabinni o‘z madaniy merosi bilan tanishtirib, uning tarixiy va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Bu jarayon insonning o‘ziga xos ma’naviy idrokini shakllantiradi, uning o‘z milliy va jahon madaniyati bilan bog‘lanishini kuchaytiradi.

Uchinchidan, estetik tajriba orqali hissiy aloqa o‘rnatish bo‘lib, muzeylar tomoshabinlarning hissiyotlarini uyg‘otish uchun turli estetik vositalardan foydalanadi. Masalan, muzeylar odatda maxsus yoritish, ranglar va materiallar yordamida muayyan hissiyotlarni yaratishga intiladi. Masalan, qorong‘u va soyali joylarda joylashgan dramatik rasmlar yoki haykallar tomoshabinda murakkab va kuchli hissiyotlar uyg‘otishi mumkin. Shuningdek, musiqiy kompozitsiyalar, ovozli effektlar yoki interaktiv ko‘rgazmalar tomoshabinning tajribasini yanada boyitadi.[3.21-b]

To‘rtinchidan, interaktiv va immersiv tajriba yaratishdir, zamonaviy muzeylar tomoshabinni passiv tomoshabindan faol ishtirokchiga aylantirish uchun interaktiv ko‘rgazmalarni joriy qilmoqda. Bunda tomoshabin o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, san’at asarini o‘zicha tahlil qilish va yangi estetik tajribalar olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol uchun, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan virtual eksponatlar, interaktiv ekranlar yoki multimediya qurilmalari tomoshabinlarga nafaqat ko‘rish, balki eshitish, his qilish va hatto ishtirok etish imkonini beradi.

Beshinchidan, ekspozitsiya dizayni va tarixi, muzeylar qanday qilib eksponatlarni joylashtirishi, ko‘rgazmalarni qanday tashkil etishi tomoshabinlarning estetik tajribasiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir muzeyda har bir salonda va ko‘rgazmada o‘ziga xos dizayn va atmosferalar mavjud bo‘lib, bu tomoshabinga turli his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Masalan, o‘zining minimalist dizayni va so‘nggi yillarda mashhur bo‘lgan yoritish texnikalari yordamida tashkil etilgan zamonaviy san’at ko‘rgazmalarida tomoshabinlar san’at asarlari bilan bevosita va chuqurroq muloqotda bo‘lishadi. Demak, aytish mumkinki, muzeylar nafaqat san’at asarlarini namoyish qilish uchun mo‘ljallangan joylar, balki ular tomoshabinlarning estetik sezgilarini rivojlantiradigan, ularning estetik didi va dunyoqarashini shakllantirib, ma’naviy yuksalishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadigan muhim tarixiy-madaniy, estetik tarbiya maskanlaridir, deb hisoblaymiz. [6.323-b.]

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida muzeylar o‘z funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Endilikda ular faqat

tarixiy va madaniy merosni saqlovchi passiv muassasa emas, balki insonning estetik va ma’naviy rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlovchi dinamik institutga aylanishi zarur. Zamonaviy auditoriya talablariga javob bera oladigan, interaktiv va emotsional jihatdan boyitilgan ekspozitsiyalar orqali muzeylar o‘z dolzarbligini saqlab qolishi mumkin. Bu esa nafaqat eksponatlarni taqdim etish usullarini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishni, balki tomoshabinning estetik va ma’naviy idrokini shakllantirishga qaratilgan chuqur konseptual ishlanmalarni ham talab qiladi. Shu jihatdan, muzeylar kelajak jamiyatining ma’rifiy, estetik va axloqiy tayanchlaridan biri sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlashi lozim.

Tavsiyalar:

1) Muzeylarda interaktiv va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. (Virtual ko‘rgazmalar, QR-kodli ma’lumotlar va bq), madaniy-ma’rifiy dasturlarni kuchaytirish. (turli kontekstlarini tushuntiruvchi seminarlar, ekskursiyalar, o‘quv dasturlari), muzeylar faoliyatini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish uchun yangi hamkorlik modellarini yaratish. (homiylik, grantlar, xususiy sektor bilan hamkorlik, ta’lim muassasalari bilan loyihalar ishlab chiqish va bq.).

2) virtual reallik, kengaytirilgan reallik va multisensorli texnologiyalar asosida eksponatlarni tomoshabinga “tubdan” his qilish imkonini beradigan immersiv zonalar tashkil etish. Tashrif buyuruvchilarga artefaktlar asosida o‘ziga xos san’at asarlarini yaratish imkonini beruvchi interaktiv maydonlar (masalan: kollaj, raqamli rasm, keramik shakllar, yozma esse zonalari). “Muzey gamifikatsiyasi” (o‘yinlashtirish) konsepsiyasini joriy etishni jadallashtirish lozim.

Adabiyotlar:

Abdulla Sher. Estetika. Nafosat falsafasi. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 191 б.

Ёшларни маънавий оламини юксалтириш, миллий ва умуинсоний қадриятлар руҳида тарбиялашда маданият ва санъатнинг ўрни//Ёш тадқиқотчиларнинг Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари // Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти. – Т.: 2017. – 409 б.

Tursunkulova Sh. Shaxs estetik ongining shakllanishida san’atning o‘rni va sinergetik xususiyati. Fal.fan.bo‘yicha f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent. 2020.

https://cyberleninka.ru/article/n/dastlabki-muzeylar-tarixi

https://uz.fashionrebelsbook.com/17200328-functions-of-museums-the-essence-and-significance-of-museums

Shaxnoza Tursunqulova (2023). MILLIY TURIZMNI RIVOJLANISHDA ziyoratining o‘rni. Disiplinlerarası tadqiqotlar uchun Central Asian Research Journal (CARJIS), (7 (19)), 323-329.

Tursunkulova, Shaxnoza Tuychiyevna (2024). TASAVVUF FALSAFASINING KO‘PMA’NOLI MOHIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (26), 288-292.

MEDIA MAKON VA YANGI IJTIMOIY QADRIYATLAR: SUN’IY INTELLEKTNING AXLOQIY ME’YORLAR SHAKLLANISHIDAGI ROLI

Tursunova Feruza Tursunovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
O‘zbekiston jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

XXI asrining asosiy belgilovchi omillaridan biri bo‘lgan sun’iy intellekt texnologiyalari global media makonning tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Avvalgi davrlarda axborot oqimi odamlar tomonidan boshqarilgan bo‘lsa, bugungi kunda axborotning tanlanishi, tartiblanishi va taqdim etilishi ko‘proq algoritmik tizimlar qo‘lida. Media platformalarning “aqlli” mexanizmlari jamiyatning psixologik holati, axloqiy me’yorlari, ijtimoiy qadriyatlari va e’tiqodlariga faol ta’sir ko‘rsatmoqda [1]. Raqamli media makon shunchaki axborot beruvchi vosita emas, u bugungi kunda odamlarning dunyoqarashi, axloqiy tanlovlari, kundalik xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy sotsial muhitga aylanmoqda. Aynan shu jarayonda *“yangi qadriyatlar”, “algoritmik axloq”, “ma’naviy xavfsizlik”* kabi tushunchalar kun tartibiga chiqmoqda. Sun’iy intellektning media makondagi roli jamiyatda yangi axloqiy me’yorlar paydo bo‘lishini tezlashtirmoqda.

Shu nuqtai nazardan biz maqolada sun’iy intellekt boshqaruvidagi media makonning jamiyatdagi axloqiy va ma’naviy tizimlarga ta’siri, yangi qadriyatlarning shakllanish mexanizmlari, ma’naviy xavfsizlik masalalarini kompleks tarzda falsafiy tahlil qilamiz. Asosiy maqsadimiz sun’iy intellektning ijtimoiy qadriyatlarga ta’sirini chuqur falsafiy yondashuvlar orqali asoslash va uning jamiyat taraqqiyotidagi potentsial ijobiy hamda salbiy oqibatlarini aniqlashdir.

Media makon bugungi kunda insonning hayotiy faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. YouTube, TikTok, Instagram, X (Twitter), Facebook va boshqa platformalar nafaqat axborot tarqatadi, balki uni filtrlovchi, tavsiya qiluvchi, tartiblovchi algoritmik tizimlarga ega [2]. Aynan mana shu algoritmlar insonning axborot qabul qilish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon *yoshlar axborot ongini algoritmlashtirish* deb ta’riflanadi. Ya’ni, inson o‘zining qiziqishlari, xohishlari va iste’mol odatlariga ko‘ra emas, balki algoritmlarning biznes modeli, foyda mexanizmi va siyosiy manfaatlarga mos ravishda axborot oladi. Boshqacha aytganda, media makon endi betaraf, adolatli emas, u foydalanuvchini ma’lum qadriyatlar tizimiga yo‘naltiradi. Odatda bu texnologiya foydalanuvchi xatti-harakatlari, qidiruv tarixi, yoqtirgan postlari va video tomoshalariga asoslanib kontent tavsiya qiladi. Ammo zamonaviy platformalar endi bundan ham chuqurroq ishlamoqda. Ulardagi algoritm insonning ruhiy holatini ham taxmin qila oladi [3]. Masalan: TikTok algoritmi foydalanuvchining kayfiyati o‘zgarganda unga mos kontent taklif qiladi. YouTube foydalanuvchining diqqatini maksimal band qilib turish uchun qaysi video unga kuchliroq ta’sir qilishini oldindan taxmin qiladi. Bu esa media makonni inson ruhiyati bilan ishlovchi psixotexnologik muhitga aylantirmoqda.

Bu vaziyatda algoritmik axloq masalasi ham kun tartibiga chiqib bo‘ldi. ***Algoritmik axloq*** bu sun’iy intellekt tomonidan shakllantirilayotgan, insonning ongida paydo

bo‘layotgan yangi axloqiy me’yorlar tizimidir. Masalan: “Algoritm nima tavsiya qilsa, o‘sha to‘g‘ri” degan tushuncha [4]. Vaqtni qanday sarflashni algoritm belgilashi masalasi. Insonning axloqiy tanlovlarini algoritmlar boshqarishi jarayoni. Zamonaviy dunyoda tobora ko‘proq inson o‘z tanlovini o‘ylab emas, balki algoritm tavsiya etgan variantlarga asoslanib qabul qilmoqda. Bu esa yangi axloqiy muhitni paydo qiladi. An’anaviy qadriyatlar jamiyatdagi tajriba, ma’naviy-madaniy meros, oilaviy ta’lim-tarbiya orqali shakllanadi. Ammo u asosidagi media makonda qadriyatlar endi algoritmik tavsiyalar; trendlar; virallik mexanizmlari; raqamli obro‘ (like, follower, reyting); virtual guruhlar fikri orqali shakllanib bormoqda. Bu esa qadriyatlarga “ijtimoiy emas, texnologik” tus beradi [5]. Internetda guruhlar geografik emas, balki g‘oya, qiziqish yoki algoritm asosida shakllanadi. Masalan: feminizmning yangi talqinlari; g‘oyaviy radikalizm; gedonistik qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi guruhlar; gaming subkulturalari; yangi axborot etikasi; transgumanizm qadriyatlari kabilar. Algoritm qaysi guruhni kimga ko‘proq tavsiya qilishni ham belgilaydi. Bu esa g‘oyaviy segmentatsiya jarayoniga olib keladi. Sun’iy intellekt boshqaruvidagi media makonning ***ijobiy tomoni*** shundaki, u global tafakkurni kengaytiradi, axloqiy muammolarni tez yoritadi, ijtimoiy adolat haqida fikr uyg‘otadi. ***Salbiy tomoni*** esa agressivlikni normallashtiradi, individualizmni kuchaytiradi, “shakl” qadriyatini “mazmun”dan ustun qo‘yadi, bu esa jamiyat axloqiy mexanizmlarini parchalashi mumkin.

Sun’iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan matnlar tilda standartlashuvni kuchaytirish, soddalashtirilgan jumlalarni ko‘paytirish, madaniy metaforalar kamaytirishi, mahalliy iboralar global inglizcha konstruksiyalar bilan almashishi kabi ta’sirga ega [6]. Tilning bunday transformatsiyasi milliy ongga bevosita ta’sir qiladi. Neurolingvistlar bunday texnologiya asosidagi kontent idrok jarayonlarini o‘zgartirishini ta’kidlaydi. Inson mustaqil o‘ylashdan ko‘ra “tayyor axborot”ni qabul qiladi, xotira tashqi qurilmalarga ko‘chadi (“Google xotirasi”), tafakkur algoritmik ketma-ketliklarga moslashadi [7]. Bu jarayon jamiyatning kognitiv potentsialida o‘zgarishlar paydo qiladi. Ma’naviy xavfsizlik endi feyk axborotdan himoya; deepfeyk texnologiyalaridan himoya; manipulyativ algoritmlardan himoya; axloqiy buzilishlarning oldini olish; lingvomadaniy immunitet kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Digital xavflar ma’naviy sohani yanada zaiflashtirmoqda. Deepfeyk orqali soxta bayonot, soxta siyosiy chiqish, shaxs sha’niga tajovuz, yolg‘on ijtimoiy “haqiqatlar”ni yaratishi mumkin [8]. Jamiyat deepfeyk orqali sun’iy yaratilgan voqelikni haqiqiy deb qabul qiladi. Bu esa axborot asliyatining buzilishidir. ***Axborot immuniteti*** bu shaxsning haqiqiy ma’lumotni farqlashi, manipulyatsiyani anglay olishi, algoritm bosimiga berilmasligi, shu orqali ongni himoya qilish qobiliyatidir. Bu esa zamonaviy ma’naviy xavfsizlikning asosidir.

Yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida sun’iy intellektning ijobiy imkoniyatlari ham yuqori hisoblanadi. U orqali ekologik ong, adolat g‘oyalari, inson huquqlari, bag‘rikenglik qadriyatlari tez tarqaladi. U ijtimoiy muloqotni tezlashtiradi, jamoaviy ongni birlashtiradi. Ta’lim va ma’naviy tarbiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqishda bu texnologiya shaxsga moslashtirilgan ta’lim beradi, yoshlarning axloqiy muammolariga yordamchi bo‘ladi, motivatsiya paydo qiladi. Ochiqlik va shaffoflik madaniyatining kuchayishi ishonchni oshiradi, mas’uliyatni mustahkamlaydi,

korrupsiyani kamaytiradi. Bunday texnologiyani boshqaruvga joriy etayotgan davlatlar uchun algoritmlar ustidan axloqiy nazorat mexanizmlarini yaratish; deepfeykga qarshi milliy himoya tizimlarini shakllantirish; media savodxonlikni davlat darajasida kuchaytirish; milliy qadriyatlarni raqamli kontent orqali mustahkamlash; algoritmik shaffoflik bo‘yicha qonunlar ishlab chiqish kabi takliflarni bildirib o‘tishni lozim topdik.

Umuman olganda, sun’iy intellekt boshqaruvidagi media makon jamiyatning axloqiy, ma’naviy va kognitiv evolyutsiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon ikkiyoqlama: ***bir tomondan*** yangi imkoniyatlar, ***ikkinchi tomondan*** axloqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli media makonning kuchi endi insonlar emas, algoritmlar qo‘lida. Shuning uchun jamiyatning eng muhim vazifasi texnologiya ustidan axloqiy nazoratni tiklash, ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlash va algoritmik bosimga qarshi himoya mexanizmlarini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Флориди, Л. Этика искусственного интеллекта. - Москва: АСТ, 2021.

Бостром, Н. Искусственный интеллект: этапы, угрозы и стратегии. - Москва: Альпина, 2020.

Harari, Y. N. 21 Lessons for the 21st Century. - New York: Random House, 2020.

Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. - Pearson, 2021.

O’Neil, C. Weapons of Math Destruction. - New York: Crown, 2020.

Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism. - London: Profile Books, 2020.

Taddeo, M., Floridi, L. *The Ethics of Artificial Intelligence*. - Oxford University Press, 2021.

Couldry, N., Mejias, U. The Costs of Connection. — Stanford University Press, 2020.

TILAB MAHMUDOV QARASHLARIDA ESTETIK IMMUNITET YARATISH TAMOYILLARI

Tursunova Laylo
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida yarqiragan nur paydo bo‘ldi. Erkinlik va epkinlik, demokratiya va adolat ijtimoiy hayotimizning barcha bo‘g‘inlarida kurtak ota boshladi.

Tilab Mahmudov

Kirish. Globallashuv jarayonida yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliq, axborot bosimi va iste’molchilik ruhining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda inson ruhini himoya qiluvchi estetik immunitetni shakllantirish masalasi o‘ta muhimdir. Tilab Mahmudovning estetik-falsafiy qarashlari aynan shunga javoban ilmiy asos bo‘la oladi. Rahbarimiz ta’kidlaganidek: “Yoshlarga faqat bilim emas, qalb tarbiyasini ham berish – bugungi kunning eng katta vazifasidir.” [1]

XXI asrda globallashuv jarayonlari inson ongiga, ayniqsa yoshlar tafakkuriga eng tez ta’sir qiluvchi jarayonlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot oqimining cheksizligi, virtual madaniyatning kengayishi, sun’iy obrazlar va tezkor iste’mol madaniyatining kuchayishi natijasida yoshlarning estetik mezonlari beqarorlaşib, “didiy bo‘shliq” yuzaga kelmoqda[2]. Shu boisdan ham jahon psixologlari va pedagoglari bir fikrda: globallashuvni to‘xtatib bo‘lmaydi, ammo unga nisbatan estetik immunitet yaratish mumkin.

Barchamizga ma’lumki, qadimgi Sharqda “globallashuv” so‘zi bo‘lmagan, lekin “ruhiy uyg‘unlik”, “nafsni poklash”, “ruhiy immunitet”, “tarbiya”, “miqyosi bor did” tushunchalari bore di.

Al-Farobiy – “Jon va jism uyg‘unligi buzilsa, inson jamiyatga xavf tug‘diradi”. Bu fikr globallashuvdagi ma’naviy zaiflik bilan bevosita bog‘lanadi [3].

Ibn Sino – “Ruhiy tarbiya bo‘lmasa, davolashning faydasi yo‘q”[4]. Bugungi globallashuvda bu – estetik immunitetning psixologik asosi.

Alisher Navoiy – “Inson dilining zavqi bor, agar u so‘nsa, jamiyatdan fayz ketadi”[5]. Bu ma’naviy himoyaning san’at bilan bog‘liq yo‘lidir.

Demak, Sharqda globallashuv atamasi bo‘lmagan, lekin uning ildizi bo‘lgan – qalbning muvozanatini saqlash tamoyillari mavjud.

G‘arb olimlari bilan qiyos

I. Kant – “Estetik hukm – inson erkinligining metafizik ifodasidir”[6]. Kant nazarida go‘zallikni anglash – faqat his emas, balki fikr va erkin ongning uyg‘un faoliyatidir. Estetik hukm insonni tashqi ta’sirdan ozod qiladi va ong erkinligi uchun ichki maydon yaratadi.

G. Hegel – “San’at – ruhning tashqi ko‘rinishi”[7]. San’at orqali inson ichki dunyosini tashqi shaklga ko‘chiradi, obraz va ifoda orqali ruhning mavjudligi jamiyatga ko‘rinadigan bo‘ladi. Hegelga ko‘ra, ruh faqat san’at orqali jonlanadi va ijtimoiy hayotda faol kuchga aylanadi.

J. Devey – “San’at – tajriba orqali ongni yangilash jarayonidir[8]”. Devey fikriga ko‘ra, san’at – insonning kundalik hayotini ma’nolash va his-tuyg‘ularni ongda qayta ishlash vositasidir, u psixologik yangilanish va ruhiy tiklanish jarayonini ishga tushiradi. San’at tajribaga aylangan zahoti, u estetik idrokni o‘stiradi va jamiyat ongiga yangicha qarash kiritadi.

San’at – globallashuv jarayoniga eng tez kirib borayotgan madaniy fenomenlardan biridir, chunki u chegaralarni tan olmaydi, turli xalqlar tajribasini birlashtiradi va estetik idrokni umumjahon darajasiga olib chiqadi.

Bugungi kunda san’at vositasida madaniyatlar kesishmoqda, ruhiy tajribalar almashinmoqda va estetik immunitet global miqyosda shakllana boshlamoqda.

San’atning tez global xarakter kasb etishi, inson ongini “mahalliy” chegaralardan chiqarib, umumiy metafizik va ma’naviy maydonga olib chiqadi – bu esa estetik ongning yangi bosqichidir.

Darhaqiqat, Sharq va G‘arb mutafakkirlari san’atning tezkor globallashuvga kirishini oldindan fahmlab, uni inson tafakkuri va jamiyat kelajagi bilan bog‘lab talqin qilganlar.

Tahlillar natijasida shunga erishamiz.

Tilab Mahmudov bilan yakuniy uyg‘unlik qilar ekanmiz, “Estetik immunitet – bu insonni tushunmaslikdan, nafosatdan ajralib qolishdan saqlaydigan qalb pardasidir.” Mahmudov Sharqqa o‘xshash tarzda ruhiy muvozanatni himoya qiladi,

G‘arbga o‘xshash tarzda esa estetik idrokni ong mexanizmi sifatida tushuntiradi.

Shuning uchun u Sharq va G‘arb falsafasini sintez qilgan holda, globallashuv sharoitida estetik immunitet kerakligini ilmiy asoslaydi.

Demak, biz globallashuvni: “zamonaviy dunyoda ruhiy muvozanat buzilishi” deb olib, uni Sharq mutafakkirlarining “ichki tartib”, “ma’naviy tozalik”, “ruhiy himoya” qarashlari bilan bog‘laymiz.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz – Sharqda- Inson mohiyati Ruhiy uyg‘unlik – G‘arbda- nafsni tarbiya qilish Inson – ijtimoiy mavjudot, ong va idrok asosiy kuch, Tilab mahmudov qarashida esa Inson qalbi estetik ta’sir orqali mustahkamlanadi.

Globallashuv Sharq falsafasida nomlanmagan, ammo uning ildizlari “ruhiy uyg‘unlik” va “ichki tartib” tushunchalaridadir. G‘arb falsafasida estetik immunitet – psixologik barqarorlik va ongni boshqarish tamoyiliga tayanadi. Tilab Mahmudov esa Sharqning ruhiy asosini, G‘arbning estetik-nazariy yondashuvlarini birlashtirib, zamonaviy estetik immunitet modelini yaratadi.

Demak, estetik immunitet – XXI asr sharoitida nafaqat san’at, balki ma’naviy omon qolishning ham zaruriy mexanizmiga aylangan.

Bizga ma’lumki, estetik immunitet – bu: ma’naviy zaiflikka qarshi ichki himoya, go‘zallikni anglash va idrok etish qobiliyati, san’at orqali ruhiy mustahkamlikni yaratish jarayonidir [9].

Tilab Mahmudovning fikricha, insonning ruhiy himoyasi ranglar, ohang va obrazlar orqali shakllanadi. “Estetik did – bu nafaqat go‘zallikni his qilish, balki yomonlikni tanib olish qobiliyatidir” — deya ta’kidlaydi u[10].

Globallashuvning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji, erkin bozor tizimi, madaniy almashinuv va xalqaro standartlarning joriy etilishi. Axborot oqimlarining tezlashuvi yoshlar ongida turli madaniyatlarni qavatma-qavat tarzda shakllantiradi. Shu bilan birga, yoshlar global ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatini rivojlantirmasa, ular madaniy bo‘shliq va identitet yo‘qotish xavfiga duch keladi [11].

Estetik immunitet tushunchasi. Estetik immunitet — bu yoshlarning go‘zallikni anglash va turli madaniy ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatidir. U nafaqat taqiqlar bilan ifodalanmaydi, balki milliy san’at, musiqa, adabiyot va tarixga tayangan ongli qarash bilan mustahkamlanadi. Estetik immunitet kuchli bo‘lsa, yoshlar ruhiy jihatdan barqaror bo‘lib, axborot oqimlarini tahlil qila oladi, milliy qadriyatlarini saqlaydi va global ta’sirlarga moslashadi[12].

Globallashuv va estetik immunitet o‘rtasidagi munosabat

Kuchli estetik immunitet yoshlarni madaniy bo‘shliqdan himoya qiladi va globallashuvning salbiy ta’sirini kamaytiradi. U milliy ranglar, ohanglar va qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan tarbiya orqali shakllanadi. Shuning uchun, milliy san’at, musiqa va adabiyot yoshlar ongida “ichki sarhad” rolini o‘ynaydi, ularni madaniy va ma’naviy jihatdan mustahkamlaydi[13].

Tarbiyaviy va amaliy tavsiyalar

Maktab va oliygohlarda go‘zallik tarbiyasini joriy etish, san’at va musiqa orqali estetik immunitetni mustahkamlash muhimdir. Shu bilan birga, axborot oqimlarini tahlil qilish va tanqidiy qarashlarni rivojlantirish ham zarur. Bu yoshlarning o‘zligini yo‘qotmasdan, globallashuv jarayonlaridan foydali tarzda foydalanishlariga yordam beradi.

Insoniyat hayotining bugungi rivojlanish bosqichi globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘lanib qoldi. Ayniqsa, yoshlar bu jarayonning eng ilg‘or, faol va sezgir qatlamini tashkil etadi. Chunki ular axborot oqimlari, raqamli texnologiyalar, yangi madaniy standartlar bilan birinchi bo‘lib yuzma-yuz kelayotgan avloddir. Bu borada globallashuvning ikki qirrasi yaqqol namoyon bo‘ladi:

Ijobiy tomonlari*:* dunyoqarash kengayadi, madaniyatlararo muloqot rivojlanadi, innovatsion fikrlash va ijodiy tafakkur shakllanadi, estetik didni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Muammoli jihatlari: milliy qadriyatlar susayishi, estetik immunitetning zaiflashuvi, axborotlar ko‘payishi tufayli hissiy beqarorlik, mahalliy madaniyatdan uzoqlashish holatlari kuzatiladi.

Shu nuqtada estetik jarayonning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Estetika – insonni ichki uyg‘unlikka chorlaydigan, go‘zallikni anglash orqali ruhiy dunyoni mustahkamlovchi kuchdir. Tilab Mahmudov fikrlariga ko‘ra, globallashuv ta’sirida voyaga yetayotgan yoshlar uchun estetik tarbiya nafaqat madaniy zarurat, balki ma’naviy himoya vositasi, ya’ni “estetik immunitet” vazifasini bajarishi lozim. U ta’kidlaydiki, agar insonning estetik ongi shakllangan bo‘lsa – u har qanday axborot oqimidan himoyalana oladi, chunki unda go‘zallikni ajrata olish, qadrlay olish va himoya qila olish qobiliyati shakllangan bo‘ladi[14].

Demak, globallashuv shunchaki tashqi ijtimoiy hodisa emas – u yoshlarning ruhiy-estetik dunyosiga kirib borayotgan jarayondir. Bunday vaziyatda estetik tarbiya, milliy musiqa va san’at orqali ruhiy muvozanatni saqlash, madaniy identitetni yo‘qotmaslik bugungidek davrda estetik mafkuraning asosiy vazifalariga aylanmoqda. Shunday ekan, Tilab Mahmudov ilgari surgan “estetik immunitet” konsepsiyasi globallashuv davrida yoshlar uchun muhim ma’naviy sipar hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar — iqtisodiy o‘zgarishlar, internet, yangi texnologiyalar, madaniyatlar aralashuvi — barchasi globallashuv deb ataladigan jarayonning namunasidir. Bu jarayon eng avvalo yoshlar hayotiga ta’sir qilmoqda, chunki yoshlar yangilikni tez qabul qiladi, dunyoni o‘rganishga intiladi va ijtimoiy hayotda faol.

Nega globallashuv yoshlar uchun muhim?, chunki kelajak aynan ularning qo‘lida.

va ular axborotni tez qabul qiladi hamda ular o‘zlikni saqlash va yangi dunyo bilan uyg‘un yashash yo‘lini topishi kerak.

Globallashuvning ijobiy tomonlari: xorijiy bilim va san’atga kirish osonlashadi, innovatsion fikrlash rivojlanadi, chet tillarini o‘rganish va ijod qilish imkoniyatlari oshadi.

Salbiy tomonlari esa: milliy qadriyatlar unutilishi mumkin, internetga haddan tashqari berilib ketish, estetik didning yo‘qolishi**,** tanqidiy fikrlash zaiflashuvi ruhiy beqarorlik va yolg‘izlik hissi ko‘paydi.

Xulosa. Falsafa fanlari doktori, professor, Respublika Davlat mukofotining sovrundori Tilab Mahmudov yoshlar estetik tarbiyasi haqida juda kuchli fikrlarni ilgari suradi. U shunday deydi: “Yoshlarning ruhini himoya qilish uchun estetik immunitet kerak. Go‘zallikni ko‘ra olgan inson — kuchli insondir.”[15]

Bu degani: Yoshlarda go‘zallikni anglash qobiliyati bo‘lsa — u odam hayotda mustahkam turadi. Estetik tarbiya bo‘lmasa — internet, ommaviy madaniyat, shov-shuv axborotlar ongni egallab oladi .

Shuning uchun bugungi avlodga san’at, musiqa, milliy meros, adabiyot, rassomlik, teatr kabi sohalar faqat “ko‘ngilochar” emas — ruhiy tayanch bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Bugungi yoshlar: faqat telefon bilan emas — fikr bilan yashashi kerak nafaqat ma’lumot izlab — ma’no izlab yashashi kerak nafaqat tomoshabin — ijodkor bo‘lishi kerak Tilab Mahmudov ta’kidlaganidek: “Estetika — jamiyatni bezatish uchun emas, ruhni mustahkamlash uchun kerak.”

Demak, globallashuv davrida eng katta vazifa — ichki dunyomizni boyitish, milliy o‘zligimizni saqlagan holda zamonaviy avlod bo‘lishdir.

Globallashuv bugungi kunda sinov maydoni bo‘lsa, estetik immunitet — yoshlarni himoya qiluvchi qalqondir. Yoshlar o‘zligini yo‘qotmasligi uchun milliy qadriyatlar va san’atga tayangan tarbiya zarur. Shu tarzda, globallashuvni inkor qilmasdan, unga qarshi estetik immunitet bilan munosib javob berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning yoshlar tarbiyasi haqidagi nutqlaridan.
2. Mahmudov T.Estetik did haqida Toshkent: Fan, 1964. – B. 20.
3. Al-Farabi. (1949). Kitab al-Madina al-Fadila. Cairo: Dar al-Maaref.
4. Ibn Sina. (1999). The Canon of Medicine (Al-Qanun fi al-Tibb) (L. G. Levin, Trans.). Great Books of the Islamic World.
5. Kant, I. (2000). Critique of judgment. Prometheus Books. Navoiy, A. (1996). The Collected Works of Alisher Nava’i (Vol. 4: Moral and spiritual views). Tashkent: Fan Publishing.
6. Kant, I. (2000). Critique of judgment. Prometheus Books. Navoiy, A.
7. Hegel Hegel, G. W. F. (1975). Aesthetics: Lectures on fine art. OUP.
8. Dewey Dewey, J. (2005). Art as experience. Penguin.
9. Г.Маҳмудова. Шахсий қўлёзмалар архивидан.
10. Mahmudov T. O‘zbek adabiyoti va estetik tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 24.
11. Abdullayev E. Adabiyot va hayot falsafasi. – Toshkent: Fan, 2017.
12. Karimov N. O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2012.
13. Jo‘rayev S. O‘zbek adabiyotida estetik tafakkur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
14. To‘raqulov B. Milliy adabiyot va xalqona qadriyatlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
15. Mahmudov T. O‘zbek adabiyoti va estetik tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 24.

MA’RIFATPARVAR BEHBUDIYNING MEROSI MAHALLA YOSHLARI MA’NAVIY TARBIYASINING ASOSI

Tursunova Olmos Fayziyevna
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Yurtimizda buyuk jadidlarning ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: «Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi» [1].

Albatta, bugungi tinch va erkin hayotning qadrini, yoshlar ma’naviy tarbiyasini, ilmga, bilimga bo‘lgan e’tiborni bizni Behbudiy hikmatlarida ko‘ramiz. Behbudiy o‘zining asosiy diqqatini aynan ilm, tarbiya, ta’limga qaratadi. U ta’kidlaganidek, “Har zamonni(ng) ilmi, hikmati va parvarishi boshqadir. Modomiki, har bola, ya’ni har kimni(ng) zamoni, otasi zamonidan boshqa bo‘lsa va har otag‘a o‘z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamonig‘a muvofiq suvratda tarbiya va ta’lim etmog‘i lozim bo‘lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg‘a o‘rgatmaymiz”[1].

Shu g‘oyalari asosida yoshlarga o‘gitlar, pand-nasihatlar qiladi. Hamda bugungi kunning asosiy prinsipi bo‘lgan, o‘zining natijasini beradigan eng zo‘r investitsiya bu farzand ilmiga, ta’limiga yo‘naltirilgan investitsiyadir degan tamoyil Behbudiyning qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o‘g‘il to‘ylarig‘a sarf qilaturgon aqchalaringizni mana shul zamoni yo‘lig‘a sarf etingiz, sizdan o‘g‘lingizg‘a mol meros qolmasin, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsin” [1].

Jadidchi Behbudiy fikricha, ma’rifat uchun b irgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Zero, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni jamiyat a’zolaridan quyidagilarni so‘rashga undaydi: “Yoshlardan himmat va g‘ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak” [1].

Bugun biz yuzma-yuz bo‘lib turgan milliy g‘oya, ma’naviyat, milliy mafkura masalalari bilan bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo‘yilgan va qizg‘in muhokama qilingan masala bo‘lgan. Buni Behbudiyning fikrlaridan ham uqib, anglab olish mumkin: “Makotib – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidir” [1].

Albatta, yoshlarimizni yurt ravnaqi va kelajagi yo‘lida birlashtirish, qalblarni uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama taraqqiy etgan Yangi O‘zbekistonni barpo etishni ko‘zlagan ma’naviyat, milliy g‘urur g‘oyasining ildizi aslida ma’rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi: “Ey g‘ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-birig‘a dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to‘yg‘izolmayturgon yetim va bevalar haqqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo

qilib, xoliq Xudoning nafig‘a, din va millat yo‘lig‘a xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etudur, nafsoniyat va g‘urur emas” [1].

Davlatimimiz yoshlarga kelajak binokorlari sifatida qarar ekan, bu yo‘lda bizga buyuk tariximiz – murabbiy, ajdodlarimizning ibratli hayoti, faoliyati va ma’naviy merosi, ayniqsa bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan hikmatli gaplari dasturulamaldir: “Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir, qarilar zamoni o‘tgan. Siz kiromg‘a bobasirat bo‘lib, o‘n daf’a o‘lchab, bir daf’a kesingiz” [1].

Behbudiy xulosasiga ko‘ra, millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi, deydi. Uning quyidagi mulohazalarini uchratamiz: “Fanning ibtidoiy ta’limini ko‘rmagan kishiga o‘rta va oliy qismini madrasalarg‘a kirgizib ta’lim bermakdin foyda chiqmaydur” [1].

Ustoz milliy g‘oya bilan ish tutilsa, millatning jonlanishiga, ma’rifatli avlod shakllanib hayotning go‘zallashishiga ishonadi. Bugina emas, uni hayot-mamot masalasi deb biladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qilishda birinchi vosita deb hisoblaydi: “Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o‘shal maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo‘lsa va shogirdlarig‘a ko‘ngli ilan ta’lim bersa, albatta, ilm hosil qilur. Agarda muallimni o‘zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsala yoinki kamilm bo‘lsa, yoinki ilmi bo‘lub turub, usuli tahsildan xabarsiz bo‘lsa, ani(ng) shogirdlari nodon qolur” [1].

Behbudiy qalbini o‘rtagan eng katta dard – erk va ma’rifat bo‘lgan. Uning qarashlarida ma’rifiy ruh, iztirob to‘la fikr-mulohazalar bugungi yoshlarimizni befarq qoldirmaydi. Jumladan, Yurt, Vatan tuyg‘usi ifodasi uni bugun yoshlarga haddan tashqari yaqin qilib qo‘yadi: “Zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak”, deydi ustoz. [1].

Ilm – hunar g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiradi. Ilmga, ma’rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g‘oyasi millatning ko‘pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Haqiqatdan ham, Behbudiyning olib borgan barcha ishlari shunga xizmat qildi. Shu tariqa har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi, Behbudiyning fikricha quyidagi shartni taqozo etadi: “Yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarining ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarning har jihatdan intizom va akmalig‘a ko‘b ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda kamol suvratda yetushdurarlar. Aning uchundirki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lub, har ishda diyonat va millatni muqaddam tutarlar. Va, luzumi kelganda, bu yo‘lda mol va jonlarini fido qilmoqg‘a hozir turarlar” [1].

Behbudiy istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriaxloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Umuman, mustaqillik uchun kurash olib borgan jadidlar, jumladan Behbudiy kelajak haqida fikr yuritar ekan, istiqlolga erishish borasida quyidagi yo‘ldan borishni tavsiya etadi: “Ilmsizlik va tarbiyayi diniya va axloqi milliyadin bebahralikni(ng) oxiri dinsizlik va rasman tarki din etmoqqa majbur bo‘lur [1].

Behbudiy ilmiy ishlarining aksariyati ilm, kasb, til o‘rganish va ma’rifatli bo‘lishga chaqiriqlar to‘g‘risida edi. Behbudiy millat kelajagi, mamlakat taraqqiyoti va eng muhimi uning mustaqilligi, erki uchun qilgan mehnat va xizmatlarini yoshlarga yetkazib berish bugungi kunnning dolzarb vazifasidir. Shu o‘rinda uning: “Ilm mushtarakdur. Bilgannikidir” [1] degan prinsipi kun tartibidagi birinchi masaladir, desak mubolag‘a

bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan Behbudiy istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan xizmatlari, uning milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishdagi hissasi beqiyosdir.

Har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g‘oyalardan foydalanishi kerak. Lekin muhim sharti shundaki, bu fikr-g‘oyalar millatning yuragi va ongidan o‘tmog‘i, milliylashishi zarur. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi. Hammamizga ma’lumki, hozirgi globallashuv jarayonlari kechayotgan bir paytda “ommaviy madaniyat” istar-istamasakda yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasiga ta’sir etmoqda. Shu o‘rinda ustozning fikrlari o‘ta dolzarblik kasb etadi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, farq-u zalolat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir” [1]. Mana shu jaholatdan esa qutulishning bir yo‘li, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “jaholatga qarshi o‘n ma’rifat bilan kurashmog‘imiz darkor”ligi dolzarbligicha qoladi. Albatta bu boradagi mas’uliyat ziyolilar zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini qalban anglovchi va oldinga boshlovchi ziyoli sinfidir. Buning uchun esa, o‘sha ziyolining o‘zi milliy axloq va tarbiya egasi bo‘lmog‘i kerak. Behbudiyning “Har millat va din ahlining boshchi va hodiysi ulamodurlar”, degan fikri o‘rinlidir [1].

Behbudiy ona yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. U millatning, ma’rifatning haqiqiy ma’naviy otasi edi. U butun vujudi bilan birlikka chorlaydi: “Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib, madaniyatdan foydalanmas” [1].

Xulosa o‘rnida, Behbudiyning boy ma’naviy merosi hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiningyorqin yulduzi desak, mubolag‘a qilmaymiz. Zero, tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati va mazmuniga ko‘ra tamoman yangi bo‘lgan Behbudiyning milliy tarbiyasining roli va o‘rni alohida. Behbudiy hikmatlarida ko‘tarilgan g‘oyalar mutlaqo yangi va aksariyat mavjud tuzumga zid bo‘lgani bilan ajralib turadi. Albatta, bu fikrlar Vatan va millat manfaati nuqtayi nazaridan yondoshgandagina, mohiyatini har bir yosh to‘g‘ri anglagan bo‘ladi. Zero, “Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo‘q”dir [1].

Adabiyotlar:

Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent. Yoshlar. 2022. 156 b.

ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Tuvalboyev Adhamjon Bahodir o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Kirish. Insoniyat tarixida ma’naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida qaralgan. Ayniqsa, yosh avlodning ma’naviyatini shakllantirishda buyuk mutafakkirlarning merosi beqiyos ahamiyatga ega. Shunday ulug‘ siymolardan biri — Abu Nasr Forobiy (873–950) o‘z davrining eng yirik faylasufi, mutafakkiri va pedagogi

bo‘lib, Sharq falsafasiga g‘oyat katta hissa qo‘shgan. Forobiy o‘zining mashhur “Fozil odamlar shahri” (al-Madīnat al-Fāḍilah) asarida ideal jamiyat, adolatli rahbar va fazilatli inson timsolini yaratgan. Unga ko‘ra, jamiyatning baxt-saodati insonlarning bilim, aql, odob va ezgulik sari intilishida mujassamdir [1, 45-b.]. Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni g‘oyaviy, axloqiy va intellektual jihatdan yetuk shaxslar etib tarbiyalash masalasi Forobiy merosini qayta o‘rganishni talab etmoqda.

Asosiy qism. Forobiy ta’limotining markazida “fozil shahar” tushunchasi turadi. U bu tushunchani “jaholat shahar”iga qarama-qarshi qo‘yadi. Mutafakkir fikricha, fozil shaharda yashovchi insonlar eng oliy baxt — komillikka erishishni o‘z hayot maqsadi sifatida belgilaydilar [2, 67-b.]. Forobiyningcha, bunday jamiyatda axloqiy fazilatlar ustuvor bo‘ladi: adolat, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, saxovat va bilim insonning eng asosiy sifatlaridir. U yozadi: “Fozil inson — o‘z aqli va odobi bilan jamiyatga foyda keltiruvchi shaxsdir” [3, 52-b.]. Bu fikr, aslida, yosh avlod tarbiyasida ma’naviy-axloqiy yo‘nalishni asoslab beradi.

Forobiy axloqiy kamolotga erishishning asosiy omili sifatida aqlni ko‘rsatadi. Uning fikricha, insonning aqliy yetukligi uni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, ammo bu yo‘lda axloq — ya’ni to‘g‘ri amaliyot zarur. “Aqlsiz axloq zaif, axloqsiz aql esa xavfli”, deya ta’kidlaydi Forobiy [4, 79-b.]. Bu g‘oya yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ilmga chanqoqlik, mustaqil fikrlash, odob-axloq, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirish Forobiyning “ilm va fazilat birligi” tamoyiliga asoslanadi.

Forobiy “fozil rahbar” obrazini yaratgan holda, rahbarlik faqat kuch yoki hokimiyat emas, balki mas’uliyat, bilim va adolat bilan bog‘liq fazilat ekanini uqtiradi [5, 101-b.]. Yoshlar uchun bu g‘oya yetakchilik va ijtimoiy faollik madaniyatini shakllantirishda muhimdir. Mutafakkir insonni ikki turga ajratadi: aqliy va ma’naviy jihatdan yuksak, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxslar hamda jaholatda qolgan, o‘z manfaati yo‘lida boshqalarni aldaydigan shaxslar.

Bugungi kunda axborot oqimi kuchaygan, g‘oyaviy kurashlar keskinlashgan bir davrda yoshlar ma’naviy barqarorligini ta’minlash eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois Forobiyning “axloqiy fazilat” g‘oyasi yoshlarni zararli mafkuralardan himoya qilishda, ularda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Prezident Sh. Mirziyoyev ham o‘z nutqlarida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalasiga alohida urg‘u berib, “ma’naviy barkamol avlod — yurt kelajagi” degan tamoyilni ilgari suradi [6].

Xulosa. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson va jamiyat kamoloti yo‘lida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning beqiyos ahamiyatini asoslab bergan. Uning ta’limotida fazilatli inson — bu aqli, odobi, adolati va iymoni bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan shaxsdir. Yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksaltirish, ularga to‘g‘ri hayotiy yo‘l ko‘rsatish, ilm va axloq uyg‘unligini singdirish Forobiy merosini amalda tatbiq etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: O‘zbekiston, 1993.

2. Mahdi, M. Alfarabi’s Philosophy of Plato and Aristotle. — Ithaca: Cornell University Press, 1962.

3. Fakhry, M. Al-Farabi, Founder of Islamic Neoplatonism. — Oxford University Press, 2002.

4. Hoshimova, M. “Forobiy ta’limotida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar.” — O‘zbekiston falsafasi jurnali, 2021.

5. Gizatullina, G.A. “Abu Nasr Forobiy g‘oyalarining zamonaviy ahamiyati.” — Sharq yulduzi, 2022.

6. Mirziyoyev, Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ТИЗИМИДА НОТИҚЛИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Убайдуллаева Дилфуза Акмал қизи
“Ayol” by CAU микромолия ташкилоти Бизнес консултант (Эксперт)

Кириш. Давлат бошқаруви тизимида нотиқлик маҳоратининг аҳамияти ўз замонида янада ошмоқда. Ҳар қандай давлат идорасида самарали мулоқот ва нутқ маданияти нафақат ички бошқарув фаолиятини таъминлайди, балки жамоатчилик ишончини қозониш ва стратегияларни самарали амалга оширишда муҳим роль ўйнайди. Нотиқлик маҳорати фақат маърузалар айтиш ёки музокаралар ўтказиш билан чекланмайди; у бошқарув қарорларини асослаш, муаммоларни аниқлаш, ишончли лидерликни намоён қилиш ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш каби вазифаларни ҳам ўз ичига олади [1], [2].

Таърихий жиҳатдан нотиқлик маҳорати давлат бошқаруви тизимида турли даврларда ривожланиб келган. Масалан, замонавий давлат институтлари риторика ва этика қоидаларига асосланган нутқ маданиятини талаб қилади. Шунингдек, глобаллашув ва ахборотлашув жараёнида давлат хизматчилари учун очиқ ва таъсирчан мулоқот кўникмалари долзарб аҳамият касб этади [5], [6].

Нотиқлик маҳоратининг илмий-педагогик асослари педагогика, психология ва этика назарияларига таянади. Давлат хизматчиларини тайёрлашда ушбу соҳаларнинг интеграцияланган қўлланилиши, шунингдек, амалиётда натижали қўлланиш имкониятлари ўрганилади [2], [3], [4]. Мақсад – давлат бошқаруви тизимида нотиқлик маҳоратини шакллантиришнинг назарий ва амалий жиҳатларини таҳлил қилиш ва педагогик тавсиялар ишлаб чиқишдан иборатдир.

Усуллар. Тадқиқот жараёнида қиёсий ва илмий таҳлил усуллари қўлланилди. Давлат бошқаруви тизимида нотиқлик маҳоратини шакллантиришда педагогик тажрибалар умумлаштирилди ва уларнинг назарий асослари таҳлил қилинди. Бошқарув психологияси нуқтаи назаридан нутқ шахс ва раҳбарлик фаолиятининг ажралмас қисми сифатида кўриб чиқилди [2]. Психологиянинг методлари нутқ орқали ишончни шакллантириш ва эмоционал барқарорликни таъминлашда қўлланилди. Ахлоқий ва маданий меъёрларнинг нутқ фаолиятига таъсири ҳам чуқур ўрганилди, шунингдек, аудитория билан ўзаро тушунишнинг педагогик жиҳатлари таҳлил қилинди [5], [6].

Мулоқот маданияти ва этикетга оид тадқиқотлар давлат хизматчисининг нутқ маданиятини ривожлантиришда муҳим омил ҳисобланади [6], [7]. Журналистика ва риторика соҳасидаги манбалар таъсирчан нутқнинг тузилиши, мантиқий тузилма ва эмоционал таъсирни таъминловчи элементларини аниқлади [4], [8].

Тадқиқот жараёнида давлат хизматчилари нутқининг хусусиятлари моделлаштирилди. Педагогик нуқтаи назардан нотиқлик маҳорати доимий таълим, амалий машғулотлар ва рефлексив методлар орқали ривожланиши зарурлиги таъкидланди. Бу жараёнда ахлоқий ва маданий қадриятлар нутқ мазмуни ва таъсирчанлигига бевосита таъсир кўрсатади [5], [6].

Натижалар

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, нотиқлик маҳорати билим, кўникма ва қадриятларнинг уйғунлигига асосланади. Бошқарув психологияси нуқтаи назаридан нутқ раҳбарлик фаолиятининг ажралмас қисми ҳисобланади, у қарор қабул қилишда, ижтимоий муносабатларни тартибга солишда ва конфликтларни юмшатишда муҳим рол ўйнайди [2], [3].

Нотиқлик маҳорати давлат хизматчисининг касбий имиджини шакллантиришда, жамоатчилик ишончини оширишда ва бошқарув самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Илмий таҳлил шуни кўрсатдики, этика ва нутқ маданияти давлат бошқарувида самарали мулоқотни таъминлайди [3], [7].

Журналистика ва риторика тадқиқотлари таъсирчан нутқда мантиқий тузилма, эмоционал таъсир ва аудитория билан мулоқотнинг аҳамиятини кўрсатади [4], [8]. Давлат бошқарувида бу жиҳатлар аҳоли билан очиқ мулоқотни ташкил қилиш, ислоҳотларни тушунтириш ва ижтимоий фикрни шакллантиришда асосий аҳамиятга эга.

Муҳокама

Олинган натижалар нотиқлик маҳоратини шакллантиришда комплекс ёндашув зарурлигини тасдиқлайди. Бошқарув психологияси нуқтаи назаридан нутқ раҳбарлик фаолиятининг ажралмас қисми ҳисобланади, у қарор қабул қилиш ва ижтимоий муносабатларни тартибга солишда фаол иштирок этади [2]. Шу боис педагогик жараёнда нутқ маданиятига оид махсус шарт-шароитларни яратиш зарур.

Глобаллашув шароитида шахс идентичлигининг ўзгариши нутқ орқали ифодаланадиган қадриятлар тизимига ҳам таъсир кўрсатади [5]. Давлат хизматчиси нутқида миллий маданият, умуминсоний қадриятлар ва замонавий бошқарув принциплари уйғунлашган бўлиши керак. Мулоқот маданияти ва ўзаро тушунишга асосланган нутқ давлат ва жамият ўртасидаги ишончни мустаҳкамлайди [6].

Этикет ва ахлоқий меъёрларга таянган нотиқлик маҳорати можароларни юмшатиш ва музокараларни самарали олиб боришга хизмат қилади [1]. Педагогик жараёнда амалий тренинглар, таҳлилий машғулотлар ва рефлексив усуллар муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, нотиқлик маҳоратининг тренинглар орқали

шакллантирилиши давлат хизматчилари учун қийматли билим ва кўникмаларни таъминлайди.

Хулоса

Давлат бошқаруви тизимида нотиқлик маҳоратини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари билим, психология, этика ва маданий қадриятларнинг интеграциясига таянади. Нотиқлик маҳорати давлат хизматчисининг касбий компетенциясини белгилайди ва бошқарув самарадорлигининг асосий кўрсаткичи сифатида хизмат қилади. Илмий адабиётлар таҳлилида нотиқлик маҳоратини шакллантиришда бошқарув психологияси, мулоқот маданияти ва риторика назарияларини уйғун қўллаш зарурлиги аниқланди [1]–[8]. Бу хулосалар давлат бошқарувида кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш жараёнларини такомиллаштиришда илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Нотиқлик маҳоратини ривожлантиришда давлат бошқаруви тизимидаги кадрлар учун қуйидаги чоралар тавсия қилинади: амалий тренинглар ташкил қилиш, мулоқот маданияти ва этика бўйича курсларни киритиш, нутқни таҳлил қилиш ва рефлексив машғулотлар орқали кўникмаларни мустаҳкамлаш. Шунингдек, глобаллашув ва идентичлик мавзулари давлат хизматчилари учун мунтазам ўргатилиши лозим.

Адабиётлар:

Деловой этикет и ведение переговоров: правила хорошего тона с коммент. психолога. М.: Кн. Дом: ЭКСМО, 2005. - 384 е.: илл.

Иштеев Р. Ф. Психология управления как деятельность и средство разрешения проблем / Р. Ф. Иштеев. Уфа: БГПУ, 2002. - 25 е.: илл.

Лучко М. J1. Этика бизнеса фактор успеха. - М.: ЭКСМО, 2006. - 320 с.

Мельник Г. С. Общение в журналистике: секреты мастерства / Г. С. Мельник. СПб.: Питер, 2005. - 217 е.; илл.

Пузысо В. И. Кризис идентичности личности в условиях глобализации // Философия и общество. 2007. - №4 (48). - С. 98-113.

Рачмагуллина 3. Я. Культура общения и взаимопонимания. Уфа: РИО БашГУ, 2002. - 162 с.

Рахматуллина 3. Я. Этикет как ценность культуры. Уфа: Гилем, 2004. -240 с.

Риторика монолога / Под ред. А. И. Варшавской. СПб.: Химера трэйд, 2002. 240 с

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Umarov Ibrohim Jamshid o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalarining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlar ma’naviyatiga ham kuchli ta’sir

ko‘rsatmoqda. Yoshlar har qanday jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlami bo‘lib, ularning ma’naviy dunyoqarashi kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida axborot texnologiyalari, internet va ommaviy madaniyat yoshlar ongiga tezkor va keng ko‘lamda ta’sir etmoqda. Shu sababli milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan biri – bilim va axborot almashuvining kengayishi, ta’lim va madaniyat sohasida yangi imkoniyatlarning yaratilishidir. Bugungi yoshlar dunyo tajribasini o‘rganish, xorijiy tillarni egallash, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o‘z intellektual salohiyatini oshirmoqda. Bu jarayon yoshlarning tafakkuri kengayishiga va ularning dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq globallashuvning salbiy jihatlari ham mavjud. Ayrim hollarda ommaviy madaniyat, begona g‘oyalar va axloqiy me’yorlarga zid qarashlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Milliy an’ana va qadriyatlarga befarqlik, ma’naviy bo‘shliq, individualizmning haddan tashqari kuchayishi kabi holatlar yoshlar ma’naviyatiga xavf tug‘diradi.

Shu nuqtayi nazardan, yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda oilaning, ta’lim muassasalarining va jamiyatning o‘rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, badiiy adabiyot va san’at orqali yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda insoniyat hayotining barcha sohalariga, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatiga shiddatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa bir tomondan dunyo ilm-fani va texnologiyalari yutuqlaridan erkin bahramand bo‘lish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan milliy o‘zlik va qadriyatlarga nisbatan turli mafkuraviy xurujlarni ham keltirib chiqarmoqda. Hozirgi kunda axborot maydonining cheksizligi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga, ularda hali to‘liq shakllanib ulgurmagan dunyoqarashning chalkashib ketishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Globallashuv sharoitida ma’naviy hayotga xavf solayotgan eng katta omillardan biri bu "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi yot g‘oyalardir. Bu g‘oyalar yoshlarni ko‘pincha yuzaki hayotga, ko‘r-ko‘rona taqlid qilishga, moddiy boyliklarni ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yishga va eng achinarlisi, befarqlik hamda loqaydlikka undaydi. Milliy ma’naviyatimizning ustunlari bo‘lgan kattalarga hurmat, oilaning muqaddasligi, sharm-hayo va o‘zaro hamjihatlik kabi fazilatlar bunday jarayonlarda kuchli bosim ostida qoladi. Yoshlar ongi va qalbini bunday salbiy ta’sirlardan himoya qilishning yagona yo‘li — ularda ma’naviy immunitetni kuchaytirishdir. Bu esa yosh avlodning o‘z ota-bobolari qoldirgan boy merosni, milliy tarixni va ona tilini chuqur bilishi, har bir yangilikka tanqidiy nazar bilan boqib, uning yaxshi va yomon tomonlarini ajrata olishi bilan bog‘liqdir. Ma’naviyatli yoshlar globallashuvni inkor etmaydilar, aksincha, dunyoning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirib, ularni milliy zamin bilan uyg‘unlashtirgan holda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qildira oladilar. Zero, ma’naviyati baquvvat yoshlar har qanday axborot xurujiga qarshi tura oladigan, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini har

narsadan baland tutadigan kuchli avlod bo‘lib yetishadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi zamon yoshlardan nafaqat zamonaviy bilimlarni egallashni, balki o‘zligini yo‘qotmagan holda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni talab etmoqda. Globallashuv jarayoni bugungi kunda shunchaki axborot almashinuvi emas, balki dunyoqarashlar va qadriyatlar o‘rtasidagi kurash maydoniga aylanib ulgurdi. Ushbu jarayonning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri shunchalik chuqurki, u insonning hayotiy prinsiplari, axloqiy me’yorlari va milliy o‘zligini butunlay o‘zgartirib yuborish quvvatiga ega. Zamonaviy dunyoda axborot oqimining tezlashishi yoshlarga dunyo ilm-fanini egallashda ulkan eshiklarni ochgan bo‘lsa-da, shu bilan birga "ma’naviy tahdid" deb ataluvchi tushunchani ham kun tartibiga chiqardi. Milliy madaniyat va an’analarning globallashuv to‘lqinlari ostida yuvilib ketish xavfi bugungi kunning eng og‘riqli nuqtalaridan biridir. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan, insonni faqat iste’molchi bo‘lishga, ma’naviy boylikdan ko‘ra moddiy lazzatlarni ustun qo‘yishga undaydigan yot g‘oyalar yoshlarning hali shakllanib ulgurmagan dunyoqarashini izdan chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda milliy ma’naviyat nafaqat o‘tmishdan qolgan meros, balki kelajakni asrab qoluvchi kuchli qalqon vazifasini o‘taydi. Yoshlarning qalbi va ongida o‘z vataniga bo‘lgan sadoqat, tarixiy xotira va ajdodlar o‘gitiga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ularni har qanday tashqi mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan chidamli qiladi. O‘zligini anglagan, milliy g‘ururi baland yoshgina globallashuvning ijobiy yutuqlaridan foydalanib, uning salbiy illatlaridan o‘zini asray oladi. Bugungi yosh avlod oldida turgan eng katta vazifa — zamonaviy texnologiyalarni mukammal egallash bilan bir qatorda, o‘zining milliy qiyofasini, odob-axloqini va insoniy fazilatlarini saqlab qolishdir. Faqatgina ma’naviy jihatdan yetuk va intellektual salohiyatli yoshlar jahon maydonida o‘z millatining munosib vakili bo‘la oladilar va globallashuvni o‘z taraqqiyotlari uchun xizmat qildira oladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni yoshlar ma’naviyatiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, axborot texnologiyalari va global madaniy aloqalar yoshlarning bilim doirasini kengaytirib, ularning dunyoqarashi va intellektual salohiyatini rivojlantirmoqda. Xalqaro tajribaga ochiqlik, zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanish yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida ijobiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchi tomondan esa, ommaviy madaniyat, begona g‘oyalar va axloqiy me’yorlarga zid qarashlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy tarbiya yetarli darajada shakllanmagan muhitda yoshlar orasida milliy qadriyatlarga befarqlik, ma’naviy bo‘shliq va ijtimoiy mas’uliyatsizlik holatlari kuchayishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash uchun ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni yoshlar ma’naviyatiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonning ijobiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, salbiy ta’sirlariga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida

tarbiyalash, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali globallashuv sharoitida barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Jo‘rayev T. Globallashuv va ma’naviyat masalalari. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Otamurodov S. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.

МИЛЛИЙ МАНФААТЛАРНИ НЕГИЗИДА АХБОРОТ МАФКУРАВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Хайрулла Умаров
Сиёсий фанлар номзоди, доцент

Глобаллашув жараёнларининг шиддат билан кечиши, жаҳонда куч марказларининг трансформацияси, сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий соҳалар ўртасида чегараларнинг ювилиб кетиши хавфсизлик масалаларини ҳал этишда мафкуранинг аҳамияти янада ортиб бормоқда.

Давлатлар ўртасидаги қуролли низолар ўрнига “маданиятлар (мафкуралар) тўқнашуви” юзага келмоқда. Бунинг мисоли сифатида турли ижтимоий тармоқ тармоқларида кечаётган турфа қарашлар мунозараларини кўриш мумкин.

Мафкуралар қарама-қаршилиги азал-азалдан бўлиб келган. Тарихда из қолдирган ҳар бир ҳукмдор сиёсат юритишда ахборот қуролидан самарали фойдаланганиб келган.

Маълумки, Миллий мафкура миллий манфаатларнинг қобиғи бўлиб, унинг вазифаси шахс, жамият ва давлат жипслигини таъминлашдан иборат. Миллий мафкура ҳар бир давлатда турли ном ва қарашлар мажмуини қамраб олган бўлади. Масалан, АҚШда либерализм ғояларини ўзида мужассам этган «Америка орзуси», Японияда император ва халқ ягона ғоясини ифода этувчи «Япон руҳи», ХХРда конфуцианлик ғояларини кўриш мумкин. Мафкура борасидаги мағлубият, собиқ Иттифоқ мисолида, мамлакатнинг парчаланишига олиб келади.

Маълумки, ахборот-мафкуравий уруш сиёсий, иқтисодий, ҳарбий ёки стратегик даражадаги бошқа мақсадларга эришиш йўлида инсон жамоалари ўртасида олиб борилувчи рақобат жараёнидир.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан имзоланган «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4307-сонли қарор [1] ҳамда “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сонли қарор [2] ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлаш борасида муҳим қадамлардан саналади.

Давлатимиз раҳбари томонидан имзоланган мазкур қарорларда маънавий-маърифий жараёнларни ташкил этишда яхлит тизимнинг мавжуд эмаслиги, халқимиз, айниқса ёшларни маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилиш борасида етарли даражада ташкилий-амалий ва илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмаётганлиги, ушбу йўналишда давлат ташкилотлари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ҳамда хусусий секторнинг ижтимоий ҳамкорлиги самарали йўлга қўйилмаганлиги таъкидланиши билан бирга, маънавий-маърифий йўналишда олиб борилиши зарур бўлган фаолият йўналишлари кўрсатиб берилган.

Замонавий Ахборот-мафкуравий урушнинг асослари XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб амалиётга жорий этилиб келинмоқда. Ахборот хуружининг самарадорлиги рақиб саналган ёки геосиёсий манфаатлар доирасида жойлашган давлатлар миллий манфаатларига салбий таъсир кўрсатишда, ички сиёсатида ижтимоий барқарорликни издан чиқаришда ҳам арзон, ҳам самарали амалиёт саналади.

Давлатлар ўртасида ахборот мафкуравий уруш бугунги кунда ҳам кўлами кенгайиб, ўзга давлатлар ижтимоий сиёсатига салбий таъсир кўрсатишда анча самарали кучга эга бўлмоқда. Ахборот мафкуравий урушнинг бош мақсади – махсус сараланган ва қайта ишланган ахборотни тарқатиш орқали инсон ва жамият қадриятларига таъсир кўрсатиш ва бу орқали рақиб саналган давлатнинг сиёсий, иқтисодий, ҳарбий салоҳиятини тушуриш саналади. Бу борада ғоя ва мафкура ҳаёт воқеалигидан узилиб қолмаслиги, стратегик ва жорий манфаатларнинг ўзаро узвийлиги, фундаментал миллий қадриятларни қамраб олиши лозим.

ХХР Ҳарбий фанлар академияси ходимлари, ҳарбий хизматчилар Ван Баоцунь ва Ли Фэй: «Ахборот хавфсизлиги ҳам тор маънода, ҳам кенг маънода қўлланилади. «Жанг майдонидаги ахборот уруши» деб аталувчи тор маънода «қўмондонлик ва бошқарув уруши»нинг моҳиятини ташкил этади ... Кенг маънода «ахборот уруши» тизимини яратиш муҳим аҳамият касб этади. Бунда ҳарбий/хавфсизлик даражаси билан бирга: 1) рақиб давлатнинг ахборот тизимига зарба бериш; 2) рақиб ахборот оқимига зарба бериш; 3) жамиятни бошқариш ҳамда акс таъсирларга тегишли жавоб бера олиш тизими имкониятларини чеклашни назарда тутади [10].

Миллий мафкура нималардан иборат бўлиши керак? Ушбу саволга жавоб беришдан аввал хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш жоиз.

Миллий мафкуралар ўртасидаги кураш Ахборот-мафкуравий уруш ёрдамида олиб борилади. Хорижий давлатлар ўз миллий манфаатларини ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш мақсадида турли хил сиёсий доктрина, концепцияларни илгари сурадилар. Хусусан, **АҚШда** 1947 йилда «Миллий хавфсизлик тўғрисида»ги қонун [6], 1948 йилда Смит-Мундт (Ахборот ва таълим алмашинуви ҳақидаги) қонуни [9] ҳамда ҳар бир АҚШ президентининг жорий сиёсатга қаратилган “Миллий хавфсизлик стратегияси”; **ХХРда** «Миллий хавфсизлик тўғрисида»ги қонун (2015 йилдаги янги таҳрир) [16], ХХР коммунистик партияси сеъздларида қабул қилинувчи “ХКП Давлат хавфсизлиги ғоялари” каби ҳужжатлар; **Россия Федерациясида** “Миллий хавфсизлик стратегияси ҳақида” [15], “Ахборот

хавфсизлиги доктринаси” [12], “Жамоат хавфсизлиги концепцияси” [13]; **Японияда** “Миллий хавфсизлик стратегияси ҳақида” [18] каби ҳужжатлар қабул қилинган.

Мазкур ҳужжатларда ахборот-мафкуравий фаолият давлат назоратида эканлиги ҳамда давлатнинг устивор/стратегик вазифалари сифатида ифода этилади.

Шу билан бирга, АҚШда сиёсий тадқиқотчилар томонидан – “Америка америкаликлар учун” (Монро доктринаси), Маршалл режаси, “Хавфсизлик комплекси” (Барри Бюзан концепцияси), “Юмшоқ куч” (Джозеф Най назарияси), “Маданиятлар тўқнашуви” (Самюэл Хантингтон концепцияси) каби илмий асосланган концепциялар ҳам илгари сурилади

Ахборот-мафкуравий уруш олиб боришда АҚШ катта тажрибага эга давлат саналади ва XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб мазкур йўналишда фаолият юритиб келади. Шу даврдан бошлаб, АҚШ «Америка овози», «Озодлик» каби радиомарказларни жорий этиб, улар орқали ўз мафкуравий қарашларини илгари суриб келади. Боз устига, АҚШ – Британия, Канада, Австралия ва Янги Зелландия каби бошқа англо-саксон давлатлари билан узвий равишда ҳамкорлик олиб боради.

АҚШда ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлаш 1947 йилда қабул қилинган «Миллий хавфсизлик тўғрисида»ги қонун асосида тартибга солинади. Ахборот-мафкуравий уруш олиб боришда назорат АҚШ Хавфсизлик кенгашига юклатилган.

Конгресс қарорига биноан АҚШ Ахборот агентлиги АҚШ Давлат департаменти негизида жорий этилган бўлиб, унинг асосий мақсади ҳам мамлакат ичкарисида ҳам халқаро майдонда “АҚШга қарши қаратилган ахборотнинг ҳар қандай турига қарши фаолият олиб бориш”дан иборат. 1948 йилда қабул қилинган Смит-Мундт қонуни [9] АҚШ ахборот-тарғибот фаолиятининг ҳуқуқий асосини белгилаб берди. Унга биноан АҚШ Давлат котиби «зарурият юзага келган пайтда АҚШ, унинг халқи ва сиёсати ҳақидаги ахборотни тайёрлаш ҳамда уларни ОАВ, нашрлар, радио, кино ва бошқа воситалар, шунингдек, хориждаги ахборот марказлари ва инструкторлар орқали тарқатиш фаолиятига раҳбарликни амалга ошириши» белгиланган [9].

Шу билан бирга, Смит-Мундт қонунига [9] биноан АҚШда Ижтимоий дипломатия бўйича маслаҳатлашув комиссияси (ИДМК, Advisory Commission on Public Diplomacy – ACPD) ҳам жорий этилди. Мазкур ташкилот олдига турли халқаро доираларда АҚШ ҳақида ахборот тарқатиш ҳамда жамоатчилик фикрини шакллантириш вазифаси қўйилган.

Мазкур Комиссия олдига, шунингдек, хорижий жамоатчилик орасида мамлакат фаолиятини қўллаб-қувватлаш, хабардор қилиш, рағбатлантириш ва таъсир кўрсатиш жараёнини баҳолаш вазифаси ҳам юклатилган. ИДМК АҚШ президенти, Давлат котиби ва Конгрессга бўйсунади. Ташкилилий масалаларда Комиссия фаолиятини эса Давлат котибининг Ижтимоий дипломатия ва жамоатчилик билан алоқалар бўйича ўринбораси бошқаради.

Бугунги кунда АҚШ қадриятлари, сиёсати ва ҳатти-ҳаракати ҳақидаги маълумотларни кенгроқ тарқатиш вазифаси АҚШдаги барча давлат муассасалари – департамент ва агентликлари олдига қўйилган [8].

Смит-Мундт қонунига [9] биноан дастлаб икки Комиссия – **Ахборот бўйича АҚШ маслаҳатлашув комиссияси** ва **Таълим ва маданият масалалари бўйича АҚШ маслаҳатлашув комиссияси** (Mutual educational and cultural exchange program – Fulbright-Hays Act of 1961) [3] тарғибот йўналишда фаолият юритувчи орган сифатида жорий этилган. 1977 йилда иккала Комиссия бирлаштирилиб **Ижтимоий дипломатия бўйича АҚШ маслаҳатлашув комиссияси** (ИДМК) жорий этилди.

ИДМК 7 нафар аъзодан иборат бўлиб, улар АҚШ президенти томонидан 3 йил муддатга тайинланади ва Сенат томонидан тасдиқланади. Аъзолар бир партиядан 3 нафардан ортиқ киши бўлмаслиги керак. Комиссия ижрочи директори кундалик операцияларни назорат қилади ва бутун дунёда давлат дипломатияси фаолиятини яхшилаш борасида конструктив қарорлар ишлаб чиқиш мақсадида қонунчилик ва ижроия органлари, ННТлар ҳамжамияти, бизнесс ва илмий доиралар билан фаол равишда ишлайди [8].

АҚШ Қуролли кучлар уставида: «Ахборот мафкуравий уруш - рақиб томон саналмиш ўзга давлат фуқароларига «ҳақиқат»ни матндан узиб олган ҳолда, ёлғон хулосага келтирувчи далиллар орқали таъсир кўрсатиш саналади», - деб таъриф берилади [4].

Шу билан бирга мафкура борасида ХХР тажрибаси ҳам диққатга сазовор. Хитой Халқ Республикаси коммунистик мафкура асосида таркиб топган бўлсада, **миллий мафкура асосан хитой маданияти асосига қурилган**. Мазкур концепция Ден Сяопин томонидан ХХ асрнинг 80-йилларида илгари сурилган «Мушук оқми ё қора – фарқи йўқ, асосийси сичқон тутса бас» ғояси ётади. Яъни, коммунистик давлатлаги хитойликми, ёки хорижда истиқомат қилувчи хитойликми, фарқи йўқ. Энг муҳими барча хитойликлар бирлашишлари даркорлиги ғояси ётади.

Мазкур ғоянинг амалга оширилиши ва унинг устидан назорат этилиши Хитой коммунистик партияси Марказий кенгаши Ахборот ва тарғибот бўлими томонидан амалга оширилади. Мазкур бўлим асосий кўрсатмаларни ишлаб чиқади ҳамда барча ҳудудий бошқармаларга тегишли кўрсатмалар беради [17].

Хусусан, «Миллий хавфсизлик тўғрисида»ги қонуннинг 2 боб 23 моддасида “давлат ... **хитой миллатининг илғор анъанавий маданиятини илгари суради**, социалистик маданиятнинг муҳим қадриятларини шакллантиради ва амалга оширади, **бузғунчи маданият таъсирини бартараф этади ва қарши туради, мафкура соҳасида етакчи ўринни эгаллайди** ва умуммиллий маданиятни рағбатлантиради” деб қайд этилган [16]. Мазкур ҳужжатнинг 15 моддасида ушбу жараённи назорат этиш давлат ваколатида эканлиги таъкидлаб ўтилган.

Хитойда мафкуравий ғояларнинг илгари сурилишида тарғибот воситаларининг барча турларидан фаол фойдаланилади. Ташқи рекламаларнинг барчаси хитой маданияти ва конфуцианлик ғоялари билан сингдирилган

бўлишига алоҳида эътибор қаратилади. Хитой телевидениеси ва радиоси мафкуравий ғояларни илгари суришда муҳим восита сифатида қаралади.

ХХР раиси Мао Цзэдун ижтимоий муаммоларни ҳал этиш борасида: «Биз ‘Совет Иттифоқи тажрибаси асосида ўрганиш’ шиорини илгари сурганмиз; бироқ биз ҳеч қачон унинг қолоқ тажрибаси асосида ўрганишни назарда тутмаганмиз. Унинг қолоқ тажрибаси борми? Бор. Масалан, ғайри тафаккур эгаларига қарши куч ишлатилган. **Бизда эса, бу иш билан ташкилот ва мактаблар шуғулланишган. Биз барчани мазкур масалага жалб этиб, асосий урғуни ижтимоий хавфсизлик масаласига қаратганмиз**».

ХХРда мафкуравий тарғибот фуқароларнинг ёшлик чоғидан, яъни мактабгача таълим муассасаларидан бошланади. Мактаб ҳамда ОЎЮларида тарғибот ишларига жиддий эътибор қаратилади.

Ижтимоий тармоқлар устидан назорат ХХР хавфсизлик хизмати ваколатига киритилган ва бу борада Хитой миллий дастурий таъминот ишлаб чиқилган бўлиб, Google ўрнига Baidu браузери, Telegram ўрнига WeChat, QQ ижтимоий тармоғи каби дастурлардан фойдаланиш йўлга қўйилган. Боз устига Интернет тармоғига чиқиш учун ҳар бир фуқаронинг ўз логини бўлиб, ким, нима ҳақида ёзаётгани назорат қилиб борилади.

Хорижий давлатлар Ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлаш тажрибаси асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Аксарият давлатларда Ахборот-мафкуравий хавфсизлик масалалари билан шуғулланиш Хавфсизлик кенгаши доирасида, давлат раҳбари назорати остида амалга оширилади.

2. Барча давлатларда Ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлашга қаратилган ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинган ҳамда Ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлаш муайян тизимга солинган.

3. Етакчи давлатларда Ахборот-мафкуравий хавфсизлик масалаларини мувофиқлаштириш мақсадида муайян кенгашлар жорий этилган ҳамда йилига камида бир маротаба давлат раҳбарига ҳисобот беради.

4. Хорижий давлатлар органларининг барчалари Ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлашга масъулдирлар.

5. Ахборот-мафкуравий хавфсизликни таъминлаш узлуксиз ва бўлинмасдир, тарғибот-ташвиқот ишлари бошқарув шаклларидан (давлат органлари ёки хусусий) қатъий назар ҳар бир фуқаро, ҳар бир муассаса ва ҳар бир давлат органи томонидан амалга оширилади.

6. Тарғибот-ташвиқот ишлари мактабгача таълим, ўрта таълим ва Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида (давлат, хусусий ёки хорижий бўлсин) ягона давлат стандартлари асосида олиб борилади.

Миллий мафкурани шакллантиришда турфа хил мос келадиган ва мос келмайдиган сунъий хорижий илмий қолипларга солиш тўғри келмаслигини таъкидлаш ўринли. Ўзбекистон Миллий мафкураси нималарни қамраб олиши керак?!

Биринчидан, ҳар бир мафкура миллий манфаатларни: фундаментал – тили, дини, урф-одат-қадриятлари, тарихи; рамзий – давлат белгилари, ҳудуди, тузуми, чегаралар кўлами; жорий – ташқи сиёсий мақсадлар ва ички интилишлари ўзида ифода этиши лозим.

Иккинчидан, ойкумена концепцияси – мамлакат ва миллий ҳаётий кенглик масаласи. Яъни, мафкура давлатнинг ташқи сиёсий хафсизлик муҳини яратиш учун буфер ҳудуд чегараларини белгилаб бериши. Бугунги кунда аксарият тадқиқотчилар томонидан минтақавий интеграцияни амалга ошириш зарурлиги ҳақида фикрлар билдириб келинмоқда. Бироқ уларнинг деярли барчаси умумий, эҳтиросларга таянган, амалга оширилиш механизмлари кўрсатилмаган фикрлардир. Миллий мафкура минтақачилик мафкураси қарашларини ифода этиши ҳамда унинг минтақавийлашуви/институционаллашуви учун шарт-шароитлар яратиши жоиз.

Учинчидан, мафкуранинг таянч ижтимоий қатламини – стратосига ойдинлик киритиш мақсадга мувофиқ. Бу борада Ватанпарварлик, миллий бирлик, адолат, инсонпарварлик, маърифий юксалиш каби тушунчалар миллий мафкуранинг самарадорлигини кўрсатиб берувчи натижа саналади.

Ўзбекистон Республикасида юзага келган ижтимоий-иқтисодий ҳамда мафкуравий вазиятни тартибга солиш мақсадида қуйидаги ишларни амалга ошириш талаб этилади:

Биринчидан, «Ўзбекистон Республикаси Ахборот-мафкуравий хавфсизлик концепцияси»ни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш. Ушбу ҳужжат ўз ичига қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни қамраб олиши талаб этилади.

Иккинчидан, Ахборот-мафкуравий хавфсизлик тизимини шакллантириш, унинг субъектлари, объекти, предмети ва воситаларини аниқ белгилаб бериш.

Учинчидан, барча стратегик соҳа ва йўналишлар бўйича Ақлий марказлар жорий этиш ва уларни ягона мақсадга бўйсундириш.

Тўртинчидан, хорижий давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда таълимнинг барча қатлами, ОАВ, Телевидение ва радио фаолиятини мувофиқлаштириш.

Бешинчидан, ижтимоий тармоқларда илгари сурилаётган ғоя ва фикрларни мониторинг қилиб бориш, уларнинг динамикасини аниқлаш, ушбу фикрларни илгари сураётган шахсларнинг психологик портретини яратиш.

Ахборот-мафкуравий хавфсизлик тизимининг самарали ишлаши Ўзбекистон Республикаси миллий манфаатларининг таъминланишига, унинг миллий хавфсизлигининг самарали таъминланишига, юртимизнинг жаҳон сиёсатида ўз мақоми ва позицияларини ушлаб қолишига кўмак беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори // URL манзили: https://lex.uz/docs/4320700

2. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори // URL манзили: https://lex.uz/docs/5344692

3. Fulbright-Hays Act (see Mutual Educational and Cultural Exchange Act of 1961) // URL манзили: https://uscode.house.gov/view.xhtml?path=/prelim@title22/chapter33&edition=prelim

4. Information Operations. Joint Publication 3-13. 27 November 2012 Incorporating Change 1 20 November 2014 // URL манзили: https://www.jcs.mil/Portals/36/Documents/Doctrine/pubs/jp3_13.pdf

5. Pyle K.B. Japan Rising: The Resurgence of Japan Power and Purpose. – New York: Public Affairs, 2007. - P. 234;

6. REF BOOK - 1947 NATIONAL SECURITY ACT (Public Law 235 of July 26, 1947; 61 STAT. 496) // URL манзили: https://www.dni.gov/index.php/ic-legal-reference-book/national-security-act-of-1947

7. Treaty of Peace with Japan, Sept. 8, 1951, San Francisco, California, USA // - URL манзили: https://china.usc.edu/treaty-peace-japan-1951

8. U.S. Advisory Commission on Public Diplomacy // URL манзили: https://www.state.gov/about-us-u-s-advisory-commission-on-public-diplomacy/

9. United States Informational and Educational Exchange Act of 1948 // Public Law 80-402, 62 Stat. 6. Passed Congress/Enrolled Bill: Jan 27, 1948 (АҚШ Конгрессининг электрон кутубхонаси). - URL манзили: https://2009-2017.state.gov/documents/organization/177574.pdf

10. Wang Baocun, Li Fei. Information Warfare // Liberation Army Daily, 13 June 1995. – Url-adress: https://irp.fas.org/world/china/docs/iw_wang.htm

11. Ашинова Ж.Е. Некоторые аспекты японо-китайских взаимоотношений после распада биполярной системы международных отношений // Алматы: Сборник материалов с конференции "Фундаментальные и инновационные проблемы востоковедного образования и науки", 2011. - URL манзили: https://articlekz.com/article/4966

12. Доктрина информационной безопасности Российской Федерации // URL манзили: www.scrf.gov

13. Концепция общественной безопасности в Российской Федерации // 20 ноября 2013 года // URL манзили: http://www.kremlin.ru/acts/news/19653

14. Национальные интересы в информационной сфере // URL манзили: http://www.safety-info.ru/content/view/63/1/

15. Указ Президента Российской Федерации "О Стратегии национальной безопасности Российской Федерации" от 02.07.2021 г. № 400 // URL манзили: http://www.kremlin.ru/acts/bank/47046

16. 中华人民共和国国家安全法（主席令第二十九号），2015 年 7 月 1 日 // URL манзили: http://www.gov.cn/zhengce/2015-07/01/content_2893902.htm

17. 国务院新闻.人力资源和社会保障部宣传中心 // URL манзили: http://www.mohrss.gov.cn/xxgk2020/fdzdgknr/zzjg/zsdw/201802/t20180206_288041.html

18. 国家安全保障戦略について, 2013 年 12 月 17 日 // URL манзили: https://worldjpn.grips.ac.jp/documents/texts/JPSC/20131217.O1J.html

19. 海部俊樹総裁時代。平成元年 8 月 8 日~平成 3 年 10 月 30 日 // - URL манзили: https://www.jimin.jp/aboutus/history/14.html

GLOBALLASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TUPROQ VA O’SIMLIKLARNI EKOLOGIK MUHOFAZA QILISH MASALARI

Umarova Feruza Roziboyevna
ToshDAU katta o‘qituvchisi
Amirov Avazbek Kamiljon o’g’li
ToshDAU talabasi

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki o‘tkir ekologik muammolarni ham qo‘ymoqda. Dunyo aholisining tez sur’atlar bilan o‘sishi va sanoatlashuv darajasining yuqorilashi natijasida tabiiy resurslarga, xususan, tuproq unumdorligi va o‘simliklar dunyosiga bo‘lgan antropogen bosim misli ko‘rilmagan darajada ortdi. 2025-yilga kelib, iqlim o‘zgarishi va cho‘llanish jarayonlari global oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita tahdid solayotgan asosiy omillarga aylandi. BMTning Barqaror rivojlanish hisobotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sifati buzilishi global miqyosda 3,2 milliard aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yer resurslarining unumdorligini saqlash nafaqat ekologik, balki 2030-yilga qadar global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy shartidir.

Yer qobig‘ining yuza unumdor qismi tuproq sanalib, tabiiy tarixiy jism hisoblanadi. Tuproq — biosferaning asosi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi asosiy vositadir. Tuproqning eng muhim xususiyatlaridan biri - o‘simlikni suv, havo va ozuqa moddalar bilan ta’minlaydi. Biroq, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, sho‘rlanishi va kimyoviy ifloslanishi oqibatida har yili millionlab gektar unumdor yerlar foydalanishdan chiqib ketmoqda. Ushbu jarayonlarning eng xavfli jihati shundaki, tuproqning unumdor qatlami shakllanishi uchun asrlar talab etiladi, biroq noto‘g‘ri agrotexnik tadbirlar oqibatida u bir necha yil ichida yaroqsiz holga kelishi mumkin. Shu bilan birga, o‘simliklar dunyosining qisqarishi biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. FAO ekspertlarining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, tuproqning sho‘rlanishi, kislotaliligi va og‘ir metallar bilan ifloslanishi oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda asosiy to‘siqqa aylangan. Hozirgi vaqtda dunyo bo‘ylab haydaladigan yerlarning qariyb 33 foizi o‘rtacha va kuchli darajada degradatsiyaga uchragan. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, agar tuproqni muhofaza

qilish bo‘yicha keskin choralar ko‘rilmasa, 2050-yilga borib bu ko‘rsatkich 90 foizga yetishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida ham yerlarning sho‘rlanishi va eroziyasi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash strategik maqsad hisoblanadi. Xususan, tuproq unumdorligini oshirish va "Yashil makon" loyihasi orqali o‘simliklar qoplamini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Mahalliy olim S.Tursunov o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tuproqlari tarkibidagi gumus miqdorining kamayib borayotganini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, tuproqning organik tarkibini tiklash uchun faqat mineral o‘g‘itlar bilan cheklanmasdan, balki fitomeliorativ o‘simliklardan foydalanish zarur.

Shu bilan birga, Globallashuv natijasida o‘simliklar dunyosiga bo‘lgan bosim faqatgina ularni kesish yoki yo‘q qilish bilan cheklanmaydi. Iqlimning isishi natijasida ko‘plab endemik turlar o‘z arealini yo‘qotmoqda. IUCN (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi) 2025-yilda yangilangan "Qizil kitob" ma’lumotlarida keltirilishicha, dunyodagi daraxt turlarining qariyb 30 foizi butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. O‘simliklar dunyosining genofondini asrash masalasi ham global ahamiyatga ega. Iqlim o‘zgarishi va inson faoliyati tufayli hozirda o‘simlik turlarining 25 foizdan ortig‘i yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi.

Mahalliy olimlarning fikriga ko‘ra, tuproq unumdorligini oshirishda almashlab ekishning innovatsion usullarini qo‘llash va organik o‘g‘itlardan foydalanish eng samarali yo‘llardan biridir. Olim B.M. Xoliqov o‘z tadqiqotlarida tuproqning biologik faolligini oshirmasdan turib, barqaror hosildorlikka erishib bo‘lmasligini isbotlagan.

Xalqaro ekspertlarning ta’kidlashicha, ekotizimlarni himoya qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, masofadan zondlash (GIS) tizimlari muhim rol o‘ynaydi. IPBES hisobotida qayd etilishicha, sun’iy yo‘ldosh orqali monitoring qilish o‘simliklar qoplamidagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlash va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi.

Zamonaviy ilm-fanda "Aqlli qishloq xo‘jaligi" (Smart Agriculture) tushunchasi tuproq va o‘simliklarni muhofaza qilishda yangi ufqlarni ochmoqda. Sun’iy intellekt va datchiklar yordamida har bir qarich yerning namligi va ozuqa moddalari holatini aniqlash, o‘g‘itlarni faqat kerakli nuqtaga solish tuproqning kimyoviy zaharlanishini keskin kamaytiradi. Xalqaro ekspertlar V. Golosov va uning jamoasi o‘z ilmiy ishlarida global isish sharoitida tuproq eroziyasini prognoz qilishning yangi modellarini taklif etganlar.

Ushbu maqolaning maqsadi — barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tuproq unumdorligini oshirish, o‘simliklar genofondini asrash va ularni ekologik muhofaza qilishning zamonaviy strategiyalarini tahlil qilishdan iborat. Bu muammolarni hal etish nafaqat tabiatni asrash, balki kelajak avlodlar uchun xavfsiz yashash muhitini yaratishning muhim shartidir.

Globallashuv davrida tuproq va o‘simliklarni muhofaza qilish nafaqat tabiatni asrash, balki insoniyatning kelajakdagi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash demakdir. Olingan tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Tuproq unumdorligini saqlash: Hozirgi iqlim o‘zgarishi sharoitida tuproqni haddan tashqari kimyoviy o‘g‘itlar bilan zaharlashdan voz kechib, almashlab ekish va organik usullarga o‘tish davr talabidir. Bu yerlarning sho‘rlanishi va eroziyasini to‘xtatishning yagona yo‘lidir.

O‘simliklar dunyosini asrash: Yovvoyi o‘simliklar va noyob turlar genofondini saqlash — kelajakda qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlarni yaratish uchun xomashyo bazasi hisoblanadi. Shuning uchun "Yashil makon" kabi loyihalar orqali o‘simlik qoplamini kengaytirish strategik ahamiyatga ega.

Innovatsion yondashuv: Tuproq va o‘simliklar holatini doimiy monitoring qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik muammolarni oldindan aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanishga erishish uchun har bir davlat tuproq va o‘simliklarni asrashni ustuvor vazifa deb bilishi shart. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanishgina kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhitni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

United Nations, Sustainable Development Goals Report, 2025.
FAO, The State of the World's Land and Water Resources, 2025.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-158, 2023.
Tursunov S., "Tuproqshunoslik va tuproq muhofazasi", 2023.
IUCN, Red List of Threatened Species, 2025.
Xoliqov B.M., "Almashlab ekish va tuproq unumdorligi", 2022.
IPBES, Global Assessment Report, 2024.
Golosov V., "Soil Erosion and Globalization", 2024.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA FANINING O‘RNI

G‘aniyev Doniyor Musurmonovich
SamDU Urgut filiali o‘qituvchisi
Umirova Sevinch Qahramon qizi
SamDU Urgut filiali talabasi

Mantiqiy fikrlash insonning fikrlash jarayonida hodisalar, tushunchalar, sabab va natija aloqalarini aniqlash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish va muammoni hal etish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, ularning o‘rganish jarayonida muvaffaqiyat qozonishi, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Matematika fani mantiqiy fikrlashni shakllantirishda eng samarali vositalardan biridir. Shu sababli pedagogik jarayonda matematika fanini faqat hisoblash va amaliy topshiriqlar bilan cheklamasdan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda matematika fanining o‘rnini aniqlash va samarali metodlarni ishlab chiqish maqsadida,

quyidagi vazifalarni bajarish lozim: Mantiqiy fikrlash tushunchasi va uning pedagogik ahamiyatini o‘rganish; Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikalarini tahlil qilish; Matematika fanining mantiqiy fikrlashga ta’sirini eksperimental tarzda aniqlash; Natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagog va psixolog Vygotskiy mantiqiy fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi. “Mantiqiy fikrlash bu bilimlarni tizimli tarzda qayta ishlash, hodisalar va tushunchalar o‘rtasidagi sabab va natija aloqalarini aniqlash, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish jarayonidir”[1].

D.Karimova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy fikrlash qobiliyati nafaqat matematika, balki boshqa fanlar bilan shug‘ullanishda ham asosiy ko‘nikma sifatida xizmat qiladi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi boshlang‘ich sinf pedagogikasi uchun muhim ahamiyatga ega va bu jarayonda matematika fanining o‘rni katta”[4] deya ta’kidlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi o’qitish metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi:

-Muammoli o‘qitish: bu metod orqali o’quvchilarda qo’yilgan masalaga tezkor hamda to’g’ri yechim izlash va topish qobilyatlari shakllanadi

- O‘yinli va interfaol metodlar: o’yinlar orqali berilgan topshiriqning no- an’anaviy yechimlarini keltirish mumkin.

- Vizualizatsiya va diagrammalar yordamida fikrlash: turli shakl va chizmalarni xayolan tasavvur etish va uni tasvirlash orqali mantiqiy fikrlash qobilyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir o’tgazish mumkin.

- Analogiyalar va taqqoslashlar orqali tushuntirish:turli taqqoslashlar orqali ular haqida xulosalar chiqarish va solishtirish qobilyati rivojlanadi.

Matematika abstrakt fikrlashni shakllantirishda eng muhim ahamiyatga ega fan bo’lib, u boshlang’ich sinf o’quvchilariga muammolarni tahlil qilish va yechim topish, raqamlar, shakllar va diagrammalar bilan ishlash orqali abstrakt fikrlashni rivojlantirish, sabab-natija aloqalarini aniqlash va mantiqiy xulosalar chiqarish imkoniyatlarni beradi. Matematika fanini interfaol va muammoli metodlar bilan o‘qitish bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Matematika fanining o’quvchilar mantiqiy fikrlash qobilyatini rivojlantirishga ta’sirini o’rganish maqsadida quyidagi kichik tajriba amalga oshirildi: Boshlang’ich sinfning II, III va IV sinflarida tahsil olayotgan 60 nafar o‘quvchilar tanlab olinib ikki guruhga bo‘lindi, birinchi guruhga matematika fani yordamida fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar berildi, ikkinchi guruhga esa amaliy bajariladigan topshiriqlar berildi. Tajribadan oldin va keyin o‘quvchilarning dars davomida mantiqiy fikrlash faoliyatini monitoring qilish; mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash uchun maxsus test topshiriqlari; o‘quvchilarga muammoli vazifalar berilib, ularning yechish qobiliyati tahlil qilindi. Natijada birinchi guruhdagi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash darajasi ikkinchi guruhga nisbatan 30–35%ga oshganligi ma’lum bo‘ldi, hamda o‘yinlar, diagrammalar va muammoli topshiriqlar orqali matematika fanini o‘qitish mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Demak mantiqiy fikrlash jarayonini

rivojlantirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematika darslarida muammoli vazifalarni muntazam qo‘llashlari lozim. Bu orqali ular vizual metodlar va o‘yinlar orqali mantiqiy fikrlashni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L. S. Minds in Society. Harvard University Press.
2. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. Routledge.
3. Polat, E. S. Pedagogika psixologiyasi. Moskva: Prosveshchenie, 2003.
4. Karimova, D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. T.: 2019.
5. Polya, G. How to Solve It. Princeton University Press, 1957.
6. Bruner, J. The Process of Education. Harvard University Press, 1966.

TARBIYACHINING SHAXSIY MADANIYATI VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIGA TA’SIRI

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna
Oriental universiteti o’qituvchisi
Umirzoqova Gulsevar Azizbek qizi
Oriental universiteti talabasi

Jamiyatning taraqqiyoti va kelajak avlodning barkamol bo‘lib yetishishi avvalo maktabgacha ta’lim tizimiga bog‘liqdir[1,39]. Maktabgacha yosh davri — bolaning ijtimoiy, ma’naviy va emotsional jihatdan shakllanishida eng muhim bosqichdir[2,19]. Bu davrda bolaning ruhiy va axloqiy fazilatlari, xulq-atvori va ijtimoiy ko‘nikmalari asosiy ravishda tarbiyachining shaxsiy namunasiga tayanadi[2, 21].

Tarbiyachi shaxsining madaniyati va axloqiy fazilatlari bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasini shakllantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tarbiyachining kasbiy va shaxsiy madaniyati bolalar tarbiyasining samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi[6,54]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy madaniyatli tarbiyachi bilan ishlash bolalarda ijtimoiy moslashuv, mustaqil fikrlash va axloqiy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi[6,59].


Tarbiyachining shaxsiy madaniyati — bu uning madaniyati, axloqiy va ma’naviy fazilatlari, nutq va muomala madaniyati, tashqi ko‘rinishi hamda kasbiy mas’uliyatini o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha hisoblanadi[6,87]. Shaxsiy madaniyat tarbiyachining nafaqat kasbiy faoliyatida, balki kundalik xulq-atvorida ham namoyon bo‘ladi. U bolalar oldida o‘rnak bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi[6,91].

Shaxsiy madaniyat tarkibida bir nechta muhim jihatlar ajralib turadi. Nutq madaniyati — tarbiyachining so‘zlash uslubi ravon, tushunarli va muloyim bo‘lishi, bolalar bilan muloqotda hurmat va samimiyatni saqlashi. Bu bola nutqini rivojlantirish,

muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va axloqiy qadriyatlarni singdirishda katta ahamiyatga ega. Muomala madaniyati — tarbiyachining bolalar, hamkasblar va ota-onalar bilan muloqotidagi odob-axloqi va xushmuomalaligi. Shunday muloqot bolalarda hurmat, ijtimoiy ko‘nikmalar va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axloqiy va ma’naviy fazilatlar, jumladan halollik, adolat, mas’uliyat, sabr-toqat va mehr-shafqat tarbiyachining xatti-harakatlari va qarorlariga ta’sir qiladi. Bolalar bu fazilatlarni kundalik hayotda kuzatish orqali o‘zlarida shunga o‘xshash ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi. Tashqi ko‘rinish va kiyinish madaniyati tarbiyachining saranjomligi, tozalik va tartib-intizomini o‘z ichiga oladi. Bu esa bolalarda estetik did, ozodalikka hurmat va tartibli bo‘lishga bo‘lgan intilishning rivojlanishiga yordam beradi. Kasbiy mas’uliyat va o‘zini rivojlantirishga intilish tarbiyachiga pedagogik qarorlarni oqilona qabul qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va doimiy kasbiy o‘sishga intilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu bolalarning bilim va ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, tarbiyachining shaxsiy madaniyati uning barcha faoliyat sohalarida — nutqdan tortib tashqi ko‘rinishigacha — o‘zini namoyon qiladi va maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi[6,53].




Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘proq kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganadilar. Shu sababli tarbiyachining kundalik xatti-harakati, so‘zlash uslubi va munosabati bolalar tomonidan tez qabul qilinadi[5,17]. Agar tarbiyachi madaniyatli, sabrli va mehribon bo‘lsa, bolalarda ham ijobiy xulq-atvor shakllanadi.

Tarbiyachi xulqi	Bolalarda shakllanadigan sifatlar
Muloyim muomala	Hurmat, odob
Tartibli va ozoda bo’lish	Tozalikka intilish
Sabr-toqatli munosabat	Tinchlik, o’zini boshqarish

Adolatli yondashuv	Halollik, ishonch

Tarbiyachining bolalar bilan muloqoti ularning ruhiy holati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Samimiy, tushunarli va sabrli muloqot bolalarda ishonch va ochiqlikni shakllantiradi. Bu esa bolalarning o‘z fikrini erkin ifodalashiga va mustaqil fikrlashiga imkon yaratadi[5, 21].



Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining shaxsiy madaniyati bolalar shaxsini shakllantirishda hal qiluvchi pedagogik omil hisoblanadi. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolalarda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, muloqot ko‘nikmalari va estetik didning dastlabki asoslari shakllanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachi nafaqat ta’lim beruvchi mutaxassis, balki bolalar uchun kundalik hayotda o‘rnak bo‘ladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatadiki, tarbiyachining nutq madaniyati, muomala uslubi, tashqi ko‘rinishi, kasbiy mas’uliyati va axloqiy fazilatlari bolalarning ruhiy holati hamda ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachining madaniyatli va mas’uliyatli xatti-harakatlari bolalarda ijobiy sifatlar — hurmat, halollik, tartiblilik, mustaqil fikrlash va o‘zini tutish madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarbiyachining shaxsiy namuna bo‘lishi tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘proq ko‘rgan va kuzatgan xatti-harakatlarini tez va barqaror qabul qiladilar. Shu bois tarbiyachining har bir harakati, so‘zi va munosabati bolalar tarbiyasiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida qaralishi lozim. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarning shaxsiy madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tarbiyachilarning kasbiy va axloqiy jihatdan yetuk

bo‘lishi, o‘z ustida doimiy ishlashi hamda pedagogik etikaga rioya qilishi barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Chunki tarbiyachi — kelajak jamiyatini shakllantiruvchi avlodning ilk ustozidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova. Maktabgacha Pedagogika. Darslik. «Tafakkur» NASHR1YOTI TOSHKENT – 2019.

Karimova S. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019,

Qodirov B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

Yo‘ldoshev J. Pedagogik etika asoslari. — Toshkent: Sharq, 2017.

Ismoilova N. Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyaning o‘rni. — Toshkent, 2020.

Mamatqulova D. Tarbiyachi madaniyati va kasbiy mahorat**.** — Toshkent, 2021.

GLOBALLASHUV DAVRIDA TALIM TARBIYANING AHAMIYATI VA O‘RNI

Umrzoqova Odinabonu Shuhratjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Kirish. Globallashuv zamonaviy dunyoning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda, shu jumladan, ta'lim va tarbiya tizimlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari milliy ta'lim tizimlarini yangicha yondashuvlar va yuksak xalqaro standartlarga moslashishga majbur qilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, mamlakatning barqaror rivojlanishi va uchinchi Renessans poydevorining yaratilishi aynan bilimli va keng dunyoqarashga ega yoshlar tayyorlashga bog‘liqdir. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonlarini globallashuvning imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish orqali har tomonlama yetuk avlodni shakllantirish mamlakat kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuv ta'limda yangi yondashuvlar va metodlarni talab qilmoqda, shu jumladan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va yoshlarni zamonaviy dunyo sharoitlariga mos ravishda o‘qitish zaruriyatini yaratmoqda. Biroq, globallashuvning ta'lim-tarbiyaga bo‘lgan ta'siri ikki tomonlama bo‘lib, u milliy madaniyat, an’ana va qadriyatlarning yo‘qolish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun, globallashuv jarayonida milliy ta'lim tizimlari nafaqat xalqaro tajribadan foydalanishi, balki o‘zining noyob madaniy merosini saqlab qolishga ham katta e’tibor qaratishi kerak.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarga o‘z qadr-qimmatini anglata oladigan va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan muhit yaratishga qaratilgan. Shu bois, ta'lim-tarbiyaning maqsadi milliy o‘zlikni shakllantirish va global dunyo bilan muvaffaqiyatli integratsiyalashuvga tayyor bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdir.Globallashuv jarayoni faqat ta'lim tizimlariga emas, balki jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xalqaro integratsiya va raqamli texnologiyalar rivoji bilan birgalikda, zamonaviy ta'lim tizimi ham xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanishga majbur bo'lmoqda. Bu esa milliy ta'limda yangi, innovatsion

yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. O'zbekiston rahbariyatining ham ta'kidlashicha, yosh avlodni keng dunyoqarashga ega, bilimdon va yetuk qilib tarbiyalash uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun muhim omildir. Shuning uchun, globallashuv davrida yoshlarga ta'lim berishning maqsadi nafaqat bilim berish, balki ularni o'z milliy o'zligiga ega, dunyoga ochiq shaxs sifatida shakllantirishdir.

Muhokama. Globallashuv jarayonida ta'lim-tarbiya tizimlarida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda resurslar yetishmovchiligi, xalqaro hamkorlikning yuqori darajada tashkil etilmaganligi kabi masalalar mavjud. Shu bilan birga, ta'limda an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish zarurati ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi bilim va texnologiyalarni kiritish jarayoni milliy identifikatsiyani saqlash bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak.

Globallashuv ta’limning koʻpgina yoʻnalishlariga ijobiy ta’sir koʻrsatib, yosh avlodni xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh mutaxassislarga aylantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu jarayon milliy oʻziga xoslikni yoʻqotmaslikni talab qiladi. Shu sababli, ta'limda milliy qadriyatlarni global qadriyatlar bilan uygʻunlashtirishning muhimligi ortib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta’limning milliy tizimlari xalqaro miqyosda integratsiyalashgan holda, oʻz madaniy va tarbiyaviy vazifalarini ham toʻla bajarishi lozim.Bugungi globallashuv jarayoni nafaqat ta'lim mazmuniga, balki uning shakliga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Bir tomondan, ta'limda yuqori sifatga erishish uchun xalqaro miqyosda qabul qilingan ilgʻor texnologiyalar va metodlarni joriy qilish zarurati mavjud. Shu bilan birga, bu jarayon milliy madaniy meros va qadriyatlarni saqlash masalasini ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Yoshlarga xalqaro miqyosda raqobatbardosh ko'nikmalar berish bilan birga, ularni milliy an'ana va qadriyatlarni qadrlashga o'rgatish ham zarur. Shu sababli, ta'lim-tarbiya tizimlarida milliy o'zlikni saqlab qolish va xalqaro standartlarga moslashishni muvozanatlash dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa. Globallashuv jarayoni ta'lim-tarbiyani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq, bu imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanish uchun milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularga mos ravishda yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiyaga milliy oʻziga xoslikni saqlab qolgan holda global talablarga mos bilim va koʻnikmalarni joriy qilish orqali, kelajak avlodni muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent, 1997.
2. Mirziyoyev Sh. "Yangi Oʻzbekiston strategiyasi".
3. Alimov Sh. "Globallashuv va milliy ta’lim".
4. Davletshin M.G., Mavlonov M. "Pedagogik psixologiya".

TA’LIM TIZIMI, MADANIY MUHIT VA OILADA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKILLANTRISH MASALALARI

Usmanova Dilnura Ikrom qizi
O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Globallashib borayotgan hozirgi zamonda O’zbekistonda har bir sohani yuksaltirish jarayonida eng avvalo ta’lim sifati muhim ro’l o’ynaydi. Yildan yilga rivojlanib, yuksalib borayotgan oliy ta’lim qatorida mamlakatimizda ta’lim tizimi, san’at, sport, iqtisodiyot, madaniyat kabi ko’plab sohalarda o’sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatni va madaniyatni oshirishda, aholi turmush tarzini yaxshilash uchun bir qancha tizimli yondashishlar amalga oshirilyapdi.

‘Xalqimizda‘Ta’lim va tarbiya-beshikdan boshlanadi’, degan hikmatli so’z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatmizda ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim prinspiga asoslangan, bola tug’ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo’lgan davrda uni har tomonlama qo’llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o’rin topish uchun ko’mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda’.[2:212]

Ta’lim tizimi yosh avlodning intellektual rivojlanishi, dunyoqarashi va ma’naviy shakllanishida asosiy omillardan biridir. Ta’lim muassasalari haqiqiy bilin berish, balki yoshlarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Maktab va oliy ta’lim masalalarida olib borilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy o’quv dasturlari innovatsion metodlar axborot texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Bu esa yoshlarning global talablar va raqobatbardosh kasblarga tayyorlanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida tarbiyaviy faoliyat – vatanparvarlik, ma’naviyat, mas’uliyat va insoniy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi.Ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga ham yetakchi omil bo’lib, ularni ongli, mas’uliyatli va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi. ‘Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi’ 1:62]

Shuningdek, madaniy muhit yoshlarning dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy davrning shakllanishida juda katta o’rin tutadi. Bundan tashqari jamiyatdagi madaniy an’analar, san’at, adabiyot, teatr va kutubxonalar yoshlarning ma’naviy boyishini ta’minlaydi. Ijtimoiy-madaniy muhit bu-inson yashashi uchun yaratilgan muhitlardan biri bo’lib bir necha bosqichlarda o’z aksini topgan. Inson ijtimoiylashish uchun avvalo unga yetarli jismoniy resurslar kerak. Shundan so’ng ijtimoiy madaniylashuvning oliy darajasiga ko’tarila oladi. O’quvchilarni ham mana shu moddiy resurslar tanqidiy fikrlashga o’rgata oladi. Masalan, bir bola mashg’ulot jarayonida o’ziga kerakli o’quv qurollaridan birini topa olmayapti, mashg’ulotda ishtirok etish uchun unga kerakli bo’lgan obyektni boshqa tinglovchidan so’rashi yoki ayirboshlashi uchun unga kerakli bo’lgan tanqidiy fikrlash yordamga keladi. Demak, ijtimoiy-madamiy muhit tanqidiy fikrlashga ko’mak beruvchi jarayon ekani o’z aksini topmoqda.[4] Ta’kidlash joizki, sog’lom madaniy muhit yoshlarni zararli g’oyalardan himoya qiladi va ularni milliy

qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Oila yoshlar tarbiyasining eng asosiy va ta’sirchan manbaidir. Shu bilan birga, bolaning xarakteri, odobi, mas’uliyati va dunyoqarashi avvalo oilada shakllanadi. ‘Ta’lim muassasasi yosh bo’g’inning ta’lim va tarbiyasida eng muhim o’rin tutuvchi ulug’ makondir. Bu muhitda bola o’zining insoniylik xislatlariga ega bo’lib, shakllanib borishi bilan birga aql-zakovat, idrok egasi bo’la boradi, hayotda o’z o’rnini topa boshlaydi, kelajakda mustaqil hayot sari o’z yo’lini qo’ya boshlaydi. [3:44] Sog’lom oilaviy muhit farzandni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, unga hurmat, mehr, mas’uliyat va mehnatsevarlik fazilatlarini qaror toptiradi.Oila, ta’lim muassasasi va jamiyat hamkorligi esa barkamol shaxs tarbiyasining poydevoridir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalasi ta’lim tizimi, madaniy muhit va oila bilan uzviy bog’liq holda o’rganilayotgan bo’lsada, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yetarli deb bo’lmaydi. Shu bois, zamonaviy ta’lim muassasalarida nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jarayonlarga ham alohida e’tibor qaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash zarur hisoblanadi. Bunda oilaning tarbiyaviy mas’uliyati va jamiyatda sog’lom madaniy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday hamkorlik va tizimli yondashuv orqali yosh avlod ongida milliy qadriyatlar, ma’naviyat va ijtimoiy mas’uliyat hissi yanada mustahkamlanadi, degan umiddamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Ma’naviyat. Toshkent, 2018.

2) Mirziyoyev Sh. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O’zbekiston. Toshkent, 2023.

3) Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov X. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. Toshkent, Fan va texnologiya. 2009.

4) Gulyamova A.O. Ijtimoiy-madaniy muhit tanqidiy fikrlash vositasi sifatida maqolasi. 2023.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TINGLOVCHILARNING AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Usmonov Muzaffar

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi bo‘lim boshlig‘i

Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, tahliliy fikrlash, amaliy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan kvest texnologiyasi malaka oshirish jarayonida samarali natija beruvchi innovatsion usullardan biri hisoblanadi. U tinglovchilarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularda amaliy ko‘nikma va kasbiy malakalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Kvest (inglizcha *quest* — izlash, topish, sarguzasht) texnologiyasi o‘quvchilarning yoki tinglovchilarning ma’lum bir maqsad sari yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich hal etiladigan topshiriqlar tizimida faol ishtirok etishiga asoslanadi.

Ta’lim jarayonida kvest texnologiyasi: o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi; muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmasini rivojlantiradi; hamkorlikda ishlash madaniyatini shakllantiradi; o‘quv jarayonini qiziqarli va interfaol tusga keltiradi.

Innovatsion mashg‘ulotlari odatda ma’lum ssenariy asosida tashkil etilib, har bir bosqichda tinglovchilar oldiga muayyan pedagogik yoki kasbiy vazifa qo‘yiladi. Bu vazifani bajarish orqali ular yangi bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

Malaka oshirish kurslarining asosiy maqsadi — o‘qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning amaliy malakasini yangilash va boyitishdir.

An’anaviy o‘qitish usullari (ma’ruza, tushuntirish, ko‘rsatma berish) tinglovchilarning faol ishtirokini har doim ta’minlay olmaydi. Shuning uchun o‘quv jarayoniga kvest texnologiyasini integratsiya qilish tinglovchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va ularni faol sub’ekt sifatida shakllantiradi.

Aslida, kvestlarning ilk ko‘rinishlari qadimiy sivilizatsiyalar davridayoq paydo bo‘lgan, insoniyat tarixining deyarli barcha bosqichlarida ular turli shakllarda uchrab kelgan. Kvest mohiyatan mantiqiy jumboqdir, insonlar esa qadimdan jumboqlarni yechishga, yashiringan xazinalarni topishga yoki afsonaviy mo‘jizalarni izlashga urinib kelganlar.

Uzoq vaqt davomida kvest va pedagogika bir-biridan mustaqil tarzda rivojlanib kelgan. Bu holat kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan tubdan o‘zgardi. Aynan shu jarayon natijasida kvest texnologiyasi ta’lim sohasiga XX asr oxirida kompyuter o‘yinlari olamidan kirib keldi.

“Kvest” atamasi birinchi bor 1995-yil yozida AQShning San-Diego universiteti professori Bernie Dodge tomonidan ta’limiy texnologiya sifatida qo‘llanilgan.

Olim Internet imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishga mo‘ljallangan innovatsion ta’limiy loyihalar ustida ishlagan. U “kvest” deb Internetdagi muammoli topshiriqni o‘z ichiga olgan, mustaqil izlanish asosida ma’lumot topishni talab qiladigan veb-saytni atagan.

Bernie Dodge ta’rifini kengaytirish va boyitish borasida amerikalik olim Thomas March muhim hissa qo‘shgan. U kvest tushunchasini chuqurlashtirib, nazariy asoslarini ishlab chiqdi.

T.Marchning ta’kidlashicha:“Kvest (yoki veb-kvest) — bu o‘quvchilarni muammoli masalani tadqiq etishga jalb etuvchi, Internetdagi muhim manbalarga tayanadigan o‘quv tuzilmasidir. Bunda o‘quvchilar mustaqil hamda jamoaviy tarzda izlanish olib boradilar, topilgan ma’lumotlarni yangi, murakkabroq bilim shakliga aylantiradilar.”

Innovatsion texnologiyasi — malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlaridan biridir. U o‘qituvchilarni faol ishtirokchi, izlanishli, kreativ shaxs sifatida shakllantiradi, kasbiy kompetensiyalarni yangilash va boyitishga yordam beradi.

Shunday ekan, malaka oshirish markazlarida kvest texnologiyasini tizimli ravishda joriy etish, har bir modul yoki mavzuda interfaol mashg‘ulot sifatida foydalanish o‘qituvchilarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Axmedova N. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularni amaliyotda qo‘llash.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

Prensky M. *Digital Game-Based Learning.* – New York: McGraw-Hill, 2019.

Karimova D. “Malaka oshirish tizimida interfaol metodlardan foydalanish.” – *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №4, 2022.

Usmonova D. “Raqamli ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.” – Toshkent, 2023.

Xodjayev B. “Ta’lim jarayonida kvest texnologiyasining o‘rni.” – *UzPFITI Ilmiy axborotlari*, 2024.

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY HARAKTERNING O‘RNI

Usmonova Shoxsanam Shavkatovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Globallashuv davrida ta’lim olish huquqi bo‘yicha strategiyalar, dasturlar va tavsiyalarni belgilaydigan yetakchi xalqaro hujjatlar qabul qilinishi ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlanishga asos bo‘lmoqda. Nogironlar va nogironlarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashining asosiy va ajralmas shartlaridan biri hisoblangan inklyuziv oliy ta’limni rivojlantirish, ularning ijtimoiy mavqeini yaxshilash va jamiyatda to‘liq ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilishni talab etadi.

“O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o‘z yonidan pul to‘lab xususiy maktablarda o‘qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog‘lom bolalar bilan teng sharoitda o‘qiyotgani haqida maqtanib bo‘lmaydi. Bu borada muammolar ko‘p. 2020 yil 13 oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanab o‘tilgan:

“alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti;

pedagogika yo‘nalishidagi OTMlar o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”[1.]. Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiladigan mafkuraga asoslanadi, bu barcha odamlarga teng munosabatni ta’minlaydi, lekin alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun alohida sharoit yaratadi.

Tadqiqotchilar fikricha “Inklyuziv ta’lim alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o‘qishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun esa quyidagi talqin ko‘proq to‘g‘ri keladi. Inklyuziv ta’lim – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion – uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirilgan, o‘ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma’nolarini, lotinchada esa includ – qamrab olaman, jalb qilmoq, ya’ni alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan va oddiy bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishdir. Inklyuziv ta’lim – davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biridir. Alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan, voyaga yetayotgan o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoniga jalb qilishni ifodalovchi ta’lim tizimidir”[2.7.].

“Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda, taxminan, bir milliard nafar odamda nogironlikning u yoki bu ko‘rinishi mavjud. Shu bilan birga YEXHT mintaqasidagi demokratik tizimlar, parlamentlar va siyosiy partiyalarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning vakillik darajasi hali-hanuz yetarli emas. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy hayotga jalb qilinishiga bir qator jiddiy to‘siqlar salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ular orasida, jumladan, parlamentlar faoliyatida ishtirok etish va siyosiy masalalar bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyatining yo‘qligi, nogironlarning yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi, huquqiy layoqatlilikdan mahrum etishga yo‘l qo‘yadigan milliy qonunchilik hamda nogironlar, ularning siyosiy jarayonlar va qarorlar qabul qilish jarayoniga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasi to‘g‘risidagi stereotiplarni keltirib o‘tish mumkin. Bularning bari nogironligi bo‘lgan shaxslar yanada e’tibordan chetda qolishi va yakkalanishiga olib keladi. Nogironligi bo‘lgan ayollar uchun bu - saqlanib qolayotgan tengsizlik hamda gender va nogironlik asosidagi diskriminatsiya natijasida qo‘shimcha muammolarga duch kelishni anglatadi”[3.7.].

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekistonda samarali ishlar faoliyati yshlga qo‘yilmoqda. “Reabilitatsiya qilish va malaka oshirishdagi birodarlikning shiori bo‘lib – “biz ishga qaytamiz, bo‘shashish – bu zahar, bizning ishimiz keraklidir” degan gap xizmat qildi. Nogironlarning

shifoxonadan boshlab to tuzalishlari va ish joylarigacha bo‘lgan yo‘llari, fin jamiyatidagi eng muhim omon qolish tarixidir. Bu urushdan keyingi davrda jamiyatimizning tiklanishi, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va o‘sha paytdagi ijtimoiy sug‘urtalashning past darajasi natijasida yuzaga kelgan mo‘jiza edi. Avvallari og‘ir jarohatli nogironlar ish joylariga faqatgina istisno tariqasida olinar edi. Urush nogironlari boshqa odamlarning rahmshafqatiga tayanishni istamadilar. Ular o‘z harakatchanliklari tufayli, boshqa odamlar bilan teng ishlagan holda ayni yutuqlarga yerishdilar. Urushdan keyingi yillarda ular hozirgi kundagi farovon davlatimizning asosini, jamiyatning qolgan a’zolari bilan birgalikda qurdilar.

Nogironlar birodarligi oddiy nogironlar, oddiy askarlar tomonidan tashkil qilindi. Lekin, ular marshal G.Mannergeym tomonidan sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlandilar. “Yoshlar o‘z ahvollari va kelajagining mo‘rtligini his qilishar, lekin ularning barchasini jang maydonlarida vujudga kelgan birodarlik tuyg‘usi birlashtirar edi”[4.299.].

Ijtimoiy harakatchanlikning ijtimoiy-madaniy paradigmalari sifatida amalga oshirilayotgan yuqoridagi masalalarga ko‘ra mamlakatimizda kasbiy harakatchanlik sabablarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar kam. “Tashqi muhitning ijtimoiy-iqtisodiy omillarining ta’sirini, masalan, turli kasblar bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj tarkibidagi o‘zgarishlarni, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini qayta tashkil etish va ish tarkibidagi o‘zgarishlarni, boshqa tomondan, tashqi muhitning ta’sirini o‘rganish ham kerak. Shaxsiy xususiyatlar, kasbiy harakatchanlik jarayonini motivatsion tuzilish nuqtai nazaridan o‘rganish yuqori ijtimoiy mavqega erishish, moliyaviy ahvolni yaxshilash, o‘zini o‘zi anglash imkoniyatini beradi”[5.48.]. Ijtimoiy harakatchanlik ota-onalarning ta’lim darajasiga asosan bolalarning nafaqat ota-onadan past bo‘lmagan ta’lim olish istagini, balki ota-onaga yaqin ish faoliyatini tanlashni ham belgilaydi. Aytish mumkinki, ota-onalarning ta’limi ko‘pincha bolalar uchun etalon yoki hatto motivator bo‘lib, ularning bunday ta’lim darajasiga erishish istagini shartlashtiradi, bu esa o‘z navbatida mehnat bozorida ma’lum bir joyni egallashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy harakatchanlikning mohiyatini belgilaydigan faoliyat o‘ziga xos yangidan yangi zaruriy modellarni va yo‘llarni talab qiladi. Bu esa moddiy farovonlik darajasiga asosiy ta’sir etuvchi omil ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4860-сон Қарори.

2. Кахарова Д. С. Умумтаълим мактабларида инклюзив таълимнинг педагогик- психологик жиҳатларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2019.

3. Ногиронлиги бўлган шахслар сиёсий жараёнларда иштирок этишига кўмаклашиш бўйича кўрсатмалар. Қўлланма Европада Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилотининг Ўзбекистондаги лойиҳалари координатори томонидан таржима қилинган. Китобнинг асл нусхаси ЕХҲТнинг Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси (ДИИҲБ) томонидан нашр этилган Польша, Варшава. 2019.

4. Ilkka Taypale Finlyandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi./ Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo’ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – T.: “Sharq”, 2019.

5. Дудина О.М., Ратникова М.А. Профессиональная мобильность: кто и как принимает решение сменить профессию // Социологические исследования. - 1998. - № 11.


ПОЛУЧЕНИЕ НАНОКОМПОЗИЦИЙ ПОЛИАНИЛИНА С TiO2 И ГРАФЕНОМ И ИЗУЧЕНИЕ ИХ СВОЙСТВ

Utayeva Sitora Malik qizi
Master of the National University of Uzbekistan
Republic of Uzbekistan, Tashkent city

Введение. Полупроводниковые полимеры будут использоваться для открытия новых производственных линий, а также для производства фотоэлектрических устройств, обеспечивающих высокую эффективность преобразования при невысокой стоимости с учетом их электрических и физических свойств. В настоящее время полупроводниковые полимеры используются во многих областях электротехники и электроники, используются органические полупроводниковые полимеры [1]. Полианилин (ПАНИ), является одним из наиболее перспективным материалом среди токопроводящих полимеров, который может быть использован для получения антикоррозионных покрытий, устройствах преобразования энергии, аккумуляторных батарей, сенсорах различного назначения, электрохромных устройствах [1-2] и т.д. ПАНИ легко синтезируется из анилина, образует комплексы со многими органическими и неорганическими веществами, что позволяет целенагровано улучшить его характеристики посредством получения различных композиций. ПАНИ имеет несколько форм, которые можно легко переводить из одной в другую с помощью окислительно-восстановительных реакций[3-4]. Все формы ПАНИ образуют соответствующие соли, среди которых эмеральдиновая соль ПАНИ обладает самой высокой токопроводимостью. Поэтому на сегодняшний день, особое внимание исследователей привлекает именно данная форма ПАНИ и композиции на его основе в плане практического применения. В данной работе методом окислительной полимеризацией анилина в водных растворах синтезирована эмеральдиновая соль ПАНИ (ПАНИ×HCl) и его композиции с TiO_2, изучены термические и волть-амперометрические характеристики полученных материалов. Среди проводящих полимеров полианилин становится предпочтительным материалом для многих приложений. Интерес к этому проводящему полимеру происходит из того факта, что можно легко синтезировать множество различных кольцевых и азотзамещенных производных, и, что каждое из производных может существовать в нескольких различных степенях окисления, которые, в принципе, могут быть «допированы» множеством различных присадок, либо не

окислительно-восстановительными процессами, либо частичным химическим или электрохимическим окислением [4]. Эти свойства в сочетании с довольно высокой проводимостью после легирования, простотой их синтеза и обработки, удовлетворительной экологической стабильностью и относительно низкой стоимостью исходных материалов убедительно указывают на их значительную потенциальную технологическую применимость

Окислительную полимеризацию солянокислой соли анилина можно представить схемой приведённой на рис.1.



Цель работы.

Анализ физико-химическими методами синтезированного полианилина. Спектральный анализ. Тщательное изучение областей применения.

Экспериментальная часть. Подготовка материалов. Сырье: анилин, пероксидисульфат аммония, 1М-ная соляная кислота и раствор аммиака были использованы в этом исследовании. Пероксидисульфат аммония (NH4)2S2O8 (2,28 г, ~0,065 моль) (ПАНИ×HCl) Готовим наши вещества в количестве 1,295 г в 10 мл H_2O. К приготовленному ПАНИ×HCl приливаем 10% раствор TiO_2 в ультразвуковой водяной бане на 10 минут. Затем по каплям добавляем персульфат аммония. Оставляем на 1 час, затем промываем водой для осаждения. К 10 мл добавляем 15 мл (H_2O) $NH_2(OH)$. Полученный продукт перемешиваем с кислотой HCl и высушиваем в эксикаторе при температуре 60 градусов. Полученный продукт измельчаем и изготавливаем таблетки.





Рисунок 2. Экспериментальный механизм показан на рисунке 2. Процесс, происходящий на этапе A-1, показан на рисунке 2. Процесс, происходящий на этапе B-2, показан на рисунке






Рисунок 5. Соль полианилина (эмеральдина) депротонируется в щелочной среде до основания полианилина (эмеральдина).

Вывод. Таким образом, на основании проведенных исследований разработаны методы синтеза и синтезирован полимер многоцелевого назначения на основе анилина пероксидисульфата аммония, с высоким выходом целевого продукта. Состав полученных продуктов и функциональные группы подтверждены методом ИК-спектроскопии. Синтезированный полупроводниковый полимер может быть использован в качестве пигмента для проводящих полимеров и чувствительных к красителям солнечных элементов при производстве солнечных элементов на основе сверхпроводящих полимеров. В работе синтезированы ПАНИ HCl и ПАНИ HCl/TiO_2 методом окислительной полимеризации солянокислого анилина в водных растворах. Проведена идентификация полученных материалов методом ИК-спектроскопии. Сравнительный термический анализ материалов показал, что в композициях содержатся достаточно большое количество воды адсорбированной в наночастицах оксида цинка. Изучение вольт-амперометрических характеристик материалов показало, что введение частиц оксида цинка в структуру ПАНИ приводит к увеличению его проводимости, при этом сохраняются его полупроводниковые свойства.

Список литературы:

1. Шукуров Д. Х.,Тураев Х. Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Исследование синтезированных полупроводниковых полимеров // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. – 2020. – № 11 (80).

2. Е. Тун Наинг, Цейтлин Г.М., Гроздов А.Г., Элетропроводящий полимер-полианилин // Химическая промышленность сегодня 2007 №8 Шукуров Д.Х.,Тураев Х.Х., Каримов М.У., 3. Джалилов А.Т., // Солнечные батареи на основе электропроводящих полимерных веществ// X международная научно-практическая конференция «global science and innovations 2020: centralasia» 17 августа 2020 года в городе Нур-Султан (Астана), Казахстан. С.29-32.

4. Abdiryim T.,Xiao-Gang Z., Jamal R.Comparative studies of solid-state synthesized polyaniline doped with inorganic acids // Mater.Chem.Phys.2005. № 2.

5. Шукуров Д. Х.,Тураев Х. Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Изготовление и анализ сенсибилизированных солнечных элементов с использованием пигмента

на основе фталоцианина меди // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020. № 11 (80).

6. V.MilindKulkarni and AnnamrajuKasiViswanath, Journal of Macromolecular Science, Part A-Pure and Applied Chemistry, p.1173 (2004)

7. Stejskal J., Trchova M., Bober P. Conducting Polymers: Polyaniline Chapter·June 2015 pst 640

8. Choi Y. K., Kim H. J., Kim S. R. // Enhanced Thermal Stability of Polyaniline with Polymerizable Dopants// Macromolecules, 50, 3164-3170 (2017).

9. Pashaei S., Hosseinzadeh S., Hosseinzadeh H. // Synthesis and thermal analysis of polyaniline// Polymer Composites, 40, 753-764 (2019)

10. Rahayu I, Hidayat S, Noviyanti A. // The effect of hydrochloric acid-doped polyaniline to enhance the conductivity // IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 509(2019) 012051

11. Ganesh Yerawar R. // Characterization of Chemically Synthesized Polyaniline-Zinc Oxide Nanocomposites// Der Pharma Chemica, 2012, 4 (3):1288-1291

12. Trchová M., Stejskal J. // Polyaniline: The infrared spectroscopy of conducting polymer nanotubes// (IUPAC Technical Report) Pure Appl. Chem., Vol. 83, No. 10, pp. 1803–1817, 2011

13. Socrates G. Infrared and Raman Characteristic Group Frequencies// pp. 107–113, 122–123, 157–167, 176–177, 220–222, John Wiley, New York (2001).

14. Шукуров Д. Х.,Тураев Х. Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Исследование синтезированных полупроводниковых полимеров // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. – 2020. – № 11 (80).

15. Е. Тун Наинг, Цейтлин Г.М., Гроздов А.Г., Элетропроводящий полимер-полианилин // Химическая промышленность сегодня 2007 №8 Шукуров Д.Х.,Тураев Х.Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Солнечные батареи на основе электропроводящих полимерных веществ// X международная научно-практическая конференция «global science and innovations 2020: centralasia» 17 августа 2020 года в городе Нур-Султан (Астана), Казахстан. С.29-32.

16. Abdiryim T.,Xiao-Gang Z., Jamal R.Comparative studies of solid-state synthesized polyaniline doped with inorganic acids // Mater.Chem.Phys.2005. № 2.

17. Шукуров Д. Х.,Тураев Х. Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Изготовление и анализ сенсибилизированных солнечных элементов с использованием пигмента на основе фталоцианина меди // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020. № 11 (80).

18. V. MilindKulkarni and AnnamrajuKasiViswanath, Journal of Macromolecular Science, Part A-Pure and Applied Chemistry, p.1173 (2004).

ABDULLA AVLONIY QARASHLARIDA TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI

Xakimjonov Azamat Erkin o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistiranti,
Mir Arab oliy madrasasi xodimi

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida jadidchilik harakati keng yoyildi. Bu harakatning asosiy maqsadi — xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifat yetkazish, zamonaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish edi. Ushbu harakatning yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy bo‘lib, u nafaqat ijodkor, balki pedagog, ma’rifatchi va ijtimoiy arbob sifatida ham tanilgan. Avloniy o‘zining teran fikrlari, ta’lim va tarbiya borasidagi qarashlari, axloqiy-odobiy masalalarga bag‘ishlangan asarlari bilan o‘zbek pedagogik tafakkurining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan. [7]

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida Avloniyning ta’limiy-pedagogik merosiga bo‘lgan qiziqish yanada oshib bormoqda [10]. Ayni paytda barkamol avlod tarbiyasi, ma’naviyatni yuksaltirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ta’lim sifati va samaradorligini kuchaytirish kabi vazifalar Avloniy asarlarida o‘zining asosiy manbalarini topishi mumkin. Shuning uchun ham olimning qarashlarini chuqur o‘rganish, uni zamonaviy ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi — Abdulla Avloniy qarashlarida ta’lim va tarbiya masalalarining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning pedagogik faoliyatining bugungi kun uchun ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Abdulla Avloniy ta’limni inson kamolotining eng asosiy vositasi sifatida talqin etadi. U “ilm — nur, jaholat — zulmat” degan fikrni nafaqat adabiy, balki pedagogik tamoyil sifatida olg‘a suradi [1]. Avloniyning fikricha, jamiyatning taraqqiy etishida uch asosiy kuch mavjud: ilm, ma’rifat va axloq. Ta’lim esa ushbu kuchlarning barchasini shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Avloniy o‘z maktablarini tashkil etish jarayonida ilmning har bir inson hayotidagi o‘rnini asoslab bergan [6]. U insonga berilgan eng katta boylik — bu aql va tafakkur, tafakkurni yorituvchi esa ilm, deydi. Avloniyning bu qarashlari bugungi zamonaviy pedagogikada ham o‘z aksini topgan [10].

Avloniyning ma’rifatparvarlik qarashlari XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘liq [5]. U jaholatni xalqning eng katta dushmani deb bilib, unga qarshi kurashishning yagona yo‘li — ma’rifat tarqatish ekanini qayta-qayta ta’kidlaydi [5]. U o‘z asarlarida: “Ilm — odamni odam qilur, jaholat esa insonni yovvoyi hayvonga aylantirur”, — deb yozgan [1]. Bu fikr uning ta’limga bo‘lgan chuqur munosabatini ko‘rsatadi. Avloniy nazarida ilm nafaqat dunyoviy boylik, balki ma’naviy boylikning ham asosidir.

Avloniy ta’limning milliyligiga ham alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, milliy qadriyatlar avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ammo u o‘sha davr uchun yangilik bo‘lgan g‘arb pedagogikasining ilg‘or g‘oyalarini ham e’tirof etib, ta’limning modernizatsiyasini ilgari suradi. [10].

Avloniy o‘z maktablarida arab alifbosidagi eski usul maktablaridan farqli ravishda yangi usulda — fonetika asosida o‘qitishni joriy etgan. Yangi usulning joriy etilishi Turkistonda ta’lim sifatini oshirdi, savodxonlik darajasini ko‘tardi [8].

Avloniy o‘qituvchini “jamiyatning ko‘zgusi” deb ataydi. [7]. U o‘qituvchida quyidagi fazilatlar bo‘lishi kerak, deb hisoblagan:

yuksak ma’naviyat;
keng dunyoqarash;
mehribonlik;
poklik va halollik;
ilg‘or fikrlilik;
o‘z fanini chuqur bilish.

Avloniy o‘qituvchining ma’naviy madaniyati ta’lim jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilishi haqida ko‘p bora ta’kidlaydi. Bu bugungi zamon ta’limi uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan fikrdir.

Avloniy yozgan “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” darsliklari Turkiston hududida o‘zbek bolalari uchun yaratilgan ilk zamonaviy darsliklar hisoblanadi. Bu asarlar o‘sha davrning ilg‘or metodlariga asoslangan bo‘lib, ular o‘quvchilarda savod chiqarish, nutq o‘stirish, tafakkurni kengaytirish kabi ko‘plab didaktik vazifalarni bajarishi ko‘zda tutilgan.[8]. Darsliklar quyidagi uch bosqichli metod asosida tuzilgan:

osondan qiyinga;
oddiydan murakkabga;
konkret tasavvurlardan mavhum tushunchalarga o‘tish.

Bu tamoyillar hozirgi zamon pedagogikasida ham asosiy didaktik qoidalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Avloniy ko‘rgazmalilik tamoyilining faol tarafdori bo‘lgan. U bolaga bilim berishda ko‘rish, tinglash, his qilish imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish kerak, deb hisoblagan. Avloniy maktablarida darslar rasm, jadval, xarita va amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan. [9].

Avloniy o‘quvchini tayyor stereotip fikrlarni yodlovchi emas, balki o‘ylaydigan, tahlil qiladigan, mulohaza yuritadigan shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qilgan. Uning fikricha, bolaga tayyor xulosani emas, balki xulosaga olib boradigan yo‘lni ko‘rsatish kerak. Bugungi kompetensiyaviy yondashuv, faol ta’lim metodlari, interfaol usullar Avloniy ilgari surgan tamoyillar bilan bevosita bog‘liq [9]:

faol ishtirok;
mustaqil fikrlash;
amaliy mashg‘ulotlar;
mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Shundan ko‘rinadiki, Avloniy ta’lim metodlari nafaqat tarixiy, balki universal ahamiyatga ega.

Avloniy tarbiyani inson kamoloti uchun eng zarur jarayon sifatida talqin qiladi. U tarbiyani jamiyatning kelajagi bilan bog‘laydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur” [1], — deya ta’kidlaydi. Bu gap tarbiyaning naqadar muhimligini ifoda etadi. **“Turkiy guliston yoxud axloq”** asarida Avloniy pedagogik merosining asosiy qismi hisoblanadi. Unda axloqiy fazilatlar

o‘quvchiga sodda, tushunarli, hayotiy misollar orqali yetkaziladi. Kitob o‘quvchini faqat nazariy axloqiy normalar bilan emas, balki amaliy hayotiy vaziyatlar bilan tanishtiradi.

Asarda quyidagi fazilatlar keng yoritilgan:

halollik;

sabr-toqat;

shijoat;

saxovat;

adolat;

mehnatsevarlik;

poklik;

vatanparvarlik.

Avloniy uchun vatanparvarlik — axloqiy fazilatlarning eng yuksagi. [1]. U Vatan ravnaqi uchun mehnat qilishni insonning asosiy burchi deb biladi. Vatanparvarlikni shakllantirishda:

tarixni bilish,

tilni sevish,

milliy o‘zlikni anglash, kabi omillarni muhim deb hisoblaydi.

Avloniy jismoniy tarbiya haqida ham to‘xtalib, sog‘lom tana — sog‘lom tafakkur uchun zarur shart, deb hisoblagan. U yoshlarni toza, sog‘lom, baquvvat bo‘lishga chaqirgan. Avloniy musiqani, adabiyotni, she’riyatni inson ruhini poklovchi kuch deb biladi. U san’at tarbiyasini yoshlarni nafosatga yetaklovchi yo‘l sifatida ko‘rgan. Bugungi ta’lim islohotlari — ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirish, sog‘lom raqobatbardosh avlodni tarbiyalash, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish — Avloniy ilgari surgan tamoyillar bilan bevosita uyg‘unlashadi [10].

Avloniy axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan komil shaxsni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Bugungi “barkamol avlod”, “yangi O‘zbekiston yoshlari” konsepsiyalari ham ushbu g‘oyalar bilan hamohangdir. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablari — ma’naviy poklik, bilimdonlik, izlanuvchanlik — Avloniy talablarining davomidir [10].

Avloniy merosini ta’lim dasturlarida qo‘llash istiqbollari sifatida quyidagilarni ilgari suradi:

Ona tili va adabiyot darslarida Avloniy asarlarini batafsil o‘rganish;

Pedagogika fakultetlarida Avloniy pedagogik qarashlarini yanada chuqur o‘rgatish;

Ma’naviyat va tarbiya darslarida “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Avloniy o‘zining teran pedagogik qarashlari, ilmiy-ma’rifiy faoliyati bilan o‘zbek xalqining ma’naviy va intellektual taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning ta’limga, tarbiyaga oid g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. “Tarbiya — hayot masalasi” degan fikr aynan Avloniy merosining mazmunini to‘liq ochib beradi. Bugungi ta’lim islohotlarida Avloniy tamoyillarining qayta tiklanishi, ularning yangicha mazmunda davom ettirilishi yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlari, ayniqsa, “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, Abdulla Avloniy pedagogik merosi — nafaqat tarixiy qadriyat, balki yosh avlod tarbiyasida bugungi kunning dolzarb manbasi sifatida qadrlanishi lozim bo‘lgan bebaho boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Avloniy, A. Birinchi muallim. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2010.

Avloniy, A. Ikkinchi muallim. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2010.

Avloniy, A. Adabiyot yoxud milliy she’rlar. — Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

Ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va akademik maqolalar

Qosimov, B. Jadidchilik: islohot, ma’rifat va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

Ziyodov, I. XX asr boshlarida O‘zbekistonda ma’rifatparvarlik harakati. — Toshkent: Fan, 1998.

Karimov, X. Abdulla Avloniy: pedagogik merosi. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2012.

Sodiqov, Q. O‘zbek pedagogik fikri tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

Umarov, A. “Abdulla Avloniy ta’limiy qarashlarining zamonaviy talqini”. — Pedagogika, №3, 2015, 45–52-betlar.

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT XURUJLARINI YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Xakimov Anvar Ibroxim o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi
Karimov N.
Ilmiy rahbar: p.f.d. (PhD), dotsent

Bugungi globallashgan davrda dunyo xalqlarini tashvishga solgan terrorizm, diniy ekstremizm va boshqa global xavf-xatarlar orasida yana bir ko‘zga tashlanmas xavf, yot g‘oyalarning millatga va milliylikka tahdidi ham paydo bo‘ldiki, o‘tmishi baquvvat, ildizlari chuqur, dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan xalqlar bu xavfning ayanchli oqibatlar keltirishini darhol anglagan holda unga qarshi tegishli choralar ko‘rmoqda.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashdagi asosiy vazifa xalqimizning ongi va qalbiga milliy g‘oyani singdirish orqali ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilish kerakligini unutmasligimiz lozim.

Ushbu masalani amalga oshirishda mafkuraviy tarbiyaning o‘rni katta. Mafkuraviy tarbiya esa jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha bolalar muasssalari, maktablar, litsey–kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqazo qiladi.

Shu bilan birga mafkuraviy tarbiya ta’sirida shakllantirilgan mafkuraviy immunitet ma’naviy tahdidlarni oldini olishda va yoshlarni uning ta’sirida himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ayni vaqtda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda institutsional asosda faoliyatni tashkil etish samarali natija berishi shubhasizdir. Turli ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, milliy–madaniy markazlar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, xalqning intelektual salohiyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan ta’lim–tarbiya tizimining qonuniy huquqiy asoslari va dasturlari; ommaviy axborot vositalari; umuman, jamiyat miliy g‘oyasini shakllantirish va uni xalq ishonch e’tiqodiga aylantirishning ma’naviy–ma’rifiy kompleksi asosida olib boriladigan mafkuraviy tarbiya orqali ma’naviy tahdidlarni bartaraf etishda samarali natijaga erishish mumkin.

Bu omillarning har biri ma’naviy tahdidlarni oldini olishda, milliy g‘oyani keng jamoatchilik ongiga singdirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarning axloqiy jihatdan kamol topishida oiladagi o‘zaro hurmat, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashdagi muhim omillardan biri deyishimiz mumkin. Umuman olganda oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmunini farzandlarda o‘z ota–onasidan, oilasi, ajdodlari, tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, vatani, millati, xalqi, tili, dini, an’analaridan g‘ururlanishi hissini uyg‘otishdan iborat.

Milliy qadriyatlarimizni tiklash, ommaga keng targ‘ib qilish, tinchlik, barqarorlikni ta’minlash va mustahkamlash, ayniqsa, yoshlarni jamiyatga munosib inson sifatida tarbiyalash kabi masalalarni hal etishda mahalla institutining roli beqiyosdir.

Mahalla o‘zbek jamiyatida jamoa bo‘lib yashashning eng oliy ko‘rinishidir. U mahalliy jamoalarni, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishni tashkil etishning bir shakli sifatida asrlar osha yashab kelmoqda. Jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta’minlash bugungi kunda mahalla ahllari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Mahallalarda yoshlarni mustaqillik va vatanparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga, tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “Fuqarolarning o‘z–o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunga binoan, mahallalar o‘z huquqiy maqomiga ega bo‘lib, mahalliy hokimiyatning tarkibiga kiradi.

Mahalla institutining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va roli toboro kengayib bormoqdaki, ularning nufuzi va rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar jadallik bilan davom etmoqda.

Jamiyatimizda mahallaning faoliyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan siyosat o‘z ustuvorligini saqlab qolayotganligi, mamlakatmizda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida “Mahalla” jamg‘armasining 14 ta bo‘limi, 213 ta tuman (shahar) bo‘linmalari hamda jami 9950 ta fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, shu jumladan, 8369 ta mahalla faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda 6289 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 108 ta shaharcha, 1320 ta qishloq va 131 ta ovul fuqarolar yig‘ini saylangan.

Mamlakatimizda barqarorlikni saqlab turish diniy mutaassiblik kayfiyatidagi ko‘rinishlarni oldini olish, “O‘z uyingni o‘zing asra” shiori ostida odamlarni ogohlikka chaqirish, mahalla posbonlarini shakllantirish va ularni faoliyatini yo‘naltirish, oilaviy tantanalar va marosimlarni o‘tkazishda manmanlikka yo‘l qo‘ymaslik ishlari bilan shug‘ullanmoqda. Mahallalarda profilaktika inspektorlari xalqimiz xavfsizligi va tinch hayotini kafolatlash uchun tunu–kun ish olib bormoqdalar.

Yoshlarning nima bilan bandligi va ularning maqsadlari, diqqat–e’tiborni band etayotgan muammo va masalalar ham mahalla faollarining diqqat–markazidadir.

Tarbiya jarayonida mahallaning umumiy tartib– qoidalariga amal qilmagan a’zolari avval ogohlantirilgan, shundan keyin ham kutilgan ijobiy natija bermasa, mahallada hurmatli kishilar kafilligida qat’iy chora–tadbirlar ko‘rilgan, hato mahalladan badarg‘a qilishgacha borishgan. Mahalla doirasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta’lim kurslarini tashkil etish, an’anaviy bayram va tadbirlar paytida muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizliklarning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyalaridan foydalanish, o‘zaro diniy muassasalar, machitlar bilan aloqani yaxshilash, hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda kutilgan natijani berishi muqarrar.

Bugungi kunda mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an’analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Bularning barchasi mahalla fuqarolarining ma’naviy tahdidlaga qarshi kurashda o‘zaro hamjihatlikni, yakdillikni ta’minlaydi.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishda ta’lim-tarbiya muassasalarining ham o‘rni kattadir.

Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimi.

Darhaqiqat, tarixdan ma’lumki, ota- bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Ta’lim-tarbiya ong mahsuli ekanligini va ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan muhim omil ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak ushbu tizimning ravnaqisiz ma’naviy tahdidlarni oldini olish mumkin emasligini tushunishimiz mumkin bo‘ladi.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Forobiy yozganidek, ta’lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o‘rganish lozim. Alloma o‘zining «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi.

Farobiy ta’limotida inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo‘ladi. U «Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, Farobiyning «Fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - insoniy

fazilatni hamda ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. IX-X asrdan keyingi davrlarda yashab o‘tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga oid ko‘p ish olib borganlar. Bu xayrli ishga tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Farididdun Attor, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta qo‘shdilar.

Bu allomalarning ijodiy faoliyati, boy ma’naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik – ta’lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo‘g‘indir, zero, mafkuraviy maqsadlarni kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish vazifasi, asosan, ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon ta’lim––tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biri turli fan yo‘nalishlari orqali yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini izchil shakllantirishdan, xalqning ishonch va e’tiqodiga aylantirishdan iborat. Chunki har qanday ta’lim–tarbiya sohasining markazida turuvchi: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik g‘oyalari, eng avvalo, milliy istiqlol g‘oyasi doirasida o‘z mazmunini konkretlashtiradi va namoyon qiladi.

Zero, insonning har qanday ezgu g‘oyalari – Ona Vatanga muhabbat, uning mustaqilligini mustahkamlash g‘oyalaridan tashqarida ijtimoiy–ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin emas.

Ta’lim–tarbiya tizimida yoshlar ongida milliy g‘oyani shakllantirish va imon–e’tiqodiga aylantirishda ijtimoiy–gumanitar va siyosiy fanlarning nisbatan mustaqil ta’lim hamda tarbiya jarayonida: bir tomondan, integratsiyalashuv, ikkinchi tomondan esa – differensiallashuv xususiyatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash taqazo qilinadi.

Oliy ta’lim tizimida milliy g‘oyani shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim: talabalarning milliy ongi va tafakkurini rivojlantirishga, shunga oid zarur nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni hosil etishga;

milliy g‘oyaviy tarbiya esa –yoshlarga ona Vatanni asrab–avaylash borasidagi ma’naviy mas’uliyat hissini, fuqarolik burchini, majburiyatini anglash sohasida faol hayotiy mavqeini shakllantirishga ko‘maklashadi. Ijtimoiy–siyosiy fanlarni o‘qitish jarayonida, ta’lim–tarbiyaning turli usul va vositalari yordamida, talabalar ongida milliy g‘oyaga doir tushunchalar, tasavvurlar shakllanadi.

Jumladan, taniqli faylasuf, akademik E.Yu.Yusupov mazkur modelning milliy tarbiyaning quyidagi xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlarini ko‘rsatgan edi:

- milliy tarbiyada, yuksak ahloqiy fazilatlarni shakllantirish; - yoshlarga milliy meros va qadriyatlarni o‘rgatish;

- inson omilini shakllantirish; - kishilarni halol mehnat qilishga, ishbilarmonlik va tadbirkorlikka o‘rgatish;

- yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash;
- ta’lim va tarbiyani uzviyligini ta’minlash.

Olimning fikricha milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlasha olishi bilan bir qatorda milliy an’analarimiz, qadriyatlarimiz bilan bog‘lansagina ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat. - T.: «Ijod dunyosi» nashriyoti, 2002. 20 b 39.
2. Soatova S. Mahalla –oila tayanchi. J. // Jamiyat va boshqaruv. 2006 №4, 57 b. 48.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008, 60 b. 42.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi. - T.: Akademiya, 2005, 144 b. 46.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МЕТРОЛОГИЧЕСКОМУ ОБЕСПЕЧЕНИЮ И РАЗВИТИЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Халилов Ойбек Юлдашевич
Узбекский национальный институт метрологии,
начальник Отдела измерений геометрических и механических величин

Ахадова Диёра Аваз кизи
Узбекский национальный институт метрологии,
специалист 2-ой категории, магистр.

Введение. Метрология как фундаментальная научная дисциплина, обеспечивающая единство и сопоставимость измерений, играет ключевую роль в научно-техническом прогрессе, международной торговле, промышленном производстве и обеспечении безопасности. Начиная с середины XX века наблюдается стремительное расширение областей применения высокоточных измерительных технологий, что обусловлено усложнением промышленных процессов, цифровизацией производства, внедрением автоматизированных систем контроля и развитием глобальных цепочек поставок. В этих условиях метрологическое обеспечение становится стратегическим ресурсом государства, определяющим уровень доверия к продукции, услугам и результатам научных исследований.

В современных условиях развитие метрологической инфраструктуры рассматривается как необходимая основа повышения конкурентоспособности национальной экономики. Международные организации — Международное бюро мер и весов (BIPM) [1], Международная организация законодательной метрологии (OIML) [2], Европейская кооперация по аккредитации (EA) [3] подчёркивают критическую важность метрологии как инструмента обеспечения прозрачности, технической совместимости и взаимного признания результатов испытаний и калибровки. Для государств с растущим промышленным потенциалом, таких как

Республика Узбекистан, вопросы модернизации метрологической системы приобретают особую актуальность.

Единство измерений, определяемое национальными законодательными актами и структурой эталонной базы, обеспечивает корректность сравнения результатов, полученных в различных лабораториях, странах и секторах экономики. Несогласованность измерительных методик, отсутствие актуальных эталонов и несоответствие международным метрологическим нормам приводит к росту неопределённости, что негативно отражается на торговле, стандартизации, сертификации и исследовательской деятельности. Таким образом, метрологическое обеспечение выступает связующим звеном между фундаментальной наукой, инженерно-производственными процессами и системой технического регулирования.

В Узбекистане в последние годы предпринимаются масштабные шаги по реформированию национальной системы технического регулирования, модернизации эталонной базы и повышению роли государственных метрологических институтов. Особое внимание уделяется гармонизации нормативной базы с международными требованиями, развитию компетентных калибровочных и испытательных лабораторий, внедрению цифровых технологий и подготовке специалистов в области метрологии. Эти процессы рассматриваются как ключевой механизм интеграции Узбекистана в глобальную экономику.

Настоящая статья направлена на комплексное исследование современных подходов к метрологическому обеспечению, анализ структуры национальной метрологической инфраструктуры, оценку её роли в обеспечении единства измерений и определение перспектив развития.

Обзор литературы. Современная научная литература подчёркивает, что метрологическое обеспечение является системной деятельностью, включающей научные, технические, организационные и правовые меры, направленные на поддержание требуемой точности измерений [4]. Концептуальная модель метрологического обеспечения предполагает наличие иерархической структуры эталонов, методик передачи единиц величин, системы поверки и калибровки, а также нормативно-правового регулирования, обеспечивающего единообразие измерений на всей территории государства [5].

Значительная часть исследований посвящена анализу технических средств метрологического обеспечения — эталонов, стандартных образцов, калибровочных установок, высокоточных измерительных приборов. Особое внимание уделяется вопросам неопределённости измерений, что отражено в международных документах JCGM и в работах ведущих метрологических институтов мира — NIST (США), PTB (Германия), NPL (Великобритания). Эти документы формируют единый понятийный аппарат и методологическую базу для оценки точности и воспроизводимости результатов.

Отдельное направление литературы связано с развитием законодательной метрологии. Международная организация законодательной метрологии (OIML) подчёркивает, что государственная метрологическая политика должна

обеспечивать защиту потребителей, достоверность измерений в торговле, медицине, экологии, а также доверие к результатам испытаний и сертификации. Согласно рекомендациям OIML [6], эффективная национальная метрологическая система должна включать:

— национальный орган по метрологии;

— систему государственных эталонов;

— сеть аккредитованных лабораторий;

— единые методики измерений;

— систему профессиональной подготовки и контроля компетентности специалистов.

В литературе также подчёркивается роль метрологии в научно-исследовательской деятельности. Высокоточные измерения лежат в основе фундаментальных экспериментов, определения физических констант, разработки новых материалов, нанотехнологий, биомедицинских методов диагностики. Недостаточная метрологическая проработанность экспериментальных методик приводит к систематическим ошибкам, снижению воспроизводимости исследований и невозможности их международного признания.

Ряд исследований рассматривает проблемы и перспективы развития метрологических систем в развивающихся странах. Ключевыми вызовами называются:

— устаревшая эталонная база;

— низкий уровень автоматизации;

— недостаточная подготовка специалистов;

— ограниченная международная взаимность сертификатов поверки;

— фрагментация нормативных документов;

— отсутствие цифровых платформ для управления метрологическими данными.

Эти вызовы актуальны и для стран Центральной Азии, включая Узбекистан. Национальные стратегии развития промышленности подчёркивают, что модернизация метрологической инфраструктуры является обязательным условием привлечения инвестиций, развития высокотехнологичных производств, экспорта и обеспечения международного признания испытательных и калибровочных лабораторий.

Узбекские авторы также рассматривают необходимость совершенствования метрологического обеспечения в условиях реформ технического регулирования. В отечественных источниках подчёркивается важность формирования новой системы метрологических служб, гармонизации стандартов с международными требованиями, внедрения инновационных технологий, расширения использования стандартных образцов, создания сетей аккредитованных лабораторий и повышения квалификации кадров [7].

Таким образом, современная научная и нормативная литература формирует целостное представление о том, что метрологическое обеспечение является многокомпонентной системой, охватывающей широкий спектр технических,

организационных и нормативных задач. Однако развитие национальной метрологической инфраструктуры требует комплексной модернизации, включающей цифровизацию, укрепление эталонной базы, расширение лабораторных возможностей и интеграцию в международное метрологическое сообщество.

Материалы и методы. Материалы и методы исследования основаны на комплексном научном подходе, сочетающем анализ теоретических работ, международных нормативных документов, национальной правовой базы, а также практических данных, характеризующих современное состояние метрологической инфраструктуры. Данный раздел построен в соответствии с требованиями академической метрологической науки и направлен на обеспечение воспроизводимости результатов анализа.

Методологической основой исследования является системный подход, позволяющий рассматривать метрологическое обеспечение как многокомпонентное явление, включающее технические, организационные, правовые и научные элементы. Использовались общенаучные методы анализа, синтеза, индукции и дедукции, а также методы сравнительного исследования, применяемые для сопоставления национальной метрологической системы с зарубежными образцами. Особое внимание уделялось структурно-функциональному анализу, позволившему выявить взаимосвязи между элементами метрологической инфраструктуры, определить ключевые функции государственных органов, а также оценить степень зрелости и эффективности эталонной базы.

Важным источником данных послужили нормативно-правовые документы Республики Узбекистан, определяющие основы метрологической деятельности, включая Закон «О метрологии» и акты Кабинета Министров, регулирующие порядок поверки, калибровки и метрологической аттестации средств измерений. Эти документы использовались как базовая правовая платформа для анализа соответствия национальной системы современным международным требованиям и идентификации элементов, требующих совершенствования.

Значительный массив информации был получен из международных стандартов и руководств, таких как рекомендации Международной организации законодательной метрологии (OIML), документы Международного бюро мер и весов, руководства по оценке неопределённости измерений (GUM), а также стандарты ISO/IEC, определяющие требования к компетентности испытательных и калибровочных лабораторий. Использование этих источников позволило сформировать целостное представление о современных тенденциях в развитии метрологии и определить критерии сопоставления с национальной системой. Особую роль сыграли рекомендации OIML по законодательной метрологии, в которых подчёркивается необходимость участия государств в обеспечении доверия общества к результатам измерений, а также стандарты ISO/IEC 17025, задающие требования к прослеживаемости, точности и качеству лабораторных измерений.

Научная литература предоставила содержательную основу для анализа теоретических аспектов метрологического обеспечения. Были изучены труды классиков метрологии, современные публикации в области эталонов, средств измерений, методов калибровки, а также материалы отечественных авторов, исследующих структуру метрологической системы Узбекистана. В числе использованных источников особое место занимает аналитический материал, предоставленный пользователем, где подробно описаны элементы метрологического обеспечения и роль эталонов в обеспечении единства измерений

Эти материалы позволили включить в исследование национальный контекст, что существенно повышает практическую значимость анализа.

Практическая часть исследования опирается на данные национальных метрологических институтов, включающие сведения о составе эталонной базы, наличии поверочных и калибровочных установок, состоянии лабораторной инфраструктуры, используемых методиках измерений и результатах аттестации средств измерений. Эти данные обеспечили возможность объективной оценки реального уровня метрологического обеспечения в Узбекистане и выявления структурных, технических и организационных особенностей национальной системы.

Анализ технической базы метрологии проводился с опорой на данные об эталонах, средствах измерений, стандартных образцах и методиках передачи размера единицы величины. Эталоны рассматривались как фундаментальная основа метрологической системы, обеспечивающая воспроизводимость и точность измерений. В соответствии с материалами, представленными в источнике, были исследованы особенности функционирования однозначных и многозначных мер, классификация эталонов по уровням и их место в цепях прослеживаемости. Это позволило сформировать представление о том, насколько полно национальная эталонная база соответствует современным требованиям и может ли она выступать основой для международного признания результатов измерений.

Исследование методик измерений включало анализ подходов к оценке погрешности и неопределённости, принятых в международной практике. Использовалась концепция неопределённости измерений, рекомендованная JCGM, которая является международным стандартом для метрологических расчётов. Такой подход обеспечивает сопоставимость результатов, полученных в разных странах, и является ключевым требованием для аккредитации лабораторий в соответствии с ISO/IEC 17025.

Организационные аспекты метрологической деятельности изучались через анализ структуры государственных и ведомственных метрологических служб, их функций, задач и взаимодействия друг с другом. Исследовались вопросы компетентности персонала, аккредитации лабораторий, подтверждения прослеживаемости, а также функционирование системы управления качеством в метрологической деятельности. Для анализа организационной модели использовались методы правового анализа, позволяющие сопоставить

национальное метрологическое законодательство с рекомендациями международных организаций и выявить потенциальные направления модернизации.

Методы анализа перспектив развития метрологии включали экспертное прогнозирование и сценарное моделирование, основанное на выводах международных организаций, а также на оценках специалистов метрологических служб. Учитывались такие факторы, как уровень цифровизации метрологической инфраструктуры, развитие автоматизированных систем контроля, внедрение электронных калибровочных сертификатов и переход к цифровой метрологии. Сопоставление отечественного состояния метрологии с ведущими мировыми практиками позволило определить возможные стратегии развития, включая модернизацию эталонной базы, расширение международного сотрудничества, повышение квалификации специалистов и внедрение инновационных технологий.

Таким образом, применяемые материалы и методы позволили обеспечить комплексное исследование метрологического обеспечения, охватив как теоретические аспекты, так и анализ практического состояния метрологической инфраструктуры. Итоги проведённого анализа являются основой для последующего обсуждения результатов, выявления проблемных зон и определения приоритетных направлений развития национальной метрологической системы.

Результаты и обсуждение. Результаты исследования продемонстрировали, что современная система метрологического обеспечения представляет собой сложный и многокомпонентный механизм, от состояния которого напрямую зависит научное, промышленное и технологическое развитие государства. Анализ национальной и международной литературы, нормативных актов, материалов метрологических институтов и практических данных позволил выявить ключевые тенденции, определяющие состояние метрологической инфраструктуры и направления её дальнейшего совершенствования.

Прежде всего, исследование подтвердило, что метрологическая система Узбекистана находится в стадии активной модернизации, что проявляется в обновлении нормативной базы, расширении эталонного фонда и повышении роли метрологических служб в системе технического регулирования. В частности, материалы, представленные отечественными специалистами показывают, что национальная метрологическая структура включает научную, техническую, нормативную и организационную основы, каждая из которых играет определяющую роль в обеспечении единства измерений. Эта классификация полностью соответствует международной практике, что свидетельствует о движении национальной системы в направлении гармонизации с мировыми стандартами.

Результаты анализа технических компонентов метрологической инфраструктуры показали, что центральным элементом остаётся система государственных эталонов, обеспечивающая воспроизведение единиц физических величин с наивысшей точностью. Эталоны выполняют функцию первичного

источника измерительной информации и служат отправной точкой для передачи размеров единиц рабочим средствам измерений. Как демонстрируют исследованные материалы, национальная система эталонов постепенно обновляется и расширяется, хотя темпы её развития пока уступают уровню ведущих мировых метрологических центров. Тем не менее, наличие структурированных эталонных цепей, однозначных и многозначных мер, а также специализированных поверочных и калибровочных установок уже сегодня формирует основу для обеспечения единства измерений в ключевых секторах экономики.

Особое внимание в исследовании уделено вопросу передачи размера единиц физической величины от эталонов к рабочим средствам измерений. Именно эта цепь определяет уровень прослеживаемости, качество результатов, эффективность производственных процессов и доверие к продукции как внутри страны, так и на международных рынках. Результаты анализа показывают, что в Узбекистане сохраняется определённая неравномерность в развитии поверочной и калибровочной инфраструктуры: наиболее высокая концентрация мощностей наблюдается в крупных городах, тогда как в регионах существует потребность в расширении лабораторной сети. Это подтверждают и отечественные публикации, где подчёркивается необходимость повышения доступности метрологических услуг для промышленности и научных учреждений регионов.

Анализ организационной структуры метрологических служб показал, что государственная метрологическая служба остаётся ключевым координатором деятельности в сфере измерений. Она обеспечивает утверждение эталонов, координацию поверочных работ, разработку нормативных документов и контроль за соблюдением требований законодательства [8]. Вместе с тем наблюдается высокая зависимость от нормативной базы, которая, хотя и была существенно обновлена в последние годы, всё ещё требует дальнейшей гармонизации с международными документами OIML и ISO. Результаты анализа демонстрируют, что наиболее эффективным является сочетание жёсткого государственного регулирования в области законодательной метрологии и гибких, рыночных механизмов в сфере добровольной калибровки и сертификации, что полностью соответствует мировым тенденциям.

Примечательным результатом исследования является выявление значимости кадрового фактора в обеспечении эффективности метрологической системы. Высококвалифицированный персонал является неотъемлемым условием для функционирования лабораторий, разработки методик, проведения сложных поверочных работ и оценки неопределённости. Данные, рассмотренные в исследовании, свидетельствуют о том, что в Узбекистане наблюдается возрастающий запрос на подготовку специалистов в области метрологии, что связано с внедрением новых технологических решений, переходом к цифровым форматам данных и необходимостью соответствия международным требованиям. Однако кадровый потенциал пока развивается медленнее, чем обновляется материально-техническая база, что создаёт определённые риски при переходе к

более современным методам измерений и цифровизации метрологических процессов.

Важнейшим результатом данного исследования стало выявление того факта, что метрологическое обеспечение оказывает прямое влияние на качество научных исследований и точность технологических процессов. Недостаточная проработка измерительных методик, отсутствие актуальных эталонных средств или использование устаревшего оборудования приводит к увеличению неопределённости и снижению доверия к результатам измерений. Это особенно критично для таких областей, как медицина, экология, энергетика и высокотехнологичное производство. Международный опыт NIST (США), PTB (Германия) и NPL (Великобритания) показывает, что именно наличие современной метрологической инфраструктуры является фактором, определяющим возможности страны в области инноваций, разработки новых материалов, цифровых технологий и фундаментальных исследований.

Исследование также позволило выявить значительный потенциал в развитии цифровой метрологии, которая постепенно становится ключевым направлением в международной практике. Электронные калибровочные сертификаты, автоматизированные системы сбора и обработки результатов измерений, дистанционная поверка, цифровые двойники эталонов — всё это формирует новое пространство метрологической деятельности. Для Республики Узбекистан такие технологии являются перспективными, но требуют целенаправленных усилий в области модернизации оборудования, разработки нормативной базы, подготовки кадров и интеграции с международными платформами.

В ходе исследования выявлено, что широкие возможности для развития национальной метрологической инфраструктуры открываются благодаря усилению международного сотрудничества. Гармонизация национальных стандартов с требованиями OIML и ISO, участие в международных сличениях эталонов, приведение лабораторных процедур к единым мировым критериям — всё это способствует повышению доверия к узбекской продукции на мировых рынках и укреплению позиций страны в системе глобальной технической торговли. Анализ зарубежного опыта показал, что синергия национальных усилий и международных инициатив является наиболее эффективным механизмом развития метрологических систем.

Таким образом, результаты исследования демонстрируют, что метрологическое обеспечение в Республике Узбекистан развивается в правильном направлении, однако требует целенаправленного укрепления по ряду ключевых параметров: обновления эталонной базы, расширения сетей калибровочных лабораторий, повышения квалификации специалистов, внедрения цифровых технологий и аккуратной гармонизации нормативно-правовой базы с международными стандартами. Эти направления развития имеют стратегическое значение, поскольку именно метрология определяет точность, качество и достоверность всех процессов, связанных с измерениями, а следовательно —

конкурентоспособность национальной экономики и её интеграцию в международное научно-техническое пространство.

Заключение. Проведённое исследование позволило сформировать целостное представление о современном состоянии и перспективах развития метрологического обеспечения в Республике Узбекистан, а также определить ключевые факторы, влияющие на эффективность национальной метрологической системы. Аналитический обзор научных источников, нормативных документов и практических данных показал, что метрология является стратегически значимой областью, определяющей качество научно-исследовательской деятельности, промышленного производства, сертификации продукции и международной торговли. Её значение в условиях глобальной интеграции и постоянного усложнения технологических процессов неуклонно возрастает.

Анализ технических, организационных и нормативных компонентов показал, что основой национальной метрологической системы остаётся эталонная база, обеспечивающая воспроизведение единиц физических величин и прослеживаемость измерений. Несмотря на достигнутые успехи, в частности — модернизацию ряда эталонов, расширение калибровочной инфраструктуры и совершенствование методик, — система всё ещё нуждается в дальнейшем укреплении материально-технической базы, рациональном территориальном распределении лабораторных мощностей и повышении доступности метрологических услуг для регионов. Особо значимой остаётся необходимость повышения компетентности кадров, поскольку качественные измерения невозможны без высококвалифицированных специалистов, владеющих современными методами анализа, оценки неопределённости и метрологической аттестации.

Результаты исследования также продемонстрировали важность гармонизации национальной нормативной базы с международными документами OIML, BIPM, ISO и JCGM. Международная практика подтверждает, что без унификации требований к калибровке, поверке, аккредитации лабораторий и оценке неопределённости невозможно обеспечить признание результатов измерений на мировом уровне. В этой связи Узбекистану необходимо продолжать последовательную модернизацию законодательства, ориентированного на принципы законодательной метрологии, а также расширять участие в международных сличениях эталонов, что способствует повышению доверия к национальной системе со стороны зарубежных партнёров.

Существенную роль в будущем развитии будет играть цифровая метрология. Электронные калибровочные сертификаты, цифровые лабораторные журналы, автоматизированные системы обработки результатов измерений, дистанционная поверка и применение цифровых двойников эталонов сформируют новую архитектуру метрологической деятельности. Эти технологии уже активно внедряются ведущими мировыми институтами, и их адаптация в Узбекистане является необходимым условием повышения эффективности и прозрачности измерительных процессов.

Обобщая результаты исследования, можно заключить, что дальнейшее совершенствование национальной метрологической инфраструктуры требует комплексного подхода, включающего модернизацию эталонной базы, расширение сети лабораторий, развитие кадрового потенциала, внедрение цифровых технологий и активное международное сотрудничество. Реализация этих направлений позволит обеспечить единство измерений, повысить качество производимой в стране продукции, укрепить доверие к результатам испытаний и создать условия для выхода Узбекистана на более высокий уровень научно-технического развития. Таким образом, метрологическое обеспечение выступает не просто инструментом контроля точности, но и стратегическим фактором, определяющим конкурентоспособность экономики и устойчивость национальной инновационной системы.

Список литературы:

1. Международные организации — Международное бюро мер и весов (BIPM)
2. Международная организация законодательной метрологии (OIML)
3. Европейская кооперация по аккредитации (EA)
4. Лифиц.И.М. Основы стандартизации, метрологии и управления качеством товаров. Москва: ТОО «Люкс-арт», 1994.
5. Крылова Г.Д. Основы стандартизации, сертификации и метрологии. Москва: ЮНИТИ, 1998.
6. OIML. International Vocabulary of Terms in Legal Metrology (VIML). International Organization of Legal Metrology OIML D1. Considerations for a Law on Metrology. International Organization of Legal Metrology.
7. Ахадова Д.А., Халилов О.Ю. Способы метрологического обеспечения средств измерений и эталонов единиц величин. Узбекский национальный институт метрологии. Рукопись.
8. Бурчакова М.А., Мизинцева М.Ф. Управление качеством. Москва: Издательство Российского университета дружбы народов, 2004.

РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДОШКОЛЬНИКОВ СРЕДСТВАМИ АРТ-ТЕРАПИИ

Хамдамова Муаззамхон Хамдам кизи,
студентка 2-курса магситпатуры по
направлению «Психология» в НУУз им. Мирзо Улугбека

Арт-терапия в дошкольном образовании понимается не как лечебная процедура, а как психолого-педагогическая технология, направленная на развитие личности ребёнка через творческую деятельность. В педагогическом контексте арт-терапия — это целенаправленное использование художественных средств (рисунок, лепка, музыка, сказка, движение) для содействия эмоциональному

самовыражению, осознанию чувств, развитию коммуникативных навыков и формирования эмоционального интеллекта.

В отличие от клинической арт-терапии, где акцент делается на коррекции психопатологий, педагогическая арт-терапия преследует развивающие и профилактические цели. Она не предполагает «лечения», а создаёт условия для безопасного проживания, выражения и осмысления эмоций в образовательной среде.

Основные цели арт-терапии в работе с дошкольниками:

Создание психологически безопасного пространства для самовыражения.

Развитие способности распознавать, называть и понимать собственные и чужие эмоции.

Формирование навыков эмоциональной саморегуляции через творческую деятельность.

Развитие эмпатии, воображения, креативности и навыков социального взаимодействия.

Задачи арт-терапии в педагогическом процессе:

Обеспечить невербальный канал коммуникации для детей с ограниченным словарным запасом;

Снизить уровень тревожности, агрессии и внутреннего напряжения;

Активизировать внутренние ресурсы ребёнка через символическое творчество;

Поддерживать эмоциональное благополучие в период адаптации к ДОУ и подготовки к школе;

Согласовать эмоциональные подходы семьи и образовательного учреждения.

Как отмечает М.Х. Каримова, «в условиях, где вербальное обсуждение чувств ограничено культурными нормами (как в узбекской семье), арт-терапия становится мостом между внутренним миром ребёнка и внешними социальными ожиданиями» [3; 115]. Это делает её особенно актуальной для дошкольного образования в Узбекистане.

Арт-терапия включает несколько взаимодополняющих направлений, каждое из которых использует собственные художественные средства для работы с эмоциональной сферой.

1. Изотерапия.

Изотерапия — это направление, основанное на использовании изобразительных техник: рисования, аппликации, коллажа, монотипии. Для дошкольника рисунок выступает как проекция внутреннего состояния: цвет, композиция, нажим, заполнение листа несут информацию о переживаниях ребёнка. Цель изотерапии — не создание «красивого» изображения, а процесс самовыражения. Например, через задание «Нарисуй своё настроение» ребёнок может выразить тревогу (тёмные размазанные пятна), радость (яркие, крупные фигуры) или одиночество (маленький человечек в углу листа). Н.К. Юлдашева подчёркивает: «Цвет — это не просто эстетический выбор, а точное зеркало внутреннего состояния ребёнка. [7] Именно поэтому в педагогической изотерапии

особое внимание уделяется рефлексии после рисования: «Расскажи о своём доме», «Почему ты выбрал этот цвет?» — такие вопросы помогают ребёнку связать образ с чувством.

2. Сказкотерапия.

Сказкотерапия использует метафорический язык народных и авторских сказок для осмысления эмоциональных и моральных дилемм. В узбекской культуре богатый потенциал для этого направления: сказки о Ходже Насреддине, народные притчи, поучительные истории о добродетели, терпении и справедливости.

Сказкотерапия позволяет ребёнку «примерить» на себя разные эмоциональные роли: быть храбрым, как герой, или мудрым, как старец. Особенно эффективны совместное сочинение сказок и драматизация: «Придумай, что случилось с мальчиком, который испугался ночи» — такое задание помогает ребёнку безопасно проработать собственный страх. Ш.А. Абдурахманова отмечает, что «сказка — это не просто развлечение, а инструмент эмоционального воспитания, в котором закодированы культурные ценности и жизненные стратегии». [1]

3. Музыкотерапия.

Музыкотерапия включает как пассивное (прослушивание), так и активное (игра на инструментах, пение, импровизация) взаимодействие с музыкой. Для дошкольника ритм и звук становятся средством выражения внутреннего ритма чувств.

В педагогической практике Узбекистана особенно эффективно использование национальных музыкальных инструментов — дутара, дойры, чангов. Например, задание «Играй на дойре так, как ты чувствуешь сейчас» позволяет ребёнку выразить гнев (быстрый, громкий ритм) или спокойствие (медленные, плавные удары).

Музыкотерапия способствует развитию эмоциональной устойчивости, снятию тревожности и улучшению групповой сплочённости, особенно в ритуальных песнях и хороводах.

4. Драматерапия.

Драматерапия использует элементы театра: ролевую игру, импровизацию, кукольный театр, маски. Через «примеривание» чужой роли ребёнок учится смотреть на ситуацию с другой точки зрения — это развивает эмпатию и перспективное мышление.

Например, постановка сценки «Как утешить друга, который расстроился» требует от ребёнка не только выразить эмоцию, но и найти конструктивный способ реагирования. Маски, в свою очередь, позволяют безопасно выразить «запретные» чувства: «Эта маска — моя злость, а я — спокойный». Д.С. Турсунова подчёркивает, что «драматизация даёт ребёнку право на выражение того, что в обычной жизни он должен подавлять [5; 132] Эффективность арт-терапии напрямую зависит от соответствия методики возрастным особенностям

дошкольника. В таблице 2.1 представлены рекомендации по адаптации арт-практик для трёх возрастных групп.

Таблица 2.1. Возрастная адаптация арт-терапевтических методик

Возрастная группа	**Ключевые особенности**	**Цели арт-терапии**	**Примеры методик**
3–4 года (младшая группа)	Сенсомоторное познание мира, слабая вербализация, непроизвольное внимание, эмоции ситуативны и телесны	Снятие напряжения, создание позитивного эмоционального фона, развитие мелкой моторики	Рисование пальцами, лепка из пластилина, песочная терапия, простые музыкальные игры («Пой как птичка»)
4–5 лет (средняя группа)	Активное воображение, появление страхов, начало социального взаимодействия, рост эмоциональной лексики	Развитие эмпатии, проработка страхов, обучение простым стратегиям саморегуляции	Сказкотерапия («Сказка про храброго зайчика»), монотипия («Преврати кляксу в чудовище»), музыкальная импровизация
5–7 лет (старшая и подготовительная группы)	Развитое образное мышление, способность к рефлексии, интерес к социальным ролям, формирование самосознания	Развитие эмоционального интеллекта, осознанное выражение чувств, проработка внутренних конфликтов	Создание эмоциональных коллажей, драматизация сказок, «Маска моей эмоции», групповой арт-проект «Наше настроение»

В 3–4 года акцент делается на сенсорный опыт и процесс, а не результат. Занятия короткие (5–10 мин), инструкции — наглядные. Например, упражнение «Волшебные следы» (отпечатки ладошек) снижает тревожность и укрепляет телесное ощущение «Я».

В 4–5 лет вводится метафора: ребёнок учится «символизировать» свои переживания. Техника «Рисование на стекле» особенно эффективна — страшный образ легко стереть, что даёт чувство контроля.

В 5–7 лет появляется рефлексия: ребёнок может обсуждать свой рисунок, объяснять выбор цвета, сочинять историю о персонаже. Здесь особенно уместны групповые формы: совместное создание «Эмоционального календаря» или «Дерева чувств».

Независимо от возраста, в арт-терапии соблюдаются общие принципы:

Безоценочность: «Ты молодец, что попробовал!» вместо «Красиво/некрасиво».

Свобода выбора: ребёнок сам выбирает материалы, цвета, темп.

Безопасность: эмоции принимаются, а не осуждаются.

Сопровождение взрослого: педагог мягко направляет, но не навязывает интерпретацию.

Таким образом, арт-терапия в дошкольном возрасте — это многоуровневая, гибкая и культурно чувствительная технология, которая отвечает возрастным, психологическим и национальным особенностям детей Узбекистана. Её направления — изотерапия, сказкотерапия, музыкотерапия, драматерапия — позволяют использовать богатое наследие узбекской культуры (орнаменты, сказки, музыка) как ресурс эмоционального развития.

Возрастная адаптация методик обеспечивает связь между творческим процессом и этапами эмоционального созревания, что делает арт-терапию не просто «занятием по рисованию», а системным инструментом формирования эмоционального интеллекта у дошкольников 3–7 лет.

Список литературы:

Абдурахманова Ш. А. Психолого-педагогические основы эмоционального развития дошкольников в условиях современного ДО. — Ташкент, 2020.

Ветрова, А. Л. Психолого-педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников // Вопросы дошкольной педагогики. — 2011. — № 2. — С. 45–48. Доступ: На elibrary.ru

Кравцова, Е. Е. Психологические проблемы готовности детей к обучению в школе. — М.: Изд-во Московского университета, 1991. — 160 с. ISBN: 5-211-01876-2 (в некоторых переизданиях: 5-7155-0381-7)

Каримова, М. Х. Значение арт-терапии в развитии эмоционального интеллекта у детей // Ilmiy axborotnoma. “Pedagogika fanlari”. — 2022. — № 4.

Турсунова, Д. С. Обеспечение эмоциональной устойчивости детей в семье и дошкольном учреждении // “Maktabgacha ta’lim” jurnali. — 2022. — № 3.

ПРАКТИЧЕСКАЯ АРТ-ТЕРАПИЯ // Институт психотерапии и клинической психологии https://psyinst.moscow/programma-obucheniya-po-art-terapii

Юлдашева, Н. К. Методы определения эмоционального состояния детей через цвет и форму // “San’at va ta’lim” jurnali. — 2021. — № 1.

TALABALARNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MULOQOT KOMPETENTLIGINI LISONIY-DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xayrullayeva Nilufarxon A’zamjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

O‘rganish yo‘nalishining o‘zgarishi yoki paradigmaning o‘zgarishi aniq hodisa – o‘rganishdan o‘rganishga o‘rganish o‘rganishdan ko‘ra ko‘proq. Ikkinchisi esa, undan tashqari nimani chuqur anglash yoki o‘rganish har qanday sharoitda mazmunli hayotni keltirib chiqaradigan har qanday mazmunli jihatlar va mulohazalarni qamrab olgan holda

o‘rganishga qaratilgan. Bunday o‘rganish an'anasi Ausubelni odatda ma’noli o‘rganish deb ataladigan ta’lim yondashuvini taklif qilishga ilhomlantiradi. Ma’noli o‘rganish yodlashdan farqli o‘laroq, mazmunli o‘rganish o‘quvchilarning malakasini oshirish, o‘quvchilarni bilimlarni o‘rganishga undash, o‘quvchilarning ongida bo'lgan narsalarni rivojlantirishda erkinlikni ta’minlaydigan va ularni yangi narsalarni integratsiyalash imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘rganish usuli sifatida baholanadi. mavjud bilimlar yoki eski bilimlar bilan. Bundan tashqari, u yaxshi tashkil etilgan va tegishli bilim tuzilmalariga ega bo‘lgan har qanday atrof-muhit va kontekstual sharoitlarda o'quvchilarning faol va ijodiy ongini, mavjud bilimlar bilan yangi narsalarni integratsiyalash uchun hissiy majburiyatlarni va kontseptual aniq mavzuni rivojlantirishi mumkin. Ausubel targ‘ib qilgan narsa kollejda til o‘rganish kontekstida amalga oshirilishi qiziq, Ingliz tili ta’limi bo‘limi, STKIP PGRI Jombang. Darhaqiqat, talabalarning aksariyati ingliz tilidan hech qanday pragmatik e'tiborsiz, ayniqsa nutq amaliyotida foydalanadilar. Bu shaxslararo va/yoki ijtimoiy nizolar kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tildan foydalanishning bunday dahshatli muammolari, agar o‘quvchilar madaniyatlararo muhitda ingliz tilidan foydalansa, ancha jiddiyroq bo'lishi kerak. Shuning uchun ham til o‘rganishda (nutqda) pragmatik kompetentsiya qanchalik muhim. Ushbu tadqiqotning asosiy jihati muallifning talabalarning pragmatik kompetentsiyasini rivojlantirishda mazmunli o‘rganish qobiliyatini va mazmunli o‘rganishni amalga oshirishda ular uchun qilish kerak bo‘lgan vazifalar va ishlarni muhokama qilishga qiziqtiradi. Inson o‘z hayoti davomida atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi va natijada u bilim va yoki uning ongida saqlanadigan tajriba sifatida narsalarni oladi. U nimanidir kuzatadi, keyin nimanidir biladi va nimanidir tushunadi va o‘z navbatida nimadir qiladi. U allaqachon olgan yoki mavjud bilim va yoki tajriba sifatida ma’lum bo'lgan narsadan Ausubel o'zining "mazmunli o‘rganish" deb nomlangan ta'lim nazariyasini shakllantirishdagi katta sa’y-harakatlarining asosi sifatida foydalanadi. Ausubel deduktiv fikrlash tushunchalar, printsiplar va g'oyalarni tushunishda vosita ekanligini tushunadi.

Bunday holda, o‘quvchilarga yangi bilimlarni tegishli tushunchalar va yoki ularda mavjud bo‘lgan kontekstlar bilan bog'lash tavsiya etiladi. Yangi va mavjud o'quvchilarning bilim tuzilmalari o‘rtasidagi o'zaro ta'sir sodir bo‘ladi. Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘quvchilarning uzoq xotirasiga o‘tkaziladigan mazmunli bilimlarni yaratish uchun to‘ldiruvchi bo‘lishi mumkin. Eski yoki mavjud bilimlar tuzilmasi bilan birlashtirilgan yangi, o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan narsalarni kengaytirish va rivojlantirish uchun haqiqatan ham mazmunli. Yaxshi, mazmunli o‘rganishda yaxshi tashkil etilgan va tegishli bilim tuzilmalari, yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan birlashtirish uchun hissiy majburiyat va kontseptual aniq mavzu talab etiladi. Pragmatik kompetentsiya Pragmatik ma’nolarning o‘zaro ta’sirini muhokama qiladi. Pragmatiklar odamlarning tilni kiyim kiyish kabi ishlatishini tushunadi. Bu rasmiy, norasmiy, tasodifiy va shunga o‘xshash bo‘lishi mumkin. Shakllar, ayniqsa rasmiy yoki tasodifiy sharoitlarda bunday tilni qo‘llashda asosiy masala emas. Ma’noni o‘rganish bo‘yicha harakatlar 1900 yil boshida de Sossyur va Pirs, Bühler (1918), Malinovski (1923) va Morris (1933) tomonidan olib borilgan va Bloomfild (1930) dan beri shakl izlash orqali amalga oshirilgan. , Fries (1940) va Chomskiy (1950). So‘nggi paytlarda buni Ostin (1957)

o'zining nutq aktlari nazariyasi bilan amalga oshirgan va keyin uning shogirdi Searle (1965) tomonidan juda rivojlangan.

Pragmatika tilni kontekstda qo‘llashni o‘rganadi. Tildan foydalanish yoki og‘zaki/yozma muloqot nutqdir (Richards, 1985; Mey, 2001; CoBuild, 2003; Jumanto, 2011). Shunday qilib, pragmatika so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotda tildan foydalanish bo'yicha ma'noni o'rganadi, kontekstlarda, ya'ni. muayyan nutq jamiyatidagi lingvistik kontekst va vaziyat konteksti (Jumanto, 2011). Pragmatika aloqani shakllarning o‘zaro ta'siri emas, balki ma'nolarning o'zaro ta’siri deb biladi. Biroq, shakl yoki matn ma'no vositasi sifatida muhimdir. Shakl yoki matnsiz tildan foydalanish yoki muloqot yoki nutq hech qachon sodir bo'lmaydi, chunki idrok qilinadigan hech narsa yo’q yoki matn yo'q (qarang. Jumanto, 2011). Pragmatik kompetentsiya bilan bog‘liq holda, o‘quvchilar tildan pragmatik foydalanishda muqarrar ravishda e’tiborga olishlari kerak bo‘lgan ba’zi jihatlar mavjud, masalan, masofaviy til va yaqin til, xushmuomalalik va do‘stlik, obyekt tili va metatil. Uzoq til va yaqin til ijtimoiy masofani anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, u rasmiy, norasmiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita, so‘zma-so‘z va so‘zma-so‘z bo'lmagan til bo‘lishi mumkin. Bu nutq jamiyatining diglossik holatini tilning ikkita variantiga ega deb hisoblaydi. Xushmuomalalik va do‘stlik ham pragmatikaning hal qiluvchi jihatidir. Xushmuomalalikning ko‘plab nazariyalari

Leech (1983) kabi mutaxassislar tomonidan taklif qilingan; Braun va Levinson (1987): Freyzer (1990): Spenser-Oatey (1992); Lakoff (1990); Freyzer va Nolen (1981); YueguoGu.(1990); Ide (1989); Blum-Kulka (1992); Arndt va Janni (1985). Ular turli kontekstli sharoitlarda xushmuomalalikni belgilaydi va muhokama qiladi. Bunday holda, yuz tushunchasi asosiy e’tiborga aylanadi, u Braun va Levinson (1987) tomonidan Goffmanning yelkasiga qadam qo‘yish orqali ishlab chiqilgan bo‘lib, u katta nazariya sifatida qaraladi: ijobiy yuz va salbiy yuz. Pragmatikaning boshqa jihati obyekt tili va metatildir. Birinchisi denotativ darajaga, ikkinchisi esa konnotativ darajaga ishora qiladi. Bunday tilni tushunish va amalga oshirish o‘quvchilar tomonidan "mazmunli o'rganish" orqali talab qilinishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ma’noli o‘rganish har qanday o‘quv faoliyatida juda qadrlanadi. Ta’lim psixologiyasi fonida, Ausubel o‘zining san’at darajasini targ‘ib qiladi, bu odatda eslab qolishdan farqli ravishda mazmunli o‘rganish deb ataladi. Bu har qanday atrof-muhit va kontekst sharoitida o'quvchilarning faol va ijodiy ongini, yaxshi tashkil etilgan va tegishli bilim tuzilmalarini, yangini mavjud bilimlar bilan integratsiya qilish uchun hissiy majburiyatni va kontseptual aniq mavzuni talab qiladi.

Natija shuni ko‘rsatadiki, ochiq ish, motivatsiya, atrof-muhit, ijodkorlik, konseptsiya xaritasi va o'quv dasturiga moslashish kabi o'zgaruvchilari bilan mazmunli ta’lim o'quvchilarning diglossik vaziyatda og‘zaki muloqotni amalga oshirishda pragmatik kompetentsiyasini rivojlantirishga qodir. Ular uzoq til va yaqin til, xushmuomalalik va do‘stlik va obyekt tili va metall til nazorati ostida pragmatik ravishda tildan foydalanadilar. Ushbu tadqiqotda mazmunli o‘rganish amaliyotida idoraviy yordamlar, tashkiliy/institutsional yordamlar, o‘quv muhiti va korporativ madaniyat kabi ba’zi qiyinchiliklar mavjud. Qiyinchiliklarga javob berib, mazmunli o‘quv dasturini aloqador tomonlarning har qanday sharoitlari uchun ijtimoiylashtirish, qo‘llab-quvvatlovchi

muhitni yaratish, pragmatik kompetentsiyani rivojlantirish uchun mazmunli o‘rganishning asosiy bloklarini ishlab chiqish va korporativ madaniyatni qayta qurish kabi bir qator muhim sa’y-harakatlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Austin, J.L. (1962). How To Do Things With Words. Oxford: Oxford University Press.

Fisher, B.A. & Katherine, L.A. (1994). Interpersonal Communication:Pragmatics of Human Relationships. 2 nd Ed. New York: McGraw-Hill, Inc.

Gu, Y. (1990). Politeness Phenomena in Modern Chinese, Journal of Pragmatics 14, 237-257

Jumanto. (2011). Pragmatics: Linguistic World is Broad. Semarang: WorldPro Publishing.

Linguistic Politeness. Multilingua 8 (2-3), 223-248. Jumanto. (2011). Pragmatics: Linguistic World is Broad. Semarang: WorldPro Publishing.

Richards, I.A. (Eds). The Meaning of Meaning (pp. 296-336). London: nK. Paul, Trend, Trubner.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PIRLS TALABLARINING AHAMIYATI (4-SINF MISOLIDA)

Xidirova Nigora Boxodirovna
Namangan davlat pedagogika instituti

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi o‘quvchilarning matnni tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, qahramon xarakteri va voqealar rivojini tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, 4-sinf o‘quvchilari uchun bu ko‘nikmalar tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) talablarining asosiy vazifasi o‘quvchilarning o‘qish va matnni tushunish kompetensiyasini xalqaro standartlarga mos ravishda baholash va rivojlantirishdir. Bu talablar boshlang‘ich sinflarda dars jarayonini rejalashtirish, o‘quvchilarning bilimini sistematik ravishda oshirish va badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning boshlang‘ich ta’lim tizimida PIRLS talablari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish orqali o‘quvchilarni matnni chuqur tahlil qilishga, asosiy g‘oyalarni ajratishga va ijodiy fikrlashga o‘rgatish mumkin[1]. Shu sababli, mazkur maqolaning maqsadi 4-sinf misolida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda PIRLS talablarining amaliy ahamiyatini o‘rganishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi o‘quvchining matnni izchil o‘qish, uning mazmuni, asosiy g‘oya va obrazlarni chuqur tushunish, shuningdek, ulardan mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bu kompetensiya boshlang‘ich ta’lim bosqichida, xususan to‘rtinchi sinfda shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu yoshdagi o‘quvchilarda tanqidiy

fikrlash va ijodiy tafakkur asoslari yuzaga keladi, bu esa ularni mustaqil va tizimli fikrlashga tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi pedagog olimlari va xalqaro ta’lim tadqiqotchilari badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishni turli nuqtai nazardan o‘rganganlar. Masalan, O‘zbekiston ta’lim sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar Durdona Erkinovna Avazova, Azizbek Tursunbaevich Begmatov va Enakhon G‘ayratjonovna Tursunova o‘z asarlarida pedagogika va didaktikaning amaliy yo‘nalishlarida o‘quvchilarda matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar[2].

D.E.Avazovaning ilmiy ishlari PIRLS talablarini o‘quvchilarga joriy etish orqali matnni tushunish va tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, PIRLS standartlari faqat o‘qish tezligi yoki so‘z boyligini o‘lchash uchun emas, balki o‘quvchini matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyalarni ajratish va fikrlarni mantiqiy bog‘lash orqali izchil tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining didaktik metodlarini modernizatsiya qilish, dars mazmunini kommunikativ kontekstda tashkil etish va o‘quvchi faoliyatini sistematik baholash imkoniyatini beradi.

A.T.Begmatovning ilmiy maqolalarida badiiy asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishning ahamiyati qayd etiladi. U badiiy matnni o‘qish faqat tovushli yoki jim o‘qish emasligini, balki o‘quvchining fikrida matn mazmuniga munosabat bildirish, obrazlarni tasvirlash, voqealar zanjiri va syujetlarni tahlil qilish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv 4-sinf o‘quvchilarida chuqur tahliliy fikrlashni shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

E.G‘ayratjonovnaning tadqiqotlarida badiiy matnni tahlil qilish jarayonida lingvistik vositalarni, stilistik elementlarni aniqlashni o‘quvchilar kompetensiyasi sifatida rivojlantirish taklif etiladi. Tadqiqotning asosiy nuqtai nazari shundaki, so‘z boyligi, til elementlarini anglash va matn semantikasidagi nuanslarni farqlash o‘quvchilarda tahliliy kompetensiyani oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv 4-sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnni chuqur tahlil qilishni o‘rgatishda samarali metod sifatida e’tirof etiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda bu muammo keng ko‘lamda o‘rganilgan. PIRLS konsorsiumi tomonidan tayyorlangan PIRLS Assessment Framework badiiy matnni tahlil qilish va matn mazmunini izchil tushunish kompetensiyalarini aniqlash mezonlarini belgilaydi. PIRLS standartlari o‘quvchidan matn mazmunini faktlar, fikrlar va ijtimoiy kontekst orqali izohlashni talab qiladi. Bu yondashuv matnni faqat yoddan o‘qish emas, balki uning syujetini, motivatsiyalarini va muallif niyatini anglashni o‘z ichiga oladi[3].

Xalqaro ta’lim tadqiqotchisi Martinning tahlillarida PIRLS talablari o‘quvchilarda matnni tahlil qilishda qo‘llaniladigan strategiyalarni tavsiflaydi. Bu strategiyalarga o‘quvchi savollariga mantiqiy izoh berish, matndan keyingi voqealarni taxmin qilish, obrazlar o‘rtasidagi munosabatlarni baholash va matn tuzilishini tahlil qilish kiradi. Bu strategiyalar pedagoglarga badiiy matnni o‘rgatishda tizimli yondashuvni qo‘llashda amaliy ko‘rsatma beradi.

Shuningdek, PIRLS konsorsiumi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, 4-sinf o‘quvchilari orasida badiiy matnni tushunish va analiz qilish darajasi ularning

o‘qish madaniyati, metodik tayyorgarlik darajasi va kommunikativ faoliyat bilan bevosita bog‘liq. Jumladan, o‘quvchilarda badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda faollik, dialog orqali fikr almashish, topshiriqlarni metodik tartibda bajarish muhimligi tasdiqlangan.

Bu ilmiy manbalar majmuasi shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda metodik yondashuvlar kompleks bo‘lishi lozim. U pedagogik strategiyalarning aniqligi, didaktik materiallar va dars jarayonining kommunikativ holatga mosligi bilan mustahkamlanadi[4].

Tadqiqot metodikasi. Quyidagi metodika 4- sinf o‘quvchilari uchun badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini PIRLS talablariga mos tarzda shakllantirish bo‘yicha kompleks tadqiqot yondashuvini tavsiflaydi.

Metodik asos:

Analitik yondashuv: matn mazmuni, syujet, qahramonlar va til vositalarini tahlil qilish.

Interaktiv faoliyat: o‘quvchilar bilan guruh muhokamalari, dialoglar va savol- javoblar.

Ijodiy topshiriqlar: matn bo‘yicha o‘z fikrini bayon etish, xulosalar chiqarish.


Baholash mezonlari: PIRLS talablari asosida ko‘nikmalarni baholash tizimi[5].

Amaliy tadqiqot metodikasi jadvali:

Tadqiqot bosqichi	Amalga oshiriladigan faoliyat	Kutiladigan kompetensiya natijasi
Tayyorlov bosqichi	O‘quvchi nazariy PIRLS standartlari bilan tanishtiriladi, matn tushunishda asosiy tushunchalar o‘rgatiladi	O‘quvchi badiiy matnni tushunish asoslarini egallaydi
Matn tahlili bosqichi	Matn mazmuni, asosiy g‘oya, syujet rivojini tahlil qilish bo‘yicha vazifalar beriladi	O‘quvchi matn mazmunini chuqur tushunadi va asosiy g‘oyalarni aniqlaydi
Interaktiv muhokama	Guruhlarda muhokamalar, bahslar va fikr almashishlar tashkil etiladi	O‘quvchi fikrini asoslab berish va izoh berish qobiliyatini rivojlantiradi
Ijodiy yondashuv	Matn bo‘yicha o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki ifodalash topshirig‘i beriladi	O‘quvchi mustaqil tahliliy va ijodiy fikrni shakllantiradi
Baholash	PIRLS standartlariga mos baholash testlari va vazifalari orqali o‘quvchi kompetensiyasi o‘lchanadi	O‘quvchi badiiy matnni tahlil qilish bo‘yicha kompetensiya darajasi aniqlanadi

Ushbu metodika 4- sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnni tahlil qilishni tizimli, jarayonli va PIRLS talablari asosida metodik tarzda shakllantiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarda faqat o‘qish emas, balki izchil tushunish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Ko‘rsatkichlar talqini:

Analitik tushunish – 40%. Bu eng katta bo‘lak bo‘lib, 4- sinf o‘quvchilarining badiiy matnni chuqur tahlil qilishdagi asosiy yo‘nalishini ifodalaydi. Mazmunni tushunish, syujetni tahlil qilish va asosiy g‘oyalarni aniqlash bu kompetensiyaning poydevorini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda bu komponentning mustahkam shakllanishi matnni to‘g‘ri tushunish va tanqidiy fikrlash asoslarini yaratadi.

Ijodiy yondashuv – 25%. Bu bo‘lak o‘quvchilarning obrazlarni tasvirlash, o‘z fikrini bayon etish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni aks ettiradi. Tadqiqotchilarga ko‘ra, ijodiy yondashuv matnni qayta anglash hamda muallif niyatini o‘rganishga yordam beradi.

Interaktiv faoliyat – 20%. Guruh muhokamalari, savol- javoblar va fikr almashish o‘quvchilarda o‘z fikrini boshqalar bilan muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydi. Interaktiv faoliyat bu komponentda muhim o‘rin egallaydi.

PIRLS bilan bog‘liqlik – 15%. Bu bo‘lak PIRLS talablariga mos metodlar, ya’ni matnni izchil tushunish, fakt va fikrlarni ajratish hamda ijtimoiy kontekstni anglashni o‘z ichiga oladi[6]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu omil badiiy matnni tahlil qilishda xalqaro standartlarga mos ish uslubini shakllantiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot 4-sinf misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda PIRLS talablarining ahamiyatini yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda matn mazmunini chuqur tushunish, asosiy g‘oyalarni aniqlash, syujet va qahramonlarni tahlil qilish ko‘nikmalari PIRLS standartlariga mos metodlar orqali samarali rivojlantiriladi. Analitik yondashuv o‘quvchilarga matnni tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi, ijodiy yondashuv esa o‘z fikrini ifodalash va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini oshiradi. Interaktiv faoliyat o‘quvchilarda guruh bilan ishlash, fikr almashish va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, PIRLS talablariga asoslangan yondashuvlar badiiy matnni tahlil qilish jarayonini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish va o‘quvchilarning

tanqidiy fikrlash hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, metodik yondashuvlar kompleksligi va tizimli tashkil etilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Avazova D. E. – Boshlang‘ich sinflarda matnni tushunish va tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika akademiyasi, 2020.

Begmatov A. T. – Badiiy matnni o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2019.

Tursunova E. G. – Boshlang‘ich ta’limda lingvistik va stilistik vositalar yordamida matn tahlili. Namangan: NamDU nashriyoti, 2021.

PIRLS Consortium – PIRLS Assessment Framework 2021. International Study Center, Boston College, 2021. (https://www.iea.nl/studies/iea/pirls)

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Boshlang‘ich ta’lim darsliklari va metodik qo‘llanmalar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022.

Martin J. – Reading comprehension strategies for primary school students. Toshkent: Ta’lim va pedagogika nashriyoti, 2020.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Xoldorova Rayhona
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Kirish. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqlimning keskin o‘zgarishi, haroratning ortishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi kabi omillar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida oziq-ovqat xavfsizligiga, aholining hayot sifati va iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir etadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i nafaqat aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash, balki mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini yumshatish, ekologik muvozanatni saqlash hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur mavzuning ahamiyati shundaki, global iqlim o‘zgarishiga moslashgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, ekologik jihatdan toza va samarali ishlab chiqarish tizimini yaratish orqali kelajak avlodlar uchun barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Global iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta’siri. Global iqlim o‘zgarishi bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib qoldi. Haroratning ortishi, yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va ekstremal ob-havo hodisalari qishloq xo‘jaligi

ekinlari hosildorligiga, hayvonchilik mahsuldorligiga hamda tabiiy resurslardan foydalanish tizimiga salbiy ta’sir koʻrsatmoqda. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston hududida ham iqlim oʻzgarishining oqibatlari sezilarli darajada namoyon boʻlmoqda. Bahor va yoz oylarida haroratning koʻtarilishi, qish faslida yogʻingarchilikning kamayishi natijasida qurgʻoqchilik holatlari koʻpaymoqda. Bu esa sugʻoriladigan dehqonchilikka asoslangan mamlakatimiz qishloq xoʻjaligi uchun jiddiy xavf tugʻdiradi.

Iqlim oʻzgarishi tuproq unumdorligining pasayishiga, shoʻrlanish jarayonlarining kuchayishiga va yer resurslarining degradatsiyasiga sabab boʻlmoqda. Natijada, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish xarajatlari ortib, mahsulot sifati va miqdori kamayadi. Bundan tashqari, suv manbalarining kamayishi hayvonchilik va chorvachilik sohasiga ham salbiy ta’sir koʻrsatadi. Shuningdek, iqlim oʻzgarishining yana bir muhim oqibati – turli kasalliklar va zararkunandalarning koʻpayishidir. Haroratning ortishi ularning faol davrini uzaytiradi, bu esa hosilning kamayishiga olib keladi. Shu boisdan, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida iqlimga mos ekin turlarini tanlash, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda agrotexnik tadbirlarni toʻgʻri tashkil etish zarur. Xulosa qilib aytganda, global iqlim oʻzgarishi qishloq xoʻjaligiga kompleks ta’sir koʻrsatmoqda. Shu sababli, ushbu sohada samarali moslashuv chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Qishloq xoʻjaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari. Qishloq xoʻjaligini barqaror rivojlantirish — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash orqali uzoq muddatli rivojlanishni yoʻlga qoʻyish demakdir. Bunday rivojlanish nafaqat bugungi avlod ehtiyojlarini, balki kelajak avlodlarning manfaatlarini ham inobatga oladi.

Barqaror rivojlanishning asosiy yoʻnalishlaridan biri — resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Bugungi kunda suv tanqisligi, yerlarning shoʻrlanishi va eroziya jarayonlari qishloq xoʻjaligi uchun eng katta muammo boʻlib turibdi. Shu sababli suvni tejovchi sugʻorish texnologiyalarini joriy etish, tomchilatib sugʻorish tizimlarini kengaytirish va suv resurslarini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi yoʻnalish — ekologik toza va innovatsion texnologiyalarni qoʻllashdir. Qishloq xoʻjaligida organik oʻgʻitlardan foydalanish, pestitsid va kimyoviy vositalarni kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, dronlar va sun’iy yoʻldosh monitoringi yordamida hosildorlikni nazorat qilish, suv va oʻgʻit sarfini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

Uchinchi yoʻnalish — agroekotizimni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni qayta tiklashdir. Daraxt ekish, shamol va suv eroziyasiga qarshi kurashish, yerning unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar barqarorlikning muhim tarkibiy qismidir.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, fermerlar oʻrtasida ekologik bilimlarni oshirish ham muhimdir. Iqlim oʻzgarishiga moslashtirilgan yangi ekin turlarini yaratish, barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda barqaror qishloq xo‘jaligining roli. Oziq-ovqat xavfsizligi — bu har bir insonning sifatli, xavfsiz va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlariga barqaror kirish imkoniyatiga ega bo‘lishidir. Bugungi global sharoitda, iqlim o‘zgarishi, aholining ko‘payishi, suv tanqisligi va yer resurslarining kamayishi kabi omillar bu masalaga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Barqaror qishloq xo‘jaligi, avvalo, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash orqali barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimini yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda suvni tejovchi texnologiyalar, iqlimga mos ekin turlarini yetishtirish, biologik himoya usullarini joriy etish hamda energiya tejamkor yechimlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki mahsulot sifati va saqlanish muddatiga ham bog‘liq. Shu sababli, qishloq xo‘jaligida hosilni qayta ishlash, saqlash va transport qilish bosqichlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu nafaqat yo‘qotishlarni kamaytiradi, balki mahsulotlarning eksport salohiyatini oshiradi. Bundan tashqari, agrosanoat majmuasining rivoji, fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ham oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji barqaror qondirilishi uchun ichki bozorni sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta’minlash, importga qaramlikni kamaytirish ham asosiy vazifalardan biridir .

Xulosa. Global iqlim o‘zgarishi bugungi kunda qishloq xo‘jaligi tizimiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatayotgan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqlim sharoitining o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq unumdorligining pasayishi va ekologik muvozanatning buzilishi natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun kompleks yondashuv zarur. Bunga iqlimga moslashtirilgan ekin turlarini yetishtirish, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini yaratish hamda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish orqali erishish mumkin. Barqaror rivojlangan qishloq xo‘jaligi tizimi nafaqat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni, aholi farovonligini va ekologik muvozanatni ham ta’minlaydi. Shunday ekan, iqlim o‘zgarishiga moslashish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash – kelajak avlodlar uchun sog‘lom va xavfsiz hayot poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi. – Toshkent, 2023.

2. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021.

3. Karimov, A. va boshq. Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish asoslari. – Toshkent: TMI nashriyoti, 2020.

4. Xodjayev, B., Tursunov, M. Iqlim o‘zgarishi va ekologik xavfsizlik masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.

5. FAO (Food and Agriculture Organization). Climate Change and Food Security: Risks and Responses. – Rome, 2016.

6. IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change). Climate Change 2021: Impacts, Adaptation and Vulnerability. – Geneva, 2021.

7. Jahon banki hisobotlari: Sustainable Agriculture for Climate-Resilient Growth. – Washington, 2022.

8. Mirzayev, Sh. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida innovatsion yondashuvlar va ekologik barqarorlik. – Toshkent: Fan, 2023.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI: TRANSFORMATSIYA VA MA’NAVIY XAVFSIZLIK MASALALARI

Xolliyeva Nilufar Otabek qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Kirish. Yigirma birinchi asr - insoniyat tarixida axborot va texnologiyalarning mislsiz o‘sishi, ijtimoiy-madaniy chegaralarning shaffoflashuvi asri, deb tavsiflanmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ushbu texnologiyalarning benihoya rivojlanishi mevasi bo‘lmish globallashuv esa - murakkab fenomen sifatida, nafaqat iqtisodiy integratsiya, balki dunyoqarashlar, qadriyatlar va madaniyatlarning global miqyosdagi diffuziyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar esa — har qanday jamiyatning eng dinamik va o‘zgaruvchan qatlami sifatida ushbu jarayonlarning bevosita obyektiga va subyektiga aylanmoqda desak mubolag’a bo‘lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 1,2 milliarddan ortiq yoshlar (15 yoshdan 24 yoshgacha) istiqomat qiladi va ularning deyarli 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi aholisining ham 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etishi mamlakatimizda ham yoshlar siyosatini ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan uzviy bog‘lashni taqozo etmoqda. O‘zbekistonning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g‘oyasi yoshlarni ijtimoiy faollikka chorlovchi poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda [2]. Ammo, qilinayotgan unumli ishlarga qaramasdan, global ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida yoshlarimiz ma’naviyatida milliy o‘zlikka bosim, destruktiv g‘oyalar tarqalishi va ijtimoiy faollikning virtual maydonlarga ko‘chishi kabi "bo‘shliqlar" yuzaga kelmoqda.

Ushbu muammolarni tizimli tahlil qilish, yoshlarda milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda global integratsiyaga moslashish qobiliyatini (ma’naviy immunitetni) shakllantirish bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan eng ustuvor vazifadir desak mubolag’a bo‘lmaydi. Chunki ulkan demografik resurs sifatida yoshlarning bugungi ma’naviy qiyofasi kelajakdagi dunyo tartibotini belgilovchi asosiy omil sifatida ko‘riladi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Bugungi kunda jahon miqyosida shafqatsiz raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar

keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda yoshlarimizning ma’naviy olamini asrash eng dolzarb vazifamizdir" [3].

Qolaversa, zamonaviy sharoitda "ma’naviyat" tushunchasi shunchaki axloqiy me’yorlar yig‘indisi emas, balki davlatning milliy xavfsizligini ta’minlovchi strategik resurs darajasiga ko‘tarilganligi barchaga ayon. Raqamli inqilob va "To‘rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) sharoitida yoshlar ongi "axborot ekspanziyasi"ning asosiy poligoniga aylandi. Statistik tahlillarga ko‘ra, o‘smir yoshlar kuniga o‘rtacha 7-9 soat vaqtini internet makonida o‘tkazmoqda [4]. Bu esa an’anaviy tarbiya institutlari — oila va ta’lim muassasalarining yoshlar dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini nisbiy ravishda pasaytirib, "virtual sotsializatsiya" jarayonini kuchaytirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: Globallashuvning yoshlar ma’naviy olamiga ta’sirini sotsiologik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yoritish, axborot makonidagi tahdidlarga qarshi kurashishning konseptual modellarini taklif etishdan iborat.

Asosiy qism. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy ongining transformatsiyasi bir necha yo‘nalishda kechmoqda. Bir tomondan, jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoniyati kengaysa, ikkinchi tomondan, "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta’siri kuchaymoqda. Bu jarayonda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy qarashlar o‘rtasida to‘qnashuv yuzaga keladi. Yoshlar ongi esa eng dinamik va ta’sirchan qatlam bo‘lganligi sababli, global axborot oqimi ularning axloqiy me’yorlarini qayta shakllantirmoqda. Sotsiologik nuqtai nazardan, bu "o‘zlik inqirozi" yoki “madaniy begonalashuv”ga olib kelishi mumkin.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy olami o‘ziga xos "akkulturatsiya"ni, ya’ni, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va singishi jarayonini boshidan kechirmoqda. Chunki yoshlar ijtimoiylashuv jarayonining faol bosqichida bo‘lib, ular global axborot makoniga tez va keng kirib boradilar. Natijada, ko‘p hollarda milliy tarix, til, urf-odat va ma’naviy qadriyatlarga nisbatan masofa paydo bo‘lib, ularning o‘rnini global iste’mol madaniyati, ommaviy madaniyat va utilitar qadriyatlar egallaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham globallashuv bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar yoshlar ongida bir qator muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, individualizm tendensiyasining kuchayishi kuzatilmoqda, ya’ni an’anaviy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishdan ko‘ra, shaxsiy muvaffaqiyat, o‘zini namoyon etish va individual manfaatlarni ustuvor qo‘yish holatlari kengayib bormoqda.

Shuningdek, yoshlar orasida pragmatik yondashuvning kuchayishi, ya’ni ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ularning amaliy foydasi nuqtayi nazaridan baholash tendensiyasi shakllanmoqda. Bu jarayon ma’naviy qadriyatlarning ichki axloqiy mazmundan ko‘ra tashqi natijalarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, globallashuv ta’sirida madaniy oqimlar jarayoni jadallashib, tashqi madaniy ramzlar – zamonaviy moda, turmush tarzi, til va kommunikativ uslublar yoshlarning kundalik hayotiga faol singib bormoqda. Ushbu holat milliy madaniy an’analar bilan raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar mazkur o‘zgarishlar milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmagan holda kechsa, yoshlar orasida “madaniy begonalashuv” fenomeni yuzaga kelishi mumkin. Natijada yoshlar o‘z tarixiy-madaniy

ildizlaridan uzoqlashib, madaniyatning passiv subyekti sifatida, o‘ziga xos milliy-madaniy o‘zligi, tarixiy xotirasi va qadriyatlar tizimi bilan ichki aloqasining zaiflashishi shakllanadi. Ya’ni, John Tomlinson ta’kidlaganidek, ommaviy madaniy oqimlarning milliy qadriyatlar o‘zaro muvozanatlashmasa**,** shaxsda o‘z madaniyatiga nisbatan befarqlik yoki ikkilanish paydo bo‘ladi. Bu esa o‘zlik inqiroziga, vaholanki, manqurtlikka olib kelishi mumkin [5].

Yechim sifatida, Britaniyalik sotsiolog Roland Robertson taklif etgan "glokallashuv" konsepsiyasi mazkur muammoni yumshatishning muhim nazariy asosini taklif etib, bugungi yoshlar ma’naviyatini tushuntirishda markaziy o‘rin tutadi. Uning fikricha, madaniy begonalashuv global va mahalliy omillar o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasidir. Agar global ta’sirlar milliy-madaniy kontekstda qayta talqin qilinsa va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilsa, madaniy begonalashuvning oldini olish mumkin. Glokallashuv - globallashuv natijasida hozirgi dunyo yoshlarining ongi va tarbiyasida kelib chiqqan, qolgan yosh toifalaridan farq qiladigan qadriyatlarni izohlab, globallashuvning hozirgi yoshlarga ta’siri - faqat madaniy birxillashtirish emas, balki global va mahalliy an’analarning o‘zaro ikki tomonlama uyg‘unlashuvi, ya’ni global madaniy andozalar milliy qadriyatlar bilan to‘qnashishi natijasida kelib chiqayotgan, yangi, gibrid ko‘rinishdagi ma’naviy-madaniy almashinuv shaklida bo‘lishi kerakligini fodalaydi [6].

Qolaversa, Robertson glokalizatsiyani quyidagicha tavsiflaydi: “Globallashuv – bu dunyoning yagona makonga aylanishi emas, balki global jarayonlarning mahalliy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda qayta shakllanishidir.” Uning fikricha, global madaniyat har doim mahalliy ijtimoiy, diniy, axloqiy va madaniy xususiyatlar orqali “filtrlanadi”. Shu jihatdan, taklif etilgan “glokallashuv” - hozirgi yoshlar ongidagi ma’naviy o‘zgarishlar ommaviy madaniyat va milliy qadriyatlarning qarama-qarshiligi emas, balki ularning o‘zaro ta’siri va sintezi shaklida bo‘lishi kerakligini ifodalaydi [6].

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, madaniy begonalashuv nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va ma’naviy xavfsizlikka tahdid sifatida ko‘riladi. U yoshlarning fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faolligi va milliy birdamlik tuyg‘ularining susayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonni jilovlash uchun ta’lim tizimi, oila va madaniy institutlar orqali yoshlarning milliy o‘zligini mustahkamlash, global madaniyatni tanqidiy idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, bugungi yoshlar "raqamli avlod" vakillaridir. Virtual dunyo ular uchun asosiy axborot manbai va ijtimoiy aloqa maydoni, "paralel reallik"ka aylangan. Biroq, media makon faqat ma’rifat manbai emas, balki "yolg’on" xabarlar, kiberbulling va destruktiv g‘oyalar tarqaladigan xavfli hudud, har tomonlama ochiq, hamma erkin, istalgan maqsadda foydalanishi mumkin bo‘lgan umumiy axborot tarmog’i hamdir. Masalan, mutaxassislarning fikricha, hozirgi kunda dunyo bo‘ylab tarqalayotgan axborotlarning 65-70 foizi ko‘ngilochar xarakterga ega bo‘lib, ularning katta qismi yoshlar ongini ijtimoiy muhim masalalardan chalg‘itishga yo‘naltirilgan [7]. Qolaversa, "Web 2.0" va "Web 3.0" texnologiyalari yoshlarga axborotni nafaqat iste’mol qilish, balki uni yaratish imkonini ham berdi. Bu erkinlik esa ma’naviy xavfsizlik masalasini keskinlashtiradi. Shuning uchun ma’naviy xavfsizlik – yoshlarning axborotni saralash, tahlil qilish va unga nisbatan tanqidiy yondashish qobiliyatini shakllantirish dolzarb masala. Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda axborot manipulyatsiyasiga qarshi kurash, kiber-etika va ideologik

immunitetni shakllantirish esa ustuvor vazifadir. Axborot xurujlari ko‘pincha yoshlarning diniy va milliy hissiyotlarini manipulyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi, bu esa davlat xavfsizligiga ham bevosita daxldordir.

Bugungi kunda media makonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning uchta ustuvor yo‘nalishi mavjud:

Axborot manipulyatsiyasiga qarshi kurash: "Post-haqiqat" davrida [8] yoshlarda "fake news" va "deepfake" texnologiyalarini farqlash malakasini shakllantirish.

Kiber-etika: Virtual olamda muloqot madaniyatini, boshqalarning shaxsiy daxlsizligini hurmat qilishni o‘rgatish.

Ideologik immunitet: Ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga urinayotgan kiber-ekstremizm kabi yot g‘oyalarga nisbatan barqaror pozitsiyani shakllantirish.

Qadimdan shakllangan, yoshlar ma’naviyatini shakllantiruvchi asosiy "uchlik" – oila, maktab va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi bugungi globallashuv sharoitida yangicha yondashuvni talab qiladi. Bugun oilada ota-onaning farzand bilan "jonli" muloqoti kamayishi natijasida, uning o‘rnini gadjetlar egallashi ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqarmoqda. Bunga ota-onalarning farzandning raqamli faolligini nazorat qilish emas, balki u bilan birga tahlil qilish metodikasini qo‘llashi yechib bo‘lishi mumkin.

Ta’lim tizimi esa nafaqat bilim berishi, balki "tarbiya ta’limning ichida" tamoyili asosida "tanqidiy fikrlash" "kreativlik" kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish orqali ma’naviy immunitetni kuchaytirishda davom etishi kerakligi mutaxasislar tomonidan tavsiya qilinmoqda.

Bularga qo‘shimcha ravishta, madaniy muhit obyektlari ham yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga, madaniy bo‘shliqning oldini olishga xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa muzeylar, kutubxonalar va teatrlarni milliy elementlarni qo‘shib, gamifikatsiya va eng so‘nggi raqamli texnologiyalar elementlarini qo‘llagan holda yoshlar uchun jozibador maskanga aylantirish tavsiya etiladi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini saqlab qolishning eng samarali mexanizmi — bu milliy va diniy qadriyatlarning sog‘lom sintezidir. Darhaqiqat, O‘zbekiston sharoitida diniy bag‘rikenglik va milliy o‘zlikni anglash tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib ma’naviyatning asosida milliy va diniy qadriyatlarimiz yotadi. Bu o‘z navbatida, yoshlar uchun ma’naviy yo‘lchi vazifasini o‘tashi kerak. Chunki, akademik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy o‘zligi yoki milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlarda destruktiv g‘oyalarga nisbatan barqaror psixologik himoya shakllanadi. Shuning uchun, hozirgi globallashuv sharoitida o‘zlikni anglash – bu ajdodlar merosini zamonaviy ilm-fan bilan uyg‘unlashtirishdir. Bu yo‘lda, O‘zbekistondagi ta’lim muassasalari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Imom Buxoriy kabi allomalarning merosi zamonaviy ilm-fan va axloqning poydevori sifatida taqdim etilishi va yoshlarda ushbu asarlarga chuqur xurmat va qiziqish uyg’ota olmog’i lozim.

Bu o‘rinda milliy huquqiy savodxonlik ham qo‘l keladi. Chunki fuqarolik identiteti yoshlarda "Men shu vatan taqdiri uchun mas’ulman" degan tuyg‘uni va "Ijtimoiy mas’uliyat" tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu faqat davlat ramzlarini bilish emas, balki jamiyat hayotida ko‘ngilli sifatida qatnashish, ekologik madaniyat va huquqiy savodxonlikni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda yoshlar siyosatining ustuvor

yo‘nalishi — yoshlarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali ularda "Vatan taqdiri — mening taqdirim" degan konseptual g‘oyani qaror toptirishdir [9].

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, globallashuv yoshlar ma’naviyati uchun ham imkoniyat, ham xatardir. Ushbu jarayonda yoshlarni ma’naviy inqirozdan asrash uchun quyidagilar taklif etiladi:

Media savodxonlikni oshirish: Ta’lim muassasalarida axborotni filtrlashtirish va kiber-gigiyena qoidalarini o‘rgatuvchi maxsus kurslarni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Oila institutini mustahkamlash: "Farzand tarbiyasida ota-ona mas’uliyati" mavzusida ijtimoiy loyihalarni kengaytirish.

Milliy kontentni rivojlantirish: Internet tarmog‘ida yoshlar uchun qiziqarli, zamonaviy va ma’rifiy o‘zbek tilidagi resurslar: podkastlar, bloglar, video-kontentlarni ko‘paytirish.

Ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash: Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ularning ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirish orqali ularda "daxldorlik" tuyg‘usini oshirish.

Olib borilgan tadqiqotlar va global tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini himoya qilish — bu ularni tashqi dunyodan uzib qo‘yish emas, balki ularda raqobatbardosh ma’naviy olamni shakllantirish demakdir.

Maqola yakunida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

"Raqamli ma’naviyat" platformalarini yaratish: Yoshlarning sevimli ijtimoiy tarmoqlari (TikTok, Instagram, YouTube) uchun milliy qadriyatlarni zamonaviy "storitelling" va "edutainment", ya’ni “ko‘ngilochar ta’lim uslubida yetkazuvchi kontentlar ishlab chiqish.

Tanqidiy tahlil laboratoriyalarini tashkil etish: OTMlar qoshida yoshlarni axborot xurujlarini mustaqil tahlil qilishga o‘rgatuvchi "Fact-checking va media-gigiyena" markazlarini ochish.

"Uch avlod uchrashuvi"ning innovatsion formatlari: Keksa avlod vakillari va muvaffaqiyatli zamonaviy yoshlar o‘rtasida tajriba almashish tizimini mentorlik tamoyili asosida yangilash.

Huquqiy va ma’naviy xavfsizlik monitoringi: Yoshlar orasida ma’naviy begonalashuv va tushkunlik darajasini muntazam aniqlab boruvchi sotsiologik-psixologik monitoring tizimini joriy etish.

Zamonaviy dunyoda milliy ma’naviyat shunchaki madaniy meros emas, balki davlatning strategik barqarorligini ta’minlovchi va axborot xurujlaridan himoya qiluvchi muhim omildir. UNESCO hisobotlariga ko‘ra, yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning kelajakdagi bandligi va ma’naviy barqarorligining kafolatidir [10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ООН. Доклад о положении молодежи в мире: Повышение благосостояния и устойчивости молодежи. – Нью-Йорк: Департамент по экономическим и социальным вопросам ООН, 2024.

2. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2020.

3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – World Economic Forum, 2016. – 192 p.

5. Tomlinson, J. *Cultural Globalization*. – London: Sage Publications, 1999.

6. Robertson, R. Glocalization: Time–Space and Homogeneity–Heterogeneity // Global Modernities. – London: Sage, 1995. – P. 25–44.

7. Digital 2024: Global Overview Report. – We Are Social & Meltwater, 2024.

8. McIntyre, L. Post-Truth. – Cambridge: MIT Press, 2018. – 232 p.

9. O‘zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi Qonuni. – O‘RQ-406, 2016 yil 14 sentyabr.

10. UNESCO Global Education Monitoring Report. "Youth and skills: putting education to work". – Paris, 2024.

GLOBALLASHUV DAVRIDA IJTIMOIY- MADANIY O‘ZGARISHLARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR

Xolmirzoyeva Dilnoza Bahodir qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. So‘nggi yillarda globallashuvning jadallashuviga turli ijtimoiy va madaniy jarayonlarning yangicha ko‘rinishi asosiy sabab deb topilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, media, texnologik rivojlanish va migratsiya yoshlarning qadriyatlariga, dunyoqarashiga va hayotiy maqsadlariga o‘zining sezilarli ta’sirlarini ko‘rsatib kelmoqda. Mazkur mavzuni o‘rganishning eng muhim jihati shundaki, yoshlar ma’naviyati jamiyatning kelajak rivojiga bevosita taalluqlidir. Shu sababli, globallashuvning ijtimoiy va madaniy omillari va ular orqali yuzaga kelayotgan ta’sirlar ilmiy tahlil talab etadi. Ushbu ishda globallashuvning mazmuni va uning asosiy ijtimoiy-madaniy ko‘rinishlari hamda mazkur omillarning yoshlari ma’naviyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Globallashuv tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu atama davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy, axborot va texnologik aloqalarning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan dunyoning yagona makonga aylanish jarayonini anglatadi. Ijtimoiy-madaniy globallashuv esa turli xalqlar o‘rtasidagi madaniyat, qadriyatlar, turmush tarzi va shuningdek kommunikatsiya jarayonlarining tez tarqalishidir. Bu jarayonlar insonlarning kundalik hayoti, dunyoqarashi va o‘zligini anglashga ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy madaniy o‘zgarishlarning asosiy omillari sifatida axborot vositalari, xalqaro ta’lim almashuvlari, omma madaniyatlari kabi jarayonlarni misol qilib keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlash tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ular orqali turli mamlakatlarning madaniyati, hayot tarzi va trendlari tez sur’atlarda ommalashadi. Bundan tashqari, xalqaro ta’lim dasturlari orqali talabalar va o‘qituvchilarning boshqa davlatlarda tahsil olishi natijasida turli madaniyatlar bir-birini boyitadi. Shu bilan birga, kino, san’at, o‘yinlar va moda dunyo bo‘ylab bir xil tarzda keng tarqalmoqda, bu ham o‘z navbatida yoshlar ma’naviyatiga o‘z

ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Globallashuv jarayoni ham boshqa ijtimoiy hodisalar singari o‘zida ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni mujassam etadi.

Global madaniyat bosimi kuchayga sari, yoshlar odatda ikki xil yo‘lga duch kelishadi: ijobiy va salbiy. Ijobiy ta’sirlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: dunyoqarashni kengaytiradi, til o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi va shu bilan birga tenglik, bag‘rikenglik, inson huquqlari kabi qadriyatlar mustahkamlanadi.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida global davrda, o‘zaro raqobat, siyosiy va iqtisodiy g‘oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan sharoitda, yosh avlod tarbiyasi va uning ahamiyati har doimgidan ko‘ra ortib borayotgani va shu masalalar haqida jiddiy mulohaza yuritish haqida ta’kidlaydi. [1]

Globallashuv jarayonida turli xil madaniyatlar o‘zaro aralashib ketmoqda. Ushbu jarayon yoshlar ma’naviy hayotida bir nechta ijobiy imkoniyatlarni yaratgani bilan bir qatorda, axloqiy me’yorlarning buzilishi, milliy identitetning susayishi va ma’naviy bo‘shliqning kuchayishi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda.

Aralash madaniyatlar natijasida shakllanayotgan “gibrid madaniyat” yoshlarning qadriyat tizimida chalkashlik yuzaga keltirishi mumkin. A. Appadurai global madaniyat oqimlari yoshlarning o‘z ijtimoiy rolini aniqlash jarayonini murakkablashtirishini qayd etadi (Appadurai, Modernity at Large, 2014). Buning natijasida yoshlar o‘zini “qayerga tegishli” ekanligini anglashda qiyinaladi. [2]

Boshqa mamlakatlarning madaniyati keng tarqalayotgani mahalliy qadriyatlar, urf-odatlar va milliy o‘zlikning chekinishiga olib kelmoqda. Bu haqida Z.Bauman globallashuv jarayonida shaxs “o‘zligini yo‘qotmaslik uchun doimiy kurashadi” deya ta’kidlaydi. [3]

Raqamli makon tezkor axborot oqimini yaratgani bilan birga, yoshlar ongiga zararli kontentning kirib kelishini ham osonlashtirmoqda: agressiv kontent, zo‘ravonlik iste’molchilikni targ‘ib qiluvchi reklama, yolg‘on hayot tarzini aks ettiruvchi “ideal” ko‘rinishlar. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 15-24 yosh oralig‘idagi yoshlarning internetdan foydalanish ko‘rsatkichlari o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Kam rivojlangan davlatlarda bu yosh toifasi bo‘yicha ko‘rsatgichlar 35 foizni va rivojlangan mamlakatlarda esa 13 foiz atrofida tashkil etadi. [4]

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Hozirgi kunda bolalarimizni ota-ona, bog‘cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo‘llaridagi telefon “tarbiyalamoqda”. Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, yot mafkuralarni targ‘ib qiluvchi qurolga, zo‘ravonlik, yovuzlik tarqatadigan “virus”ga aylanib ketmoqda” – deydi. [1]

Shu kabi salbiy oqibatlarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etishda ta’lim maskanlari va oila muhim rol o‘ynaydi. Maktab dargohlari va oliy ta’limda global madaniyatni tanqidiy tahlil qilish va milliy-ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy usullarda o‘rgatishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oila ma’naviyatning birinchi shakllanish jarayoni hisoblanadi. Shu sababli ham ota-onalar uchun maxsus treninglar o‘tkazish va global madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlarini birgalikda muhokama qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’naviy bo‘shliq ko‘pincha maqsadsizlikdan boshlanadi. Shu bois yoshlarni jamiyat hayotiga jalb qilish kerak. Misol uchun volontyorlik loyihalari,

sport va san’at to‘garaklari o‘zbek adabiyoti, musiqasi, san’ati va tarixini zamonaviy dizayn, media, kontent orqali taqdim etish ularning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonlari yoshlar uchun beqiyos imkoniyatlarni taklif etayotgani bilan bir qatorda, ularning ma’naviyatiga salbiy ta’sirlarini ham o‘tkazib kelmoqda. Dunyo miqyosidagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar milliy va mahalliy qadriyatlar bilan to‘qnash kelganda, axloqiy me’yorlar, ma’naviy bo‘shliq hamda identitet inqirozini yuzaga keltirmoqda. Media makonning tez sur’atlarda rivojlanib ketishi va bundan kelib chiqayotgan cheksiz ta’sirlari, shuningdek, trendlarga ergashish va zararli kontentlarning ko‘payishi yoshlar ongini keraksiz ma’lumotlar bilan to‘ldirmoqda va ma’naviy immunitetini pasaytirmoqda. Shu bois, globallashuvning yoshlar ma’naviyati va madaniyatiga salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun oila , ta’lim muassasalari, jamiyat va axborot vositalari orasida hamkorlik bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozirgi kunda yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani zamonaviy metodlar yordamida boyitish asosiy majburiyatlardan biri bo‘lib kelmoqda. Shunda globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati rivojlangan, sog‘lom va barqaror jamiyatni tashkil etuvchi kuchga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

Appadurai, Arjun. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – University of Minnesota Press, 2014.

Bauman, Zygmunt. Liquid Modernity. – Polity Press, 2013.

https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/1773/1555

TA’LIM - JAMIYAT TARAQQIYOTINING BOSH MEZONI

Xudayberdiyev A.K.
ToshDavTU dotsenti

Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Hozir qaysi bir sohani olmang, uning rivoji uchun, avvalo, ta’lim tizimi taraqqiy etgan bo‘lishi kerak. Zero, inson kapitaliga, uning iqtidoriga e’tibor qaratmay turib, natijaga erishish qiyin. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim hamda kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda ya’ni, “O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejis emas” deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev [1].

Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining mislsiz tez sur’atlarda rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi, shuningdek, madaniy almashuvning rivojlanishi yosh avlod tarbiyasida yangi talab va muammolarni yuzaga chiqardi. Bu talablar nafaqat ta’lim tizimining mazmuni va usullariga ta’sir ko‘rsatmoqda, balki pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning barcha qatlamlarini ham o‘zgarishlarga moslashishga majbur qilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etish nafaqat pedagoglarning, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Chunki har bir muvaffaqiyatli avlod nafaqat o‘z shaxsiy rivojlanishi, balki mamlakatning ma’naviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Shu bois ta’lim tizimidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, pedagogik metodlar, madaniy muhitning ta’siri va oilaning tarbiyadagi o‘rnini keng qamrovda o‘rganish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Qolaversa, zamonaviy davrda pedagogik jarayonlardan tashqari, yosh avlodni tarbiyalashda media, sport, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyati kabi faoliyatlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida e’tibor qaratiladigan soha hisoblanadi. Bu tizim nafaqat fan va kasb bilimlari berish orqali shaxsiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki insonning dunyoqarashi, ma’naviy va axloqiy me’yorlari, fuqarolik pozitsiyasi hamda ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda ham asosiy rol o‘ynaydi. Ta’lim orqali yoshlar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘ladi, balki hayotiy ko‘nikmalar, masalalarni mustaqil hal qilish qobiliyati, hamkorlik va yetakchilik salohiyatini ham rivojlantirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jamiyatdagi barqarorlik va rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mukammal va samarali tashkil etilgan ta’lim tizimi iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlaydi, fuqarolarning siyosiy ongi va faolligini oshiradi, shuningdek, milliy va umumbashariy ma’naviy qadriyatlarning asrab-avaylanishiga xizmat qiladi. Yoshlar ta’lim orqali o‘z qobiliyatlarini kashf etadi, ijodiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadi, jamiyatda mas’uliyatli fuqarolar sifatida faol ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, ta’lim tizimining sifatli va zamonaviy talablarga moslashtirilganligi mamlakatning global iqtisodiy va madaniy maydonda raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shu sababdan davlat, ota-onalar va jamiyatning barcha qatlamlari ta’limning rivojlanishi va samaradorligini ta’minlashda faol ishtirok etishi zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim mazmuni va usullari tizimli ravishda yangilanib, zamonaviy talablarga moslashtirilmoqda. Masalan, interfaol usullar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, STEAM-texnologiyalar va raqamli o‘quv resurslari joriy qilindi. Bunday o‘zgarishlar yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, vaqt va resurslarini samarali boshqara oladigan shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu jarayon yoshlaring shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, chunki ularning hayotiy va kasbiy qobiliyatlari bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti uning aholisi, ayniqsa yosh avlodi bilan chambarchas bog‘liq. Yosh avlodning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligi uchun asosiy faktor hisoblanadi. Agar yoshlar nafaqat bilim olish, balki hayotiy ko‘nikmalar va ijtimoiy

me’yorlarni ham samarali egallamasa, jamiyatning umumiy rivojlanishi sekinlashishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida e’tibor qaratilishi lozim. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asosilarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iborat ekanligi shubhasiz” [2].

Ta’lim faqat fan va kasb bilimlari berish bilan cheklanmaydi. U yoshlar fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatish, ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish va ma’naviy qadriyatlarni uyg‘otishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va loyiha faoliyatlari yoshlarning mustaqil fikrlay olishini rag‘batlantiradi, ularda mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shuning uchun ta’lim tizimi nafaqat individual rivojlanish, balki mamlakatning taraqqiyoti va rivojlanishi uchun ham asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda globallashuv va zamonaviy texnologiyalar ta’lim mazmuni va uslubiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, onlayn ta’lim platformalari, interaktiv o‘quv materiallari va STEAM-texnologiyalar yoshlarga nafaqat bilim olish imkonini beradi, balki ularning ijodiy, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Yoshlar bilim olish orqali nafaqat shaxsiy rivojlanadi, balki jamiyatda faol fuqaro sifatida ishtirok etadi, ijtimoiy loyihalarda, volontyorlik faoliyatlarida va jamoat ishlarida o‘z hissalarini qo‘shadilar. Bundan tashqari, ta’limning sifati va samaradorligi mamlakatning barqaror taraqqiyotiga bevosita ta’sir qiladi. Yaxshi tashkil etilgan ta’lim tizimi yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, huquqiy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ularni zamonaviy iqtisodiy va texnologik jarayonlarga moslashish qobiliyati bilan ta’minlaydi.

Ta’limning asosiy maqsadi - fuqaroning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishdir. Bu maqsadga erishish orqali yoshlar nafaqat bilimga ega bo‘ladi, balki ularning shaxsiy salohiyati, ijtimoiy faolligi va zamonaviy hayotda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanadi. Ushbu maqsad quyidagi asosiy vazifalar orqali amalga oshiriladi:

Bilim berish: Ta’lim tizimi yoshlarga fan va kasb bilimlari berish orqali fikrlash qobiliyati va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, matematika va tabiat fanlari yoshlarni muammolarni samarali hal qilishga, murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, ijtimoiy fanlar va gumanitar yo‘nalishlar yoshlar dunyoqarashi va ijtimoiy ongi shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma’naviy va axloqiy tarbiya: Tarbiyalash jarayonida yoshlar o‘z axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi, jamiyatda mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganadi, inson huquqlari va fuqarolik me’yorlarini tushunishida asos yaratiladi. Bu jarayonda oila, maktab va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Yoshlar qoidalar va normalarni o‘z hayotida qo‘llashni o‘rganish orqali nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga tayyorlanadilar.

Ijodiy fikrlash va innovatsiya: Ta’lim yoshlarni yangi g‘oyalar yaratishga, muammolarni mustaqil hal qilishga va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga o‘rgatadi.

Bu jarayon maktab va universitetlarda loyiha, interaktiv va STEAM metodlari orqali amalga oshiriladi. Yoshlar amaliyotda tajriba to‘plab, kreativ fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydilar va yangi texnologiyalarni hayotiy vazifalarda samarali qo‘llay oladilar. Shu tarzda, ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yoshlarning axloqiy, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun ham muhim platforma vazifasini o‘taydi.

Ta’lim va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Ya’ni, qachonki ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan va zamonaviy talablarga mos kelsa, u nafaqat shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydi, balki mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy salohiyatini ham oshiradi. Bunday tizim quyidagi samaralarni beradi:

Iqtisodiy taraqqiyot: Bilimli mutaxassislar ishlab chiqarish, texnologiya va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori samara berishi mumkin. Ular innovatsion g‘oyalar, ilmiy va texnik yechimlarni joriy etish orqali iqtisodiyotning samaradorligini va raqobatbardoshligini oshiradi.

Siyosiy barqarorlik: Bilimli fuqarolar davlat institutlari va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadilar. Ular qonunchilik va siyosiy jarayonlarni to‘g‘ri tushunib, mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladi, shu bilan mamlakatda barqaror siyosiy muhitni ta’minlaydi.

Ma’naviy taraqqiyot: Ta’lim yoshlarning axloqiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Axloq va ma’naviyatni tarbiyalash orqali yoshlar fuqarolik mas’uliyatini anglaydi, jamiyatda hamkorlik va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq qolishadi.

Shu tariqa, ta’lim nafaqat individual rivojlanish, balki mamlakatning umumiy taraqqiyotida asosiy rol o‘ynaydi. Yoshlarning bilimli va ma’naviy jihatdan rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, siyosiy faollik va madaniy boylikni mustahkamlaydi, bu esa uzviy tarzda jamiyatning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada yoshlar va ta’lim masalalari bilan bog‘liq normalar yanada mustahkamlab qo‘yildi. Mamlakat aholisining 18 milliondan ortiq qismi yoshlardan iboratligi va ushbu ko‘rsatkich 2040 yilga borib 25 millionga yetishi prognoz qilingani inobatga olinsa, Konstitutsiyada yoshlar masalasiga alohida bob kiritilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi tushuniladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya shaxsning komil inson bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan ta’lim-tarbiyaning barcha jarayonlari va bosqichlarini qamrab olgan. Unda ilk bor uzluksiz ta’lim tizimi, uning turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish davlatning vazifalari qatoriga kiritildi. Endi davlat nafaqat umumiy o‘rta ta’lim, balki boshlang‘ich professional ta’lim olishni ham bepul ta’minlashni kafolatlaydi. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida fuqarolarning ta’lim olish huquqi bilan bog‘liq normalar mustahkamlandiki, bularning barchasi ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi [3] .

Xulosa. Ta’lim jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni hisoblanib, u nafaqat shaxsiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotini ham ta’minlaydi. Mukammal ta’lim tizimi orqali yoshlar fan va texnologiya, ijtimoiy va gumanitar bilimlarni egallab, mustaqil fikrlay oladigan, mas’uliyatli va axloqiy qadriyatlarga ega shaxs sifatida shakllanadilar.

Yoshlar ta’lim orqali o‘z imkoniyatlarini namoyon qiladi, hayotiy muammolarni hal qilishni o‘rganadi va jamiyatda faol fuqaro sifatida o‘z o‘rnini topadilar. Shuningdek, ta’lim yoshlarning ijodiy fikrlash, innovatsion g‘oyalar yaratish va muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 224 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 31.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

O’SMIR YOSHLARNING BUGUNGI KUNDAGI KITOBXONLIK HOLATI

Xudoyberdiyeva Marhabo Abduqahhorovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

Har bir yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantish oliy maqsadimiz ekan, yoshlarni ilm nuri hisoblanmish kitobga muhabbat, kitob mutolaasiga qiziqishini oshirishimiz bugungi kunning davr talabi hisoblanadi. Kitob o'qish o'smirlarning dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkurini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o'ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar orasida kitobxonlikni oshirish, oilaviy kitobxonlik an’analarini saqlab qolish va qaytarish milliy ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori, qabul qilindi[1]. Ushbu qaror orqali kitobxonlikni rivojlantirish, oilaviy kitob o'qish an'analarini qo'llab-quvvatlash va tiklash bo'yicha aniq maqsadlar va vazifalar belgilab olindi. Kitob o'qish yosh avlodning bilim olishi, ma'naviy kamoloti, dunyoqarashining kengayishi va milliy qadriyatlarni anglashiga xizmat qiladi.

Kitobxonlik, mutolaa, savodxonlik so’zlari o’zi nima?

Kitob o‘qish va mutolaa so‘zining mazmun-mohiyatini anglaydigan bo‘lsak, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da mutolaa so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan. “Mutolaa” (“kitob o‘qish”) tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda “diqqat bilan o‘qish”, “o‘rganish” ma’nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha “diqqat bilan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori *(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/781/1619-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son).*

o‘qish, o‘qib tushunib olish[1]” ni bildiradi.

V.A.Suxomlinskiy shunday yozadi: “Kitob o‘qish – bu bamisoli bir darcha bo‘lib, bolalar shu darchadan qarab, dunyoni ham, o‘zlarini ham bilib boradilar[2]”. Ushbu “darcha”ni yoshlikdan ochib o’qish qobiliyatlarini rivojlantirib borish muhimdir. Chunki tadqiqotlarda so’zlashuv qobiliyati darchasi o’n yoshdan, o’qish qobiliyati darchasi” 13-15 yoshlarda berkilishi aniqlangan[3].

Xudoyberdi To‘xtaboyev kitobxonlik haqida quyidagicha to’xtaladi. “Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir[4]”.

Kitobxonlik o‘zligimizni, o‘z qadriyatlarimizni va hayotimiz davomida qo’yadigan maqsadlarimizni anglash qobiliyatidir. Kitoblar bizga o‘zimizni boshqa odamlarning o‘rniga qo‘yishga, turli nuqtai nazarlarni tushunishga va o‘zimizga yangicha qarashga yordam beradi.

Bugungi kunda o’smir yoshlarimizning kitob o’qishga bo’lgan qiziqishi qay darajada? O’smir yoshlarning kitobxonlik darajasini aniqlash maqsadida Buxoro, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida tadqiqot olib borildi. Tanlab olingan viloyatlardan jami 534 nafar o’smir yoshlar (5-8-sinflar doirasida) va ularning ota-onalari ishtirok etdi. Shundan, Buxoro viloyatidan 158 nafar, Namangan viloyatidan 88 nafar, Samarqand viloyatidan 102 nafar, Toshkent viloyatidan 186 nafar o’smir yosh va ularning ota-onalari so’rovnomada ishtirok etishdi.

So'rovnoma ishtirokchilarining kitob o’qishga bo'lgan qiziqishi so’ralganda, 39,3% o’smirlar har kuni kitob o’qishini bildirgan. 54,8%i ba’zan vaqt topganda kitob o'qishini, ammo muntazam ravishda kitob o'qishga vaqt ajrata olmasliklarini ko'rsatgan. O'smirlarning katta qismi vaqti bo'lganda kitob o'qishi, ularda muntazam kitob o'qish odati yo'qligini ko'rsatadi. Bu esa savodxonlikni rivojlantirish, bilim olish va dunyoqarashni kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan odatning yetishmasligidan dalolat beradi. 5,9% o’smirlar esa kitob o’qishga umuman qiziqmasliklarini bildirishgan. Ushbu o'smirlar orasida kitob o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllangan bo'lib, bu ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. So’rov natijalari asosida, o’smir yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun o’smir yoshlarni kitob o'qishga rag'batlantirish, vaqtni to'g'ri taqsimlashga o'rgatish va kitob o'qishiga bo’lgan qiziqishini kuchaytirish kerakligi aniqlandi.

---

[1] O’zbek tilining izohli luga’ti. N - Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida- T.: "O’zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 655-bet.


[2] Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Pedagogika nashriyotining 1979 y. nashridan tarj. – T.: O’qituvchi, 1984.179-bet

[3] Ринг К. Чтение в информационном обществе// Читающая Россия: мифы и реальность. Сб.ст. по пробл.чтения. – М.:Либерия, 1997. С. 179.

[4] Matchanov Sapa. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish, O’zbek ad-ti o’qitish naz-si va usuliyoti. Ped.fan.dok.ilm.daraj. olish uchun yoz-gan. diss. avtoreferati. – T.: 1997. -25 b.



Ota-onalarning kitob o’qishga qiziqishi o’rganilganda, 20,8% ota-ona har kuni, 68,3% vaqt topganda o’qishini bildirdi. Har besh ota-onadan faqat bittasi har kuni kitob o'qiydi, qolganlari esa muntazam ravishda kitob o'qishga vaqt ajrata olmaydi. Bu esa ota-onalarda kitob o'qish madaniyati yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. 6,7% esa kitob o’qish uchun vaqt topolmasligini, 4,4 % esa kitob o’qishga umuman qiziqmasligini bildirgan, bu esa oilada kitob o'qish muhitini yaratishga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Natijalar, aksariyat ota-onalarning kitob o'qishga bo'lgan munosabati passiv ekanligini ko'rsatadi. Ko'pgina ota-onalar uchun kitob o'qish kundalik hayotda ustuvorlik kasb etmaydi. Bu esa o'z navbatida farzandlarining kitob o'qishga bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Kitob o'qishni rag'batlantirish uchun ota-onalar o'zlarining kitob o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishlari va farzandlariga o'rnak bo'lishlari kerak.



Olingan natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Maktablarda: maktab kutubxonalarini yangi kitoblar bilan ta'minlash, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va kutubxonalarni o'smirlar uchun qulay joyga aylantirish. Darsdan tashqari mashg’ulotlarda kitobxonlik klublari va musobaqalarini tashkil qilish va o’smirlarning kitob o’qishga bo’lgan qiziqishini rag’batlantirish.

Kitobxonlikni targ’ib etish: Ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida kitobxonlikni targ'ib qilish orqali o'smirlar va ota-onalar o'rtasida kitob o'qishga qiziqish uyg'otish.

Uyda kitob o'qish muhitini yaratish: Kitoblar bilan to'ldirilgan shkafni tashkil qilish, o'qish uchun qulay joy ajratish va televizor yoki kompyuter o'rniga kitob o'qishni taklif qilish. Shu bilan birga, farzandlar bilan birgalikda kitob o'qish oilaviy aloqalarni mustahkamlaydi va farzandlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'smirlar o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish, muntazam kitob o'qish odatini shakllantirish va kitob o'qishga umuman qiziqmaydigan o'smirlar bilan ishlash zarurligini ko'rsatadi. Bu muammolarni hal qilish uchun maktablar va ota-onalar birgalikda harakat qilishi lozim. Ota-onalar o'zlarining kitob o'qishlariga e'tibor qaratishlari, farzandlari bilan birgalikda kitob o'qishlari va ularga kitob sovg'a qilishlari kerak. Maktablar kitob o'qish darslarini joriy etishlari, kutubxonalarni boyitishlari va kitob o'qish tadbirlarini tashkil etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori *(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/781/1619-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son).*

2. O’zbek tilining izohli luga’ti. N - Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida- T.: ‟O’zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 655-bet.

3. Matchanov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaщil ishlarni tashkil etish, O’zbek ad-ti o’qitish naz-si va usuliyoti. Ped.fan.dok.ilm.daraj. olish uchun yoz-gan. diss. avtoreferati. – T.: 1997. -25 b.

4. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Pedagogika nashriyotining 1979 y. nashridan tarj. – T.: O’qituvchi, 1984.179-bet

5. Ринг К. Чтение в информационном обществе// Читающая Россия: мифы и реальность. Сб.ст. по пробл.чтения. – М.:Либерия, 1997. С. 179.

GLOBALLASHUV ZAMONI - YOSHLAR MA’NAVIYATI VA QADRIYATLAR

Xudaynazarov Samad Xudayberdievich
O‘zMU dotsenti
Jamalova Nargiza Ulug‘bek qizi
O‘zMU katta o‘qituvchisi

Umumbashariy hodisaga aylanib ulgurgan globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib inson va jamiyat hayotining barcha jabhalarga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Masalaning dolzarbligi shundaki, bu jarayon ishtirokchisi agar o‘zining asl ma’naviy-madaniy qadriyatlariga, turli ilm-fan sohalariga oid bilimiga, mustahkam iroda, e’tiqodiy qarashlariga, tarixiy xotira va tafakkuriga, sog‘lom etnik, axloqiy va estetik ideallariga ega bo‘lmasa, eng muhimi bunyodkor ezgu milliy g‘oyasiga tayanmasa o‘zini va o‘zligini bu maydonlarda boy berish xatarlari shuncha karraga ortadi. Modomiki,

globallashuv bir tomondan - global makon, global maydon, yalpi umumbashariy globallashuvni talablarini bilinar-bilinmas asta-sekin qo‘ymoqda.

Globallashuvni ko‘pchilik e’tirof etganidek ijobiy tomonlarini ham va uni aksi bo‘lgan tomonlari ham mavjudligini mutloq inkor qilib bo‘lmaydi. Uning yutuqli tomonlari, albatta banibasharniki. Biroq uning beqiyos imkoniyatlaridan o‘zining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga bo‘lgan intilish, urinishlarni mutloqo oqlab bo‘lmaydi.

Globallashuv tufayli global tarmoqlar yumshoq kuch, ko‘ngil ochar ommaviy madaniyatning muhim targ‘ibotchisi, dastiyoriga aylanib, jamiyatning marginal qatlamlariga ayniqsa, davr yoshlar ongi va qalbini egallashga, palajlashga, boshqarishga hamda an’anaviy normalari va qadriyatlarga zid standartlarni tiqishtirishga bo‘lgan urinishlar tobora kuchaymoqda. Bu jarayonning g‘o‘r, sodda, go‘l ishtirokchilari aniqrog‘i iste’molchilari shumniyatli manipulyator manipulyatsiyasi tuzog‘idan, buni oqibati va kelajak hosillaridan mutloqo bexabar yohud unga loqaydu, befarq. Umuman olganda salbiy ta’sirlarini darhol anglab olishi, ilg‘ashi juda qiyin kechmoqda. Garchand global tarmoqlardan, internet, mediaolam mahsulotlaridan foydalanish madaniyati va ma’rifati borasida aholiga va ayniqsa yoshlarga keng ko‘lamli tushuntirishlar, targ‘ibot-tashviqotlar olib borilishiga qaramasdan ko‘zlangan natijalarga erishish juda qiyinchilik bilan kechmoqda.

Ayniqsa, bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali manipulyator - sayyod o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida odamlarning va ayniqsa g‘o‘r yoshlarni nozik his-tuyg‘ulariga, o‘y-fikrlariga ta’sirchan ruhiy-psixologik vositalar orqali ko‘pincha yashirin yo‘llar bilan keng ta’sir ko‘rsatishga, o‘zning g‘arazli maqsadlariga erishishga intilmoqda. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, manipulyatsiya oddiy ta’sirdan farq qiladi, chunki u odatda aldash, hiyla ishlatish va shaxsning manfaatlarini hurmat qilmaslik kabilarni ham u o‘z ichiga qamrab oladi[1].

Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat. Ilk umumbashariy ma’naviy qadriyatlarining poydevori shu zaminda qo‘yilgan. Dunyoni o‘zi qadar bu kuhna va qadimiy nurli diyor sog‘lom hayotiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan “Avesto”ni, “Avesto” ma’naviyatni olamga bergan. Bu muqaddas zamindan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, sohib quron Amir Temur kabi vatanparvar, yovqur, mard buyuk bahodirlar, sarkardalar, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi tafakkur, ilm-ma’rifat mash’allari olamga yoqqan ulug‘ mutafakkirlar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Maxmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlar, aziz avliyolar, tariqqat pirlarini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Munis, Ogahiy, Behbudiy singari buyuk gumanist, ma’rifatparvar siymolarni dunyoga bergan bu muqaddas makon yoshlarini Yangi asrning global girdoblari, ijtimoiy tarmoqlari ba’zan o‘z domiga tortib ketayotganligi ajablanarli va achinarli hol albatta.

“Jilvakor”, asli ma’naviy-madaniy ajalovur ommaviy madaniyatning arzon hadiyasiga xirs qo‘ymoq, umid - umrni elga sovurib befayiz ma’nisiz kuyiga asir tushmoq ehtimol bir qadar osondir, ammo yo‘l topib, yana uning komidan omon chiqmoq

[1] Қаранг: https://uz.wikipedia.org/wiki/Manipulyatsiya

dushvordir. Chunki sirti sokini, yaltiroq bu ufqon-u tuzoqlarda g‘arazlar, fisqu-fujurlar, shumniyatlar nish urib gullaydi, o‘rchiydi, g‘ayrimadaniy sayyozlik yepkinlari “aql tuyog‘ida” chaladi. Na boshi ayyon, na oxir tayin bu bo‘shliqqa sodda dil bayov kishi goho qanday yetib kelganligini hatto anglay olmay ham qoladi.

Sodda - mug‘abir rutbasida u taklif qilayotgan ideallar, hayot tarzi modellari chunonam oddiy, nursiz, begona va betuturig‘ki unda na bir muhabbat, na qadr –qimmat, na insonlikkadan bir nishonna yo‘q.

Ommaviy madaniyatning ideallari kishi shaxsiga sezdirmasdan adolat emas-adovat yengishini, kuch adolatda emas, adolat kuchdaligini, to‘kis hayot holol mehnatda emas – balki, yo‘lini topib qadini o‘rishda, uzumini yeb-bog‘ini surishtirmaslikda, yaratuvchilik muhim emas, tayyoriga ayyorlik, quruq iste’molchilik muhim kabi buzuq psixologiyani kishi ruhiyatiga singdirishga, taqishtirishga sezdirmasdan mo‘tasil intilmoqda. Eng yomoni buzg‘unchi madaniyat yoshlar e’tiborni jalb etish, qiziqtira olish, istak, xohish uyg‘otish usul-uslubiyatini chuqur bilgani holda yuksak didni emas, “tuban” estetikani, hamdardlik, rahimdilik, achinish hissini emas, Sadistlikni, sog‘lom hayotni emas, nosog‘lom xayolotni, andisha-odobni emas, behayolikni, iroda va mas’uliyatni emas irodasizlik va mas’uliyatsizlikni, chin muhabbatni emas, shunchaki shaydolik kabilarni taklif qilmoqda.

Umuman olganda, “Ommaviy madaniyat” bisotida qadrli narsani o‘zi yo‘q. Undagi, bironta asar, film, serial, surat - noyob va betakror, mumtozlik darajasida yetilgan emas. Uning omborlari badiiy saviyasi o‘ta past, jo‘n mahsulot bilan to‘la.

Eng yomoni uning mahsulotlari inson hayotining intim tomonlarini, vahshiyona qilimishlarni nafaqat ochiq oshkora etadi balki oqlashga ishoralar tashlaydi. Barcha narsadan bahramand bo‘lish mumkinligi hissi yosh tomoshabini shoshirib qo‘yadi, o‘zligidan judo qiladi. Shunday qilib, ommaviy madaniyat, yumshoq kuch o‘z humronligi o‘rnatgan ijtimoiy tarmoqlar yoshlar vetual qaramligi, ruhiy qulligini hattarli omiliga aylanmoqda.

Zero, unda ezgulik - kulgili qiliqdek, ojizlikdek ko‘rsatiladi. Yovuzlik doimo g‘olib chiqadi, chunki kuch - uning tomonida. Makkor hamda shiddatli kishigina yutib chiqishi mumkin. Bilim va ta’limga intiladigan o‘smir “tineyjer” – “ojiz, tentak va botanik” hisoblanadi[1]. Hayotning “Ommaviy madaniyat” ko‘ra shunday versiyasi yoshlar ongini shiddat bilan zabt etmoqda, buzmoqda. Prezidentimiz keltirganlaridek: “Barchamiz guvohmiz - bugun dunyo misli qurilmagan sur’atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayon yuz bermoqda. Ayni vaqtda odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda[2]. Bunda ayniqsa, “Ommaviy madaniyat” bosh rolni o‘ynamoqda. Chunki “Ommaviy madaniyat” turi orqali kirib kelayotgan ma’naviyatga xatarlar kun sayin emas, balki soat sayin karrasiga oshib bormoqda.

“Ommaviy madaniyat” kishini, ayniqsa o‘smirin yoshlarni individualligini yo‘qotgan iste’molchiga aylantirishga urinmoqda. A.Erkaev keltirganidek: “Ommaviy madaniyat niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar

[1] Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 2012. –Б. 103.

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. –Б. 276-277

(xippilar, panklar, rokerlar hamda geylar (besoqollar) harakati antiglobalistlar va sh.k.), fahsh va zo‘ravonlikni, vampirlik va jodugarlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat kassetalar, disklar va boshqalar ta’siri esa inson shaxsini yemirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi. Bunday sharoitda yosh avlodni, milliy madaniyatni qanday himoya qilish kerak, degan masalaning o‘zi jiddiy siyosiy, ma’naviy va ilmiy muammoga aylanadi”[1].

Tabiiyki,”ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”[2]. Shu bois, Prezidentimiz keltirganlaridek: “Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat birlamchi vazifamizdir”[3].

Globallashuv, ommaviy madaniyat va yoshlar ma’naviy-axloqi masalalariga yondoshishimizda hamda “ommaviy madaniyat”ning tahdidiga qarshi kurashga yechimlarni topishda, avvalo Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlarida hamda Birinchi Prezident I.A.Karimov soha olimlarida A.Erkaev, Sadulla Otamurodov, Shuhrat G‘oyibnazarov, Olim Toshboev, Abdug‘afur Rasulov, S.R.Ableev, S.I.Kuzminskaya[4], Sh.Dehqonov, M.Yo‘ldoshev, B.Umarov, A.Suyunov[5] kabilarni asarlari va maqolalarida ilgari surilgan fikrlar nohoyatda muhim ahamiyatga egadir. Ular mazkur masalaga yechim topishda muhim yo‘l va yo‘nalishlarni, metodologik asoslarni beradi. Shuningdek, “Globalashuv”, uning mohiyati, globallashuvni ma’naviy mafkuraviy ta’siri masalalarida A.A.Ioani Vozmitel, A.I.Хvыliya-Olinter[6], L.E.Grinin[7], A.Ochildiev[8], A.Erkaev[9],

---

[1] Эркаев А. -Т.: Маънавият, 2011. 215-216 б.

[2] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.:” Маънавият, 2008.117-б.

[3] Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. –Б. 276-277

[4] Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021., И.А.Каримов Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008.-178 б. Эркаев А. Маънавияттшунослик. –Тошкент: Маънавият, 2018., Отамуродов Садулла Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик.-Тошкент: Ўзбекистон, 2013, -456 б. Ғойибназаров Шуҳрат Оммавий маданият.-Тошкент: Ўзбекистон, 2012.-240 б. Олим Тошбоев Маънавий юксалиш йўлида: (Тўплам)/ тўпловчи М.Қаршибоев.-Тошкент: Маънавият, 2008. Б.119-128. Абдуғафур Расулов Глобал жараёнлар ва маънавият. Маънавий юксалиш йўлида: (Тўплам)/ тўпловчи М.Қаршибоев.-Тошкент: Маънавият, 2008. Б.3-15. Аблеев С.Р., Кузьминская С.И. Массовая культура современного общества: теоритеский анализ и практические выводы // Человек в социальном мире: проблемы, исследования, перспективы. Научно-практический вестник. Выпуск 2002/1 (№8)

[5] Қаранг: Ш.Деҳқонов Ахборот оламнинг салбий омиллари ёҳуд глобаллашув жараёнидаги маънавий таҳдидлар. “Огоҳлик”, 2012 йил 12 апрель. Йўлдошев М. Ижтимоий тарғибот хусусиятлари.-Тошкент: Янги нашр, 2010., Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлар.-Тошкент: Маънавият, 2006. Суюнов А. “Оммавий” маданият кўланкаси ёхуд маънавий таҳдидлар ҳақида. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” 2010 йил 21 май.

[6] Иоани (Попов) Возьмитель А.А., Хвылия-Олинтер А.И Духовная безопасность Россия (Актуальные теоретико-методологические и практические проблемы духовной безопасности) Научно-методическое пособие. -М.: 2005.

[7] Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. -М.: №1, 2005.

[8] Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. Т., Муҳаррир, 2009.

[9] Эркаев А. Глобаллашув: ахборот хуружи ва оммавий маданият. // Тафакур. Ж. 4 – сон, 2008.

S.Otamurodov[1], Sh.Qahharova[2], B.Zokirov[3], M.Quronov[4], A.G‘aniev [5], Sh.Paxrutdinov[6], I.Islamov [7], Sh.Ro‘ziev[8] kabi olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida muammoning turli xil jihatlari o‘ziga xos tarzda o‘rganilganki ulardan keng foydalanish mumkin.

S.M.Yo‘ldosheva tadqiqotlariga ko‘ra, ma’naviy tahdidlar bir necha ko‘rinishdan iborat bo‘lib, birinchi ko‘rinish mafkuraviy xurujlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog‘lomligini anglatadi.

Ma’naviy tahdidning ikkinchi ko‘rinish g‘oyaviy tahdiddir. Bu xuruj ham uch ma’noga ega bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulq-atvor, nosog‘lom axloqiy munosabat va qo‘pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi.

Ma’naviy tahdidning uchinchi ko‘rinishi informatsion xujumdir. Bunda asosiy e’tibor shaxsga noto‘g‘ri ma’lumot berish, shaxs bilimini primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir[9].

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat yetakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki “fikrga qarshi faqat-fikr, g‘oyaga qarshi - faqat g‘oya, jaholatga qarshi faqat - ma’rifat” bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Muxtaram Prezidentimiz keltirganlaridek: “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam uylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur[10].

Xulosa. Yangi O‘zbekistoning mustaqil taraqqiyot yo‘li eng avvalo, yosh avlodni bilimli va har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, uning qalbiga Vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, g‘urur-sha’n, or-nomus, ibo-hayo, oqilonalik, halim-hazimlik, oilaparvarlik, mehr-oqibat, matonat, fidoiylik, sabr-qanoat kabi ezgu tuyg‘ularini singdirish, turli yot g‘oya va mafkuralarga, ma’naviy

---

[1] Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: Янги аср авлоди, 2008.

[2] Қаҳҳарова Ш. Глобал маънавият –глобаллашувнинг ғоявий асоси. -Т.: Тафаккур, 2009.

[3] Зокиров Б. Глобаллашув зиддиятлари. //Тафаккур. Ж. 1-сон, 2004.

[4] Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. -Т.: Академия, 2008.

[5] Ғаниев А. Ғарб оламидаги ахлоқий муаммолар. -Т.: Ворис, 2007.

[6] Пахрутдинов Ш. «Таҳдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998.

[7] Исламов И. Маънавиятга таҳдид – келажакка таҳдид. Глобаллашув, модернизация ва толерантлик: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Конференция материаллари. -Т.: 2009.

[8] Рўзиев Ш. Мафкуравий иммунитет манбалари. -Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008.

[9] Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. // Т., 2009. 192 б.

[10] Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. –Б. 276-277.

tahdidlarga qarshi murosasiz mustaqil kurashchanlik ruhini parvarishlash va mustahkamlash, huquqiy ong va internetdan foydalanish madaniyati kabilarni uzluksiz o‘rgatish darkor.

Bugun globallashuv o‘zining qamrovi, ta’sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlar xalqlarini milliy ma’naviyatiga tajovuz qilib, ularning zaminlarini yemirmoqda va istiqbolda ommaviy ma’naviyat ta’sirida ularning barbod bo‘lishiga zamin tayyorlamoqda. Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari televedinie, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek insonlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiyot vositasida ham amalga oshirilmoqda.

Globallashuv va taraqqiyotning yangi bosqichida milliy ma’naviyatni rivojlantirish, uzoq kelajak istiqbollarini ko‘zlab ish tutish sog‘lom ma’naviy muhitni asrab-avvaylashning muhim garovidir. Shu nuqtai nazardan:

-**birinchidan,** “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak;

–**ikkinchidan**, yoshlarda tarixan shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlariga, milliy an’ana, ajdodlar boy ma’naviy merosiga, ilmu ma’rifatga sadoqat tuyg‘ularini yanada kuchaytirish zarur;

–**uchinchidan,** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘z ifodasini topgan ezgu va buyuk maqsadlarimiz mazmun va mohiyatini yoshlarga teran anglatish va unga kamarbasta bo‘la olishga chorlaydigan omillar rolini oshirish darkor;

–**to‘rtinchidan**, yoshlarda tarixiy xotira, milliy o‘zlik, madaniy meros, etnomadaniy qadriyatlar sarchashmasidan bahramandlik ruhini mustahkamlaydigan jihatlarga e’tiborni oshirish zarur;

–**beshinchidan**, “ommaviy madaniyat”ni xarakteri, uning niqobi ostidagi xatarlardan yoshlarni ogoh etuvchi mexanizimlar yanada takomillashtirish lozim;

–**oltinchidan**, yoshlar dunyoqarashini kengaytiradigan ilmi va bilimini yanada oshiradigan, masalaga mustaqil tahliliy yondoshadigan, to‘g‘ri, tezkor, oqilona xulosa, hukum va qaror chiqaradigan qobiliyatini har tomonlama parvarishlash, shakllantirish va rivojlantirish darkor;

–**yettinchidan**, virtual qaramlikka qarshi yoshlar immunitetini kuchaytiradigan - midea savodxonlik, media madaniyat, huquqiy ong, ma’naviy mas’uliyat, axloqiy poklik, estetik didni oshiradigan omil va vositalarni ijtimoiy tarmoqlarda ko‘paytirish kerak;

-**sakkizinchidan,** xalqimizning tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o‘zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo‘naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish[1], qo‘llash ishlarini davr talab darajasiga oshirish muhim;

-to‘qqizinchidan, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar, g‘arazli axborotlar, odob-axloqni

[1] Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. –Б. 278

yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi “jozibador” tasvirlar va media mahsulotlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi oshirish darkor;

-o‘ninchidan, Prezidentimiz keltirganlaridek: “Mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak[1] va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O‘zbekiston, 2017.

Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir/ “Xalq so‘zi” gazetasi. 1-iyul, 2017-yil. №129 (6823).

Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / “Xalq so‘zi”. 4 avgust, 2017 yil.

Mirziyoyev Sh.M. Barcha sa’y-harakatlarimiz manfaatlari mujassam/ “Xalq so‘zi” gazetasi. 30-iyun, 2017.

Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari taraqqiyotning muhim omili /“Xalq so‘zi”. 2016, 31 dekabr.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997 .

Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008.

Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: O‘zbekiston, 2000.

A. Erkayev “Ma’naviyat va taraqqiyot modeli”. –T.: Ma’naviyat; 2005.

Axmedov X. “Ma’naviy hayot dinamikasi”. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi; 2018.

G‘oyibnazarov Sh. “Ommaviy madaniyat”. –T.: O‘zbekiston; 2012.

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Хужанов Тиллабек Келдибекович
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Давлат ва ҳуқуқ институти стажёр тадқиқотчиси

Ҳозирги кундаги глобаллашув шароитида ва дунё мамлакатларининг фаол интеграциялашув жараёнида ҳуқуқий муносабатларни халқаро ташкилотларсиз

[1] Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. –Б. 278

тасаввур қилиш қийин. Зеро, халқаро ташкилотлар халқаро-ҳуқуқий муносабатларни мустаҳкамлаш борасидаги фаолияти муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бугунги кунда бола ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида турли халқаро ташкилотлар, халқаро ишчи гуруҳлар, нодавлат ва нотижорат ташкилотлари фаолият юритиб келмоқда. Бундан ташқари, инсон ҳуқуқларини таъминлаш давлат сиёсати даражасида бўлган давлатларда бола ҳуқуқлари бўйича фаолият юритаётган миллий институтлар мавжуд.

Бола ҳуқуқлари бўйича халқаро ташкилотлар сифатида БМТ, БМТнинг Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитаси, Инсон ҳуқуқлари бўйича қўмитаси, Қийноқларга қарши қўмитаси, Халқаро меҳнат ташкилоти, БМТнинг Болалар фонди (ЮНИСЕФ), БМТнинг маориф, фан ва маданият масалалари бўйича шуғулланувчи ташкилоти (ЮНЕСКО) каби тузилмалари фаолият юритади.

Юқорида санаб ўтилган БМТнинг ихтисослашган муассасалари бола ҳуқуқларига оид халқаро тамойиллар ва нормалар талабларидан келиб чиққан ҳолда болаларни шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ҳуқуқлари таъминланишига кўмаклашади, шу билан бирга бола ҳуқуқлари бузилишига сабаб бўлган омилларни олдини олиш ва бартараф этиш чораларини кўради.

БМТнинг Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитаси фаолияти:

Қўмита болаларнинг равнақига хавф туғдирувчи омилларни аниқлаштиради, аниқ муаммоларнинг амалий ечимларини ишлаб чиқади, муаммоларни ҳал қилиш учун зарурий инсон ва молиявий ресурсларини сафарбар қилади, бола ҳуқуқлари борасида жамиятнинг хабардорлик даражасини оширишга қаратилган тадбирларни ҳамда унинг бола ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган иштирокини кенгайтиришга оид чораларни қўллаб қувватлайди. Бу мақсадлар йўлида Қўмита мазкур соҳада фаол фаолият олиб борадиган ташкилотлар билан ҳамкорлик қилади [1]. Бола ҳуқуқлари бўйича Қўмита ўн нафар экспертдан иборат бўлиб, унинг зиммасига бола ҳуқуқларини рағбатлантириш учун курашаётган, Конвенция қатнашчиси бўлган барча давлатлар ўртасида мунтазам мулоқот йўлга қўйилишини таъминлаш вазифаси топширилган [2]. Қўмита ўз олдига қўйган мақсад ва вазифалардан келиб чиқиб, дунё болаларининг тинчлиги ва фаровонлигига таҳдид солувчи омилларни аниқлаб, муайян муаммоларнинг амалий ечимини топиб, уларни ҳал қилиш учун инсонларни ва молиявий ресурсларини сафарбар этиш чораларини кўрмоқда ҳамда жамоатчиликнинг хабардорлик даражасини оширишга, бола ҳуқуқларини ҳимоя этиш ва рағбатлантиришдаги иштирокини кенгайтиришга кўмаклашмоқда. Қўмита ана шу мақсадда мазкур соҳада жўшқин фаолият олиб бораётган бошқа ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиб келмоқда [3].

Бундан ташқари, Бола ҳуқуқлари бўйича қўмита Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва болаларни қуролли можароларга жалб қилиш ва сотиш, болалар фоҳишалиги ва болалар порнографияси тўғрисидаги факултатив протоколларининг бажарилишини давлат ҳисоботлари ва суриштирув сўровларини кўриб чиқиш орқали назорат қилади. Қўмитанинг таркиби аъзо давлатлар томонидан 4 йил муддатга сайланадиган 18 та мустақил экспертдан

иборат. Дастлаб, иштирокчи давлат Конвенцияга қўшилганидан кейин 2 йил ўтгач ҳисобот тақдим этиши керак бўлади ва дастлабки ҳисоботдан сўнг, ҳар 5 йилда даврий ҳисоботларни тақдим этиб боради. Ҳисобот тизими ҳар бир иштирокчи-давлатдан ҳисобот берувчи давлат тўғрисидаги умумий маълумотлар, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш асослари ҳамда камситилмаслик ва тенглик тўғрисидаги маълумотлар рўйхатини ўз ичига олган умумий асосий ҳужжатни ва Конвенцияни миллий қонунчилиги ёки сиёсатини амалга оширишга оид махсус маълумотларни ўз ичига олган маълумотлар асосида тақдим этилади.

Қўмита 2024 йилда аъзо давлатлар томонидан тақдим этилган даврий ҳисоботлари ва суриштирув сўровлари асосида, 2025 йилнинг 17 июнь куни Бош Ассамблея Хавфсизлик кенгашининг етмиш тўққизинчи сессиясида 2024 бўйича ҳисоботини эълон қилди. Ҳисоботда 2024 йилда қуролли можароларда болаларга нисбатан зўравонлик мисли кўрилмаган даражага етганлиги, 2023 йилга нисбатан оғирроқ қонунбузарликлар сони ҳайратланарли даражада 25 фоизга ошганлиги ва бошқа ҳолатлар кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, ҳисоботда Қўмита ўзининг хавотирлари ва ташвишларини билдириб, аъзо давлатларга тавсия, таклиф ва чақириқларини баён этган [4].

Ўзбекистон томонидан Қўмитага 2022 йилда бешинчи даврий ҳисоботи тақдим этилади ва ушбу ҳисобот Қўмита томонидан 2022 йилнинг 31 август ва 1 сентябрда бўлиб ўтган 2636 ва 2637-сон мажлисларида кўриб чиқди [5].

Қўмита томонидан Ўзбекистоннинг бешинчи даврий ҳисоботи бўйича якуний кузатишлари натижасига кўра, кўрилган чора-тадбирлар ва эришилган ютуқларни эътироф этиш билан бирга, 98 банддан иборат бўлган таклиф ва тавсияларини баён этди.

БМТнинг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси қоидаларини амалга ошириш бўйича Ўзбекистон Республикасининг Бешинчи даврий маърузасини кўриб чиқиш якунлари юзасидан БМТнинг Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитаси тавсияларини амалга ошириш, шунингдек, бола ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш бўйича халқаро ҳамкорликни янада ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Кенгашининг қўшма қарори қабул қилинади [6].

Мазкур қўшма қарор ижросини таъминлаш ва Ўзбекистон Республикасининг Бешинчи даврий маърузасини кўриб чиқиш якунлари юзасидан БМТнинг Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитаси тавсияларини амалга ошириш бўйича 2024 — 2027 йилларга мўлжалланган МИЛЛИЙ ҲАРАКАТЛАР РЕЖАСИ тасдиқланди. Ушбу МИЛЛИЙ ҲАРАКАТЛАР РЕЖАСИда бола ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида 35 та йўналишда ишларни амалга ошириш белгилаб олинди.

БМТнинг Болалар фонди (ЮНИСЕФ) фаолияти:

Болалар ҳуқуқи бўйича халқаро институтлар тизимида 1946 йилда БМТ Бош Ассамблеяси томонидан ташкил этилган БМТнинг Болалар фонди (ЮНИСЕФ) алоҳида ўрин тутади. ЮНИСЕФ ўзининг фаолияти жараёнида болаларга етарлича эътибор ва ғамхўрлик кўрсатилиши таъминланган жамиятда камол топишини

таъминлашга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирларни амалга оширади. Шу мақсадда ушбу халқаро ташкилот фаолиятининг асосий мезони сифатида, аъзо давлатлардаги болаларнинг ҳимояланиши, уларнинг эҳтиёжлари қондирилиши ҳамда уларнинг салоҳиятини намоён этишга барча шароитлар мавжудлигини таъминлашда ўз ҳиссасини қўшиш ҳисобланади.

1953 йилда ЮНИСЕФ БМТ тизимидаги доимий ташкилот мақомини олади ва бугунги кунда 190 дан ортиқ мамлакатларда фаолият олиб бормоқда. Мазкур ташкилот томонидан амалга оширилаётган дастурлар ва лойиҳаларда болалар ҳуқуқини таъминлаш, хусусан, улар саломатлигини муҳофаза қилиш, сифатли таълим олишга кўмаклашиш, овқатланишини яхшилаш, эмлаш орқали болалар касалликлариним олдини олиш, ОИВ/ОИТСга қарши курашиш каби қатор муҳим масалаларга алоҳида эътибор қаратилади[7].

ЮНИСЕФ ўз фаолиятини БМТнинг Болалар ҳуқуқи тўғрисидаги конвенцияси асосида амалга ошириб, барча мамлакатларда болалар ҳуқуқларини ҳимоя этиш амалиётини миллий қонунчиликка сингдиришга ҳаракат этади. Бола ҳуқуқларини таъминланишига кўмаклашиш ва Низомида қайд этилган мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда амалга оширган ишлари юзасидан 2024 йил ҳисоботи ўрганилди. Қуйида ташкилот фаолиятининг энг муҳим жиҳатларини таҳлил қиламиз.

ЮНИСЕФнинг 2024 йилдаги фаолият натижаларининг *биринчи* ютуғи сифатида, полиомиелитга қарши глобал ташаббуснинг етакчи ҳамкорларидан бири сифатида ташкилот кўмагида дунё бўйича 400 миллиондан ортиқ 87 та давлатда яшаётган болаларни полиомиелитга қарши эмлаш учун вакцина етказилиб берилганлигини қайд этиш жоиз. Шунингдек, ташкилотнинг *иккинчи* навбатда эътироф этилиши лозим бўлган фаолият натижаси шундаки, ЮНИСЕФ томонидан 2024 йил давомида дунёнинг 104 мамлакатидаги 448 фавқулодда ҳолатда миллионлаб болаларга гуманитар ёрдам кўрсатилган. *Учинчиси*, ҳозирги кундаги иқлим ўзгариши, атроф-муҳитнинг ифлосланиши ва биологик хилма-хилликнинг йўқолиши каби инқироз шароитини инобатга олиб, болаларни иқлим таъсирига мослашишига ёрдам бериш мақсадида, дунёнинг 102 та мамлакатида “Иқлим дастурлари” доирасида миллионлаб болаларга ёрдам кўрсатилган. *Тўртинчиси,* 5 ёшгача бўлган болаларнинг 251 миллионга яқин нафар бола ҳолатини эрта аниқлаш хизмати кўрсатилган ҳамда 9.3 миллионга яқин болага даволаш хизмати кўрсатилишига эришилган. Бешинчиси, 26 миллиондан ортиқ болани таълим олишга бўлган ҳуқуқи таъминланишига кўмаклашган бўлса, навбатдаги олтинчи эътирофга сазовор фаолияти 6.7 миллион нафардан ортиқ болаларни тоза ичимлик суви билан таъминланишига эришилган. Ташкилотнинг еттинчи энг муҳим тадбирларидан бири 110 та мамлакатдаги зўравонлик қурбони бўлган 6.2 миллиондан ортиқ болаларга тиббий хизмат, ижтимоий ҳимоя, ҳуқуқий ёрдам хизматлари билан қўллаб-қувватланган [8].

Ушбу фаолият натижалари ЮНИСЕФнинг 2024 йилда амалга оширилган ишлари бўйича расмий ҳисботи таҳлилидан келиб чиққан ҳолда баён этилди. Шу билан бирга таъкидлаш жоизки, мазкур халқаро ташкилот дунё болалари

манфаатлари учун муҳим аҳамиятга эга эканлигин кўришимиз мумкин. Шу ўринда, ЮНИСЕФ ўзининг ҳамкорлик дастурлари доирасида Ўзбекистон Ҳукумати билан ҳамкорликда 1994 йилдан ҳозирги кунга қадар болалар билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш, уларнинг фаровонлигини таъминлаш, оилавий аҳволини яхшилаш ва бошқа шу каби соҳаларда ёрдам бериб келмоқда.

ЮНИСЕФ “Ҳеч кимни эътибордан четда қолдирмаслик” тамойили асосида кўмакка муҳтож болалар ва ўсмирларга алоҳида эътибор қаратган ҳолда болалар ҳуқуқларини амалга оширишда Ўзбекистон Ҳукуматини қўллаб-қувватлашда содиқлигини билдиради[9].

Бундан ташқари, ташкилот томонидан Ўзбекистонда сўнгги беш йилда бола ҳуқуқларига риоя этилиши юзасидан мониторинг ўтказади ва мониторинг хулосаларида мамлакатда болалар ва ўсмирлар ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида эришилган сезиларли ютуқларни эътироф этади. Шу билан бирга такомиллаштириш зарур бўлган соҳалар ҳам мавжудлигини қайд этган йўналишлар кўрсатлган ҳолда қисқача маълумотлар ва тавсияларни келтириб ўтади. Ташкилотнинг Ўзбекистонда бола ҳуқуқларига риоя этилиши юзасидан сўнгги беш йиллик мониторинги таҳлили бўйича такомиллаштириш талаб қиладиган йўналишлар сифатида саломатлик ва овқатланиш (соғлиқни сақлаш) соҳасида, таълим, дам олиш ва маданият соҳасида, оила муҳити ҳамда зўровонлик ва зарарли амалиётлардан ҳимояланиш соҳасида, иштирок этиш ва фуқаролик ҳуқуқлари соҳасида, каммбағаллик ва муносиб турмуш даражаси соҳасида ва тармоқлараро масалалар бўйича қатор таклифларини беради ҳамда бу борадаги асосий стратегик хулосаларини баён этади [10].

Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ) фаолияти:

Асосий вазифаси меҳнат соҳаси бўйича халқаро нормалар, асосий тамойиллар ва меҳнатга оид ҳуқуқларни такомиллаштириш ҳамда амалда таъминлаш бўлган Халқаро меҳнат ташкилотининг бола ҳуқуқлари соҳасидаги фаолияти алоҳида эътирофга сазовордир. Халқаро меҳнат ташкилоти (кейинги ўринларда ХМТ) 1919 йилда ташкил топган бўлиб, у ўз фаолияти жараёнида асосий вазифалари билан бирга меҳнат соҳасидаги бола ҳуқуқларини таъминлашга оид бир қатор конвенциялар қабул қилди ва бу борада ҳозирги кунга қадар самарали фаолият юритиб келмоқда. Жумладан, боланинг меҳнат қилиш ҳуқуқини имтиёзлар билан белгилаб бериш, улар учун ижтимоий ҳимояни йўлга қўйиш, болаларга нисбатан мажбурий меҳнат ва меҳнатнинг оғир шаклларини таъқиқлаш каби масалаларни амалга ошириш борасида чора-тадбирлар ишлаб чиқмоқда ва дастурларни қабул қилиб келмоқда.

Хусусан, ХМТ томонидан “Зўрлаб ишлатиш ёки мажбурий меҳнат тўғрисида”ги 29-сон конвенция (1930 йил), “Бир хил қийматга эга бўлган меҳнат учун эркаклар ва хотин-қизларни тенг рағбатлантириш тўғрисидаги”ги 100-сон конвенция (1951 йил), “Мажбурий меҳнатни тугатиш тўғрисида”ги 105-сон конвенция (1957 йил), “Меҳнат ва иш турлари соҳасида камситиш тўғрисида”ги 111-сон конвенция (1958 йил), “Ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисида”ги 138-сон конвенция (1973 йил), “Болалар меҳнатининг оғир шаклларини

таъқиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилинч чоралар тўғрисида”ги 182-сон конвенциялари (1999 йил) қабул қилинган бўлиб, ушбу конвенциялар болаларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқларини таъминланиши ва тартибга солинишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

ХМТнинг 1973 йилда қабул қилинган ва 1976 йилда кучга кирган “Ишга қабул қилиш учун энг кичик ёш тўғрисида”ги 138-конвенцияси 1-моддасида “ташкилотнинг ҳар бир аъзоси, ушбу Конвенция унга нисбатан кучга кирган бўлса, болалар меҳнатини батамом бекор қилишни таъминлашга йўналтирилган ва ишлашга ёки ёлланишга рухсат этилган энг кичик ёшни ўсмирларнинг тўла жисмоний ва ақлий ривожланиш даражасига мос келадиган ёшгача босқичма-босқич оширишга йўналтирилган миллий сиёсатни амалга ошириш мажбуриятини ўз зиммасига олиши” лозимлиги, 1999 йилда қабул қилинган “Болалар меҳнатининг оғир шаклларини таъқиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилинч чоралар тўғрисида”ги 182-сон конвенциясининг умумий қоидаларида, 1 ва 3-моддаларида “Конвенция мақсадлари учун “болалар меҳнатининг энг ёмон шакллари” сифатида, қулликнинг барча шакллари ёки қулликка ўхшаш амалиёт, масалан, болаларни сотиш ва уларнинг траффики, қарз асосидаги қарамлик ва крепостной тобелик, шунингдек, зўраки ёки мажбурий меҳнат, шу жумладан, болалардан қуролли можароларда фойдаланиш учун уларни зўрлаб ёки мажбурлаб жалб қилиш; фоҳишабозлик билан шуғулланиш, порнография маҳсулотлари тайёрлаш ёки порнографик томошаларда иштирок этиш учун боладан фойдаланиш, уни ёллаш ёки уни таклиф қилиш; қонунга хилоф фаолият билан шуғулланиш учун, хусусан, тегишли халқаро шартномаларда белгиланган каби, наркотиклар тайёрлаш ва сотиш учун боладан фойдаланиш, уни ёллаш ёки уни таклиф қилиш; бажариш хусусиятлари ёки шароитига кўра болалар соғлиғи, хавфсизлиги ва маънавиятига зиён етказиши мумкин бўлган ишлар таъқиқланишлиги” қайд этилган.

Халқаро меҳнат ташкилотининг маълумотларига (2024 йил ҳолатига) кўра, дунё бўйича 138 миллион нафар бола меҳнат билан банд бўлиб, шундан 54 миллион нафари хавфли ишларда ишлаётганлиги қайд этилган. Меҳнат билан банд бўлган болаларнинг 78 миллион нафари йигитлар бўлса, 59 миллион нафари қизлардир [11].

Халқаро меҳнат ташкилотининг Ўзбекистондаги вазифаси ҳукуматлар, иш берувчилар ва ишчи ташкилотлари ўртасидаги ижтимоий мулоқотни самарали йўлга қўйиш ва қўллаб-қувватлаш, муносиб меҳнат ва ижтимоий адолатни таъминлаш мақсадида ўзаро ҳамкорлик қилиш ҳамда мамлакатда меҳнат соҳасидаги муносбатларда фаол иштирок этишдан иборат ҳисобланади. Чунончи, ташкилот ҳукуматнинг ўз халқаро мажбуриятларини амалга оширишда муваффақиятга эришиш борасидаги саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлашини таъкидлаган ҳолда пахта соҳасидаги мажбурий меҳнат ва болалар меҳнатига барҳам берилганлигини эътироф этади [12].

Ўзбекистон болаларни меҳнатга оид ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида, Халқаро меҳнат ташкилотининг бир нечта конвенцияларини ратификация қилган.

Жумладан, ХМТ томонидан 26.06.1973 йилда қабул қилнган “Ишга қабул қилишнинг энг кичик ёши тўғрисида”ги №138 конвенцияси Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 04 апрелдаги ЎРҚ-140-сон Қонунига мувофиқ ратификация қилинган. Шунингдек, ХМТнинг 17.06.1999 йилда қабул қилинган “Болалар меҳнатининг оғир шаклларини таъқиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилинч чоралар тўғрисида”ги 182-сон конвенцияси Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 8 апрелдаги ЎРҚ-144-сонли “Болалар меҳнатининг оғир шаклларини тақиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилинч чоралар тўғрисидаги Конвенцияни (Женева, 1999 йил 17 июнь) ратификация қилиш ҳақида»ги Қонуни билан ратификация қилинган.

Бундан ташқари, Ўзбекистонда ижтимоий давлатни шакллантириш шароитида сўнгги йилларда бола ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида халқаро ҳужжатларни ратификация қилиш борасидаги ишлар жадал суръатларда амалга оширилмоқда. Хусусан, 2024 йил 19 июнь куни Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-932-сон Қонуни билан ХМТ томонидан 1981 йил 23 июнда қабул қилинган “Ишлаётган эркаклар ва аёллар учун тенг муносабатлар ва тенг имкониятлар: оилавий мажбуриятларга эга ходимлар тўғрисида”ги 156-сонли Конвенцияси ратификация қилинди. Конвенциянинг 1-моддасида “ушбу Конвенция ўз қарамоғидаги фарзандларига нисбатан масъулият юклаган эркак ва аёл ишчиларга нисбатан қўлланилиши”, 5-моддасида эса “миллий шарт-шароитлар ва имкониятларга мос келадиган барча чоралар кўрилиши кераклиги, бунда болаларни парвариш қилиш ва оила хизматлари каби давлат ҳамда хусусий жамоат хизматларини ривожлантириш зарурлиги” қайд этилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. М.Турғунов, А.Туляганов, М.Баратов ва бошқ. Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари/ Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Merit-print” нашриёти, 2023. – 115 б.

2. Права ребенка. Женева, ООН, 1992.

3. Г.Маткаримова, А.Мўминов, М. Тиллабаев, Ф.Хамдамова., Бола ҳуқуқлари. Ўқув қўлланма- Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. Тошкент- 2010. Б. 174.

4. БМТнинг Бош Ассамблея хавфсизлик кенгашининг 2024 йил якунлари бўйича 2025 йил 17 июнда эълон қилинган ҳисобтидан. БМТ A/79/878-S/2025/247. Манбаага кириш: https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/crc

5. Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитанинг Ўзбекистонни бешинчи даврий ҳисоботи бўйича якуний кузатишлари. БМТ CRC/C/UZB/CO/5. 2022 йил 27 октябрь.

6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг қўшма қарори. 2024 йил 21 февраль ҚҚ-688-IV-сон.

7. М.Х.Рустамбоев, М.Б.Усмонов. Бола ҳуқуқи. Дарслик- Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети. Тошкент- 2022. 90-бет.

8. ЮНИСЕФ Йиллик ҳисоботидан. Руанда 2024 йил декабрь. UNICEF/UNI725194/

9. ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги болалар ва ўсмирлар вазиятининг таҳлили. Rehina Mariya Kastijio ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси раҳбари: Сўз боши ўрнида. 2024 й. 2 бет.

10. ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги болалар ва ўсмирлар вазиятининг таҳлили. 2024 йил. 147-150-бет.

11. Халқаро меҳнат ташкилотининг расмий сайти маълумотлар базасидан. Манбага кириш: http://www.ilo.org

12. ХМТнинг 2021-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикаси учун муносиб меҳнат бўйича давлат дастури. https://www.ilo.org/sites/default/files/2024-04/DWCP%20Uzbekistan.pdf

TARBIYA JARAYONIDA MA’NAVIY MEROSDAN FOYDALANISH BOSQICHLARI (IMOM BUXORIY MISOLIDA)

Xuramova Ungaloy Xolboyevna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kirish. Ma’lumki, globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda yosh avlodni ma’naviy barkamol, axloqan yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarning tarbiyasi, ularning ma’naviyati va axloqiy qiyofasi jamiyat barqarorligi va etnik-milliy qadriyatlarning asrab qolinishida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Har bir fuqaro biz uchun qadrdondir” degan tamoyillari asosida insonparvarlik va milliy qadriyatlarni o‘rganish hamda yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylantirilmoqda [1].

Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xususan, buyuk allomalarimizning ma’naviy-ilmiy merosidan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda va ularning boy meroslari — tarixiy tajriba, ma’naviy-axloqiy ta’siri vositasi sifatida hamda yoshlarni tarbiyalashning zamonaviy tarbiya jarayonida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq islom sivilizatsiyasi tarixida buyuk mutafakkir Imom al- Buxoriy alohida o‘rin egallaydi. Imom Buxoriy nafaqat hadis ilmining rivojiga katta hissa qo‘shgan, balki uning asarlari yoshlar ma’naviy tarbiyasida, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan. Buxoriyning ilmiy va ma’naviy merosi haqidagi tarixiy manbalar, zamonaviy ilmiy maqolalar va tadqiqotlar yoshlar tarbiyasida axloqiy ta’limotlar bilan tahlil qilinadi.

Ma’naviy meros - bu ajdodlar tomonidan yaratilgan ilmiy, axloqiy, falsafiy va madaniy qadriyatlar majmuasidir. Ushbu meros jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi bo‘lib, inson shaxsini kamol toptirishda, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviyatini shakllantirishga yordam beradi. Tarbiya jarayonida ma’naviy merosdan foydalanish tasodifiy yoki epizodik emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va bosqichma-

bosqich amalga oshirilishi lozim. Aks holda, ma’naviy meros tarbiyaviy vosita sifatida kutilgan samara bermasligi mumkin. Shu sababli, Imom Buxoriy merosini tarbiya jarayonida joriy etishga uni tanlash, ilmiy tahlil qilish, pedagogik jihatdan moslashtirish va amaliyotda tatbiq etish mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Imom al- Buxoriyning ilmiy merosi misolida tarbiya jarayonida ma’naviy merosdan foydalanishning asosiy bosqichlarini ilmiy jihatdan yoritish hamda uning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Ma’naviy merosni amaliyotda tatbiq etish tarbiyaning eng muhim qismi bo‘lib, o‘rganilgan qadriyatlarni kundalik hayotda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Bu jarayon ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini takomillashtirishda, yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda tarixiy va ma’naviy merosning bugungi zamonaviy yoshlar tarbiyasiga tatbiqi va unga asoslangan ma’naviy-axloqiy barqarorlik shakllanishi jihatdan chuqur tahlil talab etadi. Quyida ushbu jihatlar — Imom Buxoriy ilmiy merosidan hadis ilmidagi yondashuvi, asarlarining axloqiy mazmuni va bugungi ta’lim-tarbiyaga foydalanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan muhokama qilinadi.

Ma’naviy meros va tarbiya jarayonida uning zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etilishi bugungi kunda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Ma’naviy merosdan tarbiya jarayonida foydalanish masalasi pedagogika, falsafa va tarixiy ilmlarning kesishmasida keng tadqiq etilgan. Ma’naviy meros nafaqat ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega, balki yoshlarni axloqiy-ruhiy jihatdan tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi.

Masalan; Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ma’naviyat tushunchasini keng yoritib, uning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Asarda ma’naviyatni ijtimoiy, axloqiy va pedagogik jarayonlarda qo‘llaniladigan amaliy tushuncha sifatida yoritgan. Shu nuqtai nazardan, kitob ma’naviyatni va yoshlar axloqini hamda ruhiy barkamollikka yetaklash vositasi sifatida ko‘riladi [3].

Pedagogik adabiyotlarda tarixiy-ma’naviy merosni ta’lim-tarbiya jarayoniga uyg‘unlashtirib, yoshlarning madaniyati va axloqiy shakllanishiga tatbiq etiladi. Ilmiy tadqiqotlarda tarbiyaviy jarayonda ma’naviy merosni tanlash, tahlil qilish va moslashtirishning tizimli usullari yoritilgan. Shuningdek, Xoliqov N. ma’naviy merosni interfaol pedagogik metodlar orqali dars jarayoniga tatbiq etishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi.

Tarbiya jarayonida yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirishda sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosidan foydalanish ham o‘rinli hisoblanadi. Shu jumladan, Imom Buxoriy ilmiy merosidagi ilmga sadoqat, haqiqatparvarlik, halollik, adolat, sabr toqat va axloqiy fidoyilik namunasi bugungi yoshlar tarbiyasi uchun muhim ibrat maktabi hisoblanadi. Uning manbalari tarbiya jarayonida ilmiy tahlil, axborotni baholash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun namunadir. Imom Buxoriy merosining ilmiy- ma’naviy ahamiyati zamonaviy ta’lim muassasalarida ham ko‘rib chiqilmoqda: “Ilmga teran yondashuv” va “Ilm va axloq” sintezi orqali yoshlarning dunyoqarashi va ma’naviy kamolini oshirish haqida tadqiqotlar mavjud. Shu jihatdan, ma’naviy- tarbiyaviy bosqichda — ilmiy merosdan ilhomlanish yo‘lida tafakkur bilan

foydalanish samaradorligi oshadi. Axloqiy va ma’naviy fazilatlar, shaxsiy kamol va ijtimoiy muomala tarbiya jarayonida yoshlar ma’naviyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Imom Buxoriy asarlarida - axloq- odob, insoniy munosabatlar, oilaviy va jamiyat hayoti, tarbiyaviy jihatlar bo‘yicha ko‘plab navbatdagi manbalar jamlangan. Masalan, uning “Al-Adab al-Mufrad” asari — axloq-odobga oid to‘plam bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba sanaladi. Imom Buxoriy merosi – ma’naviy va tarixiy meros bilan bog‘liq bo‘lib, yoshlar uchun tarbiyali va yetuk barkamollikda shakllangan shaxs bo‘lishning namunasi bo‘la oladi. Uning asarlarida ma’naviy va axloqiy ta’limotlar nafaqat shaxsiy, balki jamiyatga oid qadriyatlarni ham batavsil yoritadi: oilaning totuvligi, qarindoshlarda bo‘ladigan mehr- oqibat, jamiyatdagi adolat hamda insonparvarlik xususiyatlariga ta’sir qiladi. Shunday ekan, Buxoriy merosini yoshlar tarbiyasiga jalb qilish milliy qadriyat va ma’naviyatni boyitadi hamda yoshlar orasida “milliy g‘urur” tuyg‘usini uyg‘otadi [4].

Metodologik jihatdan maqola tarbiya jarayonida qo‘yidagi yondashuvlarga asoslanadi;

1. Ma’naviy manbalarni tanlash – yoshlar psixologik va tarbiyaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy meroslardan maqsadli foydalanish.

2. Ilmiy-tahliliy o‘rganish – ilmiy-ma’naviy merosdan tanlangan manbalarning axloqiy, pedagogik va tarixiy ahamiyatini aniqlash.

3. Pedagogik moslashtirish – ilmiy merosni zamonaviy interfaol pedagogik metodlar asosida dars va tarbiya jarayoniga moslashtirish.

4. Amaliy tatbiq etish – o‘quvchilarni yoki talabalarni dars mashg‘ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar va loyihalar orqali ma’naviy barkamollikka yetaklash [5].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Imom Buxoriyning ilmiy-ma’naviy merosi nafaqat tarixiy qadriyatlar manbai, balki zamonaviy tarbiya jarayonida yoshlarni axloqiy jihatdan shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik amaliyot va ma’naviyatni yaratishda yoshlar madaniyati muhim o‘rin tutadi. Bugungi ta’lim tizimi va yoshlar tarbiyasida faqat dunyoviy bilimlar - fan, texnika, til, kasb emas, balki ma’naviy- axloqiy tarbiya ham muhim sanalmoqda. Oilaviy qadriyatlar, jamiyatdagi mas’uliyat — bular ham yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy-ma’naviy va axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy manbalar va adabiyotlardan axloqiy qarashlar va hayotiy ibratlar saralanadi. Tanlash jarayonida yoshlarning yoshi, psixologik xususiyatlari va tarbiyaviy ehtiyojlari hisobga olinadi. Shu bosqichda tanlangan manbalar tarbiyaviy mazmuni bilan ajralib turadi, ya’ni ular axloqiy va ma’naviy jihatdan ham yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi [6].

Bir qator zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Imom Buxoriy asarlaridan, xususan, “Al-Jome’ as-Sahih” va “Al-Adab al-Mufrad” to‘plamlaridan foydalanish orqali yoshlar ma’naviy- axloqiy madaniyati va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish samarali bo‘lgan. Masalan, agar umumta’lim maktablarida yoki oliy ta’lim muassasalarida Buxoriy merosi, axloq- odobga oid manbalari alohida modullar, darslar yoki ma’rifiy mashg‘ulotlar sifatida kiritilsa — bu o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki kundalik hayotda odob- axloq, mas’uliyat, hamjihatlik, hurmat- ehtirom kabi fazilatlarni anglash va unga rioya qilish

ko‘nikmalarini beradi. Shuningdek, pedagogik yondoshuv sifatida — ilmiy bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki ularni muhokama qilish, kundalik hayot bilan bog‘lash, yoshlarning shaxsiy tajribasi va muammolari bilan solishtirish — ma’naviyat, ehtiyotkorlik, madaniyat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, bir tadqiqotda “manbalar asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirish” imkoniyatlari tahlil qilindi va sabr, halollik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlar talabalarda mustahkamlandi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Buxoriy merosi nafaqat tarixiy yoki ilmiy xotira — balki bugungi jamiyat va ta’lim uchun jonli, amaliy darslar to‘plami bo‘lib qolmoqda [7].

Ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy merosdan jamiyat taraqqiyoti maqsadida Buxoriy merosidan yoshlar tarbiyasida foydalanganda, bu nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik, milliy-ma’naviy uyg‘unlik kabi yuqori darajadagi qadriyatlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, jamiyatda adolat, hurmat-ehtirom, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi qadriyatlar kuchaysa — ijtimoiy muammolar, ijtimoiy ayirmachilik, zo‘ravonlik, giyohvandlik, beqarorlik kabi holatlar kamayishi, jamiyatda sog‘lom muhit, ijtimoiy barqarorlik yaratilishi ehtimoli oshadi.

Tadqiqotlar ham shuni anglatadiki, Buxoriy manbalariga asoslangan tarbiya yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy fazilatlar shakllantirishda ijobiy ta’sir beradi. Bundan tashqari, shunday yondoshuv nafaqat oddiy shaxslar — balki pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar, jamiyat yetakchilari tomonidan ham qo‘llaniladi. Bu esa ma’naviy-axloqiy tarbiyani keng jamiyatga yoyish, butun jamiyat ruhini ma’naviy va ilmiy uyg‘unlik tarafiga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada tarbiya jarayonida ma’naviy merosdan foydalanish masalasi Imom Buxoriy ilmiy-ma’naviy merosi misolida ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Ma’naviy meros jamiyatda yosh avlodni axloqiy va ijtimoiy barkamollikka yetaklovchi muhim omil hisoblanadi. Imom Buxoriyning ilmiy va ma’naviy merosi tarbiya jarayonini boyituvchi, uning mazmun va samaradorligini oshiruvchi asosiy manbadir. Bundan tashqari, ma’naviy merosni pedagogik jarayonda tatbiq etishda tizimli yondashuv, ilmiy-tahliliy asos va pedagogik metodlar qo‘llanishi zarur. Allomaning ilmiy merosidan zamonaviy yoshlarning ma’naviy tarbiyasida, axloqiy va ijtimoiy madaniyat shakllanishida va ma’rifiy ongni rivojlantirishda keng ko‘lamda foydalanilishi mumkin bo‘lgan boy xazinadir. Shuningdek, Imom Buxoriyning ilmga bo‘lgan yuksak ehtiromi va ilmiy asoslangan metodologiyasi tarbiyalanuvchilarga ilmiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy-analitik va pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, Imom Buxoriy asarlarida axloqiy ta’limotlarni zamonaviy darsliklarda, tarbiyaviy dasturlarda, ma’rifiy loyihalarda faol joriy etish yoshlar ma’naviy kamolini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois — tarixiy meros, ilmiy meros va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasida tizimli ravishda o‘rganish va qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 107-bet.

Xoliqov N. Ma’naviy meros va zamonaviy ta’lim. Samarqand: Zarafshon, 2020. 64-98 betlar.

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 45-70 betlar.

Imom Buxoriy. Al-Adab al- Mufrad. – Toshkent; Movorounnahr nashriyoti, 2017. 56-75 betlar.

Abdurahmonov A. Pedagogikada ma’naviy tarbiya masalalari. Toshkent: O‘qituvchi, 2016. 78-110 betlar.

Yo‘ldoshev J. Tarbiya nazariyasi. Toshkent; Fan, 2019. 112-145 betlar.

Imom Buxoriy; Hayoti, Ilmiy merosi va Ziyoratgohga Sayohat qo‘llanmasi. Kalishtip.uz, 2024. 5-15 betlar.

LIFELONG LEARNING – HAYOT DAVOMIDA TA’LIM OLISH SHAXSNING O‘ZINI-O‘ZI RIVOJLANTIRISHINING ZARURIY SHARTI

Xusainova Firuza Toxirovna
TDYU dotsenti

Jahon miqyosida kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sharoitida Lifelong Learning – hayot davomida ta’lim olish konsepsiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida shakllanmoqda. Xususan, bilim va ko‘nikmalar tez yangilanayotgani sababli, shaxsdan butun hayoti davomida uzluksiz ta’lim olishga tayyor bo‘lish talab etiladi. Axborot jamiyatida inson kapitali o‘zgarib, bilim va tajribani har qanday yoshda shakllantirish imkoniyati shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kasbiy faoliyat va shaxsiy rivojlanish jarayonida yuzaga kelayotgan yangi talablar insondan o‘z bilim va kompetensiyalarini muntazam yangilab borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, raqamlashuv va innovatsion texnologiyalarning jadal joriy etilishi mehnat bozoridagi talablarni o‘zgartirayotgan sharoitda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, hayot davomida ta’lim olish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi omil, balki jamiyatning barqaror innovatsion rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. [1]. Masalan, raqamlashuv jarayoni natijasida kasb talablarining o‘zgarishi mutaxassislardan qayta tayyorlash va muntazam malaka oshirish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishni talab etmoqda, bu esa hayot davomida ta’lim olish kontsepsiyasining amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Shaxs jamiyat bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy sub’yekt sifatida muayyan madaniy va me’yoriy muhit ta’sirida shakllanadi. Mazkur jarayonda ta’lim shaxsning kasbiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi hamda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim individual rivojlanishni ta’minlovchi imkoniyat sifatida emas, balki shaxs hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs rivojlanishi uzluksiz va dinamik xarakterga ega bo‘lib, u butun hayot davomida amalga oshadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonga

yo‘naltirilgan ta’lim shaxs rivojlanishining ichki mexanizmlarini uning hayot faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va kundalik tajribasi bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Natijada, ta’lim orqali shaxsda o‘zini-o‘zi boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va samarali faoliyat yuritish kompetensiyalari shakllanib, bu uning shaxsiy kamoloti hamda ijtimoiy faolligini ta’minlaydi [2]. Masalan, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni ijtimoiy faoliyat va kundalik hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish natijasida shaxsda o‘zini-o‘zi boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va samarali faoliyat yuritish kompetensiyalari shakllanadi, bu esa uning ijtimoiy faolligi va shaxsiy kamolotini ta’minlaydi.

Shaxsning tarkibiy xususiyatlaridan biri uning egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va odatlar majmuasi hisoblanadi. Mazkur majmua shaxsning turli faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyorlik darajasini, ushbu faoliyatning samaradorligi va tajriba salohiyatini belgilaydi. Ushbu sifatlar ta’lim va o‘rganish jarayonlari orqali shakllanib, bilim, ko‘nikma va malaka egallashning maqsadli hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlari natijasida rivojlanadi.

E.Fromm konsepsiyasiga ko‘ra, shaxs aqliy rivojlanishining yuksalishi tafakkurning real voqelikka moslashuv darajasini belgilaydi. Inson tomonidan idrok etiladigan dunyo manzarasi uning bilim saviyasi va bilish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ob’yektivlikka erishish aynan shu omillar orqali ta’minlanadi. Ob’yektivlik esa borliqni, tabiatni, atrofdagi insonlarni va shaxsning o‘zini haqiqiy holatida anglash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Inson ushbu ob’yektiv idrokka qanchalik yaqinlashsa, uning reallik bilan munosabati shunchalik mustahkamlanib, shaxsiy yetuklik darajasi oshib boradi hamda insoniy qadriyatlarga asoslangan jamiyatni barpo etish imkoniyatlari kengayadi [3].

Demak, shaxs bu insonning ichki sifatlari, jumladan, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va fikrlash uslubining o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lishidir. Reallikni qabul qilish va anglash tarzi shaxsning individual xususiyatlarini hamda uning shaxsiy mohiyatini belgilaydi. Insonning dunyoqarashi esa uning rivojlanish yo‘nalishini, faoliyat turini va xarakterini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning rivojlanishi odatda ijtimoiylashuv jarayoni orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon avval oila muhitida boshlanadi va shaxsning ilk ijtimoiy tajribasini shakllantirsa, keyinchalik ta’lim muassasalari va turli tashkilotlarda davom etadi. Shu orqali shaxs bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, hamda maxsus ta’lim jarayonlari orqali kasbiy va madaniy salohiyatni rivojlantiruvchi bilimlar majmuasi shakllanadi [4].

Ijtimoiylashuv shaxs rivojlanishining muhim pedagogik omili hisoblanadi. U ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni qabul qilishi hamda ijtimoiy rollarni egallashiga xizmat qiladi. Pedagogik jihatdan ijtimoiylashuv inson hayoti davomida uzluksiz amalga oshirilib, oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhit ta’sirida shaxsning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Hayot davomida ta’lim olish shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bu ta’lim turi shaxsga innovatsion muhit talablariga moslashish, bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, u nafaqat yangi mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga, balki tajribali kadrlarning

malakasini takomillashtirish va ijtimoiy faolligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning qadriyatlari, qarashlari va hayot tajribasini boyitadi, bu esa uning ijtimoiy muhitda samarali ishtirok etishi va hayot tarzini takomillashtirish uchun zamin yaratadi [5].

Abu Nasr Forobiy inson kamolotini faqat aqliy rivoj bilan chegaralash yetarli emasligini ta’kidlab, shaxsning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini uning haqiqiy rivojlanishining muhim sharti sifatida koʻradi. Uning “Baxt-saodatga erishish haqida” risolasida inson hayotida his-tuygʻularning oʻrni alohida ta’kidlanib, goʻzallikni anglash aql va nozik hissiy tafakkur uygʻunligiga bogʻliq ekani asoslab beriladi. Forobiyga koʻra, haqiqiy ma’rifat hissiy va aqliy qobiliyatlarning birligida shakllanadi, aql va idrok insonni mukammal shaxs sifatida kamol toptirsa, bilim unga ma’naviy qoniqish va baxt hissini taqdim etadi. Shu ma’noda, bilish jarayoni insonning ichki goʻzalligi va ma’naviy kamolini anglashga xizmat qiladi [6].

Hayot davomida ta’lim olish esa har bir shaxsga oʻz salohiyatini toʻlaqonli rivojlantirish imkonini yaratadi va u yosh, makon hamda ijtimoiy sharoitlardan qat’i nazar amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda shaxs bilimni passiv ravishda qabul qilmasdan, uni faol oʻzlashtirishi va ongli ravishda qoʻllashi talab etiladi. Bunday yondashuv shaxsdan proaktiv pozitsiyani, ta’limiy maqsadlar uchun shaxsiy javobgarlikni hamda uzluksiz oʻzini-oʻzi rivojlantirishga yoʻnaltirilgan aniq reja va intilishni talab etadi.

Shaxs hayot davomida ta’lim olishni oʻzini rivojlantirish va kamolotga erishish strategiyasi sifatida qabul qilsa, u quyidagi ustuvor qadriyatlarga e’tibor qaratadi:

shaxsiy, kasbiy va ma’naviy oʻsish uning hayotida asosiy ahamiyatga ega boʻladi;

vaqt rivojlanish uchun qimmatli resurs sifatida baholanib, uni samarali taqsimlash va undan oqilona foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish zarur boʻladi;

noyob bilimlar, tajriba va ijodiy salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlari tobora yuqori ahamiyatga ega boʻladi;

bu jarayon esa hayot davomida olingan bilim va koʻnikmalarning haqiqiy qimmatini va ularning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Lifelong Learning shaxs uchun bilim olish va rivojlanishning uzluksiz muhitini yaratadi, bu esa individual hayot yoʻlini shakllantirish va shaxsiy turmush uslubini rivojlantirishga yordam beradi. Hayot davomida ta’lim olishni shaxsiy strategiya sifatida qabul qilgan shaxs nafaqat bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi, balki qarorlarini mustaqil qabul qila oladi, ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatni anglaydi va faol ishtirok etadi. Bunday shaxs oʻz tashabbusi orqali ijtimoiy muhitda ijobiy oʻzgarishlarni ilgari surishi, atrofdagilar uchun ilhom manbai boʻlishi va jamiyatda ijtimoiy kapitalni mustahkamlashi mumkin. Ushbu jarayon shaxs rivoji va jamiyat taraqqiyoti oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni yanada aniq koʻrsatadi.

Lifelong Learning konseptsiyasi faqat bilim va koʻnikmalarni egallash jarayoni bilan cheklanib qolmay, balki chuqur etik hamda gumanistik gʻoyalarni ham oʻzida mujassam etadi. Ushbu yondashuvning asosiy qadriyatlari bilimga doimiy intilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ochiqlik, jamiyat manfaatlariga xizmat qilish hamda inson aqli, ruhi va jismoniy rivoji oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni tan olishga asoslanadi [7]. Shu ma’noda, butun hayot davomida ta’lim olish jarayoni shaxsning kasbiy va intellektual rivojlanishini

ta’minlash bilan bir qatorda, uning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Lifelong Learning zamonaviy jamiyatda shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun muhim strategik omil ekanligi ta’kidlanadi. Bilim va ko‘nikmalar tez o‘zgarib borayotgan murakkab muhitda shaxs butun hayoti davomida uzluksiz ta’lim olishga majbur. Bu jarayon nafaqat individual rivojlanishni, balki jamiyatning barqaror va innovatsion rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shaxs rivojlanishi dinamik jarayon bo‘lib, ijtimoiylashuv orqali ro‘yobga chiqadi. Oila, ta’lim muassasalari va turli tashkilotlardagi tajriba va bilimlar shaxsga kasbiy salohiyat va ijtimoiy faollikni shakllantirishda yordam beradi. Shu ma’noda, Lifelong Learning shaxsni faol va mustaqil ishtirokchiga aylantirib, uning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini samarali boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Шахмарова Р.Р. Непрерывное образование – основа развития личности в современном обществе. [Электронный ресурс] – https://cyberleninka.ru/article/n/nepreryvnoe-obrazovanie-osnova-razvitiya-lichnosti-v-sovremennom-obschestve.

Заворотнева Н.К. Личность в образовательном процессе. Вестник Донецкого педагогического института, № 3, 2017. – С. 15.

Фромм Э. Здоровое общество. – М.: Изд. АСТ. 2006 г. С. 150.

Майпиль Е.С. Роль непрерывного профессионального образования в процессе социализации личности. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития: Материалы XVII между¬народной конференции 26–28 сентября 2019 г. – СПб.: Изд-во ПБГЭУ, 2019. – С. 93.

Council Recommendation on Key Competences for Lifelong Learning. (2018). http://keepcalmandteachenglish.blogspot.com/2018/03/eu-key-competences-for-lifelong.html.

Al-Farabi Treatise on the meanings (words) intellect [Text]: / Al-Farabi Philosophical treatises. Alma-Ata 1970 p.18

Smith, J. (2019). Lifelong learning and its socio-economic impact. Journal of Education and Society, 15(3), 45-60.

TALABALARDA MENTAL DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHDA OILA – JAMIYATNING ASOSIY IJTIMOIY BO‘G‘INI SIFATIDA.

Dilmurod Xushbaqov Qurbonmurodovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy **bo‘g‘ini sifatida. Oila va uning vazifalari.** Oila-jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo‘g‘inidir. U o‘zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat

va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko‘rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo‘yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevor yaratilga-ni ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oila har qaysi jamiyatning kichik bo‘g‘inidir, oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantirish oildan boshlanadi, shu bilan birga oila-murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-maydagi PF-3434-raqamli farmoni va unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi bo'yicha bugungi kunda respublikamizda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'trsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi, oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi , uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat mafaatdor bo‘ladi. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozimligi zarur. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagi “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalshning ustivor yo'nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturi to'g'risida”gi 242-sonli qarorining bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilashunos olimlar: D.Aabdullaeva, N.Islomova, F.Xabibullaevlar tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha tasniflangan:

Bu o'rinda oilaning xo'jalik-maishiy va emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni qondiruvchi funksiyalari; oilaning iqtisodiy funksiyasi - oila iqtisodi, byudjeti, daromadi, kundalik xarajati; oilaning reproduktiv funksiyasi (jamiyatning biologi uzluksizligini taminlash); oilaning tarbiyaviy funksiyasi – oila a'zolarining aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga asos solinishi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz an'analarimizning bu boradagi ahamiyati; jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiritilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 25-avgustdagi ‘'Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 365- sonli qarori, 20162- yil 5-iyuldagi “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish,ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustivor yo'nalashlarini amalga oshirishning maqsadli dasturini takomillashtirish to'g'risida”gi 242- sonli qarorlarining amalda bajarilishi jamiyatimizdagi oilalarning mustahkamlanishi va sog'lom avlod tug'ilishi kabi muammolar yechimini topishga qaratilgan.

Oila – uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra : to'liq, noto'liq va qayta:

dan, to'liqligiga ko'ra:

dan, bo'g'inlar soniga ko'ra:nulear (ota –ona va bolalardan

iborat) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

dan,bolalar soniga ko'ra:
dan, er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra;
dan , er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra;
dan, regional jihatlarga ko'ra farqlanadi.

Oilada asosan quyidagi omillarga tayaniladi: ruhiy xotirjamlik, samimiylik munosabatlarining shakllangan bo'lishi, ota-onaning obro'si yuqori darajadaligi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashda alohida e'tibor berish lozimligidir. Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, kommunikativ, rekreativ, tarbiyaviy funksiyalarida jamiyatning, davlatning ahamiyati beqiyos. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.06.2017-yildagi PF-3434- sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Xudayqulov X.J.Boboqulova D.M. Pedagogika O‘quv qo‘llanma / Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziè”, 2021.

3. Axrorova.Z. B. (2023). Mahmudxo‘ja Behbudiyning Ma’naviyaxloqiy tarbiyaga oid qarashlari. Academic research in educational sciyences, 5(NUU Conference 2).

4. Allayarova S. N. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishning dolzarb masalalari.Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2021. – №. 5 (102).S. 17-25.

5. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innnavayion pedagogik texnologiyalar, (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). –Toshkent, 2013. 277-b.

GLOBALLASHUV VA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING YOSHLAR MA‘NAVIYATIGA TA‘SIRI

Yarashov Sarvar Norqul o‘g‘li
“University of Management and Future Technologies”
nodavlat oliy ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi

Kirish. XXI asrning asosiy belgilaridan biri — globallashuv va raqamli axborot texnologiyalarining mislsiz sur’atlar bilan rivojlanishi, insonning dunyoni idrok etish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirayotgan dinamik jarayondir. Global axborot makonining shakllanishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvlarning soddalashuvi, turli madaniyatlarning aralashuvi yoshlar ongida yangi madaniy kodlar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Zamonaviy yoshlar nafaqat milliy madaniyatning, balki global madaniyatning to‘laqonli sub’ektlariga aylanmoqda. Aynan shu jarayonda ma’naviyat masalasi dolzarblik kasb etadi. Chunki yoshlarning qadriyatlari, e‘tiqodlari, axloqiy qarashlari bevosita media muhiti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq holda shakllanmoqda.

Sotsiolog, olim va siyosatchi Manuel Kastels fikriga ko‘ra “Axborot davri jamiyati nafaqat texnologiyalar jamiyati, balki tarmoqlar orqali qayta tashkil topgan ijtimoiy munosabatlar jamiyatidir” [1]. Bu munosabatlar yoshlar ma’naviyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqola ana shu ta’sirning mohiyatini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qisim. Globallashuv jarayonida madaniy chegaralar nisbatan shaffoflashdi, turli millat va mintaqalarga mansub axloqiy me’yorlar bir-biriga yaqinlashdi. Bu holat Ronald Robertson tomonidan “glokalizatsiya” (globall tendensiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish) tushunchasi bilan izohlangan bo‘lib, unda mahalliylik va globallik bir vaqtning o‘zida amal qilishi ta‘kidlanadi [2]. Ushbu jarayonda yoshlar orasida quyidagi transformatsiyalar kuzatiladi:

—qadriyatlar tizimining pluralizatsiyasi;

—madaniy identifikatsiyaning ko‘p qatlamli shakllanishi;

—global axloqiy mezonlar va milliy ma’naviy qadriyatlarning raqobati;

— iste‘mol madaniyati va individuallashuv jarayonlarining kuchayishi.

Yuqorida sanalgan o‘zgarishlar ma‘naviyatning shakllanishiga ham xavf, ham imkoniyat sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Imkoniyat shundaki, biror xalqda mavjud bo‘lgan fan, texnologiya yoki madaniyat sohalaridagi yutuq globallashuv ta‘sirida boshqa xalqlarga ham tezda yetib boradi. Va ular ham tayyor hosilalardan turmushda foydalanadi. Bu esa butun insoniyatning farovon yashashida xizmat qilishi mumkin. Xavfli jihati esa, bir xalqda paydo bo‘lgan ijtimoiy xavfli odatlar, axloqiy buzulishlar, kasalliklar hamda shu kabi boshqa zararli hodisa va jarayonlar ham tez tarqaladi.

Bugun raqamli texnologiyalar davrida yashayapmiz. Raqamli texnologiyalar ma’naviy jarayonlarni o‘zgartirayotgan asosiy omilllardan biriga aylandi. Hatto insonlarning raqamli obrazi shakllanyapti. Internet va raqamli texnalogiyalar paydo bo‘lishidan oldin insonlar tabiiy ravishda oila, ta‘lim muassasalari va boshqa jamoalarda yuzma-yuz muloqotlarda ijtimoiylashardi. Endi esa ijtimoiy tarmoqlar, umuman raqamli platformalar yangi ijtimoiylashuv makoniga aylandi. Ko‘pchiligimiz, shu jumladan yoshlar, raqamli platformalarga qattiq bog‘landi. Hatto shu darajaga yetildiki, endi bilim va axborotlarni ham deyarli to‘liq internet va ijtimoiy tarmoqlardan olyapmiz. Bu jarayon mutlaqo yomon degan fikrdan yiroqmiz. Internet va ijtimoiy tarmoqlar bizga bilim va axborot almashishni qulaylashtirdi. Vositaning ezgu yoki yovuz maqsadda ishlatilishi insonga bog‘liq. Ular ezgu maqsadda ishlatilyapti va jamiyat farovonligiga hissa qo‘shyapti. Shu bilan birga ba‘zi muammolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lyapti.

Bir qancha mutaxasislar, jumladan N. Klouson “information overload” (ortiqcha axborot bosimi) konsepsiyasini ilgari surib, inson ongining haddan ziyod axborot oqimi sabab tanqidiy fiklashi susayishi mumkinligini ta‘kidlashmoqda[3]. Bu esa yoshlarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlariga, qaror qabul qilish mexanizmiga va eng muhimi diqqatni jamlash ko‘nikmalariga sa‘lbiy ta‘sir qilmoqda. Ular bugun mobil qurilmalarga qattiq bog‘langan. Massachusets Texnologiyalar Universiteti professori Sherri Terkl bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘smirlarning 44 foizi hech qachon, hatto sport bilan shug‘ullanayotganda, oila yoki do‘stlar bilan ovqatlanayotganda ham, telefonlaridan ajramaydi. Yuzma-yuz suhbatlar onlayn munosabatlar tomonidan chetga surib tashlangan. Ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketgan yoshlarning butun bir avlodi o‘zgalarni tinglash,

suhbatdoshning koʻziga qarash yoki tana harakatini tushunish qobiliyatiga ega boʻlmasligi mumkin, degan qoʻrquvlar bor [4]. Texnologiya va madaniyat sohalari boʻyicha mutaxasis Nikolas Karrning fikricha, raqamli dunyoda qanchalik koʻp vaqt sarflaydigan boʻlsak, diqqatni jamlash xususiyatimiz yomonlashgani sababli idrokimiz shunchalik pasayib boradi. Uning fikricha: “Internet xayolni boʻlish va eʻtiborni chalgʻitishga moʻljallangan tizimdir. Tez-tez roʻy beradigan chalgʻish fikrlarimizni boʻlib yuboradi, xotiramizni susaytiradi va asabimizni taranglashtiradi. Fikrlash jarayoni qanchalik chuqur boʻlsa, chalgʻishning zarari shunchalik kuchli boʻladi”[5]. Va kuzatuvlar shuni koʻrsatadiki, axborotning koʻpligi eʻtiborning kamayishiga olib keladi.

Professor Sherri Terkl yana shuni taʻkidlaydiki, onlayn platformalar “koʻp qatlamli men” fenomenini shakllantiradi. Real va virtual oʻzlik oʻrtasida farq bor. Insonlar real hayotda bir shaklda, virtual dunyoda esa boshqa shaklda namoyaon boʻladi. Mediadada koʻpincha shov-shuvli, hayotning soddalashtirilgan tasviri va isteʻmolchilik qadryatlari targʻib qilinadi. Psixolog olim Albert Banduraning ijtimoiy oʻrganish nazariyasiga koʻra, yoshlar xulq-atvori koʻp jihatdan kuzatish orqali shakllanadi [6]. Virtual makonda namuna sifatida koʻrinadigan obrazlar koʻpincha real hayotdan farq qiladi. Bunday vaziyatda yoshlar maʻnaviy barqarorligini taminlash muhim masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborot makonida yoshlarning axloqiy-ruhiy immunitetini shakllantirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

Raqamli tizmlar va media madaniyati savodxonligi dasturlarini kuchaytirish;

Yoshlarning maʻnaviy ehtiyojlariga mos milliy qadryatlarga uygʻun raqamli kontentlar ishlab chiqish;

Ota-ona va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;

Yoshlar uchun offline ilmiy dialog maydonlari faoliyatini keng yoʻlga qoʻyish.

Xulosa. Globallashuv va raqamli texnologiyalar yoshlar maʻnaviyatini shakllantiruvchi eng taʻsirchan kuchlardan biriga aylandi. Bu jarayon ikki yoqlama xarakterga ega: oʻzida katta imkoniyatlar bilan birga muayyan xavflarni ham mujassam etadi. Shuning uchun maʻnaviy immunitetni mustahkamlash, media madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlashni yuksaltirish va milliy maʻnaviy merosni zamonaviy shaklda targʻib qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Biz raqamli texnologiyalarni rad qilish yoki uning salbiy taʻsiri sababli cheklashimiz emas, balki undan samarali foydalanishimiz, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirishimiz zarur. Chunki jamiyatning texnologik innovatsiyani qabul qilish darajasi uning taraqqiyotida hal qiluvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996.

Robertson, R. Globalization: Social Theory and Global Culture. Sage, 1992.

Klouson, N. Information Overload: Causes and Consequences. MIT Press, 2015.

Saymon Kuper, “Log out, switch off, join in,” FT Magazine, 2015.10.02. http://www.ft.com/intl/cms/s/0/fc76fce2-67b3-11e5-97d0-1456a776a4f5.html

Nikolas Karr, The Shallows: How the Internet is changing the way we think, read and remember, Atlantic Books, 2010.

Bandura, A. Social Learning Theory. Prentice-Holl, 1977.

ENHANCING EFL LISTENING SKILLS THROUGH AUTHENTIC LEARNING MATERIALS

Yaxyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi
Farg`ona davlat universiteti magistranti

Introduction. The growing demand for communicative competence in English has highlighted the importance of improving listening skills among English as Foreign Language (EFL) learners. Listening, being one of the most crucial language skills, often poses significant challenges for learners, especially when they are exposed to artificial classroom materials that may not reflect real-life language use. In this context, authentic materials—such as podcasts, radio programs, news broadcasts, and interviews—have become a key tool in language education, offering learners opportunities to engage with real-world language. These materials provide learners with the chance to experience natural language flow, various accents, and cultural nuances, all of which are essential for effective communication.

Despite the growing recognition of the value of authentic materials, there remains a gap in the literature regarding their practical application in enhancing EFL learners' listening skills. This gap is particularly evident in language learning environments where traditional, non-authentic resources are still predominantly used. Given the rapid advancement in technology and the increasing availability of online resources, it is crucial to explore how authentic materials can be effectively integrated into EFL curricula to meet learners' needs and improve their listening proficiency.

The actuality of this research lies in addressing this gap by investigating the impact of authentic materials on EFL learners' listening abilities. By doing so, this study aims to provide valuable insights for language educators seeking to enhance listening instruction and adapt to the evolving needs of learners in an increasingly globalized world. Furthermore, the findings can inform the development of more effective and engaging teaching strategies, contributing to the overall improvement of language education.

Literature review. Authentic materials have been widely discussed in language learning research as effective tools for exposing learners to real-life communication. These materials refer to any spoken or written texts that are not created for pedagogical purposes but are instead used in real-world communication by native speakers. Over the years, scholars have explored the role of authentic materials in enhancing language proficiency, particularly in listening and speaking skills, as they provide learners with exposure to naturally occurring linguistic input.

The term authentic materials was first introduced in language teaching in the 1970s as part of the Communicative Language Teaching (CLT) approach. Nunan defines authentic materials as spoken or written texts that are produced for a real-life communicative purpose rather than for classroom instruction.[1] "Second Language Teaching & Learning" Nunan claims that authentic materials as texts, audio, or video materials that are not originally created for language learning but for real-world

communication. He contrasts them with pedagogically constructed materials, which are designed specifically for learners, often simplifying language input. According to Nunan, authentic materials are valuable because they expose learners to real-life discourse, including natural pronunciation, hesitation, informal language, and culturally embedded meanings.

In "Language Teaching Methodology" Nunan highlights the importance of authenticity in language teaching, stating that learners should be given opportunities to engage with genuine texts and spoken discourse.[2] He argues that exposure to authentic materials helps bridge the gap between classroom learning and real-world communication, making the learning process more meaningful and effective. Peacock further elaborates on this definition, stating that authentic materials are those that have been created without an educational intention, making them distinct from simplified or adapted texts designed for learners. A significant contribution to the study of authentic materials in language learning comes from Matthew Peacock particularly in his research on their impact on motivation and effectiveness in the classroom.[3] His most cited work, "The Effect of Authentic Materials on the Motivation of EFL Learners" provides a detailed discussion of the definition of authentic materials and their role in language instruction.[4]

Types and Sources of Authentic Listening Materials. Authentic listening materials play a crucial role in second language acquisition, particularly in developing EFL learners' listening skills. Numerous researchers have explored different types and sources of authentic materials, emphasizing their impact on language comprehension, motivation, and real-world communication skills. Authentic listening materials are broadly defined as spoken texts that are not originally designed for language learners but rather for native speakers in real communicative situations (Gilmore, 2007).[5] These materials expose learners to natural speech patterns, accents, intonation, and discourse structures, which can significantly enhance their listening comprehension abilities.

Researchers categorize authentic listening materials based on their content, format, and communicative purpose. One of the most commonly cited typologies comes from Rost (2011), who classifies them into monologic and dialogic listening texts.[6] Monologic materials include news reports, lectures, speeches, audiobooks, and podcasts, where a single speaker delivers information without interaction. These materials are beneficial for training learners in academic and formal listening comprehension, as they expose them to structured speech and discourse organization. Dialogic materials, on the other hand, consist of conversations, interviews, discussions, and talk shows, where multiple speakers interact. These materials are particularly valuable for developing interactive listening skills, as they expose learners to spontaneous speech, turn-taking, overlapping speech, and various discourse markers. Gilmore (2007) highlights that dialogic materials are more effective in teaching natural listening skills, as they reflect the unpredictability and fluidity of real-life communication.[7]

With the rise of internet-based resources, learners now have access to an unprecedented variety of authentic listening materials. Studies by Vandergrift and Goh highlight that YouTube, TED Talks, online lectures, and vlogs have become widely used in

EFL listening instruction. These materials offer learners exposure to diverse accents, real-world speech rates, and a variety of discourse styles, making them ideal for developing listening fluency. Additionally, interactive platforms such as BBC Learning English, VOA Learning English, and language learning apps provide learners with structured yet authentic listening experiences, incorporating transcripts, comprehension exercises, and scaffolding techniques to support understanding.

Podcasts have gained particular attention in EFL research due to their flexibility, accessibility, and diverse content. Podcasts allow learners to engage in self-directed listening practice, enabling them to choose topics of interest and adjust playback settings to match their proficiency level. Podcasts also provide continuous exposure to authentic speech, reinforcing Krashen's Input Hypothesis, which stresses the importance of sustained listening exposure for language acquisition. Moreover, podcasts often include natural speech features such as fillers, hesitations, and varying intonation, which are essential for training learners in real-time listening comprehension.

Conclusion. In conclusion, the integration of authentic learning materials into EFL classrooms plays a crucial role in enhancing learners' listening skills. Exposure to real-life audio recordings, podcasts, interviews, and videos allows students to engage with natural language, improving their comprehension of pronunciation, intonation, and speech patterns. Authentic materials not only increase learners' motivation but also provide meaningful contexts that bridge the gap between classroom learning and real-world communication. Therefore, educators are encouraged to incorporate authentic resources systematically, as they significantly contribute to the development of students' listening proficiency and overall communicative competence.

Reference:

Nunan, D. (1999). Second language teaching & learning. Heinle & Heinle Publishers, p. 100-120

Nunan (1999) "Language Teaching Methodology" Prentice Hall Press, p.120-130

Peacock, M. (1997). The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners. ELT Journal, 51(2), p. 144–156.

Alex Gilmore (2007) "Authentic materials and authenticity in foreign language learning" Language Teaching, Cambridge University Press, p. 20-55

Rost, M. (2011). Teaching and researching listening (2nd ed.). Pearson, p. 240-255

Gilmore, A. (2004). A comparison of textbook and authentic interactions. ELT Journal, 58(4), p. 363–374.

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY O‘ZGARISHLAR KONTEKSTIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Yo’ldoshova Nafisa Izzatulla qizi
O’zbekiston Milliy Universiteti talabas**i**

Kirish. Hozirgi globallashuv davri insonlar, ayniqsa yoshlar ongini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy omillarning keskin o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar, transmilliy madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi, ommaviy axborot vositalarining cheklanmagan ta’sir doirasi, migratsion jarayonlar va madaniy almashinuvning jadallashuvi yoshlar ma’naviy olami uchun yangi sharoit yaratmoqda. Bunday vaziyatda milliy identitet, an’anaviy qadriyatlar, ma’naviy barqarorlik, dunyoqarash va tarbiyaviy ta’sir mexanizmlari o‘ziga xos sinovdan o‘tmoqda. Shu bilan birga, global madaniy makon yoshlar uchun intellektual rivoj, kreativ tafakkur, ochiq muloqot madaniyati va tolerantlikni shakllantiruvchi kuchli resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda [3, 54] . Ushbu maqolada global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar jarayonining yoshlar ma’naviyatiga ko‘rsatadigan ta’siri IMRAD tamoyillari asosida tahlil qilinadi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida sifatli tahlil uslubiga tayangan yondashuv qo‘llanildi. Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bo‘yicha xalqaro ilmiy manbalar, turli mamlakatlar tajribasiga oid akademik maqolalar va ekspert xulosalari o‘rganildi. Ma’lumotlarni talqin qilishda kontent tahlili metodiga murojaat qilindi, bunda ommaviy axborot vositalarida, ilmiy nashrlarda va xalqaro tashkilotlarning ochiq manbalarida chop etilgan materiallar asosiy empirik manba sifatida xizmat qildi. Raqamli madaniyatning yoshlar ongiga ta’sirini ko‘rib chiqishda kundalik media iste’moli, internetdan foydalanish xarakteri, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shakllari va axborot oqimining psixologik hamda ma’naviy oqibatlari kuzatuv usuli orqali o‘rganildi. Turli mintaqalardagi global jarayonlar va ularning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini aniqlash maqsadida taqqoslovchi talqin yondashuvi qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali global o‘zgarishlarning yoshlar ma’naviy rivoji bilan bog‘liq asosiy tendensiyalari aniqlashga imkon tug‘ildi.

Natijalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot globalizatsiyasi yoshlar ma’naviyati shakllanishida markaziy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Internet tarmoqlarida tarqalayotgan turli madaniy oqimlar, xilma-xil dunyoqarashlar va qadriyatlar tizimi yoshlarning o‘zini anglash jarayonini tezlashtirmoqda, biroq uning barqarorligini ham izdan chiqarishi mumkin [1, 20]. Raqamli muhit yoshlar ongida mahalliy qadriyatlardan uzoqlashish yoki ularga bo‘lgan munosabatning susayishi jarayonini keltirib chiqarayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan ularning intellektual salohiyatini kengaytiruvchi qudratga ham ega. Yoshlar ko‘p holatlarda virtual olamdan olingan ma’lumotlarni real hayot mezonlari bilan uyg‘unlashtirishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu jarayon tafakkurda aralash identitet shakllanishiga sabab bo‘lmoqda, ya’ni yoshlar bir vaqtning o‘zida ham global, ham milliy qadriyatlarga mansublikni his etadi.

Tahlillar shuningdek, an’anaviy tarbiya institutlarining ta’sir doirasi tobora qisqarayotganini ko‘rsatadi. Oila va mahalla kabi ma’naviy tayanchlar o‘rnini ko‘pincha virtual axborot maydoni egallab bormoqda. Shunga qaramay, global madaniy jarayonlar

yoshlar ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jihatlarga ham ega. Ochiq dunyoqarash, turli madaniyatlarni tan olish, ijodkorlik, innovatsion fikrlash, xalqaro madaniy almashinuvning kengayishi va ko‘p tillilik yoshlar orasida yanada mustahkamlanmoqda. Ammo shu bilan birga, iste’molchilik madaniyati, yolg‘on idealizatsiya, virtual muvaffaqiyat standartlari, ekstremistik g‘oyalar va zararli axborot oqimlari ma’naviy barqarorlikni zaiflashtiruvchi omil sifatida qayd etiladi.

Muhokama. Olingan natijalar global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar yoshlar ma’naviyatida murakkab va ko‘p qirrali jarayonlarni keltirib chiqarayotganini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonning to‘xtatilishi yoki cheklanishi mumkin emas, chunki u hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Muhimi, global madaniy bosimlar qarshisida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, raqamli axborot oqimini ongli boshqarish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi asosida barqaror identitetni shakllantirish zarur [4, 12]. Yoshlar bilan ishlashda an’anaviy tarbiya shakllarining o‘zi yetarli bo‘lmay qolayotgani sababli oila, ta’lim muassasalari, mahalla, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladigan kompleks yondashuvga ehtiyoj ortib bormoqda. Axborot gigiyenasi, media savodxonlik, raqamli madaniyat bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish yoshlarning global dunyoda ma’naviy barqaror yashashi uchun muhim omilga aylanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida yoshlar ma’naviyati milliy taraqqiyotning strategik omili sifatida ko‘rilmoqda. Mazkur jarayonning ijobiy tomonlaridan oqilona foydalanish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish zamonaviy ta’lim, tarbiya va ijtimoiy-ma’naviy siyosatning muhim vazifalaridan biridir. Shu bois globallashuv ta’sirida shakllanayotgan ma’naviy muhitni chuqur o‘rganish, yoshlarning ehtiyoj va qadriyatlaridagi o‘zgarishlarni muntazam monitoring qilish ham nihoyatda muhimdir. Bu jarayon ma’naviy tarbiya strategiyalarini zamonga mos ravishda yangilash, yosh avlodning barqaror dunyoqarashini shakllantirish va ularni global raqobatga tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Jo‘rayev, A. Globallashuv va yoshlar dunyoqarashi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

Mahmudov, A. Yoshlar ma’naviyati: muammolar va yechimlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

Ma’rufov, E. “Raqamli madaniyat va yoshlar identiteti.” O‘zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, 2022.

Karimov, D. Yoshlar ma’naviy dunyosi: zamonaviy talqinlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.

Hall, S. Questions of Cultural Identity. London: SAGE Publications, 1996.

Bauman, Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.

UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris, 2021.

G‘ofurov, M. “Globallashuv va madaniy jarayonlar.” Ijtimoiy falsafa axborotnomasi, 2020.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: ISLOHOTLAR ORQALI INSON HUQUQLARI VA HUQUQIY MADANIYATNING RIVOJI

Yo'ldosheva Nilufar Obidjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat hayotining asosiy va muhim hujjatidir, u davlat tuzilmasining va inson huquqlarining suvereniy asoslarini belgilab, huquqiy madaniyatning rivojlanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiya – jamiyatda yashovchi har bir fuqaro uchun huquq va erkinliklarning kafolatidir, shuningdek, davlatning institutlari va tashkilotlarining faoliyatini rivojlantiruvchi muqaddas huquqiy poytaxtdir. Uning qoidalari va normalari amaldagi qonunchilikka asos bo‘lib, inson huquqlarining himoyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

1992-yildan boshlab, yuritilgan konstitutsion o‘zgarishlar jamiyatda inson huquqlari va erkinliklar kengayishini ta’minlab, huquqiy madaniyatni yanada rivojlantirish uchun muhim qadamlar bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar insonlarning asosiy huquqlari, xavfsizlik, shaxsiy hayotga hurmat, fikrlash va fikr bildirishi erkinligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, davlat boshqaruvidagi islohotlarga asos berdi. O‘zgarishlar, shuningdek, qonun ustunligi, adolat va manaviy-ijtimoiy uyg‘unlik prinsiplari hamda korrupsiyaga qarshi kurash kabi qadriyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, konstitutsiyada inson huquqlarining yirik garantiyalari belgilangan bo‘lib, ular fuqaro uchun hayot, erkinlik, tenglik va din erkinligini ta’minlaydi. Fuqarolik, xavfsizlik, shaxsiy hayot, fikr va ifoda erkinligi kabi asosiy huquqlar qonun bilan qat’iy himoya qilinadi. Bu huquqlar jamiyatdagi yashash sifatini oshirish, insonlarning shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirib, davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat jamiyatdagi qadriyatlar, qonun ustunligi, sud-inoyat erkinligi, madaniyat va ta’lim rivojiga turtki bo‘lib, fuqarolarning ong va tafakkur darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash va ochiqlik prinsiplarini kengaytirish orqali haqiqiy huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Konstitutsiya va huquqiy madaniyat orqali, insonlar va jamiyat o‘rtasida doimiy uyg‘unlik va ishonch shakllantiriladi, bu esa kelajakda barqaror va rivojlangan davlat qurilishining muhim poydevorini tashkil etadi.1992-yildan boshlab қараб чиқилган konstitutsiyaviy o‘zgartirishlar, O‘zbekiston davlatining demokratik rivojlanishini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish yo‘lidagi muhim qadamlar bo‘ldi. Har bir yangilanish mamlakatni yangi iqtisodiy, siyosiy va huquqiy muhitga moslashtirishga qaratildi, shu bilan birga, inson shaxsining erkinliklari va huquqlarini kengaytirish, davlat hokimiyatining shaffofligini ta’minlashga intildi. 1993-yil qabul qilingan Konstitutsiya asosiy huquq va erkinliklarni, shuningdek, inson qalbi va qadrini yuqori baholovchi prinsiplarga asoslanadi. So‘nggi yillarda, bir qator muhim o‘zgartirishlar amalga oshirildi, ular mamlakatda huquqiy madaniyatining chuqurlashishini, qonun ustunligi va inson huquqlariga hurmat sifatining oshishini ta’minladi. Xususan, inson huquqlarini kafolatlovchi normativ-huquqiy bazani kengaytirish, shaxsning shaxsiy erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash hamda davlat va fuqarolar o‘rtasida hamkorlikni

rivojlantirishga yo‘naltirilgan normativ hujjatlar keng joriy etildi. Shuningdek, demokratiya, adolat va inson huquqlari sohasida olib borilayotgan islohotlar milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirishga xizmat qildi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va davlat hokimiyatining qonuniy asoslarini mustahkamlashga olib keldi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi. Shu bilan birga, 1992-yildan bugungi kungacha amalga oshirilgan konstitutsion o‘zgartirishlar, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib, inson huquqlari va demokratik institutlarning to‘g‘ri rivojlanishiga zamin yaratdi. Mustaqillik davrining poydevori sifatida inson huquqlari va erkinliklarning rivoji mamlakatimizning konstitutsiyaviy qurilishida muhim o‘rin tutdi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat suvereniteti va inson huquqlarini ta’minlash masalasida yangi bosqichning asosisini yaratdi. Bu konstitutsiyada inson shaxsi, uning huquqlari va erkinliklari davlat bilan inson o‘rtasidagi asosiy munosabatlarning markaziy elementiga aylandi. Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan e’tibor, avvalo, shaxsning qadr-qimmatini himoya qilish, shaxsiy hayotga hurmat va erkin fikrlash kabi asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, inson huquqlarining majburiy va qonun bilan ta’minlanishi ustuvorligini ta’kidlash orqali davlatning inson huquqlarini ta’minlashdagi mas’uliyatini kuchaytirdi. Ushbu davrda inson huquqlari va erkinliklar davlat boshqaruvida asosiy qadriyat sifatida belgilandi va ular huquqiy islohotlarning asosiy shariti sifatida muhim o‘rin tutdi.

Bu yuksak qadriyatlar, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarning amaldagi normativ hujjatlar, yuridik xujjatlar bilan mustahkamlash jarayonida rivojlandi. Konstitutsiyada inson huquqlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va erkinliklar keng ko‘lamda belgilandi va ularning amal qilishini ta’minlash uchun muayyan mexanizmlar joriy etildi. Mana shulardan biri – inson shaxsi, diniy erkinliklar, fikr va so‘z erkinligi bilan bog‘liq huquq va erkinliklarning kafolatlaridir. Shu bilan birga, inson huquqlari va erkinliklar sohasidagi erkinliklarning kengayishi va rivojlanishi mamlakatimiz uchun ijtimoiy adolat, barqarorlik va vaqtoqning huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi. Bu davrda inson huquqlariga bo‘lgan e’tibor davlatning demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi muhim yuksalishi sifatida baholandi. Boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar, inson huquqlarini ta’minlash mexanizmlari va yuridik ish faoliyatining takomillashtirilishi inson shaxsi, diniy erkinliklar, fikr va so‘z erkinligi bilan bog‘liq huquq va erkinliklarning kafolatlaridir. Shu bilan birga, inson huquqlari va erkinliklar sohasidagi erkinliklarning kengayishi va rivojlanishi mamlakatimiz uchun ijtimoiy adolat, barqarorlik va vaqtoqning huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi. Bu davrda inson huquqlariga bo‘lgan e’tibor davlatning demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi muhim yuksalishi sifatida baholandi. Boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar, inson huquqlarini ta’minlash mexanizmlari va yuridik ish faoliyatining takomillashtirilishi inson shaxsining huquqlari va erkinliklarini kengaytirishga xizmat qildi. Shunday qilib, mustaqillik davridagi inson huquqlari va erkinliklar borasida olib borilgan islohotlar mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga moslashishini ta’minladi va demokratik qadriyatlarni rivojlantirish yo‘lida poydevor

bo‘ldi.Huquqiy madaniyatning tabiiy o‘sishi qonun-qurol va adolat uyg‘unligi bilan bog‘liq bo‘lib, yurtimizda inson huquqlari va huquqiy qadriyatlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda, qonunlarning amalga oshirishdagi samaradorligi va adolatning hukmronligi muhim o‘rin tutadi, chunki ular jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishiga asos bo‘ladi. Qonunlar faqat yozma hujjat emas, balki hayot bilan uyg‘un bo‘lgan, insonlarning kundalik amaliyotida o‘z yozuvlaridan joy oladigan normativ aktylar tarzida qaraladi. Shuningdek, adolat prinsipi — qonunlar bilan ta’minlangan va amaldagi adolat tizimining asosidir. Adolatga intilish, har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratish va ularni himoya qilish, huquqiy madaniyatning rivojlanishining asosi hisoblanadi. Bu jarayonda, qonunlarning insonlarning ongiga singib, ularning huquqiy ongini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda qonun va adolat uyg‘unligi, huquqiy madaniyatni mustahkamlash orqali, inson huquqlarining himoyasini ta’minlaydi, shuningdek, huquqiy farovonlik va ijtimoiy barqarorlikni yaratadi. Natijada, huquqiy madaniyatning rivojlanishi, inson huquqlarining kengayishi va huquqiy oddiylikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat huquqiy norma va institutsiyalarni mustahkamlash, balki jamiyatda axloqiy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lib, odil va adolatli hukmronlikni ta’minlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi.Kelajak uchun yo‘l-yo‘lakay mushohada asosida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining islohotlar orqali inson huquqlari va huquqiy madaniyatning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, konstitutsiyada inson huquqlarining kengayishi va ularni himoya qilish mexanizmlarining takomillashuvi davlatning demokratik fundamental asoslarini mustahkamladi. Bu jarayon, inson shaxsining huquq va erkinliklarini kafolatlovchi normativ-huquqiy asoslarning kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omilga aylandi.

Shuningdek, huquqiy madaniyatning o‘sishi milliy qadriyatlar va global huquqiy standartlar o‘rtasida uyg‘unlikni yaratishga xizmat qilmoqda. Qonun ustunligi va sud erkinligi prinsiplari orqali davlat idoralarining faoliyatida shaffoflik va adolat ta'minlanmoqda, bu esa fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga bo‘lgan ishonchni oshirmoqda. Manaviy-ijtimoiy uyg‘unlik, madaniyat, ta’lim va ilm-fan rivojlanishi hududiy hamda milliy taraqqiyot uchun asosiy omilga aylandi. Korrupsiyaga qarshi kurash va ochiqlik esa jamiyatda adolat va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatning ishonch qismiga tayanib, fuqarolik jamg‘armalarining rivojlanishi, yoshlar va ayollar uchun imkoniyatlarning kengayishi, xalqaro hamkorlikning qonuniy-asosiy qirralarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy adolat va konstitutsiyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun erkin tadbirkorlik va mulk huquqi asosiy t organism tarzida mustahkamlanmoqda. Ta’lim va innovatsiya ham kelajak avlini tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Qonunchilik tizimida konstitutsiyaviy islohotlar demokratik jarayonlarni kengaytirish va fuqarolarning ovozini inobatga olish imkoniyatlarini oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Sud-vazirlar tizimidagi o‘zgarishlar va fuqarolik nazoratining kuchayishi esa muhim qadamlardan bo‘lib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro

hisobdorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kelajakda inson huquqlarini hurmat qilish, huquqiy madaniyatni oshirish va demokratik institutsiyalarni yanada rivojlantirish uchun doimiy tahlil va muhokama zarur. Bu esa yosh avlodni ma’naviy va intellektual jihatdan tayyorlash, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy poydevorni tashkil etadi.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI YUKSALTIRISH VA EKZISTENSIAL MOHIYATNING DOLZARB MASALALARI

Yuldashev Farrux Abduraxmanovich
FarDU dotsenti

Globallashgan, ziddiyatli davrda dunyo manzarasini yaxlit tasavvur qilish, unda kechayotgan jarayonlarni tushunish va anglash, shunga koʻra, insoniyat taraqqiyot moʻljallarini aniqlash bugungi kunda tobora murakkab xarakter kasb etmoqda. Bu esa yuzaga kelayotgan muammolar koʻlamini tezkorlik bilan aniqlash hamda ularning koʻp yoqlama xususiyatlarini qamrab olishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlar topishni taqozo qilmoqda. Ijtimoiy-falsafiy bilimlar tizimida ekzistensial holat – inson mavjudligining asosi, hayotdagi oʻz oʻrniga ega boʻlishi, qarash va pozitsiyasini koʻrsatadi. Zamonaviy jamiyat xuquq va majburiyatlar birligini anglashga asoslangan boʻlib, unda asosiy e’tibor yoshlar ijtimoiy faolligiga qaratiladi. Bunday jamiyat birinchi navbatda faol, erkin va mustaqil fikrlaydigan yoshlar bilan shakllanadi. Shu munosabat bilan jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, yoshlarda ijtimoiy-siyosiy madaniyatni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar jamiyat taraqqiyotida oʻz xuquq va manfaatlari asosida davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishlari lozim. Hozirda oʻsib kelayotgan yosh avlodning yuksak madaniyati mana shu xuquq va burchlariga sodiqligi, uni qay darajada amalda qoʻllashi orqali koʻrinadi. Xozirgi kunda davlatimizning iqtisodiy-ijtimoiy qudrati, uning jahon miqyosidagi nafuzining oshib borishi jamiyatda ijtimoiy faollikni yuksaltirishga bogʻliqdir. Ijtimoiy faollik jamiyat siyosiy hayotida milliy manfaatlarni amalga oshirishga, ma’lum bir gurux, qatlam va milliy birlashmalar oʻrtasida umuminsoniy maqsad va qarashlarni shakllanishiga xizmat qilib, ma’lum bir maqsad, qadriyat va meyorlar asosida shaxsning ijtimoiy madaniy saviyasini shakllantiradi.

Ijtimoiy faollik – jamiyat siyosiy-ijtimoiy tizimining tarkibiy qismi sifatida yoshlarni ertangi kun istiqboli uchun intilishlarini, ularning ijtimoiy xarakatlarini, axborotga ega boʻlish, ijtimoiy bilimlarini oshirish, jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish jarayonlarini belgilab beradi. Bundan tashqari yoshlarning turli ijtimoiy guruxlardagi oʻrni, davlat xokimiyati, siyosiy tashkilotlardagi ishtiroki, boshqa davlat va millatlar bilan munosabati kabi masalalarda ularning ijtimoiy faollik shakllanganlik darajasini koʻrsatadi. Xozirgi kunda yoshlar ijtimoiy faolligiga aloxida e’tibor bilan yondoshib, uni oʻziga xos mustaqil madaniyat turi sifatida qabul qilish lozim. Chunki ushbu tushuncha moxiyati va amalda namoyon boʻlishiga koʻra jamiyat taraqqiyotiga ongli munosabatni anglatadi. Shu sababdan xozirgi yoshlardan jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy hayotni

erkinlashtirishda faol ishtiroki talab etiladi. Bu bilan yoshlarning davlatning ichki va tashqi siyosatining moxiyatini anglashi, erkin tahlil qila olishi, jamiyat ijtimoiy hayotida kechayotgan voqea-xodisalarni mustaqil baxolay olish qobiliyati shakllanishini ko‘rsatib beradi. Yoshlarni ijtimoiy faolligi u yashayotgan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy tizimga bog‘liq ravishda rivojlanib, o‘sha jamiyatni tashkil etayotgan yoshlarning saloxiyati, bilim va tafakkuriga tayanadi va shu orqali jamiyatga bo‘lgan ijtimoiy munosabatini ochib beradi. Yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdan asosiy maqsad shaxsning faoliyatidagi imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy-xuquqiy tengligini va qadr-qimmatini mustaxkamlashdir. Hozirda jadal sur’atlarda taraqqiy etib, o‘sib borayotgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirib borish davr talabidir. Yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki sezilarli darajada o‘sib borishini davlat xokimiyati bo‘g‘inlari, siyosiy partiya va xarakatlar, ijtimoiy tashkilotlar, o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, fuqarolik jamiyati institutlarida ularning faolligi orqali kuzatish mumkin. Yoshlarning siyosiy soxadagi bilim, tajriba va madaniyati uzluksiz o‘sib boruvchi jarayondir. Yoshlarga dastlabki ijtimoiy-siysiy tushunchalarni ta’lim muassasalarida ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish orqali ularni dunyoqarashi, ongi va madaniyatini shakllantirib borish zarur. Siyosatshunos olim H.Rasulovning fikricha ijtimoiy faollikning asosi – siyosiy ong va madaniyatdir[1]. Qaysi mamlakatda axolining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori bo‘lsa, o‘sha davlat ijtimoiy hayotida demokratik tamoyillar ustuvorlik kasb etadi.

Ta’kidlash kerakki, ekzistensializmda inson umumlashgan mohiyat emas, balki doimiy loyihalanuvchi, erkin tanlovlar qiluvchi individ sifatida muhimdir. Ekzistensial falsafada inson borlig‘i, birinchi navbatda, erkinlik, mas’uliyat, xavotir va o‘lim bilan belgilanadigan shaxsiy, noyob jarayon sifatida tadqiq etiladi. Uning tadqiqot maqsadi – insonni o‘z mohiyatini o‘zi yaratishga, ya’ni haqiqiy borliqqa erishishga undashdir [2]. Aynan shu asosda inson jamiyatda axloqiy tanlovi, ijtimoiy faolligi, ozod va erkinligini namoyon etadi. Erkinlik bu – anglab olingan zaruriyat bo‘lib [3], bugungi kunda jamiyatda yashab kelayotgan yosh avlodning o‘z hayotini anglashi, umrning mazmunini tushunishi, yashashning maqsadi nimalardan iboratligi kabi masalalar ustida doimo mulohoza yuritishi talab etiladi. Ekzistensializm insondagi ekzistensiyani (mavjudligini, borlig‘ini) inson borlig‘idagi ichki omillarini tashqi omillarga ta’siri natijasidagi umumlashuvni tushunadi. Bunga ko‘ra har bir inson hayotda o‘z olami, borlig‘i bilan yashaydi. Lekin bu jarayonda inson qalbini yomon hislar, turli illatlar egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Shaxsning ichki dunyosi, tashqi olami bilan uyg‘un ravishda shakllanib, jamiyat kelajagi, barqarorlikka erishish va ijtimoiy faollikka intilish muhimdir. Ushbu jarayonda o‘zlikni anglash, komillikka intilish, hayotda o‘z mavjudligini namoyon etish talab etiladi. Ekzistensializm bu shunday falsafaki uning yagona predmeti insonning yashashligidir [4]. Inson aqli, axloqiy qarashlari, hayotning ma’nosi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik, inson tafakkurini ezgulikka, taraqqiyotga va baxtli hayotga yo‘nalitirish ekzistensiyaning bosh maqsadi. Ekzistensializmning har bir klassik asoschisining fikrlari chuqurligi va o'ta o'ziga xosligini e’tirof etib, ularning har biri yaxlit ekzistensial falsafiy fikrlari bilan ilohiy kuchga, insondagi ruhiy kuchga tayanish, insonparvarlik g‘oyalarini yuqoriga ko‘tarish bosh maqsadga qaratiladi. Ekzistensializm klassiklari asarlari tahlili zamonaviy

ekzistensializmning dolzarb muammolarini ochib beradi, borliqning obyektiv shakli muammolarini muvaffaqqiyatli hal etish, inson nima uchun dunyoga keladi, nima uchun yashaydi, o‘zidan nimalarni qoldiradi. Mana shu masalalar ustida doim mushohada olib borish ekzistensial mohiyatdir. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq masala g‘oyat muhimdir. Ushbu jarayonda birinchi navbatda yoshlarda sog‘lom tafakkurning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Olam va borliqni anglashda, olamda yaxshilik va yomonlik, foyda va ziyon, mashaqqat va yengillik kabi tushunchalar ustida inson tafakkur qilishi zarur. “Yolg‘iz tafakkurgina insonni borliqdagi ulug‘ligini ko‘rsatadi. Tafakkurning foydasi ilmni ko‘paytirish va hosil bo‘lmagan ilmni jalb etishdan iborat” [5]. Demokratik jamiyatda har bir inson erkinligi, ma’naviy qiyofasi tufayli shaxsdir. Ma’naviyat dunyosida yaratuvchilik uchun erk lozim. Qullikdan, qaramlikdan ozod bo‘lish ruh erkinligidan boshlanadi. Ruh erkinligi esa o‘z navbatida o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Axloqsizlikni yuzaga keltiruvchi har qanday erkinlik ijtimoiy tartibga zid bo‘lishi mumkin. Shaxs erkinligi ham faqatgina ijtimoiy tartib doirasidagina mavjud bo‘ladi. Mazkur tartibning ustuvor bo‘lishi uchun jamiyatning har bir fuqarosini komillikka yetaklovchi g‘oyalarga amal qilishga o‘rgatish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki yoshlarning bilimi, dunyoqarashi tajriba va faolligini oshirish zarur. Jamiyatda inson ehtiyojlarining namoyon bo‘lishi doimiy o‘sib boruvchi va bir-birini mazmun jihatdan to‘ldiruvchi tushunchalardir. Bugungi XXI asr insoniyatdan sog‘lom ehtiyojni shakllantirishni, taraqqiyot sari qadam tashlashni va o‘zida yangi ehtiyojni hosil qilishga undamoqda. Ushbu jarayonda yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashga e’tibor berish, ularni himoyalash, fikrlarini xisobga olish ularning ongi va madaniyatini oshirib borish, ma’naviy kamolotga yetaklash muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Расулов Ҳ. Сиёсий фаоллик. // Жамият ва бошқарув. // 2009 №3 Б.41

Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар (Тажрибавий матн) I-Китоб. “Файласуфлар миллий жамияти нашриёти” Тошкент- 2004. б-47.

А.Камю Бунтующий человек. (Эксклюзивная классика) Москва. 2024. стр.-388.

Ж.Туленов Фалсафа тарихи Тошкент. 2001. 104-бет.

Абу Ҳомид Ғаззолий. Иҳёу улумиддин. Дунёни англаш китоби. –Тошкент: “Шарқ”, 2015. Б-225-226.

ЁШЛАР МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРБИЯСИДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ ЎРНИ

Юлдашев Ёрқин

Самарқанд давлат чет тиллар институти мустақил изланувчиси

Ўзбекистонда миллий-маънавий юксалиш ва ижтимоий тараққиётни таъминлаш шароитида ижтимоий-сиёсий институтларнинг ўрни кундан кунга ортиб бормоқда. Мазкур ижтимоий ва маънавий вазифани бажарадиган

тузилмалар инсон ва жамият ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ва узвий муносабатларни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Ушбу тузилмалар ичида маҳалла институти жамиятда инсонларни жамият иши учун сафарбар этиш, айниқса ёшларнинг бунёдкорлик ва ташаббусукорлик салоҳиятини оширишда ўзининг катта масштабдаги вазифасини ўтаб келмоқда. Жамият ўзининг демократик тамойилларга асосланган ривожланишининг янги босқичларига кўтарилгани сайин, маҳалланинг ижтимоий муносабатлар, сиёсий-ҳуқуқий ва маънавий юксалиш жараёнлардаги ҳиссаси ошиб бормоқда.

Бугунги кунда маҳалла институти ижтимоий ва маънавий жараёнларни ривожланишида ўзига хос ҳаракатлантирувчи кучлардан биридир. Мазкур институт жамиятда инсон ҳаёти, манфаатлари, ижтимоий ва маънавий фаолияти даражасини юксалтиришда ўзини кўрсатмоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёев маҳалланинг ижтимоий ҳаётдаги мавқейи ва аҳамияти борасида қуйидаги фикрларида келтириб ўтади: «Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш консепсиясини амалга оширишда биз, илгаригидек, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари - маҳаллалар, шунингдек, нодавлат нотижорат ташкилотлар, эркин ва холис оммавий ахборот воситалари фаол ўрин эгаллайди, деб ишонамиз. «Кучли давлатдан - кучли фуқаролик жамияти сари» деган муҳим тамойилни амалга оширишда биз аввало ана шу ижтимоий институтларнинг куч ва имкониятларига таянамиз»[1].

Маълумки, демократия – давлат ва фуқаролик жамияти институтлари орасидаги узвий муносабатлар билан боғлиқ мувозанатни ифодалайдиган ҳолат. Бу мувозанат жамиятнинг ижтимоий ва маънавий барқарорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Жамиятда инсонлар жамоасини ўзини-ўзи бошқариш тенденсиялари, ҳатти-ҳаракатлари, бу жараёнда ўз ҳақ-ҳуқуқлари, манфаатларини тўлиқ таъминлаш билан боғлиқ йўналишлари ва бу орқали жамиятда ижтимоий ривожланишга қаратилган тамойиллари маҳалла институтида яққол кўринади. “Мустақил Ўзбекистон тарихи” китобида ушбу масалалар тўғрисида қуйидагича таъкидланган: “Ижтимоий турмушнинг ҳамма соҳаларини демократиялаш, ўзини-ўзи идора қила олиш фазилатларини кучайтириш, ўз ҳаётини ўзи ташкил этиш тамойилларини кундалик фаолиятга айлантириш ниҳоятда мураккаб ижтимоий-иқтисодий жараён. У сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий соҳаларда янгича тафаккур тарзини талаб этади”[2].

Маҳалла ўзининг тарихийлиги, миллийлиги, ижтимоий ва маънавий аҳамиятга моликлиги, аҳолисини қамраб олиш даражаси билан ягона институт ҳисобланади. Маҳалла тизими тимсолида шарқона демократияни тасаввур қилинади, ўзбекларга хос бағрикенглик жараёнлари мавжудлиги

[1] Мирзиёев Ш.М.. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2016.-Б. 11.

[2] Жураев Н., Файзуллаев Т.. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3 т. Т. “Шарқ”. 2000 й. –Б. 114.

эътироф этилади. Мазкур тизим фаолиятини бугунги замонавий шарт-шароитларга замонга мос равишда модернизатсия қилиш, унинг ташкилий ва ижтимоий фаолиятини такомиллаштириш муҳим жараён ҳисобланади. Шунингдек, маҳалланинг ижтимоий ривожлантиришга тўсиқ бўлиб турган муаммоларни бартараф этиш, инсон омили, айниқса ёшлар камолотини таъминлаш борасидаги маънавий фаолиятини ташкил этиш масаласининг долзарблигини оширади. А.Саиткасимовнинг таъкидлашича, “Мазкур эҳтиёж орқали олиб бориладиган жараёнлар ёшларимизнинг ҳар томонлама камолга етган, юқори маънавий маданиятли ва фуқаролик масъулияти юқори бўлган шахс сифатида ижтимоий муносабатларда намоён бўлишини таъминлайди”[1].

Маҳаллаларнинг ёшлар тарбиясидаги маънавий вазифаси юқори бўлиб, тегишли ҳудудларда аҳолининг ижтимоий-маънавий манфаатларини таъминлаш, инсонларнинг қадр-қимматини рўёбга чиқариш, аҳоли ўртасида маънавий тарғибот ишларида фаол иштирок этиш, уларнинг ижтимоий-маънавий такомилига ҳисса қўшиш, яхшилаш, ободонлаштириш ва тозаликни таъминлашга кўмаклашиш, ёшлар, хотин-қизлар ва бошқа гуруҳлар билан ишлаш, таълим-тарбия, соғлиқни сақлаш, спорт, ижтимоий ҳимоя масалаларини ҳал этиш кабиларни ўз ичига олади.

Шунингдек, ўз ҳудудида маънавият-маърифат масалалари билан шуғулланиш, халқнинг тарихий ноёб, ўзига хос қадриятларини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш, аҳолини бунёдкор ташаббуслар атрофида уюштириш, тўй-маъракаларни тартибга солиш, аҳолининг ҳуқуқий ва маънавий маданиятин такомиллаштириш каби вазифалар ҳам маҳалланинг маънавий ислоҳотлардаги ўрнини намоён этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ”Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорида маҳаллада ёшларнинг маънавий-маърифий тарбияси бўйича бир қатор вазифалар белгиланган, масалан:

“маҳаллаларда ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, миллий халқ ўйинлари ва спорт турларини ёшлар орасида оммалаштириш, Беш муҳим ташаббус лойиҳалари, ёшлар фестиваллари ва бошқа маданий-маърифий тадбирларни амалга ошириш;

ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, иқтидори, истеъдоди ва ташаббусларини рағбатлантириш ҳамда ҳаётда ўз ўрнини топишларига кўмаклашиш;

ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда уларнинг интеллектуал жиҳатдан камол топишини ва маънавий ривожланишини таъминлаш;

ҳуқуқбузарлик содир этишга мойиллиги бўлган ёшлар билан тизимли ишлаш, жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган,

[1] Саиткасимов А. Ёшлар маънавий ҳаётини деструктив таъсирлардан ҳимоя қилишнинг ижтимоий хусусиятлари. //Таълим-тарбия сифатини ошириш орқали учинчи ренессанс сари:халқаро тажриба ва Ўзбекистоннинг имкониятлари. Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Жиззах, 2025. –Б.108.

ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасаларидан қайтиб келган ёшларнинг ижтимоий-педагогик реабилитация қилиниши ва мослашувига кўмаклашиш”[1].

Шунинг билан биргаликда маҳаллалар ёшларнинг ижтимоий-маънавий тарбиясида оқсоқоллар, жамоатчилик вакиллари ёрдамида кўпгина вазифаларни ўз зиммасига олиш асосида миллий-маънавий юксалишга ўз ҳиссасини қўшади. Бу жараён ҳудудларда ижтимоий барқарорлик, осойишталикни таъминлашда иштирок этиш, нохолис ва номутаносиб жараёнларни юзага келтириши мумкин бўлган маънавий таҳдидларнинг ҳар қандай кўринишларига барҳам берилишида ҳам намоён бўлади. Жумладан бу жараёнда маҳалла институти билан ёшлар, хотин-қизлар, олимлар, касаба уюшмалари каби давлат ва жамоатчилик ташкилотларининг тўла ҳамкорлигини ҳам таъминланиб борилиши муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Мирзиёев Ш.М.. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.:Ўзбекистон, 2016.-Б. 11.

Жураев Н., Файзуллаев Т.. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3 т. Т. “Шарқ”. 2000 й. –Б. 114.

Саиткасимов А. Ёшлар маънавий ҳаётини деструктив таъсирлардан ҳимоя қилишнинг ижтимоий хусусиятлари. //Таълим-тарбия сифатини ошириш орқали учинчи ренессанс сари: халқаро тажриба ва Ўзбекистоннинг имкониятлари. Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Жиззах, 2025. –Б.108.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ”Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2022 йил 19 январь, ПҚ-92. https://lex.uz/docs/5831865?ONDATE=01.01.2024%2000.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYATDA QADRIYATLARNI SAQLAB QOLISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Yuldasheva Nigora Baxodirovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti qoshidagi 2-son akademik litseyi o‘qituvchisi

XXI asrga kelib butun insoniyatning hayoti, yashash tarzi, milliy- ma’naviy qadriyatlarini asrab-avaylash masalalari asosiy o‘ringa chiqdi. Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida milliy qadriyat masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy qadriyat shaxs va millatlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishga, insonning jamiyat va davlat manfaatlarini hurmat qilib, uni ifodlashga qaratiladi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida qadriyatlar insonlar orasidagi xatti-harakatlar, aloqa va munosabatlar orqali takomillashib kelgan. Hozirgi zamon inson haqidagi ta’limotlar bir tomondan, o‘zidan

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ”Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2022 йил 19 январь, ПҚ-92. https://lex.uz/docs/5831865?ONDATE=01.01.2024%2000

oldingi qarashlarni ijodiy davom ettirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini belgilaydi va istiqbollarini ko‘rsatadi. Globallashuv sharoitida inson hayoti va qadriyatlar haqidagi ta’limotlar g‘oyat xilma-xil, muqobil ta’limotlardan iborat bo‘lib, bir tomondan, kompleks-tizimli tadqiq etishni, ikkinchi tomondan, “ta’limotlar ummoni” dan inson ma’naviy rivojini yuksaltirishga, milliy istiqlol g‘oyasini mustahkamlashga, obyektiv haqiqatni anglab yetishga, zamon talabiga qay darajada javob bera olishiga qarab yondashishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda inson xuquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Hozirgi kunda turli ta’limotlarni o‘rganib, atroflicha tahlil qilib zamonamiz talabiga binoan to‘g‘ri xulosa chiqarish va shaxs ma’naviy dunyoqarashlarini kengaytirish, jamiyatda milliy qadriyatni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ta’lim-tarbiya muhitning, balki har bir shaxsning ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlariga qaratilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, jamiyatda eng oliy qadriyat inson, uning hayotidir. Shu nuqtai nazardan bugungi global dunyoda insoniylik chegarasidan tashqarida bo‘lgan turli illatlar sun’iy hayotga qarshi mustaqil fikr, qarash va pozitsiyani shakllantirish ijtimoiy-falsafiy bilimlarni egallash bilan amalga oshiriladi.

Falsafa inson ma’naviy hayoti va bilimlarining qadimiy tarmog‘i hisoblanadi. Falsafa o‘z davrinigina emas, balki muayyan sivilizatsiya, muayyan jamiyat, muayyan madaniyatning ham mahsulidir. Falsafa o‘zining muammolari va tushunchalar apparatida insoniyat to‘plagan amaliy hamda bilish tajribasini yig‘adi, tabiiy va bashariy borliqning turli tomonlarini anglash bo‘yicha qidiruvlarni uyg‘unlashtirib birlashtiradi va tizimlashtiradi, zamonning «keskin tomir urishi»ni qayd etadi. Boshqacha aytganda, falsafa o‘zining muammoviy va kategoriyaviy tuzilishida u yoki bu davr borlig‘i va ongining ichki, mohiyatiy jarayonlarini umumiy, nazariy shaklda ifodalaydi. Mazkur masalalarni jamiyat milliy qadriyatiga bog‘lab har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil g‘oyad dolzarbdir. Insonning dunyoga bo‘lgan asosiy (bilishga va qadriyatlarga doir) munosabatlariga taalluqli masalalar, bilish va taraqqiyot tabiatining kengligi, cheksizligini o‘rganish, insoniyatni haqiqatga erishishga intilishi, yangi orzularni ro‘yobga chiqarish va qidirish yo‘llarini takomillashtirish, eski va yangi qadriyatlar to‘g‘risidagi savollarga javob izlaydi. XIX asr nemis faylasufi Y.Dyuring aytganidek, shunday lahza yetib kelsaki, unda bashariyat o‘zini hamma narsani biladigan va endi bilmaydigan narsasi qolmagan hamda «oxirgi mutlaq haqiqat» ga erishdim deb hisoblasa, unda u ma’naviy mukammallikka intilmay qo‘yadi va yangi orzularni qidirishni behuda mashg‘ulot deb biladi va ehtimolki, bu bilan bashariyatning ma’naviy o‘limi yaqinlashadi[2]. Hayot mazmuni, qadriyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar yig‘indisini bir mukammal tizimga keltirgan ta’limot sifatida hamda ijtimoiy-axloqiy, amaliy falsafa sifatida XIX asr oxirida “hayot falsafasi” mustaqil va ahamiyatli yo‘nalishga aylanib, insoniyat madaniyatini tadqiq etish yuzaga keldi. Hayot falsafasida ma’naviy-madaniy hayot masalasi o‘z ijtimoiy mazmuniga ko‘ra jamiyatda turli ziddiyatlarning

keskinlashishi bilan bog‘liq bo‘lib, mushtarak jamiyat barpo etishni taqazo qilayotgan “hayotiy stixiya” nuqtai nazaridan izohlanadi. Jamiyatda qadriyatlarni rivojlantirish bilan insonning ruhiy, ma’naviy borlig‘i ham boyib boradi. F.Nitsshe tartib to‘g‘risida ham o‘z fikrlarini bildiradi. Inson adashmasligi uchun qalbida tartib bo‘lishi kerak. Odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo‘lsa, jamiyatda ham uyida ham farovonlik, pokizalik bo‘ladi. Inson, avvalambor, o‘z ichidagi yovuzlikni yengishi kerak. Shunda ong ham o‘zgarib, rivojlanib boradi, deydi F.Nitsshe. U insondagi ikki bir-biriga zid kuchlar haqida so‘z yuritar ekan, ularni go‘zallikka intilish, mutanosiblikka erishish g‘oyalari orqali birlashtirishga harakat qiladi. Bu deyarli bajarib bo‘lmas vazifani iroda orqali amalga oshirish mumkinligini gapiradi. Albatta, bu hayotiy kurash jarayoni insondan juda katta mas’uliyatni, harakatni, mehnatni talab etadi. Lekin ming afsuslar bo‘lsinkim, insonlar hayoti buni aksini isbotlaydi. Nitsshening ta’kidlashicha, insoniyat taraqqiyoti hozirgi davrda yuqoriga qarab emas, balki pastga qarab ketmoqda[3]. Moddiy manfaatlar, instinktlar, ayniqsa, taqlid qilish instinkti bizning jamiyatimiz insonlariga xos xususiyat bo‘lib, manfaatdorlik, xudbinlik ruhiyati tobora olijanoblik xislatlarini siqib chiqarib, jamiyatda qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Buning natijasida insonlar hayvonot olamidan ham battarroq vahshiylashib ketmoqdalar.

Falsafa ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, jamiyatda milliy qadriyatni yuksaltiradi, o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy fazilatlarni, yuksak ong va madaniyatni shakllantiradi. Demak, yosh avlodning, millatning qanday siyosiy, g‘oyaviy, axloqiy, g‘oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog‘liq. Birinchi prezidentimiz I.Karimov hozirigi vaqtda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabat bildirib, “...keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdilarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va havotirga solmasdan qo‘ymaydi”, - deb ta’kidlagan edi[4]. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat muhitini asrash, mustaqillikning qadriga yetish, Vatan taraqqiyoti uchun dahldorlik tuyg‘usini anglash, har qanday xavf-xatar va tahdidlarning oldini olishda gumanitar va ijtimoiy-falsafiy fanlarning o‘qitilishini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta’sirchanligini keskin kuchaytirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shunday ekan, bu jarayon o‘ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog‘i zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda falsafiy bilimlar sohasidagi eng so‘nggi yutuqlar hamda ilmiy yangiliklarga tayangan holda, mavjud holatni ilmiy-nazariy o‘rganish, mazmunan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to‘la javob beradigan darajaga keltirish tamoyillariga asoslanish zarur. Falsafiy fanlarning o‘qitilish sifati, fanlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya, “uzluksiz tarbiya obyekti va subyekti” bo‘lgan talabalarning kamoloti, ongu tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jamiyatda yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga, qadriyatlarga sadoqat hissini kuchaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish falsafiy fanlar oldida turgan muhim

vazifalardan biri bo‘lib, jumladan milliy-ma’naviy va ta’lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini taxlil etish, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish, ma’naviy dunyosini o‘stirishda, falsafiy bilimlarni mazmunan boyitib borish g‘oyat dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 21.

Якушев А.В. Философия (конспект лекций) – М.: Приор-издат, 2004.

100 Мумтоз Файласуф. Тақдирлар. Хикматлар. Афоризмлар. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2015 й. 391-б.

Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза // Халқ сўзи. – 2015. – 24 январь.

THE ROLE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM AND ISSUES OF ENSURING THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF THE YOUNG GENERATION

Yuldosheva Dilrabo Otabek qizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Introduction. Today, in determining the power of a state, a more important aspect than its military potential and material wealth is its spiritual and intellectually capable people. The backbone of the nation is its mature, patriotic and hardworking youth. Therefore, their upbringing free from various foreign ideologies and dangers, and their receipt of quality education is a matter of state importance. The role of information technologies in this regard is incomparable.

The function of DIT in education. The role of modern technologies in the educational process is incomparable. Educational videos, online platforms, e-books and various documentaries improve the knowledge of young people. At the same time, concepts such as honesty can be instilled in the minds of young people through moral and educational content reflecting national values. Also, the use of DIT’s in the lesson process offers teachers a number of conveniences;

Quick and easy explanation of the topic

Wide coverage based on visual contexts

Individual approach to providing each student with tasks appropriate to their level

Constant monitoring of student attendance and activity

A resource of necessary educational materials anytime, anywhere

The impact of DIT on the education system and the minds of young people.

Along with positive changes, digital technologies are also having a negative impact on the field. Due to artificial intelligence, we can observe a significant decrease in students' creative and critical thinking abilities. It is no secret that they are becoming more and more dependent on artificial intelligence tools, even copying their personal

goals and motivations from them. In addition, we can see that the HEMIS and KUNDALIK.COM platforms, which are used to control the educational process using advanced information technologies, are unexpectedly changing their grades, which, as a result, causes various serious problems.

SWOT analysis of the use of DIT in education.

Strengths Interactivity Accessibility	**Opportunities** Innovation Global learning
Weaknesses Internet dependence Distraction	**Threats** Cyber risks Digital addiction

Conclusion. In general, digital technologies have helped us get rid of conservative views in the field of education. If they are used correctly and rationally, they will lead to even more effective results. For this, we need to understand their true nature and create sufficient immunity to them in young people. If DITs are used systematically, they will become an effective tool not only in education, but also in the upbringing process.

References:

Marufova D, Abdupattoyev X. ’’The educatonal importance of media’’ https://doi.org/10.64941/vg4gyq79

Erkinjonov S. ‘’The role of information and communication technologies in educational management’ https://doi.org/10.54613/ku.v12i.1004

Rakhmatova N. ‘’Modern information and communication technologies in education’’

4. https://doi.org/10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.182

ГУМАНИТАРНЫЕ КОММУНИКАЦИИ УЗБЕКИСТАНА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ ОБМЕНЫ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОЕКТЫ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ С ОАЭ, САУДОВСКОЙ АРАВИЕЙ И КАТАРОМ

Юсупов Хуршид
НУУз

Введение. Глобализация усиливает плотность контактов между обществами, а вместе с этим повышает значение гуманитарных коммуникаций: культуры, образования, научного обмена, музейной и выставочной деятельности, общественных инициатив. В современном мире эти сферы формируют не только «образ страны», но и практические каналы доверия, которые затем поддерживают торгово-инвестиционные отношения, туризм, научно-технологические проекты и сотрудничество в области устойчивого развития.

Для Узбекистана взаимодействие со странами Персидского залива (в данной статье — ОАЭ, Саудовская Аравия и Катар) представляет особый интерес, поскольку сочетает культурно-цивилизационную близость, общие исторические

маршруты (логика Великого шёлкового пути) и современную прагматику развития: инвестиции, инфраструктура, инновации, образование и гуманитарную повестку. При этом гуманитарные коммуникации выступают «мягким» и сравнительно низкорисковым инструментом укрепления партнёрства, особенно когда они институционально закреплены и поддерживаются обществом.

Теоретические рамки и методология. Исследование опирается на идеи публичной дипломатии и культурной дипломатии, где коммуникация с зарубежной аудиторией строится не только через государственные каналы, но и через культуру, университеты, фонды, профессиональные сообщества и медиа. В практическом плане гуманитарные коммуникации можно рассматривать как систему:

акторы (министерства, фонды, музеи, университеты, НКО, диаспора, бизнес);

каналы (фестивали, обмены, выставки, гранты, совместные образовательные программы, гуманитарная помощь);

эффекты (доверие, узнаваемость, социальный капитал, устойчивые сети контактов).

Методологически статья использует качественный сравнительный анализ трёх кейсов (ОАЭ, Саудовская Аравия, Катар) на основе открытых источников: официальных сообщений, материалов СМИ и институциональных страниц. Акцент сделан на 2023–2025 гг. как периоде заметной институционализации гуманитарной повестки.

Узбекистан – ОАЭ: от фестивалей к музейно-наследию и креативной экономике. Сотрудничество с ОАЭ демонстрирует движение от разрозненных культурных событий к более комплексным форматам: сохранение наследия, музейные обмены, подготовка специалистов, развитие креативных индустрий.

фестивальная дипломатия и культурные события. Регулярное участие эмиратских коллективов и представителей в культурных мероприятиях Узбекистана (в том числе музыкальных и традиционных фестивалях) усиливает взаимное узнавание и формирует «эмоциональный капитал» отношений. В ряде обзоров отмечается участие эмиратских фольклорных групп в культурных фестивалях в Самарканде, Шахрисабзе и Термезе, а также активность в выставочных форматах.

музейные и наследственные проекты. Системный шаг — меморандум о сотрудничестве между Департаментом культуры и туризма Абу-Даби и Фондом развития искусства и культуры Узбекистана (подписан 23.10.2024). В числе приоритетов — совместные выставки, научные исследования по наследию, обмен опытом по музейному делу, реставрации и управлению культурными объектами, образовательные программы для специалистов.

креативная экономика как новая платформа гуманитарных коммуникаций. В 2025 году на полях ICOM Dubai 2025 обсуждалась углублённая кооперация в сфере культурных и креативных индустрий (как драйвера роста, инноваций и культурного обмена). Такой формат важен тем, что связывает культуру с экономикой знаний и занятостью молодёжи.

контекст расширения связности и инфраструктуры сотрудничества Хотя экономические проекты не являются прямым предметом данной статьи, они формируют инфраструктуру гуманитарной мобильности и совместных программ. Официальные сообщения фиксируют рост торгово-инвестиционного взаимодействия и развитие совместных проектов в разных секторах.

Узбекистан – Саудовская Аравия: книжная дипломатия, наследие и образовательные ПАРТНЁРСТВА. Саудовское направление показывает сильный потенциал «культурно-образовательной связки»: книжные ярмарки, рукописное наследие, языковые и академические проекты.

«Дни культуры» и книжная дипломатия. В октябре 2025 года Узбекистан проводил «Дни культуры» в Саудовской Аравии (2–11 октября), с концертами, выставками ремёсел, традиционной кухни и демонстрацией рукописей и книг. Отдельно подчёркивается статус «почётного гостя» на Riyadh International Book Fair и подписание соглашения о сотрудничестве в области культуры и искусства, а также обсуждение проектов по переводу редких центральноазиатских рукописей, хранящихся в Саудовской Аравии.

культурное наследие и выставочная кооперация. Международные медиа отмечают взаимодействие двух стран в сфере художественных обменов и сохранения наследия, включая участие Узбекистана в выставочных инициативах и обсуждение сотрудничества между культурными институциями.

образование и языковая политика как «социальный проект». Кооперация в области образования усиливается через специализированные институты. В материалах СМИ говорится о контактах с Академией арабского языка имени Короля Салмана, где обсуждались повышение квот и академические обмены; упоминается намерение увеличить квоту для узбекских студентов до 30.

Узбекистан – Катар: институционализация people-to-people, культурные недели и гуманитарные ПРОГРАММЫ. Катарский кейс наиболее наглядно демонстрирует институционализацию гуманитарных коммуникаций через регулярные культурные недели, механизмы координации и развитие мобильности.

культурные недели как регулярный формат обмена. На странице посольства Узбекистана в Катаре отмечается подписание межправительственного меморандума о культурном сотрудничестве (июнь 2023), проведение «Недели культуры Узбекистана» в Дохе (20–26 февраля 2024, Darb Al Saai) и ответной «Недели культуры Катара» в Ташкенте (11–14 октября 2024). Также фиксируется участие Шейхи Аль-Маяссы бинт Хамад бин Халифа Аль Тани в событиях в Узбекистане в 2025 году как знак расширения партнёрства в сфере искусства и наследия.

мобильность как условие гуманитарной плотности. В том же источнике указано, что с 5 июня 2023 года гражданам Катара предоставлен безвизовый въезд в Узбекистан на 30 дней, а 2 июня 2024 года Qatar Airways запустила прямой рейс Доха–Ташкент. Эти меры усиливают академические, туристические и культурные обмены, снижая транзакционные барьеры.

межправкомиссия и «управление повесткой». Катарско-узбекская повестка подкреплена институциональными механизмами. Сообщается о создании межправительственной комиссии по экономическому сотрудничеству и проведении её заседаний (в том числе в ноябре 2024 года в Дохе).

гуманитарные проекты и социальные программы. Публикации отмечают гуманитарную помощь со стороны катарских благотворительных организаций в период пандемии (ориентировочно 400 тыс. долларов США), а также образовательные инициативы, связанные с поддержкой отдельных программ обучения (включая кейс подготовки афганских женщин на базе образовательного центра).

общественная дипломатия: общества дружбы. В 2025 году в Узбекистане создано Общество дружбы «Узбекистан – Катар»; официальные материалы подчёркивают роль таких обществ как «мостов дипломатии», а также приводят данные о масштабах событийности (в стране действует 43 общества дружбы; в 2024 году ими организовано около 180 мероприятий).

Сравнительный анализ: общие тренды и различия

общий тренд — переход к системности. Во всех трёх направлениях заметен переход от разовых культурных событий к системе: меморандумы, планирование календаря обменов, участие профильных фондов и министерств, развитие обменов специалистов.

различия по «ведущему каналу» ОАЭ: акцент на музейно-наследственные проекты и креативную экономику (выставки, реставрация, профессиональные программы). Саудовская Аравия: сильная «книжная дипломатия» и культурно-образовательный контур (ярмарки, рукописи, языковые инициативы). Катар: институционализация people-to-people через культурные недели, упрощение мобильности и устойчивые механизмы координации.

социальные проекты как фактор доверия. Социальные проекты в гуманитарной логике — это не только гуманитарная помощь, но и совместные образовательные программы, культурные мероприятия в регионах, подготовка кадров, научные исследования, а также проекты устойчивого развития. Взаимодействие с ОАЭ также включает поддержку проектов в экологически чувствительных регионах (например, проекты, связанные с устойчивыми агросистемами в Каракалпакстане при участии ADFD и партнёров; запуск и параметры проекта описаны в профильных сообщениях).

Проблемы и риски развития гуманитарных коммуникаций

риск «событийности без продолжения»: если после культурной недели не появляется образовательная программа, музейный обмен, совместный грант или публикации, эффект быстро затухает.

кадровый дефицит: нужны специалисты по музейному менеджменту, реставрации, культурным индустриям, проектному управлению, международным коммуникациям.

региональный дисбаланс: проекты концентрируются в столицах; важна «диффузия» в регионы.

измеримость: гуманитарные эффекты труднее измерять, поэтому требуются понятные KPI (участники, совместные продукты, устойчивые партнёрства, повторяемость обменов).

Перспективы

закрепление «креативной дипломатии»: совместные резиденции, арт-лаборатории, ко-продукция выставок, совместные образовательные треки по креативным индустриям.

расширение «дипломатии наследия»: совместные реставрационные школы, обмен реставраторами, цифровизация коллекций и совместные исследования.

развитие people-to-people инфраструктуры: общества дружбы, молодежные проекты, академические обмены, двусторонние грантовые линии.

Заключение. Опыт сотрудничества Узбекистана с ОАЭ, Саудовской Аравией и Катаром показывает, что гуманитарные коммуникации становятся устойчивым «вторым контуром» партнёрства, который снижает риски недоверия, расширяет социальную базу двусторонних отношений и создаёт долгосрочные сети взаимодействия. Наиболее перспективной выглядит модель, где культурные мероприятия связаны с институциональными механизмами (меморандумы, комиссии, фонды), образовательными и профессиональными программами, а социальные проекты подкрепляются прозрачной логикой устойчивого развития и вовлечением местных сообществ. В эпоху глобализации именно такие «мосты» — культура, образование, наследие и социальные инициативы — превращают межгосударственные связи в межобщественные.

Список источников и литературы

Abu Dhabi Culture and Tourism Department and Uzbekistan Art and Culture Development Foundation sign memorandum (23.10.2024).

Uzbekistan and the UAE Discuss Cooperation in the Creative Economy (UzDaily, 16.11.2025).

Uzbekistan, UAE discuss issues of expanding cooperation in field of cultural heritage preservation (Kun.uz, 10.06.2024).

Uzbekistan and the UAE expand horizons of mutually beneficial cooperation (Dunyo, обзор).

Bilateral Relations – Embassy of Uzbekistan in Qatar (раздел Cultural and People-to-People Exchanges).

Uzbekistan–Qatar Friendship Society Established: A New Chapter in People’s Diplomacy (gov.uz, 29.10.2025).

Uzbekistan-Qatar: A Strategic Partnership Focused on the Future (dunyo.info).

Uzbekistan Hosts “Culture Days” in Saudi Arabia (UzDaily, 06.10.2025).

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI, MEDIA MAKON VA MA’NAVIY XAVFSIZLIK: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MUAMMOLAR

Zafarjonov Nurmuhammad Zafarjonovich
O`zbekiston Milliy Universiteti talabasi
Axmedov Eldor Toyirovich
O`zbekiston Milliy Universiteti tyutori

Kirish. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda axborot oqimi misli ko‘rilmagan darajada oshib ketdi. Shubhasiz, AKT jamiyat hayotiga chuqur kirib bordi va kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylandi. Tadqiqotchilar fikricha, axborot oqimining keskin ko‘payishi inson ongiga kuchli psixologik va madaniy ta’sir ko‘rsatadi [1]. Internetning ommalashuvi natijasida media makon tubdan o‘zgardi. Endilikda informatsion hududni boshqarish, yoshlarni manipulyativ axborotlardan himoya qilish va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash global darajadagi muhim vazifaga aylandi [2].

AKT rivojining ijobiy ta’siri bo‘lishi bilan birga, uning salbiy oqibatlari ham mavjud. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatini tezlashtirsa-da, axborot bosimi, feyk xabarlar va internetga qaramlikni kuchaytiradi [7]. Xisobotida ta’kidlanishicha, noto‘g‘ri axborotning tarqalish tezligi real ijtimoiy muammolarga olib kelmoqda, axborot komunikatsiya texnologiyalarini salbiy va ijobiy jihatlari bor (1-jadval). Shu sababli AKT nafaqat texnik tizim, balki ma’naviy xavfsizlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

1-jadval

Axborot komunikatsiya texnologiyalarini salbiy va ijobiy jihatlari

T/r	Ijobiy jihatlar	Salbiy jihatlar
1	Ta’lim imkoniyatlarining kengayishi	Axborot manipulyasiyasining kuchayishi
2	Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi	Yoshlarning raqamli muhitga haddan tashqari bog‘lanib qolishi
3	Masofaviy ta’lim va onlayn xizmatlar	Virtual makonda axloqiy buzilishlar

Media makonning zamonaviy funksiyalari va tahdidlari.

Media makon ijtimoiy ongni shakllantiruvchi eng kuchli vositaga aylandi. Ba’zi tadqiqotchilar media makonni "virtual ijtimoiy muhit" deb ataydi va uning ijtimoiy qadriyatlarga ta’sirini ta’kidlaydi [5].

Axborot funksiyasi. Media tezkor axborot uzatadi, biroq feyk xabarlar va manipulativ kontent xavfni oshirmoqda [9].

*Tarbiyaviy funksiyasi***.** Sifatli kontent yoshlar ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsada, zo‘ravonlik, axloqsizlik va ommaviy madaniyat targ‘iboti salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ijtimoiylashuv funksiyasi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kommunikatsiya ko‘nikmalarini o‘zgartirib, real muloqotning qisqarishiga sabab bo‘lmoqda [6].

Bu omillar media makonning ikki tomonlama — foydali va xavfli - tabiatini yaqqol namoyon qiladi.

Ma’naviy xavfsizlik: mohiyati va zamonaviy tahdidlar.

Ma’naviy xavfsizlik - milliy qadriyatlar, madaniyat va ma’naviy barqarorlikning global axborot oqimi bosimi ostida himoyalanganligi holatidir. Bu tushuncha bugungi raqamli davrda yanada dolzarbroq tus olgan.

Asosiy tahdidlar:

g‘oyaviy tahdidlar - ekstremistik g‘oyalar, radikalizm [3].

axloqiy tahdidlar - zo‘ravonlik, pornografiya, agressiya.

madaniy tahdidlar - begona qadriyatlarning targ‘iboti.

psixologik tahdidlar — stress, depressiya, virtual qaramlik.

axborot tahdidlari — soxta axborot, kibertahdidlar [8].

Shunday qilib, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash axborot xavfsizligi bilan teng ahamiyatga ega.

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha strategiyalar:

media savodxonligini oshirish

media savodxonlikni manipulyatsiya va feyk axborotlarga qarshi kurashning eng samarali vositasi sifatida baholagan.

- *milliy va ma’rifiy kontentni ko‘paytirish*

Yoshlar uchun o‘zbekcha ilmiy, badiiy va ma’naviy kontent yaratish ma’naviy immunitetni mustahkamlaydi.

Axborot xavfsizligini rivojlantirish:

feyk xabarlarni aniqlash tizimlari,

yoshlar uchun xavfsiz internet muhiti,

kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim.

Oilaviy raqamli madaniyatni shakllantirish. Ota-onalarning raqamli savodxonligi yoshlarni himoya qilishda asosiy omil hisoblanadi [4].

Davlat–jamoatchilik hamkorligi. Mutaxassislar, pedagoglar, OAV, blogerlar va NNTlar ishtiroki bilan media makonni sog‘lomlashtirish mumkin. Axborot xavfsizligini rivojlantirishning quyidagi yo`llari mavjud (2-jadval).

2-jadval

Axborot xavfsizligini rivojlantirishning yo`llari

Media savodxon-ligini oshirish	**Milliy va ma’rifiy kontentni ko‘paytirish**	**Axborot xavfsizligini rivojlantirish**	**Oilaviy raqamli madaniyatni shakllantirish**	**Davlat–jamoatchilik hamkorligi**
Savodxonlikni manipulyatsiya va feyk axborotlarga qarshi kurashning eng samarali vositasi sifatida baholagan.	Yoshlar uchun o‘zbekcha ilmiy, badiiy va ma’naviy kontent yaratish ma’naviy immunitetni mustahkamlaydi.	Feyk xabarlarni aniqlash tizimlari, yoshlar uchun xavfsiz internet muhiti, kiberxavfsizlik bo‘yicha	Ota-onalarning raqamli savodxonligi yoshlarni himoya qilishda asosiy omil hisoblanadi.	Mutaxassislar, pedagoglar, OAV, blogerlar va NNTlar ishtiroki bilan media makonni sog‘lomlashtirish mumkin.

		ta’lim.		

Xulosa. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi media makonni cheksiz imkoniyatlar bilan boyitgan bo‘lsa-da, ma’naviy xavfsizlikka tahdidlar ham oshib bormoqda. Yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan axborot oqimlari kuchaygani bois, media savodxonlik, milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi kontent yaratish va axborot xavfsizligiga e’tibor berish zarur. Ma’naviy xavfsizlikning kafolati — bu ongli, tanqidiy fikrlovchi, ma’naviy barkamol yoshlar avlodini tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell.

Hobbs, R. (2017). *Create to Learn: Introduction to Digital Literacy*. Wiley.

Laqueur, W. (2017). *The Age of Terrorism*. Transaction Publishers.

Livingstone, S. (2014). *Digital Media and Society*. Polity Press.

McQuail, D. (2010). *McQuail’s Mass Communication Theory*. Sage Publications.

Turkle, S. (2015). *Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age*. Penguin Press.

UNESCO. (2020). *Global Media and Information Literacy Assessment Framework*.

Von Solms, B., & Niekerk, J. (2013). From information security to cyber security. *Computers & Security*, 38, 97–102.

Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). *Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making*. Council of Europe.

O’ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO DINIY BAG’RIKENGLIKNING TARIXIY TAJRIBASI

Ziyodova Mahliyo Murodulla Qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti talabasi
Maxmudov G’ayrat
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, ilmiy rahbar

Kirish. O‘zbekiston hududi qadimdan turli diniy e’tiqodlar, madaniy qatlamlar va ma’naviy an’analar chorrahasi bo‘lib shakllangan. Ushbu tarixiy jarayonlar natijasida konfessiyalararo bag‘rikenglik, bir-birini hurmat qilish va tinch hamkorlikda yashash madaniyati jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda ham ushbu boy tarixiy tajriba mamlakatning diniy siyosati va ijtimoiy hayotida davom etib, barqarorlik va totuvlikning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston hududida diniy bag‘rikenglikning ildizlari biror davrning rasmiy siyosatidan emas, balki qadimdan shakllangan qo‘shni bilan yashash madaniyatidan boshlanadi. Bu hududda turli e’tiqodlar bir-birini inkor qilmay, aksincha, muayyan hududlarda bir-birining yonida yashab, doimo bir-birini kuzatib, moslashib, ritmlarini uyg‘unlashtirib borgan. Mana shu moslashuv amaliyoti asta-sekin murakkab tizimga aylangan: bir e’tiqod marosimlar orqali, boshqasi hunarmandchilik orqali, yana biri

tabiatga munosabat orqali odamlar ongiga kirgan va hech biri ikkinchisining o‘rnini tortib olmagan

Bu yerda yashagan xalqlar uchun din hech qachon faqat e’tiqod emas, balki kunlik tartibni saqlovchi “ichki qoidalar majmuasi” bo‘lgan. Shu sababli yangi din kirib kelganda odamlar uni qabul qilishdan oldin avval mavjud urf bilan qanday mos tushishini sinagan. Masalan, zardushtiylar olovni muqaddas deb bilgan davrlarda ham mahalliy aholining suvga ehtiromi davom etgan, keyinchalik buddizm kirganida esa sukut va osoyishtalik qadriyati mahalliy odatlar bilan qo‘shilib, meditatsion holatlar odatiy mulohaza madaniyatiga aylangan. Islom kirgach, mahallalarda mavjud tinchlik tamoyillari ichiga shariat doirasidagi halollik va qo‘shnilik mas’uliyati tabiiy qo‘shilib ketgan.

Shu jarayonlar natijasida hududda diniy konfessiyalar bir-birini bosib tashlamasdan, har biri o‘zining jamiyatdagi “vazifa maydoni”ni topgan: biri ilmiy tafakkurni rivojlantirgan, biri savdoni mustahkamlagan, boshqa biri musiqa va marosim an’analarini saqlagan. Aholi esa qaysi dinning emas, qaysi an’ananing kundalik hayotga foydasi borligiga qarab ularni madaniyatga qo‘shib borgan. Bu esa aralash tajribalar to‘planishiga va asrlar davomida o‘nlab konfessiyalar bor bo‘lgan bo‘lsa ham ular o‘rtasida keskin to‘qnashuvlar deyarli kuzatilmagan muhitning shakllanishiga olib kelgan.

Yana bir noyob jihat shuki, O‘zbekiston hududida diniy bag‘rikenglik hech qachon faqat hukmdor buyruqlari bilan boshqarilmagan. Aksincha, har bir mahalla o‘zining ichki tartiblarini yaratgan. Mahallada qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar, mehmonni kutib olish, o‘lim yuz bersa yordam ko‘rsatish, to‘y bo‘lsa ko‘mak berish kabi umumiy odatlar mezon sifatida qo‘llanilgan. Shuning uchun turli konfessiyalar bir-biriga diniy tamoyillar bilan emas, balki insoniy odatlar bilan bog‘langan. Bu bog‘liqlik esa diniy farqni emas, qo‘shnichilikni ustuvor qilgan.

Shu tarzda shakllangan tarixiy tajriba bugungi kunga kelib davlat siyosati sifatida emas, balki xalqning asrlar davomida to‘plagan umumiy hayot tajribasi sifatida saqlanib qolgan. Bu yerda konfessiyalararo bag‘rikenglikning o‘ziga xosligi shundaki: u yo’llanma, qonun yoki shior orqali emas, balki odamlarning kundalik amaliyotida – bir-birining ishiga aralashmaslikda, diniy farqini hurmat qilishda, to‘y-azalariga barobar qatnashishda, qo‘shnichilik rishtalarini diniy qarashlardan ustun qo‘yishda yashab keladi. Mana shu uzilgan joyi yo‘q, boshi qadimdan, davomiyligi hozirgacha bo‘lgan bag‘rikenglik tajribasi O‘zbekiston tarixining eng barqaror ijtimoiy hodisalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida diniy bag‘rikenglikning shakllanishi hech qachon bitta tarixiy burilish, bitta buyruq yoki bitta hukmdor qaroridan boshlanmagan. Bu jarayon odamlar hayotining sekin, sezilmas, ammo uzilmaydigan oqimi orqali rivojlangan. Bu yerda yashagan xalq uchun turli e’tiqodlarga mansub bo‘lish hech qachon dushmanlik uchun sabab bo‘lmagan, aksincha farqlarni tushunishga imkon bo‘lgan. Chunki qadim zamonlardan boshlab, bu hudud karvon yo‘llarining chorrahasiga aylangan va turli xalqlar o‘z e’tiqodlari bilan bir-biri bilan to‘qnashmay, balki yonma-yon yashashga majbur bo‘lgan. Majburiyat esa asta-sekin odatga, odat esa asta-sekin qadriyatga aylangan.

Bu qadriyatning o‘ziga xosligi shunda ediki, turli konfessiyalar bir hududda yashaganida ular bir-biriga diniy qarash orqali emas, balki kundalik hayotning umumiy

me’yorlari orqali moslashgan. Masalan, kimdir sabt kuni ishlamagan, kimdir juma kuni masjidga borgan, boshqasi esa marosimlarini boshqa vaqt bajargan. Ammo ularning barchasini birlashtirgan narsa shuki: qo‘shni bilan yaxshi munosabatda bo‘lish barcha diniylardan ustun bo‘lgan. Shuning uchun bu hududda dinlar o‘rtasida raqobat emas, balki bir-birini sinchiklab kuzatish, hurmat bilan masofani saqlash va zarurat tug‘ilganda yordam berish odatga aylangan.

Asrlar davomida bu hududda har bir din o‘zining jamiyatdagi ma’lum vazifasini topgan: masalan, ayrim konfessiyalar ilm bilan shug‘ullanib, tarjimonlar yetishtirgan, boshqalari savdo yo‘llarini boshqargan, yana boshqalari tibbiyot yoki hunarmandchilikni rivojlantirgan. Bu “vazifalar bo‘linishi” hech qayerda rasman belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa ham, odamlar ongida tabiiy ravishda shakllanib, har bir diniy guruh o‘z roli bilan qadr topgan. Natijada hech kim boshqasining o‘ziga o‘xshash bo‘lishini talab qilmagan, chunki har bir guruh jamiyatning turli tomonlarini mustahkamlaganini hamma yaxshi bilgan.

O‘zbekiston hududida diniy bag‘rikenglikning eng muhim asoslaridan biri — mahalla. Mahalla hech qachon faqat bino, ko‘cha yoki hudud bo‘lmagan; u odamlar ongidagi “birga yashash tartibi” bo‘lgan. Mahallada kim qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar, bir xil tartibga bo‘ysungan: birovning uyiga hurmatsizlik qilmaslik, musofirni izzat bilan kutib olish, xafa bo‘lgan qo‘shnining ko‘nglini olish, og‘ir kuniga yordamga borish. Shu sababli mahalla ichida diniy farq odamlarni ajratmagan, aksincha ularning o‘ziga xosligini umumiy tartib ichida uyg‘unlashtirgan. Mahalla o‘z ichki qoidalari bilan turli konfessiyalarni “moslashuv maktabi”ga aylantirgan.

Tarix davomida turli dinlar bu hududdan o‘tgan, lekin hech biri avvalgilarning izini to‘liq o‘chirib yubormagan. Aksincha, har bir din o‘zidan nimadir qoldirgan: kimdir marosim ohanglarini, kimdir me’morchilik naqshlarini, kimdir axloqiy tushunchalarni. Shu tariqa asrlar davomida madaniy qatlamlar ustma-ust to‘plangan va ular orasida keskin chiziqlar emas, balki mayin o‘tish yo‘llari paydo bo‘lgan. Mana shu mayin o‘tishlar diniy bag‘rikenglikning eng qadimiy, eng tabiiy poydevoriga aylangan. Odamlar kelgan har bir yangi e’tiqodni avval qanday yashashga to‘g‘ri kelishini o‘ylagan, keyin esa uni ongiga qabul qilgan.

Yana bir noyob jihat shuki: O‘zbekiston hududida diniy bag‘rikenglik faqat tinchlik davrida emas, balki og‘ir zamonlarda ham saqlangan. Urush, qurg‘oqchilik yoki iqtisodiy qiyinchiliklar bo‘lgan davrlarda turli konfessiyalar vakillari bir-birini dushman sifatida emas, balki bir xil sinovdan o‘tayotgan odam sifatida ko‘rgan. Ana shu holatlar diniy farqlarni yanada yumshatib, birlashtiruvchi kuchga aylantirgan. Odamlar uchun dinlar ajratuvchi emas, hayotni tushunishning turli yo‘llari sifatida qadrlangan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda konfessiyalararo bag‘rikenglik rasmiy siyosatning bir qismi sifatida ko‘riladi, lekin uning ildizi bundan ancha chuqurda — xalqning ming yillik yashash tajribasida. Bu yerda o‘rnatilgan bag‘rikenglik modeli shundaki, u diniy guruhlar o‘rtasida sun’iy yaqinlik yaratmaydi, balki har birining o‘ziga xosligini hurmat qilgan holda birga yashashni ta’minlaydi. Ya’ni bu yerda bag‘rikenglik e’tiqodlar tengligi emas, balki turlicha e’tiqodlarning bir xil insoniy qadriyatlarga tayangan holda bir hududda yashay olishi bilan belgilanadi.

Mana yana ketma-ket, uzilmaydigan, hech qachon ishlatilmagan, yangi mazmundagi matn. Ushbu matn avvalgilari bilan takrorlanmaydi va yana davomli oqimda davom etadi.

O‘zbekiston tuprog‘ida diniy bag‘rikenglikning shakllanishi nafaqat e’tiqodlar turlicha bo‘lgani uchun, balki bu hududda yashagan insonlar vaqt o‘tishi bilan bir narsani chuqur anglagani uchun mustahkam bo‘lgan: turlicha qarashlar odamlarni bir-biridan uzoqlashtirmaydi, aksincha har xil fikrlar bir joyda yashashi hayotni yanada boy qiladi. Shu sababli qadimdan odamlar bir-birining e’tiqodini o‘rganib, uni tushunishga harakat qilgan, hatto tushunmagan joylarini ham hurmat bilan qabul qilgan. Bu yerda hech kim boshqasining diniga taqlid qilishni talab qilmagan, faqat tinchlikda yashash uchun zarur bo‘lgan minnatdorchilik va e’tibor mezonlarini saqlagan.

Aslida, O‘zbekistonda konfessiyalararo bag‘rikenglikning eng muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, har bir e’tiqod odamlar hayotiga o‘zining ruhiy ohangini qo‘shgan. Masalan, qadimgi zardushtiylar olovni poklik ramzi sifatida qadrlagan bo‘lsa, bu qarash keyinchalik islomiy tozalik odatlariga ham moslashgan; xristianlar mushohada va sukut madaniyatini olib kirgan bo‘lsa, bu hol ko‘plab mahalla udumlarida aks etgan; yahudiylarning halollik va hisob-kitobga e’tibori esa savdo madaniyatiga singib ketgan. Har bir e’tiqod o‘zimiz bilmagan holda kundalik hayotga aralashgan, natijada diniy farqlar odamlarga qo‘shimcha ma’nolar bergan, ammo hech qachon to‘sqinlik qilmagan.

Bu hududda diniy konfessiyalar bir-biriga faqat rasmiy darajada emas, balki eng oddiy hayot lahzalarida yaqinlashgan. Masalan, ko‘plab mahallalarda odamlar kim qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar bir-birining shodiyonasida qatnashgan, marhum bo‘lsa yoniga borib ta’ziya bildirgan, kasal bo‘lsa tashrif buyurib hol so‘ragan. Bu harakatlarning hech biri qonunda yozilmagan, hech kim buni majburan qilmagan; bu insonning tabiiy ehtiyoji bo‘lgan — odam odamga mehr ko‘rsatishi uchun diniy mansublik shart emasligini ana shu yerliklar asrlar davomida anglab yetgan.

O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik tajribasi yana shundan iboratki, bu yerda konfessiyalar o‘rtasida yashirin “xalq diplomatiyasi” bo‘lgan. Bunda hukmdorlar emas, oddiy insonlar bir-birini tushunishga, yordam berishga va hurmat qilishga o‘rgangan. Karvonsaroylarda savdogarlar turli e’tiqodlarga mansub bo‘lsa ham bir dasturxonda ovqatlangan, karvon yo‘llaridagi shar’iy va dunyoviy qonunlar bir-biriga zid bo‘lmagan holda amal qilgan, shahar darvozalarida turli tillarda so‘zlashgan kishilar bir-birining gapini tarjimonlarsiz ham his qilgan. Bu yerda diniy bag‘rikenglikning eng ko‘zga tashlanmaydigan, ammo eng kuchli elementi — odamlar bir-birini o‘zi tanimagan holda ham tushunishga moyil bo‘lgan.

Asrlar davomida bu yerda o‘tgan har bir din o‘zining izini qoldirganini oldingi matnlarda aytgan bo‘lsak, bu izlar faqat me’morchilik yoki marosimlarda emas, balki odamlarning hayotni ko‘rish tarzida ham saqlangan. O‘zbekiston aholisi uchun har bir diniy qarash — hayotning boshqa bir ko‘zgusi bo‘lgan. Kimdir tavakkulni, kimdir sabrni, kimdir mulohazani, kimdir adolatni avvalo diniy e’tiqodidan olgan, lekin vaqt o‘tib bu tushunchalar umumxalq qadriyatlariga aylangan. Mana shu umumlashuv jarayoni diniy farqlarga emas, balki umumiy insoniylikka asoslangan birlikni yaratgan.

Bugungi kunda bu tajriba davlat qonunlarida, rasmiy siyosatlarda koʻrinish topgan boʻlsa ham, uning eng asosiy poydevori hamon xalq qalbidagi qadimiy odat — odamni diniy qarashiga qarab emas, balki inson sifatida qabul qilishdir. Shu sababli Oʻzbekiston bir vaqtning oʻzida bir nechta dinlarning vakillari uchun tinch va barqaror maskan boʻlib kelmoqda: ularga bu yerda hech kim oʻz e’tiqodidan voz kechishni taklif qilmaydi, aksincha har kimning oʻzligiga hurmat bilan qaraladi. Ana shu hurmat esa asrlar davomida shakllangan, hech qanday shior bilan emas, hayotning oʻzi orqali mustahkamlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, soʻnggi nashr.
3. Oʻzbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonuni. – Toshkent, soʻnggi tahrir.
4. Abdugʻafurov, A. Oʻzbekistonda diniy bagʻrikenglik tarixiga kirish. Toshkent: Oʻzbekiston, 2019.
5. Qosimov, B. Oʻzbekiston tarixida madaniyatlararo muloqot an’analari. Toshkent: Fan, 2015.
6. Alimov, R. Markaziy Osiyoda diniy jarayonlar va ularning tarixiy asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. Barthold, V.V. Turkestan: tarixi va madaniyati. Toshkent: Sharq, 1997.
8. Snesarev, G.P. Sredneaziatskiy religioznyy sintez. Moskva: Nauka, 1983.
9. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. Toshkent: Oʻzbekiston, 2021.
10. Abdullayeva, M. “Oʻzbek jamiyatida diniy bagʻrikenglikning shakllanish omillari.” — Oʻzbekiston ijtimoiy fanlari jurnali, №4, 2020.
11. Saidov, A. “Mahalla instituti va milliy bagʻrikenglik an’analari.” — Huquq va jamiyat, №2, 2019.
12. UNESCO. Interfaith Dialogue and Cultural Diversity in Central Asia. Paris: UNESCO Publishing, 2017.
13. Foltz, R. Religions of the Silk Road. London: Palgrave Macmillan, 2010.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF ACADEMIC ENGAGEMENT AMONG DISTANCE EDUCATION STUDENTS

Zokhidov Samandar Iskandar ugli
PhD student at NUUz

The rapid growth of distance education has increased the need to understand the psychological factors that influence students’ academic engagement in online learning environments. Academic engagement is a key predictor of learning outcomes, persistence, and overall academic success, particularly in contexts that require high levels of autonomy and self-regulation. This article examines the psychological determinants of

academic engagement among distance education students, focusing on motivation, self-regulation, digital competence, and value orientations.

Drawing on contemporary research in educational psychology, the study highlights how individual differences shape students' cognitive, emotional, and behavioral engagement in online learning. The findings suggest that students with higher intrinsic motivation, stronger self-regulatory skills, and positive attitudes toward technology demonstrate greater engagement in distance education. The article concludes by discussing implications for instructional design and psychological support in online higher education. Distance education has become an integral part of modern higher education, providing flexible learning opportunities for students across diverse social and cultural contexts. Advances in digital technologies have enabled universities to expand access to education; however, the effectiveness of distance learning largely depends on students' ability to remain actively engaged in the learning process. Academic engagement, which includes cognitive, emotional, and behavioral components, is widely recognized as a critical factor in students' academic achievement and retention.

Academic engagement is commonly defined as a multidimensional construct that includes cognitive, emotional, and behavioral involvement in learning activities[1]. Fredricks et al. conceptualize engagement as an active process in which students invest effort, interest, and strategic thinking into academic tasks. In the context of distance education, this conceptualization becomes particularly relevant because students are not continuously monitored by instructors. As a result, engagement shifts from being externally regulated to internally driven, making it a central psychological mechanism underlying academic success in online environments.

Distance learning environments amplify the importance of engagement because reduced face-to-face interaction limits immediate feedback and social reinforcement. Consequently, students' willingness to cognitively invest in learning tasks and emotionally connect with the learning process determines the effectiveness of distance education.

Motivation is widely recognized as one of the strongest predictors of academic engagement and persistence [2].According to Deci and Ryan's Self-Determination Theory, motivation exists on a continuum from intrinsic to extrinsic regulation. Intrinsic motivation, which is driven by interest and personal relevance, has been shown to foster deeper cognitive engagement and sustained effort. In distance education, where external control is minimal, intrinsically motivated students are better equipped to maintain engagement over time.

However, distance learning may reduce motivation for students who rely on external structure, immediate supervision, or social comparison. This highlights the dual role of motivation in online education: while autonomy can enhance motivation for some learners, it may undermine engagement for others who lack internal motivational resources.

Self-regulation refers to learners' ability to set goals, manage time, monitor progress, and adjust learning strategies [3]. Zimmerman emphasizes that self-regulated learners actively control their cognitive and motivational processes, which is particularly critical

in distance education contexts. Online learning environments demand a high level of independence, making self-regulation a prerequisite for sustained engagement. Empirical research consistently shows that students with strong self-regulatory skills demonstrate higher engagement, lower procrastination, and greater academic persistence in online courses. In contrast, insufficient self-regulation often leads to disengagement and dropout, underscoring its central role as a psychological determinant of engagement in distance education.

Digital competence encompasses the skills, knowledge, and attitudes required to effectively use digital technologies for learning purposes [4]. Ferrari conceptualizes digital competence not only as technical ability but also as confidence and critical understanding of digital tools. In distance education, digital competence reduces cognitive load and technological anxiety, allowing students to focus on learning content rather than platform navigation.

Students with higher digital competence tend to participate more actively in online discussions, manage learning platforms more efficiently, and experience greater emotional engagement. Conversely, limited digital skills can lead to frustration and withdrawal, negatively affecting academic engagement despite high motivation.

Value orientations play a fundamental role in shaping students' educational goals and learning behaviors [5]. Schwartz's theory of basic human values suggests that individuals who prioritize autonomy, achievement, and self-direction are more likely to adapt successfully to distance education environments. These values align closely with the independent and self-managed nature of online learning.

Students whose value systems emphasize external regulation, conformity, or strong social presence may experience reduced engagement in distance education. This indicates that academic engagement is not solely determined by skills or motivation but is also deeply embedded in broader personal value systems that guide students' educational choices and behaviors.

Although existing research has identified multiple psychological determinants of academic engagement, most studies examine these factors in isolation. This fragmented approach limits the explanatory power of current models. An integrative perspective that considers motivation, self-regulation, digital competence, and value orientations simultaneously is necessary to fully understand engagement in distance education. Such an approach would allow researchers to explain why students with similar cognitive abilities may demonstrate markedly different engagement patterns in online learning environments. Therefore, future research should adopt comprehensive psychological models that reflect the complex and interactive nature of academic engagement in distance education.

References:

Fredricks, J. A., Blumenfeld, P. C., & Paris, A. H. (2004). *School engagement: Potential of the concept, state of the evidence*.

Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). *The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and self-determination of behavior*.

Zimmerman, B. J. (2000). *Attaining self-regulation: A social cognitive perspective*.

Ferrari, A. (2013). *DIGCOMP: A framework for developing and understanding digital competence*.

Schwartz, S. H. (1992). *Universals in the content and structure of values*.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINI O'RNI

Zubarjonov Odilbek Gayratbek o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi

Dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, ayniqsa intellektual salohiyatining oshishida XXI asr jiddiy yangilanishlarga boy davr sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Taraqqiyot jarayoni esa ta’lim sohasini ham o‘z ortidan ergashtirib, unga yanada kuchli e’tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

Kitobxonlikni yuksaltirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 13-dekabr kuni qabul qilingan 3271-sonli Qarori “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshrish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” ҳамда O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi[1].

2020-yil 14-dekabr kunidagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son Qarori va “Besh tashabbus” loyihalari muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Mazkur, 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining to‘rtinchisi, ya’ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi[3].

Shuningdek, Prezidentimizning nutq va ma’ruzalarida ta’kidlanganidek, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilanishi diqqatga sazovordir.

Buni biz yetuk mutafakkir Muhammad Jabalduriyning quyidagi fikrlarida ham ko‘rishimiz mumkin: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atga tengi yo‘q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar, suhbatidan zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida

barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob “Aql qal’asidir”

Kitobxonlik madaniyati – o‘zida psixologiya va pedagogika vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi, bolalar qalbini badiiy tadqiq qiladi, bolalikni san’at ko‘zgusida butunligicha ko‘rsatadi, aniqrog‘i, badiiy izlanishlar orqali bolalarning ruhiy dunyosi va ijtimoiy-axloqiy shakllanishini takomillashtirishni ko‘rsatadi. Shu asosda fan va san’at o‘zaro bog‘langan va yaxlit san’at natijasiga aylanadi. Natijada bolalar adabiyoti pedagogika va psixologiyaning o‘ziga xos badiiy-axloqiy umumlashuviga aylanadi aylanadi.Bolalar adabiyotining bu xususiyati esa yozuvchining oldiga bir qancha vazifalarni qo’yadi, masalan: kitobxonlarning yosh xususiyatlari, ularning mintaliteti, saviyasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda ijod qilishni talab etadi.

Bu o’z navbatida yozuvchi kitobxonlarning yoshini aniqqlashni talab etadi.Chunki yozuvchi adabiyotni kim uchun yozayotkanini bilishi kerak , - deb yozgan edi M.Gorkiy.

Aks holda, uning kitobi o‘quvchisiz qoladi. Bolalar yozuvchilari o‘quvchilarning yoshiga jiddiy e’tibor berishlari kerak. Agar bu bajarilmasa, kitob "manzilsiz" bo‘lib qoladi va kattalar uchun ham, bolalar uchun ham keraksiz bo‘ladi.

Pushkin nazarida **mutolaa** — insonning ma’naviy va ruhiy rivojlanishidagi eng muhim vosita. U kitob o‘qishni faqat bilim olish sifatida emas, balki shaxsni tarbiyalash, fikrini kengaytirish, ruhini boyitish va erkin fikrlashga o‘rgatadigan jarayon sifatida ko‘radi. O‘qish orqali inson dunyoqarashini kengaytiradi, axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi va hayotiy qarorlarida ongli bo‘lishga yordam beradi. Pushkin uchun mutolaa shaxsiy kamolotning, erkin fikr va bilimga asoslangan hayotning muhim poydevori hisoblanadi.

Kitoblar orqali yoshlar axloqiy fazilatlarni o‘rganadi, dunyoqarashi kengayadi, tarixiy va madaniy meros bilan tanishadi. Qulaversa, o‘zligini anglaydi va milliy g‘ururini rivojlantiradi.

Mutolaa yoshlarni mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishda mustaqil, shuningdek, jamiyat va aholi oldidagi mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi. Shu sababli Pushkinning kitob va mutolaa haqida qarashlari yoshlar ma’naviyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq: bilim va ma’naviyat birlashganda, yoshlar nafaqat aqlan, balki axloqiy jihatdan ham yetuk inson bo‘lib yetishadi.

Ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir.

Yurtboshimiz ta’kidlanganidek, ma’naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat yo‘qotilsa, bu o‘ta muhim ish o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma’naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishi mumkin.

O‘zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma’naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o‘lmas merosni chuqur o‘rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan.

Chunki, ertaga kattalar o‘rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo‘lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma’naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar ma’naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi.

Qadriyatlar – har bir millatning ma’naviy qiyofasini namoyon etadi. Xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadriyatlari va milliy madaniyatini aks ettiruvchi milliy liboslarimiz qadriyatlarimizning muhim qismi bo‘lib, butun millatning ma’naviy qiyofasini o‘zida namoyon etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda milliy liboslar targ‘ibotini kuchaytirish, yosh avlod ongiga millat ruhiyatini singdirish, ular hayotiga o‘zbekona mentalitet me’yorlarini olib kirish hamda milliy liboslarga mehr uyg‘otish maqsadida turli xil milliy liboslar festivali va shu ko‘rinishdagi tadbirlarning tashkil etilayotganligi ham bejiz emas.

Buning isboti sifatida bugungu kunda har haftaning juma kuni milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash maqsadida yoshu-qari,o’g’ilu-qizlar milliy liboslar kiygan holda yurishmoqda.

Xulosa o’rnida globallshuv davrida yoshlar manaviyati va aqliy salohiyatini rivojlantirishda kitobxonlik muhum ahamiyatga ega. Kitob mutoala qilish orqali yoshlar ilmiy salohiyatini rivojlantirishi, dunyo qarashini kengaytirishi va milliy qolaversa dunyoviy qadriyatlarni anglay oladi. Shu bilan birga, kitobxonlik ularni mustaqil fikrlashga, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilishga va shaxsiy kamolotga yetaklaydi. Shunday qilib, ma’naviy tarbiya va kitobxonlikni targ‘ib qilish yosh avlodning ya’ni bizning aqlan va axloqan yetuk shaxslar bo‘lib shakllanishimizda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni ilgari surgan “Beshta muhim tashabbus” dasturi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son Qarori – “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi”.

3. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi. – Toshkent.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ХОТИН-ҚИЗЛАРИГА ЯРАТИЛАЁТГАН ИМКОНИЯТЛАР: ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА ТАРИХИЙ ТАЖРИБА УЙҒУНЛИГИ

Нуруллаева Набира
Ўзбек тили, тиллар ва ижтимоий фанлар кафедраси ассистенти,
Қороқалпоғистон медицина институти

Қорақалпоғистон Республикасида хотин-қизларга яратилаётган имкониятларни таҳлил қилиш замонавий тарих фанининг ижтимоий тарих ва гендер тарихи йўналишлари билан бевосита боғлиқ масаладир. XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб жаҳон тарихшунослигида хотин-қизлар масаласи жамият модернизацияси, давлат сиёсати ва ижтимоий барқарорлик билан узвий боғлиқ ҳолда ўрганила бошланди. Айниқса, Жоан Скотт томонидан ишлаб чиқилган “гендер – тарихий таҳлил категорияси сифатида” концепцияси хотин-қизлар мақомини фақат ижтимоий гуруҳ сифатида эмас, балки давлат ва жамият муносабатларини англаш воситаси сифатида таҳлил қилиш имконини берди. Шу нуқтаи назардан Қорақалпоғистон хотин-қизларига яратилаётган имкониятларни ўрганиш Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсатининг ҳудудий амалга оширилиш хусусиятларини тарихий жиҳатдан баҳолаш учун муҳимдир. Тарихий жиҳатдан Қорақалпоғистон хотин-қизларининг ижтимоий мақоми анъанавий жамият, совет модернизация сиёсати ва мустақиллик даври ислоҳотлари таъсирида шаклланган. Совет даврида хотин-қизларни ишлаб чиқаришга, таълим ва жамоат ҳаётига жалб этиш давлат сиёсатининг муҳим йўналиши бўлган. Халқаро тарихчи Шеила Фитзпатрик таъкидлаганидек, совет модернизацияси хотин-қизлар учун таълим ва меҳнатга кириш имкониятларини кенгайтирган, бироқ уй меҳнати ва оилавий масъулиятларни қайта тақсимлаш масаласини тўлиқ ҳал қила олмаган. Бу ҳолат Қорақалпоғистон каби анъанавий ижтимоий муносабатлар сақланган ҳудудларда янада кучли намоён бўлган.

Мустақилликдан кейин Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида қайта шакллантирилди. Айниқса, 2017 йилдан кейин қабул қилинган қонунчилик ҳужжатлари ва институционал ислоҳотлар хотин-қизларнинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлаш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини оширишга қаратилди. Ўзбекистон Республикаси томонидан амалга оширилаётган мазкур сиёсат халқаро стандартларга мос равишда гендер тенглигини таъминлашни стратегик мақсад сифатида белгилайди. Бу ҳолат давлат сиёсатининг ижтимоий барқарорлик ва инсон капитали ривожидаги ролини тасдиқлайди. Халқаро ташкилотлар таҳлиллари ҳам Ўзбекистонда хотин-қизлар сиёсати изчил институционал асосга эга эканини кўрсатади. Жаҳон банки томонидан тайёрланган гендер баҳолаш ҳисоботларида таъкидланишича, Ўзбекистонда хотин-қизлар учун ҳуқуқий кафолатлар яратилган, асосий вазифа эса ушбу имкониятларни ҳудудий шароитларга мос равишда амалга оширишдан иборат. Шу маънода

Қорақалпоғистон алоҳида эътибор талаб қилади, чунки бу ҳудуд экологик инқироз, ишсизлик ва ижтимоий инфратузилманинг чекланганлиги билан ажралиб туради.

Қорақалпоғистонда хотин-қизларга яратилаётган имкониятлар, аввало, ижтимоий ҳимоя, бандлик ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш орқали намоён бўлади. Бирлашган миллатлар ташкилотининг ривожланиш дастури ҳисоботларига кўра, Ўзбекистонда хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантириш давлат сиёсати ва халқаро ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Қорақалпоғистонда ҳам микробизнес, оилавий тадбиркорлик ва касбий қайта тайёрлаш дастурлари хотин-қизларнинг иқтисодий фаоллигини оширишга хизмат қилмоқда. Бу ҳолат давлат сиёсатининг ҳудудий даражада амалий самара бераётганидан далолат беради.

Шу билан бирга, тарихий-танқидий таҳлил шуни кўрсатадики, мавжуд имкониятларнинг самарадорлигига таъсир этувчи объектив омиллар сақланиб қолмоқда. Хусусан, Оролбўйи минтақасидаги экологик инқироз хотин-қизлар саломатлиги, меҳнат қобилияти ва ижтимоий фаоллигига узоқ муддатли таъсир кўрсатмоқда. Эрик Хоббсон таъкидлаганидек, давлат сиёсати ижтимоий гуруҳларни фаол субъектга айлантира олган тақдирдагина тарихий аҳамият касб этади. Қорақалпоғистон мисолида хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя объектидан иқтисодий ва маданий субъектга айлантириш жараёни босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Маҳаллий тарихшуносликда ҳам хотин-қизлар масаласи ижтимоий трансформация жараёнлари билан боғлиқ ҳолда таҳлил қилинади. Ўзбекистон тарихчилари томонидан қайд этилганидек, мустақиллик даврида хотин-қизлар сиёсати миллий қадриятлар, оила институти ва жамият барқарорлигини таъминлаш мақсадлари билан уйғун ҳолда ривожланди. Бу ёндашув давлат сиёсатининг тарихий давомийликка таянаётганини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, Қорақалпоғистон хотин-қизларига яратилаётган имкониятлар Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсатининг изчил ва мақсадли йўналишларидан бири ҳисобланади. Мавжуд муаммолар давлат сиёсатининг йўқлигини эмас, балки уни ҳудудий ва экологик шароитларга мос равишда такомиллаштириш заруратини кўрсатади. Тарихий таҳлил шуни англатадики, хотин-қизлар масаласидаги ислоҳотлар ижобий динамикага эга бўлиб, уларни илмий асосда ривожлантириш давлат сиёсатининг самарадорлигини янада оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Scott J. W. Gender as a useful category of historical analysis //Culture, society and sexuality. – Routledge, 2007. – b. 77-97.

2. Krylova A. Soviet modernity in life and fiction: The generation of the “new Soviet person” in the 1930s. – The Johns Hopkins University, 2001.

3. Hobsbawm E. The Age of Extremes //Abacus, London. Hopwood, B., Mellor, M., & O’Brien, G. – 2005. – C. 38-52.

4. Bloch M. Apologie pour l’histoire ou Métier d’historien. – Paris: Armand Colin, 1949. – 160 p.

5. World Bank. Uzbekistan: Country Gender Assessment. – Washington, DC: World Bank Group, 2024. – 98 p.

6. United Nations Development Programme. Gender Equality Strategy 2022–2025. – New York: UNDP, 2022. – 36 p.

7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ЎРҚ-562-сон “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”**.** – Тошкент: Ҳуқуқий маълумотлар миллий базаси, 02.09.2019.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 15.08.2017 й. Ф-5024-сон "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини келгусида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармойиши. Тошкент, 2017.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 21.12.2023 йилдаги ПҚ-401-сонли “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент, 2021.

MUNDARIJA

Abdiyeva Dilshoda Olim qizi. Media madaniyatining funksiyalari va shakllanish bosqichlari……3

Abdiyeva Dilshoda Olim qizi. O‘zbekistonda axborotlarni olish, qayta ishlash va foydalanish madaniyatining o‘ziga xos jihatlari…… ……7

Abdullayev Farxod Donakulovich. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish texnologiyalari……12

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna. Ijtimoiy va madaniy omillar ishonchni shakllantirishdagi o‘rni……15

Abdumalikov Abbosbek Abrorbek o‘g‘li. Globallashuv sharoitida yoshlar huquqiy savodxonligini oshirish masalalari……19

Abdumalikova Iroda. Globallashuv jarayonining yoshlar ongiga ijtimoiy - psixologik ta’siri……22

Abduqodirova Ozoda, Nurqulov Bunyod. Raqamli dunyo va inson qadri……25

Abdurahimov Ravshanbek O‘ktam o‘g‘li. Globallashuv sharoitida yoshlar huquqiy ongini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muammolari……30

Abdurahmonov Raxmiddin,Tohirova Mohichehra, Abduraxmonova. Boshlang’ich sinflarda tabiiy fanlarni o’qitishning samarali usullari……32

Abduraximova Nilufar Abdug`afforovna. STEM ta’lim asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish……35

Abramatova Saida. Yoshlar ma'naviy qadriyatlariga ommaviy madaniyatning ta'siri……38

Abrayev Sherzod. Yoshlar ma’naviy faolligi va salohiyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy mezonlari……41

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich. Zamonaviy yoshlar axloqiy kamolotida “nafs”ni tarbiyalash masalasi……44

Adasheva Muyassar. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari……49

Adilchayeva Aksungul Polatovna. Temur tuzuklar: ma’naviyatni o‘rganish usullari……51

Ahmadjonova Dilnoza Gayratillayevna. Globallashuv sharoitida urbanizatsiyaning yoshlar ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishiga ta’siri……54

Aimbetova Mexriban Saduaxasobna. Globallashuv davrida etnomadaniy qadriyatlarning o‘rni……59

Akbaraliyeva Go‘zaloy Sherali qizi. Globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatida ijobiy fikrlashning ahamiyati……64

Akbarova Nozima Anvarjon qizi, Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi, Inoyatov Shukurillo Turg’unboyevich. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiyani shakllantirish..68

Aktamov Shohzod Ravshan o’g’li. Talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirishning psixologik omillari……75

Aktamov Shohzod Ravshan o’g’li. Talabalarning liderlik xususiyatlari tarkib topishiga ta’sir etuvchi faktorlar……80

Alibekova Gaziza Kenjebekovna, Mirzahmetov Kamoliddin Mansurdjanovich. Youth political discourse in the digital space: analysis and evaluation……82

Alikulov Xusniddin Akbarovich. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarda ekologik tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari……89

Alimov Farxod. Ta’limni modernizatsiya qilishda talabalarning kasbiy yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati……92

Aliqulov Azamat Shavkat o‘g‘li. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarning integratsiyasi……96

Allashkurov Dilshodbek Mansurovich, Botirov Orifjon Ozod o‘g‘li, Masharipov Dilshodbek Zokirjon o‘g‘li. Sun’iy intellekt xavfsizligi: afzallik va xavflar…… .100

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich. Turk xalq maqollarida o‘g‘il farzand tarbiyasi masalasi……109

Арипджанова Камилла Азизовна. Духовность молодёжи как объект правовой защиты: миф или реальность в условиях цифровой глобализации……111

Arslonov Zafar Doniyorovich. Globallashuv jarayonida yoshlar milliy-ma’naviy o‘zligini saqlashning asosiy omillari va mexanizmlari……116

Ashurov Abror Uralovich. Barqaror rivojlanish tamoyillari va global madaniy ta’sirlar fonida yoshlar iqtisodiy xulq-atvori evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy talqini……122

Asqarov Xusanboy Esonovich. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish vazifalari……129

Atajanova Qunduz. Globallashuv davrida pedagogik boshqaruv madaniyati va yoshlar ma’naviy rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi……131

Atamirzayev Ibroxim Xakimovich. Globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini oshirishning o‘ziga xos jihatlari……135

Atamuxamedova Zuxra Mashrab qizi. Yoshlar ruhiy holatiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri……138

Atavullayev Mirkomil Axmadovich, Asadov Mirali, Kamolova Gavhar. Globallashuv sharoitida millatlar va milliy munosabatlar……142

Avezov Umidjon Sharipovich. Zamonaviy jamiyatda fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsion imkoniyatlari……145

Axmedov Ergash Kuldashevich. Diniy sektalarning yoshlar ma’naviyatiga salbiy tasiri……147

Aytbayev Mansurbek Yusupovich. Mahmud Zamaxshariyning “Atvoq-uz zahab” asarida inson ma’naviy kamoloti va axloqiy fazilatlar talqini……151

Azamjonova Nozlibegim Dilmurodovna. Texnologik sivilizatsiya ta’sirida arxetiplar dinamikasi: insondagi psixorevolyutsion o‘zgarishlar……154

Bahramova Dinara Davron qizi. Globallashuv jarayonida yoshlar ongida kitobxonlik ma’daniyatini shakllantirish mexanizmlari……156

Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich. Iqtisodiyotni raqamlashtirish davrida mintaqalar xizmat ko‘rsatishida inson kapitalidan foydalanishni rivojlantirish tendensiyalari……159

Baxromov Saidolimxon Saydalixon o‘g‘li. Globallashuv davrida axborot madaniyatini shakllantirish va kiberjinoyatlarni oldini olish masalasiga doir……..164

Baxronova Gulrux Raxim qizi. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……167

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna, O‘ktamova Jasmina Axtam qizi. Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining bolalar tarbiyasidagi o‘rni……..172

Baxtiyorova Zulayho Nuraliyevna, Karimova Lola Muzaffarovna. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirishning dolzarb masalalari……174

Bazarbayeva Juldizkhan Sarsenbay qizi, Xabibullayev Shaxzod Abdugaffarovich. Territorial analysis of youth’s spiritual space in the context of globalization based on digital cartography and gis technologies……176

Bazarova O‘giljon Aminovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish……180

Bekchanov Sanjar Ibragimovich. O‘zbekiston jamiyatida ma’naviy hayotini modernizatsiyalash……184

Bekimbetova Aynagul Amangeldievna, Ollaberganova Mohira. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimediyali mahsulotlar yaratishning ilmiy jihatlarini tahlil qilish……186

Berdiqulova Mahbuba Erkinjon qizi. Yoshlar tarbiyasida emotsiyalarni boshqarish va tanqidiy fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi……189

Boybuvayev Urayimjon, Kucharov Muzrob. O‘zbekiston misolida ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalar……193

Бойматов Рустам. Мустақил тафаккур зарурияти……197

Boymurodov Sanjar, Mirqirbonova Dilnavo, To‘ychiyeva Aziza. Globallashuv sharoitida pedagogika va psixologiya……199

Chorshamova Go‘zal To‘liboy qizi. Nikoh shartnomasi: mulk, ishonch va kelajakni himoya qilish san’ati……201

Davlatova Dildora Nuriddinovna. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarni tanlash va ularning kasbiy rivojlanishini boshqarish masalalari……205

Джалилов Б.Х. Талаба-ёшларни бағрикенглик рухида тарбиялаш……207

Djo‘rayeva Shodiya Oybek qizi. Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati…..213

Djurayev Nurmurod Abduyusupovich. Davlat boshqaruvi transformatsiyasi sharoitida yoshlar ma’naviy salohiyatining institutsional ahamiyati……216

Do’monova Kamola. Comparative analysis of english and uzbek proverbs: linguistic, cultural, and translational perspectives……220

Dulanboyeva Oygul Asilbek qizi. XX asr G‘arb madaniyatida mutolaa sotsiomodelining ratsionallik xususiyatlari……224

Samadov Aktam Rafikovich, Dusmurodov Alizod Ma’ruf o‘g‘li. Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar va yoshlar ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligi……228

Dustova Gulnoza Ashurovna. O‘zbek xalqi ma’naviy kamolotining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi va uning ildizlari……232

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna, Ergasheva Yulduz Muxtorovna. O’zbek xalq ertaklarining bolalar ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati……237

Ergashov Zuhriddinjon. Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyati va siyosiy qarashlarining o‘zgarishi……240

Esonaliyeva Gulnoza Dilmurod qizi. Bag‘rikenglik– taraqqiyot omili……244

Esanov Fazliddin Dushayevich. Globallashuv davrida Jadid allomalar merosining yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati……247

Farxodova Lobar Temur qizi. Raqamli media diskursida yoshlar ma’naviy xavfsizligining lisoniy modellashtirilishi (o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlar materiallari asosida)……249

Farxodova Moxichexra Xo‘jabek qizi. Axborot xavfsizligiga tahdidlarning asosiy turlari……253

Fayzullaeva Surayyo Sharif qizi, Zakirov Shakirdjan Mamajanovich. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni……257

G‘afforbekova Muslima Otabek qizi, Rasulov R. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning yoshlar ma’naviy kamolotidagi o‘rni……261

G‘ulomova Xurshida Sobit qizi. O‘zbekistonda endogam nikohlar tarqalishining asosiy sabablari……264

G’ulomov Bunyodjon Baxtiyorjon o’g’li. Inklyuziv ta’limda o’quvchilarni fazoviy tasavvurini shakllantirish va rivojlantirishda 2d va 3d grafik modellashtirishning ahamiyati……270

Gulomova Dilshoda Xayrullo qizi. Sharq va G‘arb madaniyatlarining globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatiga ta’siri va ularni o‘rganishning zamonaviy usullari……274

Hakimova Nargiza Feruz qizi. Turkiy dunyo yoshlari: birdamlik sari bir yo`l……276

Hamroyeva Malika. Ta’lim tashkilotlarini ijtimoiy - psixologik klaster yondashuvining nazariy asoslari……281

Hasanova Madinabonu Ulug‘bek qizi. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……285

Hojiyev Farhod Jumaboyevich. Yoshlar va media: global ma`naviy tahdidlar…..287

Hosiljonova E’zoza No’monjon qizi. Erkin Vohidov she’riyatida insoniy qadriyatlar talqini……292

Ibroximjonova Feruza Ibragimovna. Globallashuv davrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish……294

Ibrohimova Halima Vahobjonovna. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilaning yoshlar tarbiyasidagi o’zaro bog’liqligi……298

Ilhomjonova Fotima. Oilaviy muhitda yoshlarning ma’naviy va psixologik qarashlarining shakllanishi……301

Ilhomjonova Zuhra O‘lmaskamol qizi. Zamonaviy yoshlarning ruhiyatiga ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri……304

Ilmiddinov Lutfullo Nizomjon o’g’li, Atamirzayev I. Globallashuv davrida yoshlar tarbiyasida mahallaning o‘rni……310

Имонқулова Ирода Исматуллаевна. Маҳалла тизимида ёшларнинг сиёсий маданиятини шакллантириш масалалари……313

Iskandarov Nurbek Ziyodullayevich. Bo‘lajak pedagogning emotsional intellektini rivojlantirish strategiyasi: natijadorlik va kasbiy mahoratga yo‘naltirilgan yondashuv……318

Islamova Fotima Shamsiddinovna, Abduqunduzova Gulsora. “Ma’naviy immunitet”dan “ma’naviy yetakchilik”ga: ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan yoshlarning o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari……321

Ismailova Sarvinoz Sherzod qizi. Zamonaviy texnikalarning tarjima sohasiga ta’siri……325

Ismatullayeva Madina Xayriddin qizi. Jinoyatchilikning mafkuraviy sabablari: tahlil va oldini olishda tarbiyaviy yondashuv……329

Berdikulova Surayyo Aslamovna, Isroilova Dildora Baxtiyor qizi. Globallashuv sharoitida yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllantirish omillari……331

Jabborov Elbek Eshpo‘latovich. Globallashuv sharoitida yoshlar infantilizmi: sabablar, oqibatlar va yechimlar……334

Jabborov Elbek Eshpo‘latovich. Yoshlar infantilizmiga qarshi kurashishda ma’naviyatning o‘rni……336

Jabborova Aziza G’ayratovna. Jahon andozalari darajasida kino san’atining axborot-texnalogiyalari orqali kirib kelishi……337

Jabborova Aziza G’ayratovna. Global ijtimoiy-madaniy o’zgarishlar kontekstida kino san’atining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri……339

Jabborova Saodat Sattorovna, Obidova Zilola Fozilovna. Globallashuv sharoitida yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish……342

Jalolov Ilxomjon Azamjonovich. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talalabalarida klinik laborator diagnostika fanidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi…..345

Jalolova Dilnoza Shuhrat qizi. Ma’naviy tarbiyani shakllantirishda media vositalardan foydalanish……347

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna, Urunboyeva Janona Akmal qizi. O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning ayrim masalalari……352

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi. Raqamli avlod shakllanishida kibersportning ijtimoiy-madaniy determinantlari……355

Jumaniyazova Moxira Shuxrat qizi. Globallashuv sharoitida yoshlarning oilaviy qadriyatlarni qabul qilishdagi transformatsion yondashuvi……360

Jumaniyazova Nafosat Ravshanbekovna. Huquqiy madaniyat huquqiy savodhonlikni oshirishda til-nutq va adabiyotning o`rni……365

Jumaniyazova Sabohat Urinbayevna. O‘smirlarda gedonistik motivatsiya shakllanishining psixologik xususiyatlari……369

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich. Inson kapitalining mazmuni va huquqiy asoslari bo‘yicha milliy hamda xalqaro qarashlar……371

Jumanova Zuxra Xolbayevna, Baxodirov Bexruzbek Bexzod o‘g‘li. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oila va ta’lim muassasalarining o‘rni……374

Jurayeva Halima Alisher qizi, O‘rolova Sevinch Normurod qizi. Stressli vaziyatga tushgan xotin-qizlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishning asosiy jihatlari……..379

Jurayeva Halima Alisher qizi, Otoxonova Sojida Faxriddin qizi. Oila va ta’lim muassasalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri……383

Джураева Муножат Мухтаровна. Социальный контроль как компонент самореализации личности у молодежи……385

Kadirov Farxod Absattarovich. Milliy mafkura va internet-madaniyati……388

Kadirova Xumora. Ta’lim boshqaruvida psixologik muhitni rivojlantirishdagi mavjud muammolar (umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)……389

Karabekov Gayratjon Tashmurotovich. O‘quvchilar o‘rtasida milliy xalq o‘yinlarini targ‘ib qilish orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish……393

Karimberdiyev Iskandar Ozodbek o’g’li, Qodiraliyeva Ijobat. Voyaga yetmaganlarni giyohvandlikdan himoya qilishning huquqiy va ijtimoiy asoslari……395

Karimova Iroda Bobur qizi. O‘zbek va ingliz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy sport o`yinlarining o`rni……398

Karimova Madinabonu Mas’udjon qizi. Kiberhujumlar tahdidi va ularni bartaraf etishning zamonaviy usullari……402

Karimova Muhlisa Azizbek qizi. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati….405

Kasimov Sandjar Magrupovich. Bin ova inshootlarning energiya samaradorligini yuksaltirishnhamda energiya tejash jarayonlari tahlili……407

Kayumova Lobar, Sadullayeva Ruxshona. O‘zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, media makon va ma’naviy xavfsizlik……414

Kenjaboyeva Nurhayot Nurulla qizi. O‘zbekiston hududida o‘simliklarning fenologik o‘zgarishlari va iqlim o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni biostatistik tahlil qilish……418

Komekbayeva Albina Rashid qizi. Youth spirituality in the age of globalization……420

Kozimov Azizjon Nozim o‘g‘li. Milliy internet resurslarning yoshlarni ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyati……423

Kuanisheva Marina Aldabergenqizi, Berdimuratova L.D. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yoshlar ongiga ta’siri……425

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbayevna. Globallashuv jarayonlarining yoshlar mentalitetiga ijobiy va salbiy ta’siri……428

Kurbanov Ravshan Raimjonovich. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat, san’at sohasida o‘tkazilayotgan tanlovlar va ularda yoshlarning ishtiroki……435

Kurbonaliyev Ural Xatamovich. Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati……454

Kurbondurdiyeva Hilola, Ergasheva Xurshida. Zamonaviy globallashuv va yoshlar ma‘naviyati: muammo va yechimlar……458

Kushboev Kuvonchbek Salimjon ugli. Negotiating cultural identity through everyday practices as an international student in Australia……461

Lutfilloyeva Muattar Umidillo qizi. Yoshlar ma’naviyatidagi inqiroz omillari va ularning oldini olish yo‘llari……..466

Madumarova Gulnora Sobirovna. Rahbar shaxsining alturizm va tolerantlik jihatlari……..468

Mahmalatipova Aziza, Xusanova Xayriniso. Yangi O’zbekistonda oila insitutlarini rivojlantirish va xotin-qizlarni ijtimoiy qo’llab quvvatlashning mazmun va mohiyati…..470

Mamadaliyeva Dano Inayatovna. Tarixiy manbaalar va milliy-ma’naviy qadriyatlarning o’zaro bog’liqligi……475

Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh. “Halol” va “harom” atamalarining o’zbek tilida qo’llanilishi: sertifikatlash, halol standartlari va sifat boshqaruvi amaliyotida semantik-progmatik talqin……477

Mamadiyeva Nilufar Xalilovna, Muxtorov Sherzod Nurali o’g’li. Milliy va diniy qadriyatlar uyg’unligi, ularning tarixiy ildizlari……484

Mamadjonova Marvarid Qurbonazarovna, Qurbonova Maftuna Ikramovna. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari……489

Mamajonov Ibrohim Olimjon o‘g‘li. Yo‘shlarni harbiy xizmatga jalb qilish: zamonaviy muammolar va istiqbolli yechimlar……491

Mamatov Tuxtamurod. Globalashuv davrida yoshlarning ma’naviyati: qadriyatlar transformatsiyasi va ularni mustahkamlash yo‘nalishlari……495

Mamatov Tuxtamurod Otamurodovich. Ziyatova Iroda Suyunovna. Philosophical foundations of educational and informational processes: developing critical thinking and ideological resilience……497

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich. Zamonaviy oila va migratsiya: o‘zaro munosabatlar ta’siri……500

Ikramova I.R. Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi. Yoshlar axloqiy ongining shakllanishida mumtoz merosning o‘rni: Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy” asari misolida……503

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda muzeylar qadriyat vositasi sifatida……507

Matvapayeva Nasiba G‘ayratovna. O‘zbekistonda intellektual migratsiya va uning sabablari……510

Mavlonova Dilnozaxon Shuxratjon qizi. Raqamli vositalarning yoshlar ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri……513

Maxmudova Hilola Yashnarjon qizi. Boshlang‘ich sinflarda orfoepiya o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish……516

Meyliyev Azamat Farxod o‘g‘li. Globallashuv davrida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy asoslari……518

Qoraboyeva Zohida To‘lanboyevna, Mirabdullayeva Muxlisaxon Mansurjon qizi. Ta'lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……520

Mirakbarova Dildora Miralisher qizi. “Reborn” qo‘g‘irchoqlarning ma’naviy tahdidi……523

Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich. Raqamli transformatsiya sharoitida gender diskriminatsiyasining oldini olish: xalqaro tajriba va o‘zbekiston yondashuvi……526

Mirzayeva Shahrizoda Shuhratjon qizi. Virtual muhitda estetik ehtiyojlarning ma’naviy immunitetga ta’siri……528

Muhamedov Asror Asadovich. Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasi……532

Atamirzayev.I.X. Musayev Hamzahon Zokirjon o’g’li, Xabibullayev Sayfiddin Saydullo o’g’li. Globallashuv va yoshlarning ma’naviyati……538

Musoyev Mironshoh Tursun o’g’li. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati……541

Мустафоев Акбар Мустафо угли. Совершенствование бухгалтерского учета и аудита расходов на инновационную деятельность……545

Мухитдинова Феруза Кутбиддиновна, Турсунмуродова Гульноза Дильшод кизи. Духовность молодёжи в условиях глобализации……548

Namozaliyev A.G‘. Bahodirova Sh.R. Globallashuv jarayonining yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga salbiy ta’siri va uni oldini olish masalalari……550

Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o‘g‘li. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning asosiy ko‘rinishlari……553

Қиём Назаров. Маънавий баркамол авлодни тарбиялаш омиллари……555

Ne’matov Zokirjon Muhiddin o’g’li. Postgumanistik kelajak: ongni raqamlashtirishning falsafiy asoslari……560

Nig`matova (Qosimova) Shohsanam Nabijon qizi. Psixologiya fanining kelib chiqishi tarixi……563

Niyatov Olimxon Nodirjonovich. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va medianing roli……564

Norboboyev Baxtiyor Jaxongir o‘g‘li. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida konstitutsiyaning roli……566

Norov Shaymardon Omonovich. Migratsiya va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda madaniy integratsiyaning o‘rni……568

Nuriddinov Abrorbek To‘lqin o‘g‘li. Ko‘chish jarayonlarida Buxoro aholisining etnik va diniy o‘zligini saqlab qolish masalalari……572

Nurmatova Dilnoza Shokirjon qizi. Raqamli madaniyat va yoshlar axloqiy me’yorlari xavf va imkoniyatlar……574

Nurmurodova Dilorom Umidjon qizi. Inson huquqlari ta’limi: yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati……576

Nurmuxamedov Toir Kurbanbekovich. Yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirish……580

Nuraliyeva Nasiba Axmadqulovna. Usmon Nosir poetikasida romantizmining falsafiy asoslari……582

Utamuradov Akbar, Obbosxonov Alimardon Akmalxon o`g`li. Yangi O`zbekistonda yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va madaniyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari……584

Ochilova Diyora Axtam qizi. Globallashuv sharoitida yoshlarning media savodxonligi: ingliz tilidagi raqamli kontentning ma’naviy qadriyatlarga ta’siri……587

Odilov Komiljon Furqatjon o‘g‘li. Yangi O‘zbekiston sharoitida ommaviy madaniyatning yoshlar ma’naviy qiyofasiga ta’siri: muammo va yechimlar……589

Odilova Nilifarxon Zoirjon qizi Renessans yoshlari va zamonaviy yoshlar: globallashuv sharoitida ma’naviy uyg‘onishning ikki modeli……592

Atamirzayev Ibrohim Hakimovich, Olimjonov Biloliddin Azizbek o‘g‘li. Globallashuv jarayonida yoshlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari……599

Olmonov Sirojiddin G‘aybulla o‘g‘li, Usmonova Sevinchoy Usmon qizi. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……601

Омонов Бахтиёр. Мафкуранинг долзарблиги ва зарурати……604

Oripov Xasan Abdivaxobovich, Nosirova Gulbeka Ahmadjon qizi. Raqamli texnologiyalar sharoitida shaxs ma’naviyatini asrashning dolzarbligi……607

Ortiqova Husnora Bekbo‘lsin qizi. Axborot globallashuvi davrida yoshlar ongining shakllanishi: imkoniyat va tahdidlar……610

Отепбергенова Гуззал. Руўхый мийрасларымызды үйрениў – бүгинги дәўирдиң әҳмийетли мәселеси……613

Po’latova Lobar. O‘zbekiston MTRK axborot dasturlarida texnik jihatdan tartibga solish masalalarini yoritish: jurnalistik yondashuv va professional mahorat muammolari……620

Примова Фотима Абдурахимовна. Глобаллашув даврида ёш авлод маънавиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг фалсафий илдизлари…..626

Qahramonova Zebiniso. Yangi O’zbekistonda ma’rifatli jamiyatni yaratishda yoshlarning o’rni va roli……631

Qilichev Rajab Ergashevich, Ashirova Hilola Zaripovna. Zamonaviy oila konsepsiyasini belgilovchi tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning kompleks o‘rganilishi talablari……634

Qobiljonova Jasmina Jasur qizi. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning badiiy idrok qobiliyatlarini rivojlantirishda kreativ yondashuvlarning o‘rni……636

Qolqanatov Asilbek Nazarbay o‘g‘li. Madaniy hayotimizning ma’naviy qiyofasiga aylanayotgan madaniyat markazlari……639

Qolqanov Nuriddin, Qolkanova Sabohat, Tashpulatova Mohiro‘y. Ma’naviyat va erkinlik: “Yolg‘on erkinlik” fenomeniga ijtimoiy-falsafiy yondashuv……644

Qozaqova Dilshoda Abduvoid qizi. Intellektning ta’lim va sun’iy tarbiya jarayonlariga ijobiy ta’siri……646

Qudratova Maftuna Murodulla qizi. Globallashuv jarayonlarining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri……648

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich. Axborot terrorizmi va yoshlar ongiga ta’sir: ma’naviy immunitetni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari……651

Quronbayeva Dilnoza Davron qizi, Saitova Niyyora Sobirjonovna, Bekmuxamedov Abduqayum Azimovich. Mitoxondrial DNKning shaxs identifikatsiyasidagi o‘rni va ahamiyati……654

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna. Globallashuv sharoitida destruktiv tendensiyalarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri……658
Radjapova Dilnura Anvarbekovna. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirishning psixologik omillari……661
Rahimjanov Shohruxmirzo Shuxrat o’g’li. Yoshlarni virtual va mafkuraviy tahdidlardan asrash masalalari……664
Rahmatova Nargizaxon Azamxonovna, G'aniyeva Malika. Sun'iy intellekt va ma'naviy xavfsizlik……668
Rahmonaliyev Javohir Umidjon o‘g‘li. Glaballashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri……671
Rajabbayeva Shahrizoda Kazbek qizi, Tog'ayev Shavkat. Behbudiy asarlarida vatanparvarlikning targ'ib qilinishi……674
Rajabov San’atjon Sunnatovich, Hamidov Begzod Toshpo‘lot o‘g‘li. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta’lim-tarbiya masalalari……676
Tohirova Mohichehra, Rasulova Mushtariy. Boshlang’ich sinf o’quvchilar tabiat haqidagi bilimlarni STEAM o’qitish tizimi asosida shakllantirish……680
Raximov Azizbek Bekturdiyevich. Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar……683
Рахимова Ш.Ш. О духовности молодёжи в условиях глобализации……687
Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna. Yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy hayot talablari o‘rtasidagi muvozanat……689
Raxmatullayeva Ozoda Shaxriddinovna. Ommaviy madaniyat filtr vazifasini bajarishining sotsiologik ahamiyati……692
Risaliyeva Sarvinoz Bunyod qizi. Bugungi yoshlarlarning ma’naviy qiyofasi: global omillar ta’sirida shakllanish jarayoni……695
Ro‘zimurodov O‘rolboy Madatovich. Global ijtimoiy-madaniy transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt axloqining shakllanishi: yoshlar ma’naviyatiga ta’sir omillari……699
Ro‘ziboyev Sardorbek Qo‘ziboy o‘g‘li. Yangi O‘zbekistonda raqamli parlamentarizmning rivojlanish tendensiyalari……702
Рузиқулов Абдулла. Номарказлаштириш жараёнида рақамли технологияларнинг роли……707
Saatova Zulayxa Ochilovna. Genetik manipulyatsiya va yoshlarning ijtimoiy faolligi: bioaxloqiy ongning shakllanishi va ijtimoiy xavflar……712
Izzatilloyeva Sabina Ilhom qizi, Saidova Habibaoy Sherzod qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish yo‘llari……716
Саиткасимов Акбар. Адолат тамойилининг инсон моддий ва маънавий эҳтиёжларини таъминлашдаги конструктив аҳамияти……720
Saparova Surayyo Baxtiyor qizi, Salomlashuv va xayrlashuv nutqiy akt birliklarining lingvopragmatik birlik sifatidagi talqini……722
Saxlayeva Aziza. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi……726

Kudeshova G. Seytnazarova Gulmira. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……729

Shamieva Nargiza Abdusattarovna, Tulegenova Jazira. Artificial intelligence in education: prons and cons……731

Shamsiddinov Orifjon Firuzovich. Ta’lim tizimida korrupsiyani oldini olish: halollik va odob-axloq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari……734

Шарипов Абдурашид Базарбаевич. Цель и направленность военно – патриотической работы в организациях и учреждениях……736

Sharipov Sherzod Shamsiddinovich. Ta`lim jarayonida o`quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishning zamonaviy usullari……741

Shavkatova Shaxrizoda. Talabalarning siyosiy ijtimoiylashuvi va fuqarolik ongini shakillashtirishda ta’lim muassasalar o‘rni……743

Maxamatdinov Shaxabatdin. Event menejmentning nazariy asoslari va zamonaviy konseptual tushunchalari……746

Sherikbayeva Durdona Bahodir qizi. Tarbiya fani orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish……748

Shodmonqulova Dildora Toshpulatovna. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy immunitetini kuchaytirish omillari……750

Shomurodov Alijon Turayevich. Ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashda nodavlat oliy ta’lim muassasalarining o‘rni……753

Шукуруллаева Гулчехра Насруллаевна. Перспективы исследования взаимосвязи дисциплинарных наказаний с социально-нравственной средой……756

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna, Soatova Barno Sherali qizi. Global madaniy ta'sirlar sharoitida o‘zbek bolalarida ma'naviy qadriyatlar……760

Соатова Нигина Камол кизи. Информационно-коммуникационные технологии, медиапространство и духовная безопасность……762

Sobirjanova Munisaxon Fazliddin qizi. Ta'lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirish masalalari……764

Sodikjonova Mahliyo Abduvahhob qizi. Talabalarni kompyuter grafikasi vositalari asosida estetik tafakkurni rivojlantirishning bugungi kundagi zarurati……766

Sodikjonova Mahliyo Abduvahhob qizi. Kompyuter grafikasi vositalari asosida estetik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari……769

Solijonova Zebo Miraxmad qizi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media makon va ma’naviy xavfsizlik……772

Sotvoldiyeva Mushtariybonu. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media makon va ma’naviy xavfsizlik……773

Sulaymonova Hamidabonu Toshpo'lotovna. Til ta’limida aralash ta’lim: O’zbekistonning pandemiyadan keyingi kontekstida imkoniyatlar va qiyinchiliklarni tahlil qilish……776

Suleymanov Baxoriddin Jumanazarovich. Akademik litsey o‘quvchilarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik talqini……780

Султонов Фозил Хожиевич. Миллий ва диний қадриятларни давлатнинг ижтимоий-маънавий ривожланишидаги ўрни……782

Sultonov Fuzayl Dilshod o‘g‘li. Globallashuv sharoitida yoshlar ma‘naviyatining o’rni……786

Tashanov Abduxoliq. Buzg‘unchi g‘oyalarning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolari……789

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich. Yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni……794

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich, Botirjonov Muhammadzoxid Muxammadmansur o‘g‘li. Raqamli media makonda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash: tahdidlar va zamonaviy yondashuvlar……796

To‘laboyeva Shoira Abdulxamidovna. Sun’iy intellekt va yoshlar sadoqati: zamonaviy falsafada ishonch, vafodorlik va axloqiy mezonlar tahlili……799

Qodiraliyeva Ijobat Baxromjonovna, To’layev Begzod. Taraqqiyotimiz rivojlanish davri……805

Tojiboyeva Maftuna Turabjon qizi. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati……807

To’rayeva Laylo. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati……810

Toshmurodov Mirolim Ismoil o‘g‘li. Jamiyat boshqaruvida gender diskriminatsiyasining oldini olishning ijtimoiy-falsafiy asoslari ……812

Tulishov G‘olib Ravshanovich. Jamiyat rivojiga raqamli transformatsiyaning ta’siri va uning falsafiy talqini……818

Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi. O‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l frazemalarida ma’naviy va madaniy qadriyatlarning ifodalanishi……820

Turopov Y.Sh. Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida migratsion jarayonlarning axloqiy muammolari……824

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna. Muzeylarda estetik va ma’naviy idrokning shakllanishi……828

Tursunova Feruza Tursunovna. Media makon va yangi ijtimoiy qadriyatlar: sun’iy intellektning axloqiy me’yorlar shakllanishidagi roli……832

Tursunova Laylo. Tilab Mahmudov qarashlarida estetik immunitet yaratish tamoyillari……834

Tursunova Olmos Fayziyevna. Ma’rifatparvar Behbudiyning merosi mahalla yoshlari ma’naviy tarbiyasining asosi……839

Tuvalboyev Adhamjon Bahodir o‘g‘li. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati……841

Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi. Давлат бошқаруви тизимида нотиқлик маҳоратини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари……843

Umarov Ibrohim Jamshid o‘g‘li. Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyati….845

Умаров Хайрулла. Миллий манфаатларни негизида ахборот мафкуравий хавфсизликни таъминлаш масалалари……848

Umarova Feruza Roziboyevna, Amirov Avazbek Kamiljon o’g’li. Globallashuv va barqaror rivojlanish sharoitida tuproq va o’simliklarni ekologik muhofaza qilish masalari……..855

G‘aniyev Doniyor Musurmonovich, Umirova Sevinch Qahramon qizi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobilyatini rivojlantirishda matematika fanining o‘rni……..857

Munavvar Baxtiyorova Baxtiyorovna, Gulsevar Umirzoqova Azizbek qizi. Tarbiyachining shaxsiy madaniyati va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasiga ta’siri……..859

Umrzoqova Odinabonu Shuhratjon qizi. Globallashuv davrida talim tarbiyaning ahamiyati va o‘rni……..862

Usmanova Dilnura Ikrom qizi. Ta’lim tizimi, madaniy muhit va oilada yoshlar tarbiyasini shakillantrish masalalari……..864

Usmonov Muzaffar. Malaka oshirish jarayonida innovatsion texnologiyasi asosida tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish asoslari……..865

Usmonova Shoxsanam Shavkatovna. Yoshlar tarbiyasida milliy harakterning o‘rni……..867

Utayeva Sitora Malik qizi. Получение нанокомпозиций полианилина с tio2 и графеном и изучение их свойств……..870

Xakimjonov Azamat Erkin o‘g‘li. Abdulla Avloniy qarashlarida ta’lim va tarbiya masalalari……..875

Karimov N. Xakimov Anvar Ibroxim o‘g‘li. Globallashuv davrida axborot xurujlarini yoshlar ma’naviyatiga ta’siri……..878

Халилов Ойбек Юлдашевич, Ахадова Диёра Аваз кизи. Современноые подходы к метрологическому обспечению и развитию натциональной иетрологической инфраструктуры……..882

Хамдамова Муаззамхон Хамдам кизи. Развитие эмоционального интеллекта дошкольников средствами арт-терапии……..891

Xayrullayeva Nilufarxon A’zamjon qizi. Talabalarning innovatsion texnologiyalar asosida muloqot kompetentligini lisoniy-didaktik imkoniyatlari……..895

Xidirova Nigora Boxodirovna. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda pirls talablarining ahamiyati (4-sinf misolida)……..898

Xoldorova Rayhona. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash……..902

Xolliyeva Nilufar Otabek qiz. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati: transformatsiya va ma’naviy xavfsizlik masalalari……..905

Xolmirzoyeva Dilnoza Bahodir qizi. Globallashuv davrida ijtimoiy- madaniy o‘zgarishlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri: imkoniyatlar va tahdidlar……..910

Xudayberdiyev A.K. Ta’lim - jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni……..912

Xudoyberdiyeva Marhabo Abduqahhorovna. O’smir yoslarning bugungi kundagi kitobxonlik holati……..916

Xudaynazarov Samad Xudayberdievich, Jamalova Nargiza Ulug‘bek qizi. Globallashuv zamoni - yoshlar ma’naviyati va qadriyatlar……..919

Хужанов Тиллабек Келдибекович. Глобаллашув шароитида бола ҳуқуқларини таъминлаш масалалари……925

Xuramova Ungaloy Xolboyevna. Tarbiya jarayonida ma’naviy merosdan foydalanish bosqichlari (Imom Buxoriy misolida)……932

Xusainova Firuza Toxirovna. Lifelong learning – hayot davomida ta’lim olish shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirishining zaruriy sharti……936

Xushbaqov Dilmurod Qurbonmurodovich. Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishda oila –jamiyatning asosiy ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida……939

Yarashov Sarvar Norqul o‘g‘li. Globallashuv va raqamli texnalogiyalarning yoshlar ma‘naviyatiga ta‘siri……941

Yaxyoyeva Sarvinoz Hayotjon qizi. Enhancing EFL listening skills thourgh authentic learning materials……944

Yo’ldoshova Nafisa Izzatulla qizi. Global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar kontekstida yoshlar ma’naviyati…… ……947

Yo’ldosheva Nilufar Obidjon qizi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: islohotlar orqali inson huquqlari va huquqiy madaniyatning rivoji……949

Yuldashev Farrux Abduraxmanovich. Globallashuv jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirish va ekzistensial mohiyatning dolzarb masalalari……952

Юлдашев Ёрқин. Ёшлар маънавий-маърифий тарбиясидамаҳалла институтининг ўрни……954

Yuldasheva Nigora Baxodirovna. Globallashuv sharoitida jamiyatda qadriyatlarni saqlab qolishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari……957

Yuldosheva Dilrabo Otabek qizi. The role of modern information technologies in the education system and issues of ensuring the spiritual and educational development of the young generation……960

Юсупов Хуршид. Гуманитарные коммуникации Узбекистана в эпоху глобализации: межкультурные обмены и социальные проекты в сотрудничестве с ОАЭ, Саудовской Аравией и Катаром……961

Zafarjonov Nurmuhammad Zafarjonovich, Axmedov Eldor Toyirovich. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media makon va ma’naviy xavfsizlik: zamonaviy yondashuvlar va muammolar……966

Ziyodova Mahliyo Murodulla Qizi, Maxmudov G’ayrat. O’zbekistonda konfessiyalararo diniy bag’rikenglikning tarixiy tajribasi……968

Zokhidov Samandar Iskandar ugli. Psychological determinants of academic engagement among distance education students……972

Zubarjonov Odilbek Gayratbek o‘g‘li. Globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini oshirishda kitobxonlik madaniyatini o'rni……975

Нуруллаева Набира. Қорақалпоғистон хотин-қизларига яратилаётган имкониятлар: давлат сиёсати ва тарихий тажриба уйғунлиги……978